84(5Ö)12
Ö2-71

B. QOSIMOV

O‘ZBEK ADABIYOTI VA ADABIY ALOQALARI TARIXI







O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

BEGALI QOSIMOV

O‘ZBEK ADABIYOTI VA ADABIY ALOQALARI TARIXI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan

18244
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
Axborot-resurs markazi

TOSHKENT – 2008

B.QOSIMOV. O‘zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. – T.: «Fan va taxnologiya», 2008, 600 bet.

Marhum adabiyotshunos olim, O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor Begali Qosimovdan boy ilmiy, o‘quv-metodik asarlar meros bo‘lib qoldi. Bu meros orasida olim hayotining so‘nggi davrlarida tayyorlangan ushbu o‘quv qo‘llanma alohida o‘rin tutadi.

Millat, milliyat tushunchalari, ona Vatanga muhabbat tuyg‘usi olimning deyarli barcha asarlari mohiyatiga singib ketgan. Ushbu o‘quv qo‘llanma ham oliy o‘quv yurtlari talabalari qalbida shunday tuyg‘ularni tarbiyalashga xizmat qiladi, deb umid qilamiz.

Nashrga tayyorlovchilar: filologiya fanlari doktori **Nurboy Jabborov** va **Shohruh Qosimov**

Mas’ul muharrir: filologiya fanlari doktori **Bahodir Karimov**

ISBN 978-9943-10-131-9

© **«Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008.**

ILMDA QO'RIQ OCHGAN OLIM

Begali bilan tengdosh edim. Unutilmas do'stimni o'smirlik, o'spirinlik yillaridanoq yaxshi bilardim. Biz birga o'qidik, unib o'sdik. Ilm-ijod bobida baholi qudrat xizmat qildik. Kechagiday yodimda: biz u bilan birga olis Qashqadaryodan Toshkentga dorulfununga o'qishga keldik. Kirish imtihonlarini topshirib talaba bo'ldik. Hech esimdan chiqmaydi, Begali bilan ikkalamiz ham jussamiz kichik, nozik qaddi-qomatli o'spirinlar edik. Universitetning o'sha mahaldagi rektori ulug' olim akademik Obid Sodiqov bizlarga «Bolalarim, tag'in bir yil o'zlaringni jismoniy chiniqtirib kelsalaring yaxshi bo'lardi, hali judayam kichkina ekansizlar» deganlari hamon yodimda. Biz esa «Yo'q, domla, biz o'qigani keldik, o'qishga qurbimiz, quvvatimiz yetadi», deb turib olganmiz. Xullas, mana shu tariqa Toshkentday shahri azimda ijara uylarda turib, issiq-sovuq kunlarni birgalikda boshdan kechirib o'qidik, ta'lim oldik.

Begali kursimizning eng peshqadam, eng ziyrak, zehni o't-kir talabalardan edi. Bizga adabiyot tarixidan professor G'ulom Karimov domla dars berganlar. Hali 2-kurs vaqtimizdayoq (bu endi 59—60-yillarning gapi) domla Alisher Navoiydan baytlar aytib, kim sharhlab beradi, deb so'rardilar. Shunda Begali birinchi bo'lib qo'l ko'tarar va uning sharhlari juda mukammal chiqar edi. Domla rahmatli ko'zoynagini chakkaga qo'yib, Begalidan ko'p narsalarni so'rardi: qayerda o'qigan, qachon o'qigan. Domla Begali bilan muntazam fikrlashadigan, o'z savollariga javob so'raydigan bo'ldilar. Sababi, Begalining o'zida tug'ma zehn, uquv, o'tkir qobiliyat bor edi. O'qishni bitirmasimizdanoq Begali Qosimovni G'ulom Karimov domla o'zining haqiqiy shogirdi sifatida e'tirof etdi va Begalining jadid adabiyotini o'rganishiga, o'z rahbarligida ilmiy ish olib borishiga fotiha berdi. U vaqtlarda jadidchilik davri haqida nainki yozish yoinki jo'yali fikr aytish, hatto baralla gapirish ham mumkin emas edi. Chunki o'sha davr mafkurasi jadidchilikdan cho'chir edi. Sa-

babi, jadidchilik yangilik degani bo'lib, jamiyatni yangilash uchun bel bog'lagan o'zbek-turkiy ziyolilar harakati edi.

Shu boisdan ham Turkiston jadidlarining otasi hisoblanmish Mahmudxo'ja Behbudiy va keyingi bir qator shoir-yozuvchilar — Avloniy, Mirmuhsin Shermuhammedov, Tavallo, So'fizoda va boshqa ma'rifatparvar adiblarimiz ijodi u mahallarda o'rganilmagan, ular merosiga qo'l tekkizilmagan edi. Begali mana shu nihoyatda mushkul vazifani o'z zimmasiga oldi. Tariximizning o'ta murakkab va ziddiyatli sahifasini qunt va sabot bilan o'rgandi. Adabiyotimizning biz bugun baralla o'qib-o'rganayotgan katta bir bo'g'inini, yuzdan ortiq ijodkorlar merosini fanimizga, ilmimizga qaytarib berdi. Xalqimiz, yoshlarimiz Begaliday olim sharofati bilan bu merosdan bahramand bo'lmoqda. Lekin bu ish oson kechgan emas. Buning uchun Begali Qosimov bormagan kutubxona, izlamagan manba qolmadi. U bir qarasangiz Qozonda, bir qarasangiz Ufada, bir qarasangiz Peterburgda yoxud Ovrupo shaharlarida bo'lib, o'sha davr adabiyoti vakillariga tegishli materiallarni axtardi, topdi va ommalashtirdi.

Tadqiqotchidan tadqiqotchining farqi bo'ladi, albatta. Sababi, buning uchun qiyinchiliklardan cho'chimaslik va juda sinchkovlik barobarida benihoya teran tafakkur egasi bo'lishi ham zarur. Shu ma'noda, Begali Qosimov nainki o'zi o'rgangan davr adabiyotini, balki umuman jahon adabiyotini, falsafiy tafakkur tarixini keng qamrovli bilgan ulug' bir shaxs edi. U mumtoz adabiyot deysizmi, zamonaviy adabiyotmi, she'riyatmi, adabiy tanqidmi, hamma-hamma sohaga baravar qiziqardi. Ana shu qiziqish natijasi o'laroq milliy adabiyotimizning barcha davri bo'yicha yuksak saviyali tadqiqotlar yaratdi. Men rahmatli do'stimning mehnatkashligini nihoyatda qadrlaganimdan unga doim qoyil qolib, dilimdagi so'zlarimni izhor etganman. Har bir yozgan she'rimga Begalining fikrini, munosabatini bilishdan umidvor bo'lib turar edim.

Begali Milliy universitetimizda qirq yilga qadar dars berdi, yuzlab shogirdlar yetishtirib chiqardi. Kafedra mudiri sifatida Milliy uyg'onish davri adabiyoti deb atalgan alohida yo'nalishga asos soldi. Bu borada xalqaro ko'lamda e'tirof etilgan ilmiy maktab yaratdi.

Begali Qosimov ijodiga, ilmiy tadqiqotlariga nazar tashlasak, unda birorta ortiqcha so'zni uchratmaysiz. U so'zga o'ta

mas'uliyatli, so'z qadr-qimmatini teran his etar, shunga ko'ra istifoda qilar edi. Men hayotimda bunday halol, pok va to'g'ri so'z insonni juda kam uchratganman.

Istiqlol, mustaqillik davri hammamiz uchun katta imkoniyatlar, ijodiy ufqlar ochdi, albatta. Bu, ayniqsa, Begalining ilmiy faoliyatida yaqqolroq namoyon bo'ldi. Sababi, istiqlolgacha bo'lgan mafkura Begali Qosimov o'rgangan davr adabiyotini qabul qilishni istamas edi. Qabul qilganda ham, atrofga olazarak qarab, ishonqiramay munosabatda bo'lardi. Jadidlar va o'sha davrda yashagan ma'rifatparvarlar faoliyati zamirida albatta, ozodlik g'oyalari bor edi. Hurriyat, istiqlol orzusi barq urib turar edi. Ana shuning uchun ham ulardan cho'chishardi. Shu bois, istiqlol, mustaqillik davri Begali ilmiy ijodining yanada ravnaq topishi, kamolga erishuvi uchun bebaho bir imkoniyat berdi. Bu yillarda Begali tinimsiz samarali ilmiy tadqiqotlar olib bordi, ijod qildi. Keyingi davrlarda bizda, albatta, turli unvonlarga ega bo'lgan yozuvchilar, shoirlar, olimlar ko'p. Biroq jahon miqyosida e'tirof etilishiga ko'ra barmoq bilan sanarli shaxslarni ayta olishimiz mumkin, xolos. Shuning uchun Begali Qosimovning xorijiy mamlakatlarda juda chuqur bilimli, teran tadqiqotchi, ulkan olim sifatida tan olingani tahsinga sazovor. Begali Qosimov ijodidan, ilmiy ishlaridan chet ellik mutaxassislar ham eng ishonchli manba sifatida foydalanib keldilar va hozir ham shundoq.

Begalining «Izlay-izlay topganim», «Maslakdoshlar», «Salom kelajak», «Milliy uyg'onish» kabi qator yirik monografiyalari uning nechog'i ulkan ilmiy meros qoldirgani isbotidir. Bunday salmoqli tadqiqotlar, shubhasiz, uning olim sifatidagi mavqei nechog'li baland ekanini ko'rsatadigan hujjatdir. Ilm-fan rivojini shunday tadqiqotlar belgilaydi. Buni e'tirof etgan holda aytish kerakki, olimning faoliyatida darsliklarning ham ahamiyati ayrichadir. Chunki monografiyalar faqat muayyan soha mutaxassislari uchun mo'ljallansa, darsliklar kelajagimiz vorislari—avlodlar tarbiyasiga xizmat qiladi. Ne baxtki, Begali do'stim bu borada ham o'zidan o'chmas iz qoldirdi. Oliy o'quv yurtlari uchun «Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti» darsligi uning tashabbusi va rahbarligida yaratildi. U o'rta ta'lim maktablari adabiyot darsliklarining faol mualliflaridan bo'ldi. Jadid mutafakkirlari ijodi bevosita Begali Qosimovning sa'y-harakati bilan

o'rta va oliy ta'lim dasturlariga, darsliklariga kirdi. Bir olim uchun bular hazilakam ish emas.

Endi bu hayot degani ko'z ochib yumguncha o'tib ketar ekan. O'tmish shoirlari aytganiday, o'ngingdan chapingga boq-quncha bo'lmas yoxud Sa'diy ta'kidlaganidek, nafas chiqarsang ham shukr qil, nafas olganda ham shukr qil, chunki u nafasni chiqarolmasliging ham, qayta ololmasliging ham mumkin, de-gan gaplar ming yillar avval aytilib kelgan. Shu singari, odam hayotda, ya'ni tiriklik dunyosida lahzalik mehmonday gap ekan.

Afsus, mening do'stim, tengdoshim hayotni erta tark etdi, o'sha kunlarda men iztirob bilan bu bardoshli, ko'ngli pok do'stimni xotirlab, ko'p o'ylarga toldim:

Tonglarim tiyradir, oqshomlar purg'am,
Bir-bir ketayotir jo'ralarim ham.

Birovin yo'lini kasallik to'ssa,
Birovin yiqitdi g'am bilan g'ussa.

Boshiga tushsa ham qanchalik savdo,
Noshukr bo'lmadi ular, ajabo!

Men tiriklikka shukrona bilan qarasam-da, lekin odam dilida armon baribir so'nmaydi. Axir endigina qiyinchiliklarni yengib, katta ijod yo'liga chiqqanda karvonning birdan to'xtab qolishi... nainki alam qiladi, balki kishiga katta zarba bo'lib tuyuladi.

Men hayotning past-balandini ko'pchilik do'st-yorlar, og'aynilar faoliyatini kuzatib shunday xulosaga kelamanki, yashash bilan yashab o'tishning farqi katta. Kishi albatta, bir-biriga yorug'lik tilaydi. Bu tabiiy. Lekin umr yakunida odam o'ylab qolar ekan. Qanday yashading va sendan nima qoldi degan savol ko'ndalang bo'lib oldimizga chiqar ekan. Shu ma'noda, Begali juda mazmunli hayot kechirdi. U ilm zahmat-lari bilan birga mehnat nash'asini, olimlik sururini, zavqini to'la tatib ko'rdi. Eng muhimi, samarali ilmiy faoliyati bilan mil-latimiz kechmishi uchun, adabiyotimiz tarixi uchun yangi yo'llarni, o'rganilmagan qo'riqlarni ochishga ulgurdi. Shuning uchun ham Begalidan arzirli ilmiy meros qoldi. Bundan keyin

shu davrni o'rganadigan har qanday tadqiqotchi, har qanday olim Begali Qosimov merosiga, uning kitoblariga murojaat qilmasdan bir qadam ham qo'ya olmaydi. Uni aylanib o'tish mumkin emas. Shuning uchun uning kitoblari, nainki yoshlar va mutaxassislar uchun, balki ma'naviyatimizni qadrlagan barcha xalqimiz uchun bab-baravar qadrli, qimmatlidir.

Begali do'stimdan ajoyib yetuk farzandlar qoldi. Men ular bilan diydorlashganda do'stimning samimiy, ochiq chehrasini yana qayta ko'rganday bo'laman. Begalining o'zi ilm-fan ahli uchun ham, do'st-yorlari nazarida ham, ayniqsa, umrbod birgalikda o'sib ulg'aygan men kabi do'stlari yodida hamisha tirik, hamisha barhayotdir.

Abdulla ORIPOV,
O'zbekiston Qahramoni

O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTINING AYRIM NAZARIY VA AMALIY MASALALARI

Avliyolar sarvari

Bugungi Qozog'iston Respublikasining Chimkent shahridan Sharqqa qarab 12 chaqirim yursangiz, bobolarimizning qadim maskanlaridan bo'lgan Sayram ustidan chiqasiz. To'g'rida esa O'tror, Sig'noq, nihoyat «shayxul mashoyix» (shayxlar shayxi) Ahmad Yassaviy tufayli «Turkiston ahlining qiblai duosi» (Navoiy)ga aylangan Turkiston keladi.

Sayram sarhadidagi go'zal Mashat qishlog'ining tog' bag'riga cho'zilib kirgan o'ngirlaridan birida «Yig'loq tosh» degan manzil bor. Bahaybat qoyatosh yon-atrofidan oqib chiqib pastdagi soyga qo'shilib ketadigan buloqlar ustida o'ychan egilgan. Peshonasida shamol o'ynaydi. Ko'ksida anvoyi giyohlar barq uradi. Lekin sonsiz-sanoqsiz «ko'z»laridan bir maromda «yosh» quyiladi.

Tosh bag'ridagi butalar ustida tugilgan tugunchalar. Qanchadan-qancha orzular, armonlar. Bu yerdan ziyoratchilar oyog'i uzilmaydi. Tabiatning o'z bag'rida vujudga kelib, uning mumtoz bir bo'lagiga aylangan va e'zozga, mehrga sazovor bo'lgan, barcha umidli kishilarning ko'ngliga imdod va tasalli berguvchi bu xarsangtosh beixtiyor ulug' mutafakkir va mutasavvif Ahmad Yassaviy taqdirini esga tushiradi. U shu yerda tavallud topgan edi. Sayramdagi Qirmozorga borsangiz, shu yerlik har bir kishi uning otasi shayx Ibrohim qabrini adashmay ko'rsatib bera oladi.

Yassaviy maqbarasi esa Turkistonda.

Shaharga kirmasingizdanoq maqbaraning mahobatli ikki gumbazi bilan peshtoqi ko'zga tashlanadi. Mutaxassislar aylanma gumbazlarning bino bo'lishini Sharqning azaliy udumlaridan tavof bilan bog'laydilar. Ka'baga kelganlar «hajarul asvad» atrofida aylanib ziyorat qilar ekanlar. Bu aslida umuminsoniy bo'lib,

osmon yoritgichlarining aylanma harakatiga taqliddan kelib chiqqan ekan (qarang, har kuni so'zaro ishlatiladigan «aylanay», «aylanib ketay»da qancha ma'no bor).

Temur tarixchilaridan mashhur Sharofiddin Ali Yazdiy jahongirning Ahmad Yassaviyga alohida ixlos qo'yganini, hazrat qabri ustida gumbazining balandligi 30, aylanasi 41 gazlik muazzam maqbara qurish haqida farmoni oliy berganligini ma'lum qilgan edi. Chindan ham maqbara ulug'vor. Garchi uning qurilishi 90-yillarning so'nggida boshlangan bo'lsa-da, u ancha uzoq qurilganini, Temur vafotidan so'ng bitkazilganini xabar qiladilar. Maqbaraning old eshigi yong'oq daraxtidan yasalgan bo'lib, qimmatbaho toshlar bilan ziynatlangan edi. Ular, tabiiyki, keyingi 100—150 yil ichida ko'chirib olingan.

Yon yo'lakdan hujra orqali ichkari kiramiz. «Qozonlik» deb atalgan keng xona. O'rtada yaqinda Ermitajdan qaytarib olingan qirq quloqli qozon. U ilgari ham shu yerda turgan. 1399-yilda Temurning farmoni bilan usta Abdulaziz tomonidan qo'yilgan ekan. Devorda maqbaraning daxlsizligi va vaqf xarajatlari haqidagi Temur farmonidan ko'chirma.

Temurning nabirasi buyuk munajjim sulton Ulug'bekning Robiya sultonbegim ismli qizi ham shu yerga dafn qilingan. Jahongirning o'zi esa 1402-yilning boshida mashhur Rum safari oldidan Turkiston shayxlaridan tumor yozdirib ketgani ko'pgina tarixiy asarlarda naql qilinadi.

Keng markaziy xona «Qozonlik»dan to'g'riga yurasiz. Eshik oldida kichik sahn. Yuqorisida jahongir Temur tug'i egilib turibdi. Ichkarida qabr. Ustida noyob nefrit toshi...

Hazrat Navoiy uni «Turkiston mulkining shayxul mashoyixidir», — degan edi. Maqomi oliy va mashhurligini, karomati cheksiz hamda hayratlanarli ekanini ta'kidlab, «murid va ashob g'oyatsiz va shohu gado aning irodat va ixlosi ostonida nihoyatsiz ermish», — deb yozgan edi. Hozir ham deyarli shunday. Ziyoratchilar qadami uzilmaydi. Kimki pok niyat bilan kelgan bo'lsa, albatta ijobat bo'ladi, hazrat har kimning tilaganini beradi, deydilar.

Qanday sir, qanday sinoat bor unda? Salkam to'qqiz asrdan buyon u shohning ham, gadoning ham ko'nglini band qilib keladi. Kishilar bu qabr oldida hech kimning huzurida egmagan boshlarini egadilar. Hech kimga ochmagan ko'ngillarini ocha-

dilar. Sidqidildan o'tinib madad tilaydilar. To'qqiz asrda davron necha marta aylandi. Qancha avlod kelib ketdi. U sobit turibdi. Unga e'tiqod deyarli o'shanday. Kuchaygan bo'lsa borki, pasaygan emas. Qiziq, uning kuchayganini ham, pasayganini ham jamiyat tez payqaydi. Bildiradi, deydilar keksalar.

Ehtimol, shu sir-sinoati bilan ham u ulug'vordir. Fakt shuki, Yassaviy ma'naviyatimiz, madaniyatimiz, shu jumladan, adabiyotimiz tarixining asrlardan beri tan olib kelingan va kelinayotgan hodisasi. Uning ayrim jihatlari bilan kelishmaslik mumkin, lekin inkor etib bo'lmaydi. Bugun bu narsa juda ayon. Uni aylanib o'tib bo'lmaydi. Aylanib o'tilgan joyda yolg'on paydo bo'ladi. Sovet davri tariximiz bunga guvoh. Yassaviy mutasavvif shoir. So'fiylik Sharq ma'naviyati — madaniyatining jon tomirlaridan. U o'z hikmatlarida faqirlikka alohida urg'u beradi. Faqirlikni ilohiylashtiradi. Hadisdagi «al faqru-faxriy» — «faqirlik faxrimdir» degan Muhammad payg'ambar tilidan aytilgan gap bilan bog'laydi.

Navoiy «Nasoyimul muhabbat»da so'fiylar haqida so'z yuritib, bu toifaning eng muhim a'mollaridan deb tavbani ko'rsatadi. Shunda haq taolo barcha manhiy ishlardan, ya'ni man etilgan narsalardan hazar qilishni ko'ngilga solar ekan. Nihoyat, «luqma hilliyati», ya'ni har kimning o'z mehnati bilan kun ko'rishi, luqmani halollab yeyishi lozim ekan. Darhaqiqat, juda ko'p shayxlar biror kasb egasi bo'lganlar, mehnat qilib non topganlar. Abdulla Ansoriy etikdo'zlik qilgan. Shayx Xaddod— temirchilik, shayx Xabboz — novvoylik. Bahovuddin Naqshband, Amir Said Kulollarning nomlari ham kasblarini aytib turibdi. Ahmad Yassaviy hikmatlarida dehqonligiga ishoralar bor.

So'fiylikda rostlikni, poklikni baland tutganlar. Ko'ngil bilan til birligini qadrlaganlar. «So'fiy yo'lga rostlik birlan qadam qo'ysa kerak va rost so'zlasa kerak. Zeroki, ko'ngul tilga xabar berur» deyiladi «devoni hikmat»da.

Nizomiy Ganjaviyning «Haft paykar»ida shunday hikoya bor: Sulaymon bilan Bilqisdan qo'l-oyog'i shol farzand bino bo'libdi. Ikkovlari Jabroil alayhissalomga murojaat qilibdilar: birimiz payg'ambar, birimiz pari bo'lsak. Bizdan dunyoga kelgan farzand bunday bo'lsa... Sharmandai ro'siyoh bo'ldik.

Bir-biringizga to'g'risini so'zlang, bola tuzaladi, — debdi Jabroil.

Sulaymon so'rabdi:

mendan boshqaga hech ko'ngling ketganmi?

Bilqis javob beribdi:

nimasini aytay, garchi dunyoda sendan chiroyli, sendan aqlli, sendan kuchli kishi bo'lmasa-da, yoshroq yigitlarni ko'rganimda xayolim buzilgan vaqtlar bo'lgan, — debdi. Bola birdan ikki qo'lini cho'zib onasiga talpinibdi.

Navbat Bilqisga kelibdi:

— birovga hech xolis, beminnat yaxshilik qilganmisiz? — so'rabdi eridan;

— mendagi davlat dunyoning hech yerida, hech bir kishisida yo'q. Bu mol-dunyoning sanog'i ham, adog'i ham yo'q, — debdi u. — Shunga qaramay biror ish yo'qki, tama'siz qilgan bo'lsam.

Chaqaloq o'rnidan turdi-yu, chopqillab ketdi, deyiladi hikoyatda.

Har qancha achchiq bo'lsa ham rostlik kerak, deydi bu tariqat.

Ahmad Yassaviy she'rlarida juda ko'p mutasavvif shoirlarda bo'lgani singari harom-halol qayta-qayta tilga olinadi. Uning e'tiqodi: faqat o'z mehnati bilan tirikchilik qilish, faqat o'z mehnati haqiga qul bo'lish, boshqasi uning uchun harom. U haromdan eng jirkanch narsadan hazar qilganday hazar qiladi. Haromxo'rlikni hech narsa bilan yuvib bo'lmaydigan, gunohi o'sha odamning o'zigagina emas, oila, bola-chaqalariga ham albatta uradigan baloyi azim deb biladi. Bunda chuqur ichki mantiq bor. Mehnatsiz kelgan boylik har qanday kishini, har qanday oilani buzadi, har qanday muqaddas ne'matni qadrsizlantiradi. Jamiyatimizdagi tanazzulning boshi mana shunga o'xshagan azaliy va abadiy haqiqatning buzilganidan emasmi?

Yassaviy shuhrati, ayniqsa, turkiy dunyoda keng yoyilgan, Chinmochindan, Sharqiy Turkistondan Azoqtana deb nomlangan Azov dengizi qirg'oqlarigacha, usmonli turklaridan o'rta Volga bo'ylarigacha tarqalgan edi. XIV asr usmonli turklarining hassos shoiri Yunus Emro Yassaviyni o'ziga ustoz bildi. XVII asrda yashagan iste'dodli tatar shoiri Mavlo Qulining «Devon»-idagi she'rlar aksariyat «Devoni hikmat» yo'lida yozilgan edi.

Asrimizning mashhur olimlari akademik V.V.Bartold, Muhammad Fuod Ko'pruluzoda uning bashariy shuhrati haqida

yozgan edilar. Bugungi ingliz sharqshunoslaridan J.Brimengem o'zining rus tiliga tarjima qilingan «Суфийские ордены в исламе» («Islomda so'fiylik mazhablari») kitobida Ahmad Yassaviy va uning izdoshlariga keng o'rin ajratadi.

Rus sharqshunoslik fanida ham ayrim ishlar amalga oshdi. Uning «hikmat»laridan ayrim namunalar 200 jildli «Jahon adabiyoti kutubxonasi» tarkibiga (55-jild) tarjima qilib kiritildi. 9 tomlik «Jahon adabiyoti tarixi» kitobining 2 jildida (M. 1984) «Qadim turkiy adabiyot bobini yozgan I.V.Stebleva Yassaviy haqida alohida to'xtaldi (203—204-betlar). U haqda yozuvchi Aleksey Braginning «Третье рождение» («Uchinchi tavallud», Olma-ota, 1984 y.) nomli qissasi maydonga keldi va hokazo.

O'zbek sovet adabiyotshunosligida Yassaviyni o'rganish 20-yillardan boshlangan. 1922-yili tatar adabiyotshunosi Abdurahmon Sa'diy «Inqilob» jurnalining 5-sonida maqola e'lon qilgan, lekin ilk jiddiy tadqiqotni 1927-yilda Abdurauf Fitrat amalga oshirgan edi. Jumladan, «Maorif va o'qituvchi» jurnalining 1927-yil 6-sonida katta bir maqola bilan chiqib, «Yassaviy kim bo'lgan?!» degan savol qo'ygan va shoir muhiti, falsafasi, «Devoni hikmat»i va uning adabiy qimmati xususida so'z ochgan edi. Muallif nodir iste'dodiga qaramay, o'sha yillari tomir ota boshlagan partiyaviy monopolistik nuqtai nazarning iskanjasidan uzoq keta olmagan edi.

30-yillarda bu ham to'xtadi. So'ng esa uning hikmatlaridan reaksion g'oya izlash boshlandi. Bu musobaqada katta-kichik hamma ishtirok etdilar. 70-yillarda professor Ergash Rustamov Yassaviy g'oyalarining reaksion emasligini isbotlashga urindi. Biroq zamon buni ko'tarmadi. Uning ustiga shoir she'rlarining o'z obrazlar sistemasida tekshirish imkoni bo'lmaganligi pand berdi. Tadqiqotchi tanqid ostida qoldi. Nihoyat, zamon aylanib, demokratiya tantana qilib, yurtimiz istiqlol oldi. Yangi avlod yetishdi. Adabiyot hodisalarini xos xususi-yatlaridan kelib chiqib o'rganish, jumladan, Yassaviy ijodini Sharq falsafasi, estetik tafakkuri matnida tekshira oladigan mutaxassislar paydo bo'ldi. Uni o'rganishning ham obyektiv, ham subyektiv imkoniyati yuzaga keldi.

1990-yil 22—27-oktabr kunlari Chimkent viloyatiga qarashli Kentov shahrida YuNESKOning «Buyuk ipak yo'li bo'yidagi madaniy aloqalar» dasturi doirasida «Yassaviy olami» mavzuiga

bag'ishlangan xalqaro davra suhbati bo'lib o'tdi. U. Qozog'iston fanlar Akademiyasining turkologiya markazi, Jumhuriyat Yozuvchilar uyushmasining badiiy tarjima va adabiy aloqalar bosh tahririyat kengashi, Olma-ota, Istanbul va Saljuq dorulfununlari tashabbusi bilan tashkil qilindi. Anjumanda Turkiya, Amerika, Fransiya, Italiya, Germaniya, Polsha singari xorijiy mamlakatlardan, Rossiya va Qozog'istondan taniqli olimlar qatnashdilar. Mehmonlar Yassaviy qadamjolari bilan tanishdilar. Uning zamonasi, shaxsi, ijodiy merosi masalalariga doir 40 dan ortiq ma'ruza tinglab, muhokama qildilar. Davra suhbatida O'zbekistondan bir guruh ijodiy xodimlar, jumladan, shoir va yozuvchi Muhammad Ali, Tohir Qahhor, Buxoro Davlat pedagogika instituti professori, o'zbek tili kafedrasi mudiri H.Ne'matov va kamina ma'ruza bilan qatnashdilar.

Anjuman bir qator qarorlar qabul qildi. Chunonchi, Yassaviy hayoti va ijodini o'rganish bilan bog'liq masalalar doirasini belgilash, adib asarlarining tanqidiy matnini tayyorlash, kutubxonasini barpo etish, nomida xalqaro mukofot ta'sis etishga erishish, maqbarasini YuNESKO ro'yxatiga kiritish, ushbu xalqaro davrani muntazam o'tkazib turish, 1993-yilni Yassaviy yili deb e'lon qilish va hokazo. Shuningdek, Yassaviy hayoti va ijodini o'rganish ishlarini uyushtirish va boshqarish uchun 7 kishilik xalqaro qo'mita tuzildi. Istanbul dorulfununi turk tillari va adabiyoti kafedrasining mudiri taniqli yassaviyshunos professor Kamol Er-Aslon komitet mutasaddisi qilib saylandi. Komitet tarkibida Fransiyaning Strassburg universiteti turkologiya kafedrasining mudiri, professor Iren Melikof xonim, taniqli turkologlar moskvalik E.R. Tenishchev va T.D. Melikov, Olmaotalik professor Erden Qajibekovlar bor edi.

Anjuman Yassaviy olamining keng ko'lamda tadqiq va targ'ib etilishida, shu jumladan, uning ijodiy merosining tugal va aslicha o'z egalariga, xalqqa qaytarilishida yangi davrning boshlanayotganligiga kishini ishontirdi. Darvoqe, u o'zining ilk samaralarini berdi deyish mumkin. Ma'lum bo'lishicha, Yassaviy vatani Turkistonda dorulfunun ochilgan va unda ilohiyot fanlari ham o'tilmoqda.

Yassaviy ijodini o'rganishda Turkiyada anchagina ishlar qilingan. Asrimizning 20-yillarida Muhammad Fuod Ko'pruluzoda «Turk adabiyoti tarixi», ayniqsa, «Turk adabiyotida ilk

mutasavviflar» kitoblarida uning «Devoni hikmat»i haqida to'xtalib, Fitrat 1927-yilda kelgan xulosani quvvatladi. Yassaviyshunoslikning eng muhim muammolaridan biri Yassaviyga nisbat berilgan hikmatlarning qanchasi unga tegishli ekanligini aniqlashdir, deb yozdi. Fitratda o'qimiz: Bugun «Devoni hikmat»lardagi parcha haqiqatan Yassaviynikimi? Undan so'ngra davom etgan shogirdlari, muridlari buning otig'a ba'zi parchalar yozib tarqatmadilarmi? Bugun «Devoni hikmat»ning hammasi, hech bo'lmaganda bir qismi so'ng zamonda yetishgan mana shunaqa shogirdlarning asarlari emasmi? Bugun ilm dunyosida ma'lum «Devoni hikmat»ning Yassaviy zamoniga yaqin bir zamonda yozilg'on biror nusxasi topilmaguncha bu shubhalarni yo'qotish mumkin emas. Bu shubhalar yo'qolmaguncha tekshirishdan ilmiy bir natija chiqmaydi».

Bugun turkiyalik muhtaram hamkasabalarimiz xususiy suhbatlarda «Devoni hikmat»ning XVI asr nusxalari haqida gapiradilar. Hikmatlari adadini 250 deb ko'rsatadilar. Bu — katta gap. Umidvormizki, bu manbalar, hikmatlar matni turkiyalik hamkasblarimiz himmati va jumhuriyatlarimiz madaniy hamkorligi yordamida o'zbek adabiyotshunosligi faniga ham yetib keladi va o'zbek yassaviyshunosligida muhim sahifa ochadi.

Ikkinchi tomondan, turkiyalik hamkasblarimiz ham devondagi hikmatlarning ko'pchiligi Yassaviyning izdoshlari, turli zamonlardagi darveshlar tarafidan bitilganini yashirmaydilar. Chunonchi, so'nggi o'n yil ichida «shayxul mashoyix» hikmatlarini ikki marta nashr qilgan Kamol Er-Aslon yozadi: Ahmad Yassaviy hikmatlari ichidan joy olib kelayotgan «Devoni hik-mat» aslida Ahmad Yassaviydan necha asr so'ng Yassaviy darveshlari tomonidan tartib qilingan hikmatlar to'plamidir. «Devoni hikmat»ning ba'zi nusxalaridan Ahmad Yassaviyning hikmatlari bilan birga Yassaviy darveshlarining ham xuddi shu shaklu shamoyildagi hikmatlari uchraydi. Ularda Ahmad Yassaviyga aloqador taxalluslar qo'llanishi, ba'zi birlarida shayxning xalifa va muridlari haqida so'z yuritilishi yoxud undan bir necha asr keyin yashagan shaxslarning tilga olinishi bu hikmatlarning aslligiga shubha tug'diradi, bulardan qay birining Ahmad Yassaviyga tegishliligini isbotlashni qiyinlashtiradi. (Ahmad Yassaviy, «Devoni hikmat»dan namunalar, Anqara, 1991, Muqaddima, 5 bet).

Holbuki, bularsiz yassaviyshunoslikning eng muhim, eng asosiy masalasi hal bo'lmaydi. Bu o'zbek yassaviyshunosligining ham bugungi eng dolzarb masalalaridandir. Buni ham hal qilish kerak. Bunda ham hamkorlik zarur bo'ladi. Shoirning «To'rt ming to'rt yuz hikmat aytdim haqdin farmon» yoki «To'qson to'qqiz hikmat aytib doston qildim» degan satrlaridan ilmiylik izlamasligimiz lozim, albatta.

Hozirda bizda Yassaviy hikmatlarining ikki nashri amalga oshdi. 1991-yilda I.Haqqulov Kamol Er-Aslonning 1983-yilgi «Devoni hikmat»dan namunalar»i asosida 70 tacha hikmatini bostirdi. 1992-yilda Rasulmuhammad Abdushukurov va Mahmud Hasaniylar devonning 1836-yilgi Qozon bosmasi asosida uni nashrga tayyorladilar. Keyingisi 150 hikmatni o'z ichiga oladi. Eng muhimi, hikmatlarning turli nashrlarini, qo'lyozma nusxalarini to'plab, solishtirib o'rganayotgan mutaxassislar ko'paymoqda. Shuningdek, Yassaviy ma'naviy olamiga ko'z tashlash, tariqati bilan yaqindan tanishish va tanishtirish, hikmatlari haqida malakali so'z yuritishga urinish sezilayotir.

Ma'lumki, Yassaviy «jahriya» tariqatiga asos soldi. «G'iyos ul-lug'at»da bunga shunday izoh berilgan: «Jahr — oshkoro kardan va ovoz baland kardan dar xondan» (oshkor qilmoq va baland ovoz bilan o'qimoq).

Bunga uning hikmatlarida ham ishora bor. Chunonchi, «Devoni hikmat»dagi «Munojot»da shunday satrlar bor:

Mani hikmatlarim ko'blarg'a ayting,
Duo takbir qilib rahmatga boting.
Agar hikmat o'qusa ayuhannos,
Erur farzand manga ul tolibi xos.

Shoir «takbir»ga, «hikmat»larini «ayuhannos o'qish»ga da'vat etyapti. Boshqacha aytganda, darveshlikni, qalandarlikni asosiy vositalardan bilyapti. Turkiston tarixida darveshlik-qalandarlikning qanchalar keng yoyilgani hammamizga ma'lum. Shunisi ham ma'lumki, ular xalqning keng qatlamlari o'y-istaklarini ifoda etgan, xususan, mol-dunyo, davlatu saltanat, kibr-havo, manmanlikni tark etib, faqirona umr o'tkazishga so'zda va amalda harakat qilganlar. Zamonlarida u davrning eng ilg'or harakatiga aylangan. Atrofiga eng sog'lom kuchlarni yiqqan.

Jumladan, 1898-yilgi Andijonda yuz bergan Muhammad Alixon boshchiligidagi milliy ozodlik qo'zg'olonining harakatlantiruvchi kuchlari qalandarlar edi. Ularning tilida faqat Allohning hamdu sanosi emas, har qanday zo'ravonlikka qarshi isyon ham bor edi. Bunda Yassaviy-Mashrab she'riyati muhim rol o'ynadi. Bejiz emaski, chor hukumati mana shu 1898-yilgi qo'zg'olonda faol ishtirok etganligi uchun qalandarlikni rasman taqiqlagan edi.

So'fiylikning jamoa uyushmasi hisoblangan qalandarlikning rasmi taomili afsuski bizda o'rganilgani yo'q. Aksincha, uzoq yillar masxara-tanqid uchun xizmat ettirib kelindi. Holbuki, uning o'z tartib-udumi, qat'iy qonun-qoidalari bo'lgan va ularga amal qilish shart hisoblangan. Masalan, XIX asrning ikkinchi yarmida Toshkent va uning atrofidagi qalandarlikning rasm-taomilini «Toshkent shoirlari» tazkirasining muallifi Mo'minjon Toshqin shunday ko'rsatgan edi: Pirga qo'l berib, muridlikni zimmasiga olgan har bir kishi to'rt qoidaga amal qilishi shart bo'lgan:

sirpo'sh — o'zganing sirini ochmaslik;

xomush — kamgaplik;

zarpo'sh — har qanday achchiq gapni yutish;

faromush — har qanday vaziyatda ham og'irlik, o'ch olishga urinmaslik.

Bu to'rt shart qabul qilingach, unga kisvat-kiyim berilgan. Kisvat asosan quyidagilardan tarkib topgan:

Shaydoyi degan uchi burma do'ppi. Uning atrofiga «Illo fato, illo Ali yo sayfullo zulfiqor, har baloyi pesh oyad daf kun parvardigor» yozilgan bo'lar ekan.

Chiltor. Shaydoyi ustidan o'raladigan shokila-shokila salla.

Kuloh. Ikki-uch yildan keyin berilgan. Osti namat, usti duxoba. Tuya junidan shokilalari bo'lgan.

Kamar. Osti namat, usti duxoba. Tevaragiga «Kamar bastam ba nomi Shohimardon, dili g'amnok moro shohigardon» yozilar ekan.

Janda. Tajribali, besh-olti yillik qalandarlarga berilgan.

Kashkul — xayr yig'adigan idish.

Matbag' (qovoq) — nazr, shamlar solingan.

Rido — qo'ltiqdan o'tkazib bo'yinga bog'lanadigan xalta. (Ko'pincha xudoyi nonlar solingan).

Sangi qanoat (belga osiladigan tosh).

Eshoni murshidning iqtisodiy xo'jalik sohasidagi ishlarini ko'pincha qolib mansabida bo'lgan sarkori— o'rinbosari olib borgan. Toshkentdagi qalandarlarning XIX asrdagi eng mashhur piri murshidi Sayfiddinxonto'ra degan kishi bo'lgan ekan.

Shuningdek, Yassaviy hayotini o'rganish bilan bog'liq masalalar ham kun tartibida turibdi. Uning hayot yo'li ko'p o'rinlarda afsona va rivoyatlar bilan aralashib ketadi. Chunonchi, qator manbalarda 1166-yilda vafot etgani qayd etilgani holda 63 yoshdan keyin yer ostida yashagani naql qilinadi.

Kamol Er-Aslon 1991-yili nashr etgan kitobida Yassaviy hayotiga oid bir qator ma'lumotlar keltiradi. Chunonchi, uning otasi shayx Ibrohim Hazrat Ali avlodidan. Onasi Oysha xotin (bizda ko'proq Qorasoch ona nomi bilan mashhur) ismli ayol bo'lib, Shayx Ibrohimning xalifalaridan Muso shayxning qizidir. Ahmad ikkinchi farzand. Undan kattasi qiz bo'lib, ismi Javhar Shahnoz. Yetti yoshlarida dastlab onasi, so'ng otasi vafot etgan. Ahmad mana shu opasi qo'lida tarbiya topadi. Ko'p o'tmay, Javhar Shahnoz ukasini olib Yassiga ketadi. Yassida yosh Ahmad Arslonbobni uchratadi. Undan o'ziga atalgan xurmoni so'rab oladi. Arslonbob Ahmadni tarbiyalaydi. Ahmad ustozi vafot etgach, Buxoroga yo'l oladi. Mashhur mutasavvif Yusuf Hamadoniy (1048—1140) qo'lida o'qiydi, undan zohiriy va botiniy ilmlarni, «nazar ilmi»ni o'rganadi. Shayxning uchinchi xalifasi darajasiga ko'tariladi. Yusuf Hamadoniy vafotidan so'ng, bu yuksak irshodni Abduholiq G'ijduvoniyga qoldirib, Yassiga qaytadi va 1166-yilda vafot etadi.

Shoirning necha yil umr ko'rganligi haqidagi gaplar hanuz bahsli. Uning 120, 125, 133 yil yashaganligi haqida rivoyatlar bor (hatto shu kunlarda e'lon qilinayotgan maqolalarda ham Yassaviyning tavalludini goh 890, goh 900, goh 910 deb ko'rsatish mavjud). Kamol Er-Aslon ayrim manoqiblarga suyanib, uning 83—84 yil yashaganini haqiqatga yaqin hisoblaydi (Binobarin, gap uning 910 yilligi haqida ketyapti).

Tadqiqotchi keltirishicha, Ahmad Yassaviy o'g'lining ismi ham Ibrohim bo'lgan, biroq yosh vafot etgan. Undan ikki qiz qolgan bo'lib, biri Javhar Shahnoz, ikkinchisining ismi esa Javhar Hushnoz bo'lgan ekan. «Piri Turkistoniy» (F.Attor)ning jami avlodi mana shu Javhar Shahnozdan tarqalgan.

NAMANGAN DAVLAT
...ITETI
...kutubxonasi
18249

Yassaviyning shuhrat topishida uning hayoti islomning X–XII asrlardagi shiddatli taralishi bilan bir davrga to'g'ri kelgani ham ma'lum rol o'ynagan, albatta. Xullas, undagi har bir hikmat islomning axloqu e'tiqodini yoyishda muayyan amaliyot oynasidir. Shu jihatdan, u din va axloq majmuasidir. U hamda uning izdoshlari bu axloq va e'tiqodni yoyishda xalq orasidagi chinakam turkona shakl va ohanglardan unumli foydalandilar. Shuning oqibatida, bular she'riyat namunalari bo'lib ham tarixga kirdi.

1991-yilning 26-sentabrida Ahmad Yassaviy xalqaro simpoziumi Turkiyada Anqara shahrida ish boshladi. Ikki kun davomida yigirmadan ortiq ma'ruza tinglandi. Mashhur turkshunos olimlardan Andras Bodroglideti, Kamol Karpat, Hamidjon Ne'matov va kamina ishtirok etdik.

Nihoyat, bu yil uning qadri-e'tibori har vaqtdagidan azizroq bo'lgan o'z vatanida «Yassaviy yili» deb e'lon qilindi. Tabiiyki, buning iftixori qanchalik buyuk bo'lsa, mas'uliyati ham shunchalar balanddir. Negaki, Yassaviy turkiy olamning aqlu tafakkurinigina emas, turish-turmushi, fe'l-sajiyasini ham bir-biriga bog'lab kelayotgan daholarimizdan.

Qushlarni kuzatganmisiz? To'da bo'lib uchishdan oldin jam bo'ladilar, deydi bir biolog do'stim. Guruh boshlari to'daga kirarkanlar, bir qarashda bir-birlarini sinab oladilar. Zo'ri ajralib, saralanib boraveradi. So'ng elak-elak bo'lib aylanishga tushishadi. Nihoyat, eng zo'ri ayon bo'lgach, uning boshchiligida barcha qushlar tikka osmonga ko'tariladilar va arqamchi bo'lib yoyiladilar. Rostlanish uchun ham bir oz vaqt ketadi. Qat'iy tartibga tushishlari lozim: eng oldinda hamma tomonidan tan olingan yo'lboshchi, so'ng guruhboshilar mavqe-martabalariga, qudratlariga ko'ra, uning ikki yonidan joy oladilar. So'nggi ikki chetda ikki soqchi qush keladi. Yo'lboshchi manzilni belgilaydi, yo'l tortadi. Guruhboshilar uning yonida kamarbasta, soqchilari o'z ahlining ahvolidan va atrofdan ogoh. Bir narsa bo'lsa, bildiradilar. Masalan, qushlardan biri kasallansa — sustlashsa, yoinki boshqa biror xatar ehtimoli bo'lsa, soqchi ishorasi bilan yo'lboshchi bir qarorga keladi. Sekinlaydi. Zarur bo'lsa, qo'nishga farmon beradi. Kasallarni tuzatib oladilar, najotsiz bo'lsa, qoldirib ketadilar. Qolgan qush esa so'nggi kuchlarini yig'ib osmonga ko'tariladi, yuksaklikdan o'zini toshlarga tashlab, keta-

yotganlar bilan xayrlashadi. Shuningdek, xatar ham o'tgandan keyingina qushlar yo'lga tushisharkan.

Tabiatning bu ongsiz parchasi xatti-harakatida qanchalar teran insoniy (aslida tabiiy) ma'no bor! Nega qushlar haqida ko'p yozadilar? Masalan, «At-tayr» (Ibn Sino), «Mantiq ut-tayr» (Farididdin Attor), «Lison ut-tayr» (Alisher Navoiy). Tasodifmi? Yo'q, albatta. Tabiatning qonuni barcha jonli mavjudot uchun bitta. U yashamog'i uchun, bir tomondan mukammallashib bormog'i kerak bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'zini himoya qila olishi lozim. Shu jumladan, tabiatning eng yuksak mavjudoti insoniyat ham. Millat uning yashash shakli bo'lsa, din-e'tiqodlar, suluk-tariqatlar insoniyatning ma'naviy axloqiy mukammallashuvi, ayni paytda, o'zini-o'zligini saqlashi uchun bir vositadir. Payg'ambarlar, avliyolar el-ulusning, elat va millatlarning, dinu diyonatning homiylaridir. Suluk va tariqat peshvolari ham bundan mustasno emas, albatta. Ular o'z qavmlari, jamoalarining tan olingan rahnamolari edilar, o'z tobelarini olis va mashaqqatli safar davomida beziyonu beshikast boshlab keldilar. Biroq davron aylandi-yu, o'rtaga xatar tushib, qo'nish zarurati tug'ildi. Kasallari sog'aydi, najotsizlari xayrlashdi. To'da qanot qoqib osmonga tikka ko'tarilishga shaylanmoqda. Oldinda esa o'sha hamma tan olgan yo'lchi.

Yassaviy yili beixtiyor qushlarni, xususan Ibn Sinoning «At-tayr»ida hikoya qilingan oyoqlaridagi tuzoqlari bilan tog'ma-tog', cho'lma-cho'l, vodiyma-vodiy sarmanzil tomon intilgan va bir qo'nib o'tgan qushlarni esga soladi.

Millatimiz timsoli

Temur insoniyatning barmoq bilan sanoqli darajadagi yuksak yulduzlaridandir. Uning chaqmoqday shiddatli, momaqaldiroqday larzakor yurishlari, u qurdirgan osmono'par binolar, masjidu ravoqlar haqida tirikligidayoq yuzlab rivoyatlar, afsonalar to'qilgan, o'nlab tarixiy, badiiy asarlar yozilgan. Birgina G'arbiy Yevropada besh-olti asr davomida yozilgan poetik, dramatik, nasriy asarlar to'plansa, bir kutubxonani tashkil qilar. Uning harb ishini keyingi paytga qadar G'arbu Sharqda maxsus o'rganib keladilar. Temur — chindan ham favqulodda bir siymo. U xalqimizning qiyomatgacha iftixor etgulik farzandidir.

Temur dunyoga kelgan tuproqda turganligingni bir lahza his etmoq har qanday qalbni larzaga soladi. Dala-qirlar o'zgargan, albatta. Lekin u ko'z ochib ko'rgan Shahrisabz osmoni, qo'l uzatsa yetgudek masofada yastangan, shaddod yoshligiga shohid tog'lar 600 yil oldin ham shunday bo'lganlar. U shu yerda o'sib ulg'aydi, dunyo tanidi. Va dunyo uni tanidi.

Temur jahonning eng mashhur kishilaridandir. Biroq afsus-ki, u so'nggi to'rt yuz yil davomida uni dunyoga bergan millat tomonidan emas, ko'proq, balki asosan, uzoq-yaqindagilar, aksariyat «jabr ko'rgan»lar tomonidan o'rganilib va baholanib keldi. Uni birovlar yerda adolat o'rnatish uchun Alloh tomonidan yuborilgan deb talqin qildilar. Birovlar Allohning haq yo'lidan adashgan bandalariga yo'llagan g'azabi sifatida ko'rsatmoqchi bo'ldilar. So'ng qizil imperiya davrida u salkam yovuzlik timsoliga aylantirildi. Bejiz emaski, O'zbekiston istiqloli o'zining buyuk bobolarini tanishdan, birinchi navbatda, Amir Temurdan boshlandi. Dunyo uning yurishlarini «futuhot»(ochish, kashf etish) deb baholab kelgan bir paytda bizning onglarga kuni kechagacha «istilo» deb singdirib kelingan edi. «Futuhot» bilan «istilo» o'rtasida keskin farq bor. Istilo yag'modir. Millatni buzmoq, mamlakatni to'zg'itmoqdir. Millati mahkumaning moddiy boyligigagina emas, madaniyatiga, tiliga, dindiyonatiga, turmush tarziga ham tajovuz qilmoqdir. So'nggi rus istilosida shunday bo'ldi. Amir Temur mag'lub millatning ma'naviyatiga daxl qilgan emas. Aksincha, ularga ravnaq bergan. Buni arab, hind, eron misolida ko'rish mumkin. Shu jumladan, tabiiyki, o'z Millati va Vatani kamoloti uchun ham xizmat qildi. U qadami yetgan barcha joylarni bir tug' ostida birlashtirdi. Kuchli va mustahkam markazlashgan davlat bino qildi. Qarb va Sharq o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, ilmiy-madaniy aloqalarga yangi mazmun, ruh olib kirdi, tamomila yangi bir bosqichga ko'tardi. Din-diyonatga esa yangi to'lqin, musaffo havo olib kirdi. Tabiiyki, ona Turkistonni, Shahrisabzu Samarqandni «qadamjo»ga, «qubbatul ilm va adab» maskaniga aylantirdi. IX asrda (859) Sharqda dunyoga kelgan, XII–XIII asrlarda arab Andaluziyasi orqali Yevropaga universitet bo'lib kirib borgan oliy o'quv yurtlari, madrasalar Temur va temuriylar davrida o'zining chinakam umumbashariy samaralarini berdi. Ikkinchi tomondan, Amir Temurday bir kishining Turkiston tuprog'ida

tug'ilishi, turkiy qavmga mansub bo'lishi tasodifiy bir hodisa emas. Bu elning, bu yurtning ozodlikka, istiqlolga, o'z kuchi va aqlini anglashga xuddi shu paytda juda katta ishtiyoq-intilishi va ehtiyoji bor edi. U yuz yildan ortiqroq muddat davomida mo'g'ul istibdodi ostida qavm-qarindoshlarini unutish darajasiga yetgan parchalanish va bosh-boshdoqlik bilan kelar edi. Shu jihatdan, Amir Temur qurgan davlat ungacha bo'lgan 1000—1500 yillik davlatchiligimizni o'zida mujassam etdi. Unda miloddan oldingi 209—174-yillarda Xun davlatining chegaralarini O'rxundan Kaspiygacha kengaytirgan (mil. av. 177-yil) o'g'uz va qipchoqlarning bobokaloni Tumen o'g'li Metexon (O'g'uz-xon)ning birlashish haqidagi nidolaridan Yevropani larzaga solgan o'rta asr xun hukmdori Atilla (395—453)gacha bo'lgan shavkatli tarix aks-sado topdi. Balki bu saltanat 732-yilda Yo'llug' Tigin «Kultigin bitigi»da bitgan «Turk, o'g'uz beklari, ey xalq, eshit! Tepadan osmon bosmagan bo'lsa, pastda yer yorilmagan bo'lsa, ey turk xalqi, davlatingni, hukumatingni kim buzdi?!» degan armonli iztiroblariga turkning zarur paytda birlasha olish va qudratli davlat qila olish inonchi sifatida maydonga kelgandir. Har qanday holda ham Amir Temurdek sarkarda va davlat arbobi bo'lmoq uchun sohibqiron bo'lmoq lozim edi. Yuksak aqlu zakovat, favqulodda tadbirkorlik, tugan-mas sa'y-g'ayrat, metin iroda va ehtimol, juda ko'p narsalar kerak edi. Bular u mansub millatning qonida, ongi-shuurida bor edi, «Minglarcha yillik tariximizda qizil ip bo'lib o'tgan milliy xususiyatlarimizdan biri **jonlilik** va bitmas **faollik**dir... — yozadi Ahmad Zaki Validiy va — Turk millatining tarixning biz bilgan davridan buyon askar bo'lib kelganligini, intizomsevarligini, hayotning eng og'ir mushkulotiga ham tayyor turishini, mashaqqatlarga uzoq muddat sabrli bo'la olishi»ni alohida ta'kidlaydi. Fikriy salohiyatiga to'xtalib, «dunyodagi voqealarga ochiq ko'z bilan qarashi, jahon vaziyatini atroflicha ko'ra olishi, undan tamomila xabardor bo'lishlari, har bir fursatdan foydalana bilishlari jihatidan» ularni XX asrning inglizlariga o'xshatadi.

Darhaqiqat, Amir Temur millatning timsolidir. Millatning aqlu zakovati timsolidir. Kuch-qudratining, g'ayrat-shijoatining timsolidir. Uning namoyon bo'lishi uchun XIV asr sharoiti kerak edi, xolos. To'g'ri, taqdirni ta'bgir qilib bo'lmas ekan. Taq-

dir Temurday harbu zarb dahosining jiddu jahdiga qaramasdan, turk ulusiga lozim va munosib iltifotni qilmadi. Zamon dastlab Temurni o'z qavmidan bo'lgan yana bir turk sarkardasi Oltin O'rda hukmdori, rus knyazliklari-yu Azov (Azov) va Tuna (Don)gacha o'z dasti panjasida tutgan chapdast To'xtamish bilan yuzma-yuz qildi. So'ng esa o'z qudrati bilan butun Yevropani larzaga solgan qavmdoshi turk sultoni Boyazid Yeldirim bilan to'qnashtirdi. XIV asrning ikkinchi yarmida turkiy qavmning dunyoga bergan uch yovqur farzandi makkor zamona fitna-fasodlari tufayli bir-birlariga qarshi qilich qayrashib, bir-birlarini mahv etishga tushdilar. Va sohib qudratlarimiz bitmas qudratlarni o'z qo'llari bilan bitirib bordilar. Osiyoning deyarli tanho hukmdori bo'lib qolgan sohibqironning saltanati esa u vafot topgan kundanoq parokandalikka yuz tutdi. XVI asrdan esa tanazzuli boshlandi. Bular o'z navbatida turk elining avj falakda kelgan jahoniy shuhratini oshirish emas, tushirishga xizmat qildi. Akademik B.Ahmedov qayd qilganidek, «kelajakda Osiyoning Ovrupo davlatlari tarafidan mustamlakaga aylantirib olinishiga zamin yaratdi». Holbuki, bu uch qondosh og'a-ini to'qnashish emas, birlashish yo'lidan borsalar, loaqal bir-birlariga xalaqit bermaslik yo'lini tutsalar edi, bugun jahonning ham jahon sivilizatsiyasining ham taqdiri tamom boshqa bo'lmog'i, dunyo taraqqiyoti G'arb emas, Sharq izmidan ketmog'i, turkiy til esa bani-basharning iste'molda birinchi darajada turuvchi tillaridan biriga aylanmog'i tayin edi.

Navoiy va muammo janri[1]

Odatda, yechilishi mushkul bo'lgan masalani muammo deb ataymiz. Shu birgina so'z uning qiyin va murakkab ekanligini anglata oladi. Lekin muammo adabiy janr sifatida bugungi o'quvchiga ko'pda tanish emas. U nozik fahm va idrokni, nuqtadonlikni talab etadigan janr. Mumtoz adabiyotimizda, xususan, XV asrda uning mavqei juda yuksak bo'lgan. Alisher Navoiy «Majolisun nafois»da qaysi shoir haqida gapirmasin, uning «muammo fani» bilan shug'ullangan-shug'ullanmaganiga alohida to'xtaladi. Bobur ham o'z «Boburnoma»sida bunga e'tibor

[1] Yo. Xo'jamberdiyev bilan hammuallifllkda.

beradi. Navoiy, Jomiy, Vosifiylar u haqda maxsus risolalar yozganlar. Olim va shoirlar anjumanida muammo aytish va yechish udum tusiga kirgan. Ilmu donish rutbasi shu bilan belgilangan. Bu fanning o'z ustozlari, muxlislari bo'lgan. Jumladan, Amir Husayn Nishopuriy «Piri muammo» deb nom olgan. Navoiyning «Muammo fanida zufaroning ustodi» degan bahosiga musharraf bo'lgan. Bobur ta'kidlaganidek, «Muammoni oncha hech kim aytg'on emas». Vosifiy uning havas qilgulik shuhratini ko'p gapiradi.

Muammochilik, ayniqsa, Navoiy zamonida Hirotda avj olgan. XV asrning ikkinchi yarmida Xurosonda madaniy-adabiy harakatchilikning shiddatli bir to'lqini maydonga keldi. Sulton Husayn o'z «Risola»sida Hirot va uning atrof viloyatlarida mingga yaqin kishi she'r bilan shug'ullanganini g'urur bilan yozadi. Ikkinchi jihatdan, Hirot adabiy muhitidagi ifoda usuli Samarqand, ayniqsa, Oltin O'rdaga nisbatan murakkab va og'ir edi. Buning ma'lum sabablari bor, albatta. Binobarin, Husayn Boyqaro saltanatidagi nisbiy barqarorlik, madaniy hayot tepasida Navoiy kabi murabbiylar bo'lishi, bularning natijasi o'laroq, katta adabiy ko'tarilishning yuz berishi, ayni paytda Hirot adabiy uslubining o'ziga xosligi, nazarimizda, bu yerda muammoning ko'proq yozilishiga imkon yaratdi. Muammochilik XVII–XIX asrlarda keskin kamayib ketdi. Inqilob arafasidagi she'riyatimizda u deyarli uchramaydi. Buning asosiy sababi shundaki, muammo keng xalq qatlamlarining tushunchasaviyasidan uzoq janr edi. U alohida bilim va tayyorgarlik talab qilardi. Uning imkoniyatlari cheklangan, o'zida ko'proq formal xususiyatlarni tashuvchi janr edi.

«Muammo» arabcha so'z bo'lib, «ko'r qilingan» degan ma'noni bildiradi. Adabiy janr sifatida biror fikr, so'z, nom yashiringan bir yoki ikki baytli she'r tushuniladi. Muammo harflardan poetik o'yin, obraz yasovchi hurufi dalolat, bayt yoki misraning birinchi harflaridan biror shaxs nomi kelib chiquvchi muvashshah, biror voqeaning vaqtini ko'pincha abjad hisobi bilan pardalab beruvchi tarix, she'riy topishmoq — chiston kabilarga ko'p jihatlari bilan yaqin turadi. Yevropa adabiyotida ham bu xil shaklni asos qilib oluvchi poetik janrlar bor. Masalan, muvashshahni esga tushiruvchi akrostix, rus poeziyasidagi satrlar piramidasi, yurak shaklida joylashtirib chiqiladigan rasm-

she'r shular jumlasidan. Lekin muammoga aynan o'xshash janr yo'q. Bular esa adabiyotda u qadar mavqega ega bo'lmagan. Muammo faqat Sharq adabiyoti uchun xos. Chamasi, bu yerda arab yozuvining ham xizmati bo'lishi kerak. Chunki muammoda faqat so'z o'yini emas, harflar o'yini ham katta rol o'ynaydi.

Muammo elementlari adabiyotimizda XI asrdanoq ko'rinadi. Mashhur «Qutadg'u bilig»da shunday satrlar bor:

Bek oti bilik birla bog'liq turur,
Bilik lom(i) ketsa, bek oti qolur.

«Bilik» (بليك) so'zidan «Lom» (ل) ketsa, «bek» (بيك) qoladi. Muammoning «Bek» otiga aytilgan soddagina shakli.

XV asrda u o'z kamoliga yetdi. Uning qoidalari, yechish amallari haqida kitoblar yozildi. Alisher Navoiyning «Risolai mufradot»i maydonga keldi. Unda muammoning 15 amali 48 xil uslubiy ko'rinishi bilan bayon qilingan va misol sifatida 121 muammo keltirilgan edi. Ulug' shoir muammo janriga ham e'tibor bilan qaragan. Uning sal kam 500 ta forscha, 52 ta o'zbekcha muammo yozgani ma'lum. Adabiyotshunos Lutfulla Zohidov «Alisher Navoiyning «Risolai mufradot» asari va uning muammolari»[2] nomli dissertatsiyasida asar to'g'risida atroflicha ma'lumot berib, u yerda keltirilgan 121 forsiy muammoni ko'rib chiqadi. Xondamir yozganidek, «oliy martabali amir» «Risolai mufradot»ida «u fanning tuzilishi va tartiblarida g'oyatda foydali ixtirolar qilgan» edi. Ulug' Navoiyning muayyan davralarda ermak va xudpisandlik maqsadi uchun xizmat etgan muammoga munosabatini belgilashda uning estetik qarashlaridan kelib chiqish kerak. Shoirning badiiy adabiyot, uning jamiyatdagi o'rni, tasvir obyekti, ijoddagi originallik, adabiy janrlar haqidagi o'z zamonasi nuqtai nazaridan favqulodda ahamiyatli fikrlaridan bizning ishimizga bevosita daxldor bittasini — shakl va mazmun to'g'risidagi qarashlarini ko'zdan kechiraylik. Chunki bu narsa uning muammoga munosabatini oydinlashtirishda yordam beradi.

[2] Qarang: Zohidov L. Alisher Navoiyning «Risolai mufradot» asari va uning muammolari. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. — T.: 1970.

«Ammo chun alfoz va iboratdin murod ma'nidur», — deb yozadi shoir «Muhokamatul lug'atayn»da.

Nazmda ham asl anga ma'ni durur,
Bo'lsun aning surati har ne durur.
Nazmki, ma'ni anga marg'ub emas,
Ahli maoniy qoshida ho'b emas.
Nazmki ham surat erur xush anga,
Zimnida ma'ni dag'i dilkash anga.

(«Hayratul abror»dan)

Oddiy muomaladagi gap-so'zdan she'riyatgacha, hammasidan maqsad — biror fikr aytish. Nazmning ham asosini mazmun tashkil etadi. Suvrat (shakl) go'zalligi yaxshi, lekin ma'no go'zalligi undan ham yaxshiroq. Navoiy shakl va mazmun nisbatini shunday tushundi. O'zining o'lmas she'riyatida unga izchil amal qildi. Hatto, o'z tabiati bilan shaklbozlikdan iborat bo'lgan muammo ulug' shoir qalamida umuminsoniy fikrlarni, zamon masalalarini o'rtaga tashlash uchun xizmat qildi. Bu uning o'zbek tilidagi 52 ta muammosida ham yaqqol ko'rinadi. Shulardan ba'zilarini ko'rib chiqaylik:

Bu gulshan ichraki yo'qtur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur, chiqsa yaxshilik bila ot.

Bu gulshan (olam) ichra hech bir gul (inson) boqiy emas ekan, yaxshilik bilan ot chiqarish ajab saodatdir (shuning o'zi boqiylikdir). Shoirning yaxshi ot qoldirish, insoniyatga naf yetkazish haqidagi hikmat darajasiga ko'tarilgan ma'lum va mashhur baytlaridan biri. Ayni paytda u muammo usuli bilan yozilgan. Muammo undagi barkamol mazmunni ifodalashga xalal bermagan, aksincha, unga yordami tekkan. Endi bu mazkur baytni muammo qoidasiga ko'ra tekshirib chiqaylik. Biz yuqorida she'rning zohiriy (tashqi) mazmunini ko'zdan kechirdik, endi botiniy (ichki) ma'nosiga e'tibor qilamiz. Muammo «Sa'd» deb sarlavhalangan. Demak, undan topilishi lozim bo'lgan modda «sa'd» so'zidir. U muammo qoidasiga ko'ra topilishi lozim. Buning uchun so'zlarning bir-biriga bo'lgan ishoraviy munosabatlarini hisobga olgan holda muammo kalitini izlash kerak. Muammoning o'ziga murojaat qilamiz:

Ajab saodat erur, chiqsa yaxshilik bila ot.

«Ot» (آت) so'zini chiqarish talab qilinyapti. Demak, masala «Ot» orqaligina yechiladi. «Ot» «alif» bilan «te»ning qo'shiluvidan hosil bo'ladi. Bu harflar ishlatilgan so'zni izlaymiz. Mana, uni «saodat» (سعادت)dan topdik. Muammo talabiga ko'ra «saodat» (سعادت)dan «ot» (آت)ni «yaxshilik bilan» chiqarsak, ya'ni «o» (آ) va «te» (ت) harflarini olib tashlasak, «sa'd» (سعد) biz izlagan so'z hosil bo'ladi. Muammo odamlarga yaxshilik qilish — baxt, degan muhim, umuminsoniy fikrning ahamiyatini ta'kid bilan ko'rsatishda yordam beryapti.

Shoirning «Varaqa» nomli muammosi katta ijtimoiy mazmun tashiydi. She'rda jabru sitamning had-hududi bo'lmagan davrondan shikoyat betakror va benazir bir usulda ifoda qilinadi:

Javr ila qahringki, haddin oshti bag'oyat,
Vahki, ne bor ibtido anga, ne nihoyat.

She'rning zohiriy ma'nosi izohga muhtoj emas. Endi biz uni muammo sifatida ko'rib chiqaylik. Satrlarga berkingan «varaqa» so'zini topishga harakat qilaylik. Shoir «javr» bilan «qahr»ga alohida urg'u beryapti. Aytilyaptiki, bu ikki hodisaning na «ibtido»si bor, na «nihoyat»i, (جور) so'zining «ibtido»si «jim» (ج) «qahr» (قهر) so'zining nihoyati «re» (ر) dur. Agar talabga ko'ra, shu ikki modda — boshlanish (ج) bilan nihoyat (ر) yo'q bo'lsa, ya'ni (جور) va (قهر) so'zlaridan ushbu ikki moddani olib tashlasak, varaqa - (ورقه) so'zi hosil bo'ladi. Biz ko'rib chiqqan har ikki muammo «Risolai mufradot»da bayon etilgan mukammallashtirish (takmil) amallaridan «isqot» (tashlab yuborish)ga mansubdir. Agar e'tibor berilsa, shoir o'z muammolarida o'quvchi diqqatini muayyan so'zlarga jalb etyapti (birinchida «saodat», «ot», ikkinchida «javr», «qahr», «ibtido», «nihoyat»). Kitobxon, mabodo muammolarning zohiriy ma'nosini aniqlashda bu so'zlarga kamroq e'tibor bersa ham, botiniy ma'nosini ko'rayotganida ularga alohida to'xtashga majbur. Bu so'zlar silsilasi shoir muddaosini, masalaning qaysi tomonlariga diqqat qilayotganini ochiq-oydin ko'rsatib turadi. Muammo nomlari ham undagi mazmunga payvand bo'lib ketgan (sa'd — yaxshilik qilish, varaqa — jabru sitamdan qat-qat dil).

Shoir muammolaridan biri «g'arib» ismiga aytilgan. Atamaning o'zi ham ijtimoiy mazmunga ega. Shu jihatdan u «varaqa»ga hamohang:

Chok bag'rim tarafin aylading ikki parkand
Birini tashlabon oxir birin etting payvand.

G'am-anduh lirik qahramon «baqri» (بغرى)ni «ikki parkand» — bo'lak aylabdi. Uning bir bo'lagi (ب)ni oxiriga tashlab (orqaga olib), ikkinchisini (ى) unga payvand qilsak, «g'arib» (غريب) hosil bo'ladi. Bu muammo osonlashtirish (tashil) amallaridan tadbil (almashtirish)ga mansub. Muammoning mazmuni esa birinchi qarashda yor, rafiq, raqiblardan hasratdek tuyuladi. Aslida bir oz boshqacharoq. U «davron zulmi»dan jigarxun bo'lgan «ahli zamon dardi»ga ishora.

Tabiat va insonning hassos shaydosi bo'lgan shoir azaliy va abadiy muhabbat, uning ser ishva kechinmalari haqida talay muammolar yozdi. Ularda ma'naviy va jismoniy go'zallikni — barkamollikni madh etdi. Uning ishqiy mavzudagi muammolaridan birini ko'rib chiqaylik:

Ul niholikim qadingga yo'q shabh, andoq nihol,
Boshida ko'rguzsa yuz xurshid o'lur sendin misol.

U shunday niholki, uning qaddiga qiyos etgulik ikkinchi bir nihol yo'q. Agar uning tepasida xurshid (quyosh) yuz ochsa, bu undan bir misoldir xolos... Obraz aniq va go'zal, manzara yorqin, talqin an'anaviy, lekin mantiqli. Uni muammo sifatida ko'rib chiqaylik: U shunday nihol ekanki, uning hech bir o'xshashi yo'q ekan. Bu qanday nihol bo'ldi? Vaqtni g'animat bilib, Sharq poeziyasidagi obrazlar talqinini xayoldan o'tkazamiz. Odatda, Sharq klassiklari mahbuba qaddi-qomatining nozik va rostligini sarvga o'xshatadilar. Ha, shoir ko'zda tutgan «andoq nihol» — sarv (سرو). Agar «sarv» (سرو) boshida «xurshid» (خرشيد) yuz ko'rguzsa, ya'ni uning yuzi (birinchi harfi «he» — خ)-ni «sarv» (سرو) boshiga (oldiga) qo'ysak, «xisrav» (خسرو) hosil bo'ladi. Demak, bayt Xisrav nomiga aytilgan ekan. Bu muammo nazariyasining hosil qilish (tashil) amallaridan «talmeh» (mashhur mavzu yoki obrazga murojaat etish), osonlashtirish (tashil), amallaridan «intiqod» (saralash)ga asoslanadi.

Navoiy muammolariga shunchaki bir ko'z tashlash shuni ko'rsatayaptiki, buyuk mutafakkir imkoniyatlari juda tor bo'lgan muammodek janrdan ham muhim, odamlar uchun kerakli bo'lgan gaplarni aytishda barakali foydalana olgan. Hikmat va san'atni ikki satrli fardga jo qila olgan. Muammoga o'zbek she'riyatida barcha poetik janrlar qatoridan joy olib bergan.

Bir vaqtlar aql va idrokning tarozisi vazifasini bajargan bu janrni ahamiyatsiz deb bo'larmikin?

Muammo — ming yillik she'riyatimizning bir bo'lagi. U o'z taraqqiyoti davomida ko'pgina ulug' kishilarni tarbiyaladi, ularga ilhom berdi. Buni e'tirof etish kerak.

To'g'ri, u o'z oti bilan muammo. Uni tushunish, yechish juda qiyin. Uni mukammal bilish uchun qadim mifologiyadan astrologiyagacha, o'rta asr kalligrafiyasidan «ilmhoi segona» deb nom olgan Sharq poetikasigacha bo'lgan fanlardan xabardor bo'lish kerak. Bu bugungi o'quvchiga bir oz malol keladi. Lekin uni o'rganmaslik ham ko'p asrlik she'riyatimizning, shu jumladan, Navoiy dahosining muhim bir sifatini e'tibordan chetda qoldirish bo'ladi.

Havoiy ijodini o'rganishning ayrim masalalari

Alisher Navoiy — millatimiz muhri. Navoiy — axloqimiz me'mori. U yaratgan ijod ma'naviyatimizning betimsol qomusi. Navoiy asarlarida adabiyotimizning o'zigacha bo'lgan ming yillik tarix va tajribasini mujassam etdi. Bu ijod «o'zbeklarning budi budoyisi»dan «Alanquvo»sigacha, «Adib Ahmad»dan «Mavlono Lutfiy»sigacha o'ziga singdirgan edi. U o'z asarlarida davrining eng muhim masalalarini go'yish emas, ularga javob berishga uringan, eng muhim gaplarni topib, eng go'zal shaklga sola olgan, eng «ko'p» va eng «xo'b» yozgan san'atkordir. Mana, besh yarim asrki, bu ijod avlodlarga maktab, darsxona bo'lib keladi. Besh yarim asrki, biz uning o'lmas g'oyalari bilan yashab kelamiz. Bu nomni bilmaydigan, tanimaydigan o'zbek yo'q. Zamonning zayli bilan biz undan ayro tushgan paytlarda ham u qonimizda kelardi. Chunki ajdodlarimiz asrlar osha Navoiy g'azallari, dostonlari ruhida tarbiya topib kelgan edilar. Shoir aytmoqchi, «har ikki nabirasining biri Alisher» edi. Lekin tabiiyki, buni mustahkamlash uchun uzviylik shart edi. Men

mustaqillikdan keyin Navoiyga e'tiborning birdan kuchayganini mana shu zaruratni his qilishdan deb bilaman. Va bu masalaning Prezidentimiz tomonidan qo'yilayotgani hammaga ibratdir.

Masalaga kelaylik. Men uning mohiyatini Navoiy ijodini yosh avlodga sodda va tushunarli qilib yetkazmoq deb tushunaman. Toki o'quvchi undan bahramand bo'lsin. Hayotning har bir hodisasida bu boy merosga murojaat qila olsin. Navoiy merosi bugungi o'quvchining o'z mulkiga aylansin.

Bu boradagi birinchi muammo tilimizning Navoiy davridagidan keskin o'zgarib ketganligi masalasidir. Bugungi o'quvchi Navoiydagi ifoda usulinigina emas, juda ko'p so'zlarni ham tushunmaydi. So'zlarni muayyan reja-dastur asosida o'rgatib borish mumkin, gap qurilishi masalasi qiyinroq. Buning uchun «O'zbek tili» darsida til tarixi qismiga e'tiborni kuchaytirish kerak bo'ladi. Lekin buning o'zi bilan ish bitmaydi. O'quvchi «ilmi bade'»dan xabardor bo'lishi kerak bo'ladi. Demak, «Mumtoz poetika»ning ixchamroq kursi kerak. Afsuski, bu ham masalani to'la hal etmaydi. Shoir she'riyatini, umuman, mumtoz she'riyatimizni to'laroq anglash, butun go'zalligi va nafosatini his qilish uchun tasavvufdan, uning xos poetikasidan xabardor bo'lish kerak. Nihoyat, bu she'riyatning muayyan qismi oyat va hadislar sharhi ekanligini ham unutmasligimiz kerak. Bu tomonini ham o'ylash lozim bo'ladi. Maktablarda beriladigan diniy ma'lumotda buni hisobga olishga to'g'ri keladi. Bu masalalarning hammasi o'zaro uyg'unlikda, kompleks hal qilingandagina o'z samarasini beradi.

Ikkinchi masala Navoiy ijodi bo'yicha nimani bermoq va qay darajada bermoq masalasidir. Bugungi navoiyshunoslik katta yutuqlarga ega. 15 tomlik, yakunlanayotgan 20 tomlik bunga dalil. O'nlab doktorlik, yuzlab nomzodlik dissertatsiyalari yoqlangan desak mubolag'a bo'lmas. Shoir biografiyasining asosiy nuqtalari ma'lum. She'riyati, dostonlari, nasriy asarlari haqida xalqaro miqyoslarda e'tirof etilgan tadqiqotlarimiz bor. Mustaqillik buyuk shoir ijodini tazyiqlarsiz, Vatan va Millat nuqtai nazaridan tarixiy obyektivlik andozalariga mutanosib haqqoniy tadqiq etish imkonini yaratdi. Bular hammasi yaxshi, albatta. Lekin bu holning ayrim masalalar talqinida sal o'ylatadigan tashvishli tomonlari ham chiqib qolmoqda. Bu chamasi, umu-

miy saviyamizga borib bog'lanadi. Mana, Navoiydagi ishq talqinini olaylik. Biz shoir ishqidan mustaqillikka qadar asosan dunyoviy mazmunni qidirib keldik. Endi undan faqat ilohiy mazmun izlovchilar ham paydo bo'lyapti. Buni qabul qilsak va maktabga olib kirsak, to'g'ri bo'ladimi? Butun faoliyati yurt obodligi, xalq farovonligi, adolat tantanasi yo'lida kechgan bunyodkor insonning intilishlarini bunday yondashish to'g'ri tushuntirib bera oladimi? Biz uni to'g'ri anglagan va to'g'ri anglatgan bo'lamizmi? Shoirning «xos ishq» bilan «avom ishqi», «ishqi haqiqiy» bilan «ishqi majoziy» borasidagi o'z qarashlaridan kelib chiqmog'imiz kerak emasmi? Bu ikki tushunchaning sarhadi uning qarashlarida ham, ijodida ham bizningcha, bir-birini rad etuvchi emas, aksincha, to'ldiruvchi hodisalardir. Ularning sarhadi goho sezilmas darajadadir. Shu sababli, u o'quvchiga o'zaro chambarchas bog'liqlikda berilmog'i kerak deb o'ylaymiz.

Xullas, bu borada yondashuv aniq bo'lmog'i kerak. Avvalo, o'quvchiga navoiyshunoslikning bahsli masalalari emas, uzil-kesil hal qilingan, har qanday shubha va e'tirozlardan xoli qismi havola qilingani yaxshi. Umuman, bu borada kichik dastur minimum kerak. Ya'ni o'rta yoki oliy maktabni bitiruvchi Navoiy ijodi bo'yicha qanday ma'lumotlarga ega bo'lmog'i, qaysi asarlarini tahlil qila bilmog'i qat'iy belgilanib qo'yilishi kerak.

To'g'ri, oliy maktabda masala bir oz boshqacha qo'yilgani yaxshi. Bizningcha, oliy maktabda Navoiyni o'rganish bo'yicha yagona dastur bo'lmagani ma'qul. Chunki pirovard-oqibatda har bir oliy o'quv yurti o'z qiyofasiga ega bo'lmog'i kerak.

Maslahatlashib olinadigan masalalardan biri adabiyot va uning jamiyatdagi o'rni masalasidir. Adabiyotning istiholiy izohida G'arb va Sharqning yondashuvida farq bor. Sharqona yondashuv adabiyotni adab bilan bog'lab izohlaydi. Bu istilohni XX asr boshida jadidlar olib kirdilar. Haqiqatan ham keyingi ming, bir yarim ming yillik adabiyotni olib ko'ring. Deyarlik hamma narsa bitta bosh masalaga — inson va uning axloq-odobiga kelib bog'lanadi. Bu yuksak sa'natkorlikni inkor etgan emas. Shoirlarimiz «So'zdagi»so'z va dard»ni hamisha nazarda tutganlar. Shunga qaramasdan, Jomiy «Bahoriston»ini o'g'li Yusufga odob kitobi sifatida yozdi. «Guliston», «Bo'ston», Xo'ja

Hofiz, Navoiy, Fuzuliy maktablarda o'qitildi-ku! Yoki muammo, muvashshah, tarix janrlarini oling. Har bir shoir xizmatidagi yuzlab poetik usullar — badoe'us sanoe'ni oling. «Majolisun nafois»da yuzlab shoirlar haqida gap ketar ekan, Navoiy ularning har birini muammochilikdan qay darajada xabardorligiga, munosabatiga alohida to'xtaydi. Ma'lum bo'ladiki, muammo shoirning salohiyatini aniqlovchi mezonlardan ekan. Iste'dodni tarbiyalash vositasi bo'lgan ekan. Holbuki, janr sifatida unda formal xususiyatlar yetakchilik qiladi. Yoki «tanqid»ni oling. U ur-yiqit emas, o'z ma'nosi bilan saralamoqdir. Bu yerda ham o'rnak, ibrat mazmuni bor edi. Ko'rinayaptiki, mumtoz adabiyotimizda birorta masala yo'qki, axloq va tarbiya haqidagi bosh g'oyaga kelib bog'lanmagan bo'lsin. Gap yalang'och g'oya ustida ketayotgani yo'q. Turfa liboslarga burkangan, pardoz-andozini o'rniga qo'ygan g'oya ustida ketayapti. Biz yaqin o'tmishda hamma narsani kommunistik g'oya asosiga qurdik. Sotsialistik realizm g'oyabozlikka timsol edi. Shundan bezib qolganimiz uchunmi, istiqlol davrida ayrim hamkasabalarimiz badiiy asarda g'oya masalalarini orqa planga tushirishga, hatto, esga olmaslikkacha bormoqdalar. Shakl va mazmun (suvrat va siyrat) masalasi badiiy ijodning eng muhim masalalaridan. Bularning birini kamsitib, ikkinchisini har qanday ko'tarish bir yoqlamalikka olib kelganidek, o'zaro zid qo'yish ham mohiyatini buzib ko'rsatishga yo'l ochadi. Har qanday holda ham Navoiyning «Nazmda ham asl anga ma'ni durur» degan satri masalaga oqilona va odilona yondashishga kalit beradi.

Buyuk shoir ijodini yosh avlodga yetkazish usullaridan biri an'anaviy yod oldirish deb o'ylayman. Navoiyning yuz ming satrni yod bilishi, uning zamonasida har bir ziyolining 40 ming satr salaflardan, 20 ming satr zamondoshlaridan yod bilishi shart bo'lganligi bejiz emas. Bularda juda katta ma'no bor. O'quvchi uni bir umr o'zi bilan birga olib yuradi. Hayotning muqobil har bir hodisasida uni qayta idrok etadi. Biz ham bu an'anani bugungi imkoniyatlar doirasida tiklasak yomon bo'lmas edi. Mayli, chegaralar ming emas, yuz satrlar doirasida bo'lsin, lekin tiklaylik.

Yana bir masala. 10-sinf «O'zbek adabiyoti» majmuasini tuzishda Sultonmurod Olim Navoiyning «Layli va Majnun»ini

«Laylovu Majnun» shaklida bergan edi. Bu, bizningcha, uni xalqqa, umuman asl manbalarga yaqinlashtirar edi. Xalqda Layli ismi uchramaydi. Hamma yerda Laylo. Layli she'riy asarlarda, bizningcha, qofiya zaruratidan ishlatilgan. Shu sababli bo'lsa kerak, qardoshlarimizda u ko'proq «Laylou Majnun» shaklida berilmoqda. Biz ham buni qabul qilsak, o'ylaymanki, noto'g'ri yo'l tutmagan bo'lardik.

So'nmas yulduz

Tarix va madaniyat kishilari ham bir qarashda yulduzlarga o'xshaydilar. Ayrimlari bir muddat yarqirab turadi-yu, so'ng izsiz so'nadi. Ba'zilari uncha nurli bo'lmasalar-da, uzoq muddat siz bilan hamroh bo'ladilar. Ayrimlari esa ham yorug', ham so'nmas. Lekin ular u qadar ko'p emaslar. Shuning uchun ham ko'zga tez tashlanadilar. Boburning hayoti va taqdiri mana shu uchinchi turkum yulduzlarga o'xshaydi.

Taqdir uni o'n ikki yoshida shafqatsiz sinovga duch qildi. Otasi Umarshayxning tasodifiy halokati bilan, bir yoqdan taxtga — Andijon viloyatining hokimligiga, ikkinchi yoqdan dushmanga — ichkaridagi da'vogarlar va tashqaridagi bosqinchilarga ro'para keldi. O'n besh yoshida har bir temuriy shahzodaning ko'nglini orziqtiradigan qadimiy poytaxt Samarqandni zabt etdi. Lekin yuz kun o'tar-o'tmas, Andijonga qaytishga majbur bo'ldi. 1500-yilda yana egalladi. Yana tashlab chiqdi. So'ng taqdirga tan berib, afg'on diyoriga yo'l oldi. Qobul va g'aznani jangsiz qo'lga kiritib, mustaqil hokimiyat tuzdi. 1526-yilda Hindistonda yangi imperiyaga asos soldi...

Darhaqiqat, Bobur hayoti shamolday sarsari, yashinday shiddatli kechdi. U «Boburnoma»da 1526-yil voqealarini tasvirlar ekan, «O'n bir yoshimdan beri ikki ramazon iydini payopay bir yerda qilg'on emas edim», deydi. U shunda 43 yoshda edi. Demak, Bobur 32 yildan buyon bir joyda muqim turolgan emas ekan. Chindan ham uning hayoti benihoya sargashta va sertashvish kechdi. Lekin muhimi shundaki, u o'z aqlu zakovati, noyob shaxsi bilan mana shu sarsari umrni sermazmun qila oldi.

To'g'ri, u hukmdor edi. Raiyat va hokimiyatni qilich va kuch zarbi bilan ushladi. Barcha fotihlar singari uning yurishlari

ham qanchadan-qancha begunoh qonlar to'kilishiga, minglab kishilarning o'limiga olib keldi. Lekin u Javoharla'l Neru aytganidek, uyg'onish davrining hukmdori edi. Dunyoviy fanlarni egallagan, ilm va san'at qadrini baland tutgan, tarqoq va parokanda yurtdagi nizo-janjallarning halokatli oqibatini his qilib, uni markazlashgan kuchli va mustahkam hokimiyatga birlashtirishga, oqilona boshqarishga uringan hukmdor edi. Shu sababli, uning Afg'oniston va Hindistonga yurishlari barcha salbiy jihatlariga qaramay, bu mamlakatlar va xalqlar taqdirida juda katta ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi. Nihoyat, uning ko'ksida yuksak shoirona qalb yashardi. Bir qarashda, shoirlik va shohlik nomutanosibdek tuyuladi-yu, aslida shunday bo'lgan. Bobur san'atda ham, saltanatda ham e'tibor topgan, shohlikni shoirlikka qay bir darajada itoat ettira olgan shaxs. Shuning uchun ham uni boshqa jahongir fotihlar bilan bir safga qo'yish va baholash mumkin emas. Binobarin, Hindistonning mashhur davlat va jamoat arbobi, hind milliy-ozodlik harakatining rahbarlaridan biri Javoharla'l Neru: «Bobur o'z zamonining eng madaniyatli, xushta'b odamlaridan edi», der ekan, bunda hech qanday nomuvofiqlik yoxud mubolag'a yo'q.

Bobur, shubhasiz, birinchi navbatda ijodkor edi. Ijodkor bo'lganda ham salmoqli va salobatli, uning ta'birini o'ziga nisbatan ishlatadigan bo'lsak, buyuk Navoiydan so'ng «ko'b va xo'b» yozgan ijodkor edi. U adabiyot maydoniga o'zbek badiiy tafakkuri yuksak bir mavqega ko'tarilgan, she'riyat kahkashonida o'nlab porloq yulduzlar charaqlab turgan bir paytda kirib keldi. Ular orasida eng chaqnog'iga — Alisher Navoiyga dil bog'ladi. Uning so'zdagi sehru jodusiga lol qoldi. Insonparvar ruhidan zavq oldi. «Odami ersang, demagil odami, oniki yo'q xalq g'amidin g'ami» degan hayot va ijoddagi dasturini o'ziga o'rnak tutdi. Buyuk shoir izidan borib, umrning mazmunini:

Bori elga yaxshilik qilg'ilki, mundin yaxshi yo'q,
Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilik, —

degan falsafa asosiga qurdi va unga sodiq qolishga urindi. Uning badiiy ijoddagi eng munosib va eng zabardast izdoshi darajasiga ko'tarildi. Uning hajman uncha katta bo'lmagan, bor-yo'g'i yuztacha g'azalu ikki yuztacha ruboiyni o'z ichiga olgan

devoni juda ko'p masalalarda, ayniqsa, murakkab insoniy kechinmalarni sodda va samimiy ifodalashda she'riyatimizga yangi mavj olib kirdi. Qizig'i shundaki, u birgina mana shu devoni, yig'ishtirib kelganda, nari-berisi bilan uch yuz atrofidagi she'ri bilan ham ulug' shoir atalishga tamomila haqlidir. Chunki g'azal va ruboiy uning qalamida o'zining yangi imkoniyatlarini namoyish etdi.

G'azal — asrlar mobaynida Sharq she'riyatida mumtoz bir mavqeda kelganligi hammaga ayon. Olis Ispaniyaning Andaluz viloyatidan Chin-Mochingacha, shimoldagi Itil bo'ylaridan janubdagi Hind okeani qirg'oqlarigacha bo'lgan xalqlar adabiyotida uzoq davrlar u asosiy lirik janr bo'lib keldi. Dastlab arab, so'ng fors she'riyatida XIII asrdayoq o'zining qat'iy va temir qonunlariga ega bo'lgan tizimga aylandi. Chunonchi, mutaxassislar g'azalda barcha timsol va tamsillar, ifoda va tafsillar ikki markaz, ikki o'q atrofida uyushishini uqtiradilar. Bu ikki markazning biri — ma'shuqa — yor tasviri bo'lsa, ikkinchisi — oshiqning — lirik qahramonning ahvoli edi.

Ikkinchidan, g'azaldagi har bir bayt nisbiy mustaqillikka ega, tugal, ixcham she'rdir. Shunga qaramasdan, ular orasida teran ichki bog'lanish bo'ladi. Bu bog'lanish aksariyat silsila halqalaridek ketma-ket emas, charxpalak parraklaridek, g'ildirak tirgaklaridek bir o'qqa kelib tutashuvchi yondash bog'lanishlardan tarkib topadi.

Mumtoz adabiyotshunoslik, an'anaviy poetika qonuniyatlari g'azalning imkon va chegarasini shunday belgilab beradi. Shayx Sa'diydan Navoiygacha bo'lgan, Bobur uchun adabiy maktab vazifasini bajargan Sharq g'azaliyoti shu imkon va chegarada maydonga kelgan edi.

Tabiiyki, bu yo'lning ham sarbalandlari, peshvolari bor edi. Navoiy bu janrdagi ustozlar va yo'llar haqida gapirarkan, she'riyat olamida mashhur bo'lgan uch nomni alohida bir ehtirom bilan tilga oladi:

G'azalda uch kishi tavridur ul nav',
Ki andin yaxshi yo'q nazm ehtimoli.
Biri mo''jizbayonliq sohiri Hind,
Ki ishq ahlini o'rtar qilu qoli.
Biri Iso nafasliq rindi Sheroz,

Fano dayrida mastu louboli.
Biri qudsi osorliq orifi jom,
Ki Jomi jamdurur sinqon safoli.

Shu tarz buyuk shoir «sehrgar» Xisrav Dehlaviy, «isonafas» Hofiz Sheroziy, «orifi jom» Jomiy timsolida g'azalnavislikdagi uch muhim xususiyatni — otashnafaslik, hur fikrlilik, falsafiylikni ta'kidlab ko'rsatgan edi.

Bobur she'riyat maydoniga mana shunday olamjahon shoirlar ruhi ustuvor turgan bir paytda kirib keldi. O'zining yorqin iste'dodi bilan an'anaviy she'riyatga, xususan g'azalu ruboiyga yangi zeb va jilo berdi. Uning she'riyati yuksak intellektidan oziq olgan edi. Uning she'riyatida Neru ta'kidlab ko'rsatgan «dilbar shaxs»i ifodasini topgan.

Axir:

Ulusning ta'nu ta'rifi manga Bobur barobardur,
Bu olamda o'zumni chun yamon yaxshidin o'tkardim, —

deya «yaxshi»ligini ham, «yomon»ligini ham e'tirof etish uchun qanchalar tantilik va jo'mardlik kerak?!

Sharq she'riyati bilan shug'ullangan mutaxassislar g'azalda muallif shaxsi, avtobiografiyasiga oid fikr va ma'lumotlarni topish mumkinmi-yo'qligi haqida hali-hanuzgacha bahslashib keladilar. Bobur esa mana shunday an'anaviy janr — g'azalda ham o'z hayotini, intilish va dardlarini bera olgan, boshqacha aytganda, uni hayotga yaqinlashtirish yo'lida xizmat etgan ijodkor sifatida bizni hayratga soladi.

Mana, Bobur Samarqandni ikkinchi marta ham tashlab chiqishga majbur bo'ldi. Uch-to'rt kun Jizzaxda, so'ng Dahkatda turdi. Andijon ham qo'ldan ketgan. Taqdir yorlaqamagan Boburdan yor-do'stlar, qarindoshlar ham qo'l tortadilar. «Xon doda»si—tog'asi Toshkent hokimi Sulton Mahmud O'ratepani va'da qilgan edi, bermadi. Xotini Oyshabegim tashlab ketdi. O'z navkari Ahmad Tanbal o'zi in'om qilgan qilichni Boburga qarshi ko'tardi:

Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim,
Ko'nglumdin o'zga mahrami asror topmadim, — yozadi u.

Bobur taqdir taqozosi bilan 1504-yilda Afg'onistonda yurt qildi. Mana, uning o'sha yili navro'z munosabati bilan 22-martda yozgan she'ri:

Yangi oy yor yuzi birla ko'rub el shod bayramlar,
Manga yuzu qoshingdin ayru bayram oyida g'amlar.

Shu tariqa uning she'riyatiga g'urbat motivi kirib keldi. Ona-yurt, uning sog'inch va ishtiyoqi tobora kuchayib boradi.

1507-yil. Bobur qator muvaffaqiyatli yurishlar qiladi. Lekin uning ko'ngli dilgir:

Manga osondurur bo'lsa, agar yuz ming tuman dushman,
Vale bo'lmoq jahonda, ey ko'ngul beyor mushkuldir.

Shoir sayrga chiqadi. Xurosonning Boron, Choshtepa dashtlari lolaga burkangan. «...Bir qatla lola anvoyini buyurdumkim, sanadilar, o'ttiz to'rt nav' lola chiqdi», deb yozadi «Boburnoma»da. Lekin u mana shu g'azalni ham shu yerda sayrda tugatgan edi:

Mening ko'nglumki, gulning g'unchasidek tahbatah qondur,
Agar yuz ming bahor o'lsa, ochilmog'i ne imkondur...

Darhaqiqat, Vatan ishtiyoqi shoir she'riyatidagi ohang va tuyg'ular orasida eng dardlisi, eng iztiroblisidir.

Boburning so'nggi g'azali deb taxmin qilingan, har jihatdan shoir she'riyatini yakunlovchidek taassurot qoldiradigan quyidagi she'rda bu hol bo'rtib ko'rinib turadi:

G'urbatta ul oy hajri meni pir qilibtur,
Hijron bila g'urbat manga ta'sir qilibtur.
Maqdur boricha qiluram sa'yi visoling,
To Tengrini bilmonki, ne taqdir qilibtur...
Bu Hind yeri hosilidin ko'b ko'ngil oldim
Na sudki, bu yer meni dilgir qilibtur.
Sandin bu qadar qoldi yiroq, o'lmadi Bobur,
Ma'zur tut, ey yorki, taqsir qilibtur.

U Vatandan shuncha yiroqqa tushib ham tirik yurishini qusur — xato hisoblamoqda va buning uchun, ya'ni g'urbatda o'lmagani uchun uzr so'ramoqda.

Bu ona diyorni chinakam muqaddas tutgan, taqdirning taqozosi bilan umrini olislarda o'tkazishga majbur bo'lganidan benihoya iztirobga tushgan ehtirosli qalbning o'tli tug'yonidir.

Buni biz soddagina qilib Vatanni sevish, vatanparvarlik deymiz. Va aytamizki, inson va insoniyat tushunchasi bor ekan, bu tuyg'u va bu mavzu o'lmasdir.

Bobur birgina mana shu tuyg'u, mana shu mavzu bilan ham bugungi kun uchun ulug' zamondosh atalishga haqlidir. Holbuki, bu Bobur she'riyatiga xos bo'lgan o'nlab barhayot tuyg'ularning birginasidir.

Mashhur «Boburnoma» hamma jihatdan — qamrab olgan materialiga, muallifning halol va xolisona pozitsiyasiga, tasvir ifodasiga ko'ra ham tarixiy nasrimizda yangi yo'lni boshlab berdi. Uning aruzga bag'ishlangan «Muxtasar»i she'riyatimiz vaznini keng va chuqur tahlil qilib bergan Navoiyning «Mezonul avzon»idan keyingi eng mukammal asar bo'lib turibdi. U arab yozuvining turkiy til xususiyatlariga mutanosib emasligini his qilib yangi imloni — «Xatti Boburiy»ni kashf etganda 20 yoshda edi. Uning huquqshunoslikka oid «Mubayyin»i Hindistonda markazlashgan davlatni iqtisodiy jihatdan mustahkamlashda uzoq davrlar boburiylar uchun dasturulamal bo'ldi. Agar biz Boburning musiqadan ham yaxshi xabardor bo'lganligini (chunonchi, «Chorgoh» savtini bog'laganini), nihoyat, sarkardalik shuhratini xayolga olsak, uning bizga hozircha nomigina ma'lum «Musiqa» va «harb ishi» asarlarining ham qimmati va ahamiyatini tasavvur qilish qiyin emas.

Darhaqiqat, butun umri jangu jadal bilan o'tgan bu nodir iste'dodning ijodiy salohiyati va g'ayratiga tan bermay iloj yo'q.

Bobur ijodi chindan ham adabiyotimiz tarixida betakror hodisadir. Uning boy ma'naviy dunyosi hamda tanti, shijoatli tabiati bilan beayov taqdiri orasidagi keskin ziddiyat asarlarida favqulodda aniqlik va tiniqlik bilan o'z ifodasini topdi. Uning ijodidagi asosiy ohanglardan bo'lgan g'urbat motivi «Boburnoma»ning ham boshidan-oxirigacha qizil ip bo'lib o'tdi. Vatanni muqaddas tutib, uni go'zal va mustaqil qilishga bel bog'lagan, lekin qismat zarbalari ostida undan ayri tushib, o'zga yurtlarni

mulku makon etishga majbur bo'lgan, umr bo'yi ona diyorining so'ngsiz ishtiyoq va iztirobi bilan yashagan sadoqatli farzandning alamli armoni «Boburnoma»ga qay bir darajada iqrornoma tusini bergan edi. U «tokay bu Farg'ona viloyatida sargardon bo'lub turmoq kerak, bir tarafg'a talab qiloyin», deb alam ustida Xurosonga o'tib, Kobulda yurt tuzganda ham ko'ngli taskin topmaydi. O'zining zinhor mol-dunyo gadosi emasligini, bu yerda muqim qololmasligini qayta-qayta ta'kidlaydi. So'ngroq qismatga yana bo'ysunib, «Hind sori yuzlan»ishini «yuz qaroliq» hisoblaydi. O'zga yurtlarning urf-udumi, madaniyatini hurmat qilgan, obod va ma'murligi uchun tirishgan va bular orqasida o'zi ham hurmat va qadr topgan bo'lishiga qaramay, har lahza ona diyorini qo'msaydi. «Bizning ehtimomimiz ul sarilar bormoqqa behad va beg'oyatdur... ul viloyatlarning latofatlarini kishi nechuk unutqay...bu fursatga bir qovun kelturub edilar, kesib yegach, g'arib ta'sir qildi. Tamom yig'lab edim»,- deb yozadi.

Uning «Boburnoma»si har qanday sulton havas qilsa arzigulik taxtu baxtga muyassar bo'lgan, lekin o'z yurtiga sig'magan va bundan qattiq iztirobga tushgan buyuk qalb egasining dardli kechinmalaridir. Bu asar, ikkinchi tomondan, 1449—1529-yillar davomida Movarounnahrda, Xuroson va Hindistonda yuz bergan tarixiy-siyosiy, adabiy-madaniy voqealarni o'rganishda qimmatli manba hisoblanadi. Boburning tasvir etilgan hodisalarning markaziy ishtirokchisi bo'lishi, uning xarakteriga xos ro'yirostlik va jo'mardlik bu asarga favqulodda ahamiyat baxsh etadi va uni eng ishonchli manba darajasiga ko'tardi. Muallifning nodir quvvai hofizasi, yuksak ma'rifat va madaniyati tufayli asar qomusiy xarakter kasb etadi. Undagi jug'rofiy nomlar, mamlakatlarning iqlimidan o'simliklar va hayvonlar dunyosigacha, urf-udumidan ilmu fununigacha qamrab olgan benihoya keng va batafsil ma'lumotlarning aksariyati fanning xilma-xil sohalari uchun noyob material sifatida bugungi kungacha o'z qiymatini yo'qotmasdan keladi. Mutaxassislarning fikriga qaraganda, kitob Hindiston hayotini o'rganishda Abu Rayhon Beruniyning shu nomda yozilgan asaridan keyingi o'zbek ilmida yaratilgan eng mukammal obidadir.

Adabiyotshunoslik uchun esa birinchidan, XV—XVI asrlar adabiy-madaniy harakatchiligini nozik fahmu idrok va yuksak

did bilan ko'rsatib bergan, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Muhammad Solih, Kamoliddin Behzod, Shayxim Suhayliy kabi o'nlab san'at egalarini xolis va halol baholagan, ularning hayoti va faoliyati, ijodining xos xususiyatlari, o'zaro aloqa-munosabatlari kabi juda ko'p masalalar haqida qimmatli materiallarga va fikr-mulohazalarga boy ilmiy asar bo'lsa, ikkinchidan, ulug' bir insonning jangu jadallarga to'la taqdirini dardli va hayajonli, ayni paytda benihoya samimiy hikoya qiluvchi badiiy asar hamdir.

«Boburnoma» XVI asrdayoq fors-tojik tiliga tarjima qilindi. So'ng esa Yevropaga yo'l oldi. Boburning dovrug'ini, u orqali esa o'zbek xalqining shuhratini olamga yoydi.

Uni Yuliy Sezarga qiyosladilar, shaxsini qadim Rim sarkardasidan ko'ra sevishga ko'proq munosib topdilar.

XIX asr ingliz tarjimoni Erskin uni kamdan-kam uchraydigan «genial va talant» kishilar qatoriga kiritdi. «...Aqlning aktiv faoliyati, xushchaqchaq, sovuqqonlik va bevafo taqdirning nayranglariga qaramay, ruhining tetikligi, podshohlar orasida kamdan-kam uchraydigan saxiyligi, mardligi, talantliligi, fanga, san'atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishi jihatidan olib qaraganda, Osiyodagi podshohlar ichidan Boburga teng keladigan bironta ham podshoh topolmaymiz», deb yozdi. N.I. Veselovskiy uning botirligidan hayratga tushdi.

Darhaqiqat, 19 yoshda bor-yo'g'i 240 kishi bilan Samarqandni Shayboniyxonning ko'p ming kishilik qo'shinidan tortib olgan edi. Ahmad Tanbal uch ming qurolli suvoriyni boshlab kelganda, u yuzta odami bilan ularga qarshi mardona jang qilgan edi. 1526-yilda Panipatda bo'lgan jangda Ibrohim Lo'diyning yuz ming kishilik askari ustidan o'n ikki ming odami bilan g'olib keldi.

Uning shaxsi ibrat, namunalari-chi?

1501-yilning qattiq qishida Xo'jand atrofida sargardon yurarkan, sovuqdan ikki-uch kishi o'lib, boshqalarga vahm tushadi. Shunda Bobur qirg'og'i qalin to'ng'ib-yaxlab qolgan ariqda o'n olti qatla suvga sho'nqiydi.

1506-yilda Hirotdan Husayn Boyqaro ta'ziyasidan tog' yo'li orqali shoshilinch Qobulga qaytishga majbur bo'lganda qalin qorga duch keladilar. Qorong'i tushadi. Bir qadam ham siljishning iloji qolmaydi. Shohga pana joy hozirlaydilar. Lekin u

kirmaydi. Askarlari bilan birgalikda tik oyoqda tong ottiradi. Uning dushman orasida yakka o'zi qolib ketgan va qahramonlik namoyish etgan paytlari ham ko'p bo'lgan.

Bunday misollar uning hayotida ko'r bo'lib, ular Bobur shaxsini bizga yanada jozibador qilib ko'rsatadi va uning siymosiga ko'rk bag'ishlaydi.

So'zi ham, ishi ham nomiga («Bobur»ning ma'nosi she'r ekanini esla'ylik) munosib bo'lgan xalqimizning bu mard va dono farzandi allaqachonlar tarixning daxlsiz mulkiga aylangan.

Jahon progressiv kishilari bu yil uning qutlug' 500 yillik yubileyini nishonlaydilar. Bu tantana uni voyaga yetkazgan, bashariy fikru o'ylariga, aqlu zakovatiga doya bo'lgan xalqimiz uchun nihoyatda qadrlidir.

Komronga maktub

933-yil rabiulavval oyining o'n oltisi. Milodiy hisobda 1526-yil 23-dekabr. Dehli. Yuzma-yuz jangda bas kelolmagan Bobur muholiflari notanti yo'l tutadilar. Bakovulni qo'lga olib, ovqatiga zahar qo'shadilar.

U rabiulavvalning yigirmanchisida (27-dekabr) Kobulga o'g'li Humoyunga yozadi: «Odina kuni kech namozi digar osh torttilar. Tovushqon oshidin xeyli edim... qoq go'shtdin bir-ikki tikka oldim. Ko'nglum barham urdi... qo'zg'olib keldi... Oxir ko'rdumkim, bo'lmas, qo'ptum. Obxonag'a borguncha yo'lda bir navbat qusayozdim... Obxonag'a borib qalin qustum. Hargiz oshdin so'ng qusmas edim, balki ichgandan so'ng ham qusmas edim. Ko'nglumg'a shubha kechti. Bovurchini saxlatib buyurdimkim, ul qayni itga berib, itni saxlag'aylar. Tonglasig'a bir pahraga yovuq it behol bo'lub, qorni dam qilg'ondek bo'ldi. Har necha tosh bila urdilar, evrushtilar, qo'pmadi...».

Bu xat «Boburnoma»da keltirilgan. Tarix guvohki, Bobur baxtli tasodif bilan o'lmay qoldi, lekin bu voqea uning sog'ligigagina emas, ruhiga ham qattiq ta'sir etgani aniq. «Boburnoma»da u farzandlariga, xususan, Humoyun va Komronga ushbu «Harib voqea»ni xat orqali ma'lum qilganini qayd etadi. Jumladan, rabiulavvalning yigirma to'qqizida (1527-yil 4-yanvar) aybdorlarga daxldor bir kishini (Ibrohim Lo'diyning o'g'lini) Komron qoshidan kelgan Mulla Sarson bilan qo'shib

yuborganini xabar qiladi. Lekin Komronga yuborilgan maktub «Boburnoma»ga kirgan emas.

1972-yili Qozon dorulfununi kutubxonasida saqlanayotgan o'zbek adabiyoti namunalarini ko'zdan kechirar ekanmiz, daf'atan Boburning o'g'li Komronga yozgan xatiga duch kelib qoldik. Mazmuniga ko'ra bu o'sha Mulla Sarsondan yuborilgan maktub edi. Maktub qo'lyozmaning ko'chirilgan nusxasi bo'lib, «Nasihatnomai Bobursho ba farzandi xud» (Bobursho hohning o'z farzandiga nasihatnomasi) nomi bilan 1272-T raqami ostida kutubxonaning «Nodir qo'lyozmalar bo'limi»da saqlanmoqda ekan. Qozon dorulfununi dotsenti, taniqli tatar adabiyotshunosi Xatib Minigulov iltimosimizga ko'ra mazkur maktubning foto-nusxasini olib yubordi (imkondan foydalanib, minnatdorchiligimizni bildiramiz).

Darvoqe, xatning qachon, qayerda, kim tomonidan ko'chirilgani haqida bir narsa deyish qiyin. U birmuncha e'tiborsizlik bilan ko'chirilgan bo'lib, talay g'alat va qusurlardan xoli emas.

Nasihatnomai Bobursho ba farzandi xud hazrati Bobursho G'oziy tobasaroh az Hinduston ba Qandahor firistonid ba farzandi xud mirzoyi komgor

Farzandi arshadu[2] arjumand[3] saodatnishon Muhammad Komron bahodirga salomi muhabbat anjomidin so'ng ulkim, ko'kaldoshu emikdosh va ichkilaring bilan sabaq o'qurg'a ruju' kelturub ermishsen. Bu jihattin ko'ngulga surur va xotirga huzur etib, na bisyor xushholliq yuz berdi. Tangri taolo dargohidin umidim borkim, jam'i qobiliyat va salohiyat bobinda, komil va mukammil bo'lub kamolga yetgaysen. Hamisha ushbu tariyqni mar'iy[4] tutub, zinhor taqsir qilmag'aysen. Nechukkim, hazrati Xoja Hofizdin manquldur:

Piron suxan zi tajriba go'yandu, guftamat,
Xon, ey (pisar), ki pir shavi, pand go'sh kun![5]

---

[2] Arshad—aqlli.

[3] Arjumand—qadrli.

[4] Mar'iy—rioya, e'tibor.

[5] Tarjimasi: «Ulug'lar gaplarini tajribalariga suyanib aytadilar. Ey o'g'il, ulug' bo'lsang ham nasihatimga quloq sol.».

Eshittimkim, Chig'atoy elikim, hazrati mag'fur va marhum Sulton Husayn Mirzodin qolibturlarkim, ul el(ning) ko'prak Xuroson eli bilan o'lturub-qo'pub, bisyor qobiliyat va haysiyat[6] paydo qilib, latofatdin xoli ermaslar. Agarchi, Xuroson eli xushtab' eldurlar, haysiyatlarida so'z yo'qtur, lokin mazhab va millatlarida tang bor. Fitnaangiz eldurlar. O'g'ulni otodin, anoni o'g'uldin oyururlar. Ularni(ng) so'ziga firiftan bo'lub[7], o'z ehtiyoting(n)i qo'lungdin bermagaysen. Turk ulusidin otosi qo'l boshlaqan, anosi to'y boshlagan (?), to'ra ko'rgan el borkim, otalari ota-onamizga xizmat qilib, jon tortib, issiq-sovuqda, safar va hazarda[8] birga bo'lub, lahza balki lamha[9] ayrilmayan. Xizmate shoista qilib va pandin-da barjoy kelturub-turlar. Ul eldin imtihon qilib, (sen) eshikinga yo'l berub, vakili mutlaq etib, g'ofil bo'lmag'aysen. Kichik yoshliq ersa, alardin kengash so'rub, maslahat tilab, alarning so'zi bilan amal qilib, aslo va mutlaqo hech muhimg'a ishtig'ol qilmag'aysen. Andishaliq beklar ilan (va) oliyroy qarochu davlatxohlarkim, hamisha muhim va maslahat ichinda bo'la kelib turalar, alarning savol-javob va kengashlaridin chiqmag'aysen. Xushomadgo'y so'ziga firiftan bo'lub, davlatxohlarkim, davlatga mu-nosib so'zni eshitib, ko'rub-bilib, kelib, yuzunga qotiq ayturlar, alarga achig'(lan)mag'aysen. Agarchi yuzunga filhol qottiq ko'rinur, oxir necha ko'b kuldirur.

Masaldurkim, do'st yig'latur, dushman kuldura aytur. Do'stu dushmanni tonib, bu mazmun ila amal qilg'aysen.

Misra': Joye gul-gūl bosh va joye xor-xor[10].

Taqi Qandahor cheriki ehtishomdur[11]. Har qaysi kichik-karimning so'zi bilan ul sori otlang'uvchi bo'lmag'aysen. Agar zarurat bo'lub, qobu tobib[12], otlanur bo'lsang, ish boshlagan, majolis ko'rgan, to'ra-to'qay ko'rgon, tuzuk qilg'on davlatxohlaringa ko'ngul berib, yaxshi aytib yibor. Eldin yaxshi so'zungi aytib, mukammal bo'lub, iste'dodi tamom bilan mutavajjih

---

[6] Haysiyat-e'tibor, layoqat.
[7] Firiftan bo'lmoq—mahliyo bo'lish, aldanish.
[8] Hazar—turg'unlik.
[9] Lamha—soniya.
[10] Tarjimasi: «Gulga gul, tikanga tikan bo'l»
[11] Yehtishom—hashamatli.
[12] Qobu tobib—lozim topib.

bo'lg'aysen. Yiroq-yoqindin eshiturga va ko'rurga munosib bo'lg'usidur.

Taqi nojins, kamzot, har necha xushtab va qobiliyatlik, bo'lsalar tarbiyat qilub, amuri mamlakatga[13] daxl bermagaysenkim, hazrati Shayx Sa'diydin manquldirkim:

Nokas bo tarbiyat nashavad, ey hakim, kas,
Dar bog' lola ro'yad va dar sho'ra xoru xas[14].
Hazrati mavlono Jomiydin bu qit'a mashhurdur:
Harki nokas buvad dar aslu sirisht,
Munqalib natavon kardan, ey jigar.
Nokasero agar kuni maqlub,
Qalbe u g'ayre basta kay nashavad[15].

Taqi Movorounnahr eli bisyor sodalavh eldurlar. Har nechai beqobiliyat bo'lsalar, alarga e'timod[16] qilsa bo'lur. Taxsis[17] ul qursi shabistonining[18] sham'i anvaridur, ayo gulistonining andalibi suxanvari hazrat Xoja Ubaydullohkim, imdod qilibturlar, to g'oyat bu ishlarni(ng) davlati ul azizlarning himmatidindur.

Ul silsilaning murid va ashobi[19] podshohzoda deb senga kelsalar, zinhor akrom va e'zozlarini mar'iy tutib, alarning borisida taqsir[20] qilmag'aysen. Alarkim, ishq bobinda bo'lurlar, sevarlarning itini ham sevarlar.

Taqi Hinduston kayfiyatin fathnomadin ma'lum qilgumdur. Ibrohimkim, Hinduston podshohi bo'lg'ay, aning o'g'li qo'lga tushubtur. Ani sen farzandi dilbandga yiborildi. Nechukkim, aning ahvolindan xabardor bo'lub, o'zung muqayyad bo'lg'aysen. Mundin so'ngkim, har voqeai yuz bersa, irsol qilgumdur.

---

[13] Amuri mamlakat—mamlakat idorasi.

[14] Tarjimasi: «Nokasni tarbiya bilan inson qilib bo'lmaydi, ey hakim, chunki bog'da gul unadi, sho'rxokda esa xas-xashak bitadi».

[15] Tarjimasi: «Kimki pastkash bo'lsa, uni tuzatib bo'lmaydi, ey jigar. Uni odam qilgan taqdiringda ham qalbi o'sha holda qoladi-ku».

[16] E'timod—ishonish, e'tiqod qo'yish.

[17] Taxsis—xususan.

[18] Qursi shabiston— falak tuni.

[19] Ashob—suhbatdoshlar.

[20] Taqsir—qusur, xato.

Vassalom. Husnung nazorasida payvastamiz. Rahguzir[21] yo'q. So'z ushbudirki: Jono, xoliqdin o'zga so'z yo'q.

Ulug'larni anglash siri

Tarix nima uchun o'rganiladi? Tarix biz uchun oyna, ibrat, muallim. Esli millat tarixdan saboq oladi. Nega bir vaqtlar bir-birlari bilan yuz yillab urushgan Yevropa mamlakatlari bugun bir-birlariga darvozalarini keng ochib qo'ymoqdalar, bitta «yevro»ga kelmoqdalar. Bu — o'tmish xatolaridan chiqarilgan saboq.

Meros-chi? Meros — insoniyatning bir joyga jamlangan aqli, tajribasi, usiz taraqqiyotni tasavvur qilish mumkin emas. Endi shu nuqtai nazardan Navoiy va Bobur ijodiga bir nazar tashlaylik.

Bobur yozadi: «Alisherbek naziri yo'q kishi erdi. Turkiy til bila to she'r aytubturlar, hech kim uncha ko'p va xo'b aytqon emas». Bobur — Navoiyning kichik zamondoshi.

Abdurahmon Jomiy e'tirof etadi: yaxshiyamki, u «Xamsa»-sini turk tilida yozdi, bo'lmasa, Nizomiy kim bo'lar edi-yu, Xusrav kim bo'lardi? Jomiy — Navoiyning katta zamondoshi, pir rutbasidagi kishi.

Husayniy — Sulton Husayn Boyqaro bu e'tirofni amalda namoyish etadi. «Xamsa»sini o'qib tugatgach, o'zining oq otiga shoirni o'tqazib, unga jilovdorlik qiladi. Husayn Boyqaro — Navoiyning tengdoshi.

Mayli, bular — zamondoshlar, yurtdoshlar, deylik. Oradan yuz yil o'tdi. Sharqda Fuzuliy oti bilan yana bir porloq yulduz chaqnadi. Endi u she'riyat ka'basiga aylandi. Biroq o'z saloxiyati bilan Navoiydan mutlaqo qolishmaydigan bu chaqnoq yulduz o'zini Navoiyga yaqin tutishdan iftixor qildi. Navoiyni g'azalning buyuk ustozlaridan deb bildi, «Navoiyi suhandon», deb ta'rif etdi. Uning «manzuri shahanshohi Xuroson»ligini ta'kidlab ko'rsatdi.

Mayli, bular — Sharq, islom dunyosi, turk dunyosi, o'rtada hamiyat bo'ladi-da, deylik. Qarbga o'taylik. Xristian dunyosiga nazar tashlaylik. 1557-yili Venetsiyada shoirning «Sab'ai sayyor»idan Bahrom va Dilorom sarguzashti tarjima qilinib bosildi.

---

[21] Rahguzir yo'q—behuda so'z.

XII asrda unga taqlidan gruzin tilida «Baramguriani» («Katta Bahromnoma» – «Sab'ai sayyor») yaratildi. Shu munosabat bilan «Baramguriani» muallifi mashhur gruzin shoiri Nodar Sisishvili yozadi: «Navoiy bu qissani («Sab'ai sayyor»ni – B.Q.) chig'atoy tilida yozgan. Kim shoirlikda biror kishini u zot bilan tenglashtira oladi?»

Mayli, buni o'tmish deylik. XX asrga kelaylik. Qarb va Sharqni besh qo'ldek biladigan akademik N.Konradga quloq solaylik. U o'zining «Средне-восточное возродие и Алишер Навоий» maqolasida buyuk shoir ijodini umumjahon adabiyoti taraqqiyoti kontekstida tahlil qiladi va «Saddi Iskandariy»dagi jahongirni dafn etishda uning bir qo'lining tobutdan chiqarib qo'yilishi tamsili munosabati bilan yozadi:

«Искандер умер. Согласно его предсмертной воле его тело везут для погребения в его любимый город – Египетскую Александрию. Везут в гробу... И из гроба высовывается рука с открытой горстью... Ничего в этой руке нет. Эта высовывающаяся из гроба рука с открытой горстью – художестченный образ поразительной силы. Если бы Алишер создал даже только этот один образ, мы все равно поняли бы, что перед нами гениальный поет».

Bular yoniga marhum akademigimiz, mashhur adabiyotshunos Izzat Sultonning ilmiy anjumanlarda ko'p takrorlaydigan quyidagi so'zlarini ham ilova qilishni istardim: «Alisher Navoiy zamonasining eng muhim muammolarini eng go'zal shaklda ifodalab bera olgan ijodkor edi».

Yana bir kichik ma'lumot. O'zbekiston Fanlar akademiyasining Til va Adabiyot institutida bo'lib o'tgan Navoiyga bag'ishlangan 47-yig'inda Saidbahrom Azizov degan bir professional astronom «hayrat ul-abror»dagi ayrim poetik obrazlar tahliliga kirishib, buyuk shoirning kometalar, umuman, falakiy ilmiy muammolar haqida favqulodda bilimga ega bo'lganligini, hatto ularning boshqa sayyoralar, jumladan, Yer bilan ham to'qnashib, umumjahon sivilizatsiyasi fojialariga olib borishi mumkinligi borasidagi hayratomuz bashoratlarni aytib ketganligini hayajon bilan gapirdi.

Bulardan qanday xulosalar chiqarish mumkin:

1. Alisher Navoiy, avvalo, milliy shoirdir. Bugun o'zbek deb atalgan bu qadim millatning did va nazokati, andisha va jaso-

rati, fe'li va tabiati uning shaxsidagidek hech bir shaxsda, uning ijodidagidek hech bir ijodda mukammal va bekamu ko'st namoyon bo'lgan emas. Bu millatning or-nomusi uchun hech kim uningchalik kuyib-pishgan emas edi. Uning ravnaq va istiqboli uchun, uning tili-adabiyoti, madaniyati-ma'naviyati uchun hech kim bu qadar jon kuydirmagan edi. Uning hayoti millatga xizmat qilishning betimsol namunasidir. Uning ijodi millat manfaatiga fidoyilikning timsolidir.

2. Alisher Navoiy o'zbek misolida birgina o'z millatining emas, butun insoniyatning dardu muammolarini ko'tarib chiqdi, har qanday milliy, diniy ayirmalardan balandda turdi. Butun insoniyatning yaxlit bir vujud ekanligini angladi. Angladigina emas, ijodi misolida isbot etdi. Shunga ko'ra u — jahoniy siymodir. Uning merosi umuminsoniyat mulkidir.

3. Alisher Navoiy-barcha zamonlar shoiri. Hamma zamonlarda unga ehtiyoj bo'lgan va bo'ladi. Har bir avlod undan o'ziga kerakli narsani topib keldi va bundan keyin ham topa oladi...

Xo'sh, bugun bizga, shoirning yangi mustaqil davlatini qurayotgan avlodlariga zamondoshligi va yelkadoshligini nimalarda ko'rish mumkin?

Avvalo, yuqorida keltirilgan har uchala xulosa uning bugun ham xizmatda ekanligiga yorqin dalil. Bunga shularni ham ilova qilish mumkin:

1. Navoiyning himmati bugun ham o'rnak va timsol bo'lib turibdi. Butun bor molu mulkini Vatan va millat farovonligiga sarf etgan, har yili ikki marotaba beva-bechoralarni to'plab, osh berib, kiyim tarqatgan, kezi kelganda, Hirotday ulkan shahar aholisining bir yillik solig'ini o'z yonidan to'lab yuborgan hotamtoylar ko'pmi? O'z yonidan yuzlab madrasa, rabot, ko'prik, xonaqoh, masjid qurdirganlar-chi? Bugun bozor iqtisodining murakkab sharoitida bunday himmatning qadri va bahosini tasavvur etish qiyin emas. «Ha, bor ekan, qilibdi-da, shunga shunchami!»,-degan nopisandlik og'zimizning bir chekkasidan chiqib ketishi mumkin. Borlar hozir ham kam emas. Bugun kimning cho'ntagida qancha puli borligini aniqlashning hech qiyin joyi yo'q. Masalan, xomcho'tlarga ko'ra, mamlakatimizda millionerlarning (so'mda emas, valutada) soni bizda ancha. Hatto, milliarderlar bor. Lekin qaysi birining himmatidan xabardorsiz?..

2. Navoiyning rag'bati hozir ham qo'l yetmas orzu bo'lib turibdi. Husayn Boyqaro o'z «Risola»sida birgina Hirot va uning atrofida mingdan ortiq kishi she'r bilan mashg'ulligini iftixor bilan qayd etadi. Bular, birinchi navbatda, Navoiy tufayli edi. Hunar va ilm ahli-chi?! Yana Boburni yordamga chaqiramiz. U yozadi:

«Ahli fazl va ahli hunarga Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lgay». E'tibor qiling, ilm-fan egalariga uningdek kuchli va e'tiborli murabbiy bo'lgan emas va bo'lishi ham noma'lum demoqda Bobur. Bugun vasiylar, homiylar ko'pmi bizda?

3. Navoiy butun umr xalq ichida yashadi, u bilan birga yashadi. Xondamir uning Hirotdagi mashhur Jome' ta'mirida etagini beliga qistirib, binokorlar yonida ishlaganini yozib qoldirgan.

1499-yili ko'pdan haj orzusida yurgan shoir podshohdan, nihoyat, ijozat olib yo'lga tushadi. Shoh esa isyon ko'targan o'g'li Abulmuhsinga qarshi kurashga yo'l oladi. Abulmuhsin sulh uchun faqat Navoiyninggina vakil bo'lishini shart qilib qo'yadi. Yana Navoiyni qaytarib olib keladilar. Shoh unga mamlakatda qolishga rozilik bersa, istagan shartini bajarishini va'da qiladi. Navoiy esa Abdulla Ansoriy maqbarasining «jorubkash»ligini (supurib-sidiruvchi xizmatkorligini) so'raydi va «Ravzat us-safo»ning ma'lumot berishicha, bunga muvaffaq bo'ladi. Alisher Navoiy shaxsi mana shunday jozibadorligi, betakrorligi bilan hammani maftun etib kelmoqda.

Uning ijodi-chi? Bu ijod mana besh asrdan oshibdiki, she'riyat muxlislari uchun bitmas-tuganmas zavq va surur manbai, ijod ahli uchun esa darsxona, ibratxona vazifasini o'tab keladi.

Bugun uning qadru qimmati o'rniga qo'yilib, ijodi chinakamiga xalq mulkiga aylandi. Navoiyshunoslik fan sifatida katta yutuqlarni qo'lga kiritdi.

Navoiyshunoslarning bir necha avlodi shakllandi. Shoir asarlarining 20 jilddan iborat akademik nashri nihoyasiga yetay deb qoldi. Bugun uning asarlari tavsifdan tahlilga, bayondan talqinga yuz tutmoqda. Yana muhimi, bu meros haqli suratda tasavvuf adabiyoti kontekstida, buyuk shoir uchun xos bo'lgan majoz va haqiqat tariqini baravar ushlagan holda tadqiq etilmoqda.

20-yillardagi J.Boybo'latovning Navoiyni «panturkizm otasi» sifatida ayblovlari, 40—50-yillardagi badiiy asarlarni Navoiy va Husayn Boyqaro konflikti asosiga qurish, 60—70-yillardagi buyuk shoirni alkogolizmga qarshi kurashga xizmat qildirish yoxud ateist sifatida ko'rsatish, xayriyatki, o'tmishga aylandi. Bugun u mustaqillik yaratgan shart-sharoit va imkoniyatlar asosida jahoniy andozalarga mutanosib holda, Vatan va millat manfaatlaridan kelib chiqib, o'rganilmoqda. Bular juda yaxshi, albatta. Lekin bizningcha, bu borada maslahatlashib oladigan masalalarimiz ham yo'q emas.

1. Keyingi ayrim maqolalarda Navoiy ijodini ideallashtirish, shoirni «adabiyot payg'ambari»ga aylantirish, uning har bir so'zini mutlaq haqiqat hisoblash, bunga ozgina shak keltirgan kishini «dahoga tosh otish» tarzida qabul qilish hollari ko'zga tashlanmoqda. Bu, bizningcha, to'g'ri emas. Avvalo, «Beayb — parvardigor», deydi xalqimiz. Ikkinchidan, Navoiyning kamtarona, hatto, xoksorona hayotiga ishora qiluvchi hasbu hollarini shunchaki etiket deb qarash yoki Boburning uning injiq tabiati— «nozuk mizoj»ligi haqidagi fikrlari bilan hisoblashmaslik masalaga bir tomonlama yondashish, deb o'ylaymiz.

Nihoyat, Navoiy merosi aniq tarixiy hodisa sifatida barcha zamonlarning barcha talablariga bab-baravar, bekamu ko'st javob berishi mumkin emas. Unda, albatta va tabiiy ravishda, muuayyan darajada eskirgan fikrlar ham uchraydi. Uzoqqa bormang, «hayrat ul-abror»dagi odob-axloq talqinlariga bir e'tibor qiling. Bu mutlaqo, tabiiy. Dunyoda o'zgarmaydigan mutlaq haqiqat yo'q va bo'lishi ham mumkin emas.

2. Keyingi paytlari «Navoiyni tushunish qiyin»ligini qalqon qilib. uni «soddalashtirish», asarlarining, hatto g'azallarining «nasriy bayoni»ni berish lozimligi aytilmoqda.

She'rni bayon qilib bo'ladimi? Ayniqsa, g'azalni. Yana Navoiyning g'azalini. Uni faqat Navoiy miqyosidagi iste'dodgina qila oladi. Sharhi bo'lsa, boshqa gap. Uni har kim o'z aqli va taxayyuli darajasiga qarab sharhlayverishi mumkin. «She'rning nasriy bayoni» degan gap uning eng muqobilini ko'rsatib berish da'vosi bilan chiqish-ku! Bunga o'sha shoirning o'zi jur'at qilarmikan?!

Bizningcha, birinchi prinsip — buyuk shoir ijodini ideallashtirish, g'ayriilmiyligidan tashqari, undan bizni qanchalik

uzoqlashtirsa; ikkinchisi, shunchalik sovitadi. Turkiya necha zamonlardan buyon Navoiynigina emas, hatto, XIX asr «Sarvati funun» adabiyotini ham «nasriy bayon» bilan beradi. Yosh avlodning ularga qiziqishida biror o'zgarish sezildimi? Menimcha, yo'q. Biz ham shu yo'ldan boradigan bo'lsak, bugungi avlod Navoiydan bebahra o'sadi.

Endi bir-ikki og'iz gap Bobur haqida.

Bobur hayoti va ijodini o'rganish borasida so'nggi o'n yilda amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan ishlar shu qadar ko'lamdor va sermazmunki, uni hech bir hodisaga qiyoslab bo'lmaydi. Bizdagina emas, jahon miqyosida ham bu borada katta ishlar qilinmoqda. Eyji Manoning Yaponiyada «Boburnoma» nashrini bir necha jildda, tadqiqoti bilan qo'shib, e'lon etishi bunga yorqin dalil. Bobur badiiy asarlar, ular asosida yaratilgan videofilmlar tufayli xalqimizning sevimli qahramoniga aylandi. Yaqinda «Boburnoma»ning tuzatilgan, to'ldirilgan nashri chiqdi. Bular bobur shunosligimizning salmoqli yutuqlaridir. Shoh va shoir Boburning 520 yilligiga munosib armugondir.

Bu yerda ham maslahatlashib oladigan masalalar yo'q emas. Masalan, keyingi nashrda «Boburnoma»ga kiritilgan yangi matnlar tabdillashtirilibdi. Jumladan, biz 1972-yili Qozondan topib e'lon qilganimiz «Boburning o'g'li Komronga maktubi» asl matndan birmuncha uzoqlashtirilib, bugungi tilda bayon qilinibdiki, solishtirib ko'rgan kishi darrov payqaydi. Ikkinchidan, asarda Hindiston bilan bog'liq turli-tuman atamalar, jug'rofiy nomlarni asliy shakl va talaffuziga ko'ra berishga moyillik seziladi. Har qanday til boshqa tildan so'z olganida o'zining qonun-qoidalariga moslab olmaydimi? Bu borada ham o'ylab ko'rilgani yaxshi.

Nihoyat, yana bir gap. Bobur bir munosabat bilan «Sevarlarning itini ham sevarlar...» degan edi. Boburda ham o'sha zamonning nuqsi tekkan jihatlar yo'q emas. U jangu-jadallar ichida yashagan shaxs. Butun umri urushlarda kechgan shoh. Urushlarning esa o'z qonunlari, shafqatsiz qonunlari bo'ladi. Bobur ham, tabiiyki, bu qonunlardan chetda turgan, to'g'rirog'i, turolgan emas. Buni hisobga olish kerak. Bobur ham kezi kelganda, raqiblarini ayagan emas. Boburni sevishgina kifoya qilmaydi, uni anglash ham kerak.

Shoirlarimizning tavallud kunlari ular xotirasini yodga olish, tarixiy xizmatlarini taqdir etish uchun muhim bir imkon. Sizu biz uchun esa bulardan tashqari, ular ijodini o'rganish, bu boradagi ishlarimiz bo'yicha fikr almashish uchun qulay bir fursat hamdir.

So'zimni Boburning so'nggi g'azalidan olingan quyidagi misralar bilan tugatishni istardim:

G'urbatta ul oy hajri meni pir qilibtur,
Hijron bila g'urbat manga ta'sir qilibtur.
Maqdur boricha qiluram sa'yi visoling,
To Tengrini bilmonki, ne taqdir qilibtur...
Sendan bu qadar qoldi yiroq, o'lmadi Bobur,
Ma'zur tut, ey yorki, taqsir qilibtur.

Bobur, sendan shu qadar yiroqda qolib, uzoqda yashab o'lmadi, ey ona diyor. Holbuki, u sensiz allaqachon o'lishi kerak edi, o'lmadi! Sen uning bu gunohini kechir, avf et!

Hammaga Vatanni shunday sevish nasib etsin!

Turkiy adabiyotlarni davrlashtirish masalasi

Adabiyotni davrlashtirish muhim nazariy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi hammamizga ma'lum. Shu jumladan, turkiy adabiyotlarni ham. Gap shundaki, har qanday davrlashtirish o'sha adabiyotning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini belgilamoqdir. Taraqqiyot bosqichlarini belgilamoq esa xos jihatlarini aniqlamoqdir. Bular esa, o'z navbatida, uni o'rganish va o'rgatishning asosiy omillarini tashkil qiladi.

Shu jihatdan olib qaraganda, turkiy adabiyotlarning bosib o'tgan yo'li g'oyat sermazmun va benihoya ibratlidir.

Ikkinchi tomondan esa bugun turkshunoslikning, shu jumladan, adabiyotlarimizning tarixi va taqdirini birgalashib o'rganishga juda katta ehtiyoj bor. Ehtiyoj bilan birga juda katta imkoniyat ham bor. Negaki, bizni birgina til emas, dil emas, din-e'tiqodgina emas, butun kechmish, mushtarak tarix, baxtlar-baxtsizliklar bog'lab keladi. Orzular va armonlar birligi bog'lab keladi. Nihoyat, hamkorlik uchun yana bir omil bor. Bu — hammamizdagi buyuk istakdir. Bizni bugun bu yerga yiqqan narsa mana shu istakdir.

Avvalo, tarixi uzoq asrlarga borib taqaladigan turkiy xalqlar adabiyotini, bugun ayrim hamkasabalarimiz rioya etayotganlari singari uchga bo'lib o'rganish, ya'ni islomgacha bo'lgan turk adabiyoti, turk islom adabiyoti, yangi adabiyot shaklida o'rganishni maqsadga muvofiq hisoblaymiz. To'g'ri, bunday ajratish, g'oyat umumiy va qisman mantiqsizligi ham borday tuyuladi. Masalan, yangi adabiyot islomdan xolimi degandek. Shularga qaramasdan, u turkiy adabiyotlarning ma'lum tarixiy bosqichdagi eng umumiy jihatlarini birlashtira oladi. Bu bosqichlarning xronologik chegaralari — birinchisi — X asrgacha bo'lgan davr, ikkinchisi — XIX asrgacha bo'lgan davr, uchinchisi — XIX asrdan buyog'i.

Lekin bunday davrlashtirish ham masalani hal qilib bera olmaydi. Adabiyotni eng kami ikki-uch yo'nalishda — xalq tarixining muhim bir qismi, xalq hayoti oynasi va tabiiyki, badiiy tafakkur rivoji nuqtai nazaridan o'rganish unga juda ko'p jihatlardan yondashishni taqozo qiladi. Men shu munosabat bilan ayrim qardosh hamkasabalarimizning bu masalani qanday yoritishlarini ko'zdan kechirdim.

Akademik Orif Dadashzoda 1979-yilda Moskvada nashr etgan «Азербайжанская литература» kitobida mazkur adabiyotni shunday davrlashtiradi: Xalq og'zaki ijodi, XI—XII asrlar adabiyoti, XIII—XIV asrlar adabiyoti, XVII—XVIII asrlar adabiyoti, XIX asr adabiyoti, XX asr adabiyoti, sovet davri adabiyoti. Professor X.Koroglining «Туркменская литература» (Moskva, 1972) kitobida bu adabiyot asosan uch davrga bo'linadi:

1) XIII asrgacha bo'lgan adabiyot;
2) XIII—XIX asrlar adabiyoti;
3) Sovet davri adabiyoti.

XX asrning 80-yillari o'rtalarida chop etilgan 6 jildlik «Tatar adabiyoti tarixi»da davrning ijtimoiy-siyosiy, etnik belgilarini umumlashtirishga moyillik seziladi. Masalan, tatar hamkasaba-larimiz yozma adabiyotning ilk davri IX—XIII asrlarni «Bulgor davri» deb ataydilar va Qul Alining «Qissai Yusuf»ini shu davr adabiyoti mahsuli sifatida o'rganadilar. Boshqird do'stlarimizda bu deyarli tamoyil (tendensiya) holida ko'rinadi. Chunonchi, 90-yillarning boshida chiqqan «Boshqird adabiyoti tarixi»ning 6 jildligida adabiy tarix asosan uch davrga bo'linadi:

1) Bulgor davri (XI–XIII asrlar),
2) Qipchoq davri (XIII–XIV asrlar),
3) Rusiya davri(XIV asrdan keyin).

Bunga yaqin yondashuv bizda o'zbek adabiyotshunosligida o'tgan asrning 20–30-yillarida kuzatiladi. Masalan, o'sha yillari XIV–XVI asrlarni «Chig'atoy davri adabiyoti», XVII–XIX asrlarni «Oltin beshik davri adabiyoti», XIX asr oxiri XX boshini «O'zbek burjua adabiyoti» deb nomlash rasm bo'lgan.

Biz – olti turkiy jumhuriyatlar adabiyotchilari 1995-yilda Turkiyada o'rta maktablarning yuqori sinflari va yuqori litsey o'quvchilari uchun mo'ljallangan mushtarak «Turk dunyosi adabiyoti» darsligi ustida uch oy davomida ish olib bordik. Unda ham asrlar usuli ustuvor bo'ldi. Lekin adabiy siymolarni baholashda bo'lmasa ham tanlash va kiritishda ma'lum mushtaraklikka erishildi. Chunonchi, ilk bosqich «X asrga qadar bo'lgan turkiy adabiyot» deb nomlandi va xalq og'zaki ijodi hamda kitobalarni qamrab oldi. Keyingi davr «X–XII asrlar»dan tasavvuf obzori va Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Nizomiy Ganjaviy joy oldi. « XII–XIV asrlar»ga Yunus Emro, Qozi Burhoniddin, Kodekus Kumanikus, Nosiriddin Rabg'uziy, Nasimiy, Sayfi Saroyi kiritildi.

«XV asr» Alisher Navoiy, Qayg'usiz Abdol, Sulaymon Chalabiy, Asan Qayg'i ijodidan tashkil topdi.

«XVI asr»ga Fuzuliy, Bayramxon, Shoh Ismoil Hatoiy, Bobur kiritildi.

«XVII asr»dan Nobiy, Qorachao'g'lon, Mashrab, Avliyo Chalabiy, Abulqozi joy oldilar.

«XVIII asr» Mahtumquli, Buxor Jirov, Voqif, Andalib, Huvaydo, Qurbonali Ma'rupiy asri deb kelishildi.

«XIX asr»ga Dadalo'g'lu, Molda Niyoz, Jambul, To'xtag'ul, Ogahiy, Nodira, Nomiq Kamol, Tavfiq Fikrat, Mirzo Fathali Oxundzoda, Ismoilbek Gasprali, Yusuf Oqchura, Abay, Kamina, Mulla Napas, Seyidiy kiritildi.

«XX asr adabiyoti» mamlakatlar prinsipi bilan hal qilindi. Chunonchi, Ozarbayjondan A.Sobir, J.Mamadqulizoda, Husayn Jovid, Samad Vurg'un, M.H.Shahriyor, B.Vahobzoda ijodi olindi. Qozog'istondan Shokarim, Mag'jon, M.Avezov, H.Sulay-

mon tanlandi. Qirg'izistondan B.Aliqulov, Q.Tinistiuli, A.To'qomboyev, A.Usmonov, Ch.Aytmatov ijodi olindi. O'zbekistondan A.Fitrat, A.Cho'lpon, A.Qodiriy, Oybek, A.Oripov kiritildi. Turkiyadan M.E.Yurdakul, U.Sayfiddin, Ziyo Ko'k Alp, M.A. Erso'y, Ya.K.Bayotli, R.N.Guntekin, F.N.Chamlibel, A.H.Tanpinar, O'rxon Vali, Arif Nihot Asiya, Tariq Bo'qro ijodlari olindi. Turkmanistondan B.Kerboboyev, X.Deryayev, O.Otajonov, K.Qurbonnepesov kiritildi.

Bunday davrlashtirish va tanlovning tarafdorlari bo'lganidek, muxoliflari ham topiladi. Bu — tabiiy. Lekin bir narsani dastlabki qadam sifatida e'tirof etish kerak bo'ladi. Bu turkiy adabiyotlarning yaxlit, umumiy manzarasini belgilashga urinish. Turkiy adabiyotlarni bir joyga keltirishga bo'lgan harakat. Ularni o'zaro aloqadorlikda, hamkorlikda rivojlangan hodisa sifatida ko'rish va ko'rsatish tajribasidir.

Aslida shunday bo'lgan emasmi? Bir vaqtlar xoqoniy turkchasi, so'ng chig'atoy, so'ng o'g'uz turkchalari turkiy adabiyotlarning yo'l-yo'nalishlarini belgilovchi omil bo'lmadilarmi?

Alisher Navoiyning:

Agar bir qavm, gar yuz, yo'qsa mingdir,
Muayyan turk ulusi xud meningdur.
Olibmen taxti farmonimqa oson,
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson, —

degan satrlari adabiyotlarimizning hamkorligiga, adabiy tilning buyuk birlashtiruvchilik roliga dalil emasmi?

Lekin ochig'ini aytganda, umumturk adabiyotini yaxlit bir jild ostida to'plash g'oyat qiyin kechdi. O'rtada kechgan ko'p asrlik zamon va makon ixtiloflari, turli siyosiy tizimlar tazyiqi ostida turli tomonga sochilib ketgan qardoshlarimiz ma'naviy merosini bir yerga to'plashda va, ayniqsa, yaxlit umumiy bir qarash asosida joylashtirish va baholashda talay mushkulotlar bor edi. Shulardan eng jiddiysi «mulk janjali» edi. Shu sababli, mumtoz adabiyotimiz namoyandalarining qaysi xalqqa mansubligini belgilashda bahslar ko'p bo'ldi. Sirasini aytganda, bu bahslar bugun paydo bo'lgani yo'q. Ko'pdan keladi. Masalan, biz bir vaqtlar qutbni yetarli dalil keltirmasdan Qutb Xorazmiy deb taxallus nisba bilan e'lon qildik. Mening tataris-tonlik

do'stim akademik Xatib Minigulov u haqda monografiya yozdi va shoirni taxallusidan kelib chiqib, qutbdan – shimoldan, shu sababli u turk-tatar shoiri deb tanitdi. Sayfi Saroyi bilan ham shunday bo'ldi. Turkman va o'zbeklar orasida Andalib masalasida ham shunday hol mavjud. X–XII asrlarda yashagan mashhur adiblarimiz va qomusiy olimlarimizga yondashishda ham ko'rpani o'z ustilariga tortib olishga urinish yo'q emas.

Zamonamizning buyuk yozuvchisi Chingiz Aytmatov tobora qoida tusini olib borayotgan bu tamoyilni umumiy ishimizga jiddiy xalaqit berayotgan bir to'siq sifatida ko'rsatgan edi. Muxtor Shaxanov bilan bo'lgan suhbatida shunday deydi:

«... прекрáсно понимая какое значение для всех нас имеют наши великие предки, начинаем каждого из них тянуть в свою сторону. Мы почему-то смотрим на то, где этот человек родился, а потом определяем его принадлежность по нынешнему территориальному делению и каждый тянет его в свою национальность... Таким образом, получается так, что Ходжа Ахмед Яссавий – казак, Мехмуд Кошгарий – уйгур, Юсуф Баласогуни – киргиз, Мухаммед ал-Хорезми – узбек, и каждый из них как-будто получил соответствующую метрику. При чем, при этом делении между учеными то возникают, то утихают ожесточенные споры.

И если история наших народов начинается с сакской эпохи и народы эти до определенного периода назывались тюрками, то наши великие предки и их научные и творческие наследия являются общими для народов Средней Азии и Казахстана. Поскольку предки наши жили в общем доме, говорили и писали на одном языке, то почему мы сейчас делаем из этого проблему на пустом месте? Почему никто из нас не скажет, что пришло время это богатое и сложное наследие тщательно, всем вместе изучать, систематизировать, не растаскивать по разным углам, а собрать все в единое место, разработать канонические тексты этих трудов, опубликовать их как общее наследие всех тюркских народов и внести их в нашу же общую историю как составную часть! Или это следствие прошлой имперской политики «разделяй и властвуй», которую мы не можем

изжить сами? Так только нам самим и необходимо его изжить»[22].

Chingiz To'raqulovichning bu gaplari, o'ylaymanki, izohga muhtoj emas. Zamoni bilan goh Xorazm, goh Bolasog'un, goh Buxoro, goh Bulg'or, goh Oltin O'rda, goh Hirot turk dunyosining ilmiy-madaniy markaziga aylandi va bu yerlardan taralgan ziyo butun turk olamini yoritdi. Bu olamning eng olis burchaklaridagi mitti turkiy qavmlargacha bu shu'ladan bahramand bo'ldilar. 1968-yildagi Navoiy tavalludining 525-yilligi tantanalarida olis Saxa muxtor jumhuriyati adabiyotshunoslaridan Yakutskiy bizning mashhur «Sharq yulduzi» jurnalimizda «Navoiy — bizning ham shoirimiz» degan maqola bilan chiqqan edi. Bu tasodifiy hodisa emas. Holbuki, bu ilmiy-madaniy markazlar va ularning mahsulotlari taqdir taqozosi bilan ayri-ayri mamlakatlar, davlatlar sarhadlariga o'tib qoldi. Bir-birimizdan uzoqlashishlar esa, zamonning zayli bilan kuchayib bormoqda. Nima qilmoq kerak?

Demak, bizning birgalikda qiladigan eng muhim ishlarimizdan biri mushtarak ilmiy-madaniy merosimizning ko'lami va darajasini aniqlash, hamjihatlikda o'rganishning reja va yo'nalishlarini belgilab olmoqdir. Bu borada agar umumiy bir to'xtamga kelinsa, arxiv va fondlarimizda, kutubxonalarimizda saqlanayotgan qo'lyozma manbalarning umumiy katalogini tuzishdan bevosita tadqiq etishgacha bo'lgan ishlarni rejalashtirish imkoni paydo bo'ladi.

Lekin tabiiyki, umumiy mulkning ham chegaralari bor va bizningcha, bu chegaraning umumiy sarhadlari XV asr — Navoiy ijodi bilan yakunlanishi haqiqatga muvofiqroq ko'rinadi.

Va, muhimi, bunga barcha darslik va tadqiqotlarimizda amal qilmoq kerak bo'ladi. Shundagina kuzatilgan maqsadga erishish mumkin.

Adabiyotimiz tarixini o'rganish va shu jumladan, davrlashtirish masalalarini to'g'ri hal qilishda yechilishi zarur bo'lgan ikkinchi muammo boshdan oxir fors tilida ijod etgan ijodkorlarga munosabat masalasidir.

---

[22] Ч.Айтматов. Собрание сочинений, в 7 томах, том 6. — М.: 1998, стр. 505–506.

Bizda, masalan, kelib chiqishi asli o'zbek turklari bo'lgan, lekin zamon taqozosi bilan boshqa mamlakatlarga ketib, boshqa tillarda ijod qilgan millatdoshlarimiz butunlay adabiyotimiz tarixidan chetda keladi. Masalan, buyuk hamsanavis Hisrav Dehlaviy, she'rga ming bir ma'no singdirolgan Mirzo Abdulqodir Bedil, isyonkor shoir Mirza G'olib asli Shahrisabzdan va o'zlarining turkiy ekanliklarini har doim ta'kidlab kelganlar. Hisrav Dehlaviy o'z yurtini tashlab ketishga majbur bo'lgani sabablarigacha yozadi.

Masalan: Ro' bo hind ovardani sohibdilon bechiz nest (Sohibdillar – dil egalarining, yurakli insonlarning Hindistonga yo'l olishi sababsiz emas) deyishi shunga ishora edi. Darhaqiqat, uning otasi amir Sayfiddin mo'g'ullar bilan jangda halok bo'lgan edi. Shahrisabz tarixga birgina shoirlarni emas, Amir Temurdek sarkarda, davlat arboblarini ham yetkazdi. Darvoqe ushbu shahar bu yil YuNESKO qarori bilan o'zining 2700 yilligini nishonlaydi. Yo bo'lmasa, Amir Temur naslining Hindistonda ungan gullaridan Zebunisoni olaylik. Bugina emas, tuprog'imizda tug'ilgan va o'sib voyaga yetgan nomlari haqli suratda fors adabiyotini bezab turgan juda ko'p qalam egalari, masalan Navoiy «Odamush shuaro» (Shoirlarning odamotasi) deb ta'riflagan Abu Abdullo Rudakiydan Sayido Nasafiygacha, «Ahmad kalla» nom olgan Ahmad Donishgacha o'rganilishi va turkiy adabiyot rivoji nuqti nazaridan baholanishi kerak. Shu jihatdan, ozarboyjon qardoshlarimizning buyuk Nizomiyni, turkiyalik hamkasabalarimizning Mavlononi o'z adabiyotlarining bosh sahifasiga olishlari shoyon diqqatga sazovordir.

Bir-ikki og'iz gap sovet davri adabiyotining davrlashtirilishi haqida.

Men, afsuski, o'zaro axborot almashuvi yo'lga qo'yilmaganligi sababli qardosh adabiyotlarda sobiq sovet adabiyoti bugun qanday davrlashtirilib o'rganilayotgani bilan tanish emasman. Lekin nomi yuqorida tilga olingan akademik O.Dadashzoda va professor X.Korogli kitoblaridagi taqsimot esimda. O.Dadashzoda to'rtga bo'ladi:

1) 1917—1920-yillar;
2) 1920—1930-yillar;
3) urush yillari;
4) urushdan keyingi davr.

Prof. Korogli uchga bo'ladi;
1) shakllanish (1917—1929-yillar);
2) taraqqiyot (30-yillar);
3) urush va undan keyingi davr.

Bunday davrlashtirish va bahoni zamon allaqachon rad etganligi hammaga ravshan. Sarlavhalarning o'ziyoq buni ko'rsatib turibdi. Shularga qaramay, bir-ikki izohga ehtiyoj bor. Birinchisi, 30-yillarning rivojlanish, taraqqiyot deb baholanishi masalasi. Bunday baho badiiy adabiyotga sovet mafkurasi nuqtai nazaridan yondashuvga ko'ra to'g'ridir. Lekin umuminsoniy taraqqiyot va badiiy tafakkur rivoji jihatidan olib qaralganda haqiqatdan uzoq edi. Masalan, 30-yillarni taraqqiyot yillari deb bo'ladimi? 30-yillar bugun umuman, yer kurasining buhronga kirgan yillari deb qaralmoqda. Gitler bilan Stalinning xuddi shu yillari hokimiyat tepasiga kelgani bunga dalil. Yaponlar-chi, dunyoning eng beozor va muloyim, ovoz ko'tarishni eng katta madaniyatsizlik hisoblaydigan yaponlar Xitoyda nimalar qilmadilar?! Hatto, ayrim mutaxassislar, 30-yillarda dunyoning o'zga sayyoralaridan ko'z ilg'amas g'ayriinsoniy yovuz bioenergiyalar yuborilib, kishilarga ta'sir o'tkazilmadimi ekan deyishgacha boradilar. To'g'ri, badiiy adabiyot va jamiyat taraqqiyotining o'z rivojlanish yo'llari bor. Ular o'zaro birbirlariga ta'sir ko'rsatsalar-da, hal qiluvchi rol o'ynamasliklari mumkin. Lekin faqat davlat diktaturasi yoxud mafkura diktaturasi bo'lmagan jamiyatdagina buni kuzatish mumkin.

Yo bo'lmasa, urush ta'rifini olaylik. Hammasida bir xil: «Ulug' vatan urushi...». Bu, hozir, menimcha, barcha joyda tugatilgan bo'lishi kerak. SSSRning biz uchun vatan bo'lmaganligi bugun birinchi sinf o'quvchisiga ham ma'lum. Biz salkam o'n yil oldin uni o'z nomi bilan «Ikkinchi jahon urushi» bu davr adabiyotini esa «Ikkinchi jahon urushi davri adabiyoti» deb nomlaganmiz.

Bu gaplardan «sovet davri adabiyotini o'rganmaslik kerak», «sovet davri adabiyotimiz — ikkinchi sort» degan ma'nolar chiqmaydi albatta. O'tgan yetmish yil ham bizning tariximiz, undan ko'z yumib bo'lmaydi. Adabiyotimizning uch-to'rt avlodi shu davrda shakllandi. Qanchad kerakli talantli asarlar yozildi. Lekin bularning deyarli hammasi biri ozroq, biri ko'proq sovet mafkurasiga xizmat qildirilgan edi. Ularni o'rganish kerak, lekin

izohlar bilan va mutlaqo bugungi kun hamda eng muhimi, Millat va Vatan manfaati nuqtai nazaridan o'rganish kerak.

O'zbek adabiyotshunosligida bu qanday hal qilinmoqda?

1997-yilda nashr etilgan bir jildlik «O'zbekiston Respublikasi» ensiklopediyasida keyingi 130 yillik o'zbek adabiyotini davrlashtirishda yangi bir kosepsiya o'rtaga tashlandi. Chunochi XIX asr so'nggidan XX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davr alohida ajratib olindi va «Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti» deb nomlandi. XIX asrning so'nggi choragida samarali faoliyat ko'rsatgan Muqimiy, Furqat, Komil Xorazmiy, Ibrat, Feruz kabi shoirlar bu adabiyotning qaldirg'ochlari edilar. Milliy uyg'onish adabiyoti mohiyatan yangi adabiyot edi. Va u mazkur davr uchun xos bo'lgan qizg'in islohotchilik harakati bilan yonma-yon bordi. Shunga ko'ra bu harakat tariximizda «Jadidchilik», adabiyot esa «Jadid adabiyoti» nomini oldi. Jadidchilikning eng qizg'in davri 1900—1917-yillarga to'g'ri kelgan bo'lsa, jadid adabiyotining eng sermazmun va sermahsul davri 1917—1929-yillarga to'g'ri keldi. Chinakam yangi o'zbek she'ri shu davrda shakllandi. Cho'lpon uning boniysi bo'lib tarixga kirdi. O'zbek romanchilik maktabining zafarli yurishi shu davrga to'g'ri keldi. Abdulla Qodiriy uning asoschisi sifatida e'tirof etildi. Zamonaviy adabiyotshunoslik fani xuddi shu yillari Fitrat misolida o'zini namoyon qildi. Fitrat birgina yangi adabiyot ilmi emas, biz uchun tamom begona bo'lgan yangi adabiy-badiiy tur—dramaturgiyaga ham asos soldi. Aslida sovet hukumati 20-yillarning o'rtalaridanoq, o'zini xatarsiz seza boshlagan birinchi kunlardanoq jadidchilikka qarshi urush e'lon qilgan edi. 1929-yildan keyin «Kim kimni yengadi» degan kurashda g'olib chiqqandan so'ng jadidlarni qatag'on qilishga o'tdi. Masalan, 1926-yilda Abdulla Qodiriygina qamoqqa olinib, ko'p o'tmay chiqarib yuborilgan bo'lsa, 1929-yilda «Munavvarqori va uning to'dasi» nomi bilan 87 kishi qamoqqa olindi va 1931-yilda ularning eng mashhur vakillaridan besh kishi otishga hukm qilindi. Jadid adabiyoti mana shunday sharoitda o'zining eng sara namunalarini yarata oldi.

30—50-yillar «Sotsialistik realizm adabiyoti» sifatida baholandi. Bu yerda bir narsani hisobga olish kerak. 1917—1929-yillar adabiyotida jadidchilik g'oyalari — milliy uyg'onish ruhi bilan bir qatorda sho'roviy mafkura ham o'z ifodasini topga-

nidek, 30—50-yillar «Sotsialistik realizm adabiyoti» davrida ham o'qtin-o'qtin bo'lsa-da, milliy tuyg'uni ifodalagan asarlar uchrab turgan. Negaki, ijtimoiy sohada sof hodisani topish g'oyat mushkul.

1956-yil va u bilan boshlangan «ilmiliq davr» adabiy hayotimizda muayyan siljishlarga olib keldi. 60-yillardan boshlangan bu davrni biz «Yangi uyg'onish va mustaqillik uchun kurash adabiyoti» deb nomlaymiz. Va uning chegarasini 90-yillarning boshigacha deb belgilaymiz. O'ylaymizki, bu ham yolg'iz o'zbek adabiyoti emas, sobiq sovet saltanati doirasidagi barcha milliy adabiyotlar uchun xosdir.

Shu tariqa, o'zbek adabiyoti misolida XX asr, shu jumladan, Sovet davri adabiyotini davrlashtirishning quyidagi varianti o'rtaga tashlandi:

1. Milliy uyg'onish davri adabiyoti (1900—1929).
2. Sotsialistik realizm adabiyoti (30—50-yillar).
3. Yangi uyg'onish va mustaqillik uchun kurash davri adabiyoti (60—90-yillar).
4. Mustaqillik davri adabiyoti (1991-yildan keyingi davr).

Mazkur davrlashtirish mutlaqlikka davo qilmaydi, albatta. Lekin o'ylaymizki, sovet davri adabiyotining ma'lum xususiyatlarini o'zida qamraydi. Shu jihatdan, foydadan xoli emas.

Xullas, turkiy xalqlar adabiyotining umumiy manzarasini yaratish bugungi kunning eng muhim masalalaridan. Bu esa uni tartibga solishdan, davrlashtirishdan boshlanadi.

JADIDCHILIK

MASALANING TARIXIGA BIR NAZAR

KIRISH

Jadidchilik Turkistonda XIX asrning oxirlarida maydonga kelgan, XX asr boshlarida shakllanib, qisqa muddatda o'zining haddi a'losiga ko'tarilgan, 1917-yil bolsheviklar to'ntarishidan keyin ham sotsialistik diktatura o'rnatilgunga qadar o'z mavqe va yo'nalishini saqlab qola olgan ijtimoiy harakatchilik. U ijtimoiy turmushning barcha jabhalarini qamrab olgan edi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, mazkur davrda yuzaga chiqqan na siyosiy, na madaniy biror hodisa yo'qki, uning e'tibor va ta'sir doirasidan chetda qolgan bo'lsin.

Jadidchilik g'oyalari erta bahorning shiddatli shamollari singari po'panak bosib, biljirab ketgan o'rta asrchilik turmushini eng pastki qatlamlarigacha ochib tashladi. Momaguldirak bo'lib, Millat va Vatanning hayot-mamot masalasi kun tartibiga qo'yilgani haqida bong urdi. Chaqmoq chaqib, uning bag'ridagi jarohatlarini yoritdi. Obirahmat bo'lib, ona Turkiston ko'ksidagi maorif, matbuot, teatr nihollariga hayot baxsh etdi. Bu g'oyalarning asosida milliy uyg'onish, milliy mustaqillik uchun kurash yotar edi. Jadidchilikning mohiyatini Millat va Vatanni anglashdan ular manfaati uchun kurashishgacha bo'lgan qizg'in va hayajonli jarayon tashkil qildi. Ayni paytda, bu harakat millatni ham tarbiyalab bordi. Uni o'z boshiga yog'ilgan har bir ofatni taqdir deb ta'bir etishdan tahlil qilib, chorasini izlay olish darajasigacha ko'tardi. Xususan, jadidlarimiz millatning yashamog'i, taraqqiy topmog'i uchun, birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo'lmog'i lozimligini anglab yetdilar va keng xalqni uyg'otishga alohida e'tibor berdilar.

Xalq esa, Po'latxon va Dukchi Eshon voqealaridan «Turkiston (Qo'qon) muxtoriyati» mohiyatini anglash va qo'llash-

gacha bo'lgan masofani bosib o'tdi. Jadidlarimiz siyosiy ishlar— haq-huquq, milliy davlat, hokimiyat masalalari bilan muntazam shug'ullandilar. Ayni paytda, maktab-maorif isloh qilina boshladi. Milliy matbuot yo'lga qo'yildi. Teatr paydo bo'ldi. Yangi adabiyot shakllandi va h.k. Bir so'z bilan aytganda, yangi tafakkur maydonga jeldi. Bu millatning o'zligini anglash va mustaqillik mafkurasi edi.

Bu hol, shubhasiz, millatning keyingi 3—4 asrlik tarixiy taraqqiyotida misli ko'rilmagan hol edi. Uning hayotida uzoq turg'unlikdan keyin yangi bosqich boshlanishiga dalolat edi.

Jadidchilikning mohiyati shunda.

Istiloh haqida

«Jadidchilik»ning asosida «jadid» so'zi yotadi. «Jadid»ning ma'nosi «yangi» demakdir. U shunchaki «yangi» yo bo'lmasa, «yangilik tarafdori» degani emas. Balki «yangi tafakkur», «yangi inson», «yangi avlod» singari keng ma'nolarni o'zida mujassam etgan.

Istilohning kirib kelishi Ismoilbek Gasprali (Gasprinskiy) ochgan yangi maktab nomi bilan bog'liq. U yozadi:

«...1884-sanasi Boqchasaroyda bir maktabni «usuli jadid»ga qo'ymish edim»[23].

Bu boshlanishi edi. Istilohning mazmuni maktab doirasida qolmadi, albatta.

Abdulla Avloniyning «Tarjimai hol»idan:

«Shul zamonda (1894—1904-yillar ko'zda tutiladi. B.Q.) yerli xalqlar orasida eskilik-yangilik (qadim-jadid) janjali boshlandi. G'azit o'qig'uvchilarni mullalar «jadidchi» nom bilan atar edilar»[24]. Jadidlar Usmonli Turkiyadagi «Ganch (yosh) turk», «Ganch Usmonli» ta'siri bilan «Yosh buxorolilar», «Yosh xivalilar», «Yosh turkistonlilar» ham deb nomlandilar. Birinchi ikki nom rasmiy tashkilot darajasiga ko'tarildi.

---

[23] I.Gasprali. Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh. Simferopol, 1898-y., 4-bet. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, Gasprali 9 bolani o'qitib, 40 kunda savodini chiqargan, o'quvchilar 6 oyda ota-onalari va jamoatchilik huzurida muvaffaqiyat bilan imtihon topshirganlar.

[24] Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar, 2 jildlik, 2-jild, — T.: «Ma'na-viyat», 1998, 288-bet.

Dramaturg Abdulla Badriy 1919-yili «Yosh buxorolilar kimlar?» degan savol qo'yadi va shunday javob beradi: «... onlarning fikru xayollari hamda muddaolari biz bechora va qashshoqlarni g'urbatdan, ya'ni amirlar, beklar va boylarning zulmlarindan ozod qilmoq va bizlarning rohatimiz va tinchligimiz uchun harakat va taraddud qilmoqdur»[25].

Ushbu mulohazaning sotsialistik mafkura iskanjasida bildirilgani tufayli sotsialistik bo'yoqda berilganini nazardan soqit qilsak, hurlik, ozodlik uchun kurash jamiyatning bosh maqsadlaridan qilib belgilangani ma'lum bo'ladi.

Xarakter-yo'nalishi

Jadidchilik oqim emas, harakatchilik. Ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy harakatchilik. Yaqingacha ham u faqat ma'rifatchilik harakati deb kelindi. Bu ongli suratda qilingan edi. Maqsad jadidchilikning doirasini toraytirish, sotsialistik-kommunistik mafkuradan boshqasi keng xalq ongini qamrab olishi, egallashi mumkin emas, degan soxta tushunchaning asorati edi. Aslida esa jadidchilik:

1) jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg'onish mafkurasi bo'lib xizmat qildi;

2) mustaqillik uchun kurash olib bordi. Jadidlar g'ayrati va tashabbusi bilan dunyo ko'rgan Turkiston muxtoriyati bu yo'ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi edi;

3) maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi.

Turkistondagi jadidchilik XIX asrning 80-yillarida Rusiya musulmonlari, xususan, Kavkaz va Volga bo'yida yoyilgan shu nomdagi taraqqiyparvarlik harakatining bevosita ta'siri va samarasi sifatida dunyoga keldi. Bunda yuqorida nomini qayd etganimiz Ismoilbek Gaspralining «Tarjimon» gazetasi (1883) va u asos solgan «usuli jadid» (ikkinchi nomi «usuli savtiya») maktabi (1884) hal qiluvchi rol o'ynadi[26]. Shuningdek, bizdagi XIX asrning boshlaridagi eski maktab-madrasa tizimidan noro-

---

[25] Abdulla Badriy. Yosh buxorolilar kimlar? – M.: 1919. 3-bet.

[26] Munavvarqori Turkiston jadidlarining yangi maktab borasidagi fikrlari, asosan, Tarjimon orqali shakllanganini alohida ta'kidlaydi (qarang: Q.O'zb.g. 1927-y. 6-iyun).

ziliklar, xususan A. Qursaviy (1776–1813), Sh.Marjoniy (1818–1889)larning taraqqiyotga to'siq bo'la boshlagan Buxoro maktab-madrasa tizimini keskin tanqid qiluvchi «Al-lavoyih» («Ravshanliklar») (A.Qursaviy) va «Vafiyyatul aslof va tahiyyatul axlof» («Salaflar vafoti va avlodlar duosi») (Sh.Marjoniy) kitoblari ma'lum ahamiyatga ega bo'ldi. Nihoyat, xalqdagi haqso'zlik va yangilikka rag'batni, mumtoz adabiyotimizdagi an'anaviy hajvni, xususan, 70-yillarning oxirida shoirlarimiz tomonidan tovlamachilik, ziqnalik, tekinxo'rlik kabi Ovrupo burjua axloqiy munosabatlarini keskin fosh etuvchi turkum asarlarning ta'sirini ham hisobga olmoq kerak bo'ladi. Bular aslida adabiyotning ham yangilanayotganidan dalolat edi.

Shuningdek, XIX asrning so'ngida Sharq musulmon mamlakatlari orasida keng yoyilgan Jamoliddin Afg'oniy (1839–1897), Muhammad Abduh (1849–1905) nomlari bilan xarakterlanuvchi diniy taraqqiyparvarlik, Yevropa mustamla-kachiligiga qarshi birdamlik borasidagi fikrlarni ham nazardan soqit qilib bo'lmaydi.

«Jadid» atamasi Turkiyada XX asr boshidagi adabiyotga, uning ham birgina yo'nalishiga nisbatan ishlatiladi. Shuningdek, «Rusiya jadidchiligi», o'zimizda esa «Buxoro jadidchiligi», «Turkiston jadidchiligi» degan atamalarni uchratamiz. Bizningcha, harakat umumiy, ko'rinishlar aniq bo'lgani uchun farqli, mohiyat bitta – yangilanish. Bu turli joyda turlicha shaklda namoyon bo'ldi. Masalan, Turkiyada 1839-yildagi mashhur Mustafo Rashit Posho tomonidan yozilib, Gulxona maydonida e'lon etilgan va tarixga «Gulxonai xatti humoyun» nomi bilan kirib, «Tanzimot»ni boshlab bergan davr ham, bizcha, yangilanishdir – jadidchilikdir. To'g'ri, u asosan, g'arblashishni tamal qilib olgan edi. Shuning uchun ham ko'p o'tmay, bunga qarama-qarshi ravishda «turkchilik», «usmonchilik», «islomchilik», «turonchilik» kabi milliy g'oyalar o'rtaga tashlandi. Yevropalashish bizda ham jadidchilikning muhim xususiyatlaridan bo'lgan. Chor hukumati bundan mahalliy xalqni ruslashtirish yo'lida foydalandi ham. Lekin mezon – mahalliy xalqning o'z dini va e'tiqodini daxlsiz qoldirish, Ovrupo ilm-fanini shularning muhofazasiga xizmat qildirish uchun bu yerda ham kurash ketdi. Turkchilik, islomchilik, mahalliy o'zbekchilik kabilarning bu yerda ham maydonga kelishi bejiz emas. Aslida,

bizning jadidlarda fikr va g'oya qorishiqligi juda kuchli. Mana, masalan, yangi o'zbek adabiyotining shakllanishi boshida turgan Muqimiy, Furqatlarni oling. Ular 30-yillarda jadid adabiyoti vakillari sifatida umuman to'g'ri talqin qilingan. Muqimiy o'z hajviy asarlarida savdo va sanoatning, ya'ni kapitalistik turmush tarzining milliy axloqimizni buzayotganini tanqid qiladi. Furqat esa uning hayotimizga kirib kelayotganini madh etadi. Biri tasdiq, ikkinchisi inkor yo'lidan boradi. Yoki Dukchi Eshonni oling. U kuch, zo'rlik bilan mustaqillikka erishish tarafdori. U ham jadid: din islohotchisi, siyosiy kurashchi. Juda ko'p jadidlarimiz uni rad etdilar. Bir qator jadidlarimiz ongli suratda sovetlar bilan hamkorlik qildilar, kommunist bo'ldilar. Bular bilan hisoblashmoq kerak. Bu hol, ayniqsa, mustaqillik uchun olib borilgan kurashda yaqqol ko'rindi. Bu borada 3 yo'lni kuzatish mumkin:

1. Rusiyaga tobelikdan zo'rlik bilan qutulish, istiqlolni kuch bilan olish (Dukchi eshon qo'zg'oloni, 1916-yil mardikorlik harakati, bosmachilik)

2. Murosa yo'li. Ruslar yordamida ma'rifatga erishish. Ma'rifat masalasida haq-huquq olish, milliy xususiyatlarni tiklash (I.Gasprali, M.Behbudiy).

3. Hamkorlik yo'li. Chor ma'murlari, so'ng esa Sho'ro hukumati bilan birga ularning dasturlarida qatnashish va imkon bo'lishi bilan mustaqillikni qo'lga olish. Buning uchun ma'lum tayyorgarlik ko'rib borish (Munavvarqori, Hamza, Avloniy).

Nihoyat, bizdagi jadidchilik Kavkaz, Volgabo'yi, Turkiyadagi jadidchilikka nisbatan an'analarga ko'proq bog'lanib qolgan, umumyevropa ijtimoiy-madaniy jarayoniga tortilish darajasi qiyinroq kechgan jadidchilik. Bizda har bir yangilikning kirib kelish jarayoni g'oyat og'ir kechgan.

O'rganilishi

«Jadid» atamasining Turkistonda ilk bor kim tomonidan qachon va qayerda qo'llanganini belgilash qiyin[27]. Lekin taxmin

[27] «Jadid» atamasi Turkiya turklarida ilk marta Sulton 3-Salim hukmronligi (1789–1802) davrida paydo bo'ldi. Avstriyaga elchi qilib yuborilgan Abubakr Ratib afandi shohga yozgan bildiruvlarida u yerda ko'rgan idora tizimini «nizomi jadid» deb tushuntiradi. 1789-yilgi fransuz inqilobidan keyin qurilgan yangi tizimni esa

qilish mumkinki, bu atama garchi Ismoilbek tomonidan 1884-yildan iste'molga kiritilgan va «Tarjimon» gazetasi orqali Sharqu G'arbning juda ko'p o'lkalariga yoyila boshlagan bo'lsada, bizga, asosan, 90-yillarda kirib keldi. 1891-yili Rusiya ichki ishlar vazirligining maxsus ishlar bilan shug'ullanuvchi Vashkevich degan xodimi Qrimga borib, Gasprinskiy maktabini tekshirib kelgan. Shu munosabat bilan mashhur islohotchi Qrimdagi musulmon maktablarini isloh qilish zaruratini va bu islohotning mazmun-mundarijasini asoslab ko'rsatib, hujjat tayyorlagan edi. 1892-yilda Gasprinskiy shu hujjatni yanada mukammallashtirib, Turkiston general-gubernatori Rozenbaxga yuboradi va undan bu yerlarda ham maktab islohini o'tkazishga ruxsat va yordam so'raydi. Rozenbax fikr so'rab materiallarini Turkiston o'qituvchilari seminariyasining direktori N.P.Ostroumov va taniqli etnograf V.P.Nalivkinga yuboradi. Ularning har ikkalasi ham Gasprinskiy taklifini rad etadilar[28]. Rozenbax Gasprinskiy materiallari ustiga «Javobsiz qoldirilsin!» deb imzo chekadi[29].

Rasmiy murojaatdan biror natija chiqmagach, Ismoilbekning o'zi Turkistonga otlanadi[30]. Toshkent, Samarqand, Buxo-

---

«Fransiya nizomi jadid» deyila boshlandi. Shu yillari «nizomi jadid» tor ma'noda askariy tizimni ovrupolashtirishni, keng ma'noda ilm-fan, maorif, sanoat va qishloq xo'jaligini zamonaviylashtirishni ko'zda tutardi. Jadid va qadim iborasi keyingi asrlarda maydonga kelgan bo'lsa-da, u mohiyatan eskilik va yangilik, taraqqiyot va turg'unlik o'rtasidagi eski kurashdir. «Yunon qadimchilari ikki ming necha yuz sana muqaddam Suqrotni jadidchilik qabohati bilan ayblab, qatl ettirdilar», — deb yozadi Ismoilbek «qadimchilik-jadidchilik» (1909-yil, 19-son) maqolasida. Shundan hozirgacha, masalan, «hatto zamonamizning eng madaniy, eng mutaraqqiy insonlari o'lan inglizlar orasinda ham qadimchilar g'oyat ko'pdir», — deb davom etadi muallif va bularning tepasida hatto olamga mashhur olimlar, siyosatchilar, iqtisodchilar turganini aytadi. Abdulla Avloniy «Bu kunda madaniy millatlar urushlarini sanoat va tijoratga aylantirdilar va bu sohada bir-birlariga g'alaba va raqobat qila boshladilar»- deb yozadi. Fitrat va Cho'lpon bularni «madaniyat vahshiylari» deb ataydilar. Mohiyat o'sha-o'sha, o'zgargan emas. Faqat shakllar har xil. Samovarni suvning ichida o't yonayapti, bu yerda sehr bor, binobarin noshar'iy deyish, jome'larning shamlarini elektr bilan almashtirishga tish-tirnoqlari bilan qarshi chiqish, «usuli jadid» maktabini, zamonaviy fan-texnikani rad etish, gazeta, teatrga «shaytoniy ish», «shakkoklik» deb qarash va ularning hammasidan kofirlik izlash jadid-qadim kurashining bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'lgan edi.

[28] N.P.Ostroumovning javobini tarixchi S. Xolboyev e'lon ham qildi («Guliston» j. 1995-y. 1-son, 42–43-b.).

[29] А.В. Пясковский. Революция 1905–1907 годов в Туркестане. М., 1958, 98-с.

[30] Bu haqda: «Tarjimon»g., 1906-y., 15-son.

roda bo'ladi[31]. Uning tashabbusi bilan ushbu shaharlarda, so'ngroq Farg'ona vodiysida «usuli jadid» maktablari tashkil topib[32], ovozasi butun Turkistonga yoyiladi. Tezkorlik bilan uning uchun darsliklar tuzila boshlaydi[33].

Jadidshunoslik bosib o'tgan yo'lni shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

1) 1900–1925;
2) 1925–1938;
3) 1938–1956;
4) 1956–1985;
5) 1985–1991;
6) 1991 dan keyingi davr.

1900–1925-yillar «jadidchilik» tushunchasining paydo bo'lishi va uning o'z davrining eng peshqadam hodisasi sifatida baholangan davridir.

---

[31] A.V. Pyaskovskiy, ko'rsatilgan kitob, 98–102-b.

[32] Bu ishlar g'oyat og'ir kechgan, albatta. Rus ma'murlari osonlikcha ruxsat bermaganlar. Masalan, Munavvarqorining usuli jadid maktabi ochishga ruxsat so'rab qilgan murojaatlariga Sirdaryo harbiy gubernatori rad javobini berdi. A.V.Pyaskovskiy 1893-yili Samarqandda yangi usuldagi bitta maktab ochilganini ma'lum qiladi. Uning ochilishi Ismoilbekning 1893-yildagi Turkiston safari bilan bog'liqdir. Ismoilbek «Oqgul dastasi yoki adabiyoti jadida xidmatlari» («Tarjimon»g. 1906-y. 15-son) maqolasida safardagi sherigi Majid G'anizodaning Samarqandda 40 kun qolib «usuli jadid» maktabini yo'lga qo'yganini xabar beradi. Farg'onada esa bu harakat muvaffaqiyatsiz tugagan ekan. Qolaversa, 1895–1900-yillarda Turkiston va Buxoroda ochilgan yangi maktablarning aksariyati tatarlarniki edi.

Usuli jadid maktablari asr boshlarida, unda ham ming bir mashaqqatlar bilan paydo bo'ldi. Bunda rus-tuzem maktablarining ham ma'lum roli bor. XX asr boshlarida yangi maktablar uchun birinchi darsliklar sifatida maydonga kelgan «Ustozi avval»ning (1901) muallifi Saidrasul Aziziy 1900-yili Toshkentdagi Birinchi rus-tuzem maktabida, «Ikkinchi muallim»ni yozgan Aliasqar ibn Bayramali Kalinin Ko'kchadagi Ikkinchi rus-tuzem maktabida «sartiya» muallimlari edilar. «Usuli jadid»ga birgina rus ma'murlari emas, mahalliy mutaassiblar ham qattiq qarshilik ko'rsatadilar. Aziziy «nasoro» (kofir) maxsum nom oldi.

Avloniy yozadi: «1904-yildan «jadid maktabi»ochib,o'qituvchilik qila boshladim. Mullolar «jadidchi»larni «munofiq», «mufsid», «zindiq», «dahriy» so'zlari bilan xalq orasinda propaqanda va aqitasiya qila boshladilar...».

[33] S.Aziziy, Ustozi avval (– T.: 1901); A.Kalinin, «Muallimi soniy», (– T.: 1903); M.Behbudiy. «Kitobi muntaxabi jug'rofiyai umroniy» (S.,1906); «Kitobatul atfol» (S.,1908); Munavvarqori, «Adibi avval» (– T.: 1908), «Adibi soniy» (– T.: 1908); Avloniy, «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» (– T.: 1909-1917), «Birinchi muallim» (– T.: 1912), «Ikkinchi muallim» (– T.: 1913), «Turkiy guliston yoxud axloq»(– T.: 1913), Hamza Hakimzoda Niyoziy, «Yengil adabiyot» (Qozon.,1914) va hokazo.

O'tgan asrning 20-yillari boshiga qadar jadid va jadidchilik, uning aniq vakillari atrofidagi fikrlar yo'l-yo'lakay, turli voqea va munosabatlari bilan bildirilgan bo'lib, maxsus tadqiqotlar ko'zga tashlanmaydi. Sadriddin Ayniyning 1920-yili e'lon qilgan «Buxoro inqilobi tarixiga materiallar» va Fayzulla Xo'jayevning «Buxoro inqilobi tarixiga doir» (1926) kitoblari (har ikki kitobning birinchi nashri) bu boradagi dastlabki ishlar edi. Har ikki muallif jadidchilikni zamonning eng peshqadam hodisasi sifatida baholagan edilar. Biroq 20-yillarning ikkinchi yarmida sharoit o'zgardi. Aslida bu sal oldin—1923-yildan boshlangan edi. 1923-yili BXR rahbariyatidagi o'zgarishlar, besh kishining, xususan, Abdurauf Fitrat va Ota Xo'jayevlarning ishdan olinib, Buxorodan badarg'a qilinishini eslaylik. Bir necha yil davom etgan fuqarolar urushi, qishloq xo'jaligining izdan chiqishi mamlakatni halokat yoqasiga keltirib qo'ydi. Partiya va uning yagona hukmdori bo'lib qolgan Stalin aybdor qidirishga tushib ketdi. Ayni paytda, partiya faoliyati haqidagi har qanday tanqidiy gap unga hujum sifatida qabul qilindi. Partiyada esa bo'linish kuchaydi. Shu yil Oktabrda Troskiyning qator e'tirozlar ifodalangan xati, izma-iz «46 lar arizasi» Markazqo'mga tushdi. RKP (b) MQning kengaytirilgan Plenumi chaqirildi. Bahslar 1924-yil yanvarida XIII partkonferensiyada stalinchilikning dastlabki g'alabasi bilan yakun topdi. Butun mamlakatda dushman izlash boshlandi. «1925-yildan mening kitoblarim va ulardagi mafkura munosabati bilan matbuotda kuchli hujum boshlandi... 1926-yilning oxirlarida o'z oilam bilan rasman aloqani uzib Moskvaga jo'nab ketdim», — deb yozadi Munavvarqori Abdurashidxonov 1929-yil 18-dekabrda OGPUga bergan yozma ko'rsatmasida.

Akmal Ikromov O'zLKSM MKning 1926-yil 19-may II Plenumidagi nutqida bunday deydi:

«Jadidizmning burjua ideologiyasi savdo burjuaziyasi ideologiyasidir. Uning bizga hech bir daxli yo'q. Negaki, u Oktabrning bir tomonida, biz esa ikkinchi tomonida turamiz[34].

Shu yili Abdulla Qodiriy «partiya-davlat arboblarini obro'sizlantirish»da ayblanib qamoqqa olinadi. «Inog'omovchilik», «Qosimovchilik» nomlari bilan tarixga kirgan ko'zi ochiq ziyolilarni yo'qotishga qaratilgan sud jarayonlari boshlanadi.

[34] А. Икромов. Избр. Труды в 3х томах, т. 1, 1972, 221-с.

Shu yillardagi mashhur adabiyotshunos olimimiz yozadi:

«Jadid adabiyoti o'zbek burjuaziyasi adabiyotidir. Jadid adabiyoti o'zbek burjuaziyasining fikrini va uning boshdan kechirgan holatlarini aks ettiradir, uning uchun ishlaydir, kuyadir, yig'laydir»[35]. Burjuaziya esa, sovet tushunchasi bo'yicha, mehnatkash xalqning eng qattol dushmani edi. 1929-yili «Munavvarqori va uning to'dasi» qamoqqa olinib, tergov ishlari boshlandi. 1931-yil 25-aprelda OGPU ning qarori bilan 56 kishi sudga tortildi. 18 kishi otib o'ldirishga hukm qilindi. 1937-yildan esa ommaviy qatag'onlar boshlandi. «Millat» va «Vatan» deganning hammasi «Xalq dushmani», «Vatan xoini» sifatida otib tashlandi. Shu tariqa Sho'ro hukumatining jadidchilik mafkurasiga qarshi 20-yillarning ikkinchi yarmidan boshlangan kurashi ushbu mafkurani oradan ko'tarish bilan cheklanmay, uning vakillarini jisman yo'q etishgacha borib yetdi. Tabiiyki, mazkur siyosiy muhit jadidshunoslikning ruhi va yo'nalishini belgilab berdi. Jadidlar va ularning ijtimoiy-siyosiy, adabiy-madaniy faoliyati asosan ayb qidirish, tanqid va qoralash obyekti bo'lib xizmat qildi. Bularning xarakterli namunalari Olim Sharafiddinovning Cho'lpon, J.Boybo'latovning Fitrat, Sotti Husaynning «O'tgan kunlar» haqidagi maqolalari edi. Badiiy adabiyotda esa jadidlarning mehnatkash xalq manfaatiga qarama-qarshi qilib qo'yilgan dushman obrazlari yaratildi. Jadidchilikni maxsus tadqiq qilgan Z.Sh. Rajabovning «Turkistonda jadidchilik»[36] dissertatsiyasi (1937) ham davr ruhida edi.

1938–1956-yillarda jadidchilik va uning vakillari avlodlar qalbidan tamom siqib chiqarildi. Masalan, 1956-yili XX asr boshi adabiyoti 4 ijodkordan tarkib topgan edi: Hamza, Ayniy, Zavqiy, Avaz Hamza — mutaassiblar tomonidan o'ldirilgani uchun, Ayniy amir Sayid Olimxonning, Avaz Isfandiyorxonning, Zavqiy Ergash qo'rboshining kaltagini yeganlari uchun. Bu mezon hozir kulgili, albatta. Lekin zamon shunga majbur qilgan.

KPSS ning XX s'ezdi (1956) Stalin qatag'onlarini yumshatdi. «Xalq dushmani» sifatida qatl etilgan ziyolilarimizning

---

[35] Otajon Hoshim. Jadid adabiyoti to'g'risida. «Qizil qalam»majmuasi. 2-kitob. O'zdavnashr, S. — T.: 1929-y., 16-b.

[36] Ш.Раджабов. Джадизм в Туркестане (1905-1917 г.). Тезисы на диссертацию на соис. уч. ст. канд. ист. наук. Л., 1937.

bir qismi oqlandi. «O'tgan kunlar» bir oz qisqartirishlar bilan chop etildi[37]. Birinchi bo'lib, Qodiriyga yo'l ochildi. So'ng mavqeiga ko'ra bundayroq bo'lgan, lekin jadidchilikka aloqasi borligi uchun taqiqlanib kelgan yoxud «unutilgan» Siddiqiy-Ajziy[38], Ibrat[39], Avloniy[40] So'fizoda[41] kabilar haqida maqola-tadqiqotlar o'rtaga tusha boshladi, asarlaridan namunalar berildi. Cho'lpon ijodini o'rganish bo'yicha komissiya tuzilgandek bo'ldi. Fayzulla Xo'jayev, Akmal Ikromov kabi siyosiy arboblarning tomliklari[42] chiqdi. Adabiyotni aniq nomlargina emas, adabiy harakatchilik, muhit nuqtai nazaridan ham o'rganish boshlandi[43]. Nazariy masalalar va ular munosabati bilan Cho'lpon, Fitratlar ijodini yoritish ko'zga tashlandi[44]. Lekin tarixga «ilmiliq davr» nomi bilan kirgan «Xrushchev davri» uzoq davom etmadi. 60-yillarning oxiri, 70-yillarning boshidan yana hamma narsa eski o'zaniga qayta boshladi. Farq shuki, jismoniy qatag'onlar yo'q, lekin rus mustamlakachilik siyosatiga, ayniqsa, qizil saltanatga daxl qilgan, milliy mustaqillikni ilgari surgan adabiyotga, tabiiyki, yo'l berilmadi. Shunday paytda adabiyot-shunoslik ustalik bilan yo'l tutdi. Jadidchilikni qoralab turib, uning aksariyat vakillarini «ma'rifatchi» nomi bilan ajratib olaverdi.

Shu tariqa, Xislat, Xurshid, Mirmuhsin-Fikriy, Saidahmad Vasliy, Abduqodir Shakuriy, Ibrohim Davron, Nozimaxonim

---

[37] Abdulla Qodiriy. O'tgan kunlar. – T.: 1958.

[38] Асланов Р. Мировоззрение Саида Ахмеда Сиддики. Дисс. канд. философских наук. Душанбе, 1962, 243-с.; Сиддикий Ажзий. Танланган асарлар. – T.: 1973.

[39] Асланов Р. Мировоззрение Саида Ахмеда Сиддики. Дисс. канд. философских наук; Долимов У. Жизнь и творчество узбекского поета-просветителя Ибрата. Автореферат дис... канд.филол.наук. – Т.: 1971.

[40] Boboxonov A., Maxsumov M.. Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyati. – T., 1956; Abdulla Avloniy. Toshkent tongi. – T.: 1979.

[41] So'fizoda. Taronalar. – T.: 1968.

[42] Файзулла Ходжаев. Избранные труды в трех томах, тт. 1-3. – Т., 1970-1973; Акмал Икромов. Избранные труды в трех томах, тт. 1-3, 1972-1974.

[43] Халимов С. Из истории узбекской и таджикской литературы второй половины XIX нач. XX веков в Самарканде. Автореферат дис. канд. филол. наук. – Т.: 1970; Yunus Yusupov. Xorazm shoirlari. – T., 1967; Кабулов Н., Формирование и развитие узб. сов. лит-ры Хорезмской сов. республике (1920-1924). Автореферат дисс. канд. филол. наук. – Т.: 1970.

[44] Каримов Э. Развитие реализма в узбекской литературе. – Т.: 1975.

kabi o'nlab ijodkorlarning hayoti va ijodiy faoliyati yoritilib, asarlaridan namunalar xalqqa yetkazildi[45].

1985-yildan boshlangan demokratik va oshkoralik jadidchilikni ilmiy asoslarda va rejali o'rganishga imkoniyat tug'dirdi. Bir qator ilmiy anjumanlar bo'lib o'tdi. Jumladan, 1987-yilning 10-noyabrida O'zbekiston FA TAIda Turkiston jadidchiligiga bag'ishlangan maxsus yig'ilish chaqirildi. Respublikamizning ushbu soha bilan ko'pdan shug'ullanib kelayotgan mutaxassislari o'zaro fikr almashdilar. 1988-yil 12-oktabrda yana xuddi shu joyda Ozarbayjon, Tatariston, Tojikiston, O'zbekiston, Moskva olimlari ishtirok etgan yirik Xalqaro simpozium bo'lib o'tdi. 15 kishi ma'ruza bilan qatnashdi. Bahsni Izzat Sulton boshlab berdi.

Notiq jadidchilikning shakllanishi va taraqqiyotini an'anaviy 1905–1917-yillar qilib belgilab, u bosib o'tgan yo'lni 1917-yil Oktabr bilan ajratib, ikkiga bo'ldi. 1917-yilgacha qismini progressiv, undan keyingisini reaksion deb baholadi. Yo'nalishni esa ma'rifatchilik deb belgiladi. Uni siyosiy masalalardan uzoq tutdi. Tabiiyki, anjuman qatnashchilarining ko'pchiligi bu fikrlarga e'tiroz bildirdilar. Lekin ustoz adabiyotshunosning jadidchilik o'zbek adabiyoti parvozi uchun juda katta g'oyaviy omil bo'lgani, uni atroflicha o'rganish va xolis baholash bugungi ilm-fanning kechiktirib bo'lmaydigan vazifasi ekanligi xususidagi mulohazalari barcha qatnashchilar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Tojikistondan A.Maniyozov, M.Shukurov, R.Hodizoda, G.Ashurov, O.Sayfullayev, Ozarbayjondan A.Mirahmedov, Tataristondan I.Nurullin, O'zbekistondan E.Yusupov, E.Karimov, H.Ziyoyev, E.Vohidov, S.Qosimov, O.Fayzullayev va ushbu satrlar muallifi qatnashdilar.

Yig'inga boshqalarga qaraganda tojikistonlik vakillar jiddiy tayyorgarlik bilan kelganlari ma'lum bo'ldi. G.Ashurov jadidchilikning bosib o'tgan yo'lini uch davrga bo'ldi:

---

[45] Касимов Б. Мирмухсин-Фикри и его литературная среда. Автореферат дисс.канд.фил.наук. – Т.: 1967; Мусамухамедова П.Р. Жизнь и творчество Факирий. Автореферат дисс.канд.фил.наук. Самарканд, 1974; Пирназаров М. Творческий путь Мутриба Хонахароби. Автореферат дисс.канд.фил.наук. Самарканд, 1974; Б. Насриддинов. Хуршид (монография очерк). – Т.: 1975; Bayoniy, g'azallar. – T.: 1962; Xurshid. Tanlangan asarlar. – T.: 1967; Abdurazzoq Faxiriy. Tanlangan asarlar. – T.: 1972; Abdulxamid Majidiy. Tanlangan asarlar. – T: 1974; Ziyo Said, Tanlangan asarlar. – T.: 1974.

1. Shakllanish (1905-yilgacha).
2. Taraqqiyot (1905–1917).
3. Bo'linish (1917–1920). Holbuki, jadidchilik tojiklarda Ru-siyadagi turkiy xalqlarga nisbatan keyinroq paydo bo'lgan edi. Masalan, tojikcha usuli jadid maktablari va ular uchun darsliklar 1905-yildan keyingina yuzaga kela boshlagani ma'lum. Ma'ruzachi jadidshunoslik oldidagi masalalarni belgiladi. Hamkorlik yo'llarini qayd etdi. Aziz Mirahmedov mutaxassislar orasida keng tarqalgan, jadidlarning tashkiliy qurilmalari yo'q edi, degan fikrni shubha ostiga qo'ydi. Umumrusiya musul-monlarining 1905-yildan boshlab tashkil topgan «Ittifoqi muslimin» uyushmasini shu yo'ldagi urinish hisobladi. I.Nurullin qator qiziqarli faktlar keltirdi.

Muhimi, anjuman jadidshunoslarni bir joyga to'pladi. Fikr almashildi, hamkorlik yo'lga qo'yildi.

1989-yil aprelning oxiri mayning boshida O'zFA va Yozuvchilar uyushmasi ishtirokida Adolat komissiyasining 2 kun davom etgan yig'ilishi bo'ldi. O'ttizga yaqin kishi ma'ruza qildi. Yangi faktlar, yangi nomlar o'rtaga tushdi. 1990-yil 3-dekabrda Moskvada qatag'on qilingan ijodkorlarning merosini o'rganishga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. O'zbekistondan uch kishi (O.Sharafiddinov, N.Karimov, B.Qosimov) ishtirok etdi. Yig'inlarning deyarli hammasida jadidchilikning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotimizda alohida bosqich bo'lganligi qayd etildi, uni xilma-xil yo'nalishlarda o'rganish zarurati aytildi, aniq ijodkorlar, ularning faoliyati, merosi haqida fikr almashildi.

Respublikamizning mustaqillikni qo'lga kiritishi, ijtimoiy-siyosiy sohada bo'lganidek, ma'naviy-madaniy hayotimizda ham butunlay yangi sahifa ochdi. Biz o'z aqlimizga, o'z mulkimizga, o'z mehnatimizga o'zimiz ega bo'ldik. Tariximizga tegishli fakt hamda hodisalarni, katta-kichik shaxsiyatlarni o'zgalarning ko'zi va aqli bilan baholash barham topa boshladi. Millat va Vatan manfaati hamma narsadan muqaddas tutildi. Shu asnoda «Turkiston (Qo'qon) muxtoriyati» nomi bilan tarixga kirgan, jadidlarimizning siyosiy mustaqillik uchun olib borgan kurashlarining ilk namunasi bo'lgan, lekin sho'rolar tomonidan xoinona qonga botirilgan hodisani, «bosmachilik» nomi bilan badnom qilingan,

aslida xalqimizning o'z erki, ma'naviyati yo'lidagi kurashi – milliy ozodlik harkatlarini qayta baholash boshlandi[46].

Jadidchilik faylasuflar, huquqshunoslarni ham jalb etdi[47]. Uni har tomonlama o'rganish imkoni tug'ildi. Tarixchilarimiz faollashdilar[48]. O'zbekistonning 3 jildlik yangi tarixi dunyo yuzini ko'rdi. (1-kitob, «Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachilik davrida, «Sharq», T., 2000, 464-bet; 2-kitob, O'zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida, «Sharq», T., 2000 T., 688-bet; 3-kitob, Mustaqil O'zbekiston tarixi, «Sharq», T., 2000, 560-bet).

Turkiston jadidchiligi xorijda ham o'rganilmoqda. Nyu Orlean universiteti professori Lazzeri, fransuz A.Benningson nomlari dunyoga mashhur. Amerikalik E.Olvort, nemis I.Baldauf, yapon X.Komatsu bu borada samarali ishlamoqdalar. 1995-yil fevralida Fransiyaning O'zbekistondagi elchixonasi qoshida Markaziy Osiyoni o'rganish ilmiy tadqiqot institutida mazkur mavzuga bag'ishlangan yirik simpozium bo'lib o'tdi. Unda dunyoning turli mamlakatlaridan ko'zga ko'ringan jadidshunoslar ishtirok etdilar. Uning natijalari, ma'ruza matnlari Fransiya ilmiy jurnallarida e'lon qilindi[49].

1999-yil 16–18 sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qoshidagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasining Tarix markazi va Germaniya Konrad-Adenauer jamiyati hamkorligida «XIX asr boshida Markaziy Osiyo: jadidchilik, muxtoriyatchilik, istiqlolchilik» mavzuida katta xalqaro anjuman

---

[46] Bu haqda qarang: S.A'zamxo'jayev. Turkiston muxtoriyati: борьба за свободу и независимость (1917–1918). Автореферат дисс.доктор.ист.наук. – T.: 1996; Yana shu muallif. Turkiston muxtoriyati. – T.: 1996; N.Karimov. Qimmatga tushgan ulov yoxud Turkiston muxtoriyatining vujudga kelishi va tor-mor etilishi sabablari. «Tafakkur»j., 1996, 3-son; Bosmachilik: haqiqat va uydirma, «Sharq yulduzi»j. 1991, 4-son; Ibrohim Karim. Madaminbek. – T.: 1993; B.Hayit. Milliy ozodlik harakatining beshigi. «Jahon adabiyoti»j., 1998, 11-son, 161–173-bb.

[47] Эргашев Б. Из истории становления и развития общественно-политических идей джадидизма, идеология младобухарсев. Автореферат дисс. доктора философских нуак. – T.: 1993; Ташкулов Д. Основные направления политико-правовой мысли народов Узбекистана во второй половине XIX – первой четверти XX вв. Автореферат дисс.доктора юридических наук. – T.: 1995.

[48] XX asrning dastlabki 30 yilligida tarix fani (kollektiv) (tarixshunoslik ocherklari), 1–2 qismlar. – T.: 1994; O'zbekston tarixi: yangi nigoh Jadidlar harakati milliy mustaqillikka qadar. Davra suhbati materiallari, 1998-y. 9-oktabr. – T.: 1998.

[49] Le reformisme musulmah ew Asie Cehtraie, Caniers du Monde Russe, Yolume XXXYII (1-2), dahyier duih 1996, 242 s.

bo'lib o'tdi... Turli mamlakatlardan kelgan 20 dan ortiq mutaxassisning ma'ruzasi tinglandi. Olmoniyalik Ingeborg Baldauf, niderlandiyalik Turaj Atabaki, fransiyalik Shantal Kelkej, amerikalik Adib Xolid, italiyalik Marko Buttino kabi taniqli mutaxassislar ishtirok etdilar. Tarixchilarning haqli ravishdagi faolliklari yaxshi taassurot qoldirdi. Konferensiya davomida jadidchilikning maydonga kelish shart-sharoitlari, milliy ozodlik harakati bilan bog'lanishlari, xotin-qizlar ozodligiga munosabati kabi muhim va qiziqarli masalalar bo'yicha yangi-yangi faktlar, kuzatishlar o'rtaga tashlandi. Ayni paytda, ayrim mahalliy hamkasabalarimizda mazkur hodisani eskicha yakrang baholashga moyillik, xorijlik do'stlarimizning esa o'zbek jadidshunoslari olib borayotgan ishlardan bexabarligi ma'lum bo'ldi.

Konferensiya ilmiy tadqiqot ishlarini koordinatsiya qilish, muammoning asosiy istilohlari borasida yakdillikka erishish maqsadida xalqaro ilmiy kengash tuzdi.

Bularning hammasini atroflicha o'rganish, umumlashtirish kerak. Jadidshunoslikning biobibliografiyasini tuzish kerak.

JADIDCHILIKNING TAMAL TOSHI
(«Usuli jadid» maktablari)

Jadidchilikning poydevori, tamal toshi usuli jadid maktabi edi. Bu tabiiy. Hamonki maqsad jamiyatni yangilamoq ekan, uni yangi avlodgina qilishi mumkin edi. Yangi avlodni esa yetishtirmoq lozim. Eski, an'anaviy usulda bu ishni amalga oshirish qiyin, chunki zamon o'zgargan. U tezkorlikni talab qiladi. Ikkinchidan, bugungi o'quvchi zamonaviy fanlarni bilishi kerak. Ya'ni tarix, jug'rofiya, iqtisod, fizika, kimyo, matematika va h.k. So'nggi uch-to'rt asr dunyo taqdirini boshqa o'zanga solib yubordi. Ovruponi oldinga olib chiqdi. Uning qo'lini sarbaland qildi. Endi Ovrupo ilm-fanini egallamasdan dunyo bilan barobar yashab bo'lmaydi. Bu ilm-fanni o'zlashtirmoq uchun Ovrupo tillarini bilmoq kerak. Ayni paytda o'zlikni ham saqlamoq lozim. Din-diyonat ham zarur. Xullas, yashamoq uchun uchala jihatni ham ushlamoq kerak bo'ladi. Ushlaganda ham hech birini suiiste'mol qilmasdan, aks holda muvozanat buziladi. Muvozanat buzilishi esa yomon oqibatlarga olib keladi. Masalan, yolg'izgina din ushlansa, dunyo qo'ldan ketadi. Faqat

o'zlik, millat desak, yana dunyodan ajrab qolamiz. Birovning biz bilan ishi bo'lmaydi. Ovrupolashsak, o'zlik yo'qoladi. Bu ham fojia. Muvozanat kerak. Buni jahon tajribasi daf'alarcha sinovdan o'tkazgan. XIX asrda bu masala turk xalqlari oldida ko'ndalang turdi. Jahon diplomatiya tilida «Sharq masalasi» degan tushuncha bor. Bu masalaning qo'yilishi XIX asrning 10-yillariga to'g'ri keladi va Ovrupo imperialistik mamlakatlari tomonidan Usmonli imperiyasini bo'lib olish rejasini ko'zda tutadi. Gap shundaki, XVI–XVII asrlarda dunyoning eng qudratli saltanatlaridan biri bo'lgan Usmonli imperiyasi XVIII asrga kelib, zamon bilan hisoblashmay qo'ygani uchun taraqqiyotdan orqada qolib, qulashga yuz tutdi. Saltanatda notinchliklar boshlanib, mulk qo'ldan chiqa boshladi. Zamon Ovrupo bilan muloqotni shart qilib qo'ydi. Qisqa muddatda elchixonalar ochilib, aloqa yo'lga qo'yildi. 1839-yildan esa ovrupolashmoq Usmonli imperiyasining rasmiy dasturi sifatida e'lon qilindi. Birinchi navbatda, maktabga e'tibor berildi. 150 o'quvchi Ovrupoga o'qishga yuborildi. Biroq bu ekilgan urug'lar o'z samarasini bermog'i uchun 80 yildan ortiqroq vaqt ketdi. Qolaversa, turkiyalik hamkasabalarimiz orasida taqdimotning millatni ortiqcha ovrupolashtirganidan unchalik rozi bo'lmaganlari ham yo'q emas. Biz bu o'rinda masalaning murakkabligini ta'kidlamoqchimiz, xolos. Rusiya jadidchiligining otasi Ismoilbek Gasprinskiy (Gasprali) 1881-yilda «Rusiya musulmonligi» («Русское мусульманство») asarini yozadi. Mazmuni shunday: taqdir taqozosi bilan Rusiya turk-musulmon dunyosining katta qismini zabt etdi, bu jarayon hanuz davom etmoqda. Yaqin o'rtada Rusiya musulmon o'lkalaridan tarkib topgan ulkan xristian saltanatiga aylanadi. Musulmonlar bu ulkan saltanatda o'z salmoqlariga ko'ra muhim o'rinni egallab turibdilar. Xo'sh, bu yog'i qanday bo'lishi kerak? Rusiya uchun 2 yo'l bor: 1. Assimilyasiya. 2. Hamkorlik. Assimilyasiya, hukmron millatning tobesini «yutib», o'z tarkibiga singdirib yuborishi, sharafli ish emas, albatta. Lekin dunyoda shunday jarayon qadimdan bor. Tarix faqat nomlarigina saqlanib qolgan qanchadan-qancha tillarni, millatlarni biladi. Hamkorlik-madaniyat yo'li. Bu holda Rusiya o'z qo'li ostidagi, zamon taqozosi bilan taraqqiyotdan orqada qolgan, tobe millatlarning ma'rifatini yetkazib oladi va davlatni boshqarishdagi ishtirokini ta'min etadi.

Ismoilbek Rusiyaning o'z qo'l ostiga olgan turkiy xalqlarni boshqarishda hamkorlik yo'lini tutishiga umid qiladi. Chunki ularni «yutish» oson emas, ikkinchidan, imkon berilsa, ozgina harakat va e'tibor bilan ilm-ma'rifatda yo'qotgan narsalarini qayta tiklay oladilar, deb hisoblaydi. Lekin bir shart bor. Millat o'z tili, o'z milliy-an'anaviy o'quv usul-vositalari asosida, zarur bo'lsa, ularni isloh qilgan holda ma'rifatini tiklamog'i lozim. Turkiy xalqlarning bu boradagi tajribalari dunyoga ma'lum va mashhurdir.

Demak, Ismoilbek fikricha, Rusiya musulmonlari uchun bugun birinchi masala ma'rifatdir. Qolgani ma'rifatdan keyin. To'g'rirog'i, ma'rifatdan boshlanadi. Lekin millatning savodi o'z tilida chiqmog'i kerak. Milliy tarbiya, muqaddas g'oyalar avlodning ongi-tafakkuriga ona tilida singmog'i lozim. «Sut bilan kirgan» degan iborada gap ko'p.

Bu fikrni Rusiya hukumati, rus ziyolilari qanday qabul qildilar? 1882-yildayoq mazkur mavzuga bag'ishlangan yig'ilish chaqirildi. Yiqilish 30-avgustda Toshkentda o'qituvchilar seminarida o'tkazildi. Toshkent tanlanganining sababi shuki, Ismoilbek Rusiya musulmonlari der ekan, asosan Turkistonni nazarda tutardi. Turkistonning mavqei shuni taqozo etardi. Ismoilbekning o'z badiiy asarlarini toshkentliklar bilan bog'lashi bejiz emas edi. Ikkinchidan, ushbu seminarning direktori mashhur missioner N.Ostroumov edi. Yig'ilishda general-gubernator A.K.Abramov vakolati bilan kelgan o'lka oliy ma'muriyati, oliy ruhoniylar, seminariya talabalarining ota-onalari ishtirok etdilar. Yig'ilishda seminariyaning tarix va geografiya o'qituvchisi M.A.Muropiyev ma'ruza qildi. Ma'ruza mavzui: «g'ayrirus-musulmonlar maorifiga qanday bosh prinsiplar asos qilib olinmog'i lozim?» Majlis o'qituvchilarning o'qish oldidan o'tkaziladigan avgust kengashi xarakterida bo'lib, tayyorgarligi va tantanavorligiga ko'ra yo'llanma maqomida edi. Notiq o'z so'zini, asosan, I. Gasprinskiy fikrlarini rad etishga qaratadi: «Agarda biz taklif qilingan loyihani (musulmonlarning o'z tillarida, an'anaviy o'quv vositalari asosida o'qitish — B.Q.) qabul etsak, shu paytgacha mudrab yotgan musulmon mutaassibligini tiriltirgan va bu bilan qo'ynimizda ilonni asragan bo'lamiz», deb aytadi. — «Shunday qilib, — xulosalaydi o'z fikrini ma'ruzachi, — musulmonlarimiz maorifi uchun asos qilib oli-

nishi shart bo'lgan birinchi bosh prinsip ularni ruslashtirishdir», «...ikkinchi prinsip... islomni buzish, prozelitizmdan voz kechish, qisqacha aytganda, yot-musulmonlarimizning, umuman, diniy jihatlarini buzishdir».[50]

Bu chor hukumatining Turkiston va umuman g'ayrirus musulmonlar maorifi borasidagi rasmiy nuqtai nazari, amaldagi joriy siyosati edi. Shunga qaramay, Ismoilbek yangi maktab g'oyasidan voz kechmadi. Aksincha, u haqdagi fikrlarini tezroq shakllantirishga, o'ylab yurgan rejalarini amalga oshirishga kirishdi. 1884-yilda «usuli jadid» nomi bilan yangi maktab ochdi. Va u qisqa muddatda keng jamoatchilikning diqqatini tortdi.

«...1884-sanasi Boqchasaroyda bir maktab(n)i usuli jadidga qo'ymish edim, – deb yozadi Ismoilbek. – Samarasi umidimdan ziyoda o'ldi. Bir qoch (qancha) maktablar usulim(n)i qabul ila isloh o'ldilar. Soir (ko'p) viloyatlardan usul ko'rmiya (ko'rmakka) kelub-kedanlar o'lub, bu soyada har tarafdan ikki yuzdan mutajovuz (ortiq) maktablar usulimi qabul etdilar...»[51] Ushbu maktab tamom begona bir hodisa emas. Ismoilbek yangi maktabni shunday tushuntiradi: «Ota-bobo kunlarindan qolmish milliy maktablarni isloh etmak usuli jadid demakdir»[52]. 1888-yilda ushbu maktablar uchun birinchi darslik «Xojai sibyon» («Bolalar muallimi»)ni bosmadan chiqardi. «Usuli jadid»ga bo'lgan ehtiyojni tushuntirdi, «usuli qadim»dan farqiga e'tiborni qaratdi.

«Xojalara ta'limot» («Muallimalarga yo'llanma») faslida «usuli jadid»ning osondan murakkabga borishini uqdirib, xos xususiyatlarini 15 bandda ko'rsatib berdi. Unda bolaning eng

---

[50] Какие главные принципы должны быть в основе образования русских инородцев-мусульмана? «Туркестанский сборник», том 361, 138-с.

Rus shovinizmi «inorodes» (g'ayrijins, qayriinsoniy) tushunchasini yaratdi. Z. Validiy qayd etishicha, bu sohaning «Bosh mutaxassisi» Muropiev edi. Unga ko'ra, «inorodes» musulmonlar, ya'ni turkistonliklar uchun maorif tashkil etishda ma'no yo'q. Ularning qismati Amerikadagi qizil tanlilar bilan bir. Bu fikrga Remizov, Yadrinsev, Patanin, Nalivkin kabi ziyolilar e'tiroz bildirganlar. Lekin bu e'tirozlar qabul qilinmagan, albatta. Aksincha, ularning o'zlari ham zarar ko'rganlar. Masalan, Yarinsevning «Sibir qayrirus (inorodes)larining ahvoli» nomli bir kitobi «zararli asar» sifatida taqiqlangan (A.Z.Validiy, Bugungi turk eli..., 304-b.).

[51] Ismoilbek Gasprinskiy. Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh. Simferopol, 1898, 4-b.

[52] O'sha yerda.

muvofiq o'quv yoshi (6—7) dan tortib, o'quv soatlarining bolalar yoshiga mutanosib taqsimlanishi lozimligigacha, o'qish bilan yozishni qo'shib olib borishdan har bir harfni «sadosi bilan» o'rgatishgacha, darslar orasidagi tanaffusdan imtihongacha, qo'yingki, bugungi zamonaviy maktablarga xos barcha masalalar qamrab olingan edi. Darslikda har bir mavzudan keyin savollar berilgan bo'lib, muallif fikricha, ular o'quvchilarning darsni anglashlari va imtihon topshirishlari uchun «buyuk vosita» edi.

Muallif o'qish-o'qitishning yangi usuli haqida to'xtalar ekan, bolalarga mohiyatni tushuntirmasdan quruq yodlatish zararli ekanligiga diqqatni qaratadi va har bir harfni alohida «sadosi bilan» muntazam va izchil o'rgatishni ta'kidlaydi. Ushbu usul shunga ko'ra «usuli savtiya» (tovush usuli) deb ham ataladi.

Shu tariqa, o'qitiladigan darsning mazmunidan uni o'qitish usuli va baholash jarayonigacha, o'quvchining dars tinglaydigan darsxonasidan dars jadvali-yu, qishki va yozgi ta'tiligacha, maktabning joylashish o'rnidan, sinf xonalarining jihozi-yu yorug'lik darajasigacha zamonaviy asoslarda ko'rib chiqilib, maktab ta'limining yangi dasturi maydonga keltirildi. Bu dastur «usuli jadid» nomi bilan shuhrat topdi. Jadid atamasining ommalashuvi ham, birinchi navbatda, mana shu «usuli jadid» bilan bog'lan-gandir.

Ayrim mutaxassislar mazkur yangi maktab nazariyasini mashhur rus pedagogi K.D.Ushinskiy (1824—1870—71)dan o'zlashtirilgan deyishga moyil. Ehtimol, lekin bu g'oyaning Rusiyaga qayoqdan kelib qolganini surishtirib borsangiz, shveysariyalik Iogann Genrix Pestolossi (1764—1827)ga borib taqalishini payqamay ilojingiz yo'q. Qarb olami bu nomni boshlang'ich ta'lim nazariyasining asoschisi deb qaraydi[53]. Kuzatishda davom etsangiz, uning ildizlari ta'lim-tarbiyaga favqulodda e'tibor berilgan ko'hna Sharqqa tutashishiga shubha yo'q. Mayli, gap bu haqda emas. Gap shundaki, I.Gasprali Rusiyadagi musulmon turklar olamiga o'qish-o'qitishning yangi usulini olib kirdi. Bugina emas, uning bevosita amaliyoti bilan ham shug'ullandi.

[53] Buni jadidlarimiz ham bilganlar. Mirmuhsin Shermuhamedov unga bag'ishlab «Maslak ishqi va fidokorlik» («Sho'ro»j., 1917-y. 21-son) nomli maqola yozgan.

Ismoilbek usulining shov-shuvidan xabar topgan Ichki ishlar vazirligi 1891-yili maxsus ishlar bilan shug'ullanuvchi xodimi Vashkevichni yuboradi. Lekin Gasprali ancha ishga ulgurgan edi. Chunonchi, Rusiyaning turli shaharlarida 30 ga yaqin «usuli jadid» maktabi ochilgan, «Xojai sibyon» darsligi esa qisqa muddatda 4 ming nusxada tarqab ketgan edi.

Ismoilbek bo'sh kelmaydi. 1892-yilda Turkiston general-gubernatori baron A.B. Vrevskiyga xat yozadi[54], «usuli jadid» ning mohiyatini bayon qiladi. Shu paytgacha joriy 6 yillik ibtidoiy maktablarni ikki, hatto bir yarim yilga tushirish, qolgan muddatda rus tili va madaniyatini o'rgatish mumkinligini, faqatgina ularni o'rgatish yerli ziyolilar qo'liga topshirilishi lozimligini bildiradi. Va ushbu maktablarning o'lkada tashkil qilinishida yordam so'raydi[55]. General-gubernator mavzuning bilimdonlari hisoblangan N.P. Ostroumov bilan V.P.Nalivkinga beradi. Ikkovlari ham rad etadilar. N.P.Ostroumov «Turkistonga mutlaqo aloqasi bo'lmagan janob Gasprinskiyning «jur'ati»dan hayron qoladi, uning «bunday muhim ish»ga aralashuvini «yo'l qo'yib bo'lmaydigan», ruslashtirishga xalaqit beradigan hol hisoblaydi. «...XIX asr oxirlariga kelib, g'ayrijinslarni ruslashtirish sekin, ishonchsiz borayotganidan» nihoyatda qayg'uga botadi. Umuman olganda, bu maktablarning maqsad va intilishlari «rus madaniyatining barcha afzalliklaridan foydalanib qolish va uning yordamida o'zlarining milliyliklarini barcha imkoniyatlaridan foydalangan holda qat'iy himoya qilishga urinish» ekanligini to'g'ri belgilaydi. Shunga ko'ra, Gasprinskiyni «eng zararli kishilar»[56] sirasiga kiritadi. Xullas, general-gubernator A.B.Vrevskiy I.Gasprinskiyning Turkistondagi musulmon maktablarini usuli jadid maktablariga aylantirish loyihasi ifodalangan maktubini javobsiz qoldiradi[57].

1893-yili Gasprinskiy shirvonlik shogirdlaridan Majid G'anizoda bilan Turkistonga yo'l oldi. Samarqandni tomosha qildi. Amir Abdulahadxon yuborgan faytunga o'tirib, Shahrisabzni ziyorat qildi. Samarqand va Buxoroda «usuli jadid» maktablari

---

[54] А.В.Пясковский. Революсия 1905–1907 годов в Туркестане (Изд. АН СССР. – М.: 1958, 99-6.); Kitobida N.O.Rozenbax deb yanglish ko'rsatadi. Rozenbax 1889-yilga qadar general-gubernatorlik qilgan.

[55] Ismoil Gasprinskiy. Turkiston general-gubernatoriga maktub. Nashrga tayyorlovchi S.Xolboyev, «Guliston»j. 1995-y. 2-son, 56-58 bb.

[56] Ostroumovning javobi, «Guliston»j. 1995-y., 1-son.

[57] A.V.Pyaskovskiy. Ko'rsatilgan kitob, o'sha betda.

ochdi. Majid G'anizoda Ismoilbekdan izn olib, Samarqandda 40 kun qoldi va «usuli savtiya» o'rgatdi[58].

A.V.Pyaskovskiyning ma'lumot berishicha, 1895–1901-yillarda Toshkentda to'rtta usuli jadid maktabi tashkil topgan edi. 1900-yili Andijonda ochildi...[59] Bularning ma'lum qismi tatar maktablari edi. Hukumat tubjoy xalqning ko'zi ochilishiga qattiq qarshilik ko'rsatib bordi. Jumladan, 1901-yili Munavvarqorining[60] 1904-yilda Avloniyning[61] «usuli jadid» maktabi ochish haqidagi arizalari bir necha bor rad etilgani haqidagi hujjatlar arxivlarda saqlanib qolgan.

Ayni paytda Rusiya hukumati rus-tuzem maktablariga zo'r berdi. Mahalliy xalqni ruslashtirishda asosiy vosita deb qaralgan bu maktablarni Ismoilbek 1881-yilda rus-tatar xalq maktablari misolida maqsad-maslagidan tortib, o'qish-o'qitish tizimigacha keskin tanqid qilib chiqqan edi[62]. Shunday maktablar 1884-yildan Turkistonda ham ochila boshladi. Birinchi rus-tuzem maktabi 1884-yilning 19-dekabrida Toshkentda tashkil etilgan. 1891-yili Xivada ochilgan. 1892-yilda Turkiston o'lkasidagi rus-tuzem maktablarining soni 21 taga yetgan. 1894-yili Buxoroda ham tashkil qilingan. 1917-yilning boshlarida Turkistonda 170 rus-tuzem maktabi bor edi[63].

Mahalliy xalqni ruslashtirish, ajdodlarning tarixi va madaniyatini millat xotirasidan siqib chiqarishni ko'zda tutgan ushbu boshlang'ich rus maktablarini hukumat qancha rag'batlantirmasin, turmushga singib keta olmadi. Faqat Turkistonda emas, boshqa joylarda ham. «Tatarlar uchun ochilgan rus maktablari o'lik tug'ilgan muassasaning o'zginasidirki, buni ushbu ishning nazariyasi va amaliyoti yaqqol isbotlab turibdi»[64] — deb yozgan edi I.Gasprinskiy 1881-yilda. Salkam 30-yildan keyin esa 2-Davlat Dumasining maorifga bag'ishlangan yig'inlaridan birida

---

[58] «Tarjimon»g, 1906-y. 15-son.

[59] A.V.Pyaskovskiy, ko'rsatilgan asar, 100-b.

[60] A.V.Pyaskovskiy, o'sha joyda.

[61] Pismo inspektora narodnix uchilish 1-go rayona Sr-Darinsk, obl. MNP ot 19-fevr. 1914-g (538-son)i ot 24-marta 1914-g. (1118-son). Avloniy memorial muzeyi (Respublika o'qituvchilar malakasini oshirish markaziy instituti).

[62] Ismoilbek Gasprinskiy. Iz naslediya Simferopol, «Tavriya», 1991, 42–43-bb.

[63] O'zbekiston Respublikasi. Ensiklopediya. – T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1997. 376-b.

[64] Ismoilbek Gasprinskiy, Iz naslediya, Simferopol,»Tavriya»,1991,42-b.

Yu.Enikeev rus-tatar maktablarining «Rusiyaga bo'lgan amniyat (ishonch) va muhabbatlarni so'ndirmoqdan boshqa ishga yaramayotgani»ni, «direktorlar boshqa maktablarni to'xtatib, o'quvchilar yig'ayotgani»ni, «bu bilan ish bitmasligi»ni qayd etadi. Gruzin Chxeidze esa Kavkazdagi rus-tuzem maktablarining «chiriganligi»ni, «aqli zaif xizmatkorlar yetkazayotgani»ni ochiq aytadi[65].

Hukumat bu maktablarga dars berish uchun e'tiborli mahalliy ziyolilarni jalb qilishga urindi. Shundaylardan biri 1917-yilga qadar salkam 20 marta chop etilgan «Ustozi avval» darsligining muallifi Saidrasul Aziziy (1866–1933) edi. Lekin xalq u qadar xushlamadi, «nasoro maxsum», «kofir maxsum» deb atadi. Shunga qaramay, ijodkor ziyolilarimizning muayyan qismi ushbu rus-tuzem maktablarida ta'lim olganlar. Bu borada Qodiriy va Cho'lponlarning nomini tilga olish kifoya.

Yoshlar jadid maktablariga katta umid bilan kiradilar. Ziyolilarimiz barcha qiyinchiliklarga qaramay, «usuli savtiya» maktablari ochishga zo'r berdilar. Bu ishlar ko'pincha juda katta fidoyiliklar evaziga amalga oshirildi.

Parijda chiqadigan «Revyu dyu monde musulman» («Islom olami majmuasi»)ning yozishicha, 1908-yilgacha Turkiston o'lkasidagi maktab-madrasalarning umumiy soni quyidagicha bo'lgan: Sirdaryo viloyati: jami musulmon maktablari – 2216 ta.

O'quvchilar: 28875 o'g'il bola, 5472 qiz bola. Aralash (rus-tuzem) maktablari esa 31 ta bo'lib, 1290 talaba o'qigan.

Farg'ona viloyatida o'g'il bolalar maktabi: 1854 (26446 o'quvchi); qizlar maktabi: 583 (2913 o'quvchi); madrasalar: 204 (5227 talaba); qorixona; 373.

Samarqand viloyati: 1872 maktab; o'quvchilar: 18277 o'g'il, 876 qiz. Qorishiq (rus-tuzem)-12 (329 o'quvchi; musulmon bolalar-196); madrasalar: 90 (2873 talaba).

Turkiston bo'yicha ochilgan jadid maktablarining soni esa» 30 ta. Bu maktablarda 1300 o'quvchi o'qigan.[66]

Otaboy Eshonov XIX asrning 90-yillarida Buxoroda 140 madrasa, 360 maktab bo'lganligini va bu o'quv dargohlarida 20 ming bola tahsil ko'rganini qayd etadi[67]. Birgina Shahrisabzda

---

[65] Davlat Dumasi va maorif masalasi. «Tarjimon»g., 1909, 18-son.

[66] Turkiston musulmonlarida maorif ishlari. «Tarjimon» g , 1991, 7-son.

[67] А.И.Ишанов. Бухарская Народная Советская республика. – Т.: 1962, 70-с.

XIX asrning ikkinchi yarmida 64 guzar masjidi, 6 madrasa, 7 karvonsaroy, 2 hammom bo'lgan. 1911-yili Toshkentning Eski shahar qismida 333, yangi shahar qismida 16 masjid, 17 madrasa bo'lgan[68].

Asosiy umid jadid maktablaridan edi, albatta. Jadid maktablari esa yuqorida ko'rganimizdek, barmoq bilan sanarli edi. Ular XX asrdan, shunda ham 1904-yillardan, chor hukumati yapon urushida mavqeini yo'qotgach, udumga kira boshlagani ma'lum bo'ladi. Bu Abdulla Avloniyning «Tarjimai hol»idagi «1904-yildan jadidlar to'dasida ishlay boshladim»[69] degan e'tirofiga ham to'g'ri keladi. A.V.Pyaskovskiy Toshkentda birinchi o'zbek jadid maktabi 1904-05-yilda Munavvarqori tomonidan ochilgan[70], ungacha bo'lganlari asosan tatar maktablari edi[71] deb hisoblaydi. Bu ma'lumotlar shartli, albatta. Negaki ular rasman murojaat qilinib, ruxsatnoma olingan maktablarnigina ko'zda tutadi. Turkiston sharoitida esa juda ko'p maktablarning ruxsatnomasiz, norasmiy ishlaganini tasavvur qilish u qadar qiyin emas. Lekin shu rasmiy statistika ham jadidlar maktabining yildan-yilga o'sib, kengayib borayotganini ochiq ko'rsatadi. Chunonchi, 1917-yil Fevral voqealari arafasida Turkistonda 92 usuli jadid maktabi qayd qilingan ekan[72].

Tabiiyki, maktablar uchun darsliklar ham yozila boshladi. Dastlab Saidrasul Aziziyning rus-tuzem maktablari uchun yozilib, 1901-yilda bosilib chiqqan «Ustozi avval»idan foydalandilar. 1903-yillardanoq jadid maktablari uchun maxsus darsliklar tuzila boshlandi. Lekin bu ishlar g'oyat qiyin kechdi. Yo'l berilmadi. Masalan, Behbudiy «Kitobi muntaxabi jug'rofiyai umumiy»sini nashr qilish uchun uzoq ovoragarchiliklardan so'ng 1905-yilning 24-avgustida Sankt-Peterburg senzurasidan ruxsat olishga muvaffaq bo'lgan va kitob 1906-yildagina Samarqandda G.I.Demurov bosmaxonasida nashr etilgan edi. Shularga qaramay, 1907-yildan «usuli jadid» darsliklari tez-tez nashr etilgan.

---

[68] Murod Mirzo Ahmad qori o'g'li. Istilo va kumush qadahcha. «O'zAS» haftaligi, 1992, 20-noyabr, №47.

[69] A.Avloniy. Tanlangan asarlar, 2 jildlik, 2-jild. — T., «Ma'naviyat», 1998, 288-b.

[70] A.V.Pyaskovskiy, ko'rsatilgan kitob, 547-b.

[71] A.V.Pyaskovskiy bu fikrni A.I.Dobromislovning «Ташкент в прошлом и настоящем» (T., 1912, 203-209 bb.) kitobiga suyanib aytgan. 100-b.

[72] A.V.Pyaskovskiy, ko'rsatilgan kitob, 547-b.

Jumladan, 1907—10-yillarda Munavvarqorining «Adibi avval», Adibi soniy» darsliklari, Abdulla Avloniyning «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» majmuasi, «Birinchi muallim», «Muxtasari tarixi anbiyo va tarixi islom», Buxoroda Ayniyning «Tah-zibus sibyon» kitoblari dunyo ko'rdi. 1911—13-yillarda ular yoniga Rustambek Yusufbekovning «Ta'limi avval», «Ta'limi soniy»si, Munavvarqorining «Havoyiji diniya», «Yer yuzi (jug'rofiya)», qo'qonlik Mirzo Xayrulloxonning «Tuhfat ul-atfol», buxorolik Abdurauf Fitratning «Muxtasar tarixi islom», namanganlik Abdurazzoq bin Mirzaqorining «Miftoh ul-avval», samarqandlik Abdulmo'minxo'ja Eshon o'g'lining «Nasoyih ul-atfol», «Avloniyning «Maktab gulistoni», «Turkiy guliston yoxud axloq», Qori Muhammad Rahimboyning «Ne'mat ul-islom», Siddiqiy-Ajziyning «Tajvid al-qur'on» kabi ko'plab kitoblari qo'shildi. Ayrim darsliklarimiz (Muxtor Bakir, «Savod», 1913) Qozonda chop etildi. Birinchi jahon urushi, so'ng unga ulanib ketgan 17—20-yillardagi siyosiy larzalar davrida ham usuli jadid maktablari to'xtab qolmadi, darsliklar chop etilaverdi. Eskilar qayta bosildi, yangi nashrlar paydo bo'ldi. Fitratning «Muxtasar tarixi islom» (1915), «O'quv»(1917), Ashurali Zohiriyning «Imlo» (1916), Shokirjon Rahimiyning «Sovg'a» (1919), «Kattalarga o'qish» (1920), «O'zbek alifbosi» (1922) kabilari shundaylardan edi. Nihoyat, Hamzaning «Yengil adabiyot» (1914), «Qiroat kitobi» (1915), Avloniyning «Uchinchi muallim» kabi maktablarda o'qitilgan, lekin turli sabablar bilan bosilmay qolgan darsliklarini ham bular qatoriga qo'shish mumkin.

Xullas, «usuli jadid» darsliklariga shu bir ko'z tashlashning o'zi ham bu hodisaning tasodifiy emasligiga dalil bo'lib turibdi. Ikkinchidan, bu asarning tili mualliflar qayta-qayta ta'kidlanganlaridek,»Turkiston shevasida» «eng oson usuli ila», «tadrijiy suratda», «ochuq til va oson tarkib ila» yozilgan edi. Nihoyat, bu kitoblar, xususan alifbodan so'ng o'qitiladigan majmualar «bolalarning tabiatlariga milliy hasrat va nadomatlardan iborat o'lan nasihatlarni o'rnashdurmak orzusinda» (Avloniy) yaratilgan edi. Shularga ko'ra, bu maktablar bolalarni shunchaki xat tanishga o'rgatish emas, ijtimoiy-siyosiy savodini chiqarishda ham muhim rol o'ynaydi. Lekin yangi maktab Turkistonda. xususan Buxoroda osonlikcha o'ziga yo'l ochgani yo'q. Bir tomondan chor hukumati yo'l bermaydi, ikkinchi tomondan— mutaassiblik. 1909-yili Buxoroda «usuli jadid» maktabi atrofida

katta janjal ko'tarildi. 3–4 yildan buyon ishlab turgan yangi usul no'g'oy maktablari, 1908-yilda bir tojik maktabining «usuli jadid»ga aylantirilishi, imtihonlar va ularning favqulodda natijalari bu maktablarga katta shuhrat keltiradi. Ayni paytda eski an'anaviy maktab kasodga yuz tutadi. Hasad va chaquvlar kuchayadi. Uzoq bahs va tortishuvlardan so'ng qushbegi va qozikalon maktabni yopishga fatvo beradilar. Tojik maktabi bilan kifoyalanmay, no'g'oy (tatar) maktablarini ham bekitishga harakat boshlanadi. Biroq ularning Rusiya fuqarosi bo'lganliklari foyda berib, maktablari ochiq qoladi. Lekin ular boshqa yo'l tutdilar, uyma-uy yurib, xalqqa bolalarni yubormasliknigi uqtiradilar. «Tarjimon» shu munosabat bilan maqola beradi. Yangilikning hamisha qiyinchiliklar bilan o'ziga yo'l ochgani, jumladan, bu g'avg'olar Qrim, Kavkaz, Qozon va Sibiriya ulamolari orasida 20 (1889), Misr va Istambulda esa 65 sana (1844) muqaddam bo'lib o'tganini ta'kidlagan va «navbati bugun kelgan» Buxoroga «oq yo'l» tilagan edi[73]. Ish bundan ham jiddiyroq bo'lgan. 1914-yilda Saidahmad Siddiqiy «usuli jadid» bilan o'qitgani uchun Samarqandda Ulug'bek madrasasi jome'ida bir necha ming kishi huzurida «kofir» deb e'lon qilindi. Muallim So'fizodani vatani Chustdan haydab yubordilar. Toshkentda Sebzor qozisi Mirmuhsin Shermuhamedovni shaddodligi, jadidparastligi uchun Chorsu bozorida sazoyi etib, toshbo'ron qilib o'ldirishga farmon berdi...

Yangi maktab, umuman, yangi fikr mana shunday qiyinchiliklar bilan kirib kelgan edi.

Uyg'onmoq dunyo bilan barobar yashamoqdir
(Oliy ta'lim tashvishlari)

Jadidlar yoshlarni G'arb va Sharqning taraqqiy qilgan mamlakatlariga o'qishga yuborishga alohida ahamiyat berdilar. Avloniy tilga olgan toshkentlik taraqqiyparvarlar — «jadidlar to'dasi» «jamiyati xayriya» ochadi. Jamiyatning 1909-yil 12-mayda tasdiqlangan 41 moddalik Nizomidan ma'lum bo'lishicha, uning muassislari Toshhoji Tuyoqboyev, Nizomiddin Mulla Husainov, Mulla Abdulla Avlonov, Munavvarqori Abdurashidxonov, Bashirulla Asatillaxo'jayevlar bo'lib, viloyat hududidagi nochor,

[73] Buxoro maktublari (yangi maktablar). «Tarjimon»g., 1909-y. 2-oktabr.

muhtoj musulmonlarning moddiy-ma'naviy ahvolini yaxshilash, jumladan, yetimlar, keksalar, nogironlar uchun kasalxona, ambulatoriya, choyxona, oshxona, yotoqjoylar ochishdan tortib, yoshlarni maktabda o'qitish, so'ng oliy tahsil uchun chet ellarga yuborishgacha bo'lgan masalalarni ko'zda tutar edi[74].

Umuman olganda, mamlakatimiz qop-qora zulmat qa'rida qolgan paytlari ham uning farzandlari orasida yorug'likka yo'l topib, oz-ko'p bahra olganlari bo'lgan. Yuqorida XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkistonda minglab maktablar bo'lganini ko'rib o'tdik. Gap bu davrda jahonning taraqqiyot yo'lini belgilab turgan Ovrupo ilm-fani, zamonaviy oliy o'quv muassasalari haqida ketadigan bo'lsa, bu borada ham misollar yo'q emas, Masalan, taqdir taqozosi bilan boshidan qanchadan-qancha mojarolarni o'tkazgan va haj yo'li bilan Jiddaga borib, rus konsuli yordami bilan 1894—1904-yillarda Moskvadagi Lazarev nomli Jonli sharq tillari institutining gimnaziyasidan oliy kursigacha o'qigan Muqimiyning jiyani Ro'zimuhammad Do'smatovni olaylik. Bu dargohda asr boshlarida A.E.Krimskiy, V.A.Gordlevskiy kabi mashhur olimlar dars bergan edilar. 1916-yili mardikorlik voqealarini yoritgani kelgan «Vaqt»ning muxbiri Shahid Muhammadyorov Samarqandning Boqi shamolidagi bir yig'ilishda Ovrupo harbiy meditsina akademiyasini tugatib, bir necha yil askariy tabib bo'lib ishlagan, 1914-yilgi urushdan oldinroq Baqdodga konsul qilib tayinlangan mahalliy xalq vakilini ko'rib, hayratga tushgan va «tabiatning o'yini» deb baholagan edi[75]. «Sadoyi Turkiston»ning muharriri, Turkiston muxtoriyatining harbiy ńoziri Ubaydulla Xo'jayev (1880—1939) Saratov universitetining huquq fakultetini bitirgan edi. 10-yillarda yuqorida qayd etilgan «Jamiyati xayriya»ning yordami bilan bir guruh yoshlar Ufadagi «Oliya»[76], Orenburgdagi «Hu-

---

[74] Abdulla Avloniy. Tanlagan asarlar. 2 jildlik, 1-jild. — T.: «Ma'naviyat», 1998, 10-b.

[75] Shahid Muhammadyorov. Turkiston maktublari. U111. «Vaqt»g., 1916-y., 2100-son.

[76] 1906-yilda Ziyo Kamoliy (1873—1942) tashkil qilgan. S.Qudash, Sh.Babich, Z.Yarmoqiy kabi yosh tatar-boshqird adiblari, qozoqlardan Boyimbet Maylin, Muhammadjon Seralinlar ham shu yerda o'qiganlar. O.Ibrohimov, F.S.Qozonli kabi taniqli adiblar dars berganlar. S.Ramiyev, S.Sunchalay, M.G'ofuriylar tez-tez uchrashuvlar qilib turganlar.

sayniya»[77] madrasalarida o'qiganlar. «Oliya»da o'qiganlar orasida Mo'minjon Muhammadjonov (1883–1964), Lutfulla Olimiy (1893–1963), Mirmuhsin Shermuhamedov (1895–1929), Abdulhay Tojiyev (1899–1938), Tohir Shokir (Tohir Chig'atoy-1902–1984)lar bor edi.

1909-yilning martlarida Buxoroda «Shirkati Buxoroyi sharif» tuzildi. Maktab-madrasalar bilan tanishmoq uchun bir kishi Istanbulga, bir kishi Boqchasaroyga yuborildi. 1909-yil 18-iyulda Buxoro yoshlari «Tarbiyai atfol» nomli yashirin jamiyat tuzdilar. «Jamiyatning birinchi maqsadi Istanbulga o'quvchilar yubormoq chorasiga kirishmoq edi. Masorif uchun jamiyatning sirini ochmasdan e'timod qildig'i taraqqiyparvarlardan iona to'plar edi, jamiyatning ijtihodi soyasida bir qancha talaba Istanbulga yuborildi[78].

1909–1913-yillarda Abdurauf Fitrat (1886–1938), Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li (1878–1968), Ato Xo'ja (1894–1938), Mazhar Burxonov, Muqimbek Istanbulda o'qidilar[79], «Buxoro ta'lim maorif jamiyati» tuzdilar. Ayniy uning muassislaridan Muqimiddinbek (Muqimbek), Sodiq Ashur o'g'li va Abdulazizlarni sanab o'tadi. Buxoroda tahsil ko'rgan, keyinchalik Germaniyaga buxorolik talabalarni olib borgan tatar Olimjon Idrisiy ham ushbu jamiyatda ishlagan ekan. Ayniyning ma'lumot berishicha, Istanbuldagi buxorolik talabalar yildan-yil ko'payib borgan. 1911-yilda 15 nafarga, 1912-yilda 30 taga yetgan[80].

Turkistondan ham Istanbulga o'qishga borganlar bo'lgan. Masalan, Hamza «Dorulvoizin»da, G'ozi Yunus (1893–1938) dorulmualliminda o'qiganlar[81].

Birinchi jahon urushi, mardikorlik harakati, hatto 1917-yil voqealaridan keyin ham bu g'oya to'xtab qolmadi. 1922-yilning yozida Turkiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Hay'ati rayosati va Buxoro hukumati qaroriga ko'ra 60 dan ortiq o'quvchi Ger-

---

[77] «Husayniya». 1890-yilda Orenburgda ochilgan.

[78] S.Ayniy. Asarlar, 8 jildlik, 1-jild. – T., 1963, 233-b.

[79] S.Ayniy. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar. – M.: 1927, 59-b.

[80] S.Ayniy. Asarlar, 8 jildlik, 1-jild. – T.: 1963, 233-b.

[81] Fitratning O'zbekiston MXX arxivida saqlanayotgan 4269 raqamli «Shaxsiy ishi»dagi hujjatlardan Qozi Yunusning 1914-yildan keyin Istanbulda yashaganligi ma'lum bo'ladi (Qarang: Qozi Olim Yunusovning 5.X. 1937 sanadagi so'roq bayonnomasidan ko'chirma, 1-b). Umuman, bu yillari Fohirada o'qigan yoshlarimiz ham bo'lishi kerak.

maniyaga o'qishga yuboriladi[82]. G'oyaning boshida Fitrat, Munavvarqori, Fayzulla Xo'jayev, Turor Risqulov turadilar. Bulardan hozircha Sattor Jabbor (1905–1938), Solih Muhammad (1902–1938), Saydalixo'ja (1893–1973), Xayriniso Majidxonova (1905–1938), Maryam Sultonmurodova, Saida Sherahmad qizi, Birimjon Azim, Fuzayl Sherahmedov, Rauf Rasuliy, Vali Qayumxon, Ahmadjon Ibrohimov, Abdulvahob Ishoqov (O'ktoy), Ibrohim Yorqin, Afzal Abusaid, Sulton Matqul, Sobir Turkistonli, Ahmad Naim, Temur, Abdumajid Ibrohimov, Ahmad Shukriy, Tohir Chig'atoy, Bahvaddin Amin, Bilol Fathullo, To'lagan Mo'min, Orifxon Ibrohim, Abdulla, Ahmad Shukuriy (Buxoro), Ruqiya Rahim qizi, Shamsulbarotxonim, Zahro Kashayeva, Gulsum Muzaffar, Ertoy nomlari ma'lum. Abdulvahob Murodiy ulardan sal oldinroq borgan edi.

1923-yilda Germaniyada turkistonliklardan II, buxoroliklardan 51 talaba o'qir edi.

Turkistonliklardan Berlin Humboldt universitetining tibbiyot fakultetida 1, Berlin Texnik akademiyasida 4, Qishloq xo'jaligi akademiyasida 2 talaba o'qir edi. Ikki o'quvchi ko'nchilik maktabida, 2 talaba gimnaziyasida edi. Buxoroliklardan Berlin Humboldt universitetining tib, falsafa, iqtisod, binokorlik, elektrotexnika, mashinasozlik, qishloq xo'jaligi kabi ixtisosliklarida 7, Vitsinxauz oliy qishloq xo'jaligi maktabida 4, Saksoniya Frayberg ko'nchilik maktabida 2, Leypsig matbaachilik maktabida 2, Drezden muallimlar maktabida 1, gimnaziyasida 1, Bilefold dorulmualliminida 2, Braunshveyt dorixona ishlari maktabida 1 talaba o'qigan. Berlin maktabgacha tarbiya qizlar o'quv yurtida bir o'quvchi, shuningdek, bolalardan 16 nafari Koslindagi (Pomen viloyati) 10 yillik davlat bilim tarbiya muassasasida, 4 nafari doktor Fakkelmanning xususiy o'rta maktabida, bittasi Xermsdorf bolalar uyida ta'lim olgan. Har xil mashinasozlik zavodlarida 6 o'quvchi o'qish uchun tajriba va ko'nikma orttirgan edilar.

---

[82] Sh.Turdiyev. Ular Germaniyada o'qigan edilar... – T.: «Fan», 1991; Qosimov B., Tohir Chig'atoyning Bambergdagi shogirdi. «Marakaziy Osiyo madaniyati». – T.: 1997-y., 3-4 sonlar; Sh. Turdiyev aniqlashicha, 20-yillarning boshida turkistonlik talabalar faqat Germaniyada emas, Turkiya, Fransiya, Yaponiya mamlakatlarida ham bo'lganlar. «Rafiq» imzoli kishining «Farg'ona» gazetasida (1923-yil 26-aprel) yozishicha, shu yillari xorijda o'qib turgan turkistonlik yoshlarning umumiy adadi 500 dan oshiq bo'lgan ekan (Turdiyev Sh., ko'rsatilgan asar, 69-b).

Ko'p o'tmay, hammalari yo'llarini topib ketdilar. Abdulvahob Murodiy, Birimjon Azim, Solih Muhammad Berlin Oliy qishloq xo'jaligi akademiyasiga qabul qilindilar. Saydalixo'ja Oliy texnika akademiyasining kimyo, Afzal – arxitektura, Ahmadjon Ibrohim – tog' muhandisi, Sultonbek, To'lagan Mo'min – muhandis-elektrik, Bilol mashinasozlik fakultetlarida o'qiy boshladilar. Orifxon Ibrohim Bonn Oliy ziroat maktabining suv muhandisi, Sobir Dormshtat Oliy texnika maktabining mashinasozlik, Ahmad Shukriy Berlin Humboldt universitetining tarix-falsafa, Ahmad Naim, Shamsulbarotxonim esa tibbiyot fakultetlariga o'qishga kirdilar.

Tohir Shokir (Tohir Chig'atoy) Haydelberg universitetining iqtisod, Abdulvahob Ishoq (O'ktoy) shu universitetning meditsina fakulteti, Gulsum Muzaffar Berlin o'qituvchilar instituti talabasi bo'ldilar...

20-yillarning o'rtalaridan Rusiyadagi ichki kurash sovetlar foydasiga o'zgara boshlagach, bolsheviklar hukumati millatlarga berilgan hurriyatni tortib oldi. Shulardan biri yoshlarni chet mamlakatlarda o'qitish edi. Xullas «chirik», «reaksion» «burjua mafkurasining uyasi» – Olmoniyadan yoshlar shoshilinch chaqirib olina boshladi. Talabalarni zo'r berib Rusiya shaharlaridagi universitetlarda o'qishga tarqib qilish avj oldi. Chetda bitirib kelganlarga dastlab salohiyatiga yarasha ish berildi.[83] Ta'tilga kelganlar qoldirildi. So'ng esa ularga «Germaniya agenti», «josus» singari tavqi la'natlar yopishtirilib, qatag'on qilish boshlandi. Qaytib kelganlarning katta qismi yasama ayblar bilan otib tashlandi, qolgan oz qismi esa qamoq va surgunlarda nobud bo'ldilar. Safdoshlarining vatandagi mash'um taqdiridan xabar topib, chetda qolib ketgan yoshlarimiz Germaniya, Turkiya shaharlarida o'z iqtidorlariga muvofiq ilmiy-madaniy muassasalarda xizmat qildilar, professorlar bo'lib tanildilar (Tohir Chig'atoy, Ibrohim Yorqin, Saydalixo'ja, aka-uka Abdumajid va Ahmadjon Ibrohimlar, Abdulvahob Ishoq-O'ktoy, Vali Qayumxon kabi). Lekin tabiiyki, vatanning hasratlik yodi bilan umrlarini o'tkazdilar.

Shu tariqa jadidlarning chor hukumati davrida yo'lga qo'yilgan va inqilobning dastlabki yillarida u qadar qarshilikka

[83] Masalan, Sulton Matqul (1902–1938) O'zbekiston Fanlar komiteti (hozirgi fanlar akademiyasi) ning raisi o'rinbosari darajasiga ko'tarilgan.

uchramagan xorijda milliy kadr tayyorlash dasturi 20-yillarning ikkinchi yarmida sho'rolar hukumati tomonidan barbod qilindi. Aslida bu ishning muvaqqat ekanligini, o'z universitetlarini ochmagunlaricha milliy kadr taqchilligi hal bo'lmasligini ular bilar edilar. Lekin universitet tashkil qilish uchun avvalo moddiy sarvat zarur edi. Mutaxassis kerak edi. Nihoyat, hukumat qo'llamagan taqdirda ham qarshilik ko'rsatmasligi lozim edi. Afsuski, XX asr boshidagi Turkistonda bu uch omildan bittasi ham yo'q edi. Yolg'iz so'ngsiz ishtiyoq, buyuk orzu bor edi. Universitet, avvalo, millatning ko'kragini ko'tarish, bir vaqtlar o'z salohiyati bilan jahon sahnasida markaziy o'rinlarni egallab kelgan, so'nggi uch-to'rt asrlik tanazzul va bo'hronlar tufayli surilib, asoratga tushgan Turkistonning ko'zini ochish, jahonni va o'zligini tanitish, bir so'z bilan aytganda, dunyoga qo'shish uchun lozim edi. Taraqqiyparvar ziyolilarimiz bu zarurat va ehtiyojni dil-dildan angladilar va uni umummillat g'oyasiga ko'tardilar. Bu g'oya Rusiyaga tobe bo'lgan xalqlarning ilk matbuot minbari «Tarjimon» (1883–1914)dan, «Oyna» (1913–15) gacha, dastlabki uyushmasi «Ittifoqi muslimin» (1905)dan «Turon» (1913–1918) u «Sho'royi islomiya» (1917)gacha aks etdi va takomillashib bordi.

«Ovrupo bir keksa choldir, tajribasi ko'pdir,—deb yozgan edi. Ismoilbek 1885-yilda. – Ulug' yoshiga hurmatimiz bor. Tajribasidan o'rganamiz. Lekin xatolarini takrorlamaymiz. Maktablarini, universitetlarini bizlar ham quramiz. Ammo aqllarimizni qancha yoritsak, qalblarimizni ham shuncha «haqqoniyat» bilan to'ldirmoqqa harakat qilamiz. Ovrupoda nimani ko'rsak, yosh boladek olib yugurmaymiz. Esli-hushli insonlardek «Bu nimadir? Oqibati nima bo'ladi. Vijdon va haqqoniyatga uyg'unmi? – deya aql tarozisiga tortib olamiz. Ovrupo madaniyati mulohâzasiz qabul qilaverish mumkin bo'lgan bir narsa bo'lsa edi, bu madaniyatga Ovruponing o'z vorisi[84] dushman bo'lmas edi»[85]. «Fuqaroi islom sizlardan mol istamas, osh istamas. Din – Qur'ondan, jon – Xudodan», – deb yozadi u 1906-yilda Buxoro va Xiva xonlariga xitoban. – «Siz, davlatlik xonlardan xalqqa ehson etiladigan narsa nashri maorifga,

[84] «Mazhabi ishtirokiyunchi»lar – sotsialistlar ko'zda tutilyapti.

[85] I.Gasprali. Ovrupo madaniyatiga bir tanqidiy nazar. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» haftaligi, 1996-y., 26-yanvar, 4-son.

taraqqiyot va kamolotga omil bo'luvchi oliy darajalik maorif maktablaridir. Ko'hna madrasalar ko'p Buxoroyi sharifda va Xivada endi biror dorulfununi islomiya ta'sis etmoq lozim. Bu dorulfununlarga bir daraja ilm olgan talaba qabul qilinib, tarix, jug'rofiya, kimyo, handasa, ilmi huquq, usuli idorai davlat, ilmi iqtisod va boshqa lozim fanlar, turkiy, forsiy, rusiy va fransaviy tillar o'rgatilsa, ushbu dorulfununlarda muallim va mudarrislik qila oladigan ahli kamol topiladi» («Tarjimon»g., 1906, 89-son).

Behbudiyning «Oyna» jurnalida quyidagilarni o'qiymiz: «Hozirgi zamon ahvoliga oshno kishilarga va boshiga ish tushganlarga, barcha tojir va mansabdorlarga albatta ma'lumdurki, bizga muvofiqi zamona odamlar kerak, ya'ni musulmon do'qtur, musulmon muhandis (injener-pilonchi), musulmon zakunchi, tijoratxonalarda musulmon «agent» ishboshilar, podshohlik mahkamalarida musulmon ma'murlari, musulmon sudyalari, natarius (muqavolot muharriri), bonkalarda musulmon sarkorlari va... kerakdur[86].

«Turon» jamiyatining 73-moddalik nizomida «ovrupocha o'quv muassasalari ochish», «o'rta va oliy o'quv yurtlarida o'qiyotgan talabalarga stipendiyalar belgilash» ko'zda tutilgan[87]. Shunga yaqin maqsadni «Nashriyot» (1914) shirkati ham qayd etgan edi[88]. Turkiston universiteti g'oyasi va uning amaliyoti haqida gap ketganda muhim izoh talab nuqta bor. Gap shundaki, o'tgan asr so'nggidagi o'lkada yuz bergan ijtimoiy-siyosiy qo'zg'olishlar tufayli chor hukumatining muayyan davrlarida ham o'lkani har jihatdan tadqiq etish, boy tabiiy-iqtisodiy iqtidoridan zamonaviy asoslarda yanada samaraliroq foydalanish, ya'ni o'zlashtirish maqsadini ko'zda tutuvchi universitet g'oyasi shakllanib kelar edi. Ayni paytda, bu jahon hamjamiyatida mahalliy xalqning ma'rifati yo'lida qilingan ishdek taassurot qoldirmog'i lozim edi. Shunday bir sharoitda yuz bergan 1917-yil voqealari millatning istiqlolga ishonchini qanchalik oshirgan bo'lsa, universitet haqidagi orzulariga shuncha umid tug'dirdi.

---

[86] O'quvchilarga yordam kerak. «Oyna» j., 1914-y. 31-son, 601-b.

[87] Устав об-ва любителей мусульманского драматического искусства «Турон» в г. Ташкенте. 1916 г. ноября II-го на реестру №176 нотариус Дм. Егоров (Хранится в мемориальном музее Авлони).

[88] Toshkand maorifparvaroni tarafindan ta'sis qilingan «Nashriyot»shirkatining shartnomasi, sanayi ta'sis 1914-y. 19-sentabr. Notarius Egorov (Avloniy muzeyida saqlanadi).

Biroq sho'rolarning riyokorligi, Turkiston muxtoriyatining fojiali taqdiri mustaqillik bilan bir qatorda universitet g'oyasini ham xayolga aylantirdi. Shunga qaramay, jadidlarimiz istiqlol g'oyasidan voz kechmaganliklari singari millat avlodini ushbu yo'lda tarbiyalashda buyuk vosita bo'lgan zamonaviy oliy maktab fikridan ham voz kechmadilar. Imkon qadar uni amalga oshirish chorasini izladilar. 1918 yili yuzaga kelgan sharoitdan, ayrim rus liberal demokrat ziyolilarining xayrixohligidan unumli foydalandilar. 9-aprelda Munavvarqori Abdurashidxonovning hovlisida 9 kishilik tashkiliy Hay'at ish boshladi. Bir oy davomida 9 yig'ilish o'tkazildi. Bo'lajak universitetning tashkiliy tuzilishlaridan tortib, sho'ba fakultetlari-yu eng muhim sohalarning dasturlarigacha ishlab chiqildi.

1918-yilning 21-aprelida Toshkentning Yangi shahar qismida A.V.Popov bosh Turkiston xalq universiteti ta'sis etilgan bo'lsa, rosa 21 kundan keyin 12-mayda Eski shaharda Munavvarqori bosh bo'lgan Turkiston Musulmon xalq dorulfununi talabalariga o'z eshiklarini ochdi. 15-mayda nizomi qabul qilin-di.

Dorulfunun uch (quyi, o'rta, yuqori) bosqichli bo'lib, 5 yillik dorulmualliminni ham ko'zda tutar edi. Qisqa muddatda 23 maktab tashkil topdi, 299 muallim jalb etildi. Ulardan 22 kishi oliy diniy madrasalarni, 2 kishi Rusiya universitetlarini bitirgan edilar. O'qituvchilar orasida 20 ga yaqin turli soha vakillari, shu jumladan, taniqli shoir va yozuvchi, darslik mualliflari bor edi. Chunonchi, Abdusamiqori Ziyoboyev, G'ulom Zafariy, Mo'minjon Muhammadjonov, Qayum Ramazon, Shokirjon Rahimiy, Sobirjon Rahimiy, Haydar Shavqiy, Majit Qodiriy, Abdulvahob Murodiy, Maryam Sultonova, Zaynab Shamsuddinova, Abdulla Rahimboyev, Shamsiddin Sharafiddinov (Xurshid), Sa'dulla Sharafiddinov, Ahmad Shukriy, Eshonxo'ja Xoniy va h.k. nomlarni eslash kifoya.

Dorulmualliminda esa Fitrat ona tili va adabiyotidan, Munavvarqori axloqdan, Abubakr Divayev etnografiya, Kamol Shamsi matematika, Burhon Habib siyosiy tarix, Ismoil Haqqi madaniyat tarixi fanlaridan dars berdilar.

Dorulfunun Samarqandda o'z sho''basini ochdi. Mashhur Mahmudxo'ja Behbudiy — rais, taniqli adiblar hoji Muin-Mehriy, Saidahmad Siddiqiy — Ajziy, A.Hurbiy, Sh.Muxtoriy a'zo bo'ldilar.

Biroq rasmiylashtirishni kundalik siyosat darajasiga ko'targan Sho'ro hukumati musulmon dorulfununi faoliyatiga yo'l bermadi. Besh yilga mo'ljallangan dorulmuallimin 4 oylik kursga aylantirildi va o'sha 1918-yilning sentabr o'rtalaridayoq tugatildi. Rus tilini yetarli bilmagan mahalliy yoshlar oliy tahsildan mahrum bo'lib qolaverdilar. Turkistonliklarning chetda o'qishlariga 20-yillarning o'rtalarigacha tishini tishiga qo'yib chidagan Sho'ro hukumati Turkistonda milliy universitet ishlashiga toqat qila olmadi. Shu sabab 1919-yildayoq Turkiston xalq universiteti (to'g'rirog'i, rus universiteti) Davlat universitetiga aylantirildi.

1923-yili uning beshta fakultetida o'qigan talabalarning milliy tarkibi quyidagicha edi:

Jami — 2453. Shundan: ruslar — 1575; Yevropa yahudiylari — 397; arman-lar — 134; tatarlar — 81; o'zbeklar — 50; qirg'iz (qozoq)lar — 57; tojiklar — 11; Buxoro yahudiylari — 34; turkmanlar — 9; uyg'urlar — 8; dunganlar — 1; litvaliklar — 11; latishlar — 18; estonlar — 4; polyaklar — 32; nemislar — 15; boshqirdlar — 17[89].

Bu jarayon, tabiiyki, anchagacha hech bir o'zgarishsiz davom etdi. Va u o'z davrida bolsheviklarning o'zini ham befarq qoldirgan emas. Masalan, 1927-yil 19-martda O'zKP (b) MK ning 5-Plenumida Akmal Ikromov shunday degan edi: Ikki mingdan ortiqroq talabasi bo'lgan O'rta Osiyo universitetida o'zbeklar bor-yo'g'i 80 ta va millati ozchilikni tashkil etuvchilardan esa atigi 64 ta ekan. Va u yana O'rta Osiyo universiteti emish! Moskva oliy o'quv yurtlarida o'qiyotgan o'zbek o'quvchilarining soni Toshkentdagidan ko'proqdir[90].

Shu tariqa, oliy ta'lim yo'lidagi qizg'in harakat inqilob qasirg'alaridan so'ng qiyofasini bir oz o'zgartirib, unga moslanib olgan buyuk rus shovinizmiga urilib, to'xtab qoldi. Universitet endi millatning asliy xususiyatlarini tiklash, ko'ksini ko'tarish emas, aksincha, uning xos jihatlarini izchil yo'qotib borish, undan rus andozasi asosidagi sovet kishisi yasash ustaxonasiga aylantirildi.

---

[89] SGA RUz, fond-R-41, Op. 1. d. 1769, l, 60.

[90] Икромов А. Избранные труды в трех томах, том 1. — Т.: 1972, 260-с.

Jadid matbuotchiligi

Jadid matbuotchiligi 1905-yildan keyin 17-oktabr Manifesti bergan ma'lum erkinliklar samarasi sifatida maydonga keldi. Biroq bunda:

1) Turkistondagi mavjud o'zbekcha nashr — «Turkiston viloyatining gazeti»;

2) Usmonli turk, Kavkaz, Volgabo'yi matbuotchiligining ham roli katta bo'ldi.

Turkiston matbuoti Umumrusiya musulmon matbuoti bilan qadam-baqadam bordi, o'lka turmushi milliy taraqqiyot bilan bog'liq masalalarni ko'tarib chiqdi va hal qilishga urindi. Milliy adabiyotning shakllanishi hamda taraqqiy qilishiga munosib hissa qo'shdi.

Turkiston davriy matbuoti tarixidan

Turkistonda davriy matbuot aslida jadidlardan ilgariroq, 1870-yilda paydo bo'ldi va u o'lkaga kirib kelgan Rusiya hukumatining harbiy-istilochilik siyosatiga xizmat qildi.

Tarixi quyidagicha edi:

1867-yil 14-iyulda Toshkentda Turkiston harbiy okrugi shtabi qoshida harbiy hujjatlarni lozim nusxada ko'paytirish maqsadida bosmaxona tashkil qilinadi. 1868-yilda uni o'rtacha hajmdagi kitob chiqarishga moslashtiradilar. 1869-yili harbiy vazir D.A.Milyutin «Туркестанские ведомости» gazetasini chiqarishga ruxsat beradi. Shu tariqa, 1870-yilning 28-apreli (yangi hisobda 10-may)dan boshlab Toshkentda rus tilida gazeta chiqa boshlaydi. Shu yili 17 soni, 1871-yilda 48, 1872-yilda 51 soni chiqqani ma'lum. Dastlab uni birinchi yili general-gubernator fon-Kaufmanning shaxsan o'zi boshqargan[91]. 1874-yildagina polkovnik N.A.Mayev rasman muharrir qilib tayinlangan. Shundan to 1917-yilga qadar gazeta okrug harbiy shtabi bosmaxonasida bosilib keldi. Darvoqe, bu bosmaxona 1918-yil yanvaridan Sovet harbiy komissariati ixtiyoriga o'tdi. Xullas, bu bosmaxonaning peshonasiga faqat harbiylarga xizmat qilish bitilgan ekan. O'zbek tilidagi ilk gazeta o'sha 1870-yilning o'zi-

[91] Boboxonov A. O'zbekiston matbaasi tarixidan. — T.: G'.G'ulom nashriyoti, 197-y., 116-123-bb.

da «Туркестанские ведомости» chop etila boshlaganidan so'ng oradan 2 oy o'tgach, ushbu gazetaga ilova sifatida chiqarila boshlaydi.[92] Gazetaga 1881-yilning 20-noyabriga qadar Shohimardon Ibrohimov, so'ng Hasan Chanishev (1881–1883) muharrirlik qiladilar. 1883-yildan esa, gazeta mustaqil bo'ladi va unga muharrir etib Turkiston general-gubernatori M.G.Chernyaevning 27-son buyrug'i bilan Toshkent o'qituvchilar seminariyasining direktori N. Ostroumov tayinlanadi va u 1917-yil Fevral voqealariga qadar ishlaydi. N.P.Ostroumov (1846–1930) Qozon Diniy akademiyasida mashhur missioner N.Ilminskiy (1822–1891) qo'lida o'qigan. Sharq tillaridan, xususan turkiy tillardan yaxshigina xabardor, lekin zabt etilgan o'lkalarni ruslashtirishni hayotining bosh g'oyasi hisoblagan, ashaddiy shovinist edi. Shu sababli, gazeta sahifalarida rus ilm-fani va madaniyati zo'r berib targ'ib-tashviq etildi. Rusiya shaharlariga sayohatga borgan turkistonliklarning safar taassurotlari muntazam suratda berib borildi. Gazeta atrofida mahalliy qalamkashlardan bir davra tashkil qilindi. Bu qalamkashlar Rusiya tarixi va madaniyatiga hamdu sano o'qidilar, ruslardan o'rnak olishga chaqirdilar, mahalliy xalqqa ruslarni Turkistonga ilm-ma'rifat, axloq va madaniyat olib keluvchi, dunyo bilan oshno qiluvchi bir millat sifatida tanishtirdilar. Bunday «ma'rifatparvarlik» ko'pincha mahalliy xalqning o'tmish milliy-diniy an'analarini kamsitish, tanqid qilish hisobiga amalga oshirildi. Bunday tadbirlar Turkistonga abadiy hukmronlik qilish istagi bilan kelganlarga, ularning turmush tarzi va tafakkuriga mehr-muhabbat uyg'otib, «o'risparast» bir avlodni yetishtirishga xizmat qilar edi. Xullas, o'risparastlik dastlabki o'zbekcha matbuot namunasi bo'lgan «Turkiston viloyatining gazeti»da Rusiya hukumatining tegishli odamlari tomonidan uyushtirilib, rag'batlantirib borildi va u «ilg'or rus madaniyati» sifatida talqin qilindi. Hatto, Furqatni ham 1890-yili Toshkentga kelganida N.Ostroumov o'z gazetasiga jalb qiladi. General-gubernator baron Vrevskiy shoirning salohiyati va shuhratidan targ'ibot uchun foydalanish niyati bilan uni rus zodagonlarining bal bazmiga taklif etadi. Ostroumov shoirga o'tirish haqidagi taassurotlarini yozdirib, gazetasida bostiradi. Unda bunday satrlar bor edi:

---

[92] Yuqoridagi kitob, 130-b.

Soat o'n birg'acha bazm ettilar,
So'ngra el o'z joyiga azm ettilar.
Lek mendin ketmish erdi aqlu hush,
Lahza-lahza shavq o'ti aylardi jo'sh.
Qayta ko'rmoq mumkin o'lsaydi debon,
Muztarib dil sokin o'lsaydi debon.
Al-g'araz ul kecha, ey ahboblar.
Tonggacha uchdi ko'zimdin xoblar.
Dilda bordur, hali ham bu orzu.
Kim, yana ko'rmak qilurman justijo'[93].

Tarixchi Mulla Olim umr bo'yi «Turkiston viloyatining gazetasi»da ishlab keldi, o'tmishni qoralab, «Turkiston tarixi» nomli asar yozdi. Gazeta, tabiiyki, rasmiy xabarlarga, chunonchi, oqpodshohning farmoyishlari, vazirlarning faoliyati, ichki Rusiya hayotiga katta e'tibor berdi, o'rni bilan Turkiston tarixi, madaniyati, hozirgi turmushiga oid maqolalar uyushtirdi. Mahalliy qalamkashlarga keng o'rin ajratdi. Lekin bularning hammasi uzoqni ko'zlovchi ruslashtirish siyosatiga bo'ysundirilgan edi. Masalan, gazetaning 1911-yil 45-sonida (19-iyun)da bosilgan «15 июня 1911 г. в Ташкенте» (gazeta ahamiyatiga ko'ra muhimroq bo'lgan ayrim maqolalarni ruscha sarlavhalagan) maqolasini olaylik. Maqola Toshkentning ruslar tomonidan bosib olinish sanasiga bag'ishlangan. Bu sana har yili tantanali nishonlangan. Shu kuni Toshkentning ruslar yashaydigan Yangi shahar qismidan Eski shahardagi bosqin paytida o'ldirilgan ruslarning qabri joylashgan Kamolongacha bo'lgan ko'chalar obdan tozalanib, suvlar sepilib, har ikki tarafiga bayroqlar osilib bezatilgan. Minglab mahalliy xalq ko'chaga chiqarilib, katta bayram uyushtirilgan. Turkiston harbiy noibligining generallari as'asa-yu dabdaba bilan qabriston poyiga gulchambarlar qo'yganlar. Ularni xotirlashga zambaraklardan to'plar otilgan.

Gazeta bayram shodiyonalarini hikoya qilar ekan, istiloda qatnashgan «urush faxriylari»ning mahalliy xalq bilan «uchrashuv»lariga keng o'rin beradi. Xalqning «ilgariroq dushman

[93] Rus istilo siyosatining asl mohiyatini so'ngroq anglab yetgan va o'z taqdiri bilan bunga guvoh bo'lgan Furqatning ushbu mavzuga doir alam va armon to'la satrlari furqatshunoslar tomonidan e'lon qilinmoqda. Ular ilgari o'quvchilar nazaridan chetda saqlanib kelgan edi.

ko'zi bilan qaragan bo'lsalar», «Endi ushbu odamlarg'a do'st va birodarlik ko'zi blan qaramog'lari lozim»ligini ta'kidlaydi. Chunki ular «Sizlarni(ng) obodlik va taraqqiyda bo'lmog'ingizga sabab bo'lgan» deb ko'rsatadi. Yangi avloddan zorlanadi. Chamasi, usuli jadid maktablarida o'qib, dunyo tanib, ko'zi ochilayotgan, o'z haq-huquqini surishtirayotgan yoshlar yoqmaydi: «Ushbu vaqtda ko'rgan farzandlaringiz ko'p keyinda qolib, nihoyatda betartib, bebosh va beodob bo'libdur», — deyishadi «urush faxriylari» mahalla oqsoqollariga.

Turkiston jadid matbuotining shakllanishida umumturk matbuoti, xususan, Kavkaz, Volgabo'yi, Istanbulda oyoqqa turib kelayotgan va milliy asosga qurilgan gazeta-jurnallar muhim rol o'ynaydi.

Qardoshlik, hamkorlik...

Orenburgda chiqqan mashhur «Vaqt» gazetasi umumturkiy matbuotning tarixini ikki davrga bo'ladi, birinchi davrning chegarasini 1911-yil deb belgilaydi. Uningcha, birinchi davr uchun xarakterli bo'lgan xususiyat, matbuotning asosan maktab, ta'lim, maorif masalalari bilan shug'ullanganligidir. Gazeta-jurnallar iqtisodiy, ayniqsa, siyosiy masalalardan so'z ochmoqqa jur'at etmadilar. 1910-yilning oxirlaridan matbuot an'anaviy ma'rifiy masalalar doirasidan sezilarli darajada tashqari chiqa oldi[94].

Turkiy xalqlar hayotiga gazeta aslida o'tgan asrning 30-yillarida kirib kelgan. Masalan, Turkiyada chiqqan turkcha «Taqvimi vaqoe» («Voqealar kalendari») ushbu mamlakatdagina emas, umuman, turk dunyosidagi ilk rasmiy gazeta edi. 1860-yildan chiqa boshlagan «Tarjumoni ahvol», ayniqsa, «Tasviri afkor» (1862)dan keyin gazetchilik Turkiyada ommalashib ketdi. Ozarbayjonda, nisbatan, keyinroq, 1875-yildan gazeta chiqa boshladi. Hasan Zardobiyning «Ekinchi» gazetasi bu boradagi ilk qadam edi. O'tgan asr so'ngidagi eng mashhur gazeta Ismoilbek Gaspralining «Tarjimon»i bo'ldi. 1883-yili Boqchasaroyda dunyoga kelgan bu gazeta birgina Rusiyada emas, umuman, dunyoning barcha qit'alarida yashovchi turkiy xalqlarni bir-birlariga tanitish, ularni madaniy-ma'naviy asosdagi birlikka,

[94] «Tarjimon», 1911-y. 50-son.

hamkorlikka da'vat etish, ayni paytda, milliy ishlarni yo'lga qo'yish borasida 20 yildan ko'proq vaqt davomida asosiy, balki yagona nashr bo'lib keldi.

Rusiya podshoh hukumati 1905-yil 17-oktabr Manifesti bilan tobe millatlarga ham ma'lum erkinliklar berishga majbur bo'lgan, milliy gazeta va jurnallar chiqa boshlagandan keyin ham «Tarjimon» ning ahamiyati kamaymadi. «Turkiston makotibi jadidaning lisoni istiqboliyasi yoinki pro'g'ram lisoniyasindan bir qoch (necha) satr yozalim, — deydi Behbudiy, — Umumrusiya musulmonlarinda, Turkistoni Rusiy va Samarqandda usuli savtiya kitoblari turkcha o'laroq vujuda chiqdi. Jumla muallim va ustozlar, muovinlar turkiy «Tarjimon» tili soyasinda matlab va ma'lumotlara noil o'ldilar. Turk tili va adabiyoti Rusiya musulmonlarini sayd etajakdir. Matbuot bunga shohiddir».

«Tarjimon» va Turkiston

«Tarjimon» Rusiyada yashovchi musulmonlarning maorifidan tortib, iqtisodiy-siyosiy ahvoligacha qiziqdi. Turkiston taqdiriga alohida e'tibor berdi. 2 ta misol keltiramiz.

1906-yilda g'ayriruslarning maorifi masalasi jiddiy tus oladi. Maorif vazirligidagi korchalonlar Rusiya musulmonlari uchun ochilgan rus-tatar, rus-tuzem maktablarida ona tilini rus alifbosida o'qitish masalasini ko'taradilar. «Tarjimon» «Foydasiz xizmat» (122-son) degan maqola bosadi. «Ey g'o'spo'da»lar, aql(g)a murojaat eting. Bizim o'z alifbomiz vor, ham diniydur, ham dunyoviydur. Ruscha va fransuzcha o'quruz, lekin o'z alifbomizni hech bir vaqt, hech bir o'rinda tark etma(y)miz»,- deb yozilgan edi mazkur maqolada. Muallif (I.Gasprali) bahsga kirishib, «Agar Avstriya davlatina tobe rusiyanlara ruschayi nemis hurufoti ila yoki usmonli davlatina tobe serb va bulg'orlara ona dili hurufoti arabiya ila tahsil etdirilajagi eshitilsa, bunga na ko'z ila boqilur edi? Musulmonlar-da maorif chinovliklarining tashabbusina shu ko'z ila boqiyurlar, bu-da tabiiydur. Bu ishda mantig'sizlig'g'ami taajjub edalim yoki izhor o'linan haqoratami hayron o'lalim?!»

Bu fikrlarni birgina maorif doirasida deb bo'lmaydi, albatta. Chindan ham maktab va unga munosabat masalasi mubolag'asiz siyosiy ahamiyat kasb etgan edi. Ahvol shungacha borib yeta-

diki, professional missionerlar yetishtiradigan Qozondagi mashhur Diniy akademiyaning rektori Aleksey Hazrat Ichki ishlar vazirligiga «Rusiya musulmonlari orasidagi hozirgi harakat» deb nomlangan uzun bir bayonnoma topshiradi va «panislomizm» haqida bong uradi. Emishki, so'nggi paytlarda musulmonlar o'z tillarida maktablar ochayotgan, gazeta-jurnallar chiqarayotgan emishlar... Demak, islomchilik (panislomizm)! Bu — g'oyat xavfli! Buning oldini olish kerak!

Hukumat g'ayrixristian diniy ishlar departamenti (Департамент Духовных дел иностранных исповеданий) qoshida uni tekshiruvchi komissiya tuziladi. Masala Davlat Dumasigacha chiqadi. 3-Duma deputati mashhur Sadri Maqsudiy so'zga chiqib, ushbu komissiyani «Musulmonlarning milliy harakalariga qarshi kurash tadbirlarini ishlab chiquvchi komissiya» deb ataydi va keskin tanqid qiladi[95].

Ko'p o'tmay, bu masala Davlat Dumasida yana qo'zg'aladi. O'nglar ta'lim hukumati qo'lida, ruslar izmida bo'lsin, ruxsatsiz maktab ochilmasin, o'qish rus tilida bo'lsin, g'ayriruslarga maydon berilmasin, deb talab qiladilar. So'llar idoraga xabar berish sharti bilan nizom doirasida maktab ochishga va ona tilida o'qitishga ruxsat etish mumkin deb hisoblaydilar. Oktabristlar deb atalgan oraliq guruh o'nglar bilan borsalar-da, g'ayriruslarga ayrim huquqlar berishni yoqlaydilar. Musulmon fraksiyasi ta'limni millatning ixtiyoriga berishni, ta'lim ona tilida bo'lishi lozimligini talab qiladi. M. Enikeev rus-tatar maktablari tatarlarning Rusiyaga muhabbatlarini so'ndirayotganini aytadi. Chxeidze, Kavkaz misolida bunday maktablar «Aqli zaif» xizmatkorlar yetkazayotganini ta'kidlab, musulmon fraksiyasini quvvatlaydi.

Sadri Maqsudiy qizg'in nutq so'zlab, Fransiya, Angliya mustamlakalari misolida til erkinligini himoya qilib chiqadi. Mashhur Purishkevich fransuzlar bizga o'rnak bo'la olmasligini aytadi. Duma majlisi shovqin-suron bilan o'tadi. Nizom loyihasining til bilan bog'liq moddalari hal bo'lmay qoladi[96]. Masala keyingi yig'ilishlarga suriladi. Nihoyat, nizom qabul qilinadi. Unga ko'ra, rus-tuzem maktablarida o'qish tatar va rus tillarida olib borilishi lozim edi. Turkistondagi maktablarda esa

---

[95] Rech. G. Maqsudova na Gos.Dume. «Tarjimon»g., 1909, 10-son.
[96] «Tarjimon»g. 1910-y., 46-son.

adabiy tillari yo'g'ligi sababli, ta'lim faqat rus tilida olib boriladi deb ko'rsatildi. Oradan ko'p o'tmay,»Tarjimon»da «Chig'atoy tili» degan maqola bosiladi. Unda shunday so'zlar bor edi: «Samarqand, Farg'ona, Sirdaryo qit'alarining shevalari eski chig'atoy shevasidir. Bu sheva adabiy o'ldig'i butun jahonga ma'lumdur. Hatto turk shevai adabiyalarning eng qadimi va mabdai (boshlanishi) o'ldig'i lisoniyun (tilshunoslar) oldinda masdaq, (tasdiqlangan)dir. Taftazoniylar, Ahmad Yassaviylar, Ali Qushchi, Alisher Navoiy va soir (boshqa)lari vujuda keturmish Turkiston nechuk «tilsiz», «adabiyotsiz» ot o'linur?!... Rus millatining lisoni adabiyi o'lmadig'i zamonda Lomo'no'suf, Pushkin kabi adiblarining vujudinda uch va to'rt yuz sana muqaddam («Muhokamatul lug'atayn» risolasina boq — *gazeta izohi*) chig'atoy, ya'ni Turkiston tili forsiya foiq (g'olib) bo'lindig'i da'vo o'linur-da, bugun Turkiston belisondur deyu (deb) nasil (qanday) hukm o'linur?

Kiyev va Mo'sqva baldalarinda rum va lotin lisonida biror rahbon (rohiblar) shqo'lasi ta'sis edilmasdan muqaddam Buxoro va Samarqandda ilmi tibb, Hay'at, falsafa, tarix, jug'rofiya, handasa va soira dars va tahsil edilur. Ulug'beklar, Forobiylar, Ibn Sinolar kabi turk hukamosi etishur-da, bunlaring ahfodi (avlodlari) bu kun nechuk tilsiz ot o'linur?!...[97]

Muallif bularning sabablarini izlaydi. Va buni «Durmaning g'aflati»dan emas, «Turkistonning odamsizlig'i»dan, «sukuti»dan, bir so'z bilan aytganda, haqsizlikdan topadi.

Biz keltirmoqchi bo'lgan ikkinchi misol «Mukolamai salotin» («Sultonlar suhbati») deb nomlangan tarixiy-xayoliy hikoya bo'lib, Amir Temur haqidadir. Gazetaning 1906-yil dekabr, 1907-yil yanvar sonlarida bosilgan imzosiz hikoyaning muallifi har holda Ismoilbek bo'lishi kerak. Bosilgan sanasiga ko'ra muharrirning Turkiston safari davriga to'g'ri keladi.

Hikoyaga o'taylik. Sarlavha ostida Temurning uch mustaqil halqa tushirilgan muhri tasviri va «Rosti-rusti» («To'g'rilik bilan murodga yetasan» yoki «Najot rostlikdadir») degan yozuvi tushirilgan. Hikoya Samarqand tavsifi bilan boshlanadi. Muallif poezdda kelganini, shaharni hayrat va mehr bilan tomosha qilganini yozadi. Ayni paytda, buyuklik va xarobalikdan iztirobga tushadi. Temur maqbarasiga boradi:

---

[97] «Tarjimon»g. 1911-y 4-mart

«Turbai shoh Temur... Na ta'sirli bir koshonadur! Saddi Chindan O'rta Yer dengiziga qadar, muzlik Sibiriyadan qaynoq Hindistonga qadar cho'zilgan hududda istoqomat etuvchi avlodini o'z dasti jahongironasiga olgan va eng buyuk bir turk davlati vujudga keltirgan Temurning so'nggi manzili mana shu koshonadur... xiyla xarob, ba'zi yerlari yemirilgan, ba'zi toshlari tushgan, yozuvlari o'chgan, eshiklari ochiq-sochiq, unutilayozmish bir turbai oliyadir».

Muallif fotiha olib, maqbaraning dahmalar joylashgan pastki qavatiga tushadi. Ziyorat qilarkan, olis tarix voqealari xayolidan o'ta boshlaydi. Nogahon mo''jiza yuz beradi. Sohibqironning piri Sayyid Baraka qabri ustidagi sandiqtosh ko'tarila boshlaydi. Qabr ichi nurga to'lib, oppoq soqolli chol chiqib keladi. Shoh Temur ustidagi toshga qo'lini qo'yib «o'g'lim!» deydi. Tosh qo'zg'alib, qabrga shu'la yoyiladi. Temur ichkaridan chiqib, har birlari o'z toshlari ustiga o'tiradilar. Besh asr uzilgan suhbat ulanadi. Pir «Yangi zamon kelgani»ni aytadi. Sharqning ma'lum va mashhur shaxslari birpasda Temur atrofida hozir bo'ladilar. Sayyid Baraka tanishtirib boradi. Birinchi bo'lib, Turk sultoni ulkan gavdali Abdulazizxon (1861—1876) namoyon bo'ladi. So'ng Eron shohi Nasriddinshoh, Buxoro amiri Nasrulloxon (1826—1860), Qo'qon xoni Xudoyorxon (1845—1875), Qashqar xoni farg'onalik Ya'qubbek (1866—1877), Shayx Shomil (1897—1871) kirib keladilar. Sohibqiron ularning har biriga qilgan xizmatlariga qarab muomalada bo'ladi. Sayyid Baraka Shayx Shomilni tanishtirganda, «Temur joyidan qo'zg'aldi, majlis harakatga kelib, Shayxga o'rin ko'rsatildi», — o'qiymiz hikoyada. Hamma negadir ma'yus sukutda.

Qayoqdandir qo'lida qora bayroqli, yashil yozuvli kitob bilan Shayx Jamoliddin (jadidchilikning g'oyaviy rahnamolaridan Jamoliddin Afg'oniy, 1839—1897) paydo bo'ladi. Pir unga «Xutbai sipohiy»ni o'qishni amr qiladi. Shayx qiroatni boshlaydi. So'nggi yuz yildagi dunyo o'zgarishlarini, madaniy-siyosiy inqilob yuz berganini fan-texnika mo''jizalar yaratib, mamlakatlarning idora tuzumi va qonunlari tamom yangilanganini, hukmdorlarning kayfiyatiga emas, millatning ra'yi va maqsadiga qarab ishlar yuritilayotganini, sanoat va harb ishlari keskin rivojlanib ketganini bayon qiladi. Ayni paytda, bu inqilob birgina Yevropa qavmlariga xos bo'lib, Sharq islom mamlakatlari ta-

mom eskicha qolganini, buni payqagan ovrupolilar, xususan, ruslar sel misoli islom mamlakatlarini bosib olayotganini, yemirib borayotganini, qadam-baqadam chekinayotgan majolsiz turk olami, islom dunyosi fojiali bir vaziyatda ekanligini aytadi.

Xutba shu nuqtaga kelganida, Temur toqat qilolmaydi, xatibni to'xtatib, taftishga tushadi.

Dastlab Abdulazizxonni so'roqqa tutadi. Undan «bu hollerga qarshi qanday tadoriklarda bo'lgani»ni, «ovrupoliklarni ilman, molan, siyosatan kuchli va iqtidorli qilgan narsalarga» nima uchun u murojaat etmaganini so'raydi.

Qoniqarli javob ololmaydi.

Xatib davom etadi. Navbat Nasriddinshohga keladi. Qirq yil kamoli rohatda yashagan, xalqni «nodon va sargardon «holga tushirib, mamlakatini «ingliz va rus iskanjasida» ojiz qoldirgan bu shohdan ham sado chiqmaydi.

Xatib davom etadi.Gap Turkistonga ko'chadi:

«...Turkiston xonlari va umarosi shu darajada g'ofil va bexabar edilarki, rus to'plari boshlari ustidan portlaganidan so'nggina «Bu nima?» dedilar... Rus qo'shini bosqichma-bosqich sahrolarni bosib o'tib, qal'alarni qo'lga kirita boshlagan paytda, xonlar bir-birlari bilan janjallashib yotar, daryo-daryo musulmon qoni oqayotgan edi. Qora qushlar kelib Toshkand, Samarqand minoralariga qo'nganida, ularni uchirib yubormoqqa yaraydigan na biror to'p, na biror miltiq topilmadi. Hozirda bir «nachalnik» to'ra kichkina bir chimchilog'i bilan butun Turkistonni urchuqdek aylantira oladi...»

Xatolar, e'tiroflar, e'tirozlar o'rtaga tushadi. Temur baribir bu qadar botil g'aflatning sabablarini anglab yeta olmaydi.

Shayx Jamoliddin izoh beradi. Uningcha, XIII (XIX) asr turk hukmdorlarining barchasida umumiy bir illat bor edi. Ular dunyo ahvolidan bexabar bo'lganlari holda xabar va ma'lumotni «birgina madohin va madhiyachilardan» olardilar. Ular esa «o'z foydalarini ko'zlab, «Sening kabi podshoh yo'q!», «Sendan kuchli hukmdor yo'q!», «Butun dunyo barbod, faqat sening o'lkang dilshod!» kabi madhiyalar bilan «hukmdorlarning orqasini qashliylar» edi.

Bu xatolar XIX asrdan emas, aslida ilgariroqdan boshlangan. Ivan Grozniy 1552-yili Qozonni qamal qilganida Qrim xoni tomosha qilib o'tirmay, Kursk va Tulaga ozgina askar kiritsa, ikki tomonga qarshi urusha olarmi edi?! U esa bunday kun

mening boshimga hech tushmaydi, deb o'yladi. To'g'ri birdan kelmadi, 2 asrdan so'ng keldi va «jazoyi tarixiya»sini ko'rdi. U ham yer bilan yakson bo'ldi. Istanbulga nima deysiz? Ivan Grozniy Qozonni o'z oyoqlari ostiga olganida, Istanbuldagi qudrat va nufuz dunyoning boshqa biror mamlakatida yo'q edi. Oqibat nima bo'ldi? «Turk mamlakatining eng chet va muhim qal'asi Qozonning qo'ldan ketishida yordam berilmaganligi Rus qo'shinlarining Istanbuldan Samarqandgacha bo'lgan yo'llarini ochiq qoldirdi».

Iztirob shundaki, turk qavmining o'zaro oqibatsizligi, noahilligi qadimda qanday pand bergan bo'lsa, keyingi to'rt asrda ham shunday namoyon bo'lgan edi.

To'g'ri, bu qavmning ziyrak va shijoatli farzandlari ko'p edi. So'nggi asrda ham bundaylar chiqdilar. Mana Mahmud Mujaddid, Ya'qubbek, Shayx Shomil ya hokazo.

Muallif Shayx Jamoliddin tilidan Sulton Mahmud Mujaddidni (1808—1839) shunday ta'riflaydi: «Mutaraqqiy farang davlatlarining usuli askariyasini va idorai mulk uchun ma'qul nizomlarini taqlid etgan Sulton Mahmud bo'ldi. Bu podshoh, balki yana ham ko'proq ishlar qilishi mumkin edi, lekin zamonasining mutaassiblari «Bizga farang nizom kerak emas», «Eski qilichimiz bor, to'p kerak emas!» qabilida fikr yuritib, podshoh harakatlariga qarshilik ko'rsatadilar. Buning evaziga Rus davlati va ittifoqdosh uch farang (Ovrupo — B.Q.) davlati Sulton Mahmudga hujum etdilar. Mana shunday otashlar, balolar ichida bo'lishiga qaramay, urushlarda ham, mamlakat va uning qonunlarini yangilashda ham kuch-quvvat topa oldi...».

Hikoyada Temurning Sulton Mahmud ishlariga munosabati ham berilgan. Chunonchi, Shayx Jamoliddin uning xizmatlarini aytib bo'lgach, Temur oyoqqa qalqadi va o'tiradi. Barcha sultonlar Sulton Mahmud sharafiga o'rinlaridan turadilar-da, o'tiradilar.

Buxorodagi Nasrulloxon bilan ham shunga yaqin vaziyat yuz bergan edi. Ruslarning O'rta Osiyoga yopirilib kelishlarini ko'rgan eski raqiblari inglizlar xonlarga yordam ko'rsatmoqchi, elchi yuborib, «qurol va muallimi askariy» bermoqchi bo'ldilar. Nasrulloxon bu yordamni qabul qilish u yoqda tursin, «zamonaning eng kuchli, eng boy davlati» yuborgan ikki elchisini qatl etdi...

Temurning bu voqeaga ham munosabati bor: ikki zamonning bir millatga mansub ikki amiri o'rtasida kechgan to'qnashuv shunday tasvir etiladi:

«Shoh Temur amir Nasrulloga boqdi. Amir Nasrulloxon shoh Temurning o'tkir nigohidan qochishga joy topa olmay... Taqsir... Buxoroyi sharifa farangdin-nasorodin kishi qabuli ma'qul ko'rilmadi»[98], – dedi.

– yo o'g'ul, kelanlar ingiliz elchilari edi. Bunlar sanga nasroniyat taklifi ila dagil, ma'rifat, siloh va maorif taklifi ila kelmishlar edi... Elchiga o'lim bo'lmas, maqolini bilmayurmi eding?

– taqsir... ko'p xatoliqlar qildig'im ma'lum bo'ldi. Ammo vafotimdan so'ngra ma'lum bo'ldi... Umarodan, sipohidan va ulamodan ko'zimni ochgan bo'lmadi...

– na demak?! Atrof-aknofa «yo'qlamachi», «ko'ruvchi» yuborilmasmidi? Boshqa o'lkalarda, boshqa davlatlarda na hol, na harakat o'ldig'indan xabar olinmayurmi edi?

– Yo'q, taqsir...»

Har qanday tarixiy shaxsning tarixdagi o'rin va qadrini belgilaydigan bosh mezon uning aqlu zakovati hamda jasoratidir. Tarixning eng muhim, eng mas'uliyatli bir paytida butun mas'uliyatini zimmasiga olgan holda Millat va Vatanni ozod va obod etmog'idir.

Hikoyada Shayx Shomil va Ya'qubbekka shu nuqtai nazardan qaraladi. Har ikkalalarining ham ozodlik, mustaqillik uchun olib borgan kurashlariga alohida e'tibor qilinadi. Jumladan, Shayx Jamoliddinning xutbasida ularga shunday baho beriladi:

«Zamonasining yagonasi Shayx Shomil edi. Bu odam g'ayrati shaxsiyasi va usuli mukolamasi ila o'n turli lison ila mutakallim o'lan Dog'iston qabilalarini yakvujud holina keturub, Rus(iya) kabi zamonasining buyuk bir davlatina qarshi ellik sana to'xtovsiz muhoraba va mudofaada bo'ldi. Ya'qubbek Otaliq G'oziy esa besh-o'n otliq bilan Farg'onadan Koshg'arga borib,

---

[98] Z.Validiy Amir Nasrullo bilan shaxsan uchrashib, u haqda o'z taassurotlarini yozib qoldirgan. Sh.Marjoniy va Vamberi fikrlariga suyanib, mazkur xonning «o'ziga g'oyat bino qo'ygan», asabiy, fikri tez o'zgarib turuvchi, zolim va shahvatparast bo'lganligini ta'kidlaydi. Bir qator manbalarga suyangan holda tabrizlik Abdusamad degan ig'vogarning qutqusi bilan 1842-yilda Stoddart va Konolli nomli 2 ingliz elchisini Angliyadan qo'rqmasligini ko'rsatish uchun «josus» e'lon qilib, qatl ettirganini xabar beradi (Z.Validov, Ko'rsatilgan asar, 225–227-b.).

Xitoy qo'l ostida ezilib yotgan musulmonlarni harakatga keltirib, Sharqiy Turkistonni Xitoy tasarrufidan ozod qilmish».

Ko'ringanidek, hikoya boshdan oxir tarix tahlili asosiga qurilgan. Shaxslar real, faktlar — tarixiy, syujet xayoliy xolos. Har bir gap Millat va Vatanning taqdiriga kelib taqalmoqda. Tarixga shu nuqtai nazardan turib qaralmoqda. Har bir millatning saodati uning ozodligi, mustaqilligi bilan bog'liqligi, shundaygina anglashilib turibdi. Ozodlik, mustaqillik uchun esa fidoyi farzandlar kerak. Fidoyilik, o'z navbatida, Millat va Vatan muhabbatidan tug'iladi. Muhabbatgina jasoratga undaydi. Jasorat Vatani uchun jang qilmoq, kurashmoqqina emas, uni obod, farovon etmoq hamdir. Millatni har jihatdan jahon hamjamiyatiga teng va barkamol qilib, olib chiqmoqdir. Bular oson ish emas, albatta. Hozircha ishni ozod, mustaqil bo'lmoqdan boshlash kerak. Hozircha Vatan Rusiya degan ajdaho komida, Millat uning qo'lida xor, zalil. Til, madaniyat toptalmoqda, asriy urf-udumlar yo'qotilmoqda. Asir millatning taqdiri hamisha shunday bo'lib kelgan. Millat erkini yo'qotmasligi uchun bir bo'lishi kerak. Shundagina u kuchli bo'ladi. Birlikning zaruratini anglash uchun tarixdan xabardor bo'lishi lozim, ma'rifatli bo'lmog'i kerak. Tarix, birinchi navbatda, kelajak uchun zarur. Hikoyadan muddao — shu.

Shu sababli, hikoya so'nggida Temur tilidan tarixning achchiq sabog'i keltiriladi. Darvoqe, bu o'rinda bir narsani hisobga olmoq kerak. Ovrupo XVII—XVIII asrdan o'zini tiklay boshlagach, tarixini qayta ko'rishga kirishdi. Shu jumladan, Rusiya ham. Temurning Ovrupo va Rus mustaqilligida buyuk rol o'ynagan yurishlariga qonxo'rlik, talonchilik timsoli sifatida qarala boshladi. Uni badnom qilish orqali o'zlarini ulug'lash, tarixlarini oqlash, Boyazid Yildirim, To'xtamish asoratidan go'yo o'zlari, ularga qarshi kurashib, ozod bo'lgandek taassurot qoldirish tamoyili shakllana boshladi. Hikoyada mana shu nuqtalarga ham nozik ishoralar bor.

«Tarix va mulk nazarida mening ham, balki qabohatim, qusurlarim bordir, — deydi Temur. — Lekin mening zamonim va siyosatim bilinmayub, anglashilmayub qolmishdir. Haqimdagi so'izanlar afrodi zarrachalara vormishdir: ko'p odamlarni qirdi, ko'p taxtlarni yoqdi, Rusiyani, Eronni, Turkiyani, Hindni bosdi, chopdi... zulm qildi... derlar. Yo'q, ular anglamadilar. Hara-

katimni xalq bilur. Jahonni zabt etishim qonxo'rlikdan, yurt yoquvchilikdan, shuhratparastlikdan emas edi... Bundan muqaddam necha asrlar bahodir millatim, o'lim va qirg'in ila bitmas turklarim noahil idora tufayli ezilmoqda, diyorma-diyor, viloyatma-viloyat parchalanib, tartibli qo'shin bitgan edi... Edil qipchoqlari ozarbayjonni, ular esa usmonlini, qoshqariylar o'zbeklarni, xurosoniylarni, ya'ni og'a qardoshini, qardosh og'asini tanimas holda edilar. Javonlig'imda Kesh to'qaylarinda bir kenagas begi bo'lib yurgan zamonalarimda millatimning bu holi ko'nglimni dog'li, ko'zimni yoshli etardi... Shundan butun kuch-qudratimni turklarni birlashtirmoqqa, buyuk Turkistonni tashkil etmoqqa bag'ishladim! Bir daraja bunga noil ham bo'ldim...».

Ma'lum bo'lganidek, Temurni harakatga solgan kuch «buyuk Turkiston» g'oyasi edi. «Bahodir millatni», «o'lim va qirg'in ila bitmas turklar»ni bir qilish, uning kuch-qudratiga, aqlu zakovatiga munosib mamlakat qaror toptirish edi. Uning nomi «Buyuk Turkiston» edi.

Hikoya boshida Sayyid Baraka Temurni qabrdan turg'izar ekan, uning ko'zlariga boqib, «O'g'lim, yana zamon keldi!» deydi. Nima demoqchi? Nega uni qo'msayapti? Xuddi Temur zamonasidagidek parishon sochilgan va taqdir taqozosi bilan o'zgalar oyog'i ostiga tushgan millatni ko'tarish, birlashtirish kerak demoqchimi? Nega istiqlol va taraqqiyot kurashchilari bo'lgan Shomil, Mahmud Mujaddid, Ya'qubbeklar alohida ehtirom, mehru muhabbat bilan tilga olinmoqda? Bularning birortasi ham shunchaki aytilgan emas. Har birida ma'no, maqsad bor.

Ushbu g'oyaning benihoya hayotiyligini 1917-yil Oktabr va 1918-yil Fevral fojialari yana bir karra tasdiq etdi. Fitratning 1918-yilda yozilgan «Temur sag'anasi» asari mazkur g'oyaning inqilob yillaridagi o'tkir va keskin ifodasi edi.

Nihoyat, yana bir narsani hisobga olish kerak. Mazkur hikoya Rusiya sarhadida, chor hukumati senzurasining barcha chig'iriqlarini aylanib o'tib chop etilgan.

1906—1914—1917-yillari Tiflisda chiqqan, Sharq dunyosida shuhrat qozongan «Mulla Nasriddin», jurnalining (muharriri Jalil Mamadqulizoda) Toshkentda Avloniy, Samarqandda Siddiqiy-Ajziy bilan yaqin aloqalarda bo'lgani ma'lum. Avloniy,

1917-yilda o'zining «Turon» gazetasi uchun ushbu jurnal bosmaxonasidan uskunalar olib kelgan. Siddiqiy-Ajziyning «Mir'oti ibrat», «Anjumani arvoh» kabi qator asarlari dastlab shu yerda chop etilgan. Qolaversa, «Xo'p-xo'pnoma»ning muallifi Aliakbar Tohirzoda Sobirga shoir Ajziy alohida e'tibor bilan qaragan, ergashgan. Ali Abbosning «Dirilik» («Tiriklik», 1914-yildan chiqqan) jurnalining 1916-yil 1-soni Ajziyning «Nadur yo rab, bu giryon chashmi xunborim tamannosi» deb boshlanadigan «Niyoz» deb nomlangan she'ri bilan ochiladiki, bu hol uning e tirofiga bir ishoradir.

Ozarbayjon, Usmonli turk matbuotida Turkistondan chiqqan millat qahramonlari, ilm-fan, adabiyot, san'at dohiylari, umuman, buyuk shaxsiyatlar haqida yozilgan badiiy asarlar ham tez-tez bosilib turar edi. Masalan, turkchilikning mashhur boniylaridan Ziyo Ko'k Alpning xorazmlik Pahlavon Mahmudga bag'ishlangan «Po'lvon Vali» she'riy qissasi «Turk yurdu» jurnaliga ilova shaklida chiqqan «Xalqqa do'g'ru»ning 1913-yil 1-sonida chop etilgan.

Tatar matbuoti va Turkistonda jadidchilik

Volga bo'ylaridagi tatar matbuotining qizg'in davri 1905-yildan keyinga to'g'ri keldi[99]. Podshoh 17-oktabrda so'z va vijdon erkinligi haqida Manifest e'lon qilishi bilan gazeta-jurnallar birin-ketin maydonga chiqa boshladi. Manifest e'lonining 12-kunida, 1905-yilning 29-oktabrida «Qozon muxbiri»

[99] Tatar tilida gazeta chiqarishga 1809-yildan harakat boshlangan bo'lsa-da, chor hukumati bunga uzoq vaqt yo'l bermay keldi. Birinchi tatar romani «Xisamuddin mulla» (1886)ning muallifi Muso Oqyigit (1864–1923) Turkiyaga borib (1888) «Mulkiya» nomli o'quv yurtida o'qigan va shu nomdagi gazeta chiqargani ma'lum. (M.X.Gaynullin, Tatarskaya lit-ra XIX veka, Kazan, 1975, 198-200 betlar). 1900–1908-yillarda Peterburgdagi tatar ziyolilari «Mir'ot» nomli jurnal chiqardilar. Komil Mutiy (1883–1940) Uralskda 1904-yilda «Al asr-al jadid» («Yangi asr») jurnalini chiqardi. Tatar tilidagi birinchi gazeta 1905-yilning 2-sentabrda Peterburgda chiqqan «Nur» gazetasi edi. Gazeta 1914-yilgacha chiqib turdi. Muharriri Ataullo Boyazidov edi. Unda bir muddat taniqli adib Sharif Kamol va jurnalist Kabir Bakir ishlaganlar. Sh.Kamol (1884–1942) mashhur o'zbek jurnalisti Mirmuhsin Shermuhamedov (1895–1929) bilan 1918–19-yillarda Grajdanlar urushi davrida «Ishchilar dunyosi» gazetasida birga edilar. Kabir Bakir (1880–1938) 1917-yil Fevral o'zgarishlaridan keyin Toshkentga keldi va «Ulug' Turkiston» gazetasini chiqardi.

chiqdi. Gazetaning muharriri S.Alkin, asosiy ish yurituvchi-kotibi turkchilik, islomchilik g'oyasining asoschilaridan bo'lgan Yusuf Oqchura edi. 1906-yilning 5-yanvarida Peterburgda «Ulfat» gazetasining birinchi soni bosmadan chiqdi.

Uning muharriri «Rashid qozi»nomi bilan shuhrat topgan Abdurashid Ibrohimov (1857—1944) To'ra (Tyumen)da tug'ilib o'sgan o'zbek oilalaridan Ibrohim Oxundning nabirasi edi. 1884-yili Madinada tahsil olib qaytayotganida Ismoilbek bilan tanishib qolgan bu kishi o'sha yiliyoq kelib, o'z tug'ilgan shahrida usuli jadid maktabi ochgani ma'lum. Dunyoning juda ko'p mamlakatlarida sayohatda bo'lgan, Turkistonni o'z ona diyori bilgan. Rusiyada yashovchi musulmonlarni, ya'ni turkiy xalqlarni o'zaro yaqinlashtirish, ular orasida hamkorlikni yo'lga qo'yish borasida ko'p ishlar qilgan. 1905—1906-yillarda bo'lib o'tgan Rusiya musulmonlarining har uch qurultoyi tashkilotchilaridan, «Ittifoqi muslimin» partiyasining asoschilaridan. 1917-yilda Rusiya musulmonlarining erk va ozodlik, mustaqillik haqidagi intilishlarini dunyo xalqlariga yetkazish uchun Stokgolmga yuborilgani ma'lum[100]. Umrining so'nggi 20 yilini Yaponiyada kechirgan. 1939-yili islomni Yaponiya parlamentida mamlakatdagi rasmiy dinlar qatoriga kiritishga muvaffaq bo'lgan ziyolilardan.

1906-yilning 15-yanvarida Qozonda «Yulduz» gazetasi dunyo yuzini ko'rdi. Gazeta ancha davom etdi. 1918-yilning 21-iyu-nida Sovetlar tomonidan to'xtatildi. Muharriri Ahmad Hodi Maqsudiy (1868—1941) edi. Ma'lum muddat «Dajjol», «Bizning shahar sirlari» kabi qator pesalari Avloniyning «Turon»i tomonidan sahnaga qo'yilgan. Aliasqar Kamol (1879—1933) muvaqqat muharrirlik qilgan.

1-fevraldan «Ozod» gazetasi chiqa boshladi. Rasmiy muharriri A. Apanayev hisoblansa-da, asosiy ishni A.Kamol olib borgan.

21-fevralda Orenburgda taniqli adib Fotih Karimiy (1870—1937) muharrirligida «Vaqt» gazetasi ish boshladi. Gazeta qisqa muddatda Sharq dunyosida shuhrat topdi. Uning yaqin hamkorlaridan biri din va madaniyat arbobi mashhur Rizoiddin

---

[100] Rusiyadan kelib Turkiyada hukumat qilgan turklar haqida. Yerjies universiteti nashriyoti, qaysari, 1996-yil, 116-b.

Faxriddin (1858–1936) edi. Gazeta birinchi yildayoq Rusiya tobeligidagi turkiy xalqlarning haq-huquqini tanitadigan va talab qiladigan uyushmasi «Ittifoq muslimin» haqida katta bahs uyushtirdi. Bahsning ishtirokchilari «Ulfat»ning muharriri Rashid qozi (Abdurashid Ibrohimov) bilan «Vaqt»ning vakili Rizo qozi (Rizoiddin Faxriddin) edilar.

«Vaqt» gazetasi 1918-yilning 26-yanvarigacha davom etdi. 2309 soni chiqdi. Turkiston hayotiga katta e'tibor berdi. O'z qardoshlarining maishiy turmushidan ijtimoiy-siyosiy ahvoligacha keng yoritib bordi. Buxoro o'ymakorligidagi uslublardan (1908-yil, №141) tortib, V.L.Vyatkinning Ulug'bek rasadxonasi o'rnini topishi (1916, №2100) gacha, 2-Davlat Dumasining «Turkiston o'lkasining ahvoli» muhokamasi materiallaridan (1910-yil, №603) Toshkentdagi «Kolizey»da Avloniy va Sidqiy Ruhillo bosh bo'lgan teatr truppalarining «Layli va Majnun» operasini qanday sahnaga qo'yganligi tafsilotlarigacha (1915-yil, №1921) bor edi. Turkiston shaharlarida gazetaning Kabir Bakir, Ahmadjon Bektemirov, Nuriddin Sayfulmulukov, Mahmud Budayli kabi ko'plab muxbirlari ish olib bordilar. Bundan tashqari, o'lkada yuz bergan turli hodisalar munosabati bilan Burhon Sharaf (1910-yil Buxorodagi shi'a-sunniy janjali), Shahid Muhammadyorov (1916-yil Mardikorlik voqealari) singari taniqli qalam egalari Turkistonga kelib turkum maqolalar uyushtirdilar. «Idora» nomidan yoxud «Sayyoh»,»Bir musofir», «Samarqandiy», «Buxoroli», «A.F.», «Qardosh», «Muxbir» imzolari bilan, goh esa umuman, hech narsa qo'yilmasdan qanchadan-qancha maqolalar chop etilgan va Turkiston hayoti haqqoniy manzaralarda aks ettirilib, qardoshlarining haq-huquqlari talab qilib chiqilgan edi. Jumladan, «Turkiston» (1906-yil №110) nomli imzosiz bir maqolada quyidagilarni o'qiymiz: «Rusiyada islohot ijro etilganda, Turkistonga-da doxil o'lsun, ul bir chetda bundan mahrum o'lub qolmasun, faqat shul shart ilakim, o'zlarining ahvoli milliya va diniyalarina muvofiq ravishda taraqqiy va tamaddung'a kirarga bunlarga tamom ixtiyor berilsin. O'z hojatlarini so'ylayajak bo'lsalar, og'izlarina pechat urilmasin... Agar turkistonliklarga bunlarni hukumat o'z ixtiyori ila vermasa, Po'lshada, Kafkazda va Finlandiyada bo'lg'on hollarning bir vaqt Turkistonda ham o'lajag'i aslo xotiradan chiqarilmasun».

«Idora» maqolaga izoh beradi. Bu qadim yurtning shonli tarixini, jahongir avlodlarini esiga soladi, bobolarga munosib bo'lishga undaydi: «Bir vaqtlar Xorazm va Samarqandlardan chiqmish farmonlarqa yarim dunyo xalqi «Labbayka va Sa'dayka!» deya bel bog'lab tururlar edi. Temurning barmoq silkuvini Vo'lg'a va bahri Xazar bo'ylarindan ko'rub tarqalurlar edi. Shimdi (endi) Turkiston na holdadur?!...».

«Yo'ldosh o'g'li», «Turkiston tuproqlari» (1908-yil №282) maqolasida Rusiya mustamlakachilik siyosati, xususan, ko'chirma siyosatini qattiq tanqid qildi. Shu ketishda yaqin 20—30 yil ichida Turkiston o'lkasining ichki Rusiyaga aylanib qolishidan, turkistonliklarning esa, g'aflat uyqusidan hanuz uyg'onmaganligidan tashvishga tushadi. «Lekin nechikkina bo'lsa-da, Turkistonni qutqarurg'a tirishuv lozimdur,-deb yozadi, — ul tirilsa, Rusiya musulmonlari uchun ishonchli bir asos bo'lajak. Musulmonlar kerak choqda anga tayana olajakdir». Mana shu birdamlik hissi Turkiston mavzusidagi maqolalarning yetakchi ruhini tashkil qiladi.

Gazetada Mahmudxo'ja Behbudiyning «Faryodi Turkiston» (1907 №132), «Duma va Turkiston musulmonlari» (1907, 239) Abdulqodir Shakuriyning «Turkistonda maktab va tarbiya» (1907, №147) kabi turkistonliklarning ham ko'plab maqolalarini uchratish mumkin. Behbudiy ilm va maorifning nochor ahvolini, poraxo'rlikka asoslangan ish-idora usullarini keskin tanqid qiladi.

«Hurmatlu zotlar, — xitob qiladi A. Bektemirov, — fursat alda ekan, vaqtni g'animat bilub, o'qurg'a va o'qituvg'a cholishingiz! Kandingizni (o'zligingizni), ona suti kabi huquqlaringizni himoya qilur zamon dagilmi?! Yo'qsa, g'ayri millatlar orasina yo'g'olub, boshqa millatlar oyoq ostinda qolajaqsiz»[101]. Boshqa bir o'rinda esa Turkistonday boy va go'zal o'lkaning talanayotganidan dod soladi:

«Bu yerda o'lan eski asarlar ochko'z mujovur (qo'shni)lar tarafindan Ovrupa sayyohlarina yo'q-bor oqchalar barobarina va rus ma'murlarina hadya edilanarak verulub, bitmishdir... Aziz va nodir asarlaring bo'yla ravishda talaf o'lmoqlari uchun taassuf

[101] «Vaqt»g. 1907-yil, 204-son

etmayan kimsa inson dagildir»[102]. N.Ostrumovning Toshkentdagi gazetasi — «Turkiston viloyatining gazeti» «Vaqt»ning chiqishlariga g'ayirlik bilan qaragani, uning Turkiston haqidagi har bir gapidan kamchilik axtargani, mahalliy xalq nazarida badnom etishga harakat qilgani ma'lum. «Vaqt»ning 1907-yil 214-sonida Ahmadjon Bektemirovning «Abduxalil» degan kishining «Turkiston viloyatining gazeti»da bosilgan bir maqolasiga javobi e'lon qilingan. Chamasi, bu maqola uyushtirilgan bo'lib, turkistonliklar go'yo o'zlarini «Vaqt»ning tuhmatlaridan himoya qilar edilar. Biz, sartlar no'g'oylarg'a ko'ra erkinlikda va ixtiyorli turamiz», — deb yozadi o'z ahvolidan mamnun va minnatdor «Abduxalil». A.Bektemirov «Millat»ni, «Milliyat»ni o'ylab, «qayg'urib», «qizg'onub» yozganini ta'kidlaydi, «Turkiston viloyatina ichkari Rusiyadan kelub xohul o'rinlashdiqindan va buning sababidan ko'b sartlar yersiz qoldiqlarindan xabaringiz yo'qmi... Hech bir huquq qo'lingizda yo'qdir. Hatto ushbu Turkiston viloyatinda yer olurg'a haqqingiz yo'qdir... qafasdadirsiz»,[103] deb javob beradi.

Behbudiy esa «Duma va Turkiston musulmonlari» maqolasida turkistonliklarning siyosiy huquqlari ham tamoman cheklangan-ligini yozadi. Buning misoli sifatida 1-Davlat Dumasiga mahalliy xalqdan umuman vakil yuborilmaganini, 2-Dumada esa o'lkada yashovchi 70 ming yevropali aholidan 6 kishi saylangani holda 7 millionni tashkil etgan mahalliy xalqqa atigi 5 o'rin ajratilganini achinish bilan qayd etadi. Tatarcha gazetalarning hammasi uchun xuddi shunday hamiyat va oydin fikrlilik xos edi, deb bo'lmaydi, albatta. Masalan, xuddi shu Qozonda 1906-yilning 31-martidan 1913-yilning 15-apreligacha ota-bola Saydashevlar tomonidan nashr etilgan «Bayon al-haq» («haqiqat bayoni») boshdan oxirigacha eskicha qarashdagi gazeta edi. Abdulla To'qay shu sababli bir munosabat bilan uni «Bayon al-haq» emas, «Bayon al-botil», ya'ni botillik-nodonlik bayoni degan edi.

Ikkinchidan, gazeta-jurnallar birgina yirik markaziy shaharlarda emas, Uralsk (1906-y. 1-iyun, «O'qlar» jurnali), Astraxan (1907-yil. 7-sentabr, «Idil»g.) kabi kichkina shaharlarda ham

---

[102] Shu gazeta. 1907-yil, 213-son.
[103] «Vaqt»g., 1907-yil, 214-son.

chiqib turgan. Qizig'i shundaki, ularda ham mashhur adiblar ishtirok etishgan. Masalan, S.Sunchalay va S.Ramiyevlar «Idil»-ning, Abdulla To'qay esa «O'qlar»ning muntazam va faol qatnashchilari edilar.

Jurnallar ham ko'p bo'ldi. «Ong», «Tarbiya», «Yashin», «Yalt-yult», «Sho'ro», «Cho'kich», «O'qlar», «Tarbiyatul atfol» va h.k.

Bular orasida eng mashhuri «Sho'ro» edi. «Sho'ro» 1908-yildan 1918-yilgacha Orenburgda har oyda ikki marta (1,15-kunlar), jami 240 soni chiqdi. Hajmi 32 bet, muqovasi rangli edi. Muassisi mashhur aka-uka fabrikantlar Zokir va Shokir Ramiyevlar edi. Unga mashhur ma'rifatparvar va din olimi Rizoiddin Faxriddin muharrirlik qildi. Bir qaraganda, jurnalning nomi kishini seskantiradi. Eski sho'ro davri aqidalarini esga tushiradi. Aslida uning maqsad va maslagi tamom boshqa edi. «Sho'ro» millatni ilmli, ma'rifatli etmak haqinda mashvarat majallasi o'laroq chiqadir. «Istagan odam ushbu majlisda so'ylar va istaganlar tinglar» deb yozgan edi R.Faxriddin jurnalning 1-sonida.

Jurnalning qamrovi keng edi. Jurnal faoliyatini maxsus o'rgangan yosh tadqiqotchilarimizdan Sh.Soatovaning aniqlashicha, undagi materiallar 16 rukn doirasida bo'lib, bu ruknlar, jurnal yopilguniga qadar muntazam ishlab turgan[104]. Chunonchi: Mashhur odamlar va ulug' hodisalar, diniy nazariyalar, ta'lim va tarbiya, tanqid, murosala va muhoraba, matbaa asarlari, matbuot xulosasi. xavodis, adabiyot, idoraga maktublar kabilar edi. Jurnal dunyoning buyuk shaxsiyatlari, keng tarqalgan dinlar, ularning tarixi. falsafiy asoslari, yangi usuldagi ta'lim-tarbiya, oila va farzand tarbiyasi. jahon tarbiyashunosligining dolzarb masalalari, yangi bosmadan chiqqan kitoblar, kundalik dunyo hodisalari bilan o'z o'quvchilarini muntazam tanishtirib borar edi. Masalan, «mashhur odamlar va ulug' hodisalar» ruknida Ibn Fadlon, Umar Xayyom, Nizomiy, Zamaxshariy, Ibn Battuta, Ibn Xaldun. Ibn Arabshoh, Navoiy, Fuzuliy, Maxtumquli, Nomiq Kamol, Mirza Fathali Oxundov. Tagor kabi adibu uda-

[104] Sh.Soatova. Rizoiddin Faxriddin va Turkistonda jadidchilik («Sho'ro» jurnali materiallari asosida) diplom ishi, qo'lyozma — T. 1999-yil 28—30-betlar (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti kafedrasida saqlanadi).

bolar, sayyohlar, Chingizxon, O'zbekxon, Amir Temur, To'xtamishxon, Bobur, Yoqubbek, Akbarshoh singari hukmdorlar, Dekart, Bekon, Spinoza, Sen-Simon, Jan-Jak Russo, Tolstoy kabi g'arb ilm-fan, madaniyatining dohiylari hayoti va ishlari hikoya qilingan.

Jurnal jadidchilikning g'oyaviy asoslariga, milliy uyg'onish jarayonining kundalik masalalariga alohida e'tibor berdi. Jurnalning 1910-yil 12-sonida bosilgan «Shayx Jamoliddin va Muhammad Abduh» maqolasi, islom mutaassibligini keskin tanqid ostiga olgan «Vahhobiylik va vahhobiylar» (1912-y., 16-soni) maqolasi shundaylardan edi.

Sh.Soatovaning aniqlashicha, «Sho'ro» jurnalining 10 yil davomida chiqqan 240 sonida Turkiston hayotiga oid 323 ta materiallar bosilgan. Shundan, maqolalar—138 ta, xatlar 90 ta, badiiy asarlar 71 ta, xabarlar 21 ta, fotosuratlar 3ta. Maqolalar tarix, (38), ta'lim-tarbiya (25), ijtimoiyot (23), din (4), siyosat (6), matbuot (13), adabiyotshunoslik (12), safarnoma kabilarni qamrab oladi. Jumladan, tarix haqidagi maqolalarda yurtimiz o'tmishi, buyuk ajdodlarimiz hayoti, osori atiqalarimiz, muqaddas qadamjolar yoritilsa, ta'lim-tarbiyaga doir chiqishlarda maktab-madrasalarimizning ahvoli, o'quv dasturlari, moliyaviy ahvoli, o'qitish saviyasi, usullari, Turkistonda savod, til-imlo birligi bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratildi. Shuningdek, Turkistonning siyosiy ahvoli, davlat qurilishi, idora usuli, aholining turmush darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolari, o'lkada islom taraqqiyoti, diniy muassasalar masalalari bilan bog'liq maqolalarga ham keng o'rin berildi. Matbuot va adabiyotshunoslikka oid maqolalarda Turkiston matbuotining milliy uyg'onish bilan bog'liq dolzarb masalalari, o'lka adabiy hayoti haqida qaydlar, yangi kitoblar xabari, muayyan asar yoxud ijodkor haqidagi adabiy-tanqidiy mulohazalar o'rin olgan. Nihoyat, safarnomalarda Turkistonga qilingan safar taassurotlari aks etgan. «Murosala va muxobara» ruknida Turkiston bilan bog'liq 86 savol va ularga javoblar berilgan, yangi matbaa nashrlari haqida 21 xabar e'lon qilingan. 65 she'r, 6 nasriy asar chop etilgan.

Jurnaldagi Turkistonga oid barcha materiallar 112 muallifga mansub bo'lib, shundan 84 tasi yerli xalq vakillaridir[105]. Ular

[105] Sh.Soatova, yuqorida ko'rsatilgan manba, 34–35-b.

orasida mashhur ma'rifatparvar Furqatdan tortib, Turkiston jadidchilik harakatining Behbudiy, So'fizoda, Hoji Muin, Cho'lpon, Mirmuhsin Shermuhamedov, Lutfulla Olimiy, Sadriddin Ayniy, Siddiqiy-Ajziy, Mo'minjon Muhammadjonov, Faxriddin Rojiy, Xolmuhammad Oxundiy, Ahlullo bin Xayrullo kabi kattakichik o'nlab nomlar bo'lishi «Sho'ro» jurnalining Turkistonga e'tiboriga dalildir. Ikkinchi tomondan esa turkistonlik jadidlarining o'z hammillatlari ahvoli va taqdiri haqidagi fikr-qarashlari Umumrusiya musulmonlariniki bilan hamohang ekanligini ko'rsatadi.

Shu sababli, bir tomondan, olis Turkistondagi huquqsizlik, ma'rifatsizlik, dunyobexabarlik qattiq tanqid qilinsa, ikkinchi tomondan, «bobolarning oltin beshigi» (Hasan Ali) bo'lgan bu qadim yurtga mehru muhabbat izhor qilinib, istiqbolga bahamjihat yo'l izlanadi. 1911-yilda buxorolik Bahrombekning tahririyatga yuborgan «Biz sartmu turkmu?» (16-son) degan savoliga javoban jurnal 9 ta maqola beradi va Turkiston xalqining milliy or-nomusini, sha'ni-sharafini himoya qilib chiqadi. Bu maqolalarning bir qismi turkistonliklarga tegishli bo'lib, ular orasida «Sart so'zi majhuldur» (1911-yil 19-son), «Ma'lumni e'lon yoxud Peterburg masjidining istili» (1912-yil 19-son) maqolalari bilan qatnashgan Behbudiy ham bor edi. Yo bo'lmasa, 1917-yilda Mirmuhsin Shermuhamedovning «Turon» gazetasida bosilgan «Tarixiy ikki voqea» maqolasi munosabati bilan sazoyi qilinishi voqeasiga jurnalning munosabatini oling. Jurnal voqeadan bir oy o'tar-o'tmas, N.Yovushevning «Turkiston ulamosi» (10-son) nomli tanqidiy maqolasini beradi. Keyingi 11-sonida esa, adibni «kofir» qilgan maqolasi o'quvchilarga havola qilinadi. 12-sonda masalaga yana qaytiladi. Mazkur hodisani tanqid etuvchi xatlar beriladi.

Behbudiyning keskin ijtimoiy-siyosiy mavzularga oid 6 maqolasi, So'fizodaning 6 she'ri, Mirmuhsinning 2 hikoya, 4 maqolasi, Hoji Muinning, qo'qonlik iste'dodli adabiyotshunos Ahlullo Xayrulloning 19 ta materiali shu jurnalda bosilgan. She'riyat olamiga kirib kelayotgan Cho'lponning ilk she'rlaridan biri, O'sh shahri haqidagi ocherki, katta dard bilan yozilgan «Shulay bitamiz» maqolasi shu yerda e'lon qilingan edi.

1990-yilda qozoq tadqiqotchisi U.Subhonberdin 1895-yildan Omskda Cho'l general-gubernatorligi devonxonasining «Ve-

domosti»ga ilova sifatida mahalliy tilda chop etilgan «Dala viloyatining gazeti»dan namunalarni nashr etdi. Kitobda gazetaning 1895—1998-yilgi materiallaridan namunalar berilgan. Ushbu fakt turkiy dunyodagi jonlanish haqida ma'lum tasavvur hosil qilishga yordam beradi, albatta, biroq mazkur gazetaning Turkiston matbuotiga ta'siri haqida gapirish qiyin. Agar gapirish lozim bo'lsa, aks ta'siri xususida so'zlash kerak bo'ladi.

XX asr boshidagi tatar jurnallari haqida gap ketar ekan, Ahmad Husnining «Ong» (1912-yildan chiqqan) jurnalini ham tilga olib o'tish lozim. Abdulla To'qay yaqindan hamkorlik qilgan bu jurnal sahifalarida qadim Turkistonning ijtimoiy-maishiy hayotidan (masalan, Aziz Ubaydullinning «Bik eski zamonlardan olub Temur davrina qadar turk-mo'g'ullarda xotunlarning tutqon o'runlari» (1917-y. 1,3—4-sonlari)dan tortib, Olimjon Ibrohimovning Kavkaz, Volga bo'yi, Turkiston madaniy-adabiy harakatchiligini o'zaro solishtirib, har uch nuqtada maydonga kelgan darslik va kitoblardan gazeta-jurnallargacha keng tahlil etuvchi «Tillari boshqa bo'lsa-da, ko'ngullari bir» (1916-yil, 5-son, 87—90-betlar) singari maqolalarigacha berib borgan edi.

Turkiston matbuoti sahifalarida

Turkiston matbuoti 1905-yil Manifestidan ilhom va madad olib, qisqa muddatda katta bosqichni bosib o'tdi va turkiy dunyoning e'tiborli davralari nazariga tushdi. Ularni ilk martaba jamlab fikr bildirgan Cho'lpon[106] bo'ldi. Abdulla Avloniy «Burungi o'zbek vaqtli matbuotning tarixi» maqolasida 1905—1991-yillar oralig'ida o'lkada o'zbek tilida 22 gazeta, 8 jurnal nashr etilganini xabar beradi.[107] 1992-yilda «O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870—1927)» tadqiqotini chop ettirgan Ziyo Saidning aniqlashicha, o'tgan oraliq davrda 45 gazeta, 36 jurnal

---

[106] Cho'lpon. Turkistonda matbuot. «Jamiyat va boshqaruv»j., 1998-y., 2-son. Nashrga tayyorlovchi. — T.: Tog'ayev).

[107] Abdulla Avloniy. Burungi O'zbek vaqtli matbuotining tarixi. Nashrga tayyorlovchi Sh.Rizayev, Kitobda: Milliy uyg'onish. — T.: «Universitet», 1993-y., 115—123-bb.

dunyo yuzini ko'rgan[108]. Bular haqida matbuotshunoslik bilan bog'liq ishlarda oz-ko'p ma'lumotlar berilgan[109].

Manifestdan keyin chiqqan ilk o'zbekcha gazeta — «O'rta Osiyoning umr guzarligi». Muharriri — Ivan Geyer. Avloniy gazetaning «bir oz hur fikrli» bo'lganini qayd etadi. Ziyo Said «ikki oy» chiqqanini xabar qiladi.

1906-yilning 27-iyunida dunyo ko'rgan «Taraqqiy» (muharriri Ismoil Obidiy) ilk o'zbek milliy gazetasi sifatida tarixga kirdi. U nashr etilgan kun O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qarori bilan Matbuot kuni deb e'lon qilingan. «Elning eng suyib o'qiydurg'on»(Avloniy) bu gazetasi o'z davrida juda katta shuhrat qozongan. Ismoil Obidiyni «Ismoil Taraqqiy» deb ataganlar. I.Gasprinskiy maxsus «Taraqqiy» nomli maqola yozib, toshkentlik hamkasabalarini tabriklagan, «lisoni Turkiston taraflarinda maqbul turk shevasinda», ekanligidan «maslaki taraqqiyparvar»ligidan xursandlik izhor etgan, o'lkada shunday gazetaga ko'pdan ehtiyoj bo'lganligini ta'kidlagan edi[110]. «Taraqqiy»dan mashhur Abdulla To'qay ham xabardor edi[111]. Gazetani tashkil qilishdan materiallar bilan ta'minlashgacha Munavvarqori va Abdulla Avloniylarning roli katta bo'lgan[112]. 20 soni chiqqach, hukumat tomonidan to'xtatilgan.

---

[108] Ziyo Said. Tanlangan asarlar. – T.: 1974,13–116-bb.

[109] Ernazarov T.E. O'zbekistonda vaqtli matbuot (1870–1924). – T.: 1959. Ernazarov T.E., Akbarov A.I. Istoriya pechati Turkestana (1870–1925), uch. Posobie. – T.: «O'qituvchi», 1976; Pidayev T.R. O'zbekiston matbuotining o't-mishi va kechmishi. «O'zbekiston matbuoti»j., 1966, 1,2,3-sonlar; Pidayev T.R., Halimova S. «Sadoyi Turkiston» va Ubaydulla Asadullaxo'jayev «O'zbekiston matbuoti»j., 1997-y., 1–2–3–4-sonlar; Pidayev. – T.: A'zam Ayub. – T., 1969; Yana shu muallif: Moziy lavhalari. «O'zbekiston matbuoti»j., 1993-y., 5-6 sonlar; Boboxonov M Iz istoriya periodicheskoy pechati Turkestana Dushanbe, «Donish», 1987; Do'stqorayev B. Munavvarqori Abdurashidxonov. «Jahon adabiyoti»j., 1993, 3-son, Sirojiddin Ahmad. Munavvarhori (esse). «Sharq yulduzi»j., 1992-y., 5-son, Qosimov S., Ismoil Obidiy. «Guliston»j., 1979-y., 9–10-sonlar; A.Jalolov, X.O'zganboyev O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining taraqqiyotida vaqtli matbuotning roli. – T., FAN, 1993; Abduazizova N. O'zbekiston jurnalistikasining shakllanishi va ravnaqi (XIX asr oxiri – XX asr) – T., 1998; yana shu muallif O'zbekiston jurnalistikasi tarixi (1870–2000). – T: 1999 va h.k

[110] «Tarjimon»g., 1906-y., 69-son

[111] Abdulla To'qay. Asarlar, 4 tomlik, 3-tom, Qozon, 1976, 49–391-b.

[112] B.Qosimov Adabiyot va inqilobiy harakat (ayrim mulohazalar). «Sharq yulduzi»j., 1984-y. 1-son; yana shu muallif, shu nomli maqola, Abdulla Avloniy faoliyati misolida. Kitobda: Hayot ko'zgusi (adabiy-tanqidiy maqolalar). – T.: G' G'ulom nashriyoti, 1984-y.

Munavvarqorining «Xurshid» gazetasi (1906-yilning 6-sentabrdan chiqib, 10-sonida yopilgan) Fansurullobek Xudoyorxonov, Abdulla Avloniy, aka-uka Komilbek va Karimbek Norbekovlar, Muhammadxon Podshoxo'jayev kabi yosh taraqqiyparvar kuchlarni o'z atrofiga jamladi. Siyosiy masalalar bilan ham faol shug'ullandi. Behbudiyning gazetaning 6-sonida bosilib chiqqan «Xayrul umuri avsatuho» («Ishlarning yaxshisi o'rtachasidir») maqolasida Rusiyaga Ovruponing qirqqa yaqin mamlakatiga xos bo'lgan umumdemokratik mezonlar nuqtai nazaridan baho beriladi, chor hukumatining «idorai mustaqalla» — «самодержавие» idora tizimi tanqid ostiga olinadi. Mavjud partiyalarning dasturlariga turkistonliklar ko'zi bilan qaraladi. Chor hukumatining mustabid siyosati, xususan, vaqflarning tortib olinishi, madrasalarning xarob qilinishi, rus mujiklarini ko'chirib keltirish siyosati, mahalliy xalqning kundan-kun qashshoqlashib, mulk va davlatning yahudiy va armanilar qo'liga o'tib borishi millat fojiasi sifatida baholanadi. Partiyalar haqida gap ketganida, sotsial demokratiyaning har ikki qanoti (sotsial-demokrat, sotsial revolyusioner) ham rad etiladi. «Murodi... xayoliy», «bu toifaga qo'shilmoq, biz, musulmonlar uchun nihoyatda zararlik» deb ko'rsatiladi. Muallif «Rusiya musulmolari ittifoqi»ni alohida bir partiyayi maxsusa» hisoblab, kadetlar dasturini unga muvofiq topadi. Bejiz emas, «Tarjimon» gazetasi «Bizim matbuot» nomli maqola yozib, «Xurshid»ning go'zal intixob etilgan» «mundarijasi»ga, «ochiq turkcha» tiliga mamnunlik bilan to'xtalgan, Munavvarqorini samimiy tabriklab, «ishning davomini» umid qilib qolgan edi[113].

Afsuski, «Turkiston viloyatining gazeti» mahalliy ziyolilarimizni obro'sizlantirish yo'lidan bordi. Jumladan, «Taraqqiy» muharriri haqida «Muharrirning asli ismi ma'lum emas, imzosi «Sayyid Ismoil» esa-da, o'zi «Sayyid» bo'lmasa kerak», — deb qochirimlar qildi va shu xil g'iybatlar bilan «Taraqqiy»ning yopilishini tezlashtirdi. «Xurshid» chiqqanida esa undan ham oshirib yubordi. «Mulla Mo'min» (N.Ostroumov taxalluslaridan biri) imzosi bilan «Munavvarqori Toshkandda takyaxona, choyxona, to'kmaxonalarni munavvar etib, umr kechirgan ekanlar», — deb yozdi.

[113] «Tarjimon» y., 1906-y 22-sentabr, 107-son.

Bular «g'iybat bo'lmasdan nimadir?!» — deb yozgan edi «Tarjimon» o'z sonlaridan birida[114].

«Xurshid» yopilgandan so'ng 9 oy muddat o'tgach, «Tujjor» gazetasi paydo bo'ldi (noshiri Sayidkarim Saidazimboy o'g'li) va 36 soni chiqdi.

1907-yilning 1-dekabridan Avloniyning «Shuhrat» gazetasi chiqa boshladi. Gazeta tahririyati Sapyornaya-35 da joylashgan edi.

Gazetaning yo'nalishini muharrir shunday belgilaydi:

Jahonda ittifoqu ilm uchun ovoradur «Shuhrat»,
Zuhuri ro'shnoyi ilm uchun mahforadur «Shuhrat,
Vujudin sarf qilg'on ilm uchun bechoradur «Shuhrat»,
Dili millat g'amida dam-badam sadporadur «Shuhrat».

Kalomi xushtakallum to'tiyi zebosifat so'zlar,
Maqomi hurriyatda bulbuli shaydosifat so'zlar,
Zamona gulshanida qumriyi tanhosifat so'zlar,
Gulistonlarda doim sayr etar tayyoradur «Shuhrat».

Xabar bergay zamona go'shiga atrof-har yondin,
Yozar har safhasina ziynat ila har xil e'londin,

Dili xush, ramzi xushalfoz, xushuafkoradur «Shuhrat».

Qo'yub sarlovhasina ilm, istar muddaosini,
Yana debochasida sharh etar, millat bahosini,
Qani xushfahm bilsa, gavhari qimmatbahosini,
Zamoni ma'danida bir zumurradporadur «Shuhrat».

Xaloyiq go'shidin xomushi g'aflat finsasin tortur,
G'arib millat ko'zidin safhasi-la yoshini artur.
Xulusi niyat ila zori millat so'zini aytur.
Farog'at, xobi g'aflatdin kecha bedoradur «Shuhrat».

Xarobatxonada yotsang, bizim-chun kim qilur ta'mir,
Buzulsun, qadri ketsun, deb qilur hamsoyamiz tadbir,

[114] Shu gazeta, 1907-yil, 86-son.

Al ila turtmasang qilmas, qalam o'zdan-o'zi tahrir,
Qilub izhori hasrat har kima yolboradur «Shuhrat»[115]

Bu gazeta ham 10-soni chiqqach to'xtatildi. «Hukumat tamom narsalarin musodara qilib chiqarmasqa imzo olib to'xtatdi». Gazeta 1908-yilning 19-fevralida chiqqan so'nggi 10-sonida chaquvlardan shikoyat qilgan edi («Dano'si namima»).

«1908-yilda yozuvchilarimiz, idoramda xizmat qilquvchi Ahmadjon Bektemirov nomiga «Osiyo» ismli gaze(t)ga ruxsat olib, idorani o'z uyimga (Sapernaya-26) ko'chirib, yana chiqara boshladim[116].

6-nomerinda hukumat jonvorlari kelib, buni ham musodara qilib, berkitib ketdi[117], — deb yozadi Avloniy o'z tarjimai holida. Ayrim matbuotshunos mutaxassislar 1905—1908-yillarni jadid matbuotining dastlabki davri[118], — deb qaraydilar. Bu ma'lum jihatdan to'g'ri. 1908-yildan gazetachilikda ma'lum uzilish bo'ldi. Chor hukumati so'z, matbuot erkinligini haddan tashqari jilovlab bordi. Ayniqsa, g'ayriruslarning nashr ishlariga qattiq turdi. Ismoilbek Gasprinskiy «Tarjimon»ni chiqarishga ruxsat olish naqadar qiyin bo'lgani haqida gazetaning 1907-yil 27-dekabr sonida shunday yozgan edi:

«1883-sanasi «Tarjimon» gazetasina musoada olindi. Buning uchun ikki gubernator, uch ministr huzurina uch sana do'lanildi, kezildi, to'rt daf'a Peterburg'a ziyorat etildi...

Yigirma uch sana yop-yolg'iz do'landi. Har shayni ko'rmak, har shayni eshitmak, mamnu' va pek oz so'ylamak shart edi. Hozirda yigirma rafiqim vor...».

1913-yildan Turkiston shaharlarida gazetalar yana chiqa boshladi. Behbudiy «Samarqand» gazetasini yo'lga qo'ydi. Atrofiga Siddiqiy-Ajziy, Hoji Muin, Nusratulla Qudratulla, Said Rizo Alizoda kabi taraqqiyparvar qalam egalarini to'pladi.

Gazeta moddiy qiyinchilik tufayli 45-soni chiqib to'xtadi.

Eng mashhur gazetalardan biri «Sadoyi Turkiston» edi.

---

[115] «Shuhrat» g., 1908-yil, 7-yanvar, 5-son.

[116] «Xurshid». «Osiyo» gazetalaridan Olimjon Ibrohimov ham xabardor bo'lgan. «Ong»j., 1916 y., 5-son, 87—90-b.

[117] Milliy uyg'onish. — T.: «Universitet», 1993-yil, 110-b.

[118] N.Abduazizova. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. — T.: 1999-yil, 21-b.

Gazetaning birinchi soni 1914-yilning 4-aprelida chiqqan. Rasmiy muharriri Ubaydullaxo'ja Asatillaxo'jayev (1880–1938) edi. Ziyo Said unga Munavvarqori va Abdurauf Muzaffarzoda yaqindan yordam berib turganini xabar qiladi. Gazetaning deyarli har bir sonida Avloniyning she'r yoki maqolasi bosilishi, «Turon» truppasi bilan hamkorlik uning ham tahririyatda mavqei baland bo'lganligini ko'rsatadi. Gazeta sahifalarida Munavvarqori, Miskin, Xislat, Tavallo kabi toshkentlik ijodkorlarning she'rlari singari Samarqanddan Vasliy, Hoji Muin, Farg'ona vodiysidan So'fizoda, Hamza, Cho'lpon, Lutfulla Olimiy, Ibrohim Davron kabi o'nlab qalam egalarining asarlari chop etilgan edi. Gazeta bir yilcha davom etdi. 66-son chiqib, moddiy tanglikdan to'xtadi.

Obidjon Mahmudovning «Sadoyi Farg'ona» gazetasi «Sadoyi Turkiston» bilan bir vaqtda chiqdi. Faollaridan biri Ashurali Zohiriy (1885–1937) edi.

1917-yilning Fevralidan keyin «Najot» (Munavvarqori), «Sho'royi islom» (A.Battol), «Turon» (Avloniy), «Hurriyat» (Fitrat), «Kengash» (Zaki Validiy), «El bayrog'i» (B.Soliyev, A.Zohiriy), «Ulug' Turkiston» (K.Bakir) kabi ko'plab gazetalar chiqdi. Bular orasida ayniqsa, «Hurriyat» adabiy kuch-quvvati bilan, «El bayrog'i» Turkiston mustaqilligi yo'lidagi kurashimizning yorqin sahifasi bo'lgan muxtoriyat g'oyalarini ifoda etganligi bilan alohida o'rin egallaydi.

Oktabr to'ntarishidan keyin chiqqan «Ishtirokiyun» (1918–1919), «Qizil bayroq» (1920–1921), «Turkiston» (1922–1924), «Mehnatkashlar tovushi» (Samarqand, 1918–1922), «Buxoro axbori» (1920–1922), «Mehnat bayrog'i» (1921), «Farg'ona» (1921) kabi partiya-sovet matbuoti deb nomlanuvchi o'nlab gazetalar dunyo ko'rdi.

Turkistonda chiqqan birinchi jurnal «Oyna»dir. Jurnal Mahmudxo'ja Behbudiyning g'ayrat va tashabbusi bilan 1913-yilning 20-avgustidan 1915-yilning 15 iyunigacha chiqdi. Ja'mi – 68 son, 1720 sahifa.

Jurnal o'lkada milliy g'oyalarning tarqalishida muhim rol o'ynadi, turkistonliklarga ham o'zlarini, ham dunyoni borligicha ko'rsatishga harakat qildi, o'zbek adiblarininggina emas, umumturk olamining eng yaxshi qalam egalari ijodi bilan tanishtirib bordi. Oktabr o'zgarishidan keyin esa 1929-yilgacha bo'lgan

davrda xalq ma'naviy turmushida muhim iz qoldirganlari «Maorif va o'qitquchi», «Mushtum», «Mashrab»lar edi.

Jadid matbuotiga shunchaki bir ko'z tashlash quyidagi xulosalarga olib keladi:

1. Jadid matbuotchiligi XX asr boshidagi Turkistonning ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi yangilanishning o'ziga xos bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'ldi va millatning uyg'onishida muhim rol o'ynadi.

2. Jadid matbuotining maydonga kelishida yoshlarning xizmati katta bo'ldi. O'lkada chuqur tomir otgan bosh-boshdoqlik, urug'-aymoqchilik, isrof, xurofot, mutaassiblik kabi chirkin odatlarga barham berish, keng xalqni milliy birlik, mustaqillik, ma'rifat va adolat bayrog'i ostida birlashtirish taraqqiyparvar jadid yoshlari intilishlarining maqsad-mazmunini tashkil qildi.

3. Turkiston matbuot vositasida qardosh, tildosh, millatdosh, dindosh turk olamiga chiqdi. Ular bilan o'z taqdirini bir ko'rdi, o'tmishning achchiq tajribalaridan saboq chiqarishga, kelajak uchun bir jon, bir tan bo'lib, kurashish zaruriyatiga ishonch hosil qildi. «Tarjimon», «Vaqt», «Sho'ro», «Ong» kabi Kavkaz va Volgabo'yida chiqib turgan, chor hukumatining mustamlakachilik tuzumiga qarshi kurashda katta tajribaga ega bo'lgan gazeta-jurnallar Turkiston jadid matbuotining oyoqqa turib olishida hamkor va hamdast bo'ldilar.

4. O'zbek jadid matbuoti yangi o'zbek adabiyotining shakllanib taraqqiy topishida oltin beshik vazifasini o'tadi. Behbudiydan Cho'lpongacha bo'lgan jadid adabiyotining barcha vakillari fikrlarini ham, qalamlarini ham mana shu ilk gazeta-jurnallarimizda charxladilar.

5. Jadid matbuotining eng muhim xizmati millatni uyg'otish va uni mustaqillik uchun tayyorlash edi. Matbuot buni sharaf bilan bajardi. Bugina emas, zamon aylanib, totalitar tuzumga qaytganida ham uning yonida turdi.

Millat, milliyat...
(Jadidlarda milliy g'oya va mafkura)

Bugun biz yuzma-yuz bo'lib turganimiz milliy g'oya, milliy mafkura masalalari bundan yuz yil oldin jadidlarimiz tomonidan ham kun tartibiga qo'yilgan va qizg'in muhokama qilingan edi.

Avvalo, «millat» va «milliylik» haqida. «Mulla Nasriddin» jurnalining muharriri, «O'liklar» dramasi bilan Toshkentning «Kolizey»ida mahalliy xalqni larzaga solgan Jalil Mamadqulizodaning «Millat» nomli maqolasi bor. Ma'lum bo'lishicha, millat tushunchasi ilk bor qadim yunon faylasufi, bundan salkam 2 yarim ming yil muqaddam yashagan Demokrit tomonidan qo'llanilgan ekan. U bu tushunchani «har bir mamlakatning yagona sohibi» deb tushuntiradi. Shundan so'ng mana qancha zamon o'tib, XVIII asr fransuz inqilobi davrida bu masala yana o'rtaga tushdi, biroq hali ham bu tushuncha ayrim xalqlarda shakllanib ulgurgan emas, deb davom etadi adib.

Bunga shuni qo'shimcha qilish mumkinki, din va irq masalasi, millat va mazhab masalasi turkiy xalqlarda hech bir zamon chetga surib qo'yilgan emas. Aksincha, hamisha diqqat-e'tiborda kelgan. Buyuk Navoiy zamondoshlarini ta'riflar ekan, «shams ul-millat», «zayn ul-millat», «nur ul-millat» sifatlarini qo'llaydi. Ehtimol, buyuk bobomizning millat haqidagi tushunchalari u haqdagi bugungi ko'z qarashlarimizdan birmuncha farqlanar (Masalan, u millat bilan dinni hamisha yonma-yon, hatto sinonim darajasida qo'llaydi). Biroq fakt shuki, u millatni insoniyatning yashash shakli sifatida tushunadi va uni ma'lum diniy, hududiy, lisoniy qiyofada, muayyan asliy xususiyatlariga ega holda tasavvur etadi. Bunday tushunish XVIII asrdan Yevropada aniqlashib bordi va 3-Salim (1789—1807)ning «Nizomi jadid»i, ayniqsa, Mustafo Rashid Poshoning 1837-yilgi «Tanzimot farmoni»dan so'ng Usmonli Turkiyasiga, undan Kavkaz, Volgabo'yi orqali Turkistonga keldi. O'z navbatida bu g'oya va tushunchalar bevosita Yevropa orqali Rusiyaga yoyilib, undan o'sha davr chor tuzumi istilohi bilan aytganda, «g'ayrirus musulmonlar»ga o'tdi. «Millat» tushunchasiga yana bir ilova, «Tarjimon» gazetasining 1908-yil 58-sonida muharrirning «Millat» nomli bir maqolasi bosilgan. Muallif «Millat nadir?» — degan savol qo'yadi va bu boradagi G'arbu Sharqning nazariyalarini keltirarkan, yoshligidan qulog'iga quyilgan «din va millat birdir» degan fikrga to'xtaldi. Uningcha, bu g'oyat «eski» nazariya, «siyosiy nazariya». Uni islom fuqarosi musoviylardan-yahudiylardan olgan. Turklar, eroniylar tarixi shuni ko'rsatadiki, ular islomlashdilar, lekin arablashmadilar, turklikni, eronlikni saqlab qoldilar. Demak, bu nazariya ilmiy asosga ega emas.

Endi g'oya haqida. Ismoilbek Gasprinskiy 1895-yilda yozgan maqolalaridan birini «g'oya» deb atagan edi. Uningcha, «xalqlar hayotidagi barcha buyuk voqealarning tag-zaminida u yoki bu g'oya yotadi. Eng ulug' kashfiyotlar, avvalo, ular haqidagi orzu-niyatlardan boshlangan.

Islom g'oyalari yarim dunyoni bir hovuch arablar atrofiga birlashtirdi. Moskva atrofiga birlashuv g'oyasi qudratli Rossiyani maydonga keltirdi. Tenglik va ozodlik g'oyasi fransuzlar mavqeini Yevropada sarbaland qildi.

G'oyasizlik-chi! Millatni zaiflashtiruvchi, turg'unlikka — tanazzulga olib boruvchi mana shu g'oyasizlik, maqsadsizlikdir.

Tarix necha martalab aqlu iste'dodiga guvoh bo'lgan Sharq xalqlari nega bunday zalolatga botdi? Necha yuz million xitoylar, hindlar so'nggi ming yil davomida o'zlarini ko'rsata olmay, nega boshqalar yetoviga tushib qoldilar? Sababi — g'oyasizlik, — deb tushuntiradi muallif.

Shundan keyin u Rusiya qo'l ostidagi musulmonlar hayotiga o'tadi. «Taassufki, Rusiyaning musulmon jamiyatida asl va chinakam g'oya, orzu yo'q, — deb yozadi muallif. — Ular yolg'iz shu kunning, shu daqiqaning manfaati, shu birgina qorinni to'qlab olish manfaati bilan yashaydilar va hozirgidan bir necha marta yaxshiroq ishlamoq va yashamoq mumkinligini bilmaydilar. Bizda tushni ta'bir qiluvchi risolalar, gul va bulbul haqidagi qo'shiqlar, o'zi bir qarich, soqoli qirq qarich polvon haqidagi kitoblar ko'p, ammo miyamizni qoplab olgan jaholatni tarqatguvchi, ahvolimizni tushuntirib berguvchi, taraqqiyot xususida, kelajak xususida o'ylashga, ilgariga intilishga majbur etadigan biror kitob yo'q. Shunday ekan, maorifga, taraqqiyotga intilishni o'z oldimizga vazifa va orzu qilib qo'ymoq kerak emasmi?!»

Shu g'oya bilan ish tutilsa, millatning jonlanishiga, ma'rifatli avlod shakllanib hayotning go'zallashishiga Ismoilbek dildidan ishonadi. Bugina emas, uni hayot-mamot masalasi deb biladi. Millatning milliy, diniy, insoniy huquqlarini muhofaza qilishda birinchi vosita deb hisoblaydi.

«Bir millatning quvvat va matonati uning saodati va farog'ati ahlining oz-ko'pligi bilan emas, a'zolaridagi madaniyat va taraqqiyotga omil hayotiy xususiyatlarining darajasi bilan

o'lchanadi», — deb yozadi Ismoilbek 1908-yilda «Ilm va ma'rifat davri» maqolasida. Ilm-hunar g'ayrat va mehnat bilan qo'lga kiradi. Qayrat va mehnat esa ilmu hunar tufayli samara beradi. Bular o'zaro bog'liq tushunchalardir. Qavmining ko'pchiligi jisman sog' bo'lib, ilmu hunardan bebahra qolishi va hayoti parishon bo'lib, o'zini himoya qilmoqdan ojiz holga tushishi mumkin. Ilm-ma'rifatda quvvatli Yevropa millatlarining sog'lom Afrikani asoratga olishlari bejiz emas.

Xo'sh, buning oldini olish uchun nima qilish kerak? Ma'rifatga ehtiyoj, ilm-fanni egallash g'oyasi millatning ko'pchiligi tomonidan anglanishi kerak. Darhaqiqat, jadidlarimiz olib borgan barcha ishlar — matbuotning yo'lga qo'yilishi, «usuli jadid» maktabi nazariyasi va amaliyoti, teatrchilik hamma-hammasi shunga xizmat qildirildi. Shu tariqa har bir g'oyaning milliy g'oyaga aylanishi, jadidlarimiz fikricha ikki shartni taqozo etadi:

1. Qoya millatning tub, asl ehtiyojlaridan, turish-turmushidan, asriy an'analaridan, o'zligidan va, tabiiyki, imkoniyatidan kelib chiqmog'i lozim.

2. Mazkur g'oya millat tomonidan anglanishi, his qilinishi, boshqacha aytganda, onggiga joylashib, yuragidagi o'tga aylanmog'i, so'ngsiz ishtiyoq hosil qilmog'i kerak.

Tabiiyki, har bir millat taraqqiy topmog'i uchun jahon ilm-fani yangiliklaridan, umuminsoniy g'oyalardan foydalanmog'i zarur. Lekin muhim bir shart bilan. Bu fikr-g'oyalar millatning qalbi va ongidan o'tmog'i, «milliylashmog'i» kerak. Shundagina u millat yo'lida xizmat qila oladi.

Bunda buyuk mas'uliyat ziyoli zimmasiga tushadi. Chunki millat ehtiyojini dil-dildan anglovchi va oldinga boshlovchi ziyoli sinfidir. Buning uchun esa, o'sha ziyolining o'zi «milliy axloq va tarbiya egasi» bo'lmog'i kerak. Bu oson ish emas.

«Tarjimon» gazetasi 1884-yilda yozgan edi:

«Agar bizim oramizda yaxshi odamlar bo'lsalar, boshlab maktab muallimlaridirlar. Agar bizda foydali odamlar bo'lsalar, bular ham ulardir. Agar oramizda o'ziga hech bir hurmat, maqtov, shuhrat talab etmay, butun g'ayratini o'quv tarbiya ishiga, haqiqat yo'liga sarf etgan kishilar bo'lsalar, bular ham muallimlardir...

Sharaf sizga, muhtaram o'qituvchilar!

Sizning fidoyi mehnatingiz qadriga yetmaganimiz uchun, sizni faqirlikda, muhtojlikda qoldirganimiz uchun bizlarni, o'qitgan bolalaringizning otalarini kechiringiz» (14-son).

Jadidlarimiz oliy o'quv yurtining zaruratini teran his qildilar va barcha imkoniyatlardan foydalanishga urindilar.

Jadidlarimiz so'nggi uch-to'rt asr davomida tushkun holga tushib tarixini unutayozgan millatimizga tarix shuurini singdirishga va u orqali yangi ruh baxsh etishga urindilar. Darhaqiqat, milliy shuurni tarix shuuri maydonga keltiradi. Tarix shuuri esa tarixni tanimoqdir.

«Tarjimon» gazetasining 1906-yil dekabr, 1907-yil yanvar sonlarida bosilgan «Mukolamayi salotin» bilan Fitratning «Temur sag'anasi» asaridagi hamohanglikni payqash qiyin emas.

Alibek Husaynzoda 1909-yili «Taraqqiy» (Baku) gazetasida bosilgan «Turklik-askarlik» maqolasida til materiali asosida muhim bir fikrni ilgari suradi. Bizning buyruq maylini anglatuvchi ayrim fe'llarimizda 4—5 qavatli amr ma'nolari bor ekan (masalan: ur, urdir, urdirt, urdirtdir; chiq, chiqar, chiqart, chiqartdir, chiqartdirt kabi)ki, boshqa tillarda uchramaskan. Bu hol turkdagi hukm va hokimiyatning g'oyat qadimligini, buyruqning ko'p bosqichligi esa davlat idora tizimida eng ko'hna zamonlardan buyon mansab-martabalar silsilasining qat'iy intizomi subordinatsiyasiga amal qilinib kelinayotganligiga dalil ekan. Masalan, qo'shin boshlig'i to'g'ridan-to'g'ri askarlarga «Qal'aga hujum eting!» demaskan, sarkardalariga «Etdirtiring!» derkan va bu buyruq poyama-poya mingboshi-yuzboshi bo'ylab tushib kelarkan. «Har bir millatning tili uning hayotining, fikrining, ruhining oynasidir», — deb tugallanadi maqola.

Jadidlar millatning taraqqiyotinigina emas, yashash, hatto uni saqlab qolish kafolatini ham milliylikda ko'rdilar. «Milliyat fikriga, bu azim quvvatga hech bir kuch bas kela olmadi, -deb yozgan edi Yusuf Oqchura. — Yuz minglarcha haybatli qo'shin bu fikr qarshisida yengildi. Milliyat atalmish bu buyuk qudratga bugun to'p va miltiq bas kela olmaydi...».

Milliyat tushunchasi birlikni talab qildi. Birlik deyilganda, asosan lisoniy, irqiy, diniy mushtaraklik ko'zda tutiladi. Shular asosida millatning uyg'onishi, o'z-o'zini anglashida muhim rol o'ynagan, lekin so'ngroq asossiz ravishda ayblov vasiqasiga aylantirilgan panislomizm, panturkizm, panturonizm, mahalliy

millatchilik kabi tushuncha va atamalar paydo bo'ldi. Ularning ayrimlari o'z davrida milliy g'oya darajasiga ko'tarildi, lekin siyosiy jihatdan amalga oshirish imkoniyati bo'lmagani uchun zamon qatlarida qolib ketdi.

Dunyoda yashab turgan har bir millatning o'z fe'li-tabiatidan, hayot sharoiti va turmush tarzidan, maslak-e'tiqodidan kelib chiqqan, asosiy tarixiy tajribalari bilan mustahkamlanib, takomillashib borgan va boradigan fikr-qarashlari tizimi bor. Bu tizim millatning borliq va tabiatga munosabatidan tortib, jamiyat, axloq, siyosatigacha bo'lgan qarashlarini qamrab oladi (men ilm-fanni emas, qarash-munosabatni ko'zda tutayotirman). Bu qarashlar o'sha millatning fe'li-sajiyasini, qiyofasini, fe'l-atvorini, intilishini o'zida namoyon etadi. Menimcha, milliy mafkura degani—shu. Bu xalq qanday xalq? Tarixiy ona vatani qayerda? Qanday yashab keldi? Kimlar bilan yonma-yon yashab keldi? Do'stlari? Dushmanlari? Do'stga aylangan dushmanlari? Dushmanga aylangan do'stlari? Davlatchiligi, uning kamoli va zavoli. Idora tuzumi, askar tutumi. Zehniyati, zavqi-didi, iymon-e'tiqodi kabi millatning tarixi, turmushi bilan bog'liq o'nlab masalalarni oydinlashtirmasdan, u haqda aniqroq bir narsa deyish qiyin. Lekin shunisi aniqki, milliy mafkura — jamiyat hayotining jon tomiri. U qurisa, millat o'sishdan to'xtaydi, jamiyat buziladi.

Uning asoslari — tarixda, urf-udum, an'analarimizda. Uni tiklashning zarurligini birinchi bo'lib jadidlarimiz sezdilar.

«Mafkura» — «fikr»dan olingan. Fikr — g'oya, demakdir, albatta. Fikr — g'oya ko'proq «hikmatli so'zlar»da, maqollarda saqlanib qolgan. Bobur 1527-yilda bir ko'ngilsiz voqea munosabati bilan Humoyun va Komronga xat yozadi. Jumladan, Komronga maktubida «Sevarlarning itini ham sevarlar» degan otalar so'zini keltiradi. 1505-yilda Husayn Boyqaroning temuriylar qo'shinini Shayboniyga qarshi birlashtirish muhokama qilinadigan yig'inga taklifiga javoban esa, «El ayoq bila borsa, biz bosh bila borgaymiz. El tayoq bila borsa, biz tosh bila borgaymiz», — deb yozadi. Bu millatning muhabbatiga, sadoqatiga timsol. Muhabbat va sadoqatning bu millatda hech qachon chala-chulpa bo'lmaganligiga, hamisha butun kelganiga dadil.

Mahmudxo'ja Behbudiy millatimizning ruslar tomonidan «sart» atalishiga isyon qilib chiqqan bir maqolasida yozadi: «Qabilasining ismini va yetti otasining otini bilmayturganlarni qul-marquq (manqurt shundan olingan) derlar». Demak, bu millatning tarixini tanishi, nomus-iftixor tuyg'usi baland bo'lgan.

Mafkura to'qilmaydi, yaratilmaydi. Asriy an'analardan shakllantiriladi. Bu yerda tarix muhim. Tarixning ham adabiyot, falsafa, etnografiya, psixologiya bilan tutash nuqtalari ayricha ahamiyatga ega.

Bu borada jadidchilik, shu jumladan, XX asr boshidagi Turkiston jadid matbuoti qiziqarli materiallar bera oladi.

Darvoqe, milliy g'oya, milliy mafkura haqida gap ketganda bir narsani, albatta hisobga olishimiz kerak, deb o'ylayman. Hamonki, bular olis tariximiz bilan chambarchas bog'liq ekan, u o'z nomini kechagina olgan «o'zbek» tarixi bilan kifoyalanmasligi kerak.

Aksincha, O'rta Osiyoning asliy, qadimiy, tubjoy aholisi o'laroq, bu ko'hna dunyoning eng eski qavmlaridan biri sifatida jahon sivilizasiyasining chorrahasida kelgan bir millat maqomida olib qaralmog'i lozim.

Afsuski, uzoq yillar, balki asrlar bu xalq tarixi boshqa millatlar, mamlakatlar ko'zi bilan ko'rilib, manfaatlari nuqtai nazaridan baholanib keldi. Holbuki, bu millat ota-bobolari Shumer madaniyatidan Mohinijidorogacha, Misr ehromlaridan Uzoq Sharqdagi saltanatlargacha faol ishtirok etgan. Masalan, mil.av. 1116–247-yillarda–869-yil davomida Xitoyda o'z hokimiyatini o'rnatgan (Xarlets, Franke...), so'nggi ikki ming yilda esa o'nlab muazzam shaharlar bunyod qilganligiga dunyo amin bo'lgan, lekin keng hududiy o'zgarishlar, buyuk ko'chuvlar, jangu suronlar tufayli turli davrlarda turli manbalarda turlicha atalib kelgan turk qavmining «bosh bo'g'ini» (Amir Temur), qadim Turkistonning asl egalari sifatida qaralmog'i, baholanmog'i kerak.

Bu tabiiyki, har bir o'zbek qalbida g'urur, faxr tuyg'ularini uyg'otadi. Lekin buning uchun tarixni bilish kerak. Jadidlarimiz shuning uchun tarixni va millatni tanishga alohida e'tibor berdilar. Bu borada Zaki Validiyning kitoblariga katta ehtiyoj bor. Ayniqsa, ikki kitobini («Umumturk tarixiga kirish», Anqara,

1981, 540-bet; «Bugungi turk eli—Turkiston va uning yaqin tarixi», Anqara, 1981, 696-bet) shoshilinch tarjima qilish kerak. Gap shundaki, jug'rofiy jihatdan Osiyo, Yevropa, Afrikaday uch buyuk qit'aga yoyilgan turkiy xalqlar tarixini yoritmoq uchun ular aloqaga kirishgan o'nlab, balki yuzlab millatlarning tili va tarixidan xabardor bo'lmoq kerak. To'g'ri va haqqoniy yoritmoq, eng muhimi voqealarni yurakdan o'tkazmoq uchun esa mazkur millatga mansub bo'lmoq lozim. Oliy diniy tahsil ko'rgan, mutaxassis sifatida rus akademik sharqshunoslik maktabida shakllangan, asosiy asarlarini Yevropa kutubxonalarida yaratib, jahoniy shuhratga ega bo'lgan, G'arb va Sharqning asosiy tillarida o'qib yoza oladigan, Turkistonni shaharma-shahar, qishloqma-qishloq kezib chiqqan, fidoyi jadidlarimizning deyarli hammasi bilan shaxsan tanish, 1921-yilda tuzilgan Turkiston milliy birligining rahbari Zaki Validiyning bu ikki asari Turkiston tarixini o'rganishda bebaho manbalardir. Masalan, muallif turkiy xalqlarning kelib chiqish tarixi, ona vatani, qo'shni mamlakatlar bilan aloqalari haqida fikr yuritar ekan, qadim Xitoy, Hind solnomalaridan ibroniy, yunoniy, suryoniy ma'xazlarigacha, mo'g'ul, arab, fors, turk, qo'lyozmalaridan so'nggi ikki asrda Ovrupo sharqshunosligi erishgan yutuqlargacha jalb etishga harakat qiladi. Buni shundan ham bilsak bo'ladiki, 540 sahifalik birinchi kitobning 115 sahifasini mayda harflar bilan berilgan izohlar tashkil qiladi. Bu izohlar turkiy xalqlarning tili, tarixi, madaniyati, maslak-e'tiqodi, buyuklari, yurishlari, jug'rofiy, siyosiy, maishiy atamalari, urug'lari va hokazolarga oid xilma-xil manbalardan olingan o'zaro farqli qiyosiy ma'lumotlar va ularga munosabatlardan tashkil topgan. Ikkinchi kitobdagi voqealarning aksariyatida esa muallif bevosita ishtirok etgan.

«Bugungi turk eli — Turkiston va uning yaqin tarixi»da millatimiz-ning asriy xususiyatlari, milliyatimiz haqida butun bir bob bor.

Mana ayrim parchalar:

«Biz fursat kutgan millatlardanmiz. Milliy qudratimizni shunday bir ko'zdan kechirsak, O'zbekiston fuqarolari barobarida qozoq, qirg'iz, tatar va boshqirdlarning, ya'ni «o'rta turk» deb ataganimiz turklarning va turkmanlarning madaniy quvvati, tabiiyki, Afg'onistondan hamda Erondan kam emasdir. Turkistonda o'z millatimizdan yetishgan mutaxassis va olimlarning

miqdori O'rta va Old Osiyo davlatlaridan birgina Hindiston va Turkiyadangina ozdir. Ayniqsa, savdo, san'at va dehqonchilikda turkistonliklarga hech bir kishi bas kela olmaydi. Bu masalalarda ovrupoliklar bilan ham juda a'lo darajada raqobat eta oladilar. Farg'ona paxta zavodlaridagi, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon va Buxorolik turk ishbilarmonlarining tajribasi Rossiya hukumati yevropali sarmoyadorlarini himoya qilmagan taqdirda vaziyatni xohlagan paytlarida o'z qo'llariga ola olishlarini ko'rsatmoqda. Minglarcha yillar mobaynida takomillashib borgan irrigatsiya va dehqonchilik madaniyatining boshqa sohalarida turkistonliklarga Sharqda birgina hindlar va xitoylar raqobat eta oladilar. Rus dehqoni hecham raqobat qila olmaydi. Holbuki, iqtisod, tijorat va ziroat har qanday mamlakatda davlatning ham asosidir. Xullas, ajnabiy zo'ravonlik va istilo o'rtadan qalqib hurriyatga erishishi bilan bu jihatlardan Turkistonda turkistonliklarga raqobat eta oladigan hech bir kimsa yo'qdir...

...ba'zi odamlar rusga tobe turklarning, xususan turkistonliklarning milliy harakati hali juda ibtidoiy bosqichdaligini, ingliz, nemis va rus millatlarining bugungi yangi davr tarixini ag'dar-to'ntar qilgan qudratli milliy shuurlari, milliy madaniyatlarining ulug'vorligi qarshisida O'rta Osiyoliklarning dovdirab qolishlarini, bir kun o'z taqdirlarini o'zgartirish imkoni tug'ilganda ham undan foydalana olmayajaklarini so'ylaydilar. Lekin turk millatining shunday mumtoz qavmiy xususiyatlari bordirki, ularni uyg'otib ishga solishga muvaffaq bo'linsa, yo'qotgan narsalarini bir oz muddatda tiklay oladi.

Minglarcha yillik tariximizdan qizil ip bo'lib o'tgan milliy xususiyatlarimizdan biri JONLILIK va bitmas FAOLLIKdir. Qadim tarixda Osiyoda va Ovrupoda turk va mo'g'ul aralashmagan birorta buyuk baynalmilal hodisa bo'lgan emas.

Turk birorta shunday mamlakatga kelmaganki, oxirida u jamiyatning tepasiga ko'tarilmagan bo'lsin.

Haqiqatan ham shunday bo'lgan. Xitoy, Hind, Eron va Misrga qul sifatida keltirilgan turklar ko'p vaqt o'tmay, u yerdagi siyosiy hayotda rol o'ynay boshlaganlar va ko'p martalab butun davlat idorasini boshqarganlar... Turkning haqiqiy milliy sajiyasi mana shunday. Ya'ni har doim hayotning qoq o'rtasida, kurash maydonida bo'lmoq va har yerda o'zining kimligini ko'rsatmoq. Tarixan turk hech vaqt bosilgan nuqtada

bir lahza qolmay, rezinaday o'rnidan qalqqan yoki g'ijimlab ezmoqchi bo'lgan hovuchning ichidan simobday sirg'alib chiqqan.

Turkning butun tarixiy takomili davomida ko'zga tashlangan eng ayon irqiy xususiyatlaridan biri ham tarixning biz bilgan davridan buyon askar bo'lib kelganligi, INTIZOMSEVARLIGI, hayotning eng og'ir mushkulotiga ham tayyor turmoq, mashaqqatlariga uzoq muddat SABRLI bo'la olishidir. Qadim turklar o'zlarini mana shu jihatdan tarbiyalashga favqulodda ahamiyat berganlar va kishini bo'shashtiradigan farog'atdan, xotinchalish qilib qo'yadigan nazokatdan, vujudni og'irlashtiradigan yemaklardan saqlanganlar. Ulug'lar, aslzodalar yonlaridagi askarlardan ortiq ovqat yemaganlar va askar bilan ayni bir sharoitda yashab o'zlarini maxsus ochlikka, suvsizlikka, issiq-sovuqqa o'rgatib borganlar...

Turkning boshqa bir milliy fazilati dunyodagi voqealarga ochiq ko'z bilan qarashidir. Qadim turklarning, To'ng Yabg'usining, Chingiz, Temur muvaffaqiyatlarining eng katta siri jahon vaziyatini atroflicha ko'ra olishlarida, undan tamomila xabardor bo'lishlarida va har bir fursatdan foydalana bilishlarida edi. Turk millati tarixiy hayotining shavkatli kunlarida jahon siyosiy voqealarini tubdan o'rganib xulosa chiqara olishi jihatidan zamonamizdagi inglizlarga o'xshaydilar va o'z xulosalarini vaziyatga tatbiq eta biladilar».

Zaki Validiyning kuzatishlari islomiyatdan keyingi davrni o'z ichiga olgan. Ziyo Ko'k Alpning «Turkchilik asoslari» (1924) kitobida islomgacha bo'lgan milliy xususiyatlarimiz yaxshi berilgan. Uningcha, qadim yunonlar haykaltoroshlikda, rimlilar huquqda, yahud va arab dinda, fransuzlar adabiyotda, anglo-sakslar iqtisodda, olmonlar musiqa va falsafada shuhrat topgan bo'lsalar, turklar go'zal xulqlari bilan dovrug' qozonganlar.

Ular uchun eng muqaddas narsa el, yurt bo'lgan. El — Ko'ktangrining yerdagi soyasi. U ishq kechasi bir oltin shu'la bo'lib, yer yuziga eng go'zal daraxtga tushgan. Daraxt Ko'ktangridan homilador bo'lib, undan el to'ragan (tarqalgan). Yurt mana shu el yashaydigan makondir. Ikkinchidan, El — omonlik degani. Elchi — sulhchi, tinchlikni so'rab boruvchi, olib boruvchi degani. Qadimda turk xoqonlari boshqa yurtlarni zabt

etganlarida hukmronlikni egalarida qoldirib, o'zlari Elxon nomi bilan ularni boshqarganlar.

Xunnlarning ilk Elxoni Metexon Xitoyni ikki marta zabt etib, imperatorligini qabul qilmaganini rivoyatlarda keltiradilar.

Mamlakat ahlini «ich el», xorijni «chet el» atashning o'ziyoq sulhparvarlikka timsol edi.

El-yurt ideali Vatan va Millat mustaqilligini ta'min etuvchi asosiy omillardan bo'lgan.

Oila axloqiga alohida e'tibor berilgan. Uylanmak — uy egasi bo'lmoqdir. Kelin-kuyovga yangi uy qurib berish shart bo'lgan. Ayollar davlat, xo'jalik, oila ishlarida baravar ishtirok etganlar. «Qadim xalqlar orasida hech biri turklar singari ayollarga bu qadar katta huquqlar bermagan va e'tibor qaratmagan edi», — deb yozadi Ziyo Ko'k Alp...

Mana shu xil asliy xususiyatlarimizni anglash va anglatishda ziyolilar zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklatilgan edi.

Tarix shunchaki xabardor bo'lish uchun o'rganib qo'yilmaydi. U oyna, ibrat, tarbiya vositasi bo'lmog'i kerak edi. «Oqqan ariqda suv oqadi» — ilgari suv yurgan ariqda suv oqadi, deydilar. Qonda bor narsani tiklash oson. Lekin ularni oldin bilmoq kerak, keyin qanday tiklash masalalarini o'ylash lozim.

Ikkinchidan, birgina tarix bilan cheklanib bo'lmasdi. Undan kelib chiqqan holda zamon ehtiyojiga javob bermoq lozim edi.

Milliy mafkura konsepsiyasi millatning asliy xususiyatlaridan kelib chiqmog'i va uning tabiati, aqlu tafakkuri, ehtiyoj-zarurati, imkoniyati kabilarga mutanosib g'oyalar asosiga qurilmog'i lozim edi. Milliy ideallarimizni belgilash lozim edi. Unutilgan milliy qahramonlarimizni, fan dohiylari, din dohiylari, harb dohiylarini, mashhuri jahon shoirlarimiz, ijodkorlarimizni tanish va tanitish kerak edi... Ular millatga xos aqlu zakoni, sabru toqatni, g'ayrat-shijoatni, zavq-shavqni o'zlarida namoyon etgan edilar.

Qadriyatlar (din-diyonat, urf-udum, marosimlar), tarix va tarixiy shaxslar. Ular ko'targan adolat bayrog'i millatni bir va bor qiladigan asosiy omillar edi.

Jadidchilik va ijtimoiy-siyosiy harakatchilik

Jadidchilik, shunchaki bir ma'rifiy, madaniy-oqartuv hara-

katigina emas edi. Buni sovet siyosatchilari yaxshi bilar edilar. Shunchaki harakat bo'lganida ular qatag'on qilinmas edilar. Ularga «xalq dushmani», «Vatan xoini» degan tavqi la'natlar yopishtirilmas edi. Darvoqe, «haqqoniylik» da'vo qilib kelgan tarixchilarimizda ham buni payqash qiyin emas. A.V.Pyaskovskiy yozadi: «Shu vaqtdan(1905–1917-yillar ko'zda tutilmoqda – B.Q.) e'tiboran Turkistonda «jadidchilik» deb tanilgan burjua-liberal, millatchilik harakati keng yoyila boshladi va usuli jadid maktablari ochish va targ'ib etish, madaniyatparvarlik singari dastlabki tor doirasidan chiqib, aniq ko'zga tashlanib turuvchi siyosiy bo'yoq kasb etdi»[119].

Darhaqiqat, jadidchilik siyosiy harakatlar bilan bog'lanmasligi mumkin emas edi. Masalani yaxshiroq tushunib olish uchun uning tarixiga bir ko'z tashlash ehtiyoji bor. Umuman, Rusiya istilosidan so'ng o'lkada ko'plab xalq g'alayonlari yuz berdi. Ularning aksariyati mustaqillik yo'lidagi urinishlar edi. Biroq tashkiliy jihati nochor bo'lib, ko'pincha diniy motivda kechdi. Jumladan, Turkistonda o'tgan asrning so'nggida yuz bergan 1892-yilgi Toshkent va 1898-yilgi Andijon voqealari shundaylardan edi. Bu voqealar va ularning ishtirokchilari adabiyotda izsiz ketgan emas. Masalan, prof. F.Karimov aniqlashicha, Muqimiy 1892-yil qo'zg'olonining tashkilotchilaridan va faol qatnashchilaridan In'omxo'ja Umriyoxo'jayev (1833–1896) vafotiga bag'ishlab marsiya yozadi, uni shahid hisoblaydi va o'limidan qattiq qayg'uradi[120]. Qo'zg'olonning yana bir qahramoni Sharifxo'ja qozi (1812–1904) ni Furqat o'z asarida e'zozlab tilga oladi.

Lekin 1898-yilgi «Dukchi eshon voqeasi» talqini adabiyotda boshqacharoq. Buning ma'lum sabablari bo'lishi kerak. Ulardan eng achinarlisi, bizningcha, chor hukumatining Muhammadali xalifani fitnachiga chiqarib, qo'zg'olon haqidagi taassurotni boshqa izga burib yubora olganligida. Umuman, o'z ko'lami va oqibatlari bilan butun Turkistonni larzaga solgan bu harakat va uning adabiyotdagi talqini tarixchilarimiz va adabiyotshunoslarimiz hamkorligida o'rganilishi zarur bo'lgan masalalardan.

---

[119] А.В.Пясковский Революция 1905–1907 годов в Туркестане. – М.: 1958. 543-с

[120] Karimov G'. Muqimiy (hayoti va ijodi). – T: 1979. 111-b.

Asr boshidagi voqealar, rus-yapon urushidagi mag'lubiyat Rusiyani buhronga olib keldi. Ichki milliy nizolar, noroziliklar kuchaya boshladi.

Lekin tobe millatlar o'z haq-huquqlari uchun endi ilgarigiday kurashish to'g'ri emasligini anglab yeta boshladilar. Turkistonda ham sekin-asta uyg'onish boshlandi. Rusiyada, xususan Kavkaz, Volgabo'yida yashovchi turkiy millatlar bilan yaqinlashishga, hamkorlikka intilish kuchaydi. Yangi g'oyalar kirib kela boshladi. Islomchilik (panislomizm), turkchilik (panturkizm) shundaylardan edi. Bu g'oyalar XIX asrning o'rtalarida Usmonli davlatida paydo bo'ldi. Dastlab «usmonchilik» o'rtaga qo'yildi.

* * *

Masalaning tarixi shunday: 1698—1999-yili Usmonli davlati birvarakayiga to'rt davlat — Avstriya, Venetsiya, Polsha, Rusiya bilan urushga kirdi va yengildi. Bu Usmonli saltanati tanazzulining boshlanishi bo'ldi. Keng mintaqaga yoyilgan, tili, dini, urf-udumlari xilma-xil bo'lgan ulkan saltanatda o'zaro birlik, uyushqoqlik yo'q edi. Aksincha, mamlakatning goh u, goh bu yerida g'alayonlar, isyonlar ko'zga tashlana boshladi.

Idora usulida o'zgarishlar qilish kerak edi. Yildan-yilga taraqqiy topib, harbiy, iqtisodiy qudrati oshib borayotgan Ovrupodan nimalarnidir olish kerak edi. Bu fikr 1789-yili taxtga chiqqan 3-Salimdan ko'zga tashlandi. U «Nizomi jadid» tuzib, qo'shin va idorani yangilashga kirishdi. Harbiy injenerlik ishlariga e'tibor berdi. «Muhandisxonai Sultoniy» (1793) ochdi. Ovrupo bilan aloqani kuchaytirdi. Istanbulda Fransiya, Avstriya, Germaniya kabi shiddat bilan rivojlanayotgan mamlakatlarning elchixonalari ish boshladi. Sulton 2-Mahmud (1808—1839) matbuotni yo'lga qo'ydi. 1831-yilda birinchi turk rasmiy gazetasi «Taqvimi vaqoe» («Voqealar kalendari») dunyo yuzini ko'rdi. 1833-yilda «Tarjima o'dasi» («Tarjimaxona») ochilib, fransuzcha biladigan ma'murlar tayyorlash dasturi ishlab chiqildi. Ovrupocha maktablar (maktabi tibbiyai oliya, maktabi harbiya, maktabi ulumi adabiyya) ochdi. Majburiy boshlang'ich ta'limni joriy qildi. Ilk daf'a Ovrupoga o'quvchilar yubordi... Sulton soqol-mo'ylovini qirdirib, Yevropacha shamoyilga kirib,

xalq oldiga chiqdi. Bu bilan istiqbolni ta'minlashning yo'li bitta — Ovrupoga yuz burmoqdir, demoqchi bo'ldi. Biroq bu harakatlar samara bermadi. Islohotlarning yetarli emasligi ma'lum bo'ldi. Yunonistonda saltanatga qarshi qo'zg'olon (1839) yuz berdi. Shu yili 2-Mahmud ham vafot etib, o'rniga 16 yoshli o'g'li Abdulmajid o'tirdi. Ishni ko'proq xorijiya noziri Mustafo Rashid Posho olib bordi. 1839-yilning 3-noyabrida mashhur Gulxonada «Xatti Humoyun»ni e'lon qilish bilan Turkiya tarixida «Tanzimot» deb atalgan davrni boshlab berdi. Birinchi marotaba «Fuqaroning moli, joni, nomusi qonun yo'li bilan himoya qilinishi» bildirildi. Juda ko'p yoshlar Fransiyaga o'qishga yuborildilar. Qisqa muddatda bir qator qoidalar ishlandi. 1856-yil 28-fevralda islohot farmoni e'lon qilinib, «Tanzimot» mustahkamlandi. Jamiyatlar («Jamiyati ilmiyai usmoniya» — 1961, «Yeni usmonlilar jamiyati» — 1865) ochildi. «Jadidai havodis» (1840), «Tarjimoni ahvol» (1860)[121], «Tasviri afkor» (1862) kabi gazetalar chiqa boshladi. Parlament g'oyasi, shohning huquqlarini cheklash haqidagi fikrlar o'rtaga tushdi. Monteske, Russolarni davlat va jamiyat haqidagi fikrlari tez-tez aytila boshladi. Hurriyat, vatansevarlik g'oyalari yoyildi. Biroq isyonlar to'xtamadi. Chamasi, bundan ham katta va keskin o'zgarishlar, muhim, g'oyalari kerak edi. Shu orada 1876-yilning 30-mayida Abdulaziz taxtdan ag'darildi. Uning o'rniga kelgan 5-Murod o'sha yili 23-dekabrda tarixga 1-mashrutiyat nomi bilan kirgan Usmonli qonuni asosiysi (Konstitusiyasi)ni e'lon qildi. Ko'p o'tmay, hokimiyat 2-Abdulhamidga o'tdi. 1877-yilning 19-martida Do'lmaboqchada Parlament ish boshladi. Biroq hokimiyatning uquvsizligi tufayli mamlakat yana urushga tortildi. Rusiya urush e'lon qildi. Bolqonning katta qismi qo'ldan ketdi. Parlament a'zolari aybdorlarni jazolashni talab qilib chiqdilar. Hukumat Parlamentni tarqatdi. Yana absolut monarxiya o'rnatildi. Biroq jamiyatni yangilash g'oyasi davom etdi. Chora izlandi. Yangi-yangi g'oyalar o'rtaga tushdi.

Chora sifatida dastlab usmonchilik g'oyasi dunyoga keldi. Unga ko'ra, saltanatdagi barcha xalqlar vatan bayrog'i ostida birlashmoqlari va shu asosda yangi millat — usmonli millati

[121] Turkiyada milliy matbuot kuni (21-oktabr) shu gazetaning nashr kunidan olingan.

shakllantirilmog'i lozim edi. Bu g'oyaning ziyolilar orasidan ham tashabbuskorlari yetishdi. Ularning ayrimlari hukumatdan ayri, hatto, unga muxolif holda harakat qildilar. Jumladan, 1865-yilda tuzilgan, asoschilaridan biri mashhur adib Nomiq Kamol bo'lgan «Yosh usmonlilar» yashirin jamiyati shundaylardan edi. Bu g'oyani ilgari surganlar, hatto uning yordamida Usmonli davlatining qo'ldan ketgan hududlarini ham tiklab olmoqchi bo'ldilar. Tarixda bundaylar bo'lgan. Masalan, «amerika millati» degan tushuncha bor. Turli irq va dinga mansub millatlardan tashkil topgan. Yo bo'lmasa, yaqin tariximizdagi «sovet kishisi» istilohini oling. To'g'ri, yasama edi. Zo'rlik bilan yasalgan edi. Tarqalib ketishiga ham sabab, ehtimol, shudir. Lekin shunday hodisaning bo'lganligi fakt. Usmonli ham millat emas, davlat oti. To'g'rirog'i, Kichik Osiyodagi turk davlati quruvchisining oti. Sulton 2-Mahmud bir tomondan, idora usulini isloh qilishga kirishdi, ikkinchi tomondan, barcha uchun vatan g'oyasini ilgari surdi. «Men tabaamning musulmonini jomeda. xristianini kalisoda, musoviysini sinagogda farqlayman. Oralarida boshqa bir farq yo'q. Muhabbatim va adolatim hammalariga ham ulkandir. Barchasi menga chinakam avloddir», — dedi va imperiyadagi jami millatlarning har jihatdan tengligini e'lon qildi[122]. Usmonchilik g'oyasi ijtimoiy-ma'naviy hayotda ma'lum ko'tarilish yasaganday bo'ldi. Nomiq Kamol, Ziyo Posho kabi mashhur ijodkorlarni yetkazdi. Mashrutiyat — Konstitusiyaning e'loni shuning samaralaridan edi. Biroq din va millat unsurining muhimligi o'zini ko'rsatdi. Usmonchilik yurishmadi. Uning o'rniga islomchilik keldi.

* * *

Mutaxassislarning fikriga qaraganda, bu jarayon Sulton Abdulaziz saltanatining (1861—1876) so'nggi davrlariga to'g'ri keladi. 2-Abdulhamid davri (1876—1909)da esa u rivoj topdi. Uning mohiyati Usmonli saltanati doirasida musulmonlarni birlashtirmoq va shu orqali buhronga botib borayotgan imperiyaga yangi hayot, yangi ruh baxsh etmoq edi. Ma'lumki, din va millat Sharqda g'oyat muqaddas sanaladi. «Din va millat

[122] Otaturk ilqolari va inqilob tarixi. Anqara, 1994,49-b.

birdir» degan naql har bir musulmonga kichikligidan tanish. «Islomiyatning buyuk bir qoidasi din e'tibori ila millatdir»[123] — deb yozgan edi Ismoilbek Gasprali. Xullas, «Davlati oliyayi Usmoniya»da islomchilik keng tomir ota boshladi. Birgina Usmonli davlatida emas, boshqa joylarga ham yoyildi. Ismoilbek Gaspralining qarashlari mana shu islomchilik ta'sirida shakllandi.

Buning sabablaridan biri, ehtimol, Usmonli davlatining islom mamlakatlarini zabt etib, sultonning o'zini islom olami hukmdori, xalifa hisoblab kelganligi ham edi. Usmonli saltanatida islom birligi g'oyasining paydo bo'lishini mutaxassislar ancha ilgaridan—Sulton Salim davri (1512—20)dan boshlaydilar. «Ittihodi islom» («Islom birligi»), «Ittihodi din» («Din birligi»), «Uhuvvati din» («Din qardoshligi») tushunchalari XIX asrgacha ham bor edi va Usmonli davlatining O'rta Osiyo xonliklari, Hindiston bilan aloqalari ko'proq shu asosda kechardi. Lekin tanzimot islomchilikni yangi bosqichga ko'tardi. U davlatning izchil rasmiy siyosatiga aylandi. Va bunda muhim rolni 2-Abdulhamid o'ynadi. Islomchilik asta-sekin jamiyatning yetakchi g'oyalaridan biriga aylana bordi. Akademik V.A.Gordlevskiy dunyoqarashi usmonchilik bilan shakllangan Nomiq Kamolning «Jaloliddin Xorazmshoh» dramasida ham islomchilikni ko'rgan edi[124]. Shuningdek, uning fransuz sharqshunosi Ernst Renonning islom dini haqidagi tanqidiy chiqishlariga javoban yozgan «Renon mudofaanomasi» (1880) risolasi islomchilik g'oyasining maydonga kelishida muhim omillardan bo'lgan. Lekin baribir mutaxassislar ko'proq Jamoliddin Afg'oniy (1839—1897)ni uning asoschisi deb hisoblaydilar.

Masalaning tarixi quyidagicha edi: 1789-yilgi Fransuz inqilobi jamiyat taraqqiyotida millatning roli alohida ekanligini namoyish etdi. 1793-yil esa uni mamlakat taqdirini hal qiluvchi kuchga aylantirdi. Shiddat bilan millatchilik g'oyasi shakllandi. «Eski zamonlarda millat so'zi yo'q ekan, — deb yozadi Jalil Mamadqulizoda. — Millat kalimasi Eronda yo'qdir. Qancha qomuslarni varaqladim, qancha xalq orasida yurdim, millat so'zini eshitmadim, ko'rmadim... Millat so'zi lozim joyda «shaxs»

---

[123] «Tarjimon»g 1907, 10-mart, 52-son.

[124] В.А.Гордлевский Избранные научные труды в 2х томах, т. 2. — М.: 1963, 364-с

yozadilar, «ashxos»(shaxslar)» deydilar[125]. U XVIII asr oxirlarida Fransiyada qo'zg'oldi, deb ma'lumot beradi Jalil Mamadqulizoda.

Turkiyadagi tanzimot tufayli ming-minglab yoshlar Ovrupoda, xususan Fransiyada o'qidilar va millat bilan bog'liq tushunchalarni olib qaytdilar.

Jamoliddin Afg'oniy 1870-yilning 20-fevralida Istanbul dorilfununining ochilishi marosimida nutq so'zlar ekan, shu so'zlarni aytadi: «qardoshlarim, basirat ko'zlarini oching, ibrat ko'zi bilan boqing, g'aflat uyqusidan uyg'oning! Shuni bilingizki, islom millati martabasiga ko'ra eng quvvatli, qiymatiga ko'ra eng qadrli edi. Aql, daroyat, farosatda g'oyat yuksak edi... So'ng-so'ng millat rohat va tanballikda qoldi... U darajadaki, ezgulik nurlari so'nayozdi, maorif bayroqlari tushayozdi, iqbol quyoshi tutilmoqqa yuz tutdi. Islom millatining ayrimlari boshqa millatlar istilosiga tushdi. Ularga xorlik kiyimini kiydirdilar... Allohga shukr, uyg'onish boshlandi... fursatni bermaylik, kechmishlarning sharafini, kelajak nasllarning huquqlarini zoe etmaylik...»[126]

Afg'oniyning bu chiqishida mutaxassislar yangi davrdagi islomchilikning ilk namunasini ko'radilar.

Shu o'rinda islomchilikning yana bir qirrasi – «raddiya adabiyoti» haqida ham ozgina to'xtab o'taylik. Taraqqiy qilgan Ovrupo davlatlarining tanazzuldagi islom olamiga kirib borishi, o'z navbatida, bu ikki madaniyatning o'zaro munosabati masalasini o'rtaga qo'ydi. Buhronning sabablarini aniqlash, istiqbol rejasini belgilash zarurati tug'ildi. Jumladan, Hindiston va Misrda bu borada muayyan qarash shakllandi. Uning mohiyati quyidagicha edi: Islom madaniyati o'z vaqtida vahshoniyat va badaviyat holidagi qavmni dunyoning eng yuksak saltanatlaridan birining egasiga aylantirgan edi. Binobarin, bu millatning orzusi kelajakda emas, o'tmishda. Shu sababli, G'arbdan andoza olish emas, kechmish sari saodatga qaytib, o'shani yangidan yashartmoq kerak[127]. Ushbu nuqtai nazar «raddiya», unga doir asarlar esa «raddiya adabiyoti» nomini oldi.

---

[125] Turk dunyosi adabiyoti. 2 jildlik, 2-jild, Anqara, 1996, 46-b.
[126] Mumtoz Er-Turkune. Jamoliddin Afg'oniy. Anqara, 1994, 25–26-bb
[127] Yuqoridagi asar, 45-bet

70-yillarda Darvinning tadrijiylik ta'limoti, ayniqsa, odamning paydo bo'lishi haqidagi nazariyasidan so'ng bu adabiyot shiddat bilan rivoj topdi. Shu jumladan, 1881-yilda Jamoliddin Afg'oniyning «haqiqati mazhabi neychiri va bayoni hol neychiriyon» («Tabiatchilik mazhabining haqiqati va tabiatchilar holining bayoni») risolasi maydonga keladi. Muallif olimlarni Allohga iymoni jihatidan ikkiga bo'ladi. Faysog'urs (Pifagor), Suqrot, Arastu, Aflotunlarni Allohga iymon keltirganlar, Demokrit, Diogen, Epikurlarni iymon keltirmaganlar sirasiga kiritadi. Afg'oniy fikricha, Mazdak va uning davomchilari sotsialist-kommunistlar ham keyingi siraga mansubdirlar. Risolani shogirdi Muhammad Abduh (1849–1905) «Ar-radd addahriyyun» nomi bilan arabchaga tarjima qiladi.

Afg'oniyning islomchilik fikrlari ko'proq E.Renon bilan bahslarda shakllandi. Xususan, 80-yillarning boshida Renon Sorbonna universitetida «Islom va ilm-fan» mavzuida ma'ruza o'qiydi. Ma'ruzadagi bosh fikr»islom ilmiy taraqqiyotga to'siq bo'lgan bir dindir» degan islomni rad etuvchi g'oyaga kelar, islomning jahoniy ilm-fanini islomdan tashqari tutar edi. Bunga dastlab N.Kamol javob berdi. Uning mudofaanomasi shunday boshlanar edi: «Inkvizatsiyaning razolatini tanqid eta-eta barcha yaramasliklarni dinga bog'langan va har bir dinni shundan kelib chiqib baholovchi bir munkir, buning ustiga da'vo qiladigan mavzuini o'zi bilmaydi... Bu qanaqasi, bir Sharq tillari mutaxassisi, akademiya a'zosi islomiyatni bilmasa,?! Bilmaydi! Ovrupo Sharqni bilmaydi!...[128]

Renon ma'ruzasi» Des debats» jurnalining 1883-yil 29-mart sonida bosilib chiqdi. Renon Afg'oniyning fikrlaridan ilhom va ta'sir olganini aytdi, yon bergandek bo'ldi, biroq asosiy fikridan qaytmadi. «Musulmonlarni dindan qaytarmoq ularga qilinadigan eng buyuk xizmatdir» deb yozdi va islomni «bo'yinturug'» deb tasvirladi. Afg'oniy unga keskin raddiya bilan javob berdi. Va bu javob «Des debats»ning o'sha yil 16-may sonida bosildi. So'ng Turkiyadagi Parij elchixonasi kotibi Ibkur Reshod Ali Farrux, Peterburg imomi va mudarrisi Atoulloh Boyazidov raddiyalari paydo bo'ldi. Ularning barchasida islom ilmga to'siq bo'luvchi emas, rivoj beruvchi manba deb qaraldi. Bugungi Ovrupo o'z ilm-fani va madaniyatining asoslarini islomdan olgan degan fikr

[128] Yuqoridagi asar, 53-bet

ilgari surildi. Ilmiy bahs ko'p-da siyosat bilan yonma-yon kechdi. Buning bosh sababi kapitalistik Ovruponing islom olamiga tajovuzi, o'z asriy an'analari, turmush tarzi bilan yashayotgan musulmonlarning mol-mulkidan haq-huquqlarigacha tortib olinayotganligi edi. Shunday holda musulmonlarning qandaydir g'oyaga tayanib o'zliklarini birlashib himoya qilishga urinishlari tabiiy edi. Shunday kuch din, e'tiqod bo'ldi. J.Afg'oniy 70-yillarning oxirida Qohirada ekan, Sulton Abdulhamidga bir xat yozadi. Abumuslim va Keshish Pier nomlarini tilga olib, sultonga o'rnak tutmoqchi bo'ladi. Ularning biri Muoviya islom saltanatiga «davlati botil» sifatida urush e'lon qilgan va nomi rivoyatlarga ko'milgan sarkarda bo'lsa, ikkinchisi turk saljuq futuhotiga qarshi uyushtirilgan salib yurishlarining rahnamolaridan edi. Afg'oniy bu ishda yordamchi bo'lishni o'zi uchun sharaf hisoblaydi. Hatto qiladigan ishlarining ko'lami va mazmunini ham belgilaydi. Masalan, uningcha, ishni Hindiston musulmonlari orasida islom birligi g'oyasini tashviq etmoqdan boshlash kerak. Ular katta mol-mulk egalari, davlatmand, ayni paytda islomga sadoqatli va fidoyi, lekin birlik nimaligini bilmaydilar. Ular orasiga ehtirosli olimlar yubormoq kerak, shahar-qishloqlarning jomelarida jozibali xutbalar o'qib, qalblariga o't yoqmoq kerak. Bu harakat Hindistonda boshlansa, islomchilik, birinchidan, moddiy kuchga ega bo'ladi. Ikkinchidan, ruslarning janubga siljishlariga to'siq. «Ittihodi tomm-i islomiya» (butun islom birligi)ning asosi maydonga keladi.

So'ng Afg'oniy Afg'onistonga o'tmoqchi, shimoldan oqib kelayotgan rus selining mohiyatini va oqibatlarini ta'sirchan bir til bilan tushuntirib, xalqni «jihod»ga, «muhorabai diniya va mujohadai diniya»ga chorlamoqchi, «tajribali, bilimdon, aqlli ulamolardan yashirin ravishda Qo'qon va Buxoroga yuborib, vaziyatni tushuntirib bermoqchi», turkmanlar boshiga borib, «turklik sharafini» anglatmoqchi, Koshg'ar va Yorkentga kishilar yuborib, «ittihodi islom» bayrog'ini baland ko'tarmoqchi bo'ladi. Uningcha, Qo'qon, Buxoro, Shahrisabz xalqi, turkmanlar, albatta ko'tariladilar. Ularning ruslarga bo'yinsunganliklari ojizlikdan emas. Ular mustabid amirlari, tajovuzkor hukamolari tufayli mag'lub bo'ldilar. Ular muqaddas din yo'lida qo'zg'alsalar, albatta yengadilar[129].

[129] Yuqoridagi asar, 78–86-betlar.

Mumtoz Turko'nening fikricha, Afg'onistonning Abdulhamidga murojaati uning Turkiyani bu borada uyushtiruvchi bo'la olishini umid qilganlikdandir. Sulton Abdulhamidning xotiralaridan ma'lum bo'lishicha, u Afg'oniyni ig'vogar, ingliz ayg'oqchisi deb qaragan, ishonmagan. Qolaversa, Ovrupo mamlakatlaridan ketma-ket zarba yeb, saltanati to'zib borayotgan Turkiyaning jihod bayrog'ini ko'tarib, musulmonlarni Rusiyaga qarshi boshlab borishga holi ham, toqati ham yo'q edi. Demak, islomchilik, panislomizmning siyosiy jihatdan amalga oshishiga asos yo'q edi. Bu hol islom dunyosining Ovrupo imperialistik tajovuzidan birgalikda o'zlarini himoya qilishlariga xalaqit bermadi. Rusiyaga tobe turk mintaqalarida shunday bo'ldi. Hindistonda shunday bo'ldi. Javoharla'l Neru Hindistonning mashhur shoiri Muhammad Iqbol ijodi munosabati bilan bunday yozgan edi: «Uning shuhrati she'rlarining go'zalligi bilan izohlanadi, albatta. Lekin undan ham ko'proq bunga shu narsa sabab bo'ldiki, shoir musulmonlarning qandaydir ishonchli ma'naviy suyanchiqqa ehtiyojini qondirdi... Millatchilik aslida Osiyoda hukmron kuch bo'ldi: boshqa mamlakatlardagi kabi Hindistonda ham ingliz hukmronligiga qarshi necha bor ko'krak kerib chiqqan qudratli millatchilik harakati paydo bo'ldi. Bu millatchilik Hindistondagi musulmon aql egalari uchun katta tortish kuchi bo'lib xizmat qildi va musulmonlarning juda katta qismi ozodlik uchun kurashda yetakchi rol o'ynadi»[130].

Islomchilikka munosabat Rusiyada XX asrning boshlaridan ko'zga tashlanadi. «Tarjimon» gazetasining 1909-yil 10-sonida rus tilida deputat Sadri Maqsudiy[131] ning Davlat Dumasidagi nutqi bosilgan.

Ma'lum bo'lishicha, o'z davrida N.I.Ilminskiy (1822–1891) kabi shovinist turkologlar tufayli missionerlik o'chog'i sifatida shuhrat qozongan qozondagi Diniy akademiya rektori hazrat

---

[130] Ko'chirma N.I. Prigarinaning «Poetika tvorchestvo Muxammada Ikbala» (–M.. «Nauka», 1978) kitobidan (5-bet) olindi

[131] Sadri Maqsudiy (1879–1957)-davlat va jamoat arbobi, tarixchi va huquqshunos. Qozonda tug'ilgan, Parijda Sorbonna universitetining huquq fakultetida o'qigan (1902–1906), dars bergan (1918) Har to'rt Davlat Dumasiga a'zo. 1917-yildagi Tatariston hukumatining tuzuvchilaridan 1925-yilda Otaturk taklifi bilan Turkiyaga borib yashab qolgan 77-yillik hayotining 34-yilini Rusiyada, 11-yilini Fransiyada, 32-yilini Turkiyada o'tkazgan. Bir necha marta Turkistonda bo'lgan.

Alekseydan 1908-yilning so'nggi oylarida Rusiya Ichki ishlar vazirligiga **«Rusiya musulmonlari orasida zamonaviy harakatlar» mavzuida uzun bir ma'lumotnoma tushgan va unda musulmonlar orasida panislomizm** (ta'kid bizniki – B.Q.) degan bir narsa yoyilayotganligi aytilgan. Hukumat shu munosabat bilan g'ayridinlarning diniy ishlari departamentida musulmonlar harakatini o'rganuvchi alohida Hay'at tuzgan. Bu, S.Maqsudiy iborasi bilan aytganda, musulmonlar milliy harakatchiligiga qarshi tadbir ishlab chiqish komissiyasi edi. Rusiya musulmonlari orasida maktablar ochilayotganligi, gazeta-jurnallar chiqa boshlagani, «panislomizm» deb qo'yilgan aybning bosh dalili sifatida keltirilgan edi.

S.Maqsudiy 1905-yilgi manifestga qadar, xususan ruslashtirish avjiga chiqqan Pobedonossev[132] zamonasida maktablarimizga yo'l berilmagani, yopib qo'yilgani haqida to'xtaladi va «Ivan Grozniyni o'tkazdik, sizga ham chidaymiz. Din va millatni ajratib bo'lmaydi» deb gapini tugatadi.

Sadri Maqsudiy 1912-yilda 3-Dumaning yig'ilishlaridan birida yana bu masalaga qaytadi. «Vaqt» (1912, 955-son)da bosilgan nutqidan parcha keltiramiz: «...Takror aytaman, afandilar, bizda davlatga qarshi hech bir harakat yo'q. Bizda faqat bir tilak bor, u ham bo'lsa, ulug' Rusiya imperiyasining komil huquqli hur grajdani bo'luvni tilashdan iboratdir... O'ylaymanki, bizning milliy turmushimiz bilan Rus davlati orasida bir-biriga xilof kelarlik ish yo'q. Biz har vaqt Rusiya davlatining olg'a boruvini, zo'rayuvini tilovchi Rusiya grajdani o'laroq mamlakatimizning umumiy ishlarinda birga yurajakmiz. Lekin o'zimizning oila va millatimiz ichinda. Aslofamizning bizga meros va vasiyat qilib qoldirg'an muqaddas narsalarini saqlagon holda dunyoda yasharg'a, asrlardan beri uyushqon milliy ruhimiz tilagan ravishda dunyoda yasharg'a bizga erk bering». Panislomizm aybi bilan saltanatdagi turkiy xalqlar huquqlarini cheklash va ruslashtirishning kuchayib borganini payqash qiyin emas.

Rusiya musulmonlarining diniy va milliy huquqlarini millatlar erkinligi haqida ayuhannos solgan bolsheviklar ham rad etdilar. Lekin islomchilik (panislomizm)ni «imperializmga qar-

[132] Pobedonossev K.P. (1827–1907) — imperator III-Aleksandr (1845–1894)-ning bino qo'ygan yuristlaridan 1880–1905-yillarda Sinodning ober-prokurori bo'lgan.

shi ozodlik harakatini xonlar, pomeshchiklar, mullalar va shular kabilarning pozitsiyasini mustahkamlash bilan birga qo'shish»ga urinish deb hisobladi va unga qarshi kurashga chaqirdi. O'ng va so'l kuchlarning bu kurashi Turkistonda Oktabr voqealarigacha jadal kechdi.

Aslida, islomchilik siyosiy ma'noda imkonsiz bo'lishidan tashqari, ushbu e'tiqodga mansub millatlarning ehtiyojlarini bekamu ko'st bajara olmasdi. Avvalo, u milliy xususiyatni nazardan soqit qilgan edi. Shunga qaramasdan, u musulmon mamlakatlarining imperialistik tajovuzdan birlashibgina saqlanishlari mumkinligini amalda isbot qildi. Ularning ijtimoiy-siyosiy qarashlarinigina emas, adabiy-estetik tafakkurini ham yaqinlashtirdi.

Mutaxassislar musulmon olamining, unga poyama-poya tadrijiy kirib kelayotgan G'arb madaniyatiga munosabatida 3 bosqich ko'radilar:

1. Taassub. Qarb bilan bog'liq hamma narsani rad etish.

2. E'tirof. Qarbning ko'p masalalarda ustun kelayotganini tan olib, javob qila boshlash, muqobil tizim yaratishga urinish.

3. Ergashish.

Ikkinchi bosqichdan e'tiboran G'arbda «modern islom» (zamonaviy musulmonlik) tushunchasi paydo bo'ldi. Zamonaviy musulmonlik har bir ehtiyojni o'rinlatmoq, islomni zamonaviy taraqqiyot uchun ochiq bo'lgan aqlga uyg'un din sifatida e'tirof etmoq, G'arbning fan-texnika va madaniyatining ayrim sohalarida ilgarilab ketganiga iqrorlik, undan o'rganishdan qochmaslik, nihoyat, islomning G'arb «natsionalizm»i singari milliyatchi mafkuraga aylanganini ko'zda tutar, so'nggi 150 yil davomida istifodada kelayotgan bu tushuncha va atama, birinchi galda, Jamoliddin Afg'oniy nomi bilan bog'lanar edi. Chunki XIX asrda o'zining oltin asrini boshidan kechirayotgan Ovruponing islom dunyosiga nopisand munosabatini birinchilardan bo'lib payqagan va u bilan oqilona hamda o'z sha'niga munosib musobaqa-kurashni boshlab bergan shu kishi edi[133].

Juz'iy tafovutlarni hisobga olamaganda, islomchilik bosib o'tgan yo'l, xususan yuqorida qayd etilgan uch bosqich, butun islom olamiga, shu jumladan Turkiston uchun ham xos edi.

---

[133] Mumtoz Er Turko'ne. Jaloliddin Afg'oniy, Anqara, 1994-y.

* * *

Turkchilik islomchilikdan keyin paydo bo'ldi. 2-Abdulhamid mashrutiyatining ilk yillaridan shakllana boshladi. Turk tilining 1876-yilgi Usmonli Asos qonuni (Konstitusiyasi)ning[134] 18-modda-sida rasmiy til sifatida qayd etilishi, ehtimolki, uning dastlabki belgilaridan edi. Turkchani rasmiy davlat tili deb e'lon qilish ilgari ham bo'lgan. Masalan, 1277-yilda elxoniylar davrida «dargohda, borgohda turk tili ila» so'zlashmoq va devon ishlarini yuritmoqqa farmon berilgani ma'lum. Shunday bir ish Sulton Husayn Boyqaro tomonidan ham amalga oshirilgan edi. Bu ishlar keyin, Sho'ro zamonasida ham bo'lgan. 1921-yilda Turkiston muxtor sho'ro respublikasida va Buxoro xalq respublikasida ham «turk tili — davlat tili» deb e'lon qilingan. Mirmuhsin Shermuhamedovning «hukumat tili—turk tili»[135] degan maqolasi ham bor. Lekin gap shundaki, Sho'rolar davridagi bu xil qarorlar reallikdan uzoq bo'lib, ko'z-bo'yamachilikdan boshqa narsa emas edi. Shunga ko'ra, 1876-yildagi voqea millatning ko'tarilishiga, uyg'onishiga xizmat qilgan bo'lsa, 1921-yildagi qarorlar «xo'ja ko'rsin»ga edi.

Turkchilikning nazariyotchilaridan biri Yusuf Oqchura[136] fikricha, Usmonli turk davlatining manfaatlariga har jihatdan uyg'un keluvchi birdan-bir g'oya turkchilikdir. Chunki usmonchilikda turkiy millat azaldan qadrlab kelgani din va millat unsuri yo'q. Islomchilikda millat chetda qoladi. Ikkinchidan, mamlakatdagi xristianlar begonaga chiqariladilar. Turkchilik ham usmonli davlati aholisining hammasi manfaatini o'z himoyasiga

---

[134] Ushbu konstitusiyani tayyorlashda Midxat Posho, Nomiq Kamol kabi o'z davrining mashhur ma'rifatchilari va adiblari ishtirok etgan edilar. Konstitusiya 1876-yil 23-dekabrda tantanali e'lon qilingan. Parlament 2 bosqichli (25 kishilik-yuqori, 130 kishilik-quyi) bo'lib, 1877-yil 19-martda Do'lmaboqcha saroyida 2-Abdulhamid nutqi bilan ochilgan. 1877-yil rus-turk urushidagi mag'buliyat munosabati bilan tanqidlar boshlangach, 1878-yil 14-fevralda tarqatilgan. Mazkur davr Turkiya tarixida Birinchi mashrutiyat nomi bilan mashhur.

[135] «Qizil bayroq» g., 1921-y., 64-son.

[136] Yusuf Oqchura (1876—1935) Simbirda tug'ilgan, 1892—96-yillarda Istanbul harbiy maktabida, so'ngroq Parijda Sorbonna universitetida o'qigan. 1905—1908-yillarda Qozonda yashadi. Istanbulga qaytib mashhur shoir Mehmed Emin Yurdaqul (1869—1944) bilan birgalikda 1911-yilda «Turk yurdu» jurnaliga asos soladi va 1917-yilgacha muharrirlik qiladi. 1932—1935-yillarda Turkiyadagi Tarix qurumini boshqaradi.

olmaydi (shuning uchun ham u siyosiy mavqega erishmadi), asosiysiga tayanadi. Qolaversa, uning kelajagi bor. Rusiya qo'l ostidagi turkiy olamga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yusuf Oqchura turkchilik haqidagi bu fikrlarini dastlab 1904-yili Qohirada chiqadigan «Turk» gazetasida e'lon qilgan «Uch tarzi siyosat» maqolasida o'rtaga tashladi. Parchalanib borayotgan Turkiyani faqat turkchilik bilangina halokatdan saqlab qolish mumkin deb hisobladi. Maqola o'z davrida juda katta ahamiyat kasb etdi. Ingliz tadqiqotchisi Charlz Xostler uning turk dunyosi uchun o'ynagan rolini 1848-yildagi Kommanifestning marksizmdagi o'rni bilan taqqoslaydi[137]. Bunday mug'oyasa mubolag'adan xoli bo'lmasa-da, voqelikdan ham u qadar uzoq emas edi. Masalan, Rusiyada g'ayrirusligi uchun xo'rlanib kelayotgan turklarda birlashish va o'zini himoya qilishga juda katta ehtiyoj bor edi. Ularning til, tarix, din asosida bir-birlariga yaqinlashishlari g'oyat o'ng'ay edi. Shuning uchun ham bu g'oya, ya'ni turk millati degan tushuncha juda qisqa muddatda Kavkaz, Volgabo'yi, Turkistonni qamrab oldi. Aslida u yangi emas edi. Qadim-qadimdan, hatto, Navoiy zamonasidan «turk ulusi» degan tushuncha joriy edi. Lekin zamonlar to'fonida u potrab, sochilib ketdi. Boshqa millatlar tarix sahnasiga chiqib, sochilib ketgan turk qavmlari har qayda «yolg'iz ot»ligini his qila boshlagach, o'zaro yaqinlashishga ehtiyoj kuchayib bordi.

Zaki Validiy turk-islom millatlari muhofazasining bu ko'rinishlariga to'xtalar ekan, shunday yozadi: «Siyosiy panislomizm» Ovrupo imperialistlarining vahimalaridan boshqa narsa emas va uning Turkistonda birôrta jiddiy tarafdori yo'q. «Panturkizm» esa Ovrupoda pangermanizm va panslavizm jarayonlari orasida yakkalanib qolgan majorlar tarafidan ilgari surilgan. «Panturkizm» fikri dastlab major Vamberi tomonidan 1868–1874-yillarda ilgari surilib, Angliyaning O'rta Osiyoda ruslarga qarshi kurashda Usmonli saltanatini o'ziga ittifoqchi qilib olish maqsadini ifoda etardi[138]. Lekin bu ham muallif

---

[137] Ch.V.Xostler. Markaziy Osiyo turklari. London, 1993, 114-b. Ko'chirma «Turk respublikasi davlatining qurilishi va rivojiga xizmat qilgan Turk dunyosi ziyolilari simpoziumi materiallari» (g'aysari, 1996, 103-b.)dan olindi.

[138] Zaki Validiy To'qon. Bugungi turk eli Turkiston va yaqin tarixi. 2-nashri, Istanbul, 1981, 561–562-betlar.

ta'kidlaganidek, xom xayol edi. Faqat madaniy birlik haqidagina gap bo'lishi mumkin edi. Shu ham muhim edi.

Ziyo Ko'k Alp (1876–1924) «Turkchilik asoslari» kitobida mazkur g'oyaning Turkiyada shakllanishida Ahmad Vefiq Posho (1823–1891) va Sulaymon Posho (1838–1892)larning xizmati katta bo'lganini qayd etadi[139]. Turkchilikning shakllanishida g'ayriturklarning ham roli bo'lgan. Bu borada Vamberi yagona emas. Ziyo Ko'k Alp 1896 yilda ilk bor Istanbulga kelganida fransuz tarixchisi Leon Jaxun (1841–1900) ning o'sha yili chop etilgan «Osiyo tarixiga kirish. Turklar va mo'g'ullar» kitobi unga qattiq ta'sir ko'rsatgan va shu taassurotlar asosida «Turon»[140] she'rini yozganini ma'lum qiladi[141]. L.Jaxunning bu kitobi birgina Parij emas, Rusiya turklari orasida, xususan Turkistonda ham keng tarqalgani kuzatiladi. Zaki Validiy bu kitobning ruscha tarjimasini hoshiyalarida o'quvchilar tomonidan qilingan qaydlari bilan turkistonliklar xonadonlarida uchratganini xabar qiladi[142]. Turkchilikning mohiyatini quyidagilar tashkil etadi:

a) turkiy xalqlarning kelib chiqishi bir;

b) ular dunyoning eng qadim millatlaridan;

d) ular dunyoning eng madaniyatli millatlaridan;

e) bugungi zalolat va jaholat ularning sha'niga nomunosib;

f) bugun ular zamon bilan baravar qadam tashlamoqlari kerak, ya'ni: o'zlarini anglamoqlari, bir-birlariga suyanmoqlari, eski sha'n-shavkatlarini tiklamoqlari lozim. Ziyo Ko'k Alp fikricha, turkchilik «turk ulusini yuksaltirmoqdir», unda boshqa, ikkinchi bir millatning nafsoniyatiga daxl qiladigan ikkinchi ma'no yo'q.

Madaniy birlik g'oyasiga ehtiyoj katta bo'lganligi tufayli u tez yoyildi. Biroq uning hal etilishi lozim bo'lgan masalalari

---

[139] Ahmad Vefiq Poshoning turkparastligi mutaassibona bir darajada bo'lgan (Tehron, Parijda elchilik qilgan, ma'lum vaqt parlamentni boshqargan davlat arbobi «uyimga turk molidan boshqa biror narsa kirishi mumkin emas», deb qizining Ovrupo tuflisini olishiga yo'l qo'ymagan) ekan. Sulaymon Posho turkiy tarixni Xitoy manbalari orqali o'rganib, xunn (xi-ung-nu) davlati va uning asoschisi O'g'uzxon (Mete) haqidagi ma'lumotlarni usmonli tarixida ilk bor ilmiy iste'molga kiritgan kishidir. Qarang. Ziyo Ko'k Alp, Turkchilik asoslari, 3-nashri, Istanbul, 1987, 6-bet. Yana q. shu asar. Kitobda: «O'zbegim». – T.: 1992, 30–37-bet.

[140] Unda «Vatan na Turkiyadir turklara, na Turkiston, Vatan buyuk va muhabbat bir o'lkadir Turon», – degan satrlar bor edi.

[141] Ziyo Ko'k Alp. Turkchilik asoslari, 9–11-bb.

[142] Zaki Validiy. Bugungi turk eli — Turkiston va yaqin tarixi. 563-b

chiqib qoldi. Shulardan biri til masalasi edi. Gasprali «Tarjimon»i bilan barcha turkiy xalqlar uchun tushunarli bo'lgan o'rta turk tilini yaratishga harakat qildi. Qozon matbuotida tabiiy ravishda tatar til xususiyatlari yaqqolroq aks eta bordi. Turkiston matbuotida ham an'anaviy chig'atoy adabiy tilidan chekinish, davr bilan baqamti qadam tashlash sezila bordi. Turkiyada esa Istanbul turkchasi umumturk adabiy tili sifatida e'lon qilindi. Davr o'z tahririni kiritib bordi, albatta. Umumiy adabiy tilni yaratish imkoni bo'lmadi. Lekin til masalasida barcha turkiy mintaqalar uchun umumiy bo'lgan bir hol bor edi. U ham bo'lsa, tilni o'z imkoniyatlari asosida rivojlantirishga harakat qilish, chet so'zlarni iloji boricha kamroq olish. Umuman, yaxshi maqsadni ko'zda tutuvchi bu xatti-harakat ayrim paytlari ayrim joylarda tilni tozalash (purizm) darajasiga ko'tariladiki, bu milliy til ravnaqiga ma'lum darajada zarar yetkazdi. Shunday bir hol adabiyot masalalarida ham ko'zga tashlandi. Masalan, hijo (barmoq) vazni turkchilikning muhim jiddiy masalasi sifatida kun tartibiga qo'yildi[143].

«Aruz vazni inqilobgacha jadid adabiyotida ham she'r vazni edi. Bunda diqqat yetarlik bir nuqta bor, — deb yozgan edi Abdurauf Fitrat. — Bizda jadidizmning birinchi davri panislomizm bayrog'i ostida yurdi. Jadid adabiyotining aruz vazni bilan yozilishi mana shu davrga to'g'ri keladi. Bora-bora panislomizm, panturkizm, o'zbek millatchiligi bir-biridan ayrim xatti-harakatlar tarzida ajraladi. Men bularning uchini ham o'tkanman va juda yaxshi eslaymanki, panislomizm bilan o'zbek millatchiligining adabiyotdagi in'ikoslaridan birtasi vaznda aruz va barmoq tarafdorligi shaklida ko'ringan edi. O'zbek millatchiligi barmoq vaznini yoqlaganda, panislomizm aruz tarafdori edi. Bu masalada panturkizmning o'zbek millatchiligi bilan bir safda turganini aytishga hojat yo'q. Men shu vaqtlarda o'zbek tor millatchiligi nuqtai nazarida qaror topgan edim va shu jihatdan barmoq vaznini yoqladim. Barmoq vaznida she'rni boshlab Cho'lpon yozdimi? Men yozdimmi? — esimda yo'q, faqat shunisi aniqki. barmoq vaznini nazariy jihatdan yoqlab chiqqan birinchi o'zbek millatchisi men edim. Juda yaxshi

[143] Turk she'riyatida aruzdan barmoqqa birinchi bo'lib o'tgan Abdulhaq Homid (1852–1937) «eved. tarzi qadimi she'ri buzduk, Hersi mere etduk». — deb yozgan edi (В.С.Гарбузова, Поэты Турции XIX в. изд-ва ЛГУ. 1970. 48-б.).

chiqqan birinchi o'zbek millatchisi men edim. Juda yaxshi eslaymanki, panislomist jadidlar bu masala ustida bizga kulardilar. Muso Begiyev[144] ning bir majlisda «imloni o'zgartib, she'r vaznini buzish bilan bizni «islom jamoasi»dan ayirmoq istadilar», — deb qichqirgan tovushi qulog'imdan ketmagan»[145].

Bu yerda bir izohga zarurat bor. Kitob sovetlar mamlakatida sho'roparastlik avjiga minib, adabiyotshunoslik vulgar sotsiologiya botqog'iga botgan, qatag'on mashinasi endi ishga tushirilib, Fitratga matbuotda ming bir ayb qo'yilib kelayotgan bir paytda yozilgan. Adibning fikrlari haqida hukm yuritganda, buni hisobga olmoq kerak bo'ladi.

Tashkiliy qurilishlar yo'lida Ittihod va taraqqiy

Turkchilik Turkiyada muayyan tashkiliy qurilishga ham ega edi. Jumladan, 1889-yil 21-mayda «Ittihod va taraqqiy» jamiyati tuzildi. Jamiyatning Turkiston siyosiy-madaniy hayotiga ham sezilarli ta'siri bo'lganligidan u haqda kengroq to'xtab o'tamiz. Jamiyat yashirin, inqilobiy xarakterda bo'lib, Sulton 2-Abdulhamidning feodal mustabid siyosatiga qarshi turgan, g'arbda «Yosh turklar» deb nom olgan taraqqiyparvar milliyatchi yoshlarni o'z atrofiga uyushtirgan edi. Uning tartib-nizomida, ish usulida Ovruponing ta'siri sezilib turardi. Jamiyatning tub o'zagini Istanbuldagi o'ziga fransuzlarni o'rnak tutgan tibbiya maktabi o'quvchilari tashkil qilgani bunga dalil edi. Jamiyatning ichki tuzilishi Italiya tarixida muhim rol o'ynagan «Karbonariylar»[146] dan olingan. «Ittihod va taraqqiy»ning tashkilotchilaridan Ibrohim Temu bu ish uchun maxsus Italiyaga borib kelgan. Jamiyatga g'ayratli, fidokor, har qanday rohat-faro-

---

[144] Muso Begiyev (1873—1949)-Peterburg mullasi, din olimi, laqabi Jorulloh. 1905—1906-yillarda «Ittifoqi muslimin»ning tashkilotchilaridan, oktabrdan keyin muhojir.

[145] Prof.R.R.Fitrat. Aruz haqida, Fanlar komitetining nashriyoti. — T.: 1936, 22-b.

[146] So'zma-so'z «ko'mirchi» degani bo'lib, XIX asrda Italiyada tuzilgan, milliy ozodlik va konstitutsion tuzum uchun kurashgan yashirin tashkilotning nomi. Murakkab qurilish va ritualga ega bo'lgan. Jumladan, pista ko'mir kuydirish kishining ruhan poklanishini anglatgan. Shuning uchun ular «ko'mirchilar» deb atalgan (SES. — M.: 1985, 545-b.).

g'atdan voz kecha oladigan yoshlargina qabul qilingan. Jamiyatning taniqli vakillarigina nomzod tavsiya etish huquqiga ega bo'lganlar. Qabul ham ancha murakkab va ko'p bosqichli edi. Chunonchi, nomzodning ko'zi xoli bir joyda bog'lanib, aylanma yo'llar bilan lozim yerga keltiriladi. Eshikni chertib, yengil «Muin» (yordamchi!), bir oz so'ng esa uch marta «hilol» deb ovoz beradi. Orqadan bir kishi «Ittihod va taraqqiy» jamiyatiga kirish fikrida hali ham qat'iymisan?» — deb so'raydi. «Ha, qat'iyman!» — deyishi bilan ko'zi yechilib, qop-qorong'u uyga kiritiladi. Oldindan tayyorlab qo'yilgan joyga o'tqiziladi. Narigi tomonda egnida qizil jubba, yuzlarida qora niqob uch odam o'tiribdi. Ular ham nomzoddan jamiyatga kirish fikrining qat'iy-qat'iymasligini so'raydilar. Javob ijobiy bo'lsa, o'tirganlar bilan birga o'rnidan turib, o'ng qo'lini o'ng tomonida turgan Qur'on, chap qo'lini chap tomonidan turgan to'pponcha ustiga qo'ygancha qasamyod etadi.

Shundan keyingina jamiyat a'zosining ko'zi ochilib, niqobli kishilarni ko'radi. Lekin ularni tanimasdan chiqib ketadi. Jamiyatga xiyonat qilgudek bo'lsa, o'ldiriladi[147] .

Jamiyatning faoliyati 1902-yilga qadar yashirin kechdi. Uning 1902-yil fevral va 1907-yil dekabrda bo'lib o'tgan har ikkala kongressi ham xorij (Parij)da o'tdi. 1908 yilda «Yosh turklar» Bolqonda hokimiyatga qarshi hujumga o'tgach, Sulton Abdulhamid 23 iyulda 2-mashrutiyatni e'lon qilishga majbur bo'ldi. 1909-yil 13-apreldan hokimiyat «Ittihod va taraqqiy» qo'liga o'tdi. «Turk yurdu» jamiyati tuzildi. «Turk o'choqlari» ochila boshladi. Lekin notinch zamon, Ovrupo imperializmining Usmonli saltanatini bo'lib olishga bo'lgan so'ngsiz ishtiyoqi voqealarni tezlashtirib yubordi. 1910-yili Albaniyada, 1911-yili Yamanda isyon uyushtirildi. Italiya urush e'lon qildi. 1912-yilning 18-oktabrida Usmonli davlati Bolqon urushiga kirdi. 1913-yil 30 iyunda 2-Bolqon urushi boshlandi. Bu yet-

---

[147] Semix Kansuning «Ittihod va taraqqiychilar» (Istambul, 1960) kitobida keltirilgan bu ma'lumotlar «Otaturk ilqo (prinsip)lari va inqilob tarixi» (Anqara, 1994) kitobidan (55—57-betlar) olindi.

1922-yili Berlinga o'qishga yuborilgan va O'zbekiston mustaqilligini ko'rib vafot etgan Vali Qayumxon o'z xotiralarida Fitratning Berlinga ketayotgan o'quvchilarni Go'ri Amirga olib borib,bir qo'liga Qur'on, ikkinchi qo'liga to'pponcha tutqazib, Vatan va Millatga sodiq qolish haqida qasamyod etdirganini ma'lum qilgan edi.

magandek, mamlakat 1914-yil 16-oktabrda Olmoniya tarafida turib Birinchi jahon urushiga kirdi. Yosh turklarning bu xatolari mamlakat uchun qimmatga tushdi. Usmonli davlati 1918-yilning 30-oktabrida urushdan juda katta yo'qotish bilan chiqdi. Mamlakat Antanta changalida qoldi. 1918-yilning 1 noyabrida «Ittihod va taraqqiy» o'z-o'zini tarqatdi. Ittihodchilar hukumati iste'fo berishga majbur .bo'ldi. So'ng 1923-yil 29-oktabrida «Turkiya jumhuriyati» qurilishi bilan yakunlangan milliy kurashlar davri boshlandi.

Ko'rinyaptiki, «Ittihod va taraqqiy» jamiyati Turkiya tarixida favqulodda bir rol o'ynadi, deyish qiyin bo'lsa-da, milliy shuurning shakllanishidagi o'ziga xos o'rnini inkor etish mumkin emas. Birgina Turkiyada emas, Turkistonda ham u aks-sado bergan. Munavvarqorining O'zbekiston Milliy xavfsizlik xizmati arxivida saqlanayotgan P-33391 raqamli 18 jildlik shaxsiy delosi materiallarida Usmonbek Haydarbek, Munavvarqori, Sadriddinxon, Behbudiy (jami 7 kishi)ning 1917-yilda «Ittihodi taraqqiyparvaron» (1918-yildan «Ittihodi taraqqiy») nomli jamiyat tuzib, unga a'zo bo'lganliklari, markazi Toshkentda joylashganligi, viloyatlarda filiallarga egaligi ma'lum qilinadi. Hujjatda qayd etilishicha, markazga 1917-yilning oktabrigacha Sadriddinxon, Usmonbek, Yusuf Ziyobek degan kishilar raislik qilganlar.

Munavvarqori 1929-yili OGPU ning talabi bilan yozib bergan xotiralaridan ma'lum bo'lishicha, jamiyat «nizomnoma»-si turkcha edi. Uning tuzuvchilari Usmonbek va Haydar afandi bo'lib, o'zbekchaga Munavvarqorining o'zi tarjima qilgan.

«17-avgust oxirlari bo'lsa kerak, taraqqiyparvarlardan bir nechasi manim uyimga yig'ilib, Usmonbek taxti rayosatida jamiyatni rasman ochdilar. Nizomnoma o'qilib, tasdiq etildi»[148]

Abdurauf Fitratning «shaxsiy ishi» hujjatlarida unga 1920—1923-yilning davomida BXShJda hukumat tarkibida ishlab turib, «aksilinqilobiy millatchilik tashkiloti so'ngroq «Milliy ittihod» deb nomlangan «Ittihod va taraqqiy» rahbarlaridan biri» sifatida xizmat qilganligi aybi qo'yilgan[149].

Ma'lum bo'lyaptiki, «Ittihod va taraqqiy» 1918-yil 1-noyabrda tarqalgan bo'lishiga qaramay, uning nomidan ish ko'rish,

---

[148] Ko'rsatilgan manba, 158-b.

[149] O'zbekiston MXX arxivi materiallari, 4269-ish. Постановление... от 5 авг. 1937 г.

uning nomi bilan ayblash 1920, hatto, 1922-yillargacha davom etgan. Ikkinchi tomondan, bu ta'sirning davomli bo'lganligini obyektiv e'tirof etmoq kerak. Buni keyingi jamiyatning «Milliy ittihod» deb nomlanishi ham ta'kidlab turibdi.

Ittifoqi muslimin

Turkistonliklarning Rusiya va Turkiston doirasidagi milliy uyushma va harakatlarga ishtiroki masalasiga qaytaylik. Darvoqe, yaqinda yosh va iste'dodli tarixchilarimizdan R.Abdullayevning «Islom dunyosidagi hamkorlik jarayoni va Turkiston jadidlari»[150] nomli qiziqarli maqolasi bosilib chiqdi.

Rusiya qo'l ostidagi musulmonlarning, aniqrog'i turk (islom) xalqining o'zliklarini anglash, til, din, urf-udum asosida o'zaro yaqinlashish va ularni muhofaza qilish uchun birgalikda kurashish, pirovard-oqibatda siyosiy mustaqillikka erishish yo'lidagi XIX asrning 80-yillarida boshlangan harakatlari 1905-yil Rusiyasining tarixiy shart-sharoitlari bilan amaliy tus oldi. Bu yo'ldagi birinchi qadam 1905-yilning 15-avgustida Nijniy Novgorodda Rusiya musulmonlari I s'ezdining o'tkazilishi bo'ldi. Tarixi shunday: Ismoilbek Gasprali va bokulik taniqli ma'rifatchi, «Hayot» gazetasining muharriri Alimardonbek To'pchiboshev Peterburgdagi bir uchrashuvida mazkur yig'in haqida kelishib oladilar. «Tarjimon» 1905-yilning may-iyul oylarida ushbu yig'inning maqsad-vazifalari haqida ma'lumot berib boradi. «Ushbu sho'royi ummatdan bosh maqsad afkori umumiyayi harakata keturmak ittifoqi muslimina va **siyosiy bir partiya** (ta'kid bizniki—B.Q.) tashkilina tamal va negiz qo'ymaq edi», — deb yozgan edi gazeta[151].

1905-yilning 13-avgust kuni Ismoilbek Qrimdan, Alimardonbek Bokudan Moskvaga keladilar. Abusaudmirzo Axtamov, Abdurashid Ibrohimov kabi faollar bilan birgalikda shahar voliysidan yig'inga ruxsat so'raydilar. Voliy Ichki ishlar vaziriga havola qiladi. Faollar Ichki ishlar vaziri ruxsat berishi juda qiyin ekanini anglab, anjumanni g'ayrirasmiy o'tkazishga qaror qila-

---

[150] Kitobda: Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. — T.: «Universitet», 1999, 69—82-b.

[151] Tarixchai zamon. «Tarjimon»g., 1908, 9-son.

dilar. Bir paroxodni kiraga olib, shuning ichida safar davomida o'tkazishga kelishadilar. R.M.Abdullayev arxiv materiallariga tayanib, I s'ezdga Kavkaz, Qrim, Qozon, Yoyiq, Sibir va Turkistondan 150 ga yaqin vakil qatnashganligini ma'lum qiladi[152]. «Tarjimon» gazetasi vakillar adadini 300 deb ko'rsatadi: «... avgust 15 da saboh erta uch yuz vakilla. paraxo'da[153] kelub, Ufa suyi ila yuqoriya harakat edildi. Qariyadan[154] o'ttuz verst (32 km chamasida — B.Q.) qadar chekildikdan so'ngra paraxo'd ustina majlis qurildi, mushovara ochildi».

Gazeta majlis qatnashchilarining ijtimoiy tarkibi haqida ham ma'lumot beradi. Xususan, Makarjiga kelgan vakillar orasida o'ta so'l musulmon sotsial demokrat yoshlari ham bo'lganlar. Lekin Ismoilbek va Alimardonbek mazkur yig'in «xalqlarning afkor va maromlarini, idrok va darajotini mezona tortajaq majlisi ibtidoiya» ekanligi, «sotsial demo'qrat maslagini maydoni mushovaraya chiqarmoq munosib hol ko'rilmasligi» sababli ularga izn bermaydilar. Faqat ikki kishiga muzokaralarda qatnashmaslik sharti bilan «somiun» (tinglovchi) sifatida paraxo'dga chiqishga ruxsat etiladi.

Vakillar har viloyat, shahardan ikki-uch kishi bo'lib, ular orasida Abdurashid Ibrohimov, ikki kun oldin Fransiyadan yetib kelgan Yusuf Oqchura kabi dunyoga tanilgan kishilar bor edi.

Tush vaqti majlis boshlanadi. Ismoilbek — rais, Alimardonbek bilan Abusaudmirzo muovinlar qilib saylanadilar. Asosiy masala «Rusiya musulmonlarining huquqi siyosiya va ijtimoiyyalarini... mudofaa etmak matlabi»ni ko'zda tutuvchi «Ittifoqi muslimin» jamiyati ta'sis etiladi. Uning taktikasi muhokama qilinib, «ruslarning eng a'lo bir firqasi-la muttafiqan» ish ko'rmog'i maqsadga muvofiq topiladi. Ishni yo'lga qo'ymoq uchun barcha viloyat va mintaqalarda, shu jumladan, Turkistonda «Ittifoqi muslimin» sho''balarini ochishga kelishilib, munosib kishilar tayin etiladi. «Ittifoq»ning nizomini tuzish va II Sho'royi ummatga taqdim etish Alimardonbek To'pchiboshevga topshiriladi. Boku muvaqqat markaz qilib belgilanadi. Biroq yuz

---

[152] Ko'rsatilgan kitob, 69-b.

[153] R.Abdullayev aniqlashicha, paraxo'dning nomi «Gustav Struvi» ekan.

[154] Anjuman o'tkazilishi mo'ljallangan shahar chetidagi Makarji bozori ko'zda tutilmoqda.

bergan voqealar, xususan rus-yapon urushidagi mag'lubiyat mamlakat idora tizimiga muayyan demokratik o'zgartirishlar kiritishni taqozo etdi. Podsho Manifest qabul qildi. So'z va matbuot erkinligi, g'ayriruslar huquqi masalalari o'rtaga tushdi. Ularning o'z tillarida maktablar ochish, matbuotlarini yo'lga qo'yishga imkon berildi. Parlament va'da qilindi. «Ittifoqi muslimin» xalq orasiga tomir otishga ulgurmagani uchun erkinlik shabadasini sezgan musulmon yoshlarini o'z atrofiga torta olmadi. Yoshlar «avtonomist», «sotsialist» bayroqlari ostiga keta boshladilar. II Sho'royi ummatga ehtiyoj tug'ildi.

Lekin afsuski, 1906-yilning 19—23-yanvarida Sankt-Peterburgda to'plangan II s'ezd ko'ngildagidek o'tmadi. Avvalo, bu s'ezd ham norasmiy, yashirin o'tkazildi. Ikkinchidan, shoshilinch chaqirilganligi pand berdi. Yetarli sharoit bo'lmadi, eng yomoni ig'vogarlar kirib qolib, s'ezd yo'nalishini buzishga erishdilar.

«Tarjimon»ning yozishiga qaraganda, s'ezdda 108 vakil qatnashgan. Keng majlis xonasi bo'lmaganidan keyin fikr almashish imkoniyati yo'q edi. Alimardonbek tayyorlagan nizom Ismoilbek xonasida yengil tahrir qilinib, muhokamaga qo'yiladi. Joy yo'g'ligidan Abdurashid Ibrohimov taklifi bilan «Aleksandrovskiy rinok» atrofidagi uylardan birida «Qurbon oshi» (chamasi «Qurbon hayiti» kunlariga to'g'ri kelgan) nomi bilan o'tkaziladi. 20 kishilik xonada 80 kishi ish boshlaydilar. Nizom haqida gap ochilar-ochilmas, ikki talaba va ikki notanish kimsa «ijtimoiy tenglik»dan gap sotib, uni bulg'alashga tushib ketadi, «razilona» deb ataydi. Majlis mitingga aylanadi. Uni boshqarayotgan Ismoilbek sotsialistlar xurujini ko'rib, rayosatni tark etadi va majlisdan chiqib ketadi. Nizom «muvaqqat»ligicha qoladi[155].

Shuning o'zi ham muhim edi. Chunonchi, 23 bandlik nizomda Rusiyada yashovchi musulmonlar joylashish o'rinlari, qavmiy xususiyatlari jihatidan 16 tumanga bo'lib chiqilgan, har birining markazida kengashlar tuzilib, ularning a'zolari umumiy yig'ilishlarda saylangan vakillardan tashkil topar edi[156]. Buni Behbudiy ham tasdiqlaydi: «Ushbu yil (1906-yil ko'zda tutiladi —

[155] «Tarjimon»g., 1908, 13-son.
[156] R.Abdullayev. Ko'rsatilgan asar, 71-b.

B.Q.) avvalida, – deb yozadi u «Xayrul umuri avsatuho» maqolasida, — Pitrburgda g'ayrirasmiy yana bir majlis-s'ezd yasab, qarornoma nashr etdilar[157].

III s'ezd 1906-yilning 16-avgustida Nijniy Novgorodda to'plandi. 5 kun davom etdi. Oldingi har ikkisidan farqli o'laroq majlisga ikki kun qolganda Ichki ishlar vazirligidan ruxsat olishga muvaffaq bo'linadi. Lekin bu yig'in ham «osoyishta» o'tmadi. To'g'rirog'i, o'tar-o'tmas, Davlat Dumasidagi musulmon fraksiyasiga chor rasmiy matbuoti hujum boshladi. Hujumning musulmon fraksiyasiga qaratilgani sababi shunda ediki, oldingi har ikki anjuman singari buni ham Dumadagi Musulmon fraksiyasi vakillari, aniqrog'i, Ismoilbek Gasprinskiy, Alimardonbek To'pchiboshev, Abdurashid Ibrohimov, Sadri Maqsudiylar uyushtirgan edilar. Hujum esa uyushtirilgan ig'vogarlikning natijasi bo'lib, tafsiloti quyidagicha edi: S'ezd arafasida Peterburgda yashayotgan ikki musulmon va bir chet viloyatdan kelgan mehmon maslahatni bir joyga qo'yib, «T» ismli bir knyazga mazkur s'ezdga ruxsat olib berishni so'rab murojaat qiladilar va bunga muvaffaq bo'ladilar. Rusiya musulmonlaridan vakil bo'lib olgan bu uch azamat qo'llaridagi hujjatni ko'tarib ministrga keladilar va go'yo musulmonlar orasida panislomizm degan juda xavfli millatchilik ta'limoti tarqalgani, unga qarshi kurash tadbirlarini muhokama qilish, yo'l-yo'lakay, maktab-madrasa masalalarini ham hal etib olish uchun bir s'ezd uyushtirib berishni so'raydilar. Va ministr rozi bo'ladi. Majlis oldidan uning yangi «programma»si yetib keladi. Buni ko'rgan musulmon vakillari g'azabga minadilar. Uch tashabbuskorning «barcha musulmonlar» nomidan ministrga yozgan iltimosnomasi «Volgar» gazetida bosilib chiqqach esa vakillar s'ezdda ishtirok etishdan voz kechadilar. Vaziyatning boshqacha tus olganini ko'rgan uch tashabbuskor s'ezdoldi yig'ilishlaridan birida o'z qilgan ishlarining ma'nosini yaxshi anglamaganliklarini, imkon berilsa, s'ezdda rasman vakillardan uzr so'rashlarini aytadilar. Darhaqiqat, asosiy «arbob» shunday qiladi ham. Bor gap – hu. Lekin rasmiy matbuot birinchi bo'lib, «Rossiya» gazetasi s'ezdni tuturiqsizlikda, qatnashchilarni

[157] Behbudiy. Tanlangan asarlar. 2-nashri. – T.: 1999, 149-b.

munofiqlikda, gapi va ishi boshqa-boshqa ekanlikda ayblashga tushib ketadi. Va yana bir bor bu gaplarning yuqoridan maxsus uyushtirilganligiga oddiy o'quvchi ham shubha qilmaydi. Shunga qaramay, s'ezd Rusiya musulmonlarining milliy masalalarini hal qilishda katta ahamiyatga ega bo'ldi[158]. Avvalo, u jiddiy siyosiy tashkilotga — partiyaga aylana boshladi, o'z yo'nalishini belgilab oldi. Chunonchi, konstitutsiya va demokratiyani muqaddas hisoblagan kadetlarga o'zini yaqin tutdi. Behbudiy yuqorida tilga olingan «Xayrul umuri avsatuho» maqolasida Rusiyadagi partiyalarni tilga olib, har biriga alohida ta'rif berar ekan, unga shunday to'xtaladi: «To'rtinchi» — Rusiya musulmonlari ittifoqi» hizbidurki, bularni partiya suratiga kirganiga bir yil bo'ldi. Avvalo, o'tgan sana Nijniyda, paraxo'dga o'lturub, musulmon peshravlari suv ustida majlis yasadilar. Ikkinchi, ushbu yil avvalida Pitrburgda qayrirasmiy yana bir majlis — s'ezd yasab, qarornoma nashr etdilar. Uchinchi, ushbu o'tgan avgustda yana Nijniy yarmarkasinda uch-to'rt kun davomat ila boruxsati rasmiya necha ming mo'minlar bir umumiy nadva (obshiy s'ezd) etdilar. Qarorlarining ijmoli, Turkiya gazetalaridan ma'lum bo'lishiga qaraganda, Rusiya musulmonlari dini va ilmi vajhidan alohida partiyayi maxsusadirlar. Ammo siyosiy va umumiy talab va maslaklar to'g'risinda kadetlarg'a qo'shilaturg'ang'a o'xshaydurlar»[159].

S'ezd 17-avgustdagi majlisda Prezidiumning «Ittifoq»ni musulmon partiyasiga aylantirish va uning Markaziy qo'mitasini

---

[158] Behbudiyning xotiralariga qaraganda, u III se'zdda Turkistondan vakil saylanib ishtirok etgan: 1325 sanayi hijriyasinda (melodiy 1906F-07—B.F.) Rusiya musulmonlarining muhtaram ziyoli va akobirlarining Nijniy yarmarkasinda milliy ishlar to'g'risinda mashvarat qilinaturgan majlisga musharraf bo'lmoq uchun O'runburg' yo'li ila Maskov, Peterburg, Qozon vositasi-la Nijniy Novagarad borib edim» (Behbudiy. Tanlangan asarlar. — T.: 1999, 54-b.) A.V.Pyaskovskiy, chamasi, Turkistondagi uyg'onish harakatini tatar ziyolilari bilangina bog'lash, mahalliy xalqni undan uzoq tutish maqsadida, 1905—1906-yillardagi Umumrusiya musulmonlari se'zdlarida o'zbeklar qatnashgan emaslar, o'lkada yashovchi tatarlargina ishtirok etganlar, deb noto'g'ri ko'rsatadi (ko'rsatilgan asar, 544-b.).

[159] Behbudiy, ko'rsatilgan asar, 149-b. Behbudiyning mazkur ittifoqni partiya qatoriga kiritishi, ayniqsa, siyosiy maslak»iga ko'ra kadetlarga o'zini yaqin tutishi tarixchi A.V.Pyaskovskiyga yoqmaydi. Ushbu maqolani ochiqdan-ochiq «mutlaqo savodsizlarcha yozilgan» deb baholaydi (А.В.Пясковский. Революция 1905—1907-гг. в Туркестане. — М.: 1958, 559-б.).

hamda Peterburgda muntazam ishlaydigan uch kishilik byurosi tarkibini saylash haqidagi takliflarini qabul qildi[160].

Markaziy qo'mita a'zolari partiyaning yangi tayyorlangan 75 moddalik dasturini muhokama etdilar.

Ikkinchidan, s'ezd Rusiyadagi barcha musulmonlarning milliy-maishiy hayotlariga oid zarur qarorlar qabul qildi. Xususan, maktab-madrasalar ta'limini muvofiqlashtirishni ko'zda tutuvchi 23 moddalik g'oyat muhim bir dasturni tasdiqladi. Unda barcha ibtidoiy (boshlang'ich) va rushdiy (o'rta) maktablarda «ta'lim ona tilida bo'ladi» (3-modda), «8 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan barcha bolalarning o'qishi majburiy» deb yozilgan edi.

Diniy idoralarga imomlarga ajrnomalar yuborish topshirildi, qozi-muftilar bu ishni lozim darajada nazorat qilmasalar, ishdan olishgacha jazo qo'llashga qaror qilindi[161]. Shuningdek, qarorda o'qish va ta'til muddatlari, barcha maktablarning dasturlarini bir-biriga yaqinlashtirish, ularni tuzish va muhokama qilish

---

[160] Markaziy qo'mitaga saylangan vakillarning soni borasida har xillik bor. Behbudiy 1906-yili e'lon qilgan maqolasida 31 kishi deb ko'rsatadi: «Idorai markaziya-sentralniy komitetlari Peterburgda bo'ladur. Bu partiya 31 kishini a'zoi markaziya saylab, alarg'a Bodi qubodagi (Boku ko'zda tutilmoqda — B.Q.) Alimardonbek To'pchiboshev janoblarini sadrnishin va Qozondagi Yusuf Afandi Oqchurin janoblarini mustashor saylabdurlar...» (Behbudiy, Tanlangan asarlar, 2 nashri. — T.: 1999-y. 149-b.). R.Abdullayev 15 ta deb keltiradi. (ko'rsatilgan manba, 72-b). «Tarjimon» gazetasida «Musulmonlar ittifoqi»ning idorai markazina saylanmish kishilarning asosiysi» sifatida 15 kishining ro'yxati berilgan. Bular: Abdurashid Ibrohimov (Peterburg), Yusuf Oqchurin (Qozon), Saidgaray Alqin (Qozon), Ismoilbek Gasprinskiy (Boqchasaroy), Alimardonbek To'pchiboshev (Boku), Mullo Abdulla Apanayev (Qozon), Olimjon al-Barudiy (Qozon), Sadriddin Maqsudov (Qozon), Haydarmirzo Sirtlonov (Ufa), Muso Begiyev (Peterburg), Abdulla Ne'matullin Bubiy (Vyatkin), Hodi Maqsudiy (Qozon), Mustafo Davidovich (Boqchasaroy), Qo'shchi Qulov (Qozoq-qirg'iz dala viloyati), Salimgaroy Jonturin (Ufa), («Tarjimon»g. 1906-y. 4 sentabr, 99-son). «Saylanmish kishilarning asosiysi» deyilishiga qaraganda yana qo'shilgan. Tarkibida Turkistondan biror kishi yo'g'ligi ham buni ko'rsatib turibdi. Behbudiy yuqoridagi maqolada yozadi:» Bu 31 nafar a'zolarina Rusiyadagi ahli musulmonlardan bir necha a'zo intixob qilib olmoqqa qaror bermishlar. Ammo bu bobdagi jaroid va tasvidotg'a qarag'onda bizni Turkistondan bir nafar a'zo intixob qilmoqqa qaror bermishlar. Lekin 6 millionlik Turkiston musulmonlaridan bir a'zo ozdur. Besh oblustdan 30 nafar, ham Buxoro va Xeva va Turkistoni Chiniydagi musulmonlardan birtadan a'zo olmoq lozimdur. Bu komitet va a'zolar vaqt-bevaqt jamlanib, diniy va ilmiy maoshi to'g'risinda mashvarat qilib, musulmonlarni ilman va molan, dinan taraqqiy va taolilariqa xidmat qiladurlar...».

[161] Muhim bir qaror. «Tarjimon» g., 1906-y., 6-sentabr, 100-son.

uchun 1907-yilning mayida Qozon, Petropavlovsk, Toshkent, Tiflis va Boqchasaroy kabi shaharlarda muallimlar yig'ini chaqirish, muallimalar yetishtiruvchi maktablar ochish, darsliklarga e'tibor qaratish, yaxshilarni tanlab mukofotlash, muallimlarga ma'lum imtiyozlar berish, xayriya jamg'armalari, vasiylik kengashlari tashkil etishgacha bo'lgan masalalar qamrab olingan edi[162]. «Inson bir kun o'lajakdir, lekin dunyoya o'lmak uchun kelmamishdir... Agar o'lmak uchun kelmish bo'lsa edi, qazoan rahmi modardan mozora adam ketardi»[163] — deb yozgan edi «Tarjimon» gazetasi. Gazeta ta'kidlaganidek, u xorlik uchun ham yaratilmagan. To'g'ri, u bu dunyoning har xil razolat va tubanliklaridan qochib qutula olmaydi. Ular bilan bir kunmas-bir kun to'qnashadi. Lekin unda abadiy qolib ketmaydi. Aks holda, unga aqlu zakovat, iste'dod berilmas edi. Binobarin, inson uchun eng muhim narsalardan biri sa'y-g'ayratdir. Millat uchunchi? Millat uchun u o'n karra muhim. «Ittifoqi muslimin»ning bunyod bo'lishi va uch yig'ini shu yo'ldagi harakatlardan edi. Behbudiyning yaqinda Ismoilbek Gasprali arxividan topilib, taniqli tadqiqotchi Temirxo'ja tomonidan faksimel nusxasi izohlar bilan Gollandiyada nashr etilgan «Turkiston muxtoriyati loyihasi»[164] bunga yana bir karra ishontiradi. Behbudiy 1907-yili yozib, «Ittifoqi muslimin» muhokamasiga taqdim etgan ushbu loyihada juda katta jur'at va jasorat bilan Turkistonning ijtimoiy, siyosiy, madaniy qurilishi — davlat idorasi dasturi tuzib berilgan ediki, u haqda tarixchi va huquqshunoslarimiz o'z fikrlarini bildiradilar.

Jadidlar va Davlat Dumasi

Millatdoshlarimiz rasmiy tashkilotlardan ham foydalandilar. Afsuski, panturkizm, panislomizm andishasi tufayli Davlat Dumasidagi musulmon fraksiyasi va uning faoliyati o'rganilgan emas.

---

[162] Uchinchi ijtimoiy muslimin. «Tarjimon» g., 1906-y., 1-sentabr, 98-son.

[163] Sa'y. «Tarjimon»g., 1906-y., 8 may.

[164] Turkistonda yangilik harakatlari va ıxtilollar (1900—1924). Nashrga tayyorlovchi Temirxo'ja. Harlem (Gollandiya), 2001-yil, 436—447-bb.

Mashhur 1905-yil 17-oktabr Manifesti Rusiya tarkibidagi g'ayrirus millatlarga ham tenglik, vijdon, matbuot erkinligi e'lon qildi.

Ilk o'zgarishlardan biri xalq orasidan vakillar saylash yo'li bilan tuziladigan yuqori hokimiyat organi Davlat Dumasining tashkil topishi bo'ldi. 1905-yilning 11-dekabrida saylov qonuni chiqdi. 1906-yil 27-aprelida 1-Davlat Dumasi ish boshladi. Sovetlar hokimiyatiga qadar 4 chaqiriq ish ko'rdi. 1,11 Dumalar qisqaroq (I—27.04.1906—08.07.1906; II—20.02.1907 02.06.1907), III IV-lari nisbatan uzoqroq (III— 01.11.1907—09.06.1912; IV— 5.11.1912—27.02.1917) faoliyat ko'rsatdi. Duma deputatlari orasida musulmonlar ham bor edi. Ularning adadi, albatta, juda oz edi. Musulmonlar yashaydigan joylardan ham ko'proq ruslar olinar edi. Bu rasman bekitilmas ham edi. Masalan, Turkistondagi 5 mln. musulmondan 6 deputat bo'lgani holda, 700 ming rusdan 7 kishi Davlat Dumasiga deputat qilib saylangani o'lka hukumatining rasmiy gazeti «Turkiston viloyati gazeti»ning 1907-yil sonlarida bir necha marta yozib chiqilgan edi. Lekin musulmon deputatlar I-Dumadayoq o'z fraksiyalarini tashkil qilgan edilar. Fraksiyaning tashkil topishida «Ittifoqi muslimin»-ning roli katta bo'ldi. Dumaga saylangan musulmon deputatlarining aksariyati «Ittifoqi muslimin»ning Markaziy Komiteti a'zolari edilar. Musulmon fraksiyasining rahbarlari boshda Qutlug' Muhammad Tevkilov — rais, Sadri Maqsudiy — kotib (oxirgi Dumada kotib — Mustafo Cho'qayev) bo'lganlari ma'lum.

Davlat Dumasi shunchaki, xo'jako'rsinga edi, albatta. Chor hukumati g'ayriruslarga nisbatan buyuk rus millatchiligi siyosatini og'ishmay amalga oshirardi[165]. Shunga qaramasdan, Duma millatning o'z dardlarini aytib olishi uchun bir minbar bo'ldi.

Ahmad Zaki Validiy II Davlat Dumasi a'zolaridan turkistonlik uch kishining nomini tilga oladi. Bular: Abdujalil o'g'li Toshpo'lat[166], Mahmudjon o'g'li Solihjon[167], Abdulvohid qo-

[165] Ikki milliondan ortiq aholisi bo'lgan Farg'ona viloyatidan 2 deputat bo'lib, bittasi rus edi.

[166] Samarqandlik savdogar, bir oz ruscha bilgan.

[167] Qo'qondan, Yevropa ko'rgan tujjorlardan.

ri[168]. A.V.Pyaskovskiy III Davlat Dumasining sobiq a'zosi toshkentlik Abdurauf(?) Qoriyevning qamoqda «oxranka»ga bergan ma'lumotlariga suyanib, musulmonlar fraksiyasi a'zolarining 30 ga yaqin bo'lganini xabar beradi[169].

Ilk ikki Duma orasida Markaziy Rusiya va Sibir musulmonlari qizg'inroq faoliyat ko'rsatdilar va «muxtoriyat» fikrini ko'tarib chiqdilar. Bu g'oyani ilgari surganlar Duma a'zolari qozoq sultonlari naslidan Saidgaroy Sulton Jonturin, boshqird advokati Aliasqar Sultonov hamda deputat bo'lmasa-da, butun Rusiya yaxshi taniydigan Sibir o'zbeklaridan Qozi Abdurashid edi. Abdurashid qozi shu yillari «Avtonomiya» nomi bilan bir risola ham chop ettirgan[170]. Temirxo'ja chop ettirgan Behbudiy dasturi bu masalaning turikistonliklar tomonidan ham qizg'in muhokama qilinganini ko'rsatadi.

Mahalliy jamiyatlar, uyushmalar

Toshkentlik Azmiy-Aziziy degan shoirning nomlanishiyoq rasmiyroq bo'lgan, muayyan ish dasturi taklif etuvchi «Savqi taraqqiy» («Taraqqiyot yo'li») sarlavhali bir muxammasi bor. Unda shunday satrlarni uchratamiz:

Nafoq[171] aylab, bu kunda bizlara ko'p jam'iyat lozim,
Biri – «Sobraniya» mohan, iki – jumhuriyat lozim.
Hamu bir til o'lub, bir maslahatga bo'lmali, jozim.
Vakil aylab, kerak etsak, ani Petrograd ozim.
Naqoislarni arz aylab, hurriyatdan omon istang[172].

Darhaqiqat, ochiq-yopiq jamiyatlar millatning birligini ta'minlashda, faoliyatini yo'lga qo'yishda asosiy vosita edi.

Abdulla Avloniyning tarjimai holiga e'tibor qilinsa, uning 1904-yillardan qandaydir uyushmalarda ishtirok etganligi ma'lum bo'ladi.

«1904-yildan **jadidchilar to'dasi**da ishlay boshladim, – deb yozadi u. –... o'z oramizdan mullalarga qarshi **uyushmamiz** ham

---

[168] Toshkentdan, din vakillaridan.
[169] A.V.Pyaskovskiy, ko'rsatilgan asar, 544-b.
[170] Ahmad Zaki Validiy To'qon. Bugungi turk eli..., 352-b.
[171] Nafoq – tezkorlik.
[172] Bahriddin Azmiy-Aziziy. Yangi shugufa yoxud milliy adabiyot. –T.: 1917, 11-b.

vujudga chiqdi... Rus-yapon urushi chiqib, bizning ham ko'zimiz ochildi... Bizning **tashkilotimiz** (ta'kidlar bizniki – B.Q.) siyosiy maslaklarga tushunib, birinchi navbatda qora xalqni oqartirmoq va ko'zin ochmoq chorasiga kirishdi. Bu maqsadga erishmoq uchun gazet chiqarmoqni munosib ko'rib, uyushmaning harakati bilan o'zbek tilida gazetalar chiqarildi».[173]

Abdulla Avloniy ayrim nomlarni ham tilga oladi. Bular: laqabigina ma'lum bo'lgan «Rafiq Sobiruf», «musulmoncha tipo'graf bilan maxfiy suratda proklamatsiya bosib, shahar va qishloqlarga tarqatgan». O'tab kotib, Eshonxo'ja (Xoniy), Umarqul Anorqul o'g'li kabilardir[174]. Tatar ijodkor ziyolilaridan Ahmadjon Bektemirov («Osiyo» gazetasi muharriri), Ismoil Obidiy («Taraqqiy» gazetasi muharriri) nomlari uchraydi. Bularning yoniga 1901-yildan Ilin matbaasida ishlagan, so'ngroq Avloniyning teatr truppasida qatnashgan Nizomiddin Xo'jayevni ham kiritish mumkin.

Yana Avloniy tarjimai holiga murojaat qilamiz:

«1909-yilda bir necha o'rtoqlar bilan qonun tuzib, «Jamiyati xayriya» ochdik. Olti oy rais bo'lib turdim». 1909-yildagi bu jamiyat va uning ayrim a'zolari haqida ma'lumotlar vaqtli matbuotda uchraydi. Lekin 1904-yili tashkil topgan «uyushma» haqida ma'lumot juda kam. Bizningcha, bular asosan toshkentlik mahalliy ziyolilar bo'lib, faollari: Munavvarqori, Avloniy, Ubaydulla Xo'jayev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Muhammadjon Podshoxo'jayev, aka-uka Karimbek va Komilbek Norbekovlar, Oxunjon Abdurahim o'g'li, Abdulhakim Sarimsoqov, Tojixo'ja Azizxo'ja o'g'li, Ubaydullaxo'ja Umarxo'ja o'g'li, To'lagan Xo'jamyorov (Tavallo), Saidabdullo Saidkarim o'g'li, Ilhomjon In'omjon o'g'li, Kattaxo'ja Boboxo'ja o'g'li, Bashirulla Asatillaxo'jayev, Toshhoji Tuyoqboyev, Nizomiddinqori Mulla Husainov, Abdusalom Abdurahmonov, Rustambek Yusufbekov, Saidahmad Saidkarim o'g'li, Mulla Yunus Tuyoqboyev, Habibulla Maqsudov, Shokarim Rahmatov, Husanxo'ja

---

[173] Milliy uyg'onish va O'zbek filologiya masalalari. – T.: «Universitet», 1993, 109-b.

[174] B.Qosimov. Adabiyot va inqilobiy harakat. Kitobda: Hayot ko'zgusi. G'.G'ulom nashriyoti, 1984; yana:Ijodiy hamkorlik va adabiy taraqqiyot. ToshDU ilmiy ishlari. – T.: 1984, 48–55-betlar.

Dadaxo'ja o'g'li kabilar edilar. Chunki bu nomlarning ko'pchiligi 1909–1914-yillarda tuzilgan jamiyatlarning muassislari sifatida hujjatlarda qayd qilinadi. Har holda, 1904-yillardan ish boshlagan milliy «uyushma» haqidagi gapda hech qanday mubolag'a yo'q. Buni o'sha vaqtdayoq bilganlar. «Turkiston jadidlari siyosiy jamiyatlar jadid partiyasi tuzishga harakat qildilar», – deb yozadi A.V.Pyaskovskiy va «Туркестанские ведомости»ning 1906-yil sonlarida «Asxabod» gazetasining o'sha yili 24-sentabr sonida ko'chirib bosilgan «hozirda Eski Toshkentning tubjoy xalqi orasida musulmonlarning Nijegorod-dagi so'nggi s'ezdi ishlab chiqqan yangi tipdagi maktablar ochishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan «Hurriyat jamiyati» («Обществo свободы») tuzilmoqda. A'zolik badali 2 rubl qilib belgilangan» degan ma'lumotni keltiradi. Toshkentdagi bu guruhning adadini Sadri Maqsudiy 50–60 kishi deb belgilaydi. Oxranka materiallariga qaraganda, u 1910-yilda «Vaqt» gazetasi muxbiri bilan qilgan suhbatlaridan birida Qo'qonda «Yosh partiya» («Молодая партия») nomi bilan jadidlar to'garagi tashkil etilganligi haqida gapirgan.

Bunday holni Samarqandda ham kuzatish mumkin edi. A.V.Pyaskovskiy jadid to'garaklarining hatto Semireche va Verniyda ham bo'lganligi, ularning joriy nizomlari ham mavjudligi haqida dalillar keltiradi[175].

Qozon guberniyasi jandarmeriya boshqarmasi boshlig'ining politsiya departamentiga yuborgan maxfiy ma'lumotnomasida Rusiya jadidchilik harakatining yo'l-yo'nalishi quyidagicha belgilangan edi: Rusiya panislomistlari o'z maqsadlariga erishish borasidagi taktik usullarni shunday tasavvur qiladilar: Rusiyadagi tatarlar, musulmonlarning milliy tuyg'ularini uyg'otish, muxtoriyatga, milliy maktabga erishish va ular vositasida milliy o'ziga xos muhit, ya'ni milliy madaniyatini yaratib, mahobat bo'lmasa, rus ta'siriga, hukumatning ruslashtirish siyosatiga qarshi kurashish. Kelajakda esa ushbu yo'nalishning norasmiy yig'inlaridan birida uning notiqi e'tirof etganidek, Turkiston va

[175] A.V.Pyaskovskiy. Ko'rsatilgan asar, 550–551-betlar; A.V.Pyaskovskiy. Ko'rsatilgan asar, 556-b.; Milliy uyg'onish va O'zbek filologiyasi masalalari. – T.: «Universitet», 1993, 110-b.

Kavkaz bilan umumturk respublikasi tuzishgacha bo'lgan hamkorlik. Rusiya panislomistlarining orzulari – shunday»[176].

Jandarmeriya boshqarmasi boshlig'i, umuman olganda, jadidlarimizning maqsad-muddaolarini to'g'ri belgilagan edi.

Toshkentga qaytaylik. Yana Abdulla Avloniy tarjimai holidan:

«1913-yildan boshlab xalqni ko'zini ochmoq, madaniyatg'a yaqinlashtirmoq uchun teatruga kirishib, teatru ishlarini yo'lqa qo'yuvchilarning boshlug'i bo'lib, Turkistonning bir necha shaharlariqa borib, o'zbeklar orasida teatruga yo'l ochdim. 10 ga yaqin ozarbayjon pesalarini O'zbekchaga tarjima qilib sahnaga qo'ydim. 3 pesa yozdim. «Turon» ismli «teatralni blag'otvoritelni» jamiyatni yuzaga chiqardim. Shul yilda Eski shaharda ochilqon «potrebitelni obshestvo»ning ta'sis a'zolaridan-da edim. Bu vaqtlarda bizning **maqsadimiz zohirda teatru bo'lsa ham, botinda Turkiston yoshlarini siyosiy jihatdan birlashtiruv va inqilobga hozirlov edi** (ta'kid bizniki – B.Q.)[177].

Bu yerda shoir «Tarjimai hol»ining «inqilobiy yillar»ga moslashtirilib, bir oz inqilobiylashtirilganini hisobga olish kerak, albatta. Lekin, ikkinchi tomondan, zamon inqilob havosiga g'arq bo'lganini ham e'tirof etmoq lozim.

«Turon»ga qaytaylik.

Jamiyatning 73 bandlik ruscha nizomida uning muassislari sifatida quyidagilar ko'rsatilgan:

1. (Ubaydulla Asatullayevich Xo'jayev (Mergancha).
2. (Toshpo'latbek Norbo'tabekov (Observatoriya ko'chasi).
3. (Munavvarqori Abdurashidxonov (Shayxontovur, Darxon).
4. (Komilbek Norbekov (Sag'bon).
5. (Mulla Abdulla Avlonov (Sapernaya 35).
6. (Muhammadjon Podshoxo'jayev (Zanjirlik).
7. (Kattaxo'ja Boboxo'jayev (Qor yog'di).
8. (Bashirulla Asadillaxo'jaev (Mergancha).
9. (Nizomiddin Asomiddinxo'jayev (Orqa ko'cha).

---

[176] A.V.Pyaskovskiy. Ko'rsatilgan asar, 556-b.

[177] Milliy uyg'onish va O'zbek filologiyasi masalalari. «Universitet», 1993, 110-b.

10. (Karimbek Norbekov (Sag'bon, Ko'kcha)[178].

M.Rahmonov arxiv materiallari asosida truppani 1913-yil oxirlarida maydonga kelgan va tarkibi 25 kishidan iborat bo'lgan[179] – deb hisoblaydi. Chunonchi: Nizomiddin Xo'jayev (ishchi), G'ulom Zafariy (muallim), Badriddin A'lamov (xizmatchi), Shokirjon Rahimiy (muallim), Muhammadjon Podshoxo'jayev (prikazchik), Fuzayl Jonboyev (muallim), Hasan qori (muallim), Abdurahmon Akbarov, Qudratulla Yunusiy (prikazchik), Sami'qori (muallim), Qudratulla Maxsum va boshqalar. 1916-yili truppaga Mannon Uyg'ur, Sulaymon Xo'jayevlar ham a'zo bo'lib kirdilar[180].

Laziz Azizzoda bular safiga Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jayev, Yusuf Aliyev va Muso Azimovni ham qo'shadi[181]. Bular safiga «proklamatsiya tarqatuvchi» Eshonxo'ja Xoniyni ham kiritaylik. Shuningdek, truppa afishalarida unda muntazam ishtirok etgan Mirmullaning ham nomi uchraydi. Va bularning umumiy soni haqiqatan ham 25 taga yetadi. Ularning aksariyati toshkentlik eng ilg'or ijodiy yoshlar edi. Masalan, A. Akbarov durustgina shoir edi, so'ngroq mardikorlik haqida bir she'riy to'plam ham tuzadi.

L.Azizzoda o'z kitobida Yu.Aliyevning iste'dodli shoir bo'lganligi haqida so'z yuritib, she'rlaridan birini keltirib o'tadi. Avloniyning hammahallasi merganchalik S.Tursunxo'jayevning to'rt pardali «Turkiston vatanparvari» dramasining sahnalarda muvaffaqiyat bilan qo'yilganini xabar qiladi. Mashhur Mannon Uyg'ur, «Halima»ning muallifi G'ulom Zafariy, yangi o'zbek maorifchiligining asoschilaridan bo'lgan Shokirjon Rahimiy, o'zbek kino san'atining poydevorini qo'yganlardan biri S.Xo'jayevlarning nomi o'quvchilarimizga yaxshi tanish. Fransuz

---

[178] Устав обшества любителей мусульманского драматического искусства «Туран» в г. Ташкенте. 1916 г. ноября II-го по реесту №7176 нотариус Дм. Егоров, подлинник. A.Avloniy nomidagi Respublika o'qituvchilar malakasini oshirish instituti qoshidagi «Avloniy muzeyi»da saqlanadi.

[179] M.Rahmonov. O'zbek teatri tarixi. – T.: 1998,334-b.

[180] O'sha yerda.

[181] L.Azizzoda. Yangi hayot kurashchilari. «Fan», – T.: 1977, 35–40, 58–61, 96–10-b.

tilini bilgan[182], G'arb adabiyotini originalda o'qigan, she'r va hikoyalari bilan vaqtli matbuotda faol ishtirok etgan Mirmulla Shermuhamedov Hamza dramalarini obe'ktiv va chuqur tahlil qilib, yuksak baholagan birinchi o'zbek teatr tanqidchisi edi...

Vaqti kelib Avloniy truppasi atroflicha o'rganilsa, yangi-yangi faktlarning topilishi shubhasiz. Hozirgi mavjud fakt va materiallarning o'zi ham, o'ylaymizki, bu truppaning tarkibi va g'oyaviy-siyosiy saviyasi, faoliyati haqida ma'lum bir xulosaga kelish uchun asos bo'la oladi. Va yuqoridagi faktlar ko'zda tutilsa, Avloniyning «bizning maqsadimiz zohirda teatru bo'lsa ham botinda Turkiston yoshlarin siyosiy jihatdan birlashtiruv va inqilobqa hozirlov edi» degan fikrlarining ma'no va salmog'i ravshanroq anglashiladi.

Darvoqe, jamiyatning yuqorida tilga olingan ruscha nizomining birinchi bandida «jamiyat» o'z oldiga quyidagi vazifalarni maqsad qilib qo'ygani aytiladi:

a) aholi o'rtasida sahna ishlariga, ezgulikka muhabbat uyg'otish, jiddiy munosabat o'stirish;

b) xalq uchun spektakllar qo'yib berish va ular orqali xalqqa sog'lom ruh bag'ishlash;

d) ma'naviy va moddiy ahvolini yaxshilashga muhtoj bo'lgan Turkiston o'lkasi doirasidagi musulmon e'tiqodiga mansub kishilarga yordam berish.

Ikkinchi bandda «jamiyat»ning quyidagi huquqlari belgilangan: kechalar, konsertlar, spektakllar va shularga o'xshash ommaviy tomoshalar uyushtirish; o'z nomiga klub, muzika kurslari, kutubxona va qiroatxona ochish; o'z nomiga boshlang'ich maktablar ochish va ta'minlash, hojatmandlarga, shu jumladan, o'quvchilarga moddiy ko'mak berish, ularning o'rta va oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirishlari uchun stipendiyalar ta'sis etish, shuningdek, mavjud xayr-ehson va maorif muassasalarini, rasmiy, xususiy, ijtimoiy — qanday kategoriyada bo'lishidan qat'i nazar, moddiy qo'llab-quvvatlash.

Avloniyning, chetdan qaraganda, shunchaki madaniy oqartuvchilikdek tuyulgan, aslida o'zi aytgandek, «botinda Turkiston

---

[182] O'zFASHI ilmiy xodimi Laziz Azizzoda bilan suhbat materiallaridan (1965-y. 16-dekabr. Matn bizda saqlanadi).

yoshlarin siyosiy jihatdan birlashtiruv va inqilobga hozirlov» bo'lgan «Nashriyot», «Maktab» kabi qator shirkatlardagi faoliyati ham qiziqarli materiallar beradi. Masalan, 1914-yil 30-avgustda tuzilib, 1914-yil 19-sentabrda ta'sis etilgan. Notarius Dm.Egorov tasdiqlagan «Nashriyot» shirkatining 23 punktli rus va o'zbek tillarida yozilgan shartnomasida uning maqsadi «Turkiston o'lkasidagi musulmon aholisi o'rtasida umumyevropa madaniyati va ma'rifatini gazetalar, jurnallar, kitoblar va ularning savdosi orqali yoyish»[183] deb ko'rsatilgan. 1916-yil 18-martda tuzilgan, Dm.Egorov tasdiqlagan «Maktab» shirkatining 37 punktli shartnomasida ham shu maqsad tilga olinadi[184]. Birinchi shirkatni tuzuvchilar: Oxunjon Abdurahim o'g'li, Abdulhakim Sarimsoqov, Tojixo'ja Azizxo'ja o'g'li, Husanxo'ja Dadaxo'ja o'g'li, Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li, Mulla Abdulla Avlonov (Avloniy), Saidbadullo Saidkarim o'g'li Saidazimboyev, Ilhomjon In'omjon o'g'li, Mahmudxon Podshoxo'ja o'g'li (Muhammadjon Podshoxo'jayev), Ubaydullaxo'ja Umarxo'ja o'g'li, To'lagan Xo'jamyorov (Tavallo), Komilbek Norbekov edilar. «Maktab» shirkatinig a'zolari ro'yxati M.Podshoxo'jayev va Avloniy bilan boshlangan. 11 muassisning qolgan 9 tasi ham el-yurtga tanish kishilar edi. Chunonchi: Toshhoji Tuyoqboyev, Nizomiddiqori Mulla Husainov, Abdusalom Abdurahimov, Rustambek Yusufbekov, Saidahmad Saidkarim Saidazimboyev, Mulla Yunus Tuyoqboyev, Habibulla Maqsudov, Nizomiddin Asomuddinov, Shokirjon Rahimov.

Avloniy tarjimai holida har ikki shirkatga to'xtab o'tgan. «Nashriyot»ning «ta'sis a'zolarindan» bo'lganligini qisqacha aytib, «Maktab»ga ayrim izohlar ham bergan. Chunonchi: «hukumatdan ruxsat olmoq uchun bir yarim oy ovora bo'lmoqqa to'g'ri keldi. Ikki marotaba bergan arizamiz rad qilinub, uchinchi marotabada ruxsat berdi. Men shul jamiyati xayriyaning muassis a'zolarindan bo'lib, boshlab ochiluvida bir yil raislik xizmatin ado qildim. Andin so'ng to hurriyat davrig'acha

---

[183] Toshkand maorifparvaroni tarafindan ta'sis qilingon «Nashriyot» shirkatining shartnomasi, Sanayi ta'sis 1914-y. 19-sentabr, notarial nusxa, 3-bet (Avloniy muzeyida saqlanadi).

[184] Dogovor tovarishestva «Knigoizdatel'stva Maktab», 1916-g. 18-marta, g. — T.: podlinnik (Avloniy muzeyida saqlanadi).

a'zosi bo'lib maktablarga, yetim va g'ariblarga yordam qilib kelinur»[185].

Avloniyning davr voqealari bilan aloqasini belgilashda u muharrirlik qilgan «Turon» gazetasi haqida ham to'xtab o'tishga to'g'ri keladi. «Maktab» shirkati va «Turon» jamiyatining yordami bilan 1917-yilning 20-aprelidan boshlab chiqqan bu gazeta, bir qaraganda, mazkur jamiyatning organiga o'xshab ketadi. Lekin gazeta chiqarish haqidagi gap «Turon» jamiyatining Nizom va dasturida yo'q. U «Nashriyot» va «Maktab» «shartnoma»laridagina uchraydi. Ammo ularda nomi ko'rsatilgan emas. Shularga qaramasdan, gazetaning jamiyatga qay darajadadir daxli bo'lishi, tabiiy. Buni gazetaning e'tirofi ham aytib turibdi.

Birinchi jahon urushi, mardikorlik voqealari jadidlarimizning g'oyaviy-siyosiy shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. 1917-yil fevral voqealari milliy uyushmalar-tashkilotlar tuzishga, millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashiga yo'l ochdi. O'sha yilning 9-martidayoq Toshkentda Munavvarqori boshchiligidagi bir guruh sotsialistlashib borayotgan «Turon»dan ajralib chiqib, «Sho'royi islomiya»ga asos soldi. Uning tashkil topishida Mustafo Cho'qayev, Abdulvohidqori, Mirkomil Mo'minov, Ahmadjon Temirbekovlarning alohida xizmatlari bo'lganini ma'lum qiladi[186]. Bu fikrni manbalar, shu jumladan, Mustafo Cho'qay o'g'li[187] va Ahmad Zaki Validiy[188] ham o'z xotiralarida tasdiqlaydi. Xullas, 1917-yil martining boshida Peterburgda Muvaqqat hukumat tuzilib, qo'shhokimiyatchilik maydonga kelgan bo'lsa, Turkistonda uch hokimiyat – Muvaqqat hukumatning Turkiston qo'mitasi, O'lka ishchi va askarlar sho'rosi, o'lka milliy sho'rosi sahnaga chiqdi.

Muvaqqat hukumat Turkiston qo'mitasi ilk qurilishida 9 kishidan iborat edi.

1. N.N.Shchepkin. 2. Preobrajenskiy. 3. Lipovskiy. 4. Elpatevskiy. 5. Shkanskiy. 6. General Abdul Aziz Davletshin. 7. Sadri

---

[185] Ko'rsatilgan manba, 110–111-b.

[186] O'zSY, 13-tom, 131-b.

[187] Mustafo Cho'g'ay o'g'li, Istiqlol jallodlari. – T.: G'.G'ulom nashriyoti, 1992.

[188] Ahmad Zaki Validiy To'g'on. Bo'linganni bo'ri yer. – T.: «Adolat», 1997, 40–57-b.

Maqsudiy. 8. Muhammadjon Tinishboy. 9. Alixon Bo'kayxon[189].

1917-yil mart oyining oxirlarida Turkistonning juda ko'p shaharlarida «Sho'royi islomiya»ning sho'balari tuzildi va ulardan vakillar 16–23-aprelda Toshkentda o'tgan qurultoyda ishtirok etdilar. Qurultoy jamiyat oldiga quyidagi vazifalarni qo'ydi:

1) Turkiston musulmonlari orasida siyosiy, ilmiy va ijtimoiy jihatdan zamonaga muvofiq islohot fikrini tarqatish;

2) butun Turkiston musulmonlarini bir fikr va maslakga keltirmoqg'a tadbir va harakatlar qilmak;

3) xalqni Yangi hukumatning maqsad va maslahatina yordamga da'vat etmak»[190].

Qurultoy dasturini Zaki Validiy tayyorladi. Asosiy ma'ruzachi ham u edi. Qurultoyda «Turkiston muvaqqat idora qo'mitasi raisi Shchepkin, a'zolaridan general Abdul Aziz, Sadri Maqsudiy, Muhammadjon Tinishboyev qatnashdilar. Behbudiy, Obidjon Mahmudov, Ashurali Zohiriy, Abdurahmon O'rozov faollik ko'rsatdilar. Qurultoy qizg'in bahslardan keyin federativ tuzilish tarafdori ekanligi haqida qaror qabul qildi[191]. Mustafo Cho'qayev o'z xotiralarida Milliy markaz sharoit taqozosi bilan tuzildi, deb yozgan edi.

1917-yilning 14-aprelida Toshkentga chaqirtirib olingan Mustafo Cho'qayev, o'lka ishchi va soldat sho'rolari s'ezdi, xususan, Qo'qondan kelgan Nekora nomli bir sotsialistning ma'ruzasi ustidan chiqadi. «Inqilobni rus inqilobchilari, rus ishchilari, rus soldatlari amalga oshirdilar, – der edi u. – uning uchun Turkistonda ham idora, hokimiyat, biz ruslarnikidir. Yerlilar biz nima bersak, shu bilan qanoatlanishlari kerak...» Toshkent shahar boshlig'i Mallitskiy esa Turkistonning barcha shaharlarida biri rus, ikkinchisi yerli aholiga oid ikki mustaqil shahar idorasi qurish loyihasini ilgari surardi. Shu ikki fikr «Turkiston o'lka Markaziy musulmon sho'rosi»ni tuzish rejasini tezlashtirib yuboradi va ko'p o'tmay, u amalga oshirilib, M.Cho'qayev rais qilib saylanadi[192]. Sarkotibi va tashqi ishlar

---

[189] Mustafo Cho'qay. 33–34-b.
[190] «Najot»g., 1917-y., 10-son.
[191] Zaki Validiy. Bo'linganni bo'ri yer, 47–48-b.
[192] Mustafo Cho'qay... 21–25-b.

bo'limi boshlig'i bo'lib Zaki Validiy ishladi. U ayni paytda, Milliy markaz organi «Kengash» gazetasining muharriri ham edi[193]. Munavvarqori, Obidjon Mahmud, Mahmudxo'ja Behbudiy, Ubaydulla Xo'jayev va sho''ba boshliqlari a'zo etib saylandilar. Toshkent qo'mitasi tuzilib, Munavvarqori va Sadriddinxon rahbar tayinlandilar[194].

Lekin ish yaxshi siljimaydi. Sabablarini u shunday ko'rsatgan edi: «Biz... Hozirgi zamon siyosiy qurilish e'tibori bilan bizdan oldinda bo'lgan buyuk bir xalqning changaliga tushib qoldik... Xalq ommasini uyushtiruvchi tashkilot yaratish tajribasi lozim edi...

... yo'limizda ko'plab to'siqlar turardi: milliy harakatimizning asosiy dushmanlari: tajribasizlik, ovul va qishloqlardagi milliy tashkilotlarning urug'chilik asosiga qurilganligi. Shaharlarda jadidchilik va qadimchilik kurashi[195]. Bularning har biri ham xatarli edi. Ayniqsa, keyingi ikkitasi rus hokimiyati sharoitida g'oyat tahlikali vaziyat yaratdi. «Sho'royi islom»dan Sherali Lapin bosh bir guruh «Sho'royi ulamo» nomli jamiyat tuzib ajralib chiqdi va «Xalifalik», «Mahkamai shariat» g'oyasini ilgari surib, real voqelikni his etishdan butkul mahrum ekanligini namoyish qildi. Monarxistlar bundan ustalik bilan foydalandilar. Jadidlar va bolsheviklarni dinsizlikda ayblab, ulamo guruhi bilan yaqinlashishga erishdilar. Ziyolilarning katta qismi kadetlar bilan birga edi. Biroq Yettisuvdagi mojarolar, xususan, rus muhojirlarining tubjoy xalq yerlarini tortib olib, o'zlarini haydab yuborishlari, g'alayon qilganlarida ayrimlarini ibrat uchun kigizga solib yoqib yuborishlari bilan bog'liq hodisalar va masalani hal etishda Muvaqqat hukumatning Toshkentdagi vakillaridan Shkanskiydan tortib, kadet, eserlargacha oshkora ruslarga yon bosishlari, shuningdek, ocharchilik avjiga chiqqan bir paytda Markaziy Rusiyadan yuborilgan g'allani faqat rus aholisiga tarqatishni yo'lga qo'yishlari jadidlarning kadetlardan hafsalasini pir qildi. Bu imkoniyatdan bolsheviklar unumli foydalandi. Jadidlarning muayyan qismi ularning tenglik, ozodlik, millatlar do'stligi haqidagi soxta

[193] Zaki Validiy. Bugungi turk eli... 359–360-b.
[194] Zaki Validiy. Bo'linganni bo'ri yer... 48-b.
[195] Shu asar, 26–67-b.

shiorlariga mahliyo bo'lib, bolsheviklasha boshladi. Lekin din va diyonatning nufuzi keng xalq ommasida g'oyat baland edi. Monarxistlar va kadetlar shu sababli «Ulamo»ni qo'lga olib, o'lkada juda katta siyosiy kuchni tashkil etdilar. Buni shundan ham bilsa bo'ladiki, Toshkent shahar kengashi saylovida jadid ziyolilari 11 o'ringa ega bo'lganliklari holda ruhoniylar, kadetlar, monarxistlar 65 ovoz qozondilar va vaziyatga hokim bo'ldilar. Fojia shundaki, «Ulamo» jamiyati shahar kengashi raisligiga Samarqandning sobiq harbiy voliysi 1916-yili Jizzaxni yer bilan yakson qillgan general Likoshin nomzodini ko'rsatgan edi. Shu sababli, M.Cho'qayev qayd etganidek, Turkiston milliy harakati dushmanlari bularga «inqilob ishlarini topshirib qo'yish mumkinmi?»[196] degan savolni o'rtaga qo'ydilar. Shu bois o'lka sho'rolarining II s'ezdi shovqin-suron bilan o'tdi. Ahmad Zaki Validiy ma'lumot berishicha, «Ulamo va qozilar, mutaassib rus shovinistlari va ruhoniylar bir tarafda, mahalliy ziyolilar va rus sotsialistlari ikkinchi tarafda qizg'in bahslashadilar. Musulmon ulamosiga tayangan kadetlar majlisiga hokim bo'ladilar. Ikkinchi taraf majlisni tark etadi»[197].

Ayni paytda, Umumrusiya miqyosida ham yig'ilishlar bo'lib, o'zaro fikr almashuvlar qizg'in tus oladi. 1917-yilning 1–11-mayida Moskvada bo'lib o'tgan Umumrusiya musulmonlari qurultoyi shundaylardan edi. Uning tarixini Zaki Validiy bunday hikoya qiladi:

Podsho hokimiyati qulagandan so'ng keng muhokama qilingan masalalardan biri Millat va Vatanning taqdiri bo'ldi. Mustamlaka maqomida yashab kelgan turkiy xalqlarning eng peshqadam vakillari ham birdaniga Rusiyadan uzilib, tamoman mustaqil bo'lib ketishni xayollariga sig'dira olmadilar. Har xil fikrlar o'rtaga tushdi: federatsiya, muxtoriyat, federal muxtoriyat, huquqiy muxtoriyat, unitar jumhuriyat va hokazo. Davlat Dumasi qoshidagi musulmon Fraksiyasi byurosi kelishib olish uchun umumrusiya yig'iniga tayyorgarlikni boshlab yuboradi. Biroq faollarning bu boradagi qarashlari g'oyat xilma-xil edi. Masalan, taniqli siyosiy arboblar osetin Ahmad Solihov, qozonlik adib Ayoz Ishoqiy, jurnalist Shokir Muhammadyorov

[196] Mustafo Cho'qay o'g'li.... 30–31-b.
[197] Zaki Validiy. Bugungi turk eli... 363-b.

federatsiya va muxtoriyatga qarshi edilar. Shu sababli, ushbu nuqtai nazarni qo'llovchi Kavkaz va Turkiston o'rniga o'zlariga fikrdosh bo'lgan ichki Rusiyadan yetarli vakillar chaqirib o'tkazmoqchi bo'ladilar. Federatsiya tarafdorlari esa bu fikrga qarshi chiqadilar va qat'iy hisob-kitob qilib, chaqirilajak 400 deputatning 35 tasigina ichki Rusiyadan bo'la olishi mumkinligini, qolganlari Turkiston, Kavkaz, Qrim va boshqa viloyatlardan taklif etilishi lozimligini talab qiladilar. Lekin bu fikr tashkiliy qo'mitaning 14-mart yig'ilishida o'tmaydi. Vaziyatni sezgan Zaki Validiy o'sha kuniyoq Toshkentga jo'naydi. Orenburgda qozoq, boshqird ziyolilari bilan uchrashadi, 24-martda Toshkentga yetib kelib, 4(16)-aprelda ochilgan 1-Turkiston musulmonlari qurultoyini o'tkazishda jonbozlik ko'rsatadi.

Turkiston va Qozog'istondan ko'plab vakillar keladilar. Qurultoyda Toshkentdan Ubaydulla Xo'jayev, qozoq advokati Jihansha Do'stmuhammad o'g'li O'roz hoji, Zaki Validiy, ozarbayjon Alimardon To'pchiboshi, Muhammad Amin Rasulzoda, qrimlik Safar Saidahmad A.Solihovning unitar respublika fikriga qarshi chiqib, federatsiya g'oyasini quvvatlaydilar. Federatsiya g'oyasi 271 ta qarshi, 446 ovoz bilan qabul qilinadi. Umumrusiya musulmon markaziy sho'rosi saylanadi. Uning tarkibida turkistonliklardan quyidagilar bor edi: Ubaydulla Xo'ja, Ahmad Zaki Validiy, To'gus o'g'li Qulboy, Jaynoq o'g'li Ibrohim (Almati), Abdulxoliq o'g'li Qo'qonboy (Samarqand), Rahmonberdi o'g'li Mulla Kamoliddin (Qo'qon), O'rinboy o'g'li Mulla Kamoliddin (Qo'qon), O'rinboy o'g'li Mulla Sulton, Qo'shchig'ul o'g'li Qurbonali (Oqmulla) va.h. Ular orasida to'rg'aylik Do'stjon qizi Oqqoqiz degan bir jurnalist qiz ham bor edi[198].

Sentabr voqealariga qaytamiz. Bolsheviklarning vaziyatdan foydalanib mahalliy ziyolilardan bir qismini o'ziga og'dirib olishi masalani hal qildi. Oktabr voqeasi kelib chiqdi. Aslida bu mafkura jadidlarimiz qarashiga uyg'un edimi?

Jadidlar va sotsializm

Jadidlar sotsializm g'oyalaridan bexabar edilar yoxud uni ko'r-ko'rona rad etadilar deyish mumkin emas. Ismoilbekning

[198] Zaki Validiy. Bugungi turk eli... 358–359-b.

1885-yili Turkiyada chop etilgan «Ovrupo madaniyatiga bir nazari muvozana (betarafona nazar)»[199] nomli risolasi, ayniqsa, «Tarjimon» gazetasining 1906-yil iyun-iyul oylarida bosilib chiqqan «Mazhabi ishtirokiyun» («Sotsializm ta'limoti») turkum maqolalari bunga dalil. Masalaning mohiyatini yaxshiroq anglash uchun gapni sal uzoqroqdan boshlashga to'g'ri keladi. Muallif bahs asosiga qurilgan risolasida «madaniyat» so'zining lug'aviy ma'nosini izohlaydi, «shahar», «shaharlik» ma'nolarini berishini, shaharda ovul-dashtdagiga nisbatan istiqomat barqarorroq va muhofazaliroq ekanligi ko'zda tutilayotganiga to'xtaydi, so'ng istilohiy jihatlariga ko'chadi. Va fan-texnikasi bilan dunyoni hayratga solgan kapitalistik yevropani ham, jannat va'da etuvchi sotsialistik Yevropani ham rad etadi. Har ikkisida ham axloqsizlik ko'radi. Buni atroflicha asoslaydi.

Muallifning fikrlash mantiqi quyidagicha: XIX asr Ovrupo madaniyati qadim Rim madaniyati ustiga qurilgan, uning bevosita davomidir. Rim madaniyati esa g'ayriaxloqiyligi sababli qulagan edi. Ularning o'rniga kelgan «kapitalist»-chi?

«Rumolilar asir etlari bilan hovuzlarda boqilgan baliqlarga to'ymasdan qanday qulagan bo'lsalar, ularning farzandlari bo'lgan ovrupolilar ham butun dunyoning mevalariga to'ymaydilar», – deb yozgan edi Gasprali.

Qadim Rim saltanati deganda bugungi o'quvchining ko'z o'ngiga, birinchi navbatda, bir to'da to'ralarning ko'nglini ochish uchun o'limga chiqqan gladiatorlar, mashhur Spartak keladi. XIX asr esa Ovrupo kolonializmining gullagan davri edi. Kitob chop etilgan 80-yillarda oq podshoning sevimli generali Skoblev olis Xurosonning Ko'ktepa qal'asini qonga botirib, Marvi Shohjahonni ishg'ol etgan edi. Rumolilarning XIX asrdagi farzandlari butun dunyoning mevalariga to'ymasliklari shunda. Muallif fikricha, yangi — XIX asr Ovrupo madaniyati bilan qadim Rim madaniyati mohiyatan bir xil. Qurollar, usullar, o'rnaklar o'zgargan xolos, natija va samara eskicha. Bugun «yangi dunyo madaniyati»ni da'vo qilayotgan va o'z

[199] «Ovrupo madaniyatiga bir nazari muvozana» 1885-yili Istanbulda Abuziyo matbaasida bosilgan. So'ng 1977-yili «Turk kulturi» jurnalida qayta chop etildi. Mehmet Qoplon nashrga tayyorlagan. Ushbu satrlar muallifi «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 1996-yil 26-yanvar (4-son) sonida e'lon qilgan.

otalarini rad etayotgan yoshlar mana shu xonadonda o'sib ulg'aygan, shu tuzumning mahsulidir. Ularning adolat haqidagi tushuncha va fikrlaridagi adolatsizliklar otalarinikidan ham ko'p. Otalar va bolalar qarashlaridagi umumiy jihat shundaki, har ikkalalarida ham haqqoniyat yo'q. Islomdagi haqqoniyat yo'q. Haqqoniyat nima? «Haqqoniyat deb ishda to'g'rilik, so'zda rostlikni aytilur... Ishda to'g'rilik birovning nafsiga, moliga xiyonat qilmov, so'zda to'g'rilik har vaqt rost so'zlamakdur»[200], – deb yozadi Abdulla Avloniy.

Gasprali barcha insonlarning o'zaro munosabatlari bir asosga – foyda asosiga qurilganini ta'kidlaydi, lekin ishlab chiqarish vositalarini kishi faoliyatini nazorat qiluvchi ushr (o'ndan bir miqdordagi yillik ekin solig'i), zakot (qirqdan bir miqdordagi yillik mulk solig'i) kabilarning inson va jamiyat hayotidagi favqulodda nazoratchilik rolini uqdiradi. Shular Ovruponing huquq va axloqiga asos qilib olinganida sotsialistik fikrlarga imkon qolmasligini aytadi. Shu tariqa Ovrupo ilm-fani bilan islom axloqining hamkorligidan maydonga keladigan yangi umuminsoniy madaniyat masalasini ko'taradi.

Gaspralining bu fikrlari G'arb va Sharq turmushini, g'oya-mafkurasini teran va atroflicha bilgan, shakllanib kelayotgan ilmiy sotsializm ta'limotidan xabardor kishining mulohazalaridir. Mashhur tatar adiblaridan Fotih Amirxon (1886–1926) ning 1914-yilda Gasprali vafoti munosabati bilan bir kichik xotirasi e'lon qilingan. Chamasi, 1906-yillar, F.Amirxon sotsialistik fikrlar bilan qiziqib yurgan payt. Umumrusiya musulmonlari qurultoylaridan birida Ismoilbekni savolga tutadi, sinfiy ixtiloflar haqida fikr so'raydi. «O'g'lim, siz yoshsiz, tajribangiz kam, shu sabab keragidan ortiq qattiq iboralar ishlatasiz. Siz kabi qaynoq ruhli yoshlarimiz millatga xizmat etib, uning madaniy darajasini o'stirsak, ul vaqtda biz sinfiy ixtiloflar to'g'risida so'zlasharmiz, fikr yuritisharmiz. Madaniyati yo'q bir millatning sanoati bo'la olmas. Modomiki, u yo'q ekan, hali sinfiy nizolarga ham erta. Bizning bugungi vazifamiz hali madaniy o'suvdan va shunga yo'llar hozirlovdagina iborat... Undan keyingisiga bizdan keyingilar qararlar», – deb javob

[200] Abdulla Avloniy. Turkiy guliston... – T.: 1992, 28–29-b.

beradi Ismoilbek. «Millat va madaniyat bobosi og'zidagi bu so'zlar ham ishonchli, ham ulug'vor yangrar edilar»[201], — deb tugatadi adib o'z xotiralarini. Ismoilbekning ilmiy sotsializm bilan jiddiy shug'ullangani uning yuqorida tilga olingan har ikki asaridan ochiq ko'rinib turadi. U yozadi: «Ovrupoda sotsialist tadbiri turlichadir. Bizcha, sotsialistlr Ovruponing hozirgi yashash tarzidan va madaniyatidan butunlay umid uzib, yangidan-yangi asoslar asosida yangi bir madaniyat qurmoq fikrida bo'lganlaridir. Ularning fikrlariga ko'ra, tamoman qayta qurish va inqiloblarga tuzum bor. Mulkchilik, meros, oila, sarmoya haqlari va boshqa asoslardan kelib chiqib, mulk, mol, tijorat, sarmoya, ish, hatto xotin va bolaning mushtarak bo'lishini istaydilar. Bu yo'l bilan har bir kishi ishidan, mashg'ulotidan boshqalar bilan barobar istifoda etar va dunyo lazzatlaridan mahrum qolmas emish!»

Gasprali ushbu ta'limot bilan bevosita shug'ullangan mualliflarning nomini tilga oladi.

«Sotsializm fikrlariga oid Ovrupo adabiyotida juda ko'p asar bor. Ouen, Fure, Sen-Simon va boshqalar juda ko'p kitoblarida uning sistemalarini hamda u haqdagi tasavvurlarini tushuntirganlar».

Muallif ushbu ta'limotining asosiy yo'nalishlari bilan tanishtiradi va unga o'zining munosabatini bildiradi: «... bularning yozganlari amalga oshsa, go'yo dunyoda hech bir baxtsiz kishi qolmaydi, barcha insonlar barobarlikda umum uchun mehnat qiladilar, rohat ko'radilar, safo va zavq oladilar. Har bir kishi dunyodan bir darajada istifoda etadi va hokazo.

Gaspralining munosabatlari g'oyat keskin. U bu ta'limotni hazm qilolmaydi, mohiyatan «g'ayriaxloqiy», ilmiy-amaliy jihatlariga ko'ra «savdoyilik» hisoblaydi va o'z fikrlarini shunday asoslaydi:

«Sotsializmga doir ilgari surilgan bu fikrlarning g'ayriaxloqiy bir savdoyi xayoldan iboratligini, bilmadim, gapirishga hojat bormi? Menimcha yo'q. Eski usulni tashlamoqchi bo'lgan sotsialistlar yomg'irdan qochib, qorga tutilganlarga o'xshaydilar. Tamoman barobarlik emish! Ham moddiy, ham ma'naviy.

[201] F.Amirxon. Ulug' millatchi to'g'risida kichkina bir xotira. «Ong»j., 1914-y., 18-son, 332—333-b.

Insonlar yaratilishida barobar yaratilmaydilar-ku! Ba'zimizda quvvat, ba'zimizda zehn ko'proq bo'ladi. Meros bo'lmasmish! Bu nima degani? Ota nafsini qiyib, bolalariga nimadir to'playdi, lekin u o'rtaga qo'yilib, har kimga taqsim qilinadi! Buning nimasi barobarlik? Nimasi adolat? Ammo oila ham bo'lmaydi, ota bolalarini, bolalar otalarini tanimaydilar, bas, merosga ne hojat? Gapning qisqasi, butun mamlakat, inson jamoasi bir kazarmaga aylanadi: aholi burg'u bilan turadi, burg'u bilan ish kuchiga ketadi, burg'u bilan umumiy dasurxonga chaqiriladi, burg'u bilan zavqu safo oladi, burg'u bilan biror xotinni istirohatga tortadi... Ofarin sotsialistlar! Naqadar go'zal bir madaniyat, naqadar go'zal bir yashash tarzi qurmoqchi ekansiz!»

Gaspralining ayrim fikrlari sovetparast o'quvchiga bir oz erish tuyulishi mumkin. Lekin muallif bularni aniq manbalardan olgan. U foydalangan manbalarning bir qismini yuqorida ko'rdik. Bular yoniga muallif batafsil to'xtalgan Djon Styuart Millning «Utilitarizm»ini ham qo'shish mumkin. Gasprinskiy foydalangan hamma kitoblarini ham ko'rsatgan emas. Chunonchi, «Mazhabi ishtirokiyun»da birorta nomni tilga olmaydi. Lekin sarlavhani «Mazhabi ishtirokiyun asarlarinda ijmolân istixroj» («Sotsialistik ta'limotga doir asarlardan olingan konspektlar») deb qo'yadi. «Ishchi va kapitalist, yana ham to'g'-rirog'i, turmush masalasiga doir Ovrupo tillarida juda ko'p asarlar yaratilgan»ligini, «iqtisodiyun va ishtirokiyun ulamosi bukun hammadan mo''tabar "tutilayotgani»ni qayd etadi. Va yo'nalishini quyidagicha belgilaydi: «maishat va tarixi insona ishtirokiyunning nazari; zulmi madaniya; adolatlaring adolati; tajdidi madaniyat». «Tarjimon»ning 1906-yil 62—76-sonlarida bosilgan ushbu «konspektlar» mazkur ta'limotning tarixi va taqdirini sodda, ommabop qilib tushuntiruvchi o'ziga xos ocherkdir. Unga muallif «Ovrupo madaniyatiga bir nazari muvozana» asarini ham kiritib yuborgan. Shu taxlit u yaxlit, tugal ocherkka aylangan.

Ocherk yerda insonning paydo bo'lishi, insonlar jamoasining shakllanishi bilan boshlanib, to'g'ridan-to'g'ri kishilikka xos xudbinlik, badnafslik va shu sabab yer, suv, o'rmonlarning ma'lum guruhlarga taqsim qilinishi, bir tarafdan kuch va kaltak, ikkinchi tomondan botil e'tiqod yordamida «ishlovchi» va

«oshovchi» sinflarning, muayyan imtiyozli toifalarning maydonga kelish jarayoni manfaatlar to'qnashuvining urushlarga olib kelishi qayd etilib, bu hol tarixi 40 asrcha belgilangani, so'nggi besh yuz yilda boshqacha bir suratga kira boshlagani, shahar-qishloq tafovuti kuchaygani haqidagi sotsialistlar nuqtai nazari yoritilib, boshlanayotgan «ishchi (rabochiy, proletariat) davri»-ning mohiyati beriladi. Bu «mohiyat» quyidagicha:

«Kishilarning katta qismi «ishlagani holda» zarurat va ehtiyoj ichida yashaganliklari, boshqacha bir qismi esa ishlamay, «ishlatib» rohat-farog'atda umr kechirganliklari ko'zda tutilib, uni o'zgartirish fikri kelib chiqdi»[202].

Muallif fikricha, bu ko'proq «g'arb madaniyati va Ovrupoda» ko'rinmoqda va u ishtirokiyun mazhabining dunyoga kelishiga asosiy sabab bo'lgan. Ozodlik va demokratiyaning yoyilishi, maorif-matbuotning yo'lga qo'yilishi esa, uning keng tarqalishini ta'min etdi. Xullas, «ishtirokiyunning asosiy qoidalari» quyidagilardan iborat:

1. Har bir ishchi ishlab chiqargan mahsulotiga o'zi ega bo'lsin.

2. Yer, sarmoya, zavod-fabrika egasi bo'lsa-da, o'zi mehnat qilmagan kishining mazkur vositalar yordamida hosil bo'lgan mahsulotga haqqi yo'qdir.

3. Sarmoya, zavod-fabrika va boshqalar ishchilarnikidir. Mol, ish va mahsulot umumiydir.

4. Bolalar, nogironlar, qariyalarni jamoat boqadi.

5. Hukumat keng xalq tomonidan saylanadigan Hay'atdan iborat bo'ladi. Saylovda barcha teng va hamma saylash, saylanishga haqli. Hozirgidek birgina mulk yoxud yer egalarigina haqli emaslar[203]. Demak, ishchi deganning dushmani aniq. U — mulkdor, mulk egasi. Binobarin, hamma harakatlar shunga qarshi kurashga qaratiladi. Bu kurash qanday bo'lmog'i kerak. Ishtirokchilar bu masalani ham o'ylab qo'yishgan. Chunonchi:

1) har toifa ishchilar yakka-yakka va mushtarak holda «Ishchilar partiyasi»ning tartibiga bo'ysunadilar va butun dunyo ishchilari birlashib mulkdorlar, kapitalistlar zulmidan qutulish yo'lida harakat qiladilar va bu fikrlar targ'ibotini uyushtiradilar;

---

[202] «Tarjimon»g., 1909-y., 19-iyun, 66-son.
[203] «Tarjimon»g., 1909-y., 21-iyun, 67-son.

2) din, jins, til farqlariga e'tibor qilinmaydi. Chunki ishchi bilan ishlatuvchi orasidagi ixtilof g'oyat qadim va muhim bo'lib, din, jins, vatan tushunchalaridan ham kuchlidirki, tinch yo'l bilan hal qilish mumkin emas. Faqat raqib-dushmanni, ya'ni mulkdorlarni, boylarni daf' etib, ishtirokiyunning qoida va usulini joriy etmoq lozim bo'ladi;

3) har qanday holda, xususan, saylovlarda din va millat farqlanmay, barcha ishchilar bir millat kabi harakat etmoqlari lozim. Ish birligini din va millat birligidan mo''tabarroq tutish kerak. Jamoat va davlat yuritishni ishchilarning vakillari qo'liga olib bermoqqa urinish;

4) butun dunyo, barcha millatlar ishchilari birlashingiz. Eng aziz qardoshlik ish qardoshligidir. Eng buyuk dushmanimiz raqiblarimiz bo'lgan mol-mulk egalari firqasidir. Hokimiyatni ularning qo'lidan olib, mazhabi ishirokiyunga muvofiq qonun va idorai mulk tartib etaylik[204].

Ishtirokchilik aslida G'arbga xos hodisa edi. U Sharq tabiatidan, ayniqsa, islom turmushidan uzoq edi. Buni Gasprali 1885-yildayoq o'zini baland qo'yib aytgan edi. So'ng ham jadidlarimiz bu haqda ko'p gapirdilar. Lekin Sho'ro saltanati ularning bu gaplarini, ya'ni marksizmning Sharqqa to'g'ri kelmasligi haqidagi fikrlarini eng katta jinoyatlar qatorida sanadi.

Mavzuga qaytamiz.

Ismoilbek ishtirokchilarning maslak-mazhabini o'quvchi diqqatiga havola etarkan, ulardan har qanday musulmon taajjubga tushishini yaxshi anglaydi.

Ikkinchi tomondan, ishtirokchilarning olam tartibotidan shikoyatlarida ma'lum asos ko'radi. Ovrupo hayotida, iqtisodiy turmushida islom dunyosida bo'lmagan nomutanosibliklar borligini ta'kidlaydi. U yozadi:

«Bu narsalarni o'qigan musulmonlar «Voy, shunaqa ham bo'ladimi? Hamma baravarmi? Har bir kishining o'z qismati bor-ku!» kabi ko'pdan-ko'p savollar beradilar, ajablanadilar. Lekin bizning «qismat» deganimiz Ovrupoda, xususan ishtirokchilar orasida boshqacha sharh qilinadi».

---

[204] «Tarjimon»g., 1909-y., 21-iyun, 67-son.

Muallif e'tiqodicha,Ovrupodagi qusurlar islom olamida yo'q. Shu sababli, u islom mamlakatlariga yoyilmaydi. Qolaversa, vaziyatlar farqli. Musulmonlar hayotining islohi, adolatning tatbiq va ijrosi bu yerda boshqacharoq amalga oshadi.

Islom olami, musulmonlar hayoti ham mukammallikdan hali juda uzoq, albatta. Qusurlar ko'p. Lekin vaqti bilan hammasi tuzaladi. Adolatsizliklar barham topadi. Gap hozir u haqda emas, pirovard-maqsad haqida. Kelajak haqida. Shu munosabat bilan adib 1885-yili chop etilgan «Ovrupo madaniyatiga bir nazari muvozana» asarini keltiradi. «Tarjimon» sahifalarida bosilib chiqayotgan «Dorul-rohat musulmonlari»ni tilga oladi. U asardan asosiy maqsad kelajakdagi islomiy hayot ekanligini aytadi. «Dorul-rohat musulmonlari»da shunday bir lavha bor. Eng og'ir gunoh qilganlar kishi haqiga xiyonat qilganlardir. Undaylarni kishilar o'z oralaridan chiqarib yuboradilar. Jamoat ular bilan aloqa qilmaydi. Olis qishloqlarda yashab, tavbasiga tayanib, xalq ularning gunohidan o'tgandan keyingina kelib elga qo'shiladilar. Ismoilbek musulmonlarni ishtirokchilardan har qancha uzoq tutmasin, ushbu mazhabning islom olamiga ham kirayotganini e'tirof etishga majbur bo'ladi. Qozonda shu yo'lga xizmat qilish uchun ta'sis etilgan gazetani tilga oladi.[205]

«Mazhabi ishtirokiyun» mohiyatan insonlikka, insoniyatning asriy tajribalariga ziddir. Chunki u insonni hayvondan ajratuvchi din-diyonatni rad etadi, qon-qarindoshlik ifodasi bo'lgan millat-milliyatni tan olmaydi. O'zlikning birinchi unsuri hisoblanadigan tilni qabul etmaydi. Bularning hammasini ish birligiga almashtiradi. Ishdagi birlikni muqaddas tutadi.

Bu mazhabning xavfli tomoni, kishilik jamiyatini boy-kambag'al, ishchi-ishlatuvchi degan ikki guruhga ajratishigina emas, ikkalasini bir-biriga qarama-qarshi qo'yishi, birini ikkinchisining dushmani sifatida talqin qilishi va eng yomoni, masalani faqat kuch, zo'rlik bilan hal etmoq fikrini ilgari surishidir.

---

[205] Bularning biri «Tong» (to'liq nomi «Tong yulduzi») 1906-yilning 18-mayidan 16-noyabrga qadar (jami 65 son) Qozonda eserlar tomonidan chiqarilgan. 19-iyun (10-son)idan boshlab shoir S.Ramiyev (1880–1926) muharrirlik qilgan. Ikkinchisi «Ozod» ham Qozonda shu yili (1906).chiqarilgan.

Gasprali fransuzlar orasida keng tarqalgan bir iborani keltiradi. Bu «Tortishib-kurashibgina sen o'z haqqingni olasan» degan iboradir. So'ng Rusiya ishtirokchilarining Davlat Dumasida «mulklarni bepul olib, musodara qilib, xalqqa bo'lib berish»ni (ta'kid bizniki — B.Q.) taklif etganliklari»ni keltiradi. Ko'p yerlarda ishchilarning o'zaro kelishib ish tashlaganliklari, qishloqlarga, mulkdorlarga hujumlar qilganliklari, g'alla-donlarni yondirganliklari ishtirokiyunchilar ishining natijasidir»[206], deb hisoblaydi. Bu hol faqat Rusiya uchungina xos emas. Bularning namunalarini Fransiyada ham ko'plab ko'rish mumkin. Lekin uning musulmonlar orasiga yoyilishi, muallif fikricha, ehtimoldan uzoq.

Sababi: 1. Vaziyatlar har xil. («Ovrupoda yigirma million xalqning 16 millioni yap-yalang'och «ishchi»dir. Bizning tongchi, ozodchi birodarlarning «Boy, boy!» deya qichqirib, bularga dushman qilib ko'rsatganlari o'zlari Moskvaning prikazchiklaridir. Ko'pgina boylarning daftarlari, veksellari ko'zdan kechirilsa, prikazchikdan farqi yo'g'ligi ma'lum bo'ladi. Ammo Ovrupoda bunday emas. Qozonda bir Yunusov yoki Husaynov, Kavkazda bir Taqiyevning bo'lishi istisno holdir[207].

2. Islomiy tarbiya, turmush yo'l bermaydi («Ovrupo tillarida muqobili bo'lmagan «ag'niyoyi solihin», «fuqaroyi sobirin» muqaddas iboratlari takomillashuv islohotining qaysi yo'ldan borajagini belgilab beradi).

Ismoilbek insonlarning nafsi va kibru havosini bir qadar jilovlab turadigan «zakot», «ushr» kabi soliqlar, islomiy tushunchalar haqida oldin ham yozgan edi. Bu yerda davlatmandning «solih» (xushfe'l, aqlli, muloyim), kambag'al (fuqaro)ning sabrli bo'lmog'i shunchaki orzu emas, farz hisoblanganligi haqida gap ketyapti. Ikkinchidan, millat bir-biridan u qadar keskin farqlanadigan guruhlarga ajralgan emas. Bir-ikki istisno boyni hisobga olmaganda, aksariyatining ahvoli bir-biridan uzoq tushmaydi. Ovrupo haqida bu gapni aytib bo'lmaydi («Ovrupoda yigirma million xalqning 16 millioni yap-yalang'och «ishchi», 20 million musulmon orasida yarim million xolis «ishchi» yo'q»).

---

[206] «Tarjimon»g. 1906-y. 10-iyul, 75-son.
[207] «Tarjimon»g., 1906-y., 12-iyul, 76-son.

Qolaversa, islom dunyosi, xususan turkiy xalqlar «faqir holda. Va bu faqirlik, nochorlik birgina mulkda, sarmoyada emas, ilmda, fanda, maorifda, san'at va hunarda» hamdir.

Xulosa qanday?

«Mazhabi ishtirokchi Ovruponing yo'lidir. U Ovrupogagina uyg'un bo'la oladi. Sharqning, xususan islom olamining ilgarilash yo'li tamom boshqa. Bu aqidaga ko'ra, «janobi haq oldida bandalari tengdir, har bir kishi dunyodagi rizqiga va rohatiga haqlidir. Madaniyat va turmush ushbu matlabcha yo'l tutmog'i kerak. Lekin buning uchun dunyoni bir-biriga qarama-qarshi etmoq kerak bo'lmaydi, u holda rohat izlab, yanada kattaroq zahmatlarga duchor bo'lamiz.

Har kimga ish, yer, rohat berilmog'i lozim. Lekin hech bir badalsiz, zo'rlab musodara etmoq, talamoq bilan emas. Nizom va shariat buni «haqsizlik», dini mubin «harom» deb biladi».

Gasprali Ovrupo ilmini egallash barobarida o'zlikni anglashga va saqlashga chaqiradi. Yana yaponlarni misol tutadi. Chala-chulpa o'qimaganliklarini, yuz-yuzlab Ovrupo, Amerika universitetlarida tahsil olganliklarini, madaniyat atalmish qozonda armonsiz qaynaganliklarini, ishtirokchilikni ham obdan ko'rganliklarini, biroq «maslaki milliyatlarini, tarixlarini bo'lar-bo'lmas xayollarga fido etmagan»liklarini uqdiradi. «Nom, shuhrat, rohat, saodatni milliyatlari doirasida hal qilish, vujudga keltirish uchun kurashgan»liklarini qayd etadi.

Muallif bozorda «sakkiz tojir bilan 15 prikazchik»ni talashdirib, «tomosha qilmoqdan boshqa narsaga yaramaydigan... ziyolilarmiz» bilan yapon ziyolilarini qiyoslar ekan, bu holning sababini izlaydi. Va uni **milliy maktablarimizning nuqsonidan, yaroqsizligidan** (tagiga biz chizdik – B.Q.) topadi. O'quvchiga murojaat etar ekan, shunday yozadi:

«Haq va harom nima?» «Nima bo'lsa bo'lar, har kim to'ysin!» desak, Ishtirokchi mazhabining yo'li ochiq. Lekin «ha, harom ham bor, och kishilarimiz ham bor» desak, halol yo'l bilan borib, madaniyat va oliy jamiyatni islomiyat doirasida izlashimiz kerak bo'ladi.

Insoniyat birgina non bilan qoim emas. Insoniyat ruh va jon bilan musharrafdir. Hayvonot yeb-ichish bilan qoyim. Insoniyat undan haq va hurriyat bilan farqlanadi»[208].

---

[208] «Tarjimon»g., 1906-y., 12-iyul, 76-son.

Turkiston ziyolilari Gaspralining bu fikrlaridan xabardor bo'lganliklariga shubha yo'q. Ilg'or ziyolilarimiz, ehtimolki, «Ovrupo madaniyatiga bir nazari muvozana» bilan ham tanish bo'lganlar. Chunki Istanbul bilan bordi-keldi, usmonli davriy matbuoti namunalarining Turkistonda yoyilishi, nihoyat, Mahmudxo'ja Behbudiyning «Xayrul umuri avsatuho» («Ishlarning yaxshisi o'rtachasidir»)[209] maqolasi shunday xulosa chiqarishga imkon beradi.

Maqola, tabiiyki, sovet davri tarixshunosligida marksistik nuqtai nazardan tanqidiy baholangan edi[210]. Chunki u Gasprali izidan borib, ishtirokchilikka rad etgan edi. Maqolada muallif birgina ishtirokchilikni emas, umuman shu davrdagi barcha siyosiy kuchlarga o'z munosabatini bildiradi. Mashhur hadisning sarlavha qilib olinishi, ruhi va yo'nalishi mo''tadillikka moyil ekanligini ko'rsatib turibdi. Muallif garchi keskin ifodalardan o'zini tiyishga urinsa-da, ona Turkistonning taqdiri bilan bog'liq hodisalar haqida gap ketar ekan, sovuqqon bo'la olmaydi. «Rusiya davlatining tariyqi hukmronligi noqis ekanligi»ni, «davlat qonunlarining isloh va tajdid»ga muhtojligini oshkor aytadi va mamlakatdagi siyosiy kuchlarni o'z dunyoqarashi, birinchi navbatda, xalqi va Vatani manfaatlaridan kelib chiqib baholashga urinadi. Uningcha, Rusiya siyosiy sahnasida 4 firqa mavjud: monarxistlar («buyro'kratiyai mustabid») partiyasi; kadetlar («mashrutai avomiya») partiyasi; sotsialistik («ishtirokchi») partiya; Rusiya musulmonlari ittifoqi partiyasi. Monarxistlar mavjud tuzumning himoyachilaridir. Ularning kelajagi yo'q. Mamlakatni tanazzulga slogan — shular. Ular hokimiyat tepasida tursalar, Turkistonning yanada xarob bo'lishi aniq, hatto sekin-asta yo'q bo'lib ketishi mumkin. Turkiston hozir shunday bosqichda turibdi. Afsuski, bu siyosatni hamma ham bilavermaydi. Chunki ko'zbo'yamachilik ko'p. Masalan, «Turkiston obod bo'ldi. Ilgari boy kam edi, millioner yo'q edi...» deydilar. 6 mln turkistonlik orasida 3 millioner bor. Ularni ham millioner deb bo'larmikan?! Katta imoratlar hammasi yahudiylarniki, ovrupoliklarniki. Turkistonliklar sinmoqda... vaqflar ketgan, madrasalar xarob... Kelajak yo'q.

---

[209] «Xurshid»g., 1906-y., 11-oktabr, 6-son.

[210] А.В.Пясковский. Революция 1905—1907-гг. в Туркестане. — М.: 1958, 559-с.

Muallif kadetlar partiyasiga rag'batini yashirmaydi. Bu firqani mo''tadil («hizbi mutavassi») deb hisoblaydi. «Rusiya mamlakatiga mundin behroq hizb yo'qdur» deb biladi (Aslida maqola sarlavhasi ham kadetlar partiyasini ko'zda tutardi).

Behbudiy «Ishtirokiyun» firqasini ikkiga bo'ladi. Sotsial-demokrat («ishtirokiyuni o'myun»), sotsial-revolyutsioner («ishtirokiyuni inqilobiyun»). Har ikkisining o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadi mavjud «barcha qonun, mulkiyat qoidalarini butun buzub, mol va yerlarni hamma xaloyiq o'rtasiga mushtarak qilmoq», «boylik va kambag'allikni yo'q qilib, dunyo moli rohatidan hammani barobar foydalantirmoq...» Muallif fikricha, avvalo, bunga davr, mavjud sharoit imkon bermaydi. To'g'ri, u mazkur g'oya amalga oshishi mumkin emas, chunki u g'ayriilmiydir, g'ayriaxloqiydir, binobarin, qayriinsoniydir, deb aytolmaydi. Hamonki dunyo kutilmagan ishlar bilan to'la ekan, bu ham amalga oshib qolishi mumkin-ku («balki joriy bo'lur») degan xavotir ko'nglining bir chetida turadi. Shunga qaramasdan, uni «xayoliy» deb baholaydi va **«bu toifaga qo'shilmoq biz musulmonlar uchun nihoyatda zararlikdur», «pro'qramlari..., oila bobidagi fikrlari ham aslo-aslo to'g'ri kelmayur...** «(tagiga biz chizdik — B.Q.) deb xulosa chiqaradi. «Rusiya musulmonlari ittifoqi» muallif ta'kidlashicha, «partiya suratiga kirg'oniga bir yil bo'lgan», binobarin yangi partiya. U ilman, molan, dinan musulmonlarning taraqqiy va taoliylariga xizmat qiladur». Siyosatan esa biror partiyaga qo'shilib ish ko'radi. Va u, ehtimolki, kadetlar partiyasidir.

Behbudiy, millat orasida chuqur tomir otgan «g'araz, nafsoniy, hasad, bahs va munozarai shaxsiyalarni tark etmoq»qa, «shu maslak va shu jamiyatga tobe va xodim bo'lmoq»qa chaqiradi. Din va davlatga, Vatan va Millatga xizmat etmoqni sharaf hisoblaydi.

1917-yilda esa biz Abdurauf Fitratning Oktabr voqeasi munosabati bilan, «Rusiyada yangi bir balo bosh ko'tardi. Bolshevik balosi!..» degan keskin fikrini bilamiz. So'ng 1919-yilda «kommunist» Abdulla Avloniy butun Turkistonni «fano va ayanch hol»ga solgan, «har yerda ish boshinda o'lturgon», «o'zlari oshalab, biz musulmonlarga yalatuv» bilangina kifoyalangan «rus tovarishlarimiz» haqida yozdi...

Adabiyot — millat oynasi

Avloniy bir she'rida «Oinayi har millat erur til-adabiyot» deb yozgan edi. Haqiqatan ham, jamiyatni tarbiyalashdagi adabiyotning buyuk rolini jadidlarimiz yaxshi anglaganlar. Gap shundaki, Rusiya istilosi tufayli o'lkaga kirib kelayotgan Ovrupoga ko'r-ko'rona ergashish, o'zlikni yo'qotish xavfi kuchli edi. Jamiyatni yangilash Yevropalashtirish, to'g'rirog'i ruslashtirishga aylanib ketishi mumkin edi (aslida shunday ham bo'ldi). Bu holni faqat bizda emas, atrof-qo'shnilarimizda ham kuzatish mumkin. Masalan, rus adabiyoti rus xalqining G'arb madaniyatiga ko'r-ko'rona ergashishiga chek qo'ydi. Ismoilbekning so'zlarini eslaylik: «Petru zamonindan yuz sanaya qadar rus ziyolilari ovrupolilarga kulgili darajada taqlid etardilar... Shuncha orqada bo'lishlariga qaramay, erkin fikrda Russoliq, Volterliq sanarlar, asirlikni xushhol ko'rmak ila barobar mashrutiyatdan, jumhuriyatdan dam ururlar edi. Taqlidda ifrot darajalara vorub ruscha so'zlashmoqni ayb va nodonliq o'ylab, yarim-yorti fransuzcha so'zlashishni vojib bilurlar edi. Lekin so'ng, rus adabiyoti ilgarilab ketgach, taqlidchilik ozaydi, ruslar ruscha fikrlay boshladilar»[211] (ta'kid bizniki—B.Q.).

Bu adabiyot mohiyatan yangi adabiyot edi. Chunki u qarashlarni yangiladi, fikrlarni yangiladi, o'zlikni qaytardi.

Shunday vaziyat bir oz boshqacharoq shaklda usmonli turklarda namoyon bo'ldi. XIX asr adabiyotining e'tiborli tadqiqotchisi prof. A.H.Tanpinar asarlaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, «yangi» va «eski» masalasi «Tanzimot Farmoni» bilan deyarli baravar maydonga kelgan bo'lsa-da, adabiy jarayonga so'ngroq o'tgan.

Dastlab yangilanishning mafkurasi — «madaniyatchilik», «mashrutiyatchilik», «islomchilik» yuzaga chiqqan. So'ng «fikr va san'at hayotida» Ahmad Javdat Posho (1823—1895), Ibrohim Shinosiy (1826—1871) kabi «yangilikning buyuk muharrirlari»[212] yetishganlar. Lekin «jadid adabiyoti» («adabiyoti jadida») atamasi keyinroq, hatto XX asr boshlarida paydo bo'lgan. Va u

---

[211] «Tarjimon»g., 1907-y., 10-mart, 52-son.

[212] Prof. Ahmad Hamdi Tanpinar. 19-asr turk adabiyoti tarixi. 7-nashri, Istanbul, 129—248-b.

asosan, adabiyotdagi g'arbchilik (tamoyili) tendensiyasini aks ettiradi[213]. Shuning uchun ham u bilan yondash holda «milliy adabiyot davri» (1908–1922) degan tushuncha ishlatiladi.

«Tarjimon» gazetasi 1906-yildan boshlab «Oqgul dastasi yoki adabiyoti jadida xizmatlari» sarlavhasi bilan materiallar berib borgan. Muharrir va muallif Ismoilbek ushbu «adabiyoti jadida»ning «eng ibtido»si «guldastamizning birinchi gullari» deb Mirzo Fathali Oxundov (1812–1878) va Qayum Nosiriy (1825–1902) nomlarini keltiradi[214]. Shuningdek, 15-sonda Majid Fanizoda (1886-?), 22-sonda Narimon Narimonov (1870–1925)lar bilan tanishtiradi.

Abdulla To'qay esa K.Mutiyqiyning «Fikr» gazetasida 1907-yil 22-aprelda bosilib chiqqan «She'rlarimiz» nomli maqolasida «17-oktabrga qadar (1905-yildagi Manifest ko'zda tutiladi– B.Q.) nima uchun tatarda hech bir she'r bo'lmagan?»[215] degan savolni qo'yadi. Tatar adabiyotshunoslari o'rinli izohlaganlaridek, shoir ungacha bo'lgan tatar she'riyatini inkor etmoqchi emas, albatta. U davr talabidan kelib chiqib[216] masalaga yondashmoqda, shunga javob beradigan she'rlarni ko'zda tutmoqda. Xo'sh, davr nimani taqozo etardi? «Bu turmushga qalban rozi bo'lgan kishi musulmon ham, inson ham emas, degim keladi.[217]»...Millat ma'rifatli kishilarga va xalq foydasini o'zining har xil shaxsiy manfaatidan, tama'dan ustun qo'yadigan, millat foydasini ko'z qorachig'iday aziz tutadigan millat bahodirlariga muhtoj. Millat otalarga, onalarga, muallimlarga, muallimalarga, murabbiylarga, murabbiyalarga, chinakam adabiy iste'dodlarga, salohiyatlarga muhtoj. Bizning millat ham boshqa millatlardagi kabi himoyasiz, mol-joysiz, faqir va ishchi xalqning foydasiga tirishuvchi, besh kambag'alni bir boy itiga almashtiradigan vaqtlar o'tganini anglovchi va anglatuvchi yigitlarga muhtoj. Bizning millat ham Pushkinlarga, graf Lev Tolstoylarga, Lermontovlarga muhtoj. Qisqasi, bizning millat ham boshqa millatlarning taraqqiylariga sabab bo'lgan chinakam yozuv-

---

[213] Turk dunyosi el kitobi, 3-jild, 2-nashri, 1992, 475–476-b.

[214] «Tarjimon»g., 1906-y., 5-son.

[215] Abdulla To'qay. Asarlar. 4 tomlik, 3-tom, Qozon, 1976, 225-b. (tatar tilida).

[216] Shu kitob, Izohlari, 411-b.

[217] Shu kitob, 197-b.

chilarga, rassomlarga va boshqalarga muhtoj»[218]. Bunday ko'z-qarash Turkiston ma'rifatchilariga ham begona emas edi. O'lkamizdagi ilg'or ziyolilarning To'qayning bu fikrlari bilan tanish bo'lganliklariga shubha yo'q. Lekin bu fikrning to'g'ri va zarurligini butun qalb va vujud bilan his qilish, bu xulosaga ongli ravishda kelish masalasi ham bor edi. Bu esa bizda bir qator sabablarga ko'ra salgina kechroq, 10-yillarda paydo bo'ldi. Umuman olganda, adabiyotni millat va xalqning ehtiyojlariga bo'ysundirish va davr talablari nuqtai nazaridan ko'rib chiqishga urinish 1905-yildan ko'zga tashlangan edi. Buni o'sha davr vaqtli matbuoti sahifalarida bosilgan ayrim maqola va she'r-lardagi munozaraviy ruhdan sezib olish mumkin. Chunonchi, «Turkiston viloyatining gazeti»da 1905-yil 31-oktabr sonida namanganlik Mulla Ubaydulla Mulla Abubakr o'g'li Zokirov (Zululiy)ning redaksiyaga maktubi va bir she'ri bosilgan. Zululiy «Ibrohimuf otliq»[219] kishining «Hayot» gazetasiga yozgan bir maqolasi haqida gap ochadi. Muallifning «Farg'ona muzofoti va Buxoroi sharif va o'zga Turkiston viloyatidagi sartiyalarga tanish, bemaza va behuda, shariatga to'g'ri kelmagan «so'z» aytganidan g'azablanadi, uni «behudagarchilik» deb hisoblaydi. «Ibrohimuf» radifli she'r yozib muallifni masxara qiladi. Ibrohimov maqolasining nomi ham, mazmuni ham qorong'u. Lekin Zululiy e'tirozlaridan maqolaning tanqidiy xarakterda-ligini taxmin qilish qiyin emas. Va u tanqid jaholat, qoloqlik ustida ketib, keskinroq ifodalangan bo'lishi kerak. «Izoi mo'min harom» aqidasi bilan ulg'aygan, klassik she'riyatimizning ko'proq «lutf»u «maleh»idan tarbiya topgan Zululiyga bu malol kelgan. Shuning uchun ham u Ibrohimov tanqidini «qoidadan tashqari» topgan va unga munosabat bildirgan. Asosiy gap so'zning, adabiyotning aniq sharoitdagi vazifasi, maqsadiga kelib taqalmoqda. A.N.Samoylovich Ahmad Tabibiy va uning atrofi-dagi ayrim shoirlar haqida to'xtalganida diqqatni ularning «chig'atoy adabiyoti oltin asrining she'riy asarlarini... ko'r-ko'rona, rangsiz va jonsiz takror etuvchi hozirgi... adabiyotiga

[218] Abdulla To'qay. Ko'rsatilgan kitob, 154–155-b.

[219] Muhiddin Ibrohimov — 1916-yilda bosilib chiqqan «Loshmon» to'pla-mining tuzuvchisi va mualliflardaan biri.

noxush munosabatlariga jalb etgan edi[220]. Bu «noxush munosabat» sekin-asta matbuot sahifasiga ko'chdi va uning atrofida bahs va munozaralar boshladi. She'r va shoirlikdan bahs ochgan maqolalar paydo bo'ldi. Qator she'riy kitoblar, dramalar muallifi, 1900-yilda Qo'qonda birinchi bor fotografiyani joriy qilgan Ibrohim Davronning 1909-yilda bosilgan «Adabiyotimiz va shoirlarimiz»[221] maqolasi shulardan biri edi. Muallif unda «shoir nadur?» degan savol qo'yadi va u «tabiatning eng savdoli zamonlaridagi muzayyan tabassumlarindan» maydonga kelishini ta'kidlaydi. U shoirni an'anaviy estetikaga ko'ra «lisonul g'ayb» sifatida ilohiylashtirmaydi. Unga ancha real yondashadi. Uningcha, shoir, avvalo, tabiat farzandi. Shoirlikning birinchi belgisi — iste'dod. U shunday iste'dodki, «xandalarinda gulda shabnam kabi girya osorlari, giryalarinda qavsi kuzah kabi ibtisom alomatlari ko'rinur». Shoirga berilgan ta'rif (tabassumda nola, nolasida tabassum bo'lishi) ham shoirona. Lekin u so'z ijodkorlarining mohiyatiga zid bormaydi. Aksincha, iste'dodning davrga hamohangligiga, jamiyat farzandi ham ekanligiga ishora qiladi. Demak, shoir, birinchidan, ayricha bir iste'dod egasi. Ikkinchidan, agar u chindan shoir bo'lsa, tabussumida ko'z yosh, ko'z yoshida tabassum namoyon bo'lmog'i kerak. Muallif mana shu ta'rif bilan adabiy Turkistonga ko'z tashlaydi: «Bizning Turkistondagi yakka jilov va bebosh, sahroyi qulun, shoir nomindagi pivoxo'r, sharlatan, o'z-o'zini tonimag'onlari kabi fahsh, safsatachilikdan boshqa bir ish qilolmaslar va qilmoqg'a muqtadir ham emaslar».

Muallif qoniqmayapti. Uningcha, yorqin iste'dodlar yo'q (Tabibiy A. N. Samoylovichga aytgan edi: «Bularning hammasi uchun Navoiy o'rnakdir, lekin hech biri uning iste'dodiga ega emas»). Ular klassik she'riyatimizni ham bilmaydilar (o'z-o'zini tonimag'on»). Nihoyat, ular ma'naviy poklikdan, yuksak ichki madaniyatdan yiroqlar (pivoxo'r-sharlatan»)[222].

Gap asosiy maqsadga, nima uchun shunday xulosaga kelish sababiga ko'chadi:

---

[220] TVG, 1908-y., 47-son.

[221] ЗВОИРАО (Записки восточного отделения императорского русского археологического общества), том 19, 1909-г.

[222] Ko'rsatilgan manba.

«Chunonchi, el, xalq, toifa, guruh, qabila, xayl, millat, qavm, ummat, tabiat va hokazo shu misoldagi ta'birlarni nadan iborat — bir jumla o'ldig'ini-da ravshan anglayamaz so'qur tabiatlar...» So'ng esa ibrat sifatida usmonlilarning «olamjahon» shoirlari keltiriladi...

Endi ba'zi narsalar ravshan bo'lgandir. Muallif shoirning ijtimoiy tushunchasini, davr ehtiyojlarini his etish va qondira olish darajasini iqtidori mezoni qilib olmoqda. Abdulla To'qay «17-oktabrga qadar tatarda hech bir she'r bo'lmagan» deganida ham shunday qarashdan kelib chiqqan edi. I.Davron ham «hozirgacha necha yuzlarcha osori adiba nomindagi zohir mavjud kitoblarimizni bir karra nazardan kechursak, hech bir ishga yararliq yoki bir maqsadga ifoda qilinmish mukammal bir so'z topilmaz»... degan xulosaga kelarkan, Abdulla To'qay bilan bir pozitsiyasida turgani ma'lum bo'ladi.

Jadid adabiyoti haqida ayrim qaydlar

Jadidchilikning ruhi va mazmunini o'zida bekamu ko'st namoyon etgan jadid adabiyoti milliy ong va sezim taraqqiyotida beqiyos rol o'ynaydi. Bu adabiyotning ilk namunalari badiiyatiga ko'ra u qadar yuksak emas, g'oyalar yaydoq beriladi. Yalang'och da'vat va chaqiriqlar, shiorbozlik ko'zga tashlanadi. Jadid adabiyoti 10-yillarning oxiri, 20-yillarning boshidagina har jihatdan to'laqonli adabiyotga aylandi.

Jadid adabiyotining birinchi bosqichi — 1905—1917-yillar adabiyotida Turkiston jadidchiligining quyidagi xususiyatlari o'z ifodasini topdi:

1. Ma'rifatga maqsad emas, vosita sifatida qarash. Avloniy yozadi:

O'qiganni birimi Ahmadjon,
Yegali uyida topilmas non[223].

Ko'nikma va sharqona aqida bo'yicha ma'rifatli kishi sarvatli va baxtli bo'lishi lozim edi. Bu tushuncha o'zgardi. Demak, birgina ilm-ma'rifat baxt berolmaydi. U istiqlol yo'lida vosita bo'lishi, nari borsa, unga yordam berishi mumkin, xolos.

[223] Abdulla Avloniy. Toshkent tongi. 1979-y., 86-b.

Asosiy gap boshqa yerda. Uning 1913-yilda bosilib chiqqan «Turkiy guliston yoxud axloq»ida ham shunga yaqin gap bor edi: «Bobolarimizning «bo'lsa bo'lar, bo'lmasa g'ovlab ketar» zamonlari o'tub, o'rniga «bilgan bilar, bilmagan yitar» zamoni keldi. Amerikaliklar bir dona bug'doy ekub, yigirma qadoq bug'doy olurlar. Yevropalilar o'zimizdan olgan besh tiyinlik paxtamizni keturub, o'zimizga yigirma besh tiyinga soturlar! Ammo, biz osiyolilar, xususan turkistonlilar, dumba sotub, chandir chaynaymiz. Qaymoq berub, sut oshiymiz, non o'rniga kesak tishlaymiz! So'zning qisqasi, hozirgi zamonga muvofiq kishi bo'lmak uchun ilm va ma'rifat ila barobar iqtisod, insof, tuganmas sa'y, bitmas g'ayrat lozimdur...»[224]

Hamzaning bu masaladagi fikri mutlaqo aniq va keskin:

Boylar boy o'lur ilmsiz yashab,
Oriqlarini semizi oshab...[225]

«Hokimlar va tobelar» — «kuchlilar va kuchsizlar» o'rtasidagi munosabatlar Avloniy she'rlaridan keng o'rin oldi. Shoir bu munosabatlarni insoniy mazmundan tamom xoli topdi. Negaki, ular yirtqich hayvonlarning zo'ri ojizini mahv etish asosiga qurilgan kun kechirish tarzini eslatadi... «Inson kabi o'z ahlina darranda ko'rmadim»[226], — deb yozadi shoir. Jamiyat odamlarni darrandaga aylantirgan. To'g'ri, «inson — darranda» so'zlashadigan, fikrlaydigan yirtqichdir. U insof va vijdondan lof uradi. Do'stlik, birodarlikni o'rtaga qo'yadi. Egnidan taqvo libosi tushmaydi. Lekin yirtqich. Faqat yirtqichligini o'ta ustamonlik bilan bekitgan, ko'rinishda g'oyat beozor. Hamza ham masalaning xuddi shu jihatiga — «oriqlarini semizi oshashi»ga alohida ahamiyat bergan edi. Shunday qilib, har ikki shoir Rusiya — Turkiston munosabatlaridagi nozik jihatlarni payqay oldilar va to'g'ri baho berdilar.

Avloniy masalaga chuqurroq ko'z tashlaydi. Bu holni birgina millat ichida emas, millatlar orasida ham ko'radi. Masalan, mamlakatlar orasida bo'lib turadigan urushlarni shuning bir

---

[224] Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar, 2 jildlik, 2-jild, – T.: 1998, 62-b.
[225] Hamza. Mukammal asarlar to'plami. To'rt jildlik, 2-jild, – T.: 1980, 62-b.
[226] Hamza. Mukammal asarlar to'plami. To'rt jildlik, 2-jild, – T.: 1980, 62-b.

ko'rinishi deb hisoblaydi. «Biroq, bu kunda madaniy millatlar urushlarini tijorat va sanoatga aylandurdilar,-deb yozadi adib va bu soyada bir-birlariga g'alaba va raqobat qila boshladilar. Sehrgar(lik) va jodugarlik ila emas, tijorat va sanoatgirlik ila cholishqon Yevrupo Afriko va Osiyoni o'ziga asir va musaxxar qilmakdadur»[227].

«Kuchli millatlar — «Jahon Jayhunlari», «kuchsizlar» — ularga luqma, «tu'mai tayyor». Ko'hna dunyoning yangi mo'jizasi — shunday. Shoirning «Biz millat» she'rida shu haqda gap ketadi.

2. Erksizlikni, mustamlaka idora usulini anglash, uning sabablarini va undan qutulish yo'llarini izlash.

Behbudiy yozadi: «...vale hozir bizni ixtilofimiz sabab mustamlakot qoidasi ila idora eturlar[228].

Avloniyning 1907-yilda chiqqan «Shuhrat» gazetasida shunday satrlar bor edi:

Xarobatxonada yotsang, bizim-chun kim qilur ta'mir,
Buzilsun, qadri ketsun deb qilur hamsoyamiz tadbir.
Al ila turtmasang, qilmas, qalam o'zdin-o'zi tahrir,
Qilub izhori hasrat, har kima yolboradur «Shuhrat».

Ishora qilingan «hamsoya» Rusiyadir, «tadbiri» esa uning istilochilik siyosatidir. 1912-yilda o'qiymiz:

Zolimning o'zi zulm(g)a giriftor o'lur oxir,
Albatta bo'lur uy buz(g)anning xonasi vayron.
(Dunyo kitobidan)

Demak, u zamon adolat tiklangan zamon bo'ladi. Ya'ni mazlum ro'yobga chiqadi, zolim jazosini tortadi. Xullas, istiqlol muhaqqaq. Lekin qanday? Qay tarzda? Ilgariroq unga ma'rifat pillapoyasi orqaligina chiqish mumkin deb o'ylangan edi. Endi u tobora kamroq aytila boshlandi.

Siddiqiy yozadi:

---

[227] Abdulla Avloniy. Toshkent tongi. – T.: 1979, 253-b.
[228] «Najot»g., 1917-y., 10-son.

Falak ham sen kabi ovorayu sargashtadir, Ajziy,
Vale bilmasmikim, rahm etmadi, chandon ravo etding[229].

Mirmuhsin-Fikriy bir she'rida «yo'lni qorong'u bosayotgani»dan, yo'l ko'rsatadigan «chiroq» yo'g'ligidan noliydi[230].

Siddiqiy esa, yuqorida ma'lum bo'lganidek, o'z dardiga malham topolmayotganidan, zamon ham o'zi singari «sargashta», «ovora» ekanligidan zorlanadi. Lekin shu narsa ma'lumki, o'sha 10-yillarda yozilgan she'rlarda ham zamonning o'z-o'zidan o'zgarishi mumkin emasligiga, mustaqillikning in'om qilinmasligiga ishoralar uchraydi. Masalan, Avloniyning «Istiqboldan orzularim» (1914) she'rida shunday bir band bor:

Tarbiyatsiz bog'-bo'stondan samar kutmak abas,
Ishlamay gulzorda bekor gul kutmak abas.
Bubuli sho'ridani dom ila hur kutmak abas,
Yoshlig' gul g'unchasini ochmay, gulob etmak abas.
Zahriga bardosh edan totgay arining bolidan.

An'anaviy obraz va tafsillar asosiga qurilgan bu satrlardagi asosiy fikr shuki, istiqlol o'z-o'zidan kelmaydi. Uning uchun kurashish kerak.

Anbar otinning bir to'rtligida qullikni inkor qilish motivi hurlik uchun kurash zarurligi bilan bog'lab berilgan. Mumtoz adabiyotimizda keng tarqalgan harf o'yini asosiga qurilgan, «g'ayn» (q) ga bag'ishlangan bu she'rning ikki misrasiga e'tibor qilaylik:

Bu vujud bir qo'lima berdi yarog',
Bir qo'lim hodisadin tutdi charog'.

Bu yerda «vujud» («g'ayn»ning shakli, egik yoydan iborat ekanligi) zulmni ifodalaydi. Ayni o'rinda u ikki halqa (zulm) «yarog' va charog'» bergani — kurash uchun uyg'otgani («tutdi charog'») va undagani («berdi yarog'») uqtirilmoqda. Umuman, kurashchanlik, isyonkorlik shoiraning juda ko'p she'rlarida

[229] Siddiqiy-Ajziy. Tanlangan asarlar. — T.: 1973, 9-b.
[230] TVG, 1914-y., 19-son.

uchraydi. Unda «Qachon baxt o'lg'usi bizlarga hamroh?», «Gapur, do'xtur, mening dardimga dorular qachon kelgay?» kabi tagdor savollar ko'p. «Ey, go'zal Farg'ona» deb boshlanadigan muxammasida esa to'g'ridan-to'g'ri kurashga chaqiriladi. Chunonchi, u shunday boshlangan:

Ey, go'zal Farg'ona, o'zingni kel emdi shod qil,
Har g'azalni boshida san, o'z otingni yod qil.
Qaydi bandni pora aylab, o'zluging ozod qil,
Qayg'ulik kunlarni kuydur, barchasin barbod qil,
Emdi Turkistonda haqgo'ylik ila faryod qil.

Keyingi band «o'z qo'ling birla bu yurtingni o'zing obod qil» degan satr bilan xulosalanadi. Shu tariqa har bir bandda istiqlol uchun olib borilajak kurashning o'ziga xos dasturi o'rtaga tushadi. (Xalq ommasigina bu o'zgarishni yasashi mumkin – «Zulmdin ozod bo'lishda o'zluging ozod qil – III band; asosiy tayanch mehnatkashlargina bo'la oladilar» Mehnat ahliga hamesha boq, dilingni shod qil» – IV band; xalqim, sen ham dunyo xalqlari orasida erk va baxtga to'lib yasha, bugina emas, bu ishda ibrat va o'rnak bo'l «Xalqi olamga hayoting sirrini ro'shod qil» – V band).

Bu fikrlar shoiraning «Qarolar falsafasi»da o'zining yana ham kengroq ifodasini topgan. Muallif mustamlakachilikning siyosiy, axloqiy asoslarini g'ayriinsoniy deb biladi. Xilma-xil faktlar, qiyoslar, mantiqiy umumlashmalar orqali ozod va mustaqil Turkiston g'oyasini ilgari suradi. Uning ayrim dalillariga e'tibor qilaylik:

1. Adolatni podshoh berolmaydi, negaki, hech bir shoh odil bo'lolmaydi («odil podshoh bo'lmas», «podshoh bo'lgan shaxs odil bo'lmas va adlni uddasidan chiqmas»). Zulm va zulmatni esa faqat adolat bilangina yengish mumkin.

2. Najot yo'li bitta–kurash («muboraza»). Lekin bu diniy kurash («qazot», «jahriyot») emas. Aksincha, u mazmundan uzoq («shayx va so'fiylardan yiroq»), ommaviy («aqlu idrok va jamoatga takya qilib») kurash, birgalashib kurashish («Yakkalikdan hazar qilmoq»). Va nihoyat, hukmron millatga qarshi kurash («zolimlarga qarshi muboraza qilmoq»).

Siddiqiy-Ajziyning «Mir'oti ibrat»[231] dostonining ham asosiy pafosi-mavjud jamiyatni inkor etish, jaholat va zulmga chulg'angan Vatanni ozod qilish. Nomiq Kamolning «Ro'yo», Tavfiq Fikratning «Tarixi qadim» asarlari ta'siri sezilib turadigan bu dostonda shoir yurtining porloq istiqboli haqida so'z ochadi. Xayoliy bir voqea («fasona») vositasida Samarqandning o'sha kunlardagi realistik manzarasini chizib beradi.

Muallif masalani juda keskin qo'yadi. Uningcha, bugungi avlod tarixning shunday bir chorrahasida turibdiki, uning baxtu iqbolga erishishi yoxud halokatga uchrashi mutlaqo hozirgi tanlaydigan yo'liga bog'liq. Bir narsa juda ravshan: endi bu holda yashab bo'lmaydi («Mushkul bu ravish-la bo'yla raftor»). Muallif fikricha, quyidagi uch narsa millatni ham, Vatanni ham barbod qiladi. Va ularning uchalasi ham Turkistonda mavjud:

Uch ish-la o'lur xarob olam,
Dut bu so'zumi qulog'a mahkam.
Tahsili ulumi noqis etmak,
Ham mavoizing kanora otmak.
Al chekmak erur dag'i funundan,
Bu hibsi natijai junundan.

(18-bet)

Shoir «din ilmi»ni ham ko'zda tutadi, albatta va bularning barchasini millatning hayot-mamoti uchun zarur bo'lgan ibtidoiy bosh unsur deb tushunadi. Xorazmda-chi? U yerda bu masalaga munosabat qanday edi? Bayoniyni eshitib ko'raylik:

Ne shariatga, ne zakunga amal aylab ul on,
Mustabidlar javridin bexonumon o'ldi jahon...
Qaysi bir fe'lini aylarman bu avroq ichra darj,
Mustabidlar javridin bexonumon o'ldi jahon[232]

---

[231] «Mir'oti ibrat» dastlab 1331-(1913) yili Tiflisda fors-tojik, so'ng 1332-(1914) yilda Samarqandda muallif tarjimasida O'zbek tilida bosilgan. Misollar O'zbekcha nashridan keltirilmoqda. Mazkur asar va umuman Siddiqiy-Ajziy ijodi haqida fanimizda o'zbek, tojik, rus tillarida talaygina adabiyot mavjud bo'lib, ularda shoir dunyoqarashini baholashda har xilliklar bor. Bu haqda qarang; B.Qosimov. Inqilobiy she'riyat sahifalari. – T.: 1977, 74–111-b.

[232] Yu.Yusupov. Xorazm shoirlari. – T.: 1967, 93-b.

Yuqorida nomi zikr etilgan Azmiy-Aziziyning 1917-yilda bosilgan «Yangi shugufa yoxud milliy adabiyot» kitobidagi she'rlarida, birinchi navbatda, millatning o'z huquqini anglashi va talab qilishi lozimligi aytiladi. U ko'rib o'tganimizdek, hurriyatni tinch, osoyishta, parlamentar yo'llar bilan egallash lozimligini uqtiradi.

3. Millat ozod va mustaqil bo'lishi kerak. O'z milliy vataniga, tiliga, ilm-faniga, qonun-qoidasiga ega bo'lmog'i lozim. Bularsiz hech bir millatning kelajagi yo'q.

Siddiqiy-Ajziy yuqorida tilga olingan; «Mir'oti ibrat» dostonida «Nima qilmoq kerak?» degan savolga shunday javob beradi:

Ilmi ala olmoq va fununni,
Davlatni, lisonni, zakunni,
Har qavm bulardin o'ldi mahrum,
Istiqboli holidin o'lur shum.[233]

Gap milliy ozodlik, mustaqillik haqida, har bir millatning o'z erki bilan yashashi haqida ketayapti, albatta. Bu fikr, ayrim tadqiqotchilar aytgancha, shovinistik xarakterga ega emas. 10-yillardayoq rus tili va madaniyatini jo'shqin ilhom bilan madh etgan, Gogolning «Shinel»ini o'zbek va tojik tillariga tarjima qilgan, nihoyat o'z maktabida rus bolalarini ham mehr bilan o'qitgan, «Ba fikri ittifoqi xalq, tokay xunxo'ri, Ajziy, Jahone yak zabon natvon shud, az har rang diniho»[234] deb diniy ayirmalarni xalqlarning ahilligi va do'stligiga to'siq hisoblagan shoirdan «shovinizm-panislomizm» izlash, eng kami noxolislik bo'lur edi.

Asosiy gapga qaytaylik. Demak, shoir milliy ozodlikning zaruriyatini yaxshi tushunadi. Har bir millatning erkin va ozod bo'lishini shart qilib qo'yadi.

---

[233] Siddiqiy-Ajziy. Mir'oti ibrat (kitobda: Milliy uyg'onish va o'zbek filologiyasi masalalari). – T.: «Unversitet», 1993, 103-b.

[234] Gulshani adab. Namunahoyi nazmi tojik asrhoyi XVIII ibtidoi asri XX jildi U, Dushanbe, 1980, 426-b. Tarjimasi: Xalqlar ittifoqi uchun tokaygacha qon yutasan ey Ajziy, Jahon har xil dinlar sababli yakdil bo'la olmadi.

4. Iqtisod hamma narsaning asosidir.

Anbar Otin yozadi:

Bizoat bo'lmagach, uy erdi notinch[235].

Ajziy savdo-sotiqni har bir millat uchun hayot-mamot masalasi deb biladi. Jumladan, har bir mamlakatning oldi-sotdisi, ya'ni eksport-importini kishining nafas olib-chiqarishiga o'xshatadi:

Inson nafas olma-vermasi vor.
Tamsili tijoradir bu kirdor.
Dunmazsa nafas chiqub badandan,
Ummidi hayot uzildi tandan[236].

5. Jadidchilik dinni rad etmadi. Aksincha uni taraqqiy qildirish yo'lidan bordi. Jadidlarning katta qismi jumhuriy idora usulini qo'llab chiqqan bo'lsalar-da, uning mutlaqo shar'iy asoslarga qurilishini orzu qildilar. Biroq bu shar'iy davlat mutaassiblikdan tamoman xoli bo'lmog'i lozim edi.

Behbudiy 1906-yili chiqqan «Kitobi muntaxabi jug'rofiyayi umumiy» darsligida «Dinsiz dunyoda yashamoq insoniyat va madaniyatdan emas, hayvonlikdur. Dinsiz mutamaddun (madaniyatli) bo'lmoq maholdur. Jamiyyati bashariyaning barqaror turmakiqa din, shar' (shariat), nizom va bularni boshqarquvchilari birinchi sababdur» (76-bet), deb yozadi.

«Sadoyi Turkiston» gazetasi «Jadidning ma'nosi dinga rivoj bermoq va millati islomni taraqqiy qildirmoq usulidur (1914-yil, 12-son), deb yozgan edi.

Ayni paytda xotin-qizlar ozodligi, ularning jamiyatdagi o'rni masalasi keng muhokama qilindi. Karimbek Kamiy, Saidahmad Vasliy, Sharafiddin Xurshid «Tasattiri nisvon» («Xotin-qizlarni pardada saqlash)ni himoya qildilar[237]. Anbar Otin, Tavallo, Nozimaxonimlar ular bilan bahsga kirishib, qizlarni o'qitish va

---

[235] Anbar Otin. She'rlar, Risola. – T.: 1970, 70-b

[236] Siddiqiy-Ajziy. Mir'oti ibrat (kitobda: Milliy uyg'onish va o'zbek filologiyasi masalalari. – T.: «Universitet», 1993, 99-b.

[237] Mo'minjon Toshqin. Toshkentlik va Toshkentda bo'lgan o'zbek shoirlarining tarjimai hollari. – T., 1948, qo'lyozma, 70–81-b.; S.Vasliy. «Tasattiri nisvon» haqinda, «Al-Isloh»j., 1915, 18-son.

har jihatdan teng bo'luvchi nikoh masalasini ko'tarib chiqdilar[238].

Anbar Otinning bu xususdagi fikrlari ancha qat'iy. Avvalo, u kelajakni bevosita xotin-qizlar taqdiri bilan bog'lab yoritadi va asosiy diqqatni mazlumalarga qaratadi. Ikkinchidan, ularning moddiy va ma'naviy turmushlarida bo'ladigan o'zgarishlar xarakterini belgilashga urinadi. Chunonchi, bu o'zgarish shu paytgacha ezilib kelgan xotin-qizlarning barchasi («tamomi mazlumalar») hayotiga tegishli bo'lib, quyidagilarni qamrab oladi: 1. Ular ozod bo'ladilar. 2. Moddiy hayotlari tubdan yaxshilanadi. 3. Oila muhabbat asosida qurilib, nikoh teng huquqli bo'ladi. 4. Ayollar jamiyat ishlarida faol ishtirok etadilar. 5. Ijtimoiy farovonlik xotin-qizlarning har jihatdan mukammal bo'lishiga imkon yaratadi.

Yoki Tavalloning «Qarindosh va hamshiralarimiz mazluma qizlar tilindan» she'rini olaylik.

Qizlar otalariga xitoban ularni «halokatdan», «malomatdan» qutqarishni — o'qitishni, erk va hurlik berishni iltijo qiladilar. Bugina emas, kelajak oila, teng va saodatli, muhabbatli va sadoqatli turmush masalasini ham qo'zg'aydilar:

O'qutg'on so'ngra vergonda kuyov tengdoshimiz o'lsun,
Ikov ham ilmlik, yoshlikda birdek yoshimiz o'lsun.
Jahonda shod o'lub, hamoxirat qardoshimiz o'lsun,
Agar chollarga tushsak, zahr ichgon oshimiz o'lsun.
Ilohi, saqla bizni dunyoda mundoq falokatdan[1].

Anbar Otin o'z risolasida ma'naviy barkamollikka, axloqiy mukammallikka ham alohida diqqat qiladi. Kelajak avlodning «xushro'y va xushxo'y»gina emas, «botamiz va vatando'st, serg'ayratu mehnatdo'st» bo'lib ulg'ayishini asosiy xususiyatlaridan biladi. Ko'p xotinlilikning «tark» bo'lib, «har yer bitta xotun ila farog'atvor» kun kechirishiga astoydil ishonadi.

---

[238] Anbar Otin. She'rlar. Risola. — T.: 1970, 94—95-b; Tavallo. Ravnaq ul-islom. — T.: 1993, 60—61-b; Qarang: B.Qosimov. Erksevar shoira (kitobda: o'zbek filologiyasining aktual masalalari. ToshDU ilmiy asarlari, №632. — T.: 1977, 96—103-b.

[1] Tavallo. Milliy she'rlardan birinchi juz. Ravnaq ul-islom, «G'ulomiya». — T.: 1914, 24-b.

6. Adabiyotda Vatan va unga muhabbat mavzusi keng ishlandi. Avvalo, aytish kerakki, Vatan bu davr ijodkorlarida juda aniq tushuncha. «Har bir kishining tug'ulub o'skon shahar va mamlakatini shu kishining Vatani deyilur», — deb yozadi Avloniy «Turkiy Guliston....»da. O'ratepada tug'ilgan, 1816-yildan to umrining oxirigacha Qo'qonda yashagan Dilshod har ikki yurtni o'ziga «mulku makon», har ikki elga o'zini «farzand» deb bildi. «Ey vatandosh, hamfikr, hamzikrim, hamxonalar» deb boshlanadigan g'azalidagi quyidagi satrlarga e'tibor qilaylik:

Kuylangiz ozodlik mazmunida siz beibo,
Tinglasun Toshkand, Xo'jand, Qo'qand ham Farg'onalar.
Soz oling mutribalar, Barno g'azalni boshlasun,
Movarounnahr aro parvoz etib taronalar[239] .

Demak, Vatan tor ma'noda o'zi tug'ilib o'sgan, keng ma'noda xalqi yashayotgan yurt. Mazkur o'rinda — Movarounnahr. Anbar Otinda ham vatan deganda «Movarounnahr» («Maning turgan yerim Movarounnahrdur ismi»)[240] va Turkiston («Emdi Turkistonda haqgo'ylik ila faryod qil»)[241] ko'zda tutiladi. Tavalloning «Suyukli Vatan haqinda» she'ri shunday satrlar bilan boshlanadi:

Movarounnahrdur tarixda bizlarga Vatan,
Arzig'ay bizlar sanga xizmatda bo'lsak jonu tan[242].

Hamza, Avlóniy, Mirmuhsin-Fikriy va boshqa o'nlab shoirlarda u «Turkiston» deb berilgan.

Endi ikkinchi masalaga o'taylik. Vatanni sevish, uning orzu-armonlari, quvonch-tashvishlari bilan yashash hamisha va har bir adabiyotda eng insoniy tuyg'u bo'lib kelgan. Shuning uchun ham Hamza uni «tanlarning shirin joni», «tomirlarning qoni» deb ataydi. Tavallo, «vatan»ga «jonu tan»ni qofiya qiladi.

---

[239] Dilshodi Barno va merosi adabii o'. «Irfon», Dushanbe, 1970, sah. 114.
[240] Anbar Otin. She'rlar. Risola. — T.: 1970, 40-b.
[241] Shu kitob, 64-b.
[242] Tavallo. Milliy she'rlaridan birinchi juz. Ravnaq ul-islom, «g'ulomiya». — T.: 1914, 10-b.

Shu she'rning yana bir o'rnida «bu vatandandur badan» deb yozadi. Avloniy «Turkiy guliston...»da «Vatanni suymak» degan maxsus bob ajratadi. «Har kim tug'ilgon, o'skon yerini jonidan ortiq suyar, hatto bu Vatan hissi-tuyg'usi hayvonlarda ham bor... Biz, turkistonliklar, o'z Vatanimizni jonimizdan ortiq suydig'imiz kabi, arablar Arabistonlarini — qumlik, issiq cho'llarini, eskimo'lar shimol taraflarini — eng sovuq, qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, o'z vatanlarini tashlab havosi yaxshi, tiriklik oson yerlariga hijrat qilurlar edi», o'qiymiz unda.

Darhaqiqat, buning ajablanadigan joyi yo'q. Vatan onadek muqaddas. Uni qadrlash, e'zozlash, uning shodlik va quvonchiga sherik bo'lish, g'am-hasratini baham ko'rish farzandning burchi. Shoirlarimiz Vatan oldidagi burchni shunday tushunadilar.

Tabiiyki, farzandlar ham har xil bo'ladi. Onaning baxtiga sherik bo'lib, baxtsizligida yolg'iz tashlab ketuvchi farzandlar ham topiladi. Vatanning ham faqat fusunkor tabiatini, bog'-rog'larini xush ko'radigan, lekin tashvish va g'amlarini o'ylamaydigan farzandlari ham yo'q emas. Holbuki, Vatanni, u qanday bo'lmasin, sevish kerak. Hamza, Avloniy, Anbar Otin, Tavallo, Siddiqiy-Ajziy kabi o'nlab shoirlarimiz vatanga muhabbatni mana shu nuqtai nazardan kelib chiqib talqin qildilar. Bunday talqin esa keyingi davr adabiyotimiz uchun ham begona emas.

Vatanni shunchaki sevib bo'lmaydi. Uning dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq, u bilan faxrlanmoq kerak. Bu ham kifoya emas. Chinakam muhabbat uni yana ham go'zalroq, yana ham mukammalroq, yana ham ulug'vorroq qilishga undashi kerak. Bu esa kurash demakdir. Vatan ozodligi masalasining, aslida, boshlanish nuqtalaridan bo'lgan bu narsa shoirdan faxr yonida qahrning ham bo'lishini talab qiladi. XX asr boshidagi adabiyotimiz bu masalaga aniq yondashdi. Masalan, Avloniy o'nlab she'rlarida zulmat qa'rida najotsiz to'lg'ongan Turkistonning jirkanch va ayanch manzarasini chizdi. Ayniqsa, bu o'rinda uning «Turkiston tufrog'ina xitob» she'ri xarakterli:

«Xonumoni xarob», «boyqushlarga hamdam», farzandlari «haykal»dek «jonsiz», «vayrona» Turkiston! Yo'q, yo'q, «sahni jonlik janoza birla to'lgan» – «buyuk mazor!» Unga o'lik kimsalar – «madfun zindalar» qo'yilgan. Bu tirik o'liklar – Turkistonning bugungi noqobil avlodlaridir. Uning ahvoliga yer ham, osmon ham yig'laydi. U ham faqir, ham haqir. Uning na «tili», na «qulog'i» bor. U – «surati devor!» Shoir bu «buyuk mazor»ning kimlargadir «bog'i jinon» – jannat gulshani ekanligini yaxshi biladi. Ha, u hammaga ham birday «alamzor» emas. Uning «g'unchalari»ni «Hukamo»gina teradi. Hukamo esa bu millatda deyarli yo'q. Hammasi – «fuqaro»(faqir). «Fuqaro» esa gulshan gullarining tikani («xor») bilan birga xor, oyoq osti-da – «xoki mazallat»da. Bu «manzar» shoirga «mahshar azobi»ni beradi. Shoir unga nazar tashlaganda «baqri kabob» bo'ladi. Lekin u – ona! Shoir unga farzandki, uning dardidan iztirobga tushadi. O'z navbatida Ona ham farzandining tarbiyasi va taqdiri uchun burchli:

Ey, modarim, cho'juqlaring iflos, beziyo,
Ostingdan usting o'ldi biza tariqa fuqaro.
Sandin umid shulmidi, jondan aziz ono?!
Kundan-kun aylading bizi hijrona mubtalo,
Ey, shiri shafqati biza xunbor o'lan Vatan!
Bormi jahonda sancha sitamgor o'lan Vatan![243]

Darhaqiqat, vatan tushunchasi, birinchi navbatda, xalq bilan bog'liq. Bugungi shoirimiz Abdulla Oripovning «Men nechun sevaman O'zbekistonni?» she'ri bor. Shoir Vatanni go'zalligi va boyliklari uchungina sevishga qarshi chiqadi. Yurtiga xitoban, faqat shular uchungina sevadigan farzandingni kechirma, deydi. O'zi esa bu savolga shunday javob beradi:

Xo'sh, nechun sevasan O'zbekistonni,
Sababini aytgin desalar menga.
Shoirona go'zal so'zlardan oldin,
Men ta'zim qilaman ona xalqimga.

---

[243] Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar, 2 jildlik, 1-jild. – T.: 1998, «Ma'naviyat», 118-b.; Toshkent tongi. – T.: 1979, 43-b.

Xalqim, tarix hukmi seni agarda,
Mangu muzliklarga eltgan bo'lsaydi,
Qorliklarni makon etgan bo'lsayding,
Mehrim bermasmidim o'sha muzlarga?

Ikki Abdullaning ikki davrda yozilgan ikki she'rida bitta mushtarak nuqta bor: Vatan – xalq tufayligina muqaddas. Hamza Turkistonga qarata; «Ruhsiz tandur, xanjar ursa qoni sochulmas» deganida, unga «oqibatsiz», «ofiyatsiz», «hamiyatsiz», «g'ayratsiz» deb ta'na qilganida mana shu xalqning ahvoli, saviyasi, taqdiri haqidagi o'y-tashvishlar iztirobidan kelib chiqqan edi[244]. Haqiqatan ham, chinakam vatanparvarlik, eng avvalo, Vatani va unda yashayotgan xalqni ozod qilish. Shuning uchun ham «Vatan» hamisha «xalq», «millat» tushunchalari bilan birgalikda olib qaraldi. Avaz «zulm tig'i»dan «bag'ri yuz ming pora xalq»ni «ohista-ohista», «ovvora»likdan qutulishiga, bu bilan «Vatanni saqlamoq»qa ham kirishishiga umid bilan qaradi. Zavqiy Farg'onaning ozod va obod bo'lishiga, «humo»ning «gado» avlod «boshi uzra» «soya sol»ishiga shubha qilmadi. Tavallo «boq» (vatan)ning gulshanga aylanib «bulbul» (xalq)ning xurram bo'lishiga astoydil ishondi, «Bololansun, g'izolansun, biling bu bir humo-millat» deya kelajakni uning baxt va iqboli uchun «Bosh ko'tarish»ida ko'rdi («Millat sadosi»).

Shunday qilib, gumanizm, vatanparvarlik tushunchalari insonni, o'z xalqi, o'z vatanini ozod qilish bilan bog'landi. Bu – tabiiy hol. Negaki, har bir shoir, birinchi navbatda, o'z xalqining ovozi. Chinakam shoir jahonning birovga rizvonu birovga zindonligini ko'rganda chidab turolmaydi. Ammo o'zining yurti majruh, xalqi zabun bo'lsa-chi? U bunday holda o'n qatla ortiqroq larzaga tushadi. Butun dunyo uning ko'ziga vayrona bo'lib ko'rinadi.

Jadid she'riyatida davr voqealari

Turkistondagi jadidlar 1914-yilda boshlangan Birinchi jahon urushining imperialistik mohiyatini anglab yetdilar. Jadid

[244] Hamza Hakimzoda Niyoziy. Mukammal asarlar to'plami. 4 tomlik. – T.: 1980, 55-b.

adabiyotida bu mavzu keng ifodasini topdi. Mana, xarakterli misollardan biri:

Ovrupoda o't chiqdi raqobat asarindan,
Milyonlab ayildi azamat jon-jigarindan,
Inson na zamon al chekadur qon icharindan,
Ne vaqt o'sonur yer talashub jon chiqarindan.
Yer kurrasining mehvari chiqdi ucharindan,
Ovrupo olovlandi bu yong'in safarindan[245].

Shoirning nuqtai nazari aniq. U urushni inkor etmoqda, uni insoniyat ofati sifatida ko'rsatmoqda. Shuning o'zi ham yuqoridagi sharoit ko'zda tutilsa, katta gap. Lekin muhimi shundaki, shoir birgina baholash bilan cheklanib qolayotgani yo'q. U urushni keltirib chiqargan sabablarni, uning mazmun-mohiyatini ham belgilashga urinmoqda. E'tibor qilgan bo'l-sangiz, shoir bu «o't»ning «raqobat» natijasida «chiq»qaniga, «qon ich»ish va «jon chek»ishlarning zamirida yer talashish» turganiga diqqatingizni qaratmoqda. Bir so'z bilan aytganda, hodisaga realistik yondoshmoqda. Avloniy bir tomonda «Angletar» (Angliya), ikkinchi tomonda «Olmoniyo» (Germaniya) bosh bo'lgan bu urush «olama hokimlig'» maqsadida boshlanganligi va u butun Ovruponi o'z qa'riga olganligi haqida so'z yuritadi:

Bu ikki «bahodir» o'ziga maydon arodur,
Atrofiga yordamga «bahodir» chaqirodur.
Bir yonda Georg dahshat ila na'ra urodur,
Bir yonda Vilhelm turubon murt burodur.
Yer kurrasining mehvari chiqdi ucharindan,
Ovrupo olovlandi bu yong'in safarindan.

Bu o'zbek adabiyotidagi yagona fakt emas. Anbar Otin «Urush» radifli g'azalida uning «boylik orttirmoq uchun» ataylab «chiqaril»ganini ochiq aytib, insoniyatga qilingan xiyonat va jinoyat sifatida baholaydi[246].

---

[245] Abdulla Avloniy, qo'lyozma (H.Avlonovada saqlanadi).
[246] Anbar Otin. She'rlar. Risola. – T.: 1970, 49-b.

Mirmuhsin Shermuhamedovning quyidagi satrlari esa hali Rossiya urushga kirmagan, lekin urush jazavasi mamlakatda avj olgan bir paytda, 1914-yilning boshlarida yozilgan edi:

A'lamu mufti hama fatvofurush,
Zoti sharif derki, ko'paysun urush.
Man na qilay yig'lamayin ahli hush.
Barcha bu ishlarga hamona xomush,
Ko'zlarini ochdi, ko'ring, qildi sog',
Echkini — jon qayg'usi, qassobni — yog'[247].

She'riyatimizga urush mavzuining kirib kelishini qardosh tatar va ozarbayjon adabiyotlari bilan qiyoslash masalani ravshanroq tushunishga yordam beradi. Mashhur M.Qafuriy 1914-yilning oktabrida «Fitrat zamoni» degan she'r yozgan va Allohga murojaat qilib, urush dahshatlaridan so'z ochgan edi. «Qiyomat» she'rida esa gapni «kuchlilar» — kuchsizlar»ga[248] buradi. Urushni Xudoning «kuchlilar»ga yuborgan jazosi sifatida talqin qiladi[249]. A.Xarisning «So'g'ish» (1915) she'rida masala juda keng qo'yiladi. Uningcha — yomonlik insonlarning qon-qoniga singib ketgan xususiyat. Bu insoniyatning tarixi bilan birga boshlangan. Aks holda Qobil o'z inisi Hobilni o'ldirmas edi. Mashhur ozarbayjon shoiri Muhammad Hodining «Insonlarin tarixiy fojialari yoxud Alvohi intiboh» poemasi shunday satrlar bilan boshlanadi:

Hayotin saslari go'shumda hap faryod shaklinda,
Bu insonlarki gardashdir va lekin yod shaklinda.
Bu turpag ganli avlagdir, bashar sayyod shaklinda,
Adovat doimo vordir, muhabbat od shaklinda.
Bu dunyo eskidandur sahnayi bedod shaklinda,
Jahon boshdan-bosha maydoni motamzod shaklinda,
Farahlar hibs o'lunmush, huznlar ozod shaklinda,

---

[247] TVG, 1914-yil, 19-son.

[248] Bu obraz o'zbek adabiyotida, xususan, Hamza va Avloniy ijodida keng ishlanganligi haqida yuqorida gapirib o'tgan edik.

[249] Xatib Gosman. Buyuk oktabr revolyutsiyasi va grajdanlar urushi davrida tatar poeziyasi. Qozon, 1960, 16-b. (tatar tilida).

Musibatlar, balolar, g'ussalar obod shaklinda,
Yuraklar g'am o'di-la har zamon barbod shaklinda,
Bohishlar kulgali, o'zlari butun noshod shaklinda,
Bu motamgohi kim go'rmush sururobod shaklinda[250].

Shoir insonlar fojiasining azaliyligini isbot etmoq uchun gapni yana o'sha afsonaviy Qobil va Hobil voqeasiga olib borib bog'laydi. Darhaqiqat, urushni inkor etish, uni insonlar boshiga yog'ilgan balo-ofat shaklida his qilish va uni adabiyotga olib kirish Rusiyaning «rus bo'lmagan» xalqlari adabiyotida 1914-yilning oxiri, 1915-yillarning avvalidan boshlangan edi.

Urush chor samoderjaviesining tanazzulini ochiq-oshkor qildi, ijtimoiy ziddiyatlarni keskinlashtirib yubordi. 1916-yili mamlakatda ijtimoiy norozilik boshlandi. Uning ustiga, o'sha yili hosil deyarli bitmadi. Yil juda quruq keldi. Oziq-ovqat tanqisligi ko'p o'tmay butun mamlakatni o'z qa'riga oldi. Butun Rusiyadagi singari Turkistonda ham qahatchilik yuz berdi.

Qahatlik bo'ldi bu Farg'onamizda,
Topilmas parcha non vayronamizda.
Payg'ambar bo'lsa non, osh avliyodur,
Yana ochlik davosiz bir balodur, –

deb yozadi Zavqiy.

Toshkentlik Tavalloning bir she'ri:

Kambag'al bechoralar holin so'rar bir kimsa yo'q,
Tortadur qimmatchilikda kunda zahmatlar, darig'.
Boylar oldi g'alla arzon chog'da ombor to'ldurub,
Kambag'allardan chiqar chang, qilsa hasratlar, darig'[251], –

degan satrlar bilan boshlanardi.

---

[250] Muhammad Hodi. Sochilmish asarlar. 2 jild, 1-jild, Baku, 1978, 362-b. (ozarbayjon tilida).

[251] TVG, 1916-y., 58-son.

Urush esa har kuni yuz minglarcha tinch va osoyishta xonadonlar baxtiga chang solar, o'ziga tinimsiz qurbonlar chorlar edi. Ko'p o'tmadi. Urush va uning oqibatlariga oid mulohazalar she'riyatga tobora ko'proq kirib kela boshladi. Tantanavor ohang bilan to'liq «vatanparast» she'rlar keskin kamaydi. Ularning o'rnini xalq boshiga tushgan fojialar tasviri egalladi. Shoirlarimiz urush va unga munosabatni qayta ko'rib chiqa boshladilar.

Qildi zamona ahlini hayron muhoraba,
Har go'sha ichra ayladi giryon muhoraba,
Tang ayladi-yu, qildi bag'ir qon muhoraba,
Girmon qirilsun aylamay e'lon muhoraba,
Balqon ham o'lsun etmayin al'on muhoraba,[252] –

deb boshlanadi yaqindagina oq podshoga sidqidildan zafar tilab yurgan Sidqiyning «Muhoraba daf'i uchun munojot» she'ri. Shoir «sarson bo'lgan ahli vatan», «xaloyiq» hasratidan so'z ochadi.

O'ldi milyo'nlar bashar avlodi qurbon bedarig',
Oqdi qonlar on qadarkim, o'ldi sahro lolazor.
Mamlakatlar ahli qoldi yuz tuman tashvish uza,
Turli-turli sho'ru shar olamda o'ldi oshkor,[253] –

deb yozadi andijonlik Mirzo Olim Javhariy va uni «mashvaratsiz», «masla-hatsiz» bo'lgan urush deb baholaydi.

Qardosh tatar, ozarbayjon adabiyotlarida urush mavzuining bizda uchramagan aspektlari ko'zga tashlanadi[254]. Chunonchi, tatar adabiyotida frontdagi birodarni qo'msash va shu orqali

---

[252] Sidqiy. Rabo(t)chilar namoyishi... – T.: 1917, 10-b.

[253] Bahriddin Azmiy Aziziy. Yangi shugufa yoxud milliy adabiyot. – T.: 1917, 32-b.

[254] Buning sabablari bor, albatta. Tatarlar bevosita harbiy xizmatga chaqirilgan va urushda ishtirok etishgan. Bokuda esa ayrim millioner va ruhoniylar o'zlarining chor hukumatiga sadoqatlarini ko'rsatmoq uchun xususiy musulmon diviziyasi tashkil etib urushga yuborgan edilar. Atoqli shoir Muhammad Hodi ham 1914-yilning oxirida shular qatorida frontga ketgan edi (Muhammad Hodi, ko'rsatilgan asar, XXXVII bet). «Vaqt» gazetasi, 1916-y., 23-may, 59-son.

xalqning mungli dardlarini ifodalash, uning ustidan qilingan zo'ravonlikni qoralash yaqqol seziladi. Masalan, M.F. Qafuriyning «Urushda bedarak yo'qolgan qardoshga» (1915) she'ri shunday asosga qurilgan. M.Shermuhamedovning «Oliya»dagi hamsaboq do'sti Shayxzoda Babich esa G'afuriyni davom ettirib:

Ko'kda Ollo, yerda iblis – man malay,
Biri «din» der, biri «men!» der – men halak,[255] –

deb yerdagi «iblis»lar ustidan kuladi.

«Ong» jurnali 1915–1916-yillarda Abdurahim Sungatiy, Muhammad G'ali, Abdulla Xaris, Sulton Rahmonquliy, Vohid Nurkin, Miraziz Ukmasiy kabi urushda bo'lgan bir qator tatar adiblarining she'rlarini e'lon qilgan edi. So'ngroq boshqa gazeta va jurnallarda ham bunday she'rlar paydo bo'ldi. Ularda urush dahshatlari guvohlari tilidan berildi. El va yurt sog'inchi, u bilan birgalik tuyg'usi ifodalandi.

Masalan, M. Ukmasiy:

Yotsam – zax yerto'la, tursam – ochlik,
Kiysam – titilib ketgan bir shinel.
Tushlarimda ko'rib sog'inaman seni,
Mendan salom senga suygan el, [256] –

deb yozgan edi.

Uch yil muhoraba maydonida bo'lib, Polsha va Karpat, Lemberg (Lvov) va Stanislavodagi urush fojialarini o'z ko'zi bilan ko'rgan Muhammad Hodining «Alvohi intiboh»i «Stanislavo shahrida yaradorlarning faryod va afg'onini tinglab» degan qayd bilan boshlanar edi.

1916-yilning 25-iyunida 2-Nikolay «Imperiyadagi g'ayrirus aholining erkaklarini harakatdagi armiya turgan rayonlarda mudofaa inshootlarini va harbiy aloqa yo'llarini qurish ishlariga,

---

[255] Xatib Gosman. Ko'rsatilgan asar, 49-b. (tarjima bizniki — B.Q.).
[256] «So'z» gazetasi, 1916-y., 28-may, 59-son (tarjima bizniki — B.Q).

xuddi shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo'lgan boshqa har qanday ishlarga safarbar qilish to'g'risida» farmon berdi. Turkistondan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan 250 ming ishchi olinadigan bo'ldi. Ko'p o'tmay, «har qanday mahalliy kishi boshqa damni yollashi va o'zining o'rniga jo'natishi mumkin»-ligi haqida ko'rsatma keldi. Uni suiiste'mol qilish, poraxo'rlik, zo'ravonlik avj oldi[257]. Norozilik boshlandi. Ommaviy repressiyalar, tubjoy aholining har qanday harakatlariga chek qo'yish maqsadida temir yo'l biletlarining uezd boshlig'i ruxsatisiz sotilmay qo'yishi ham, Farg'ona harbiy gubernatori general Gippiusning aholida ishonch uyg'otish maqsadida to'n kiyib, salla o'rab, Namangan masjidlaridan birida «qur'on o'qishi» ham, «ko'ngilli»lar uyushtirish ham yordam bermadi. Norozilik o'lka ijtimoiy harakatchilik tarixida muhim bir bosqich bo'lib qolgan «mardikorlik voqealari»ni keltirib chiqardi. 1916-yilning iyulida butun Turkistonni milliy ozodlik harakatlari chulg'ab oldi. Qonli to'qnashuvgacha borib yetgan norozilik namoyishlari o'lkaning deyarli hamma shahar va uezdlarida bo'lib o'tdi. 1916-yilning 9-avgustida Toshkentga kelgan «Vaqt» muxbiri Shahid Muhammadyorov «Mardikorlik ari uyasiga cho'p suq-qandek bo'ldi. Turkistonda bamisli yer larzaga keldi. Xalq bosh ko'tarib yon-atrofga qaradi. Bu Turkiston uchun chinakam 1905-yil bo'ldi... Turkiston birdan XVIII asrga kirdi, desak, yanglishmaymiz»[258], -deb yozgan edi.

Chor hukumati yon berishga majbur bo'ldi. Mardikorlikka olinadiganlar soni qisqartirildi. Ularni jo'natish keyinga surildi. O'lka ahvolini tekshirish uchun A.F.Kerenskiy ishtirokidagi komissiya yuborildi. Turkistonni yaxshi bilgan A.N.Kuropatkin general-gubernator qilib tayinlandi.

18-sentabr kuni mardikorlar tushgan birinchi eshelonni tantanali jo'natish marosimi bo'ldi. Qoyat tadbirkorlik bilan ish ko'rildi. Mardikorlarga osh tortildi, pul va shirinliklar ulashildi. Ko'chalarda oq podsho sha'niga bitilgan shiorlar paydo bo'ldi. Mardikorlarga general Kuropatkinning shaxsan o'zi oq yo'l tilab qoldi. 18-oktabrda esa 2-Nikolay mazkur eshelonning «vakil»-

---

[257] «Vaqt» gazetasi turkistonlik boylarning o'z bolalari o'rniga 1000–1500 so'm berib kishi yollaganlarini xabar qiladi («Vaqt», 1916-y., 30-avgust, 2087-son).

[258] «Vaqt»g., 1916-yil., 24-avgust.

larini o'z qarorgohida qabul qildi. Ularning «vatanparvarlik» ishtiyoqini taqdirlab, mukofot berdi. Xullas, mana shunday xilma-xil tadbir va usullar oqibatida yil oxiriga kelib o'lkadagi qo'zg'olishlar paysal topdi. So'ng esa qo'zg'olon qatnashchilarini shafqatsiz jazolash boshlandi. Minglab kishilar osildi, qamaldi, badarg'a qilindi[259]. Lekin u xalqimizning inqilobiy tarixida alohida bosqich bo'lib qoldi. «Mardikorlik voqealari» nomi bilan mashhur bu hodisalar badiiy adabiyotda o'z izini qoldirmasligi mumkin emas edi[260]. Darhaqiqat, shunday bo'ldi. O'sha kunlarning qaynoq nafasi bilan yo'g'rilgan qo'shiqlar, she'rlar, dostonlar, hatto dramatik asarlar maydonga keldi. Afsuski, bular na adabiy-tarixiy, na adabiy-problematik nuqtai nazardan o'rganilgan emas. Hatto ularning aksariyati (masalan, Hamzaning «Loshmon fojiasi» va «Rabochiy» dramalari haqidagi umumiy ma'lumotlar bilan bu mavzudagi qo'shiqlar tahlili, mardikorlikka borib kelib, u haqda doston yozgan Po'lkan ijodi tadqiqi hisobga olinmasa) shu paytgacha o'quvchilarga noma'lum bo'lib keladi. Binobarin, bu xususdagi ishlar hali ibtidoiy holda — mavjud asarlarni aniqlash, to'plash, saralash va ilmiy muomalaga olib kirish bosqichida turibdi. Bu sohada ma'lum yutuqlarni qo'lga kiritgan folkloristikada esa mazkur muammoni bugungi kun nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish zarurati bor.

Yozma adabiyotdagi ishlar esa hali oldinda. Biz bu o'rinda mardikorlik voqealarining badiiy adabiyotda aks etish ko'lami va yo'nalishlarini batafsil yoritib berish da'vosidan uzoqmiz, albatta. U alohida, maxsus tekshirishni talab qiladi. Qolaversa, bir-ikki tadqiqot imkoniyati doirasida emas. Shu sababli biz 1916-yil voqealari bilan bog'liq birgina poetik asarlar bilan qiziqdik va ularni ham o'zbek jadid she'riyatining tadrijiy nuqtai nazaridan ko'rib chiqishga harakat qildik. Hozircha mardikorlik

---

[259] L.Olimiy so'ngroq (1925-y.) mardikorlik voqealariga bag'ishlab yozgan «g'onli va og'ir, qayg'uli kunlar» maqolasiga Farg'ona gubernatori Ivanovning «Bir ming sart bir o'ris soldatning etigining poshnasiqa arzimaydir» degan so'zlarini epigraf qilib keltirilgani bejis emas edi (Qarang: «Yer yuzi»j., 1925-y., 11-son, 10-b.).

[260] Mardikorlar orasida badiiy ijod egalari ham bor edi. Masalan, shoir Po'lkandan tashqari Hoji Muin ham 1916-yilda Minsk guberniyasidagi Novoborisovoga yuborilgan va 1917-yilning mayiga qadar o'rmonda daraxt kesish bilan shug'ullangan (Qarang: Сл. дело Шукруллаева Ходжи в 2-х томах: Архив СНБ, П-3032, стр. 62 (биография).

voqealariga bag'ishlangan o'nga yaqin she'riy to'plam bosilib chiqqanligi ma'lum bo'ldi. Bular orasida Hamzaning mashhur «Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi»ning 7-bo'limi — «Safsar gul» (Qo'qon, 1917), Muhiddin Ibrohimov tuzgan «Loshmon» (Namangan, 1916), Avloniyning «Mardi-korlar ashuvlasi» (T.,1917), Akbariy Toshkandiyning «Vatanga xizmat» (T.,1917), Sidqiyning «Rabo(t)chilar namoyishi» (T., 1917), «Rabo(t)chilar kelishi» (T., 1917), Mulla Murtazo bin Ismoiljonning «Vatan xizmati» (T., 1917) kabi to'plamlari bor. Shuningdek, Azmiy-Aziziyning «Yangi shugufa yoxud milliy adabiyot» (T., 1917), Sidqiyning «Rusiya inqilobi» (T., 1917) kabi asarlarida ham mardikorlik voqealari tasviri uchraydi. Tabiiyki, bu asarlarning g'oyaviy va badiiy jihatdan hammasini ham bir xil baholash mumkin emas. Negaki, bu adiblarning qarash va intilishlari bir-biridan ancha farq qilar edi. Lekin muhimi shundaki, ularning ko'pchilik qismi shunday og'ir sinov yillarida xalq bilan yonma-yon bordilar, uning orzu va hasratlarini ifoda qildilar.

To'plamlarning bir qismi 1916-yil sentabr voqealarining aks-sadosi sifatida maydonga kelgan. Ularni ma'lum darajada xayrlashuv qo'shiqlari deb atash mumkin. Bu she'rlarda ijodkor ziyolilarimizning urushga bo'lgan g'oyat ziddiyatli munosabati o'z aksini topdi. Bu hol «Loshmon»da, ayniqsa, ko'zga yaqqol tashlangan edi. Masalan, unda Mehmet Emin Yurdaquldan iqtibos olingan satrlarda turkchilik tuyg'ulari ko'proq ifodalanadi.

Men bir turkman, dinim, jinsim ulug'dir,
Menim qalbim otash birla to'lug'dir.
Inson bo'lgan vatanining qulidir,
Turk avlodi uyda turmas, ketarman, —

(7-bet)

deb yozadi Muhiddin Ibrohimov.

Marg'ilonlik Rafiqiyda esa:

Yurtum mani shul Turon,
Bobom mani Ko'ragon,

Vatan uchun xizmatga
Doim belim bog'langon, —

(16-bet)

degan satrlarni uchratamiz.

Shu tariqa ko'pchilik she'rlarda «Vatandoshlar, millatdoshlar, dindoshlar» «podshoh» va «Vatan» xizmatiga da'vat etiladi. Lekin mana shunday she'rlar orasida ham «qarib vatan» manzaralarini chizuvchi, uni «uyg'on»ishga undovchi, uning ko'ziga umid ko'zini tikuvchi satrlar yo'q emas.

Kulgil, Lutfiy, chekma hech g'am, yetar, gul ochiladi!
Ketar qishlar, bo'ron-qorlar: bo'lar millat bahori!

(5-bet)

deb tugatadi Lutfulla Olimiy o'z she'rlaridan birini.

«Mardikorlar qo'shig'i»ning deyarli hammasi Abdulla Avloniy she'rlaridan tashkil topgan edi. Urushga ziddiyatli munosabat Avloniyda ham 1916-yillargacha davom etib keldi.

U o'z truppasi bilan 18-sentabr tantanasida ham qatnashdi. To'plamdagi ko'p she'rlar o'shanda ashula qilib aytilgan edi. Tabiiyki, kitobda podshoh sha'niga hamdu sanolar ancha bor. Lekin birgina shu bilan u haqda hukm chiqarish qo'pol xato bo'lur edi. Negaki, bu «mulozamat»ning senzura vajidan qilinganligi ehtimolini ham nazarda tutish kerak. Qolaversa, undagi tuyg'ular g'oyat murakkab. Masalan, to'plamning yo'nalishini belgilaydigan she'rlardan biri «Mardikorlar ashulasi»da o'sha kunlarning ruhi, tantanavor ohangidan asar ham yo'q. Aksincha, yana bir nohaqlik bilan yuzma-yuz kelgan, alami bo'g'zida turgan keng xalq qatlamining kechinmalari bo'rtib turadi. Bu bayram emas (chor hukumati 18-sentabr — mardikorlarning birinchi eshelonini jo'natish kunini bayram shaklida ko'rsatmoqchi edi) — judolik. Bu «...taqdir»ning ishi. Shoir mardikorlikka jo'natishni shunday talqin qiladi. U umumiy, mavhum so'zlar bilan ish ko'rmoqda. Buning sababi izohga muhtoj bo'lmasa kerak.

Falak bizni judo qildi sizlardan ham Vatandan.
Vatanimiz qutqaramiz bizlar borib dushmandan.

(12-bet)

She'rdagi xarakterli baytlardan bittasi. Avvalo, bu ikki satrni bir-biriga birlashtirishning o'zi qiyin. Birinchisida og'ir judolikning so'ngsiz alami, bunga sababkor «falak»ka pinhona bir isyon turibdi. Keyingi satr pichingdan boshqa narsa emas. Har holda baytdagi «tag» va «ust» ma'nolarni, shoirning ulardan qaysi birini butun vujudi bilan himoya qilayotganini sezib olish qiyin emas.

She'rda kelajak haqida ham gap bor — yomon kunlar yaxshi bo'ladi, biz qaytib kelamiz.

Kitobdagi «bir mardikorning otasi o'g'liga aytgan so'zlari», «Onasining o'g'liga aytgan so'zlari», «Xotuniga aytgan so'zi» kabi ashuvlalar ham har jihatdan muhim. Masalan, ota va onaning so'zlarida, birinchi navbatda boquvchisi ketayotgan oilaning qismati haqida gap ketadi. Ota o'z farzandini ming mashaqqatlar bilan ulg'aytirgan, qarigan chog'ida o'g'lining madadkor bo'lishini umid qilgan edi. Kuch-quvvatdan qolgan otaning holi endi nima kechadi? Onaning-chi?

Man sani bag'rimga bosib o'stirib erdim, bolam,
Kim qaro kunda boqarsan san mani derdim, bolam.
Oh, naylay, bo'shga chiqdi bu mani xush niyyatim,
San ketar bo'lding qoshimdan, kim qilur tarbiyatim...
Ey bolam, naylay, judolig' o'ti bag'rim yoqadur,
Mehribonim, san ketar bo'lding, mani kim boqadur?!.

(20-bet)

O'g'lining ham dardi o'ziga yetarli. U ham ko'ksi to'la armon bilan ketmoqda. U «mushfiq volida»si oldidagi qarzini uza olmadi:

Oq sutingga, oh, loyiq sanga xizmat qilmadim,
Marhami jonim, muhibbi xonadonim sen eding.

(21-bet)

U «munisi g'amxor»idan—sevikli rafiqasidan «tirik judo» bo'lmoqda. Uning aytilmay qolgan juda ko'p gaplari bor edi:

Ayshimiz gulzoriga o't tushdi barqi charxdan,
Ma'zuram, man ey guli bexor, ko'rsam-ko'rmasam...
Bir-birimizdan tirik zolim falak qildi judo
Ayrilib sandin o'luk-bemor ko'rsam-ko'rmasam,

(22-bet)

Tabiiyki, bularni o'qigan yoki tinglagan har bir kishida, «Xo'sh, bularga sabab nima? Kuy avjida torni uzganlar, lab tegmasdan qadahni sindirganlar o'zi kim?» degan savollar tug'iladi. Shunday, to'plamdagi she'rlarda osoyishta hayotni chayqatib, insonlar taqdirini alg'ov-dalg'ov qilib yuborgan mash'um urush haybarakallachilari haqida oshkor gap yo'q. Lekin ularni itqitib tashlashga tayyor shiddatli bir ruhni, tug'yonli g'azabni payqamaslik mumkin emas.

Akbariy taxallusi bilan she'rlar yozgan, Avloniy truppasining faol a'zosi, 1915-yilda Abdulla Qodiriyning «Baxtsiz kuyov»ida ellikboshi rolini o'ynab elga tanilgan Abdurahmon hoji Akbarovning she'rlarida g'amgin va o'ychan bir kayfiyat, yuz bergan hodisa bilan kelishib qo'ya qolmaslik, uning sabablarini izlash kuchli:

Sabab nedur, boshimizdan ko'b aylanib uchar qush,
Hayron bo'lub bizlar qolduk yoki ko'rdimizmu tush?!

(8-bet)

Shoir haqsizlik, adolatsizlikdan so'z ochadi:

Ne uchunkim, boylar o'g'lin qoldurub,
Ming so'mga kambag'al yollab oldurub,
Onalarin yurak-bag'rin yondurub,
Bir Olloga topshurdum man sizlarni.

(12-bet)

Ariq bo'yini o'ydum, qo'lumga xino qo'ydum,
Bizda oqcha yo'q uchun bormoqg'a bo'yun qo'ydum, —

unga jo'r bo'lgandek bo'ladi Mulla Murtazo bin Ismoiljon esa:

Mildir-mildir suv oqar, suv tagida qum oqar,
Xizmatga ketganlarni(ng) onasini kim boqar? –

(10-bet)

degan savolni qo'yadi.

Ha, haqsizlik birgina yurt boshiga mardikorlik savdosi tushib, man-man degan yigitlarning olis tomonlarga olib ketilayotganligidagina emas. Sho'rlik kambag'alning giribonidan tutgan qimmatchilik, ming bir mashaqqat bilan ro'zg'or tebratayotgan oila suyanchig'ining mardikorlikka olinib, xonadonning qo'l-oyoqsiz qolishi fojialarning biri xolos. Fojianing kattasi shundaki, boy va amaldor xalq boshida lovullab yongan bu olovdan qo'l isitib oldi. Ochlik va qahatlikdan chorasiz qolgan kambag'al pul va non badaliga yollanib, boy bolalari o'rniga ketishga majbur bo'ldi. «Mardikorlik hovli boshiga solingan. Hovlida mardikor yoshida erkak bor-yo'g'ligi hisobga olinmaydi. 16 yoshli bola bo'lsa ham hisob. Hatto u ham shart emas. Tul xotinlar, yetim bolalar ham mardikor yollab berishga majburlar: mollari, hovlilari sottirib olinadi... Bu holni tasdiq etaturgon arizalar bizning qo'limizda»[261], – deb yozgan edi «Vaqt» gazetasi.

1916-yil voqealari faqat bizda emas, Turkiston tarkibida yashovchi qardosh xalqlar adabiyotida ham o'z izini qoldirdi. Masalan, boy xalq og'zaki ijodi an'analariga ega bo'lgan qozoq adabiyotida o'nlab she'r va dostonlar maydonga kelgani ma'lum. Ulardagi his-tuyg'ular yuqoridagi she'rlarni esga tushiradi:

Shiniminen qulunim,
Ketemising saldatqa?!
Kim ie bo'ladi mundag'i
Iesez qalqan mal-basqa!
Qurap qalg'ir bu patsha
Taqtinan tusib kurasin!...
Mazmuni:
Chini bilan qulunim,
Ketasanmi soldatga?!

[261] «Vaqt» g., 191-y., 30-avgust, 2087-son.

Kim ega bo'lar bundagi
Egasiz qolgan mol-boshga!
Qurib ketgur bu podsho
Taxtidan tushib qulasin!...[262]
Yoki Battol oqinning quyidagi satrlariga e'tibor qiling:
Bari-da bayding uli qalato'g'in,
Molda ekeng — o'-da esebin tabato'g'in.
Mali joq para berar, kisi jaldar,
Sor qaqqan kedey so'rli barato'g'in.
Mazmuni:
Baribir ham boyning o'g'li qoladi
Mulla akang — u ham hisobini topadi.
Moli yo'q pora berar, odam yollar,
Sho'ri qisgan gadoy sho'rlik boradi[263].

Bu bejiz emas. Har ikki xalq boshiga tushgan kulfat bir xil edi. Mardikorlik juda ayon ko'rsatgan nohaqlik bir xil edi. Xalq yo'lida yozilgan, folklor va yozma adabiyot hamkorligining ajoyib namunasi bo'lgan bu qo'shiqlardagi g'oyaviy, hatto ifodaviy o'xshashlikning bosh sababi shunda. Bu holni O'rta Osiyodagi boshqa qardosh xalqlar adabiyotida ham uchratish mumkin.

Mardikorlik voqealari deb nom olgan xalq ozodlik harakati, tabiiyki, o'sha davr Turkiston vaqtli matbuotida o'z ifodasini topmadi. Chor senzurasi bunga yo'l qo'ymas edi. U biroz keyin 1917-yilgi fevral inqilobidan so'ng ko'rindi. Mashhur Hamza Qo'qon va uning atrofida bo'lib o'tgan xalq g'alayonlarini tasvirlar ekan:

Na kun o'lmishdi, na xil o'lmishdi zamon,
Nechaning qo'lida dandoni, to'luv og'zida qon.
Necha minglab kishilar o'ldi vatan birla xazon,
Butun ovozi jahon tutdi musulmonni yomon... —

deb yozadi.

---

[262] Qozoq adabiyoti tarixi. 2-tom, 2-kitob, Olmaota, 1965, 82-b. (qozoq tilda).
[263] Yuqoridagi kitob, 80-b.

Sidqiy o'zining juda qisqa muddatda yozib e'lon qilgan «Rusiya inqilobi» asarida butun Turkistonni chulg'ab olgan bu harakatni keng epik planda tasvirladi.

1916-yil 25-iyun «Farmoni nohosta»ning e'lon qilinishi, xalqdagi besaranjomlik, mahalliy amaldorlarning nohaq xatti-harakatlari, elning «chumoli kabi xor» qilinishi, qirg'inbarotlar, otish-osishlar, «Toshkentda-Qolkin» (Galkin), «Kolesniko'f», «Mochalof»larning, Jizzaxda esa «Ivano'f lain»ning qilmishlari, «Semirecheski»da «qirg'iz (qozoq) ahli» boshiga yog'dirilgan jafolar batafsil hikoya qilindi. El va yurtning iztirobli kunlari chinakam xalqchillik va vatanparvarlik nuqtai nazaridan yoritildi.

Muhimi shundaki, shoir bu hodisani hurriyat va ozodlik, haqiqat va adolat uchun olib borilgan kurash sifatida baholadi. Masalan, u shunday fikrlaydi: zulm va haqsizlik shu darajaga yetdiki, unga chidash mumkin bo'lmay qoldi. «Iyun farmoni» bilan xalqning so'nggi sabr-toqati ham tugadi. Nihoyat, u qo'zg'oldi. Alam va armonni bayroq qilib, shiddatli jangga — hayot va mamot jangiga kirdi:

Yetib zulm islom elin jonig'a,
Qo'shuldi hurriyatchilar sonig'a.

Demak, mardikorlik milliy va ijtimoiy qo'zg'olish uchun bir turtki bo'lgan, xolos. Zamonlardan buyon dardi yetilib, to'lib kelgan bu xalq shu hodisa bahona bo'ldi-yu, junbushga keldi. Masalaga bu xil yondashish Sidqiy qarashlarida keskin o'zgarish yuz berganini ko'rsatmoqda.

Davom etaylik:
Butun dunyoda hurriyatchi aro,
Bu so'z bor erur, anglangiz, ey ag'o.
Hurriyat olinmas hech imkon ila,
Magar olsa mumkin erur qon ila.

(19-bet)

Binobarin, 1916-yildagi qonli to'qnashuvlar, tabiiy hol. Negaki, hokim mute'ga ozodlikni o'z ixtiyori bilan qo'shqo'llab

topshirmaydi. Va u umuman osonlikcha bo'lmaydi. Uni faqat kuch bilan, qon bilangina olish mumkin. U, ehtimolki, katta qurbonlar talab qiladi. Shoir bunga tarixdan misollar keltiradi. Jumladan, 1772-yilgi Pugachyov qo'zg'olonini ko'rsatadi.

Bu nuqtai nazar, umuman olganda, davr bilan hamohang edi. To'g'ri, ijodkor ziyolilarimizda masalaga boshqacharoq yondashish ham kuzatiladi. Masalan, Behbudiy, Fitrat har qanday holda ham musulmon ahlining o'zaro qon to'kishlarini qattiq qoralaydilar. Sidqiy ham hurriyat haqida gap ochganda, ijtimoiy emas, milliy ozodlikni ko'zda tutadi. Masalaning bu tomonini unutmaslik lozim...

Mardikorlik voqeasi oqibatlari Sidqiyning ko'pgina she'rlaridan o'rin olgan. Masalan, shoirning «Rabo(t)chilar kelishi» kitobiga kiritilgan bir she'rida quyidagi satrlarni o'qiymiz:

Mardikorlik olmoq xususida qirildi ko'b kishi,
Bo'ldi bas o'qg'a nishon eski hukumat dastidan.
Soldi qirg'izlarni boshig'a bilursiz qatli om,
Oqti suv o'rnig'a qon eski hukumat dastidan.
Sotdigu berdik hama uyda yo'g'u bor narsani,
Qolmadi singan qazon eski hukumat dastidan[264].
Mirza Olim Javhariyda esa bunday satrlarni uchratamiz:
Biz, musulmonlardan o'n oltinchi yilda hukm ila
Bordi askar xizmatig'a necha yuz ming mardikor.
Vermagan joy turktozu javr ila o'ldi xarob,
Qoldi istibdod-zulm ostida cho'q shahru diyor.
Kuydi masjidlar, imoratlar, buzuldi xonalar,
Qatl asru g'orat o'ldi anda behaddu shumor.
Hukmlar joriy o'lurdi, dambadam bizlarg'a ham
Bosh sunub, lekin qabul aylar eduk chor-nochor.
Olinurdi oqcha cho'ntakdan, pichoq el yonidan,
Ot-anjomini ham gar o'tsa yo'ldan bir suvor[265].

Mirza Olim Mirza Tolib o'g'li Javhariy Andijonda qozilik qilgan. Shundan bo'lsa kerak, she'rda milliy nohaqlik, chor

---

[264] Sidqiy. Rabo(t)chilar kelishi. – T.: 1917, 19-mart, 11-b.

[265] Bahriddin Azmiy Aziziy. Yanga shugufa yoxud milliy adabiyot. – T.: 1917, 32–33-b.

hukumatining Turkistonga yetkazgan jabru jafosi ko'proq tilga olinmoqda.

Kattaqo'rg'onlik Mutribaning «Ey do'stlar na bo'ldi?!» she'rida masala birmuncha boshqacharoq qo'yilgan. Shoira Kattaqo'rg'onda yuz bergan voqealarni tasvirlar ekan, keng xalq qatlamlari manfaati nuqtai nazaridan kelib chiqdi. Shu jihatlari bilan u Sidqiyga yaqin turadi:

Avvalda otni oldi, keyin mardikor soldi,
Kim qilmadi qabuli, ne-ne baloga qoldi...
Tushdi el ichra g'avg'o, jam bo'ldi shahru sahro,
Yog'durdi o'q havodan, bir necha o'ldi ando.
Qamaldi qancha odam, ming-ming desam erur kam.
Ketdi shu ketganicha, bedomu bedarak ham.
Har kimda bo'lsa pul ko'p, qoldi alar qutulub,
Bechora kambag'allar, ketti bari sotilub[266] .

She'r:

Mutriba bo'ldi noshod, el dardini etib yod,
Qachon kelur baxtli kun, qachon bo'lurmiz ozod?!
satrlari bilan tugaydi.

Turkiston ozodlik tarixining bu so'nmas sahifasiga yozuvchilarimiz qayta-qayta murojaat qilganlar. Oybekning «Qutluq qon» romanida u markaziy masala qilib qo'yilgan edi. So'ngroq adib «Bolalik»da ham unga ma'lum o'rin berdi. Nazir Safarov 1916-yilgi Jizzax voqeasini «Ko'rgan-kechirganlarim»da keng ko'lamda tasvir etdi. Aqsad Muxtor «Chinor»ida bir bobni shunga bag'ishladi. Bugungi shoirlarimizdan Muhammad Alining «Boqiy dunyo» she'riy romanida ham u keng tasvirlanadi. Umuman, bu mavzuda adabiyotimizda qilingan va qilinayotgan ishlar ko'p. U bizdagina emas, qardoshlarimizda ham o'ziga xos an'analariga ega bo'lib qoldi. Masalan, Muxtor Avezovning «Mushkul zamona» qissasi bilan A.Nurpeisovning «Qon va ter» trilogiyasi orasida o'tgan vaqt salkam 50 yilni tashkil qiladi.

[266] O'zbek adabiyoti. 4-tomlikka ilova, 5-tom, 2-kitob. – T.: 1968, 310-b.

B.Kerboboyevning «Dadil qadam», X.Deryayevning «Qismat», A.To'qumboyevning «Qonli yillar», «Tong oldida» she'riy romanlari turkman va qirg'iz adabiyotlarida hodisa bo'lganligi o'quvchiga ma'lum.

Turkistondan ishchilar olish 1917-yilning fevraliga qadar davom etdi va 123 mingdan ko'proq kishi safarbar qilindi. Ular Qora dengizdan Boltiq bo'yiga qadar cho'zilgan front orqasidagi oqir ishlarda, Petrograd, Moskva, Nijniy Novgorod, Qozon, Kiyev, Xarkov kabi shaharlardagi sanoat korxonalarida, Shimoliy Kavkazdagi mis zavodlarida ishladilar. «Odatda bir joyda ishlovchilar to'dasi 1000 kishigacha bo'lar va har bir to'daga bir kishi boshliq qilib qo'yilar edi. Petrograd, Moskva, Nijniy Novgorod, Qozon, Kiyev, Xarkov zavodlarida, Shimoliy Kavkaz rayonlarida ham O'zbekistondan mardikorlikka olingan ishchilar juda ko'p edi. Ukraina, Belorusiya, O'rta va Quyi Volga bo'yi rayonlaridagi katta pomeshchiklarning yerlarida, Suxumi temir yo'l qurilishi singari qurilishlarda ham mardikorlikka olingan ishchilardan foydalandilar»[267].

Mardikorlarning u yerlardagi og'ir va mashaqqatli hayoti haqidagi bizgacha saqlanib qolgan asarlar u qadar ko'p emas. Bu, asosan, Hamzaning 1917-yilning aprelida bosilgan «Safsar gul»idagi «Vatan ishchilarining zabun holindan» deb nomlangan turkum she'rlarida, mashhur «Sog'inib», «Salom ayting» va «Hoy pahlavon»da hamda Sidqiyning «Rabo(t)chilar namoyishi yoxud Vatan qahramonlari» bilan «Rabo(t)chilar kelishi» to'plamlarida uchraydi. Sidqiyning Fevral burjua inqilobidan bir necha kun ilgari e'lon qilingan keyingi ikki kitobdagi she'rlari ham Hamza satrlariga ohangdosh bo'lib, musofirlikda zor-sargardon yurgan mardikorning sog'inch hislarini ifoda etadi. Chunonchi, birinchi to'plamdagi «Bir rabo(t)chi tilindan» she'riga «sog'indim» so'zi radif qilib olingan. She'r chetdan qaraganda ishqiy-lirik yo'lda yozilganday, ma'shuqasidan ajragan oshiqning intizor kechinmalarinigina ifoda qilayotganday tuyuladi. Aslida, undagi mazmun ancha keng. «Adashganman» radifli ikkinchi she'rda esa «falak zulmi» haqida gap ochiladi, lirik qahramon — mardikor ixtiyori o'zida yo'qligidan, ahvolini «shar-

[267] Vahobov M. Toshkent uch revolyusiya davrida. — T.: 1958, 143—144-b.

hi bayon» qilolmasligidan zorlanadi. Shoirning senzura vajidan shunday yo'l tutishga majbur bo'lganini sezish qiyin emas.

Har ikki she'r ham aruzning og'ir, vazmin vaznlaridan hazaji musammani solimda yozilgan.

Sidqiyning 1917-yil 19-mart sanasi bilan e'lon qilingan «Rabo(t)chilar kelishi» kitobi har jihatdan muhim. Unda asosiy o'rinni «Sitamdiyda rabo(t)chilar kelishi» deb nomlangan 90 satrli manzuma egallaydi. Mardikorlarning qaytib kelishiga bag'ishlangan bu asarda boshdan-oyoq xizmatga olingan ishchilarning jafoli mehnatlari haqida gap ketadi. Manzumaning savol-javob shaklida qurilishi, mardikor tilidan ular tortgan azob-uqubatining birma-bir hikoya qilinishi asarning ta'sir va ahamiyatini kuchaytirgan. Uzoq intizorlikdan keyingi uchrashuv quvonchi, iztirob va mashaqqatning dilda madda boylagan alamlari juda yorqin aks etgan. Bu sayru sayyohat ham, ko'pgina shoirlar og'iz ko'pirtirgan «qahramonlik» ham, «Vatanni himoya qilish» ham emas edi. Negaki, «Vatan» «oq podshoh» amri bilan bir hovuch arzandalarining boylik va hokimiyatga bo'lgan so'ngsiz ishtahasini qondirish uchun o'z fuqarosini lovullagan o'tga tashlagan edi.

«Sitamdiyda rabo(t)chilar kelishi» manzumasidagi mardikorlarning jafoli hayoti bilan tanishar ekansiz, shoirning o'quvchi diqqatini chor hukumatining mana shu qabih siyosati va kirdikorlariga qaratganligini ko'rasiz. Asar mardikorga berilgan shunday savol bilan boshlanadi:

Muncha muddatlarda qoldingiz qayon?! — Xush keldingiz!
Qaysi joyg'a bordingiz, bermay nishon?! — Xush keldingiz!
Ba'zimiz to'p zov(u)tig'a, ba'zimiz mis konig'a,
Po'rma kiyduk, olduk o'zni onda soldat sonig'a,
Bo'ynumuz sunduk bu zolim shohning farmonig'a,
Siz so'rang bizdin, deb: «Ey zindoniyon, xush keldingiz!
(2-bet)

Shu tariqa shoir «so'z» so'raydi, «rabo(t)chilar «javob» qiladi. Shoirning «rabo(t)chi»si «mis konig'a» borgan. Gap sekinasta ularning nima ish bilan mashg'ul bo'lgani va ularga qanday muomala qilinganiga ko'chadi:

Berdi bir qo'lg'a chiroqu yona bir qo'lg'a temur,
Yer tagig'a ushbu holat birla kirduk biz g'ayur.
Ba'zimizga berdi gurzi, misni tobsang, munda ur,
Yer tagi namnoku tanlar ojiz o'ldi misli mo'r,
Aytingiz tabrik etib:» Ey qahramon, xush keldingiz!»
(6-bet)

Bu yerdagi «qahramon»ning ma'nosi o'zgacha, albatta. Bu qahramonlik mardikorning o'shanday og'ir sharoitda qilgan xizmatida emas, balki inson zoti chiday olmaydigan qiynoq va azobdan omon chiqib kelganligidadir. Buni shoirning munosabati ravshan ko'rsatib turibdi:

Boribon mis konig'a bo'lduk necha muddat muqim,
Zulm tog'i ostida qadlar duto bo'ldi chu mim.
Yer tagig'a goh tushtuk bir-iki, uch chaqirim,
Yer bosib qolg'aymu deb jon titrar erdi, ohkim,
Bizga loyiq desangiz: «Ey, toza jon, xush keldingiz!»
(6-bet)

Ularning och-yupun ahvoli, ularga qilingan zulmu sitamlar quyidagi satrlarda o'z ifodasini topgan:

Berdilar mis konida eski hukumat ming azob,
Zulm o'tida ayladilar, bas jigarlarni kabob.
Kimki ohista ish etsa, o'n qadoq non ishtarob,
Tan o'tini(ng) yiqti yer uzra, beli qildi xarob,
Demangizlar bizlara: «Ey shodumon, xush keldingiz!»
(4-bet)

Yana:

Ore, ul zulm ahli ko'b biz barchani och ayladi,
Parchai non, bir piyola choyg'a muhtoj ayladi,
Bizni necha zulm ila ochu yalang'och ayladi,
Yaxshi osh bo'lsa (o'zi) yeb, bizg'a qirmoch ayladi,
Yuzni g'am so'ldurdi, dengiz: «Za'faron,xush keldingiz!»
(4-bet)

Asarning ahamiyati o'sha davr adabiyotida juda kam yoritilgan front orqasida xizmat qilgan mardikorlarning og'ir va ayanchli mehnatini keng xalq qatlamlari manfaati va yuksak insonparvarlik nuqtai nazaridan yoritilganligi hamda chor hukumatining mustabid siyosatini fosh etganligi bilangina cheklanib qolmaydi. U ayni paytda, umuman har qanday zulm va zo'ravonlikni qoralashi, hurlik va ozodlikni ulug'lashi, binobarin, yurtni erk va mustaqillik tomon undashi bilan ham muhim hisoblanadi.

Masalaning yana bir tomoni bor. Urush va u bilan bog'liq mardikorlik voqealari poeziyamizdagi ko'pdan hukmron bo'lib kelayotgan ma'rifatchilik qarashlariga, xususan, ilm-fan va ma'rifatni egallash orqali istiqlolga erishish mumkin, degan fikrga juda qattiq zarba bo'lib tushdi. Negaki, Yevropa mamlakatlari, aniqrog'i g'arbdagi ilm-fan va madaniyat, jamiyat qurilishi keyingi paytlarga qadar ko'pgina shoirlarimiz nazdida ibrat oynasi bo'lib kelar, son-sanoqsiz she'rlarida ulardan o'rnak olishga chaqirilar edi. Insoniy yirtqichlikning betimsol namunasi bo'lgan urush esa o'sha «farishtasifat» mamlakatlarning tashabbusi va harakatlari bilan yuz berdi. Bu hol o'ylashga majbur qildi. Qarashlar o'zgardi. Oldin o'rnak qilib ko'rsatilgan davlatlar endi «vahshiy davlatlar», «madaniy vahshiylar» sifatida tilga olina boshladi. Bunday qarash qardosh adabiyotlarda ham bo'lgan. Masalan, Muhammad Hodining «G'urbat ellarda yodi vatan» yoki yuqorida tilga olingan «Alvohi intihob»ini eslash kifoya.

Bu hol jadidlarimizdagi ma'rifatparvarlik g'oyalariga o'z tahririni kiritdi. Ma'rifatchilik milliy diniy an'analar tomon burildi.

1917-yil fevral inqilobidan keyin mardikorlar orasida ishga chiqmay qo'yish, o'z yurtlariga jo'nab qolish avj oldi. Vaqtli hukumat Turkiston harbiy okrugi qo'mondoniga maxsus telegramma yuborib, «qochoq» mardikorlarni ushlash va ularni ish joylariga qaytarishni buyurdi. Ammo Muvaqqat hukumat Turkiston komitetining raisi kadet Shchepkinning stansiyalarga qorovullar qo'yib, mardikorlarni tutish va qaytarish yo'lidagi barcha urinishlari zoe ketdi. Hukumat 1917-yilning aprelida

mardikorlarni o'z yurtlariga qaytarish to'g'risida qaror qilishga majbur bo'ldi[268].

Xullas, mardikorlar apreldan o'z ona yurtlariga ommaviy qayta boshladilar. Lekin bu oson kechgan emas. Fevral o'zgarishidan keyin Petrograddan Turkistonga qaytib kelayotgan Mustafo Cho'qayev mardikorlar tushgan vagonlarning juda ko'p stansiyalarda chetga olib chiqib uzib qo'yilganini, pulsiz, ovqatsiz musofirlarning nochor ahvolga duch kelganini o'z xotiralarida ma'lum qilgan edi[269].

Mardikorlik o'zbek mehnatkashlarining milliy-ijtimoiy uyg'onishida o'ziga xos maktab bo'ldi. «Vaqt» muxbiri Sh.Muhammadyorov yuqorida keltirilgan «Turkiston maktublari» maqolasida «Mardikorlik ular (turkistonlilar — B.Q.) uchun bir maktab bo'lar. Xalq yer-suv ko'rar, ochilar, til o'rganar.

Xalq bunday maktabga benihoya chanqagan. Turkiston uchun hozir beshik emas, maktab kerak»[270], - deb yozgan edi.

Mardikorlarning qaytib kelishiga bag'ishlangan asarlar (e'lon qilinganlari va ma'lum bo'lganlari ko'zda tutiladi) hozircha ikkita. Ikkalasi ham Sidqiy qalamiga mansub bo'lib, biri, yuqorida nomi tilga olingan «Sitamdiyda rabo(t)chilar kelishi» manzumasi va ikkinchisi «Sizlarga mujda»she'ridir. Har ikki asar bitta kitobda — «Rabo(t)chilar kelishi»da berilgan.

«Sizlarga mujda(xabar)»da ham manzumadagi kabi quvonch va sog'inch hislari keng o'rin egallaydi. Taqdirga shukrona, visol shodiyonasi bo'rtib turadi.

She'rni to'la keltiramiz:

Falakni javridin singan o'shal bolu parim keldi,
Vujudum bog'i naxli, ravshani chashmi tarim keldi.
Xudoning shukrini qaysi zabon birla ado aylay,
Karam daryosi jo'sh urdi, duraxshon gavharim keldi.
Firoqida damodam, ey ko'zum, qonlar to'kar erding,
Bas emdi, qon yoshingni to'kmakim, ul dilbarim keldi.
Musofirlig'da rangi qahrabo, yanglig' sarig' bo'lg'on,

---

[268] Иноятов Х.Ш. Октябрская революция в Узбекистане. — М., 1958, 68—69 с.

[269] Mustafo Cho'qay. 1917-yil xotira parchalari. 1991, Parij-Berlin, 11—14-b.

[270] «Vaqt» g., 1916-y., 30-avgust.

Qizil guldek yuzi so'lg'on mening bog'u barim keldi.
G'ariblig'da jafo chekkan, sitam tortgan, alam ko'rgan,
Qadi g'amdin duto bo'lg'an mashaqqatparvarim keldi.
G'aribliq yurtida hayronu sarson o'lmasun hech kim,
G'aribu notavon o'lg'on sitamkash rahbarim keldi.
G'aribliq yurtida ochin-to'qin ishlab sovug'larda,
Qadi xamliq, ko'zi namliq, yuzi chun za'farim keldi.
Zamona gardishidin ko'b jafolar chekmagan kim bor,
Xudog'a shukrkim, ko'zimni nuri, sarvarim keldi.
Jafo birla ezilg'on dil shifo tobti, bu kun Sidqiy,
Ki ul hoziq tabibi g'amzada nek axtarim keldi.

(7-8 betlar)

She'rdagi tuyg'ularni birgina quvonchu shukrona bilan cheklash to'g'ri bo'lmas. Shoirning dil tubida cho'kib yotgan qayg'u va hasratini ham payqash qiyin emas. E'tibor qilgan bo'lsangiz, she'rda xizmatdan qaytgan «rabo(t)chi» tavsiflanganda «chashmi tarim», «duraxshon gavharim» bilan birgalikda «sitamkash rahbarim», «sarvarim» kabi sifatlar ham ishlatilmoqda. Bular shunchaki qofiya uchun keltirilgan deyish qiyin. Nazarimizda, shoir ularning «o'zga yurt»larda charxlanib, toblanib, oq-qorani tushunib kelganligiga ishora qilmoqda. Ularning katta ishlarda, buyuk o'zgarishlarda elga «sarvar», «rahbar» bo'lishiga umid bog'lamoqda. Buni uning boshqa she'rlari ham tasdiqlaydi. Chunonchi, 1917-yil 24-martda bosilib chiqqan «Toza hurriyat» to'plamida bir she'r bor. «Yashasun yoshlar!» deb nomlangan bu she'rga shoir» hozirgi namoyishchi taraqqiyparvar Toshkand yoshlari haqinda» deb izoh bergan. Gap ko'zi ochiq, esli-hushli, chinakam yangi avlod haqida ketayotganini sezib olish qiyin emas. Shoir ularni olqishlar ekan, ularga xos bo'lgan xarakterli xususiyatlarni ajratib ko'rsatadi. Shoir fikricha, bu xususiyatlardan eng ahamiyatlisi ularning el uchun fidoyiliklari, undan ham muhimroq mahalliy ayirmachiliklardan uzoq ekanliklaridir.

Mana o'sha satrlar:

Demaslar bu qazoqdur yo no'g'oydur, yo qishloqi,
Bo'laklab yo o'gaylab chetga qo'ymas hech bir on yoshlar.

Razolatpeshalar axloqin islohiga sa'y aylar,
Tug'ushgondin ziyoda barcha elg'a mehribon yoshlar...

Ular hurriyat havosidan nafas olib, uning ruhidan tarbiya topsalar, millat o'zining ozodlik haqidagi har qanday orzusiga erishmasdan qolmaydi:

Bu hurriyat zamonida alarni tarbiyat qilsak,
Gumon yo'qturki, solg'aylar falakg'a oshiyon yoshlar.
(21-bet)

Shoir ularning uyushqoqligiga, mitinglardagi ehtirosli «nutqu bahslariga havas va faxr bilan qaraydi:

Taraqqiyparvar o'lsun, sarvar o'lsun el barisiga,
Amon bo'lsun, eson bo'lsun yashab necha zamon yoshlar,—
(21-bet)

deb duo qiladi.

Darhaqiqat, mardikorlar ona yurtga qaytgach, Turkistondagi milliy harakatchilikning oldingi saflaridan o'rin olgan shonli avlodning o'zagini tashkil qilgan edilar.

1917-yil Fevral voqealarini Turkiston xalqi zo'r xursandchilik bilan kutib oldi. Shoirlarimiz bu voqeaga bag'ishlab yuzlab she'rlar yozdilar. Shukriy-Xurshid va Sidqiy qisqa muddatda «hurriyat mevasi»[272] va «Rusiya inqilobi»[273] degan dostonlar yozib chop ettirdilar.

Tarje'band doston janridagi birinchi asar 191-yilning 15-martida G'ulomhasan Orifjonov bosmaxonasida bosilgan. Muqovasiga tushirilgan alvon bayroqlar rasmi ustiga «Musovot»(Tenglik), «Axuvvat» (Birodarlik), «Adolat», «Hurriyat» deb yozib qo'yilgan. Ikkinchi doston — voqeaband. Sidqiy 1917-yil Fevral voqealarini keng va atroflicha tasvirlaydi. Inqilob tarixini, sabablarini yoritishga, ularni tahlil etishga harakat qiladi. Jumladan, chor Rusiyasining Turkistonda olib borgan siyosati orqali uning siyosiy inqirozini ko'rsatadi. Rasputin

[272] Sharafzoda Shamsiddin Shukriy. Hurriyat mevasi. – T.: 1917
[273] Sidqiy Xondayliqiy. Rusiya inqilobi – T.: 1917.

voqealari vositasida ma'naviy-axloqiy jihatdan ham chiriganligini isbotlashga urindi. Asar butun insoniyatni yaxlit, yagona vujud deb qarovchi falsafiy umumlashma bilan yakunlanadi. Shoir Turkiston xalqini ham barcha madaniy millatlar singari o'zaro ahillikka, ittifoqqa chorlaydi. Xususan, «Sho'royi islomiya» jamiyatiga katta umid bilan qarab, uning atrofida birlashishga da'vat etadi:

Tirishmoq, kirishmoq kerak ushbu kun,
Ki bordur tirishsak, kirishsak o'run...
Buyuk maqsad uzra jang urmoq kerak,
Tilab matlab emdi yugurmoq kerak...
Zamona sadosig'a soling quloq,
Ki har dam degay: Ittifoq! Ittifoq!...
Jafolarg'a maydonda bermang o'run,
Xatolarg'a maydonda bermang o'run!...
Jaholat, atolat—yo'q o'lsun hama!
Razolat, kasolat—yo'q o'lsun hama!
Yashasun hurriyat bilan Ittifoq!
Qirilsun xiyonat eli va nifoq.

(46—48-betlar)

Demak, oldinda hali janglar bor, kurashlar bor. Janglarda g'olib kelmoq, jafolarni, «razolat va kasolat»ni butunlay oradan ko'tarmoq uchun «Ittifoq» — hamfikr, hammaslaklar ittifoqi zarur. Bizningcha, shoir satrlarini shunday tushunmoq kerak. Shulardan kelib chiqib, dadil ayta olamizki, o'zbek adabiyotining eng ilg'or vakillari Fevral inqilobining mohiyati va mazmunini, umuman olganda, to'g'ri tushundilar va to'g'ri baholadilar.

Sidqiy «Rusiya inqilobi» dostoni bilan o'zbek adabiyotida birinchi bo'lib Fevral revolyutsiyasini keng epik tasvirlab berdi. Javoharla'l Neruning bir fikri esga tushadi: «Goho bizni shunga ishontirmoqchi bo'ladilarki, go'yo bizning millatchiligimiz qoloqligimizga shahodatnoma, mustaqillik haqidagi talablarimiz esa mahdudligimiz belgisi emish. Bu gaplarni gapiruvchilar fikricha, agar biz Britaniya imperiyasining yoki Millatlar hamdo'stligining kichkina bir sherikchasi rolida qolishga rozilik

bildirsak, bu go'yo xalqlar do'stligining chinakam tantanasi bo'ladi. Ular xalqlar do'stligi deb talqin qilinayotgan ushbu narsaning tor, biqiq Britaniya millatchiligining namoyon bo'lishi ekanligini xayollariga ham keltirmaydilar»[273].

Afsuski, xuddi shunday hol inqilob va fuqarolar urushi yillari nomi bilan sho'ro tarixiga kirgan 1917—1921-yillarning va undan keyingi davrla ning asosiy mazmunini tashkil qildi. Shu jahatdan, jadidchilik milliy mustaqillik uchun kurash tarixini anglashda qimmatli materiallar bera oladi.

Vatanni nega sevadilar?

60-yillarning o'rtalarida adabiyotimizga endigina kirib kelgan Abdulla Oripov «Men nechun sevaman O'zbekistonni?» degan savolni qo'ygan edi. Darhaqiqat, Vatanni nega sevadilar? Nega uni iymon qadar yuksak tutadilar. Nega barcha gunohlarni kechirish mumkin-u, Vatanga xiyonatni kechirib bo'lmaydi?

Chunki u onadek tanhodir, yagonadir. Chunki u biz ko'z ochib ko'rgan dunyomizdir. Biz voyaga yetgan ma'vodir. Tog'-toshidan yer-suvigacha, sabza-giyohidan dov-daraxtigacha umrimizga jon qadar payvand. Chunki u bizning yoshligimiz, biz orttirgan do'stlar, ilk muhabbatimiz, quvonchlarimiz, tashvishlarimiz, baxtli-baxtsiz onlarimizdir. Bu tuproqda bizni dunyoga keltirgan, aqlu ma'rifatimizni bugungi kunga olib chiqqan, sha'-nushukuhimizni dunyoga namoyish etgan ota-bobolarimizning xoki poklari yotibdi. Shuning uchun ham uni muqaddas biladilar, «qiblagoh», «sajdagoh» ataydilar. «Vatan! Mening bor qismatim shu bir so'zda hal», — deydi bugungi shoirimiz Abdulla Oripov. «Vatan, vatan, deya jonim tanimdan o'lsa ravon, manga na g'am qolur?!»... deb yozgan edi bundan 90 yil muqaddam Abdulla Avloniy. Tavallo esa «Vatan» bilan «jonu tan»ni yon-mayon qo'llaydi. «Bu vatandandur badan» deb yozadi bir o'rinda. Inson borki, vatan tuyg'usi bor.

Navoiyni eslaysizmi?
Ayonkim, Vatan uzra to joni bor,

---

[273] Дж.Неру. Открытие Индии. — М.: 1987, 32 с.

Kishi harb etar toki imkoni bor.
deb yozgan edi u.

Uzoqqa ko'z tashlaylik. Turk xoqonlari silsilasida mumtoz o'rinlardan birini egallaydigan Metexon haqida hikoya qiladilar:

Dushman xoqonni urushga tortish uchun bahona izlardi. Shu sabab uning sevgan otini so'rabdi. Ot bir soatda ming farsah yo'l bosardi. Xoqon qurultoy chaqiribdi, urushning dahshatli oqibatlaridan ko'ra sevgan otidan ajralmoqni afzal bilibdi. Dushman esa bahona izlardi. Shuning uchun bu gal sevgan yorini talab qilibdi. Jami beklar, qo'shin boshliqlari larzaga kelishibdi. Bizni yo'lla! Ruxsatingni tilaymiz, hukmdorim! - deyishibdi ular. Xoqon ruxsat bermabdi. «Men yurtimni muhabbatim uchun qurbon qila olmayman!» - debdi va boshiga tushgan musibatga chidabdi. Yana dushman tarafdan elchilar kelishibdi. Bu gal bir parchagina yer so'rabdilar; mutlaqo unumsiz, yaydoq, qaqroq bir parchagina yer. Qurultoy yaroqsiz bir parcha yerni berib, yopishqoq dushmandan qutulishni tavsiya etibdi. Biroq, endi Metexon larzaga kelibdi: «Vatan bizninggina mulkimiz emas, mozorda yotgan otalarimizning, qiyomatga qadar tug'iladigan nabiralarimizning bu muqaddas tuproqda haqlari bor. Vatandan — bir qarich bo'lsin — bermoqqa hech bir kishining haqqi yo'qdir. Endi urushamiz. Mening orqamdan olg'a, bo'yin tovlaganlarga o'lim!» -debdi va dushmanga sherdek peshvoz chiqibdi.

Mahmud Koshg'ariyni eslaysizmi? Shamoldek nogahoniy paydo bo'lib, uchar qushlardek ko'zdan tez chekiladigan ajdodlarimiz haqidagi fikrlari yodingizdami? «Amin bo'ldimki, Tangri davlat quyoshini turk qo'rg'onlaridan ko'kka chiqargandir... Tangri ularga turk otini berdi va yer yuziga hokim qildi. Zamonamizning xoqonlarini ulardan chiqardi. Dunyo xalqlarini boshqarish jilovini ularning qo'liga tutqazdi. Ularni barchadan ustun qildi. Haqiqat yo'lida kurashmoq uchun kuch berdi. Ular bilan hamkorlik qilganlarni, ularga tarafdor bo'lganlarni aziz va mukarram etdi...». O'rta asrlarning mashhur adibi Al-Johiz ajdodlarimiz haqida «Fazoyili atrok» («Turklarning fazilatlari») degan maxsus kitob yozgan. Unda shunday gaplarni uchratamiz: «Turk bir narsani istasa, qo'lga kiritmaguncha qo'ymaydi.

Qasdlangan ishiga, albatta erishadi. Lekin uncha-munchaga qasdlanmaydi. Basraning adabi, Yunonning hikmati, Chinning san'ati turk uchun besh qo'lday ma'lumdir. Turkning yuragi toza. U yurakda botil fikr, yovuz o'y yo'q. Ular so'zlashgan til ham vujudlari va ovozlari kabi ulug'vordir. Turk yaltoqlanish, yolvorish, yaltiroq so'z, munofiqlik, yolg'onchilik, birovni masxara qilish, riyokorlik, takabburlik, qardoshiga yomonlik qilish nimaligini bilmaydi... Yomonlik va hiyla bilan boshqalarning molini olishni halol hisoblamaydilar.

Turklar ot minishning ustasidirlar. Kotib kitobni qanday varaqlasa, turk ham dushmanni shunday oson ag'darib bosadi... o'n millatga mansub o'nta yigitning quvvati bir kishida jamlansa ham bir turkka bas kela olmaydi...

Turklar g'oyat nomusli insonlardir. Na jangda, na tinch payti bo'lsin, hiyla bilmaydilar, fursatdan foydalanmaydilar. O'zlari va so'zlari to'g'ridir. Oralarida ixtilof yo'q. Bir turkning boshqa birovi moliga xiyonat qilishi, ikkiyuzlamaligi, kibrlanishi, kattalarga hurmatsizlik ko'rsatishi tasavvurga ham sig'maydi. Ular Vatanga bog'liq bo'lishni har narsadan ustun tutadilar. Mamlakat olishdan ko'ra hokim bo'lish uchun harbni sevadilar, boshqa millatlar singari gap sotmoqni yomon ko'radilar. Havoyi gaplarga uchmaydilar. Gaplari doim jang, zafar haqida, o'yinchoqlari esa ot va qurol. Turg'unlik, bir yerda ortiqcha ko'ngil ochish, uzoq qolish, kutish, kam harakatlilik, kam ishlik turkka juda og'ir keladi. Chunki ularning vujudi harakat uchun yaratilgandir. Bir joyda turmoqni yoqtirmaydilar. Ruhiy quvvatlari tandagi quvvatlaridan ko'proqdir. Ular o't-otash, serg'ayrat, sezgir keladilar. Zehnlari o'tkir, boqishlari keskin bo'ladi. Nochorlikni ojizlik, rohatni oyoqqa tushov, qanoatni jur'atsizlik, uzoq vaqt bir yerda qolishni ahmoqlik, jangni tashlab chiqishni pastkashlik deb biladilar...».

Mashhur italyan shoiri «Tasso bechora» (Usmon Nosir) bu millatni dushman qarshisida dov-daraxtlarni ag'darib, olamni larzaga soluvchi bo'ron»ga, do'st huzurida «tonggi shabada»ga qiyos qiladi. Yan Amos Komenskiy «Turklar qahramondirlar» deb yozadi, mehr-oqibatini alohida ta'kidlaydi. «Quyosh shahri»ning muallifi Kampanella «Fikr hurriyati»ni, «vijdon hurriyati»ni baland tutuvchi «jasur va odil» turklar bor ekan, yolg'iz

haqiqat, adolat va hurriyat hukmronlik qiladigan «Quyosh o'lkasi» ne uchun ertaga vujudga kelmasin?! deb yozadi.

Ko'hna tarix qatlaridan bunday e'tiroflarni ko'plab topish mumkin.

Vatanni sevmoq undan shunchaki quvonmoq, g'ururlanmoq emas. Uni dil-dildan anglamoq, u bilan nafas olmoq, u bilan yashamoqdir. Uni yashnatmoq, obod etmoq, u uchun kurashmoqdir. Afsuski, o'tgan asrning 60-yillarida Vatan bilan birga Vatan muhabbati ham bizdan tortib olingan edi. So'ng keyingi 70-yil davomida poyama-poya so'ndirib kelindi. Millat, Vatan tushunchalari sotsialistik mafkuraga moslab chiqildi... Bugun sotsializm yiqilib, u bilan bog'liq tushunchalar tumandek tarqala boshlagach, yana hamma narsa asl holida namoyon bo'la boshladi...

Bizning Vatanimiz ko'p ming yillik tarixga ega bo'lgan, jahon sivilizatsiyasining chorrahasida kelgan o'nlab ilm-fan dohiylari bilan bashariyat tafakkurini yoritgan, jahongir sarkardalari bilan olam xaritasiga necha bor o'zgartishlar kiritgan tabarruk Turkiston (O'zbekiston) ekanligini bugun dadil aytmoqdamiz.

Xo'sh, nechun sevaman O'zbekistonni,
Sababini aytgin desalar menga,
Shoirona go'zal so'zlardan oldin
Men ta'zim qilaman ona xalqimga, —

yozadi Abdulla Oripov.

Darhaqiqat, millat(xalq) tushunchasi hamisha Vatan bilan yonma-yondir, misoli jismu jondir. Birini birisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Millatimizning esa o'lmay-yitmay, yo'qolmay-yutilmay asrlar osha barhayot kelishini ta'min etgan, bugun har birimizning tomirimizda qaynoq qon bo'lib oqib turgan betimsol an'analari bor.

Turkning bir milliy fazilati dunyodagi voqealarga ochiq ko'z bilan qarashidir. Qadim turklarning To'ng Yabqo'sining, Chingiz, Temur muvaffaqiyatlarining eng katta siri jahon vaziyatini atroflicha ko'ra olishlarida, undan tamomila xabardor bo'lish-

larida va har fursatda foydalana bilishlarida edi. Turk millati tarixiy hayotining shavkatli kunlarida jahon siyosiy voqealarini tubdan o'rganib xulosa chiqara olishi jihatidan zamonamizning inglizlariga o'xshaydilar. Va o'z xulosalarini vaziyatga tatbiq eta biladilar. Bugun hatto Anado'luning o'z turk tabaqalari, shuningdek, qozoq, qirg'iz, turkman va o'zbeklar jahon siyosatiga shu qadar aralashib, oddiy cho'ponidan dehqonigacha dunyo masalalarini shunchalik tushunadilarki, hayratdan yoqa ushlaysiz. Eron, tojik, hind, rus va xitoy dehqonining jahon hodisalariga bunchalik ochiq ko'z bilan aralashishlari hech bir ko'rilmaydi. Buyuk janglar paytida turk millatining birdan tug'yonga kelishi, istiqlolga muhabbati, uning dunyo voqealariga chin ko'ngildan berilishi va qiziqishi bilan izohlanadi. Bunday milliy xususiyatlarini turk millati juda katta e'tibor bilan yoshlarga singdirib keladi.

Turklarning yana bir xususiyatlari serfarzandlikdirki, u futuhot va istilolarida har vaqt nufus ustunligini ta'min etib, yangi vatanlar izlamoqqa omil bo'lgandir...

O'rta Osiyo turklari bir kun mustaqilliklarini qo'lga ola bilsalar, nufusni oshirmoq, rus hukmronligi davridagi qirg'inlarning o'rnini to'ldirmoq ular uchun katta bir muammoni tashkil etmaydi».

Tariximizning milliy uyg'onish davri deb atalgan 1865—1929-yillarda Vatan va Millatni anglash, mustaqilligi uchun kurashish eng muhim masalalardan bo'lib turgan edi. Xususan, jadidlar nomi bilan tarixga kirgan fidoyi otalarimiz bu borada katta shijoat ko'rsatdilar. Zamon aylanib XX asr so'ngida mustaqillikning dolzarb masalalari yana kun tartibiga qo'yildi.

Bugun biz jahon taraqqiyotidagi o'z o'rnimizni, o'z yo'limizni izlamoqdamiz. Bu yo'l, tabiiyki, insoniyatning aqlu tajribasiga zid emas, balki o'shandan kelib chiqib tanlangan yo'ldir, lekin O'zbekiston yo'lidir.

Yangi tafakkur: izlanishlar, mashaqqatlar

Yaqinda taniqli faylasuflardan I. Jabborovning «Ruhiy olam: jaholat va kamolot» degan kitobi qo'limga tushib qoldi. O'tgan yili chiqqan. Hajmi salkam 22 bosma taboq. Ruhiy olamning

ikki qutbi olinibdi-da, degan o'y bilan varaqlay boshladim. Sarlavhalarga ko'zim tushdi: Janglarda sinalgan g'oyalar; Antikommunizmning zaharli nashtari va mafkuraviy kurash; Tafakkur chirog'i va xurofot; Jaholatdan sotsial taraqqiyot va ma'rifatga... Hayratim yana oshdi. Avvalo, ruhiy olam nahotki birgina shu ikki rang — jaholat va kamolotdan iborat bo'lsa?! Unday bo'lsa, nimasi olam?

Ikkinchidan. Kitob ateistik mavzuda edi. Binobarin, din bilan bog'langan hamma narsani jaholatu, unga qarshi har qanday fikrni kamolot deb bo'larmikan?!

Afsuski, kitobda shu ruh hukmron. Undagi ayrim xulosalarga uch-to'rt yil oldin chidash mumkin edi. Hozir chidab bo'lmas. Masalan, muallif fikricha, «Azroil, Iblis, Shayton, Munkar, Nakir»«mehnatkash ommani qo'rqitib, itoatgo'ylikka chorlash maqsadida to'qilgan» (!) (84-bet). Bugun haqida gap ketganda esa u O'rta Osiyo, Ozarbayjon va Shimoliy Kavkazdagi mahalliy aholining dafn marosimlarida dindorlikning o'sishini (49-bet) ko'radi.

Oq-qora tasvir kapitalistik va sotsialistik taraqqiyot yo'llariga o'tganda yanada keskinroq tus oladi. Sotsializmdan gap ochilganda, faqat «misli ko'rilmagan sur'atlar» gapiriladi. Burjuaziya esa «ommani o'ziga ergashtira oladigan sotsial idealni ilgari surishga mutlaqo qodir bo'lmay qoldi» (12-bet) deyiladi. Bu fikr-mulohaza shu kunlarda, biz sotsializmning imkoniyatlarini qayta qurish orqali namoyish qilib, isbotlashga bel bog'lagan bir paytda aytilayotgan va u yetakchi mutaxassislarimizdan biri tomonidan aytilayotganini xotirga olsangiz, o'ylanib qolasiz. So'z va tushunchalar inflyatsiyasi hali ham o'sha eski sur'atlar bilan davom etmayaptimikan?! Mana, yaqinda keyingi besh yillik rejalar loyihasi e'lon qilindi. Biz ularni, uncha-buncha emas, «Respublika aholisining farovonligini yuksaltirish dasturi» deb atadik. Farovonlik deyilganda, hamisha to'kinchilik tushunilgan-ku! «Farovonlik»ni yuksaltirish uchun avvalo o'sha «farovonlik»ning o'zi bo'lishi lozim emasmi?!

Tabiatda shunday hodisalar borki, ularni hozirgi fan-texnika imkoniyatlari bilan ham tushuntirish qiyin. Yashil odamchalar, uchar tarelkalar, Bermud uchburchagi, Qor odam va hokazolar haqidagi bahsni eslang. Ruhiy jarayonda bu xil hodisalar yanada

ko'p. Eng oddiysi, biotok, telepatiya kabi gaplarni oling. Shoir dunyoni «sirli xilqat» der ekan, shularga ham ishora bor. «Ruhiy olam» tadqiqotchisi bularni tushuntirishga, izohlashga shoshmaydi. Uning bunday masalalarda tayyor qolip, andozalari bor. Bular — uydirma. Eng osoni — shu.

Taassufki, adabiyot masalalarida ham uzoq muddat mana shunday ish tutildi. «Og'irning ustidan, yengilning ostidan» o'tib kelindi.

Tasavvufni olaylik. Bir vaqtlar Yevropa adabiyotshunoslik fani O'rta asrlar sharqi adabiyotini uchga bo'lib tekshirgan edi: qahramonlik eposi, saroy poeziyasi, mistik she'riyat.

To'g'ri, bu qarash allaqachon eskirib ketgan. Lekin e'tibor qilaylik, Bertels gumanizmni xuddi mana shu mistik she'riyatdan qidirgan edi. Yoki uning tasavvuf asarlari haqidagi mana bu fikrini ko'ring:

«Bu yerda so'ngroq O'rta asrlar Yevropasini hayajonga solgan barcha muammolar allaqachon qo'yilgan va ularga aristotelchilikni shunchaki qayta ishlash deb qarash mutlaqo mumkin emas. Agar IX—XIII asrlar Yevropa madaniyati tarixidagi eng tushkun davr ekanligini esga olsak, ayni mana shu Sharq faylasuflarining asarlari Yevropa xalqlarini xalta yo'ldan olib chiqdilar va ularning keyingi taraqqiyotiga yo'l ochdilar, degan xulosaga kelmaslik mumkin emas».

Mana shu tasavvuf Sharq adabiyotining, shu jumladan, o'zbek adabiyotining ming yildan ortiqroq tarixida birga kelayotgan, balki uning qon-qoniga singib ketgan bir falsafadir. Tasavvuf she'riyati, tasavvuf adabiyoti degan tushuncha, istilohlar bor.

Tasavvuf haqida shu paytga qadar bizda birorta ko'zga ko'rinadigan ish yo'q. Marhum akademigimiz Vohid Zohidovning Navoiy haqidagi «Ulug' shoir ijodining qalbi» kitobida berilgan, so'ng 5 tomlik «O'zbek adabiyoti tarixi»ga ko'chirib bosilgan maqola bugungi talablarga javob bera olmaydi.

Natija shu bo'lib turibdi-ki, Yassaviy, Hakim ota, So'fi Olloyor, Huvaydo, Sadoiy, Majzub Namangoniy, Haziniy, Saryomiy singari shoirlarimiz haliga qadar o'z bahosini ololmay keladi. Baho nimasi, ularni iloji boricha, xalqdan uzoqroq tutishga urinamiz.

Sababi:

1. «Xudo»si bor har qanday asardan cho'chib qolganmiz.

2. Izohlay olmaymiz.

Mashrabni Mashrab qilgan narsani ko'rsata olmaymiz. Bizning «ilmiy» talqinlarimiz bilan xalqning «jaydari» talqinlari orasida ziddiyat chiqib qolmoqda. Go'yo ikki tilda gapirayotirmiz. Huvaydoni qarang. Xalq orasida mashhur. Qancha g'azallari hofizlarimiz tomonidan qo'shiq qilib kuylanib kelingan. Qancha rivoyatlar to'qilgan. Toshkentning ko'chalaridan biri Huvaydo nomida. Shoir nomida mahalla bor. Darvoqe, o'tgan yili shaharning qay bir ko'rigda uch mahalla g'oliblikni qo'lga kiritgan edi: Huvaydo, Miskin, Avloniy.

Xo'sh, mana shu shoir haqida xohlagan maktab o'quvchisidan so'rang-chi, nima bilarkin? Imonim komil, hech narsa bilmaydi. Qulog'iga ham chalingan emas. O'rta maktab darsliklarida nomi ham yo'q-da. Bolalarni qo'ying, kattalar-chi?!

Bir tomondan, g'azalxon xalq, mana ikki asrdirki, sevib kuylasa, ikkinchi tomondan, bugungi avlod uni tanimasa, buni qanday izohlaysiz?

Yassaviy-chi? O'n-o'n besh yildan buyon adabiyotshunoslikda g'alati bir vaziyat hukm surib keladi. Biz ayrim ijodkorlarni adabiyotdan chiqarishga harakat qilamiz, qo'shni respublikalarda esa, aksincha, kiritishga uriniladi. Yassaviy bizda mistik, qozoqlarda — klassik. «Qisasi Rabg'uziy»ga ham munosabat bizda deyarli shunday, qozoqlarda esa dunyoviy adabiyot namunasi deb talqin qilinadi. Uning poetikasi haqida dissertasiya yoqlangan. Shunday misollarni tatar adabiyotidan ham topish mumkin. Nima, bizda metodologiya ikki xilmi? Yo'q albatta. Yondashuv ikki xil. Va ikkalasida ham bir yoqlamalik bor. Bizningcha, iste'dod bilan yozilgan va g'oyaviy zararli bo'lmagan har qanday adabiy-badiiy asar o'quvchiga qaytarilishi lozim.

To'g'ri, Yassaviy, Mashrab, Huvaydo va yuqorida nomlari sanab o'tilgan va sanab o'tilmagan yana bir qator shoirlar ijodi murakkab. Ularni yakrang baholab bo'lmaydi. Bu turkum shoirlar adabiyotshunoslikda yillar davomida yasab kelingan qoliplarga tushavermaydilar. Biz dunyoni asosan oq-qora rangda ko'rib kelganmiz. Boshqa ranglarni ko'rmaslikka, ulardan ko'zni olib qochishga harakat qilganmiz. Bu hol bir guruh shoirlarni

adabiyotdan surib chiqarishga olib keldi. Ma'lum va mashhur shoirlarimizdagi so'fiyona ohangni esa xaspo'shlashga sabab bo'ldi. Buning keyingi yillardagi eng yorqin misoli «Xamsa»ning qisqartirib berilishidir. Holbuki, o'sha qisqartirilgan «hamd», «na't» va «munojot»larda Navoiyning gumanistik konsepsiyasi o'zining betakror ifodasini topgan edi.

Madaniy merosga yangicha nuqtai nazar kerak. Gap uni bugungi sharoitimizga tatbiq etish, takomillashtirish ustida ketayotir. Oshkoralik adabiyotshunoslik uchun, adabiy merosni o'rganish uchun ham suv va havoday zarur bo'lib turibdi.

Bir vaqtlar adabiyotshunoslik ijodkorning ijtimoiy kelib chiqishiga alohida urg'u bergan edi. So'ng ijodi ziddiyatli qalamkashni aylanib o'tishga yo'l izladi. Klassiklarimizni bir-qadar tanib-tanitib olganimizdan keyin esa ularni silliqlashga tushdik. Bu hol muayyan psixologiyani ham maydonga keltirdi. Klassiklarimiz, ayniqsa, ularning mashhurlari ijodidagi ayrim ziddiyatlar haqida gapirish shakkoklikday qabul qilindi. Chinakam iste'dod hamisha murakkab bo'lishini, har qanday ijodda ham ayrim muvaffaqiyatsizliklar ehtimolini, jahon adabiyotida buning misollari to'lib-toshib yotganini nazardan soqit qildik. Masalan, Hamzaning ijod yo'li, dunyoqarashi adabiyotshunoslik ishlarimizda bir qadar jo'nlashtirib berildi.

Uning «Mukammal asarlar to'plami» sifatida tayyorlangan 4 jildlik akademik nashrini oling. Ikkinchi jildga kiritilgan, «qo'lyozma saqlanmagan», toshbosmasi asos qilib olingan «Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi»dan «birinchi bo'lim»dagi «olti dona» she'r beshtaga keltirildi. Noshirlar hech bir izohsiz «Yig'la, yig'la Turkiston, yig'la Turkiston!» she'rini tushirib qoldirdilar. «Darmon istariz» musaddas edi, muxammasga «aylantirildi» — band oxirida takrorlanib keluvchi ikki satrning biri («Ey musulmonlar, kelinglar, hukmi qur'on istariz!») va yana ikki bandi «qisqartirildi». Berilgan besh she'rning uchtasida jami 34 satr tashlab ketildi. Bu, tomliklardan joy olagan bitta kichkina — atigi olti she'rlik to'plamcha misolida ko'ringan kamchilik. Va gap hozircha faqat «qisqartish», shu orqali «qaltis» joyini «silliqlash» ustida.

Xo'sh, shunday holda uni «Mukammal asarlar to'plami» deb bo'larmikin?!

Mana, shoir asarlarining 5 tomligi chiqdi. Bu — ikkinchi akademik nashr. Mutasaddilaridan biri matbuotda u haqda «nodir nashr» deb kafolat berdi: «Bu nashrning nodirligi shundaki, — o'qiymiz unda — Hamza nima yozgan bo'lsa, mukammalmi yo chalami, g'oyaviy-siyosiy xatomi yoki shaxsiy, oilaviy hayotiga doir hujjatlarmi, biror so'zi yoki harfi o'zgartirilmasdan, grammatik shakli buzilmasdan aynan berildi.»

Afsuski, bunday emas. To'g'ri, u 4 tomlik «mukammal» nashr andozalari bilan baholansa, unga nisbatan mukammal, lekin joriy akademik nashr talablariga javob berolmaydi. Keling, kuzatishni yuqorida tilga olingan «majmua»ning o'sha «birinchi bo'limi»dagi 6 she'r misolida davom ettiraylik. Avvalo, aytish kerak, 5 tomlikka har olti she'r kiritilgan. Bu — yaxshi. Lekin qanday kiritilgan? «Yig'la, Turkiston!..»ni ko'ramiz: «Shunday kechsa holimiz, nelar bo'lg'uvsi:!» deb boshlanadigan band tushib qolgan. «Mozorinda tek yotur ixvat o'rgatgan» deya yozadi Hamza. «Firorinda (?) tik(!) yotur...» o'qiydilar noshirlar. «Shar'» (shariat) yozadi Hamza. «Sharm»(uyat) o'qiydilar noshirlar. «Darmon istariz»da «biz» — «bir»ga, «aroda ro'zimiz» — «iroda so'zimiz»ga, «billoh olim» — «boshqa olim»ga, «hukmi qur'on» — «xatmi qur'on»ga aylangan. «Oqibatsiz Turkiston»da «suhulat» (yengil) «sahvalat» o'qiladi. «Yahudiylar» uch joyda «nobakorlar» deb «tuzatiladi». 4 tomlikda u «eng muttaham» deb «tahrir»qilingan edi. Shunchadan keyin ham uni so'zi, harfi, hatto grammatik shakli o'zgartirilmay «aynan berildi» deb bo'ladimi?! Bu eskicha yondashuv emasmi?! Axir bularning hammasini izohlash mumkin edi-ku!

BUGUN biz jadidchilik hodisasini halol, obyektiv tekshirish va baholash imkoniga egamiz.

Xalqimizning milliy-ijtimoiy uyg'onishida bu hodisaning naqadar katta ahamiyatga ega bo'lganini, o'ylaymanki, gapirib o'tirishga hojat yo'q. Maktab-maorifning yangilanishi, yangi adabiyotning vujudga kelishi, o'zbek milliy teatri, matbuotining tug'ilishi — hamma-hammasi bevosita mana shu jadidchilik harakatining samaralaridir. U birgina maorifchilik, shunchaki madaniy-oqartuv harakati emas, siyosiy harakat ham edi. To'g'ri, tatar hamkasabalarimiz, xususan I.Z.Nurullin Tataristonda jadidizm 1905-yilgacha ma'rifatchilik bilan birga edi, keyin

ularda ajralish yuz berdi, deb hisoblaydi. Ozarbayjonda ham uni, ehtimol, shunday bir bosqichlarga bo'lish mumkindir. Lekin bizda ulardan farqli ravishda bu harakat Oktabr inqilobi arafalarigacha aralash kechdi. Negaki, o'sha davr Turkistoni Kavkaz va Volgabo'ylaridan qiyos qilib bo'lmaydigan darajada orqada edi.

Lekin zamon shunday shiddatli ediki, unga inqilob ham sig'di, aksilinqilob ham. Garchi jadid — yangi-yu, jadidchilik — yangiliklarni urfga aylantirish shaklida boshlangan bo'lsa-da, u shunchaki «yangi»va «yangilik»dan hayotni, turmushni yangilashgacha bo'lgan doiraga yoyildi. Shu ma'noda, u madaniygina emas, siyosiy hodisa ham edi. Binobarin, u yakrang emas. Shuning uchun u bir xil baholanishi mumkin emas. «Jadid» iborasi juda keng doirani qamrab olgan. Masalan, Hamza ham jadid, Avloniy ham jadid. Mashhur inqilobchilarimiz Fayzulla Xo'jayev, Nizomiddin Xo'jayev ham jadid. «Qo'qon muxtoriyati»ning asoschisi Mustafo Cho'qayev ham jadid. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarida ham bir xillik yo'q edi — idorai mashrutachilik (konstitutsion monarxiya)dan jumhuriyatchilik (respublika)gacha bor edi. F.Xo'jayev Buxoro jadidlarini Turkiston jadidlaridan farqlash lozimligini uqdiradi. Negaki, ular ikki sharoitda yashadilar. Ular bir xil narsani ko'tarib chiqqanlarida ham ikki sharoit uchun ikki xil ahamiyatga ega bo'lishi mumkin edi. Shuning uchun masalaga daxldor har bir faktga aniq yondashish kerak.

«Dinchiman» deb da'voda yurganlarning o'ndan sakkizi omonsiz faqat din o'g'rilarigina, «taraqqiychiman» deb og'uz ochub yurganlarning o'ndan to'qqizi taraqqiyparvar ismini pichratqon milliy xuliganlar bo'lib chiqadi», — deb yozgan edi 1917-yilda M.Shermuhamedov. Haqiqatan ham, asosiy mezon shior emas — ish, faoliyat. Shunga qaramasdan, jadidchilik xalqimizning uyg'onishi, ijtimoiy-madaniy ko'tarilishi uchun asosiy ma'naviy omillardan biri bo'lib xizmat qildi. Shu ma'noda u bizda — Turkistonda marksizmgacha bo'lgan asosiy revolyutsion ideologiya deb qaralmog'i kerak. Fanimizdagi «marksizm Turkistonda o'tgan asrning oxirlaridan yoyila boshladi» degan hozirgacha hukmron bo'lib kelayotgan nuqtai nazar bir-ikki tasodifiy faktga qurilgan bo'lib, haqiqiy ahvolni soxtalashtirishdan

boshqa narsa emas. Marksistik g'oya, bizningcha, mahalliy xalqqa, uning ham avangard qismiga Oktabr arafalaridagina yetib bordi.

Jadidizmni yaxlit, tashkiliy nizom – dasturiga ega bo'lmagan deyishadi. Bunday bo'lishi mumkin emas edi. Axir uning o'zi har xil edi-ku! Lekin, bu unda ma'lum uyushmalar yo'q degani emas. Hatto partiyalar bor edi («Yosh buxorolilar», «Yosh xivalilar»).

Avloniy o'z tarjimai holida qiziq bir faktni keltiradi:

«Shul zamonda (1894–1904-yillar ko'zda tutiladi — B.Q.) yerli xalqlar orasida eskilik-yangilik (jadid-qadim) janjali boshlandi. Gazit o'qig'uvchilarni mullalar «jadidchi» nom bilan atar edilar. Men ham shul jadidchilar qatoriga kirdim. 1904-yilda jadidlar to'dasida ishlay boshladim. 1904-yildan «jadid maktabi» ochib, o'qituvchilik qila boshladim. Mullolar jadidchilarni munofiq, mufsid, zindiq, dahriy so'zlari bilan xalq orasinda propag'anda va ag'itatsiya qila boshladilar. Va bularning qilg'on bul harakatlari bizning-da qonimizni qaynatub, boylarning yoniga mullolarni ham qo'shub, mullolarga qarshi jadidchilarning ham dushmanliklari orta bordi. Mullo va boylarga qarshi hamda eski turmush bilan qat'iy suratda kurasha boshladuk. O'z oramizdan mullolarqa qarshi uyushmamiz ham vujudga chiqdi. 1905-yilg'acha shul holda sinfiy kurashda davom qilduk. Boy va ulamolar «jadidchi»larga qarshi, «jadidchi»lar boy va ulamo ham eskilik va xurofotga qarshi kurashib keldi. 1904-yilda rus-yapo'n urushi chiqib bu urush butun Rusiya ishchilarini ko'zin och-g'ondek, bizning ham ko'zimiz ochildi. 1905-yildagi Rusiyada boshlangan inqilob to'lquni bizg'a ham zo'r ta'sir qildi. Bizning tashkilotimiz siyosiy maslaklarg'a tushunib, birinchi navbatda qora xalqni oqartirmoq va ko'zin ochmoq chorasiga kirishdi. Bu maqsadga erishmoq uchun gazit chiqarmoqni munosib ko'rib, uyushmaning harakati bilan o'zbek tilida gazetalar chiqorildi. 1906-yilda «Taraqqiy», «Xurshid» gazetalari chiqub, eski hukumat tomonidan to'xtatilg'ondan so'ng 1907-yilda men o'z muharrirligim bilan hamda temir yo'l ishchilarining sotsial-demokrat firqasining aloqa va yordami bilan «Shuhrat» isimindagi gazitni Safyorniy ko'chada chiqardim».

Aksariyat jadidlarning faoliyatlari fidoyilik namunalari bo'lgan edi. Ularning orasida «kofir»lik tamg'asini olmagani juda kam. 1905—1917-yillarda (80-yillarda emas, sotsializmda emas) ularning himmat va qayratlari bilan o'nlab xayriya jamiyatlari ochildi. Eldan pul yig'ib, shular hisobiga kambag'al bolalari uchun maktablar, yetimxonalar tashkil qilindi. Qolaversa, ularning asosiy qismi mana shu jamiyatning, yangi madaniyatning bunyodkorlari edilar.

Jadidizmga ko'pincha ikkita ayb qo'yib keldik:

1. Millatchilik (panturkizm, panislomizm).
2. Oktabr revolyutsiyasini e'tirof etmaslik.

Umuman olganda, millatchilik, Oktabrni tushunib yetmaslik, uni hatto rad etish o'sha davr bir qator ijodkorlarimizda yo'q emas. Aslini olganda, buning ajablanadigan joyi yo'q. Uning o'z sabablari bor. Jumladan, millatchilikka chor kolonial siyosatiga, velikorus shovinizmiga aks-sado sifatida qaralishi kerak.

Bir fakt. Ismoilbek Gasprinskiy 1881-yilda «Rusiya musulmonlari» degan kitob chiqardi. Unda madrasalarni isloh qilish, dunyoviy fanlarni o'qitish, rus tilini o'rgatish masalasini ko'taradi. Toshkentda Turkiston o'qituvchilar seminariyasida shu munosabat bilan 1882-yili bo'lgan yig'ilishda o'qituvchi M.A.Muropiyev «g'ayrirus — musulmonlar maorifining asoslarini qanday bosh prinsiplar tashkil etmog'i lozim» degan mavzuda doklad qiladi va shunday fikrni ilgari suradi:

«... agar tavsiya qilingan loyiha qabul qilinsa, shu paytgacha mudrab yotgan musulmon mutaassibligini tiriltirgan va u orqali qo'ynimizda ilonni asragan bo'lamiz...;

shunday qilib, musulmonlarimiz maorifi uchun asos qilib olinishi shart bo'lgan birinchi bosh prinsip ularni ruslashtirishdir...;

... ikkinchi prinsip...islomni buzish... umuman diniy jihatlarini buzishdir...» («Turkestanskiy sbornik», 361 t. 145-bet).

1916-yilda esa Farg'ona gubernatori Ivanov askarlarga qarata «Bir ming sart bir o'ris soldatining etigining poshnasig'a arzimaydir» (qarang, «Yer yuzi» j., 1925-y. 11-son, 10-bet), degan ekan.

Endi ezilgan millatdagi millatchilikni ko'raylik.

Abdulla Javdodbekning Ismoilbek Gasprinskiy bilan yozishmalaridan:

«Biz har shaydan avval turkmiz, so'ngra musulmonmiz, so'ngra odam bolasimiz... butun millatlarning afrodi manim qardoshlarimdir, manim a'zolarim kabidur. Musulmonlar tomog'imdur, ruslar quloqlarimdur. Man tabibman. Har ovurni dorulamoq manim burchimdur. Faqat manim otam, bobom, bolalarim xasta bo'lsa, har kimdan ilk onlar bilan mashg'ul bo'lurg'a bir quvvai g'oyiba mani majbur etadir» («Vaqt» g. 1914-y. 1586-son).

Buni millatchilik ham deb bo'lmas. Bu millatparastlik, to'g'rirog'i millatparvarlik. Yana bir misol. 1912-yili Rusiya musulmonlariga panislomizm aybi qo'yiladi. Duma deputati Sadri Maqsudiyning Duma minbaridan bergan javobida shunday gapga duch kelamiz:

«...Takror aytaman, afandilar, bizda davlatga qarshi hech bir fikr, hech bir harakat yo'q. Faqat bizda bir tilak borki, ul-da ulug' Rusiya imperiyasining komil huquqli hur grajdani bo'luvni tilovdan iborat...

Men o'ylaymanki, bizning milliy turmushimiz ila Rus davlati orasinda bir-birisina xilof kelurlik ish yo'q. Biz har vaqt Rusiya davlatining olg'a boruvini, zo'rayuvini tilovchi Rusiya grajdani o'laroq, mamlakatning, umumiy ishlarida birga yurajakmiz. Lekin o'zimizning oila va millatimiz ichinda, aslofamizning bizga vasiyat etub qoldirg'on muqaddas narsalarini saqlag'on holda dunyoda yasharg'a, asrlardan berli uyushg'on milliy ruhimiz tilagan ravishda dunyoda yasharg'a bizga erk bering» («Vaqt» g.1913-y. 955-son).

Turkkomissiya»(1919), «Turkbyuro»(1920) tasodifan yuzaga kelmagan. «Eski bolsheviklar» degan ibora bekorga tug'ilgan emas. Sovet Turkistonining o'sha davrdagi ayrim rahbarlari (ular hammasi yevropaliklar edi) mahalliy mehnatkashlarning vakillarini Sovet hokimiyati organlariga tortishga qarshi chiqqanlari mutaxassislarga ma'lum.

Buning asoratlari ko'pgina sohalarda anchagacha saqlanib qoldi. A.Ikromovning O'zKP(b) MKning 1927-yil martdagi Plenumida aytgan so'zlarini eslaylik: «Ikki mingdan ziyodroq talabasi bo'lgan O'rta Osiyo universitetida o'zbek atigi 80 tani,

boshqa kichik millatlar esa 64 tani tashkil etarkan. Bu O'rta Osiyo universiteti emish! Moskvadagi oliy o'quv yurtlarida o'quvchi o'zbeklar Toshkentdagidan ko'proqdir» (1-2 tom, 1972, 260-bet).

20-yillarda Fitrat va Cho'lpon ijodida hazinroq ohanglar uchrasa, ajablanmaslik kerak. Uning mana shunday sabablari bor.

Yana bir masala.

Jadidizm ijtimoiy tengsizlikdan ko'z yumdimi, uni chetlab o'tdimi? Unga ko'pincha shunday ayb qo'yilib keladi.

Ma'lum va mashhur bir faktni keltiramiz: Fotih Amirxon jadidchilik harakatining otasi hisoblanmish Gasprinskiy vafoti munosabati bilan «Ulug' millatchi to'g'risida kichkina bir xotira» maqolasida unga «sotsialis»lik haqida savol berganini yozadi va Ismoilbekning javobini keltiradi. U shunday javob bergan ekan:

«O'g'lim, siz yoshsiz, tajribangiz kam. Shu uchun keragidan ortiq katta iboralar iste'mol etasiz. Sizning kabi qizg'in ruhli yoshlarimiz millatga xizmat etib, aning madaniy darajasin o'stirsalar, ul vaqtda biz sinfiy ixtiloflar to'g'risinda so'ylashurmiz, fikr yuritishurmiz. Madaniyati yo'q bir millatning sanoati ham bo'lmas. Modomiki, ul yo'q ekan, hali sinfiy nizolarg'a erta. Bizning bugungi vazifamiz hozircha madaniy o'suvdan va shunga yo'llar hozirlovdangina iborat. Undan keyingisini bizdan keyingilar qilarlar...».

F.Amirxon xulosa qiladi:

«Millat va madaniyat bobosi og'zindagi bu so'zlar ham ishonchli, ham ulug' yangraylar edi» («Ong» j. 1914-y. 18-son, 332–333-betlar).

Jadidchilikning muhimligi ham, murakkabligi ham shunda. Uning butun ruhi, mazmuni badiiy adabiyotga ham o'tdi va u jadid adabiyoti degan nom oldi.

So'nggi 20 yilda g'alati bir yo'l tutdik. Shu paytgacha jadid deb kelingan adiblarni biz, garchi u o'zini jadid degan bo'lmasa-da, aslida unday emas, qilgan ishlari boshqacha, masalan, unday bo'lgan, bunday bo'lgan, hamisha xalq tarafida turgan, deb sun'iy ajratib ola boshladik. To'g'rirog'i, bu o'sha 30-yillardan, Hamzani oqlab olishdan boshlangan. Hozirda 15–20

tachasi ajratib olindi. Kim qoldi? – Behbudiy, Munavvar Qori. Mana, Behbudiy haqida ham yoza boshladik. Yaxshi. Lekin, shu to'g'ri yo'lmi? Bizningcha, to'g'ri emas. Harakatning o'zini oqlash kerak. U 30-yillar stalinizm siyosatining qoliplari bilan baholanib kelgan edi. Bu qoliplar uni burjua-millatchilik ideologiyasi sifatida ko'rsatishga qaratilgan qoliplar edi.

Biz undan marksizmni talab qildik. Afsuski, bu hol keyingi paytlargacha davom etib keldi. 4 tomlik «O'zbekiston SSR tarixi»ning 2-tomida shunday fikrga duch kelamiz:

«Jadidlar rus burjuaziyasi bilan teng huquqda bo'lishni, O'zbekistonda (?) kuchli va favqulodda oxranani bekor qilishni, o'lkaga rus dehqonlarini ko'chirib keltirishni to'xtatishni, aholidan o'lpon olishni cheklab qo'yishni va hokazolarni talab qildilar.

Burjuaziya bu talablarni ilgari surar ekan, o'zini butun o'zbek aholisinining umummilliy manfaatlari uchun kurashayotgandek qilib ko'rsatmoqchi bo'ldi. Tabiiyki, bu e'tirozni o'qiganingizda, xo'sh, bu talablarning qaysi biri «o'zbek aholisining umummilliy manfaatlariga» zid ekan degan haqli e'tiroz tug'iladi.

Yo bo'lmasa, Behbudiyga qo'yiladigan aybni oling. Uning siyosiy qarashlari haqida gap ketganda 1906-yildagi kadetlarni qo'llab, sotsial-demokratlarni rad etgan fikrini keltirishni xush ko'radilar. Buni Behbudiy qimmatini hal etuvchi dalil deb bo'ladimi, axir. Avvalo, sotsial-demokratlar programmasiga qo'shilmaslik unga qarshi kurash olib borish emas, aksincha, uning butun faoliyati diniy-shar'iy jihatini hisobga olmasa, umumdemokratik xarakterdagi jumhuriyat yo'lida kechdi. Qolaversa, butun umri, tushuncha-e'tiqodi islom bilan shakllanib tarbiya topgan bir kishidan marksizmni talab qilishning o'zi to'g'ri emas.

Shular ko'zda tutilsa, bu boradagi so'nggi siljishlar, tabiiyki, hammani quvontiradi. Men bilganim, keyingi ikki yilda, bu masalaga bag'ishlangan 3 yig'ilish bo'ldi. Shundan ikkitasi respublika doirasida, bittasi – regional – O'zbekiston, Tojikiston, Ozarbayjon, Tatariston olimlari ishtirokida. **Afsuski, bular matbuotda yoritilmadi.** Chamasi, rahbariyat fikr almashuv bir xulosaga kelgandan so'nggina beradiganga o'xshaydi. Agar shun-

day bo'lsa, bu to'g'ri emas. Avvalo, bahsning bag'ri torayadi. Ikkinchidan, nega uni jamoatchilikdan bekitish kerak?

Regional yig'ilish shuni ko'rsatdiki, mazkur masala bilan eng kam shug'ullanayotgan, bu haqda aniq bir nuqtai nazariga, plan-dasturiga ega bo'lmagan respublika biz bo'lib chiqdik. Bu masala tatarlar va ozarbayjonlarda ma'lum ma'noda hal qilingan. Ularda hozir jadid tushunchasi yo'q, ma'rifatchilar bor, burjua ideologlari bor. Tojik hamkasabalarimiz jadidizmni o'rganish bo'yicha yaxlit, puxta konsepsiya bilan keldilar. Lekin biz uni ma'rifatchilikdan nariga siljitolmay turibmiz.

Buni o'rganish kerak. Alohida-alohida emas, yaxlit, birgina respublika doirasida emas, Kavkaz, Tatariston va Boshqirdiston hamda tabiiyki, butun O'rta Osiyo bilan uzviy bog'liqlikda, birlikda o'rganish kerak.

Uni o'rganish, ayniqsa, shu kunlarda har qachongidan ham dolzarb bo'lib turibdi. Negaki, qayta qurish tufayli demokratiya, millatlar teng-huquqliligi, respublikalar mustaqilligini ko'zda tutuvchi federatsiya kabi shu paytga qadar balandparvoz so'zlarga chirmab, real hayotdan uzib qo'yilgan tushunchalar bugun ma'no kasb etmoqda. Tarixni qayta ko'rmoqdamiz, qayta baholamoqdamiz. Ilgari gapirish u yoqda tursin, eshitishga ham yurak betlamaydigan savollarga javob tariqasida, yaqin yillargacha «qo'shildi» degan nuqtai nazar ustuvor edi. Hatto 60-yillarda uning 100 yillik tantanalariga tayyorgarlik boshlangan ekan. Chamasi, chetda gap-so'z ko'payib ketgach, to'y qoldirilib, «qo'shildi» — «qo'shib olindi»ga o'zgartirildi. Mana, nihoyat u o'z oti bilan aytiladigan bo'ldi. O'ylaymizki, endi bu voqealarni shu nuqtai nazardan yoritgan adabiyot materiallari, jumladan, Bayoniy, Shavqiy, Umidiy — havoiy kabi shoirlarimizning tarix va dostonlari ham dunyo yuzini ko'radi.

Bu savollarning ko'pchiligi xalqimizning milliy, ijtimoiy uyg'onishda juda katta rol o'ynagan jadidchilik harakatining asosiy muammolaridan bo'lgan edi.

Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919)

Hayot yo'li. Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining boniysidir. Uning hayoti va ijodiy faoliyati haqida

20-yillarda mahalliy matbuotda Sadriddin Ayniy, Hoji Muin ibn Shukrullo, Laziz Azizzoda kabi zamondoshlari tomonidan bir qator maqola, xotiralar e'lon qilingan. Keyingi yillarda, xususan, mustaqillikka erishilgandan so'ng jadidlar faoliyatini o'rganishga qiziqish kuchayishi bilan Behbudiy ham qayta kashf etila boshlandi. Behbudiy tarjimai holini yoritishda Hoji Muinning 1922–23-yillarda o'zi muharrirlik qilgan «Mehnatkashlar tovushi» (1922), «Zarafshon» (1923) gazetalarida chop etgan maqolalari muhim ahamiyatga ega. Behbudiy haqida 70-yillardan bugungi kungacha e'lon qilinib kelayotgan Solih Qosimov, Ahmad Aliyev, Naim Karimov, Sirojiddin Ahmedov, Sherali Turdiyev va bugungi yosh tadqiqotchilar halim Sayyid, Normurod Avazov, Zebo Ahrorova ishlarining barchasida mana shu Hoji Muin ma'lumotlari asos qilib olinadi[274].

Uning keltirishicha[275], Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida (hijriy 1291 10-zulhijja)[276] Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida ruhoniy oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomondan bobosi Niyozxo'ja urganchlik bo'lib, amir Shohmurod zamonida (1780–1785) Samarqandga kelib qolgan.

1894-yilda otasi, imom-xatiblik bilan shug'ullanib kelgan Behbudxo'ja vafot etadi. Yosh Mahmudxo'ja tog'asi qozi Muhammad Siddiqning tarbiya va qaramog'ida o'sib voyaga yetadi. Arab sarfu nahvini kichik tog'asi Odildan o'rganadi. 18 yoshidan qozixonada mirzalik qila boshlaydi. Darvoqe, Behbudiyning maktab-madrasa hayoti haqida ham ma'lumotlar nihoyatda kam. U dastlab Samarqand madrasasida, so'ngroq Buxoroda

---

[274] Aslida ham Hoji Muin (1883–1942) Behbudiyni yaqindan bilgan, uning e'tiboriga sazovor bo'lgan hamkasabasi, shogirdi edi. 1914-yilda Behbudiy haj safariga ketar ekan, «Oyna» jurnalining muvaqqat muharriri qilib Hoji Muinni qoldirganligi ma'lum.

[275] Hoji Muin, Mahmudxo'ja Behbudiy. «Zarafshon» gazetasi, 1923-yil. 25-mart.

[276] Ayrim tadqiqotlarda bu sana 1874-yil mart («Sovet O'zbekistoni san'ati» j., 1989-y., 2-son) deb bizningcha, yanglish ko'rsatiladi. 1291-yilning boshlanishi (1-muharram) 1874-yilning 18-fevral chorshanba kuniga to'g'ri keladi (Tablisa soglasovaniya... X.K.Baranov. Arabsko-russkiy slovar. – M.: 1977, 940–942-betlar). Zulhijja so'nggi oydir. Uning 10-si 335-kun bo'lib, jamlanganda 1875-y. 19-yanvar kelib chiqadi.

yaxshigina tahsil ko'rgan. An'anaviy madrasa ilmini puxta egallagan Behbudiy 1915-yilda etnograf G.Andreev savollariga javob berar ekan, madrasa tahsilini alohida tilga olgani ma'lum[278]. Xullas, ana'anaviy tahsil, so'ng esa o'z ustida qunt va sabot bilan ishlash orqali u shariatning yuksak maqomlari — qozi, mufti darajasigacha ko'tariladi.

1899—1900-yillarda Behbudiy buxorolik do'sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi[279].

«1318 sanai hijriyasi tavofi Baytullog'a Kavkaz yo'li ila Istambul va Misr al-Qohira vositasi-la borib edim. Muddati safarim sakkiz oydan ziyoda cho'zilub edi»[280], — yozadi Behbudiy bu haqda. Dunyo ko'rishi izsiz ketmaydi. Safar yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. Uning tashabbusi va g'ayrati bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S.Siddiqiy), Rajabamin (A.Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil topadi. Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning «Risolai asbobi savod» (1904), «Risolai jug'rofiyai umroniy» (1905), «Risolai jug'rofiyai Rusiy» (1905), «Kitobat-ul atfol» (1908), «Amaliyoti islom» (1908), «Tarixi islom» (1909) kabi kitoblari paydo bo'ladi. Mahmudxo'ja 1903—1904-yillarda Moskva, Peterburgga boradi, 1906-yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo'ladi. Bular sayohat emas, xizmat safari edi. Masalan, Nijniy Novgorodda 1906-yilning 23-avgustida Rusiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag'ishlangan qurultoy chaqiriladi. Behbudiy bu qurultoyda Turkistonlilar guruhini boshqaradi va katta nutq so'zlaydi[281].

25 kunga cho'zilgan bu safar haqida Behbudiy so'ngroq shunday ma'lumot bergan edi: «1325 sanai hijriyasinda Rusiya musulmonlarining muhtaram ziyoli va akobirlarining Nijni Yorminkasinda milliy ishlar to'g'risinda mashvarat qila turgan

---

[278] Адреев Г. Самаркандский журнал «Ойна» и его редактор-издатель Махмуд Ходжи Бегбуди г. «Туркестанские ведомости», 1915, 17-сентябр.

[279] Hoji Muin. Mahmudxo'ja Behbudiyu «Zarafshon» gazetasi, 1923-yil 25-mart.

[280] Mahmudxo'ja Behbudiy. Qasdi safar, «Oyna» j., 1914 y. 31-son.

[281] А.А.Пясковский. Революция 1905—1907 годов в Туркестане. — М.: 1958, 559 с.

majlisg'a musharraf bo'lmoq uchun O'runburg yo'li ila Maskuf, Peterburg, Qozon vositasi-la Nijni Novgo'rud borib edim»[282].

Teatr kerak Ma'rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo'lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o'z qabohatini ham, malohatini ham ko'ra olsin.

Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni teatr va matbuot sari boshladi. «Padarkush» shu tariqa maydonga keldi. Biroq uning dunyo ko'rishi oson kechmadi. Bunga sabab: birinchidan, chor hukumati mustamlaka Turkistonining ma'rifat yo'liga kirib, o'z huquqini tanishidan manfaatdor emas edi; 1916-yildagi Turkiston general-gubernatori N.R.Kuropatkinning o'z kundaligida yozgan va bugun juda mashhur bo'lib ketgan «Biz tubjoy xalqni taraqqiyotdan, maktabdan, rus hayotidan 50 yil chetda tutdik», degan so'zlarini eslash kifoya. Ikkinchidan, turg'unlik va tutqunlik tufayli avj olgan jaholat, mutaassiblik. «Kimiki sahnada ko'rsang oni jasorati bu» deb yozgan edi shoir Tavallo. Bu bejiz emas. Xullas, 1911-yilda yozilgan «Padarkush» dramasi 1913-yildagina bosilib chiqadi. Kitob jildidagi «Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo'lishining yubiley sanasiga bag'ishlanadi» degan yozuv va uning Tiflis senzurasining ruxsati bilan chop etilishi shuni ko'rsatadiki, ish oson ko'chmagan. Pesa bosilib chiqqandan keyin ham uni sahnaga qo'yish uchun yaqin bir yil vaqt ketdi. Muallif bu haqdagi xatlarga javoban kinoyaomuz: «Turkistonda bekor odam yo'qki, xalq uchun ishlasa. Bekor kishi yo'qki, teatru sahnasiga chiqib, «masxarabozlik» qilsa»[283], deb yozgan edi.

«Padarkush» — o'zbek dramachiligining hamma yakdil e'tirof etgan birinchi namunasidir. Mutaxassislar uni ham janr, ham mazmuniga ko'ra yangi o'zbek adabiyotini boshlab bergan bir asar sifatida baholaydilar. Muallif «Milliy fojia» atagan, 3 parda 4 manzarali bu drama hajman juda ixcham, mazmunan nihoyatda sodda va jo'n. U jaholat va nodonlik, o'qimagan bolaning buzuq yo'llarga kirib, o'z otasini o'ldirgani haqida hikoya qiladi. Orqa-oldini o'ylamagan boyning Toshmurod

[282] «Oyna» j., 1914-yil 31-son, 598-b.
[283] «Oyna» j., 1913-yil 5-son

ismli o'g'li bor. O'g'li o'qimagan. Boy atrofdagilarning gapiga kirmaydi, o'g'lini o'qitmaydi, oqibatda u ko'cha bezorilariga qo'shiladi. Restoranda maishatga puli yetmay, sheriklarini tunda uyiga boshlab keladi. Boy uyg'onib, ularni sezib qoladi. Boyni o'ldirib, pulini olib ketadilar.

Xulosa: jaholat va nodonlik otaning ham, bolaning ham boshiga yetadi. Agar butun millat shu ahvolga tushsa-chi?!.. «Padarkush» dastlab Samarqandda 1914-yilning 15-yanvarida sahnaga qo'yildi. «Xalq nihoyat ko'p kelib, belat yetmagani va joyni yo'qligi uchun uch-to'rt yuz kishi qaytib ketdi»[283] deb yozadi mahalliy matbuot.

Yana o'sha yerda o'qiymiz: «belatlar bir-ikki kun avval yoshlarni g'ayrati ilan sotilib tamom bo'lub edi. Ba'zi kishilar belatlarini ikki bahog'a foidasi ilan boshqag'a sotdilar. Soat yettidan minglab xalq ibratxonag'a hujum qilgan. Ammo belat yo'q. Uch so'm[284] berib, tikka turmoqg'a ham rozi, yana yer yo'q...»

Spektakl o'z maishatiga o'ralib dunyoni unutgan millatdoshlarga chaqmoqdek ta'sir etdi. Unda boy rolini Abdusalom Abdurahim o'g'li o'ynagan edi, «Boyni hamboza (xurrak) va uyqusi hamda harakatidan aholi ixtiyorsiz va fosilasiz kulardi», yozadi taqrizchi. «Domla (Mardonqul Shomahmud o'g'li) va ziyoli (Mirza No''mon Mulla Fozil mufti o'g'li)ni nasihati xaloyiqni ko'nglig'a ta'sir etardi, hatto va'zu pandga yig'laganlar bor edi», — o'qiymiz taqrizda. Ayniqsa, boyning o'z o'g'li yordamida o'ldirilib, mol-dunyosining fahshu ishrat uchun olib ketilishi voqealari kishilarni larzaga solgan. «Bu fajia va alamlik manzarani parda yopar. Xalqqa haddan ziyoda ta'sir. Ba'zi kishilar fojiadan ko'z yumarlar...».

Chamasi, asarning ijrosi ham baland saviyada bo'lgan. Taqrizdagi «Rus, yahudiy va musulmonlar tahsin etardi. Hatto 20 yildan beri teatr ma'muriyatindagi odamlar ta'rif qilurdi... Aholidagi olqish ibratxonani gumbirlatur...» degan jumlalar shunga ishora qiladi.

Toshkentda 1914-yilning 27-fevralida qo'yildi. Avloniyning «Turon» truppasi Kolizey (hozirgi Savdo birjasi binosi)da o'z

---

[283] «Oyna» j., 1914-yil 14-son.

[284] Muqoyasa uchun: 1914-yilda 2 so'mga o'rtacha bir qo'y kelgan.

faoliyatini mana shu «Padarkush» bilan boshlagan edi. Spektakl oldidan mashhur Munavvarqori teatrning jamiyat hayotidagi roli va o'rni haqida nutq so'zlaydi. Boy rolini Abdulla Avloniyning o'zi ijro etadi. Mahalliy matbuot bu kunni «tarixiy kun» deb yozadi.

«Turon» truppasi 1914—1916-yillarda bu spektakl bilan butun Farg'ona vodiysini aylanib chiqdi. «Padarkush» Turkistonni junbushga keltirgan qirg'inbarot inqilob yillarida ham sahnadan tushmadi. Bir tomondan, millatni ma'rifat va taraqqiyot sari undashda buyuk rol o'ynagan bo'lsa, ikkinchi yoqdan, professional o'zbek teatri va dramachiligining maydonga kelishi hamda taraqqiyotida muhim xizmat qildi.

Bu asarning o'z davrida adabiy harakatchilikka yetkazgan ta'siri haqida qaydlar ko'p. Buning shohidi sifatida Abdulla Qodiriyning mashhur «1913-yillarda chiqqan «Padarkush» pesasi ta'sirida «Baxtsiz kuyov» degan teatr kitobini yozib yuborg'onimni o'zim ham payqamay qoldim», degan e'tirofini eslash kifoya. 1916-yilda Toshkentga kelib Kolizeyda «Turon»ning qator spektakllarini ko'rgan A.N.Samoylovich yozadi: «Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Bu men uchun kutilgan hol edi... Yangi adabiyotning markazi-Samarqand... Yosh qalamkashlarning bosh ilhomchisi samarqandlik mufti Mahmudxo'ja Behbudiydir»[285].

Dramaning birgina o'zbek emas, tatar, ozarbayjon teatrchiligiga ham ta'siri haqida gapirish mumkin. Turkistonda shu yillari Zaki Boyazidskiy, Aliasqar Asqarov, Sidqiy Ruhillo, Ilyosbek Oshqozorskiy kabi ko'plab qardosh rejissiyorlar faoliyat ko'rsatganini xotirga olaylik.

Behbudiy va matbuot. 1913-yidan Behbudiy matbuot ishlari bilan shug'ullanadi. Apreldan «Samarqand» gazetasini chiqaradi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki, so'ng to'rt sahifada chop etilgan. 45 ta sonidan keyin moddiy tanqislik tufayli chiqishi to'xtagan. O'sha yilning 20-avgustidan u «Oyna» jurnalini chiqara boshlaydi. Bu suratli haftalik majalla asosan o'zbek tilida bo'lib, unda ixcham forsiy she'rlar, maqolalar, ruscha e'lonlar ham berib borilardi... «Boshda haftada bir

[285] Самойлович А. Драматическая литература сартов. Вестник. «Имп. обва вост», №5, Петроград, 1917, 4 с.

marta va ikkinchi yildan e'tiboran 15 kunda bir qatla chiqib, yigirma oy chamasi davom qildi... Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqalar edi... Jadidlarning sevikli jurnallari edi. Shuning uchun ular tomonidan hurmatlandi, sevilib o'qildi»[286], deb yozgan edi Ziyo Said. Jurnal redaksiyasi muharrirning yangi shahardagi uyida (Reshetnikov, Z; hozir Mirsaid Baraka, I) joylashgan.

Behbudiy shu yillari nashr ishlari bilan qizg'in shug'ullandi. «Nashriyoti Behbudiya» nomi bilan o'z xususiy nashriyotini ochdi. Fitratning «Bayonoti sayyohi hindi» asarini 1913-yilda ruschaga tarjima qildirib, nashr etdi[287]. Turkiston xaritasini tuzib bosmadan chiqardi. Kutubxonani yo'lga qo'ydi. O'sha davr vaqtli matbuotida «Behbudiy kutubxonasi»haqidagi xabarlarga tez-tez duch kelasiz.

1914-yilning 29-mayida Behbudiy ikkinchi bor arab mamlakatlariga sayohatga otlanadi.

Muallif sayohati arafasidagi kayfiyatni shunday ifodalaydi. «7 sanadan beri ikki daf'a Buxoro va bir daf'a Farg'onani ziyoratidan boshqa safarga chiqqanim yo'q edi. Azbaski, tiriklik kasalig'a mubtalolik, ro'zg'or qaydig'a giriftorlik sayohat ne'matidan mahrum etar. Yetti yillik xonanishinlik, digar tarafdan aloyiqi ro'zg'or, tijorat va 7—8 risolalar tahrir va nashri, dorulqazo ishlari, xususan, bir sanadan beri sobiq «Samarqand» jaridasi va hozirgi «Oyna» idorasining ishlari ruhan va jisman zaif etdi. A'zou havoslarg'a kasolat paydo bo'ldi. Singir (asab)... Qayri muntazam ishlaydur. Atibbo istirohat va sayohatg'a mashvarat berarlar. Tabiat u qadar noqobil va buzuqki, sayohatdan ham nafrat etar, istamaz».

Shunga qaramasdan, safarga chiqmasa, bo'lmaydi. Avvalo, «Kutubxonai Behbudiya» uchun Istanbul, Misr, Qrim, Kavkaz, Qozon, Rusiya va xorijiyaning manzaralari, imoratlari, kishilarning suratlari, turli-tuman qolip (klishe)lar va yana boshqa juda ko'p narsalar kerak. Xullas, bormasa bo'lmaydi. Marshrut: Kav-

---

[286] Ziyo Said. Tanlangan asarlar. — T.: 1974, 44—45-b.

[287] Пясковский А.А. Революция 1905—1907-г.г. в Туркестане. — М.: 1958, 546 с. Darvoqe, bundan ikki yil oldin Fitratning «Munozara» asari ham rus tiliga tarjima qilingan ekan. Biroq u chor ma'muriyatining maxsus xizmati uchun mo'ljallangan bo'lib, alohida kishilargina foydalanganlar. Tarjima polkovnik Yagelloo tomonidan amalga oshirilgan (Pyaskovskiy A.A... o'sha bet).

kaz, Qrim, Istanbul, Yunoniston, Bayrut, Misr Qohirasi va yana orqaga-Istanbulga qaytib, temir yo'l bilan Bulg'oriston, Avstriya va Berlin orqali Rusiyaga, undan Turkistonga kelish. Muddati ikki oy. Birinchi iyunga qolmay yo'lga tushish kerak. Behbudiy Peterburgda bo'ladigan Milliy majlis maslahatiga taklif qilingan edi. Savollarga javobini yozib yuboradi, uzrini aytadi. Xullas, 29-mayda yo'lga tushadi. Poezdga o'tirib Bayramali orqali Ashxobodga o'tadi. Krasnovodskdan paroxod bilan Bokuga boradi. 2-iyunda Mineralnie Vodi-Kislovodsk-Pyatigorsk, Jeleznovodsk -Rostov-Odessani kezib, 8-iyunda Istanbulga kirib keladi. Undan Adirnaga sayohat qiladi. Yana Istanbulga qaytib, 21-iyunda suv yo'li bilan Quddusga yo'l oladi. Bayrut, Yofa, Xalil ar-Rahmon, Port Said, Shom shaharlarini tomosha qiladi. Sayohat iyulning boshlarida ham davom etadi...

Sayohat xotiralari har jihatdan g'oyat muhim bo'lib, Behbudiy ularni o'z jurnali «Oyna»ning 1914-yil sonlarida mazkur nom ostida peshma-pesh berib boradi (hozircha 18-sonda uchratdik)[288].

«Sayohat xotiralari»ning birinchi qismi jurnalning 14-iyun 34-sonidan chop etilgan. Muallif unga «31-may, Bahri Hazar, Mahmudxo'ja» deb imzo chekadi. Raqamlash va sana hamda yozilgan joyini ko'rsatishga birinchi olti sonidagina rioya qilingan. Bu «Xotiralar» ham ma'rifiy, ham adabiy-estetik jihatdan nihoyat muhim. Ular adabiyotimizdagi an'anaviy tarixiy-memuar janrining XX asr boshidagi o'ziga xos namunasidir. Muallif bu memuarlarda yo'l taassurotlariga, mashhur yoxud oddiy kishilar bilan uchrashuvlarining ibratli tomonlariga keng o'rin beradi. Qaysi shaharga bormasin, uning tarixi, obidalari, u yerdan chiqqan buyuk zotlar haqida ma'lumotlar to'playdi, turli-tuman millatlar, ularning urf-udumlari, turmush madaniyati bilan qiziqadi. Qishloqlardagi dehqonchilikdan tortib, shaharlardagi eskalator («osonsur») gacha uning e'tiboridan chetda qolmaydi. Ayniqsa, din, e'tiqod masalalariga katta aha-

[288] Afsuski, jurnalning 1913-yil 20-avgustdan 1915-yil iyungacha chiqqan 1720 sahifalik 68 sonining to'la, mukammal komplektini topish ancha qiyin. Olmon olimasi prof. I.Baldauf ham Moskva, Leningrad, Xelsinki kutubxonalaridagi «Oyna» sahifalarining sukutli ekanligidan zorlangan edi («O'zbekiston adabiyoti va san'ati», 1993-y., 21-may, 21-son).

miyat beradi. Qadimiy muqaddas obidalar, Rasulullоh poyqadami tekkan qutlug' dargohlar, xususan, Quddusi sharifdagi mashhur Masjid-al-Aqso ziyoratidan nihoyasiz zavq-shavqqa to'ladi. Sajdaga bosh qo'yarkan, dilining tub-tubidan Alloh ishtiyoqi qalqib chiqadi. «Oh, na ruhoniy holatlar, na laziz vajdangiz ubudiyatlari, na ashkrez noz-niyozlar... Nuroniy, fusunkor, porloq moziykim, aning asari qudsiyat samari ming bu qadar sana so'ngra bizni mahviyat darajasinda kelturar», — deb yozadi u.

Muallif Allohga nido qiladi: «Iloho, u aziz va faol bandalaring hurmatig'a bizg'a basirat ber. Eshitar quloq, anglar aql ber... Ey Allohi azim-ush shon. Bu magar sening g'azabingmidur. Avf et, biz insonlarni. Hidoyat et. Yer yuzinda sulh va silohi umumiy ato ayla. Insonlarg'a insoniyat ber. Zolimlarni qahr et, mahv bo'lsun zulm. Yashasun adolat va haqqoniyat, omin...».

«O'AS»haftaligi Ingeborg Baldaufning mazkur xotiralarning olmoncha tarjimasi munosabati bilan yozilgan «Mahmudxo'ja Behbudiy Falastinda» (1993, №21) maqolasini e'lon qildi. Muallif unda Behbudiy kuzatishlarining o'ziga xosligi haqida yozgan, adib qalbini o'rtagan eng katta dard-erk va ma'rifat ekanligini aytgan.

Darhaqiqat «Xotiralar» dagi ma'rifiy ruh, iztirob to'la fikr-mulohazalar, muallifning tashna nigohi sizni befarq qoldirmaydi. Xususan, Vatan tuyg'usi ifodasi uni bugun siz bilan bizga haddan tashqari yaqin qilib qo'yadi. U Quddusi sharifdagi hazrati Dovud maqbarasini, Bibi Maryam va Hazrati Iso kalisolarini ziyorat qilar ekan, toshkentlik yosh bir attorga duch keladi. «Do'konig'a biroz o'lturdik,-yozadi Behbudiy,- mamlakatdan so'radi. Qo'lig'a bir necha nusxa «Oyna» va «Turkiston xaritasini» berdim. Ahli savod ekan. Toshkand shahrini ko'rsatdim. Beixtiyor xarita ustindagi Toshkandni o'pib, ko'zig'a surtdi («Hubbul vatani min al-iymon»). Xususan, vatan va ahli diyorni qadri musofiratga ma'lum bo'lur. Haqiqatan vatan muqaddasdur. Qadrini bilmoq kerak». «Oyna» jurnali ma'rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Unda millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan.

Ayniqsa, til masalalari muharrirning hamisha diqqat markazida bo'lgan. Behbudiy millatning taraqqiysi uchun bir necha til bilishni shart hisoblardi. Masalan, jurnalning 1913-yil avgust, birinchi- nishona sonidayoq, «Ikki emas, to'rt til lozim» degan maqola bilan chiqqan edi.

Fitratning jurnalda bosilgan maqolalaridan biri «himmat va saboti bo'lmagan millatning haqqi hayoti yo'qdur» deb nomlangan. «Tushundigim zamon ko'nglum yonar, yig'lamoq istarman, ko'zyoshlarim kelmaydur», deb boshlanar edi maqola. Adib taraqqiyot va turmushda Ovrupodan yer va osmon qadar uzilib qolgan Turkistonning fojeali ahvolidan so'z ochgan edi. (1915 y. 7-son). «S.A.» imzoli kishining «har millat o'z tili ila faxr etar»(1914-y. 35-son) maqolasida boshqa tillarni o'rganish qatorida har bir millat o'z tilining muhofazasi bilan shug'ullanishi shart, degan fikr juda ko'p dalillar bilan isbot qilib beriladi. «Agarda til va adabiyotimizni muhofaza qilmay, anga ajnabiy lug'at va so'zlarni qo'sha bersak, bir oz zamonda til va milliyatimizni yo'qoturmiz. Milliyatimizni yo'qotganda diyonatimiz o'z-o'zi ila albatta, yo'qolur», deb yozadi muallif va «Bas, bizg'a tilimizni ajnabiy so'zlardan muhofaza qilmoqlik eng birinchi muhim bir vazifadur», deb xulosa chiqaradi. Jurnalning 1915-yil 11—12- sonlarida bosilgan Behbudiyning «Til masalasi» maqolasida tillarning o'zaro munosabati haqidagi bahs davom etadi. Ulug' ma'rifatchi tillarning bir-biridan o'rinli lug'at olishini tabiiy jarayon deb qaraydi. Eng boy tillardan bo'lgan inglizchaning ham «o'n minglar ila begona lug'atlarni majburan olganligini» dalil qilib ko'rsatadi va masalaning boshqa jihatiga-yagona adabiy til, til birligiga diqqatni qaratadi.

Behbudiy adabiy-tanqidga katta e'tibor berdi. Navoiydan keyingi bir necha asrlik sukunatdan so'ng bu sohaning xos xususiyatlarini tayin etib, adabiyotda uning tenghuquqligi masalasini o'rtaga qo'ydi. «Tanqid saralamoqdur» (1914-y., 27-son) deb nomlangan edi uning ushbu mavzuga bag'ishlangan jiddiy maqolalaridan biri.

Turkiston zabt etilgach, ruslar mahalliy xalqqa «sartlar» deb nom berdilar. N.Ostroumovning bir kitobi xuddi shunday nomlanganligi hammaga ma'lum. Bu so'z, aslida turli vaqtda turli etnik qatlamga, goho sotşial qatlamga nisbatan aytilgan.

10-yillarda bu so'z atrofida yana bahs ketdi. Chunonchi, Buxoro amirining ruschaga tarjimoni Bahrombek 1911-yilda «Sho'ro» jurnaliga «Biz, Turkiston va Buxoro xalqining turkligi ma'lum bo'lib turub... na uchun sart ataydurlar?» degan savol bilan murojaat qiladi. Jurnalning 19-sonida Behbudiyning «Sart so'zi majhuldur» degan javobi bosiladi. 24-sonida esa samarqandlik Baqoxo'ja «Sart so'zi aslsizdur» degan maqola bilan chiqadi. Bu bilan bahs bosilganday bo'ladi. Biroq oradan 2—3 yil o'tib, «Sadoyi Farg'ona»ning 1914-yil 30-sonida Mulla Abdullabek degan kishining «Sart so'zi ma'lumdir» degan maqolasi bosiladi. Tabiiyki, Behbudiy undan qanoatlanmaydi, chunki unga mavzuga doir biror yangi gap aytilmagani holda, «ma'lum» deb da'vo qilingan edi. Shu sababli Behbudiy «Sart so'zi ma'lum bo'lmadi» degan maqola yozib, «Sadoyi Farg'ona»ga yuboradi. Biroq gazeta maqolani bosmaydi. Shundan so'ng muallif maqolani o'z jurnalida (1914-y. 39-son) berishga majbur bo'ladi. Jurnalda Behbudiyning «Sart so'zi majhuldur» maqolasi ham qayta bosilgan. Maqola hajman salmoqli, jurnalning bir necha sonida davom etgan. Adib ushbu kalimaning xalqona etimologiyasidan tortib, Alisher Navoiy, Bobur, Muhammad Solih, Abulg'ozi Bahodirxonning asarlarigacha, N.Ostroumov kitobidan D.G.Logofetning «Buxoro xonligi»yu L.M.Budagov lug'atlarigacha, I.I.Geyer «Sayohatnoma» laridan A.Vamberi «Kundaliklar»igacha, jadidchilik harakatining Ahmad Zaki Validiydan Ismoilbek Gasprinskiygacha bo'lgan namoyandalarining bu sohadagi kuzatishlarini to'plab, xulosalaydi.

Adibning barcha tarixiy-ilmiy mavzudagi maqolalari singari bu ham o'tmishga kamoli ehtirom va e'tiqod bilan yozilgan. «Qabilasini(ng) ismini va yetti otasining otini bilmaydurgonlarni «qul»-»marquq« derlar (1914-yil 23-son, 340-bet) deb yozadi u. Bu so'z Ch.Aytmatov tufayli «manqurt» shakli bilan yangi umrini boshladi. Behbudiy, millat o'zini anglagandagina ijtimoiy-siyosiy masalalarga boshqalar bilan teng aralasha oladi, degan fikrda bo'ldi. Shuning uchun ham tarixga alohida e'tibor berdi. «Hayot va mamot masalalari qadar muhim bo'lgan necha masalalar ko'zimiz oldig'a turgan holda alarni ehmol etub, faqat sart so'zi ila shug'ullanib, fursatlarni bo'shqa o'tkarmoqlik yaxshi emas», deb yozadi u. «Lekin, — davom etadi, — yovrupolilar

qoshida milliyat masalasi muhim va muqaddas tutilgan bir zamonda bizlar ham milliyat masalasidan sanalgan «sart» haqida goh-goh bahs etub, milliyatimizni xotirlab turganda, zarar ko'rmasmiz».

Umuman, Behbudiyning publitsist sifatidagi faoliyati adib iste'dodining juda yorqin bir qirrasini tashkil etadi. U o'z umri davomida yuzlab maqolalar yozdi. O'zining Millat va Vatan, jamiyat va axloq haqidagi fikrlarini ko'proq maqola va chiqishlarida ifoda etdi. Ba'zilar uning maqolalari adadini 200, boshqalar 500 deb belgilaydilar. Uning barcha yozganlari hisoblab chiqilmagan, hatto aniqlanmaganlari qancha. Mualliflar o'zlarining ismi-shariflarini o'z gazeta-jurnallarida ko'p-da qo'yavermaganlar. Har qanday holda ham Behbudiy g'oyat sermahsul qalamkash edi. Muhimi shundaki, u XX asr boshidagi Turkistonning yirik siyosiy arbobi edi. Uning Millat va Vatan taqdiri haqidagi barcha qarashlari, avvalo, mana shu maqolalarida aks etgan edi. Bu jihatdan uning 1906-yil 10-oktabrda «Xurshid» gazetasida (6-son) bosilgan «Xayrul umuri avsatuho» (Ishlarning yaxshisi o'rtachasidur) maqolasi xarakterli. Bu maqola uzoq yillar Sovet tarix fani nuqtai nazaridan baholanib, Behbudiyni qoralash uchun nishon bo'lib keldi. Gap shundaki, Behbudiy o'sha 1906-yildayoq sotsialistik ta'limotni va uni Rusiyada amalga oshirishga bel bog'lagan Lenin partiyasini keskin rad etgan Rusiya musulmonlari ittifoqi[289] «Ittifoqi muslimin»ni, qarashlarida ma'lum yaqinlik bo'lgan Kadetlar partiyasini qo'llaydi[290]. Uning bu xususdagi fikrlari ustozi Ismoilbek Gasprinskiyning «Mazhabi ishtirokiyun»ni qattiq tanqid qilgan «Ovrupo madaniyatiga bir nazari muvozana» risolasi va «Dorul rohat musulmonlari» romanidagi mulohazalarga tayanar edi. Behbudiy ham o'z ustozi kabi sotsializmni zo'ravonlik hisobladi, ijtimoiy tenglikni adolatsizlik deb bildi. Shaxs manfaatdorligida, millat ravnaqida taraqqiyotning buyuk omilini

---

[289] «Rusiya musulmonlari ittifoqi» Rusiya musulmonlarining 1906-yil. 13–23-yanvarda Peterburgdagi 2-se'zdida tuzilgan.

[290] Rusiya musulmonlaring 1905-y. Nijniy Novgorodda bo'lgan 1-s'ezdi Kadetlar partiyasiga qo'shilish taklifi bilan chiqqan, 2-s'ezdda esa bu qaror bilan tasdiqlangan (yuqoridagi asar, 544-bet). 1917-yilda Behbudiy, Munavvarqori ko'plab Buxoro jadidlari qatoridan Kadetlar qarashidan ham qaytganlar (Zaki Validi Tugan, Vospominaniya, Ufa, 1994, 186-bet).

ko'rdi. Xuddi shu e'tiqod uni Turkistonning mustaqilligi uchun kurashga yetakladi.

Behbudiy darsliklari. Behbudiy bir qator darsliklar yozdi. O'zSE dagi «Behbudiy» maqolasi muallifi marhum S. Qosimov adibning 6 ta darsligini qayd etadi: «Muntaxabi jug'rofiyai umumiy» («Qisqacha umumiy geografiya»), «Kitobatul atfol» («Bolalar maktublari») «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Madxali jug'rofiyai umroniy» («Aholi geografiyasiga kirish»), Muxtasar jug'rofiyai Rusiy» («Rusiyaning qisqacha geografiyasi»). Shulardan bittasiga — «Muntaxabi jug'rofiyai umumiy»ga to'xtaymiz. Asarning to'la nomi «Kitobi muntaxabi jug'rofiyai umumiy va namunai jug'rofiya». 1905-yil 24-avgustda Sankt-Peterburg senzurasidan ruxsat olinib, 1906-yil Samarqandda G.I.Demurov matbaasida chop etilgan. 106 sahifadan tashkil topgan. Muallif bu «qadim fan»ga taalluqli «turkiy, arabiy, forsiy rusiy lug'atlarga tasnif bo'lgan o'ttuz qadar qadim va jadid qutub va rasoili jug'rofiya, Hay'ati riyoziy, tarixiy, tabiiy»lardan va yana juda ko'p turli-tuman ma'lumot-manbalardan foydalanib yozganini qayd qiladi.

«Jug'rofiya degan so'z yunoniy, lug'ati arabiyg'a ta'rifi ard ma'nosig'a, ya'ni yer va tufroqni bayon qilaturg'on ilmni aytilur»,-izoh beradi muallif. So'ng Behbudiy uning turlariga to'-taydi.

Kitobning dastlabki sahifalarida jug'rofiyaning fan sifatida maydonga kelish tarixi, qadim Turkiston olimlarining bu sohadagi xizmatlari yoritiladi, asarlari keltiriladi. Muallif Shamsiddinbek Somiyning (1850—1904) 6 jildlik mashhur «Qomus ul a'lom» va Ismoilbek Gasprinskiyning «Turkiston ulamosi» kitoblaridagi hujjat va dalillarga suyanib fikr yuritgan.

Boblarning biri: «Jug'rofiyani o'qumoq musulmonlarg'a lozimdur» deb atalgan. Unda Yer haqidagi xurofiy tushunchalar tanqid qilingan. Chunonchi: «Ammo hozirgi jug'rofiya ilmi, tajriba va ro'yati boshlarindan bilinadurki, Yer kurraviy-yumaloq, ostig'a ho'kuz, balig' yo'q, atrofig'a devori yo'q va Yer aylanadur, havog'a muallaq turadur. Bizni nazarimizg'a sokin va ammo haqiqatda aylanadur».

«Eski va yangi donishmandlar» faslida qadim Batlimus (Ptolomey)dan qolgan geosentrizm va unga qarama-qarshi ge-

liotsentrizm haqida gap ketadi. Ilmi Hay'atdagi «sab'ayi sayyor», «to'qquz osmon» iboralari izohlanadi.

«Ahli Hay'ati jadida, ya'ni yangi xukamolar aytadurki, Oftob dunyoni o'rtasig'a xalq bo'lubdurki, Atoruddan boshlab qadima besh sayyora va yangi topilgan ikki sayyora va ko'z ila ko'rilmay, yangidan durbin ila topilgan uch yuzg'a yaqin sayyoralar va bularni ichig'a biz ustida turg'on Yerimiz Oftobni atrofig'a har biri o'zig'a tegishli doira — aylanasig'a aylanib yuradurlar. Yerimiz Oftobg'a nisbatan uchlanchi sayyora-yurguvchi yulduzdur! Yurguvchi yulduzlarni hammasi benur va yorug'likni oftobdan oladur» o'qiymiz kitobda.

Muallif, shu tariqa, juda sodda qilib osmon jismlarining joylashish va harakatini tushuntirib beradi. Bularning ayrimlari Qur'on va hadis xabariga rost kelmasligini ham aytadi. Shunga qaramasdan, «Yangi hukamolar osmondagi yulduzlarni ahvolidin eskilardin ko'ra yaxshiroq ogoh bo'lubturlar»,-deb yozadi. Chunonchi, Oy, Mirrix (Mars) haqidagi zamondoshlari ma'lumotlarini jamlab va ularning qadim hukamoga nasib etmagan aniq va puxta zamonaviy asboblar yordamida to'planganini ta'kidlab, «...hukm qiladurlarki, albatta, Mirrixda odam bor va ilm bizlardan ziyodadur!» degan fikrni ilgari suradi. «Martabai insoniyatg'a noil o'lmakg'a, har bir insonni jamiyati insoniyatg'a va dini ilohiyag'a ehtiyoji bor, — yozadi muallif. — Ushbu sababdandurki, insonlar komil insonlarni qo'l ostig'a jamiyati bashariyani barpo qiladurlar. Alloh taolo anbiyo vositasi ila qonuni shariat, xavfu qalbu rijo yuboribdurki, ango doxil va solik bo'lmoq lozim va vojibdur. Dinsiz dunyoda yashamoq insoniyat va madaniyatdan emas, hayvoniylikdur. Dinsiz mutamaddun (madaniyatli) bo'lmoq muhol (qiyin)dur. Jamiyati bashariyani barqaror turmoqig'a din, shar' (shariat), nizom va bularni boshqaruvchilarga birinchi sababdur. Bas, jamiyat ilm, insof va hunar sabablari ila uch xil bo'linadurki, vahshoniyat, badaviyat, madaniyat atalgan. Va bularni(ng) har birini yana bir necha sinfg'a taqsim qilmoq odamlarni ahvolig'a qarab mumkin bo'ladur».

Ma'rifatdan siyosatga. Behbudiy zamonasidagi mavjud idora usullari haqida fikr yuritib, ularni uchga bo'ladi:

1. Idorai mustaqalla (idorai mutlaqa-monarxiya)

2. Idorai mashruta (konstitutsiyali parlamentli hokimiyat).

3. Idorai jumhuriyat (Respublika).

Lekin millat ozod bo'lib, o'zining mustaqil davlatini o'rnatmaguncha, ijtimoiy adolatni tiklab bo'lmaydi. Bu Behbudiy kelgan birinchi xulosa edi. Uning «Vaqt» gazetasida chop etilgan maqolalaridan birida shunday mulohazalarni uchratamiz:

«Bir madrasaga 20 talaba gapi ila bir noahil mudarris saylanur. Bir volostda 40 nafar el boshlarindan 21 nafarni sadosi ila bir johil qozi saylanur va Rusiya ma'murlarina-da ma'qul o'lur. Bir ming faqirning raddu mudoxalasi mo''tabar o'lmaz va so'zlari eshitilmas. Ishta bizim Turkiston shaharlarining bu kungi qozi, mufti va mudarris ham imom va o'zga ruhoniylarining yuzdan saksoni, sahro va qariyalarda o'lanlarining o'ndan to'qqizi sho'yla nomunosib kishilardan iboratdir»[291]. Shu gazetaning o'sha yili 4-noyabrda bosilgan «Duma va Turkiston musulmonlari» maqolasida esa chor mustamlakachilik siyosati, xususan, o'lkadan yetmish ming rusdan olti deputat bo'lgani holda yetti million musulmonga besh o'rin ajratilgan oshkora tanqid qilinadi. Shularga qaramasdan, Behbudiy, istiqlol haqida fikr yuritar ekan, har qanday zo'ravonlikni rad etadi. Uningcha, zo'ravonlik g'ayriaxloqiy, binobarin, g'ayrinsoniydir. Umuman olganda esa mustaqillik uchun kurash olib borgan bobolarimiz, jumladan, jadidlar kelajak haqida fikr yuritar ekanlar, istiqlolga erishish borasida bir-birlaridan farq qiluvchi uch yo'ldan bordilar:

1. Rusiyaga tobelikdan zo'rlik yo'li bilan qutulish, kuch bilan istiqlol olish (Dukchi eshon qo'zg'oloni, 1916-yil voqealari, «bosmachilik»).

2. Murosa yo'li. Ruslar yordamida ma'rifatga erishish. Ma'rifat masalalarida haq-huquq olish, milliy xususiyatlarni tiklash (Ismoilbek Gasprali, Mahmudxo'ja Behbudiy).

3. Hamkorlik yo'li. Chor ma'murlari, so'ng esa Sho'ro hukumati bilan birga ularning dasturlarida qatnashish va imkon bo'lishi bilan mustaqillikni qo'lga olish. Buning uchun ma'lum tayyorgarlik ko'rib borish (Munavvarqori, Hamza, Avloniy).

Behbudiy hamisha xalq bilan birga bo'ldi.

---

[291] «Vaqt» gazetasi, 1907-yil, 3-fevral.

Vatan taqdiri kun tartibiga qo'yilgan 1917-yilning 16–23-aprelida Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston musulmonlarining 150 vakili ishtirok etgan o'lka qurultoyida hayajonli nutq so'zladi. Millatni o'zaro ixtiloflardan voz kechishga, buyuk maqsad yo'lida birlashishga, ittifoq bo'lishga chaqirdi. Xuddi shu ixtilofimiz sababli «mustamlakot qoidasi ila bizni idora eturlar» deb ochiq aytdi.

U haq edi. Mustamlakachilar «50 yil ilm-ma'rifatdan chetda saqlab kelgan»lari (Kuropatkin) Turkistonni osonlik bilan qo'ldan chiqarmas edilar. Fitna va ig'vo tinimsiz davom etar edi. Shundaylardan biri 1917-yilning bahorida Buxoroda yuz bergan edi. Amir Fevral o'zgarishlarini hisobga olib, rus elchixonasining maslahati bilan islohot e'lon qiladigan bo'ladi. Va bu farmonni ushbu elchixonaning boshlig'i janob Miller tayyorlaydi. Har xil anglashilmovchiliklarning oldini olish maqsadida sobiq general-gubernator, endilikda Rusiya Muvaqqat hukumatining Turkiston komissari Kuropatkin topshirig'iga ko'ra Samarqand ijroiya qo'mitasi Buxoroga bir necha kishilik Hay'at yubordi. Ular orasida Behbudiy ham bor edi. 7-aprel islohot e'loni oldindan mo'ljallanganidek tantanaga, tantana esa fojiaga aylanadi. Amir va yoshlar, mullalar va jadidlar o'rtasida o'tib bo'lmas choh paydo bo'ladi. Miller buning aybini Behbudiyga qo'yadi. Faqat Miller emas, Toshkentda 9-aprelda boshlangan Turkiston ishchi va soldat deputatlari sovetlarining birinchi o'lka s'ezdida ayrim rus deputatlari Buxoro fojiasining sababini Samarqanddan «o'z ixtiyorlari ilan» borgan deputatlarga to'nkaydilar. Millatni ich-ichidan qayrash va nizo chiqarish izchil davom etadi. Behbudiy mazkur s'ezdda minbarga chiqib bor voqeani tushuntirib bergan va bu haqda «Buxoro voqealari va daf'i tuhmat» («Hurriyat» gazetasi, 1917-yil 1-may) degan maxsus maqola yozgan edi. Shu yil noyabrning 26 sida Qo'qonda o'lka musulmonlarining IV favqulodda Qurultoyi ish boshladi. 27-noyabrga o'tar kechasi «Turkiston muxtoriyati» e'lon qilindi. Bu mustamlakadan mustaqillik tomon qo'yilgan jiddiy va jasoratli qadam edi. Uning ma'naviy otasi, shubhasiz, Behbudiy edi. «27-noyabrda Qo'qonda Turkiston muxtoriyati umumiy musulmon s'ezdida e'lon qilindi. Muborak va xayrli bo'lsun!

Kamina ham majlisda bo'lushdan iftixor etaman. Yashasun Turkiston muxtoriyati!»[292] – deb yozgan edi Behbudiy.

Muallif bu qadim otalar yurtini unda yashab turgan barcha qon-qarindosh millatlarning birligi, hamkorligi bilangina saqlab qolish mumkinligini teran anglaydi. Butun vujudi bilan Turkistonni birlikka chorlaydi. «Bovurlar! – deb yozadi qozoq birodarlariga ochiq xatida, – bilingki, hozirda Turkistondagi barcha xalqlar uchun muxtoriyat e'lon qilindi va siz bilingki, haq olinur, lekin berilmas. Inchunin, muxtoriyat-da olinur, lekin berilmas. Ya'ni muxtoriyatni Turkiston bolalarining o'zi birlashib, g'ayrat ila olurlar. Albatta, boshqalar tarafidan berilmas. Boshqalarning qo'lidan kelsa, bermaslar. Biz bo'shlik qilsak va Turkistondagi xalqlar birlashib, muxtoriyat yo'liga sa'y qilmasak, albatta hozirgi qog'oz ustidagi muxtoriyatimizni ham yo'q qilurlar. Bul, albatta shundaydur va bul so'zga hech kim ixtilof qilolmaydur... Endi ishlar shu holda ekan, biz hammamiz, ya'ni qirg'iz, qozoq, o'zbek, turkman, arab, fors, xullas, Turkistondagi, Qozog'istondagi va Turkmanistondagi barcha musulmonlar hamda mundagi yahudiy va xristianlar birlashib, ittifoq ila shu muxtoriyatning amalg'a kelishiga sa'y va ehtimol etmog'imiz lozimdur...

Chirog'larim! Boshqa xalqlar, masalan, serblar, italyanlar, armanlar, slavyanlar, polyaklar va boshqalar hatto dunyoning u bir uchidagi qarindoshlari ila birlashur ekanlar, boshqa katta va quvvatli davlatlarga tobe bo'lub, yutilub, hatto tilini yo'qotgan o'z jinsdoshlarini ajratib olib, birlashmoqg'a jon va kuchlarini sarf etar ekanlar, biz o'z ichimizdagi qarindoshlarimizdan ayrilsak, uyatdur, ahmoqlikdur. Turk tomurig'a bolta urmoqlikdur»[293].

Muxtoriyat boy berildi. Uni otalarimiz saqlab qololmadilar. U Sovetlar tomonidan xoinona bostirildi. 19–20-fevral kunlari shahar to'pga tutildi. 10 mingta turkistonlik o'ldirildi, 180 ta qishloqqa o't qo'yildi.

Behbudiy iztirob bilan mayning boshida Samarqandga qaytadi. U yerda tura olmay, Toshkentga keladi. Turkiston rus sovet hukumati rahbarlari bilan muzokaralar natija bermaydi.

---

[292] «Hurriyat» gazetasi, 1917-yil 19-noyabr.
[293] «Hurriyat» gazetasi, 1918-yil 26-yanvar.

Orzulari chil-chil bo'lgan Behbudiy 1919-yilning bahorida-25-martda Shahrisabzda qo'lga olinib, sirli bir tusda Qarshi shahrida qatl qilinadi. Uning qatli haqidagi xabar o'sha paytdagi poytaxtimiz Samarqandga rosa bir yildan keyin ma'lum bo'ladi. 1920-yilning aprelida butun Turkiston motam tutadi. O'nlab marsiyalar yoziladi. «Behbudiyning sag'anasini izladim» deb atalar edi Fitratning bir she'ri. Ayniyda bir emas, uch she'r bor.

Sani mundin buyon Turon, ko'rolurmu, ko'rolmasmu?
Saning mislingni Turkiston topolurmu topolmasmu?

– deb boshlanardi uning she'rlaridan biri.

Mashhur Cho'lpon ham Behbudiyning fojiali o'ldirilganiga bag'ishlab she'rlar yozadi.

Qarshi shahri 1926–1937-yillarda 11-yil Behbudiy nomi bilan yuritildi. Biroq uning asl qiyofasi xalqdan sir saqlandi. Adib nomining adabiylashtirilishi shunchaki bir niqob edi. Qarshi shahriga uning nomi qo'yilgan o'sha 1926-yildayoq u mansub bo'lgan jadidchilikni aksilinqilobiy, aksilsho'roviy harakat sifatida qoralash ishlari boshlab yuborilgan edi.

B.A.Pyaskovskiy 1922-yildagi «Inqilob» jurnali sahifalarida e'lon qilgan «O'zbek teatri tarixi» maqolasida uning maydonga kelishi tarixi haqida fikr yuritar ekan, «O'zbek teatrining asosini qo'yib beruvchi samarqandlik Mahmudxo'ja Behbudiydir» deb yozadi, adib nomida Toshkentda maorif klubi, Samarqandda kutubxona va dramtruppa, Turkistonning deyarli hamma shaharlarida uning nomiga ochilgan maktablar, Buxoroda esa markaziy bosmaxona borligini ta'kidlaydi.

1929-yilda Qozonda bosilib chiqqan «O'zbek adabiyoti» kitobida esa «O'zbek milliy adabiyotining negiz toshini Behbudiy bilan Fitrat qo'yib berdi» degan e'tirofga duch kelamiz.

Bu gaplar haqiqat edi.

FITRAT

O'zbek tilining 2 jildlik izohli lug'atida bu so'z yo'q. «Navoiy lug'ati»da «tabiat, tug'ma tabiat, yaratilish» deb izohlangan. Garchi bu so'z tilimizning bugungi «Izohli lug'at»iga kirmagan

bo'lsa-da, uni eshitmagan kishi kam. Bu nom bir vaqtlar ziyolilar davrasida benihoya izzat va sharaf bilan tilga olingan. Uning aqlu zakovatini Kavkaz va Volga bo'yidagi hamkasblargina emas, Moskva, Leningraddagi sharqshunoslar ham yuksak qadrlaganlar. 1924-yilda u Moskvada Sharq tillari institutida dars bergan, professor bo'lgan. Afg'oniston, Turkiya, Eron ilmiy-adabiy doiralarida ham uning mavqe-martabasi baland edi. Mamlakatda «ichki dushmanlar»ni fosh qilish vasvasasi avj olib, xalqning asl farzandlari bir chetdan terilib qatag'on qilinayotgan bir paytda xorijdagi ilm-ma'rifatning qadriga yetuvchi ishbilarmon homiylar da'vatnomalar yozib, uni ishga taklif etganlarida bormadi. Har qanday holda ham Vatani, xalqi bilan bo'lishni lozim bildi. Holbuki, u inqilobdan keyingi 2 million muhojirning biri bo'lishi mumkin edi. So'ng 20-yillarda, hatto 30-yillarda ham uning imkoni bor edi. Biroq Vatan tuyg'usi bunga yo'l bermadi. Mavjud tuzum — hukmron harbiy-mahkamachilik ma'muriyati esa uni o'zi muqaddas tutgan xalqi, Vatani nomidan qatl etdi. Va sal kam 50 yil bu nom uni voyaga yetkazgan eli, yurti xotirasidan quvib chiqarildi. Biroq chetda uning shuhrati zarra qadar kamaygan emas. Aksincha, ilgari uni Yaqin Sharq mamlakatlaridagina bilgan bo'lsalar, hozir Yevropada, hatto Amerikada ham o'rganmoqdalar. Jumladan, amerikalik taniqli turkolog Eduard Olvortning qilayotgan ishlari bunga dalil.

Bu ishlar Fitratning o'z yurtida esa endi boshlanmoqchi. Darhaqiqat, ishni Fitratni tanitishdan boshlash kerak. Hozir ko'proq shu xil ishlar qilinmoqda. Negaki, uni ko'rgan, bilgan kishilar juda kam qoldi. Orada undan butunlay uzilgan uch avlod o'sib voyaga yetdi. Ikkinchidan, Fitratga o'xshagan «xalq dushmanlari»ning asarlarigina emas, ular bilan bog'liq har qanday hujjat-materiallar, hatto xotiralar ham qatag'on qilingan ediki, bu bilan ham hisoblashish kerak bo'ladi. Nihoyat, 70 yil davomida «yagona sovet xalqi», «yagona sotsialistik vatan» degan g'ayriilmiy, g'ayritarixiy shiorlar, millat va elatlarning oxir-oqibatda bitta «millat»ga, bitta «vatan»ga, bitta «til»ga kelishi haqidagi soxta nazariya va ta'limotlar bilan ish ko'rilganligi, o'tmish bilan bugun o'rtasiga «Xitoy devori» tortilgani tufayli tariximizni malakali o'rganadigan xodimlarimiz yo'q darajaga

kelib qolgan. Ahvol shundayki, tariximizning nozik sahifalarini haqqoniy yoritib berishga keksa avlodda jur'at, yoshlarda esa malaka-tajriba yetishmay turibdi. Shunga qaramasdan, bu boradagi ayrim intilishlarni qayd etmoq kerak. S.Qosimov, E.Karimov, A.Aliyevlarning o'sha turg'unlik yillarida Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon haqida matbuotda chiqishlari, keyingi yillarda esa N.Karimov, Sh.Turdiyev, B.Do'stqorayev, H.Boltaboyev, H.Qudratullayevlarning maqola va ishlari bunga dalil. Lekin asosiy ishlar oldinda.

Abdurauf Fitrat 1886-yilda Buxoro shahrida savdogar Abdurahimboy oilasida tug'ilgan. Abdurahimboy o'qimishli, dunyoning baland-pastidan xabardor kishi bo'lgan. Savdo ishlari bilan Turkiya, Eron, Koshg'arga tez-tez borib turgan. Onasining oti Bibijon bo'lib, taxminan 1866-yillarda tug'ilgan. O'g'li Abdurauf hibsga olingan 1937-yilda u hayot edi. Oilada Abduraufdan tashqari yana ikki farzand — ukasi Abdurahmon va singlisi Mahbuba bor edi. 20-yillarning faollaridan bo'lgan, goho she'r ham mashq qiladigan Mahbuba Rahim qizining nomi o'quvchilarga bir qadar tanish. Abdurahmon esa 10-yillarda Kogon bosmaxonasida harf teruvchi bo'lib ishlagan. «Mir Arab»ning hozirgi mudarrisi G'ofir hoji Razzoq o'g'lining xabar berishicha, Abdurauf o'sha davr eski maktablaridan birida, so'ng mashhur «Mir Arab» madrasasida o'qidi.

Bundan yuz yil oldingi Buxoroda 217 masjid, 185 madrasa bo'lgan.[294] Otaboy Eshonov bu raqamni 365 masjid, 140 madrasa, 360 maktab deb ko'rsatdi va bu o'quv dargohlarida 20 ming bola tahsil ko'rganini xabar qiladi[295]. Darhaqiqat, Buxoroda F.Xo'jayev qayd etganidek, «anaxronizm» — bir tomondan, juda katta qadim madaniyat-ma'rifatga izdoshlik, ikkinchi tomondan, taqdirning taqozosi bilan zamonaviy taraqqiyotdan chetda uzilib mog'orlab qolishdek bir hol namoyon edi.

Maktablar aksariyat masjidlar qoshida edi. Ismoilbek Gasprinskiyning Rusiya musulmonlari tafakkurida inqilob yasagan 1884-yildagi «usuli jadid» maktabining ovozasi olis Buxoroga endi yetib kelgan paytlar edi. Ismoilbek Amir Abdulahadga mil-

---

[294] «Mushtum»j. 1990-y. 10-son.

[295] А.И.Ишанов. Бухарская Народная Советская республика. — Т.: 1962, 70 с.

latning ravnaqi uchun «usuli jadid»ning shartligi haqida murojaat bilan Qrimning Boqchasaroyidan kelgan 1893-yilda Abdurahim aka maktab yoshiga yetgan Abduraufni qaysi domlaning qo'liga berish ustida bosh qotirar edi. Tarix guvohlik berishicha, Ismoilbek Buxoro amirini o'z fikriga ishontira olgan. Abdulahad Buxoroda bitta yangi usul maktab ochishga rozilik bergan. Biroq ko'p o'tmay ruhoniylar qutqusi bilan o'sha maktab yopilgan. Ayniy birinchi yangi usul maktabi 1908-yilda ochildi deb ko'rsatadi[296]. Fayzulla Xo'jayev uni buxoroliklar ongida siljish yaratgan hodisalardan hisoblaydi. Gap shundaki, bu maktab buxorolik taraqqiyparvar muallimlar Abduvohid Burxonov va Nizomiddinlar nomi bilan bog'liq bo'lib, ular o'sha yili imtihonni ota-onalaru elning e'tiborli vakillari oldida o'tkazganlar. Tantanali marosimda katta bahs boshlanib ketgan. To'planganlar ikki qarama-qarshi guruhga — Mulla Ikrom bosh «jadidchi»laru Mulla Abdurazzoq bosh «qadimchi»larga bo'lingan.

Bahsda «qadimchi»lar ustun keldi. «Usuli jadid»ga qo'yilgan «o'qitish musulmoncha emas», «din buzib o'qitilar ekan» degan aybning avomga ta'siri katta bo'ldi. Hali o'zini o'nglab olmagan jadidchilik mag'lubiyatga uchradi. «Maktablar yopib qo'yildi, bolalar uylariga qaytarib yuborildi, hukumat ota-onalardan bundan buyon bolalarimizni jadidlar usulida o'qitmaymiz, degan tilxat oldi. «Jadid» degan nom dinsizlik va boshqa har qanday jinoyatlarni ifodalovchi nom bo'lib qoldi»[297].

Bu 1908-yil edi. Hayot to'xtab qolmadi. «Usuli jadid» qiyinchilik bilan bo'lsa-da, o'ziga yo'l ochib bordi. Uni quvvatlovchilar ko'payib bordi. Kitob, darslikka ehtiyoj zo'raydi. Shu maqsadda 1909-yilning martlarida «Shirkati Buxoroyi sharif» shirkati tuzildi. Usuli jadid bilan tanishmoq uchun bir kishi Boqchasaroyga, bir kishi Istanbulga yuborildi. Lekin yangi maktablarning dushmani ham ko'p edi. Shu sabab 1909-yil 18-iyunda Buxoro yoshlari «Tarbiyai atfol» nomida yashirin jamiyat tashkil qiladilar. «Jamiyatning birinchi maqsadi Istanbulga o'quvchilar yubormoq chorasiga kirishmoq edi. Masorif uchun jamiyatning sirini ochmasdan e'timod qildiqi taraqqiyparvarlardan iona to'plar edi. Jamiyatning ijtihodi soyasida bir

[296] S.Ayniy. Asarlar. Sakkiz jildlik, 1-jild. — T.: 1963, 201-b.
[297] Fayzulla Xo'jayev. Tanlangan asarlar, uch jildlik, 1-jild. — T.: 1976, 97-b.

qancha talaba Istambulga yuborildi.»[298] Mazkur Ayniy asarining 1927-yilgi Moskva nashrida quyidagi fikrni uchratamiz:

«Ikmoli tahsil uchun Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li (1878–1968)[299]», uning birodari Ato Xo'ja (1894–1938)[300], Mazhar Maxzum Burhon Maxzum o'g'li[301], Abdurauf Fitrat, Muqimbek Istanbulga safar qildilar. Fitrat mazkur talabalarning eng iste'dodlisi va eng fozili edi» (69-bet).

Fitrat Istanbulda 1909–1913-yillarda o'qidi. Umuman olganda, 1911-yilda Istanbulda o'qiydigan yoshlar, turkistonliklarni ham qo'shib hisoblasak, 15 taga, 1912-yilda esa 30 taga yetgan. B.A.Pestovskiy Fitratni «18 yoshlariqa qadar Buxoroda tahsil ko'rib, Sharqda Turkiya, Hindiston, Arabiston kabi yerlarda Markaziy Rusiyaning Maskov, Peterburq kabi shaharlarida sayohat etgandir»[302], – deb yozadi. Demak, u Buxoroda 1904 yillarga qadar o'qigan. So'ng, chamasi, haj qilgan. «Tazkirat ush-shuaro» muallifi Ne'matulla Muhtaramning uni hoji Mullo Abdurauf deb tanishtirishi bejiz bo'lmasa kerak[303].

Istanbulga qaytaylik.

1909–1913-yillarda Istanbulda Qozi Olim Yunusov va bir muddat (1911) Hamza («Dorul voizin») ham o'qiganligi ma'lum.

Fitrat Istanbul dorulfununida o'qigan. F.Xo'jayev xabar berishicha, Fitrat Istanbulda hamshaharlari bilan birgalikda «Buxoro ta'mimi(umumiy) maorif jamiyati» tuzadi. Chamasi, u buxoroliklarning o'zaro moddiy-ma'naviy uyushmasi vazifasini bajargan.

Turkiya «Yosh turklar inqilobi»dan mast yillar edi. Xususiy turmushdan jamiyat hayotigacha inqilob havosiga g'arq edi. Bunday muhit Fitratga, shubhasiz, katta ta'sir ko'rsatdi. U siyosatga sho'ng'ib ketdi. Qizg'in badiiy ijod bilan shug'ullandi. Aslini olganda, u Turkiyaga ketishidan oldin ham she'rlari bilan adabiy davralarga tanilgan edi. Hatto Ne'matulla Muhtaram uni

---

[298] S. Ayniy. Ko'rsatilgan asar, 233-b.

[299] Olmoniyadagi o'zbek adabiyotshunosi doktor Temirxo'janing otasi.

[300] Ato Xo'jayev. 1923-yilda BXShJ da Xalq Nozirlari Sho'rosining o'rinbosari bo'lib ishlagan.

[301] Taniqli bastakor Mutal Burhonning otasi, Fitratning qaynotasi.

[302] «Inqilob»j., 1922-y. 2-son.

[303] Ne'matulla Muhtaram. Tazkiratush shuaro, Dushanbe, 1975, 319-b.

1903—1904-yillarda tuzgan tazkirasiga kiritgan. Jumladan, uning «Mijmar» taxallusi bilan she'rlar yozganini xabar qiladi. «Suxandonlarning harifi» (pahlavoni) ekanligini ta'kidlaydi. Ota kasbiga ishora qilib, «sarrof» deb ataydi. Ruhiyatni g'oyat nozik bir ifoda etgan tojikcha g'azalini namuna qilib keltiradi. Shularni ko'zda tutib bo'lsa kerak, Ayniy 1926-yilda tuzgan «Namunai adabiyoti tojik» kitobida Fitratni tojik sovet adabiyotining asoschisi deb ko'rsatadi.

1909—1913-yillarda Istanbulda Fitratning bir qator asarlari forsiy tilda bosilib chiqdi. Chunonchi, 1909-yilda «Munozara» («Hindistonda bir farangi ila buxorolik bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadid xususida qilg'on munozarasi») asari bosildi. Dramatik publisistikaga moyil bu asar zamonning zayli bilan tarixiy taraqqiyotning ikki pog'onasida turib qolgan, din va dunyo, jamiyat va ma'rifat haqida ikki xil ko'zqarashga ega bo'lgan ikki kishining bahsi asosiga qurilgan edi.

Muallif xurofotni, bid'atni qoraladi, unga chinakam e'tiqodni qarshi qo'ydi. Aqlu donishni, uning samarasi — taraqqiyot va farovonlikni himoya qildi. Mashhur usmonli inqilobchilar Anvarbek, Niyoziybeklarning[304], Eron xalq qahramoni hurriyatchi Sattorxonu Boqirxonlar[305]ning «o'z millatining saodati va osoyishi» uchun fidokorliklarini, «Rusiyadagi haqiqiy insonlar»dan, «dohiy va faylasuf To'lsto'y»ning «saodati bashar» yo'lidagi xizmatlarini ibrat qilib ko'rsatdi.

«Munozara» amir Buxorosida taqiqlab qo'yilganiga qaramasdan keng tarqaldi. U haqda bahs-munozaralar bo'lib o'tdi. Xalqning ko'zi ochilishida muhim rol o'ynadi. Ayniy «Namunai adabiyoti tojik»da «Munozara» davr taraqqiyotiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatdi», -deb yozdi. V.B.Andreev «Туркестанские ведомости»da (1916-y. 13, 15, 20-sonlar) Fitratning yangi usul maktablardan musulmon dunyosi shariati yuzasidan foydalanishi mumkinligini isbot eta olganini ta'kidladi. «Faqat shu asarning bosilib chiqishi tufayligna Buxoroda yangi usul

---

[304] Anvarbek - mashhur Anvar poshsho (1881—1922), «Ittihod va taraqqiy» partiyasi rahbarlaridan biri. 1908-yilgi yosh turklar inqilobining tashkilotchilaridan. 1921-yilda Turkistonga kelgan va shu yerda halok bo'lgan. Niyoziybek — 1908-yil inqilobida Resneda partizanlar harakatiga boshchilik qilgan.

[305] Sattorxon (1867—68—1914), Boqirxon — 1905—1911-yillardagi Eron inqilobining rahbarlari.

maktablari qaytadan ochildi va ulardan mulla-muqarrislarning tavqi la'natlari olib tashlandi», — deb yozdi[306].

«Munozara» 1911-yilda Hoji Muin tarjimasida «Turkiston viloyatining gazeti» sahifalarida bosilib chiqdi. 1913-yilda Behbudiy so'zboshisi bilan alohida kitob holida nashr qilindi. 1912-yilda «Sayyoh hindi» («Bayonoti sayyohi hindi») chop etildi. (Undan ayrim boblar H.Qudratullaev tarjimasida «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» haftaligining 1989-yil 32-sonida e'lon qilindi).

Yo'l ocherkini eslatuvchi bu asarda Buxoroning maishiy-siyosiy turmush manzaralari dunyo ko'rgan bir kishining nigohi orqali tasvir etiladi. Muallif yeri, suvi, havosi betimsol, xalqi g'oyat mehnatkash, hunarmand bir xalqning og'ir turmushidan so'z ochadi, uning sabablarini tahlil etadi. Ana Buxoroning mashhur obdastalari, gilamlar, alachalar. Buxoro alachasi Yevropa mollaridan nozikroq, pishiqroq. Lekin bozori yo'q. Bozor Yevropa fabrikantlarining qo'lida. Biri ming azob bilan qo'lda tayyorlangan, ikkinchisi — osongina, mashinalarda. Ham ko'p. Uning ustiga xaridor talabiga qarab birini tezgina qayta qurish mumkin, ikkinchisining deyarli iloji yo'q. Fitrat fikricha, asosiy sabab idora usulining buzuq va nobopligida, hokimiyat egalarining ilm-ma'rifatdan uzoqligida.

Sayyoh Shahrisabz qozisi oldiga savol qo'yadi: «Islom mamlakatlari nega vayrona va xarobazor qolishi kerak. Buning sababi nimada? Masalan, Qarshi yo Kitobning biron-bir alacha to'quvchisi Farangistonda yashasa, boshdan-oyoq zer-zevarlarga botar edi.

Bu bechoralarning nega yeyishga noni yo'q?

Agar shu Shahrisabz yerlari Yaponiyada bo'lganida edi, zar ekib, zar undirar edi. Bu yerlar nega sho'razorga aylangan?..»

Darhaqiqat, dunyodan boxabar rahbar har bir ishni uzoqni o'ylab qiladi. Dehqonchilikni ham, hunarmandchilikni ham zamonaviy talab va jihozlar asosida qayta qurib boradi. Mahsulotni tez va arzon ishlab chiqarish yo'llarini izlaydi. Fozil mamlakatda amaldorlarning xizmat haqi, xarju sarfi Buxorodagidek dehqonning ustiga yuklab qo'yilmaydi. Dehqonchilik-

[306] G.Rahimova. «Munozara» — uyg'onish darakchisi». O'zAS, 1989, 52-son.

ning ham, hunarmandchilikning ham ashyo-jihozlari yangilab boriladi. Mahkamalarda pora emas, qonun ustuvor turadi. Aks holda, mehnat nechog'li ko'p qilinmasin, uquv va salohiyat qanchalik kuchli bo'lmasin, kutilgan samarani bermaydi. Asardan chiqadigan xulosa — shu.

Shu tariqa, kitobda iqtisodiy-ma'naviy taraqqiyotning asosiy g'ovlari — ishlab chiqarishdagi o'rta asrchilik, qonunsizlik ekanligi aytiladi.

«Fitratning «Sayyohi hindi» asarining ahamiyatini bu yerda qayd etmasdan o'tolmaymiz, — deb yozadi F.Xo'jayev. — Faqat Buxorodagina emas, uning tashqarisida ham bu asar qiziqib o'qildi. Keyin bu kitob rus tiliga tarjima qilinib, bosilib chiqdi».

«Sayha» — «Farhang»da «bong, faryodi dahshatangiz, na'ra», deb izohlangan. Undagi she'rlar Vatan haqida edi. Vatan haqida osoyishta so'zlab bo'lmasdi. Uning dardi nihoyasiz, jarohatlari halokatli edi. Shoir uning «holi xarob»ligidan, «panjai g'am»dan «pirahani» (libosi) chokligidan dod soldi. Unga mehru muhabbatini hayqirib aytdi. U bilan iftixor etdi. Uni har narsadan muqaddas tutdi. U uchun baxt va najot qidirdi:

Binmo sahari azmi tavofi Vatani man,
Oh-oh, chi Vatan, sajdagohi jonu tani man.
Ham mohi manu osoyishi, izzu sharafi man,
Ham Ka'bai man, qiblai man, ham chamani man.

(Mazmuni: Vatanimni ziyorat qilmoqqa erta tongda kel. Hay-hay, qanday Vatan bu! U — mening sajdagohim, jonu tanimdir. U mening osmondagi oyim, osoyishim, izzatim, sharafim, ka'bam, qiblam va chamanimdir.)

«Sayha»ga kirgan she'rlardan biri shunday boshlanar edi.

Shoirning bu o'tli she'rlari 1914-yilda «Sadoyi Turkiston» gazetasida ham bosildi. «Vatanparvarlik she'rlari to'plami bo'lgan «Sayha»ni o'qigan kishilarni Buxoro hukumatigina emas, shu bilan birga rus hukumati ham ta'qib qila boshladi. Chunki bu she'rlarda Buxoro mustaqilligi g'oyasi birinchi marta juda yorqin shaklda ifodalab berildi», — deb yozgan edi F.Xo'jayev.

Tabiiyki, Fitratning yuqoridagi asarlarini u bahramand bo'lgan Istanbul muhitisiz to'g'ri tushunish qiyin. Inqilobiy Turkiya,

«Ittihod va taraqqiy» partiyasi bilan yaqinlashuv, usmonli turklarning inqilobiy-demokratik tafakkurida muhim zamin bo'lib xizmat qilgan islomchilik, turkchilik, usmonchilik g'oyalari Fitratning ham ijodkor, ham siyosiy arbob sifatida shakllanishiga ma'lum ta'sir ko'rsatdi. U tahsil olgan Istanbul dorulfununida Turkiya adabiyotidagi islomchilik 10-yillardagi eng mashhur vakili «Siroti mustaqim» jurnalining muharriri Mehmet Akif turk adabiyotidan dars berardi (1921-yilda Turkiya milliy gimni matni uchun konkurs o'tkazilganida, u «Istiqlol marshi» she'ri bilan 724 shoir orasidan birinchi o'rinni olgan). «Ittihod va taraqqiy»ning nashri afkori «Eni majmua»ning bosh muharriri, turkchilik g'oyasining bayroqdori shoir Ziyo Ko'k Alp ijtimoiyotdan kirardi. 1898-yilda «Turkcha she'rlar»i bilan barmoqda she'r yozishni boshlab bergan Mehmet Eminga ergashish avjga chiqqan, «Turk yurdu» (1911), «Ganch qalamler» (1911) kabi jurnallar maydonga kelib, tilni arabiy va forsiy unsurlardan tozalash boshlangan yillar edi.

«Bizda jadidining birinchi davri panislomizm bayrog'i ostida yurdi, — deb yozadi Fitrat 1936-yilda «Aruz haqida» kitobida. — Jadid adabiyotining aruz vazni bilan yozilishi mana shu davrga to'g'ri keladi. Bora-bora panislomizm, panturkizm, o'zbek millatchiligi bir-biridan ayrim xatti-harakatlar tarzida ajraladi. Men bularning uchini ham o'tkanman va juda yaxshi eslaymanki, panislomizm bilan o'zbek millatchiligining adabiyotdagi in'ikoslaridan bittasi vaznda aruz va barmoq tarafdorligi shaklida ko'rungan edi» (20-bet).

Fitrat o'qishni tugatib qaytganda (1914) uning nomi Buxorodagina emas, chet mamlakatlarga ham yoyilgan edi. Cho'lpon 1913—1914-yillarda bir sabab bilan «mudarris» bo'lish o'rniga «o'zbek milliy o'quvchisi» bo'lishga qaror berib, otasidan ham, muallimidan ham «qochib Toshkentga kelgan»ini hikoya qilarkan, «u vaqtlarda biz hamma o'zbek yosh yozuvchilari Fitrat ta'sirida edik», deydi.[307]

Yana bir misol. Fitratning DXQ (Davlat xavfsizlik qo'mitasi) arxivida 4269-raqam bilan saqlanayotgan «Ishi»dagi materiallardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, u 1914-yillarda Buxo-

[307] «Sovet O'zbekistoni», 1989-y 3-sentabr.

roda havaskor teatrchilik ishini yo'lga qo'ygan. Sahnada rollar o'ynagan. Tushgan pullarni 1914-yil urushida jabrlangan musulmonlar foydasiga o'tkazgan. Bunday ishlari uchun Buxoro qushbegisidan martaba olib (qanday martabaligi qayd etilgan emas), elga dovrug'i yoyilgan (Abdulhamid Sulaymonov ko'rsatmalaridan ko'chirma, 1937-y. 10-avgust, 5-sahifa).

Fitrat adibgina emas, Buxoro inqilobining g'oyaviy-tashkiliy rahbarlaridan, so'ngroq esa Buxoro Xalq Jumhuriyatining muassislaridan biri, inqilobchi, siyosatchi, arbob sifatida ham shuhrat topgan edi. Afsuski, uning ijtimoiy-siyosiy faoliyati mutaxassislarimiz tomonidan ko'p ham tilga olinavermaydi. Jadidchilik, «Yosh buxoroliklar» bilan bog'liq jihatlarini shunchaki qayd qilish bilan cheklanamiz. Buxoro Xalq Jumhuriyati davridagi nozirligi haqida ham ahvol taxminan shunday. Nega? — Qo'rqamiz. Biror siyosiy xato qilib qo'yishdan emas, endigina qad tiklayotgan adibning obro'sini to'kib qo'yishdan qo'rqamiz. O'sha hodisalarning o'zi hali o'rganilgani yo'q.

Istanbul, Qozon, Orenburg, Ufada yangicha zamonaviy tahsil ko'rgan buxorolik yoshlarning oldi 1913-yillardan e'tiboran yurtlariga qayta boshladilar. Buxoroda matbuot izga tushdi. «Turon», «Buxoroyi sharif» gazetalari chiqa boshladi. Mashhur Behbudiy (Fitrat u bilan yaqin hamkorlikda ishlagan, xususan u muharrirlik qilgan «Oyna» jurnalida faol ishtirok etgani mutaxassislarga yaxshi ma'lum) «Turon» gazetasida bunday yozdi:

«Buxoro maktablarining islohi uchun Kavkaz, Tatariston va Istanbulni islomiy o'rta maktablarini tamom qilg'on buxoriy kerakdur. Buxoro madrasasining islohi va taraqqiysi uchun hijoz, Misr madrasai diniyalarinda xatm qilg'on kishilar kerakdur. Buxoroda tijorat, ziroat va sanoatni taraqqiy qildirish uchun Rusiyaning o'rta va oliy maktablarinda xatmi ulumi zamoniya etgan muhandisi muqtadirlar kerakdur».[308]

Lekin amirlik yangi maktablarga yo'l bermadi. Jadidlar yashirin ishga o'tdilar. Shu qatorda endigina Istanbuldan o'qishdan qaytgan Fitrat ham Buxorodan yana ma'lum muddat chiqib ketishga majbur bo'ladi. F. Xo'jayev uning Ota Xo'jayev

[308] Ko'chirma Ziyo Saiddan (Tanlangan asarlar. — T.: 1974, 38—39-betlar) olindi.

bilan birgalikda 1913-yilning oxiri, 1914-yilning boshlarida turli shaharlarda yangi maktablar ochish bilan shug'ullanganligini ma'lum qiladi, Shahrisabz va Karkidagi tashabbusini alohida tilga oladi. Shunga ko'ra, uning 1914-yillarning boshigacha Shahrisabz yoki Karkida bo'lganini taxmin qilish mumkin. Biroq 1915-yilga kelib, Buxoro jadidlarining o'z orasida ham ajralish yuz berdi. Chetda o'qib kelgan yoshlarni harakatning maorif va madaniyat bilan cheklanuvchi maqsadi ham, birgina maorif va matbuot, musulmonlarni insofga chaqiruv orqali unga erishishni ko'zlovchi vositalari ham qanoatlantirmay qo'ydi. Ular soliqlarni kamaytirish, dehqonlarning ahvolini yaxshilash, amaldorlarning o'zboshimcha-ligini cheklab qo'yish kabi siyosiy talablar bilan chiqishni taklif qildilar. Bu nuqtai nazar jadidlarga xayrixoh juda ko'p yoshlarga ma'qul bo'ldi. Shu tariqa jadidlarning o'zi «eski» va «yangi»ga – o'ng va so'lga ajraldi. O'ngga Abduvohid Burhonov, so'lga Fitrat bosh bo'lib qoldilar.

Fitratning bu qarashlari uning shu davrlarda yaratilgan va XX asr boshi publisistikasining, dramachiligining nodir namunalaridan bo'lib qolgan «Rahbari najot» (1915), «Oila» (1916), «Begijon»(1916), «Mavludi sharif»(1916), «Abo Muslim»(1916) kabi asarlarida aks etgan. Fitrat yangi maktablar va ularni yangi darslik-dasturlar bilan ta'min etishni ham esdan chiqarmadi. 1917-yilda Bokuda aka-uka Orudjiyevlar matbaasida chop etilgan «O'qu» kitobi bunga dalil. Uning «birinchi bo'lak» ekanligi ko'zda tutilsa, muallifning bu ishga katta reja bilan kirishgani ma'lum bo'ladi. Afsuski, yuqorida biz sanagan asarlardan ba'zilari hozirda yo'q. U haqdagi ma'lumotlar, fikr-mulohazalargina yetib kelgan. Lekin bu asarlarning deyarli hammasi o'z davrida juda yuksak baholangan. Masalan, bu kitoblarning yuzaga chiqishida «shaxsan moddiy yordam ko'rsatgan» F.Xo'jayev «Oila» va «Begijon»ni «mavjud tuzumni qattiq tanqid qilgan, uning barcha kamchiliklarini ayovsiz ochib tashlagan, amirlikning chirik sistemasini fosh qilib bergan» kitoblar qatoriga kiritadi.

1917-yil Fevral inqilobidan so'ng Buxoro jadidlarining so'l qanoti – yoshlar tashabbusi bilan yangi markaz tuzildi. Yosh buxoroliklar inqilobiy partiyasi tashkil topdi. Uning Markaziy Komiteti tuzildi. Abduvohid Burhonov — rais, Fitrat – sarkotib, Usmonxo'ja – xazinador, F.Xo'jayev va yana besh kishi

a'zo qilib saylandi. Yangi partiya Muvaqqat hukumatga tabrik telegrammasi va Rossiya-Buxoro munosabatlaridan kelib chiqib, amirni islohotga majbur etishni so'rab, Murojaatnoma qabul qildi.

«Muvaqqat hukumatdan amir va u yerdagi rus vakili Millerga tezlikda ko'rsatma ham keldi. Biroq islohot bo'lmadi. Uni men yozib bergan edim. Fitrat va Sayidjonov (1893—1938) imzo chekkan edilar», deb eslaydi F.Xo'jayev.

Ikkinchi bor telegramma yuborildi. Fitrat va Usmonxo'ja vakil qilib Petrogradga jo'natildi. Biroq Markazdan amir va jadidlar orasidagi nizoni bartaraf qilish uchun maxsus komissiya kelayotganligi ma'lum bo'lib qoladi. Vakillar Orenburgdan orqaga qaytadilar.

Harakatlar beiz ketmadi. Amir yon berdi. Islohot va'da qildi. Ayrim amaldorlar o'zgartirildi. Mamlakatni «shar'i sharif» bilan boshqarish, soliqlarni tartibga solish, «foydali ilm va fanlarni rivojlantirish», «turmadagilarni qamoqdan bo'shatish» haqida 1917-yilning 7-aprel kuni «Farmoni oliy» e'lon qilindi. Marosimda Samarqand taraqqiyparvarlaridan mashhur Mahmudxo'ja Behbudiy qatnashdi. Islohot bilan tabrik etdi. Yosh buxoroliklar Farmonni namoyish bilan kutib olishga qaror qildilar. Xiyobonda ko'p ming kishilik miting o'tkazildi. Namoyish amir saroyi oldiga — Registonga yo'l oldi. So'llik sonsiz qizil bayroqlaru mayda millat sanalgan eroniy, yahudiy, lezginlarning namoyishdagi faolligi mutaassib musulmonlarni g'azabga mindirdi. Amir sobiq chor hukumatining Buxorodagi vakillari Miller Shulga maslahati bilan bundan foydalandi. Qarshi hujumga o'tdi. Asosiy kuchlarni saqlab qolish, Turkistondan madad olish kerak edi. Fitrat ikki kishi bilan Toshkentga yo'l oldi. Buxoroda qolganlar yashirin ishlashga o'tdilar. Yosh buxoroliklar partiyasining Muhiddin Mansurov bosh yangi Markaziy Komiteti tuzilib, amir bilan muzokara olib boradigan bo'ldi. Muzokara muvaffaqiyatsiz tugadi.

Mana shunday kunlarning birida Petrogradda Oktabr hodisalari bo'lib o'tdi. Bu voqeaning Buxoroga qachon va qanday yetib kelganligi haqida bir narsa deyish qiyin. Lekin shunisi aniqki, u bu yerga Fevralchalik ta'sir ko'rsatmadi. Fayzulla Xo'jayev «Bizning tashkilotimiz avvaliga tushunmadi», «Muvaq-

qat hukumat ag'darib tashlanganligi to'g'risidagi xabarni eshitgan yosh buxoroliklar dastlab sarosimaga tushib qoldilar», deb yozadi va buni asoslashga harakat qiladi. Shuni hisobga olish kerakki, bu fikrlarning hammasi uning Buxoro inqilobiga doir kitobining ikkinchi nashridan olingan. Bu nashr esa Oktabrning obro'siga putur yetkazuvchi har qanday fikr quvg'inga uchrab, qarashlar yaqinlashayotgan qatag'on qolipiga tushirilayotgan 30-yillarda amalga oshdi.

Fitratning ham 25-Oktabrga munosabati o'sha yillar matbuotida aks etib qolgan. Masalan, samarqandlik jadidlar tomonidan 1917-yilning 15-aprelidan boshlab «Hurriyat»[309] gazetasi chiqadi. Unga dastlab Mardonqul Shohmuhammadzoda muharrirlik qilgan. Behbudiy, Siddiqiy-Ajziy kabi taniqli adiblar she'r va maqolalari bilan qatnashganlar. Hoji Muin tahrir Hay'atida ishlagan. 27-sonidan to oxirgi 87-sonigacha (1918-yil) gazetada Abdurauf Fitrat muharrirlik vazifasini bajargan. Mana shu gazetaning 1917-yil 49-sonida (7-noyabr) «Xabarlar» ruknida 25-oktabrda qishki saroyning egallanishi va Muvaqqat hukumatning qamoqqa olinishi munosabati bilan Fitratning «Rusiyada yangi bir balo bosh ko'tardi — bolshavik balosi!» - degan qaydiga duch kelamiz. Shoir so'ngroq bu voqeani «Yurt qayg'usi» sifatida baholadi.

Darhaqiqat, 1917-yil Fitrat uchun quvonch va alamga to'la yil bo'ldi. Oq podshoning qulashi unga tobe Buxoro va Turkistonda ham erkinlik, mustaqillik tomon yo'l ochgandek edi.

Biroq ma'lum bo'ldiki, uni qo'lga olish, egallash kerak ekan. So'ng esa ushlab turish. Buning uchun farzandlar kerak, o'zligini anglagan, esli, hushli va fidoyi. Adibning «Hurriyat» sahifalaridagi turkum maqolalari, badialari shu haqda.

«Ey, ulug' Turon, arslonlar o'lkasi! Senga ne bo'ldi? — deb xitob qiladi u. — Dunyoni «urho»lari bilan titratgan yo'lbars yurakli bolalaring qani? Nechun tovushlari chiqmaydir?.. Ne-

---

[309] Cho'lpon Fitratning bir qator ehtirosli she'rlari shu gazetada chop etilganini xabar qiladi. Endigina adabiyotga kirib kelayotgan iste'dodli shoir bilan nomi chetlarda ham mashhur adib orasidagi hamkorlik ham shu gazetadan boshlangan. Fitrat Cho'lpon yuborgan she'rlarni qo'llab-quvvatlaydi, ularga yuksak baho berib, ushbu gazetada bosib chiqaradi.

chun chekindilar? Nechun ketdilar? Kurash maydonlarin o'zgalarga nechun qo'ydilar?» (1917-yil 28-iyul).

«Bir o'zbek yigitining tilidan» (o'sha gazeta, 18-avgust) badiasida Vatan bosh-oyog'i yalang, tanasida adadsiz qamchi izlari, ko'ksidagi yaralaridan qon tomayotgan holsiz, darmonsiz ayol timsolida ifodalanadi. Bu timsol, bu xayol «o'zbek yigiti»ni tushida ham, o'ngida ham ta'qib etadi. O'zbek yigiti «g'amli ona — muqaddas Turon» xayoli bilan muroqabaga kirishadi. Undan ayrilmoqni o'zi uchun o'lim, uning uchun o'lmoqni esa tiriklik hisoblaydi. Uni qutqarmoqqa ont ichadi:

«Ustimga ilonlar emas, shaytonlar qo'shini kelsa, oyog'imga zanjirlar emas, jahannam ilonlari sorilsa, yana sen sari choparman. Dunyoning butun balolari boshimga to'kilsa, zulm cho'lining temir tikonlari ko'zlarimga kirsa, yana seni qutqaraman.

Men sening uchun tirildim, sening uchun yasharman, sening uchun o'lurman!..

O'lim sening o'liming istaganlarga, nafrat seni ko'mgani kelganlarga!»

Boshqa bir maqolasida esa «sharafi talangan, nomus-e'tibori, iymon-vijdoni oyoqosti bo'lgan», «yurti, ulog'i, o'chog'i» yot qo'llarga tushgan avlod nomidan buyuk bobokalon Temurga panoh izlab boradi (31-oktabr).

Ayni paytda, milliy mustaqil davlat tuzish g'oyasi Turkiston matbuotida qizg'in muhokama qilinib bordi.

Voqealar shiddat bilan davom etdi. Petrograddagi Oktabr o'zgarishidan ko'p o'tmay, 1-noyabrda Toshkentda rus bolsheviklari hokimiyatni qo'llariga oldilar. 15—22-noyabrda O'lka Sovetlarining III s'ezdi bo'lib o'tdi. S'ezd 15 kishidan iborat O'lka oliy hokimiyati Turkiston XKS[310]ni sayladi. 7 bolshevik, 8 «so'l» eserdan iborat 15 kishining hammasi yevropaliklar edi. Boshqacha aytganda, Turkistondagi yangi sovet hukumati rus bolshevik-eser, to'g'rirog'i, eser-bolshevik hukumati edi. Shu tariqa, 1917-yil 15-noyabrda Lenin va Stalin imzo chekkan «Rossiya xalqlari huquqlari deklaratsiyasi»dagi «millatlarning o'z taqdirlarini o'zlari belgilash huquqi», «barcha milliy va milliy-

[310] Xalq Komissarlari Soveti (Nozirlar kengashi)ni sayladi.

diniy imtiyozlar va cheklanishlarni man etish» haqidagi bayonot bir chetda qolib ketdi. Turkistonning 98 foizini tashkil etuvchi 10 million jon musulmonlarning xohish-irodasi bilan hech kim hisoblashmadi. Aksincha, «musulmonlarni o'lka oliy inqilobiy organiga kiritish «nomatlub» topildi».

Mana shunday bir sharoitda 26-noyabrda Qo'qonda o'lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi ochildi. Unda o'lkaning turli shaharlaridan 203 vakil ishtirok etdi. Muhimi shundaki, yig'in milliy va diniy cheklashlardan xoli bo'ldi. Hay'atga saylanganlar orasida yevropaliklar ham bor edi. 27-noyabr qoq yarim kechada qurultoy tarixiy qaror qabul qiladi. — Turkiston muxtoriyati tuziladi. Uning demokratik (hatto o'ta demokratik) asoslarda tuzilganini shundan ham bilsa bo'ladiki, umumo'lka aholisining atigi 2 foizini tashkil etgan yevropaliklarga 54 kishilik xalq boshqaruvi kengashining uchdan bir qismi (18 o'rin) ajratilgan edi.

Fitrat Turkiston muxtoriyatini so'ngsiz mehr bilan qarshi oldi. U e'lon qilingan 27-noyabr tunini «milliy laylatulqadrimiz» deb atadi. Iztirob to'la quvonchini bunday ifoda etdi:

«Ellik yildan beri ezildik, tahqir etildik. Qo'limiz bog'landi, tilimiz kesildi. Og'zimiz qoplandi. Yerimiz bosildi. Molimiz talandi. Sharafimiz yemurildi. Nomusimiz g'asb qilindi. Insonligimiz oyog'lar ostiga olindi. To'zimlik turdik, sabr etdik. Kuchga tayangan har buyrug'ga bo'yun sunduk. Butun borlig'imizni qo'ldan berdik. Yolg'iz bir fikrni bermaduk, yoshunturduk, iymonlarimizga o'rab saqladuk. Bu — Turkiston muxtoriyati!

Mahkama eshiklaridan yig'lab qaytganda, yoruqsiz turmalarda yotganda, yirtguch jandarmaning tepqusi bilan yiqilg'anda, yurtlarimiz yondurilg'onda, dindoshlarimiz osilgonda ongimiz yo'qoldi. Miyamiz buzuldi. Ko'zimiz yog'dusiz qoldi. Biror narsani ko'rolmadik. Shul chog'da tushkun ruhimizni ko'tarmak uchun, shul qop-qorong'u dunyoning uzoq bir yerinda oydin bir yulduz yalqillab tura edi. Biror narsaga o'tmagan ko'zimiz shuni ko'ra edi. Ul nima edi? — Turkiston muxtoriyati!» («Hurriyat» g., 1917-y. 5-dekabr).

Tabiiyki, uni saqlamoq, himoya qilmoq uchun kuch kerak edi. Fitrat buni ham xotirdan chiqargan emas.

Muxtoriyat Toshkentda ham aks-sado berdi. Shaharda xayrixohlik namoyishi bo'lib o'tdi. Buxoroda esa yosh buxoroliklarning amir bilan bahsi davom etardi. Kurash g'oyat keskinlashgan edi. Yosh buxoroliklar kuchlarni qayta saflab chiqdilar. 11 kishilik yangi Markaziy Komitet tuzildi. Partiyaning islohot haqidagi dasturiga ehtiyoj sezildi. Usiz ish yurmay qoldi.

Islohotlar loyihasini tuzish noyabrning so'ngi kunlaridan birida Fitratga topshirildi. Rosa ikki oy o'tgach, Fitrat loyihani Markaziy Komitetga taqdim etdi va bir oz tuzatishlar bilan qabul qilindi.

F.Xo'jayev o'z kitobida bu loyihaning asosiy nuqtalariga to'xtalgan. Binobarin, uni ham o'sha davr, ham bugungi kun nuqtai nazaridan ko'rib chiqish imkoni bor.

Avvalo, unda amirlikni saqlab, faqat mashrutiyatga — konstitutsion ma'rifatli monarxiyaga aylantirish asos qilib olingan edi. Ikkinchidan, katta e'tibor dehqonchilik va qishloq xo'jaligi masalalariga qaratildi. Haydaladigan yer uch guruhga — vaqf yerlarga, xususiy va davlat yerlari (amlok, xiroj)ga bo'linadi. Vaqf yerlarni boshqarmoq uchun alohida vaqf nazorati tashkil etish, ularning ishini maorif va ilm-fanning ravnaqini ta'minlaydigan shaklda qayta tuzish; shu orqali xalq maorifi va sotsial ta'minot uchun moddiy negiz vujudga keltirish, davlat yerlarini alohida shartlar bilan ijaraga berish; katta yer egalarining yerlariga solinadigan soliqlarni ko'paytirish; ekilgan va ekilmagan yerlarga solinadigan soliq miqdorini baravarlashtirish va shu orqali yerdan unumli foydalanishga yo'l ochish va h.k.

Muallif hatto Buxoroda qishloq xo'jaligi banki tashkil etish va uning bo'limlarini viloyatlarda ko'paytirib, shular orqali dehqonlarni sudxo'rlar changalidan qutqarish, ularga chetdan qishloq xo'jaligi mashinalari olib kelish, foydalanishni yo'lga qo'yish kabi masalalarni o'rtaga tashlagan edi. Bular ustidan ta'sis etilajakyer ishlari noziri nazorat o'rnatishi lozim edi.

Harbiy, moliyaviy ishlarga ham e'tibor berildi.

Harbiy burchni bajarish hamma uchun majburiy bo'lishi, 22 yoshga yetgan, vrachlar tomonidan sog'lom va yaroqli topilgan har bir yigit 2 yil xizmat qilishi shart qilib qo'yildi. Ularning moddiy ta'minotiga, ta'lim-tarbiyasini oshirib borishi lozimligiga, umuman bu sohada Yevropacha tartib-usullarni

qo'llashga diqqatni qaratildi. Harbiy ishlarning hammasi harbiy nozirlikka markazlashtirilishi lozim bo'lib, bunday nozirliklarning adadi o'ntaga yetar edi.

Loyihaning eng muhim nuqtalaridan biri adliya ishlarining shariat qonunlari asosida belgilanishi edi. Adliya noziri ayni vaqtda qozikalon bo'lib ham hisoblanardi.

Tabiiyki, loyihaning eng jiddiy kamchiligi, jumhuriyat g'oyasining yo'g'ligi, parlamentarizmning chetlab o'tilgani edi. Lekin juda ko'p jihatlarining xalq hayotini yaxshilash yo'lida xizmat qilishiga shubha yo'q edi. «Bundan tashqari, -deb yozadi F.Xo'jayev, — u dinbuzarlar deb to'nkalgan aybni yosh buxoroliklar ustidan olib tashladi, bu esa aholi orasidagi barcha tabaqalarning jadidizmga munosabati uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi va kontrrevolyutsion tashviqotning asosiy qurolini ruhoniylar qo'lidan urib tushirdi» (138-bet).

Bunga shuni qo'shimcha qilish mumkinki, Fitratning din va shariatga bu qadar e'tibor berishi uning inqilobdan keyin yozgan bir qator asarlarida ateizmni ko'rishga moyil bo'lgan ayrim tadqiqotchilarimizning nohaq ekanliklarini ta'kidlaydi. Darvoqe, uning 1917-yilda chiqqan «Tarixi islom» asari ham bunga shohid. Dasturning o'ziga keladigan bo'lsak, u o'shanda ma'lum sabablarga ko'ra amalga oshmay qoldi, so'ngroq F.Xo'jayev uni yana bir ko'rib chiqdi. Shunga qaramasdan, dastur yosh buxoroliklarning ijtimoiy charxlanishida katta rol o'ynadi.

Mashhur «Kolesov voqeasi» ahvolni murakkablashtirib yubordi. Bu voqeaning tafsiloti hammaga ma'lum. Turkiston XKSning raisi F.I.Kolesov 1918-yilning fevralida Ashxobodga o'ta turib, Kogonda to'xtagan edi. U yerdagi rus inqilobchilari va yosh buxoroliklar amirga qarshi birgalikda kurashmoq uchun Kolesovdan yordam so'raydilar. Bitim tuziladi. Harakat rejasi ishlab chiqiladi. Turkiston hukumati yosh buxoroliklarni qurol-yaroq bilan ta'minlashi, belgilangan vaqtda ularning Eski Buxoroda qurolli qo'zg'olon boshlashlari kelishib olinadi. Qizil askarlar temir yo'l yoqasida yordamga shay bo'lib turishlari lozim edi. Yosh buxorolilar o'zlarini shu damdan boshlab partiya deb rasman e'lon qiladilar. Qo'zg'olon rejasi atroflicha muhokama etiladi. Unga rahbarlik qilish uchun 7 kishilik inqi-

lobiy qo'mita saylanadi. Qo'mita raisi F.Xo'jayev, a'zolaridan biri esa Fitrat edi.

Shu orada «Qo'qon voqeasi» sodir bo'ldi. 19–20-fevralda Qo'qon va uning atrofi Turkiston harbiy komissari E. Perfilev buyrug'i bilan ozodlik va inqilob shiorlari ostida qonga botirildi. Ayrim manbalarga ko'ra, shahar uch kun yongan. 10 mingdan ortiq turkistonlik c'ldirilgan. Siyosat uchun Farg'ona vodiysidagi 180 qishloqqa o't qo'yilgan. Yerli xalqdan Marg'ilonda 7000, Andijonda 6000, Namanganda 2000, Bo'zqo'rg'on va Qo'qon-qishloqda 4500 ga yaqin kishi o'ldirilgan.[311]

Menshevik X. Vaynshteyn Toshsovetning 23-fevral yig'ilishida Perfilevni chor generali Kuropatkindan farqsiz topadi. Sinfiy kurashni milliy kurashga aylantirgan, chor hukumatigina jur'at etgan usullarni qo'llagan hukumatni qattiq tanqid qiladi. Barcha aybdorlarni qattiq javobgarlikka tortish uchun darhol komissiya chaqirishni talab etadi[312]. Tabiiyki, Turkistonning qonuniy, demokratik asoslarda tuzilgan hukumatini bu qadar shafqatsizlik bilan tugatishda F.I.Kolesovning katta «xizmati» bor edi.

Toshkentdan rus eser-bolshevik hukumati – Turkiston XKS raisi sifatida E.Perfilevni Qo'qonga yuborgan va uni har jihatdan ta'minlab turgan mana shu Kolesov edi. Bular Turkiston muxtoriyatiga juda katta umid bilan qaragan yosh buxoroliklarning amirga qarshi birgalikda kurashlariga ta'sir etmay iloji yo'q edi.

F.Kolesov Qo'qonni «tinchitgach», Buxoro bilan «shug'ullandi». Yosh buxoroliklarga bitimda kelishilgan qurol-yarog' berilmadi. Qurolli qo'zg'olon ichdan emas, sirtdan boshlandi. Bu hol xalq bilan uning chinakam xaloskorlari orasida o'tib bo'lmas choh maydonga keltirdi. Aholi Buxoroga bostirib kelayotgan qurolli qizil askarlarni ko'rib, yo'q, bu xalqning norozilik harakati emas, g'ayridinlarning, ajnabiylarning Buxoroi sharifga bostirib kirishi deb bildi. Ularning yonida yurgan yosh buxoroliklar o'z-o'zidan dinini, Vatanini, iymonini o'risga sotayotgan eng qabih kishilar bo'lib ko'rindi.

---

[311] Ш.Шомагдиев. Очерки истории гражданской войны в Ферганской долине. – Т.: 1961, 54–56 с.

[312] M.Hasanov. Turkiston muxtoriyati: haqiqat va uydirma, «Fan va turmush» j., 1990, 11-son.

Xullas, F.Kolesov va F.Xo'jayevning 24 soat ichida hukumatni tarqatib, o'rniga yosh buxoroliklarning ijroqo'mini tayinlash haqidagi ultimatumi amalga oshmadi. Amir g'azabga minib, hujumga o'tdi. Kolesov Toshkent tomon chekinishga majbur bo'ldi. Ta'qib Karmanagacha davom etdi. Amir yosh buxoroliklarni, loaqal ulardan uchtasini — F.Xo'jayev, Fitrat, Burhonovni tutib bersagina, ta'qib va qirg'inni to'xtatishini aytdi. Toshkentdan yetib kelgan Kolozayev otryadigina ularning joniga ora kirdi, Kolesov qo'shini va ular bilan birga bo'lgan yosh buxoroliklar omon qoldilar. Biroq taraqqiyparvarlarning Buxoroda qolgan qismi qatag'on qilindi. 3000 ga yaqin kishining qoni to'kildi. Shu tariqa «Kolesov voqeasi» deb nomlangan 1918-yil martidagi bu fojia yosh buxoroliklar harakatining tormor bo'lishi bilan yakun topdi. Omon qolgan yosh buxoroliklar Kolesov bilan 1918-yilning 17-martida Samarqandga yetib kelgan edilar. O'sha yilgi Turkistondagi qahatchilik ularni turli tomonga tarqab ketishga majbur qildi. Ayrimlari nobud bo'ldilar. Bir qismi Samarqandda qoldi. Katta qismi (400 ga yaqin) Toshkentga keldi. Ayniy tarjimai holidan ma'lum bo'lishicha, u 1918-yilning 22-aprelida Toshkentga kelib, 6 oy yashagan.

Xullas, yosh buxoroliklarning jon saqlab qolgan qismi, asosan, Samarqand va Toshkentda panoh topdi. Ularning ham bir qismi siyosatdan uzoqlashib ketdi. Shunga qaramay, bu ikki shaharda mazkur harakatning ikki markazi maydonga keldi. Toshkent markazi zaminida Buxoro kommunistik partiyasi tuzildi. 1918-yilning 25-sentabrida uning Markaziy komiteti ham saylandi. Fitrat va F.Xo'jayev Toshkentga kelgan edilar. F.Xo'jayev yozadi:

«Fitrat partiya va siyosiy ish bilan aloqani garchi rasmiy ravishda uzmagan bo'lsa ham, ammo madaniy-oqartuv ishlariga butun vujudi bilan berilib ketib va ayni vaqtda Afg'oniston elchixonasi xizmatiga kirib, partiyada faol ishlamay qo'ydi.

Men o'zim o'sha vaqtda Turkistonda emas edim, vakolatlarimni gardanimdan soqit qilganimdan keyin Moskvaga ketib qolgan edim».

Fitrat ham Toshkentga Ayniy singari 1918-yilning aprelida kelgan bo'lishi kerak. U turgan manzil 1937-yil 22-iyulda tuzilgan «Mahbuslik anketasi»da Toshkent shahri, Guliston mahal-

lasi, 116-uy deb ko'rsatilgan. Taniqli jurnalist A'zam Ayyub 1918-yilda Xadradagi maktabda Fitrat qo'lida o'qigan. Maktabda «Yosh yurak» nomli bolalar uyushmasi va uning qo'lyozma majallasi bo'lgan. Binobarin, Fitratning Toshkentdagi faoliyati o'qituvchilikdan boshlangan deb taxmin qilish mumkin. Cho'lpon yuqorida qayd etilgan ko'rsatmasida uning Fitrat bilan birinchi uchrashuvi 1919-yilning boshida Toshkentda bo'lganini ma'lum qiladi. 1919—1920-yilda esa u Afg'onistonning Toshkentdagi elchixonasida tarjimonlik vazifasida rasmiy xizmatda bo'lgan. IIXK (DXK) materiallaridan:

«So'zlarga qaraganda, elchixonaning rahbarlari bilan juda yaqin munosabatda bo'lgan. Afg'onistonning yirik davlat arboblari Mahmud Tarziy va uning shogirdi Abdul Haddixon haqida nihoyatda baland fikrlar bildirgan».

Shuningdek, ayrim hujjatlarda Fitratning Afg'onistonning Turkistonga yuborilgan 1919-yildagi vakillaridan general Mirzo Muhammadxon bilan yaqin munosabatlari tilga olinadi.

Yangi rus-afg'on munosabatlari endigina yo'lga qo'yilayotgan paytlar edi.

Xususan, 1919-yilda Omonulloxon afg'on taxtiga chiqqach, bu aloqa amaliy tus oldi. Uning o'z qaynotasi «Yosh Afg'onlar» harakatining g'oyaviy rahbari, «Sirojul axbor» jaridasining noshiri va muharriri, taraqqiychilar sardori Mahmud Tarziy (1868—1935)ga ixlosi baland edi. Shu sababli taxtga chiqishi bilan uni Tashqi ishlar vaziri etib tayinlaydi.

Omonulloxonning mirzosi Adbulrahimxon valadi Abdulqayum bosh vakolat Hay'ati Toshkentga keladi. Unga javoban 1919-yil 15-iyunda RSFSR tashqi ishlar xalq komissarligining vakili N.Z.Bravin boshchiligidagi vakillar Hay'ati Afg'onistonga yo'l oladilar.

Omonulloxon bilan uzoq muzokaralar olib boriladi. Va bularning natijasi sifatida Kobul, Hirot, Mozori Sharifda RSFSR elchixonalari ochiladi. N.A. Bravinga muovin tayinlanib borgan Turkiston Markaziy Ijroiya komiteti a'zosi Abdulla Avloniy 1919-yilning 26-oktabridan 1920-yilning 28-iyuliga qadar RSFSRning Hirotdagi muxtor elchisi bo'lib turadi.

Aloqalar muntazam tus olgan. Masalan, Avloniy 1919-yilning 13-avgustida afg'on amirining juda katta vakolati bilan

Turkistonga kelayotgan general Mirzo Muhammadxon boshchiligidagi vakillar Hay'atini Afg'onistonning Zarsang mavzeida uchratganini xabar qilgan edi[314]. 20 kishilik bu Hay'at tarkibida tarjimon sifatida o'z yurtiga kelayotgan shoirimiz Muhammadsharif So'fizoda ham bor edi.

Avloniy «Afg'on sayohati»da vakillarimiz nomidan Hay'at qo'liga yozib bergan xat nusxasini ilova qilgan:

Sana 1919 milodiy. 13-avqustus. Tufroq Afg'oniston. Raboti Zarsanga yozildi.

Rusiya Ishtirokiyun qo'mitasining Turkiston musulmonlarining markaz byurosina!

Zoti oliylaringizga ma'lum edaramki, ushbu zoti shavkatmaob Mirzo Muhammadxon general Afg'oniston amiri tarafi oliylarindan buyuk vakolat ila bizim Turkistona tashrif buyurajaklar.

Muhtaram afandilar! Har holda bu zoting ehtiromlarin erina eturuvingiza aminam.

Boqiy ehtirom.

Rusiya Sho'rolar Jumhuriyatining Afg'oniston vakillarindan. Imzo.[315]

Afsuski, Fitratning 1919–1920-yillardagi Afg'onistonning taniqli siyosiy va madaniy arboblari bilan bo'lgan muloqotlari tafsilotlari qo'limizdagi mavjud materiallarda yo'q. Ular haqda aniq so'z yuritish uchun qo'shimcha ma'lumotlar kerak. Lekin bir narsa aniq: Fitrat Turkiya singari Afg'onistonning ham siyosiy, madaniy-adabiy, maorif hayoti bilan yaqindan qiziqqan. Matbuoti va adabiyotidan muntazam xabardor bo'lib borgan. Maktublar almashib turgan. Keldi-ketdida uchrashgan, suhbatlashgan. Bunga shubha yo'q. U «Yosh buxoroliklar» partiyasining rahbarlaridan edi. Ijodkor sifatida esa uni Turkistonu Buxorodagina emas, Turkiya-yu Afg'onistonda ham tanir edilar. Uning afg'on elchixonasidagi 2 yillik rasmiy faoliyati adabiy-madaniy hamkorlikka, u orqali esa ikki mamlakat orasidagi yaqinlashuvga xizmat qilgan. Afsuski, adib uyida saqlangan Afg'on maorif nozirligining «Taqvim»i, yozishmalar, Afg'onistonning Toshkentdagi elchisi Muhammad Aslomjon, taniqli

[314] Abdulla Avloniy. Afg'on sayohati. «Sharq yulduzi» j. 1990-y., 7-son,194-b.
[315] O'sha yerda.

afg'on generallaridan Muhammad Valixon va Avloniy yordam ko'rsatishni iltimos qilib xat yozib bergan Mirzo Muhammadxon bilan suhbatlar 1937-yilda ayblovga xizmat qildirildi.

Fitratning Toshkentdagi eng katta ishlaridan biri «Chig'atoy gurungi»ni yo'lga qo'ygani bo'ldi. Madaniyatimiz tarixida alohida o'ringa ega, o'tmish merosimizni o'rganish va ulardan xalqni bahramand etish, avlodlarni ajdodlarning o'lmas ruhiyati bilan bog'lashda benihoya katta xizmat qilgan bu jamiyat haqida, afsuski, haliga qadar haqqoniy gap aytilgan emas. Holbuki, uni atroflicha tekshirish va baholash payti allaqachon kelgan.

«Chig'atoy gurungi» 1918-yilning oxiri, 1919-yilning boshlarida yuzaga chiqdi. Va ta'kidlash lozimki, u allaqayoqdan olib kelingan emas, u shu yerda tashkil topgan. Ikkinchidan, qandaydir nolegal yoxud norasmiy emas, mutlaqo qonuniy, shu yer hukumatining — TASSRning «siporishi»(ijozati) bilan tuzilgan tashkilot. Shu joydagi Ishtirokiyun firqasi — TKP musulmon byurosining Turkiston xalqlari madaniy merosini to'plash va o'rganish haqidagi topshiriqini bajargan. Nihoyat, u — madaniy-adabiy tashkilot edi. Yo'nalishiga ko'ra islohotchilikni ko'zda tutardi. Fitrat madaniyatimiz taraqqiyotining bir ovozdan tan olingan eng yuksak cho'qqisi — Navoiy davrini ko'p jihatdan ibrat qilib oldi. «Jamiyat»ini ham hozirgi o'zbek xalqining XV asrdagi nomi bilan atadi. Ma'lumki, Chingiz zabt etgan yerlarning bir qismi, shu jumladan, hozirgi O'zbekiston sarhadi o'g'li Chig'atoyga mulk qilib berilgan va bu joylardagi xalqlar uning nomi bilan «Chig'atoy ulusi» nomlanib ketdi. Hokimiyat uning so'nggi avlodi Tug'luq Temurdan shahrisabzlik barlos Temurga o'tgandan keyin ham bu nom saqlanib qoldi. Muhammad Solih temuriylarning Movarounnahrdagi so'nggi hukmdori Zahiriddin Boburni ham «chig'atoy» deb ataydi. Buyuk Navoiy esa «chig'atoy lafzi» deganda eski o'zbek tilini, «chig'atoy xalqi» deganda hozirgi o'zbeklarning o'sha davrdagi vakillarini ko'zda tutadi.

Jamiyatning nomlanishida ham, uning o'z oldiga qo'ygan maqsad-vazifasida ham uzoq yillar o'quvchilar miyasiga quyib kelinganidek, o'tmishni qandaydir ilohiylashtirish, ayniqsa, uni qaysidir boshqa millatning madaniyatiga zid qo'yish yo'q edi.

Millat o'z qadr-qimmatini, tarix-taqdirini anglayotgan — uyg'onayotgan payt edi. Uyg'onish ota-onani, el-yurtni tanishdan. o'zlikni anglashdan, o'z tarixi, madaniyati bilan iftixor eta olishdan boshlanardi. Haq-huquq masalalari bundan keyingi gaplar edi.

Cho'lpon jamiyatning faol a'zolari sifatida quyidagi kishilarni ko'rsatadi: Fitrat, Qayum Ramazonov, Shorasul Zunnun, Elbek, Shokirjon Rahimiy, G'ulom Zafariy, Mirmulla Shermuhamedov, Qozi Yunusov, Cho'lpon, Botu, Sanjar Siddiqov, Mannon Ramziy, Uyg'ur.

Jamiyat faoliyatida til masalalari alohida o'rin tutdi. «Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir, bilasizmi? — savol qo'ygan edi Fitrat «Tilimiz» maqolasida va — Turkcha!» — deb javob bergan hamda o'z fikrini atroflicha isbot qilib ko'rsatgan edi. H.Boltaboyev tuzgan «Fitratning e'lon qilingan va nashrga tayyorlangan asarlari ro'yxati»da («Yoshlik» j. 1990-y., 4-son) uning Shokirjon Rahimiy va Qayum Ramazon bilan hammualliflikda 1918-yilda «Ona tili» (darslik) kitobini nashr ettirgani qayd etilgan. IIXK materiallariga ko'ra, aniqrog'i, Qayum Ramazonovning 1937-yil 29-iyuldagi so'roq protokolidan ma'lum bo'lishicha, ular ikkovlari birgalikda 1919-yilda «Bitim yo'llari» degan o'quv qo'llanmasi bosdirganlar. «Bitim yo'llari» imlo, to'g'rirog'i cho'zg'ilar — unlilar imlosi haqida edi. «Chig'atoy gurungi» qoshida maxsus imlo to'dasi ish olib borar edi. Jamiyat shu yili til-imlo masalalariga bag'ishlangan konferensiya uyushtirdi. Unda Fitratning o'zi ma'ruza qildi. Tilni millatning sha'nu sharafi, or-nomusi deb bildi. Uni ko'z qorachig'iday saqlashga, boyitish, taraqqiy qildirishga diqqatni qaratdi. Ayni paytda ona tilini chet so'zlar hisobiga emas, aksincha, usmonlilar singari ko'proq o'z imkoniyatlari hisobiga boyitish va taraqqiy qildirishni ilgari surdi. Shuningdek, turkiy tillar uchun singarmonizm hodisasi xos ekanligini aytdi. Sharq adabiyotining o'zgacha taraqqiyoti haqida fikr yuritdi. Bularning hammasi bir qolipga, xususan, marksizm andozalariga tushavermasligini yozdi. «Chig'atoy»chilar adabiy til, uning nazariy-amaliy masalalari bilan shug'ullandilar. O'tmishga, xususan chig'atoy adabiyotiga katta ixlos bilan qaragan holda xalq tiliga, xalqona ifodaga, milliy zaminga alohida e'tibor berildi. Masa-

lan, she'rdagi hijo — barmoqning asli eski turkiy vazn ekanligini ilmiy asoslab, amaliy namoyish etdilar. «Barmoq vaznida she'rni boshlab Cho'lpon yozdimi, men yozdimmi — esimda yo'q. Faqat shunisi aniqki, barmoq vaznini nazariy jihatdan yoqlab chiqqan birinchi o'zbek millatchisi men edim», -deb yozadi Fitrat 1926-yilda.

«Chig'atoy»chilar millatning hayot va istiqboli uchun 50 yil davomida uzilib qolgan tarix bilan milliy-madaniy ulanish shart ekanligini teran his qildilar. Shuning uchun milliy maktablarga alohida e'tibor berdilar.

Biroq 20-yillarning ikkinchi yarmidan bunday harakatlarga siyosiy baho berish boshlandi.

1920-yil 9-aprelda «Tong» jurnalining 1-soni bosmadan chiqdi. U Toshkentda tuzilgan Buxoro kommunistlar firqasining nashriyot shu'basi sifatida maydonga keldi. Jurnalning tashabbuskori va muharriri Fitrat, tahrir Hay'ati esa Botu bilan Elbekdan iborat edi. Shiori: «Yashasin ilmiy, adabiy, ijtimoiy o'zgarish! Miya o'zgarmaguncha, boshqa o'zgarishlar negiz tutmas! Yashasin Sharq qutulishi!» so'zlari edi.

Jurnalda Fitratdan Cho'lponu Julqunboygacha — «Chig'atoy gurungi»ning barcha-barchasi ishtirok etdi. Biroq «Tong» majallasi 1920-yilning 15-mayida 3-soni chiqib, to'xtab qoldi. Shunga qaramasdan, katta ish qilib ketdi. «Bu jurnal til va imlo masalasiga juda katta ahamiyat berdi va bu yo'lda yaxshigina ishladi», — deb yozdi Ziyo Said va «turkchaning tugalligini, imlomizning uyg'unligini ko'rsatganligini, «Chig'atoy gurungi»ning yig'inlarini, «imlo yo'sinlarini to'plamoq uchun saylangan «imlo to'dasi»ning ishlarini» keng yoritib borganini, tilning tozaligiga, sofligiga e'tiborni qaratganligini alohida ta'kidladi».[315]

Cho'lponning guvohlik berishicha, Fitratning «O'g'izxon», «Chin sevish», «Hind ixtilolchilari» asarlari uning mana shu Toshkent davrida yozilgan. H.Olimjon ham 1936-yilning muhri bilan maydonga kelgan mashhur «Fitratning adabiy ijodi haqida» maqolasida keyingi ikki dramani 1920-yillarga to'g'ri keladi deb ko'rsatadi. «Temur sag'anasi»ning ayrim lavhalari

[315] Ziyo Said. Tanlangan asarlar. — T.: 1974, 81—82-b.

«Hurriyat» gazetasining 1917-yilgi sonlarida bosilgan edi. «O'g'izxon», H.Boltaboyev aniqlashicha, bosilmagan.

«Chin sevish» va «Hind ixtilolchilari» 1920–1923-yillarda chop etilgan. Har ikkisining mavzui bitta — Hindiston ozodligi. Shunga ko'ra, bu ikki asarni H.Olimjon bir asarning ikki varianti deb hisoblaydi. Bu ikki asarni to'g'ri tushunish uchun o'sha davr Hindistoni bilan Turkistonning ahvoli va masalalarini sal esga olmoq kerak bo'ladi. Avvalo, voqealarni boshqa yerga ko'chirish yangilik emas. Masalan, zamondoshi mashhur turk adibi Abdulhaq Hamidning 31 pesasidan birortasi ham Turkiya hayotidan olingan emas. Vatandoshi Abdulla Avloniy dramalaridan biri 1908-yilgi yosh turklar, ikkinchisi 1910-yilgi Portugaliya inqilobi haqida. Ikkinchidan, XX asr boshlarida sharq mamlakatlaridagi mustamlakachilikka qarshi milliy ozodlik harakatlarini kuchaytirib yubordi. Shu jumladan, Hindistonda ingliz mustamlaka zulmiga qarshi kurash avj oldi. 1918–1919-yillarda dastlab Bengaliyada, so'ng Amritsarda xalq g'alayonlari qonli to'qnashuvlar bilan tugadi. Bu voqealar haqida jahon matbuotida maqolalar paydo bo'ldi. Jumladan, hindistonlik Jabbor Qahhoriyning «Hindistonda ixtilol harakatlari» sarlavhali maqolasi Istanbulda «Axuvvat» majallasida bosilib chiqdi. «Ishtirokiyun» gazetasi 1919-yil 14-aprel sonida uni o'zbek tilida bosib chiqardi. Turkistonliklar, binobarin, Fitrat ham Hindistonda yuz berayotgan voqealardan xabardor edilar.

To'g'ri, hindlarning ingliz mustamlakachilariga qarshi olib borgan ozodlik kurashi ko'p hollarda Maxatma Gandining «satyagraha» (kuch ishlatmasdan kurashish) shaklida, ya'ni tinch namoyishlar o'tkazish, mustamlaka tovarlarini boykot qilish, rasmiy mansab-unvonlardan voz kechish, soliq to'lashdan bosh tortish kabilar orqali amalga oshirildi. Tabiiyki, hukumat itoat etmaslik bilan qarshilik ko'rsatishga zo'ravonlik bilan javob berdi. Masalan, 1919-yil 13-aprelda Amritsarda tinch miting qatnashchilari o'qqa tutildi. 2000 ga yaqin kishi halok bo'ldi. Kurash yana avj oldi.

Turkistonda 1917-yil Fevral, Oktabr o'zgarishlari milliy mustaqillik masalasida hech narsa bermadi. Bu yo'ldagi urinishlar (masalan, Turkiston muxtoriyati) shafqatsiz zarbaga uchradi. Oqibat shu bo'ldiki, birinchidan, Turkistonning mahalliy tubjoy

xalqiga o'z taqdirini o'zi hal qilishiga yo'l berilmadi. Ikkinchidan, hokimiyat Turkistonliklar qo'liga tegmadi. Hokimiyat chor mustamlakachilaridan sovet mustamlakachilari qo'liga o'tdi. Eng yomoni bularning hammasi mahalliy xalq, ishchi-dehqonlar nomi bilan qilindi. Targ'ibot mashinasi ishga tushirilib, tenglik, erkinlik, baxt-saodat haqida quloqlariga quyila boshlandi. Oktabr sarhad olinib, tarix qoq ikkiga bo'lib tashlandi: undan oldini — qop-qora, keyini — oppoq.

1920-yilgi Buxoro inqilobi-chi? To'g'ri, Fitrat u paytda Buxoroda yo'q edi. Lekin 1921-yilda Buxorodagi mehmonxonasida Cho'lpon sharafiga berilgan ziyofatda Sharifjon qozining[316] haqli e'tirozlariga javoban «Axir biz bunaqa inqilobni istagan emasmiz, taqsir!» — deydi. Va bu gap mash'um 37-yilda jiddiy ayblovlardan bo'lib ishga tirkaladi.

Darvoqe, Fitratning 20-yillardagi she'rlarida ham inqilob va uni idrok etish asosiy o'rin egallaydi. Masalan, 1922-yilda bosilgan «O'zbek yosh shoirlari» to'plamidagi «Mirrix yulduziga» she'rida shoir yulduz bilan sirlashadi. Yerdagi tubanliklar, xo'rliklardan so'z ochadi.

Ular timsolida asllikning buzilishini, tabiiy go'zallikning, mukammallikning poymol bo'lishini ko'radi. Shoir yulduzga murojaat qiladi:

Bormi senda bizim kabi insonlar,
Ikki yuzli ish buzarlar, shaytonlar.
O'rtoq qonin qonmay ichgan zuluklar,
Qardosh etin to'ymay yegan qoplonlar?
Bormi senda o'ksiz yo'qsulning qonin
Gurunglashib, chog'ir kabi ichganlar?

«Dunyo tuzugini» o'z qopchug'larini to'ldirish uchun» buzganlar, «qorin-qursoq yo'lida elin-yurtin, borin-yo'g'in» sotganlar bormi u yerda?

Mana u ko'rgan millatlar tengligi:

---

[316] Buxoroning taraqqiyparvar kishilaridan, qozikalon ham bo'lgan. 1918-yilda amir qamoqqa olgan edi.

Bormi senda bir o'lkani yondirib,
O'z qozonin qaynatg'uvchi xoqonlar...

Ikkinchi bir she'rida («Sharq») o'lkaning yaxlit, umumlashma obrazi chiziladi. U, shoir ta'rificha, dunyoning eng go'zal boqchasidir. Uni go'zallikda hech bir joy bilan qiyos etib bo'lmaydi. Jannatlar uning atrofida. Uning gullari jon suvidan yetilgan. Saf tortgan ko'm-ko'k yog'ochlar mumtozlik haqqi uchun Tangriga topinishga ko'kka intiladilar. O'ngdan, so'ldan — har yondan ko'rkam haybatli tog'lar qurshagan. Yo'q, ular tog'lar emas, haq yo'lida kurashga yasov tortgan alp askarlardir. Biror yovvoyi hayvon yirtqich tishini, tirnog'ini suqib qolmasin, deya uni Tangrining o'zi yorlaqab, tegrasidan aylangan suv, muz, tog' qo'rg'oni bilan muhofaza etadi.

Biroq bugun esizlarkim, bu o'lka,
Har tomondan talanmishdir yo'lsizcha.
Madaniyat degan G'arbli olbosti,
Boqing, buning ko'kragidan o'q bosdi.

Hozircha, manzara umumiy. Go'yo shiddatli bir dovul kelgan-u bundagi go'zallikni barbod qilgan. Bu dovulning ismi — «madaniyat». Nega «madaniyat»? Madaniyat hayotning mazmunli bo'lishiga qaratilgan emasmi? Gap nomda emas, mohiyatda. Inqilob xalq uchun, xalqning nomi bilan amalga oshgan edi. Oqibat-chi? Insondagi insoniylik barbod bo'lib, yovvoyilik, yovuzlik junbushga keldi. Bir-birini yo'q qilishga tushdi. Hayvondan xor bo'ldi. Bu inson emas, iblis (olbosti) a'molidir. O'lkaning ko'ksiga o'q qadagan o'shadir.

Shoirning fikrlash tarzi — shunday.

Manzara asta-sekin oydinlashib boradi. Yongan qishloqlar, omonsiz talanganlar, qon to'la ariqlar o'rnini tafsilotlar oladi:

To'rt-besh yashar bir bolaning boshini,
Boqing, keskin qilich bilan kesmishlar.
Yig'lab turg'on onasining bo'ynig'a
Bir ip bilan osmishlar...
Yangig'ina kelin bo'lg'on bir qizning

Ko'kragini, eri bo'lg'on yigitning
Jonsiz yotg'on gavdasi urza qo'yub
Nayza bilan teshmishlar...
Xotunlarning pardasi,
Bolalarning yuragi,
Qarilarning gavdasi
Yorilg'on,
Ezilgon...
Shoir so'roqqa tutadi:
Kim bergan
Bu o'g'urli o'lkaga buncha o'tni?
Kim to'kkan
Bu muqaddas ishga buncha qonni?
Bilmaysizmi?!

Bu dahshatlarning bunyodkori kim? «Tulki bilan shayton»ga dars bergan» «mal'un» kim? So'roq beradi shoir va «Anglizlar!» «hamda uning quyrug'ini tutganlar!» — deb javob beradi.

Qay yer bu o'lka? Hindmi, Afg'onmi, Turkistonmi? «Angliz»-chi? U shartli emasmikin? She'rni, albatta, kengroq ham, torroq ham tushunish mumkin. Ya'ni «Sharq-G'arb», Turkiston-Rus shaklida ham anglash mumkin. To'g'riroqi ham keyingisi bo'lsa kerak. Va bunga yetarli asos bor edi. Uzoqqa borish shart emas, Qo'qon fojiasini eslash kifoya.

IIXK materiallaridan:

Ayblanuvchi Muinjon Aminovning 1937-yil 16—20-aprel tergovi protokolidan ko'chirma.

Muinjon Aminov, 1890-y. tug'ilgan, buxorolik. O'zKP(b) ning 1919—35 da sobiq a'zosi. Ilgariroq aksilinqilobiy «Ittihod va taraqqiy» tashkiloti a'zosi. BXShJ (Buxoro Xalq Sho'rolar jumhuriyati) davrida BXShJ Ijroiya qo'mitasining muovini, Buxoro Chekasi raisi va ichki ishlar noziri.

Savol: haligi yig'inlarda, yig'in qatnashchilarining o'zaro gap-so'zlarida uchragan millatchilik va uning ko'rinishlari haqida aytib bering.

Javob: Fayzulla Xo'jayev bu poemalardan tashqari Fitratning chop etilmagan (ma'lumot beruvchi adashyapti — B.Q.), O'zbekiston ozod, yashnagan, lekin uni bo'g'moq uchun dush-

man qo'l cho'zayotgan bir mamlakat sifatida ko'rsatilgan «Mana, sizga bir o'lka» (biz yuqorida ko'rgan she'rning dastlabki satri shunday boshlanar edi – B.Q.) poemasi (aslida poema emas, uzunroq she'r)dan qattiq ta'sirlangan. Poema mazmuniga ko'ra, bu dushman qo'l RSFSR, lekin poema matnida u pardalanib «Angliya» yozilgan. Bu poemani Fayzulla Xo'jayev iltimosiga ko'ra xalq artisti Qori Yoqub ijro etadi.

So'roq qildi: DXB 4-bo'limining 4-bo'lim boshliqi DX katta leytenanti Lasis.

To'g'ri: Trig'ulov (imzo).

Fitratning yuqoridagi ikki dramasiga qaytaylik. Birining nomi bevosita «Hind ixtilolchilari (qo'zg'olonchilari)» deb atalgan. Ikkinchisiga («Chin sevish») muallif «Hind ixtilolchilari turmushidan oling'on» deb izoh beradi. Ularni bir asarning ikki varianti emas, bir mavzudagi ikki asar deyish to'g'riroq. Dastlab «Chin sevish» yozilib, 1920-yilda chop etilgan. Ikkinchisining yozib tugatilganini muallif 1920-yil deb ko'rsatadi. 3-yil keyin Berlinda bosilgan (H.Boltaboyev aniqlashicha, o'sha yili o'zimizda ham chop etilgan).

«Chin sevish» janrini muallif «ishqiy-hissiy fojia» deb belgilagan. Markaziy qahramonlari yosh faylasuf yigit Nuriddinxon, sevgilisi Zulayho, uning otasi Karimbaxsh, boyvachcha Rahmatulloxon, ingliz yuzboshisi Vilyamlardir.

Asar Karimbaxsh uyidagi suhbat bilan boshlanadi. Unikiga boyvachcha Rahmatulloxon kelgan. Boyvachcha Zulayhoga xaridor. Suhbat aylanib Ovrupoga taqaladi. Bularning ko'pchiligi o'sha yoqda o'qib kelganlar. Lekin gap birgina o'qishda emas ekan. Bunday qarashsa, o'qigan ham, qo'yingki, o'qituvchining o'zi ham yovuz bo'lishi mumkin ekan. Agar yovuzlik aql va bilim bilan birlashsa, to'g'rirog'i aql va bilim yovuzlikka xizmat ettirilsa-chi?

Karimbaxsh bir vaqtlar Ovuruponi maqtardi. Endi, yo'q. Fikri o'zgargan: «Ovrupoda bilim bor, lekin insof yo'q. Ovruponing bilimi qoplonning tishi, tirnog'i kabi bir narsadir. Kuchsizlarni yirtib yemak to'g'risida ko'p ish ko'rmishdir...».

Fotimaxonim hayron:

«Bukung'acha Ovrupoda o'qimoqni maqtashdan tilingiz tinmas edi. Bu kun u so'zingizdan qaytib qolibsizmi», – dash-

nom beradi Fotimaxonim. «Qaytg'onim yo'q, — javob qiladi Karimbaxsh. — Ovrupo ishlarini o'rganmak, albatta kerakdir. Ovrupoda o'qimoq ovrupolilarni insofli, adolatli deb maqtamoq uchun emas, ulardan o'zimizni saqlamoq, tishli, tirnoqli bo'lish uchun kerakdir...

Ovrupoda o'rganib kelganimiz bilimlarni kishilik dunyosining yuksalishi va tinchligi yo'linda ishlatish qulaydir... butun Ovrupo musulmonning yovidir. Yovlarning eng buyugi, eng qo'rqinchlisi inglizdir».

Avvalo, ma'rifatchilik talqinining butunlay o'zgarganiga diqqat qilaylik. Sal ilgari vatandoshlarimiz nazdida Ovrupo ideal, ilm-ma'rifatga timsol edi. Ko'z ochilgan sayin boshqa manzara namoyon bo'la boshladi. Ularning og'zidagi gaplari bilan qilayotgan ishlari o'rtasidagi jarlik tobora ravshanroq ko'rina boshladi. Lekin buni ko'rishda ham hamma bir xil emas. Masalan, Rahmatulloh oldingi qarashidan zarracha qaytgan emas. U hali ham Ovruponi ustoz deb biladi. O'rgangan har bir narsasi uchun uning oldida o'zini qarzdor hisoblaydi. Ovrupolilar orasida musulmon bo'layotganlari borligini, masjidlar qurayotganligini hayajon bilan gapiradi. Lekin Karimbaxshning o'z nuqtai nazari bor. Uningcha, inglizlarning «masjid yasamoqlari Ka'bani buzmoq uchundir».

Tabiiyki, M.Muropiyevning 1882-yildagi «musulmonlarimiz maorifi uchun asos qilib olinishi shart bo'lgan birinchi bosh prinsip... islomni buzish» («Туркестанский сборник», том 361, стр. 144) degan so'zlari, general gubernator Kuropatkinning 50-yil Turkiston aholisini ma'rifatdan chetda saqlagani haqidagi mashhur e'tirofi esga tushadi.

Karimbaxsh o'z fikrida yakka emas. Bu fikr aslida hind ixtilolchilari kelgan haqiqat. Chunonchi, Nuriddinxonning do'sti Sarvarxon shunday deydi: «Biz musulmonlar, yolg'izgina aldanmoq uchun dunyoga kelibmiz chog'i... boyimiz, ishchimiz, mullomiz, shogirdimiz, yozuvchimiz, o'qituvchimiz, shoirimiz, faylasufimiz, kattamiz, kichigimiz Ovruponing gazetasiga, kitobiga, so'ziga, ishiga, qonuniga, vaziriga, oltuniga, qiziliga aldanmoqdan bo'lak ishni bilmaydir».

Oila masalasida ham Karimbaxshning o'z «falsafasi» bor. Masalan, u qiziga sovchi kelganda, deydi: «Erga bermak to'g'-

risida erk va ixtiyor qizning o'zindadir. Bir qizni bir yigitga kuchlab yuborurga ota-onaning haqlari sira yo'qdir. Bizning ishimiz qizimiz yoqtirgan yigit to'g'risinda qizimizning foydasin ko'zda tutib, tushunmak, qizimiz o'ziga zararli bir yigitni saylagan bo'lsa, unga mantiqiy o'gutlar bermakdir».

Nuriddin-chi? U — ixtilolchi. Vatanini dil-dildan sevadi. Uning o'zgalar oyog'i ostida toptalishidan qattiq iztirob chekadi. Uning hayoti to'la tahlika. Bir tomonda inglizlar. Ikkinchi tomonda — Rahmatulloga o'xshaganlar. Peshovarda bir ingliz o'ldirilgani uchun Dehlida harbiy holat e'lon qilingan. Shu bahona «Vatan!» degan hindining bari qo'lga olinmoqda. Rahmatulloxon Zulayho tufayli uni yo'qotish rejasi bilan band. Nuriddinxon ko'nglida esa bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketgan ikki xayol, bir timsol bor: Vatan va Zulayho. Zulayho va Vatan. U qamoqda ekan, bu tuyg'u yanada kuchayib boradi. «Chin oshiqlar ma'shuqalarining o'zi bilan emas, xayoli bilan yashaylar», — deydi u. Darhaqiqat, unda ikki ishqiy-hissiy holat, ma'shuqa bilan ruhiy birlikni anglash kuchli. Shu ma'noda u ma'lum so'fiyona mazmunga ega. Ayrim jihatlari bilan u Hindistonning buyuk faylasuf shoiri, inqilobni inson ruhiyatiga ko'chirgan Muhammad Iqbolni esga tushiradi. Sharq ozodlik harakatida, Javoharla'l Neru aytganidek, «ishonchli ma'naviy suyanchiq» bo'lgan bu shoirning she'rlari, xususan, «Asrori xudi» («O'zlik sirlari», 1915), «Rumuzi bexudi» («Bexudlik ramzlari», 1918) dostonlaridan Fitratning bexa-bar bo'lgan bo'lishi mumkin emas. «Hind ixtilolchilari»da uning nomi tilga olinib, she'rlaridan namunalar keltirilgani bunga dalil.

Darvoqe, shu o'rinda ushbu asardan yulib olinib, uzoq vaqt Fitratning «millatchiligi»ga dastak bo'lib xizmat qilgan bir gapiga ozgina to'xtalsak.

Qadim yunonlar ishqni Aflotun va Epikur nomlari bilan bog'lab ikkiga ajratgan edilar. Biri — hissiy, ikkinchisi, qo'pol-roq aytganda, jinsiy mazmunni ifoda etardi. Buni Sharqdagi «xos» ishqi va «avom» ishqi tushunchalariga o'xshatish mumkin. Tasavvufda hissiy-ruhiy jihat — xos ishq ajratib olinib, chuqurlashtiriladi. Binobarin, «ishq»ning «jinsiy» jihati uning eng quyi bosqichi sifatida qaralgan. Darhaqiqat, bu jihatdan aqlli-aqlsiz jonzotning farqi, deyarli yo'q. Tirik jon borki — bir.

Insonning insonligi mana shu nuqtadan ko'tarilishdan boshlanadi. Mug'oyasa davom ettirilsa, jismoniy huzur hali u hayvoniy, chinakam insoniy farog'at bu ruhiy lazzat ola bilishdir.

Dramada shunday bir joy bor. Nuriddinxonning ukasi Ahmadxon Ovrupodagi «ishq» haqida gap ochadi. Nuriddinxon shunday javob qaytaradi:

«Ovruponi qo'ya ber. Ovrupoda hayvonlikdan boshqa narsa yo'qdir. Ovrupoda ruh yo'qdir. Ular ruhoniy lazzatdan bir nima anglayolmaylar. Chin sevish va haqiqiy ishqning tub yeri Sharqdir. Majnunlar, Farhodlar kabi ishq payg'ambarlari Sharqda yetishdilar. Bugun Ovrupongda ishq otini olgan hollar hayvonliq havaslardan boshqa narsa emasdur».

Qattiq, keskin va bir oz oshirib aytilgan, albatta. Lekin bunda eng kami ikki holni ko'zda tutish kerak: 1. Sharoit. Bu gap Yevropa imperializmi tajovuzkorlikka ruju qo'ygan, moddiy manfaat hamma narsaga mezon qilinib, ma'naviyat surib chiqarilgan bir paytda aytilmoqda. 2. Fitrat «ma'rifatchi» Rossiyaning, «madaniyatparvar» Yevropaning kirdikorlaridan ogoh edi. U mustamlakachilik zulmini hammadan ko'ra ham teranroq his qila olardi. Shu jihatdan, Yevropaga munosabatda unda bir oz alamzadalik bor. Bu ezilgan millatning ezuvchi millatga munosabatlaridagi tabiiy hol edi.

«Chin sevish» ko'p o'tmay, Toshkentda Mannon Uyg'ur tomonidan sahnaga qo'yildi. Cho'lpon u haqda «o'zbek sahnasi ulug' va ulug'ligi qadar yuksak ham go'zal bir tomosha ko'rdi» («Ishtirokiyun» g. 1920-yil, 25-noyabr), — deb yozdi. Vadud Mahmud esa uni «O'zbek sahnalarida shu kungacha o'ynalib kelgan pesalarning eng kuchlisi, eng buyugi» («Qizil bayroq» g. 1920-y. 12-dekabr) deb baholadi. Asarning shuhrati faqat Rusiya musulmonlari orasidagina emas, Turku Erondan Hindu Afg'ongacha yoyildi. Buni adib zamondoshlarining xotiralarida ham, o'sha davrda chiqqan taqriz-maqolalarda ham ko'rsa bo'ladi.

«Chin sevish»da boshlangan «Hindistonni tozartish» g'oyasi «Hind ixtilolchilari»da davom ettiriladi. Ikki yosh — Rahimbaxsh va Dilnavoz bir-birlarini sevadilar. Biroq yurtda erk yo'q. Vatan o'zgalar oyog'i ostida. Shu tufayli ular ham erkin emaslar. Bir kuni kuppa-kunduzi bosqin qilib, «Hukumatga qarshi

yashurin kengashasiz» deb ikki yoshni qo'lga oladilar. Rahimbaxsh qamoqqa tashlanadi. Dilnavozni Lohur po'lis boshlig'i Okunar ishrat uchun olib ketadi. Rahimbaxsh qamoqda yotib chiqadi va inqilobchilarga qo'shiladi. Do'stlari yordamida Dilnavozni qutqaradi. Biroq inqilobchilarning turgan joylari inglizlarga ma'lum bo'lib qoladi. Tengsiz jangda Dilnavoz Badrinat degan hindi inqilobchi bilan yana dushman qo'liga asir tushadi. Asar uning ozod qilinishi, hammalarining «Yurtimizni qutqaramiz! Yashasun istiqlol!» — degan xitoblari bilan yakunlanadi.

Dramaning qisqacha mazmuni — shu. Lekin undagi har bir sahifa, tafsil Vatanga bo'lgan qizg'in mehr bilan yorishib turadi.

«Meni Hindistonni sevganingcha sevarmisan?» — so'raydi Dilnavoz.

«Hindistonni sevganim seni sevganim emasmi?» — javob beradi Rahimbaxsh. U yurtini sevadi. Tosh-tuproqlari uchun emas, go'zalligi, fazilati, tarixi uchun. Dilnavoz mana shu yurtning, ulusning fazilatlaridan biri, birinchisi. Shu sabab, Dilnavozning shubha-gumonlariga qarata: «Chindan sevaman, yurakdan sevaman, jondan sevaman, vijdondan sevaman. Mënim yuragimdagi sevgini ko'rsatmak uchun sevish so'zi ozdir. Topinaman senga!» — deydi.

Aslida ularga ko'p narsa kerak emas. Hatto birgina narsa — erkinlik kifoya. «Kimsaning bizga hech ishi bo'lmasa...» — zorlanadi Dilnavoz. Rahimbaxsh xayoliga birdan ularni har qadamda ta'qib etuvchi ingliz keladi. Ularni Hindistondan quvish kerak. Boshqa yo'l yo'q. Lekin bu ish osonlikcha bo'larmikin?

«Ishning qulayini axtarmoq yalqovlikdir, — deydi Rahimbaxsh. Qulay ishdan buyuk unum chiqmas. Buyuk unumli ishlar qulay-da bo'lmas. Inglizni Hindistondan quvmoq, yer yuzini o'z qora qanotlari ostig'a olg'on olbostini yo'q etmoqdir. Qulay bo'lmas, nima bo'lsa ham bir yovni yurtdan haydamoq bir yurtni yov qo'lida ko'rmakdan qiyin emasdir».

Lekin baribir oson emas. Chunki ozodlikka chiqmoq uchun, avvalo, uni xohlash kerak. Qulning qul ekanligini anglashi yarim ozod bo'lganidir. So'ng unga tayyor bo'lish kerak. Bir so'z bilan aytganda, kuch kerak. «Miyalari tamug' puch-

moqlarindan qorong'uroq, ko'zlari oyoq ostidan nariroqni ko'rmaydir»gan, «olg'a bosmoq, kelgusini o'ylamoqni «kufr» deb biluvchi, «dunyo bularni talamoq uchun» birlashgan»da ham «talondan qutulmoq uchun birlashmay»digan to'dadan nima umid qilish mumkin?

Biroq Rahimbaxsh noumid emas. «Zulm mazlumlarni birlashtirmoq uchun eng buyuk quroldir», — fikrlaydi u. Bu yo'lda chinakam insonlar, albatta birlashadilar. Chin insonlik esa ma'juslikka, musulmonlikka qaramaydi.

Darhaqiqat, yurt yonmoqda. «Ulus ezilib bitdi... Omonlik, tinchlik, erk degan narsalarni kimsa bilmaydir. Masjidda namoz uchun yig'ilganlar siyosiy yig'in yasag'on bo'lib to'pga bog'lanalar, er bilan xotin o'zaro ko'proq gapirganda hukumatga qarshi bo'lib, dorg'a osilalar... Shular orasinda-da tinch turmoq... Lolaxardiyol aytmoqchi, sag'ana boshida choqir ichmakka o'xshaydir».

Rahimbaxsh xalq orasiga kirib borgan sayin Hindistonni qutqarmoq haqidagi tilagi o'sib boradi.

Ingliz ham anoyi emas. U Hindiston aholisining turli din-e'tiqodga, maslak-mazhabga mansubligidan, ular orasidagi o'zaro janjal-nizolardan ustalik bilan foydalanadi. Bir-birlariga qayrab qo'yib, chetdan kuzatadi. Dramadagi ikkinchi parda voqealari shu haqda.

Afg'on chegarasidagi Bunir qo'rg'onining boshlig'i Mavlono Nu'mon uyida gazeta varaqlab o'tiribdi. Inglizlarning g'alabasi haqida xabarlar. Unga baribir. Qaysi hukumatga xizmat qilishning ahamiyati yo'q. Or-nomusning o'zi yo'q. Biroq shamolning avzoyini bilib qo'ygan yaxshi. Hozir inglizning qo'li balandga o'xshaydi. U shunday fikrlaydi: «Ingliz — tangrining balosi. Nima qilamiz, «kofir» bo'lsa ham Tangri shunga yaxshi qarag'on endi» (Naqadar tanish itoatparastlik!).

Ko'p o'tmay, uning huzuriga ingliz josusi Marling keladi. O'rtada «suhbati xos» ketyapti.

«Bilasizkim, ingliz ulusining Hindga kelganliklari hindlilarni yetishtirmak, «madaniy qilmak» uchun edi... — uzoqdan gap boshlaydi Marling. — Biz kelmasdan burun Hindiston din janjallari, mazhab g'avg'olari, qorin-qursoq urushlari bilan to'lg'on edi...

Biz kelgach, shul buzuqliklarni tuzatdik! Janjallarni ko'tarduk. Madaniy yashamoq yo'llarini ko'rsatdik, hindularni o'qitduk».

Dunyo bino bo'libdiki, hech bir jahongir men falon mamlakatni talamoq uchun borganman degan emas. Hammalari «adolat», «ma'rifat» olib kelganlar. Makedoniyalik Aleksandrdan rossiyalik Aleksandragacha.

Marling: Biz Hindistonni adolat bilan oldik, adolat bilan saqladik. Yana adolat bilan o'zingizga qaytarmoqchi bo'lamiz (chunki «hindular yashamoq yo'llarini bilib olmishlar»). Biz ishonamizki, bu kun Hindiston o'z erkini olg'och, burung'i yovvoyiliklarini, yovuzliklarini qilmas...»

Marling Angliyaning Hindistondagi mustamlakachilik siyosatini oq-oppoq qilib olgach, navbatdagi ishga — mamlakat-dagi millatlararo munosabatni ichdan yemiradigan zahri qotil — o'zaro dushmanlikni tayyorlashga kirishadi. Buning uchun milliy g'urur, iftixorni ishga soladi:

«Eski Hinduston madaniyatining tub egasi musulmonlar edilar, — sekin gap boshlaydi Marling. — Shu pallada ham Hindustonda eng yaxshi tayyorlangan ulus musulmon ulusidir. Biz istar edikkim, butun Hind hukumatini musulmonlarg'a topshiraylik».

Buni kim istamaydi?

«Bilasizkim, Hindustonda ko'pchilik musulmonlar-da emas. Hindular, sekhiylar, ma'juslar birlashib, hukumatni o'z qo'llariga olmoqchi bo'lsalar nima qilamiz?» — davom etadi ig'vogar. Shu tariqa ular allaqachon birlashgan, bu tilakni Olmoniyaga bildirib ham ulgurgan va bu borada oralaringizda agentlar ham ishlab turibdi, degan yolg'on ma'lumotni ustalik bilan qistiradi. Va tabiiyki, shubha-gumon boshlanadi.

Inqilobchi Abdusubbuhning fikri shunday: «Inglizlarni tarqatmoq uchun Hindustonni birlashtirmoq kerak. Hindu bilan musulmonni birlashtirmak yo'lida ular har narsaga tayyorlar». Lekin Marling bergan og'uning ta'siri Mavlonoda allaqachon boshlangan: «Shariatda musulmon bilan Hinduning birlashmagi tuzuk emas, qatag'ondir. Hindular musulmon bo'lmaguncha, biz ular bilan birlasha olmaymiz», — deydi u inqilobchilarga. Abdusubbuh «Biz zulmga qarshi har kim bilan birlashurmiz»,

deb hisoblaydi. Mavlono o'z fikrlarini «mushrik», «ahli kitob» haqidagi uzoq dalolatlar bilan isbot etmoqchi bo'ladi.

Abdusubbuh o'z fikrida qat'iy. Uningcha, Angliyani Hindistonga boshlab kelgan narsa ham yurt ichidagi shu xil janjallardir.

«Siz, mullalar, tutash shunday qilasiz. Hindustonni yillarcha el-aymoq janjallari bilan to'ldurdingiz. Ulusni yetmish to'rt bo'lak qildingiz. Har bo'lakni boshqalarga yov etdingiz. O'lkamizni ichki janjallar bilan to'ldirdingiz. Shunday qilib, inglizni boshimizga kelturdingiz. Yuz yillardan keyin biz o'zimizni qutqarmoq uchun bosh ko'tardik. Birlashdik, qutulmoq istadik. Yana mazhab, din janjallari bilan yo'limizni to'smoqchi bo'lasiz! Uyalingiz! Erkimizga tirnoq urmoqchi bo'lg'onlarlarg'a qarshu chiqurmiz. Qo'lg'a-qo'l berib kurashamiz, bizni bu yo'ldan siz-da, din-da qaytara olmas!»

Ko'rinib turibdiki, asar voqealarini faqat va mutlaqo Hindistongagina tegishlidir, degan da'voni hech kim qila olmaydi. Bu muammo mustamlaka va mustamlakachi mavjud har bir mamlakatga daxldor edi. Shu jumladan, Turkistonga ham. Shu sababli, u haqda o'nlab taqrizlar bosilishi, hatto olis Germaniyada maqola chop etilishi va Fitratning mashhur Husayn Jovid bilan yonma-yon qo'yilishi bejiz emas.[317] «...Turkiston va Buxorodagina emas, balki Sharqning boshqa go'shalaridagi xalqlar ham Fitratni taniydilar, — yozgan edi B.A. Pestovskiy 1922-yilda. — Bir musulmon shoirining dunyoga qarashi buddistlarning qarashidan uzoq tursa kerak degan bir fikr miyaga kelsa ham Fitratning ba'zi bir asarlarida ko'rilgan dunyoga qarashi hind shoiri Rabindranat Tag'urning qarashlari bilan bir nuqtaqa kelub birikadur»[318]. Pestovskiy, birinchi navbatda, adibning «Chin sevish» va «Hind ixtilolchilari».asarlarini ko'zda tutgan edi.

Pestovskiyning 70-yil oldingi gapiga qo'shilgan holda, unda Maxatma Gandi, Muhammad Iqboldan ham bahramandlik bor edi, deyish lozim bo'ladi.

---

[317] Sh. Turdiyev. «Hind ixtilolchilari» fojiasi haqida». Sharq yulduzi»j, 1989-y. 4-son, 33-b.

[318] «Inqilob»j., 1922-y., 2-son.

Buxoroda inqilob yuz bergan 1920-yilning sentabrida Fitrat Toshkentda edi. Garchi u ona shahridan olisda bo'lsa-da, u yerda kechgan hodisadan, o'ylaymizki, bexabar qolgan emas. So'nggi yillarda bosmachilik, yer-suv islohoti va umuman inqilobiy tariximiz qayta baholanmoqda. Shu jumladan, Buxoro inqilobiga doir ham yangi nuqtai nazarlar o'rtaga tashlanmoqda[319].

Xususan, inqilob bahonasida shaharning talanganligiga, asossiz bombardimon qilinib, asriy obidalarning vayron etilganligiga doir ko'plab fakt va hujjatlar yuzaga chiqmoqda. «Frunze janoblari bir hafta to'pga tuttirdi... Frunze janoblariga xayrixoh bo'lgan yosh buxoroliklar firqasining rahbarlari noto'g'ri ish tutganliklarini keyinchalik tushunib yetdilar»[320], — deb yozadi «Men — Buxoroman» maqolasining muallifi taniqli adib va publitsist A. Ibrohimov.

Endi «dushman» tarafga so'z beraylik.

Bosmachilarning 1340-yil 18-ramazonda (1921-yil 18-sentabr) Buxoro inqilobining rahbarlariga yo'llagan maktublaridan:

«...siz o'z birodarlaringiz bo'lgan rus bolsheviklari bilan Buxoro tuprog'iga kirib, millat qonini to'kdingiz, uning mulki bo'lgan oltin va g'allani yo'q qilib tashladingiz. Xullas, xalqning barcha zarur mulkini yo'qotdingiz. Masjid va madrasalar kabi tabarruk joylarni oyoqosti qildingiz. Favqulodda komissiya orqali kambag'al aholining mol-mulkini va hayotini tortib oldingiz. Ularga oqsoqollar, aksilinqilobchilar, boylar va burjuylar deb nom qo'yib, shunday qildingiz. Bolshevizm va kommunizm g'oyalarini amalga oshirishga kirishdingiz.

O'z diningizni, imoningizni va vijdoningizni bir parcha non evaziga la'nati ruslarga sotdingiz. Rus bolsheviklari jabr va zulmni avj oldirib yubordilar. Buxoroning mustaqilligi qurug' so'z bo'lib qoldi. Haqiqatda undan darak yo'q...

Bizlar bosmachi emasmiz, balki millatimizning haqiqiy va itoatli xodimlarimiz. Dushmanlarimiz bo'lgan ruslarni vatanimiz-dan haydab chiqaramiz va ularni abadiy yo'qotamiz...»

Bu hujjatni F.Xo'jayev keltirgan (ko'rsatilgan asar, 249—250-betlar).

---

[319] «Rodina» j., 1989-y., 2-son.

[320] «Xalq so'zi» g., 1991-y., 12-yanvar.

Turkiston MIK qoshida 1922-yilda tuzilgan «Samarqand oblastini(ng) bosmachilarni yo'q qilaturg'on favqulodda troykasi» deb nomlangan Muvaqqat Komitetning «mutlaqo maxfiy» muhri bilan saqlanayotgan hujjatlarida (O'zSSR Markaziy Davlat arxivi, f.r.-1., op.d. 45) bosmachilik zulm va zo'ravonlikka qurilgan inqilobning natijasi ekanligi ro'y-rost aytilgan. Chunonchi «kelgindi xodimlar ushbu mamlakatning odatlarini oyoqosti qilgani», «musulmon turmush tarzining asriy daraxtini tagidan qo'pormoqqa kirishgani» qayd etilgan. «Aholi har qancha xohlamasin, kelgindilar qiyofasida ularni asriy zulmdan qutqaruvchilarni, proletariatning umumdiktaturasiga olib boruvchilarni ko'ra olmadi, aksincha, urfi-udumi, dini tobe bo'lishga yo'l bermagan yangi mustabidlarni ko'rdi» (125-bet) – o'qiymiz «favqulodda troyka» raisi Sergaziyev va mas'ul kotib Xrushchev imzolagan hujjatda.

Turor Risqulov yozadi:

«Jazo otryadlarining muallimlari va o'rus mushtumzo'rlarining jabr-zulmlari shu darajaga yetdiki (1916, 1917, 1918-yillar) yer va moldan ajragan yuz minglab odamlar ochlikdan qirilib ketishga majbur bo'ldilar» («Turkiston» g., 1923-y. 25-noyabr).

Butunrossiya MIQ ning Turkkomissiya va RSFSR XKSning Turkiston ishlari bo'yicha komissiyasi a'zosi F.Goloshchekin 1919-yilda Farg'onani aylanib kelib yozadi: «Sovet hukumati bayrog'i ostida hamma yoqda bedodlik va shaxsiy manfaati yo'lida o'z mavqeidan foydalanishga intilish hukm surmoqda, bu esa Yevropali aholi ichida imtiyozli guruhlarni tashkil etdi. Musulmon ommasiga muayyan ishonchsizlik bor. Musulmonlarga quyi irq sifatida qarashlar umumiy nomaqbul siyosat va Yevropaliklar ochiq-oydin olayotgan imtiyozlarning naqdligi bilan qo'shilib, yuqori darajada tang sharoitni yuzaga keltirdi va musulmonlar ommasida norozilik uyg'otdi... Yevropaliklar bilan musulmonlar o'rtasida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra tug'ilgan qarama-qarshilik, sovet hokimiyatining Farg'onadagi vakillari tomonidan uzoqni ko'zlamay olib borilgan siyosat, aytish mumkinki, bosmachilik rivojlanishining asosiy omili bo'ldi» («Fan va turmush» j. 1990-y. 11-son,7-bet).

. «Favqulodda troyka» Samarqand misolida yuqoridagi xulosaga kelgan edi. Ana shunday «bosmachi»lardan 1922-yilning boshida, F.Xo'jayev qayd etishicha, birgina Buxoroning yonatrofida 20 mingdan ko'proq yigit bor edi. Bunda «Yosh turklar inqilobi»ning qahramonlaridan Anvar poshshoning (1881—1922) Turkistonga kelishi ham ma'lum rol o'ynagan, albatta. U 1921-yilning 2-oktabrida Buxoro shahriga keladi. 9-noyabrda «Turkistonning muqaddas da'vati yo'lida olib borilayotgan kurashga qo'shilgani kelgani» haqida bayonot beradi. Ketma-ket muvaffaqiyatlarga erisha boshlaydi. 1922-yil 19-apreldi Sovet Rusiyasi Buxoro jumhuriyatining janubidagi shahar-viloyatlardan o'z xohlagan mustaqil davlatini qurib olishini va'da etadi. Lekin Anvar poshsho sovet elchisiga: «Sulh bitimi faqat Turkiston tuproqlaridan butun rus askarlarini olib chiqib ketganlaridan keyingina so'z mavzui bo'lishi mumkin», deb javob beradi. RKP(b) MK 1922-yil 18-mayda V.I.Lenin ishtirokida Turkiston va Buxoro masalasini ko'rib, qaror qabul qiladi. Qarorda bosmachilikka qarshi harbiy tadbirlar bilan birga targ'ibot ishlarini kuchaytirish, «Anvar poshshoni aholi orasida inglizlarning josusi (agar josus deyilsa, nemislarniki deyish ma'qulroq edi, chunki Turkiya 1914—18-yil urushida Germaniya bilan ittifoqdosh bo'lgan) va Sharq xalqlarining (qiziq, o'zi qaysi xalqdan ekan) dushmani» deb ko'rsatish lozimligi aytiladi.

Xullas, Anvar poshsho 1922-yilning 4-avgustida Baljuvon tepaligida halok bo'ladi (DXK yetakchilaridan Og'abekov ilon qiyofasida ishonchga kirib, uni otib o'ldirgan — red.).

Cho'lpon
«Eng so'nggi umidni qonga bo'yagan,
Oh, qanday xayrsiz zamonlar kelgan?
Faryodim dunyoni bo'g'ib o'ldirsin,
Qop-qora baxtimga shaytonlar kulsin!» —

satrlarini shu munosabat bilan yozgan deydilar».

Bosmachilik Anvar poshsho o'limidan so'ng ham to'xtab qolgan emas, albatta. Tarixchilar fikricha, u ikki bosqichni (1918—1923; 1924—1935)ni tashkil etgan.

Bosmachilikni «uyushtirish» 1937-yilda deyarli har bir «xalq dushmani»ning «Delo»sida asosiy «aybnoma»lardan bo'lib xizmat qiladi. Shu shumladan, Fitratda ham. Darhaqiqat, 1918-yildan e'tiboran bosmachilik deb nomlanib, 30-yillardan keyin jadal iste'molga kirib ketgan, aslida ozodlik, mustaqillik harakati sifatida baholanishi lozim bu voqealarga Fitratning bevosita bo'lmasa-da, bavosita daxldorligi bor.

1920-yil sentabr voqealariga qaytaylik.

1918-yilda Fitrat tayyorlagan, 1920-yilda F.Xo'jayev chuqurlashtirgan «Yosh buxoroliklar partiyasi» dasturi «Zulmga qarshi birlashingiz!» degan shior bilan boshlanar edi. Unda muhim nuqtalardan birini «Buxoroda yangi usul maktablar ochish, gazeta va jurnallar nashr etish, Buxoro xalqining siyosiy, iqtisodiy, sotsial va madaniy saviyasini yoppasiga ko'tarish maqsadida yosh buxoroliklarni Yevropaga o'qishga yuborish» tashkil qilar edi. Yana biri esa «Buxoro ajnabiylarining Buxoroning ichki hayotiga aralashuvidan ozod qilish» edi. Birinchisi inqilobdan so'ng har qalay bajarildi. 1922—1931-yillarda Germaniyada o'qib kelgan, O'zbekiston Fan Komitetining rais o'rinbosari bo'lib ishlagan Sulton Matqul ma'lumotlariga qaraganda, 1922-yilda shaxsan F.Xo'jayev va Fitrat tashabbusi bilan yoshlardan 60 tasi Buxoro jumhuriyatidan Germaniyaga o'qishga yuborilgan (Jabbor Sattor, Saidali Xo'jayev, Ahmad Shukriy, Vali Qayumxon) ham bor edi.[321] Cho'lpon toshkentliklar ro'yxatiga Ahmadjonov va Ibrohimovni ham qo'shadi. Ma'lum bo'lishicha, Germaniyada faqat yigitlar emas, qizlar ham o'qishgan. Sh. Turdiyev «Yosh leninchi» gazetasining 1990-yil sonlarida «Ular Germaniyada o'qigan edilar» nomli turkum maqolalarida Maryam Sultonova, Xayrinsa Majid qizi, Saida Sherahmad qizi kabilar haqida to'xtaladi. Bu qizlar, chamasi, Toshkentda 1920-yilda mashhur ma'rifatparvar Munavvarqori tomonidan tashkil qilingan «Ko'mak» uyushmasining yordami bilan borganlar.

O'qishga borganlardan qolib ketganlari ham bo'ldi. Chunonchi, Saydali Xo'jayev, Ahmad Shukriy, Ibrohimov, Vali

[321] IIXK materiallaridan (Abdulhamid Sulaymonov — Cho'lponning 1937-yil 10-avgust ko'rsatmasi).

Qayumxon kabilarni eslash kifoya. Lekin asosiy qismi qaytdi va nobud bo'ldi.

Hujjatlarda 1922-yili 60 o'quvchini Olimjon Idrisiy degan kishi tanlab olib ketgani aytiladi. Idrisiy Buxoroda, Turkiyada o'qigan. Birinchi jahon urushi yillarida Germaniyada, Berlinda bo'lgan, 1922-yilda Buxoroga qaytib kelgan edi.

Dasturning ikkinchi punkti amalga oshmadi — ajnabiylarning «ichki hayotga aralashuv»larining oldini olish mumkin bo'lmadi. Buning iloji ham yo'q edi. Negaki, Buxoro inqilobi ham ichdan emas, ko'proq chetdan bo'ldi. Uni amalga oshirish yo'l-yo'riqlari RKP(b) Markaziy Komiteti majlislarida ishlab chiqildi. Buxoro Xalq Nozirlari Sho'rosining tarkibi inqilobdan 23 kun oldin Butunrusiya Markaziy ijroiya qo'mitasi bilan RSFSR XKS Turkkomissiyasining kengaytirilgan majlisida saylanib-tasdiqlanib qo'yilgan edi.

Bu «hamkorlik» poyama-poya o'sib bordi. H.Boltaboyev «Talabni qondirmagan inqilob» maqolasida («Sharq yulduzi» j., 1991-y. 1-son) bu jarayonni yaxshi tahlil qilgan.

Fitrat Buxoroga inqilobdan ko'p o'tmay keladi. Ehtimol, bunda F.Xo'jayevning xizmati bordir. Chunki ularning bir-birlariga hurmat va ixlosi juda baland edi. Fitrat F.Xo'jaevning did va saviyasini, siyosatchilik iqtidorini yuksak qadrlar, u ham o'z navbatida adibning noyob iste'dodini teran his qilar edi. Mash'um 37-yil «aybnoma»larida Fitratning F.Xo'jayevni «dohiy» deb bilgani, ayni paytda «rais»ning Munavvarqori, Botular qamalgan 1930-yilda adibni «saqlab qolgani» haqidagi ko'pdan-ko'p ko'rsatmalarga duch kelasiz. Umuman olganda esa ularning o'zaro munosabatlari har jihatdan o'rganishga loyiq va buning samarali bo'lishiga shubha yo'q.

Xullas, Fitrat 1920-yilning oxirlarida F.Xo'jayev bosh Buxoro hukumatining a'zosi edi. Partiyaga esa u 1919-yilda Toshkentdaligida o'tgan. O'sha yili iyunda bo'lgan BKP 1 s'ezdida MK ga a'zo bo'lgan. So'ngroq Buxoroda payti BKP MK siyosiy byurosi a'zosi qilib saylanadi. 1921-yildan Xalq marifi noziri, yana bir yil o'tgach, horijiya noziri, Xalq xo'jaligi kengashi raisi, Jumhuriyat MIK o'rinbosari, Xalq nozirlar sho'rosining muovini, Hukumat plan va smeta tashkilot qo'mitasining raisi, BXShJ Mehnat Kengashining Prezidium a'zosi vazifalarini olib

boradi. Jumhuriyat ijtimoiy-madaniy hayotining hamma masalalarida faol ishtirok etadi. Xususan, uning g'ayrat va tashabbusi bilan 1921-yilda Buxoroda Sharq musiqa maktabi ochiladi. Maktabga Domla Halim Ibodov, Shohnazar Shahobov, Boboqul Fayzullayev kabi mashhur hofizu maqomshunoslarni to'playdi. Dzerjinskiy, 8-uyni shu maktabga beradi, o'zi mutasaddilik qiladi.[323]

Darhaqiqat, Fitrat Buxoroga qaytib kelgach, katta ishlarga qo'l urgan edi. H.Boltaboyev aniqlashicha, unga malakali xodimlarni topib, Buxoro inqilobi tarixini yozish topshiriladi. 1920-yil 30-oktabrda Maorif xalq nozirligi bu haqda qaror qabul qiladi. Ayniyning «Buxoro inqilobi tarixiga materiallar»i shu yo'ldagi bir qadam edi. Buxoroda Sharq dorilfununi ochishga tayyorgarlik boshlanib ketdi. Buxoro MIK Buxoroda dorilfunun ochish haqida 1922-yil 14-sentabrda qaror ham qabul qildi. Buxoro ilmiy jamiyati tuzildi. Fan va madaniyat tarixiga oid nodir qo'lyozmalar to'plana boshlandi. Tadqiqot ishlari yo'lga qo'yildi. Jamiyatning «Anjumani tarix» shu'basi qisqa muddatda «Buxoro arki tarixi» qo'lyozmasini tayyorladi. 1921-yil martdan Buxoro jumhuriyatida turk tili davlat tili deb e'lon qilindi. Davlat teatri tuzildi. Toshkentda Mannon Uyg'ur, Cho'lpon taklif qilindi. Yosh jumhuriyat juda qisqa muddatda Turkiya, Eron, Afg'oniston bilan do'stlik, hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'ydi[324].

Bu ishlarning barchasi, birinchi navbatda, Fitratning va uning safdoshi F. Xo'jayevning aqli va g'ayrati bilan boshlangan edi. Biroq jumhuriyatning erkinlik, mustaqillik yo'lidagi bu ha-

---

[323] Ilhom G'ani. Fitrat va musiqa. O'zAS, 1990-y., 24-son.

[324] 1921-yil 15-iyunda Buxoro hukumati Turkiyaning Ulug' millat majlisiga va Eron Tashqi ishlar vazirligiga nota yuborib, o'zaro vakil ayirboshlash haqida bitim taklif qiladi. Natijada shu yilning 3-noyabrida Turkiya diplomatik missiyasi, 9-dekabrda esa Eron konsulligi Buxoroda ish boshlaydi. («Sharq yulduzi»j., 1991-y. 1-son, 137-bet). 1921–23-yillarda esa Qobulda BXSHJning elchixonasi ochilib, dastlab A.Yusufzoda, so'ng Hoshim Shoyiq muxtor elchi bo'lganlar. 1922-y. Qosim Qori Eronga boradi, shoh bilan uchrashadi. Turkiya bilan aloqani o'rnatish uchun esa Muhammad Nazariy bilan Ismoil Sadriy yuborilgan edilar. 1922-yili Hirotda Afg'oniston hukumati nomidan general Habibulloxon va Abduxodixon, BXSHJ dan Xorijiya noziri Rahmat Rafiqov va xodim Mirzo Isomiddin do'stlik, hamkorlik shartnomasiga imzo chekadilar. IIXK materiallaridan (R.R.Fitratning, 1937-yil 25-oktabr so'roq prtokoli).

rakatlari markazning Turkiston noibi Turkkomissiyaga yoqmadi. 1923-yil 12-iyunda RKP(b) MK Siyosiy byurosi «Buxoro masalasi»ni ko'rdi. Jumhuriyatning davlat hokimiyatini «yanada demokratlashtirish va sovetlashtirish» to'g'risida qaror qabul qildi. Qarorga, Stalinning Buxoro nozirlar sho'rosining tarkibi haqidagi «Buxoro hukumati nomi ostida ish ko'rayotganlarning xalq va sovet hukumatiga hech bir aloqadorligi yo'q», degan subyektiv fikri asos qilib olingan edi. Buxoro jumhuriyatida hokimiyatga boylar, savdogarlar tortilgan, birorta ham dehqon yo'q, uning ustiga hammayoq qarindoshchilik degan ayb qo'yildi. Shu yil 23-iyunda RKP(b) MKning Plenumi o'tkaziladi. Buxoro hukumatining 5 a'zosi – Fitrat, Aminov, Otaxo'jayev, Sattorxo'jayev, Yoqubzodalar partiyadan o'chiriladilar, ishdan olinib, yurtdan badarg'a etiladilar.

Shu tariqa, Fitrat va uning atrofidagi eng sog'lom intellektual qatlam ustalik bilan ajratib olindi. F.Xo'jayev yakkalanib qoldi.

1923–1924-yilda Fitrat Moskvadagi ko'hna o'quv yurtlaridan bo'lgan Sharq tillari institutida ishladi, ilmiy tadqiqot bilan shug'ullandi. Bu institutda o'tgan asrning 90-yillarida bir tasodif bilan Muqimiyning jiyani Ro'zimuhammad Do'smatov ham o'qigan. 1921-yilda mazkur dargoh Sharqshunoslik ilmiy tadqiqot institutiga aylantirilgan edi. Fitrat tarjimai holiga oid ko'pgina manbalarda unga Leningrad davlat dorilfununi professorlik ilmiy unvoni berilganligi xabar qilinadi. Bu, Fitratning Sharq xalqlari tili, adabiyoti, madaniyatining katta bilimdoni sifatida e'tirof etilishi, albatta. Ayni paytda uning rus sharqshunosligiga markaz bo'lgan dargoh – LDU sharq fakulteti bilan shu yillardagi aloqalariga ham dalolatdir.

1924–1926-yillarda Fitratning «Abulfayzxon» (M.,1924), «Shaytonning tangriga isyoni» (T.,1924),. «Arslon» (S.-T.1926) kabi bir qator dramatik asarlari bosildi.

«Abulfayzxon» adabiyotimizda tarixiy mavzudagi birinchi drama. Unda tasvir etilgan voqealar bilan Fitrat zamonasi o'rtasida ma'lum yaqinlik bor. Abulfayzxon – ashtarxoniylar sulolasining so'nggi vakili. Undan so'ng saltanat manqitlarga o'tdi. Va bu jarayon odatdagidek chetdan aralashuv (eroniy Nodirshoh) va ichki xiyonat bilan kechdi. Aslida Abulfayzxon

(1711–1747) shaxsi boshqalardan ko'p farq qilgan emas. Lekin u yurt so'ragan davr g'oyat murakkab bo'lganligi aniq. Gap shundaki, saltanatda Muhammadhakim (pesada Hakimbiy) bosh mang'itlar nufuzi benihoya ortib ketgan edi. Ikkinchi tomondan esa joriy an'anaga ko'ra, ashtarxoniylardan boshqani xon ko'tarish mumkin bo'lmaganligi tufayli mang'itlar o'z vakillarini taxtga o'tqiza olmas edilar. Shu sabab Abulfayzxon nomigagina xon bo'lib, hamma ishlar mang'it Muhammadhakim izmida edi. Muhammadhakim, so'ngroq uning o'rnini egallagan o'g'li Muhammadrahim (dramada Rahimbiy) barcha ishlarni Abulfayzxon orqali amalga oshirar, shu jumladan, saltanat yo'lidagi dushmanlarini ham xon qo'li bilan o'rtadan ko'tarar edilar. Bunday qo'shhokimiyatchilik birgina saroy doirasida emas, sipohlar orasida ham ikkiyuzlamachilikka keng yo'l ochgan edi.

Muhammadhakim xon saroyidagi mavqeiga qanoat qilmaydi, xiyonatga o'tadi. Movarounnahrni qoralab kelayotgan Nodirshoh istiqboliga chiqadi. Uning himoyasiga kirib, nomidan elchi bo'lib keladi. Mahmud Yalavochning ishini qiladi. Tarix kitoblarida bu hodisaning ayrim tafsilotlari ham saqlangan. Chunonchi, Abulfayzxon Muhammadhakim qo'liga ko'pdan-ko'p sovg'a-salom tutqazib, uni Nodirshoh bilan sulh tuzish, shu yo'l bilan yurtni talondan saqlash choralarini ko'rishni topshirgan, Muhammad-hakim esa aksincha, o'z mamlakatining nochor ahvolini, nuqsonlarini keragidan ham oshirib, Nodirshohga sadoqat izhor etgan. Shohdan katta vakolatlaru yorliqlar olib, Buxoroga kirib borgan. To'g'ri saroyga kirib borishdan cho'chigan, Mir Arab madrasasiga tushgan. Ko'cha va bozorlarga jarchi chiqarib, qo'rquv-vahima tarqatgan. Eron shohi son-sanoqsiz qo'shin tortib kelayotganini, molu jonining bexatarligini o'ylagan har bir kishi uning huzuriga kelishini aytdirgan. Madrasaga odam yog'ilgandan yog'ilavergan. Abulfayzxon chetda qolib ketgan. Axiyri xonning o'zi Mir Arab madrasasiga Muhammadhakim huzuriga yo'l oladi. Biroq Muhammadhakim soqchilari uni yaqinlashtirmaydilar, o'qqa tutadilar. Xon saroyga qaytadi. Nodirshohga taslim bo'lishdan boshqa iloj topmaydi. Nodirshoh, Abulfayzxon va xiyonatchi Muhammadhakim otaliq Buxorodan tashqarida Zarafshon daryosining qirg'og'ida mashhur Chorbakr mavzeida uchrasha-

dilar. Garchi sharqona iltifotlar o'rniga qo'yilib, xon (Abulfayz) va shoh (Nodir) bir-birlariga mulozamatni quyuq qilsalar-da, Buxoro hukmdori bir qizini Nodirshohga, ikkinchi birini uning jiyaniga berib, o'zini harchand fotihga qarindoshlik iplari bilan bog'lashga urinsa-da, baribir munosabatlar hokim-tobelik bilan yakun topdi. Oldin Abulfayzxon (1747), bir yil o'tar-o'tmas, o'g'illari Abdulmo'minxon, so'ng Ubaydulloxon birin-ketin qatl qilinadilar. Nihoyat, Muhammadrahim 1753-yilda amir unvoni bilan Buxoro taxtiga chiqadi. Farg'onada minglar ajrab chiqadilar va mustaqil Qo'qon xonligini maydonga keltiradilar. Buxoroda Muhammad-rahim bilan mang'itlar sulolasi hokimiyat tepasiga keldi va u 1920-yil Buxoro inqilobiga qadar hukmronlik qildi.

Xo'sh, XX asrning 20-yillaridagi shiddatli inqilobiy jarayon bilan olis tarixdagi sulolalar kurashining bir-biriga nima yaqinligi bor?

Avvalo, har ikki tarix ham xalqimiz hayotidagi eng mas'uliyatli, eng hayajonli voqealarga to'la edi. To'g'ri, biri yangi turmush bayrog'i ostida, ikkinchisi yangi sulola himoyasi yo'lida kechdi. Lekin biri-birini inkor etuvchi ikki holat — mamlakatning mustaqilligi va hokimiyat uchun kurash har ikkisi uchun ham xos bo'lib, ularning biri birlashishga undasa, ikkinchisi bo'linishni taqozo etardi. Har ikkisi ham jamiyatning barcha qatlamlarini o'ziga jalb etgan va eng muhimi, har ikkisi ham kuchga, zo'ravonlikka suyangan edi. Bunday damlarda inson tabiatidagi ezgulik bilan yovuzlik yuzaga qalqib chiqadi. Fitrat uchun XVIII asr Buxorosida yuz bergan voqealar shunchaki ma'lumot uchun emas, ma'rifat uchun ham kerak edi. U zulm va zo'rlikning el-yurtga faqat moddiy talofat, jismoniy azob-uqubatgina emas, o'nglab bo'lmas ma'naviy jarohat ham keltirishini ko'rsatib berdi. Shu tariqa adib, bir qaraganda, inqilobiy voqealardan uzoq tuyulgan Abulfayzxon fojiasini zamonasiga xizmat ettira oldi. Uningcha, kishilar taqdiriga, ijtimoiy turmushga daxldor har qanday ish ming o'lchab bir kesilishi lozim. Inson manfaatiga doir har qanday xatti-harakat insoniy qonunlar, vositalar asosida amalga oshmog'i kerak. Bu inqilobning ma'naviyatiga oid muhim masalalardan edi.

«Shaytonning tangriga isyoni» kichik dramatik doston. Ayrim tadqiqotchilar unda ateistik ohanglar ko'radilar. Bu, bizningcha, to'g'ri emas. Adibning hayoti ham, faoliyati ham bunday deyishga imkon bermaydi. U dinga emas, aksincha, dinsizlikka, imonsizlikka, e'tiqodsizlikka qarshi. Ayni paytda u mutaassiblikning ham dushmani.

Asar voqeasi Shaytonning Tangri farmoniga itoat etmay, uning dargohidan quvilishi haqidagi ma'lum va mashhur rivoyatga suyangan bo'lsa-da, asosiy gap inqilob haqida. Shu jihatdan u Oktabr inqilobini diniy rivoyat va asotirlar vositasida ifoda etgan Aleksandr Blok bilan Muhammad Iqbolni esga tushiradi.

Barcha malaklar Shaytonga bo'ysunadilar. Mekoil, Jabroil, Azroil — hamma-hammasi xizmatda. Shayton minbarga ko'tariladi. Malaklar tinglaydilar. U «lavhul mahfuz»dan — qismat daftaridan so'z ochadi. Umri «ikki buklam sajda» bilan o'tayotgan malaklarga dashnom beradi. Tabiiyki, ularda shoshqinlik, shubha, bezovtalik boshlanadi. Shayton asosiy gapga o'tadi:

Tangri yana tuproqdan bir yangi hayvon yasarmish,
Bizga hokim ham o'ziga o'rinbosar qilarmish.

Nurdan yaratilgan malaklarning izzat-nafsi uyg'ona boshlaydi. Shu payt «lavhul mahfuz» paydo bo'ladi. Oltin harflar bilan yozilgan xatni hamma o'qiydi.

Odamni tuproqdan emdi yaratarmiz,
Ham uni o'zimizga xalifa qilarmiz.
U bizning eng ulug' qulimiz bo'ladir.

Shayton vaziyatdan foydalanadi-yu, malaklar yuragiga g'uluv soladi. Malaklar Shaytondan najot so'raydilar. Osmondan nido keladi:

Menga qarshimi bu qadar shovqun...
Nega Odamlar yomondir?
Sababini aytingiz!

Malaklar qadrlariga zorlanadilar. Odam Tangriga ularchalik ibodat qila olmasligini, uning gunohdan o'zini tiya olmasligini aytadilar. Bungacha odam ham bitib, tirilib qoladi. Jabroilga nido keladi:

Malaklarga buyuraman: Odamning
Oyog'iga sajda qilsin, yiqilsin.

Shayton malaklarda uyg'onayotgan g'alayonni kuchaytiradi, ularning tutqunligini esga soladi, nurdan yaralgan holda loyga — balchiqqa itoat etishga majburliklariga diqqatni qaratadi va taqdirga bo'ysunmaslikka, odamga bosh egmaslikka chaqiradi:

Mana shudir tutqunlikning yemishi,
Boshqa turli bo'lmas tutqunlar ishi!
Hech kimsaga sajda qilmang, bosh egmang,
O'zingizda bor sharafdan qo'l chekmang!
Shuncha yillar topindingiz o'ziga,
Ergashdingiz bo'lar-bo'lmas so'ziga.
Sizni bu kun balchiqdan ham tubanroq
Ko'rmoqdadir! Yana bizga ne kerak?
Sizdan hech kim Odamga tiz cho'kmasin!
Zulmat nurdan yuqoriroq o'tmasin!

Isrofil sur chaladi. Jabroil ko'rinadi. Uning izidan oppoq nurdan kiyimlar kiygan, boshida toj, qo'lida yashil tayoq Odam kelmoqda. «Ey malaklar, topiningiz!» — degan nido eshitiladi. Shayton malaklar nomidan «Topinmaymiz!» — deb javob qiladi. Hammayoq qopqorong'u bo'lib, osmon guldiraydi, chaqin chaqnaydi.

Sahnada boshidagi toji va qanotlari yerda yotgan Shayton. Lekin u bardam. Chunki u shularsiz ham yerda yashay oladi. Xususan, unga «kirli toj»ning keragi yo'q. O'zi aslida eng yuksak toj ozodlikdir. Lekin u Odamdan xavotirda. U ham aldanmasa, tuzoqqa tusha qolmasa edi.

Yana nido keladi. Tangri Shaytonning unga buyuk martabalar berib, o'z qudratining sir-sinoatini o'rgatishiga qara-

masdan yo'ldan ozganini aytadi va bandalariga uni tanimaslikni tayinlaydi.

Shayton esa zo'raygandan zo'rayadi. «Men qo'rqmayman endi sening qahringdan!» — deb xitob qiladi. «Tamug'lar»u «jannatlar»ni, «lavhul mahfuz»ni yolg'onga chiqaradi. Erkinlikni dunyodagi eng buyuk saodat deb biladi. Hurlikni ulug'laydi. O'z aqli, shuuriga topinajagini aytadi:

Men yuraman bu kun shod,
Tutqunlikdan, qullikdan-da ozod.
Rahbarim — fan, payg'ambarim bilimdir.
Muovinim miyam bilan tilimdir.
Toping'umdir yolg'izgina o'zimga,
Ishong'umdir ikki ochiq ko'zimg'a.

Shayton nazdida Odam ham quldir. Chunki u ham kimningdir irodasiga itoat etmoqqa majbur. Qullik esa xorlikdir. Xorlik aqlli mavjudodga nomunosibdir. Shu tufayli u Odamni ham qutqarmoqchi:

Buni dag'i qutqarg'umdur qo'lingdan,
Chiqarg'umdur sening yanglish yo'lingdan.

Shu tariqa asar voqealari yosh tadqiqotchi G. Rahimova to'g'ri qayd etganidek, inqilobiy tus oladi.[324] Biroq undagi inqilobiy mazmunni jaholatga, ma'naviy qullikka qarshi kurash bilangina cheklash to'g'ri bo'lmas. Unda Fitratning umuman inqilobga, shu jumladan, Oktabrga kishilikning, millatning o'zligini yo'qotishga, aqlli-aqlsiz, mehnatkash-yalqov, uddaburon-ovsarni amalda bir qilishga qaratilgan sotsialistik turmush tarziga munosabatidan kelib chiqib yondashishi kerak. Nazarimizda, undagi timsollar mazmuni ancha keng, chuqur. Asarda bosh mavzu — tarix va taqdir. Salohiyatli, shijoatli, lekin birligi bo'lmagani tufayli ichdan bir-birini yeb bitirgan xalqning yo'lsiz-boshsiz qolishi, jaholatning shiddatga minishi, el-yurtning istilochilar oyog'i ostida toptalishi, nihoyat, yana bir

[324] Adabiy meros. 1990-y., 3-son, 77-b.

yangi e'tiqod — dinsizlik e'tiqodining kirib kelishi, tenglik niqobi ostida muayyan guruhlar tekinxo'rligining qonunlashtirilishi — hammasi tarix, taqdir.

Odam — yo'qsul, proletariat. U yo'qdan bino qilindi. Na Turkiston, na Buxoroda, na Xorazmda proletariat degan gap maydonga kelgan emas edi. Biz suyanib kelgan mafkuradagi ulug' aqoidlardan biri kapitalizmni chetlab o'tganligimiz haqidagi gap edi. 1917-yil Oktabr inqilobidan keyin o'sha yo'q proletariat «yasalib», uning diktaturasi o'rnatildi. (Tangri odamni yaratib, xalifa — podsho e'lon qildi). Uning tasviriga e'tibor qiling. Isrofil sur chalib turibdi (Inqilobning targ'ibot-tashviqot mashinasi bor kuchi bilan ishlayapti). Jabroil (yo'lboshchi) boshlab kelmoqda. Ana, Odam ko'rindi. Oppoq nurdan kiyim kiygan (Farishtalar farishta emas, u farishta), boshida toj (xalifa-ku), qo'lida yashil tayoq (hayotning, abadiy haqiqatning ramzi). Ey, malaklar (jamiyatning qolgan qismi), topiningiz (uning irodasiga bo'ysuning)! -degan nido uning cheksiz huquqi qonunlashtirilgan-ligiga ishora qiladi.

Shayton — aql, tafakkur timsoli. «Lavhul mahfuz» — ijtimoiy taraqqiyot bosqichlari haqidagi ilmiy sotsializm ta'limoti.

Asar voqeasiga qaytaylik. Shayton Tangriga qarata:

Yo'qol endi hikmating-la, arshing-la,
Qudrating-la, jaloling-la, farshing-la!
deb xitob qiladi. So'ng muallif izohi keladi:

«Havo qorong'ilar, ko'k guldirar, chaqinlar chaqnar, har tomon titrar. Bir ozdan keyin dunyo o'z holiga qaytgach, Shaytondan, Odamdan, malaklardan, minbardan hech darak qolmagandek ko'rinadir».

1926-yilda chop etilgan «Arslon» dramasi «Burunqi Buxoro xonligida yashagan dehqonlar hayotidan olingan». «Jumhuriyatimiz tomonidan adolat bilan ijro etilmoqda bo'lgan yer islohotiga» bag'ishlangan. Ayrim adabiyotshunoslarimiz aytmoqchi, Fitratning Oktabr mohiyatini anglab yetib, sovet mavzuida asar yoza boshlaganiga dalil qilib ko'rsatiladigan asari.

Arslon — qishloq yigiti, dehqon. Oilada onasi ikkisi. Sakkiz tanob yeri bor. Ishlab charchamaydi. Lekin hamma yoqda haq-

sizlik. Shu tufayli biri ikki bo'lmaydi. Atrofdagi dehqonlarning ahvoli bunikidan ham battar. Masalan, qishloq oqsoqoli, «Hasharga chiqmading», deb kambag'al Tursundan pul talab qiladi. U esa boydan ko'tara olishga majbur bo'ladi. Va tabiiyki, uning domiga ilinadi. Ko'r Hasan Mansurboydan 120 tanga qarz edi, 12 yashar qizini tortib olmoqchi bo'ladilar. Arslon bularni ko'rib chiday olmaydi. Uylanish uchun yig'ib yurgan 120 tangasini yonidan chiqarib beradi. Uyga kelsa, Botur degan o'rtog'i oyisi bilan kutib o'tiribdi. Qarzini vaqtida to'lay olmaganligi uchun uylarini xatlab olishgan. Yegani noni, yotgani joyi yo'q. Xullas, hamma yoq zimiston.

Arslonning sevgan qizi bor — To'lg'un. Oynuqsa kampirning qizi. U ham yaxshi ko'radi. Biroq to'y qilishga pul yo'q. Shu maqsadda yerining to'rt tanobini sotgan edi, biroq muhtojlarga ulashishga to'g'ri keldi. Mana, endi do'sti Botur uyidan haydab chiqargan boyni o'ldirmoqchi. Pand-nasihat kor qilmaydi... Arslon Mansurboyni unga tashlangan qaroqchi qiyofasidagi kishining suiqasdidan saqlab qoladi. Qasd qilgan Botur edi.

Boy har ikkisini qamatadi. Botur zindonda halok bo'ladi. Arslonni qolgan to'rt tanob yerini sotib, hamqishloqlari qutqarib oladilar.

To'lg'un bu paytlari boyning xizmatida. Boy uyida uchta xotini bo'lishiga qaramasdan, uni ko'z ostiga olgan. Uch xotin ham o'ynash tutadi. Lekin To'lg'unga kun yo'q. Boy, nega menga tegmaysan, deb uradi, xotinlari nega boy seni olmoqchi deb.

Arslonning onasi Tursunbibi og'ir ahvolda. Yonida Boturning onasi Norxola. So'ng Oynuqsa kampir keladi. Norxola va Oynuqsa hasratlashib o'tirishibdi. Lo'li xotin kiradi. Norxolaning ikki ko'zi o'g'li Boturning yo'lida. Shosha-pisha, so'nggi tangasini Lo'li xotin qo'liga tutqazib, folini so'raydi. O'g'ling yo'lga chiqqan, yaqinda keladi, deydi Lo'li xotin. Tursunbibining esa albatta tuzalajagini bashorat qiladi. Ikki kampir bundan imdod olib, dam soldirishga domla-imomga yuguradilar. Oynuqsadagi so'nggi ikki tanga ham domla cho'ntagiga o'tadi. Biroq Botur allaqachon halok bo'lganini, Tursunbibi esa jon taslim qilayotganini hali hech kim bilmaydi.

Arslon onasining iyagini bog'lashayotganida uyga kirib keladi. Boturning o'chini olishga, To'lg'unni qutqarishga ont ichib, uydan chiqib ketadi.

So'nggi 5-pardada boy hayotining ichki tomonlari, xotinlarining buzuq ishlari va fosh bo'lishi, nihoyat Arslonning boyni va uning o'g'li Qudratni o'ldirishi voqealari tasvirlanadi.

Asar voqeasiga shunchaki bir ko'z tashlash muallifning sinfiylik va partiyaviylikka qanchalar zo'r berganini ko'rsatib turibdi. Uning sabab va sharoitini, o'ylaymizki, tasavvur qilish qiyin emas.

Adib quvg'indan qaytib kelganida u salkam 25-yil umrini sarf etgan qadim Buxoro necha bo'lakka bo'linib, ona shahri bir qism muzofotlari bilan O'zbekistonning bir qismiga aylangan edi. Fitrat hamma narsani yig'ishtirib, ilmiy-ijodiy ishga berildi. Biz uni rasmiy xizmatda 1927-yilda ko'ramiz. O'sha yili jumhuriyat poytaxti Samarqandda Oliy pedagogika instituti (hozirgi SamDU) tashkil etiladi. Uning tashabbuskorlaridan biri O'zbekiston Xalq Maorifi Komissarligi qoshidagi Ilmiy kengashning raisi Moskvadagi qizil professorlar institutini endigina bitirib kelgan 22 yoshli Otajon Hoshim A.Ikromov topshirig'i bilan Fitratni Samarqandga boshlab keladi. Sarkotibning hovlisiga olib boradi. Fitrat ishlashga rozilik bildiradi. Mirtemir, Oydin, Uyg'un uning qo'lida o'qiganlar. Darvoqe, davr zug'umi bilan Fitrat haqida «fosh qiluvchi» maqola yozgan hassos shoirimiz H.Olimjon ham adabiyotning ilk sabog'ini uning qo'lida olgan edi. Istambulda Fitrat bilan deyarli bir vaqtda o'qigan, turk dunyosida taniqli tilchi olim, Boku dorilfununining professori Bekir Cho'ponzoda ham 1927-yilda bu institutga taklif qilingan. Yosh, sochlari qop-qora, qoramag'izdan kelgan bu professorning ma'ruzalarini undan bahramand bo'lgan o'zbek ziyolilari tez-tez eslab turganlar.[325]

20-yillar Fitratning ilmiy-adabiy faoliyatida sermahsul yillar bo'ldi. Uning shu yillari chop etilgan kitoblariga bir ko'z tashlashning o'ziyoq adibning serqirra faoliyati qanchalar qizg'in kechganligini ko'rsata oladi: «Bedil» (ilmiy-ommaviy ocherk, S., 1923; – T., 1924), «Eng eski turkiy adabiyot namunalari»(matn,

[325] «Sovet O'zbekistoni», 1991-y., 12-yanvar.

tadqiqot, izohlar, S.—T., 1927), «O'zbek adabiyoti namunala-ri» (matn, tadqiqot, izohlar, S.—T., 1929), «Fors shoiri Umar Hayyom» (ilmiy-adabiy ocherk, S.—T., 1929), «Adabiyot qoidalari» (adabiyot muallimlari ham adabiyot havaslilari uchun qo'llanma, S.—T., 1926), «O'zbek tilining sarfi» (darslik, S.—T., 1924), «Sarfi zaboni tojik» (darslik, 1925), «Sharq shaxmati» (S.-T., 1928), «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi» (S.—T., 1927), «Abulfayzxon» (besh pardali fojia, S., 1924), «Shaytonning tangriga isyoni» (pesa, S.—T., 1924), «Arslon» (besh pardali drama, S.—T., 1926). Davriy matbuotda bosilgan o'nlab she'rlar, yuzlab maqolalar, nashrga tayyorlanib, qolib ketgan qanchadan-qancha asarlar, nihoyat, mash'um 1937-yilda va undan keyin yo'qotilgan qo'lyozmalar bunga kirmaydi.

Fitrat bu asarlari bilan yangi o'zbek fan-madaniyatining bir qator yo'nalishlariga yo'l soldi. Xususan, Turkiston xalqlarining boy va qadim madaniy merosini har tomonlama, muntazam, ayni paytda chuqur ilmiy o'rganishni boshlab berdi. Ming yillar osha yonma-yon yashab kelgan o'zbek-tojikning adabiy-madaniy merosidagi mushtarak jihatlarga diqqatni qaratdi. O'zbek adabiyotining manba-mansha'larini aniqlab berdi, tarixiy taraqqiyotini, yuksalish-tushish bosqichlarini yoritdi. Adabiy oqimlar, maktablar, ularning vakillarini o'rgandi. Davrida shuhrati olamga yoyilib, zamonlar o'tishi bilan tarix qatlarida unutilib qolgan o'nlab shoirlarning merosini izlab topdi, qayta kashf etdi. Afrosiyob — Alp Er To'nga marsiyasidan tortib, Muhammad Solihgacha, Turdidan zamondoshlari Elbeku Cho'lpongacha yozdi. Namangandagi Muhammad Lolaresh kutubxonasidagi «Qutadg'u bilig»ning eng eski qo'lyozmasini qo'lga kiritib, u haqda ilm olamini xabardor qildi («Qutadg'u bilig», «Maorif va o'qituvchi» j., 1925-y. 2-son), Ahmad Yassaviy va uning maktabini atroflicha tadqiq etdi («Maorif va o'qituvchi» j. 1927, 6-son). Bu tadqiqotlar ilmiy-nazariy juda yuksak edi. Jumladan, u turkiy til va adabiyotning shakllanish bosqichlari, tarqalish doirasi, muayyan asarlarning, adabiy fakt va hodisalarning talqini masalalarida o'z davrining eng keyingi ma'lumot va qarashlariga tayanadi. Chunonchi, uning mashhur usmonli olimlari Muhammad Fuod Ko'pruluzoda va Najib Osimbek, Yevropa sharqshunoslaridan Vamberi, Tomsen, Rad-

lov, Samoylovich kabilar bilan olib borgan samarali ilmiy mubohasalari ham har bir o'zbek mutaxassisida havas va iftixor uyg'otmasligi mumkin emas.

Muallif Ahmad Yassaviy ijodi, umuman, tasavvuf haqida fikr yuritar ekan, Ko'pruluzodaning 20-yillarning oxirida keng shuhrat qozongan «Turk adabiyotida ilk mutasavviflar» kitobiga yuksak baho beradi. Har bir mutaxassisning u bilan tanishishi lozimligini shart deb biladi. «Bulardan oxirgisini (gap Yassaviy haqida ketyapti — B.Q.) keng bir shaklda izoh qilmoq uchun usmonli olimi Ko'pruluzoda o'zining «Turk adabiyotida ilk mutasavviflar» otli kitobini yozib chiqardikim, adabiyotimizning tarixi bilan qiziqqan kishilarga mutolaasi lozimdir» («Ahmad Yassaviy»). Ayni paytda, «Devonu lug'otit turk»dagi qadim marsiyalarni o'rganar ekan, Ko'pruluzodaning mashhur «turk adabiyotining manshai» maqolasidagi ayrim fikrlarga aniqlik kiritadi. Masalan, u Alp Er To'ngaga nisbat bergan 4 marsiyadan 2 tasiga e'tiroz bildiradi. Qolgan ikkitasiga «boshqa unvon» berish lozimligini aytadi. Adadi haqida ham har tomonlama asoslangan fikrini o'rtaga tashlaydi.[326] Najib Osimbekning esa 1916-yilgi «Hibbatul haqoyiq» nashridagi jiddiy matniy kamchiliklarni juda ko'p dalillar bilan isbotlab berdi. Sharhidagi noto'g'ri talqinlarni ko'rsatdi. «Najib Osimbekning sharhi til havaskorlarini juda yomon yanglishlarga tushururlik darajada xatolikdir» deb yozadi va «yangidan tuzatib bosilishg'a ehtiyoj bor»ligini ta'kidladi. Buning asosiy sababini olimning «Devonu lug'otit turk»ni chetlab o'tganligidan izladi («Hibbatul haqoyiq»).

1926-yilda yozgan «Navoiyning forsiy shoirlig'i va uning forsiy devoni to'g'risida» maqolasida esa buyuk adibning forsiydagi mahoratiga ham yuksak baho beradi. Ayni paytda, ayrim o'rtamiyona asarlar Navoiyga noto'g'ri nisbat berib kelinayotganini yozadi. Xususan, hijriy 1254-yilda tuzilib, so'ngida «Foniy iborat az amir Alisherast» deb yozib qo'yilgan bir devonning aslida 'Navoiyga daxli yo'qligini, uning muallifi Karmanada tug'ilib, Kashmirda yashab qolgan Muhammad-muhsin Foniy ekanligini dalillar bilan isbotlaydi.

---

[326] Yeng eski turk adabiyoti namunalari. — T.: 1927, VI-bet.

«XVI asrdan so'nggi o'zbek adabiyotiga umumiy bir qarash» maqolasida temuriylarning inqirozidan boshlab, shayboniylar, ashtarxoniylaru so'nggi davr o'zbek xonliklarigacha bo'lgan tarixni ko'zdan kechiradi. «Temuriylar saroyining dabdabali, bezakli, safoli hayotlariga taqlid qilishga uringan» shayboniylar davri adabiy hayotini kuzatadi. Ma'lumki, Shayboniyxon poytaxt Hirotni olgach, u yerdan shoirlar, olimlar, musiqachilarni Samarqandu Buxoroga ko'chirishga tirishgan edi. Shunga qaramasdan, madaniy hayot temuriylar davridagidek yuksalmadi. Buning asosiy sababi iqtisodiy hayot, birinchi navbatda, dengiz yo'llarining ochilishi va karvon yo'llarining ahamiyati tushishi bilan bog'liq edi, deb hisoblaydi Fitrat. Shunga qaramasdan, «adabiy tarbiya» ko'rgan Shayboniyni (Fitrat uning «Devon»ini topolmaganidan afsuslanadi. Yaqinda shahrimizga kelib ketgan Olmoniyalik yurtdoshimiz Temirxo'ja Shayboniy devonining Turkiyadan olingan bir fotonusxasini ToshDUga taqdim etdi) «forsiycha va o'zbekchadagi chiroyli parchalari ..., bu kungi materiallarga ko'ra bu davrning eng yaxshi shoiri» Ubaydulloxonni (Ubaydiy), Poshshoxo'jani tilga oladi. So'fi Olloyor, Mashrab Namangoniy, Turdi, Huvaydoga to'xtaydi.

Xonliklar davri adabiy harakatchiligi, chunonchi, Xorazmda Abulg'oziydan Komilning jiyani Mirzogacha, Buxoroda Mujrimu Xiromiydan Qo'qondagi Olimxon va Umarxon davri shoirlarigacha o'rganadi. XVII—XIX asrlar o'zbek adabiyotining keng, yaxlit manzarasini tiklashga harakat qiladi. Firdavsiy tavalludining 100-yilligi munosabati bilan 30-yillarda e'lon qilgan qator maqolalarida Xuroson va Movarounnahrning arab istilosidan keyingi ijtimoiy-siyosiy, adabiy-madaniy turmushini juda katta bilimdonlik bilan yoritadi. «Shohnoma»ning maydonga kelishini har jihatdan asosli topadi. Jumladan, muayyan tarixiy sharoit taqozosi deb hisoblaydi. Chunonchi: marvlik Abo Muslim qo'zg'oloni (747—749) Ummaviy hokimiyatiga chek qo'ydi. Arab nufuzi susayib, Eron nufuzi oshib bordi. Sahnaga abbosiylar chiqdilar. Ularning saroyida Eron zodagonlarining, shu jumladan, eroniy zot Al-Somonning mavqei baland edi. 875-yilda bu nasldan Nasr ibn Ahmad Somoniy Movarounnahr hokimiyati uchun yorliq oldi. Bu hukumat rasman abbosiylarga tobe bo'lsa-da, haqiqatda tamoman mustaqil edi. Bu hukumat

«o'zini Eron sosoniylarining o'rinbosari qilib ko'rsatmak, shuning bilan Eron feodal aristokratiyasining yordamini ta'min etmak istar edi». Shu sabab bu yerda fors tili rag'bat va himoya topdi. Bugina emas, adabiyot eroniy zodagonlarning siyosiy maqsadlariga xizmat qildirildi. Nega ular sosoniylar davri hikoya, asotirlarini tirgizishga urindilar? Bu, avvalo, arab istilosiga qarshi ruhni ifodalash edi. Ikkinchidan, eronlilarda milliy g'urur, iftixor uyg'otardi. Somoniylar o'zlarini bevosita sosoniylar o'rinbosari qilib ko'rsatmoqchi edilar. Nihoyat, bular o'lkani «G'arbdan arablar zarariga, Sharqdan turklar zarariga kengaytirmak» uchun edi. Chunki u asotirlarda istilo ham, istiloga qarshi kurash ham bor edi. Bu rivoyatlarning bir qismi to'planib, pahlaviy (qadim Eron) tilida «Xudoynoma» ismli bir kitob tuzilgan. 957-yilda u Tus hokimi Mansur Somoniyning amri bilan yangi fors tiliga o'giriladi va «Shohnoma» ismi beriladi. Nuh ibn Mansur uni nazmga aylantirishni Daqiqiyga topshiradi. Firdavsiy uni davom ettirgan edi...

Fitratning bu izohlarida, ehtimol, adabiy jarayonni siyosiylashtirishga bir oz moyillik bordir (30-yillarda boshqacha yondashishni tasavvur qilishning o'zi qiyin), lekin muallifning fikrlashidagi temir mantiqqa tan bermay iloj yo'q. Lekin baribir bu yillar Fitratning badiiy asarlaridagi singari ilmiy asarlariga ham o'z muhrini bosmay iloji yo'q edi. Masalan, «XVI asrdan so'nggi o'zbek adabiyotiga umumiy bir qarash» maqolasida adabiy jarayon haqida tanqidiy fikr yuritib, «hech bir yangilik ko'rsatmadi», «quruq taqlid qilguvchi sonsiz-sanoqsiz shoirlar yetishtirdi» deyishgacha boradiki, bularni shundayicha qabul qilish qiyin, albatta. Hatto shunday holda ham uning xulosalari ko'p-da eskirgan emas. Shu maqolaning xulosalarini ko'raylik:

1. Bu davrning adabiyoti o'zidan burungi davrga qaraganda, umuman san'atcha tuban, biroq son jihatidan ko'pdir.

2. Bu davrning adabiyotiga XVII asrning ikkinchi yarimlaridan boshlab o'g'uzchaning, ayniqsa, Fuzuliyning kuchli ta'siri bor.

3. Bu davrlarda tarixiy asarlarga ayricha ahamiyat berilgan.

4. She'rda Yassaviy maktabi bu davrda saroygacha ko'tariladir.

Lekin 20-yilning o'rtalaridan erkin fikrlash doirasi torayib bordi. Eski ziyolilarga, xususan, jadidlarga munosabat o'zgara boshladi. O'tmishning har bir hodisasiga sinfiy-siyosiy yondashish kuchaydi. Vulgar sotsiologiyaga keng yo'l ochildi. Fanda, adabiyot-madaniyatda soxtakorlik, tarixni inqilob va yangi tuzum manfaatlariga moslab yasash tamoyili paydo bo'ldi. 1917-yilgacha bo'lgan tarixni qoralash zo'raygandan zo'raydi. Ish shu darajaga bordiki, O'zKP MK o'zbek tili va adabiyoti Oktabr inqilobidan boshlangan degan fikrni ilgari surdi. Ushbu masala atrofida rasmiy hukumat doiralarida (ilmiy doirada emas) qizg'in bahs ketdi. Fayzulla Xo'jayev bilan Akmal Ikromov o'rtasida kelishmovchilik paydo bo'ldi.

O. Hoshimning 1937-yil 13-avgustdan so'roq protokolidan: «U (gap F.Xo'jayev haqida ketyapti — B.Q.) menga Ikromovga qo'shilmasligini, MK ning til va adabiyot tarixini Oktabr inqilobidan hisoblashi noto'g'riligini aytdi».

Ilmiy doiralarda esa fanni siyosatning o'yinchog'iga aylantirish, partiya va hukumat yo'lidan ozgina chiqqan xodimni obro'sizlantirish, ularga siyosiy ayb taqish avj oldi. Masalan, adabiyotimiz yo'lidan «egri qadamlar» izlash 1925-yildan ko'zga tashlangan edi. («Farg'ona» T.,1925-y. 26-dekabr). 1926-yildan «milliy ziyolilar», «jadidlar va ularning adabiyoti», «mafkura maydonida kurash» mavzulari muhokama qilina boshlaganini ko'ramiz. Bir ozdan so'ng esa «Ziyolilar masalasi ustida partiya yo'lini buzishga qarshi» degan maqolalar, «Cho'lpon shoirni qanday o'rganish kerak?» degan bahslar boshlandi. Navbat tanqiddan amaliy ishga ko'chdi. 1926-yilda Abdulla Qodiriy, 1929-yilda esa mashhur ma'rifatchi Munavvarqori, jumhuriyat xalq maorifi komissari Mannon Ramziy, uning muovini taniqli shoir Botu qamoqqa olindilar.

Bu voqealar Fitratni chetlab o'tishi mumkin emas edi. 1929-yilda «Qizil O'zbekiston» gazetasining 3-sonida (13, 14, 15-may) J.Boybo'latovning «O'zbek adabiyotida chig'atoychilik» nomli maqolasi bosiladi. (So'ng u «Za partiyu» — 1929, 3—4 son, «Pechat i revolyutsiya» — 1929, 9-son — jurnallarida rus tilida chop etildi). Fitratning «O'zbek adabiyoti namunalari» munosabati bilan yozilgan bu maqola boshdan oxirigacha uning muallifini «fosh etish»gą qaratilgan edi. Chunonchi, u mark-

sizmni inkor qilishda, o'tmishni ideallashtirishda, burjua millatchiligi g'oyalarini targ'ib va tashviq etishda ayblangan edi. Ko'p asrlik adabiy merosimiz esa «axlatlar»ga chiqarilgan edi. Maqola muallifi «Chig'atoy shoirlaridan hozirgi o'zbek proletar adabiyoti uchun qanday bo'lsa ham bir narsa ola olishimiz shubhalidir. Bunda ikki turli fikr bo'lishi mumkin emas», — deb yozdi. Kitobga so'zboshi yozgan Otajon Hoshim ham chetda qolmadi, albatta. Uning sha'niga ham qattiq gaplar aytildi.

Ko'p o'tmay, matbuotda bularning javoblari paydo bo'ldi. Jumladan, O.Hoshimning xuddi shu «Qizil O'zbekiston» sahifasida (1929-yil 16-iyul) «Adabiy meros va chig'atoy adabiyoti» degan maqolasi bosildi. Muallif «O'zbek adabiyotida chig'atoychilik»ni maqola emas, «feleton» deb atadi. Masalani bu tarzda hal qilish mumkin emasligini ta'kidladi. Muallifdagi madaniy merosni inkor qilish tamoyilini tanqid ostiga oldi. Chig'atoy adabiyotining adabiy merosimizda tutgan o'rni baland ekanligini aytdi. Fitrat esa mazkur gazetaning ikki sonida (1929-yil 15, 16-sentabr) bosilgan «Yopishmagan gajaklar» maqolasi bilan chiqdi. «Yopishmagan gajaklar» shunchaki nohaq bir tanqidga javobgina emas, go'zallikni, chinakam adabiyotni anglash, idrok etishdan uzoq nuqtai nazarning, olmadan qurt qidirishning (A.Muxtor) jamiyat hayotida tobora kuch olayotganini teran his qilish va unga qarshi isyon edi. Malakasizlikka, Krilov aytgan etikdo'zning holva pishirib, holvapazning etik tikishiga qarshi isyon edi. Gap shundaki, J.Boybo'latov Fitratning o'tmish adabiyot namunalarini bittama-bitta yig'ib, tozalab, saralab, izohlab, o'quvchiga taqdim etishdek og'ir va sharafli ishni dushmanlik, zararkunandalik hisoblagan va buni adibning butun faoliyati misolida «isbot» qilishga uringan edi.

«Bizda, bolalar orasida «Ko'zim ko'rmaydir!» — degan bir o'yin bor, — yozadi Fitrat, — bir bola ko'zini qattiq bog'lagandan keyin qo'liga uzun bir tayoq olib, o'rtada turadi. Boshqalar uning tayog'ini olmoq uchun atrofdan hujum qiladilar. Tayoqli bola tayog'ini ko'tarib «Ko'zim ko'rmaydir!» - deb tez-tez aylana beradir, tayoq kimga to'g'ri kelsa, shunga tegadir. Maqolani yozganda sizning qalamingiz ham shul ko'zi ko'rmas bolaning tayog'iga o'xshagan: aylangan, aylangan,

kimga to‘g‘ri kelsa, shunga tekkan, orada mening kitobim unutilgan, juda oz o‘rin olgan...

Adabiyot mutaxassisi yoki adabiyot tarixi bilan mashg‘ul bir odam bo‘lsa edingiz, shu bahona bilan sizga yopishmoq mumkin edi. Lekin men bilamankim, siz adabiyot tarixining odami emassiz, maqolangiz esa tasodifiy bir hodisadir».

Afsuski, tasodifiy hodisa bo‘lmaydi. 1930-yilda «Sharq haqiqati» gazetasida J.Boybo‘latov katta maqola bilan chiqdi (180, 182, 183-sonlar). Oldingi qo‘ygan ayblari yoniga panturkizmni ham qo‘shdi. Bu maqola shu yili kengaytirilib, «O‘zbeklarning adabiy merosi bayrog‘i ostida panturkizm» sarlavhasi bilan SAAPP (Средне-Азиатская ассотциация пролетарских писателей)ning to‘plamida ruscha bosildi. Maqolaga muharririyat maxsus yo‘lchi so‘z yozdi. Ushbu maqolaning bir nusxasi O‘zSSR Ichki Ishlar Xalq komissariati DXB 4-bo‘limining bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosari DX leytenanti Trig‘ulovning 1937-yil 30-noyabrda chiqargan qaroriga ko‘ra «O‘zbekistondagi antisovet panturkistik tashkilotning faoliyatini fosh etuvchi», «xususan, O‘zbekistondagi tugatilgan aksilinqilobiy millatchilik tashkilotining taniqli ideologi, hozirda qamoqqa olingan Rauf Rahimov Fitratning antisovet, millatchilik ishlarini fosh etuvchi» «ashyoviy hujjat» sifatida Fitrat «Delo»siga tirkalgan edi.

J.Boybo‘latov maqolada gapni o‘sha «Namunalar»ning e’lon qilinishiga siyosiy baho berishdan boshlagan edi. Jumladan, uni «sinfiy dushmanning» inqilob va sotsializmga «qarshilik ko‘rsatishi» sifatida baholagan edi.

Mana uning muq‘oyasa va mulohazalari:

«Chig‘atoychilik» degani bu aslida turonchilik, binobarin, panturkizmning o‘zidir... «Ulug‘ Turkiston» haqida gap ketar ekan, uning orqasida panturkizm turibdi, deb anglamoq kerak, «mazlum Sharq» deyildimi, bilingki, orqasida — panislomizm, chunki «mazlum Sharq» millatchi ziyolilar nazdida musulmon Sharqidir».

Fitrat bularning hammasini o‘tkinchi deb bildi. Bu «ayblar»da mantiq ko‘rmadi. Chunki «ayblovchilar» orqa-oldilariga qaramas edilar. Olaylik, u chig‘atoychi, binobarin, turkparast (panturkist) bo‘lsin, Bertels-chi? J.Boybo‘latov uning «Chig‘atoy adabiyoti haqida» nomi bilan «Alanga»da bosilgan ma-

qolasini ham «do'pposlagan»edi. Faqat unga siyosiy ayb qo'ya olmadi, «mutlaqo foydasiz» tadqiqot deyoldi, xolos. Lekin Navoiy va uning davri adabiyotini baholashda har ikki tadqiqotchi yakdil edilar.

Zamon esa noziklashib borardi. 1926-yilda «inog'omovchilik» to'qib chiqarildi, «eski ziyolilar»nomi bilan elning ko'zini ochgan, aqlini tanitgan bir guruhni terib oldilar. 1929-yilda «qosimovchilik» degan gap chiqdi. Yo'lini topib, Turkiston jadidlarining yalovbardori Munavvarqorini qamoqqa oldilar. Bir yil keyin, 1930-yilda jumhuriyat maorifining mutasaddilari Botu bilan Mannon Ramziy dushmanga chiqarilib, hibs qilindi.

Bulutlar kun sayin quyuqlashib bormoqda. Lekin ishlash kerak. Fitrat ilmiy-adabiy ishni bo'shashtirmadi. Tarix va madaniyatimizga doir o'nlab asarlar yozdi. 1935-yilda Cho'lpon bilan birgalikda «Ming bir kecha»ni tarjima qilishga tushdi. Bir yildan keyin aruzni juda sodda turkona tushuntirib beruvchi «Aruz haqida» risolasini bosdirdi. Lekin qismat unga o'zga narsani tayyorlar edi.

1937-yil aprelning yigirma uchidan yigirma to'rtiga o'tar kechasi Toshkentning Guliston mahallasidagi 116-uyning (hozirgi «Xalqlar do'stligi» maydoni) darvozasi bemahal taqilladi. Bunday yo'qlovning bexosiyatligini uy egasi yaxshi bilardi. Lekin taqdirdan qochib qutulib bo'lmaydi.

Darhaqiqat, IIXQ dan kelishgan edi.
Fitratning xayolidan nima kechdi ekan o'shanda?

Ehtimol, inqilob ideallariga qilingan ilk xiyonat, Turkiston muxtoriyatining qonga botirilgani, 1918-yild 20-fevral tongi esga tushgandir. Yerli xalqqa o'z taqdirlarini o'zlari belgilay olishlari, o'zlari xohlagan idora usulini o'rnatishlari mumkinligi e'lon qilingan edi, o'shanda. Va shunday ish qilinganida shafqatsizlik bilan bostirilgan edi.

1921-yil-chi? Boshqird hukumatining boshlig'i, iste'dodli tarixchi Ahmad Zaki Validiy, qozoq «Alash O'rda»sidan Og'aydarov, Turkistondan Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jayev, Xorazmdan Bekjon Rahmonov Buxoroga kelishdi. Bekjon Rahmonovning kelishi qiziq bo'ldi. Xorazmga borishi bilan qamalishi ayon edi.

Shuning uchun Buxoroda poezddan tushirib qoldirishdi. Besh jumhuriyat o'zaro hamkorlikning, birlikning zarurligiga imon keltirdilar. Hamma bir ovozdan markaz tuzishni taklif qildi. Va Zaki Validov (Validiy), F. Xo'jayev, A.Muhiddinov, H.Shoyiq, R.Nosirov, A.Shomansurov, A.Rasulov, Qushbegiyev, S.Jo'raboyev va T.Risqulovlardan iborat markaz tuzildi. T.Risqulov xuddi shu paytlari Moskvada edi. Moskva bilan bog'liq barcha masalalarni hal qilish unga topshirilgan edi. Asosiy maqsad — mustaqil Turkrespublika — tili va dini, urf-udumi va turmush tarzi tarixan bir kelgan turkiy xalqlarning madaniy-adabiygina emas, davlat, hokimiyat birligiga ham erishish edi. Amalga oshmadi. Milliy og'machilik tamg'asi bosildi. Sinfiy ongni yuksaltirish kerakligi ta'kidlandi. Ayni paytda velikorus shovinizmidan «himoya qilmoq» uchun turkkomissiya, turkbyurolar tuzildi. Va, aksincha, mavjud, nisbatan yaxlit Turkistonni yana bo'lish haqida qaror qabul qilindi. Zaki Validov mavjud sharoitda Turkistonning hech qachon ozod va mustaqil bo'la olmasligini, Boshqirdistonning ahvoli esa undan ham battarligini tez payqagan ekan, hammasini tashlab, chetga muhojir bo'lib ketdi. Hozir Istambulda. Yo uning ham ketishi kerakmidi. Qayerlardan taklif bo'lmadi. Turkiya, Qohira...

Yo'q, keta olmas edi.

Bundan yetti yil oldin ham qattiq bir dovul bo'lgan edi. Adabiy tanqid Cho'lpon ikkalasini «millatchi»dan olib «millatchi»ga soldi. Aksilinqilobchi deyishgacha borishdi. Darvoqe, Cho'lpon qayerda ekan? Tinchmikin. U ham ketmadi. Uni qashqarlik adabiyot muxlislari Akbar Sobirov, Qutbiddin Najmiddinovlar Sharqiy Turkistonga qayta-qayta undaganlari esida. Qodiriyni ham chorlagan edilar. Bormadi. Biz, xalqning jonimizni kindik qonimiz to'kilgan tuproqdan olgan, uzilsak, so'lamiz... Fayzulla Xo'jayevga qiyin bo'ldi (omonmikan, o'zi). Fayzulla Xo'jayev uni ikki marta saqlab qolgan edi. Biri, o'sha ijtimoiy kelib chiqishi Stalinga yoqmay, Buxorodan badarg'a qilingan 1923-yilda, ikkinchisi partiya diktaturasi avjga chiqib, matbuot vulgar sotsiologiya quroli bilan iste'dodli qalamkashlarni mahv etishga tushgan 1930—1931-yilda. O'shanda Cho'lpon ham Fayzulla Xo'jayevdan yordam so'rab kelgan edi. Siyosatning qayoqqa ketishini yaxshi tushungan rais yaxshi

gaplar aytib, shoirning ko'nglini ko'targan, qo'liga pul berib, Moskvaga jo'natib yuborgan edi. Moskvada 2 yil ishladi. Rais har borganida surishtirib turdi. Hol-ahvolidan xabar oldi. 1934-yilning so'ngida Toshkentga qaytganida yaxshi uylardan to'g'rilab berdi. 1936 yilda kasal bo'lganida «Sizni asramaslikka haqqimiz yo'q, chunki Sizday ikkinchi bir shoirni topib bo'lmaydi» — degan, o'zi bosh bo'lib, eng yaxshi do'xtirlarga qaratgan edi. Bugina emas. 30-yillarning o'shanday og'ir sharoitida Fan Komitetining raisi Otajon Hoshimni chaqirib, Cho'lpon, Abdulla Qodiriylar chinakam san'atkorlardir, lekin hali-hanuz munosib qadrlangani yo'q. Usmon Nosir kabi iste'dodli yoshlarimizni jamoatchilikka olib chiqish kerak, degan edi. Akmal Ikromov esa ziyolilar boshida olov lovullab yona boshlagan 1936-yilning yozida Julqunboy, Elbek, Ziyo Said, Qurbon Bereginlarni o'z yoniga chaqirib, «jamoatchilik tomonidan» keskin tanqid qilinayotganliklariga qaramasdan, ularni qo'llab-quvvatlayajagini aytgan edi. Xuddi shu Ikromov ko'rsatmasi bilan 1936-yilda «Qiyomat» va «Kalvak mahzumning xotira daftaridan» katta tiraj bilan bosilib chiqqan edi...

Xayoliga 4—5-yil oldingi mamlakatni o'z girdobiga tortgan ochlik keldi. U ko'p ofat-falokatlarni ko'rgan edi, lekin bunaqasiga duch kelmagandi. Hammadan ham hukumatga ishonib, g'allasini ekmasdan, sanoatga o'zini urganlar yo boshqa tirikchilikka o'tganlar qattiq jabr ko'rdi. Bu hukumatning o'ylovsizligimi, yo boshqa bir gap bormi, o'ylagandi u o'shanda. 1933-yilda Moskvaga ketayotib, temir yo'l yoqalaridagi ochlikdan holsiz qulayotgan qozoq birodarlarini ko'rib, dahshatga tushgan edi. Hukumat ko'hna Turkistonning bu tanti va jo'mard qavmi, ko'chmanchi chorvador qozoqning boshiga shu kunni atayin solganday. O'shanda Cho'lponning o'n yil burungi satrlari tiliga qalqib chiqqan edi:

Bir elkim, besh yildur, qonlarg'a bulang'on,
Otasi o'g'lini «dushman» deb bo'g'adur.
So'ngi burda noni ham qolmasdan talang'on,
Yosh go'dak bolasi bir burda non deydur...
Ochlik ham har kuni qurbonliq so'raydur,
Har kuni unga ham yuzlarcha qurbonlar,

Qirilib tugalish dahshati o'raydur,
Yanami behuda gunohsiz sof qonlar...

Har bir qadami nazoratda kelganligini, og'zidan chiqqan har bir so'zi, xatti-harakati qatag'onning qo'rg'oshin qoliplariga solib ko'rilishini, atrofidagi suyangan kishilari bilan bir ipga allaqachon bog'lab qo'yilganini o'sha yillari bilmasdi.

Fitratning qamoqqa olinishi va tergov hujjatlari, sud va ijrosiga oid materallar DXQ arxividagi 4269-raqmli «Delo»da saqlanadi.

Fitrat 1937-yil 24-aprelda O'zbekiston prokurorining ijozati bilan Davlat Xavfsizligi Boshqarmasi 4-bo'limining boshlig'i DX leytenanti Og'abekov tomonidan hibsga olinib, unga quyidagi ayblar qo'yilgan:

a) aksilinqilobiy millatchilik tashkiloti «Milliy ittihod»ning a'zosi;

b) Cho'bonzoda bosh Ozarbayjondagi aksilinqilobiy millatchilik tashkiloti bilan Sovet Sharqi respublikalarini Sovet Ittifoqidan ajratib, burjua Turon davlatini barpo qilish maqsadida birlashgan O'zbekistondagi aksilinqilobiy tashkilotning rahbarlaridan biri;

d) yosh adabiy xodimlarni aksilinqilobiy millatchilik ruhida tarbiyalagan;

e) aksilinqilobiy millatchilik ruhidagi asarlar, poemalar (?) yozgan.

O'sha 24-aprel tongida Og'abekovning o'rinbosari DX leytenanti Mavrin 417-raqamli orderga asosan tintuv o'tkazadi. Tintuvga mahalla komissiyasining raisi Risqi Hojiyev, qo'shnilardan Ibodulla Odilov taklif qilinganlar. Tintuv hujjati Mavrin tomonidan to'ldirilgan. Uydan Fitratning pasporti (№184671 YuJ), ilmiy xodimlik bileti (№10256), fotoqo'lyozma, pesa qo'lyozmasi, uch dona kitob, 59 varaq har xil yozishmalar, bir dona ochilmagan konvert, bir dona ochilgan, ichida uch varaqlik xati bor konvert; ikkita yon daftar, ov miltig'ining 10 dona patroni olingani qayd etilgan. Qatnashchilarning imzolari bor.

«Delo»da 1935-yil 5-mayda ham DX xodimlaridan Og'abekov va Matveev 354-son order bilan Fitratning uyida tintuv

o'tkazganliklari haqida hujjat bor. Unda ma'lum bo'lishicha, xodimlar Fitrat nomiga Afg'onistondan yuborilgan «Taqvim» bilan qiziqqanlar. Hujjat qoidasi bilan rasmiylashtirilgan. Ishtirokchi-larning imzolari bor. Protokolning bir nusxasi Fitratga tilxat bilan topshirilgan. DXQning bugungi xodimlaridan A.N.Blagorodov ushbu hujjatdagi yil 1937 bo'lishi kerak, yanglish ketgan deb taxmin qiladi. Mayli, bu boshqa masala.

«Delo»da «tergov tugagach, olingan narsalarning ish uchun ahamiyati qolmagan buyumlar sifatida yo'q qilingan»ligi haqida tuzilgan akt bor. To'g'ri, o'sha yillari Otajon Hoshim Fan komitetining kutubxonasi uchun Fitratdan 28 ming so'mlik kitob xarid qilgani ma'lum, (ularning taqdiri haqida bir narsa deyish qiyin). Shunday holda ham Fitratday kishining shaxsiy kutubxonasida bor-yo'g'i uch dona kitob bo'lganligi aqlga sig'adigan gap emas, albatta. Uning o'z qo'lyozmalari haqida ham shunday deyish kerak bo'ladi.

1937-yil 22-iyulda to'ldirilgan «Mahbuslik anketasidan:

Ismi sharifi: Fitratov Rauf Rahimovich»

Tug'ilgan yili va joyi: 1886, Buxoro shahri.

Doimiy yashash joyi: Toshkent shahri, Guliston mahallasi, 116-uy.

Ish joyi: Pushkin nomli Til va adabiyot instituti

Kasbi: ilmiy xodimlar seksiyasi a'zosi.

Mulki: xususiy uyi bor.

Ijtimoiy ahvoli: xizmatchi.

Millati va fuqaroligi: o'zbek, SSSR.

Partiyaviyligi: yo'q.

Ma'lumoti: oliy

Sudlanganmi: yo'q.

Oila tarkibi

Xotini – Fitratova Hikmat, 25 yosh, uy bekasi, yashash joyi: Guliston 116.

Onasi – Fitratova Bibijon, 70 yosh, uy bekasi.

Qizi – Fitratova Sevar, 7 yosh.

5-avgustda uning qo'liga O'zSSR IIXK DXB 4-bo'limining xodimlari Trig'ulov va Matveevlar tayyorlagan, Og'abekov tasdiqlagan 7 moddalik aybnomani tutqazadilar. Fitrat «aksilin-

qilobiy millatchilik jadidizmining asoschilaridan, rahbarlaridan biri», «sovet hokimiyatining birinchi kunlaridan tortib, so'nggi kunlargacha partiya va sovet hukumatiga qarshi millatchi panturkist aksilinqilobiy harakatni faol uyushtirib kelgan» kishi sifatida unga O'zbekiston jinoyat majmuasining 67 va 66-moddaning 1-qismi bo'yicha ayb qo'yiladi.

Shu yilning oktabrida 4-bo'lim boshlig'ining yordamchisi DX kichik leytenanti Mavrin Fitrat mansub aksilinqilobiy tashkilotning Otajon Hoshimov, Anqaboy Xudoybaxtov, Usmon Nosirov, Sanjar Siddiqov kabi «vakillari» yoniga yana yangilari «fosh etilib» qo'shilayotgani, «tashkilot»ning «chet mamlakatlar bilan aloqasi, josuslik ishlari» «ochilayotganligi»ni ko'zda tutib, 4269-raqamli ish bo'yicha tergov muddatini yana bir oyga — 1937-yilning 7-dekabrigacha uzaytirish haqida SSSR MIK dan O'zSSR prokurori orqali so'rov-qaror qabul qiladi. So'rov-qarorni 4-bo'lim boshlig'i Og'abekov ma'qullagan. Respublika prokurorining maxsus ishlar bo'yicha bosh yordamchisi Kuxarenko, IIXK yordamchisi DX mayori Leonov uni tasdiqlaydilar. Shu asosda, shu yo'nalishda tergov davom ettiriladi. 1937-yilning 30-noyabrida DX leytenanti Trig'ulov Fitrat ishi yuzasidan qo'shimcha tergov asosida qaror-aybnoma tayyorlaydi. U endi Fayzulla Xo'jayev ko'rsatmasiga suyanib, Sovet hukumatini kuch bilan ag'darib tashlash maqsadida Angliyaning Afg'oniston va Erondagi vakillari bilan yashirin harbiy-siyosiy shartnomalar tuzganlikda, bosmachilikni tashkil qilganlikda, Turkiyadan Anvar poshshoni boshlab kelganlikda, fashistlar Germanisining josuslik tashkilotlari bilan, chet ellarga ketgan muhojirlar bilan aloqadorlikda ayblanadi.

1937-yilning 4-dekabrida qo'shimcha tergov ham tugadi. Bu haqda ayblanuvchi xabardor qilindi. Trig'ulov buni protokollashtirib, Fitratga qo'l ham qo'ydirdi. Oradan 5 oycha vaqt o'tadi. Birdan, gap yo'q, so'z yo'q 1938-yilning 20-mayidan yangi tergov boshlanadi. Bu gal DXQning katta leytenanti Koposov bilan bizga tanish Trig'ulov tergov qiladilar. U 1918-yildan buyon inglizlar foydasiga josuslik qilib kelganlikda ayblanadi. O'sha yilning bahorida Toshkentdagi «Regina» mehmonxonasida F.Xo'jayev vositachiligida polkovnik Beyli bilan uchrashuv va yollanuv tafsilotlari to'qib chiqariladi. Ayni paytda

G'ozi Olim, Qayum Ramazon, Otajon Xoshim kabilarni «yollaganligi», pirovard-oqibatda O'zbekistonda qurolli qo'zg'olon uyushtirish, Sovet hukumatini ag'darib, boshqa davlat o'rnatish va bu ishlarga F.Xo'jayevning bosh bo'lib, Fitratning uning o'ng qo'li bo'lishi haqidagi uydirmalar yaratildi. Bu xil «ayb»larni «isbotlash» uchun «ish»ga Buxoro XShJ ijroqo'mi raisining sobiq muovini Muinjon Aminov (1937-yil 16—20-aprel), shoir Cho'lpon (1937-yil 23-iyul, 10-avgust, 25-avgust, 25-sentabr), nemis tili muallimasi Gulsum Rahimova — Ashrafiy (1937-yil 28-iyul), tilshunos olim Qayum Ramazonov (1937-yil 29-iyul), yozuvchi Anqaboy Xudoybaxtov (1937-yil 10-avgust), Buxoro XShJ Nozirlar Sho'rosining sobiq raisi Ota Xo'jayev (1937-yil 11-avgust), O'zbekiston Fan Komitetining sobiq raisi Otajon Hoshimov (1937-yil 13-avgust), uning sobiq o'rinbosari Sulton Matqul (1937-yil 22-sentabr), O'zbekenergoning sobiq injeneri To'lagan Mo'min (1937-yil 27-sentabr), yozuvchi va olim G'ozi Olim Yunosov (1937-yil 5-oktabr), «Pravda Vostoka»ning sobiq muharriri Muhammad Hasanov (1937-yil 7-oktabr), veteran inqilobchi Sa'dulla Tursunxo'jayev (1937-yil 10-oktabr), jurnalist A'zam Ayupov (1937-yil 5-noyabr), yozuvchi G'ulom Zafariy (1937-yil 15-noyabr) tergovlaridan ko'chirmalar, yuzma-yuz uchrashtirish materallari tirkalgan. Bularni o'qish g'oyat iztiroblidir. Bular xalqimizning asl farzandlari qadr-qimmatini oyoqosti qilish, irodasini sindirish ustida o'tkazilgan vahshiyona tajribalardir.

Avvalo bu sud-tergov jarayonlari hammasi ayblanuvchilarning xohishiga zid holda rus tilida olib boriladi. O'zbek adabiyotining klassiklari ustidan hukm chiqarishni o'z zimmalariga olgan bu tergovchi shovvozlarning aksariyati bu adabiyotni qo'ying, tilning o'zidan osmon qadar yiroqlar. Anqaboy Xudoybaxtovni tergov qilgan Matveev uchun «O'tkan kunlar» bilan «Utkun(?) kunlyari(!)», «Berdi tatar» bilan «Berdiyar» qanday farqsiz bo'lsa, Cho'lponni tergagan Trig'ulov uchun ham «Ko'mak» va ««Yulak(?!), «gurung» va «gurunch»(!!) shunday farqsiz.

Nihoyat, DX leytenantlari Trig'ulov va Matveev Fitrat ishi yuzasidan qaror-aybnoma tayyorlaydilar. Fitrat ayblari yoniga O'zbekiston SSR Jinoyat majmuasining vatanga xiyonat qilgan-

lik haqidagi 57-moddasi (1-punkt) – u «bosh bo'lgan aksilinqilobiy tashkilot»ning trotskiychilar bilan hamkorlikda ish olib borgani (millatchi, panturkistning ishlarini qarang!), uning shaxsan «O'zbekistonda german razvedkasining rezidentsiyasini boshqargani» qo'shiladi va SSSR Markaziy Ijroiya Komitetining davlat buzuqligiga qarshi 1934-yil 1-dekabrda qabul qilgan qaroriga muvofiq ishning SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasiga oshirilgani aytiladi. 3 varaqlik aybnomaga 1937-yil 16-dekabrda O'zSSR IIXK[327] mayor Apresyan, 1938-yil 3-oktabrda esa SSSR prokurori A. Vishinskiy nomidan uning yordamchisi imzo chekadilar.

SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi Fitrat ishini 4-oktabrda brigvoenyurist Alekseev raisligida, brigvoenyurist Zaysev, 1-rang harbiy yuristlar Boldirev, Batner, Gep Shuls Ani ishtirokidagi ko'chma sessiyasida ko'rib chiqadi. Ish haqida prokuror o'rinbosari Gep Shuls Ani axborot beradi. Sessiya 4 punktlik ajrim chiqargan.

1) ayblov qaroriga qo'shilish va ishni SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi tomonidan amalga oshirish uchun qabul qilib olish;

2) Fitratni O'zSSR JK ning 57-1, 64, 67-moddalariga muvofiq sud qilish;

3) SSSR MIK ning 1934-yil 1-dekabr qaroriga muvofiq ishni sudning yopiq majlisida oqlov-qoralovsiz, guvohlarsiz o'tkazish;

4) ayblanuvchini ehtimol chorasiga ko'ra sudga qadar qamoqda ushlab turish.

Yopiq harbiy sud hujjat-protokoliga ko'ra 5-oktabrda bo'lib o'tgan. Qatnashchilari yuqorida tilga olingan kishilar: Alekseev, Zaysev, Boldirev, Batner. Faqat Gep Shuls yo'q. Majlis 12,25 da boshlangan. 12,40 da hukm o'qilib, majlis tugaganligi ma'lum qilingan. Shu 15 minutda rais Alekseev majlisni ochgan, kotib Batner sudga hamma narsa tayyor ekanligi haqida axborot bergan. Rais ayblanuvchidan kerakli hujjatlarni olgan-olmaganligini so'ragan, haq-huquqini aytgan, sud Hay'atini ma'lum qilgan, ishga doir ayrim hujjatlar haqida gapirgan. Rais so'roviga ko'ra kotib ayblov qarorini o'qib bergan. Rais ayblanuvchini

[327] IIXK – Ichki ishlar xalq komissarligi.

unga qo'yilayotgan aybning asosiy mazmuni bilan tanishtirgan, iqror-iqrormasligini so'ragan, javobini eshitgan. Ayblanuvchiga so'nggi so'z berilgan. Hukm uchun Hay'at muhokamaga kirib chiqqan. Hukm o'qilgan. — Hammasiga 15 minut!

Bu hukm eng oliy jazo — otish va butun mol-mulkini musodara qilish haqidagi hukm edi.

IIXK materiallaridan:

Mutlaqo maxfiy
Bildiruv

Fitrat Rauf Rahimovichni otish haqidagi hukm 1938-yil 4-oktabr kuni Toshkentda ijro etildi. Hukm ijro qilinganligi haqidagi akt SSSR IIMning 1-maxsus bo'limi alohida arxivida (10-jild, 531-varaq) saqlanadi.

SSSR IIM 1-maxsus bo'limining 10-bo'lim boshlig'i
Mayor Mixalev (imzo)

Darhaqiqat, hukm oshig'ich bajarilgan. Adib suddan bir kun oldin hali hukm chiqarilmay, otilgan. Aniqrog'i, oldin otilib,. so'ng ertasiga sud qilingan. Bundan oshig'ich yana qanday bajarish mumkin!

Fitrat qamoqqa olingan 1937-yilning 24-aprel tongida rafiqasi Hikmatoy ham hibs qilingan edi. «Ish»dagi hujjatlardan uning 1938-yil yanvargacha qamoqda saqlangani ma'lum bo'ladi.

Hikmatoy opa 1956-yilda erining taqdiri haqida so'rab, SSSR Oliy sudiga murojaat qiladi. SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi raisining o'rinbosari adliya polkovnigi V. Borisoglebskiy imzosi bilan faqat 2 nusxa tayyorlanib, biri O'zSSR IIM militsiya boshqarmasiga, ikkinchisi 1-maxsus bo'lim boshlig'iga yuborilgan «maxfiy» xatda shunday qaydga duch kelamiz:

«Ma'lum qilamanki, 1886-yilda tug'ilgan R.R.Fitrat SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi tomonidan 1938-yil 15-(?) oktabrda sudlangan va jazoni o'tash paytida 1944-yil 3-noyabrda (?) vafot etgan (!!!)».

Adibning o'limi haqida ikki sana. Jumboqqa tishimiz o'tmay, Jumhuriyat DXQning ushbu bo'lim xodimlaridan A.N.Blagoro-dovga yana murojaat qilamiz.

«Hujjatlarni rasmiylashtirishda anglashilmovchiliklar bo'lgan, albatta, — deydi u. — Lekin, Fitratning 44-yilgacha tirik qolgan bo'lishi sirayam mumkin emas. Qatag'onning juda katta qismi 37-yilning kuzidan 38-yilning kuzigacha to'g'ri kelgan. Shuni yashirish uchun mazkur davrda qatl qilinganlar maxsus maxfiy ko'rsatma bilan boshqa yillarga sochib yuborilgan».

Inson taqdiriga, har zamonda bir keladigan Fitratday iste'dod taqdiriga bu xil g'ayriinsoniy munosabatdan bir lahza karaxt qolasiz...

SSSR Oliy sudining harbiy kollegiyasi o'zining 1957-yil 1-avgustdagi majlisida Fitrat ishi yuzasidan SSSR bosh prokurori xulosasini ko'rib chiqdi va 4N-07109157 raqamlik Ajrim chiqardi. Ajrimda Fitratning «hech qanday jinoyat qilmagan»ligi «aniqlanib», unga nisbatan chiqarilgan 1938-yil 5-oktabrdagi hukm «bekor qilindi» va «ish to'xtatildi». Majlis raisi adliya polkovnigi P.Lixachev O'zbekiston DXK hisob-arxiv bo'limi boshlig'iga Fitrat ishi bo'yicha oqlov majlisining 1957-yil 1-avgust qarorini bajarish uchun «maxfiy» xat yo'llaydi. 1957-yilning 10-noyabrida Fitratning rafiqasi Hikmatoyga oqlov xabari yetkaziladi. Bu vaqtda u Toshkent shahar Sobir Rahimov ko'chasi 2-tupik 6-uyda yashardi. Chamasi, o'sha 1937-yilning 24-aprelida Fitrat qo'lga olinishi bilan u yashagan hovli ham tortib olingan. Chunki uning xotini Hikmatoy qamoqdan chiqqach, Guliston 116-uyga emas, Taxtapuldagi 65-uyga kelgani ma'lum. Shuningdek, yozishmalarda Pushkin ko'chasidagi 47-uyda turganligi ham qayd qilinadiki, bular oilaning o'z hovli-uyidan mahrum bo'lib, ijara uylarda yashaganligini yana bir karra tasdiq etadi.

Fitratning oqlanganiga bu yil 35 yil to'ladi. 35 yil bir yigit umri. Zamonning nohaqligi bilan umri ham, ijodi ham poymol qilingan adibning xotirasini 35 yildirki, o'rniga qo'ya olmaymiz. O'rniga qo'yish qayoqda, shu paytga qadar biror kitobchasini hatto nashr ettira olganimiz yo'q. To'g'ri, mutaxassis kam, manbalar yo'qotilgan, qolgan-qutganlari ham parishon holda va ular yil sayin siyraklashib bormoqda. Lekin bu ishlarga rag'bat,

hamiyat, fidoyilik, tashkilotchilik bormi? Nega tezkorlik bilan bor mutaxassislardan Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy, Munavvarqori kabilarning ijodini to'plash, o'rganish, nashr qilish, kerak bo'lsa, ularga ayrim vakolatlar, imtiyozlar berish, birinchi manbalarning saqlanib qolganlarini asrash-avaylash, nusxa ko'paytirishni yo'lga qo'yish, balki ishning samaraliroq ketishi uchun bir yil Cho'lpon, bir yil Fitrat, bir yana boshqasining yilini e'lon qilib, ko'pchilikni bu ishga safarbar etish mumkin emas? Mumkin, albatta. Faqat, buning uchun xohish kerak. Chamasi, uning qaddini rostlashi hali ham kimlargadir yoqmaydi. Va bu «kimlar» hali ham mafkura va hokimiyatning yuksak poyalarida sobit ustuvor turibdilar. Demokratiyaning goh esib, goh bosilayotgan shamoli tufayligina faol qarshilik ko'rsatmayotirlar. Gap — shunda.

Fitratning ikkinchi umriga kichkina bir muqaddima sifatida bosilajak kitoblari, ijodiy-ma'naviy olami, shijoat va zakovat bilan kechgan umri haqidagi ishlar hali oldinda.

Avlod tarbiyasi — millat tarbiyasi

Yosh avlod tarbiyasida adabiyotning, xususan mohiyati va mazmuniga ko'ra tamoman yangi bo'lgan XIX asrning oxiri XX asr boshi adabiyotining roli va o'rni alohida. Bu davrni o'z vaqtida milliy uyg'onish davri deb atagan edilarki, bu bejiz emas.

Yangi o'zbek adabiyoti va milliy istiqlol g'oyasi haqida gap ketganda eng kami, uch masalani tilga olib o'tish kerak bo'ladi:

1. «Yangi o'zbek adabiyoti» degan tushuncha ostida nima ko'zda tutiladi?

2. Milliy istiqlol g'oyasi bu adabiyotda qanday namoyon bo'ladi?

3. Yosh avlod tarbiyasida undan qanday foydalanish mumkin?

Yangi adabiyot deganda biz ko'p asrlik adabiyotimizning asosan so'nggi asrini ko'zda tutamiz. Bu aslida sal ilgariroq, o'tgan asrning so'nggidan boshlandi.

Bu adabiyotning ayon ko'rinib turgan xususiyati unda davr voqealarining aks etganligi edi. Unda «Sovet mamlakati» degan

yasama bir mamlakat, «sovet xalqi» degan soxta bir millat yasamoqchi bo'lgan sho'ro tuzumi voqealari ham aks etdi. Bu voqealar shunchaki emas, murakkab jarayonlari bilan aks etdi. Istilo va uning oqibatlari, Vatan va Millat taqdiri ham adiblarimizning ko'z o'ngida turdi. Bu adabiyotning chegarasi, ko'lami ham katta: Muqimiydan Cho'lpongacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Janrlari, ifoda vositalari ham xilma-xil. Ayniqsa, vaqtli matbuot va teatrning yo'lga qo'yilishi adabiyotning imkoniyatlarini kengaytirib yubordi.

Adabiyot hech qachon Vatan va Millat taqdiriga bu qadar yaqin kelgan emas edi. Vatan va Millat taqdiri hech qachon bu qadar ham qahr, ham faxr bilan, ham iztirob, ham g'urur bilan adabiyotda aks ettirilmagan edi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, 1865-yildan 1929-yilgacha bo'lgan davr oralig'ida ushbu mavzuga daxl qilmagan birorta ijodkor yo'q. Agar bu adabiyotning bosh mavzui nima desalar, «millat» deyish kerak bo'ladi. Eng katta dardi nima, deb savol qo'yilguday bo'lsa, «istiqlol!» deb javob berish kerak bo'ladi.

To'g'ri, masala hech qachon bunday ochiq, yalang'och qo'yilgan emas. Qo'yilishi ham mumkin emas. Bu — badiiy adabiyot. Uning o'z qonunlari ham bor. Va tabiiyki, istiqlol g'oyasi asarning umumiy ruhidan, timsol va tamsillarga o'rab berilgan ma'no-mazmunidan kelib chiqadi. Bu bilan hisoblashmog'imiz shart.

Xuddi shu yerda biz tilga olmoqchi bo'lgan keyingi muhim masalaga duch kelamiz. Bu talabalarga «yangi o'zbek adabiyoti» yoxud «jadid adabiyoti» kursini o'tishda milliy istiqlol g'oyasini qanday singdirish masalasidir. Aytish kerakki, bu juda maroqli, qiziqarli, ayni paytda muhim va mas'uliyatli bir ish. Negaki, bu davr adabiyoti, hali aytganimizdek, millat dardi bilan to'la adabiyot. Har bir obraz-timsoldan milliy g'oya, milliy mafkura chiqib kelaveradi. Ularni xotirjam o'qiy olmaysiz. Deyarli har bir so'z, har bir ishoraning zamirida istiqlol dardi yotadi. Faqat ularni anglash, umumiy kontekstdan kelib chiqib baholash lozim. Aks holda, bir tomonlamalikka yo'l qo'yish hech gapmas. Uzoqqa bormaylik, ma'rifatchilik masalasini olaylik. G'oyat muhim mavzu, taraqqiyotning kaliti. Jadid adabiyotida juda keng ishlangan. Shunga yaqinroqdan razm solaylik. Mana,

shunchaki bir misol. Rossiya Turkistonni zabt etgach, bu yerga temir yo'l olib keldi. Xo'sh, shuni qanday baholash kerak? Poezd, albatta, uzoqni yaqin, og'irni yengil qiladigan o'ziga xos mo''jiza. Ikkinchi tomondan, u ilm-fan samarasi. Shoirlarimiz dastlab shunday baholadilar. Masalan, Kamiy, «temir yo'l xususida» degan she'r yozdi, uning «rohatafzo»ligini ta'rif-tavsif etdi. «Taxti ravon», «obi ravon» deb maqtadi. Bular — tabiiy. Endi masalaning ikkinchi tomoniga qaraylik. Bu temir yo'llar (ular asosan ikkita edi. Biri o'tgan asrning 80-yillarida Turkistonni Markaziy Rusiya bilan g'arbdan Qizil Arvot orqali bog'lardi. Ikkinchisi yangi asrning 10-yillarida qurilgani, shimoldan Orenburg orqali bog'lardi) Turkistonning yer usti va yer osti boyliklarini tezroq, samaraliroq tashib ketishni ko'zda tutardi. U bu yerga hech qachon mahalliy xalqning og'irini yengil qilish uchun keltirilgan emas edi... Bunga qanday qaramoq kerak edi? Avvalo, bu holni mahalliy xalqning nechtadan bittasi bilar edi?!

Rossiya Turkistonga kelar ekan, u bilan birga tabiiyki, Yevropacha tartiblar ham (davlat yuritish, maorif tizimi, harb ishlari, madaniy-maishiy qurilmalar, savdo-sanoat kabi) kirib keldi. Xususan, teatr, matbuot, gimnaziya kabilar necha asrlardan buyon turg'unlikda kelayotgan Turkiston xalqida katta taassurot qoldirdi. Rus ma'muriyati mahalliy ziyolilardan vakillar tanlab, ularning Moskva, Peterburgga sayohatini uyushtirdi. Bir qismini zodagonlarning ichki hayotiga olib kirdi. Turli-tuman ko'rgazmalar uyushtirdi. Va bular, tabiiyki, o'z samarasini berdi. Adabiyotda Rossiya mavzui, rus ilm-fani, madaniyati-maorifi targ'ibi paydo bo'ldi.

Ilm-fan baxt va saodatning kaliti, albatta. Lekin gap shundaki, bu ilm-fan nimaga xizmat qildiriladi?! Shunisi muhim. Ilmni ko'pincha, nurga, ziyoga qiyos qiladilar. Haqiqatan ham shunday. Undan to'g'ri foydalanilsa, yo'lingizni yoritadi, oq-qorani ko'rib borasiz, tanib borasiz. Manzilga yetishingiz oson bo'ladi. Agar undan yovuz maqsadlarda foydalanilsa-chi? Qirg'in-barot qurollar ham ilm-fan samarasi. Qo'yingki, Rossiyaning Turkistonni bosib olishi ham rus harbiy qudratining, harbiy tafakkurining, demakki, ilm-fanining samarasi. Undan keyingi bosqich-mustamlakachilik idorasi-chi? Bu davrda Turkistondan

ancha ilgarilab ketgan Rossiya ilm-fanining, idora tartiblarining ko'z-ko'z qilinishi, ilmtalab mahalliy ziyolilarning bir qismini og'dirib olishga urinishlar, yo bo'lmasa qisqa muddatda tashkil qilingan yuzlab rus-tuzem maktablari Turkiston ahliga himmatdanmi edi? Olijanoblikdanmi edi? Aslo unday emas. Bu rus istilochilik siyosatining o'ziga xos uslubini tashkil qildi, xolos.

Maorifni olaylik. 1881-yilda Ismoilbekning «Rusiya musulmonligi» kitobi bosildi. Muallif maorif borasida fikr yuritib, Rusiya hukumatining mahalliy musulmonlarga o'z an'anaviy o'quv tizimida savod chiqarishga ruxsat berishiga va ularni davlat ishlariga jalb etib, ulkan mamlakatni hamkorlikda boshqarishga imkon yaratishiga umid qiladi.

Xo'sh, hukumatning munosabati qanday bo'ldi? Bir yil o'tar-o'tmas, Toshkentda katta bir yig'in chaqirildi. «G'ayrirus musulmonlar maorifini qanday prinsiplar asosida tashkil etmoq kerak» degan masala qo'yildi. Va bu prinsiplar, asosan ikkita qilib belgilandi: 1. Ruslashtirish. 2. Islomni buzish.

Bunaqa faktlar ko'p. Masalan,. Rusiya Ichki ishlar vazirligining Turkiston chor maorifi ma'murlariga bergan ko'rsatmasi bor. Unda rus-tuzem maktablari mutasaddilariga mahalliy xalqqa rus tilini qay darajada o'rgatish borasida me'yor belgilanadi. Unga ko'ra, mahalliy xalq rus tilida gapirganida hamisha nimanidir yaxshi bilmasligidan rus ziyolisi oldida o'ng'aysizlanib turishga majbur bo'lishi lozim edi.

Chor Rusiyasi aqidasiga ko'ra hokim millat tobe millatdan har jihatdan ustun bo'lmog'i lozim va hamma narsa shunga qaratilgan edi. Ular hatto Turkistonni zabt etishlarini va bunga haqli ekanliklarini qonunlashtirmoqchi bo'lardilar. Go'yo jannatday bir makonni undan samarali foydalana olmayotgan egalari qo'lidan samarali foydalana oladigan boshqa bir millatning tortib olishida hech bir g'ayritabiiylik yo'q emish.

Bularning barchasini biz buyuk millatchilik, deb ataymiz. Adabiyot shularni ilg'ay oldimi? Ilg'ay oldi. Mana o'sha ilk istilo davri vakili Furqatni olib ko'raylik. U bir tomondan, «O'rusiya zamoni»ni qutlug' davron — «farxundanishon» davron deb yozsa, ikkinchi tomondan, Xudoyorxonning bir o'g'liga bag'ishlangan bir she'rida bu davlatning butun qabohatini ochib tashlaydi:

G'unchai davlatni gul yanglig' parishon ayladi,
Tundbodi hodisot mojarosidin, begim.
Oxirul-amri hukumat gulshani bo'ldi xazon,
Keldi zog'u qoldi bulbullar navosidin, begim.

Ko'rinayaptiki, biz shu paytgacha ma'rifatchilik deb kelgan bir qator adabiy fakt va hodisalarni qayta ko'rishga ehtiyoj bor.

Ikkinchidan va eng muhimi, ma'rifat tushunchasining o'zini ikki xil talqin qilish, xususan, uning hokim millat qo'lida tobe millatga nisbatan uni itoatda saqlash uchun bir vosita sifatida qaralgani ma'lum bo'ladi.

Fitratning «Chin sevish» dramasida shunday bir sahna bor: Karimbaxshxon xotini Fotimaxonim va Yevropada o'qib kelgan Rahmatulloxon degan yigit suhbatlashib o'tiribdilar. Gap bilim va adolatga, xususan Yevropadagi bilim va adolatga kelib taqaladi.

Fitrat bir she'rida qonga belangan Turkiston manzaralarini chizarkan, kim bunday qildi, degan savol qo'yib, «Madaniyat degan g'arblik alvasti» deb javob beradi. Cho'lpon bir she'rida «madaniyat» bilan «vahshoniyat»ni yonma-yon qo'yadi.

Fitratning «Hind ixtilolchilari» dramasida esa shunday sahna bor: Ingliz Marling Munir qo'rg'oni boshlig'i mavlono Nu'mon bilan gaplashib o'tiribdi: «Bizasizkim, — gap boshlaydi sekin Marlin, — ingliz ulusining hindga kelganliklari hindliklarni yetishtirmak, «madaniy qilmak» uchun edi... Biz kelmasdan burun Hindiston din janjallari, mazhab g'avg'olari, qorinqursoq urushlari bilan to'lg'on edi... Biz kelgach, shul buzuqliklarni tuzatdik! Janjallarni ko'tarturdik. Madaniy yashamoq yo'llarini ko'rsatdik».

Dunyo bino bo'libdiki, hech bir jahongir «men falon mamlakatni talamoq uchun borganman» degan emas. Hammalari go'yo «adolat» va «ma'rifat» olib kelganlar. Makedoniyalik Aleksandrdan rossiyalik Aleksandrgacha.

Ko'rinyaptiki, madaniyat, ma'rifat talqinlari an'anaviy yondashuvdan tamoman farq qiladi. Biz esa bularni aksariyat sho'ro pozitsiyasidan baholab kelgan edik. Holbuki, ularga Vatan va Millat manfaati nuqtai nazaridan yondashga-nimizdagina, mohiyatini to'g'ri anglagan bo'lamiz. Bu jiddiy masaladir, meto-

dologik masaladir. Bu xil masalalarga «yangi o'zbek adabiyoti» kursini o'tayotgan har bir o'qituvchi alohida e'tibor berishi, ya'ni har bir adabiy faktni davr kontekstida yoritishi shart deb hisoblaymiz. Shundagina milliy istiqlol g'oyasini «yangi o'zbek adabiyoti» kursini o'qitishda tatbiq etgan bo'lamiz.

Mafkura haqida ba'zi mulohazalar

Bugun mafkura haqida ko'p gapirmoqdamiz, ko'p yozmoqdamiz. Har ikki gapimizning biri mafkura bo'lib qoldi. Hatto uni milliy mafkura, istiqlol mafkurasi, degan sifatlar bilan atamoqdamiz.

Mafkura, nima o'zi?

Mafkura, so'zma-so'z aytganda, fikrlar majmui, tizimi, silsilasi. To'g'rirog'i, bir, yagona nuqtai nazar atrofidagi tizim, silsila. Insoniyat bino bo'libdiki, u bor. Chunki inson, hamisha ma'lum aqidalar, tushunchalar bilan yashaydi. Har bir jamiyatning turmush, yaxshilik va yomonlik, o'tmish va kelajak haqida ma'lum shaklga tushgan fikri — mafkurasi bo'ladi. Bu — bir jihati. Ikkinchidan, dunyoda necha ming millat bo'lsa, ular bir-birlaridan faqat tillariga, boringki, ranglariga, shaklu shamoyiliga ko'ra emas, urf-udumlariga fe'l-atvorlari ayrim voqea-hodisalariga turli munosabatlari bilan ham farqlanadilar. Shu ma'noda mafkura milliy qadriyatlar bilan ham juda bog'liq. Binobarin, u ham milliy, ham ijtimoiy tushuncha.

Nima bo'lganda ham, u millatning, mamlakatning yoxud jamiyatning yashash qoidasi, turmush tarzi. Shunga ko'ra, o'sha millat, mamlakat yoxud jamiyat taraqqiyotining yo'l-yo'nalishida uning favqulodda roli va o'rni bor.

Biz o'zbeklar 130 yil davomida mustamlakachilik va totalitar tuzum sharoitida yashab keldik. Bugun haqli e'tirof etilayotganidek, tilsiz va dinsiz yashab keldik. Asrlar bo'yi millatni tarbiyalab kelgan an'analar, bugun urf bo'lgan istiloh bilan aytsak, qadriyatlar, nihoyat millatning g'ururi va sha'ni tadrijiy ravishda va shubhasiz, ongli holda poyama-poya yo'q qilinib keldi. Bularning hammasi qanday maqsadlar bilan qilingani bugun barchaga ayon: yangi mafkura uchun kishilarni tayyorlash kerak edi. Dastlab buyuk rus fuqaroligi tuyg'usi

singdirildi. So'ng rus qiyofasidagi «sovet kishisi»ning obrazi paydo bo'ldi. Va u barcha millatlar uchun andoza qilib olindi. Tabiiyki, biz ham shu ko'yga tushdik. Ko'ksimizdagi milliy qadriyatlar, islomiy ma'rifat quvib chiqarildi, o'rniga «kommunizm», «kommunist»lik aqidasi joylandi. U esa rus sotsialistik nazariyasi, rus marksizmi asosida shakllangan edi. Dunyo aylanib, bu tushunchalarning misi chiqdi. Zo'ravonlik asosiga qurilgan saltanat qulab, millatlar mustaqillik ola boshlashi bilan uning mafkurasi ham tabiiyki, potrab ketdi. To'g'ri, bu hol birdan yuz bergani yo'q. 70 yil davomida singdirilgan aqidaning 70 kunda chiqib ketishi mumkin ham emas. Uning ustiga bu individual jarayon.

Yana bir narsani hisobga olish kerak. Sovet mafkurasining eng muhim xususiyatlaridan biri kollektivni bayroq qilib, shaxsning rolini pasaytirib borish bo'lgan edi. Bu irodasiz, tashabbussiz, bir-biridan farqlanmaydigan, lekin nimani dasturlashtirsangiz o'sha bilan ishlayveradigan odam-mashinalarni tayyorlashda g'oyat qulay yo'l edi. Oqibat shu bo'ldiki, jamiyat fikrlashdan mahrum bo'la bordi va eng yomoni programmasiz «ishlay olmaydigan» bo'lib qoldi.

Istiqlol, milliy o'zlikni anglash aksincha, har bir shaxsning hayotdagi har bir hodisaga o'z munosabati, o'z fikri bo'lishini talab qilar edi. Har bir kishi istiqlol degan ne'matni o'z vijdon-vujudi bilan his etmog'i lozim. Bu «o'zlik» esa yo'q darajaga kelib qolgan edi. Masalaning muhimligi ham, murakkabligi ham, menimcha, shunda. Binobarin, bugun istiqlol mafkurasi haqidagi har qanday gap esa mana shu «o'zlik»ni tiklamoqdan boshlanishi kerak.

Buning uchun barcha o'quv-tarbiya tizimi—bog'chadan oliy maktabgacha, aspirantura, malaka oshirish kurslarigacha, yuqori malakali ilmiy va ilmiy-texnik mutaxassislar, rahbar kadrlar tayyorlash tizimi va dasturi Vatan va millatning yuksak manfaatlari asosida qayta ko'rib chiqilishi lozim. Birinchi navbatda, ochiq, sodda o'zbek tilida yozilgan, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini tarbiyalaydigan, ona Vatan tushunchasini va unga sadoqatni izchil va poyama-poya singdirib boradigan dasturlar, qo'llanmalar kerak.

Chaqaloqning o'yinchog'idan turarjoy binolarigacha, kundalik sanoat mahsulotlaridan fan-texnikaning eng murakkab va zamonaviy asbob-uskunalarigacha barcha-barchasi milliy ong, milliy ruh, milliy g'urur tarbiyasiga xizmat qildirilmog'i lozim.

Faqat ishlab chiqarish yoxud o'quv-tarbiya jarayoni emas, savdo, madaniy-maishiy xizmatgacha, oila, ko'cha-kuy munosabatlaridan turli soha va mavqedagi iqtisodiy, madaniy, siyosiy munosabatlargacha millat tarbiyasiga qaratilmog'i kerak. Millat taraqqiyoti va millat tarbiyasi uzviy birlikda, chambarchas aloqada borishi lozim. Bu borada taraqqiy qilgan jahon millatlari tajribasidan o'rganish yaxshi natija beradi.

Bularni alohida ta'kidlamoqdan maqsad shuki, millat 130 yillik mustamlaka davrida o'zining juda ko'p asliy xususiyatlarini yo'qotdi. Ularni tiklamoq kerak. Ularni tiklamaguncha millat o'z yo'lini topa olmaydi. O'z yo'lini topmagan millatning esa kelajagi bo'lmaydi. Tarix bu millatning faqat mehnat himmatiga yoxud sabru toqatigagina emas, g'ayrat va shijoatiga ham juda ko'p bor guvoh bo'lgan. U pokdomonlikni, erk va ozodlikni hamisha millatning sha'ni, shukuhi deb bilgan. Buning misollarini istagancha topish mumkin. Masalan, Oktabrdan so'ng yurtdoshlari-mizdan biri yarim millionga yaqin kishi sovet tuzumi bilan chiqishmasdan chet ellarga muhojir bo'lib ketgan va ular ne azoblarni ko'rmadilar. Lekin birortasi o'g'irlik yoki jinoyat qilmadi. Aksincha, ularning ayrimlari shunday og'ir musofirchilik sharoitida shunchaki jon saqlash emas, o'z aqlu g'ayratlari bilan katta davlat — sarmoya orttirishga muvaffaq bo'lganliklari ma'lum. Ular Millat va Vatanning sha'nini shunday baland tutgan edilar. Holbuki, o'z Vatanida qolgan xalqimiz hukmron millatning va mafkuraning tazyiqi ostida o'zlikdan uzoqlashib bordi.

Xullas, millat o'zining asl xususiyatlarini tiklashi kerak. Va buning birdan-bir kafolati mustaqillikdir. Lekin tabiiyki, holva degani bilan og'iz chuchimaydi. Mustaqillik e'lon qilingani bilan hali ish bitmaydi. Mamlakat to'la iqtisodiy mustaqilikka erishgandagina, siyosiy mustaqillikni ta'minlashi mumkin bo'ladi. Boshdan oxirigacha qaramlik asosiga qurilgan va yetmish yil shu yo'nalishda to'xtovsiz ishlab kelgan iqtisodni esa birdan o'zgartirib bo'lmaydi. Bu ish g'oyat ehtiyotkorlik bilan bosqich-

ma-bosqich qilinishi kerak. Prezidentimiz aytganlaridek, yangi uyni qurmasdan turib eskisini buzib bo'lmaydi. Lekin muhimi shuki, yangi uy shitob bilan qurilmoqda. Mustaqillik har bir millatning taraqqiyoti uchun birdan-bir omil ekanligi bugun anglab yetilmoqda. Bu — muhim gap. Keyingi paytlarda joylar nomi shiddat bilan o'zgartirilmoqda. Bu, tabiiy, albatta. Lekin ular aql va mantiq asosida bormog'i kerak. Toki ularni qayta o'zgartirib, tarixni chalkashtirib yurmaylik. Faqat tarix emas, iqtisod ham jabr ko'radi. Shu sabab, bu ishga taalluqli olimlar, adiblar, jurnalistlar, jamoat vakillaridan tarkib topgan e'tiborli komissiyalar bosh-qosh bo'lsin. Hozirda ayrim buyuk ajdodlarimizning nomlari qayta-qayta qo'yilayaptiki, bunday tajriba besamar ekanligiga kechagi kun guvoh. Qolaversa, xalqimiz faqat nomlar emas, yetmish yillik sovetlar tarixi bilan ham «tarbiyalanib» keldi. To'g'rirog'i, unga butun tarix mana shu yetmish yillik sovet tarixi shaklida ko'rsatildi, u yog'i yerga ko'mildi. Shu jihatdan Toshkentning qoq markazida bir vaqtlardagi Kaufman o'rniga Sohibqiron Amir Temur haykali o'rnatilishi, mamlakatimizning bosh teatriga Turkiston nomining berilishi istiqlol mafkurasining eng muhim nuqtalaridan bo'ldi. Bugungi ilm, ma'rifat haqida ko'p gapirmoqdamiz. Bunda ham aniqlik kerak. Samarqandlik shoir Siddiqiy-Ajziy bundan sakson yil oldin yozgan «Mir'oti Ibrat» («Ibrat oynasi») dostonida jaholat va razolat botqog'iga botgan millatning qiyofasini chizadi. Ana uning botil farzandlari: biri o'g'ri, ikkinchisi xunxo'r, uchinchisi bangi, to'rtinchisi mayxo'r, beshinchisi kazzob, oltinchisi... padarkush. Bular yetmagandek, «yarmi ko'r, «yarmi kar».

Xullas, millat aynib ketgan:
Bu zumra bori adoyi millat,
Yolg'iz na ado baloyi millat.

Shoir buning sabablarini izlaydi. Ularning o'qimaganliklarini bosh sabab qilib ko'rsatadi:

Bu fitnau balo nedandur?
Tahsili makotib erdi nahri urfon,

Joriy o'la erdi nahri urfon,
Inson malak o'lmak erdi imkon!

Otalarimiz mehnat va halollik bilan yashab kelgan edilar. Nega ularning tomirimizda oqayotgan qoni aynidi? Nega millat o'z-o'zini mahv etishga tushdi? Siddiqiy-Ajziy aytganidek,»nahri urfon» joriy bo'lganida inson «malak»ka — farishtaga aylanmasmidi?

E'tirozingizni sezib turibman, axir sobiq Ittifoq dunyoning eng qudratli mamlakati edi-ku, bunga u nima tufayli erishdi, ilm-fan, ma'rifat orqali emasmi, demoqchisiz. To'g'ri, ilm-fan tufayli, ma'rifat tufayli emas. Bular bir-biridan farq qiladigan tushunchalar. Ma'rifat menimcha ilm-fanning anglanishi, qalblarni yoritishidir. Biz esa ilm-fanni ezgulik emas, yovuzlikka xizmat qildirish yo'lida tarbiyalandik. Ulkan mamlakatning buguni emas, kelajak avlodlari haqqi-nasibasini ham talon-toroj qilish hisobiga eng zamonaviy ajal qurollarini ixtiro etish bilan shug'ullandik. Va bularning hammasi go'yo xalqning baxt-saodati yo'lida qilindi. Bir so'z bilan aytganda, munofiqlik, gap va ish zidligi bog'chadan mamlakat boshqaruvining oliy rahbariyatigacha asosiy ish usuli bo'lib kelgan edi. Ma'rifat shumi? Mashhur faylasuf N.A.Berdyayev Leninni ma'rifatsiz kishi deganida ayrim zamondoshlarimiz ayyuhannos solgan edilar. Bugun qizil terrorning asochisi xuddi shu Lenin ekanligi yosh bolaga ham ma'lum. Ma'rifat ezgulikka izdoshgina emas, amal qilish hamdir.

Fakultet o'quv binolarini aylansangiz, yigitlar va qizlarning ko'pincha, «Chekish mumkin emas!» degan yozuv tagida yastanib chekib o'tirganlarini ko'rasiz. Ota-onalar qabul paytlarida, hatto joriy imtihonlarda ham «ikki» olgan farzandini ming bir yo'l bilan o'tkazishga harakat qiladilar. E'tiroz bildirsangiz, ajablanadilar. O'limdan boshqasining chorasi bor, deb sizga «aql» so'qadilar. Zamonlar bo'ldiki, to'g'ri va halol yashash ayb deb qaraldi.

Jamiyat hayoti, birinchi navbatda, qonun va ijro bilan tartibga solinadi. Qonunga, qoidaga rioya to'xtagan joyda, ular ishdan to'xtaydilar. Hech qanday milliy, diniy ong yordam berolmaydi.

Butun-butun avlodlar «urush-urush» o'ynab katta bo'ldi. Kitoblarimizdan kinolarimizgacha dastlab «oqlar-qizillar», so'ng «nemislar — sovetlar» o'rtasidagi biri farishta, ikkinchisi iblis qilib tasvirlangan «voqea»lar bilan to'lib toshdi. Biz umr bo'yi dushman «yasab», u bilan kurashib o'sdik. Milliard-milliard harbiy xarajatlar, harbiy sanoat kompleksi shu bilan oqlandi. Keyingi o'n-o'n besh yilda esa kuchini jilovlash emas, ulug'lashga ko'proq diqqat qaratildi. Beboshvoq, maqsadsiz kuchni ulug'lashga. Bu esa jamiyatning jinoyatchi unsurlariga qo'l keldi. Xullas, qonimiz buzilishining, axloqimiz aynishining bu xil sabablari ko'p.

Mafkura shu xil hollarni qoralash va ularning oldini olish degani hamdir. Eng muhimi, Respublikamiz Oliy Kengashining XV sessiyasida g'oyat o'rinli aytilganidek, har kim o'z ishini qilishi kerak. Shundagina «Ilm o'rganish va ma'naviy-axloqiy qadriyatlar o'rnini turli «snikers» va sigaret savdosi egallashi»-ning oldi olingan bo'ladi.

Millat g'ururi

Ilmning mavqe'-martabasi Sharqda bag'oyat baland bo'lganligi hammaga ma'lum. Hadisi shariflardan birida «Olimlar payg'ambarlar vorisidir», deyiladi. Xalqimizda «Olim bo'lsang, olam seniki», degan naql bor. Bu gap bugun paydo bo'lgan emas.

Dunyoga o'nlab ilm-fan dohiylarini hadya etgan bu millat olimlikning shuhrati bilan birga, igna bilan quduq qazimoqdek zahmatini ham juda yaxshi bilgan. Ilm o'rgatmoqning sharaf va mas'uliyatini esa yanada balandroq tutgan. Ustoz otangdan ulug'dir, deydi u Arastu tili bilan, chunki ota farzandni osmondan yerga tushiradi, ustoz esa shogirdni yerdan osmonga ko'taradi.

So'nggi 3—4 asr Turkiston uchun g'oyat og'ir keldi. XIX asr asorat asri bo'lib tarixga kirdi. Millat zimistonga botib bordi. Lekin uning o'zligini saqlash instikti yo'qolmadi. «Usuli jadid» kashf etildi. Rusiya zabtiga olgan Turkiy Olamda «jadidchilik» nomi bilan tarixga kirgan Milliy uyg'onish boshlandi. Uning asosiy maqsadlaridan biri oliy ta'lim edi.

«Biz ham o'z universitetlarimizni quramiz!»-deb yozgan edi 1885-yili mashhur Ismoilbek Gasprali. Mahmudxo'ja Behbudiyning «Oyna» jurnalida esa 1914-yili shunday fikrni uchratamiz: «Hozirgi zamon ahvolig'a oshno kishilarg'a va boshig'a tushganlarg'a, barcha tojir va mansabdorlarg'a albatta ma'lumdirki, bizga muvofiqi zamona odamlar kerak. Ya'ni musulmon do'qtur, musulmon muhandis (injener pilonchi), musulmon zakunchi. Tijoratxonalarda musulmon «agent» ishboshilar, podshohlik mahkamalarida musulmon ma'murlari, musulmon sudyalari, natarius (muqovalat muharriri), bankalarda musulmon sarkorlari... kerakdur... Biz xohlasakki, o'zimizni boshqalarning madaniy va iqtisodiy yutilishidan saqlanilsa, yuqoridagi aytulgon kishilarni hozirlab, ya'ni olimi zamoniy tayyorlamoqimiz kerakdur...».

Toshkent Davlat universiteti mana shunday ehtiyoj farzandi bo'lib dunyoga kelgan edi. Buni birinchi bo'lib taraqqiyparvar ziyolilarimiz — jadidlar angladilar va umummillat g'oyasi darajasiga ko'tardilar.

Ikkinchi tomondan, bu yerlarda universitet ochish jahon hamjamiyatida mahalliy xalqni ma'rifatli qilish borasida ko'rsatilgan buyuk himmatdek taassurot qoldirmog'i lozim edi.

1918-yilning 9-aprelida Toshkent jadidlarining yetakchisi Munavvarqori Abdurashidxonovning Darxondagi hovlisida 9 kishilik tashkiliy Hay'at tuzilib, ish boshlandi. 10-aprel kuni Piyonbozor (hozirgi Navoiy teatri atrofi)dagi maktab binosida shahardagi har bir tashkilotdan bir vakil chaqirilib, masala umumiy majlisga qo'yiladi. Barcha qatnashchilar mahalliy xalq (musulmonlar) uchun universitetning g'oyat zarur ekanligini yakdillik bilan tasdiqlaydilar. «Xalq dorulfununi» gazetasining 1918-yil 31-may, 15-iyun, 21-iyul sonlarida e'lon qilingan «Tashkilot komissiyasining hisoboti»dan ma'lum bo'lishicha, 1918-yilning 9-aprelidan 9-mayiga qadar 9 yig'ilish o'tkaziladi.

1918-yilning 3-mayida bo'lib o'tgan tashkiliy komissiyaning umumiy majlisida Munavvarqori Abdurashidxonov — rais, Iso To'xtaboyev — birinchi muovin, Burhon Habib — ikkinchi muovin, Muxtor Bakir — sarkotib, Abdusamiqori Ziyoboyev xazinador qilib saylanadilar. O'tgan 9 yig'ilishda bo'lajak universitetning tashkiliy tuzilishidan sho'ba-fakultetlari-yu, eng

muhim sohalarning dasturlarigacha ishlab chiqiladi. Ularga ko'ra, universitet uch bosqichli (quyi, o'rta, oliy) bo'lib, «ibtidoiya sho'basi» deb atalgan birinchi bosqichga yoshi 15dan kam bo'lmagan uch guruh o'quvchilar qabul qilinar edi. Ibtidoiya sho'basi asosan o'rta ma'lumot berar, o'quvchini talabalikka tayyorlar, ayni paytda an'anaviy qo'l hunaridan elektronsozlikkacha bo'lgan alohida o'quv dasturi va muddatiga ega turli-tuman kasb-korlarga o'rgatishni ham ko'zda tutar edi. Jumladan, 2 musulmon kasb maktabi ochish mo'ljallanadi.

Ikkinchi bosqich — dorulmuallimin besh yillik bo'lib, unga 6 yillik boshlang'ich maktabni tugatganlar, «avvalda muallim bo'lib-da, ba'zi fanlardan qusurli yoki ta'lim va tarbiyadan ma'lumotlari takmil etilurga muhtoj» kishilar qabul qilinar edi. Dorulmuallimindan maqsad «ibtidoiy va o'rta maktablarda quvvai ilmiya ham ahvoli ta'lim va tarbiya jihatindan yetushincha xabardor bo'lg'on o'qituvchilar yetishtiruv» edi.

Uchinchi — oliy bosqich esa Ovrupo andozalaridagi oliy o'quv yurtini ko'zda tutar edi.

Tashkiliy komissiya qaroriga muvofiq Toshkentning o'zida ibtidoiy sho'basiga mahalliy yigit-qizlar uchun 23 maktab (shundan 4tasi xotin-qizlar maktabi), muallimlik kurslari, hunar maktablari, kutubxona, qiroatxona, bog'cha kabilar ochiladigan bo'ldi. «Programma komissiyasi» kabi ko'plab komissiyalar tuzib, ishga kirishdi. Xullas, dorulfununning nashri afkoridan «dorulfunun teatri»gacha, dorulmualliminning Beklarbegi madrasasida bo'ladi-gan «pansion»igacha muhokama qilindi.

Xorijiy tillarga alohida e'tibor berildi, G'arbdan birinchi navbatda nemis, so'ng ingliz, fransuz, Sharqdan arabcha, forschani o'rganish shart etib qo'yildi.

Dorulfunun kengashi universitetning oliy organi hisoblanar, uning tarkibini esa sho'balardan saylanib keladigan vakillar tashkil qilar edi.

Majlis jamoaning yarmidan ko'pi ishtirokchi, saylovlar oddiy ko'pchilik ovozini olish bilan hal qilinardi. Dorulfunun kengashi raisi universitet rektori ham edi.

1918-yil 12-mayda Toshkentning Eski shahar qismidagi sobiq Vikula Morozov savdo uyi (hozirgi Qodiriy bog'ining Sebzor tomonida, bosmaxona ro'parasida joylashgan edi)da

Turkiston musulmon xalq dorulfununi ochildi. Uni ma'lum va mashhur jamoat, madaniyat arbobi, tashkiliy komissiya raisi, Musulmon xalq dorulfununi rektori Munavvarqori Abdurashidxonov ochadi. Turkiston xalqining ilm-fanga, ma'rifatga muhtojligi, universitetning Millat va Vatan qaddini tiklashda buyuk omillardan bo'lajagi haqida gapiradi. Davr udumiga ko'ra, ozodlik qurbonlari hurmatiga, musulmon shahidlar haqqiga Abdusamiqori Qur'on tilovat qiladi.

Garchi musulmon xalq dorulfununi o'lkaning 95 foiz aholisini tashkil etgan besh yarim million tubjoy xalqning ona sutidan halol huquq va manfaatlarini himoya qilayotgan bo'lsada, uning mustaqil ish yuritishi ochilgan kunidanoq xavf ostida qolgan edi. Shunga qaramasdan, Musulmon xalq dorulfununi o'lka ma'naviy hayotida muhim hodisa bo'ldi. Buni shundan ham bilsa bo'ladiki, universitet ochilgan kuni unda o'qish uchun yozilganlar soni 945 taga yetgan edi. 15-mayda universitet nizomi qabul qilindi. Qisqa muddatda 23 maktab tashkil topdi. 299 muallim jalb etildi. Ulardan 22 kishi oliy diniy madrasalarni, 2 kishi Rusiya universitetlarini bitirgan edilar. O'qituvchilar orasida 20 ga yaqin shoir va yozuvchilar, darslik mualliflari bor edilar.

31-mayda Toshkentdagi sobiq seminariya binosida taniqli elshunos olim Abubakr Divayev raisligida dorulmualliminning tantanali ochilish marosimi bo'ldi. Asosiy ma'ruzachi Munavvarqori barchani tabrik etib, «eski hukumatning musulmonlari ag'fol (mensimaslik) va ezmak qasdi (maqsadi) ila ochg'on bu seminariya binolarida musulmonlarning dorulmualli-minlarini ochish» zamoni kelganidan shodmonlik izhor qildi. Abdusamiqori, Kamol Shams, Ismoil Haqqi, Muxtor Bakir, jami o'ndan ortiq kishi so'zga chiqdi. Dorulmualliminning musulmon xalq dorulfununi kengashining 1918-yil 7-maydagi umumiy majlisida tasdiqlangan ta'lim dasturida faol qatnashgan o'z ilmiy-pedagogik xizmatlari bilan e'tirof etilgan 13 kishi — Kamol Shams, Munavvarqori, Fitrat, Burhon Habib, Ibrohim Fahmiy, Haydar Shavqiy, Amin Afandizoda, Abdurahmon Ismoilzoda, Abdulla Rahimboy, Ismoil Rizo, Vladimir Sergeev, Zagrubskaya, Uglitskiylar «Hay'ati ta'limiya» (ilmiy kengash a'zolari) qilib saylandilar. Darslar o'z davrining yetakchi mu-

taxassislari tomonidan berildi: ona tili va adabiyot (Fitrat), axloq (Munavvarqori), etnografiya (Abubakr Divayev), matematika (Kamol Shams), siyosiy tarix (Burhon Habib) va hokazo.

Musulmon dorulfununi Turkiston ma'naviy hayotida muayyan siljish hosil qildi. Millatning istiqboliga ishonchi oshdi. Ziyolilar dorulfunun murojaati bilan o'z uylaridagi ilmiy-adabiy kitoblar, darsliklarni universitet kutubxonasiga in'om eta boshladilar.

Samarqandda dorulfunun sho'basi ochildi. Mashhur Mahmudxo'ja Behbudiy rais, taniqli adiblar — Hoji Muin, Saidahmad Siddiqiy, A.Qurbiy, Sh.Muxtoriy a'zo bo'lib kirdilar.

Toshkent «Madrasa talabalari jamiyati» ular uchun ham «adabiyot kurslari ochish», «mudarrislarning talabalar tomonidan saylanib qo'yilishlari»ga ta'sir ko'rsatish» kabilarni so'rab Musulmon xalq dorulfununi idorasiga murojaat qiladi.

Dorulfununning oliy bosqichida 5 fakultet-sho''ba: adabiyot va falsafa, iqtisodiyot va ijtimoiyot, ziroat va ovul xo'jaligi, tibbiyot va riyoziyot, sanoat va texnika bor edi. Musulmon xalq dorulfununi kengashi Toshkentdagi mashhur «Turon» sanoe' nafisa jamiyatini va «Cho'lpon» teatri to'garagini dorulfunun tarkibiga oladi.

Lekin tabiiyki, Musulmon xalq dorulfununining milliylikka moyilligi sho'rolar hokimiyatiga yoqmadi. Musulmon xalq dorulfununini ochilar-ochilmas, sho'ba darajasiga tushirildi. Har jihatdan ishlangan, tayyorlovini qo'shganda besh yilga mo'ljallan-gan dorulmuallimin dastlab 4 yillik kursga aylantirildi, so'ng undan ham qisqartirildi, rosa yuz kunga keltirildi. 1-iyunda ish boshlangan edi. Quyi bosqich — maktablar xalq komissarligiga o'tkazildi. Rus tilini yetarli bilmagan mahalliy yoshlar oliy tahsildan mahrum bo'lib qolaverdilar. 1920-yili Turkiston xalq universiteti davlat universitetiga aylantirildi. 1923-yili uning besh fakultetida o'qiyotgan 2453 talabaning 50 tasigina o'zbek edi. Qolgan talabalar: 1575-rus, 397-Yevropalik yahudiylar, 134-arman, 81-tatar, 57-qozoq-qirg'iz, 11-tojik, 34-Buxoro yahudiylari, 9-turkman, 8-uyg'ur, 1-dungan, 1-litvalik, 18-latish, 32-polyak, 15-nemis, 17-boshqird edi. Holbuki, mahalliy aholi 95 foizni tashkil qilar edi. Bu uzoq yillar davom etdi.

Hatto O'zbekiston kommunistlari rahbari Akmal Ikromov O'zKP MKning 1927-yil 19-martdagi V plenumida qilgan ma'ruzasida SAGUga alohida to'xtalib, uning o'z nomiga nomunosibligini, 2000dan ortiq talabadan 80tasigina o'zbek ekanligini aytib, qattiq tanqid qilgan edi. Sho'ro tuzumi tanlovining mezonlaridan bo'lgan ijtimoiy kelib chiqish jihatidan olib qaraladigan bo'lsa, 1921—27-yillar qiyosida dehqon 20—36, ishchi 18—25, xizmatchi 5—28 foizga o'sib borgani, hunarmand 21—10, boy va ruhoniy 3—4 foizdan 0 foizga tushib borgani kuzatiladi. Mana shunday sharoitda ham xalqimiz universitetda o'qiy oldi. Shunchaki o'qib qolmadi, yangi, zamonaviy ilm-fanini, madaniyati va sanoatini, ta'lim-maorif tizimini yaratishga urindi. Universitet birgina o'zbekiston emas, bugun mustaqil davlatlar bo'lib qolgan O'rta Osiyodagi besh respublika uchun ham zamonaviy ilm-ma'rifatga beshik bo'ldi. Yangi davlat va madaniyatlarning poydevorini qo'ygan qardoshlarimiz shu dargohda tahsil olib, tarbiya topdilar. Mintaqamizdagi bugun faoliyat ko'rsatib turgan ilm va ta'lim-tarbiya muassasalari shu yerdan uchirma bo'lgan.

ToshDU adabiyot va madaniyatning o'nlab zabardast vakillarini yetkazdi. Qozoq adabiyotining klassiklariga aylanib qolgan Mag'jon Jumaboy, Muxtor Avezovdan turkman Xidir Derya-yevgacha bu dargohda tahsil ko'rgan. O'zimizning Oybegu Qahhorlarimizdan Erkin Vohidov va Abdulla Oripovgacha, Saida Zunnunovadan Halima Xudoyberdiyevagacha, Asqad Muxtordan O'tkir Hoshimovu Shukur Xolmirzayevgacha shu yerda o'qiganlar.

ToshDU sobiq sovetlar sarhadlaridagina emas, olis xorijda ham e'tirof etilgan ilmiy kashfiyotlar, maktablarga doya bo'ldi. 1928-yili fizika-matematika fakultetining 2 ilmiy xodimi universitet ixtiyoridagi asbob-uskunalar yordamida tajribalar o't-kazib, jahonda birinchi marotaba harakatlanuvchi tasvirni uzoq masofaga uzatuvchi elektron televidenie qurilmasini yaratdilar. YuNESKO 1971-yil 16-aprel qarori bilan toshkentlik ixtirochilarning kashfiyotini e'tirof etdi. 1943-yili tashkil topgan O'zbekiston Fanlar akademiyasining yangi saylangan 11 haqiqiy a'zosidan 7 tasi shu universitetni bitirgan. Bungacha saylangan 11 prezidentning 9 tasi ToshDUdan chiqqan, qolgan ikkitasidan

biri — Ubay Oripov umr bo'yi fizfakda ishladi. Universitetning o'z salohiyati bilan turli respublikalarda xilma-xil fan sohalarining yalovbardoriga aylangan sobiq talabalari ham yo'q emas. Sobiq SSSR FAning vitse-prezidenti darajasiga ko'tarilgan Belozorskiy, Qirg'iziston FAning sobiq prezidentlaridan M.M.Adishev, Qozog'iston FAning vise-prezidenti J.Takibayev, Kishinev universiteti rektori Lazurevskiy, Riga universiteti rektori Kadek, Tojikiston FA ning prezidenti S.Umarov kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Bugungi kunda ham biologiya, kimyo, matematika, fizika, fiziologiya sohalarida xorijiy mamlakatlarda e'tirof etilgan ilmiy maktablar bor. Muhimi shundaki, SAGU (1023), ToshDU (1960) nomlari bilan atalgan, bir qarashda sho'ro idorasi va mafkurasining tayanchi hisoblangan bu dargohda uning ruhi va maqsadiga tamomila qarama-qarshi bo'lgan mustaqillik mafkurasi ham nish urib bordi va 60-yillari boshlangan, 80-yillarning oxirlarida o'zining avj nuqtasiga ko'tarilgan bu fikr-qarashlar 1991 yili qo'lga kiritilgan va kundan-kun mustahkamlanib borayotgan mustaqilligimizning ma'naviy tayanchi bo'lib xizmat qilmoqda.

Ayni paytda, universitet mustaqilligimizning bugungi bosh masalalaridan bo'lib turgan Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini bajarish borasida mehnat qilyapti. Yangi davrning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan 28 yo'nalishdagi bakalavrlik, 116 mutaxassislik bo'yicha magistrlik standartlari va namunaviy dasturlari tayyorlanib, ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. Bu yil qabul qilingan 250 bo'lajak magistrga 25 akademik va muxbir a'zo, 1150 ga yaqin fan doktori, professor dars beradi. ToshDU haqli ravishda Respublika oliy o'quv yurtlari orasida tayanch universitet vazifasini bajarib turibdi.

Buyuk kelajakni yaratish, Vatan va Millat kamolini jahoniy miqyoslarga ko'tarish ma'lum ma'noda Milliy universitet tushunchasi bilan ham bog'lanadi. Bu mas'uliyatli, lekin g'oyat muhim vazifani hal etishda ToshDUning imkoniyatlari, tajriba va salohiyati ajralib turadi.

Prezidentimizning ToshDU zaminida O'zbekiston Milliy universiteti tashkil etish haqidagi farmoni bu-mamlakatimizning bosh va to'ng'ich oliy o'quv yurtining mavqei va xizmatlarini

e'tirof etmoqdir. Tarixining 1918-yildan belgilanishi va jadid ziyolilarimizning universitetni tashkil qilishdagi tarixiy xizmatlarini qayd etmoq esa adolatni tiklamoqdir.

Adolat, o'z navbatida, demokratik fuqarolik jamiyatining birinchi shartidir.

Olam ichra olam bo'lmoq

Har bir adabiyotning bosh xususiyati milliyligidir. Shuning uchun ham milliy adabiyot deymiz. Dunyoda esa minglab millatlar, elatlar bor. Birini ikkinchisi bilan adashtirmaysiz. Chunki biri ikkinchisidan nimasi bilandir farq qiladi. Mana shu «nimasi» bo'lmagan, o'zligi yo'q millat uzoq yashay olmaydi, boshqasiga singib ketadi.

O'z asarlarini turkiyda ekan, Navoiy buyuk bir millatparvar sifatida namoyon bo'ldi va milliylik har bir adabiyotning shaklu shamoyiligina emas, mazmun-mohiyatini ham tashkil qilishini namoyish etdi. Buyuk shoir Sharq ma'naviyatining tamal toshlaridan bo'lib kelgan xamsachilikning asriy an'analarini turkiy zaminga ko'chiradi. O'zbekning urf-udumidan fe'l-sajiyasigacha, kundalik turmush tashvishlaridan til-nutqigacha she'riyatga olib kirib, keng o'rin beradi.

Biroq XVI asrdan boshlangan tanazzul va bo'hronlar adabiyot olamida ham o'z asoratlarini qoldirdi. Adabiyot ham turk dunyosidek bo'linib, maydalanib, biri ikkinchisidan bexabar qolib, o'z qobig'iga o'ralib bordi. Navoiy «cherik chekmay, Xitodin Xuroson»gacha «taxti farmon»iga olgan yerlarda yangi-yangi siyosiy davlatlar qaror topdi. Rusning XVI asrda Qozon, Astraxanni zabt etish bilan boshlangan istilochiligi 2–3 asr davomida sharqda Uzoq Sharqqacha, janubda Qora dengizdan Amudaryogacha borib yetdi. Xurosonning markazida Afg'oniston mamlakati maydonga keldi. To'g'ri, chig'atoy tili, chig'atoy adabiyotining hukmronlik saltanati turk ma'naviy olamida o'zgargani yo'q. Lekin bu saltanat katta shikast topdi. Bu daryoni muntazam ta'min etib turgan buloqlar shiddatdan tushib, ularni birlashtiruvchi o'zanlarni xas-hashak qoplay boshladi. Umumiy — birlashtiruvchi jihatlar kamayib, xususiy-ajratuvchi

tomonlari ko'payib bordi. Qo'qon, Xorazm, Buxoro adabiy muhiti degan tushunchalar paydo bo'ldi. Umummilliy haysiyat susayib, mahalliy urug'chilik haysiyati kuchayib bordi. Rus ibtidodining intilgan asl maqsadi ham shu edi. Chunki imperializmning «maydala va yut» shioriga bu mos tushar edi. Xullas, adabiyot XX asrga millat singari o'zligidan bir qadar uzoqlashib kirib keldi.

XX asr esa tamom yangi shart-sharoitni maydonga keltirdi. Ilm-fan kashfiyotlari taraqqiyotni keskin tezlashtirib yubordi. Dunyoning bir cheti degan tushunchalar qolmadi. Dunyo besh qo'lday ayon bo'lib bordi. Mamlakatlarning bordi-keldisi va oldi-sotdisi; o'zaro teran va mahkam bog'lanishi kundan-kunga kuchayib, dunyo ulkan korgoh sifatida yaxlit vujudga aylandi. Uning ishtirokchilarini aniqlash, har birining jahoniy jarayondagi o'rni va mavqeini, imkoniyat va xususiyatlarini belgilashga ehtiyoj paydo bo'ldi. U hol milliylikni yana oldingi qatorga chiqarib qo'ydi.

XX asr boshidagi jadid adabiyotining bosh mavzui—millat. Uning tarixi va taqdiri masalasidir. Shunchaki ta'rif-tavsifi emas. Uni dil-dildan anglamoq, his etmoq, u bilan barobar yashamoqdir. Til va adabiyot millatning o'lmas ruhidir, hayoti oynasidir, tarbiyalovchisidir. U ajdodlar turmush tarzini, axloq-falsafasini, bor yaxshi-yomon tomonlarini avlodlarga yetkazadi, nasllarni millatning qadimdan yashab kelayotgan an'analari ruhida tarbiya qilib, asrlar silsilasini bir-biriga ulab boradi. Behbudiydan Fitratu Cho'lpongacha, Avloniydan Qodiriygacha adabiyotning maqsad va mazmuni shunday talqin qilindi va shunday yondashuv sobit va ustuvor keldi. Bu yangi o'zbek adabiyotini boshlab bergan jadidlarimizning eng katta yutuqlaridan edi.

Afsuski, sho'rolar davrida millat tushunchasi o'zgarib, kommunistik rangga bo'yalganidek, milliylik ham asl mohiyatidan uzoqlashib, sotsialistik mazmun kasb etdi. Aslida bunday uzoqlashish, to'g'rirog'i uzoqlashtirish o'tgan asrda istiloning dastlabki yillaridanoq boshlangan. Masalan, chor hukumati Turkistonni qo'lga kiritgach, butun choralar bilan mahalliy xalqning ham yerini, ham ko'nglini olishga kirishdi. Son-sanoqsiz muhojirlarni ko'chirib keltirib, o'lkaning eng go'zal, eng unumli, eng

serhosil yerlariga joylashtirdi va buni davlat siyosati darajasiga ko'tardi. Sekin-sekin nufus ustunligiga erishish va pirovard-oqibatda bir kuni bu joylarni «Rusiyaning asl tub joylari»ga aylantirish niyatini ko'zda tutdi. Ikkinchidan, Ahmad Zaki Validiy ta'kidlaganidek, bir tomondan didini, zavqini, imoratsozligini mahalliy xalqqa mosladi, shu bilan ularning mehrini qozonishga urindi. Ikkinchi tomondan, yerli kishilarning e'tiborli vakillarini o'z tomonlariga og'dirib olib, rus aslzodalari davrasiga olib kirdi, kitoblar davrasiga xos Yevropacha san'at va madaniyatni ko'rsatdi. Ular tilidan ko'rganlarini targ'ib-tashviq ettirdi. Ayrimlarini Rusiyaning markaziy shaharlariga yuborib, ular nomidan hayrat to'la sarguzashtnomalar, sayohatnomalar e'lon qildirdi. Ayni paytda ota-bobolarimiz hayotiga, urf-udumlar, an'analarga boshqacha qarash shakllantira boshlandi. Bunda taraqqiyotda oldinlab ketgan Rusiya o'rnak qilib olindi va biri ikkinchisiga zid qo'yildi. Furqatday shoirimiz hayrat va hayajon bilan «zamon o'ldi O'rusiya zamoni» deb yozdi. «Xonu beklar»imizning hammasini bir safga terib, «esiz» deya hayotiga taassuf bildirdi. Nihoyat, rasmiy yo'l bilan g'ayrirus musulmonlari maorifining bosh prinsiplarini belgilab berdi, bular «ruslashtirish» va «islomni buzish» ekanligini ochiq e'tirof etdi. Muhojirlarga, ayniqsa, ularning bolalariga alohida imtiyoz va erkinliklar berildi. Natijada, ularning tarbiya va intellektual darajasi bilan yerli aholining aqliy, jismoniy kamoloti orasidagi farq keskin kuchayib bordi. Bular hammasi rus-yevropa madaniyatining ustunligini isbot qilishi lozim edi.

Shu tariqa millat o'zligidan, adabiyot milliyligidan ongli va rejali ravishda bosqichma-bosqich uzoqlashtirib borildi. Bunga, albatta, jadidlarning ham siyosiy ongi shakllanib ulgurmagan chalamulla qismi Yevropaparastlik, madaniyatparastlik jazavalari bilan yordam berdi.

1905-yil voqealari va xalqqa berilgan ayrim konstitutsion erkinliklar Turkistondagi milliy uyg'onish jarayoniga qudratli ta'sir ko'rsatdi. Qisqa muddatda matbuot, teatrchilik yo'lga qo'yildi. She'riyat yangilandi. Publisistika, ovrupocha realistik proza qaror topdi. Bir og'iz so'z bilan aytganda, yangi adabiyot maydonga keldi va oraliqda o'tgan qandaydir 15—20 yil ichida jahoniy adabiyot miqyosiga ko'tarila oldi. Cho'lpon yangi o'z-

bek she'riyatining, Qodiriy yangi o'zbek nasrining, Fitrat yangi o'zbek dramachiligi va adabiyotshunosligi ilmining eng go'zal namunalarini yaratdilar. Va haqli suratda XX asr turkiy adabiyotning bayroqdorlari bo'lib tarixga kirdilar. Ularning asarlaridagi asosiy ruh, yetakchi g'oya milliylik edi. Milliy istiqloldan milliy tafakkurga, milliy g'oyadan milliy ifodagacha bo'lgan masalalar edi. Biz kimmiz? Insoniyat tarixidagi o'rnimiz va qadrimiz qanday? Asrlar silsilasida nimalarni orttirdik, nimalarni yo'qotdik? Ota-bobolarimiz kimlar, ulardan bizga nima qoldi va bizdan avlodlarga nima qoladi? Vatan nima, millat nima? Istiqlol nima? Qayoqdan kelib, qayoqqa ketyapmiz? Bu xil yuzlab savollar javobini kutardi. Adabiyot o'z vositalari bilan shularga javob berdi. Va u bu javobni to'g'ri bergani uchun ham xalqning qalbidan mustahkam o'rin oldi. «O'tkan kunlar»ning qo'ldan-qo'lga o'tib o'qilishi, Cho'lpon she'rlarining eski avlod qalbida muhrlanib qolganligi, alloma Fitrat haqidagi zarbulmasal hikoyatlarning paydo bo'lish sababi shundan.

Sho'rolar hokimiyatni mustahkamlab, yagona sotsialistik g'oya hukmronligini o'rnatgach, adabiyotning jon tomiri — milliylikka hujum boshlandi. «Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik» degan stalincha ko'rsatmaning o'zi dialektika qonunlariga zid edi. Chunki mazkur qonunga ko'ra mazmun shaklni belgilaydi. Sotsializm esa din va millatdan o'zini tashqari tutadi, xoli hisoblaydi. Binobarin, bu hol shaklda ham o'z ifodasini topmay iloji yo'q. Hamonki shunday ekan, qanday qilib shakl milliy bo'lsin?!

Darhaqiqat, «sovet kishisi»ning amalda millati yo'q edi. «Sovet adabiyoti», bir tilni hisobga olmaganda, milliylikdan xoli edi. Masalan, o'zbek sovet adabiyoti bo'ladimi, gruzin yo latish sovet adabiyoti bo'ladimi, hammasi Gorkiy bilan boshlanar edi. Gorkiyning o'zbek, gruzin yoxud latish adabiyotiga nima daxli bor deb hech kim ayta olmasdi. Chunki sovet adabiyoti — sotsialistik realizm adabiyoti, uning asoschisi esa Maksim Gorkiy bo'lgach, har bir «milliy» sovet adabiyoti shu bilan boshlanmog'i kerak — tamom.

70-yillarda qabul imtihonida yuz bergan bir voqeani domlalar hali-hanuz gapirib yuradilar. Millat va uning shu yillar-

dagi qadriyatlari, milliy adabiyot va uning mazmun-mohiyati haqida bu latifanamo voqea yaxshi tasavvur beradi:

O'zbek tili va adabiyotidan og'zaki imtihonlar ketyapti.

Domla so'raydi:

— Shoirlardan kimlarni bilasiz?

Bola o'ylab o'tirmay javob beradi:

Gorkiy!

Domlaning esiga «O'zbek sovet adabiyoti» darsligi tushadi. Abiturientni izdan chiqarib yubormaslik maqsadida, o'zini eshitmaslikka solib, yana o'sha savolni qaytaradi.

Pushkin, deydi abiturient va bir oz o'ylab olib, sanay boshlaydi:

Lunacharskiy, Jukovskiy, Assakenskiy...

Abiturient Lunacharskiyda yashardi. Markazga tez-tez tushib turardi. Bekatlarning nomi yaxshi esida. Faqat «Assakenskiy»ning «Asaka» ekanini bilmasdi.

Goho katta avlodga mansub ayrim e'tiborli olimlarimiz o'tgan 70 yil haqida gapiriladigan qattiqroq gapni og'ir oladilar, noxush qabul qiladilar. Axir, unday bo'ldi-ku! Bunday bo'ldi-ku! Unday yutuqlarni qo'lga kiritdik-ku! Bunday yutuqlarni qo'lga kiritdik-ku! Ilm-fanimiz unday rivojlandi, sanoatimiz bunday rivojlandi. Juda qizishib ketganlarida «...odam bo'ldik, akademik bo'ldik...!» gacha boradilar. Men bularda yeyayotgan har bir bo'lak noni, ko'rayotgan har bir kuni uchun Alloh va taqdirga, o'z mehnati va uning samarasiga emas, «partiya va hukumat»ga qulluq qilishga o'rgatgan 70 yillik tarbiyaning qonimizdagi xurujini ko'raman.

Axir dunyo ham joyida to'xtab qolgani yo'q-ku! Ko'lami va salmog'i jihatidan biznĭng boyliklarimizning yaqiniga ham yo'lamaydigan Hindiston o'z sun'iy yo'ldoshini yaratdi. Badaviy arablar kosmik asr mezonlari bilan ish ko'rmoqdalar. Koreya, Malayziyadek tarixni birov bilib, birov bilmaydigan mamlakatlar bugun sanoat va texnikadagi mo'jizalari bilan dunyoni tan olmoqqa majbur qilmoqdalar. Buni ularga kim qilib berdi? Rusiyami? Yevropami? Sovet sistemasimi? Har bir millat, har bir mamlakat o'zidan, o'z aqlu mehnatidan minnatdor bo'lmog'i kerak.

Mavzuga qaytadigan bo'lsak, to'g'ri, biz o'zbeklar ham 70 yil davomida ko'p narsalar yo'qotish bilan birga ayrim narsalarga erishganimizni ham aytishimiz kerak. Jumladan, zamonaviy ilm-fan, maorif, san'at, texnika va sanoat yuzaga keldi. Bular ham aslida bu yerni tezroq, yaxshiroq o'zlashtirmoq, boyliklaridan samaraliroq, unumliroq foydalanmoq uchun edi.

Tabiiyki, shu umumiy jarayonda adabiyot ham rivoj topdi. Lekin... «Lekin»ini tilga olishimiz bilan yana o'sha eski sovet tarbiyasining ongimizdan chiqib ketishga ulgurmagan, qullik psixologiyasi, beg'am yoshlik xotirasidek, o'tmishning totli nash'asidek qaysidir harom qoni tomirimizda qolgan sovetparastlik goho bosh ko'tarib qoladi: axir qancha iste'dodlar yetishdi! Qanday iste'dodlar yetishdi!!! Qancha romanlar yozildi! Qancha kitoblar bosildi! Dunyoning uncha tiliga tarjima qilindi! Dunyoning buncha tiliga tarjima qilindi! Dunyoning falon buyugi unday dedi, tugun buyugi bunday dedi! Axir... Axir...

Nima, sovet hukumati bo'lmasa, bunday bo'lmasmidi?! Bu nojiddiylik-ku. Bu o'z aqlu irodasi bilan asrlar davomida dunyoni hayratga solib kelgan millatni tahqirlash-ku!

Menimcha, biz XX asr o'zbek adabiyotini sarhisob qilganda, ko'proq nimalarni qo'lga kiritganimizga emas, nimalarni yo'qotganimizga e'tibor qaratmog'imiz kerak.

To'g'ri, adabiyot insonni, uning hayotini aks ettiradi. O'zbek adabiyotining XX asrda bosib o'tgan yo'li haqida gapirmoq o'zbek xalqining bir asrlik g'oyat murakkab, shodligidan qayg'usi ko'p bo'lgan, iztiroblarga, fojialarga to'la hayoti haqida so'z yuritmoqdir. Bu — kerak. Uning badiiyatiga, mahorati, saviyasi darajasiga baho bermoq o'zbek ongi va turmushida fe'l-sajiyasida so'nggi yuz yilda ro'y bergan o'zgarishlar va hayoti hodisalarini o'zaro munosabatda naqadar haqqoniy va ishonarli, dardchan va ta'sirchan tasvir etilganini baholamoqdir. Bu ham kerak. Lekin gap shundaki, yana hamma narsa davr va dunyoqarashga kelib bog'lanadi. Zamon zimistonga aylangan, xalqning eng sara farzandlari «xalq dushmani» sifatida qamoqqa olinib, yoppasiga qatag'on qilinayotgan bir paytda shodlik va baxtni kuylamoqlikning naqadar haqqoniy va vijdoniy jihatlariga borib taqaladi.

Sotsialistik dunyoqarash boylikdan hazar qilishga, faqirparvarlikka o'rgatadi. Qizig'i shundaki, bularning har ikkisi mumtoz adabiyotimizda bor edi. Masalan, ushbu axloqiy-falsafiy tushunchalar, xususan faqru fano tasavvufda butun bir olam edi. Muhimi, u o'zida juda katta tasavvufiy mazmun tashirdi. Jumladan, soliqning hech bir narsaga ega bo'lmasligida aslan ularning sohibi yolg'iz Alloh ekanligini va bandasining unga doimo muhtojligini idrok etmoq mazmuni bor edi. Faqirparvarlikda esa, Allohning xuddi o'shanday faqirni sevishga, rasulullohning «Al faqru faxriy» («Faqirlik faxrimdir») deya u bilan iftixor etishiga ishora bor edi. Xuddi shuningdek, boylikdan hazar qilish ham ushbu istilohga bevosita daxldor edi. Xullas, ularda mana shunday tasavvufiy mazmun bor edi. Va bu pirovard oqibatda insonning har jihatdan pok va komil bo'lishiga yo'l ochardi.

Xo'sh sovet adabiyotidagi talqin-chi?

Mashhur «Qutlug' qon» romanida Mirzakarimboyning «hamma boylar kabi ayyor, mug'ombir, pishiq-puxta» «xislat»lari qatorida yana bittasiga urg'u berib o'tilgan bir lavha bor. Boy qishloqdan horib-tolib kelgan va birinchi bor ko'rayotgan jiyani oldida non ushatadi va choyga taklif qiladi:

«Yo'lchining qorni juda och edi. U tungi salqindan foydalanib, to'xtovsiz yurish bilan qiyom vaqtida shaharga kelgach, anhor lavida o'tirib qishloqda beliga tugib olgan bitta nondan boshqa hech nima yemagan edi. Lekin Mirzakarimboy, savdogar nazokatidanmi yoki odatlanganidanmi, nonni juda mayda ushatgan edi. Yo'lchi bir burdasini og'ziga tiqsa, lunjining bir chekasida yo'qolib ketar, patnosga ketma-ket qo'l cho'zaverishga iymanar edi. Sodda qishloq yigiti takallufni bilmasa ham, odob, ta'zim xususida onasi ancha-muncha gaplarni uqtirib yuborgani uchun, davlatmand qarindosh huzurida ovqatdan tortinishni ma'qul ko'rdi, dasturxonni tezgina yig'ishtirib, choy icha boshladi».

Mirzakarimboyga nonni bunday mayda ushattirish nima uchun kerak? Boyning ziqnaligini ko'rsatish, unga nisbatan nafrat uyg'otish uchun. Unda hech bir fazilat, yilt etgan yorug'lik yo'q. Yozuvchi buni yashirmaydi, aksincha bo'rttirib ko'rsatadi. Va eng muhimi, Mirzakarimboy istisno emas, «hamma

boylar kabi» «ilonning yog'ini yalagan odam». Holbuki, Turkistonni uyg'otishda, istiqlolni yaqinlashtirishda himmat va jasoratning chinakam namunalarini ko'rsatgan o'nlab turkistonlik boylarning nomini sanab berish mukin. Uzoqqa borib o'tirmaylik, ulug' yozuvchimizning qaynotasi mashhur Sayidnosir Mirjalil o'g'lining yurt ozodligi yo'lidagi xizmatlarini eslang.

Ikkinchidan, aqlsiz odam hech qachon boy bo'lmaydi. «Puli ko'pning aqli ko'p» degan hikmatda ma'no bor.

Faqirlik, qashshoqlik-chi? XX asr Turkistonining yo'qsulida hech qanday tasavvufiy mazmun yo'q. Bu o'rindagi qashshoqlik baxtsizlikdan boshqa narsa emas. Va bu qashshoqlik juda ko'p hollarda tanballik, uquvsizlik, jaholat natijasidir. Bas, shunday ekan, uni ideallashtiruvchi jamiyatning boshi kambag'allikdan chiqmasligi, ta'limotning esa oxiri tanazzul bilan yakun topishi muqarrar edi. Shunday bo'ldi ham.

Darvoqe, millatning o'zligidan uzoqlashib borganini yaqqol ko'rsatuvchi yana bir narsaga diqqatingizni qaratmoqchiman. Askarlik millatimiz uchun hamisha g'urur, iftixor etadigan kasb bo'lib kelgan. Intizomsevarlik, eng og'ir mushkulotlarga tayyor turish, sabrli bo'lish, tadbirkorlik uning doimiy fazilati sanalgan. Lekin bu xususiyatlar Turkiston zabt etilgach, poyama-poya yo'q qilindi. 1916-yildagi Turkiston qo'zg'olonini o'z ko'zi bilan ko'rgan taraqqiyparvar ziyolilarimizdan Laziz Azizzoda Toshkent aholisining «askar beramiz, qora ishchi bermaymiz!» deya ko'chaga chiqqanini xotirlaydi.

1917-yil Oktabr voqealaridan so'ng, ayniqsa, sovet hukmronligi mustahkam qaror topgach, velikorus shovinizmi, rus bo'lmagan millat vakillarini ikkinchi sort sifatida muhim va asosiy nuqtalardan uzoq tutish, ko'proq ikkinchi darajali bo'lgan, masalan, qurilish batalonlari kabilarda foydalanish davom etdi. Va bu millatning jangovarligiga halokatli ta'sir ko'rsatdi.

Umuman, XX asr milliy-adabiy tarixining ibrat va tanbeh bo'la oladigan tomonlari juda ko'p.

Professor I.Baldauf mutolaalari

Yaqinda «Ma'naviyat» nashriyoti taniqli olmon olimasi professor Ingeborg Baldaufning «XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar»[328] nomli ixchamgina maqolalar to'plamini chop etdi. Sirasini aytganda, Ovruponing qoq markazidagi taniqli bir mutaxassisning olis Osiyo-O'zbekiston adabiy hayoti haqida kitob-maqolalar yozib, hamkasabalariga taqdim qilishi odatdagi voqealardan sanalmaydi. Uning ustiga olima qalamga olgan mavzu – Turkiston jadidchiligi masalalari biz, o'zbeklarning o'zida ham istiqlol munosabati bilan va tabiiyki, nihoyatda ehtiyotkorlik va ta'bir joiz bo'lsa, parhezkorlik bilan o'rganilmoqda. Avvalo, muallif ta'kidlaganidek, «ushbu ijtimoiy hodisaning bevosita ishtirokchilari bir xil g'oyaga tayangan va aynan bir maqsadni ko'zlagan bo'lsalar ham, ular ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti va olgan ta'lim-tarbiyasi jihatidan bir-biridan keskin farq qiladigan turli ma'rifiy muhitga mansub edilar, ayni paytda ular tarixning boshqa-boshqa so'qmoqlaridan ketgan edilar». Ikkinchidan, erta bahorda bo'y ko'rsatgan har bir giyoh ham mehrigiyo bo'lmaganidek, uyg'onish davrining millat ismi bilan o'rtaga tushgan har bir ziyolisini ham millat fidoyisi atash aqlga xilof edi. Nihoyat, jadidchilik davrida ozodlik, mustaqillik masalalari kun tartibiga qo'yilgan edi. Xususan, milliy, siyosiy, iqtisodiy ozodlik qizg'in muhokama qilingan. Gap shundaki, bu mustaqillik demokratiyaning katta ko'chasiga olib chiqib, uni ilg'or jahon hamjamiyatiga bog'lashi mumkin bo'lganidek, mutaassibona o'rta asrchilik tomon boshlab ketishi yoxud yaqin xonlar zamonasining boshqacharoq bir ko'rinishini olishi ham ehtimoldan uzoq emas edi. Hamma narsa hokimiyat tepasiga keladigan kuchlarga bog'liq edi. To'g'ri, millatni jadidlar uyg'otdilar. Biroq hokimiyatni qo'lga olish imkonini 1917-yil fevral voqealari yaratdi. Millat esa bu imkonni boy berdi. To'g'rirog'i, keng xalq ommasining uyg'onib yetmaganligi, millatning millat bo'lib shakllanmaganligi, zamon siyosiy kurashlaridagi tajribasizlik pand berdi. Diniy mutaassiblikdan qochib bolshevizmga

[328] Ingeborg Baldauf. XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar. – T.: «Ma'naviyat» 2001, 72-b.

tutildi. Bolshevizm esa o'z hokimiyatini mustahkamlab olgach, Vatan va Millatning eng sara gullarini, birinchi navbatda jadidlarni, uning nomi bilan kallaklashga tushdi. Jahon tarixida siyosiy lo'ttibozlikning betimsol namunasi yuz berdi. Lenin kashf etgan sovetlar ulkan Rusiya hududidagi turli-tuman millatlarning eng faol qismini o'ziga jalb etib, ular yordamida hokimiyatni o'rnatdi va xalq ishonchiga kirdi. Kerakli mavqeni egallashi bilan esa nafsini qondirgan urg'ochi chayon erkagini yeb qo'ygani singari yangi tuzum bunyodkorlarini yo'qotishga tushdi. Bunday sharoitda jadidchilikning o'rganilishi va obyektiv baholanishi mumkin emas edi, albatta. Shu sababli biz XX asr boshidagi «Buyuk ajdodlarimiz-jadidlar» (I.Karimov) tomonidan amalga oshirilgan «ulkan ish»lardan, «jasorat namunalari»dan mustaqillik davrigacha deyarli bexabar keldik. Holbuki, dunyo bulardan voqif edi.

Professor I.Baldauf kitobchasi bizni bunga yana bir karra ishontiradi.

Xullas, mana shunday bir qator sabablarga ko'ra, biz o'zimizning qo'l uzatsa yetgudek yaqin tariximizni bugun boshqalardan ko'ra, afsuski, kamroq bilamiz. Manbalar to'planish, saralash bosqichida. Mulohazalarimiz, umumlashmalarimiz hali xomaki. Harakatchilikning Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy kabi dunyoga mashhur vakillarinigina o'quvchilarga tanitdik. Ularning hayot va ijod dunyosiga kirish, Qodiriyni hisobga olmaganda, oldda turibdi. Qodiriy asarlarining o'zi ham Hamzaniki singari bugun qayta baholanmoqda.

Shunday bir sharoitda olis Olmoniyadagi hamkasabamizning yangi o'zbek adabiyotining shakllanish manbalari xususidagi teran, sinchkov kuzatishlari, unga loqayd qarashi mumkin bo'lmagan har qanday o'zbek qalbida professor I.Baldauf shaxsiga nisbatan xayrixohlik va mehr uyg'otadi.

To'plam mashhur adabiyotshunos Ozod Sharofiddinovning muallif bilan tanishtiruvchi «Qalbimizga yaqin olima» nomli ixcham so'zboshi bilan ochiladi. So'ng olimaning «Musulmon dunyosidagi islohotchilik va yangilanish jarayonida O'rta Osiyo jadidchilik harakati», «Mahmudxo'ja Behbudiy va uning «Oyna» jurnali», «Haqiqat axtarib» kabi maqolalari bilan tanishasiz.

Kitobga taniqli olim va jamoat arbobi Naim Karimov muharrirlik qilgan. Taqrizchi: professor Dilorom Alimova. To'plam ixcham hajmiga qaramay, mazmunan salmoqli, texnikasi ko'rkam.

·Aniq maqolalar haqida fikr yuritiladigan bo'lsa, avvalo shuni ta'kidlash lozimki, tadqiqotchi asosan, birinchi manbalarga suyanadi. Kamdan-kam holdagina yordamchi, vositachi adabiyotlarga murojaat qiladi. Ikkinchidan, muallif bu manbalardan erkin foydalana oladi. Uchinchidan, olim Turkiston jadidchiligini keng miqyosda islom olamidagi islohotchilik va yangilanish kontekstida tadqiq etadi. Mug'oyasa usuli XX asr boshidagi yangilanish jarayonining barcha murakkabliklarini yaqindan kuzatish, qusur va afzalliklarini yaxshiroq anglash, ijtimoiy turmushimizning baland-past nuqtalarini to'g'ri idrok etish imkonini beradi.

Muallif Turkiston muhitini yoritganda chor hukumatining mahalliy-diniy ulamoga ikkiyoqlama munosabatiga diqqatni qaratadi. Islomni buzish, mahalliy xalqni ruslashtirish g'oyasi bilan yashagan mashhur missioner N.Ostroumovning islom ulamosi bilan yaxshi aloqada bo'lishga uringanini, uning «ommani bosh ko'tarishdan qaytarib turadigan omil», ekanini hamisha yodida tutganini ta'kidlaydi.

Yo bo'lmasa «bid'at» haqidagi gaplarni oling. «Bid'at» asl lug'aviy ma'nosi yangilik, birorta an'anaga birorta yangilikning kiritilishi, an'analar muqaddas sanalgan, ularga kiritiladigan har qanday o'zgarish juda noxush qabul qilingan. Hayotning esa yangiliksiz olg'a bosishi mumkin emas. O'rnak payg'ambarimiz va choryorlar davri. Uning ikkinchi nomi — «asri saodat». Shu davrda bo'lgan har qanday yangilik mutaassib nazdida bid'atdir. Fan-texnika o'tgan 13—14 asrda nimalarga erishmadi. Asri saodatda fan-texnikani qo'ying, maktab ham musulmonlar orasida udum emas edi. Demak, bid'atning ro'yxati maktabdan boshlanadi. Bunga ham yo'l topilgan. Hadislarda aytilishicha, «Har yangi asr boshida Alloh islom dunyosining dastlabki davridagi an'analarning qayta tiklanishiga yordam berish niyatida musulmonlar jamiyatiga bir «mujaddid» yuborar ekan». Demak, islom an'anasidagi «mujaddid» so'zi haqiqiy islom

ruhini yana qaytadan dunyoga keltirishni ko'zlaydi, — deb yozadi olima. «Ijtihod» shu yo'ldagi urinishdir. Bu urinish «isloh» orqali amalga oshadi. Isloh aslni tiklashdir. «Bid'at», «Mujaddid», «Ijtihod», «Isloh» tushunchalari XX asr boshi matbuoti materiallarida shunday talqin qilinar edi. Lekin hamma gap shundaki, jadidlarimiz mazkur tushunchalarning ma'no doirasini islomning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda kengaytirdilar. Ularga erkinlik va taraqqiyot ruhini singdirdilar. Hatto g'ayridinlar tilini o'rganish, «otasharoba», «uchqich»-lardan, zavod-fabrika mahsulotlaridan foydalanishning islomga xilof emasligini isbotlab berdilar.

Bid'at haqidagi fikr-mulohazalarini muallif Behbudiyning Turkiston qabristonlari ahvoli haqidagi maqolalariga suyanib bugungi dolzarb masalalar bilan bog'laydi. Chunonchi, Hijozlik vahobiylarning Madinadagi payg'ambarimiz va sahobalar maqbaralarni bid'at, bu musulmonlarni «shirk»ka olib boradi, deb buzganliklarini, bunday qarash Turkiston jadidlari uchun tamom yotligini, aksincha u inson xotirasini e'zozlashning muhim va zarur shartlaridan hisoblanganini qayd etadi. Shu tariqa, jadidchilikning o'z davri uchungina emas, bugungi kun uchun ham g'oyat zarur va ahamiyatli bo'lgan ayrim fikr-qarashlari o'quvchi hukmiga havola qilinadi.

Shuningdek, professor I.Baldaufning Turkiston adabiy tili haqidagi mulohazalari ham o'ziga xos. Masalan, Behbudiy haqida so'z ochar ekan, u kim degan savol qo'yadi. Va «mardumi Turkistoniy» yoxud «musulmon» deyish ma'qulroq bo'ladi, deydi. Darvoqe, bunday savolni 85 yil muqaddam A.N.Samoylovich ham qo'ygan va «o'zbek ham, tojik ham bo'lmagan, xo'ja» deb javob bergan edi. Bunday yondashish bugun bir oz erish tuyuladi, albatta. Aslida bu o'sha payt uchun ham g'ayriodatiy edi. Chunki Behbudiyning o'zi ta'kidlaganidek, turli munosabat bilan turli davrda kelib qolgan bir to'da xo'ja-arablar allaqachon mahalliy xalqqa singib ketgan. Lekin professor I.Baldaufning fikrida jon bor. Ikki tillilik Turkiston xalqi uchun qadimdan xos. Xususan, Samarqandda. Bordi-yu millatni aniqlashda til yagona mezonga aylangudek bo'lsa, ikkilanib qolish hech gap emas. Tadqiqotchi «Oyna» jurnalining tili haqida yozar ekan, uni nazokat bilan «murosa shevasi» deb ataydi.

Jurnaldagi maqolalarning 80 foizi turkiy (o'zbek)da, 20 foizi forsiyda yozilganini va bu bilan «turk»ning Turkiston uchun kimligini, «turkiy»ning roli va o'rni bu o'lkada qandayligini ta'kidlamoqchi bo'ladi. Muallif bevosita jurnal maqolalari tiliga to'xtaladi. Esselar, diniy-nazariy maqolalar ko'pincha forsiyda yozilganini va bularning sababi haqidagi o'z mulohazalarini bildiradi. Behbudiyning ayrim ifodalarda turkchadan forschaga va aksincha, forschadan turkchaga o'tishi juda oson va qulayligiga, bu ikki tilga bir tildek («musulmon tili») qarashiga diqqat qiladi. Biz sho'roviy mafkuradan chiqqanlarga bunday tafsilotlar ikir-chikirdek yoxud ortiqcha injiqlikdek, hatto tirnoq ostidan kir qidirishdek tuyulishi mumkin. Lekin jahon tajribasi uchun bu xil tafsilotlar «ikir-chikir» emas ekan. Demakki, bu bilan hisoblashish kerak bo'ladi.

Qolaversa, beayb parvardigor deganlaridek, kitobda e'tiroz tug'diradigan fikrlar, uncha-buncha qusurlar ham yo'q emas edi. Mutaxassisning Turkiston muhitidan, mahalliy ruhdan, manba-materiallardan bir qadar uzoqligini hisobga olish kerak bo'ladi. Shu jihatdan undagi «... chorizmga qarshi harakatda Munavvarqorining o'rni borligi haqida biror narsa deyish qiyin», «... ular (ya'ni Fitrat, Ayniy — B.Q.) ham turkiyni 1917-yildan keyingi davrda, zarur bo'lgan hollardagina yozishmalarda qo'llagan» kabi izohtalab o'rinlarni, «Behbudiy to'garagi», «Tarjimon» jurnali» kabi yanglish-larni, goho muhim faktlarni keltirganda birinchi manbaga emas, ishonarsiz, mutaxassislar orasida e'tibor topmagan asarlarning uchrab qolishi sabablarini tushunish mumkin. Lekin har qanday holda ham bir narsani alohida ta'kidlashni istaymiz. Muallifdagi Sharq madaniyatiga doir keng bilim, uning mahalliy xalq tarixiga, urf-udumlariga samimiy ehtiromi bilan qo'shilib alohida jilo topgan va muhimlik kasb etgan.

Professor I.Baldauf asli avstriyalik. Ovrupo sharqshunoslik ilmi markazlaridan Vena universitetida o'qigan. Eski Janubiy Turkiston, hozirda Shimoliy Afg'oniston hududidagi qadim Balx, Mozori sharifda amaliyot o'tagan. O'zi aytishicha, shu yerda o'zbekchani sevib qolgan, yuzlab xalq qo'shiqlarini to'plagan. Hozirgacha bu joylar bilan aloqasi uzilmay keladi. So'ng Xorazmda uzoq safarda bo'lib, xalfalar ijodini o'rgandi. Qi-

ziqarli chiqishlar qildi. Keyinroq turkiy xalqlar yozuvi, xususan 1850–1937-yillardagi rus va sovet davri yozuv islohotlarini o'rganish bilan shug'ullandi. 1993-yilda Budapeshtdagi «Akademiya» nashriyotida 782 sahifalik salmoqli kitob chop etdi. Bir necha yildirki, Berlindagi mashhur Xumboldtlar universiteti Markaziy Osiyo instituti direktori. Mamlakatimizga tez-tez kelib turadi. O'zbekiston Milliy universiteti Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti kafedrasi professori sifatida talabalarga XIX–XX asrda islom olamidagi yangilanish jarayonlaridan ixtisoslik kurslari o'qiydi. Ikki-uch yil muqaddam Germaniyadagi O'zbekiston elchixonasi xodimlari bilan nemis diyorida «O'zbek she'riyati kunlari»ni tashkil qildi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov she'rlarini olmonchaga tarjima qilib, ularning o'zbek she'riyati muxlislari bilan uchrashuvlarini uyushtirdi. 1996-yilda ilmiy hamkorlik imkoniyatlarini izlab O'zRFA Tarix, Til-adabiyot, Sharqshunoslik, qo'lyozmalar institutlari, oliy o'quv yurtlarimiz mutaxassislari bilan tanishib chiqdi. Chamasi, o'zbeklarning bundan 70–80 yil oldingi Germaniyada o'qishga bo'lgan havas va intilishlarini ko'zda tutib, istiqlol sharoitida bunday qiziqishning yanada oshganligini his etdi. 1999-yilda Toshkentda jadidchilikka bag'ishlab o'tkazilgan yirik anjumanda ma'ruza qildi...

Men serg'ayrat, hayotda g'oyat kamtar va samimiy bu olima bilan 1996-yilda Toshkentda ilk daf'a uchrashgan edim. Uning taklif va iltimosi bilan O'zbekiston bo'ylab safariga hamroh bo'ldim. 1997-yilda Germaniya akademik almashuv (DAAD) tanloviga qatnashib, 2 oy Berlinda Ingeborg mutasaddilik qilayotgan Mittlazien instituti arxivida ishladim. Professorning marhamati bilan uning shaxsiy kutubxonasidagi juda ko'p materiallar bilan tanishdim. Olmon sharqshunoslik maktabi, xususan Bamberg universiteti professorlari eronshunos Fragne, turkolog S.Tezjon, Berlin Frae universiteti Turkologiya instituti boshlig'i professor Barbara, eronshunos doktorlar Luts Jexak, Monika, Biate kabi ko'pdan-ko'p hamkasabalar bilan suhbatlar, ayniqsa bamberglik Mixail Friderixning shoir Tavallo haqidagi qizg'in fikr-mulohazalari, o'zbekshunos doktor Zigrid Klaynmi-xelning Abdulla Avloniy va o'zbek professional teatrining paydo bo'lishi haqidagi bahs-munozaralari adabiyotimizning xorijdagi

mavqe-martabasi g'oyat baland, unga qiziqish esa nihoyatda kuchli ekanligiga har qanday nigilistni ham ishontirar edi.

Toshkentdagi mehmondorchiliklardan birida Ingeborg gap orasida «odobni o'zbeklardan o'rganish kerak» dedi. Nimani ko'zda tutayotganini daf'atan payqay olmadim. Ancha o'tkazib so'radim.

— Biz ko'p narsani qilishimiz mumkin, lekin bunday ochiq dasturxonni hech qachon qila olmaymiz, — dedi o'ychan.

Mulozamatning sal og'aboshlagani sezishi bilan «barodari-barobari» deb qo'yar edi eronshunos Luts.

Darhaqiqat, xalqlar do'stligining asosiy omillaridan biri tenglik bo'lsa, ikkinchisi samimiylikdir. Aslini olganda, bizni bog'laydigan omillar ko'p. Qadimshunos olimlar turkiy qavmlarning olis tarixdagi german qabilalari bilan kechgan buyuk hamkorligidan naql qiladilar. Yangi tarixning buyuk siymolaridan Gyote «G'arb-Sharq devoni»da Samarqandu Buxoroni tilga oladi. Temur va Napoleonning yurishlarini qiyoslaydi. Diterits 1890—1991-yillarda Forobiyning «Al-madinatul-fazilati» kitobini sharhlagan edi. Shoir Fridrix Rokert «Sharq rivoyatlari va tarixi» asarida Forobiyning «Qonun» asbobini yaratganligini she'r bilan hikoya qiladi. Beruniyning «Osor ul-boqiya», «Hindiston» (Edaurd Zaxau), «Saydana» (Maks Meyerxof) asarlari bizdan ancha ilgari olmon tiliga tarjima qilingan. Bonn universiteti uzoq vaqt beruniyshunoslik markazi bo'lib kelgan. Brokkelman Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk»ini bizdan 40 yilcha burun, 1927-yilda nashr qildirgan edi.

Nemis o'zbekshunosligi Annemari nomli ikki ayolning xizmatini alohida qadrlaydi. Biri 1845-yilda «O'zbek tili grammatikasi»ni chop ettirgan Annemari Fon Gaben (1901—1993), ikkinchisi Bobur haqida 1960-yilda katta tadqiqot e'lon qilgan, «Muzakkirul ahbob» (1964) haqida ilmiy ishlar yaratgan Annemari Shimmeldir. Professor Ingeborg Baldauf mana shu an'anani davom ettirib kelayotgan olimalar sirasining bugungi eng e'tiborli va eng sermahsul namoyandasidir. Uning «XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar» risolasi bunga dalil.

ADABIY HAMKORLIK SAHIFALARI

DO'STLIK IPLARI

1. Shahri Bulg'or hikoyati

Shavkatli Iskandar dunyoni zabt etdi. Lekin uning orom bilmas ko'ngli taskin topmadi. Uning qalbini obihayot ishtiyoqi band etdi. Ammo u narsaning na nishoni, na makoni biror kitobda bitilmagan, Alloh bandalarining hech biriga ma'lum etilmagan edi. Jahongirga Xizr va Ilyos madadga keldilar. Olis safar taraddudi ko'rildi. Son-sanoqsiz qo'shin uzoq yo'l bosib, hamma yoqni chulg'agan zulmat qarshisida lol va najotsiz qoldi.

— Faqat qulunli biyalarnigina egarlang! — maslahat berishdi Xizr va Ilyos.

Zimiston va yorug' dunyo chegarasida behisob qoziqlar qoqilib, qulunlar tang'ib boylandi. Iskandar qo'shini bilan cheksiz zulmat qa'riga ot soldi. Alqissa, to'qqiz kun yo'l yurdilar. Lashkar holdan toyib qo'nishga majbur bo'ldi. Horg'inlik qudratli jahongirga ham o'z hukmini o'tkazdi. Beadad lashkar o'z sohibqironi bilan uyqu va g'aflat ko'ksiga bosh qo'ydi. Lekin Xizr mijja qoqmadi. Atrofdagi har bir sharpani sinchiklab kuzatib turdi. Nogahon yiroq-yiroqlarda nimadir yiltillab ketdi. Xizr va Ilyos bir lahza esankirab qoldilar, so'ng shosha-pisha u tomon yugurdilar. Yaltirab ko'ringan chashma ekan. Uning tubida ajib bir hol namoyon edi: unda nur balqirdi. Obihayot xuddi shu ekanligiga shubha qolmadi. To'yib ichdilar, ichiga tushdilar, yana ichdilar. Quvonchli xabarni Iskandarga yetkazmoq uchun shoshilinch orqaga qaytdilar. Biroq jahongir bilan qaytib kelganlarida nur ham, suv ham yo'q edi. Xullas, obihayot unga nasib qilmadi. Iskandar orqaga qaytishga farmon berdi. Lekin yo'lda yana karomat zohir bo'ldi. Shiddat bilan qulunlari tomon intilgan biyalar cheksiz toshloqqa duch kel-

dilar. Ot tuyoqlari toshlarga tegar-tegmas hamma yoqni anvoyi hidlar bosib ketar edi.

— Bular serxislat toshlar. Ulardan olgan ham o'kinadi, olmagan ham, — bashorat qilishdi Xizr va Ilyos. Qaybirovi tushib oldi, qaybirovi lozim topmadi. Nihoyat biyalar Iskandar lashkarini eson-omon zulmat qo'ynidan yorug'likka olib chiqdi. Toshlar qizil yoqut ekan. Hamma o'kindi. Olganlar oz oldik deb, olmaganlar olmadik deb. Iskandar ot jilovini Bahri Asfarga (Kaspiyning qadimgi nomlaridan biri) burdi. Manzilga yetgach, qo'shinga bir necha kunlik hordiq e'lon qildi. Mashaqqatli safardan sillasi qurigan askarlar atrof-joylarga taralib ketdilar. Oradan yetti kun o'tdi. Dam ham tugadi. Yana safar burg'ulari chalindi. Har bir sipohi o'z tumanidan o'rin oldi. Biroq bir ish tuman sardorlarini jahongir huzurida mulzam etdi: lashkarning o'n mingdan ortiqroqi Itil — Volga go'zallariga ko'ngil berib qo'ygan edi. Iskandar o'yga toldi. So'ng ot ilovini shimolga burdi. Itil va Nahri Julmon (Kama) qo'shilgan joyidagi so'lim o'rmonlar, yashil daraxtzorlar qo'ynidagi zilol ko'llar haddan tashqari go'zal edi. Yosh kelinchaklarni bu joylar maftun etdi. Ular o'z qalliqlarini shu ko'rkam diyorda qolishga undadilar. Iskandar kuyovlarning uzrini qabul etdi va eman yog'ochidan katta shahar qurdirib «Bu — Vulg'or» (Volga bo'yida qolganlar) deb nom berdi. Shu tariqa Bulg'or shahri vujudga keldi.

Bu qadimiy turkiy xalqlardan bo'lgan tatarlar va ularning VII—XIV asrdagi muazzam shahri Bulg'or haqidagi rivoyat, albatta. Lekin u haqiqatdan butunlay uzoq emas. Bir vaqtlar yuqori va o'rta Volga bo'ylarida ugro-fin qabilalari, quyi oqimi va Kaspiy bo'ylarida esa skiflar istiqomat qilganlar.

Milodning boshlarida tarixda «Buyuk ko'chuv» deb nom olgan siljish jarayoni boshlandi. Markaziy Osiyoda yashagan xunlar O'rta Osiyo, Oltoy va Sibir, Kaspiy va Volga-Don atroflariga kelib joylashdilar.

Ularning so'g'dlar, skiflar, massagetlar, ugro-fin qabilalari bilan chatishuvi natijasida turkiy xalqlar vujudga keldi. Jumladan, qipchoq va bulg'or (tatarlarning qadimgi nomi) xalqlari tashkil topdi. Qipchoqlar (ruslar «poloves», g'arbiy yevropaliklar «kuman» nomlashgan) Orol dengizi sohillaridan Dongacha yoyilgan sahroning (so'ngroq u «Dashti qipchoq» deb ataldi)

asosiy xo'jayini bo'lib qoldilar. Ular bilan tinimsiz nizoda bo'lgan Bulg'orlar esa kunyoq (janub)dan tunyoq (shimol)ga siljib Bulg'or, Bilor, Suvor kabi shaharlar bino qildilar. Bulg'orlarning ikkinchi bir bo'lagi Asparux boshchiligida Azov yoqalab Bolqonga o'tdi. Mahalliy german va slavyan qabilalari bilan chatishdi. Dunayning quyi oqimida VII asrda Bolgariya podsholigini maydonga keltirdi.

2. Bulg'or haqiqati

Volga bilan Kama quyilgan joyda hozir Kuybishev nomidagi ulkan suv ombori bunyod qilingan. Bu yerlar shu kunlarda juda go'zal. Suv havzasidan sharqqa tomon bir oz yursangiz toshminor, qabristonlar, haybatli imoratlarning qoldiqlari diqqatingizni tortadi. Sharqiy Yevropadagi eng birinchi davlat birlashmasi — Itil bo'yi bulg'or davlatining poytaxti ko'hna Bulg'or shahridan qolgan bu xotiralar xayolingizni beixtiyor olis tarix voqealariga yetaklaydi. Ko'z oldingizda jangu jadallarga to'la suronli asrlar namoyon bo'ladi. U bir vaqtlar Yevropaning Sharqdagi darvozasi edi. G'arbda Kiyev Rusi, Sharqda muazzam Hindu Chin o'lkalarigacha cho'zilgan buyuk ipak yo'li xuddi shu shahar orqali o'tgan. Shirvon va Darband osha bu yerdan arab xalifaligiga karvonlar qatnagan. 922-yilda mashhur sayyoh, Bag'dod elchiligining kotibi Ibn Fadlon bu shaharning go'zalligiga tan bergan. 1135-yilda Andalusiya (Ispaniyaning janubidagi o'lka, XII asrda u yerda musulmon davlati mavjud bo'lgan)ning G'arnat (Granada) viloyatidan Hamid al-G'arnatiy bulg'or olimi, «Tavorixi Bulg'oriya»ning muallifi Ya'qub binni Nu'mon huzuriga kelgan. Bu shahar haqida o'nlab sayyohlarning qimmatli xotiralari saqlangan. Ibn Xavqal (X asr), Plano Karpini (1182—1252), Rubruk (1215—20—1293), Ibn Arabshoh (1388—1450) ... U haqda Ibn-al-Asir (1164—1234), Ibn Xaldun (1332—1406) kabi o'rta asr tarix fanining mashhur namoyandalari yozib qoldirganlar.

Bundan ming yillar ilgari Kaspiy va Orol o'rtasidagi beadad Ust Yurt sahrosini qoq ikkiga ajratib o'tadigan karvon yo'li Bulg'orni Movarounnahrning muazzam shaharlari bilan bog'lagan. Shunisi diqqatga sazovorki, bu yo'l O'rta Osiyoni Yevropa

bilan tutashtiruvchi eng qisqa yo'l hisoblanadi. Yaqinda qurib ishga tushirilgan Qo'nqirot — Makat temir yo'li deyarli shu qadimiy karvon yo'li izlaridan o'tadi. O'sha paytlardagi savdo yo'li, karvon yo'llari haqida tarix fani talay ma'lumotga ega. Karvonsaroylar orasi 25 chaqirim bo'lgan. Bulg'orga guruch, quruq meva, ipak, gazlama, oltin va kumush, O'rta Osiyoga esa asosan mo'yna keltirilgan. Bulardan tashqari Bulg'or saqalib (slavyan) va musulmon qullari sotiladigan asosiy bozor hisoblangan. Karvonlar xizmatini faqat shular bilan cheklash, tabiiyki, noto'g'ri bo'lur edi. Ular savdo elchilarigina emas, madaniyat elchilari ham edilar. Ular orasida jahongashta sayyohlar, olim va shoirlar, tolibi ilmlar, diplomatik vakillar, tilmochlar, bir yurtdan ikkinchi yurtga ko'chuvchi kishilar ham bo'lar edi. Karvonlar aksariyat, minglab ot va tuyalardan tashkil topib, maxsus qurollangan suvoriylar qo'riqchiligida borar edilar. Masalan, Ibn Fadlon karvoni (O'rta Osiyo orqali yurgan, chunki o'sha paytda Hazar va Bulg'or aloqasi yomon bo'lib, Darband yo'li yopib qo'yilgan edi) yuk ortilgan uch ming ot va tuyadan, besh ming kishidan iborat bo'lgan. Shularni solishtirib qaralsa, tatar tarixchilarining «X asrlarda Bulg'orning o'qimishli kishilari Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino asarlarini o'qiganlar», — degan fikriga bemalol ishonch hosil qilish mumkin. Aslini olganda, Bulg'or va O'rta Osiyo o'rtasidagi aloqalar juda qadimiy. Tarixchilarimizning fikriga qaraganda, uning ildizlari ibtidoiy jamiyat davriga borib taqaladi. Mamlakatlarimiz feodal bosqichga qadim qo'ygan, islom dini har ikki o'lkada yoyilgan (Bulg'orda ilgari otashparastlik va shomoniylik bo'lgan) X—XII asrlarda bu aloqalar muntazam tus oldi. Buxoroning anvoyi gazlamalari, Samarqandning simgin va qirmizi matolari, noyob qog'ozi Bulg'or bozorlarida tez-tez ko'rina boshladi. Buxoro va Gurganj (Urganch) X—XII asrlarda Sharq madaniyatining markaziy shaharlaridan edi. Ibn Sino Buxoroda ajoyib kitob bozori bo'lganligini xabar qiladi. Amir Nuh Ibn Mansur kutubxonasi O'rta va Yaqin Sharqda benihoya shuhrat topdi. Arab olimi Maqdisiyning ta'riflashicha, zamonasida old Osiyoda unga o'z boyligi jihatidan faqat Sheroz hokimi Azud-ud-Davla saroyidagi kutubxonagina teng kela olgan. Bu yerda xuddi shu asrlarda fors-tojik adabiyoti tavallud topdi. Abu Ahmad al-

Kotib, Abul Husayn, Abu Tayyib, Abul Falz al-Marvaziy kabilar ijodi misolida arab she'riyati rivojlandi. Bu «odam ushshuaro» Rudakiy yashagan, mashhur Firdavsiy nazari tushgan, buyuk Forobiy tahsil ko'rgan shahar edi. Gurganjda esa Beruniy davrida, arxeolog Yahyo G'ulomov taxmin qilishicha, bir yarim million aholi yashagan. Xorazmshoh Abul Abbos Ma'mun Ibn Ma'mun saroyida Beruniy, Ibn Sino (1000-yilda kelgan), tarixchi Miskaveyx, mashhur Al-Xorazmiy izdoshi Abu Nasr Arroq, faylasuf Abu Sahl Masihiy, Hakim Ibn Hammor kabi Sharqning zabardast olimlarini to'plagan «akademiya» mavjud edi. O'nlab madrasalar ularning bevosita ta'siri va aloqasi asosida ish ko'rar edi. Ibn Sino Forobiy kitobini sotib olgan Buxoro bozorini ehtimol bulg'orlik ilmparvar savdogar ham oralagandir. Bir vaqtlar Buxoro amiri Nasr ibn Ahmadni poytaxtga qaytargan mashhur «Bo'yi jo'yi Mo'liyon...» (Rudakiy) qasidasini guvillagan bozor rastalarida, ziyofat va tantanalarida Shimoldan kelgan sayyoh ham eshitgan bo'lsa ajab emas. Zamon tibbiyoti Amir Ibn Mansur kasali oldida lol qolganda mo''jiza ko'rsatgan 17 yoshli, hali dunyoga noma'lum Ibn Sinoning shuhrati karvonlar osha Itil bo'ylariga ham yetganligi ma'lum. Ayniqsa, Xorazm, uning poytaxti Gurganj fan va madaniyat ahlining sajdagohi edi. Ko'hna dunyoning olis bir burchagida shunday bir o'lka borligini dastlab al-Xorazmiy ma'lum qildi. U tufayli madaniyat olami «Al-Jabr» (algebra) ilmi, «al-xorazm» (algoritm) tushunchasidan xabardor bo'ldi. So'ng uning dovrug'ini Beruniy yoydi. Buyuk olim birinchi marotaba ma'danlarning solishtirma og'irligini aniqladi, yer radiusini o'lchab berdi. Batlimus (Ptolomey)ning geosentrizmiga shubha bildirdi... Ibn Sino mikroblar haqida Pastyerdan 800 yil avval bashorat qilgan, 700 yil Yevropada tibbiyot bo'yicha asosiy qo'llanma bo'lib kelgan «Al-qonun fit-tib» asarini shu yerda yozishga kirishdi. Gurganjda gumanitar fanlar ham rivojlangan, «Faxri Xorazm», «Jorulloh» unvonlariga musharraf bo'lgan filolog Mahmud Zamaxshariy ham shu o'lkada voyaga yetgan edi. Ibn Arabshoh «Xorazmliklar haqidagi ajib narsalardan shunisi mashhurki, ularning beshikdagi chaqalog'i «oh» desa, «dugoh» ohangi kelarmish» deb yozgan edi. Turkistondan yo'lga chiqqan karvonlarning hammasi mana shu Gurganj orqali o'tgan. U

Bulg'or karvonlari uchun Movarounnahr darvozasi bo'lgan. «Devonu lug'otit turk»da Bulg'or hayotini ham aks ettiruvchi qo'shiqlar uchrashi bejiz emas. Darhaqiqat, XI–XII asrlarda yashagan Bulg'orlik tarixchi Ya'qub Ibn Nu'mon, Hakim va faylasuf Ahmad al-Bulg'oriy, faqih Hamid Ibn Idris ijodi O'rta Osiyo ilm-fanidan oziq oldi deyishga yetarli asos bor. Tarix asarlarida bevosita jonli aloqalar, muayyan nomlar haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Masalan, Hisomiddin Bulg'oriy «Tavorix»ida Bulg'ordan Xorazmga, Qo'qon, Toshkentdan Bulg'orga «Xorun ar-Rashid zamonida» (IX) borib yashab qolgan o'nlab ilm-fan egalarining nomini tilga oladi. XVIII asr tarixchilari Qul Ali nomli shoirning Xorazm madrasalarida 45 yil bo'lib, umrining oxirlarida o'z vataniga qaytganini xabar qiladilar. Qul Ali tatar yozma adabiyotining birinchi yodgorligi deb qaraladigan «Yusuf va Zulayho» dostonining muallifi. Ehtimol, doston Xorazm diyorida vujudga kelgandir. Ehtimol, undan bir oz keyin bu mashhur syujetga murojaat qilgan xorazmlik Nosiriddin Rabg'uziy dostondan xabardor bo'lgandir.

3. Saroy yozmishi

Agar Saroy haminast, dilbar on Saroy...
(Agar Saroy shu bo'lsa, u chindan ham dilbar.)
Kamol Xo'jandiy

Kelib o'ldim Saroyda she'r fidoyi,
Saroyning shoiri — elning gadoyi.
Sayfi Saroyi

1219–1221-yillarda Movarounnahr dahshatli Chingiz istilosini boshidan kechirdi. Qirg'in va talon butun o'lkani qamrab oldi. Gullab yotgan Buxoroga o't qo'yildi. Samarqand xarobazorga aylandi. Muazzam Gurganj suvga bostirildi. Vayron bo'lgan shaharlarning ko'pchiligi keyinchalik o'z qadlarini tiklab oldilar. Ammo bu Gurganjga nasib qilmadi. Shunday buyuk bir shaharda hayot asari butkul so'ndi. Tarix varaqlarida uning bir zamonlardagi benazir shuhrati haqida olis bir xotirot qoldi, xolos. Vahshiyona xunrezlikning lovullab yongan olovida qanchadan-qancha zabardast iste'dodlar nobud bo'ldi, qanchadan-

qanchalari huvillab qolgan ona yurtni tark etib uzoq o'lkalarga bosh olib ketishga majbur bo'ldilar. Beruniy, Ibn Sinolar timsoli bo'lgan fan va madaniyat inqirozga yuz tutdi. 30-yillarda mo'g'ullar Volga va Ural bo'ylarini egallab oldilar. Bulg'or, Bilor, Suvor shaharlari o'z mavqeni yo'qotdi. Tabiiyki, savdo karvonlari ham to'xtab qoldi. Xonbaliq (Pekin)dan Xalabgacha, ya'ni Tinch okeanidan O'rta dengizgacha bo'lgan chegarada mo'g'ul saltanati vujudga keldi. Chingiz uni vorislariga taqsimlab berdi. Movarounnahr Chig'atoyga tegdi. Shimoliy Xorazmdan Volga bo'ylarigacha bo'lgan joylarni Jo'ji oldi. Biroq ko'p o'tmay, bu ulkan hudud g'alayonlar makoniga aylandi. Jo'jining o'g'li chapdast Botu Chig'atoy qo'lidan Movarounnahrni tortib oldi. Otasi ulusi asosida salkam 200 yil davom etgan Oltin O'rda hokimiyatini vujudga keltirdi va Volganing quyi oqimida Botusaroy (Asrtaxan yaqinida) shahrini qurdirib, poytaxt qildi. Keyinchalik «Islom tartibida qurilgan g'oyat go'zal» (Ibn Arabshoh) Berkasaroy (Volgagrad yaqinida) qad ko'tardi va poytaxt unga ko'chirildi. 1239–1240-yillarda bu hokimiyatga Kavkaz va Rus butunlay bo'ysundirildi. Savdo karvonlari yana yo'lga tushdi. Ular endi Saroy shaharlari orqali o'tadigan bo'ldi. To'xtamish Tabrizga qilgan yurishlarida mashhur Kamol Xo'jandiyni olib qaytdi.

Tarixda Oltin O'rda madaniyati deb nomlangan turkiy xalqlar madaniyati shu davrda maydonga keldi. Uni o'zbeklar, tatar va boshqirdlar, shuningdek, ayrim turkiy xalqlarning paydo bo'lishida ishtirok etgan qipchoqlar barpo qildilar. Chunki mo'g'ullar madaniy jihatdan ilg'or turkiy xalqlar ta'siriga tushib qoldilar.

Venetsiyada Muqaddas Marko ibodatxonasining kutubxonasida shoir Petrarka sovg'a qilgan bir kitob saqlanadi. U 1303-yilda yozilgan Lotincha-forscha-qumoncha (qipchoqcha) lug'at bo'lib, ilmiy adabiyotlarda «Qumon majmuasi» nomi bilan mashhur. Taniqli tatar olimi Aziz Ubaydullin 1923-yilda uning tili chig'atoy (o'zbek) tiliga juda yaqin ekanligini yozgan edi. «Qumon majmuasi» Oltin O'rda madaniyatining ilk yodgorliklaridan. So'ngroq Xorazmiy «Muhabbatnoma»si, Qutb, Sayfi Saroyi, Haydar Xorazmiy nomlari bu madaniyatning shuhratini yoydi. Ularning asarlari tilining soddaligi bilan Hirot, Samar-

qand adabiy maktabida vujudga kelgan asarlardan ajralib turadi. Buning sababi bor, albatta. Oltin O'rdaning siyosiy hayotida ham, madaniy hayotida ham Movarounnahrning, ayniqsa, Xorazmning mavqei juda baland edi. 1330–1332-yillarda Berkasaroyda bo'lgan mashhur arab sayyohi Ibn Batuta Oltin O'rdaning eng e'tiborli kishisi shayx Nu'mon al-Xorazmiy ekanligini yozgan. Hukmdor o'zbekxon ham haftada bir marta uni ziyorat qilgani kelar edi. Muhammadxo'ja al-Xorazmiy xuddi shu davrda Azoq Tana (Azov bo'yi) amiri qilib tayinlangan. Xorazmlik Alouddin Oytug'di Misr sultonining Oltin O'rdadagi elchisi bo'lgan. Saroy shaharlaridagi qurilishlarning deyarli hammasida xorazmlik hunarmandlar faol qatnashganlar. Ibn Batuta O'zbekxon saroyida turkiycha so'zlashuvga amal qilinganligini aytadi. Demak, davlat tili turkiy til bo'lgan va u asosan Xorazm hamda sahro o'zbeklarining, tatar va qipchoqlarning so'zlashuv tili xususiyatlarini o'zida ifodalagan. Bu til va madaniyatning chig'atoy (o'zbek)chaga yaqinligi esa Xorazm va Turkiston ta'sirining kuchliligidan bo'lishi kerak.

Saroy shaharlari ilm-fan rivojiga ham katta hissa qo'shdi. Ibn Arabshoh: «...qisqa muddat ichida u yerda olimlar, fozillar, adiblar, zariflar, yetuk kishilar va fazilat sohiblari, ajoyib va go'zal xislatli kishilardan shu qadar ko'p to'plandiki, undan boshqa hech joyda, hatto Qohiraning jome masjidida ham shunchalik yig'ilmagandi» deb yozgan edi. Jumladan, u o'zbekxon va Jonibekxon huzurida shayx Sa'diddin Taftazoniy, Said Jaloliddin, Ahmad al-Xo'jandiy kabi mashhur olimlar bo'lganligini xabar qiladi.

1391-yilning 18-iyunida hozirgi Kuybishev shahri bilan Chistopol o'rtasidagi Qunduzcha degan joyda Temur bilan Oltin O'rda hukmdori To'xtamish o'rtasida hal qiluvchi jang bo'ldi. Temur yengib chiqdi. Saroy vayron qilindi. Karvon yo'llari to'xtab qoldi. Oltin O'rda hududi Temur imperiyasiga qaram qilib olindi. So'ngroq, XV asr o'rtalarida Volga bo'yida Qozon va Astraxan xonliklari vujudga keldi.

4. Suyumbeka minorasi

Qozon malikasining ta'rifi hamma yoqqa yoyilibdi. U ko'shkka chiqqanda quyosh xijolatdan bulutlar orasiga bekinar,

tunda esa oy tob berolmay g'oyib bo'lar ekan. U so'zga kirishganda bulbullar mahliyo bo'lib sayrashdan to'xtar ekan, tadbirkorlikda hech bir podshoh unga teng kelolmas ekan. Xalq unga Suyumbeka (sevimli beka) deb nom beribdi. Suyumbekaning dovrug'i rus yurtining podshosi Ivan Grozniyga borib yetibdi. Ivan Grozniy choparlar yuborib uning ko'nglini so'rabdi. Biroq Suyumbeka rozi bo'lmabdi. Shundan so'ng u qudratli qo'shin to'plab, tatar malikasini kuch bilan olmoqchi bo'libdi. Shahar qamal qilinib, ahvol tanglashibdi. Shunda Suyumbeka Ivan Grozniyga shart qo'yib, shuni bajargandagina tegajagini aytibdi. Shartga ko'ra Ivan Grozniy yetti kun ichida shaharda eng baland minora qurdirishi kerak ekan. Usta va me'morlar ishga tushib ketishibdi. Oradan bir kun o'tibdi. Minoraning birinchi qavati bitibdi. Ikkinchi kuni yana bir qavat tiklanibdi. Shu tariqa yettinchi kuni yetti qavatli eng baland, eng hashamatli minora tayyor bo'libdi. To'y boshlanibdi. Malika minoraga chiqib, shaharni tomosha qilishga izn so'rabdi. Shoh ruxsat beribdi. Malika minoraning eng yuqori joyiga ko'tarilibdi, xalqi bilan vidolashibdi va o'zini pastga tashlab, halok bo'libdi...

Tatar xalqining iftixori bo'lgan madaniy obidalardan — Suyumbeka minorasi haqidagi o'nlab rivoyatlardan birida shunday naql qilinadi.

Suyumbeka minorasi (tatar manbalarida «Xon masjidi» deb ham beriladi) Qozonning shimoli-g'arbida, ulkan Volga yoqasidagi tepalikda joylashgan Kreml ichidagi obidalardan biri. Qozon shu yerdan boshlangan. U XIV asrlardan shahar tusiga kirgan. Mustaqil Qozon xonligi ajralib chiqqach (XV asr), poytaxt Qozonga ko'chirilgan va birmuncha muddat u an'ana bo'yicha Bulg'or al-jadid (yangi Bulg'or) deb yuritilgan. Qozon Yoyiq (Ural) va Emba orqali O'rta Osiyo bilan muntazam aloqada bo'lib turgan. 1552-yilgi shahar qamalida chetdan kelgan 5000 savdogar qozonliklar bilan birga bo'lgani ma'lum. Ularning katta qismi buxoroliklar edi. Buxoro va xorazmlik savdogarlarga turarjoy va savdo rastalari Kreml yonidan ajratilib, ularga alohida hurmat-e'tibor bilan qaralgan.

1391-yildagi To'xtamish mag'lubiyati Oltin O'rda hokimiyatining yemirilishiga olib keldi. Volganing g'arbida rus dav-

lati qayta markazlasha boshladi. IX–XI asrlarda, asosan Kiyev va Novgorod yerlaridan tashkil topgan Rus XII asrda o'z hududini ancha kengaytirib, Suzdal, Rostov, Vladimir, Moskva, Nijniy Novgorod kabi shaharlarni barpo qildi. Mo'g'ul istilosi o'sib kelayotgan rus knyazliklariga juda katta zarar yetkazdi. To'xtamish (sharqda), Boyazid (janubda) Temur tomonidan mag'lub qilingach, Rus yerlari Moskva knyazligi ostida yagona davlat bo'lib birlashdi. XV asrning o'rtalarida Ivan Grozniyning Qozon (1552), Astraxan (1556) xonliklarini zabt etib, Volgani butunlay ishg'ol qilishi Sibirga yo'l ochib berdi...

1552-yil 16-avgustda Rus qo'shini Volgani kechib o'tdi va Qozon shahrini o'rab oldi, qamal 40 kun davom etdi. Uni Ivan Grozniyning o'zi boshqardi. Shahar xalqi dushmanga qarshi mardona kurashdi. Biroq 150000 kishilik kuchli qo'shinga dosh berolmadi. 2-oktabrda Qozon ruslar qo'liga o'tdi. Malika Suyumbeka Ivan Grozniy haramiga kanizak qilib olindi.

Rus podshosi qattiqqo'llik bilan ruslashtirish siyosatini o'tkazdi. Tatarlarga shaharda yashash, ayniqsa, Kremlga kirish, Volga bo'ylariga chiqish qat'iyan man qilindi. Kreml ichidagi muhtasham masjidlar cherkov va ibodatxonaga aylantirilib, qayta qurildi, oddiy, o'rtamiyona masjidlar buzib tashlandi. Yerli xalqni zo'rlik bilan xristian diniga o'tkazish – cho'qintirish boshlandi. «Krashin» (kreshyonniy-cho'qingan) deb nom olgan, ismi-familiyasi, maslak-mazhabi xristiancha tatarlar paydo bo'ldi. Rus yerlaridan ko'plab harbiylar ko'chirib keltirildi va ularga tatar mulklari bo'lib berildi.

5. Birinchi may maydoni

Qozon Kremli oldidagi maydon bir vaqtlar «Ivanov maydoni» deb atalgan, hozir «1-May» nomi bilan yuritiladi. Uning qoq o'rtasida Musa Jalilning mardonavor haykali qad ko'tarib turibdi. Maydon ro'parasidagi muzeyda saqlanuvchi eksponat va o'ng qo'lda joylashgan 1555–1564-yillarda Ivan Grozniy sharafiga qurilgan mubashshir Ioann (Ioanno Predtecheskiy) monastiri devorlari tatar xalqining XVIII asrga oid hayotidan muhim lavhani o'z bag'rida saqlab keldi.

Muzeydagi eksponat — 2-Yekaterinaning 1767-yilda Qozonga kelishiga tayyorlangan kareta. Kareta 12 otga mo'ljallangan. Unga 6 lakey xizmat qilgan. Gap shundaki, yerli xalqning milliy-diniy tuyg'ularini shafqatsiz ta'qib qilish siyosatini bir oz cheklash mana shu 2-Yekaterina nomi bilan bog'liq. Uning farmoniga binoat 1780-yildan boshlab tatar xalqiga maktab-madrasa, shariat mahkamalari ochish huquqi berildi. Ular shaharga kira oladigan, daryo bo'ylariga chiqa oladigan bo'ldilar. Chunki Qozon guberna markazi bo'lib qoldi. Yangi binolar qad ko'tara boshladi. Volgada yuk ortgan kemalar tobora ko'payib bordi. Tabiiyki, bularning hammasi ishchi kuchini talab qilardi. Shunday qilib oradan 228 yil o'tgach, yerli xalqqa ma'lum elementar huquqlar berildi.

Monastir devorlari tagidagi avaxtada esa 1773-yilda Yemelyan Pugachev saqlangan. U savdo rastalari to'lib-toshgan maydonda o'sha payt tartibiga binoan o'zi va qo'riqchisini boqish uchun sadaqa yiqqan. Kunlarining birida xuddi shu yerda qorovulini mast qilib, uni kutayotgan qo'zg'olonchi dehqonlar yoniga qochib borgan. Tatar xalqi «Pugachev podsho», «Jemiljon» (Yemelyan) haqida o'nlab qo'shiqlar to'qigan. Boshqird xalqining milliy qahramoni Salavat Yulayev uning ishonchli sarkardalaridan bo'lgan.

Erksevar tatar xalqi istiloning dastlabki kunlaridanoq qattiq kurash olib borgan edi. Masalan, knyaz Kurbskiy 1553—1558-yillarda tatarlar va ruslar o'rtasida olti yil tinimsiz jang bo'lganini yozib qoldirgan. 1670—1671-yillarda Hasan Oybo'latov boshliq tatarlar Stepan Razin bilan yelkama-yelka borganlar. 1773—1775 yilgi Pugachev qo'zg'olonida esa tatar va boshqirdlar juda katta rol o'ynaganlar.

6. Ona allasi

Illo-billo aytar bu,
Buxoroga ketar bu,
Ilm tahsil etar bu,
Maqsudina etar bu.

«Mening onam ham beshik tepasida shunday kuylagandir. Men beshikda tebralgan zamonda Rusiya musulmonlari qoshida Buxoroning qadri juda zo'r bo'lgan. Uning nomini zikr etganda «sharif» unvonini qoldirmasdan so'zlaganlar. Bizni o'qitishga juda ixlosmand marhum bobolarimizning kichkina Sharaflarni Buxoroga yuborishni vasiyat qilganlarini eshitganman» (*Burhon Sharaf, tatar jurnalisti, «Vaqt»gazetasidan).*

1730-yilda Rossiya janubida Orenburg shahri qad ko'tardi. Qozon dalalari sekin-asta Rossiya tarkibiga qo'shib olina boshladi. Yana savdo karvonlari O'rta Osiyoga yo'l oldi. Endi karvon yo'li Orenburg orqali o'tar edi. Buxoro va Orenburg orasi 1800 chaqirim. Uni karvonlar oylar davomida bosib o'tganlar. XIX asr boshlarida Orenburg shahriga har yili o'rta hisobda Buxoro va Xiva matolari ortilgan 27 ming tuya kelib turgan.

1780-yildan so'ng Qozon gubernasida milliy maktab-madrasalar ochishga ruxsat berilgach, karvonga qo'shilib keluvchilar orasida «tolibi ilm»lar soni ko'payib bordi. Chunki 200 yildan ortiqroq turg'unlikdan so'ng fan va maorifni birdaniga yo'lga qo'yib yuborish juda qiyin edi. Uning uchun malakali kadrlar talab qilinardi. Movarounnahrning X va XV asrlardagi shuhrati, Tataristonning Buxoro va Xorazm shaharlari bilan an'anaviy aloqalari, til va e'tiqoddagi mushtaraklik ularni yana Turkistonga yetakladi. 1790–1850-yillar oralig'ida O'rta Osiyo madrasalarida o'qimagan ko'zga ko'rinarli tatar ziyolisini topish qiyin. Ularning aksariyati Buxoroda tahsil oldilar. Ammo XIX asrdagi Buxoroda ilgarigi ilm-fan ravnaqi yo'q edi. O'lka feodal tarqoqligining, xonliklar istibdodining samarasi bo'lmish iqtisodiy-madaniy tanazzulni boshidan kechirardi. Dunyoviy fanlar madrasa dasturlaridan chiqarib tashlangan. Uning o'rnini diniy aqoidlar egallagan edi. Tataristonda dunyoviy adabiyot namunalaridan ko'ra tarkidunyochilik ruhidagi asarlarning ko'proq tarqalganligi sababi shundan bo'lsa kerak. Shularga qaramasdan Buxoro tahsili tatar shogirdlari taqdirida beiz ketmadi. Tataristondagi milliy fan va madaniyat rivojida ma'lum rol o'ynadi.

7. Buxoro saboqlari

Buxoroda yuzlab tatar talabalari tahsil oldilar. Ulardan ba'zilari amir Haydar va amir Nasrullo huzurida e'tibor topib, turli mansab-martabalarga erishdilar. Muhsin bin Bekqul bin Ibrohim ash-Shoshiy (Tataristondagi Shosh qishlog'i) Karmanada qozilik qilib, o'sha yerda vafot etdi. 1838-yilda Qarshi mutavallisi Muhammad Yusuf al-Yasoqiy edi. Mulla Hasaniddin bin Bashir al-To'ntariy, mulla Abdulg'affor bin Said ash-Shirdoniy bir muddat mudarrislikkacha ko'tarildilar. Ba'zilari Movarounnahrning boshqa shaharlarida ham mas'ul xizmatlarda bo'ldilar. Jumladan, «Sohibzoda» laqabi bilan tanilgan Muhammad Xalilullo bin Muhammad G'afron 1824-yilda Qo'qon xoni Muhammadalixon tomonidan Rusiyaga elchi bo'lib bordi. Lekin ularning aksariyati «xatmi kutub»dan so'ng o'z yurtlariga yo'l oldilar. Tataristonda Buxoro ko'rgan mullaning obro'si juda baland edi. Simbir (Ulyanovsk)dan Sibirgacha, Qozondan Tobul (Tobolsk)gacha bo'lgan maktab-madrasalar, masjid va qozixona kabi diniy-shar'iy mahkamalarda asosan «Buxoro ko'rgan» mullalar ish olib bordilar. Taniqli tatar ma'rifatparvar olimi Rizoiddin Faxriddinning 565 tatar ulamosining tarjimai holiga bag'ishlangan 2 jildli «Asar» nomli kitobini varaqlab ko'rsangiz, ularning aksar qismi Buxoroda o'qiganligi ma'lum bo'ladi. Biroq ulardan to'rt kishining nomi tatar madaniyati tarixidan mustahkam o'rin olib qoldi. Bulardan Abdurahim O'tiz Emaniy va Abulmanih Bistaviy (Qarg'ali) tatar ma'rifatchilik realizmigacha bo'lgan davr adabiyotining eng barkamol namoyandalari edilar. Abunasr Qursaviy va Shihobiddin Marjoniy esa o'z ilmiy zakovatlari bilan tatar ilm-fanida tubdan o'zgarish yasadilar.

Abdurahim O'tiz Emaniy (1754—1834) tatar she'riyatida turmush mavzulariga tomon burilishni boshlab bergan shoirlardan sanaladi. Hayotning barcha achchiq-chuchugini tatigan, yetimlikda o'sgan Abdurahim Buxoroga 1788-yilda keldi va o'n yil yashadi. U haqda «Dar bayoni sarguzasht» nomli masnaviy yozdi. Masnaviyda shoirning Buxoro hayotiga oid qiziq lavhalar keltirilgan. Chamasi, shahar mansabdorlari uni olim qiyofasida

Buxoroga kelgan josus deb o'ylaydilar va o'ldirmoqchi bo'ladilar. Shoir o'limdan bazo'r qutulib qoladi.

Ajdaholardir bular odamsifat,
Qo'ymish erurlar o'ziga mulla ot, –

deb ulardan qattiq ranjiydi. Tarixchilar shoirning dadil, cho'rtkesar bo'lganligini ta'kidlaydilar. Masalan, Rizo Faxriddin «Abdurahim hazrat so'zga g'oyat qo'rqmas bo'lib, qo'lida cho'qmori, og'zida esa cho'qmoridan quvvatli tili bo'lib, na dunyo va na din to'g'risida bahs ketganda yengilib qolmamishdir», -deb yozgan edi u haqda.

O'tiz Emaniy Buxoroda bir muddat o'qidi, so'ng Xorazm vohasida, Farg'ona shaharlarida bo'ldi. 1796–1798-yillarda Balx, Hirot, Kobulga sayohat qilib qaytdi. Uning:

Sanoe ahliga hamroh o'ldim,
Ajib san'atlaridan ancha oldim.
Necha g'avg'o fig'onlar, oldi-qochti,
Yemakka non topolmay qornim ochti.
Gahi yettim susoqlikdin halakka,
Zaiflikdin egildim arzi haqqa.
Gahi to'ldi o'ngimda nozu ne'mat,
Belin bog'lab nechalar etti xizmat, –

kabi o'zbek she'riyatida keng tarqalgan «hasbi hol» tipidagi satrlari shoirning safardagi ahvoli ruhiyasi haqida durustgina ma'lumot bera oladi. 1798-yilda u vatani Chistayga (hozirgi Chistopol) qaytadi. Mashhur «Yusuf va Zulayho»ni tatarlar hayotiga moslab ishlab chiqadi. U rus tilini o'rgandi, uning ilk targ'ibotchilaridan biri bo'ldi.

Abulmanih Bistaviy-Qarg'ali (1782–1826) esa Buxoroga 1802-yildan kelib Niyozquli Turkmoniy qo'lida saboq oldi. Mudarris Niyozquli Buxoroning eng nufuzli kishilaridan edi. 1821-yilda uning dafn marosimiga amir Haydarning o'zi shaxsan ishtirok etib, yig'ilgan jamoaga «Buxoroning amiri ikkita edi, bittasidan ayrildik», – deganini tarixchilar naql qiladilar. Juda ko'p tatar talabalari shu mudarris qo'lida o'qidilar. Uning

shogirdlariga ham alohida e'tibor berilardi. Shundan bo'lsa kerak, amir Haydar Abulmanihni 1815-yilda Turkiyaga elchi bo'lib boruvchi Muhammad Yusufga kotib qilib tayinlaydi. Shoir undan Makka, Madina, Hijoz, Qohiraga o'tadi va yana Istanbulga Muhammad Yusuf huzuriga qaytadi.

Taassuf etma moziya chekib mustaqbala hasrat,
Sarosar rub'i maskunning tamoshasin ko'rding san, –

deyishiga qaraganda Abulmanih o'z safaridan qoniqqan ko'rinadi. Muhammad Yusuf undan sayohat xotiralarini she'rga solishni iltimos qiladi. Shu tariqa uning «Tashakkur», «Sahroda» she'rlari vujudga keladi. She'rlar tinglovchilarda yaxshi taassurot qoldiradi. Keyinchalik shular asosida XIX asr boshlaridagi tatar yozma adabiyotining muhim namunalaridan bo'lgan «Tarjimai hoji Abulmanih al-Bistaviy as-Saidiy» kitobi maydonga chiqadi.

Yorqin iste'dodga ega bo'lgan, tatar ilm-fanida keskin o'zgarish boshlab bergan Abunasr Qursaviy (1776–1813) ham Niyozquli qo'lida tahsil ko'rdi. Uning Buxoroga ikki marta kelgani ma'lum. Keyingi safari 1808-yilga to'g'ri keladi. Buxoro ilm-fani bir vaqtlardagi shuhratini yo'qotgani, madrasalarda sxolastika hukmron bo'lib qolganini ilk daf'a oshkor aytgan kishi ham Abunasrdir. Uning «Al-lavoyih» (Ravshanliklar) asarida shu haqda gap ketadi. Abunasr bu kitobi uchun Buxoro ulamosining qahriga uchradi. U «Buxoroi sharif» sha'niga til tekkizgani uchun kofirlikda ayblandi va zindonga tashlandi. Qatl kuni e'lon qilindi. «Siyosat maydoni»ga odam to'plandi. Shayx Niyozquli o'rtaga tushdi. Abunasr uning da'vati bilan «tavba» qildi. So'ngroq ustozi maslahatiga ko'ra Buxoroni pinhona tark etdi va amir Haydar g'azabidan qutulib qoldi. Yurtiga qaytishda Xivada to'xtab o'tdi. Xiva olimlari uning istiqboliga chiqdilar, unga xil'at kiydirib, 200 tilla in'om etdilar. Darhaqiqat, faqih Fazl al-G'ijduvoniy aytganidek, «zamonasida ilm bobida Abunasr bilan yonma-yon qo'ysa bo'ladigan ikkinchi bir kishi yo'q edi». Biroq o'lim uni erta, 39 yoshida olib ketdi.

8. Shihobiddin Marjoniy

Har bir imom bizga quyruq bo'lgan choqda,
Quyruq so'zi bizda buyruq bo'lgan choqda...
To'lgan oydek balqib chiqqan Shihob hazrat.

Abdulla To'qay

Marjoniy bizning tongimizning cho'lponidir. Taassub ichidan aql va fikrlarni qutqaruv, jonlarimizni hurriyatga chiqaruvda Shihob hazrat eng quvvatli muassirlardan biri bo'ldi.

Olimjon Ibrohimov

Qozonda bir olim chiqdi olmos bo'ldi...

Oqmulla

Shihobiddin Marjoniy faoliyati va ijodi o'zbek-tatar madaniy aloqalari tarixida alohida bir bosqich.

U Qozonning shimolida joylashgan Archa rayonining Yabinchi qishlog'ida tug'ildi. Otasi Bahouddin «amiri sayyid» Haydar zamonida Buxoroda o'qib kelgan va amir xil'at kiydirgan uch tatar ziyolisining bittasi edi. Shihobiddin 1838-yilda Yabinchidagi otasi madrasasini bitirib chiqqach, shu yilning 18-mayida mungorlik savdogar Muxtor binni Muharram degan kishining karvoniga qo'shilib Buxoroga yo'l oladi. U kundalik daftar tutib yo'l xotiralarini yozib borgan. Unda Buxoroga yetguncha bo'lgan 150 dan ortiq shahar va qishloqlar haqida ma'lumot berilganligini xabar qiladilar. Karvon yetti oy yo'l yurib 12-dekabrda Buxoroga kirib keladi. Shihobiddin Buxoroda «Xalifa Niyozquli» madrasasiga joylashadi. Bir vaqtlar otasi Bahouddinga ham dars bergan Mirza Solih A'lam (1760—1840), Abunasrga e'tiqod bilan qaragan faqih Fazl al-G'ijduvoniy (1855-yilda vafot etgan), Abunasr maslakdoshi Abdulmo'min al-Buxoriy (1866-yilda vafot etgan), jahongashta, kitob shaydosi, ilm yo'lida «mujarrad» (tanholikda) umr kechirgan Xudoyberdi al-Boysuniy (1847-yilda vafot yetgan), o'nlab tatar talabalari ixlosiga sazovor bo'lgan mashhur Atoullo al-Buxoriyning o'g'li Qozi Muhammad Sharif (1844-yilda vafot etgan) kabilar huzurida saboq oldi. Ular orasida Muhammad al-Xo'jandiy

(1850-yilda vafot etgan)ga alohida muhabbat bog'ladi. Lekin XIX asr Buxorosida ilm-fan ahvoli nochor edi. «Bizning xalq o'quv-o'qituv tartiblarida Buxoroni o'rnak tutib, unga sajda qiladilar. Holbuki, Buxoro xalqi va hukumati ma'rifatdan juda yiroq, mahkamai hukamolari buzuq, o'quv-o'qituvlari g'oyat tartibsizdir», — deb yozgandi Marjoniy so'ngroq o'zining mashhur 6 jildli «Vafiyyat-ul-aslof va tahiyyat-ul axlof» (Salaflar vafoti va xalaflar duosi) asarining muqaddimasida.

Yana o'sha kitobdan: «Ular nahv (sintaksis)dan «Sharhi Kofiyai mullo Jomiy» (Ibn hojibning «Kofiya» kitobiga Abdurahmon Jomiyning sharhi. U ko'pincha qisqa qilib «Sharhi Mullo» ham deb atagan — B.Q.) o'qib shuning bilan 3 yil mashg'ul bo'ladilar. O'quvlarida kitob tartib bilan emas, so'ngdan boshga qarab o'qiladi. Eng kerakli o'rinlarni o'qimay qoldiradilar. So'ngra mantiqdan, «Shamsiya» kitobining boshidan bir necha yo'l o'qib, sharhi va hoshiyalariga tushib ketadilar va 2 yil vaqt o'tkazadilar. «Tahzib» kitobini boshlab «Al-hamdu lilloh» kalimasini sharh, hoshiyalari bilan o'qib bir yil sarflaydilar va unga «Bahsi hamd» deb nom qo'yadilar...

Lekin ushbu hamd, hidoyat, ishora, ilm bahslarining mantiq faniga qanday munosabati bor? Nega fandan maqsad bo'lgan mantiq qoidalarini o'qitmaydilar? Buning sababi nimada? Biz bu savollarning ma'qul javobini eshitmadik... Buxoroda... hikmat, jug'rofiya, tarix, ahvoli olam fanlarining o'zi ham, asari ham yo'q. Bular kerakli ilm sanalmaydi. Buxoroga ixlosmand kishilarning o'zi ham Buxoroda juda oz».

Madrasalardagi bu ahvol Shihobiddinda afsus va o'kinch uyg'otadi. U xususiy mutolaaga beriladi. Hamhujrasi, tibbiyot va handasa ilmlarining bilimdoni Nizomiddin al-Ilhomiy, amir Nasrullo nazdida obro' topgan yurtdoshi Husayn Qarg'ali unga yaqindan yordam beradilar. Marjoniy amir kutubxonasidan foydalanishga muvaffaq bo'ladi.

U bunyodkorlik va vayrongarlik, yaratish va yemirish bilan to'lib toshgan ko'hna Sharq tarixiga sho'ng'ib ketdi. Uni madaniyatimiz va adabiyotimizning ko'rkam davrlaridan bo'lgan XV asr o'ziga oshufta qildi. Ayniqsa, u Navoiyga ko'ngil qo'yib qoldi, «Alisher Xuroson elidagi olimlarning eng buyuklaridan, mashhurlaridan. U zamonasidagi adiblarning yuragi, orzusi

edi», - deb yozgandi Marjoniy «Vafiyyat-ul aslof va tahiyyat-ul axlof»da.

1843-yilda Marjoniy Samarqandga keldi. Sherdor madrasasi (1619–1936-yillar Yalangto'sh qurdirgan)da ikki yil istiqomat qildi. Samarqand ilmiy muhiti Buxorodagidan jonliroq edi. Uning Samarqand safaridan qoldirgan eng aziz xotirasi qozi va mudarris Abu Said Samarqandiy bilan tanishuvi bo'ldi. Marjoniy u haqda «...zamonasidagi Movarounnahr ulamosining eng buyuklaridan bo'lib, hamma ishlarida basiratli, diqqatli, muhaqqiqlarining va salaflarining juda ko'p kitoblarini mutolaa etib, juda ko'p to'g'ri ma'lumot hosil etmish muhibbi haqiqat bir alloma edi. Tarixni, xalqning ruhini, ahvoli olamni hamda hisob, jabr, muqobala, handasa, Hay'at, jug'rofiya va bulardan boshqa aqliy va naqliy ko'p fanlarni bilardi...» – deb yozgandi. Darhaqiqat, Abu Said, Shihobiddinning o'zi ta'kidlaganidek, uning «fikrida buyuk o'zgarish» yasadi, mashhur tarixchi bo'luvida «bosh sabab» bo'ldi. Ularning munosabati samimiy do'stlikka aylandi. 1849-yil 23-avgustda Abu Said vafoti Shihobiddinni qattiq qayg'uga soldi. Unga bag'ishlab «Ustodi zamona» tarixini yozdi.

Marjoniy Abunasr fikrlarini Samarqandga kelganidan keyingina tushunib yetdi. Uning «Al-lavoyih»ini topib o'qib chiqdi va uni himoya qilib «Tanbihi abno-al asr ala tanzihi abnoyi Abunasr» (Abunasr himoyasi yo'lida zamondoshlarining tanbihi) nomli asarini yozdi. 1845-yilda Marjoniy yana Buxoroga qaytdi va muhtasham Mir Arab madrasasiga (1535-yilda amir Abdullaxon qurdirgan) joylashdi...

Marjoniy Buxoroda 11 yil turdi. O'z istiqbolini shu yerda belgilab oldi. Kelajakdagi o'nlab asarlarining zamini shu yerda tug'ildi. Tatar olimi Aziz Ubaydullin Marjoniyning birgina «Mustafad-ul axbor fi ahvoli Qozon va Bulg'or» (Qozon va Bulg'or ahvoliga oid ma'lum xabarlar) asarining o'zida foydlangan yuzdan ortiq nodir manbaning ro'yxatini keltiradi va ularning deyarli hammasi Buxoro tahsili davomida to'planganligini xabar qiladi.

Marjoniy Buxoroda faqat ustozlaru kitoblar emas, yuzlab shogirdlar ham orttirdi. Qorako'l maktablarida yetti yil (yoz oylarida) dars berdi. Buxoro va Samarqandda, xususiy tahsil bi-

lan shug'ullandi. O'lim juda erta olib ketgan iste'dodli olim Nasriddin binni G'avs binni Niyoz al-Xorazmiy (1819—1839) uning sevimli shogirdlaridan edi.

Marjoniyning Buxoroda yozgan muhim asarlaridan biri «A'lom abno-ad-dahr bo ahvoli ahl Movarounnahr» (Movarounnahr ahvoli bilan zamon farzandlarini tanishtirish) bo'ldi. Bu xususda uning xulosalari shunday: Movarounnahr shaharlarida ilm-fan tanazzulga yuz tutgan. Xonlar siyosati-yu, shariat idorasi uni qayta oyoqqa qo'yishga qobil emas. Binobarin Movarounnahr bizga o'rnak bo'la olmaydi.

Marjoniy o'z kitobini Buxoroda qattiq sir saqladi. Chunki Qursaviy taqdiri undan g'oyat ehtiyotkor bo'lishni talab qilardi. Asarning ko'chirilgan bir nusxasi Buxoroda 1849-yilning iyun oylarida Marjoniy xonlik sarhadidan chiqib, Oqtepa (Aktyubinsk)ga yaqinlashib qolgandagina ma'lum qilindi. Lekin kitobning shuhrati Qozonga Marjoniydan ancha oldin yetib bordi. Tatariston shaharlarida shov-shuv boshlandi. «Muqaddas Buxoro»ni himoya qiluvchi o'nlab asarlar maydonga keldi. Qozon imomi Muhammad Shokir «tahqirlangan» Buxoro haqida «Almaqolatil zohirati fi ahvol-al baldat-ul foxirati» (Faxrli shahar haqida hayajonli nutq) nomli sharafnoma yozdi. Lekin Marjoniy haq edi. Bu kitob tatar ziyolilarining qarashlarida keskin o'zgarish yasadi. Buxoroga intilish deyarli so'ndi. Madaniyat va maorifni zamon talablariga binoan qayta qurib chiqqan, «tanzimot»ni amalga oshirgan Istanbulning mavqei o'sa boshladi.

Marjoniy 1849-yilning 21-mayida yana o'sha Muxtor binni Muhtaram karvoni bilan Qozonga yo'l oldi.

Qozonning janubida Qobon ko'li bo'yida istilodan keyin birinchi qurilgan masjid bor. U Qayum Nosiriy ko'chasida joylashgan. Masjid inqilobdan ancha ilgari Marjoniy nomiga qo'yilgan. Ikki ulug' zamondosh nomi va xotirasi hozirgacha yonma-yon keladi. Marjoniy 1849-yilda mana shu masjidda Qozonning eng mashhur olimlari bilan savol-javob o'tkazadi. Buni dovrug'li boy Ibrohim Yunusov tashkil qilgan edi. Imtihonda Marjoniy g'olib chiqadi va Qozon ulamosining «imom-al-alloma» (allomalar peshqadami) deb tan olinadi va shaharning eng obro'li jome va madrasasiga ishga taklif qilinadi.

Marjoniy madrasa o'qituv sistemasida bir qator o'zgarishlar yasaydi. Madrasa dasturini qayta ko'rib chiqadi. Unga tabiiy fanlar va rus tilini kiritadi. 1876-yilda Qozonda «rus-tatar o'qituvchilar maktabi»ning ochilish marosimida birinchi nutqni so'zlaydi. Bu yo'ldagi qarshiliklarni sabot bilan yengadi. Uning Qozondagi ilk o'quvchilaridan Husayn Fayozxonov (1828—1866) Peterburg universiteti o'qituvchisi darajasiga ko'tariladi. V.V.Velyaminov-Zernov, V.V.Stasov, Ch.Valixonovlar bilan hamkorlik qiladi. Marjoniy Qozondagi «Tarix, arxeologiya, etnografiya jamiyati»ga a'zo qilib saylanadi. Jamiyatning 1877-yildagi IV Butunrossiya s'ezdida Bulg'or va Qozon tarixiga bag'ishlangan dokladi bilan qatnashadi. Dokladni akademik V.V.Radlov rus tiliga tarjima qiladi. Fotih Amirxon uning faoliyatini «fanga xizmatning buyuk namunasi», deganida haq edi.

Marjoniy o'nlab asarlar qoldirgan. Ularga V.V.Velyaminov-Zernov, V.V.Radlov, P.F.Katanov, I.F.Gotvald, E.Malov kabi taniqli sharqshunoslar yuksak baho berganlar. Marjoniy asarlarining deyarli hammasi («Mustafad-ul axbor...»dan boshqa) arab tilida. U asosan tarixchi olim va faylasuf. Garchi u o'z qarashlarida revolyutsion-demokrat bo'lmasa-da, Dog'iston xalqlarining ozodlik kurashlariga xayrixoh bo'lgan, Shomil bilan yozishmalar olib borgan kishi edi. Sharq tarixi ilmida tahliliy-analitik yo'lni boshlab berganlardan edi. Uning «Mustafad ul-axbor...» asari O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganishda ham qimmatli materiallar bera oladi. Ayniqsa, undan o'rin olgan «Fasl fi davlati manqitiyai Buxoro» bobida tasvirlangan voqealarning bir qanchasiga muallifning guvoh bo'lganligini va mutlaqo xolisona yozilganini xotirlasak, uning ahamiyati qay darajada ekanligini tasavvur qilish qiyin emas. 643-1889-yillarda yashab o'tgan 6057 madaniyat va fan arboblari faoliyatiga bag'ishlangan «Vafiyyat-ul axlof...»dan 1-Pyotr va Napolyon bilan bir qatorda Ibn Sinodan Nodirabegimgacha bo'lgan O'rta Osiyodan chiqqan olim va shoirlar haqida ham ma'lumot berilgan. Umuman, Marjoniy va O'rta Osiyo tarixi masalasi har jihatdan o'rganishga sazovor masaladir.

9. Ey Qozon, dardli Qozon, mungli Qozon, nurli Qozon...

Abdulla To'qay

Bu shaharda Sharq va G'arb o'zining ajib bir uyg'unligini topgan. Bir tomonda kungurador, sharqona minoralar. Bir tomonda Qarbning, lekin qaynoq, o'ynoqi hislar uyg'otuvchi «barokko» uslubidagi binolar. Ular qadimiy Qozonning kechmishi haqidagi yuzlab xotiralar bilan to'la. Ular Ivan Grozniy, 1-Pyotr, 2-Yekaterina, 2-Nikolay kabi rus podshohlarini ko'rganlar. Ular Aleksandr Dyuma, Oiganes Bexer, Villi Bredillarning tarjimai hollarida o'z izlarini qoldirgan. Bu shaharda G.R. Derjavin voyaga yetgan, A.N.Radishchev Sibir surguniga borish va qaytishda to'xtab o'tgan. 1833-yilning sentabrida bu yerga «Kapitan qizi» qahramonini izlab A.S.Pushkin kelgan. Qozon o'zining taqdiri va farzandlari haqida hayajonli maqolalar bilan chiqishgan A.I.Gersen, N.G.Chernishevskiy xotiralarini ham ardoqlab keladi. Mashhur Lev Tolstoy, Maksim Gorkiy va Mayakovskiylarining hayot va ijodlaridagi muayyan sahifalar Qozon bilan chamabarchas bog'liq. Darhaqiqat, bu shaharning har bir qadami tarix... Lekin Qozonda shunday bir mo''tabar dargoh borki, unga kelgan sayyoh bu yerda, albatta, bir to'xtab o'tadi. Bu «Qozon iftixori» (V.V.Mayakovskiy) — Qozon davlat universiteti. Qozon universiteti Ittifoqdagi eng keksa universitetlardan. U 1804-yilda ochildi va o'lka ijtimoiy fikr taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi. U ilm-fan rivojida ham juda katta xizmat qildi. N.I.Lobachevskiy matematika taraqqiyotida buyuk hodisa hisoblangan «Noevklid geometriya»ni shu yerda taklif etdi. N.N.Zinin, A.M.Butlerov singari mashhur olimlar ximiklar maktabiga asos soldilar. 1853-yilda universitet xonalari va maydonchalarida birinchi marotaba elektr lampochkalari paydo bo'ldi. Astronom I.M.Simonov 1819—1821-yillarda butun dunyoni aylanib chiqqan Bellinsgauzen ekspeditsiyasida qatnashadi. Universitetda I.M.Sechenov, V.M.Bexterov kabi taniqli mediklar ish olib bordilar...

Qozon o'tgan asrning o'rtalariga qadar rus sharqshunoslik fanining asosiy markazi edi. Universitetning Rossiyada yagona bo'lgan Sharq bo'limi (u 1856-yilda Peterburgga ko'chirildi)

qoshidagi iste'dodli rus sharqshunoslari, mahalliy olimlar Sharq tarixi va madaniyatiga oid yuzlab nodir asarlarni to'pladilar. Va atroflicha o'rganib, nashr ettirdilar.

10. Universitet kutubxonasida

Qozonda 400 kutubxona bor. Ulardan ikkitasi hamisha kitobxonlar bilan liq to'la bo'ladi. Bular respublika va universitet kutubxonasidir. Respublika kutubxonasi universitet bosh korpusining yonginasida, noyob arxitektura binosida joylashgan. Naql qilishlaricha, bino inqilobga qadar Zinaida Ushkova degan ayolga taalluqli bo'lib, savdogar tog'asi tomonidan kelinlik to'yiga hadya qilingan va bir million so'm baholangan ekan. Darhaqiqat, uning bezak va sayqallari kishini hayratga soladi. Universitet kutubxonasi o'quv yurti hovlisida joylashgan. Bu binodagi hovlilarning deyarli hammasi o'tgan asrda qurilgan. Ular o'nlab kashfiyotlarga guvoh bo'lganlar, yuzlab iste'dodlarning uyqusiz tunlarini sukut bilan kuzatganlar. Devorlardagi memorial yozuvlar... Ular g'oyat qisqa va sodda. Lekin ular zamirida qanchadan-qancha izlanishlar, mashaqqatlar yotadi...

Universitet kutubxonasi ittifoqda mashhur. U 1809-yilda tashkil qilingan. Uning hozirgi binosi XIX asrning 30-yillarida rektor N.I.Lobachevskiyning bevosita rahbarligi ostida qurilgan. Bu mashhur olimning o'zi bir necha yillab unda kutubxonachilik qilgan. Naql qilishlaricha, u universitet hujjatlariga «rektor-bibliotekar N.I.Lobachevskiy» deb imzo chekarkan. Hozir kutubxonada 4 milliondan ortiq kitob bor. Ulardan o'n mingtasi nodir kitoblar sanaladi. Bularning aksariyati Sharq qo'lyozmalaridir.

1800-yilda Peterburgdagi «Aziatskaya tipografiya» Qozonga keltirildi. So'ngroq uning stanoklari yangi tashkil etilgan universitetga ko'chirildi. Sharq manbalarini to'plab nashr etish boshlandi. Qator rus olimlari bilan birgalikda ota-o'g'il Xalfinlar, Abdulallom Fayozxonov, Muhammadali Mahmudov kabi mahalliy ziyolilar ham bu ishda katta xizmat qildilar. XIX asrning oxirlarida Qozon bosmasining dovrug'i butun sharqqa yoyilgan edi.

Darhaqiqat, kutubxonaning Sharq bo'limi ancha boy. Ayniqsa, uning Gotvald, Said Vohidov fondlarida nodir kitoblar ko'p (prof. I.V.Gotvald, S.Vohidov – sharqshunos olimlar, ular o'z shaxsiy kutubxonalarini universitet bibliotekasiga in'om etganlar). Ibn Sino, Mansur Halloj asarlarining jahon kutubxonalaridagi noyob qo'lyozma nusxalari barmoq bilan sanarlik. O'sha «qizil ro'yxat»da bu kutubxona ham bor. Tatarlar orasida o'rta asrdagi buyuk vatandoshlarimizdan Ibn Sinodek mashhur ikkinchi bir kishini topish qiyin. U haqda yuzlab hikoyat va latifalar yaratilgan. 1863-yilda Qozonda Said Yahyo Ziyouddinning usmonli turk tilida yozilgan «Ganjinai hikmat» asari nashr qilindi. Unda Ibn Sino haqida Sharqda mashhur bo'lgan hikoya va rivoyatlar bir syujet atrofida uyushtirilgan edi. 1872-yilda taniqli ma'rifatparvar olim Qayum Nosiriy uni «Abu Ali Sino hikoyati» nomi bilan erkin tarjima qilib bosdirdi. Asrimiz boshlarida, 1900, 1912-yillarda esa Shihobiddin Rahmatullin ulug' hakim haqidagi hikoyalarni qayta ishlab nashr etdi. Kutubxonadagi Movarounnahr bilan aloqador kitoblar ro'yxatini ko'zdan kechirarkansiz, jahongir Temur haqidagi asarlarga ham duch kelasiz. Uning hayoti, qilmishlari va yurishlari haqida ko'plab rivoyat va afsonalar to'qilgan. So'ngroq ular asosida tarix kitoblari tuzilgan. O'tgan asrda ularning ba'zilari bir necha marta nashr etilgan.

Muslimiy «Risolai tavorix...» asarini 1552–1582-yillarda yozganini aytadi. Ammo Marjoniydan tortib bugungi tatar tarixchilaridan M.Usmonovgacha bu fikrni inkor etadilar va kitobning XVIII asrda yozilganligini taxmin qiladilar. Haqiqatan ham, unda yanglish fakt va voqealar haddan tashqari ko'p. Chunki u rivoyatlar asosiga qurilgan. Kitobda Bulg'or shahrining xarob qilinishi Temur nomi bilan bog'lanadi va u dunyo xalqlarini to'g'ri yo'lga solish uchun Alloh tomonidan yuborilgan payg'ambar sifatida talqin qilinadi. «Temurning Bulg'orni xarob etishi bizning tatarlar orasida keng tarqalgan yanglish fikr, tarixiy g'alat», deb yozadi tatar adabiyotshunosi Ali Rahim. Olimning fikricha, uni vayron qilgan Saroy xoni Po'lat Temur. Xalq xotirasida u Temurlang bilan chalkashib ketgan. Xalq uni temurlarning mashhurrog'iga bog'lagan. Ibrohim binni Ishoq Xalfin nashrga tayyorlagan ikkinchi asardagi voqealar Mus-

limiynikidan kam farq qiladi. Bunda ham tarixiy chalkashliklar, xatolar haddan tashqari ko'p (garchi bu ham tarix deyilsa-da). Jumladan, uning tug'ilishi, oqsoqligi shunday naql qilinadi. Hindiston shahrining podshosi Chingizxonning o'g'li Jidayxon (Chig'atoyxon demoqchi bo'lsa kerak) bir kuni qo'rqinchli tush ko'radi. Tushining ta'birini so'raydi. Hakimlar uning o'limini bashorat qiladilar. «Olmaliq ovulida Tarag'ay nomli bir kishi bor, — xotini homilador, sening o'liming o'sha tug'ilajak bola qo'lida» deb aytadilar. Xon ona qornidagi bolani ezib o'ldirishga farmon beradi. Ona azobga chiday olmay hushidan ketadi. Xizmatkorlar homilaning o'lganligiga ishonch hosil qilib uni tashlab ketadilar. Biroq bola chalajon bo'lib tug'iladi. Atrofdagilar undan xabar topadilar. Go'dakning bir oyog'i tamom majruh bo'lgan edi. Uni «shuncha balodan omon qolibdi, joni temirdan ekan» deb Temur nomlaydilar... U yetimlikda katta bo'ladi, podachilik qiladi. O'zining g'ayrati va aqli bilan e'tibor topadi (bularni izohlovchi hikoyalar keltirilgan). So'ngroq askar to'plab zolim Jidayxonni o'z qo'li bilan o'ldiradi. Va yurishlarini boshlaydi. Ko'ringanidek, bu Iskandar haqidagi Sharqda keng tarqalgan rivoyatlarni esga tushiradi.

Uchinchi asar xalq hikoyalari shaklida. Unda naql qilinishicha, Temur Mahmudxonning bahodiri Ahmadshohning o'g'li. 15 yoshida u pahlavon bo'lib yetishadi. Tengdoshlari u bilan o'ynamay qo'yadilar. Negaki, u qaysi birining qo'lini yoki oyog'ini hazillashib tutsa, bexosdan uzib olib qo'yardi. Vazirlar uning ustidan shikoyat qiladilar. Xon uni mamlakatdan chiqarib yuboradi. Unga Xizr uchrab ot beradi. Shundan so'ng u dunyodagi o'lkalarni zolim podshohlardan xalos etib, haqiqat va adolatni qaror toptiradi. Iskandarning qizi Zaynabga uylanib, tinchlik-osoyishtalikda, rohat-farog'atda umr o'tkazdi. Ma'lum bo'lganidek, hikoyat Temur haqidagi haqiqatan juda yiroq bo'lib, unda Sharq dostonchiligiga xos bo'lgan odil shoh g'oyasi ilgari surilgan. Adabiyotdagi Iskandar obrazi shunday g'oyani tashishini bilardik. Biroq shunga yondash Temur obrazi ham mavjudligi uchramagan edi.

«Boburnoma» birinchi marotaba Qozonda bosilgan. Uni turkolog N.I.Ilminskiy 1857-yilda nashrga tayyorlagan edi. Shuning uchun ham Bobur haqidagi qaydlar, uning asarlaridan

ba'zi ko'chirmalar kutubxona arxivida bugungi kungacha ardoqlab saqlanayotganidan ajablanmadik. Ammo bir narsa diqqatimizni o'ziga jalb qildi. Bu Boburning o'g'li Komronga yozgan xatining ko'chirilgan nusxasi edi.

«Boburnoma»da bir ko'ngilsiz hodisa munosabati bilan 933-yilning rabiul avvalida (1526-yil dekabr) Humoyun va Komronga xat yozilgani aytiladi. Kobulga Humoyunga yuborilgan xat matni kitobda keltirilgan. Biroq Qandahorga Komronga yuborilgan xat berilmagan («Boburnoma»ning 1960-yil Toshkent O'zFA nashrini ko'zda tutyapmiz). Bobur xat bilan birgalikda Ibrohim Lo'dining o'g'lini ham Komron yonidan kelgan Mulla Sarsonga qo'shib yuborganini aytadi. Binobarin, bu mazmuniga ko'ra o'sha 933-yil rabiul avval oyining 29 ida payshanba kuni (1527-yil 4-yanvar) yozilgan xat bo'lishi kerak.

Qozon matbaasi ishga tushgan birinchi kunlardanoq chig'atoy-o'zbek madaniyati namunalarini nashr ettirishga katta e'tibor berilgan. Masalan, Majlisiyning «Qissai Sayfulmuluk» asari 1807-yildayoq bosmadan chiqqan edi. «Qissasi Rabg'uziy» 1809—1910-yillarda salkam o'n marta nashr qilingan. Marjoniy sevib o'qigan, safarlarida doimo birga olib yurgan Abulg'ozi Bahodirxonning «Shajarai turk»i 1825-yilda turkolog S.M.Frenning lotincha so'zboshisi bilan bosilgan. 1891-yilda Abdulallom Fayozxonov qayta nashr ettirgan. Bir yil oldin esa «Zarbulmasal» «Umarxon asrida turg'uvchi Mullo Gulxaniy degan shoirning tasnif qilg'on kitobi» degan izoh bilan bosmadan chiqqan edi. «Zarbulmasal»ning keyingi barcha nashrlari uchun xuddi shu bosma manbai asos qilib olingani barcha mutaxassislarga ayon. 1905—1907-yillarda Sobir Sayqaliyning she'rlari va «Bahrom Gulandom» dostoni «Devoni Sayqaliy», «Qissai Bahrom» nomlari bilan nashr etildi.

Kutubxonadagi qo'lyozma va nashriy nusxalar orasida Navoiy «Devon»i (1568—69-yillarda ko'chirilgan), «Xamsa»si («Maxzanul asror» nomi bilan bosilgan, nashr yili va o'rni noma'lum), «Mahbubul qulub» (Istanbul bosmasi), «Kitobi Shoh Mashrab» (1828-yil, Qozon, 1893-yil Toshkent nashrlari), Muhammad Solihning «Shayboniynoma»si (1904-yil, SPb nashri), «Temur tuzuklari» (1980-yil, Toshkent, Ostroumov nashri), Pahlavon Niyoz Mirzoning «Devon»i (1895-yil, Xiva

nashri), Haydar Xorazmiyning «Maxzanul asror»idan ko'chirmalar, «Boburnoma» haqidagi qaydlar ham alohida o'rin egallaydi. Ular bilan birgalikda Yassaviy «Hikmat»lari, Sulaymon Boqirg'oniyning «Boqirg'on kitobi», «Oxir zamon», So'fi Olloyorning «Murodul orifin», «Sabotul ojizin» kabi asarlarining o'nlab qo'lyozmalari va bosma nusxalari, ularga bitilgan sharhlar ham mavjud. Bular juda keng tarqalgan. Tatarlar orasida yassaviychilik va naqshbandiylikning bu qadar keng yoyilishiga asosiy sabab, tatar adabiyotshunoslari Aziz Ubaydullin va Ali Rahim to'g'ri ta'kidlaganlaridek, O'rta Osiyo adabiyoti bilan tanishlikning ko'proq mullalar, hajdan qaytuvchi hojilar orqali bo'lganligidadir.

Kutubxonadagi xalq og'zaki ijodiga oid materiallar shuni ko'rsatadiki, o'zbek va tatar folklori o'rtasida mushtarak jihatlar juda ko'p. Sharq motivlari, jumladan, chig'atoy-o'zbek adabiyotidagi xalq dostonlari, rivoyat va afsonalari, latifalari asosida vujudga kelgan qissa va hikoyatlar uzun bir ro'yxatni tashkil qiladi. Bular «Yusuf va Zulayho», «Tohir va Zuhra», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Oshiq G'arib», «Bo'z yigit», «Qissai Alfamsho» (Alpomish), «Gavhar toj», «Do'xtari sultoni Kashmir», «Latoyifi Xo'ja Nasriddin», «Hikoyati Go'ro'g'li sulton», «Malika kitobi», «Qissai Iskandar Zulqarnayn», «Qissai Navro'z», «Hikoyati Temirshoh» va hokazolar. Bularning hammasi qayta-qayta nashr etilgan. Masalan, Ahmad Qurmashiy varianti asosida nashrga tayyorlangan «Tohir va Zuhra» qissasining kutuxonada 1870—1917-yillarda bosmadan chiqqan 13 nashri mavjud.

Tatar yozma adabiyotining namunalari orasida «Sayohatnomalar» tipidagi asarlar ko'p uchraydi. Ular aksari nasriy bo'lib, uchtasi bevosita Turkiston sayohati xotiralari bilan bog'liq. Ulardan eng eskisi «Ismoil ota sayohati»dir. Hoji Ismoil Bekmuhammad o'g'li 1752-yilda Buxoroga safar qilgan va bu yerda bir qish turgach, Hindiston, Qandahor, Arabiston, Misr o'lkalarida borgan va yo'l taassurotlarini yozib qoldirgan. 1862-yilda sharqshunos N.I.Ilminskiy uni «Ikki Hojining rihlatnomalari» nomi bilan bosdirgan.

Taniqli tatar yozuvchisi Zohir Bigiyev (1870—1902) 1893-yilda Samarqand va Buxoroni kelib ko'rdi. Turkistondagi feodal

tartiblar, jaholat, mahalliy va kelgindi chinovniklarning beboshligi yevropacha ta'lim-tarbiya olgan ma'rifatparvar adibni larzaga soladi. Uning mazkur masalalar haqida bahs ochuvchi jo'shqin publisistik ruhda yozilgan «Movarounnahr sayohati» asari har jihatdan ahamiyatli bo'lib, Abdulla To'qay va Fotih Amirxonlar tomonidan yuksak baholangan edi. Kitob 1906-yildagina nashr etildi.

Uchinchi sayohatnoma Qosim Bekqulovning «Turkiston» (1908-yilda nashr qilingan) asari bo'lib, unda XIX asrning 60-yillaridagi voqealar aks ettirilgan. Muallif o'z asarini roman deb atagan. Lekin u roman emas, tarixiy ocherk xarakteridagi bir asar. Unda Turkistonning Rossiya istilosi arafasidagi hayotidan bir lavha keltirilgan. 1860-yil 15-avgustda 8 nafar qora no'g'ay (hozirda Dog'iston ASSR hududida yashovchi millat) Kaspiyning g'arbiy qirg'og'idagi Qizil Yar (jar) qo'ltig'ida Tulep orolida baliq ovlash uchun dengiz ichiga kiradilar. Nogahon dovul turadi-yu kema yelkanidagi arqonlar uzilib ketadi. To'lqin kemani o'z izmiga oladi. 8 baliqchi bir kecha-kunduz dovul bilan kurashadilar. Shamol ertasi tunga borib tinadi. Holdan toygan baliqchilar yarim-yorti tamaddi qiladilaru uyquga ketdilar. Tong otadi. Fojiani shundan keyingina anglab yetadilar. Suv pastga qaytib ketgan. Kema qamishlar bilan qaplangan balchiqda yonboshlab yotar, 15—20 chog'li qurollangan kishilar ular tomon kelishardi... Dovul ularni Kaspiyning qarama-qarshi qirg'og'iga — Xiva xonligiga qaram joylarga keltirib tashlagan edi. Baliqchilarning qo'l-oyoqlari bog'lanib, haydab ketiladi. Ularning ichidagi 2 yosh yigitni bichadilar, bir keksasini yo'lda tashlab ketadilar, qolganlarini esa Xiva bozoriga haydaydilar. Qul bozorining tasviri, asirlarning buxorolik savdogarga sotilishi voqealari Ayniyning mashhur romanidagi tanish manzaralarni esga tushiradi.

O'zbek-tatar adabiy aloqalarini o'rganuvchi kishiga tatar she'riyatida keng tarqalgan «baytlar» ham anchagina material bera oladi.

Bayt tatar va boshqird adabiyotida alohida poetik janr sifatida qaraladi. Boshqird adabiyotshunosi Axnaf Xarisov baytning janr xususiyatlari haqida to'xtalib, uni folklor janrlaridan ajratib oladi va «xalq bilan bayt orasida «kitob madaniyati» yotadi»

degan fikrni ilgari suradi. Ya'ni uning ijodkorlari o'qiy olgan va yoza olgan kishilar bo'lganlar. Baytlar asosan Sharq adabiyoti namunalarini ko'chiruvchi kotiblar, ustoz va shogirdlar tomonidan yozilgan. Ular ko'pincha yarim diniy, yarim dunyoviy mazmunda bo'lib, o'qilgan yoki ko'chirilgan kitob hoshiyalarida yozib qoldirilgan. Ular orasida Sa'diy «Guliston»i, Navoiy «Chor devon»i ta'sirida maydonga kelganlari juda ko'p. Hatto Navoiyning ba'zi satrlari deyarli o'zgarishsiz holda uchraydi:

Sen qachon deding: fido bo'lg'il — fido bo'ldim senga,
Men qachon dedim: fido bo'lg'il — zulm aylading menga.

Baytlar orasida safar taassurotlarini ifodalovchilari ham bor.

11. Istiqbolga yo'l izlab

O'tgan asrning 60-yillarida Qozon Rossiya ozodlik harakatining markaziga aylandi. A.I.Gersenning Londonda chiqargan varaqalari Qozondagi yashirin to'garak a'zolari qo'lida paydo bo'ldi. Peterburg, Moskva, permlik revolyutsionerlar bilan aloqalar yo'lga qo'yildi. «Yer va erk» jamiyatining Qozon bo'limi hatto muntazam suratda yashirin varaqalar bosib tarqata boshladi. Tarixchi A.P.Shchapovning universitetdagi faoliyati Qozondagi inqilobiy-demokratik harakatchilikda yangi sahifa ochdi.

Olis O'rta Osiyoda esa istilochilik kurashlari davom etar edi. Chor hukumati Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklarini zabt etishga qaratilgan rejalarini g'oyat uddaburonlik bilan amalga oshirar edi. 1876-yillarga kelib Rossiya O'rta Osiyoni tamoman bosib oldi. Turkiston general-gubernatorligi tashkil qilindi. Hozirgi O'zbekiston chegarasida Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona viloyatlari paydo bo'ldi. Krasnovodsk — Samarqand (1888-yil), Samarqand — Andijon (1889-yil) temir yo'llari qurildi. 1906-yilda Orenburg — Toshkent temir yo'li ishga tushdi. Volga va Turkiston orasidagi yo'lovchining sillasini quritadigan karvon yo'li azoblari barham topdi. 1787, 1896, 1911-yillarda Rossiyaning juda ko'p gubernalarida hosil bitmadi. Shu jumladan, Volga va Ural bo'ylarida ham ocharchilik yuz berdi. Najot izlagan odamlar to'dasi O'rta Osiyo tomon oqa boshladi. XX asr

boshlarida Turkistonning ko'pgina shaharlarida tatar oilalari, ba'zan ixcham mahallalari mavjud edi. Ularning bir qismi savdo va tahsil vajidan kelib qolgan bo'lsa, ko'pchiligini yuqoridagiday og'ir, sertashvish yillar olib kelgan edi. Qolaversa, chor mustamlaka apparatida tatar ziyolilaridan tarjimon sifatida foydalanishga talab katta edi. Asrimiz boshlarida o'lkada milliy-madaniy ko'tarilish, fikriy uyg'onish paydo bo'ldi. Bu mashhur 1905-inqilobidan keyin boshlandi. U faqatgina Turkistonni emas, balki butun Rossiyani tub-tubigacha chayqatib yubordi.

Biz Beshinchi yilda bir kun ko'zni ochdik tong bilan,
Ishga da'vat etdi bizni kimdir ezgu nom bilan, –

deb yozgan edi u davrning zabardast vakillaridan Abdulla To'qay. Uning Turkistondagi otdoshi va zamondoshi Avloniyning tarjimai holida o'qiymiz:

«1905-yildagi Rusiyada boshlangan inqilob to'lquni bizga ham zo'r ta'sir qildi. Siyosiy maslaklarqa tushunib, birinchi navbatda qora xalqni oqartirmoq va ko'zin ochmoq chorasiga kirishdik...».

Darhaqiqat, Turkiston xalqining ilg'or ziyoli qismi ijtimoiy hayotga faol aralasha boshladi. Taqdir taqozosi bilan Toshkentning ruslar yashaydigan Mirobod mahallasida, «masteravoylar» orasida o'sib-ulg'aygan Avloniyning yuqoridagi fikrlari bejiz emas edi. Shoir avtobiografiyasini o'qishda davom etamiz. «1906-yilda «Taraqqiy», «Xurshid» gazetalari chiqib, eski hukumat tomonidan to'xtatilg'ondan so'ng 1907-yilda men o'z muharrirligim bilan hamda temir yo'l ishchilarining sotsial-demokrat firqasining aloqa va yordami bilan «Shuhrat» ismindagi gazetni Sapyorniy ko'chada chiqardim. 10-no'merinda «Shuhrat» gazetasin tamom nimarsalarin bilan idoradagi xat va qog'ozlar bilan musodara qilub, «chrizvichayni oxran» kuchi bilan chiqarmasqa mendan imzo olub to'xtatti. «Yiqilg'on kurashga to'ymas» degandek, 1908-yilda yozuvchilarimizdan Ahmadjon Bektemirov nomiga «Oziyo» ismli gazetga ruxsat olub, idorani o'z uyimga ko'chirub, yana chiqara boshladim. 6-no'merinda... buni ham musodara qilub, berkitub ketdi».

Bu ruh adabiyotga, badiiy ijodga o'ta boshladi. Mashhur Hamza o'z tarjimai holida shunday yozgan edi: «1908 yilda Namangan(ga) borib, yetti-sakkiz oy tahsil etganimdan so'ng, hozirgi maorif (Namanganda) rahbari Abdulla To'qmullin bilan tasodif etib, undan yaxshi rahbarliklar oldim. Ul mening qo'limda o'z qalamim bilan (yozilg'on) yuz sahifadan ortiqroq eski usul(aruz)dagi she'riy yozmalarimni ko'rib, tarbiyaga kirishdi... 1905-yil rabochiy inqilobini ham shunda o'rgandim. Qo'l matbaasi bilan mayda risolacha, e'lonlar chiqarib turuvchi bir tatar yigiti bo'lib, men har haftada birinchi uning bilan suhbat qilar edim. Ul meni xili dardlagan bo'lsa kerak, shul kundan boshlab eski podsholar turmushidan bir «haqiqat kimda?» ismli operali bir roman yozgan edim... Bundan buyongi she'rlarim milliy va inqilobiy tuslarin ola boshladi.»

Maktab-maorif sistemasida keskin o'zgarish yuz berdi. «Usuli savtiya», «usuli jadid» nom olgan qisqa muddatli xatsavod chiqaruvchi yangi usuldagi maktablar paydo bo'ldi. Ayniqsa, mana shu yangicha maktablarning tashkil topishida tatarlarning xizmati katta bo'ldi. 1910-yilda Qo'qonda bo'lgan Ikkinchi va Uchinchi Duma deputati Sadri Maqsudiy «Vaqt» gazetasiga bergan intervyusida shahardagi 16 yangicha maktabning yarmida «no'g'oylar» dars berishini, qolganlarida muallimlar «sartlar» bo'lsa-da, «no'g'oy maktabi» deb atalishini aytadi. Darhaqiqat, Turkistonning juda ko'p shaharlarida yangicha maktablar tatar (no'qoy)larga nisbat berilganki, bu bejiz emas.

Birincha sahna asari «Mahramlar» (Abdurauf Samadov — Shahidiy asari) 1911-yilda yozilib, 1912-yilda nashr ettirilgan. Xalq sahna teatri esa qadim-qadimlardan mavjud bo'lgan. 1905-yildan keyin o'lkamiz madaniy hayotining barcha jabhalarida siljiz yuz berganidek, teatr ishlarida ham jonlanish ko'zga tashlandi. Bunda ham tatar ziyolilarining ma'lum xizmatini ta'kidlash kerak bo'ladi. Ma'lumotlarga ko'ra, Turkistonda yashovchi tatar havaskorlari 1904-yildanoq tatarcha spektakllar qo'ya boshlaganlar. 1905—1917-yillar oralig'ida o'lka bo'ylab o'nlab tatar havaskor teatrlari ish olib borgan. Mashhur tatar dramaturgi Aliasqar Kamolning «Birinchi teatr», «Dajjol», ozarbayjon adibi Najafbek Nazirovning «Musibati Faxriddin» kabi asarlari sahnalashtirilgan. 1911-yilda Ilyosbek Oshqozorskiy rahbarligida

professonal tatar truppasining Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Buxoroda bo'lishi ham o'lkada mahalliy teatrchilik ishlarining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu aloqalar davomida o'zbek va tatar san'atkorlari o'rtasida do'stlik, hamkorlik paydo bo'ldi. Jumladan, Zaki Boyazidskiy bilan Abdulla Avloniy orasidagi munosabatlar buning yorqin dalilidir. Ular orasidagi samimiy do'stlik o'lkadagi ilk teatr truppasi «Turkiston»ning maydonga kelishi bilan boshlangan edi. Masalan, ularning o'zaro hamkorligi orqasida truppa 1914-yilda Qudratilla ibn Nusratillaning «To'y» dramasini sahnalashtirgani ma'lum. Unga Zaki Boyazidskiy rejissyorlik qilgan. Avloniy esa undagi bosh rol Alimboyni ijro etgan edi.

Bugina emas, Avloniy peshqadam tatar dramaturgiyasiga murojaat etdi. Eng yaxshi asarlarni tanlab, tarjima qildi va sahnalashtirdi. Aliasqar Kamolning «Badbaxt kelin», «Hamshaharlik manzili» nomlari bilan «Turkiston» sahnasida muvaffaqiyatli qo'yilgan «Uch badbaxt», «Bizning shahar sirlari» dramalari shular sirasidan edi.

1912-yilda Qosim Shomilning «Nur» truppasi Turkistonda bo'ldi va qator spektakllar ko'rsatdi. Truppa a'zosi, birinchi tatar aktrisasi mashhur Sohibjamol Izzatullina — Voljskaya o'z xotiralarida shunday yozgan edi: «Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Eski Buxoro va Chorjo'yda bo'ldik. Bu vaqtlarda o'zbeklar teatr degan narsani bilmas edilar. Shuning uchun ham biletlarni aylanib, qo'lda sotishga to'g'ri keldi. Buxoroda ishimiz juda ham qiyin ko'chdi». 1912—14-yillarda tatar ashulachisi Komil Mutiqiy Turkistonda gastrolda bo'ldi. Hamza bilan uchrashdi. Hamza Komil Mutiqiy kuylariga muvofiq she'rlar yozdi.

Orenburg va Qozonda chiqib turgan tatar vaqtli matbuoti, xususan, musulmon sharqida obro'si juda baland bo'lgan «Vaqt», «Sho'ro», «Ong» kabi gazeta-jurnallar Turkiston hayotiga oid masalalarga katta e'tibor bilan qaradi. 1910-yil 9-yanvarda Buxoroda shialar va sunniylar o'rtasida janjal chiqdi. 10-yanvar kuni jazavaga tushgan mutaassiblar mashhur «Xiyobon»da to'plandilar. Xunrezlik boshlandi. O'nlab norasida go'daklar, xotin-xalaj, qari-qartanglar oyoq ostida qolib ketdi. Amir Abdulahad esa bu paytda taxti saltanatining 25 yillik yubileyini nishonlash uchun Peterburgga, imperator huzuriga shoshardi.

Vaqtli matbuot, ayniqsa,Markaziy Rossiyadagi musulmon matbuoti Buxoro fojiasini barcha tafsilotlari bilan yoritib bordi. «Vaqt» gazetasining maxsus muxbiri Burhon Sharaf Buxoroda bo'lib, «Buxoro maktublari» nomi bilan turkum maqolalar e'lon qildi va mazkur voqeaning tub sababi amirlik davlat siyosatining inqirozi degan fikrni aytdi.

1916-yil voqealari boshlandi. Tubjoy aholini mardikorlikka olish haqidagi 2-Nikolayning 25-iyun farmoniga qarshi norozilik harakatlari avj oldi. 11-iyulda Toshkentning Beshyog'ochidagi politsiya boshqarmasi oldida qonli to'qnashuv bo'lib o'tdi. Qisqa muddat ichida xalq g'alayonlari butun o'lkani qamrab oldi. «Turkistonda yer titragandek bo'ldi. Xalq bosh ko'tarib yon-atrofiga qaradi. Bu Turkiston uchun 1905-yil bo'ldi», — deb yozgan edi «Vaqt» muxbiri Sh. Muhammadyorov o'zining «Turkiston maktublari» nomli maqolasida. Shuningdek, «Sho'ro», «Ong» jurnallari ham bu o'lkaning o'tmishi, o'sha kungi ahvoli haqida qiziqarli materiallar berib bordi. Rizo Faxriddin («Sho'ro» muharriri), Fotih Karimiy («Vaqt» muharriri) kabi tatar matbuotining ko'zga ko'ringan namoyandalari ham Turkiston mavzuidagi maqolalari bilan chiqib turdilar. Xususan, Rizo Faxriddin (1858—1936)ning nomi O'rta Osiyoda juda mashhur edi. «Asma yoki a'mol va jazo», «Salima» kabi ma'rifatchilik ruhidagi qissalarning muallifi Rizo Faxriddin Sharq tarixi va falsafasining ulkan bilimdonlaridan edi. Uning «Mashhur yerlar» rubrikasi ostida chiqqan o'nlab kitoblari, iste'dodi bilan shuhrat topgan Sharq va G'arbning mingdan ortiq donishmand olima va shoiralari haqida bahs ochuvchi «Mashhur xotinlar» (1908) asari turkistonlik ziyolilarga yaxshi tanish edi. Zebuniso begim (1639—1702), Nodira (1792—1842) kabi mashhur qalam egalaridan tortib Kleopatragacha ma'lumot beruvchi bu asarda tadqiqotchi 28 tarixiy manbadan — Shamsiddin Somiy (1850—1904)ning 6 jildlik «Qomus-ul a'lom»idan, Yoqut Hamaviy (1179—1229)ning 10 jildlik «Mu'jam-ul buldon»(Mamlakatlar lug'ati»)-gacha foydalangan edi. «Bizda va O'rta Osiyoda o'z zamoni e'tiborida Rizo Faxriddin kabi ikkinchi bir yirik olimni uchratish qiyin, — deb yozgan edi boshqird adabiyotining oqsoqoli Sayfi Qudash. U arab, fors, rus tillarini mukammal bilardi.

U inqilobgacha «Rossiya geografiya jamiyati»ning a'zosi edi. Uning jurnalida Umar Hayyom, Pugachyov, Darvin — qo'yingki, hamma narsa bor edi». Mirmuhsin Shermuhamedovning ehtiros bilan yozilgan talay maqola va hikoyalari mana shu jurnalda bosilgandi.

Fotih Karimiy (1870—1937) Yevropaning ko'pgina mamlakatlarida bo'lgan, G'arb madaniyatini puxta egallagan, nemis tilini mukammal bilgan yozuvchi va jurnalist edi. Uning muharrirligida Turkistonda juda mashhur bo'lgan «Vaqt» gazetasida chor samoderjaviesini keskin tanqid qiluvchi maqolalar ham tez-tez bosilib turgan. Hatto gazetaning 1906-yil 19-sonida bolsheviklar varaqasining tatarcha tarjimasi bosilgani ma'lum. Bolsheviklar undan ko'p foydalanganlar. Turkistonlik muxbirlarga ham keng o'rin ajratilgan. Bu gazeta va jurnallar liberal burjuaziya pozitsiyasini himoya qilar edi. Ular Turkiston tashvishini qilishganda, uning kerak choqda tayansa bo'ladigan «Rusiya musulmonlari uchun ishonchli bir asos bo'lishi»ni ko'zda tutgan edilar. Shunga qaramasdan, ular sahifasida bosilgan ehtiroslarga to'la maqolalar o'lkamiz xalqlarining o'z haq-huquqlarini anglab olishlarida, shubhasiz, ma'lum yordam ko'rsatdi.

Tatar adabiyoti XX asr boshlarida baquvvat adabiyotga aylangan edi. Agar u o'tgan asrning so'nggi choragigacha ham Sharq rasionalizmi ta'sirida rivojlanib kelgan bo'lsa, 1905-yildan keyin yangi bosqichga o'sib o'tdi. Abdulla To'qay, Aliasqar Kamol, Fotih Amirxon, Olimjon Ibrohimov nomlari qisqa muddat ichida turkiy dunyoga tanildi. Ular orasida, ayniqsa, Abdulla To'qay shuhrati keng yoyildi. Uning O'rta Osiyo adabiyotiga, xususan, o'zbek adabiyotiga ta'siri juda katta bo'ldi. 1905—1917-yillar o'zbek adabiyotida ma'rifatchilik va ijtimoiy grajdanlik motivlarining qaror topishida bu ta'sir yaqqol seziladi. Bu davr shoirlarimiz orasida Abdulla To'qayni o'ziga g'oyibona ustoz bilmagani kam bo'lsa kerak. Hamzadan G'ulom Zafariygacha, Avloniydan Mirmuhsin Shermuhamedovgacha To'qaydan ilhom oldilar. To'qay ta'siri o'zbek shoirlari she'riyatidagi g'oya va mavzu, obraz va poetik shakldagina emas, poetik sintaksisda, til unsurlarida ham ko'rinadiki, bu hech kimga sir emas. 1913-yilning 2 (15)-aprelida shoir vafot etdi. Bu kunni o'zbek xalqi ham chuqur qayg'u bilan kutib oldi. Mahalliy

matbuot sahifalarida uning adabiyot oldidagi, Sharq xalqlari oldidagi buyuk xizmatlari alohida ta'kidlandi. 1913–1917-yillarning aprel oyida muntazam suratda To'qayning vafotiga bag'ishlangan kechalar o'tkazildi. Bu kechalarda shoirning hayot yo'li haqida ma'ruzalar bo'lar, o'zbek qalamkashlarining To'qay she'rlariga yozgan taxmis-tazminlari o'qilar edi. «Bulturgina ko'zdan g'oyib o'lub, butun dunyo yoshlarining ko'zidan yoshlarini oquzub, tatar qarindoshlarimizning bog'i muddaosida o'zining bir bulbul ekanligin bildurub ketgan yoshgina shoir Abdulla To'qayevning eng nazokatlik va eng ma'nolik muassir she'rlaridan kamina ham ko'b bahralar olg'onligimdan va muhtaram shoir afandining vafotina yil to'lg'on sababli va turmushning bir necha xil yerlari shoir afandining tarjimai holig'a nihoyatda o'xshab ketganligidan bir she'rina muvofiqi tab' o'lmasa ham tazmin edub, shu Turkiston sadosi ila yo'l-lanib qolaman», – deb murojaat qilgan edi «Sadoyi Turkiston» muharririga shoir Tavallo.

XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy voqealar o'zbek adabiyotida inqilobiy g'oyalarning paydo bo'lishiga olib keldi. An'anaviy lirika qisqa muddatda ma'rifatchilik she'riyatiga o'sib o'tdi... Unda davrning muhim voqealari o'z ifodasini topa boshladi. Nozimaxonim Birinchi rus revolyutsiyasiga, jumladan, «Qonli yakshanba» voqealariga bag'ishlab she'r yozdi. «Hurriyatu erk talashgan» «yurt yerlari»ni himoya qilib chiqdi. 1914–1916-yillardagi milliy ozodlik harakatlari natijasida esa, bu ruh she'riyatimizda barqaror va mustahkam bo'lib qoldi. «Inqilob bo'lmak tabiiy» (Avloniy), «muqarrar» (Zavqiy)lig, «qafasni sindir»ib, «bog'i bexazon»ga yetish (Chokar) keraklig tez-tez va baralla aytila boshladi. Turkiston xalqi hayotining aniq shart-sharoitidan, uning milliy-ijtimoiy uyg'onishidan tug'ilgan bu xil fikr va tuyg'ular,» «Eng buyuk maqsad bizim, hur mamlakat,... – deya o'z maslagini oshkor aytgan To'qay ruhiga hamohang edi.

1914–1915-yillarda she'riyatimizga barmoq vazni kirib keldi. Bu 10-yillardan shakllana boshlagan inqilobiy adabiyo—timizdagi yangi shakl va ifodalar izlashning mahsuli sifatida paydo bo'ldi. Shoirlarimiz xalq kuylari yo'lida barmoqda she'r—lar yozdilar. Ular to'g'ridan-to'g'ri ashula sifatida ijro qilina—

verardi. Avloniy bu xil she'rlaridan biriga shunday izoh bergandi:

«Maktabga targ'ib» («Latifa» kuyiga)... milliy kuylarimizni ba'zilar arabcha «maqom», ba'zilar forscha «ohang» deb atamishlar ekan. Ammo mencha bobolarimiz tarafidan: «Kirma sanamning uyiga, sanam solur o'z ko'yiga», deb so'ylangon ibratli ona tilimizga suyalub, «kuy» demoq yaxshiroq ko'rindi. Milliy kuylarimizdan biri — «Og'ajon latifa, gulidan latifa, shoxida o'ynang, bargida sayrang — bog' latifa»dur. Teatr va adabiyot kechalarida sahnada quyida yozilmish milliy she'rlardan bir bayt bir yoki ikki kishi tarafidan o'qilub, so'ngidan ko'p kishilar tarafidan xo'r, sozlar ila jo'r qilub, ikkinchi bayt o'qilur».

Hamzaning 1915-yilda bosilib chiqqan «Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasidan birinchi bo'lim» kitobi shunday boshlanar edi:

«Quloq» notalari ila eshitilub kelmish milliy ashulalarimizning o'rni yo'qolmasun uchun ba'zi she'rlar o'rniga milliy she'rlar tartib berub, hama ohangu kuylarimizni topub, bir necha bo'limda nashr etmak niyatidamiz...».

Shu tariqa butun Turkiston qalbini larzaga solgan «Sog'inib», «Salom ayting» qo'shiqlari paydo bo'ldi. So'ng esa Xudoyberdi Qoraboyev va uning «Poezdingni jildirgan...», «Qorda qarag'ay kesganman...», «Saidahmad, toming baland» kabi mashhur ashulalari maydonga keldi.

Ashulalar, kuylar yo'lida she'r yozib, shu orqali zamonning muhim gaplarini xalqona ifodalash tatar adabiyotida ko'pdan bor edi: «Ey, bag'rim, Nayima» kuyida yozgan, Davlat Dumasini masxara qiluvchi bir she'rini sotsial satiraning klassik namunasi deyish mumkin edi. Chunonchi:

Nik bik tiz bitding sin Duma,
Nik jir irek almading? —
Ax, sin Duma, Duma
Ishlagan ishing buma?

Jonni halqumga keltiruvchi istehzo ohangi she'rning boshidan-oxirigacha tarang tortilib turadi. Bunday she'rlar Turkis-

tonda ham mashhur edi. Binobarin, Hamza va Avloniylar tomonidan she'riyatimizga olib kirilgan ayrim shakl va ifodalar o'zbek-tatar adabiy aloqalarining samaralari sifatida maydonga kelgan edi.

Tatar adabiyoti ilg'or Ovrupo bilan oshna edi. Shekspir, Gyote, Geyne, Russo, Moler asarlari tatar tiliga o'tgan asrning oxirlaridayoq tarjima qilina boshlagan. Fotih Karimiy 1906-yilda Sorbonna universitetini tugatgan edi. Husayn Yamashev ingliz, fransuz tillarini mukammal bilgan. XIX asr boshida Chor armiyasidagi bir tatar soldati Gyote bilan nemis tilida Sharq dostonchiligi haqida suhbatlashgani ma'lum. Binobarin, ilg'or Yevropa madaniyatining Turkistonga kirib kelishida tatar adabiyoti va matbuoti ma'lum darajada vosita bo'ldi.

1906-yilda Ufada, keyinchalik butun musulmon Sharqiga dovrug'i ketgan «Oliya» madrasasi tashkil topdi. Olimjon Ibrohimov, Majid G'afuriy, Boyimbet Meylin kabi o'nlab san'atkorlar shu yerda tahsil olgan, o'z ijodlarini shu yerda boshlaganlar. 1916-yillarda Olimjon Ibrohimov shu madrasada dars bergan. O'zbek ziyolilarining katta bir guruhi mana shu dargohda, Olimjon Ibrohimov qo'lida ijtimoiy-siyosiy savod chiqardilar. Bir vaqtlar tolibi ilm karvonlari Volga bo'ylaridan Urganch, Buxoroga qarab yo'l olgan bo'lsa, endi Orenburg — Toshkent temir yo'lida «Oliya» madrasasini mo'ljallab borayotgan turkistonlik mullavachchalar tez-tez uchrab turardi. Mirmuhsin Shermuhamedov, Mo'minjon Muhammadjonov, tarixchi Bulat Soliyevlar «Oliya»da o'qiganlar.

Taniqli maorifchi Mirjalil Karimov 1909-yilda bir muddat Orenburgdagi «Husayniya» madrasasida tahsil olgan edi (U yerda tatar adabiyotidan taniqli adabiyotshunos Jamoliddin Validiy dars bergan).

* * *

...Tatariston sayohati ham nihoyasiga yetay deb qoldi. Oxirgi marotaba universitetga yo'l olaman. Xiyobonda keng peshona, yuzida jiddiyat va qat'iyat ifodalari yaqqol aks etgan N.I.Lobachevskiy haykali. 4-qavatga — tatar adabiyoti kafedrasiga ko'tarilarkanman, tassurotlarimni yig'ishtirib olishga harakat qilaman.

— Isanmisiz, odatdagi ochiq ko'ngillik bilan qarshi oladi kafedra mudiri professor Xatib Usmonov.

— Niy hollar bor? tatarcha taomil bilan hol-ahvol so'rashgandek bo'laman.

— Itil suvi oqa turur, javob beradi yuziga tabassum yoyilgan Xatib og'a.

Har kuni necha martalab ishlatiladigan bu ibora kishida tubsiz xayollar qo'zg'aydi.

Itil suvi oqa turur,
G'oya tubi qoqa turur
Baliq tilin baqa turur
Qo'lung taqi xo'sharur.

(Volga suvi oqib turibdi. U qoya toshlariga urilib shovullaydi. Toshgan suvlardan ko'llar paydo bo'lib, ularda baliqlar va baqalar ko'paymoqda.)

Bu qadimda turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan qo'shiqlardan. Uni bundan 900 yil avval Mahmud Koshg'ariy o'z «Devon»iga kiritgan. Shundan buyon ulkan Volgadan qancha-dan-qancha suvlar oqib o'tdi. Mehnatsevar tatar xalqining ajdodlari dovrug'i chor atrofga yoyilgan Bulg'or, Bilor shaharlarini qurdilar. Shafqatsiz asrlar, undan ham shafqatsizroq shuhratparast istilochilar ularni yakson etdilar. Zahmatkash tatar xalqi xorazmlik naqqosh va ganchkorlar bilan hamkorlikda Saroy shaharlarini barpo qildi. Zamon ularga ham o'z muhrini bosdi. Lekin hayot, insonga xos bo'lgan yaratish to'xtab qolmadi. Qabrlar ustidan o't-o'lanlar qad ko'tardi. Xarobalar ustida shaharlar tiklandi. Va bu hol necha martalab almashindi. Ammo ular tarix qatlarida saqlanib qoldi. Tatar xalqi necha-necha asrlardan beri yondosh-jondosh yashagan ruslar bilan Markaziy Osiyodan Tundragacha, buyuk Volgadan Yeniseygacha yoyilgan turkiy elatlar bilan hamkor, hamnafas yashashga harakat qildi. U G'arb va Sharq, Yevropa va Osiyo o'rtasida ko'prik bo'ldi. Bu ko'prikdan nihoyasiz madaniyat karvonlari o'tdi. U karvonlar zamonning zayli bilan goh Sharqqa, goh G'arbga yo'l oldi. «Ilg'or rus madaniyatini... Qozog'iston dalalari orqali O'zbekistonga yetkazishda tatar xalqi bir ko'prik bo'ldi, desak,

yanglishmaymiz», — deydi ulug' shoirimiz G'afur G'ulom. «Ruslargina tatarlarga ta'sir etib qolmadilar, tatarlar ham, to'g'rirog'i tatarlar orqali O'rta Osiyo ham rus madaniyatiga kuchli ta'sir ko'rsatdi», unga qo'shimcha qilgandek bo'ladi akademik M.I.Tixomirov...

Tohir Chig'atoyning Bambergdagi shogirdi

Rahmatlik otam «Taqdirni ta'bgir qilib bo'lmaydi», — derdilar. Buning ma'nosiga o'sha paytlari e'tibor qilmagan ekanman. 1922-yilda Turkiston va Buxorodan bir to'da yoshlar bir dunyo umid bilan Germaniyaga o'qishga keladilar. Yuborganlarning ham niyatlari katta edi. Biroq qismat boshqacha bo'ldi. Sovetlar hukumati Germaniyada o'qiganlarni ham, Turkistondagi o'qitganlarni ham yo'q qildi. O'qiganlar chetdan zamonaviy bilim bilan birga toza havo — erkinlik, tenglik havosini ham olib kelgan edilar. O'qitganlar esa millat va Vatan ozodligining birinchi belgisi deb mustaqillikni, o'z aqli, mulki, mehnatiga o'zi ega bo'lmoqlikni tushunar edilar. Tabiiyki, bu sho'rolar tuzumi mohiyatiga zid edi.

Yurtda sharoit o'zgarganini, o'qishni bitirib, vatanga qayta boshlagan do'stlarining qiyin-qistovga olina boshlaganini ko'rgan Germaniyadagi talabalarning bir qismi o'sha yoqlarda qolib, jon saqladi. Oradan 75 yil o'tdi. Chetda qolganlar ham vatan hasratida omonatlarini topshirdilar. Ularning eng so'nggisi Vali Qayumxongina, yanglishmasam, O'zbekistonning mustaqil bo'lganini eshitib, olamdan o'tdi. Bugun bular hammasi tarixga aylandi.

20-yillar vaqtli matbuotida, o'sha davr davlat va madaniyat arboblari hayoti, faoliyatiga oid arxiv materiallarida bu haqda ancha-muncha ma'lumotlar saqlangan. Zahmatkash tadqiqotchila-rimizdan Sherali Turdiyev ularning ayrimlarini yig'ib, qator maqolalar yozdi, yaxshi bir risola e'lon qildi.

Germaniyaga safarim vaqtida surishtirdim. Professor I.Baldauf, D.Yaroshevskiyning 1991-yil Bamberg xalqaro konferensiyasida ma'ruza qilinib, 1994-yilda Berlinda chop etilgan «Germaniyadagi buxorolik talabalar (1922—1925)» maqolasini topib berdi. Tataristonlik Iskander Gilyazov degan bir tadqiqot-

chining buxorolik o'quvchilarni Germaniyaga boshlab borgan Olimjon Idrisiy bilan ko'pdan shug'ullanib yurganini aytdi. 20-yillar tarixini yaxshi biladigan arxivshunos olim professor Xo'pp bilan tanishtiradigan bo'ldi, lekin ta'til payti bo'lgani uchun tarixchi bilan uchrashish nasib qilmadi. Afg'onistondagi to'polondan keyin Berlinga kelib qolgan saripullik tilshunos, doktor Muhammad Toshqin bilan tanishdik. Uning yordamida o'sha davrning mashhur shaxsiyatlaridan bo'lgan Mustafo Cho'qayning qabri daragini topdik. (Darvoqe, shu yil mayda Turkiston shahrida bo'lib o'tgan «Turk tarixining masalalari» simpoziumida uning xokini ushbu shaharga ko'chirish fikri o'rtaga tushgan edi). Shahar chetidagi qabristonlardan birida ekan.

Shahar markaziga yuraman. Mana, mashhur Unter den Linden (Lipalar ostida) ko'chasi. Bugun «Muzeyumzinzel» («Muzeylar oroli») deb nomlangan, atrofi Shpree kanali bilan ihota qilingan muhtasham binolarga, saroylar, ibodatxonalarga suqlanib boqaman. 20-yillarda Germaniyaga kelgan vatandoshlarimizning bu yerlarda bo'lganlariga shubha yo'q. Shu jumladan, ulug' davlat va madaniyat arboblarimizning ham. Zamon og'ir edi. Aslida qachon yengil bo'lgan? Shahardan shaharga, yurtdan yurtga borib o'qishning hamisha bir dunyo tashvishi bor. Buyuk Navoiy «Hayratul abror»dagi, «Ilm haqida» maqolotida ta'kidlaganidek, yo'l vahmu tahlikalarini, bor-yo'g'likni, ilm tahsili mashaqqatlarini yengib, necha yil deganda bir shogird sohibi ilm bo'ladi. Biroq aksariyat davron dovullari qa'rida yo'q bo'lib, dunyo yuzini ko'rmay, o'tib ketadi. Olisni ko'rmagan shohlaru shahzodalarning o'zaro toju taxt talashuvlari tufayli qanchadan qancha yorqin iste'dodlar, zakovat egalari uvol ketganlar. Asrimizning 20-yillarida Germaniyaga yo'l olgan shijoatli yoshlarimizning hayoti ham fojealarga to'la bo'ldi.

* * *

1922-yilning yozida Turkiston markaziy Ijroiya Qo'mitasi Hay'ati rayosati va Buxoro hukumati qaroriga ko'ra 60 tacha o'quvchi (soni turli manbalarda turlicha keladi) Germaniyaga o'qishga yuboriladi. G'oyaning boshida Fitrat, Munavvar Qori, Fayzulla Xo'jayev, Turor Risqulov turadilar. Sh.Turdiyev «Ol-

moniyada turkistonlik talabalar» maqolasida ulardan 20dan ortig'ining nomini keltirgan. Bular: Abdulvahob Murodiy, Sattor Jabbor, Birimjon Azim, Solih Muhammad, Fuzail Sherahmedov, Maryam Sultonmurodova, Xayriniso Majidxonova, Rauf Rasuliy, Vali Qayumxon, Ahmadjon Ibrohimov, Abdulvahob Ishoqov (O'ktoy), Ibrohim Yorqin, Saidalixo'ja, Afzal Abusaid, Sulton Matqul, Sobir Turkistonli, Ahmad Naim, Temur, Abdumajid Ibrohimov, Ahmad Shukriy, Saida Sherahmedova va Tohir Chig'atoylardir.

Berlindagi Humboldt universiteti Mittelazien (O'rta Osiyo) instituti arxividagi vaqtli matbuot sahifalarini varaqlayman. Germaniyadagi o'zbek o'quvchilariga oid qator maqolalarga duch kelaman. Yaroshevskiyda bir qator yangi faktlar uchraydi. Bu nomlar yoniga Bahovaddin Amin, Bilol, To'lagan Mo'min, Orifxon Ibrohim, Atoulla, Ahmad Shukuriy (Buxoro), Ruqiya, Shamsul Barotxonim, Zahro Kashayeva, Gulsum Muzaffar, Ertoy kabilar qo'shiladi.

Turkistonliklar buxoroliklarga qaraganda kattaroq yoshda edilar. D.Yaroshevskiy ma'lumotiga qaraganda, 1922-yilning sentabrida Buxorodan 46 yosh kelgan. Shulardan 22 nafari 10—14, 16 nafari 15—17, 8 nafari 17 yoshdan yuqori bo'lganlar. O'quvchilarning ikki nafarigina nemischa bilgan.

Turkistonliklarning Germaniyaga o'qishga borishi, rus millatchilarining ayuhannos solishlariga qaramasdan, nemis xalqi tomonidan olqishlar bilan kutib olingan. «Biz 22-yilning so'nggi oylarida Germaniyaga kelgach, avvalo tayyorligimiz bo'lmag'oni uchun til bilmas edik»,-deb xotirlaydi Abdulvahob Murodiy. — Buyuk Turkistonni talab, yondirib, ezib kelgan rus monarxistlari, Pyotr Zelinskiy Ovrupaga yuborish uchun talaba topolmagan vaqtlarini eslariga olmasdan, «Sartlar Ovrupoda nima qildilar?» degan istehzolar bilan matbuotlarida (Berlinda chiqadurg'on «Rul» gazetasida) qichqirishib o'tgan edilar. U qorni katta janoblar bizni Ovrupo madaniyatiga munosib ko'rmagan edilar!

Rus millatchilarining bu sovuq va qo'pol qarashlariga qarshi germanlar tomonidan yaxshi kutib olindiq. Matbuot «Turkiston uyg'ondi, uyg'onsun!» kabi undovlar bilan qizg'in maqolalar yozib o'tdi».

O'qishga borgan talabalar nemis oilalariga joylashadilar. Yana Abdulvahob Murodiyning e'tiroflariga quloq solamiz: «Har qanday nemis bizni oilasiga qo'shib olish uchun eshiklarini ochib qo'ydi. Oddiy muallimdan boshlab, do'qturu professori til o'rganishimiz uchun qo'lidan kelgan yordamini ayamadi».

Berlin Oliy qishloq xo'jaligi akademiyasini bitirib kelgan va umri bevaqt xazon bo'lgan Abdulvahob nemis xalqining Turkistonga mehru muhabbatini, ziyolilarining esa bizning tarix va madaniyatimizni bir turkistonlikdan ortiq bilishlarini, bu borada ko'plab kitoblar yozganliklarini yosh bolalardek samimiy va beg'ubor ifoda etgan edi.

* * *

1922-yil til o'rganish bilan o'tadi. Yangi 1923-yildan o'quvchilar o'qishga joylasha boshlaydilar. Turkiston va Turkiyadagi o'rta maktablar («E'dodiy»)ni bitirgan va dorilfunun (Turkiston Davlat universiteti)da o'qiyotgan ko'pchilik yoshlarning shahodatnomalari tan olinib, istagan oliy maktablarga imtihonsiz qabul qilinadilar. Hujjatlari e'tirof etilmaganlar imtihon bilan o'tadilar. Maktabni bitirmaganlar esa turli kasb-hunar o'quv yurtlariga joylashdilar.

1923-yilda Germaniyada turkistonliklardan 11, buxoroliklardan 51 o'quvchi o'qir edi. Yuqorida nomlari aniqlangan 33 nafardan 7 nafarining ismidan qiz bola ekanligi ma'lum bo'ladi. Bular: M.Sultonmurodova, X.Majidxonova, S.Sherahmedova va Ruqiya, Zahro, Shamsulbarotxonim hamda Gulsum Muzaffarlardir.

Turkistonliklardan Berlin Humboldt universitetining tibbiy fakultetida-1, Berlin Texnik akademiyasida-4, qishloq xo'jaligi akademiyasida ikki o'quvchi o'qidi. Ikki talaba ko'nchilik maktabida, ikki talaba gimnaziyada edi.

Buxoroliklardan Berlin Humboldt universitetining tib, falsafa, iqtisod, binokorlik, elektrotexnika, mashinasozlik, qishloq xo'jaligi kabi ixtisosliklarda-7, Vitsinhauz oliy qishloq xo'jaligi maktabida-3, Helmshtat oliy qishloq xo'jaligi maktabida-4, Saksoniya Freyberg ko'nchilik maktabida-2, Leypsig matbaachi-

lik maktabida-2, Drezden muallimilar maktabida-1, gimnaziyasida-1, Bilobod (ehtimol Bilefeld?) dorilmualliminida-2, Braunshveyt dorixona ishlari maktabida bir talaba o'qigan. Berlin maktabgacha tarbiya qizlar o'quv yurtida bir o'quvchi, shuningdek, bolalardan 16 nafari Koslindagi (Pomen viloyati) 10 yillik davlat bilim tarbiya muassasasida, 4 nafari doktor Fakkelmanning xususiy o'rta maktabida, bittasi Hermsdo'rf bolalar uyida ta'lim olgan. Har xil mashinasozlik zavodlarida 6 o'quvchi hunar o'rganar, ma'lum tajriba va ko'nikma orttirgach, o'rta texnika maktablari va dorilfununlariga kirish huquqiga ega bo'lar edilar.

«Buzilgan o'lka» (Cho'lpon)dan, Turkistonning qonli, bo'g'iq qafasdan ozod Ovrupo kengliklariga chiqib borgan yoshlar tezda yo'llarini topib ketdilar. Abdulvahob Murodiy, Birimjon Azim, Solih Muhammad Berlin Oliy Qishloq xo'jaligi akademiyasiga qabul qilindilar. Saidalixo'ja Oliy texnika akademiyasining kimyo, Afzal-arxitektura, Ahmadjon Ibrohim-tog' muhandisi, Sultonbek, To'lagan Mo'min-elektrik, Bilol-mashinasozlik fakultetlarida o'qiy boshladilar. Orifxon Ibrohim Bonn Oliy ziroat maktabining suv muhandisi, Sobir Darmshtat Oliy texnika maktabining kimyo, Atoullo Drezden Oliy Texnika maktabining mashinasozlik, Ahmad Shukriy Berlin Humboldt universitetining tarix-falsafa, Ahmad Naim, Shamsulbarotxonim esa tibbiyot fakultetlariga o'qishga kirdilar.

Tohir Shokir (Tohir Chig'atoy) Haydelberg universitetining iqtisod, Abdulvahob Ishoq (O'ktoy) shu universitetning meditsina fakulteti, Gulsum Muzaffar Berlin o'qituvchilar instituti talabasi bo'ldilar. Solih Muhammad 1923-yilning yozida sinovlardan a'lo o'tishi bilan tilga tushadi. Sattor Jabbor va Bahovaddin Amin Oliy o'quv yurtlariga kirish huquqini qo'lga kiritadilar, Zahroxonim meditsina fakultetlaridan biriga qabul qilinadi.

Tabiiyki, talaba yoshlarning fikr qarashlari ham o'zgarib boradi. Dunyo yangiliklari bilan tanishib borish, siyosiy muhojirlar bilan muloqotlar, chetda barcha narsaning chindan ham inson manfaatiga, uning og'irini yengil qilishga qaratilganini ko'rish ularga ko'p narsa beradi. «Ovrupo va Amriqo bilan yurtimizni solishtirsak, — yozadi Ahmadjon Ibrohim 1924-yilda.

Turkiston motamxonadan iboratdir. Kunbotarliklar tabiatni o'yinchoq qilganlar, biz esak tabiatga qo'g'irchoq! Elimiz oxirat dardi bilan ovora, ya'ni tirikligimizdan o'limimiz hokim, Ovrupoliklar esa, istiqbol va yashash uchun hozirlanmoqdalar, mana, biz turkistonliklarning yangi dunyodan ajralib qolishimiz, ochiqroq aytganda, ajratg'on narsa moshina davridan uzoqqa tushganimizdir. Shuni ko'zda tutib, ko'p o'quvchilar moshina, to'qimachilik, ko'nchilik, bog'cha, ziroat va matbaachilik kabi o'rta sanoat maktablariga kirdilar».

Xullas, «Ozod Turkiston» yoshlari «Imperialist Germaniya» bag'rida Sovet targ'ibot mashinasi «Sharq xalqlari dushmani» deb ta'rif qilib kelgan «g'arb» mutaxassislari qo'lida mana shunday ta'lim-tarbiya ola boshladilar. To'g'ri, kamchiliklar ko'p edi. Iqtisod og'ir, musofirchilik. Stipendiyalar kelib-kelmay turadi. Buxoroliklarning ko'pchiligi juda yosh, hali o'rta maktabni ham bitirmaganlari bor, shularga qaramay, bu yerdan borganlar nemislar bilan tezda til topishib ketdilar. Bu hol, tabiiyki, rus bolshevik hukumatini tashvishga soldi. Turkistonning jilovi uning qo'lidan asta-sekin chiqib ketadigandek tuyuldi.

«Turkiston» gazetasida xalq komissarlari sovetining raisi Turor Risqulovning «Germaniyadagi o'quvchilarimiz» maqolasi bosilgan. Turkiston hukumatining rahbari 1923-yilning 1-sentabrida Germaniyaga borib bir oy turgan, talabalarning ahvolini atroflicha o'rgangan. Hukumat boshlig'ining o'shanday sertashvish bir paytda barcha ishlarini qoldirib bir oyga Germaniyaga ketishi bejiz bo'lgan emas.

Avvalo, Germaniyaga o'qishga yuborish g'oyasi katta qiyinchiliklar bilan amalga oshgan. Uning dushmanlari ko'p edi. Ikkinchidan, boshqa jumhuriyatlar ham chet elga o'quvchi yubormoqchi bo'lganlaru, chamasi, amalga oshmagan. Uchinchidan, sovetlar hokimiyat tepasiga kelgach, yuz minglab kishilar xorijga bosh olib ketdilar. Bolsheviklardan yuragi zada qochqinlar, siyosiy muhojirlarning eng ko'p to'plangan joyi Germaniya edi. «GPU»ni bu tashvishga solmay qo'ymasdi. «Siyosiy boshqarma» turkistonlik yoshlarning «yot» ta'sirga tushib qolishidan qo'rqar edi. Shuning uchun ular haqda turli mish-mishlar tarqatib, yurtga qaytarish kompaniyasini avj oldirib yuborgan edi.

«...Turkiston jumhuriyati va Sho'rolar Rusiyasida «Talabalar Ovruponing buzuq fikrlik kishilari ta'sirida, ularni qaytarib olmoq lozim, yo'qsa boshimizga balo bo'lur...» kabi so'zlar tug'ulg'onini eshitib, hayron qolmoqdamiz, yozadi Ertoy, «Turkiston» gazetasiga yo'llagan maqolasida.

T.Risqulovning maqolasi shunday boshlanadi: «Sentabr boshida manga Germaniyaga borub, bir oycha turishga to'g'ri keldi. U yerga borishdan birinchi maqsadim, Germaniyada bir yildan buyon o'qub turg'on Turkiston va Buxoro o'quvchilarining ahvoli bilan tanishmoq edi».

Darhaqiqat, o'ziga xos hisobot bo'lgan bu maqolada hukumat boshlig'i Germaniyadagi o'quvchilarning ahvolini batafsil yoritadi. Ularning oilalarga joylashtirilganini, til o'rganish nuqtai nazaridan, to'g'ri hisoblaydi. Ishchi mahallalarida yashayotganliklarini ta'kidlab ko'rsatadi. «O'qish va tirikchiliklari»ni yaxshi topadi. Turkistonlik 11 talabaga besh oylik stipendiyasini topshiradi. Lekin «siyosiy tarbiya ishi»ga «qanoatlanarlik emas» deb baho beradi. Chunki: «o'quvchilar va ularning boshliqlari Russiyaning Berlindagi vakili bilan hech bir aloqada bo'lmaganlar. Maskov va Turkistondan hech bir gazeta va siyosiy adabiyot olmaganlar... Turkiston va Buxoro o'quvchilari o'rtasida birlik bo'lmay, bir martaba ham o'quvchilarning yig'ilishi bo'lmag'on, o'quvchilar tashkiloti yo'q...».

Hukumat boshlig'i o'quvchilarning «siyosiy qochqinlar» bilan uchrashuvlariga maxsus to'xtaladi. Garchi uchrashgan bo'lsalar-da, «ularning hech bir ta'siri tegmagan» deb alohida ta'kidlaydi.

* * *

Risqulov milliy zamonaviy mutaxassislar tayyorlash g'oyasining barbod bo'lishining oldini olish uchun nimalar qildi? Avvalo, har ikki jumhuriyat o'quvchilarining umumiy yig'ilishini o'tkazdi. Turkiston-Buxoro o'quvchilarining Germaniyadagi sho'ro o'quvchilarining umumiy ittifoqiga kirish huquqiga ega bo'lgan birlashgan byurosi («Talabalar jamiyati») tuzilib, har ikki jumhuriyat hukumatlari tomonidan tasdiq etildi. Germaniya jumhuriyatining ham tasdig'idan o'tdi. Moskva va Turkistondan

matbuot va adabiyot yetkazib turish choralari ko'rildi. Sobiq SSSRning Germaniya elchixonasi qoshida Turkiston, Buxoro, Xorazm jumhuriyatlarining maxsus bir savdo vakili bo'lib, savdo ishlaridan tashqari o'quvchilarga siyosiy rahbarlik qilishi lozimligiga kelishildi.

Hukumat boshlig'i shunday xulosa chiqaradi: «Germaniyada o'quvchilar foydaliq ish o'rganadirlar. Ular kelgusida yurtlariga qaytib, bilimlari bilan ko'p foyda kelturgusidirlar. Shuning uchun xarajat qilib yuborg'ondan keyin hozir ularni qaytarish, tabiiy, to'g'ri emas, balki ularga o'qushlarini tamom qilishg'a imkon berish kerak... Agarda tuzilgan tashkilot davom qilsa, bizning o'quvchilarga hech bir chet shaxslar ta'sir qilolmaydur. Endi kelgusida chet mamlakatlarga o'quvchilar yuborish masalasi maxsus tekshirilishi va hal qilinishi kerak» («Turkiston» g. 1923-y. 211-son).

Afsuski, XKS raisi millatlarga berilgan ayrim hurriyatlar tezda qaytarib olinajagini, milliy hukumatlar degani bir qo'g'irchoq ekanligini, Rusiya yangi bir bosqichga — «Qizil imperializmga» o'tayotganini bilmasdi.

O'zbek-turk adabiy aloqalari

Turkiyaga birinchi marotaba 1991-yilning oktabrida Ahmad Yassaviy simpoziumiga borgan edim. Safar tafsilotlari va taassurotlari o'z vaqtida mahalliy matbuotda qisman e'lon qilingan. So'ng turli-tuman munosabatlar bilan bir necha bor borish nasib etdi. Turk dunyosi adabiyoti haqida hamkorlikda darsliklar yozdik, tadqiqotlar qildik. Bu aloqalar har ikki qardosh mamlakat orasida abadiy do'stlik shartnomasi imzolangandan so'ng yangi bosqichga ko'tarildi. Buning yorqin misoli Otaturk kultur markazi tashabbusi bilan tayyorlanayotgan, har biri 600 bosma sahifalik 33 jilddan iborat «Turk dunyosi adabiyoti tarixi» qomusidir. Bunday ulkan ish shu paytga qadar qilingan emas.

Tabiiyki, bu aloqalar jarayonida yangi-yangi hamkasabalar, do'stlar orttirdik. G'oyibona bilganlarimiz bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldik. Ayni paytda, adabiyotimizning sarhadlari kengaydi.

Ikkinchidan, har bir safar boradigan yurtingizning tarixiga, tabiatiga, elining urf-udumlariga ham sayohatdir. Ayniqsa, kelib chiqishi bir bo'lib, so'ng tarix taqozosi bilan bir-biridan uzoq tushgan qardosh xalqlardagi qadimiy birlikni kuzatish, o'zgarishlarga guvoh bo'lish maroqli. Bu jihatdan, kundalik juda qo'l keladi. Afsuski, kundalikni har kim ham tuta olmaydi. Uning uchun hafsala, ma'lum ichki tartib kerak. Turkiyaga birinchi borganimda, hafsala bilan kundalik tutgan edim. Keyinchalik muhim, kutilmagan uchrashuvlargina qayd qilingan ekan. Xullas, shularni bir ko'zdan kechirib, Siz aziz kitobxonlar bilan baham ko'rish istagi tug'ildi.

1991-yil 11-oktabr

Samolyot Domodedovodan ko'tarilib, Istanbulga yo'l oldi. Keyingi 15 kunlik Moskvadagi yugur-yugurlar bir-bir xayolimdan o'tadi. Ayniqsa, chipta olish qiyin bo'ldi. Yaxshi odamlar hamma yerda ham bor ekan, yordam berishdi.

Samolyotgaku chiqib oldim, lekin buyog'i nima bo'ladi. Simpozium tugaganiga rosa o'n kun bo'ldi. Keyin u Anqarada o'tgan bo'lishi kerak. Kelishim haqida olti oy oldin Simferopolda Gasprinskiy yig'inida tanishganim professor Nevzatbey Yalchintoshga birov orqali xabar qilganman. Xabar yetdimikin? Safarda ko'p yuraman, degan edi, Istanbulda bo'lmasa-chi?!

Istanbul katta shahar. 8-10 million odam yashaydi deydilar...

Begona mamlakatga birinchi marotaba borayotgan kishining ming bir hadigi bilan samolyotdan tushaman.

Jomadon ham darrov kela qoldi. Pasport qaydi uzoq vaqt olmadi. O'n-o'n besh minutda barcha ishlarni bitkazib, aeroportning shahar darvozasiga yuraman. Qora oynavand eshiklar kishi yaqinlashishi bilan yengil ochiladi, o'tgach, yana joyiga qaytadi. Elektronika! Tashvish hayratdan zo'r kelib, kutib oluvchilarga umidsiz ko'z tashlayman. Nogahon bir quloch qog'ozga katta harflar bilan yozilgan «prof. Falonchiyev» degan ismi-sharifimga ko'zim tushadi. Uzun-qisqa ikki kishi qog'ozni ikki tomonidan ushlab sikitgancha «Moskva — Istanbul» reysidan tushib kelayotganlarga tikilishadi. Quvonib ketdim. To'g'ri bo'lishim bilan yugurib kelib, jomadonni qo'limdan olishdi. Iltifot bilan mashinaga boshlashdi. Nevzatbey safarda ekan.

Iltimosimga ko'ra, arzon mehmonxonalarning biriga — Oqsaroydagi «Buyuk okeanus»ga joylashtirishdi. Oltinchi qavatda turaman. Bir o'zim. Derazani ochaman. Marmara dengizi. Kemalar. Afsonadek.

Shahar ikki buyuk qit'a — Yevropa va Osiyoni qoq ikkiga ajratuvchi Bosforning ikki sohili ustida joylashgan. Yeri baland-past. G'arbi — Yevropa, sharqi — Osiyo. Shimolda Qora dengiz, janubda — Marmara.

Istanbul Turkiston musulmonlarining an'anaviy haj yo'li. Rosa yuz yil oldin bu yerga Furqat kelgan. Mashhur «Sabog'a xitob»ini shu yerda bitgan. 1909-yilda Fitrat keldi. To'rt yil universitetda tahsil ko'rdi. Mahmudxo'ja Behbudiyning Ismoilbek Gasprinskiy bilan so'nggi uchrashuvi 1914-yilning 20-iyunida shu yerda kechgan. Istanbulning betakror manzaralari uni lol etgan. 1914-yilning 8-iyulida Bosfor (Bo'g'oz ichi) bilan kirib kelgan Behbudiy o'z taassurotlarini shunday yozgan edi. «Bir oz yurgandan keyin Istanbulning katta saroy va borgohlari, hammadan avval jomelari va boshqa umronoti (obodliklari) ko'rundi. O'rta — barroq (yaltillagan) suv, tarafayn (har ikki tarafi)da katta imoratlar, ora-sira chorbog'lar, so'ngra tog'u tosh va butun yer yashillik va ul zumuraddin yer ustida oq va marmar muqaddas jome minoralari va sarv og'ochlari osmong'a uzalgandur. Xulosa, to'yolmas bir manzara o'rtasidamiz. Endi Istanbulg'a yaqinlashurmiz. Atrof butun paraxo'd, qayiq. Bir tarafdan muqaddas jomelarning oltun hilol qo'yilgan qubba va minoralari. Digar tarafdan, marmar ko'shklar, podshohlik borgohlari butun nazarni o'zig'a tortar. Qaragan ila to'ymaysan. Xulosa, Istanbul Bo'g'ozichi (turklar Bosforni hozir ham shunday ataydilar) latofati favqulodda bir manzara bo'lib, Ovrupo va Amrikonlar-da muning oshiqidur. Biz, albatta!..

...yozilaturg'on matlablar har nimarsadan ko'p, qaysi nimadan boshlamoqni bilmayman...».

Behbudiy bu shaharning tarixini 90 yil keyingi avlodlaridan — bizdan yaxshiroq bilardi. Adibning sayohati bilan izma-iz bosilib chiqqan xotiralaridan:

«Yer yuzini eng latif va farahafzo va tijoratlik yeri bo'lgan va al'on saltanadi islomiyaning poytaxti bo'lgan Istanbul shahri avvalan Lig'o's yoinki Dabipo nomida bir yunoniy tarafidan

faqat bir necha uychadek bino qilinibdur (yana bu tarixdan ko'b ilgari bino qilingan, degan-da xabar bordur). Lig'o's qasabasini so'ngra Yunonistonda voqe' bo'lg'on Mag'ora ismlik ko'b qadim bir qishloqdan kelgan Bizans (ya'ni Vizant — B.Q.) ismlik bir kishi tarafidan Saroy buruni tarafinda yangidan inshoi va ismi Bizandiyun (Vizantiyun — B.Q.) ismig'a tabdil qilinibdur. 195 milodiyda Rumo imperato'ri Sabtimsur tarafidan Bizandiyunni olinib va oxiran Sharqiy Rumo imperato'rligi tashkil qilinganda imperato'r Qustantin valadi Herakl tarafidan poytaxt bo'lub, shaharni katta qilibdurki, 330 milodiya 11-maydin e'tiboran imperato'r nomig'a nisbat berilib, Qustantaniya atalib, so'ngralari «shaharg'a ketarman» ma'nosidagi «Istin bo'li» iboratidan buzulub, «Istanbul» ismi ila atalibdur. Shaharni(ng) Qodiko'y ismli 4910 tarix xilqatida (Isogacha bo'lgan tarix ko'zda tutiladi — B.Q.) Mag'or nom xalq tarafidan bino qilinibdur. Uskudor qismining Uskudor atalganining boisi vaqtila anda Skudor isminda bir imperato'r borgohi bo'lganidan yoinki ajamlarning «Eski dor» deganlarindan paydo bo'lgandur. Istanbulning g'alata qismi ham 532(?) tarixi xilqatda raislari Branusning amri ila Osiyog'a o'tmoq uchun Ovrupodan kelib mazkur joyda bir muddat turgan va «g'al»dan «g'alat» bo'lub, «g'alata» atalibdur. Oxiran, 857 tarixi hijriyasinda Turkistondan borgan turk qavmining dohiylarindan sulton Mehmet Fotih hazratlari tarafidan bar'an va bahran (quruqlikdan va dengizdan) hujum ila Rum imperato'rlaridan olinib, poytaxti davlati islom qilinib, bukungacha turk musulmonlari qo'lidadir».

Behbudiy Istanbulni shunday tanigan va tanitgan edi.

Meni kutib olib, mehmonxonaga joylashtirgan Kamolbeylar bilan xayrlashdim. Dushga tushib oldim. Shaharga chiqmoqchiman.

Ishni mehmonxona haqini to'lashdan boshlayman. Bugun 11-oktabr uchun to'ladim: 50 ming lira — 13 dollar. Bizcha 650 so'm.

Tilni tushunish qiyin emas. Sal zehn solinsa, so'zlarni topib olsa bo'ladi. Kerak gapni siz ham amallab tushuntira olasiz. Begonalik qo'rquvi bir oz uzoqlashgandek bo'ladi. Dadillashib ko'chaga chiqaman. Joyni yaxshi o'rganish kerak. Xudo ko'rsatmasin, adashib qolsam... yomon bo'ladi. Demak, ko'chaning

nomi «Oqsaroy»; mehmonxonaning nomi «Buyuk okeanus». «Okeanus» okeandan bo'lsa kerak. Aniqlamoqchi bo'lib, ko'chadagilardan so'ramoqchi bo'laman. Ko'pchiligi turist. Yevropadan, aksariyat sotsialistik lagyerdan. — Okeanus — muhit, — tushuntiradi hafsala bilan bir turk. Fikrimga ishonch hosil qilaman.

Yonidagi «Axiy», nima ekan u Axiy (birodar)mi? Arabcha so'zlar yuz yil oldin «Sarvati funun» (fanlar boyligi) davrida juda ko'p ishlatilgan. Shundan qolgan bo'lishi mumkin.

Bu yerning vaqti Moskva vaqti bilan bir ekan. Soat 12. Butun kun hali oldinda. Sekin shamol yuqoriga yuraman. Ko'chalar tor. Mashina ko'p. Ko'chalarning har ikki tarafi magazin, keti uzilmaydi. Tovuq kaboblar. Butun-butun tovuqlar oynalik pechlarda aylanib, qovurilyapti. Go'sht «urchuq»lar bir maromda aylanib hil-hil pishadi. Chapdast sotuvchi «ekmak»ni (bulka non)ni pichoq bilan shart yorib, ichiga go'sht bosyapti. Do'konlar tor, kichkina, odamsiz. To'g'ri bo'lishingiz bilan «Buyuring!» deb ichkari olib kirib ketadi. Turist izidan turist, narsani ham asosan shular oladi. Polsha, Bulg'oriya, Chexoslovakiya... «Gullagan» sotsializm «chirigan» kapitalizmning ko'chalarni to'ldirgan mollarini tashib olish bilan band...

Darvoqe, Istanbulga birga kelgan sheriklar bilan xayrlasha olmadim ham. Bir reysda to'rt o'zbek. Kecha to'ttasi Misrga ketayotgan edi. Bo'lmasa, bordi-keldi hali Moskva orqali. O'zbek degani jahongashta kelar ekan-da. Mutaassibchilik va o'zimbo'laychilik o'tgan asrda uning qo'l-oyog'ini o'risga bog'lab bermaganida, bugun uning taqdiri tamom boshqacha bo'lar edi...

16.10-da aeroflot vakiliga qo'ng'iroq qilish kerak (Biletimning qaytish muddati ochiq (orep) qoldirilibdi. Esdan chiqmasin!).

Oqsaroydan yurib, ko'ndalang — kesishgan O'rdu jadda (ko'cha)siga chiqaman. Yo'l kengaydi. Harakat kuchaydi. Tramvay qo'shildi. Magazinlar kattardi. Katta ko'chaga qo'shilgan joyni yodda saqlashga harakat qilaman. Tavakkaliga kun chiqish tomonga yuraman. Daf'atan, yo'lning chap tomonidagi bir binoning peshtoqidagi «Istanbul universitetining Adabiyot fakulteti» degan yozuvga ko'zim tushdi. Yo'qotgan narsasini

to'satdan topib olgan kishidek quvonib ketdim. Polislar surishtirib, so'ng kiritishyapti (yaxshi tartib. Demagogga bir oz g'ayritabiiy tuyulishi mumkin. Lekin ilmni, ilm ahlini, ularning tinchligi – osoyishtaligini muhofaza qilish ayb emas).

O'zbekistondan kelganligimni, Toshkent universiteti professori ekanligimni aytganimda, samimiy bir xayrixohlik bilan hurmatimni baland tutib, o'tkazib yuborishdi.

Yuqoriga ko'tarilarkanman, Adabiyot fakultetining bo'limlariga ko'zim tushadi: qadimgi davr tillari va madaniyati; arxeologiya va san'at tarixi; turk tili va adabiyoti; psixologiya; pedagogika tarixi...

G'ayriixtiyoriy turk tili va adabiyoti bo'limining dars jadvaliga ko'z tashlayman; nigohim «Yuksak lisans va doktora ders programi»ga tushadi. Hoynahoy magistratura va aspirantura haqida gap ketayotgan bo'lsa kerak. Ularda oliy o'quv Yevropadagidek bakalavriat va magistratura – doktorantura ekanligi esimga tushadi.

Yuksak lisans

1. Usmonli turkchesi (gram) prof. Mertol Tulum, 9–10,35.
2. Chig'atoycha, prof Kamol Er-aslon,11,15–12,40.
3. Eski metnler dilining axtarilmesi, prof. Mertol Tulum, 13,30–14,55.
4. Mug'oyasali Turkiya turkchasi (fonetika) prof. Mustafo O'zkon, 14,00–17,10.
5. Turkiya turkchesining tarixiy gelishmesi (taraqqiyoti), prof. Mustafo O'zkon, 15,40–17,10.

Doktora

1. Turk dili sintaksisi, prof.Kamol Er-aslon,11,15–122,40.
2. Klassik usmonli turkchesi metnleri, prof. Mertol Tulum, 10,40–12,15.
3. Eski Onado'lo' turkchesi meseleleri, prof. Mertol Tulum,10,30–12,00.
4. Eski Onado'lo' turkchesi qaynoqleri (manbalari), dots. Usmon Sartg'oya, 15,45–17,10.
5. Mug'oyasali Turkiya turkchesi morfolojiesi, prof. Mustafo O'zqon,15,30–17,10.

Darslarning qo'yilishi bizdan farqli. Domlalaridan Mustafo O'zqonni bilmas ekanman. Mertol Tulumni eshitganman. Kamol Er-aslon va Usmon Sartg'oya bilan bultur Turkiston shahrida uchrashganmiz. Yana bir yangilik. Ularda ixtisoslik keng. Bir kishi ham tildan, ham adabiyotdan dars bera oladi. Bizda-chi? Aksariyat ikki begona sohadek, goho bir-birini tushunmaslik darajasida. Hatto, til-adabiyotning o'zida ham tor ichki mutaxassisliklarga bo'linib ketadi. Poeziya tanqidchisi, proza tanqidchisi... Hatto, she'r bilan shug'ullanuvchi poema haqida yozmaydi. Holbuki, ixtisoslikning kengligi ishning manfaati uchun foydadan boshqa narsa keltirmaydi. Dunyoning hamma joyida ixtisoslikni kengaytirish uchun harakat qiladilar. Bizda aksincha bo'lib ketgan.

Xayol bilan bo'lib turgan ekanman. Tasodifan, qarshimdagi eshik ochilib, professor Kamol Er-aslon chiqib qoldi. O'tgan yili oktabrda Qozog'istondagi Yassaviy kongressida uchrashgandik. Taniqli navoiyshunos olim. «Nasoyimul muhabbat»ni nashrga tayyorlaganini eshitgandim. Yassaviy «hikmat»larini ham izohlar bilan nashrga tayyorlagan — shu. Tinimsiz ishlaydi shekilli, hali 60 ga kirmagan bo'lsa-da, yoshidan ancha ulug' ko'rinadi. Darrov tanidi, quchoqlashib ko'rishib, lutf qildi.

— Qo'mita a'zolari mehmon emas, mezbon bo'lmoqlari kerak-ku!

Professor Qozog'istondagi kongressda tuzilgan besh kishilik «Yassaviy qo'mitasi»ga ishora qildi. Istanbul universiteti professori Kamol Er-aslon qo'mita prezidentligiga saylanib, Fransiyadan Iren Melikof, Moskvadan Atham Tenishev, Qozog'istondan Yerdon Qajibekov va O'zbekistondan men a'zo bo'lib kirgan edim. 1991-yildagi simpoziumning Anqarada o'tkazilishi shunda belgilangan edi. Biroq 1991-yilning qishi o'tib, yozi keldi hamki, xabar bo'lmadi. Iyulning oxirlarida, qabul imtihonida edim. Yozuvchilar uyushmasidan 2 ta xat keltirib berishdi. Biri yanvarda yuborilgan, Ichida Turkiya madaniyat vaziri Nomiq Kamol Zeybek imzosi bilan taklifnoma, roziligim, qaysi mavzuda ma'ruza qilishim haqida 15-aprelgacha xabar yetkazish so'ralgan. Tabiiyki, biz tomondan biror javob bo'lmagan. So'ng departament boshlig'i Zumrut Nahyo imzosi bilan 1-maydan 15-iyungacha javob qilish so'ralib, ikkinchi xat jo'natilgan.

Menga esa bu xatni iyulning oxirida berishdi. Simpozium 26-sentabrdan 1-oktabrgacha o'tishi kerak. Chetga chiqish uchun bir dunyo hujjat lozim. Idoralardagi «erta keling» ma'lum.

Qanday aytasiz, bu gaplarni.

Kamol Er-aslon kabinetiga boshladi. Xizmatchini chaqirib, mehmon uchun choy buyurdi. Shogirdlari, qilayotgan ishlari bilan tanishtirdi...

Qadrdon «Buyuk okeanus»ga qaytaman. Ko'cha eshikdan kirishingiz bilan tik ko'tarilgan zinapoya, pastak ship, tor, qorong'i yo'laklar. M.Bulgakovning asari asosida olingan «Qochish»dagi Istanbul mehmonxonasi tasviri esga tushadi. Xonamning tepa ohaklari to'kilib yotibdi. Telefon bor, lekin past orqali chiqiladi. Radio bor, ishlamaydi. Televizor yo'q. Arzonning sho'rvasi tatimaydi-da, o'zimni yupataman.

Sumkadagi «tushyonka»ni olib ishtaha bilan tushiraman. Pastga tushib, kutish xonasida televizor ko'raman. Charchoq o'zini bildiradi...

12-oktabr

Kecha 8 bo'lmay yotgan edim. Ko'chada mashinalar tuni bilan tinmadi, baqir-chaqirlar ham bor.

Magazin reklamalari anvoyi tovlanadi.

Ertalab 6 larda turdim. Rosa uxlabman. Issiq suvda rohat qilib yuvindim. Derazani yopdim. Tuni bilan ochiq edi. Quyosh chiqib kelmoqda. Deraza janubga qaragan. Ko'chadagi uylarning aksariyati 6 qavatlik. Tor, ingichka, baland uylar. Deyarli hammasining kunbotar tomoni qop-qora. Universitetni ko'rib, nimadan bu qurum? Yonqinmi? — desam, yo'q, shamol yomg'irni shu yoqqa uradi, deydi birovi kulib. Tushunmayman. Eshitishimcha, bu yerlarda asosan toshko'mir ishlatilar ekan. Issiq suv, isitilgan uy bizdagidek odatiy hol emas ekan. O'zbekistonning gaz va elektr zaxiralari ko'zimga to'tiyodek ko'rinib ketadi. Istanbulday dunyoning mashhur shahrida bu qadar e'zozlanadigan energiya manbalaridan foydalanishda bizdagi isrofgarchilik, xo'jasizlik ko'z oldimga keldi-da, ko'nglimning tub-tubida achinish va iztirobga o'xshash bir narsa sezaman.

Chalg'iyman. O'rdu jaddasi. Adabiyot fakulteti esga tushadi. Bu ko'chalardan Fitrat yurgan bo'lsa kerak. Universitet bu yerga ikki qadam ekan-ku.

Qo'shni xonada birov uzun, xunuk yo'taladi.

Ro'parada, binolar ortida dengiz. Langar tashlagan katta kemalar ko'rinadi.

Bugun-erta qilinadigan ishlarni belgilab olaman:

1. Furqat kelib ko'rgan va maqtagan «Millat bog'chasi» qayerda ekan?

2. Istanbulda nechta universitet bor? Asr boshlarida qaysisi mashhur bo'lgan? Fitrat qaysi birida o'qigan bo'lishi mumkin? Dorul-voizin-chi? Istanbulda o'zbeklarni o'z atrofiga to'plagan biror jamiyat bormi? Ularning hayoti qanday?

Kecha kioskadan sotib olgan Istanbul xaritasini qayta-qayta ko'raman. Miyamga fikr keladi. Kechagi O'rdu jaddasi asosiy ko'chalardan ekan, bugun teskari tomonga yurib ko'rsam-chi.

* * *

50-yillarning oxiri, 60-yillarning boshida Toshkentning Qoratosh mahallasida bir chol bo'lardi. Qotma, sariq-bug'doy-rang. Sal savdoyiroq. Oqsoqlanib yurardi. O'ng qo'lini oldin-ga silkitgancha, nuqul: «Anato'liga ketaman! Istanbulga ketaman!» derdi. So'ng «Yasha! Yasha!ga «Kamol posho»ni qofiya qilib sharqiya aytardi. Ma'nisiga yetmasdik. Masxara qilardik. Chunki cholning iztiroblari bizga tamom begona edi. Bizni sovet hukumati, «jonajon» partiyamiz boshqacha tarbiyalagan edi. Biz na tarixga, na zamonga o'z aqlimiz, o'z ko'zimiz bilan boq-masdik. Inqilobdan ilgarigi hamma narsani rus xalqining manfaati nuqtai nazaridan baholardik, so'ng buning ustiga markscha-lenincha mafkura qo'shildi. O'n yettinchi yil otani boladan, akani ukadan ajratdi. 20-yillar ularni bir-biriga qattol dushman qilib, qo'liga qurol tutqazdi. 37-yilda biz «dushman» otalarimizni tugatdik. Sovet hukumatini ham ota, ham ona deb bildik. Olis tarix ham xuddi shunday hal qilindi. Millat qoq ikkiga ajratildi: ezuvchi, eziluvchi. Temur – qonxo'r, Navoiy – feodal, Bobur – bosqinchi. Xullas, o'tmish – qora, sovet – oq.

Biz millatning tarixini bilmasdik, nari borsa, XV asrdagi dasht o'zbeklariga bog'lay olardik. Turkiya turklarining qardosh-qarindosh ekanligidan ko'pchilik bexabar edi. Yaqin-yaqingacha ham, biz asli turkmiz, desangiz, eshitgan kishining to'rtdan

uchtasi, qo'ysangizchi, der edi. Biz turk atalgan katta bir daraxtning shoxi, katta bir shajaraning shu'basi ekanligimizni unutgan edik. Unuttirishgan edi. Oqibatda qavm-qarindoshdan ajralgan edik. Ularni tanitishdan hokim millat ham, hokim mafkura ham manfaatdor emas edi. Aksincha, Turkiyaga sotsialistik vatanning, ya'ni Rusiyaning eski muxolifi sifatida qarab kelinardi. 37-yilgi qatag'on hujjatlarini ko'ring, adiblarimiz o'zlarini turk deyishga jur'at eta olmaganlar. Bu so'z shu qadar yasoq qilingan.

Esimda, qatag'on qoralanib, ilmiliq kunlar kirib kelgan 60-yillarning boshlarida domlalarimizdan biri o'zbek ma'rifatchilik harakatining shakllanishida g'oyat katta rol o'ynagan Ahmad Midhat, Nomiq Kamol, Abdulhaq Homid, Tavfiq Fikrat kabi mashhur turk adiblarining nomini tilgan oldi. Yuragi zada keksa bir ustozimiz dovdirab qoldi.

Nima uchun bunday qilingani hozir hech kimga sir emas. Birinchidan, Turkiya bilan Rusiya o'rtasida aloqa o'rnatilganiga 500 yil bo'lgan bo'lsa, shuning 47 yili urush bilan o'tganligi tufayli, o'zaro dushmanlik ruhi har ikki mamlakatning qon-qoniga singgan edi. Shu sababli Rusiya «o'z» turklarini Turkiya turklaridan uzoq saqlashga, iloji boricha bir-biriga qayrashga urinardi.

Ikkinchidan, hamma biladi, tarixi bo'lmagan millatda g'urur bo'lmaydi. Ota-onasini bilmagan farzand iftixor eta olmaydi. G'ururs iz millatni boshqarish oson. Behbudiy yetti otasini tanimagan quldir, marquqdir, degan edi...

To'pqopidan To'pqopiga

Istanbul, bu, birinchi navbatda, To'pqopi, Ayo Sufiya, Sulton Ahmad jomesidir. To'pqopi — to'pxona degani. Shaharda To'pqopi nomi bilan ataladigan ikkita joy bor. Biri shaharning g'arbidagi To'pqopi darvozasi, ikkinchisi — Bosfor — Bo'g'ozichining Marmara dengizi bilan tutashadigan burnidagi To'pqopi saroyi. Har ikkisini g'arbdan sharqqa cho'zilgan, uzunligi taxminan 10—15 chaqirim bir ko'cha bog'laydi. Millat jaddasi (ko'chasi) bilan boshlangan bu ko'cha Oqsaroyda O'rdu jaddasiga aylanadi. Boyazid maydonidan esa Yenicharlar jaddasi, Ayo Sufiyaga kirib kelishda Devon yo'li deb ataladi.

Xaritani yaxshilab o'rganib olgach, O'rdu jaddasiga chiqib, To'pqopi darvozasiga yo'l olaman. Ko'chalar hali tozalanmagan. Axlat uyumlarini endi olishmoqda. Magazinlar hali berk. Onda-sonda meva ortgan aravalar ko'rinadi. Lekin ayrim sabzavot do'konlari ochiq. Narxiga razm solaman: qovun 3500 lira, demak bir dollar atrofida. Tarvuz — 1500, kartoshka — 1500, piyoz — 1500. Go'sht do'koniga kiraman. Har bir joyi alohida narxda sotiladi. Eng qimmat joylaridan biri — jigar, 20 ming lira.

Avtobus qal'a devori yoniga kelib to'xtaydi. Tashqari chiqaman. Shaharlararo avtobuslar, yoyma do'konlar. Qal'aning qilt etmagan bahaybat tosh devorlariga tikilaman. Shimolda va janubda tanho qaqqaygan xarobalari ko'rinadi.

— Marmaragacha ketgan, — izoh beradi shu yerda orttirgan tanishlarimdan Mustafo Istif. U emekli — pensioner. 49 yoshda. Demak, men bilan teng. Ajablanaman. Kasbini, nega bunday yoshda pensiyaga chiqqanini surishtirishga vaqtni qizg'anaman. Xayolim qal'ada.

Arablar bu yoqi Chinmochin, u yoqi Andaluzgacha zabt etdilar, lekin bu shaharni ololmadilar. Yo'l ustidagi bahaybat qoyadek bo'lib turaverdi. X asrgacha dengizning yagona egasi hisoblangan arablar ulkan kemalarda shaharga yaqinlashar edilar, biroq qal'a devorlariga joylashgan manjaniqlardan otilgan neftli qatron va oltingugurt eritmasidan dahshatga tushib, orqaga qaytar edilar. «Yunon olovi» deb atalgan bu yonar toshlar kemaga tegishi bilan hamma yoqqa sochilib ketar, va bir pasda tushgan joyi gurillagan o't ostida qolar edi. «Yunon olovi» suvda o'chmasdi. So'ng bu shaharni olish uchun turklar uzoq urindilar. Mashhur Boyazid Yeldirim qamal qilib turganida jahongir Temur xalaqit berdi. Shu tufayli qal'aning olinishi ellik yil orqaga surildi.

— Bu qal'a, albatta musulmonniki bo'lishi lozim edi, bu haqda hadisi sharifda ham aytilgan, davom etadi Mustafo Istif. Devordagi yozuvga ko'zim tushadi. U — haq. Hadisning asliga tishim o'tmay, uning tarjimasini o'qiy boshlayman:

«Istanbul har qanday holda fath etilajakdir. Uni fath etajak amir qanchalar baxtiyor amirdir va u askar ne chog'liq baxtiyor askardir».

Pastroqda fath tarixi: hijriy 957, 20 jumodil avvalida – milodiy – 29-may 1453-yil erta tongda Fotihning qo'shini to'plari va shu yerdan ochgan dara orqali Istanbulga kirdilar.

«Dala viloyatining gazeti» (Omsk,1895) dan:

«Ul yurtning podshosi Konstantin sultonga qarshi qahramonlarcha kurashmoqchi bo'ldi, lekin grek saltanatidagi ichki nizolar imkon bermadi... Qamaldagi shaharda o'z mehnatiga yarasha haq olmagan bir major to'pchi turklar tomonga o'tib ketdi va shunday ulkan zambarak yasab berdiki, o'qining og'irligi 30 puddan ortiq edi. Mana shu zambarakdan turklar shaharning mustahkam qo'rg'onini tinimsiz o'qqa tutdilar va qisqa fursatda dara ochdilar...

Devordan dara ochilganligiga, turk qo'shinining son jihatdan ko'pligiga qaramay, shaharni olish juda qiyin kechdi. Turkning dengizdagi 150 kemasi quruqlikdagi askarlarga yordam bera olmas, chunki Istanbul bandargohiga kiradigan yo'l temir zanjir bilan to'silgan edi. Nihoyat, bunday mustahkam mudofaadan toqati toq bo'lgan Sulton Mehmet qoq tunda kemalarining bir qismini dengiz bilan bandargoh oralig'idagi eng qisqa quruqlikdan sudrab o'tkazish rejasini tuzadi. Uning farmoniga ko'ra quruqlik bo'ylab kema yo'liga taxta to'shalib, qalin yog' suriladi. O'sha kechaning o'zida yuzdan ortiq kema qal'a devorlari ostida paydo bo'ladi. Ertasi kun turklar ikki yoqdan—ham quruqlikdan, ham suvdan hujum boshlaydilar va ikki soatdan ziyodroq vaqt ichida zabt etadilar...».

Mustafo Istif «Bizans»lar – vizantiyaliklarning istehkomlari qanday mustahkam bo'lgani, Fotih Mehmetning jasorati haqida gapiradi. Choyga taklif etadi. Uzr so'rayman, avtobusga chiqarib xayrlashadi. Ayo Sufiya jome'siga yo'l olaman. Xayolimdan o'tadi. Ko'pmi bizda shunday o'z tarixini biluvchi, u bilan iftixor etuvchi kishilar? Ayniqsa, oddiy xalq orasida.

Avtobus Boyazid maydonidan o'tib, Mehmet Akif Erso'y parkida to'xtaydi. Mehmet Akif Erso'y (1873—1936) usmonlilarning mashhur shoirlaridan. Asli buxorolik deydilar. 1921-yilda maorif nozirligi millat sharqiysi (gimni) tanlovi e'lon qilganida «Istiqlol marshi» bilan 724 shoir orasida g'olib kelgan. Hozirda u Turkiyaning milliy gimnidir.

Parkdan pastda muazzam Sulton Ahmad jome'sining ko'kka sanchilgan minoralari ko'zga tashlanadi.

Istanbulda masjid ko'p, har mahallada bor. Har kun besh mahal bu masjidlarning mezanasidan azon sadosi yangraydi. Lekin Sulton Ahmad o'z mahobati bilan bemisldir.

Masjid oldidagi xiyobonga tushaman. Bir tomoni Marmara universiteti (Temirxo'ja bir muddat shu yerda ishlab ketgan. Hozir taniqli turkshunos prof. Nodir Davlat shu yerda). O'rtada ikkita muazzam «kosa». Ichida simyog'ochdek ikkita tosh. Lotincha yozuvlar, belgilar. Nimadir sharafiga o'rnatilgan yodgorlik. Va «shubhasiz» «bizans»lardan qolgan. Behbudiy bularni ko'rganmikin? U chiqargan «Oyna» jurnalining 1914-yil sonlarini varaqlayman:

«Istanbuldagi osori atiqadan sanaladurgon «chanbarli tosh» rumolilar tarafidan yasalibdur. 8 qit'a (bo'lak) samoki toshidan murakkab va to'qson qadam balandligida bo'lgan mazkur tosh rumo jenerallaridan mashhur Marius tarafidan quvvatlik va nufuzlik samar va tutun degan ikki qabilag'a g'olib kelgani uchun bir alomat bo'lsun, deb yasalibdur. Mazkur tosh 329-sanai milodiyada ustidagi ba'zi alomatlari ila Kustantin kabir tarafidan Rumodan Istanbulga qishti (kema) ila kelturulub, hozirgi yeriga o'tquzilibdur. Sulton Fotih zamonida ba'zi ta'mirot ila hozirgi chanbar temurlari ilova qilinibdur.

Fotih Mehmet (1432—1481) Istanbulni zabt etganida 21 yoshda edi. U ham Bobur singari 12 yoshda taxt egasi bo'ldi, ikkinchi daf'a hokimiyat jilovini 19 yoshda oldi. Ikki qit'a (Yevropa, Osiyo) va ikki dengiz (Oq-O'rta yer, Qora) sultoni— «Sulton ar-barreyn val bahreyn» unvoniga musharraf bo'ldi. U ham o'z farmonlariga, qadim turkiy udumga rioya qilgan holda, «Menkim, amiri a'zam Sulton Mehmedbekman...» deb imzo chekardi.

«Fotih Mehmet munavvar zot edi, tillardan xabardor edi, shoir edi, bular bilan birga yaxshi askar edi», — deb yozadi Ahmad Zaki Validiy va uni ko'p jihatlari bilan zamondoshi Sulton Husayn Boyqaroga o'xshatadi.

Sulton Ahmad jome'si, Ayo Sufiya, To'pqopi saroyi bir chiziqda ketma-ket joylashgan. O'rtada vizantiyaliklarning eng mashhur obidasi Ayo Sufiya, ikki tomonda usmonlilarning muazzam inshosi...

Turkiyada parlament sayloviga tayyorgarlikning so'nggi haftasi edi. Bolakay qo'lida qizil bayroq. Boshoq qadalgan hilol surati tushirilgan. Birorta sotsialistik partiyadan bo'lsa kerak-da, xayolimdan o'tadi. Sabrim chidamay, so'rayman.

Yo'q, bu «Rifoh», javob beradi u.
Nima degani u? yana o'smoqchilayman.
Rifoh islomdir!

Yalt etib sinovchan yuzimga qaraydi. Tashakkurimni aytib, davom etaman. Yo'lda qovun sotyapti. Kesib sotyapti. Velosiped aravada. Ming lira to'laysiz, kosa qilib beradi, po'choqini darhol chappa qilib aravaga bosadi. Atrof top-toza. Qovuni bizdagidek shirin emas. Chetdan, ko'proq Izmirdan olib kelisharkan. «Rifoh» miting o'tkazyapti. Ayo Sufiyaning oldi tumonat odam. Bayroqlar, shiorlar, karnaylar, mashinalar. Mashina ustida notiqlar. Xalq jo'r bo'lyapti. Gaplar ham xuddi she'rday: Bir o'lalim! Iri (yirik, katta) o'lalim! Diri (tirik, jonli) o'lalim! Bu qanday partiya bilmayman, lekin kishilardagi uyushqoqlik, birlik yoqdi.

To'pqopiga o'tmoqchi bo'laman. Yon-atroflar, o'tlar, daraxtlarning ustigacha odam. Bola-chaqa, xotin-xalajgacha bor. Lekin urug'-aymoq, san-man, bordi-keldi yo'q. Birorta tartib saqlovchi politsiya ko'rinmaydi. 70 yilda Turkiya bilan bizning erishgan demokratiyamizni qarang. To'g'ri, bu yerda ehtiyot choralari ko'rilgan. Masalan, miting qizigandan qizib, atrofdan qo'l ushlashib, qizg'in olqishlar bilan guras-guras odamlar kelib qo'shila boshladilar. Shu payt Ayo Sufiyaning orqa qanotidagi So'g'iq (sovuq) chashmalar ko'chasidan ikki brandopoyt chiqib kela boshladi. Mitingning avzoyiga qarab, ular goh yaqinlashar, goh uzoqlashar, lekin ularning borligiga hech kim e'tibor qilmas edi. Bir pas tomosha qilib, To'pqopiga — Sultonlar saroyiga o'tdim. Saroy oldi katta bog'. Anvoyi gullar, daraxtlar. Hamisha sayohatga kelganlar bilan gavjum. Surishtiraman. Istanbuldagi eng mashhur bog' shu ekan. Chinakam millat bog'i. Bundan roppa-rosa yuz yil muqaddam, huddi shunday kuz kunlarining birida Istanbulga kelgan Furqat bu bog'da ko'p bo'lgan. Furqatshunos olimlarimiz «Istanbuldagi dengiz havosi shoirga

ma'qul tushib, «mizojiga muvofiq» kelganligi, «ahvoli kundan-kunga behbud» bo'lganligi haqidagi uning e'tiroflariga suyanib, ushbu shaharda 4-5 oy turib qolganligini taxmin qiladilar. Darhaqiqat, shoirning bu yerdan yo'llagan talay she'r va maktublari buni tasdiq etadi.

Bu gulshankim, nasimi fayzi rabdur,
Guli hilmu hayo birla adabdur.
Zihi bog'iki, Millat bog'i, derlar.
Xo'tan mushki qaro tuprog'i derlar...

Furqatning mashhur «Sabog'a xitob» she'riy maktubi mana shunday satrlar bilan boshlanar edi. Shoir saboga murojaat qilib,

Ayo bodi sabo, olloh uchun tur,
O'zingni Toshkand shahriga yetkur...

deya iltijo etgan, undan qadrdonlariga bo'lgan mehru muhabbatini, sog'inchini yetkazishni so'ragan edi.

Istanbulning ma'naviy hayoti ham Furqatni loqayd qoldirmagan. Uning nasriy maktublaridan:

«Men Istanbul mamlakatig'a kelub ko'rdumki, podshohlar va tujjorlar o'g'ullarini turkcha o'qutgonda biror fransuzcha o'qutar ekanlar. Istanbul xalqi azbaroyi tijorat va muomalot fransuzcha va almoncha xat va lison bilmoqni o'zlariga lozim bilur ekanlar. Ammo bizni Turkiston viloyatlaridagi musulmon o'ruscha xat va lison bilmoqni gunoh bilurlar va foydasini nazarga olmaslar».

Bu bog'da 1914-yilning 20-iyunida Rusiya musulmonlari orasida yangi tafakkurni boshlab bergan Ismoilbek Gasprinskiy bilan Turkiston jadidchilik harakatining karvonboshisi Mahmudxo'ja Behbudiy uchrashgan edilar. «20-iyun, asr vaqti edi, — yozadi Behbudiy o'z xotiralarida, — marg'ilonlik bir mudarris janoblari ila Istanbulning gulxona parkining soyador yo'laginda yurur eduk. Oldimizda totorcha barra qorako'li telpaklik bir totor ila faslik bir turk ohistalik ila ketarlar edi. Biz tez yurub o'tduk. Ikkisi-da oshinodek ko'rundi. Bir qo'lumni ko'ksumga qo'yub, salom ishorati berib o'tdum. Ko'nglumga keldiki, bu

totor Ismoilbekga o'xshaydur. Balki anga o'xshash bir kishidur. Faslik turk bo'lsa, muharrir Hamdulloh Subhibek janoblari edi. Hanuz o'n qadam ketmab eduk, «Ey xo'ja (muallim B.Q.)!» deb, orqamdan oshino bir sado eshittim. Qalbim urub, mazkur zotni Ismoilbek hazratlari ekanligiga shubham qolmay, qaytib musofaxa (ko'rishmoq) etduk».

To'pqopi-Sultonlar saroyiga kiraman. Darvozaxonada «Zehniy» degan shoirning saroy haqidagi ilhom bilan insho aylagan «ta'rix»i.

«Arz o'dasi» (Arzxona)dan o'tishingiz bilan «Bobi saodat» (Baxt eshigi) va undan keng maydonlikka chiqiladi. So'ng esa shoh xonalari. Fotih ko'shki (Xazinai Humoyun)da oltin qoplama beshik, zumrad qadalgan kursilar, oltin shamdon, oltin taxt...

Vujudingni ham g'urur, ham iztirob qamrab oladi. G'urur Turkistondan ot surib olis Onado'lu (Anatoliya)da, yetti yot ellar orasida yangi vatanlar bino qilgan va uni chor atrofdan yopirilgan dushmandan kuch va aql bilan muhofaza etishgina emas, yangi zafarlar pillapoyasiga olib chiqa olgan qonqardoshimning shon-shavkat timsollarini ko'rmoqdan edi.

Iztirobim esa, asrlar osha insoniyat sivilizatsiyasining chorrahasida kelgan, dunyoning eng buyuk olimlaridan eng buyuk fotihlarigacha ma'vo-maskan bo'lgan Turkiston osori atiqalarining so'nggi yuz-yuz ellik yil davomida poyama-poya yo'qotib borilganligidan edi. Sohibqironning shiddat va adolatiga, dunyoni qayta tuzishdek samoviy o'ylariga guvoh bo'lgan Ko'ksaroy qani? U 1868-yilgacha, ruslar Samarqandni zabt etib, vayron qilgunlaricha bekamiko'st turmaganmidi?! Hinddan Misrgacha bo'lgan mamlakatlarni musaxxar etgan, man-man degan tojdorlarni poyiga tiz cho'ktirib, Samarqandni yer yuzining jannatiga aylantirgan jahongirning ham taxti bo'lgandir! Saroy va haramlardagi ashyolar «prokat»ga olinmagandir?! Qani ular?!

Hatto, Turkistonda Yassaviy maqbarasining darvozasi qimmatbaho va yoqut toshlar bilan bezatilganligini, ular 1864-yilda «sivilizatorlik» rolini bajarishga kelgan Rusiya tomonidan dastlab to'pga tutilib, so'ng sindirib olingani yetti iqlimga ma'lumku! Nega Ko'ksaroy buzilib, o'rniga Rusiyaning harbiy volilik binosi o'rnatildi? So'ng viloyat partiya qo'mitasi joylandi? Ta-

rixni unuttirmoq uchun. Millatni avlodlariga g'arib va notavon tanitmoq uchun. Rusiyani pushtipanoh ko'rsatmoq uchun!

Muzeyni kezarkanman, islom tarixi hamda rasulullоh bilan bog'liq aziz va muqaddas ashyolar, mo'yi muborak, xalqlarimiz hazrati Usmon va Alining, Fotih Sulton Mehmetning qilichlari har bir musulmon qalbida ezgu hislar uyg'otadi. Darvoqe, Behbudiyning «Oyna» jurnali ham «To'pqopi»da saqlanayotgan «Hirqai saodat» (payg'ambarimizning liboslari)dan Abdulqodir Giloniyning sallalarigacha bo'lgan 13 muqaddas ashyo haqida (1914-yil, 16-son) ma'lumot bergan edi.

Ayo Sufiya

«Dunyoning eng go'zal shahri Istanbuldur. Bu shaharning injusi esa «Ayo Sufiya» jomeidir». (Ziyo Abuziyo)

«Dala viloyatining gazeti» (Omsk;1895)dan:

«Ibodatxona salib shaklida bo'lib, tepasida katta gumbazi bor. Ibodatxonaning uzunligi 38 sarjin (1 sarjin-2,13 m.), eni 28 sarjin, balandligi polidan gumbazining tepa nuqtasigacha 29 sarjin».

Uni qurishda 10 ming ishchi va yuzta usta yetti yil ishlagan. Fotih Sulton Mehmet 1453-yil 30-may juma kuni, ya'ni g'alabaning birinchi kunida ilk juma namozini o'z fotih g'oziylari bilan mana shu «Ayo Sufiya»da ado qilgan. Darhaqiqat, bu mahobatli ibodatxona istilochilikning vahshiyona qoidalariga zid o'laroq buzib tashlanmadi. Turklar uni saqladilar. Devorlaridagi tasvirlarni o'chirib tashlamadilar. Besh-olti lavh o'rnatib, jomega aylantirdilar. So'ng tashqarisiga to'rtta minora qurdilar.

Shunday qilib, «Ayo Sufiya» 1847-yilga qadar muttasil jome vazifasini bajarib keldi. 1847-yilda uzilish bo'ldi. Ikki yilga ta'mir uchun bekildi. Sulton Abdulmajid da'vati bilan Fussoti nomli me'mor ikki yil ishladi. Binoning jome' qismlarini, bo'lim va qavatlari, tashqi tomoni, qubbasini ta'mirladi. Undagi suratlar asosida «Istanbul» nomli albom chiqardi. Lekin 1880-yilda g'alati voqea yuz berdi. «Ayo Sufiya» devorining u yer, bu yerida bo'yoqlar ko'chgani sezilgan edi, shoshilinch Italiyadan usta chaqirildi. Usta jome'ning oltin halli naqshu suratlarini sinchiklab ko'rgan bo'ladi va «Bularning hammasi to'kiladi,

ta'mir qilish mumkin emas, birdan-bir yo'l-suvamoq» deydi-da, yerdan qubbagacha qalin suvoq bilan suvab tashlaydi.

Zamon Turkiya uchun juda og'ir edi. Qrim, Kavkaz qo'ldan ketgan, uni qaytarib olish uchun Rossiya bilan to'qnashuvlar ketma-ket muvaffaqiyatsiz kechayotgan edi. 1828—29-yilgi urush, qars va Arzirumning qo'ldan ketishi bilan tugadi. 1877-yilda Rossiya urush ochib, Turkiyaning Bolqondagi besh yuz yillik hokimiyatiga chek qo'ydi. Turkiya Yevropadagi imperialistik davlatlarga qaram bo'lib qoldi. XX asr esa yangi tashvishlar bilan kirib keldi. Bolqon va Birinchi jahon urushi yillarida «Ayo Sufiya» xarob ahvolga tushdi.

«Dala viloyatining gazeti» (Omsk,1895)dan:

«Ibodatxonaning muqaddas suratlari zamonasining o'z san'atlariga bor mehnatlarini jo etgan eng yaxshi rassomlari tomonidan chizilgan. Ilgari devorlarda bir qismi zarhal bo'yoqlar bilan chizilgan, yana bir qismi anvoi rangin toshlardan terib ishlangan muqaddas tasvirlar porlab turar edi. Hozir esa butun-butun tasvirlarni tashkil etgan toshlar chiqarib olingan va bo'laklab chet elliklarga sotilgan. Butun suratlar har ikki yilda bo'yaladi.

Shunday qilib yetti yil davomida qurilgan va o'tmish asrlar san'atining mo''jizasi bo'lgan Sufiya ibodatxonasi deyarli barcha ziynatidan mahrumdir».

«Istanbulni fath etganimizdan buyon o'tgan 537 yil davomida, — yozadi Ziyod Abuziyo, — xristianlik olami «Ayo Sufiya» qubbasiga xoch tikmak, minoralariga qo'ng'iroqlar osmoq g'oyasi bilan yashab keladi».

Bu gapda jon bor. Behbudiy 1914-yilda Istanbuldan Edirnega o'tgan edi. U yerlarda esa yaqindagina shiddatli jang ketgan edi.

«Sayohat xotiralari»dan:

«Manzarasidan to'ymasdan choru nochor Sulton Salim (3-Salim-mashhur fotih) jome' sharifidan chiqduk. Bu jome'i sharif musulmonlar uchun eng qadrlik va aziz jome'lardandir. Chunki bulg'orlar Edirneni olganda bu jome'ni qo'lg'a olib, eshiklarig'a askar qo'yub, azon va namozga ruxsat bermay, «Ayo Sufiya» kalisosi badaliga kaliso qilmoqchi ekanlar. Bul Turkiyani bosgan Bulg'or, Serb, Qoratog' va Yunon hukumatlari orasida

ixtilof voqe' bo'ldi. Shundaykim, Edirneni olmoqqa yalg'uz Bulg'orni kuchi yetmadi. Anga yordam uchun serb askaridan 20 ming qadar keldi. Va, oxiri, ochlikdan Edirne suqut etdi (yengildi). Turk askari ochlikdan daraxtlar po'stini va giyohlar tomurini yebdurlarkim, qobug'i archilgan va tikka turgan yuzlar ila daraxtlarni ko'zum bilan ko'rdum. Askarlar ochlikdan ko'b o'lubdur. Quvvatsizlikdan bir to'p o'qini o'n qadar askar zo'rg'a to'pqa qo'yar emishlar. Bovujud shu o'lgancha, ishdan qolgan va yo qochgan askar bo'linmaydur. Shu holda bo'lsa ham shahar dushmanqa topshurulgani uchun askar norozilik qilibdur... Oxiri, loilojona suratda ochlik sababidan Shukri posho Edirneni taslim etmoqchi bo'ldi. Edirneni topshurdi. Ammo Bulg'orqa emas, serblarga... Va munung sababi Bulg'orlar ila Serb orasida ixtilof solmoq edi. Va, haqiqatda, Shukri poshoning bu siyosati dushman orasida ixtilofg'a sabab bo'ldi. Chunonchi, Turkiyadan olingan shaharlar ustida Bulg'or, Serb va Yunon orasida nizo chiqdi. Bularning orasida avvaldan yozilgan shartnoma bor edi. Serbiya u shartnomadan ziyoda haqni Bulg'ordan talab qildi. Bulg'orlar dedi: Shartnoma yuzasidan taqsim qilarmiz. Anga Serb dediki: «Edirnega askar yubormog'im shartnomada yo'q edi. Sening iltimosing bo'yincha man Edirnega askar yubordim. Va ham Edirneni manim askarim taslim oldi. Binobarin... manga ko'broq joy bermog'ing lozimdur. Bulg'orlar bunga ko'nmadi va oxirida Serb ila Yunon bir bo'lib, Bulg'orlarni urdilar. Bul asnoda Anvarbek (mashhur Anvar posho 1881–1922) to'rt kunlik yo'lni bir kunda yurib kelib, Edirneni bosib Bulg'orlardan qaytib oldi... va Sulton Salim jome'i sharifini kaliso bo'lmoqdan qutqardi...

«Ayo Sufiya» hozir muzey. Undan odam uzilmaydi. Dunyoning to'rt tomonidan keladilar. Oynadek jilolangan marmar ustunlariga, ranglar aksi-shu'lalar o'ynagan devordagi suratlarga, qarasa, do'ppi tushadigan purviqor gumbaziga kim havas bilan, kim hasad bilan boqadi.

«Ayo Sufiya»da necha asrlardirki, adabiyot, san'at obidalari ham to'planib keladi. N.Mallayev «O'zbek adabiyoti tarixi» (T., 1976) darsligida bugunda mashhur «Hibatul haqoyiq»ning topilish tarixiga oid quyidagi voqeani keltirgan edi: «Birinchi jahon urushi boshlarida turk olimi Najib Osim Istanbuldagi Ayo Su-

fiya masjidining kutubxonasida mo'g'ul tilidagi rasoil (risolalar) to'plamiga kiritilgan bir qo'lyozmani topdi. Qo'lyozma turkiy tilda bo'lib, mo'g'ulcha xatlar to'plamiga yanglish kiritilgan ekan. Topilgan qo'lyozma hali ilm olamiga ma'lum bo'lmagan «Hibatul haqoyiq» bo'lib chiqdi».

«Ayo Sufiya»da 4012-raqam bilan saqlanib kelayotgan bu asar 1442-yilda Samarqandda ko'chirilgan edi», — deb xabar beradi A.Z.Validiy.

«Ayo Sufiya»da faqat badiiy asarlar emas, muhim diniy, tarixiy ashyolar ham to'plangan. Prezidentimiz Islom Karimov Turkiyaga borganida «Ayo Sufiya» yonidagi muzeyning ana shunday xos xonalaridan birini ko'rishga muyassar bo'ldi. Unga hamrohlik qilgan Buxorodagi Bahouddin Naqshbandiy masjidi jome'si imom xatibi Muxtor Abdulla hikoya qiladi:

«Ushbu xonaga kirishlik faqat Prezident ruxsati bilan bo'larkan. Turkiya Prezidenti Turg'ut O'zol janoblari Prezidentimiz Islom Karimovga ruxsat etdilar. U xonada payg'ambarimizning muborak to'nlari sandiqqa solingan ekan. Oltin sandiqqa... Xonada salovot aytib turildi. Duo qilib turildi. Sandiq sekinlik bilan ochildi. Payg'ambarimizning muborak to'nlari mo'miyolab qo'yilgan ekan. U yerda ko'p tafakkur qilib, payg'ambarimizni ko'z oldimizga keltirgan bo'ldik. Qo'limizni ochib duo qildik. So'ngra rasulullohning muborak tishlari, sochlari, Hazrat Alining Zulfiqor degan qilichlarini ko'rishga muyassar bo'ldik. Olloh ta'oloning inoyatini ko'ringki, u yerga diyorimizdan qancha odamlar borgan bo'lsa-da, bu muborak voqeaga shohid bo'lish Prezidentimizga nasib qildi. Biz ushbu xonada qo'limizni duoga ochib, yuzimizga surtganimizdan so'ng ham Prezidentimiz yana qo'llarini ko'targancha, ko'p tilaklar qilib, keyin yuzlariga fotiha tortdilar».

Turkiyada milliyat

«Ayo Sufiya»dan Boyazid maydoniga o'tish yo'lidagi Turk o'choqi ko'chasida 2-Sulton Abdulhamid (1842—1819) turbasi (qabristoni) joylashgan. Bu sulton 1876—1909-yillarda hukmronlik qilgan. Uni «Yosh turklar» yiqitganlar. U bilan bir qabristonda turkchilik mafkurasining eng mashhur namoyanda-

laridan Ziyo Ko'k Alp yotibdi. Turkchilik aslida Turkiyadagi tanzimotning – XIX asrning 40–70-yillaridagi islohotning mevasidir. Uni shu yillari Fransiyada o'qib kelgan turk yoshlari olib keldilar. Eramizdan besh asr oldin Demokrit «Har millatning yagona bir sohibi bor. Uning oti millatdir» degan ekan. Navoiy Pahlavon Mahmudga «shamsul millati va-d-din» deb ta'rif beradi. Zamonlar o'tib 1793-da Fransiyada bu masala kun tartibiga tushdi. Shu tariqa, millat nima, uning haqqi-huquqi qanday ta'min etiladi, qanday muhofaza etiladi? Uning kamoliyu zavolini hal qiluvchi omillar nima? «Yosh turklar» millat bilan bog'liq shu xil savollarga javobni Fransiyadan olib keldilar. Ayni paytda o'z-o'zini anglash islohot uchun katta ma'naviy tayanch bo'lib xizmat qildi. Mutaxassislar fikricha, bu g'oya dastlab Turkiyada Ahmad Vafiq poshsho (1823–1891)da ko'tarilgan. So'ng Sulaymon poshsho (1838–1892) «Tarixi olam» (1876)ida uni ilgari surdi. A.Z.Validiy bu fikrni boshlab Vamberi 1868–1874-yillarda inglizlar manfaati uchun O'rta Osiyo va Usmonli imperiyasini Rusiyaga qarshi birlashtirish yo'lida o'rtaga tashlangan edi, deb hisobladi. Rusiyada esa turkchilikning tug'ilishi mashhur Ismoilbek Gasprinskiy bilan bog'liqdir. Islomchilik – panislomizm musulmonlar birligini, turkchilik – panturkizm turkiy xalqlar birligini anglatadi. Bulardan tashqari «panturkizm» degan tushuncha ham bor. U turk, mo'g'ul, finugor qavmlari ittifoqi ma'nosi» (A.Z.Validiy)ni beradi. Lekin bularning birortasi ham siyosiy birlikni ko'zda tutgan emas. Uning iloji ham yo'q edi. Buni olimlaru davlat arboblarigina emas, o'sha davr siyosiy vaziyatini har tomonlama o'rgangan ingliz harbiy ayg'oqchilarigacha qayd etganlar. Bu birlik madaniy birlik – til, san'at, e'tiqod birligi edi. Bu birlik imperialistik tajovuzlardan himoya uchun kerak edi. J.Neru «Hindistonning kashf etilishi» asarida Hindistonni inglizlar tajovuzidan panislomizm qutqarib qolganini yozadi. Ikkinchidan, milliy birlik tuyg'usi tabiiy tuyg'u edi. Turkiyalik muharrir Abdulla Javdodbey Ismoilbek Gaspraliga yozadi: «Biz har narsadan avval turkmiz, so'ngra odam, so'ngra musulmonmiz, so'ngra odam bolasimiz. Butun millatlarning afrodi manim qardoshlarimdur, manim a'zolarim kabidur. Lekin turk qavmi mening yuragimdir. Musulmonlar aqlimdir, yaponlar ko'zlarimdir, ruslar quloqla-

rimdir. Men tabibman. Xastalikni davolamoq, mening burchimdur. Lekin mening otam, onam, bolalarim xasta bo'lsa, har kimdan avval ular bilan mashg'ul bo'lishga bir quvvai g'oyiba meni majbur etadi».

Turkiyada X1X asrning oxirida «Ittihod (birlik) va taraqqiy» nomli siyosiy tashkilot maydonga keldi. U 1909-yildan partiyaga aylandi. Biroq u birlik Turkiyadagi ichki birlikni ko'zda tutardi. Bu g'oya hech qachon eskirgan emas. Masalan, 1991-yil saylovoldi shiorlaridan eng mashhuri Alp-arslon Turkeshning «Biz millatimiz birligi da'vosining, Vatanimiz bo'linmasligi iymoninig sohiblarimiz!» degan so'zlari edi. Bu tabiiydir.

Ziyo Ko'k Alpga qaytaylik. Qabristonga qadam qo'yishingiz bilan uning qabriga ko'zingiz tushadi. Yonida buloq. Qabrda yozuv:

«Ziyo Ko'k Alp bu yerda yotibdi. U o'lgan kun milliy motam kuni bo'ldi. Turk eri uning aziz vujudini voyaga yetkazganligi bilan iftixor etadi. U Vatan tuprog'iga, muborak xotirasi esa millat qalbiga ko'chdi».

1924-yilning 25-oktabrini Turkiya shunday kuzatgan edi.

Ziyo Ko'k Alp 1876-yilning 23-martida Diyorbakirda tug'ilgan. Yoshligidan tasavvuf bilan qiziqadi. Qazzoliy, Muhiddin Arabiyni o'qiydi. Ochiq fikrli ziyolilardan doktor Abdulla Javdodbek bilan tanishadi. «Ittihod va taraqqiy»ni tuzishda ishtirok etadi. XX asrning boshida «Turk yurdu (yurti)» jurnalini chiqardi. Unga ilova sifatida bosilgan «Xalqqa do'qru»ning 1913-yil 1-sonida Ziyo Ko'k Alpning mashhur Xorazmlik shoir Pahlavon Mahmud haqidagi «Polvon Vali» dostoni bosilgan. Aslini olganda, Turkiya adabiyoti va Turkiston mavzui doimiy mavzu. Masalan, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy, Bahouddin Naqshbandiy — har biri alohida bosqich. Ahmadiy (1329—1412)ning bir she'ri jahongir Temurga ma'qul tushib, uni nadimlikka tayinlagani ma'lum. Tazkiralar 1481-yilda Navoiy asarlari usmonlilar orasiga tarqalgani, jumladan shoir 33 g'azalini Sulton Boyazid 2 ga yuborganini xabar qiladi. Sulton bu she'rlarni Bursaga shoir Ahmad poshshoga (1496-y.v.) yuboradi va u 33 nazira bitadi. 1581-yilda esa Hirotlik shoir Vaziriy Navoiyning «Xazoyinul maoniy»sini olib kelgan ekan. So'ng bu aloqalar XIX asrda tanzimot davrida tezkor sur'at oldi. Nomiq

Kamol (1840–1880) mashhur «Jaloliddin Xorazmshoh»ni yozadi. Abdulhaq Homid (1852–1937), Tavfiq Fikrat (1867–1915) nomlari XIX–XX asr turkiy olamining mumtoz shoirlari sifatida tarixga kirdi. Cho'lpon ular haqida ehtirom bilan yozadi. Ibrohim Davron ularni «olamjahon» shoirlar deb ataydi. Bulargina emas, XIX asrning so'ngi-XX asr boshida deyarli har bir usmoniy ijodkori turkistonlik ziyoliga ma'lum edi. Masalan, bizdagi 1916-yilgi mardikorlik qo'shiqlaridan biri

Man bir turkman, dinim, jismim ulug'dir,
Mani qalbim otash birla to'lug'dur.
Inson bo'lgan Vatanining qulidir,
Turk avlodi uyda turmas, ketarman —

satrlari bilan boshlanar edi. Surishtirsangiz, uning turk shoiri Mehmet Emin Yurdaqulning 1912–1913-yilgi Bolqon urushi munosabati bilan yozilgan va yuqoridagi satrlar bilan boshlangan she'ridan iqtibos ekanligi ma'lum bo'ladi.

1908-yilgi «Yosh turklar» inqilobi mustabid Abdulhamid saltanatini ag'dardi. Biroq ikki yil o'tar-o'tmas, Turkiya urushlar girdobida qoldi. 1911-yilda Italiya Turkiyaga urush e'lon qildi. 1912-yilda Bolqon voqealari boshlandi va u Birinchi jahon urushiga ulanib ketadi. Shunga qaramasdan, «Yosh turklar» inqilobi Turkiyaning uyg'onishida izsiz ketmadi. Faqat Turkiyaning emas, Turkistonning ham. Buni shundan ham bilsa bo'ladiki, «Ittihod va taraqqiy» Turkistonda ham mashhur edi. Abdulla Avloniy bu inqilob haqida «Ikki sevgi» nomli tragediya boshlagan va uning ayrim qahramonlari tarixiy shaxslar edi. Bu o'rinda ham Ziyo Ko'k Alpning ta'sirini kuzatmoq mumkin. Chunki u bu inqilobning faollaridan edi. Qolaversa, bu ikki adibning inqilobga munosabatida sezilib turuvchi hamohanglik bor.

Ziyo Ko'k Alp millatning o'z-o'zini tanishi yo'lida katta xizmat qildi. Uning 1911-yilda yozgan «Turon» she'rida shunday satrlar bor edi:

Vatan na Turkiyadir turklara, na Turkiston,
Vatan buyuk va muabbad bir o'lkadir: Turon!

Bu she'r jahon taraqqiyotida salmoqli o'rin tutgan qadim turkiy xalqning o'z tarixini, qadri va g'ururini anglashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. U asos solgan «Turk yurdu» jurnalining shiorlaridan biri: «Turklashmoq, islomlashmoq, muosirlashmoq (zamonaviylashmoq)» edi. Ziyo Ko'k Alpning bu yo'ldagi faoliyati ayniqsa, 1908-yil Istanbulga kelgandan keyin «Ittihod va taraqqiy» qoshida qizg'in tus oldi. 1912-yildan yana Istanbul universitetining adabiyot fakultetida dars bera boshladi. Xuddi shu yillari bizning Abdurauf Fitrat xuddi shu universitetning xuddi shu fakultetida talaba edi.

1919-yilda esa Antanta Istanbulni zabt etdi. Faollarni turli tomonga tarqatib yubordi. Ziyo Ko'k Alp Maltaga surgun qilindi. Holsiz, madorsiz Turkiya hududini bo'lib olish boshlandi. Lekin xalq taqdirga bo'yin egmadi. Ko'p o'tmay, mamlakatni milliy ozodlik harakatlari chulg'ab oldi. Xalq inqilob, mustaqillik dardi bilan yondi.

Ziyo Ko'k Alp qamoqxonadan qizi Hurriyatga bunday yozadi:

«Suyukli qizim, inson uchun hurriyatsiz yashamoq juda og'ir. Mening ikki hurriyatim borki, bugun ikkisidan ham uzoqman. Bittasi sensan, seni bag'rimga bosganim zamon unisiga ham yetishgan bo'laman. Sening oting ham, o'zing kabi go'zaldir. Shunday zamon keladiki, insonlar ozod bo'ladilar, qalblar ozod bo'ladi, vijdonlar ozod bo'ladi. Insoniyatning bu qora kunlari so'ngiga yaqinlashmoqda. Haqiqat kuchlari g'alaba qilajakdir. Ko'rib turganimiz bu zangor osmonda porloq bir quyosh bo'lgani singari ruhlarning ma'naviy olamida ham bir quyosh bordirki, u shubhasiz, balqiyajak. Bu quyosh hurriyatdirki, nurlari haqiqat, harorati muhabbatdir va vazifasini so'rasang, adolatdir, suyukli qizim».

1923-yilda Kamol Otaturk bosh milliy ozodlik kuchlari g'alaba qildilar. Ziyo Ko'k Alp bu kurashning ham nazariyotchilaridan, ham amaliyotchilaridan edi. «Otaturk inqilobi» nomi bilan tarixga kirgan ijtimoiy o'zgarishlarda Ziyo Ko'k Alpning ta'siri g'oyat kattadir», — deydi doktor Arjumand Quron. «Otaturk inqiloblarining tamalida Ziyo Ko'k Alpning fikrlari yotadi», — deydi professor Mehmet Qoplon. Darhaqiqat, u

zamondoshlari topib aytganlaridek, millatning «butun mafkura va harakatini milliy davlat» shiori atrofiga uyushtirgan, «milliy davlat»ni «milliy iqtisod», «milliy istiqlol», «milliy madaniyat» tushunchalari bilan bir tutgan faylasuf muboriz edi.

Otaturk 1932-yilda, Sho'rolar hukumati o'z saltanatini abadiy deb e'lon qilgan bir paytda bunday yozgan edi:

«Bugun Sovetlar Ittifoqi do'stimizdir, qo'shnimizdir, ittifoqchimizdir. Bu do'stlikka ehtiyojimiz bor. Ertaga nima bo'lishini hech kim bugun aytolmaydi. Balki Usmonli davlati yoxud Avstriya – Majoriston kabi parchalanar, tarqab ketar. Bugun qo'lida g'ijimlab tutgan millatlar tutqunlikdan qutular. Dunyo yangilanar, Turkiya o'sha paytda nima qilishini bilmog'i lozim...

Bizning bu do'stimiz qo'li ostida tili bir, dili bir, o'zi bir qardoshlarimiz bor. Ularning qo'lidan tutmoqqa hozir bo'laylik. Hozir bo'lmoq u kunni jim poylab yotmoq emasdir. Hozirlanmoq lozim. Millatlar unga qanday hozirlanadilar? Ma'naviy ko'priklarni sog'lom tutmoq orqali. Til bir ko'prikdir... E'tiqod bir ko'prikdir... Tarix bir ko'prikdir...

... Aslimizga qaytaylik. Voqeliklarga to'la tariximiz bag'rida birlashaylik. Ularning (chetdagi turklarning) bizga intilishlarini kutmaylik. Biz ularga intilmog'imiz lozim...».

Istanbulda «O'zbeklar takyasi»

Istanbul ikki buyuk qit'ani – Yevropa va Osiyoni birlashtirgan shahar. Unda Sharq va G'arb o'zining betakror tajassumini topgan. Bu yil shaharning ajdodlarimiz tomonidan fath etilib, islom poytaxtiga aylantirilganiga 540 yil to'ladi. 540 yildirki, bu qadim, ulug'vor shahar bag'rida turkiy til va islomiy shukuh barq urib keladi... men esa bularga qanoat qilmay, o'zbeklarni qidiraman.

«To'pqopi»dan qaytguncha qorong'i tushdi. «Turk o'chog'i» ko'chasida qabriston. Tutash uyda chiroq, yosh-yosh yigitlar ki-rib ketishmoqda. Birini to'xtatib, savolga tutaman. Imomatlik maktabi o'quvchisi ekan. Ilohiyot darsini shu yerda o'tisharkan. Turkistonliklarni surishtiraman.

Sulton Ahmad jome'sining pastida So'qulli Mehmet poshsho[329] masjidi qarshisida «O'zbeklar takyasi» bor, «Buxorolilar takyasi» ham deyishadi. O'sha yoqqa borishingiz kerak ekan-da, izoh beradi bo'lajak imom Mehmet Jamoliddin.

Ertasiga hamma ishni yig'ishtirib, o'sha yoqqa yo'l oldim. Topish qiyin bo'ldi. Lekin «so'rab-so'rab Makkani topgan ekanlar» deganlaridek, topdim. Marmara universiteti yonida kalovlanib qolgan edim, yonma-yon joylashgan Aminul baladiyasi ma'muri Aliasqar Akoy yordam berdi. Bo'yi o'rtadan pastroq, g'o'ladan kelgan, lekin harakatchan bu odam sotsializmning qizg'in himoyachisi chiqib qoldi. Ancha bahslashib ham oldik. Dunyoning ishlarini qarang, men qoralayman, u oqlaydi.

— Turkiya yoqadimi senga?

— Turkiya cho'x go'zaldir, — mulozamat qilaman. U to'g'ri hujumga o'tadi.

— Go'zal-a — go'zal, puling bo'lmasa, ochingdan o'lasan bu yerda. Kasal bo'lsang, cho'ntagingda hemiri bo'lmasa, o'limingni kutaver, xotirjam bo'l, senga hech kim yordam bermaydi.

— Egasizlik, qozonning bittaligi jonga tegdi. Tenglik, ha-ha tenglik, ishlaganu ishlamaganning, aqlliyu aqlsizning birdayligi jonga tegdi, deyman qizishib.

— Sotsializm yomon emas, uni amalga oshirganlar yomon.

— Butun dunyoda-ya?

— Ijrochilar yomon.

— Ehtimol, deyman foydasiz bahsni tezroq tugatish maqsadida.

Sotsialist Akoy menga yo'l ko'rsatishga odam qo'shadi. Darhaqiqat, masjid uzoq emas ekan. Fotih Mehmet jome'si yonidagi maydondan to'g'ri yurgan edik, Otaturk byusti o'rnatilgan litsey ko'rindi. O'ngga burilib pastga tushdik, chapda masjid, o'ngda uch qavatli eski g'ishtin bino — takya. Rostini aytganda, men uni turkistonliklar yoxud buxoroliklar yig'ilib turadigan bir maishiy bino, samovar gumon qilgan edim,

---

[329] So'qulli Mehmet poshsho mashhur turk fotihlaridan 2-Salim davrida (1566–1574) sadri a'zam bo'lgan tadbirkor davlat arbobi. 1568-yilda Volga-Don hamda Suvaysh kanallarini qazish g'oyasi bilan chiqqan. 1579-yilda 3-Murod tomonidan qatl qilingan.

turarjoy ekan. Xarob bir ahvolda. Yashash uchun hech bir qulaylik yo'q. Tomlari teshilib, devorlari o'pirilib yotibdi. Omonat qadam bosib, u yoq bu yoqqa alanglab, odam qidirib, yuqoriga ko'tarilaman. Bir kishi ko'ringanday bo'ladi. Maqsadni tushuntiraman. Ko'rinishdan yetmishlarga kirgan horg'in bir kishi chiqib keladi. Ko'rishamiz. Faxriddin Arkman, deb o'zini tanishtiradi. Bu binoning qurilganiga 190 yil bo'lgan, bobom Shayx Abdulmajidga tegishli, — deb boshlaydi u hikoyasini. Asli buxorolikmiz, o'zbekmiz. Bobom 19 yoshida shu yerda shayx bo'lgan, 99 yoshida vafot etganlar. Otam Shayx Abdul Rahmon 58 yoshda qazo qilganlar. Men 63 yoshdaman. Fabrikada ishchi bo'lib ishladim, hozir pensiyadaman. Men tilimni yo'qotganman, tilini saqlaganlar bor.

Faxriddin og'a xijolat bo'lganday bo'ladi.

— Bobom nafaslari o'tkir bo'lgan. Naqshbandiylik tariqatiga amal qilganlar, — davom etadi suhbatdoshim. — Hamshaharlar u kishini qora tortib kelaverganlar. U kishi esa ularni shu yerga joylashtiraverganlar. Bir muddat yashab, uy-joy qilgach, chiqib ketavergan. Ahad Andijoniyni taniysizmi, mashhur jarroh, professor, u ham shu yerda yashardi. Endi hammasi katta bo'lib ketgan, hech qaysisi qayrilib qaramaydi.

Bir oz o'ksiganday bo'ladi suhbatdoshim. Keyin menga hukumat odamlariga qilganday shikoyatga o'tadi.

— Bu bino bizning pulimiz bilan qurilgan. Lekin bizdan ijara haqi olishadi. Shu insofdanmi? Ta'mir yo'q. Mana, qarang! — Shusiz ham hamma narsa ko'rinib turibdi. Uchinchi qavatda katta temir pechka. Keng, katta xona tashlandiq hovliday qarovsiz.

Eshikdan 14—15 yoshlik yigitcha kirib keladi. Oti Najmiddin ekan. Tavoze' bilan ko'rishadi. Cholga qandaydir choyshablarni topshirib, dazmollanganlarini oladi.

— Turmush og'ir, bir oyda yig'lab-siqtab 700—800 ming lira pul topaman. Go'shtning bir kilosi 30 ming lira.

Gapni oilasiga buraman. To'rt farzandi bor ekan. Ikkitasi uylik, ikkitasi o'qiydi. Xayrlashaman. Najmiddin kuzatib qo'ymoqchi bo'ldi. Chiqaverishdagi bino peshtoqiga ko'zim tushadi:

Hazrati Abdul Hamidxon adolatpeshaning
Umr ila iqbolini qilsun fuzun rabbi majid.
Mulkparvar uylari Sulton xayr andishakim,
Soyasinda kun bakun vayronalar bo'lsun chashid.
Jumladin, ta'mira pek muhtoj edi bu xonaqoh,
Etdi insho himmati-la, o'ldi itmoma rasid.
Bu imoratdir ajab, Naqshiy, dedim tarixini,
Shoh Naqshband joyini qildi bino Sulton Hamid.

Sanasi 1200 (melodiy 1786)da ko'rsatilishiga qaraganda, bino Sulton 1-Abdulhamid hukmronligi davrida (1774–1789) ta'mir etilgan. Ilgari xonaqo bo'lgan. (Demak, Arkman chalkashtiryapti). Ehtimol, u Sulton 2-Salim (1566–1574) va uning turkistonlik qardoshlar bilan aloqalarini tiklashga uringan tadbirkor vaziri So'quli Mehmed Poshsho davrida qurilgan bo'lsa. Bekorga uning jome'si bu bino bilan yonma-yon turmas. Naqshbandiylarning mavqei turk sultonlari huzurida baland kelgan. Hozirda turkiyaliklarning 8 milliontachasi bu sulukda bo'lishi, ota-bobolari bilan shu sulukda kelgan jumhurrais Turg'ut O'zolning 1993-yil sentabrda mamlakatimizda o'tkaziladigan Hazrat Bahouddin tavalludining 675 yillik tantanalarida qatnashish istagini bildirganligi bunga dalil. Xullas, bu takya Istanbulning 1453-yildan 1923-yilgacha poytaxt bo'lganini ko'zda tutsak, Turkistonning Turkiyadagi o'ziga xos vakolatxonasi vazifasini bajarib kelgan. Va, shubha yo'qki, bu tuproqqa qadam bosgan har bir turkistonlikning bu dargohga qadami tekkan. Shu jumladan, o'tgan asrdagi Furqatning, XX asr boshidagi Fitrat bosh o'nlab jadidlarning ham. Agar XV asr Movarounnahrning og'ir kunlarida Ulug'bekni qurbon bergan turkiy ilm-fanining Ali Qushchi, Mirim Chalabiy kabi aftodahol vorislari Istanbul fathidan tasalli topib, Sulton Fotih Ahmad panohiga yo'l olgan bo'lsalar, XX asrda ona Turkistonni bolshevik zulmati qoplab kelayotgan bir paytda erk va e'tiqodini hech kimga berishni istamagan jadidlarimiz Kamol Otaturk Turkiyasini qora tortib bordilar.

Peshtoqdagi yozuvdan ko'chirma olarkanman, Najmiddin har bir harakatimni diqqat bilan kuzatadi. «Qur'onni o'qiyman, buni o'qiy olmayman. O'zbekistonga borsam, o'qib keta olamanmi?» so'raydi mendan.

— O'qiysan, o'qiysan. Tasalli beraman.

Avliyoni tavof qilgandek xayrlashgani uzatgan qo'limni ko'ziga surtadi.

... Bu yerlarda o'qishning qadri g'oyat baland.

Turkistonliklar

Istanbulda 20—30 minga qadar o'zbek bor. To'y-ma'rakada yig'ilib turadilar. Shaharda shunday yig'inlarga moslangan maxsus joylar bor, shu sotib olinadi. Bizdan borganlarni dunyoning barcha mamlakatlaridagi singari bu yerda ham turkistonlik deyishadi. Bu atama shu qadar aniq va mashhur. Istanbulda turkistonliklarning mavqei chakki emas. 20—30 ming turkistonlikning 20—30 qadari doktor. Tarixchi Abdulqodir Do'nuq — shularning biri. U Istanbul universiteti professori, umumturk tarixi kafedrasi mudiri. Bu kafedrada uzoq yillar Turkistonning tutingan farzandi mashhur Zaki Validiy (1890—1970) ishlagan. U bu yerga Rusiya va Turkistondagi «inqilobiy yillar» deya tarixga kirgan qonli mojarolardan horib-charchab qaytgan edi. 1917-yil Fevral o'zgarishidan ikki oy o'tar-o'tmas, boshqirdlarning milliy davlati sifatida Orenburgda Boshqird Markaziy sho'rosini tuzgan bu tinib-tinchimas odamni 1918-yilning yanvarida shaharni ishg'ol etgan bolsheviklar 3-fevral kechasi qamoqqa oladilar. Qamoqda no'g'oylar tarixiga oid kitobini yozib tugatadi. 4-aprelda qochadi. Mujohidlar harakatini uyushtiradi. 25-mayda chexlar isyoni boshlandi. Bundan foydalangan Validiy 7-iyunda yangidan Boshqirdiston Milliy hukumatini tuzdi. Lekin 1919-yilning boshlarida sharoit tanglashdi. Yosh respublika ikki o't — oqlar va qizillar o'rtasida qoldi. Sovetlarga yon berishga majbur bo'ldi. 1919-yilning 18-fevralida shartnoma tuzilib imzolandi. 15 oy sovetlar bilan — Lenin, Stalin, Troitskiylar bilan birga ishladi. Bolsheviklar mavqelarini mustahkamlab olgan sayin shartnoma moddalaridan uzoqlasha bordilar. Zaki Validiy bu yerda kurashni foydasiz bildi va Turkistonga umid bog'ladi. 1920-yilning boshlaridan yashirin suratda tayyorgarlik ko'ra boshladi. Lenin hukumatining Boshqird Milliy Qo'shinini tarqatib, boshqa qismlarga qo'shib yuborish haqidagi qarori uning shubhalarini isbot etdi. Nihoyat,

Validiy o'sha yilning 29-iyulida pinhona Turkistonga keldi. Turkiston Milliy birligini tashkil qildi, oqu qizil barcha mustamlakachilarga qarshi keng kurashni yo'lga qo'ydi. Ular «g'alati mashhur» bo'lib, «bosmachilar» nom oldilar[330]. 1921-yilda Anvar Poshshoning kelib qo'shilishi bilan bu harakat kuchayganday bo'ldi. Biroq, shoir aytmoqchi, umid teraklari yig'ilib bordi. 1922-yilning avgustida Anvar Poshsho Baljuvonda halok bo'ldi. Bir tomondan, mamlakatni o'rab olgan ochlik, ikkinchi tomondan, Markazning g'oyat uddaburonlik bilan och qo'shinni Sharqu g'arbdan olib Turkistonga tashlashi ahvolni nihoyatda tang qilib qo'ydi. Ilojsiz qolgan Validiy do'sti Abdulqodir bilan birga 1922-yil fevralining so'nggi kunlaridan birida yashirin Eron sarhadiga o'tadilar va Mashhadga yetib keladilar. Validiy Turkistonda ikki yilu sakkiz oy turdi. Bu yillar Turkistonning so'nggi davr tarixidagi eng og'ir yillardan edi. Taqdir Boshqirdistonda tug'ilib o'sgan Zaki Validiyni turkiy dunyoning beshigi — otalar yurti Turkistonning eng qora, eng baxtsiz kunlariga yuzma-yuz qildi. U otalar yurtining erki va saodatini muqaddas tutdi, hech ikkilanmay bu uchun jangga kirdi. «Men shaxsan millatimning eng mushkul janglarida, eng qayg'uli damlarida kurash saflarida bo'lib, butun borlig'im bilan unda ishtirok eta olganimdan vijdonim oldida xotirjamman,-deb yozgan edi u. — Agar tarixda hech bir xizmatim bo'lmay, birgina shu harakatga ishtirok qilishning o'zi men uchun kifoya edi».

Validiy o'tgan ikki yilu sakkiz oy davomida Turkistonning bu yog'idan kirib u yog'idan chiqdi. 9—10 ming chaqirim yo'l bosdi. Xalqimizning hayotini ham, ma'naviyatini ham o'z ko'zi bilan ko'rdi. U yozadi: «Bu asnoda biz har tarafda xalqimizning favqulodda bir e'timodini, samimiyatini, keng qalbini, hali biror begona ko'zning nazari tushmagan ma'naviy haramida neki bo'lsa, hammasini ko'ra oldik. Xalqimizning axloq va sajiyasi haqida aytilgan va sayyohlar, xususan, ruslar tarafidan yozilgan narsalarning ko'pi yolg'onligini va ilgarilari patsifistlikka, hatto

---

[330] «Ellik ming, oltmish ming askarlar ila mukammal sipohlik, quvvatlik bir o'rduga ega bo'lg'on, muxtoriyat hukumatini qura bilgon mujodala qahramonlarini bosmachi demak haqsizlikdir», — degan edi Muhammad Muso Turkistoniy («Turkiston fojiasi», 1399 hijriy, 1-bo'lim,17-bet).

qo'rqoqlikka yo'yib kelgan xususiyatlari aslida mulohazakor, sabrli va favqulodda bosiq millatimizning vazminligi va begona madaniyat oldidagi bir nav hayratdan boshqa narsa emasligini, ayniqsa, ko'chmanchi va o'troq o'zbek-qirg'izlarda eski qoidalaru olijanoblik ruhi va qahramonligining qadim zamonlardagidek barhayot kelayotganligini o'z ko'zimiz bilan ko'rdim. Qishloqlarda yashirinib yurganligimiz sababli, tasodifan o'ris kelib qolgudek bo'lsa, onalarimiz va kelinlarimiz bizni o'z ichkarilarida saqladilar. Xotiralarida olib kelayotgan naqadar eski qo'shiqlar, hikoyalar, dostonlar bo'lsa, bizga aytib berdilar. Shuningdek, o'zbek qishloqlarida diniy mutaassiblikning kuchliligi haqidagi gap-so'zlarning ham afsonadan iborat ekanligini ko'rdik. Bunday sabr-toqat Sharqning birorta millatida yo'q. Bizga hech bir yerda hech bir o'zbek «Nega namoz o'qimaysan? Ro'za tutmaysan?» degan biror savolni bergani yo'q. Uning uchun bizning o'z xalqini samimiy sevgan, bilim va hunari bilan unga yordam berishga uringan avlod bo'lishimiz kifoya edi».

Xullas, Zaki Validiy do'sti Abdulqodir bilan 1923-yilning 12-martida Mashhadga kirib keladi. Undan Hirot, Kobul, Hindiston orqali Yevropaga yo'l oladi. 27-noyabrda Istanbulga boradi. Taklifnoma yo'g'ligi uchun kiritmaydilar. Izmir orqali Marsel, Parijga keladilar. Validiy Parijda o'nlab turkshunos, islomshunos olimlar bilan tanishadi. 1924-yilning fevralida Berlinga boradi. 23-noyabrda Berlinda Turkiston Milliy Birligining konferensiyasini uyushtiradi, jo'shqin uchrashuvlar o'tkazadi. Turkistonning ko'hna tarixidan ziroatigacha bo'lgan mavzularda qizg'in ma'ruzalar qiladi. 1925-yilning mayida Turkiya ilmiy jamoatchiligining so'rov va takliflari, mashhur Ko'pruluzodaning qattiq iltimosi bilan Istanbulga keladi. Shu yilning 3-iyulida Turkiya fuqaroligiga qabul qilinadi. Va 1979-yilning 26-iyuliga — o'limiga qadar shu yurtning fuqarosi bo'lib yashaydi. To'g'ri, buning yetti yili (1932—39) ayrim sabablar bilan Avstriya va Olmoniyada kechdi, lekin Turkiya bilan aloqasi uzilmadi. U Istanbul universiteti Adabiyot fakulteti dekani Ko'pruluzoda taklifi bilan bu yerda turk tarixi muallimi sifatida ish boshladi. Turkiston farzandi hisoblanishni eng yuksak sharaf va martaba deb bilgan buyuk olimning 40 yildan ortiq umri kechgan dargohga qadam bosarkanman, vujudimni yengil titroq

qoplaydi. Mana 317-xona. Validiyning ish stoli, mashinkasi... xona muzeyni esga soladi. Atilla tarixi ustida ilmiy ish olib borayotgan assistent Ali Ahmadbey xonadagi har bir buyum haqida soatlab gapira olgudek.

Validiy asos solgan kafedraning nomi «Umumturk tarixi» deb ataladi. Hozirgi mudiri — Abdulqodir Do'nuq. U ham turkistonlik. 43 yoshda. Buxorodan. Otasi o'zbek, onasi qozoq. 1936-yilda Eron orqali kelishgan. Abdulqodir shu yerda tug'ilgan, lekin tilini yo'qotgan. Xijolat tortadi. Ammo nihoyatda samimiy. Hamkasabalari bilan tanishtirishga harakat qiladi. Mehmet Saroyni taniyman. 1942-yilda Afyo'nda tug'ilgan. Istanbul universitetining adabiyot fakulteti tarix bo'limini bitirgan. 1968—1978-yillarda Angliyada turkmanlar tarixiga oid doktorlik dissertatsiyasi yoqlagan. 1988-yildan Istanbul universiteti professori. Turkiston bo'yicha yirik mutaxassis, Validiyning iste'dodli shogirdlaridan. 1991-yilning martida Simferopolda Gasprinskiy kunlarida uchrashganmiz. Ismoilbekning Xalqaro Istanbul fondiga mening nomzodimni tavsiya etib, qizg'in qo'llab-quvvatlagani kechagiday yodimda.

Professor kabinetiga boshlaydi (bu yerda deyarli har bir professorning o'z kabineti bor). «Rus ishqoli davrida Usmonli davlati bilan Turkiston xonliklari orasidagi siyosiy munosabatlar (1775—1875)» degan, 1990-yilda chop etilgan kitobini taqdim etadi. Kabinetdagi shogirdlari — bo'lajak besh magistr bilan tanishaman. Uning ham biri turkistonlik, o'zbek qizi. Tili zarracha buzilgan emas: 1969-yilda Hindistondan ko'chib kelganmiz, Turkistondan qachon chiqqanimizni bilmayman, bobom Munav-varxo'ja yo'l azoblarini ko'p gapirar edilar. 1981-yilda vafot etdilar, otam-onamlar bilishadi.

Ruhixonim samimiy uyiga taklif etadi, manzili va telefonini qo'limga tutqizadi. Ruhixonim iqtisod fakultetini bitirgan, tarixdan magistr bo'lmoqchi.

Abdulqodir bilan tushlik qilamiz. Mezbon hamyurtini eng e'tiborli restoranlardan biriga boshlaydi. Bir-birimizga ma'noli tikilamiz. Savol-javoblar tilga ko'chadi.

— Yurt qanday? Obodmi, ozodmi?

— Obodligini aytolmayman, ozod bo'lyapti. Lekin nihoyatda qiyin kechyapti.

— Baribir boraman!

Abdulqodir ko'zini shovqinli ko'chaga olib qochadi. Ohista qo'shimcha qiladi.

— Ota-onamning zoriga chidab bo'lmaydi. Vatan — vatanda.

Professorning ko'nglida shu topda nimalar kechganini bilmayman, lekin mening xayolimdan umri g'urbatda kechgan Muhammad Muso Turkistoniyning satrlari o'tadi:

Vatan ma'luf o'lanlar besabab tarki vatan etmaz,
Zaruratsiz jahonda kimsa g'urbat ixtiyor etmaz.
Sababini ham shoir aytgan edi:
Chiqolmay ko'rdigim haqsizliga tarki vatan qildim,
O'rus zulmi-la jismim yoradur qat'i chaman qildim.

Darvoqe, muhojir o'shlik Mirsolih mahdum ham Vatan ishtiyoqini qasidaga solib yetkazib aytgan:

Biz ul oshiqlariz, ma'shuq ko'yidan chekilganiz,
Biz ul majnunlariz, Layli arab har so'da sarsoniz.
Biz ul Farhodlariz, Shirin g'amida talxikomoniz,
Emas Yusuf, vale Yusuf kabi mushtoqi Kan'oniz.
Vatan ozod, millat rohatina jon fidoyoniz,
U mushfiq modaring, ya'ni Vatan hajri-la dilqoniz.

Biza davri falak idborini bu dam shior etsa,
Bu kun abri siyohin savq ila davri mador etsa,
Bu kun boroni zulm ila jahonni tor-mor etsa.
Na mushkul davr iqboli yarim davlat nisor etsa,
U damda har birimiz dushmana go'yo bir arsloniz,
Vatan qasdi-la dushman qarshisida sheri g'arroniz.

Icharmiz suv yerina vaqti-la dushmanlaring qonin,
Olurmiz intiqoma begumon bir jona ming jonin.
Mukofotin berurmiz bo'yla qilg'on zulm tug'yonin,
Kesarmiz bo'yni yanglig' bix naxli botil imonin,
Biz ul dushmanshikan ul qahramon turklarga o'g'loniz,
Biz ul avlodi Turkistonki, Turkistona qurboniz.

Vatan xoki biza har zarrasi go'yo aziz jondur
Ki har bir zarra millat qoni-la yoqutu marjondur,
Chekilmaz harbi dushman bog'i rohat sahni maydondur,
Vatan shavqi ila har lahza, har dam jon siporaniz,
Bu yo'lda qon to'kulsun, jon qirilsun shodu xandoniz.

Vatan – jannat, vatan – rohat, vatan ayshu vatan – ishrat,
Vatan bog'u vatan – gulshan, vatan – g'ayrat, vatan – davlat,
Vatan – shonu sharaf nav'i basharga boisi rif'at,
Vatansiz millata boq, el qoshinda bormi bir qimmat,
Vatan ishqi ko'ngulda vor ekan, to tanda bu joniz,
Vatan sevmak bizimcha din erur, biz – ahdi imoniz.
Jimgina universitetga qaytamiz.

Universitetning haybatli arki oldidagi Boyazid maydoniga yo'l olamiz. Har kun ko'radiganim, ulug'vor peshtoqdagi «T.J. Istanbul universiteti. 1453» yozuviga qarayman. Pastroqda qur'on oyati: «Inna fatahna laka fathan mubinan» (Biz buni sen uchun ochdik!). «Fath» surasidan birinchi oyat.

540 yildan buyon bu dargoh ilmu fanga, dinu diyonatga maskan bo'lib keladi.

Ro'parada–Boyazid maydonidagi ko'chabozorda semiz korzinkalarini oyoqlari ostiga olib vilka-qoshiq sotayotgan turist o'zbeklar ko'zga tashlanadi. Ixtiyorsiz ikkalasining ahvolini solishtirib ketaman. Axir bizga «Senlarni Sho'ro hukumati odam qildi» deb o'rgatmaganmidilar. Toshkentda uchratganim Saudiyalik stomotologiya poliklinikasi egasi Zuhriddinni, jarroh professor Ahad Andijoniyni qaysi sho'ro hukumati voyaga yetkazdi ekan? Zaki Validiyning munosib izdoshi professor Abdulqodirni-chi? Nega inqilob yillarida yurtdan muhojir bo'lgan bir million 900 ming turkistonlik orasidan birortasi chetda o'g'irlik qilib qo'lga tushmaganu, bugungi O'zbekistonda o'g'irlik va qaroqchilik oddiy holga aylanib qolgan? 70 yil riyokorlik va aldovlar ichida yashaganingni his qilmoqdan ortiqroq azob bormikan dunyoda.

Boqing, ey do'stlar, bizga musibatlar nadin keldi?
Balolar yog'di boshga, muncha g'urbatlar nadin keldi? –

deya boshlanar edi taqdir shamollari Istanbulga olib borib tashlagan qo'qonlik Orif Oynural (1907–1988)ning hijratdagi g'azallaridan biri. Darvoqe, u kishining o'g'illari Solihbey (Solijon) Oynural iqtisod doktori. U ham Istanbul universitetida dars beradi.

Solijon bilan bozor aylanamiz. Qator ketgan turkistonliklar do'koni. Sobir Sayhonni eshitgansiz, bunisi Shavkatjon, bunisi Hasanjon, uning ukasi Jaloliddin, – tanishtira ketadi Solijon. Sobir akaning do'koniga kiramiz. Lahzada «urchuq» kabob bilan apelsin sharbati paydo bo'ladi.

Ko'cha to'la «urchuq» kabob. Elektr pechlarda yog'lari charsillab, go'sht o'ralgan urchuq aylanib turibdi. Kabobpaz urchuqni to'xtatib, pichoq bilan yengil yo'nib oladi. So'ng nonni shart yorib ko'kqalampir qo'shib ichiga bosadi. Kabob tayyor.

Sobir Sayhon ko'pni ko'rgan va so'zamolgina kishi. Yozib ham turadi.

– Biz azobni ko'p ko'rdik, deydi u o'tmishni hikoya qilarkan. – Lekin hammasidan ham bir voqea juda og'ir botdi, o'zingniki tosh otsa ko'tarolmas ekansan.

– O'n yilcha bo'ldi, davom etadi Sobir aka. Ko'chada bir hamyurtimni uchratib qoldim, ko'kragi to'la temir. Mayli, unisi o'zining ishi. Ishonasizmi, ko'zimga avliyoday ko'rindi. Lekin qani salom berib, qo'lini ola olsam. O'zbekligimni bilib, itdan qochgan lo'liday o'zini tortsa-ya. Vatanimdan darak keltirgan, isini olib kelgan yurtdoshim deb izidan yuguraman, u qochadi. Oldin xo'rligim keldi. Keyin alam qildi. So'kib-so'kib qaytdim...

Yaxshi kunlar kelyapti, inshoolloh hammasi yaxshi bo'lib ketadi, deydi ishonch bilan Sobir Sayhon.

Negadir Istanbulning mol-matoh sig'magan ko'chalari, g'ildirakli bahaybat qoplar, chemodanlarni sudrab yurgan sobiq sotsialistik lagerning turistlari xayolimga keladi. Gapni Turkiyadagi to'kinlikka buraman. «To'kinchilik hali saodat emas, deydi kesib suhbatdoshim. Va bir narsa esiga tushganday qo'shib qo'yadi. Iltimos, vatandoshlarga ayting. Birinchidan, ul-bul narsa olib kelib ko'cha-ko'yda sarg'ayib, o'zlarini xor qilmasalar. Avvalo, ular keltiradigan bir-ikki buyum bilan birlari ikki bo'lmaydi, lekin o'zlarining, binobarin, yurtning sha'ni

oyoqosti bo'ladi. Ikkinchidan, duch kelgan joydan mol olmasalar, bu ham o'zini bilganga ayb. Chunki ular qo'ldan-qo'lga o'tib, sovuqchoyдek bo'lib qolganlar. Nihoyat, bu yerda ko'chadagilarning o'ndan to'qqizi kelgindi — sayohatchi desam, mubolag'a bo'lmas. Har yerda narsalarini yo'qotib, tubjoy xalqdan gumondor bo'lmasinlar». Bu — nozik masala.

Jahon o'zbeklarining shu yil sentabrda Toshkentda bo'lib o'tgan yig'ini materiallari va Erkin Vohidovning «Agarchi ismim Erkin, erki yo'q bandi kishan bo'ldim» deb boshlanadigan «Vatan umidi» she'ri bosilgan gazetani beraman. Mamnuniyat bilan oladi. O'z navbatida qo'limga «Chet ellarda yashovchi Turikistonliklarga» yozilgan murojaatni tutqazadi. Arab imlosida. O'n ikki bet, fotonusxa. Sobir Sayhon imzosi bilan 1991-yilning 10-fevralida yozilgan. Mehmonxonaga qaytgach, o'qishga tushaman. Biz vatanda turib unuta boshlagan vatan va millat tuyg'usini chetda yurtdoshlarimiz qanday saqlab qolganliklari biroz ravshanlash-ganday bo'ladi:

«Haqiqiy vatanga vafo, yorga vafo, ahd-so'zga vafo bizlar uchun vijdoniy qarzdur, — deb yozilgan edi unda, chunki bizlar vatanga so'z berib, dushman bilan yaqolashib, yurtimga qaytaman, Xudo xohlasa, deganlardanmiz...». Vatan va millat ular uchun din-diyonatdek muqaddas edi. «Dunyoda makon, oxiratda — iymon, degan ota so'zi bizlar uchun bir ma'ni ifoda qilishi kerak. Muqaddas diniy iymon yonida milliy iymonni ham birgalikda olib yurishimiz darkor».

Ular vatanni yuraklariga ko'chirgan edilar. Ayni paytda, olisdagi Turkistonning taqdiri ular uchun begona emas edi. Xususan, unga diniy, milliy xizmat qilish, bu yo'lda moddiy-ma'naviy kuchlarni birlashtirish fikri ko'tarilib, 11 moddadan iborat taklif-mulohazalar ham o'rtaga tashlangan edi. Bular orasida chetdagi turkistonliklarni fikran tarbiyalash, birlashtirishga xizmat etuvchi jamiyat, kitobxona, mehmonxonalar bunyod qilish, eskilarini ta'mirlash, keksa, xasta, yolg'iz yurtdoshlarga yordam uyushtirish, milliy talabalar masalasi, 2 yilda bir qurultoy chaqirish, Turkiston tashvishlari bilan jahon afkor ommasini tanishtirib borish, jumladan, «tarixiy ibodatgoh va milliy asarlar ta'miri uchun dunyo afkori umumiyasiga murojaatnomalar va hatto mumkin bo'lsa, dodnoma va shikoyatnomalar nashr qilish» kabilargacha bor edi.

Muallif bu ishlarni «yolg'iz» vatanparvarlik taronasi» bilan bajaraman deyishlik xayolparastlik ekanligini yaxshi anglaydi. Ziyofatlarda dabdabali nutq so'zlab, ishda qochib yurish, uningcha, «ikkiyuzlilikdan boshqa narsa emas». «Tanbur, dutor chertib, san'atcha kuylaganda, milliy musiqaga berilib yig'lamoq, palovxonto'ra haroratini bostirish uchun piyolada choy icha turib voh-vohlab, kekirib, yakka-yakka so'z qilmoq bilan kishi vatan va milliy da'vo uchun xizmat qilib qo'ygan bo'lmaydi».

Murojaatda xalqimizning yuz yillik dardlaridan to'y-to'zg'i, marosimlardagi isrof ham qo'zg'algan, «yurti, xalqi, qavmu qarindosh, urug'-aymog'i asoratda yotgan yetti pushti ma'lum kishilar xo'jako'rsinu zavqi isroflar bilan asolat unvonini sotib olishlari mumkin emas», deyilgan, bunday xarajatlarning eng kami yuzdan ikki yarmini milliy xazinaga topshirish so'ralgan edi.

Istanbul va umuman Turkiyada yashovchi turkistonlilarning har bir oiladagi kishi boshiga bir dollardan ajratib, milliy xazina atash va bu masalani boshqa mamlakatlardagi vatandoshlar orasida ham muhokama qilish taklif etilgan edi.

Murojaatda chetdagi turkistonlilarning yashab turgan joylaridagi qonunlarga hech qanday «qaydsiz, shartsiz rioya» qilib kelganliklari, hech qanday siyosiy mojarolarda qatnashmaganliklari, «tuzini yegan xalqlarga hech qanday xiyonat qilmaganliklari», binobarin, ularning molu joni qanchalar haqli bo'lsa, orzu intilishlari ham shunchalik asosli ekanligi aytilgan edi.

Universitetga xayrlashgani boraman. Adabiyot fakultetiga o'tib, uchinchi qavatga ko'tarilaman. Abdulqodir Do'nuq xonasiga bosh suqaman. Assistenti Muallo Uydu qarshi oladi. Muallo — turk qizi, 23—25 yoshlarda, magistrlik harakatida. «Turklarning islomiyatni qabul etish sabablari» mavzuida ish olib boradi. 61 sababi bor, deydi, sanab ketadi. Istanbul universiteti Turkiyaning eng eski universiteti, hozirda 11 fakultetida 55 ming talaba o'qiydi, deydilar. Shundan 8 mingtasi adabiyot fakultetida ekan. Tarix shu fakultet bo'limi, unda 600 student o'qiydi. Har kursda 150 tadan. Magistrlikka bir kursdan 2—5 dona oladilar xolos, deydi Muallo.

Talabalar kirishadi. Pastda 1800 liraga olganim «Hurriyat» gazetasini varaqlayman. Birinchi betida chap burchagida Kamol

Otaturk rasmi, davlat bayrog'i. Pastida «Turkiya — turklaringdur (turklarnikidir)» degan yozuv. Darvoqe, biz bu nomni yevropacha qilib urg'usini birinchi bo'g'inga qo'yib aytar ekanmiz, o'zlari Turkiya (urg'u i harfida) deyishar ekan.

Muallo Abdulqodirning stoli ustidagi jadvalga ko'z tashlab, darsda, hoziroq kelib qoladilar, deydi. Beixtiyor stoldagi yozuvga ko'zim tushadi.

Gelin, tanish o'lalim,
Ishi qulay qilalim,
Sevalim, sevilalim,
Dunya kimsaya qolmas.

(Kelinglar, tanishaylik, ishni qulay qilaylik, sevaylik, sevilaylik, dunyo kimsaga qolmas).

Shayxul mashoyix Ahmad Yassaviyning XIV asrda yashagan Kichik Osiyodagi iste'dodli izdoshi Yunus Emro (Hamro)ning ushbu satrlari hozir ham bu yerlarda mashhur.

Abdulqodir qo'ymay uyiga taklif etadi. Ota-onasi shu kunlarda Amerikada ekan. Kelishini kutibdi, ertaga qaytishimni bilgach, qo'ymay uyiga olib ketdi. Chetda mehmonchilikning ma'lum tartibi bor, shekilli. Agar bugun kechqurun ziyofatga aytishadigan bo'lsa, tushdanoq qo'ng'iroq qilib ovqat yeb qo'ymasligingizni iltimos qilishadi. Abdulqodirnikiga deyarli to'satdan bordik. Qizi O'lkixon.litseyda, o'g'li Bilka maktabda o'qiydilar. Xotini turk qizi Ruqiyaxonim o'zbekcha osh tayyorladi. Gap tarixga, adabiyotga ko'chadi. Istanbulda turkning ulug'lari qatorida Qashqarli Mahmud (Mahmud Koshg'ariy) va Navoiy nomida ham ko'chalar bor ekan. Cho'lponning bizda nashr etilgan «Yana oldim sozimni» kitobini taqdim etaman. Shoir rasmini ko'rgandan taniydi, Istanbuldagi mavjud manbalarini xotirlay boshlaydi. Uning o'zi qadimgi davr mutaxassisi. «Eski turk unvonlari» (Istanbul, 1989), «Turk hukmdorligi» (Istanbul, 1990), «Eski turklarning davlat tuzumi» (Istanbul, 1990) kitoblarini, xunnlar, ko'kturklarga doir o'nlab maqolalarini, yabqu, qoon, xoqon, bek singari qator qadim turk unvonlari haqidagi ko'plab tadqiqotlarini mutaxassislar yaxshi biladilar.

Agar yana kelish nasib etsa, Navoiy so'qoqi (ko'cha)ni ko'rishga ahd qilib xayrlashaman. Abdulqodir mehmonxonagacha kuzatib qo'yadi. Ahmad Zaki Validiyning men uchun g'oyat qimmatli bo'lgan ikki kitobini «Umumturk tarixiga kirish» kitobining birinchi jildini (Eng eski davrlardan XVI asrga qadar, uchinchi nashr, Istanbul, 1981-yil) va «Bugungi turk eli — Turkiston va yaqin tarixi»ning birinchi jildini (G'arbiy va Shimoliy Turkiston, 2-nashr, Istanbul, 1981-yil) taqdim etdi. Quvonchimning cheki yo'q edi.

Ertaga yo'l. Narsalarni yig'ishtiraman. Ertaroq uxlash kerak. Xonaning bitta chirog'ini uch-to'rt joydan yoqib o'chirsa bo'ladi. Kirganda — bir, vannaga o'tganda — bir, yotganda — bir. Butun boshli lyuks xonada birgina rozetka bor, u ham balandda — qopqoqli. Asosiy maqsad isrofning oldini olish. Bu yerda biror chiroq behuda yonmaydi. «Sizda bu gaplar hali zamon boshlanadi, deydi yo'lda orttirgan, sovet turmush tarzini yaxshi bilgan bir tanishim. Elektr narxini ehtimol shu yaqin yillarda o'n-yigirma baravariga oshirishga to'g'ri kelar». Iqtisodchi, Istanbuldagi «UTIM» (O'rta Sharq tijorat va ixrojot markazi) mutasaddisi Nevzatbeyning Simferopolda Gasprali yig'inidagi «Sizda hech bir narsa qiymatiga ko'ra sotilmaydi, iymatdan oylikkacha isloh kerak», degan tanbehi esga tushadi.

Ko'pqavatli uylarda, hatto universitet binolarida liftlar qulf-kalitlik. Asrash kerak. Duch kelgan odam duch kelgancha yura-vermasligi kerak, — deydilar. Darvoqe, yozuvlari ham ko'pi turkcha: dur (tur) — stop (chaqir), qat (qavat), imdot (yordamga chaqirish), majhul (band). Qaysi kun o'zbek Solijonga magnitofonni tushuntira olmadim. Qayd deyisharkan. Xuddi o'zi, qayd etmoqdaman. O'zbekcha tushuncha — atamalardan qanchalar chiqib ketganmiz. Tilimiz yo'qolayotgan edi, — desak, qo'ysangizchi, buncha vahima qilasiz, deguvchilar haliyam topiladi.

Qora dengiz bo'ylab

Har yaxshining bir lekini deganlaridek, aeroflotning Istanbul-Moskva reysiga belgilangan kun chiqa olmadim. Borgan kunimdan harakat qilsam ham to'g'ri bo'lmadi. Richaglar «ulug'

og'a»miz qo'lida emasmi, «sovet ish prinsipi» bilan ish ko'rildi. Bo'sh joylarga «o'zlarining odamlari» va «yo'lini qilganlar» joylashdi. Meni kuzatib chiqqan Solijon oshkor poraxo'rlikni, millat ajratishni ko'rib tutaqib ketdi. Alamini yordamchi xizmatda turgan turklardan olib, meni tashqariga boshladi. Oilasi shu kunlarda Amerikada ekanligini, bir haftagacha uyi mening ixtiyorimda bo'lishini, barcha ta'minotimni o'z zimmasiga olishini aytdi. SSSR atalgan mamlakatdagi ilmning qadrsizligidan nomus qilib ketdim, minnatdorchilik bildirib, avtobusga chiqarib qo'yishini so'radim. Taksi ushlab To'pqopiga keldik. O'zbekcha xayr-xo'shlashdik. Avtobus meni kutib turgandek tayyor ekan. Chiptani olib, chiqib joylashdik. Katta avtobusda besh-olti odam. Solijon tanishtirib qo'ydi. Soat birlarda yo'lga tushdik. Trabzongacha 17—18 soat. So'ng Botumigacha yana 7—8 soat, jami 25 soatlik yo'l. Bir hisobda yaxshi ham bo'ldi.

Turk birodarlar bilan darrov kirishib ketdik. Umuman, bu yerlarda qardoshlik tuyg'usi benihoya baland. O'zbekistonlikka mehr alohida. Ilmlik odamni juda aziz tutadilar. Tarixchilarni ayniqsa, turkistonlik ilm egasi borib qolguday bo'lsa, o'tqizgani joy topmaydilar. Yonimdagi biznesmen Sanjoqbey, orqa o'rindiqdagi trabzonlik dehqon halil Yildirim, oldinda o'tirgan Istanbul texnika va industriya litseyi muallimi Jalol Chaqir tinmay O'zbekiston haqida so'raydilar. Deyarli har bir gap O'zbekistonning yangigina olgan mustaqilligiga kelib bog'lanadi. Yaqindagina Toshkentdan Prezidentimiz bilan uchrashib qaytgan, oldin «El» yig'inida, so'ng Navoiyning 550 yillik tantanalarida ishtirok etgan Nevzatbeyning Istanbuldagi ziyofat asnosida aytgan so'zlari esga tushadi: O'zbekiston mustaqillik e'lon qilib, o'z shijoatini ko'rsatdi. Endi shijoat navbati Turkiyanikidir. Hammadan oldin O'zbekistonni biz tanishimiz kerak. Bu bizning ham haqqimiz, ham burchimizdir.

Mashhur Kampanellaning (1568—1639) insoniyatning kelajagi haqidagi «Quyosh o'lkasi» asarini eshitmagan kishi kam bo'lsa kerak. Lekin undagi mana bu so'zlarga ko'zingiz tushganmi:

«Yashayotganimiz shafaqsiz kechaning tongga ulanishini istamayman. Bunday tongning oxiri yana kechadir. Chunki

zindonning tashqarisida — zulm. Zulm esa hurfikrlilarga faqat oqshomni va'da etadi.

Men bir quyosh o'lkasining hasratini chekaman. Bu o'lkada kecha bo'lmasin, insonlar zulmat nimaligini bilmasinlar!

Quyosh o'lkasini yer yuzida topmoq mumkinmi? Loaqal ertaga shunday o'lkaning bunyod bo'lishiga meni ishontiryapti. Hamonki, tafakkurni zindonband qilmagan, haqiqatga bo'lgan muhabbatiga zanjir urmagan bir millat, u jasur va odil turklar bor ekan, nechun birgina haqiqat, adolat, hurriyat hukm suradigan «Quyosh o'lkasi» ertaga bunyod bo'lmasin?!»

Yevropa bilan Osiyoni bog'lagan Fotih ko'prigidan (bunday ko'prik ikkita) o'tyapmiz. Ko'prik bir chaqirim atrofida. Baland-past tepaliklar ustiga qurilgan shahar undan g'oyat ulug'vor ko'rinadi.

Xuddi shu yerdan 2500-yil muqaddam Axmoniylar sulolasining dongdor tojdori Doro o'zining 700 ming kishilik qo'shini bilan Osiyodan Yevropaga o'tgan. Mashhur Gerodot bu voqeani shunday hikoya qilgan edi: Shoh Samoslik Mandroklga bo'g'ozning eng tor joyida ko'prik qurishga farmon berdi, o'zi esa sohilning har ikki tomoni kaftdagidek ko'rinib turadigan baland qoyaga chiqib, kuzatib o'tirdi (milodning 2-asrida yashagan Vizantiyalik Dionisiy «Bosfordan o'tish» asarida qoya tepasida Doro uchun yo'nib tayyorlangan tosh kursi hanuz saqlanib turganini xabar qilgan edi). Mandrokl bosh bo'lib juda qisqa muddatda kemalarni bir-biriga ulab, 750 metrlik ko'prik qurdilar. Adadsiz qo'shin ko'prikdan bexatar o'tib, skiflar ustiga yoprildi.

Skiflar(yoxud skidlar)ni ayrim tarixchilar, eroniylar guruhidan edilar, deb qaraydilar. Laslo Rasoniy «Tarixda turklik» kitobida yozishicha, Herodot ularni shimoldagi Arimasp qavmidan deb biladi. Laufer Nemich fikricha, Arimasp mo'g'uldir. Richkofen, Vesner kabi olimlar uni turk hisoblaydilar. Biz ularni saqalar, ya'ni turkiylar edilar, degan fikrga moyilmiz. Va gap o'sha qadim Eron — Turon jangu jadallari haqida ketmoqda deb hisoblaymiz.

Bu joylar afsonalarga to'la. Eski yunon asotirlari orasida ham ularni istagancha topasiz. Odisseya, Argonavtlar sayohati-

yu daydi qoyalar haqidagi rivoyatlar mana shu bo'g'oz bilan bog'liq.

Bo'g'ozdan chiqqach, kemalar Sharqdagi eng chet dengiz porti Fasisga (hozirgi Botumi va Poti o'rtasidagi bir joy) yo'l olishgan. Kolxida shohi Eet xazinasida ajdaho qo'riqlab turgan sehrli qo'yning oltin terisini o'g'irlab kelish uchun yo'lga chiqqan argonavtlarning marshruti ham shunday edi.

Keyingi 20 ming yilda dengiz 90 metrcha tushgan, hatto O'rta yer dengizidan ajralib (Bosforning chuqurligi 50 metr) ko'l bo'lib qolgan. Biroq so'nggi o'n yilda muttasil ko'tarilib, ilgarigi me'yoridan ham oshib ketdi, hatto qanchadan-qancha shaharlar suv ostida qolib ko'zdan nihon bo'ldi. Chindan ham shoir aytmoqchi:

Bu dunyo eskidandur sahnai bedod shaklinda...

«Hurriyat» gazetasining 1991-yil 18-oktabr sonidan: «9 oyda 324 mlrd lira kelib tushdi. Fotih Mehmet ko'prigidan 16 mln mashina o'tdi. O'tish haqi: 139 mlrd 644 mln 644 ming 887 lira».

Bu yerda yo'l uchun, ko'prik uchun pul to'lanadi. Har yer, har yerda bir to'xtab o'tadigan joylar bor. (Yaxshi an'ana, o'zaro qadr uchun ham bu narsa kerak).

Avtobusimiz turk-yapon hamkorligida chiqqan. Nomi, adashmasam, «Maraton» edi. 60 tacha kishi ketadi. Har bir kresloda ilgak, ushlagich, to'rxalta. Axlat idishdan ventilyatsiyagacha, ovqattaxtagacha bor. Har kreslo uchun alohida chiroq. Har ikki-uch qatorda reproduktor.

To'xtash, yurish oldidan xizmatdagi yigit qo'lingizga limon suvi quyadi, yangilangandek bo'lasiz.

Avtobus to'xtadi. Kattaroq bekat shekilli. Yonimda gap berib kelayotgan Sanjoqbey soatiga qaradi, ungacha yo'l yoqasidagi masjiddan azon ovozi yangradi. Hamma peshin namoziga tushib ketdi. Qo'shilib-qo'shilolmay, uzilib-uzilolmay qoldim. Bu holni sovet tarbiyasini ko'rgan kishigina anglay oladi.

O'zimni magazinlar bilan chalg'itaman. Darvoqe, bekatlardagi xizmat joylari—magazin, oshxonalar kechayu kunduz ishlar ekan. Televideniening ham bir programmasi tinmaydi, deydilar.

Shahar tugab, qishloqlar boshlandi. Makkajo'xori ekilgan dalalar, yo'llarda chiroyli terib qo'yilgan qovoqlar, tomlar ustida

jun yoyayotgan erkak-ayollar... Iqtisoddan, siyosatdan suhbatlar. Sanjoqbey tinmay bugungi O'zbekiston haqida so'raydi. Shodlikni bo'lishsang ko'payadi, qayg'uni bo'lishsang ozayadi, degan edi bir yosh qozoq yozuvchisi Olmaota fojiasi munosabati bilan. Biz, qardoshlarning yaqinlashuvimizga jon-jahdlari bilan qarshi turganlar, Turkistonni to'rtga bo'lib, bu yoqdan Turkiyaga, u yoqdan Yorkantga devor tortganlar buni yaxshi bilganlar.

Safar har qancha maroqli bo'lmasin, kishi vaqtning hukmiga bo'ysunishga majbur. Kechasi soat birdan oshganda uyqu bosa boshladi. «Uyu! Uyu! (uxla, uxla)» deydi suhbatdoshim mehribonlik bilan. Endi ko'zim ketgan ekan, qo'shnim turtib uyg'otdi. Yo'lda bir mashina charsillab yonib yotibdi. Sal oldiroqda bo'sh avtobus. Uchqunlar otilib yo'lga tushadi. Charsillaydi. Yaqinlashganimizda gumburlagan bir portlash bo'ldi. Hamma o'rnidan turib ketdi. Gech! Gech! — deb baqirishdi. Shitob bilan yonidan o'tdik. Xayriyat, boshqa portlamadi.

— Avtobusmi? — so'rayman.

— Kamiyon! Kamiyon! — deyishadi.

Tushunavermayman. Yuk mashina bo'lsa kerak-da. Uyqu ketdi, albatta. Soat ikkilarda Samsunga yetib keldik. Dengiz bo'yiga chiqdik. Bu yog'iga dengiz yoqalab ketamiz. «Samsun Turkiyadagi 72 viloyatning biri. 400 ming atrofida aholisi bor...» — davom etadi suhbatdoshim.

Bu shaharning qadim nomi Amis. Uning yunonlar mustamlakasi bo'lgandan keyingi 2200—2300 yillik tarixi ma'lum. Flaviy Arrian (95—175) uni afinaliklar qanday egallaganliklarini yozib qoldirgan. Strabon (mil. av. 64 — mil.24) bu shaharning afsonaviy ayol jangchilar — amazonkalar makoni bo'lganini, afinaliklar shaharni olib, nomini Pirey qilib o'zgartirganliklarini ma'lum qiladi.

Yo'l juda og'ir: ensiz, qayrilishlar — keskin, tushib-chiqishlar — tik, bir tomon — tog', bir tomon — tubsiz jarlik. Tong qorong'isida juda vahimali ko'rinadi. Kunduzlari juda go'zal bo'lsa kerak. Strabon, bu yerlarning manzarasini ayirib bo'lmaydi, faqat ko'rish kerak degan edi... Sanjoqbey meni yolg'iz qoldirib, haydovchining yonidagi bo'sh joyga o'tiradi, uni gapga soladi. Uyqu bosmasin, deb xavotirlanadi shekilli.

Ertalab sakkizlarda 19 soat yo'l yurib, nihoyat Trabzonga yetib keldik. Sanjoqbey Botumiga ketadigan avtobusning haydovchisiga meni o'z qo'li bilan topshirib, xayrlashdi.

Botumiga avtobus 12 da jo'naydi, 4 soat vaqt bor. Narsalarni omonatxonaga topshirib, shahar aylanaman. Qadamda magazin. Oziq-ovqatga ko'z tashlayman. O'rab berishda ham gap ko'p-da. «Patates chipsi» deb qo'yibdi. Kartoshkaning qovurilgan yaprog'i. Chiroyli yaltiroq qog'ozga o'ralgan. Ko'rganda og'zingning suvi qochadi. Qovurilgan pista, no'xot 300 grammdan qilib, ixcham yaltiroq xaltachalarga joylangan. Narxi ham joyida. Masalan, pista 10 ming lira (demak, bir kilosi 8 dollar atrofida), no'xot – 3500.

Tog' bag'rida qadim imoratlarning izlari ko'zga tashlanadi. Bu tengi shaharlarning nomi o'zgarmagani kam. Lekin Trabzon 2500 yildan buyon o'zgarishsiz keladi. Shaharning qancha qismi suv ostida qolgandir. Mutaxassislar keyingi 2 ming yil davomida dengiz sohil tomon 100 metr siljiganini ma'lum qiladilar.

Bu sohil 3 ming yillik tarixni o'z bag'rida saqlab keladi. U 700 yil bizanslarning (vizantiyalilarning) Trapezunt saltanatiga poytaxt bo'ldi. Qora dengizga qadam qo'ygan biror sayyoh yo'qki, uni aylanib o'tgan bo'lsin. U Strabon, Arrian kitoblarida juda keng yoritilgan. Darvoqe, Germaniyada o'qigan va qatag'onlarni ko'rib yurtga qaytmagan o'zbeklarning ko'pchiligi shu yerda o'z faoliyatlarini davom ettirganlar.

Trabzon – Botumi 190 km. Lekin harakat kuchayib, yo'l zichlashib boradi. Sanjoqbey o'rnini Murodbek egalladi. Trabzonda o'z mehmonlarim bor, deydi. Kamgap, hojatmand, xudojo'y odam ekan. Botumiga qadar musofirlarning birortasiga xarajat qildirmadi, o'g'li Botumida o'qir ekan. Yunus O'rol va Husayn Varliy degan ikki cholni olib Tiflisga ketyapti. Pulimga masjid qurib beraman, deydi. Husayn ota 73 yoshda, Yunus ota esa 82 yoshda. Lekin bardam, harakatchan. Bular – ikkalasi usta ekan. Bularning himmati ham, g'ayrati ham bizning tasavvurga sig'maydi. Chunki biz keyingi yetmish yilda millat sifatida juda ko'p narsani yo'qotdik. Himmat va g'ayrat shulardan biri bo'ladi.

Chap tomon dengiz, o'ng tomon o'rmon. O'rmon yastanib, tog' bag'irlab yuqoriga ko'tarilib boradi. Dengiz ham go'yo asta-

sekin osmonga ko'tarilib, ko'k bilan qo'shilganday. To'lqinlar uzoqdan beshikday tebranib keladi-yu, yaqin qolganda shitob bilan qirg'oqqa yuguradi. Zarb bilan sohilga urilib, osmonga sakraydi. Dengiz qop-qora. Darvoqe, nega Qora dengiz, suvi uchunmi? Ba'zi fikrlarga qaraganda, bu nom Eroncha «akshayna» so'zidan olingan. «Qora», «baxtsiz» ma'nolarini anglatgan. Yunonlar shunga ko'ra, Pont Aksin (marhamatsiz dengiz) deb ataganlar. Strabon «Bu dengizda qattiq qish bo'ronlari, undan ham qattiqroq atrof qabilalar, ayniqsa skiflar dahshati tufayli suzish imkoni yo'q edi, chunki ular kelgindilarni qurbonlikka so'yib, go'shtini yer, bosh chanoqlarini qadah o'rnida ishlatar edilar. Yunonlar kelib, bunga barham berdilar, dengiz ham Evksin (marhamatli) ataladi», deb yozadi.

Taxmin qilsa bo'ladiki, bu qadim dengizning tubjoy egalari kelgindilarni unchayam xush ko'rmaganlar. Kelgindilar ham bir tomosha qilib kelaylik deb kelishmagan bo'lsa kerak. O'zini bilgan har bir urug'-qabila erkni har narsadan baland tutgan. Yunonlar miloddan 10 asr oldin bu dengiz atrofini bosib olganliklari ma'lum. Yunon Strabonning mulohazalariga shu jihatdan tanqidiy qaramoq lozim bo'ladi.

Shunday qilib Istanbul safari ham nihoyasiga yetdi. Anatoliy (yunoncha Sharq degani), keyingi nomi bilan aytganda Kichik Osiyo ortda qoldi, XIII asrlarda bu yerlarga kelib vatan tutgan va ulkan saltanatlar qurib, 7 asrdan buyon barqaror va poydor yashab kelayotgan qarindoshlarimiz bugun, ne baxtki, ko'hna Sharqning eng peshqadam xalqlaridan bo'lib turibdi. Adolat qaror topib, zamonning zayli bilan rishtalarimiz qayta bog'lanmoqda. Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar, to'rtovlon bila bo'lsa uzoqdagin undirar, degan ota so'zlarning bugungi qadri ham, e'tibori ham tamom boshqa.

Qaysaridagi yassaviyxonlik

1993-yil 26-may

Bugun Turkiya mamlakatining jug'rofiy markazidagi shaharlardan Qaysarida Xalqaro simpozium ochiladi. Hamrohim fizikdan chiqqan faylasuf Baxtiyor Karimov. U keyingi paytlarda o'rta turk tili masalasi bilan shug'ullanadi. Shu kunlarning

g'oyat dolzarb mavzui. Ochilish marosimlaridan so'ng birinchi kun birinchi yig'ilishda ikkinchi bo'lib ma'ruza qildi. Mavzui: Xo'ja Ahmad Yassaviy, turk birligi va mushtarak turk tili. Men — ertaga, 7-yig'ilishda. Mavzuim: So'nggi davr o'zbek mumtoz adabiyotida Yassaviy an'analari.

Ikki (Turkiston, Anado'li) salonda 18 yig'ilishda 76 ma'ruza tinglanadi.

Qardoshlarimizning bu yerlarga kelganiga 900 yildan oshib ketgan. 1071-yilning 26-avgustida Saljuq Alp Arslon (1027—1072) aql va shijoatini namoyish etdi. Sharqiy Rumo saltanatining eng mustahkam qo'rg'oni Malazgirtda imperator Diogenesning 100 ming kishilik qo'shinini 15—20 ming askari bilan mag'lub etdi. Turklarning Anatoliyaga yoyilishi uchun yo'l ochildi. Biroq ish oson kechmadi. «Abu Shujo'» kuniyasini, «Azud-ud-davla» laqabini, «Burhoni amir ul-mo''minin» unvonini olgan bu shijoatli sarkarda bir yil o'tmay, 45 yoshda ona yurti Movarounnahrga qilgan safarida asir olingan bir qal'a qo'mondoni xanjaridan xoinona halok bo'ldi. Uning o'rnini 1072-yil 25-noyabrda uning o'g'li Malikshoh (1054—1097) egalladi. Malikshoh saltanat markazini Isfaxonga ko'chirdi, lekin «bizans»lar bilan jangni davom ettirdi. Shunday janglardan biri Koppadokiya (qaysari) atrofida bo'ldi. Malikshoh Vizantiya imperatori 7-Mixailning qo'shini ustidan yirik g'alaba qo'lga kiritdi. Koshg'ardan Bosforgacha, Oroldan Hind dengizigacha, Kavkazdan Yamangacha saltanat qurgan «Sulton ul-a'zam», «Sulton ul-olam», «as-Sulton ul-adl», «Abul-fath» kabi ko'plab sharafli unvonlarga ega bo'lgan hukmdor 38 yoshda atrofidagilari tomonidan zaharlab o'ldirildi. Qiziqi shundaki, uning eng ishongan vaziri «Siyosatnoma»ning muallifi mashhur Nizomulmulk edi...

Qaysari shahrida XIII asrga oid Saljuqiylar me'morchilik uslubiga xos «Xunnat xotun» jome'si (1238), Javhar Nasiba Sulton (1165—1206) nomidagi dorushshifo (hozir muzey) diqqatni tortadi. Xojatepa universitetidagi tibbiyot fakultetini Javhar Nasiba nomida deydilar. Mavlono (Jaloliddin Rumiy)-ning ustozi Said Burhoniddin muhaqqiqi Tirmiziy (1165—1244)ning qabri ham shu yerda. Turkiy adabiyotning XIV asrdagi iste'dodli vakillaridan Qozi Burxoniddin Ahmad 1345-yilda

shu shaharda tug'ilgan. Uning otasi xorazmlik Shamsiddin Muhammad shu shaharning qozisi edi. Qozi Burxoniddin ham 21 yoshda qozilikka musharraf bo'lgan. So'ngroq Sivos beyi darajasiga ko'tarilgan. Jasur va iste'dodli bo'lganligini, turk, arab, fors tillarida birday she'r yoza olganini xabar qiladilar. 1398-yilda Sivos atrofidagi o'zaro janglarda halok bo'lgan. «Iksirus saodat fi asror ul-ibodat» «Baxt eliksiri ibodatdadir» nomli arabcha ilmiy asarini ko'p tilga oladilar.

Anjuman Erjies universitetining buyuk Sharq allomalari bareleflari tushirilgan madaniyat saroyida ochildi. Uni rektor prof. Mehmet Shohin ochdi. 60 lar atrofida. Har bir so'zini o'ylab, o'lchab, taroziga qo'yib gapiradigan xilidan. Faylasuflikka moyil, lekin kamgap.

Bugun ma'naviy me'morimiz xotirasiga bir o'tov qurilmish, — deb boshladi so'zini. So'ng esa, islomning Arabistonda vujudga kelgan bo'lsa-da, uni Samarqand, Buxoro, Turkiston va Toshkent yuzaga chiqarganligiga diqqatni qaratdi. 1050—1500-yillar oralig'idagi xojagonlar naslining olamjahon namoyandalari Hamadoniy, G'ijduvoniy, Naqshbandiy va Yassavi-yu Hoji Bektoshlarni, ularning Anado'lidagi davomchilari Yunusu Mavlonolarni tilga oldi.

Islomning bu yo'rig'i nedir? Savol qo'ydi notiq. Va insonning haqqa, haqiqatga munosabati xususida gapirdi. So'nggi ming yillik islom tarixini shu nuqtai nazardan ko'zdan o'tkazdi. So'ng Turkiya Vazirlar Mahkamasi nomidan sobiq Madaniyat vaziri Nomiq Kamol Zeybek va O'zbekiston hamda Qozog'iston elchixonasi vakillari so'z oldilar. Yig'inning tantanali qismi tugab, ish boshlandi. Mamalakatimizdan kelib o'qiyotgan yoshlar bizga yordamchi bo'ldilar.

Ma'ruzachilar orasida turkiyalik juda ko'p mutaxassislar, chunonchi, mashhur yassaviyshunos Kamol Er-aslon, Anqara universiteti professori Mustafo Qafali, Qozi universiteti professorlari Rishot Ganj va Qosim Yashar Ko'praman, prof. Masarratxonim, Ozarbayjondan FA qo'lyozmalar instituti direktori prof. Jahongir Qahramonov, Boku davlat universiteti kafedra mudiri prof. Elyor Safarli, Tataristondan taniqli tilshunos FA Til, tarix adabiyot instituti direktori prof. Mirfotih Zakiyev, mashhur etnograf Abror Karimullin ishtirok etdilar. Shuning-

dek, sobiq sovetlar mamlakatidan Turkiya universitetlarida muvaffaqiyat bilan ishlayotgan turkman professori Qurbondurdi Geldiyev (Egey universiteti), tatar Farid Hakimjonov (Anqara universiteti) ham bor edi.

Ilmiy ma'ruzalarni boshlab bergan Mustafo Kafoli «Yassaviyni maydonga keltirgan davr» haqida fikr yuritar ekan, saljuqiylar futuhotiga va bunda «Shayxul mashoyix»ning islomchilik g'oyalari ta'siriga atroflicha to'xtaldi. Yassaviy siymosining turkiy qavmlarni birlashtiruvchi roliga e'tiborni qaratdi. Temurning uning qabriga maqbara qurdirishida, Shayboniyxonning ta'mirlatishida katta ma'no ko'rdi. «Turkiston davlati bo'lindi, «Hazrati Turkiston» davlati tirikdir», degan so'zlar bilan chiqishini yakunladi. Hamshahrimiz B. Karimovning ma'ruzasi ham katta qiziqish bilan kutib olindi. Notiq besh-olti ming mushtarak so'zni mashina yordamida aniqlash va shu asosda o'rta turk tilini yaratishning texnik-amaliy jihatlariga to'xtaldi. Prof. Masarratxonim esa Ko'pruludagi Yassaviyning hikmatlari muallifligiga doir ayrim shubhalarni davom ettirib, ularni shogirdlari yozganga chiqardi. Tabiiyki, ko'p ma'ruzachilar bu fikrni e'tiborsiz qoldirmadilar va unga o'zlarining salbiy munosabatlarini bildirib o'tdilar. Erjies universiteti muallimi Metin Qarao'rs Yassaviyning Qaysarida chop etilgan bir devoni bosmasi munosabati bilan uning Turkiyadagi nashrlariga keng to'xtab o'tdi. Gapni shoir asarlarining tiliga bog'lab, uning o'rta turk tilini yaratishda hozir ham hamkor bo'la olishini ta'kidladi.

Elyor Safarali Yassaviy va Xatoiy, Yassaviy va Qozi Burhoniddin masalalariga diqqatni qaratdi. Fuzuliyning uni g'oyat sevganligini misollar bilan dalillab berdi.

Qosim Yashar Ko'praman fikricha, she'r Yassaviy uchun bir vosita xolos. U dunyo nizomini milliy shaklga solgan mutafakkirdir. Turkiylarning birligini va butunligini asoslagan milliyatchidir. Bu jihatdan, u O'g'uzxon, Dada Qo'rqut, Go'ro'g'li kabilar qatorida turadi.

Dog'istonlik professor Zobit Akabov «Ahmad Yassaviy va qo'miq adabiyoti» mavzuida ma'ruza qildi. XVIII-XIX asrlarda yashagan Abdurahmon Kokushurinskiyning «Amon tur, qo'y meni, ey fano dunyo» she'rini qiyosiy tahlil etib berdi.

Kechqurun rektor Mehmet Shohin ziyofat berdi. Mehmet Shohinning dasturxon ustidagi hikmatlaridan:

Ikki kishi Allohni tanish borasida so'z yuritar edi. Birinchisi debdi: men uning borligini va birligini iymonim bilan bilaman.

Ikkinchisi debdi: men isbot orqali. Yetmish dalolat bilan. Va sanay boshlabdi.

Bu yetmish dalil emas, sening yetmish shubhangdir, -deb javob beribdi birinchisi.

1993-yil 29-may

Kecha simpozium o'z ishini yakunladi. Bugun tongdan yig'in qatnashchilari «kezi» (kezish)ga chiqdik. Bir avtobus bo'lib Navshaharga yo'l oldik. Ulug'vor Erjiesdan uzoqlashib G'arbga ketyapmiz. Yo'lda Hoji Bektoshga qo'nib o'tdik. Ilgari bu shaharning nomi Sulujak ekan. Hoji Bektosh vali turk dunyosining ulug'laridan sanaladi. Yassaviyning izdoshlaridan, bektoshiya tariqatining asoschisi. 1248-yilda Nishopurda tug'ilgan. Yoshligidan «Hazrat Turkiston»ning hikmat va falsafasiga ko'ngil qo'ygan. Umrining ilk 25 yilini Xuroson, Movarounnahr, Arabiston shaharlarida kechirgan. So'ng g'oyibona piri Yassaviyning ko'ngliga solgan istak-ishorati bilan bu yoqlarga kelib, vatan tutgan. Hoji Bektosh vali darajasiga ko'tarilgan 1337-yilda vafot etgan. Qabri nomi bilan atalgan shaharchada. Hoji Bektoshni mutaxassislar islom e'tiqodi bilan qadim turkiy udumlarni bog'lay olgan, Kichik Osiyoga kelgan turklar orasidagi harbiy, ijtimoiy va diniy birlikni jonlanishiga zamin yaratgan zotlardan deb biladilar.

Unga nisbat berilgan so'zlardan: Al (qo'l)ingizga, tilingizga, belingizga sohib bo'ling. Har na izlarsan, o'zingdan izlagil.

Insonning jamoli so'zining go'zalligidandir. Izla, top.
Ro'parangdagi dushmanning ham inson ekanligini unutma.
Ma'rifat ahlining ilk maqomi odobdir. Injisang-da, injitma.

Hoji Bektosh maqbarasi uch ichkarima-ichkari hovli (nazar, dargoh, hazrat)dan iborat bo'lgan ziyoratgohdir. Bu yerdan ziyoratchilar arimaydi. Hazrat xonasining eshiklarini ixlos bilan o'pgach, qabr atrofida emaklab aylangan chol-kampirlar Hoji Bektosh valining el qalbidagi yuksak rutbasidan darak beradi.

Bektoshiylikning bizdagi suniylikdan farqli tomonlari ham yo'q emas. Shaharchaning musiqachilar dastasi biz, mehmonlar uchun «samo'» uyushtirdilar: 3 musiqachi, 10 qiz, 10 yigit. Musiqa, ashuvla. Yigitlarning boshida oq to'ppi, ustlarida ko'ylak-ishton, oyoqyalang. Qizlarda ko'k ro'mol, jamalak (belik), ko'ylak-lozim, orqa-oldi-etak. Ular ham oyoqyalang. Qizlar qizil, yigitlar ko'k belbog' taqqanlar, har ikkalalarida qizil lenta. Ishqiy she'rlar aytib, aylanib zikr tushdilar. So'ng biri o'rtaga chiqib, qizlardan bir yigitni qabul qilishlarini so'radi. Qizlar yuzlarini yashirib, ta'zim bilan rozilik berdilar. Ko'k yaktaklik yigitni qasamyod ettirib, qardoshlikka qabul qilib oldilar. Har zamon «Samo'» orasida «Guldur gup!» xitobi takrorlanib turdi. To'shak, dasturxon, patnis, ovqat. Yana musiqa, ashuvla. Xullas, butun boshli bir musiqaviy dramatik sahna asari. Otaturk ko'p takya, zoviyalarni to'xtatdi, lekin bektoshiylikka daxl qilmadi, deydilar.

Tushlikni Navshaharda qildik. U o'z oti bilan yangi shahar. 1725-yilda Ibrohim poshsho qurdirgan ekan. U yerlarda yaxshi gilamlar to'qishadi. 1922-yilgacha Ka'bapo'shni shu yerda tayyorlaganlar. Keyin Navshaharning tuprog'i — ta'rifli. Undan qirmizi tosh oladilar.

Urgupga yo'l olamiz. Uchhisor deb atalgan, saljuqiylarning uchlik minorasidek ko'kka tik qadalgan, bolalarning ko'p qavatlik o'rgamchik uylarini esga soladigan loy qo'rg'onlar ko'zga tashlanadi. Besh qavatdan sakkiz-o'n qavatgacha. Ayrimlari bir-biriga mingashib ketaveradi. Ba'zilarining uchida katta xarsang, o'ralib, boshiga tog'ora qo'yib ketayotgan xotinni esga tushiradi. Ayrimlarining besh-olti qavatigacha ko'tarilamiz. Chindan ham o'yinchoq uchun yasalganday. Erjies vulqonlarining samaralaridan ekan. Uzun ketgan jarliklar bir vaqtlar bag'ridan otilib chiqqan qip-qizil bo'tana izlarini hali ham saqlab keladi. Zamonlar o'tib tabiat ulardan xilma-xil shakllar yaratgan. Uch hisor (tog' uchi) shulardan biridir.

Bu joy — Urgup! — tashabbusni qo'lga oladi yo'l boshlovchimiz Ekrem Ishlig'. — Ichkariroqda Aktepe (Oqtepa) degan qishloq bor. Atrofi to'la odam shakl toshlar. Naql qiladir: bir kuni qorovul charchab, mudrab ketibdi, cho'chib ko'zini ochsa, sonsiz dushman ovoz chiqarmasdan pusib kelayotganmish.

Qorovul askarlarni uyg'otish uchun bor ovozi bilan hayqiribdi. Butun tog' larzaga kelibdi. Dushman taqqa to'xtabdi. Ertasiga ko'rishsa, hammasi toshga aylanib qolganmish. Bu — o'sha pusib kelgan dushmanlar, — deydi kulib roviyimiz Ekrem Ishlig'.

— Bular-chi? — so'raymiz, bir-birini qo'lidan ushlab ketayotgan ikki kishini eslatadigan ikki katta toshni ko'rsatib.

— Bular oshiq-ma'shuqlar — Orzu bilan Qambar, — davom etadi Ekrem Ishlig'. — Bechoralar ota-onalaridan qochib kelganlar. «Toshga aylantir, xudoyim, toshga aylantir!» — deb iltijo qilganlar. Tangri qabul qilgan.

Bu yerlarda rivoyat ko'p.

Go'ramaga o'tamiz. Go'rama — ochiq muzey. Aylanib, tomosha qilamiz. Qoya uylar ichida kalisolar, 365 dona bo'lgan deydilar. Yilning har kuniga bittadan. Devorlarida Hazrat Iso hayotiga oid suratlar. Ba'zi kalisolarning ichida qabrlar ham bor. Aksar kalisolar birinchi qavatda, yuqori qismlari monastir bo'lgan. Milodning boshlarida bu qo'rg'onlarda «bizans»lardan qochib kelgan xristianlar xona ochib jon saqlaganlar. Hozirda bu joylar davlat nazoratida. Urgupdagi loyqo'rg'onlardan esa mevalarni saqlamoq uchun foydalanar ekanlar. Ular ko'pincha g'orlarga tutashib ketadi...

Avtobus so'nggi jarlikdan nola bilan ko'tariladi. Adirlikda yastangan lolalardan ko'ngil tug'yonga keladi.

— Lola davriga keldik, — deydi kimdir tarixga shama qilib! Turkiya tarixida «Lola davri» degan bir davr bor. Bu, yanglishmasam, XVIII asrda. Turkiyaning yevropalashishi arafasida. Lolaga zo'r berilgan. Istanbulning o'zida lolaning 5000 turi yetishtirilgan, deydilar.

Dunyoning turli mintaqalarida yashab kelayotgan, lekin qon-qardoshlik, til, dil, e'tiqod, asriy an'analar mahkam bog'lagan davrning bir-biriga intilish va mehrini ko'rish g'oyat yoqimli edi.

Kimdir har bir mamlakat vakili she'rmi, qo'shiqmi, latifami aytsin, — dedi. Mirfotih Zakiyev Abdulla To'qayning «Ona tilim» she'rini o'qidi.

Ozarbayjon Samad Vurg'unning «Ozarbayjon»ini kuyladi, ayrim turkiyaliklar boshdan — oxirigacha jo'r bo'ldilar. Men Abdullaning «O'zbekiston — vatanim manim» she'rini aytdim.

Ikkinchi banddanoq, so'ngsatr «O'zbekiston — vatanim manim»ni ko'pchilik takrorlab bordi. Turkman talabasi Rustam turkmancha ashula aytib berdi. Anqara universiteti professori Mustafo Qilich jangovar turk islomiy sharqiyni boshladi. Oltoy Go'ze deganimiz «Yo shahid o'l, yo g'oziy!» deya unga jo'r bo'ldi.

Birgina so'z, ohang yoxud shaxs, atama munosabati bilan uni aniqlashtiruvchi musohaba, munozara, mug'oyasalar avtobusning goh u, goh bu yerida ko'zga tashlanardi. Chindan ham, bir-birovimizni anglashni, qarindosh tanishni kuzatish maroqli edi.

Vatan haqidagi she'rlar orqa o'rindiqlardan birida turklarning ona vatani haqidagi bahsga turtki berdi. Ahmad Zaki Validiyning «Umumturk tarixina girish», Bahouddin O'gelning «Turk kulturunun gelishme chaglari», «Laslo Rasonyining «Tarixda turkluk» kitoblaridagi fikrlar o'rtaga tushdi. Jumladan, ko'pchilik olimlar Turkistonni turklarning ona vatani hisoblaganlari holda uni Oltoy (Klappron), Sharqiy Osiyo (Ramshtet), Baykal (Parker), Gobi (Koppers) deb ko'rsatuvchilar ham borligi, qolaversa, turkiy qavmning 5—6 ming yillik tarixi bo'lgani holda «turk» atamasining VI asrdan maydonga chiqqani, chunonchi, armani Xoreneli Mases Kuban bo'yidagi majorlarni turk atagani, arablar kelgandan keyin o'g'uz, qipchoq, qarluq, chigil, uyg'ur barchasi ular tomonidan «turk», «atrok» (turklar) atalib ketgani, ayrim olimlar (prof. Samik Tezjon) «turk» atamasining dastlab qavm oti emas, «turk-buduk» («xos-om») o'rnida ishlatilgani fikrini ilgari surgan-liklari, xullas, mazkur atamaning 6-asrda, boringki, Herodot tomonidan meloddan oldin «turgas», «yurgas» deb tilga olinishi bu qavmlarning xuddi shu asrlarda maydonga kelganini ko'r-satmaslıgi aytildi. Men XIX asrning mashhur arxeologi Fridrix Hommelning 350 shumer so'zining kelib chiqishiga ko'ra turkiy ekanligini isbotlashga uringanini, qadim Moxinijidoro madaniyatida, Misr ehromlarida izlari borligini, qo'yingki, bu millatning necha asrlar davomida jahon sivilizatsiyasining chorrahasida kelganini, arionlar Turon zaminga miloddan oldingi 2000—1500-yillarda yoyilganini, ulardan ancha oldin bu qavmning Old Osiyoda Shumer, Hindistonda Sind, Uzoq Sharqda Chin, G'arbda Yunon

bilan teran bog'lanishi bo'lganini Zaki Validiyga suyanib gapirgan bo'ldim, O'ljasni tilga oldim. Kimdir bu qavmning qadim Amerika inklar madaniyatiga ta'siri, tubjoy Amerika hindilarining tillarida 10—15 foizgacha asli turk bo'lgan so'zlar uchrashi, ulug'vorlik, hukmdorlik va erkalash ma'no-larini anglatuvchi «xon» qo'shimchasi hozirgacha ular tilida «kan» shaklida xuddi shu vazifani bajarib kelayotganini aytdi.

So'z ketidan so'z kelar, degandek o'z-o'zidan gap turkning sifatlariga, e'tiroflarga ko'chdi.

«Turk» so'zi dastlab o'zi ot emas, sifat bo'lib kelgan, — gapga qo'shildi bahsga beparvodek bo'lib, alvon lolalarni avtobus derazasidan tomosha qilib borayotgan qaysari universiteti muallimi uyg'ur Mahmad Jontura. — U eski uyg'ur matnlarida quvvatli, berch, mustahkam ma'nolarida keladi».

Darhaqiqat, tarix, bir donishmand aytganidek, millatning ikkinchi kitobidir. Unga kuch-qudrat, g'urur va shukuh beradigan buyuk vositadir. Dushman biror millatga qarshi kurashganda ishni hamisha uning tarixini soxtalashtirishdan boshlagan. General Chernyayevning gaplarini eslaysizmi?

Bu yerda yo'q joydan qo'shin tuzish mumkin. Men bu imkonlardan tez-tez foydalanib turaman. Lekin tuzgan qo'shinlarimni to'zg'itib yuboradigan bir holat bor. Turklarning kechmish xotiralari!... Uch-to'rt yil oldin har qanday kuchni va millatni yenggan turklar hozir ham o'sha o'chmas xotiralari bilan har qanday tashabbusni sindira oladilar. O'limdan qo'rqmaydilar. Bu xotiralardan qo'rqadilar.

Hamon har ko'ngulda shu qo'rquvni sezaman. Demakki, birgina turklarni emas, ularning xotiralarini (tarixini) ham yengmoq lozim. Shu orqali men turklarning ko'p millatlarni idora eta olishlaridagi muvaffaqiyatning sirini ham anglamoqdaman. Ular millatni bir karra mag'lub etadilar, lekin bu zafarni ruhlarda va nasllarda yashatmoqni biladilar.

Bir emas, bir necha bosqinlar bilan ham turkning bu pinhoniy saltanatini yiqitib bo'lmaydi. Turklarda birgina so'ngsiz jasorat emas, irodalarni esankiratadigan sehrli bir zako ham bor. Zotan yarim Ovruponi asrlarcha qo'l ostida saqlamoqning boshqa yo'rig'i ham yo'q edi. Zamonida jahon voqealarining qoq markazida kelgan va bu voqealarning boshida turgan turkiy

qavmning dushmani ham kam bo'lgan emas, albatta. Shu sababli tariximizda qorong'u nuqtalar ko'p. Ayniqsa, biz Rusiya bo'yinturug'idan endigina qutulgan sobiq sovet turklari tarixida. Ulardan xabardor bo'lish uchun ajdodlarimiz o'z vaqtida muloqotda bo'lib kelgan Xitoy, Hind, Eron, arab, arman yunon manbalaridan istifoda eta olishimiz kerak. Bunday mutaxassislar esa osmondagi orzu. Chetda, masalan, Turkiyada shunday tarixchilar ko'p bo'lmasa-da, bor. O'zimiznikilar yetishguncha shulardan o'rganish kerak. Keyin tariximiz ming yil nariga borib birlashib ketadi-ku. Shu jihatdan olib qaraganda, deyarli hamma matnshunos mutaxassislar yovqur xunlar yurishlarini turk tarixining muhim bir bosqichi hisoblaydilar. Bir necha ming kilometrga cho'zilgan yuz yillar davomida qurilgan Buyuk Xitoy devori xunlardan saqlanish uchun qurilgan ekan. G'arbiy Ovrupo ularni «varvarlar» deb atadi. Boshqacha nuqtai nazar bo'lmaganmi? Bo'lgan, albatta. Faqat biz o'z qobig'imizga o'ralganimiz uchun bilmaymiz. Major Laslo Rasoniy Xitoy manbalaridan olingan shunday faktni keltiradi:

Xunn hukmdori Chi-chi Chin hujumi oldidan qo'shinini to'plab shunday nutq so'zlaydi: «Bo'yin egmaymiz! ... Bilamizki, urushda askarning taqdiri o'limdir. Biz o'lsak-da, qahramonligimizning shuhrati qoladi, bolalarimiz, nabiralarimiz boshqa qavmlarning xo'jalari bo'ladilar».

Yana Xitoy xronikasidan:

Urushda o'lmoqni sharaf biladilar, kasallanib o'lishdan nomus qiladilar.

Qani o'sha harbu zarbga mehr?!

Nega askarlik eng yuksak sharaf bo'lib kelgan millatda u yoshlar qochadigan, ota-onalarning yuragi bezillaydigan bir jazo joyiga aylanib qoldi? Yana gap mustaqillikka kelib taqaladi. Rusiya Turkistonni zabt etgach, 50 yil bizdan askar olmadi, ishonmadi. 1916-yilda turkistonlikni frontga solmadi, qora ishchi qilib qo'ydi. Nemislar bilan bo'lgan keyingi urushda esa, dastlabiga qo'liga yog'och miltiq berib, oldingi qatorga haydadi. Sadoqatini sinab ko'rgandan keyin yelkasiga yukning og'irini qo'ydi, lekin baribir o'ziga teng ko'rmadi, «ichkari»ga yo'latmadi. Kamsitish, butun millatga «stroybat» atamasini taqib, layoqatsizlik tamg'asini bosish, «og'abey» («dedovshina») degan

illatning tomir otib, necha-necha yosh yigitlarning umri xazon bo'lishi istiqlolga qadar davom etib keldi.

Safarlarimning birida Istanbulning o'to'gar (avtovokzal)ida yigitlarni harbiyga jo'natishni ko'rganman, Bayram! Tantana! Yigitlikning sha'ni — shukuhi Vatanning unga bildirgan ishonchida. Go'yo dunyoda uni qo'riqlamoqlikdan yuksak sharaf yo'q. Uni qo'riqlamoqlikka loyiq topilmoqdan yuksak baxt yo'q.

Shu sababli ketayotganlarning quvonchi cheksiz. Hammayoqda sharqiy:

«Ey buyuk askar — bizim askar!»
Aslida harbiylik shunday bo'lishi kerak.

1993-yil 30-may.

Bugun Erjies universiteti domlasi uyg'ur Mehmet Jonturk uyida mehmon bo'ldik. 1935-yilda Yorkandda novvoy oilasida tug'ilgan. 1958-yilga qadar Qashqarda o'qigan. Madrasa ko'rgan. Turkiyaga kelib qolishi — butun bir tarix. Fojiali tarix. Har bir kishini mustaqillikning qadriga yetishga undaydigan tarix.

1961-yilning bahorida bizni to'da-to'da («qolu») qilib Xitoy Yorkanddan Qashqarga haydadi, — hikoya qiladi mezbonimiz. — Bizning to'dada 26 oila (135 kishi) edi. Qashqarga kelgach, Murg'obdan suv yoqalab yana yo'lga chiqardi. 12 kun yurib Pomirga keldik. Toshqo'rg'on — Murg'ob yo'li bilan yana haydadi. Chin va Afg'onni ajratuvchi katta tosh bor. Shungacha oldiga solib keldi. Oraliqdagi yaylovga tushirib, so'ng qaytdi. Bu 1961-yilning 16-mayi edi. Afg'onistonga o'tishimiz bilan havo buzilib, qor yomg'ir aralash urib berdi. Dildirab turibmiz. Hammamiz uzoqdan ko'ringan 2 dona gumbazga o'zimizni urdik. Keksalar, xotin-qiz, yosh bolalar ichkarida, biz tashqarida. Bobur Hirotdan Kobulga kelishida qorda qolib qorda jon saqlagandek, tong ottirdik. Boshimizda ertalab bir qarich qor. Mingashib kelganimiz 40—50 eshak sovuqqa toqat qilolmay titraydi. Odamlarimizni chamalab qarasak, bir gung dutorchimiz bor edi, o'sha yo'q. 4 yigit qo'limizga tayoq olib atrofni qidirib, qirg'iz cho'ponlargacha borib keldik, yo'q. Qarasak, bir joydan tutun chiqayapti. O'tov (oq uy). Ikki qirg'iz chiqib qoldi. Qo'lida qurol. Jinmisan, shaytonmisan, to'xta! -deb kelyapti. Zum o'tmay, to'g'rima-to'g'ri bo'ldik. Kattarog'i so'radi:

– Kimsan?
– Odamman!
– Qay jerden kelding?
– Qashqardan!
– Musulmonmisan?
– Ha!
– «Qulhovla»ni o'qi!

Har birimiz kalimai shahodat bilan birgalikda o'qidik. Kelib quchoqlab ko'rishdi. Oq uyga boshlashdi. Qo'tos boqishar ekan. Sut-qaymoq berdilar. 2 qirg'iz, biz – Abdulg'afur hoji, Abdulahad hoji, Jonmirza va men qo'toslarga minib tog'dan oshdik. Bir oq uyga olib bordilar. Rahmonqulbiy degan (u ham qirg'iz) Pomir xonlaridan birining Tursunxonim otli qizi turarkan. 8 ot, 12 qo'tos, 10 eshak, 10–12 cho'ponni qo'shdi. O'zi bir otga minib oldi. Haligi 2 gumbazga keldik. Tursunxonim ko'p mehribonliklar ko'rsatdi. Yuklarni yuklab xonimning o'toviga keldik. Qo'ylar so'yib ikki kun mehmon qildi. Uchinchi kun afg'on ma'murlari xabar topib chaqirdilar. Bordik. Tahdid boshlandi.

– Bu mamlakatning egasi yo'qmi?
– Qayoqdan keldingiz?

Forscha so'rayapti. Men javob qilyapman.

Bir amallab yumshatdik. Sal shashtidan tushdi. Sarhad sardoriga olib borishdi. Bir hafta qolib ketdik. Zebak degan joyga jo'natdilar. Bu yerlar Badaxshon deyilar ekan. Bir oy tekshirishdi. Mahalladan uy kira qilib o'tiribmiz. Shu orada 4 to'da (qopu) gulja orqali keldi. Qishni bizning to'damiz shu yerda o'tkazdi. Bahorda 24 oilani Chinga qaytarmoqchi bo'ldi. Dod-voy qilib, Badaxshon hudud qo'mitasiga bordik. Qaytarmoqchi bo'lsangiz, bizni, yaxshisi shu yerda otinglar. Chinga borsak, u yerda ham baribir otadilar, dedik. Rahmlari keldi. Kobulga borib do'kon-po'kon ochib tirikchilik qildik. 1963-yilning oxirigacha Kobulda qoldik. So'ng shoh Dovudning Chindan kim o'tgan bo'lsa, qaytarish haqida rasmiy farmoyishi keldi. Ahvolimiz yana tanglashdi. Bir pokistonlik professorning yordamida YuNESKOga inglizcha ariza yozib, ming bir mashaqqatlar bilan uning Afg'onistondagi vakili qo'liga tutqazdik. Dunyo muhojirligiga qabul qiling, bizni Afg'on Chinga

qaytarmoqchi, yordam bering! – deb iltijo qildik. Gollandiyalik bir xristian ekan «Nou! Nou! Bu Afg'onning ichki ishi!» deb qo'limizga qaytarib berdi. Xizmatchilari idoradan bizni haydab chiqardilar. Hangu mang bo'lib qoldik. Xudoning o'zi yo'l ko'rsatdi. Shunday chiqsak, ro'parada Turkiya elchixonasi. Najot izlab o'sha yoqqa yugurdik. Qorovuli bir xazora ekan, qani kiritsa. Xayriyat elchixonaning mas'ul bir kishisi chiqib qoldi. Oti Qayo To'nariy ekan.

Hammasidan xabarimiz bor. Qayg'urmang, hammasi yaxshi bo'ladi, – dedi, va elchi Tal'atbeyga olib kirdi. Tal'atbey har birimiz bilan quchoqlashib ko'rishdi. Qo'lidan kelgan hamma ishni qilajagini aytdi. Ko'ksimiz tog'dek o'sdi. Qardoshlikning qadrini shunda bildik.

Elchi bizni bog'da qoldirdi-da, Turkiya bayrog'i qadalgan mashinasiga o'tirib, Afg'on hukumati bilan gaplashishga ketdi. Oradan bir soatdan ko'proq vaqt o'tdi. Darvozadan ko'rinar-ko'rinmas yuguramiz. Mashinadan tushar-tushmas, «Xavf-xatar bitdi. Sizni Chinga qaytarmaydilar!» – dedi.

Biz, ishonmasligimizni, yaxshisi Turkiyaga borishimizga yordam berishini so'radik. U xursandlik bilan qabul qildi. Bosh kotibini chaqirib, «Bular Turkiyaga bormoqchi, Millat majlisiga xat qiling» dedi va matnini tayyorlab berdi. 15 kundan so'ng xabar olishimizni aytdi. Bir kun uyga kelsam, Turk elchixonasidan so'rashayotganini aytishdi. Borsam, «Muborak bo'lsin, 170 oila qabul qilindingiz, hammalarini to'plang!» – deyishdi. Shu orada Sovetlar targ'iboti boshlandi: Bormang, u yo'q, unisi yomon, bunisi yomon, unday qiladilar, bunday qiladilar... Ruslar 1–2 oilani o'z qaramoqlariga ham oldilar. Muhojirlarimiz orasida shubha va ikkilanishlar boshlandi. Ko'pchilik Saudiya Arabistonini ma'qul ko'rdi. Xullas, ancha mojarolardan so'ng 170 oiladan 71 tasi Turkiyaga keladigan bo'ldik. 1965-yilning oktabrida 71 oila 3 samolyotda 3 kun ichida Anqaraga keldik. Undan avtobuslarda Qaysariga yo'l oldik. 4 mehmonxonaga joylashtirishdi. Qish ichi biz uchun uy qurishdi. 1966-yilning aprelida qur'a tashlab uylarni taqdim qilib berishdi. Davlat kattalari Anqaradan kelib uylarning vasiqasini topshirdilar. Xotin-qizlar uchun gilam to'qiydigan fabrika ochildi. Erkaklar

zavod-fabrikalarga joylashdi. O'zim hozirda ilohiyot fakultetida usmonli, arab, fors, uyg'ur tillarini o'rgataman.

Qaysari shahri chetida villa tipida tekis bir xil qurilgan hovlilarni aylanib chiqarkanman, do'stlik, qardoshlikning buyuk ne'mat ekaniga yana bir marta amin bo'laman.

Hamkorlik yo'llarida

1995-yil 20-iyun

Biz, to'rt kishi, tarixchilar: O'z FA muxbir a'zosi Abdulahad Muhammadjonov, tarix fanlari nomzodi Nozim Habibullayev, adabiyotshunoslar: professor Nasimxon Rahmonov va men 1995-yilning 28-martidan 10-iyuniga qadar Turkiyada Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Ozarbayjon va Turkiya mutaxassislari bilan hamkorlikda «Turkiy xalqlar tarixi» va «Turk dunyosi adabiyoti» darsliklarini yozdik.

Masalaning tarixi shunday: 1992-yilning 16—23-mayida sobiq sovet ittifoqining hozirgi besh mustaqil turkiy mamlakatlari xalq maorifi va oliy ta'lim mutasaddilari Turkiya milliy ta'lim vaziri taklifi bilan Anqaraga kelgan edilar. Uchrashuvda mushtarak turkiy tilning zamonlar zayli bilan bir-biridan uzoqlashgan nuqtalarini ozaytirish va asta-sekinlik bilan barcha turkiy o'lkalarda adabiy til holiga keltirish masalasi ko'tariladi. «Umumturk adabiyoti» darsligini yaratish ana shu yo'ldagi tadbirlardan biri edi. So'ng mazkur darslik va uning dasturi Bishkek (1992-yil 29-sentabr — 3-oktabr), Yalava (Turkiya, 1992-yil 26-noyabr — 3-dekabr) konferensiyalarida maxsus muhokama mavzui bo'ladi. Ishchi komissiyalari tuzishga, hatto darslikni 1993-yilda o'quvchilar qo'liga yetkazishga qaror qilinadi. Lekin uni yozishga, 1995-yildagina kirishildi.

Nega bunday bo'ldi?

Dunyo ancha murakkab ekan-da. Turkiy xalqlarning bir-birlarini tanishlari, o'zaro yaqinlashishlari kimgalargadir yoqmaskan. Darhaqiqat, bu imperialistik dunyoning «maydala va yut» degan eski siyosatiga ziddir. Ikkinchidan, turkiy xalqlarning olamshumul tarixi bor, jahoniy an'analari bor. Bular qo'zg'ab yuborilsa bormi... Zaki Validiyning 20-yillardagi gapini eslaysizmi? «...Ba'zilar rusga tobe turklarning, xususan turkistonlik-

larning milliy harakati hali juda ibtidoiy bosqichdaligini, ingliz, nemis va rus millatlarining butun yangi davr tarixini ag'darto'ntar qilgan qudratli milliy shuurlari, milliy madaniyatlarining ulug'vorligi qarshisida O'rta osiyoliklarning dovdirab qolishlarini, bir kun o'z taqdirlarini o'zgartirish imkoni tuqilganda ham undan foydalana olmayajaklarini so'ylaydilar. Lekin turk millatining shunday qavmiy xususiyatlari bordirki, ularni uyg'otib, ishga solishga muvaffaq bo'linsa, yo'qotgan narsalarini ozgina bir muddatda tiklay oladi».

Holbuki, «boshqird, qozoq va o'zbek cho'llarini Amerikaga», bu yerdagi tubjoy xalqning taqdirini Amerikadagi qiziltanlilarning ahvoliga «aylantirishni» istagan Artemning 90-yillardagi izdoshlari yo'q deysizmi?

Yana o'sha tarixchi bundan 70 yil avval yozgan edi: «Turkiston o'ziga-o'zi ega bo'lgan kun o'z bug'doyini o'zi yeydi, o'z paxtasidan bo'lgan gazmolni kiyadi; zavod-fabrikalari uchun yoqilg'isi, ko'miri yetarlidir. Temir yo'l va suv kemalarini o'z nefti bilan yuritadir. O'z mudofaasi uchun o'z poroxidan, o'zining misi va temiridan foydalana oladi. Turkiston uchun O'rta Osiyoda tinch va osoyishta yashamoq eng muhim maslakdir. U dastavval, o'z birlarini to'playdi va o'zlari uchun xayrixohlar topadi va bular orqali istiqbol yo'llarini ta'min etadi».

Darhaqiqat, shunday bo'ldi. Mustaqillikning birinchi kunidanoq O'zbekiston mustaqil hayotga kirishdi. O'z birlarini izlay boshladi. Ulardan birinchisi Turkiya edi.

Saljuqiylar, usmonlilar nomi bilan atalgan, sarhadlari o'z davrida Afrika va Yevropa markazlariga qadar cho'zilgan 1923-yilda dunyoning zamonaviy jumhuriyatlaridan biriga aylangan Turkiya salkam ming yildan buyon tamom g'ayriqavmlar, g'ayrielatlar orasida o'z tilini, o'z urf-udumlarini, o'z din-diyonatini saqlab keladi. O'z mustaqilligini saqlab keladi. Turk dunyosi zulmatga botib, katta qismi o'zgalar oyog'i ostida qolganda, turk qavmlari bir-birlariga qayralib, olabo'ji ko'rsatilib, bir-biridan tonish darajasiga olib borilgan xosiyatsiz zamonlarda, «turk», «Turkiston» atamalari farzandlari tilidan siqib chiqarilganda bu nomlarni muqaddas kalomdek saqlab kelgan ham mana shu Turkiya edi. Bugun u dunyoning peshqadam mamlakatlaridan. 65 million aholisi bor. Zamonaviy sanoatga, katta iqtisodiy

quvvatga ega. Mahsulotlari jahon andozasida. Demokratiyasi joyida. Uch tomoni dengiz. Deyarli uch qit'aning o'rtasida joylashgan. Muhimi, mana shu mamlakat turkiy jumhuriyatlar mustaqilligini tabiiy bir holda o'z mustaqilligiday qabul qildi. Jumladan, O'zbekistonni birinchi bo'lib tanidi, do'stlik, hamkorlik qo'lini uzatdi. Jahon maydoniga teng huquq bilan chiqqan qardoshlarini ko'rib, bag'ri to'ldi, endi u «yolg'iz ot» emas. Bugun maydonda uning changi u yoqda tursin, dong'i ham chiqajagi ayon bo'lib qoldi. Bir tomonda salmoqli «oq», «qora», «qizil» oltinlari, bir tomonda zamonaviy texnologiyasi bo'lgan olti qardosh mamlakatning gapi bir joydan chiqib tursin-chi, nima bo'ladi. Hariflarning tashvishi shundan.

Safar davomida Anqaradagi «Boshkent o'yretmenevi» (poytaxt o'qituvchilar uyi)da yashadik. Darslik 1995-yilning 30-martidan 11-iyunigacha shu yerda yozildi. Materiallar xronologik tartibda, ilgaridan belgilangan kalendar plan asosida haftaning dushanba va payshanba kunlari muhokama qilib borildi. So'ngroq sharoit taqozosi (qurbon hayiti, umumiy kechikish) bilan muhokama kunlari ko'paytirildi. Men o'zim jami bo'lib, 28 yig'inda (hammasi 34 ta bo'lgan) ishtirok etdim (muhokamalar 18-martdan boshlangan, biz o'zimizga bog'liq bo'lmagan ayrim sabablar bilan 15—20 kun kechikib, 28-martda bordik).

Materiallar bizning tashabbus bilan muhokamaga o'sha adabiyot tilida qo'yildi. Biroq, so'ngroq ish manfaatini ko'zda tutib, Turkiya turkchasiga tarjima qilingach, qo'yiladigan bo'ldi. Darslikni yozish va muhokama qilishda O'zbekistondan — 2, Qozog'istondan — 1, Qirg'izistondan — 2, Turkmanistondan — 2, Ozarbayjondan — 2, Turkiyadan — 7 (2 vakil, 5 tarjimon), jam'i 16 kishi qatnashdi. Biz bilan G'ozi universitetining adabiyot o'qituvchisi doktor Shuayb Qoraqosh ish olib bordi. Biz borganda «Islomiyatdan oldingi davr adabiyoti», «Islomiy davr adabiyoti», «XI—XII asrlar adabiyoti», «XIII—XIV asrlar adabiyoti» bo'limlari taqsimlanish emas, yozilib, muhokamadan ham o'tkazilib bo'lingan ekan.

Birinchi muammo mushtarak adabiyotimizning eng qadim zamonlardan XV asrgacha bo'lgan g'oyat muhim va mas'uliyatli davriga ishtirok eta olmaganimiz bo'ldi. Biz buni 10-aprelda muhtaram buyuk elchimizning birinchi qabulidayoq ma'lum

qildik. Talab va istaklarimiz inobatga olinib, muhokamasi o'tgan materiallarning bir qismi «Islomiyatdan oldingi davr adabiyoti» (Ozarbayjon tayyorlagan), «Ahmad Yassaviy» (Qozog'iston), «Nasriddin afandi» (Turkiya), «Rabg'uziy» (Qirg'iziston), «Mavlono (Jaloliddin Rumiy)» (Turkiya) mavzulari matni bilan tanishish imkoniga ega bo'ldik va ular haqda quyidagi mulohazalarni bildirdik:

1. Qo'pol faktik xatolar bor. Rashididdin «mo'g'ul tarixchisi» («Islomiyatdan oldingi davr») sifatida taqdim qilingan. Rabg'uziyning taxallusi «nisba» ekanligi hisobga olinmagan. «Raboti qishlog'ida tug'ilgan» deb g'alat ma'lumot berilgan (asli «Raboti o'g'uz» bo'lishi kerak edi). Yassaviy hikmatlaridagi «mano» «meni» shaklida buzib talqin qilingan.

2. «Islomiyatdan oldingi davr»da izchillik yetishmaydi. Turkiy yozuvlarning yoshi haqidagi keyingi ma'lumotlar hisobga olinmagan. Yassaviy hikmatlarining tili haqida gap yo'q. «Rabg'uziy»dagi chalkashliklar sarlavha («qissa»-«qisas»)dan payg'ambar va avliyoni farqlamaslik darajasigachadir.

3. Mavlono (Jaloliddin Rumiy) buyuk shoir, albatta. Lekin adabiyotning birinchi unsuri tildir. Mavlononing «Masnaviy»si esa forsiyda. Agar joriy dastur bilan ish ko'rilsa, forscha yozgan bo'lsalar-da, kelib chiqishlari turkiy bo'lgan Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Pahlavon Mahmudlarni ham kiritmoq kerak.

Bu e'tirozlarning katta qismi qabul qilindi, albatta.

Lekin «Dostoni O'g'uzxon», «Mahmud Koshg'ariy», «Yusuf Xos Hojib», «Qozi Buhoniddin» matnlarini ko'rish va ular haqida fikr yuritishga imkon bo'lmadi.

Ikkinchi muammo. Tarjimonlar asosiy ish joylaridan ozod qilinmaganliklari, moddiy rag'batlantirilmaganliklari uchun tarjimalar kechikib bajarildi. Muhokamalar vaqtida tashkil qilinmadi. Bu kalendar planining ma'lum darajada buzilishiga olib keldi.

Uchinchi muammo. Material tanqisligi. Har qanday darslik katta-kichik kutubxona bilan yoziladi. Biz kutubxonadan, materialdan uzilib yozdik. Qo'limizda manba deyarli yo'q edi. Toshkentdan ko'tarib borilgan 4—5 kitob bilan darslik yozilmaydi. Kitobning darslik-majmua ekanligini hisobga olsak, ishning murakkabligi yanada oydinlashadi.

To'rtinchi muammo. Dasturning nomukammalligi. Bizgacha ishlab chiqilgan va olti mamlakat vakillari imzolab tasdiqlab bergan dasturda mavzularga soatlar ajratilmagan, hajm belgilanmagan. Mavzularning o'zida ham bahsli nuqtalar, chalkashliklar ko'p edi. Masalan, XIV asrga mansub Sayfi Saroyi XVI asrga ko'chirilgan, ustiga ustak original asari («Suhayl va Guldursun») emas, tarjimasi («Gulistoni bitturkiy») berilgan. XVII asr Xiva xoni Abulg'ozi Bahodirxonni yozish «Turkmaniston komissiyasi»ga topshirilib, mashhur «Shajarayi turk»i emas, «Shajarayi tarokima» rejalashtirilgan.

Adabiyotimizning uzluksizligi buzilgan. XV (Navoiy) bor, XVI (Bobur) bor. XVII — yo'q. XVIII — yo'q. XIX — Ergash Jumanbulbul o'g'li(?), XX asrdan Qodiriy, Cho'lpon, Oybek berilibdi. Bu yerda ikki asrning (XIX asrga xalq og'zaki ijodi vakilining kiritilganini ko'zda tutsak, uch asrning) ochiq qolishi o'zbek adabiyoti haqidagi tasavvurni tamoman o'zgartirishi, salkam, o'zbeklarda yozma adabiyot XX asrda boshlangan ekan, degan soxta taassurot tug'dirishi mumkin edi. Shu sababli, mutasaddilarning, yuqori tashkilotlaringiz tasdiqlagan dasturni o'zgartirishga vakolatingiz bormi, deyishlariga qaramasdan, barcha mas'uliyatni zimmamizga olib, muhokamalarda birorta asrni ochiq qoldirish mumkin emasligini isbotlab berdik va bunga erishdik. Mashrab (XVII), Huvaydo (XVIII), Nodira (XIX), Ogahiy (XIX)larni kiritishga muvaffaq bo'ldik. Ergash Jumanbulbul o'g'li umumiy mavzuga olindi. XX asr uch qismga bo'lindi. 1-qism — «Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti» (1900—1929) deb nomlandi va unga Qodiriy, Cho'lpon bilan birga Fitrat ham kiritildi. 2-qism — «Sotsialistik realizm adabiyoti» (1930—50-yillar), 3-qism — «Yangi uyg'onish va mustaqillik davri adabiyoti» (60—90-yillar)ga Abdulla Oripov ijodi namuna qilib berildi.

Beshinchi muammo. Biz, sobiq ittifoq fuqarolarining milliy, diniy tuyg'ulardan uzoqda kelganimiz, sotsializmning qonqonimizga singib ketganligi, sovetparastlik, vatan tushunchasining o'z mohiyatini yo'qotganligi pand berdi. Ayrim mamlakatlar (Qirg'iziston, Qozog'iston) vakillari adabiyotning sotsialistik inqilob va urush (1941—1945) davridagi faoliyatini keng yoritishga, ushbu mavzularni atroflicha tadqiq etishga, ba'zilar

(Turkmaniston) yakka shaxslar, masalan Turkmanboshiga bag'ishlangan asarlarni maxsus o'rganishga intildilar. Biz bunday yondoshishga keskin e'tiroz bildirdik. Ko'pchilik bizni ma'qulladi.

«Alpomish» (o'zbek, qozoq), «Go'ro'g'li» (o'zbek, turkman, ozarbayjon, turk), «Oshiq G'arib (o'zbek, turkman, ozarbayjon) «Nasriddin afandi» (o'zbek, turk) kabilarning kimga daxldorligi masalasi atrofida qizg'in bahslar ketdi. Bu masalada bizdan qolishmaydigan turklar ham yo'q emas ekan. Goho arzimagan narsaning janjalga aylanib ketish hollari ham bo'ldi. Mana bir-ikkitasi:

26-aprel kuni edi. Nizomiy va Mavlono matnlari muhokamasi bo'ldi. Biz til borasidagi prinsipni so'radik. Hamonki fors tilida yozilgan bo'lsa ham Nizomiy va Mavlonolar kiritilar ekan, Turkistondan ham birorta shoirni qo'shish kerak, dedik. Maqsadimiz Pahlavon Mahmudni ham kiritmoq edi, xolos. Buni Ozarbayjon va Turkiya og'ir oldi. Nizomiy va Mavlonoga daxl deb tushundi. Bizning ham keskin bir e'tirozimiz yo'q edi. Lekin masalaning hech bir izohsiz, go'yo ular o'z asarlarini turkiyda yozgandek hal qilinishi bizga ozgina tekkan edi.

— Nizomiyning nazirachisi o'rin oladi-yu, Nizomiy chetda qoladimi? — istehzo bilan gap otdi ozarbayjon hamkasabamiz, respublika maorif vazirligining til-adabiyot o'qitish mutasaddilaridan Askar Guliyev.

Bu endi bizga botdi.

— Nimagadir, Nizomiy bilan Navoiyni siz bilan bizdan yaxshiroq bilgan akademik Hamid Orasliyning fikri bunday emas, — chaqib oldim men ham. — Keyin bu gaplarni bizga nopisand qaragan ayrim rus va yevropalik sharqshunoslar bir vaqtlar aytgan edilar, lekin hatto, o'shalar ham bugun Navoiyni original va hatto dohiy san'atkorlardan ekanligiga iqror bo'lganlar. Siz hamon boshqacharoq fikrda ekansiz-da, qardosh, — «nazirachi» degan so'zining zahri ichimdan hanuz chiqmay, davom etaman. Yo'q, xayriyat, boshqalar, birinchi navbatda, turklarning o'zi aralashib, bosdi-bosdi qildik. Lekin ko'p o'tmay Asqarbey bilan hay'at raisimiz Abdulqodir Haybar to'qnashdi. Abdulqodir ayrim anglashilmovchiliklarni izohlash uchun, hech

qisi yo'q, bo'ladi, kommunistik mafkura kalladan birdaniga chiqib ketishi mumkin emas, degandek bo'luvdi, Asqarbeyga jon kirdi. «San mani kommunist deding, nega bo'lmasa, bizni bu yoqqa chaqirdinglar, men bugunoq ketaman»ga tushdi. Kecha men biroz tekkan edim. Majlislarimizning tili sabab bo'lgan edi. E'tiroz bildirdim: — Biz sizni eshitamiz, tushunamiz, gaplarimizni siz anglaydiganroq shaklga solishga urinamiz. Sizda esa bizni anglashga intilishni sezmaymiz. Siz majlis ravishini shu tomonga burishni xayolingizga ham keltirmaysiz. Bu ahvolda qanday qilib mushtarak darslik yaratamiz? Yo siz ham so'nggi 90-yildagi Turkiya turkchiligining jiddiy xatolaridan bo'lgan «umumturk adabiy tilining asosi Istanbul turkchasidan olinmog'i kerak» degan fikrdamisiz? Bu fikrning noto'g'riligini taniqli davlat arbobingiz Nomiq Kamol Zeybek bir necha marta yetkazib aytdi-ku! Dunyoning uch qit'asiga yoyilgan turkiy xalqlarning adabiy tilini birgina sheva (til) ustiga qurmoq uning ustunligini, ustuvorligini da'vo qilmoq bo'lmaydimi?

Abdulqodir jim qoldi.

Men, o'zim istamagan holda, gapimning siyosatga burilib ketganidan o'ng'aysizlandim.

O'tgan kuni Zaynulla og'a «Alpomish» muhokamasida dostonning o'zlarida chiqqan nusxasini ko'tarib keldi. «Alpomish»ni butun turk dunyosi qozoqning dostoni sifatida o'qishi kerak, u — bizniki, dedi. Qani tushuntirib bo'lsa, «Yo'q, siz bizning dostonlarni hisobga olmas ekansiz, biz ketamiz»ga tushdi. Mamlakatlardan kelgan mutaxassislar orasida o'z sohasining mutaxassisi va eng muhimi, mustaqil fikrli kishilar kam edi. Hamma balo shunda edi. Masalan, «Alpomish»ga yopishgan Zaynulla og'a uzoq yillar har xil mansab-amallarda yurib, kashf etilgan va mazkur darslik dasturiga kiritilgan Mag'jon Jumaboydek klassik shoirining otini ham eshitmagan edi. Materiallarni o'zimiz shu yerdan topib berdik.

Turkman Bekmurod birinchi kunlarda juda jiddiy qilib, Navoiyni biz yozamiz. U — bizning shoirimiz, uni xalq Mirali sifatida biladi, deganida mutasaddilar juda yumshoqlik va muloyimlik bilan, to'g'ri, Navoiy hammamizning boshimizdagi toj, lekin uni yozish, birinchi navbatda, o'zbeklarning haqqi deya tushuntirishgan edi.

Bular ko'proq tajribasizligimizdan, uquvsizligimizdan edi. Ajablanarlisi shundaki, mustaqillikdan dovdirab qolgandik. Shunday paytda o'zaro ishonch, xayrixohlik g'oyat zarur edi. Uning ustiga, ixtisoslikdan yiroq kishilarning ham kelib qolganligi ishni murakkablashtirardi. Shu sababli, masalaga keng qarash yetishmasdi. Hamonki, adabiyotlarimiz uzoq asrlar birga kelgan ekan, bu bugun har biri mustaqil millat sifatida qaralayotgan xalqlarimizning ham tomiri birligidandir degan haqiqatni e'tirof etish yetishmasdi. Bu yo ushbu tushunchaning necha-necha avlodlar boshiga yetgan siyosiy talqinlari, yo oqibatidan qo'rquv, yo kommunistik mafkura onglarimizga singdirgan tushunchalar yoki shunchaki gumrohlik tufayli edi. Shu kuni kechqurun «O'yretmen evi»da majlis bo'ldi. Vaziyatni muhokama' qildik. Ko'pchilik gapirdi. O'zaro ayblovlar yana o'rtaga tushdi. Til qurumining boshlig'i taniqli tilshunos olim prof. Ahmad Bijon Ergilasun, tarix qurumidan prof. Mehmet Saroy, Turkiya maorif vazirining muovini Nejdadbey, vazirlik xalqaro bo'limining boshlig'i Aysal Oytoj, turkiy mamlakatlar elchixonalari vakillari ishtirok etdilar.

Samimiy fikr almashuvdan ko'pchilik qanoat hosil qildi. Aysalbeyning bir naqli juda joyiga tushdi.

Ikki kishi turishgan ekan, havo aynibdi. Biri osmonga qarab, «Yomg'ir yog'adi-yov...» debdi. Ikkinchisi shart uning yoqasidan olibdi.

Sen meni nega o'rdak deyapsan?!

Aysalbey topib aytdi. Samimiyat, o'zaro xayrixohlik kerak. Ko'ngil to'g'ri bo'lishi lozim. Qardoshlikning asosiy belgilari shular emasmi. Uning yana bir gapi esimda qoldi. Ushbu dasturning dushmani yurt ichida ham, yurt tashida ham istagancha topiladi. Uni to'xtatish, barbod qilish uchun million-million dollarlarni to'laydiganlar bor...

Men olis tariximiz emas, yaqin tariximizning ham muxlislarini, bilimdonlarini bu yerlarda ko'p uchratdim. Cho'lpon haqida O'zbekiston materiallarini ming bir mashaqqat bilan to'plab, u haqda dissertatsiya yozgan mashhur adabiyotshunosimiz Ozod Sharafiddinovning bu boradagi fikrlaridan keng istifoda etib, katta ixlos va muhabbat bilan qaragan, Turkiyadagi cho'lponshunoslikni boshlab bergan Husayn O'zboy, Turkiston

jadidchilarining islomdagi islohotlariga doir tadqiqotlar muallifi Sayfiddin Ershahin, qodiriyshunos Shuayb Qoraqosh bunga dalil. Lekin o'sha 26-apreldagi yig'ilishda vazir muovini Nejdadbeyning adabiyotimizni yaxshi bilishi meni hayratga soldi.

Dastur haqida gap ketganda, u mendan so'rab qoldi:

– Yangi adabiyotdan kimlar kirdi?

Sanay boshladim: Fitrat, Qodiriy...

Sabri chidamadi: – «Cho'lpon-chi, Cho'lpon bormi?»

– Albatta bor.

– Qaysi she'rlar kirgan?

Yana sanay boshladim...

To'xtatdi. Bir she'rini usmonlicha ohangda ayta boshladi:

Kulan bashqalardur, oqlayan banam...

Birinchi satrning ilk ikki so'zidanoq, gap shoirning, «Kulgan boshqalardur, yig'lagan menman», – deb boshlanadigan qizlar tilidan yozgan mashhur she'ri haqida ketayotganligi ma'lum bo'ldi.

Bular shoirning allaqachon umumturk shoiriga aylanganiga, til va millatning birligiga dalolat edi.

Aysalbeyning naqllaridan:

Bir keksa cho'loq hajga otlanibdi. Yo'lda orqasiga ozig'ini ortmoqlab olgan, oyog'ini zo'rg'a sudrab bosayotgan cholni so'roqqa tutishibdi:

– Yo'l bo'lsin, otaxon?

– Hajga!

– Hajga?!

– Ha, hajga!!!

Bu, qachon yetarkinlar?

Nasib qilgan kun.

Yo'lda qolsalar nima bo'ladi?

– Shu yo'lda o'lsam, baxt-ku! Niyat – muhim!

Biz ham yo'lga chiqdik, – xulosa qildi Aysalbek. Oldin to'planishimizning o'zi ham xayolga kelgan emas. To'plandik-ku! Bu yog'i ham sekin-asta bo'lar. Bu yog'ini keyingi avlod qilar.

U haq edi.

Tabiiyki, safar davomida do'stlar safi kengaydi. Avvalo, «Adabiyot komissiyasining o'zi: qozoq Zaynulla Beysambetov,

turkmanlar – Qaqajon Durdiyev, Bekmurod Veisov; ozarbayjon Asqar Guliyev, Nizomiy; qirg'izlar – Bektosh, Mirzabek; turkiyalik Abdulqodir Haybar boshqargan va har bir respublikaga tarjimon sifatida bittadan biriktirilgan hamkasabalar bilan qisqa muddatda ahil jamoaga aylandi. Bizning tarjimon Qozi universitetining o'qituvchisi doktor Shuayb Qoraqosh edi. Uzun bo'ylik, pahlavon kelbatlik, yuzidan hamisha tabassum yog'ilib turadigan qirq yoshlardagi bu yigit yangi davr turk adabiyoti bo'yicha mutaxassis. o'zbek tilini Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar»i orqali o'rgangan. Darvoqe, uning turkchaga tarjimasi haqida gapirganimda, boshini chayqadi-da, ertasiga o'sha kitobni keltirib berdi. Hoshiyalari zich yozuv, butun-butun kiritmalar. So'zlar, jumlalar, hatto, tashlab ketilgan sahifalar bor, deydi. Qiyin o'rinlar chetlab o'tilavergan. Noto'g'ri o'girilgan joylar bor. Afsuslandim. Biz bu tarjimonga adabiyotimizning eng yuksak mukofotini bergan edik. Xayolimga ko'pni ko'rgan bir kishining uchrashuvlardan biridagi gapi keldi. Mamlakatlar o'rtasidagi munosabatda mayda narsa yo'q, mana, oddiy tijoratni oling, – degan edi u. – Toshkentdan kelishadi-da, bozordan arzon-garov molni olib ketishadi. Hamma narsa puliga yarasha emasmi, bir haftaga yetmaydi. Shunga qarab Turkiya moli haqida fikr tug'iladi. Holbuki, uning texnikasi ham, sanoati ham g'oyat beqiyos.... uning samolyotini sotib oladi. Chetga chiqaradigan kiyim-kechaklarini ko'rganmisiz?.. Bu mamlakat haqida jamiyatimizda to'g'ri, haqiqiy fikr yaratish kerak. Men bu fikrning tasodifiy unsurlar, chiqitlar (bundaylar har bir mamlakatda bor)dan olinadigan oniy taassurotlar emas, millatning asliy xususiyatlariga, ruhiga, manfaat va qiziqishlariga suyanadigan sog'lom fikr asosiga qurilishini istayman. Bu ishda adabiyotning, matbuotning xizmati ayricha.

Lekin poklik, halollik adabiyotning o'zidan boshlanmog'i kerak.

Shuayb universitetda «Bugungi qiyosiy turkiy adabiyot» kursini o'qiydi. Bir-ikki darslarida qatnashdik. O'zbekistonga, o'zbek adabiyotiga qiziqishi juda katta. O'zbekistondan birinchi marta samolyot kelib qo'nganida, nahotki shu kunlarga yetdik, deb quvonchimdan aeroportda to'lib-to'lib, yig'laganman, erta tonggacha Allohga shukronalar aytib chiqqanman, deydi

Shuayb. Juda ko'p turkiyaliklar singari uning ham ikki buyuk niyati bor. Biri — diniy, Ka'ba tavofi, ikkinchisi — milliy, Turkiston ziyorati. Umuman Turkiya Turkistonni eng og'ir zamonlarda ham bir lahza unutgan emas. Turklik, turkchilik vaqtida davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bunga tabiiy holdek qarash kerak. Ko'pdinlilik hukmron bo'lgan Hindistonday bir mamlakatni ingliz mustamlakachiligidan xalos etishda islomchilik buyuk ma'naviy tayanch bo'lib xizmat etganini Javoharla'l Neru alohida ta'kidlagani ma'lum. Imperalistik tajovuzdan o'zini himoya qilish istagi Ikkinchi jahon urushidan keyin arab mamlakatlarining boshini bir yerga qovushtirgan edi. Xuddi shuningdek, XX asr boshida usmonlilar va Rusiya musulmonlari orasiga yoyilgan turkchilik turkiy qavmlarning o'zligini anglash va saqlab qolish g'oyasini ko'zda tutgan edi. Bu g'oya SSSR tarqab besh mustaqil turkiy respublika o'zining mustaqil hayotini boshlagach, tabiiy ehtiyojga aylandi. Shu jihatdan, Prezidentimiz dadil o'rtaga tashlagan «Turkiston — umumiy uyimiz!» shiori davrning talabidir. Bundan boshqa, turkiy bo'lmagan millatlarning manfaatiga zid biror g'arazli ma'no izlash bugungi real sharoit bilan hisoblashmaslik bo'lur edi.

Turkiyaga qaytaylik. Mamlakatda «o'zbek», «O'zbekiston» nomi bilan bog'langan ko'cha, mehmonxona yoxud biror muassasasi bo'lmagan shaharni topish qiyin bo'lsa kerak. Hatto, Anqara va Istanbul o'rtasida tog'lar, o'rmonlarga burkangan 60 ming aholisi bo'lgan kichkina Bo'lu shahrida «Samarqand» mahallasi bor. Bizning Go'ro'g'li mana shu tog'larda yashagan, — sekin gap boshlaydi Turkiya milliy ta'lim vazirining mushoviri Ulvibek. Bo'lu hokimiga shu atrofdagi sayislardan biri ot in'om qilibdi. Ot hokimga yoqmabdi. Sen meni haqorat qilish uchun nasli buzuq toy keltirding deb ot egasining ko'ziga mil tortiribdi. Toy ulg'ayib qirot bo'libdi. Sayisning o'g'li esa Ko'ro'g'li nomi bilan shuhrat topibdi...

Aprelning oxirlari. Bursaga ketayapmiz. Yo'lda Savri Hisor qishlog'ida Nasriddin afandining haykali. Eshakka oyoqlarini osiltirib o'tirib olgan, boshida salla, qo'lida uzun tayoqni yerga qadagancha mug'ombirona boqib turibdi. Pastda «Dunyoning markazi bursadir (shu yerdir)» degan yozuv.

Baland-baland qirlar, bo'liq lalmikor yerlar xayolni tortadi.

Bodomlik degan manzilga yetganimizda Ulvibek yana gapga soladi.

Ho'v daraxtlarni ko'rayapsizmi? O'sha yerda Xo'rtu qishlog'i bor. Xo'ja Nasriddin o'sha yerda tug'ilgan...

O'zbekistondagi yetti yoshli bola ham o'nlab latifalarni yod ayta oladigan Afandining umumturkiy shuhratidan quvonib ketaman.

Ko'nya safarida qiziq voqea yuz berdi.

Darvoqe, Ko'nya (asli Ikona, Sharqiy Rumoning qadim shaharlaridan) «Masnaviyi ma'naviy»ning muallifi Mavlono – mashhur Jaloliddin Rumiy o'sib voyaga yetgan shahar. Birinchi jahon harbida mag'lubiyatga uchragan Turkiyaning juda ko'p shaharlari G'arbning imperialistik mamlakatlari oyoqlari ostida qoldi. 6–7 asr davom etgan Usmonli saltanatining ilk poytaxti So'yut[331]dan so'nggisi Istanbulgacha qo'ldan ketdi. Biroq Ko'nyaga dushman kira olmadi. «Gez dunyayi, go'r Ko'nyayi» (Kez dunyoni, ko'r Ko'nyani) deb bejiz aytishmagan.

Yo'lning ikki tarafidagi bo'liq bug'doyzorlar, il (shahar), ilcha (qishloq)lardan osmonga ignadek sanchilgan masjidlarning minoralari ko'zni yashnatadi. Abdullaning minoralar haqidagi «falakka qasam» degan tashbehi esga tushadi. Xayolimni anglagandek, turk hamkasbimiz Shuayb minoralar haqidagi Yahyo Kamolning satrlarini eslaydi. Yo'q, ular minoralar emas, allohning birligi va borligini uqtiruvchi shahodat barmoqlaridir. Masjid qubbalari esa insonning alloh yodi bilan nafas olishidagi iftixor ko'kraklaridir, izoh bera boshlaydi.

Avtobusda esa sheriklar sharqiya boshlaydilar:

Biz bu yo'ldan do'nar esak, nomus biza or o'lsun,
Yostig'imiz – mozor toshi, yo'rgagimiz qor o'lsun...

Vujudingizni iliq, yoqimli tuyg'ular, mushtarak ruh chulg'ab oladi... Mayli, Ko'nya sayohatiga mavrudi kelsa, yana qaytarman, hozir shu safar bilan bog'liq boshqa narsa haqida to'xtalmoqchiman.

---

[331] So'yut – bizdagi tol daraxti.

Anqara — Ko'nya yo'lida Jahonbeyli degan bir shaharcha bor. 18 ming aholilik kichik bir qasaba. 6-may kuni bizni mana shu yerda Behjad Qilich boshliq bir guruh o'zbeklar kutib oldilar va Qurbon hayitini (10—14-may hayit kunlari edi) birga o'tkazishni iltimos qildilar. Biz hayitning birinchi kunini Anqarada o'zbekistonlik talabalar bilan o'tkazishga va'da berganimizni aytib, uzr so'radik. Va ikkinchi kuni, 11-mayda albatta kelajagimizni bildirdik. Turkiyada qurbon hayiti bir hafta — o'n kun davom etadi. Shaharlar bo'shab qoladi. Hamma ota-onasini ko'rgani yo'l oladi. O'lganlarning qabri ziyorat qilinadi (masjiddagi bayram namozidan so'ng mozorga boradilar). Deyarli har bir xonadonda qurbonlik qilinib, ma'lum qismi qat'iy qoida va tartib asosida kambag'allarga, qo'ni-qo'shnilarga ulashib chiqiladi.

Xullas, 11-may kuni Nasimxon, Nozimjon va kamina o'zbek birodarlarimiz bilan yana uchrashdik. Qishloqlari Bugridalik katta yo'ldan 30—35 chaqirim chetda, dashtlikda ekan. 60 yoshlardan oshgan Behjat Qilichning katalakday uyiga birpasda qariyosh to'plandi. Ma'lum bo'lishicha, bular Sibirdan kelib qolganlar.

— Sibir xoni Ko'chimxon (Irtish bo'yidagi elatlar orasida islom dinini yoyish uchun Buxorodan amir Abdullaxondan dindorlar yuborishni so'ragan ekan va bizning ota-bobolarimiz Sayram degan joydan kelgan ekanlar, — so'z boshlaydi 81 yoshli Hoji Hakim O'g'uz.

— Irtish bo'yina yerlashganmiz. Qorako'l, O'tliko'l, O'lanko'l... ellikdan ortiq qishlog'imiz bo'lgan. Hozir ham bu joylar bor, — davom etadi ikkinchisi. Ilgari bu joylar Tara deyilgan. Hozir Omsk viloyati Bolsherechensk rayoni. Ovullarimiz bilan Omsk orasi 400 chaqirim. Bir-ikki masjid ham bor edi. Bordikeldimiz uzilmagan.

— Qachon kelib qolgansizlar? — so'rayman betoqatlanib.

— 1909-yilda, lekin buning ham qiziq tarixi bor, — sirli gap boshlaydi Behjat Qilich. — Eshitganingiz bordir, biz tomonlarda bir Abdurashid Ibrohimov degan olim o'tgan. Dunyodagi siyosatdan xabardor bo'lib, Istanbulga tez-tez kelib turar edi. Bir kuni ovuldagilarga xat yozib, «Nikolay yiqilsa, yangi qonunlar chiqadi, dinlar ta'qib qilinadi. Chetga chiqolmay qolasizlar,

hurlik bo'lmaydi. Istanbul tomonga borishni o'ylanglar, so'ng pushaymon o'rin tutmas», — deydi.

— Mana shu xat mening bobom Hoji Muhammadiyga yozilgan, — gapga aralashadi papkasiga ajdodlari haqidagi turli-tuman ma'lumot-materiallarni to'ldirib olgan qirq yoshlardagi havaskor biznesmen Adnon Jengiz.

Abdurashid Ibrohimov Turkiyada «Rashid qozi» nomi bilan tanilgan, asr boshlarida Peterburgda «Ulfat» gazetasini chiqargan mashhur jadid emasmi?!

Ibrohimov xatiga uncha e'tibor berilmaydi. Ko'pchilikning bo'liq, manzarali, zakot joylarini tashlab ketishga ko'ngli bo'lmaydi. «Yo'g'onbosh» laqabi bilan mashhur hoji Muhammadning ovuligina 185 erkak, 186 ayol, ja'mi 371 kishi 1907-yilning 10-noyabrida Irtish bo'ylaridan Turkiyaga qarab yo'lga chiqadi va 1908-yilning 1-yanvarida Istanbulga yetib keladi. Ularga 1909-yilda Sulton Rashid hozirgi turgan joylaridan yer ajratib, uy qurib beradi. Qishloq shuning sharafiga Rashidiya atalgan. So'ngroq bu yerdagi qirdan chiqqan buloqning nomi bilan «Bugridalik» (biqini teshik) bo'lib ketgan.

Hozir ham qishloq katta emas. Bo'lsa, 150—200 oila bor. 60—70 oila Ko'nyada, 60—70 Daniyada, Finlyandiyada. Qishloqning tirikchiligi g'alla va chorva. U ham o'ziga yarasha. Butun qishloq bitta kichkina buloqqa qaram. Texnika qimmat, yoshlar shaharga ketib, qishloqda qari-qartang qolgan. «Har yerni qilma orzu, har yerda bor toshu tarozu» deganlari shu bo'lsa kerak-da.

Qishloqdan Xasib o'zbek degan havo kuchlari polkovnigi (albay) chiqqan. Ko'nyada istiqomat qilayotgan, Bugridalikka hayitlab kelgan Fozil Buxoriy O'zbekistonning mustaqilligini millatning eng ulug' saodati deb biladi. Odil Yoqubovning o'z uyida bo'lganidan o'zini baxtli hisoblaydi.

To'y, ayniqsa, azadagi odatlarning ko'pi saqlangan. Kayvoni Behjat Qilich birma-bir sanab beradi. Har ikki gapining biri — she'r.

Olma olursan, aldanursan olma pishgan chog'inda,
Sog'inursan, sarg'ayursan esinga tushgan chog'inda.

Mana bizning yirlarimiz, deydi o'ychan. So'ng qo'shib qo'yadi: Qichigan yerdan qo'l ketmas, suygan tildan — so'z. So'ng boshqa havolardan ayta boshlaydi:

Olar edim, sotar edim Astarxonning mollarin,
Telegram so'g'ar edim bilar uchun hollarin.

Tilida tatarcha, bir-yarim ruscha va tabiiyki, turkcha so'zlar uchraydi.

— Bu tabiiy, — izoh beradi Behjat Qilich. Biz uch yuz yil Rusiyada yashadik, salkam 90 yildan buyon Turkiyadamiz. Lekin biz — o'zbeklarmiz. Bizning otalarimiz «Biz — o'zbeklarmiz, Siz — o'zbek bolalarisiz. Vataningizning oti — Sayram!» deyishgan. Qulog'imizda shu qolgan. Sibirda bizlarni «Buxorolik» deyishgan. Sayram o'shanda Buxoroga qaragan bo'lsa kerak-da.

Qo'ni-qo'shnilar bizni uylariga taklif qiladilar. Hammaning uyida xontaxta. Lekin ko'rpacha va devor suyanchiqlari bizdagidan farq qiladi, qamish solinganga o'xshaydi. Sibirdan kelgan odat bo'lsa kerak. Har xonadonda mehmonlarga shirinlik tutkazildi — bayram odati. Yoshlar ota-onalarini, shogirdlar ustozlarini, uka-singillar aka-opalarini bayram bilan tabriklaydilar, qo'llarini o'pib, peshonalariga bosadilar. Kattalar ularning ko'zlaridan o'pib, «Juda ko'p bayramlarni ko'rmoqlikni Alloh senga nasib aylasin», — deb duo qiladilar. Bu Turkiyadagi keng tarqalgan udumlardan.

Bir kecha Bugridalikda qolib, ertasiga xayrlashamiz. «Rahmat, ko'ksimizni ko'tardingiz. Biz endi ko'kragini ko'tarib yuradigan, suyanchig'i bor o'zbek bo'ldik. 2—3 yil oldin buyuk elchimiz ham kelib, bizni yurtdoshlarimizga tanitgan edilar, rahmat sizlarga !» — deydi chin dildan Behjat Qilich. 29-aprelda Bursaga bordik. Marshrutimiz: Anqara — Po'lotli — Sinxrisor — Eskishahar — Bursa. Yo'l-yo'lakay necha ko'y (qishloq), ilcha (qasaba), il (shahar)lardan o'tamiz. «Il» «el»dan olinganmikin. Mezon aholi ekan. Ko'yning aholisi 2000 dan oshsa «ilcha» bo'larkan.

Eski shahar Anqaradan 240 km, usmonlilar saltanatining asoschisi Usmon zamonidan buyon ot yetishtiradi. 20 gektarni

egallagan Sulton otxonasi hozirgacha saqlanib keladi. Uzoqda xashak uyum (skird)lari ko'zga tashlanadi.

Saljuqiylarning poytaxti Bursaning sharqi-shimolida joylashgan Iznik bo'lgan. Bursa — usmonlilar poytaxti. Qadim shaharga yaqinlasharkanmiz, sherigim Ulvibey chapda qurilgan uylarga ishora qiladi. Bu yerni Shahintepa deydilar. Bu uylar yaqinda qurildi. Uning aholisi 80-yillarning oxirlarida Bulg'oristondan chiqarib yuborilgan qardoshlarimiz. Nufusi 30 ming atrofida. 1985-yillarda demokratiya va oshkoralik degan gaplar bilan barobar boshlangan Bolqondagi mojarolar yodgorligi.

Eskishaharda talabalar bilan uchrashuv bo'ldi. Ozar qizi Afshon Karimova o'tgan yili ramazon bayramida bir o'zbek talabasining 70 yil bizni bir-birimizga qayradilar, endi unday bo'lmaydi, degan gapini esga oladi. Biz qardoshlarimizni tanimoqdamiz. Endi bu yo'ldan hech kim qaytara olmaydi, deb so'zini tugatdi. Eskishaharda «o'zbek» mehmonxonasi bor. Afg'onistondan Turkiyada 500 o'zbek talabasi o'qiydi, shundan 50 tasi Eskishaharda. Uchrashuv she'rxonlikka aylanib ketdi. Aksar she'rlarda o'tgan kunlar hasrati. Demak, birlikka juda katta ehtiyoj bor ekan-da.

Ketish oldidan voliylikka bordik. Bino oldidagi maydonda katta yer sharining haykali o'rtasida lenta. Unda «Sevalim, sevilalim!» yozilgan.

Bursaga yo'lga tushamiz. Bursaga 140 km.

Ko'p o'tmay, Bo'zhuyuk (Bo'zkiyik) shaharchasi ortda qoladi. O'ngga Istanbul yo'li ayriladi. Pastak tog'lar, archazorli o'rmonlar boshlanadi. Bu yerlarda qadimda «Bizanslar» bilan, 20-yillarda esa yunonlar bilan janglar ko'p bo'lgan.

Avtobusda Ulvibey bilan suhbatimiz qiziydi. Gap aylanib Tavfiq Fikratga keladi. Men Cho'lpondan Ibrohim Davrongacha bo'lgan shoirlarimiz e'tirofini, «Tarixi qadim» va «Rubobi shikasta»si shu davrda yetishgan o'nlab turkistonlik shoirlarning sevimli kitoblari bo'lganini aytaman.

Nazarimda, gaplarimga e'tiborsizdek tuyuldi. Yana, aylantirib so'ray boshlayman.

Shoirning «Xaluqning daftari» degan she'rlari esimga tushadi.

— Xoliqni aytasizmi? — qiziqishim oshadi.

— Ha, o'zi bitta o'g'il edi. Amerikaga o'qishga yuborgan edi. Xristianlikka o'tib, bir kalisoda «papaz» bo'lib qoldi. Mehmet Akifning Tavfiqbeyga yozgan bir she'ri ham bor: Farzandlarimiz Vatan uchun jon berayotganida, o'g'ling din, imonini sotib yubordi. Sening shoirlikka haqqing yo'q degan...

Bursaga kirib boramiz. Uch tomoni tog'. Bir tomoni mashhur Uludog' (Ulug' tog'). Aholisi 1 mln. Usmonlining qadim va ulug' poytaxtlaridan. Yodgorliklarini tomosha qilamiz.

Dahmalar. Amir sulton dahmasi. Asli oti Mahmud Shamsiddin. Buxoroda tug'ilgan. Bahouddin Naqshbandning piri Said Amir Kulolning o'g'li deydilar. Xalifasi Sayyid Isoning dalillovi bilan kelgan, deydilar. Boyazid Yeldirim kuyov qilgan ekan, olim odam bo'lgan, degan naql yuradi. 1429-yilda 63-yoshda vafot etgan.

Bursani 1326-yilda vizantiyaliklardan olgan Sulton O'rxon Qoziy (1281—1360) turbasi. Yonida otasi, Usmonlilar saltanatining ilk poytaxti So'yutdan marhum vasiyatiga ko'ra bu yerga ko'chirib keltirilgan va vizantiyaliklar ibodatxonasini buzib, o'rniga dafn qilingan.

Madrasa va jomelarni aylanamiz. Boyazid Yeldirim 1399-yilda qurdirgan Ulujomi (Ulug' jome). Usmonlilarning ilk buyuk jome masjidi. 20 qubbasi, 12 ustuni bor. 192 lavh va yozuv 13 uslubda bitilgan, deydilar.

O'rxon jomesi (1333).

Yashil madrasa (XV asr). Madrasa oldidagi qalam-daftar sotiladigan do'konda qiziq voqea yuz berdi. Ruchkamning pastasi tugab, do'konga bosh suqdim. Savdo qilayotsam, do'konchi yigit qayerdanligimni so'radi. Aytdim. Birdan do'stim Azim Suyunni taniysanmi, deb qoldi. (Bir she'r yig'inida kelgan ekan). Ha, endi biror munosabat bilan esida qolgandir-da desam, Erkin Vohidovdan gapira ketdi. Ruchkaning ham haqini olmay, hadya etib, qayta-qayta salom aytishimni tayinladi. Azim Suyunga bir ko'rganimda aytsam, yaxshi eslay olmadi, lekin mamnun kulib qo'ydi.

Har holda ko'rganlarimdan shunga ishonch hosil qilamanki, chetdagi qardoshlarimizda Turkiston va turkistonliklarga qiziqish va talpinish g'oyat kuchli. Ular hali hanuz ming yil oldin ketgan vatanlarining shuhrat va hasrati bilan yashab keladilar.

Uning tuprog'i hidini tuyushdan, shabadasiga o'zni tutishdan, sadosini tinglashdan, vatandoshi bilan bir og'iz suhbatlashishdan bitmas-tuganmas zavq-shavq oladilar. Holbuki dunyoda, shoir aytmoqchi, «sarson o'tgan necha nasllar topolmasdan tug'ilgan joyin» yoinki tug'ilgan joyini esiga olmaydigan, esga olishni ham istamaydigan millatlar qancha?!

Bir kecha Bursada qoldik. Orttirgan do'stlarimiz So'qulli Mehmed Posho litseyi mudiri o'rinbosari Lutfi Olshar va Bursa muzeyi xodimasi Funda Unol bilan xayrlashib, ertasiga yo'lga tushdik. Bilejik shahri orqali Usmonlining qadim birinchi poytaxti So'yutni ko'rib o'tmoqchimiz.

Tog' yo'li. Yomg'ir urib turibdi. Nihoyat tog'lik baland-past qirliklar bilan almashdi. Qirlar juda tik. Yomg'ir kuchaydi. Ashag'iko'y (quyi qishloq), Yeniko'y (yangi qishloq). O'tloqlar. O'zimizning qishloq uylarini esga soladigan paxsa uylar. Ekinzor, mevazor, uzumzorlar. «Chekirdagi» (donasi) yo'q uzum (kishmish) ko'p bo'ladi, deydilar.

Nihoyat, So'yutga kirib kelamiz. Kichkina shaharcha (qishloq). Lekin har qadami shonli tarix. 20 ming aholisi bor. Eng eski nomi «Itea». Vizantiyaliklar «Tkebashon» deb nom berdilar. Forslar oldilar. «Xuttai Bid» atadilar. Turklar shu atroflarda o'sadigan bir xil tolga o'xshash daraxtning nomi bilan «So'yut» dedilar. Shaharchaning turklargacha bo'lgan tarixda qanday rol o'ynaganini bilmayman, lekin u XIII asrgacha davom etgan buyuk bir saltanatning beshigi sifatida bugungi Turkiya uchungina emas, turk dunyosi uchun ham ma'lum ahamiyatga ega.

Usmonning otasi Erto'g'rul bundan yetti yarim asr muqaddam 400 chodirlik odami bilan Frot daryosini kechib o'tadi va Anado'luga keladi. Taqdirning o'yinini qarangki, ikki qardosh, ikki zabardast sarkarda Sind bo'yidagi o'zining mag'lubiyati bilan ham Chingizni hayratga solgan xorazmlik Jaloliddin Manguberdi saljuq hukmdori Alouddin Kayqubod bilan 1230-yilda Arzinjon yaqinida bir-birlari bilan to'qnashadilar. Yassichaman degan joyda qonli jang bo'ladi. Erto'g'rul jang ustidan chiqadi va o'z odamlari bilan Alouddin Kayqubodga qo'shiladi va bu jang taqdirini hal qiladi. Alouddin Erto'qrulga Suyut, Jamanich atroflarini iqta (in'om) etadi. Oraliq 1232–1233-yillarda Suyut Erto'g'rulning qarorgohi – poytaxti bo'lib turadi.

Maqbara pastida keng yashil maydon. Uning atrofida kamalakday aylantirib tiklangan haykallar. O'rtada bittasi alohida ajralib turibdi.

Yomg'ir sharros quyyapti. O'tishga jazm etolmaymiz. O'rtadagi Usmonbey, atrofidagi 16—17 haykal usmonli sultonlar bo'lishsa kerak, deb taxmin etamiz.

Maqbaraga kiramiz. Erto'g'rul G'ozi (1188—1281) yotibdi. Maqbara devoridagi she'riy tarixga qaraganda 1181-(1756) yilda Ahmatxon degan kishi tomonidan tiklangan:

Sana bin yuz dahi yetmishdur ekan Ahmatxon
Tamalindin buni etmishti binou tajdid.

So'ng «Padari shoh zamon (Sulton Abdul Hamid) hazrati Sulton Majid» davrida ta'mirlangan ko'rinadi.

Yana devorda yozuv: Erto'g'rul G'ozining o'g'li Usmonga vasiyati:

«... Meni o'ldir. Shayx Adabaliga tegma. U naslimizning chirog'idir. Tarozisi dirham adashmas. Menga qarshi kel, unga qarshi borma. Menga qarshi kelsang, ranjiyman, xafa bo'laman. Unga qarshi borsang, betingga qaytib qaramayman... Bu so'zlarim Adabali uchun emas, Sen uchun. Aytganlarim vasiyatim bil».

Pirlarning martabasi musulmon Sharqida g'oyat baland kelgan. Hukmdorlar o'zlarining tolelarini ko'pincha shularning rag'bati bilan bog'laganlar. Va pirlar ham aksariyat shunday yuksak rutbaga munosib bo'la kelganlar.

Derinko'y

Derinko'y — yer osti degani. 20-mayda darslik mualliflari Navshahar sayohatiga yo'l oldik. Bu shaharni Qaysariga kelganimda ko'rganman. Meni ko'proq Derinko'y qiziqtiradi.

Turkiyada 125 yer osti shahri bor, shundan yettitasigina sayohatchilar uchun ochiq, deydilar. Navshahar janubidagi Derinko'y sayohatchilar uchun 1964-yilda ochilgan. Unda bu joylarning tarix bilgan eng keksa sohiblari hetitlar miloddan oldingi 2000-yillardan boshlab yashaganlar. Vahshiy hayvonlar tajovuzidan, qishning qahraton kunlaridan yer ostiga tushib jon saqlaganlar. Uy hayvonlarini ham olib tushganlar. Bu hol milodning

birinchi ming yilligida ham davom etdi. Bu davrda ular xristian missionerlaridan, har xil mazhab urushlari, isoviy jazolardan qochib berkinganlar. Dastlab yer ustida mustahkam qal'alar qurib yashirindilar. O'zlarini himoya qilishga kuchlari yetmagach, qal'alarni yer ostiga ko'chirdilar. Aslida, bular yer osti qal'alari edi. «Dushman keldi!» degan xabar berilishi bilan hamma yer ostiga kirib ketar, biridan ikkinchisiga o'tadigan yo'laklarning har birida toshdan katta qopqoqlar bo'lib, bekitib olishar, izlab tushgan dushman qayoqqa borishini bilmay qolar edi. 125 yer osti shahari ma'lum kishilargina biladigan yashirin yo'llar bilan bog'langan edi. Yer ostida 2125 xona bo'lgan.

Tor yo'lakdan pastki ikkinchi qavatga tushamiz. 15–20 kishi sig'adigan xona. Diniy o'quv xonasi, – deb tushuntiradi yo'l boshlovchimiz. Burama-aylanma yo'llar, ochilib-yopiladigan qopqoqlar orqali tobora pastlab bormoqdamiz. Tez-tez dam olishimizga qaramasdan, sovuq ter bosadi. Havo yetishmaydigandek tuyuladi. Yo'laklar yoritilgan bo'lishiga qaramay, vahimali. Chiroqning bir daqiqa o'chib qolishini tasavvur qilish – dahshat. Ayrim sheriklarimiz orqaga tisarilib, tashqariga qaytishni so'raydilar. Mezbonlar darrov yordam berishadi. Biz esa qaysarlik bilan davom ettiramiz.

85 metr pastga tushdik. Suv oladigan joy, jimirlab oqib turibdi. Qayoqdan kelib, qayoqqa ketyapti bilib bo'lmaydi. Davra qurib o'tiramiz.

– Qadim-qadimlardan keladigan odat bor. Bu yerga tushgan har bir kishi uch tilak tilab zikru samo qilib aylangan,– deydi yo'l boshlovchimiz. Birin-ketin burchakka borib, pichir-pichir qilib tilak tiladik. Hammayoqni pichir-pichir bosib ketgandek bo'ldi. Va chamamda uzoq takrorlanib turdi.

Mening xayolimga negadir ota-onam keldi. So'ng oilam, o'zim. Iloho, dedim, iltijo qilib: Ota-onalarimning ruhi poklarini shod etgaysan. Iloho, oilam, bolalarim omonligini, tarbiyasi va kelajagini o'z muhofazangga olgaysan. Iloho, yuzimni hech qachon yerga qaratmagaysan, hamisha yuzimni qizil, tilimni uzun qilgaysan.

Vahimalik, mahobatlik burilishlardan jon hovuchlab orqaga qaytmoqdamiz. Adashib qolgan kishi ikki dunyoda chiqa olmaydi. Tushayotganimizda yolg'iz tushar yo'llarda radio mitingni

olib berib turganday tuyulgan edi. Atayin qilingan bo'lsa kerak, vahm olmaslik uchun deb o'ylovdim. Unday emas ekan. Tasodifan bilib qoldim. Chiqayotganda yo'l boshlovchimiz meni bir eshikka qorovul qilib qoldirib, o'zi yo'l ochgani ketdi. Va uzoqdan tovush berdi. Tovush aylanib, buralib kelgandek bo'ldi. Men uning ishorasidan keyin «Yavosh-yavosh gechingl» dedimda, sheriklarimni bir-bir o'tkaza boshladim. 1—2 minutdan keyin ovozimning aks-sadosini tanib qoldim. Chamasi ovozim bekitilgan biror qopqagacha bordi-da, o'shanga urilib qaytib keldi. Qaytib chiqqanimizda hamma yog'imiz ho'l, terga botib ketgan edik.

Turkiyaning bundan boshqa ham yer osti sinoatlari bor. Shundaylardan biri Istanbuldagi «Ayo Sufiya» jome'sining g'arbida joylashgan «Yere batan sarnigi» (Yer osti suvxonasi)dir. Sharqiy Rumo imperatori Yustinias tomonidan VI asrda bino qilingan. Uzunligi 140 m, eni 70 m 336 marmar ustuni bor. Ustun-larining balandligi 9 m. Atrof devorining qalinligi 4 m Suvi shahardan 19 km uzoqlikda bo'lgan o'rmonlardan keltirilgan.

Baliqlar suzib yurishibdi. Suv tagida ziyoratchilar tashlagan tangalar ko'rinadi. Suv olinadigan 28 ustunning biri «Ko'z yoshi ustuni» deyiladi. Yuzi tersga qaratib ishlangan Meduza—qiz, bo'rtma ustunlar, g'ira-shira yonib-o'char chiroqlar...

Bular madaniyat asarlari, tamaddun izlari. Nega bizda bugungacha bunday saqlanib qolgan osori atiqalar kam? Yoki ajdodlarimiz yaratmaganlarmi? Unda Samarqand, Buxoro, Urganchlarni kim jahonning ziynatiga aylantirdi? Yoki adadsiz jangu jadallarda nes-nobud bo'lib ketdimi? Unday desak, jangu jadal bo'lmagan yerni topish qiyin-ku! To'g'ri, xalqimizning bir qismi chorvador-ko'chmanchi edi. Avvalo, shu ko'chmanchi-chorvador hayoti bilan ham jahon madaniyatiga ko'p narsa berdi. G'ildirakni shu kashf qildi. Otni boqishni ham, minishni ham udumga shu kiritdi.

Turkolog Koppersda shunday qayd bor: «Otni odamga o'rgatishda indo-germanlar turklarga burchlidirlar».

Xalifa Ma'mun lashkarboshisi Humayd bin Abdulhamid yozadi: Turk ham cho'pon, ham sayis, ham do'xtir, ham suvoriydir. Qo'yingki, har bir turk butun boshli millatdir. Mashhur

Al-Johizning «Fazoyil-ul-atrok»ida o'qiymiz: Turklar ot minishning tengsiz ustasidirlar...

Zamonaviy ingliz tarixchisi Toyibi ko'chmanchi va dehqon hayotini solishtirar ekan, ko'chmanchi hayotini «inson mahoratining zafari» deb hisoblaydi.

Bizda esa ko'chmanchilik hayotini, negadir ibtidoiy bosqich deb qarash hukmron. Aslida turkiy xalqlarning ko'chmanchi qismidan o'trog'i ko'p bo'lgan. Zaki Validiy «Umumturk tarixiga kirish» kitobida qarluq, chigil, orlot kabi o'nlab o'troq urug'larning nomini keltirgan.

Yo osori obidalarimiz ko'pu, biz bilmaymizmi? Biz bilmasligimiz ham bir jihati rost. Shahrisabzdagi Oqsaroyning tepasida sarhovuz borligini naql qiladilar. Samarqand ahli 2000-yil oldin tazar (yer osti suv quvuri)dan, bugungi ifoda bilan aytsak, vodoprovoddan foydalangani haqida eshitganmiz. Ming yil muqaddam Buxoro atrofida qat'iy ilmiy asosda dehqonchilik qilishgani ma'lum. Taxlangan, nishablari olingan paykallarning bugungi aerosuratlarini ko'rganman. Amu — Buxoro kanalidan foydalanishda ish bergan. Bu xil kichik mo''jizalar ko'p bo'lishi kerak. Lekin bugun ushlab dunyoga ko'rsatadiganimiz dovrug'imizga yarasha emas-da. Xunnlarni oling. Zaki Validiy yozadi: «Buyuk xunn davlati qurilsa edi, turklar Sharqda Chin, G'arbda Yunon va Eron sarhadlarigacha bo'lgan kenglikda yashagan bo'lardilar». Nega Ismoilbek Gasprali ma'rifat va madaniyatni egallashni, umumiy adabiy tilni so'ngsiz iztirob va hayajon bilan orzu qiladi. Chunki bular millatni tarbiyalash vositasi bo'lishidan tashqari, uning tarixi bilan kelajagini bog'lovchi ko'prik, birligi va borligini anglatib turuvchi qudratli omil ham edi. Ismoilbekning bir hovuch yunonlardan sonsiz-sanoqsiz yodgorliklaru merosxo'r avlodlari bugungi greklar qolgani holda Ovrupo va Osiyoni ostin-ustun qilgan xunlardan hech narsa qolmagani, hatto, avlodlari ustida hali-hanuz talashib yotganimiz haqidagi mahzun o'ylari shundan dalolatdir.

Sodiq Turol

Eskartma:

1946-yilda Anqara yaqinidagi Qirqqal'a shahrida tug'ilgan. Otaturk universiteti adabiyot fakultetini bitirgan. 1972-yildan

Hojitepa universitetida o'qituvchi. 1978-dan adabiyot doktori. 1982-dan yordamchi dotsent, 1983-dan dotsent. 1984–1988-da Davlat rejalashtirish qo'mitasida madaniyat bo'yicha mas'ul; Madaniyat vazirligining nashriyot Hay'atiga a'zo va mutasaddi. 1988-dan Hojitepa universiteti professori. 1991–1996-da G'ozi universiteti fan-adabiyot fakultetining turk tili va adabiyoti bo'limi boshlig'i.

O'n beshtacha kitobi, yuzdan ortiq maqolasi chop etilgan. 40 magistrlik, 20 doktorlik dissertatsiyasiga rahbarlik qilgan. «Zamonin elindan tutmak» («Zamon bilan hamnafas») 1982, 1991-yillarda 2 marta nashr qilingan va Turkiya milliy kultur vaqfi (1982), Yozuvchilar uyushmasi (1983) mukofotlarini olgan. «Manas»ning 1000 yilligi munosabati bilan Turkiya va Bishkekda amalga oshirilgan ishlari uchun 1995-yilda Qirg'iziston hukumatining faxriy yorlig'iga sazovor bo'lgan. 1996-yilda Qozog'iston Fanlar akademiyasi faxriy a'zoligiga saylandi.

1989-yilda Otaturk yuksak qurumi, Otaturk kultur markazida hay'at a'zosi. 1993-yildan markaz rahbari.

1996-yilda YuNESKO Milliy hay'at rahbariyati a'zoligiga saylangan. Doktorlik dissertatsiyasi «Usmonli saltanatining so'nggi yillarida (1909–1923) adabiyotimizda turkchilik oqimi: milliy adabiyot jarayoni» (Anqara, 1978) deb nomlangan.

«Turkcha kompozitsiya» (1977), «Madaniy kimlik borasida fikrlar» (1992), «Shaxsiyatlar va asarlar», «She'r tahlillarida usul» (1977), «Turk dunyosida ranglar va navro'z» kabi kitoblari, litseylar uchun yozilgan «Turk tili va adabiyoti» (1992–1993) darsligi katta e'tibor topgan.

Ibn Sino, Ulug'bek kabi buyuk allomalardan tortib, «Manas» kabi mashhur dostonlarimizu bugungi muhojir olimlarimizdan Boymirza Hayitgacha yozgan. Bugungi kunda Otaturk kultur markazi tomonidan chiqarilayotgan 30 jildlik «Turk dunyosi adabiyoti» nashriga rahbarlik qilmoqda.

* * *

Darslikni tugatib, Toshkentga qaytadigan kunlarimiz edi. Shuayb Qoraqosh Otaturk kultur markazi mushtarak bir nashrga tayyorgarlik ko'rayotganini, rahbari prof. S.Turol men bilan

suhbatlashmoqchi ekanini aytdi. Uchrashdik. Elliklarga borib-bormagan, ifodasi juda jonli. Har bir gapini biror naql bilan aytadigan so'zamolgina kishi ekan. Hol-ahvol so'rashib bo'lishi bilan maqsadga ko'chdi. «Turk dunyosi adabiyoti tarixi» degan katta bir dardning hasrati bilan yurganini aytdi. Shunday salmoqli bir ishga turk dunyosi shu kunda g'oyat muhtojligini asoslashga urindi.

— Bugungi kunda «turk» so'zi yer yuziga tarqalgan, dunyoning turli joylarida yashab turgan 200 mln nufuzga ega bir ulusning oti ekanligini bilasiz, — deya uzoqdan boshladi gapni professor, — uning vakillari olis tarix davomida keng jug'rofiy mintaqada juda ko'p va xilma-xil davlatlar qurdilar. Bu davlatlarning bir qismi saljuqiylar, usmoniylar, temuriylar, boburiylar kabi shaxsiyatlar nomi bilan atalib, xalq ham shu nomni oldi. Ba'zilari (tatar, chechen, ozariy kabi) boshqa millatlar bergan nom bilan tanildilar.

Turk ulusining asli, ilk vatani hamon bahsli. Har holda ilk yerlashish birgina makonda bo'lgan emas. Biz shu fikr tarafdorlarimiz. Shumerlarning aslini turkiy hisoblovchi amerika va olmon olimlari bo'lganidek, bunga e'tiroz bildiruvchi turklarimiz ham bor.

Turk so'zi ham Osiyo kengliklarida, ham Kavkazda, ham Shumerlar o'lkasida o'zini namoyon etgan bir ulusning nomi. Rahmatli Otaturk Turkiya va turk so'zlarini bir atama sifatida dastlab bizning ufqimizga, so'ng millatlar oilasi ufqiga olib chiqdi.

Dunyoda savdo-sanoat yoxud harbiy-ideologik zaminga tayanuvchi uyushmalar bo'lganidek, haqli suratda til yoxud qavm asosidagi birlashmalar ham bor: Hind-Ovrupo til guruhi, Ural-Oltoy oilasi, Anglo-sakson, german, semit xalqlari kabi. Xuddi shuningdek, turk atamasi ham bolqor, avar, qorachoy, qozoq, qirg'iz, o'zbek, teleut, tabar, major va b. (qipchoq guruhi), ham bayoti, qayi, taka va b. (o'g'uz guruhi)ni o'z ichiga oladi. Holbuki, bu atama bugun dunyoda faqat Onado'lu va Turkiyada yashayotganlargagina nisbatan qo'llanilmoqda. Onado'luda yashayotgan xalq esa ming yillik yangi tarixi davomida eski tarixini yoddan chiqarib bo'ldi. Eski qavmiy ma'lumotlarni to'plash, o'rganish zarurligi tarixchi, etnolog, etnograflar oldiga

ilk bor Otaturk tomonidan qo'yilgan edi. Biz shunday ishning zaruratini bugun yanada teranroq his qilib turibmiz.

Turklar 3 qo'ldan (qipchoq, o'g'uz, shumer) iborat bo'lib, har biri 24 guruhdan tashkil topgan. Tarixchilar, filologlar, antropologlar, lozim bo'lsa, tilchilar va etnologlar bu 72 qavmning mushtarak va xususiy jihatlarini dalillab, oydinlashtirib berishlari kerak. Bu qavmlar bilan bog'liq ma'lumotlarni ular haqidagi orzu va istakka qorishtirib mahalliychilikka burib yuboradigan muhokamalar ham yo'q emas. Regional ma'nodagi qavm, urug', sulola yoxud xonadon tushunchasini milliy o'zlik deb bilmoq etnosentrizm noxushliklariga olib boradi.

1924-yildan oldin sovetlar ittifoqi tashkil etilgunga qadar Turkiston (Sharqiy va G'arbiy), Kavkaz, Edil-Ural, Ozarbayjon, Onado'lu atamalari bor edi. Bugun esa ikki xil nomlanib turibdi: a) qavm belgisi bilan (Turkish vald, Vald of-turkish) atamasi turkcha so'zlashuvchi xalqlarga berilgan umumiy nomdir. Biz bu «dunyo» (turk dunyosi) bilan bog'liq yuzlab muammolardan uchtasini keltiramiz:

1. Turkiy xalqlar bir-birlarini yetarli darajada taniydilarmi?
2. Turkiy xalqlarning mushtarak qadriyatlarini qaysi sohalardan va qanday izlamoq kerak?
3. Turkiy xalqlarning o'zaro aloqalari qanday yo'nalishda, qay xil tadqiqotchilar va qanday vositalar yordamida amalga oshmog'i lozim.

Biz bulardan dastlabki ikkitasigagina javob bermoqchimiz.

Bilasiz, turk qayerda bo'lmasin, qanday jug'rofiy mintaqada yoxud siyosiy tuzumda bo'lmasin, ularni bir-biriga yaqinlashtiradigan qudratli bir narsa bor. Bu — til. So'ng mushtarak madaniyat. Madaniyatni biz keng, turmush tarsi — kultur ma'nosida tushunamiz. Turk dunyosida turk tili — dunyoga kelgan va yoyilgan mintaqalar va joylardagi davlatlaru, tuzumlardan yuksak, balki ularning ustida turadigan yana bir dunyo bor. Bu — matnlar dunyosi. Men bir-birlariga ta'sir ko'rsatmagan, balki bexabar holda kelingan qadriyat va holatlarni ko'zda tutmoqdaman.

Muammolarimiz ko'p bo'lmasa-da, bor va e'tiborga loyiq, deb hisoblayman. Xullas, bir-birimizni tanimoq va bir-birimizga tanitmoq maqsadida ko'pjildlik «Turk dunyosi adabiyoti» degan

ulkan bir nashr lozim. S.Turol bu g'oyani ko'pdan o'ylab yurganligini, mustaqil turkiy respublikalar qaror topgandan so'ng uni amalga oshirish imkoniyati tug'ilganini so'zladi. So'ng o'zbek adabiyotshunosligining yutuq va muammolari, mumtoz adabiyot tadqiqi, xususan manba-matnlar nashri, talqin-takliflar ahvoli, yangi (jadid) adabiyoti, unga munosabat masalalari haqida ham fikr almashdik. O'zbek xalq og'zaki ijodining o'rganilishidan Sharq mumtoz poetikasining bugungi tadqiqi va tadqiqotchilarigacha qilingan ishlar, yozilgan darslik va qo'llanmalar, asosiy tadqiqotlar, manbalar nashri, ularning saviya-darajasi haqida qisqa-qisqa ma'lumot berdim. Agar shunday nashr amalga oshsa va o'zbek mutaxassislarining ishtiroki lozim topilsa, kimlar qatnasha olishi mumkinligini aytdim va o'ttizga yaqin mutaxassis haqida ma'lumot qoldirdim.

Shunday qilib, darslikdan boshlangan safar ko'p tomlik nashrga kelib bog'landi.

Aysalbey aytganidek, maqsad muhim. Bu yog'i bir gap bo'lar. Ishqilib, oxiri baxayr bo'lsin.

1995-yil 21-avgust. Toshkent.

Bugun prof. Sodiq Turoldan ketma-ket ikkita xat oldim. Birinchisi qisqacha taklifnoma edi:

«Muhtaram Begali Qosimov!

Markazimiz tarafidan Turkiyadan va turk dunyosidan qatnashadigan bilim odamlarining yordamlari bilan «Turk dunyosi adabiyoti tarixi» nomli bir nashr hozirlash ko'zda tutilmoqda. U bilan bog'liq ishlar boshlab yuborilgan. Turkiya jumhuriyatidan va turk jamoalaridan qatnashadigan bilim odamlari ishtirokidagi yig'ilish 1995-yilning 12—15-oktabri kunlari o'tadi. Yig'ilish qatnashchilarining yo'l, ovqat, mehmonxona xarajatlarini Otaturk kultur markazi ma'muriyati o'z zimmasiga oladi.

Anjumanga qatnashish-qatnasha olmasligingizni ko'rsatilgan manzilga bildirishingizni o'tinaman.

Prof. Sodiq Turol, Otaturk kultur markazi raisi».

Ikkinchisida ishning maqsad-mazmuni bir oz kengroq izohlangan bo'lib, shunday boshlanar edi:

Muhtaram Begali Qosimov!

«Turk dunyosi adabiyoti» loyihasi munosabati bilan Anqarada Siz uchun mezbonlik qilmoq bizni baxtiyor etadi.

A) «Turk dunyosi adabiyoti» loyihasi 30 jildlik bir buyuk loyiha bo'lib, to'rt ichki qismdan iborat bo'ladi:

1. eng eski manbalardan 2000 yilga qadarli bo'lgan Turk dunyosi **adabiyoti tarixi** – 12 jild.

2. eng eski davrlardan 2000 yilga qadarli bo'lgan Turk dunyosi **bilim va adabiyot matnlari antologiyasi** – 7 jild.

3. **Turk dunyosi adabiy terminlar va tushunchalar ensiklopedik lug'ati** – 5 jild.

4. **Turk dunyosi bilim va adabiyot vakillari ensiklopediyasi** – 6 jild.

B) «Turk dunyosi adabiyoti» loyihasi 3 alohida tuzilma faoliyati yordamida amalga oshiriladi:

1. dastur boshqaruv tuzilmasi.
2. dastur ishchi tuzilmasi.
3. dastur ishchi tuzilmalarining muqobil takliflarini ko'rib chiquvchi mutaxassislar guruhi.

D) Siz «Turk dunyosi adabiyoti tarixi» ich dasturining haqiqiy a'zosi, boshqa dasturlar bo'yicha maslahat beruvchi a'zosisiz...».

Maktubning ikkinchi qismida O'zbekistonda nashr etilayotgan

adabiyot tarixi kitoblaridan, antologiya va adabiyotshunoslik lug'atlaridan olib kelish iltimos qilingan edi.

1995-yil 15-sentabr

Anqara. Qadrdon «Boshkent o'yretmenevi»ga joylashdim. Bugun yig'inimizning oxirgi kuni. Har kuni quyosh bizning derazadan chiqadi. Chapda ignadek 28 qavatlik «Sabanji qiz yurdu» — mashhur ishbilarmon Sabanji («somonchi»dan bo'lishi kerak) qurdirgan qizlar yotog'i. O'ngda tunda oppoq nurga cho'milib yotadigan Otaturk qabri, tepaliklar, binolar.

Respublikalardan kelgan hay'at a'zolari bilan tanishib, aralashib ketdik. Olmaotadan filologiya fanlari doktori, Qozog'iston fanlar akademiyasi muxbir a'zosi, Respublika Davlat mukofoti laureati, Muxtor Avezov nomidagi Adabiyot va san'at instituti qo'lyozmalar markazining direktori Seyit Asqaruli Qasqaboyev, Bishkekdan «Meros» markazining direktori, professor Abilabek Asanqanov, Bokudan 2 kishi: professorlar Bekir Nebiyev, Komil Valiyev, Tataristondan men 1972-yildan buyon

yaqindan tanishib, shaxsiy aloqada kelayotganim, hozirda akademik, Davlat mukofoti laureati Xatip Minnigulov, Uyg'ur Ablakim, Turkiyadan prof. Sodiq Turolning yonida Shukri Elchin, Mujgon Jumbur, izmirlik «Qardosh adabiyotlar» jurnali muharriri Yovuz Akpinar, Erondan Javod Hay'at va h.k.

Dasturning dastlabki yig'ilishi bo'lgani uchun ko'p majlislarimiz nashrning asosiy prinsiplarini kelishib olishga qaratildi. Chunonchi, «Tarix»da biografiya berilmaydi, ijodiy portret yaratiladi. «Ensiklopediya»da asarlar tahlil qilinmaydi. Adabiy istilohlar qomusiy lug'atida barcha turkiy adabiyotlardagi xususiyatlar umumlashtiriladi. Masalan, «g'azal»da dastlab ushbu janrning istilohiy ma'nosi, kelib chiqishi va takomil bosqichlarini bir kishi yozadi. Har bir mamlakat vakili o'z adabiyotida tarqalish doirasi, ko'lami, xususiyatlarini yozib beradi. Hay'at umumlashtiradi. «Go'ro'g'li», «Alpomish», «Oshiq G'arib» kabi mashhur dostonlar ham shunday hal qilinadi. 1996-yilning fevraliga qadar shoshilinch 5 harfning so'zligi tuziladi. Iloji bo'lsa, shu yig'ilishdayoq har bir adabiyotning taxminiy dasturi belgilanadi. Har yili 2 marta Anqarada to'planadigan bo'ldik. Nashr ishlari 2000-yilda nihoyasiga yetmog'i lozim. Yig'inda ishtirok etayotgan har bir mamlakatning vakili loyihaning o'sha yerdagi mutasaddisi hisoblanadi. U yurtiga borishi bilan 30 jildlikning qurilishiga mutanosib 4 ichki hay'at tuzadi. Bu hay'atlarning yig'ilishlarida har bir yo'nalish bo'yicha beriladigan materiallar va ularning mualliflari muhokama qilinib tasdiqlanadi...

Dastlabki Anqara uchrashuvimizda qizg'in bahs uyg'otgan masalalardan biri milliy adabiyotlarimizning chegarasi bo'ldi. Muhokama davomida turkiylik hamkasabalarimizning XIX asrgacha bo'lgan barcha turkiy xalqlar adabiyotini umumturkiy hisoblashga va uning Turkiyada yozilishiga moyilliklar sezildi. Tabiiyki, bunga biz e'tiroz bildirdik. Lekin eng keskin gapni eronlik Javod Hay'at aytdi: «O'zlaringiz yozar ekansizlar, bizni nega chaqirdingiz. Ajdodlarimiz bunday emas edilar-ku!» — dedi. Noqulay vaziyat maydonga keldi. Shu tariqa bizning, ya'ni o'zbek adabiyoti mutaxassislarining chegarasi dastlab Navoiygacha, so'ng Yassaviygacha cho'zildi.

Javod Hay'at

Bu nomni Turkiyada yaxshi biladilar. Majlis raisi Turk kultur qurumi boshlig'i prof. Sodiq Turol mehmonlarni bir-birlariga tanishtirayotganida uni yig'in ishtirokchilari olqishlar bilan kutib olgan edilar. Majlislar davomidagi muhokamalar, choy, ovqat tepasidagi suhbatlar, lift va yo'laklardagi uchrashuvlar u kishini yaqinroqdan tanish imkonini berdi.

Uzun bo'yli, tik qomatli, yoshi 70 da bo'lishiga qaramay, shaxdam, ko'rinishidan g'oyat jiddiy professor Javod Hay'at tabiatan sho'x, hazilkash, odamlar bilan tez kirishib ketadigan ekan.

— Oshlaringizga sherik bo'ldim-a, — dedi bir kuni yarim hazil, yarim chin ovqat tepasida. — O'z kasbini qilib yursa bo'lmaydimi, dersiz. Nima qilay, yaxshi ko'raman. Adabiyotsiz tura olmayman.

Professor ilojsiz kishiday uzun so'lish oldi.

Men uning asl kasbi jarroh ekanligini shunda bildim. Javod Hay'at 1925-yilda Tabrizda ruhoniy oilasida tug'ilgan. Otasi Ali Hay'at asrimiz boshidagi Eron inqilobiy harakatchiligining rahbarlaridan. Eron adliya tizimiga asos solgan mashhur olim va ruhoniy edi.

Javod Hay'atning hayoti va faoliyati Eron jarrohlik fanining so'nggi 50 yillik taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. U tib ilmi ixtisosligi uchun avval Istanbulda, so'ng Parijda o'qidi. 1952-yilda shifokorlik diplomini olib, to'g'ri Tehronga keldi va 43 yil davomida 25 mingdan ortiq turli operatsiyalar qildi. Eronda birinchi marotaba yurak jarrohligini katta jasorat bilan amalga oshirib, yo'lga qo'ydi. O'n ikki yil «Donishi pezeshki» (Shifokorlik ilmi) nomli tibbiyot jurnaliga muharrirlik va noshirlik qildi. 1963-yildan Xalqaro jarrohlik jamiyatining Eron bo'yicha vakili qilib saylandi. O'tgan davr ichida 60 dan ortiq milliy va xalqaro jarrohlik qurultoylarida qatnashdi. 1982-yilda Fransiya jarrohlik akademiyasiga a'zo etib saylandi. 1987-yildan buyon Tehronda Ozod islom universitetining jarrohlik kafedrasida mudirlik qilib keladi.

Javod Hay'at bundan 27 yil avval, 1968-yilda birinchi bor yurak klapanlarini almashtirgan, hayvonlarning yuragini ko'chi-

rib o'tqazgan, Tehronda ilk daf'a buyrak transplantatsiyasini muvaffaqiyat bilan amalga oshirgan jarroh sifatida tibbiyot olamida ma'lum mavqega ega. Keyptaunlik mashhur K.Bernardning safdoshi, yaqin do'sti. Uning bu harakatlari Eronda «Birinchi darajali Amak ordeni» bilan taqdirlangan.

Uning jarrohlikka oid 2 jildlik darsligi va bu sohaga daxldor yuzdan ortiq ilmiy maqolalari bor. Bu maqolalarning aksariyati Fransiya va AQSh kabi mamlakatlarda chop etilgan.

So'zga, adabiyotga ishtiyoq, ayniqsa, Navoiyga mehr dovrug'li jarrohni umr bo'yi tark etmadi. Eron islom inqilobidan so'ng jarrohlik bilan bir qatorda adabiyot sohasida ham faol ishlashga o'tdi. Tehronda o'z ona tili — ozarboyjon tilida «Vorliq» jurnalini chiqara boshladi. 17 yildirki, u muntazam chop etib kelinadi. Ozarboyjon tili va adabiyoti, islom mafkurasi haqida turkum maqolalar, kitoblar bostirgan. Jumladan, til, adabiyot, tarix, xalq og'zaki ijodi haqida yetti kitob, 250 dan ortiq maqola nashr ettirgan. Kitoblaridan to'rttasi Ozarboyjonda, maqolalarining talay qismi esa Turkiya, Fransiya, Amerika matbuotida bosilgan. Ulardan ikki jildlik «Ozarboyjon adabiyotina bir boqish», «Shifoyi xalq adabiyoti», ayniqsa fors va ozarbayjon tillarida chop etilgan «Turklarin tarix va ferhengina bir boqish» (Tarixi zabon va lahjahoyi turkiy) hamda Tehronda forscha chiqarishga muvaffaq bo'lgan «Mug'oyasatul lug'atayn» (ikki til mug'oyasasi) kitoblari ayricha ahamiyatga egadir.

Alisher Navoiydan ilhomlanib yozilgan keyingi asar buyuk adibning «Muhokamatul lug'atayn»iga bir naziradir. Muallif ustoz izidan borib, fors tili bilan turk (ozarboyjon) tilini mug'oyasa etadi va Navoiyning turk tilining imkoniyatlari haqidagi besh yuz yil oldingi xulosalarini yangi-yangi faktlar bilan mustahkamlaydi.

— Men birgina ozarboyjon shevasida 1700 ta fors tilida uchramaydigan fe'lni topishga muvaffaq bo'ldim, — davom etadi jarroh adabiyotshunos va birma-bir misollar keltira boshlaydi, — tirmashmoq, siyirmoq...

— Darvoqe, fors tilida fe'lning orttirma darajasi yo'q, bu tilda, masalan, «o'qittirdi»ni bir so'z bilan ifodalab bo'lmaydi, izohlashga tushib ketadi olim.

Uning bu fikrlari «Amir Alisher Navoiy» haqida maqolalar» nomli turkum tadqiqotlarida rivojlantirilganiga shubha yo'q.

Javod muallim Navoiy haqida gapirar ekan, ko'zlarida favqulodda bir zavq-shavq paydo bo'ladi, gapirmoqchi gaplari vujudiga sig'mayotganday o'rnidan qo'zg'alib-qo'zg'alib qo'yadi, qo'llarini harakatga soladi.

Navoiy, she'ri bu — mo''jiza, ilmi — til-adabiyot qomusi, faoliyati elga, yurtga xizmat qilishning betimsol o'rnagi. Navoiy bu — boshimizdagi toj, deya yakunlaydi so'zini.

— O'zbekistonda bo'lganmisiz? — so'rayman sekin.

— Orzuim bor. Buyuk bobomizning Siz, asl avlodlari, merosxo'rlari yurtini, Navoiy e'zozini ko'rishni orzu qilaman...

Uchrashish umidi bilan xayrlashamiz.

Xayolimdan chetda arzongarov shuhrat ilinjida bugungi O'zbekistonning mustaqillik yo'lidagi izchil va sobit qadamlariga nopisand qarab, qildan qiyiq qidirib yurgan ayrim vatandoshlarimiz o'tadi. Dunyo qiziq ekan-da.

Javod Hay'atning ozarboyjon ziyolilari orasida baland mavqei bor. Ozarboyjon RFA, Yozuvchilar uyushmasi, jarrohlar jamiyati va ziyolilar birligining faxriy a'zosi va qator universitetlarning faxriy doktori va professoridir[332].

1997-yil 3-noyabr

Kecha tongda O'zbekistondan olti kishi Anqarada 4—7-noyabrda bo'lib o'tadigan IV Turk kultur kongressiga keldik. O'zFA Adabiyot institutidan To'ra Mirzayev va Mamatqul Jo'rayev. Naim Karimov ham taklif qilingan edi, biroq u Berlindagi «O'zbek adabiyoti kunlari»ga boradigan bo'lib qolibdi. Toshkent universitetidan men, Laziz Qayumov, Umarali Normatov va Adham Alimbekov. So'ng yana uch kishi — I.Qo'chqortoyev, Tohir Qahhor, Sh. Usmonova qo'shilib, 9 kishi bo'ldik. Savlatli vakola. Ulus mavzei, shahar yoshlar bog'i ro'parasidagi ko'rkam

---

[332] 1995-yilning oxirlarida Eron va Ozarboyjonda jarroh adib tavalludining 70 yilligi nishonlandi. Bokuda «Ozarboyjon» nashriyoti Eron va Ozarboyjon ziyolilarining u haqdagi fikrlarini to'plab, kitob holida e'lon qildi. 1997-yilning mayida Javod Hay'at 30 jildlikning Toshkentdagi ko'chma yig'ilishiga rafiqasi bilan keldi. Toshkentlik olimlar, jarrohlar bilan ham uchrashdi. O'zbekistonlik jarroh adibimiz professor Jumanazar Beknazarovning mehmoni bo'ldi, operatsiyalarida qatnashdi. Samarqandni borib ko'rdi.

«Stat» mehmonxonasiga joylashdik. Tushgacha miriqib dam olib, shahar aylandik. Mehmonlar sekin-asta ko'paya boshladi. Eski tanishlar: Xatib, Bekir Nabiyev, Komil Valiyev, Olmaotadan taniqli folklorist, 30 jildlikning qozoq adabiyoti bo'yicha yangi mutasaddisi QRFA M.Avezov nomidagi Adabiyot va san'at instituti direktori prof. Shokir Ibrayev, xotini va hamkasabasi Qarluqochxonim, Rusiyadan taniqli turkologlar: S.Klyashtorniy, Dm.Vasilev, etnograf Svetlana Chervonnaya va boshqalar. S.Chervonnaya bilan 1991-yilda Simferopolda I. Gasprinskiyning 140 yilligida ko'rishgan edim.

Bugun ertalabki nonushtada Boymirza Hayit bilan yonmayon o'tirib qoldik. Umarali aka, Laziz aka uchalamiz choy ichib o'tirgandik, yuzida nim tabassum, ro'paramizda paydo bo'ldi. Turib, joy ko'rsatdim, o'zimni va sheriklarimni tanishtirdim. Taniyman, taniyman, sizlarni tanimay bo'ladimi, dedi yengil kulib. Ko'zlari chaqnab, qorachadan kelgan xiyol tund yuzi yorishib ketdi. Esimga 2 yil oldingi voqea tushadi. 1995-yilning bahorida Anqarada «Turk dunyosi adabiyoti» darsligini yozayotgan paytimiz. 28-may kuni hamkasabamiz Shuayb Qoraqosh va rafiqasi Gulnihol bizni uyiga taklif qildi. Men, Nasimxon Rahmonov, Abdulahad Muhammadjonov mehmon bo'lib, soat o'nlardan oshganda qaytib keldik. Hamxonam Nasimxon. Endi yotgan edik, telefon jiringlab qoldi. Go'shakni Nasimxon ko'tardi. Hayajonlanib, ovozi biroz o'zgargandek bo'ldi. «Ha, yo'q», «Rahmat, rahmat»dan nariga o'tmay, go'shakni menga uzatdi. Olsam, Boymirza Hayit. Bugun bizning daragimizni topganini, bir necha kundan buyon Turkiyadaligini, kunduzi bir necha bor telefon qilganini, hatto, bir marta kelib ketganini (muhokamalarimiz boshqa yerda o'tar edi) samimiy tushuntira ketdi. «Turk o'choqlari» jamiyatlarining qandaydir bir xalqaro yig'iniga kelgan ekan.

Gap jadidchilikning o'rganilishiga ko'chdi. Mening «Izlay, izlay topganim...» kitobimni topib o'qiganini, 50 yilligimda gazetalar uning davomi, 2-nashri haqida yozishganini, olib kelgan bo'lsam, shulardan biror dona berishimni, Germaniya, Amerika yoshlari jadidlar haqidagi materiallarga muhtojligini, umuman bu borada ma'lumotlar g'oyat ozligini kuyinib gapirdi. Men O'zbekistonda bu ishlar asta-sekin yo'lga qo'yilayotganini, o'zim-

ning esa jiddiyroq bir ish qilolmaganimni, 8—10 taboq hajmida ikkita kichkina risolam chiqqanini aytdim. Mamnun bo'ldi. Erta kechqurun Olmoniyaga qaytayotganini, qaysi kitobdan yonimda bo'lsa, in'om etishimni iltimos qildi. Javobni mujmalroq qilib xayrlashdim. Chunki yuragimizda qolgan hadik va qo'rquvlar erkin bo'lishimizga yo'l bermas edi. Bu, ayniqsa, ertasi qattiq bilindi.

Har kuni kechqurun ovqatdan so'ng mehmonxona atroflarini aylanar edik. Shu kuni mehmonxona pastidagi litsey hovlisiga endi qadam qo'ygan ham edikki, shunday yonimizdan mashinada Boymirza aka o'tib ketdi. Burilib, mehmonxonamiz eshigiga to'g'ri bo'ldi. Nasimxon ikkalamiz bir-birimizga boqishgancha qoldik. O'ylab-o'ylab bormaslikka qaror qildik. Ikki soatcha shaharni aylanib, hech narsa ko'rmagandek xonamizga kirib yotganmiz...

Bir-birlarini orqavorotdan yaxshi bilgan Laziz aka bilan B.Hayitga zimdan qarab qo'yaman. Laziz aka stoldan ko'z uzmay, xotirjam eshitadi. Boymirza aka hech narsa bo'lmagandday, bizlarni ko'rib quvonganini, tariximiz tadqiqi, bugunimiz targ'ibi borasidagi ishlar haqida zavq bilan gapiradi. Umarali aka esa, uning gaplarini eshitib-eshitmay, mahliyo bo'lgancha «endi sizdan ajralish yo'q», «endi sizni hech kimga bermaymiz deb qo'yadi».

Uzoq davom etmadi. Uzun bo'ylik, qotmadan kelgan, yoshi Boymirza akadan kam bo'lmagan bir kishi tavoze bilan kelib ko'rishdi. Sharq qo'lyozmalari professori misrlik o'zbek Nasrulloh Taroziy ekan. O'tgan yili Toshkentda Amir Temur tantanalarida ko'rishgandim. Tarixchi Isanbika bilan turganimizda, otasi Zaki Validiy haqida juda baland gaplarni gapirgan edi. Nasrulloh Muboshir at-Taroziy qadim Taroz (Avliyoota)dan. Otasi bir vaqtlar Afg'onistonda shohning imomi bo'lgan. 7 yoshlarida onasi vafot etib, yosh Nasrulloh saroyda tarbiyalanadi. Fransiya kollejida o'qiydi, besh tilni mukammal egallaydi.

Nasrulloh Taroziy Boymirza aka bilan uzoq, samimiy holahvol so'rashdi. Boymirza akani biz, muhojirlarning imonimiz, deb ta'rif-tavsif etdi. Boymirza aka o'ng'aysizlanib, qayta-qayta «Astag'firulloh» keltirdi...

1997-yil 4-noyabr

Bugun ertalab soat 10 da Otaturk bulvaridagi tubitak binosida IX Turk kultur kongressining tantanali ochilishi marosimi bo'ldi. Kongressning tashkilotchilari Otaturk yuksak qurumi va Otaturk kultur markazi rayosati bo'lib, har to'rt yilda bir marta chaqiriladi.

Kongressni yuksak qurum boshlig'i prof. Rishot Ganj ochdi. Oraliq 4 yilda turk madaniyati olamida yuz bergan siljishlar, xususan, 30 jildlik «Turk dunyosi adabiyoti tarixi» nashri bilan bog'liq ishlarni alohida tilga oldi. Ikkinchi bo'lib, davlat vaziri (vitse premer) Ahad Andijoniy gapirdi. Turkiy madaniyatning qadimiy va jahoniy mavqeini bugungi sertashvish zamon bilan bog'ladi. Bilka Qoon, Kultiginlardan Shihobiddin Marjoniy, Abdulhamid Cho'lponlargacha tilga oldi. O'z so'zini Kultiginning turk-o'g'uz beklariga qarata aytgan «Tepadan osmon bosmagan bo'lsa, pastda yer yorilmagan bo'lsa, ey turk xalqi, davlatingni, hukumatingni kim buzdi?» so'zlari bilan tugatdi.

Prezident Demirel o'z so'zini A.Andijoniyning «Madaniyatlar bir-birlariga ta'sir ko'rsatish orqaligina taraqqiy topadilar» degan so'zlari bilan boshladi. Xalqlarimizni asrlar osha turli-tuman siyosatlar bir-birlaridan ajratib kelgani, madaniy hamkorlik faqatgina insoniyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishi, har qanday milliylik tildan boshlanishi haqida gapirdi. Yusuf Xos Hojibdan misollar keltirdi. Umumturk tarixini, madaniyati, adabiyoti tarixini hamkorlikda yozishga undadi. So'ng Otaturk kultur markazining faxriy a'zoligi («Sharaf uyasi») diplom («barot»)larini topshirish marosimi bo'ldi. Ularni Prezidentning o'zi topshirdi. Jahon turkologlaridan o'n kishi bu nomga sazovor topildi. Shulardan ikkitasi (O'zRFA Prezidenti T.Jo'rayev va men) O'zbekistondan edi. Tantanali marosimdan so'ng bizni birinchilardan bo'lib, Boymirza aka tabrikladi. «Rahmat, o'zbekning dovrug'ini, bir pog'ona oshirib berdingiz»,-dedi bag'riga bosib.

Tushdan keyin mehmonxonaning 4 salonida dokladlar muhokamasi boshlandi. 1-salon («Dolzarb mavzular»)da Adham Alimbekov Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romanida o'zbek to'ylari va u bilan bog'liq urf-udumlar mavzuida chiqish qiladi. 4-salon («An'analar»)da To'ra Mirzayev («To'y maro-

simida yor-yorlar»). Ertaga Shoira («O'zbek-turk muqobil frazeologizmlari»), indin Mamatqulniki («O'zbeklarning shamol bilan bog'liq kultlari»), Laziz aka («Hamza va istiqlol»), Umarali aka («O'zbek tarixiy romanlarida kechmish saboqlari»), Tohir Qahhor («Turkiston matbuotida Turkiya bilan bog'liq mavzular») va men («O'zbek mardikorlik she'riyati») so'nggi kun 7-noyabrda chiqish qilamiz. Jami 200 dan ortiq ma'ruza tinglanadi.

Dasturga ko'z tashlayman. Nasrulloh Muboshirning mavzui: «Turklarning fors tili va adabiyotiga xizmatlari», Shokir Ibrayev «Qo'rqut ota shomondir», Mehmet Demirchi «Bugungi kunda tasavvuf va kultur», Aleksey Pilev «Yassaviy dunyoqarashi manbalari», Muazzaz Ilmiya «Shumer adabiyoti va diniy kitoblar», Boymirza Hayit V.Bartoldning «Turkiston madaniy hayoti tarixi» asari» haqida, qaysarilik do'stim Abdulqodir Yuvali «Yangi turk renessansi» borasida ma'ruza qildilar.

2-(«Me'morlik») va 3-(«Teatr va musiqa») salonlarda ham qiziqarli chiqishlar ko'zga tashlanadi...

Kechqurun Ahad Andijoniy mehmonlarga ziyofat berdi. Kasbi shifokor, tikqomat, serg'ayrat, 40—45 yoshlardagi yigit. Gap-so'zi puxta, o'zbekchasini yo'qotmagan. Ziyofat o'rtasida stolimizga kelib, har birimizdan hol-ahvol so'radi. Mamnun bo'ldik. Kattalarimiz vatandoshimiz va millatdoshimiz haqqiga duo qildilar...

Ertasi Boymirza Hayit 80 yillik yubileyi munosabati bilan Turkiya nashr etgan, o'zbek adabiyotshunoslarining u haqda bildirgan «munosabatlari»dan tarkib topgan 2 jild kitobini bizga in'om etdi. Kechasi bilan o'qib chiqdik. Birimiz ozroq, birimiz ko'proq «munosabat» bildirgan ekanmiz.

1997-yil 6-noyabr

Oraliq tanaffuslardan birida prof. Isanbika To'g'on so'rayotganini aytishdi. Isanbika xonim bilan oldin ham uchrashganman, Zaki Validiyning qizi. Yoshi 55—56 larda. Tatarchaga moyil ohista gapiruvchi, muloyim, nazokatli ayol. Taniqli tarixchi, professor. Yaqindagina Rusiyada bo'lib o'tgan Xalqaro Birinchi turk festivalidan qaytibdi. 17-sentabrdan 1-oktabrgacha davom etdi, — deydi. O'zbekistondan hech kim qatnashmabdi. Rusiyada turk akademiyasi tashkil qilinibdi. Isanbika ham a'zo

qilib saylanibdi. Biroq haligacha joyi yo'q, idora vitse prezident Rashid Solihov uyida, deydi Isanbika. Ushbu festival mana shu akademiyaning ishlaridan ekan. Nijniy Novgorodda «Boshqirdiston kuni», Qozonda «Tatariston kuni» o'tkazilibdi.

Kechqurun Isanbika uyiga taklif qildi. Rusiyaga sayohati bilan bog'liq suratlarni tomosha qildik. Robert Boimovning Zaki Validiy haqida yozgan «Sibor shunqor» romanini ko'rsatdi. Xatib Minnigul Sultongaliyev to'g'risida Qozonda yozuvchi Rinat Muhamma-diyevning «Sirot ko'prigi» romani chop etilganini va u Izmirda Mustafo O'nar tomonidan turkchaga tarjima qilinib, xalqaro mukofotlarga sazovor bo'lganini yozgan edi. Tatar-boshqirdlar yaqin tarixlarini yaxshi o'rganmoqdalar.

Gap olis tarixga ko'chdi.

Isanbika xitoy tilini biladi. Xitoy manbalaridan erkin foydalana oladi. U ko'pdan buyon «Xitoy manbalarida qo'ng'irot urug'i haqida ma'lumotlar» bilan shug'ullanib keladi. Uningcha, bu urug' XII asrda Xitoydan chiqib kelgan. Xitoyda uni «xungji»lar deb ataganlar. So'ngroq u «ungirad»ga aylangan. Rashididdin ma'lumot berishicha, ular chingiziylar bilan qudaanda bo'lib kelganlar, ko'ragon bo'lib, xon ma'rakalarida hammadan oldinda o'tirganlar. Ular kelib ilk o'rnashgan yer Xorazmdir. Surxondaryoga ehtimol, XIII asrda kelgan bo'lsalar, – deydi Isanbika.

Tarix – o'zga bir olam. Uning ichiga kirganingizdagina, u sizga o'z sirlarini ochadi. «Turk» so'zini hatto, dastavval el-ulus emas, sifat o'rnida ishlatilgan deguvchilar bor. Masalan, Bambergda yashovchi prof. S. Tezjon Ko'kturk bitiklaridagi «Turk-budun»ni «Turk qavmi» emas, «xos-om» ma'nosida qo'llanilgan deb hisoblaydi. Lekin shunisi aniqki, G'arbiy Ovrupo sarhadlaridan olis Tinch okeanigacha bo'lgan juda katta mintaqada «turkiy til»da so'zlashuvchi elatlar yashaganlar va ularning bir qismi arablar tomonidan tili asos olinib, «turklar» («atrok») deb atalgan. Bu elatlarning o'zlari esa, nomlarini eski holda saqlab keladilar. Nomlardagi har xilliklarning shunga o'xshash sabablari bo'lishi kerak. Arianlarning mintaqamizga kirib kelishi miloddan oldingi 2000 yillikda boshlanib, 1500 yillarda to'xtaganini hisobga olsak, bu fikrda jon borligi ma'lum bo'ladi.

Isanbika bilan suhbatimiz keyingi Turkiya safarimizda ham davom etdi. 1998-yil 7-iyundagi uchrashuvimizda har doimgidek yangi g'oyalar bilan keldi. Otasining «Xotiralar»i qayta nashr etilayotgani munosabati bilan Turkistonga oid shaxs va joy nomlarini mendan aniqlashtirib oldi. Akasi Irismuhammadning mozori, otasining Ohangaron atrofidagi xufiya joyi haqida surishtirdi va asosiy maqsadga ko'chdi. «Osiyo turk tarixi» qo'llanmasini (el kitobini) yozmoqchimiz. Otamning ishini davom ettirmoqchimiz, — dedi va asoslay ketdi. Otam tariximizni yozishda Yevropa, birinchi navbatda Fransiya va Germaniya ish usullaridan kelib chiqdi. O'sha yoqlardagi fikr-qarashlarni olib bahslashdi, ayrimlarini qabul qildi, ayrimlarini rad etdi. Bu o'sha zamon va sharoit uchun to'g'ri edi. Lekin endi bizda katta imkoniyat ochilmoqda. Biz bu tarixni bevosita turk dunyosidan kelib chiqib o'rganish imkoniyatiga egamiz.

Ikkinchidan, Turkiyada tarixni shajaralar, sulolalar bilan tekshirish urf bo'lgan. U holda katta saltanatlar qurmagan juda ko'p qavmlarimiz chetda qolmaydimi? Men tatar-boshqirdlarnigina ko'zda tutayotganim yo'q.

Tekshirishda yana bir usul bizda keng tarqalgan. Biz tariximizni bir uzun «koridor» yasab, shundan olib o'tamiz. Ya'ni Mo'g'uliston — Oltoy (xunn yo'li) — Turkiston — Onado'lu. Yon-atroflarimiz-chi?!

Lekin Zaki Validiyda g'oyat muhim bir nuqta bor. U turkiy xalqlar tarixini jahon kontekstida o'rganadi. Buni saqlab qolishgina emas, rivojlantirish kerak. Masalan, men XVI—XIX asrlarni tanazzul davri deb qaramayman. Asoslarim bor...

Hozir Yangi turk Renessansi haqida ko'p gapirmoqdalar. U nimada ko'rinadi, ochish kerak!

1999-yilning mayida Anqarada ushbu masalalarga bag'ishlangan bir yig'in mo'ljallanayotgan ekan.

O'rni bilan Isanbika 1997-yilda Turkiston shahrida bo'lib o'tgan «Turk tarixi» yig'ini taassurotlari, Toshkentdagi tanishlari borasida ham gapirib o'tdi. Gapni birdan vahobiylikka burib, «Hayronman, bu oqimning sizlarda bo'lishiga hech qanday zamin yo'q-ku!» — deb qoldi. Darhaqiqat, qabriston bizda g'oyat muqaddas. Tarixchi olimaning keltirgan dalillari bizdagi vaho-

biylikning ma'lum maqsadlarni ko'zlab chetdan keltirilganligiga kishini ishontirar edi.

8-noyabr 1997-yil

Kecha xalqaro kongress o'z ishini yakunladi. Bugun 30 tomlikning tahrir hay'ati ish boshladi. Bizdan T.Mirzayev, L.Qayumov va men qatnashdik. O'tgan oraliq 5 oyda qilingan ishlar haqida hisobot berdim. Materiallarni elchixona orqali yuborish tajribasi ma'qullandi. Dastlabki materiallarimizga qalam haqi oldik.

Ayrim masalalarga aniqlik kiritildi. Masalan, xalq og'zaki ijodi namunalarini berayotganda uning «eng buyuk varianti» kimda bo'lsa, o'shaning yozishi ma'qul topildi. Vaqtida tugatish uchun esa, har bir muallifga xat yozib muddat belgilash, shart qo'yish tavsiya etildi. «Ensiklopediya»ga material yig'ayotganda 40 yoshdan oshmagan ijodkorlarni qat'iy saralab, faqat favqulodda talantlarnigina kiritishga qaror qilindi.

«Istiloh»larning asosiy qismi Turkiyada yoziladi, chunki so'zligi shu yerda tuzildi. Qolgan turkiy adabiyotlardagi xos xususiyatlar, nomlar, namunalar ilova qilinadi. Biz o'zimiz tuzgan 2100 «termin»ni o'zimiz yozamiz. Qoraqalpoq adabiyotini aks ettirish mas'uliyati o'zbek hay'atiga yuklandi.

Kechqurun Xatib telefon qilib qoldi. Ahmad Temir kelibdi. Ahmad Temir Turkiyadagi tatar muhojirlardan. 90 ga yaqinlashgan. Ko'rinishdan Molotovga o'xshab ketadi. Anqarada yashaydi. Tataristonning Almat (Almetovsk) shahrida ruhoniy oilasida tug'ilgan. Otasi Rashit mullo 10 yil Makka, Madinada o'qigan, arabcha, fransuzchani bilgan. Ahmad 1927-yilda otasi sababidan sovet maktablarida o'qishdan mahrum etiladi va u 1929-yilda Ural Bekqul degan bir sherigi bilan Batum orqali Turkiyaga qochib o'tadi. Trabzonda muallimlar maktabida, so'ng Istanbulda Haydar Posho litseyida o'qiydi. 1935-yilda Anqarada ochilgan Til, tarix, jug'rofiya fakultetida tahsil oladi. 1936-yilda o'qishni davom ettirish uchun Germaniyaga ketadi.

Tafsilotlarni so'ray boshlayman.

— Fuod Ko'prulu sabab bo'ldi,-deydi suhbatdoshim.

Professor Muhammad Fuod Ko'pruluzodani bilmaydigan adabiyot mutaxassisi yo'q. «Turk adabiyotida ilk mutasavviflar» kitobi yodimga tushadi. Yassaviyning 1990-yilgi Turkiston xal-

qaro simpoziumida buxorolik salohiyatli tilshunosimiz Hamid Ne'matov Hazrat Sulton qabrida jozibali bir qiroat bilan Qur'on o'qigan, shunda parijlik professor Irena Melikof xonim o'z hayratining ramzi sifatida Ko'pruluning 1918-yilda chop etilgan va Yassaviyga keng o'rin berilgan mana shu «ilk mutasavviflar»ning ilk nashrini hadya qilgan edi. Zaki Validiy Istanbulga kelgan 20-yillarning o'rtalarida Ko'prulu Istanbul universiteti adabiyot fakultetining dekani edi.

– Ko'pruluda o'qiganmisiz? – so'rayman suhbatdoshimdan.

– Ha, ajoyib odam edi, -davom etadi u. – Birinchi darsdayoq «oralaringda chet tili biladigan bormi?» deb so'radi.

– Xo'jam[333], men bir oz olmoncha va ruscha bilaman, dedim.

Keyingi darsda bir olmoncha maqola olib keldi, tarjima qil, dedi. Birinchi tarjimam shunday maydonga keldi. Kelasi yili Olmoniyaga jo'natib yubordi. 1943-yilgacha Olmoniyada bo'ldim.

Eskartma:

Ahmad Temir Berlinda Humboldtlar universitetida o'qigan. Sharqshunos prof. R.Xartmandan turkologiya, prof. E.Xaynishdan mo'g'ulcha va xitoycha, prof. M.Vasmyerdan slavistika darslarini tinglagan. 1943-yilda shu yerda falsafa doktori ilmiy darajasini olgan. Ayni paytda mazkur universitetning sharq seminariyasida tatar tilidan dars bergan. 1943–1946-yillarda Turkiya fuqarosi o'laroq harbiy xizmatda zobit. 1947–1951-yillarda Milliy ta'lim vazirligida mas'ul xodim. 1952–1953-yillarda Hamburg universiteti taklifiga ko'ra turkiy tillardan dars bergan va turk, mo'g'ul tillari bo'yicha dotsentlik ilmiy unvonini olgan. 1962-yilda esa Anqara universitetining til, tarix, jug'rofiya fakultetida turk tili professori unvonini oladi. 1961-yilda «Turk madaniyati» ilmiy tadqiqot instituti»ni ochadi va unga 1975-yilga qadar direktorlik qiladi. «Turk kulturu», «Turk kulturu arashtirmalari» nomli jurnallar, jild-jild kitoblar chiqaradi. 1973-yilda Turkiya jumhuriyatining 50 yilligi munosabati bilan maydonga kelgan PIAK (Permanent interneyshil Altaistik konferense), ya'ni DOMOK (Doimiy millatlararo oltoistlar konferensiyasi)ga raislik qiladi.

---

[333] Turklar o'qituvchiga shunday murojaat qiladilar

1982-yildan buyon nafaqada.

E'tirof etishicha, ruscha, nemischada (tabiiyki, turkchada ham) erkin; fransuzchasi, ingliz, arab, mo'g'ulchasi — o'rtacha; o'qiydi, so'zlashadi, lekin yozishda qiynaladi. Lotincha, grekcha, xitoycha, majorchasi — bir qadar: o'qiydi, tushunadi, ammo so'zlashishda qiynaladi.

200 dan ortiq turli kitob va maqolalari, tarjimalari bor. Ular orasida Nizomiddin Shomiy «Zafarnoma»sining Najotiy tarjimasi haqidagi maqoladan mo'g'ulshunos akademik V.Ya.Vladimirsovning (1884—1931) «Chingizxon»i haqidagi taqrizgacha bor. Shuningdek, u Abu Ja'far Tabariy (839—923)ning «Tarixi Tabariy» nomi bilan mashhur «Millatlar va hukumatlar tarixi»ni, V.V.Radlov (1837—1918)ning «Aus Sibirien» («Sibiriya»dan) tadqiqotini tarjima qilgan. Turk-mo'g'ul, turk-arab tillarining o'zaro aloqalari, etnografiya, Qoraxoniylar davri adabiyoti va ularning tadqiqotchilari, Qursaviy, Marjoniy, Q.Nosiriy, To'qay, O.Ibrohimov kabi tatar adiblari ijodi, Baykal ko'li tarixi, Mo'g'ul tarixi... Qo'yingki, uning qiziqmagan narsasi yo'q. Hayotda ham shunday. 90 ga kirayotgan chol ot minadi, chang'i uchadi, hatto, Anqara Yoshlar bog'ida muz maydon yasaldi deguncha, qizi va xotinini olib konki uchishga boradi.

— Bizdan borganlarni tanirsiz?

— Kimni ko'zda tutyapsiz?

— Masalan, Mustafo Cho'qayevni.

— Mustafobeyni g'oyibona bilardim. Olmoniyaga borgandan keyin yaqindan tanishdik. So'ng matbuot sohasida birga ishlashdik. U «Yosh Turkiston»[334]ni chiqardi. Men «Milliy yo'l»[335]da xizmat qildim. Shu munosabat bilan V.Qayumxon, A.O'ktoy, T.Chig'atoy kabi yosh turkistonlilar bilan ham yaqinlashdim. Aslida ularni ham ilgariroqdan tanirdim. 20-yillarning oxirida Olmoniyadagi buxorolik talabalardan bir qismi iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli Turkiyaga Trabzonga keldi. Trabzondagi muallimlar maktabida ayrimlari bilan birga o'qiganman. Javdat, Rahim, O'g'uz, Uyg'ur deganlarini eslayman. Ular men bilan tengdosh edilar.

---

[334] «Yosh Turkiston» — Turkistonlik muhojirlar jurnali.

[335] «Milliy yo'l» — tatar muhojirlari jurnali. Ko'pgina tatar muhojirlari, jumladan, taniqli turkolog Rashid Rahmati Oray ham shu jurnalda ishlagan.

— Idrisiyning taqdiri haqida nima deya olasiz?

— Olimjon Idrisiy, bilasiz, tatar. Buxorolik yoshlarni Olmoniyaga o'qishga olib kelgandan keyin u haqda baland-past har xil gap tarqaldi. Berlindagi tatarlar uni ko'p-da yoqtiravermasdilar. Biroq to'g'ri, iymonli odam edi. Ko'p til bilardi. Bir muddat Olmoniya xorijiya vazirligida ishladi. Xotini do'xtir edi. 2 o'g'li, 1 qizi bor edi. Urushdan so'ng ko'rishmay ketdik.

— Mustafo Cho'qay haqida gapirmoqchi edingiz.

— Gitler hokimiyat tepasiga kelgach, Mustafobey Olmoniyaga kelmay qo'ydi. Ugina emas, boshqa taniqli musulmon ziyolilari ham o'zlarini chetga oldilar. Masalan, Ayoz Ishoqiy Varshavada yashar o' muharrirlik qilgan «Milliy yo'l» Berlinda chiqardi. Mustafobey esa Parijda edi. Urush boshlangach, asirga tushgan turkiy xalqlarning, jumladan, turkistonliklarning taqdiri bilan shug'ullanadigan e'tiborli odam kerak bo'lib qoldi. Uni Parijdan shu maqsadda olib keldilar. Lagerlarda bir necha marta birga bo'lganmiz. U ko'plab turkistonliklarni saqlab qoldi.

— Boymirza Hayitning gapi esga tushadi:

— Mustafo Cho'qay Germaniyada kechalari idish-tovoq yuvuvchilarga yordamchi bo'lib ishlardi. Obro'si zo'r, lekin bir so'm beradigani yo'q. Gapni Ayoz Ishoqiyga buraman:

Eskartma:

Ayoz Ishoqiy (1778—1954) — mashhur tatar adibi, istiqlol qahramoni, siyosiy muhojir.

1917-yil Oktabr voqealariga qadar sotsialistik fikrda bo'lgan. So'ng Rusiya ichidagi mustaqil Tatariston g'oyasini ilgari surgan. 1918-yildan esa bolsheviklardan qat'iy uzilib, ularga qarshi kurash boshlagan. Milliy majlis tomonidan 1918-yilgi Versal konferensiyasiga — sulh majlisiga delegat qilib saylanganidan foydalanib, chet elda qoladi. 1919-yilda Parijga boradi. 1923-yilda Berlinga ko'chib o'tadi. 1925-yilda Turkiya maorif vaziri Hamidulla Subhiy taklifi bilan Istanbulga kelib Turkologiya institutida ishlay boshlaydi. Anqarada nashr etilgan «Turk yurti» jurnalining bosh muharriri etib tayinlanadi. Polshalik mahbus do'sti, marshal Yu.Pilsudskiy taklifi bilan 30-yillarda Varshavada yashaydi. 1928—1939-yillarda «Yangi milliy yo'l» jurnalini chiqaradi. Fashistlar Germaniyasi Polshani olgach, Turkiyaga ketib, umrining oxirigacha o'sha yerda yashaydi. Ilk

asari «Ta'limda saodat yoki ilm o'rganuvda rohat umr» hikoyasi 1899-yilda Qozonda bosilgan. Hozirda uning 600 ga yaqin nomdagi adabiy, ilmiy, publisistik asarlari ma'lum. 1911–1918-yillarda adibning 8 jildlik «Asarlar to'plami» nashr etilgan. O'nlab gazeta-jurnallarga muharrirlik qilgan. U muharrirlik qilgan ilk gazeta (1901-yil, Qozon, «Taraq-qiy») ham, ilk jurnal (1902, Qozon, «Hurriyat») ham yashirin chiqqan edi. So'ngroq (1905) «Tong», «Tong yulduzi», «Tovush» (1907) gazetalarini chiqaradi. Siyosiy mazmundagi hikoyalari uchun qamaladi, Finlyandiyaga qochadi. Turkiyaga boradi. 1909-yilda Qozonga qaytadi. 1913-yilda Peterburgda «El» gazetasini chiqaradi. 1916-yilda Turkistondan mardikorlar olish farmoni xuddi shu gazeta sahifalarida e'lon qilingan edi. «Loshmon xizmati», «Loshmon xizmati haqidagi farmon», «Loshmon xizmatina kirarga tilovchilar» kabi keskin maqolalar yozib, oqpodshoning g'ayrirus millatlarga bo'lgan shovinistik munosabatini fosh etadi. Mardikorlik qo'zg'olonida jo'shqin ehtiros bilan Turkiston manfaatini himoya qilib chiqadi.

– A.Ishoqiyning XX asr boshida shov-shuv yaratgan asarlaridan biri 1904-yilda bosilgan «Ikki yuz yildan so'ng inqiroz» povesti bo'ldi. «Inqiroz» menga g'oyat muassir bir fojia ta'sirini berdi, – deb yozadi zamondoshi Validiy, – men hech bir drama o'qib yoki tomosha etib, «Inqiroz»dan olgan ta'sirni olmayman». «Inqiroz» amerika yozuvchisi Eduard Bellamining «Yuz yildan so'ng» (1888-yilda yozilgan, 1893-yilda ruschaga tarjima qilingan, 1905–1906-yillarda «Yuz yildan so'ngra yoxud 2000 sanai milodiya» nomi bilan Gasprinskiyning «Tarjimon»ida bosilgan) xayoliy romanga javob edi.

– Agar, Bellami yuz yildan so'ng ilm-fanning taraqqiyotiga suyanib «oltin asr» kelajagidan umid qilsa, A.Ishoqiy tatar millatining mavjud iqtisodiy-siyosiy sharoit taqozosi bilan tobora yaqinlashib kelayotgan halokatidan so'z ochadi. Va bu inqirozning bosh sababini ko'rsatib beradi: bular fikr qulligi, maorif nochorligi, millatga xizmat qila oladiganlarning faqirligi, rus-yevropa ilm-fanidan o'zni olib qochish, qilingan barcha ishlarning asossizligi.

– A. Ishoqiy chet elda ekan, o'nlab esda qoladigan asarlar yaratdi. Xususan, Rusiyadagi qizil saltanatning 20-yillardagi fo-

jialari haqida hikoya qiluvchi «To'lqin ichida», tatar xalqining ruslarga qarshi XV asrda olib borgan shonli kurashi sahifalaridan hikoya qiluvchi, milliy g'ururni tarbiyalovchi «Ulug' Muhammad» dramalari muhim adabiy hodisalar sifatida tarixga kirgan.

* * *

Suhbatimiz Ayoz Ishoqiyga ko'chadi:

— Men u kishini birinchi marotaba Berlinda yurtdoshingiz Tohir Chig'atoynikida ko'rganman,-qizg'in davom etadi Ahmad Temir. — Bilarsiz, buxorolik 70 talaba qatorida Germaniyaga o'qishga kelib, shu yerda qolib ketishga majbur bo'lgan, so'ngroq ijtimoiy fanlar bo'yicha professorlikka ko'tarilgan bu millatparvar yigit Ayoz Ishoqiyga kuyov edi. Yangi uylangan paytlari Berlinda turishadi. Bir kuni borib, eshikni taqillatsam, A.Ishoqiy chiqib kelyapti. Nemischalab kimni izlayotganimni so'radi. Tatarchalab: — Saodat Chig'atoyning uyi shumi? — dedim. Keng yuziga yoqimli tabassum yoyildi, kimligimni surishtirarkan, ichkari boshladi.

Umri surgunlarda kechgan bu dovrug'li odamni Tatariston-dagina emas, butun Rusiyada yaxshi tanir edilar. Otam rahmatlik bu kishi bilan birga ko'p martalab choy ichganini iftixor bilan gapirardi. Eslarmikan?!

O'zimni bir pas saqlab turdim. Ehtiyot bilan mahallamiz, urug'imiz haqida aytdim.

— Otang kim?

— Rashid mulla.

— Eslayman, eslayman, — dedi bir lahza o'ylab olib.-Kalta bo'ylik, soqollik hazrat edi, — davom etdi atoqli adib va shaklu shamoyiligina emas, fe'l-qiliqlarigacha gapirib berdi.

4-iyun 1998-yil, Anqara

O'tgan kuni tong saharda Toshkent — Istanbul reysidan tushib, Istanbul — Anqaraga o'tdik. 40—45 minutda «Esenbuqa» aeroporti-ga kelib qo'ndik.

Doim avtobusda ketardik. Bu gal samolyotda uchadigan bo'ldik. Sherigim ham bor — prof. L.Qayumov. «Turk dunyosi adabiyoti» 30 jildligi hay'atining har yilgi yig'iniga ketyapmiz. Bu — to'rtinchisi. O'tgan yilgisi Toshkentda bo'lgan edi.

Mashinaga chiqarkanman, qulog'imga Qizilcha degan joy nomi eshitildi. Iya, bu o'sha Boyazid bilan Amir Temur to'qnashgan mavze emasmikan. Yanglishmasam, u ham shaharning sharqida bo'lishi kerak. Zaki Validiyning xabarlari esga tushadi:

«1925-yil 17-iyul. Temur bilan Boyazid urushgan joyni izlayman. Bugun Anqaraning janubi sharqidagi Husayn G'ozi degan toqqa chiqdim. Qizil Hisordan bir qishloq yigiti: — Hay, nima qilib yuribsan, birovi o'ldirib ketadi», — deb qoldi. «O'ldirsa o'ldirar, nima qilay, Temur bilan Boyazid urushgan joyni ko'rmoqchiman», — dedim. «Ha, yur, bir oz chiqaylik, bo'lmasa», — dedi va uzoqdagi Chubuq dala degan joyni ko'rsatdi. «Bularni kitobdan o'qidingmi?», dedim. «Yo'q, bizning qishloq Xurosondan kelgan. Temurni yaxshi ko'ramiz. Darvoqe, Boyazidni Temurga qayragan turklar emas, serblardir... Tushishda bizga kiring», — dedi. Men yana ilgari ko'tarildim, tog'ning tepasiga chiqdim. Havo g'oyat xush, salqin. Toshlar orasidan qurigan tezak terib olib yoqdim. Shox-shabba qaladim. Yelkamdagi xaltada bir necha dona kartoshka bor edi. Olovga ko'mdim. Boshqirdcha, besh teshikli, jezdan yasalgan nayim bor edi, olib chalishga tushdim. Olisdan kishilar ovozi eshitildi. Saldan so'ng boshlari ko'rindi. Ovrupolilar bo'lib chiqdi. Olmon, fransuz va shvetsiyali muhandislar...».

O'ng tomondagi qizg'ish tekislikday yastangan toqqa termulaman. Ha, o'sha joy. Gap tarixga ko'chadi. Turkmaniston Fanlar akademiyasi qo'lyozmalar instituti direktori prof. Annagurban Ashurov, Otaturk kultur markazining xodimi Yusufbek va biz, o'zbekistonlik ikki adabiyotchi moziyning mojarolarini boshlab qo'yib, beozor yakunlash taraddudiga tushamiz.

— Ajdodlarimizning xatosi avlodlar uchun qimmatga tushdi, — deyman mavzuni tezroq yakunlash uchun. Bir pas jim qolamiz.

— Yo'q, zamon shunday ediki, turkning qo'chqori bitta bo'lishi lozim edi. To'qnashuv muqarrar edi. Shu bo'ldi, — xulosa qiladi mezbonimiz...

— Toshkentda, goho ayrim tarixchi olimlarimizning, «E, turklar Amir Temurni yoqtirmaydilar» degan zamzamali gaplarini eshitganimda g'ijillashib qolgan paytlarim bo'lgan. Masala unday qo'yilsa, Itil bo'yida ham To'xtamishxonning avlodlari uni «yoqtirmaydilar», hatto, Xorazmda ham. Gap unda emas.

Gap voqelikka tik va xolis qaray olishda. 1990-yilda Turkiston shahrida o'tgan Xalqaro Yassaviy kongressi kunlarida hazrat sulton maqbarasi poyida iltijo bilan ajdodlarimizning tarixdagi xatolari uchun mag'firat so'rab turgan bir turk ilohiyot professorining iztirob to'la dardli qiyofasi ko'z o'ngimdan ketmaydi. Iltijo uning dil tubidan bir maromda otilayotgan buloq suvidek qaynab chiqar edi.

— So'ng men bunday samimiy munosabatni turkiyalik do'stlarimizda juda ko'p ko'rdim. Ayniqsa, taniqli temurshunos Ismoil Oka bilan uchrashuvdan keyin turk ziyolilarining samimiyatiga shubham qolmadi...

— «O'rnak» mehmonxonasiga joylashdik. Shahar markazida. Kichik, ixcham. Sheriklar kela boshlagan. Tushlik qilar-qilmas xonalarimizga dam olgani kirib ketdik.

— Sodiq Turol kechqurun Ufadan uchib keldi, Bakir Nabiyev Nyu-Yorkdan. Hamma to'plandi. Yig'inning dasturi tarqatildi. Ochilishi 4-iyunda soat 10,00 da Turk tili qurumi majlislar zalida ekan. Davlat vaziri Ahad Andijoniy ochadi. So'ng matbuot konferensiyasi. Binoni esladim, o'tgan yili 4-turk kultur qurultoyida S.Demirel so'zlagan, bizga «Sharaf uyasi» yorlig'ini topshirgan joy.

Ahad Andijoniy har bir mehmon bilan birma-bir ko'rishib, hol-ahvol so'rashgach, 6 turk mamlakatining bayroqlari qo'yilgan prezidiumga ko'tarildi. Sodiq Turol vakillarni taklif etadi. Birinchi O'zbekistondan boshlaydi. Millatimiz, mamlakatimizning turk dunyosidagi mavqe-martabasidan nihoyasiz g'ururga to'lib, sahnaga chiqaman va bayrog'imiz ro'parasiga o'tiraman. Vazir rasmiy so'zdan so'ng ushbu tarixiy loyihaning ahamiyati va bu boradagi ishlarning borishi haqida matbuot xodimlariga axborot beradi, hay'at a'zolari va mehmonlar bilan tanishtiradi.

Tanaffusda choy ustida vazir janoblari bilan yonma-yon o'tirib qoldik. Gap adabiy aloqalardan universitetlar hamkorligiga ko'chdi. Turkiston zamonaviy ta'limining beshigi bo'lgan Toshkent universitetining shu paytga qadar Turkiyadagi biror universitet bilan shartnoma tuzib, ish boshlamagani yoxud tuzilganlari ham yurmayotganligi har ikki tomonning kamchiligi ekanligi aytildi. Taklif sifatida 3 universitetni tilga oldik: Istanbul, G'ozi, Anqara. Bularning biri mamlakatning eng eski va

eng katta oliy o'quv yurti. Ikkinchisida bizga yaqin mutaxassislar bor (mashhur tilshunos Ahmad Bijon Erjilasun, bizga tanish Sodiq Turol, cho'lponshunos Husayn O'zboy G'ozida ishlaydilar). Anqara universitetida esa ko'pdan ToshDU professori I.G'o'chqortoyev xizmat qiladi.

Tushdan keyin mehmonxona salonida tahrir hay'ati o'z ishini boshladi. S.Turol odatdagidek qizg'in, hayajonli kirish so'zi qildi. Dunyoning bu yog'idan kirib, u yog'idan chiqdi. Kecha Ufadan kelganligini, bir vaqtlar qaqrayotgan cho'lu biyobonga bugun suv keltirilib, Turkiya qishloq xo'jaligining gullab-yashnagan bir joyga aylanganini esda qoladigan misollar bilan, masalan, bir sodda dehqonning yuz ming dollarlik «mersedes»da qo'yni ma'ratib olib ketayotganini o'ziga xos yumor bilan hikoya qilib berdi. Va gapni iqtisodni tuzatish mumkin, aqlning, ma'rifatning ishi og'ir degan xulosaga bog'ladi. Zamonning murakkabligini, kuni kecha Fransiya hukumati bir vaqtlardagi armani-turk mojarolariga qaytib, uni bir tomonlama, ya'ni turklar tomonidan qilingan qatliom sifatida baholaganini kuyinib tilga oldi. Darhaqiqat, u qatliom emas, muqobala, har ikki tomonning bir-biriga bo'lgan qahru g'azabi ifodasi edi. Bundan sovet hukumati 1918-yilning fevralida Turkistonda ustamonlik bilan foydalangan edi. O'shanda dashnoqlar Turkiston muxtoriyatini tugatish bahonasida Qo'qonga kiritilgan va ular Turkiyadagi alamlarini u mojarodan butunlay bexabar turkistonliklardan olgan edilar.

6-iyun 1998-yil

Ikki kun har to'rt komissiya ishlarining muhokamasi bo'ldi. «Tarix»ni prof. O'nder Go'chkun, «Ensiklopediya»ni prof. Mujgon Jumbur, «Terminlar»ni prof. Mustafo Isen, «Antologiya»ni 38 yoshli doktor O'jal O'g'uz boshqardi. Rais 85 yoshli prof. Shukri Elchin O'jalbeyning yonida uning aytganlarini quvvatlab turar, sharoitga qarab lozim maslahatini berib borar edi. Shukri Elchin asosan matnshunos. Kelib chiqishiga ko'ra qrim tatarlaridan bo'lsa kerak. 1961-yilda Turkiyada «Turk kultur arashtirmalari instituti» (Turk madaniyati ilmiy tadqiqot instituti) ochilgan. Uning birinchi direktori Tataristonning Almati (Almatevsk)dan kelgan Ahmad Temir edi. Ahmad Temir bu yil 90 ga kiradi. Shukri Elchin 1972-yildan shu institut direktori. Insti-

tutning «Turk kulturi», «Turk kulturi arashtirmalari» nomli 2 jurnali bor.

Shukri Elchin mashhur tatar yozuvchisi Ayoz Ishoqiy bilan birga ishlashgan. Oktabr o'zgarishidan keyin chet elga muhojir bo'lib ketgan bu kishi o'z vaqtida Turkistondagi mardikorlik voqealari haqida hayajonli maqolalar yozgan. Keskin va qaysarligi tufayli Zaki Validiy bilan ko'p masalalarda chiqisha olmagan va bir-birlariga ko'p-da toqat qila olmagan bu ikki noyob iste'dod XX asr turk dunyosining ikki yuksak yulduzi edi.

Darvoqe, gap O'jalbey haqida. O'jalbey tabiatan quvnoq, zukko, uzun gapni yomon ko'radigan, hamisha ixcham, lo'nda gapiradigan yigit. Folklorchi. 1995-yildan taniyman. Adabiyot darsligini yozayotganimizda Turkiya komissiyasida ishtirok etgan edi. Biznikilar bilan tez chiqishib ketdi. Serg'ayrat yigit, 180 sahifali har uch oyda chiqadigan «Milliy folklor dergisi» jurnalini bir o'zi tayyorlaydi. Jurnal butun turk dunyosi bo'yicha materiallar bosadi: «Uch oylik turk dunyosi folklor dergisi». Turkiya ichida 35, chet mamlakatlarda 25 vakili bor. Bizdan yosh folklorchimiz Mamatqul Jo'rayevning ismi-sharifiga ko'zim tushadi. Bu yilgi (1998) 37-sonida taniqli olimimiz prof. To'ra Mirzayevning «Go'ro'g'lining tug'ilishi» dostoniga yozgan «Dostonlarning shohi» nomli maqolasini bir oz qisqartirib ko'chirib bosibdi.

Majlis davomida Otaturk kultur markazining «Ardam», «Bilge» («Bilimdon»), «Arish» («Qrim») jurnallarini oldik.

Sodiq Turol menga «Bilge» jurnali tahrir hay'atiga a'zo qilib olinganimni aytdi.

Kechki majlisga Galina Kobetskoyte kelib qo'shildi. Laziz aka bilan uzoqdan bosh irg'ab salomlashdi-da, Sibir turklari adabiyoti bilan shug'ullanuvchi Gulixonim yoniga o'tirdi. Ilgari ham bir-ikki ko'rganman. Laziz akaning aytishicha, 60-yillarning oxirida o'zbek tilini o'rganish, o'zbek adabiyotidan litva tiliga tarjima qilish uchun Vilnyusdan Toshkentga kelgan. Millati karaim. 45—50 yoshlarda. Fan nomzodi. O'nga yaqin kitobni o'zbekchadan tarjima qilgan. Ular orasida S.Ahmad, O.Yoqubov, A.Muxtor, Sh.Rashidov romanlari bor. Hozir Litvaning Turkiyadagi elchisi ekan. Turkchasida o'zbekchaning ta'siri kuchli. Mening turkcham o'zbekcha bilan chiqqan, birinchi o'qi-

tuvchim Laziz Qayumov, deydi hazillashib. Darhaqiqat, uning ilk maqolalari «O'zbekiston madaniyati»da chiqqan ekan. «Tarix»ning karaim adabiyoti qismini u yozadi.

Kechga yaqin bir jala quydi-yu ochilib ketdi. Umuman bu yil havo past. Butun Osiyoda yomg'irmi, deyman. Turkiyada ham ko'p yerlarni sel olibdi. Televizor u yer, bu yerlardagi toshqin — sellarni ko'rsatib qoladi.

Kechqurunlari ovqatdan keyin goho lobbida choyxo'rlik qilamiz yo xiyol aylanamiz. Ozarboyjon Bakir Nabiyev, Komil Valiyev, Gulixonim, qozoq Shokir Ibrayev, tatar Xatib, turkman Annagurban Ashirov. Boshqirdistonlik prof. Ahmad Sulaymonov kasal bo'lib, kelolmabdi. O'rniga kelgan yosh Ahad Solihov ko'pda qo'shilib keta olmaydi. Oramizda eng so'zamoli Bakirbey. Kelasi yil 70 ga kiradi. Ozarboyjon fanlar akademiyasining til, adabiyot, tarix bo'limi boshlig'i. O'tgan yili Haydar Aliyev bilan umraga birga borgan. She'rni chiroyli o'qiydi, gapni terib gapiradi. Darvoqe, Shokirbey ham bu yil hajga borib kelgan. Ichmaydi, chekmaydi.

Bugun Sodiqbey maktab yillaridan hikoya qilib qoldi:

1952-yilda otam maktabga boshlab borgan. Darsdan qaytganimda Nomiq Kamol, Umar Sayfiddin, Xolid Adib kitoblarini sovg'a qilgan. O'qishni bilmayman. Qani shularning o'rniga o'yinchoq bo'lsa edi, deyman. Otamning shuni farqlamaganidan ranjiyman. Lekin maqtanish tuyg'usi bor-da, har uch kitobni popkamga solib maktabga boraman. Partaning chetiga, ko'rinadigan joyga qo'yib qo'yaman. O'qituvchi darsga kirishi bilan ko'zi tushadi. Sekin olib varaqlaydi. Nomiq Kamol zo'r shoir, vatan shoiri, — deya gapira boshlaydi. Tushunmayman. Uyga kelishim bilan otamdan so'rayman: — «Vatan shoiri» nima degani?

Otam ertasiga atlas olib keladi. Ko'rsata boshlaydi. Mana Angliya, bunisi Fransiya... mening esa ikki ko'zim orqasidagi bayroqlarda. Otam tushuntirishga tahrir kiritadi. Mana bu bayroq Angliyaniki, mamlakati esa mana bu yerda joylashgan. Fransiya... mana bu yerlarda esa turklar yashaydilar. Ularning davlatlari yo'q, bayroqlari ham.

— Nima uchun? Nima uchun?? — so'roqqa tutaman.

Keyin bilarsan, deydi otam. Ko'zlariga qarayman, yosh qiltillaydi. Yomon bir hodisa ro'y berganday, kelib o'qituvchimdan so'rayman. O'qituvchim menga bir pas tikilib turadi-da, otang senga bemahal bu gaplarni aytibdi. Bu gaplarni katta bo'lganingda tushunasan, deydi.

Shu kundan boshlab tezroq katta bo'lishni istayman...

Endi bilsam, mening ko'nglimga bu dardni otam solgan ekanlar...

Mavzu kechqurungi choy suhbatida davom etadi. Men Furqatning «Shomi g'ariboni»ga gapni buraman. Bakir Nabiyev ilib ketadi:

Oqshomlar, oh oqshomlar.
Oqshomlar yonar shamlar.
Yerli evina gidar
G'arib harda oqshomlar.

Gap she'r san'atiga ko'chadi. Birinchi va so'nggi «oqshomlar»ni ko'zda tutib, «Bayoti»da jinos juda o'rniga tushganini aytaman. Bakir muallim ilhom olib, bayotilarni qalashtirib tashlaydi. Bittasi esimda qolibdi:

Azizim baxtiyorim,
Baxtim(n)i taxti yorim.
Yuzingda ko'z yeri bor,
Sanga kim boxti yorim.

1998-yil 4-noyabr, Antaliya

Tong sahar 5 da Toshkentda edik. 11, da Antaliyadamiz. Turk dunyosi yozuvchilarining 4-qurultoyiga kelyapman. Ertaga ochiladi. «Kitobi Dada Qo'rqut» va «Turkiy adabiyotda roman» mavzularida ma'ruzalar va ularning muhokamasi ko'zda tutilgan. Istanbulda ham, Antaliyada ham aeroportida O'zbekistondan hech kimni uchratmadim. Ehtimol ertaga kelib qolishar degan umid bilan o'zimni yupatdim. Tashkiliy qo'mitadan Ismat Chetin qurultoy dasturini qo'limga tutqazadi.

O'zbekistondan mendan boshqa hech kim yo'q. Men ham ma'ruzachi emas, muhokamada qatnashuvchilar qatoridaman.

— Tashkiliy ishlarimiz qiyin kechdi, — uzr so'ragandek bo'ladi Ismat Chetin. — Bu qurultoy oldingi kelishuvimiz bo'yicha shu muddatda Almatida bo'lishi kerak edi. Bu qarorimiz to'satdan so'nggi oylarda o'zgardi. Qozoq qardoshlarimiz IAESAM[336]ga murojaat qilib, qurultoy muddatini 2000-yilga ko'chirishni so'radilar. Saylov oldining ma'lum noqulayliklarini aytdilar. Shoshilinch ish ko'rishga to'g'ri keldi. Bunday tadbir, bilasiz, katta sarf-xarajat talab qiladi. Byudjet esa bir yil oldin tasdiqlanadi. Xabar qilishga kechikdik. Abdulla Oripov, Odil Yoqubov, To'lepbergen Qayipbergenovlarga ham bir hafta qolganda xabar qildik. Bir haftada nima ham qila olish mumkin. Lekin o'tkazmasa, bo'lmasdi. Uzviylik uzilmasligi kerak. Shu sababli xususiy kanallardan foydalanishga to'g'ri keldi. Sizning Turkiyadagi hamkasabalaringiz bilan yaqinligingizdan foydalandik.

Antaliya chindan go'zal shahar ekan. Aeroport binosidan chiqish bilan tanasi kungaboqarning pistadonini esga tushiradigan tip-tikka palma daraxtlari ko'zga tashlanadi. Shaharga yaqinlashganimizda ro'parada baland tog'lar qad ko'tardi.

— Bu qanday tog'lar? — so'rayman to'ladan kelgan bo'lishiga qaramay, hayratomuz epchil va quvnoq Umirbekdan.

— Ana shularga boramizda hozir, — deydi minibusning joniga olguday gaz bosarkan Umirbek.

Kech kuz bo'lishiga qaramay, havo issiq. Mavsum tugagan bo'lsa-da, chap tomonda dengiz sohilida yakkam-dukkam cho'miluvchilar ko'rinadi. Baland binolardan birida «Fales» degan yozuvni o'qiyman.

— Bu qaysi Fales? Miletlik faylasufmi?

Yelkasini qisadi Umirbek. Meni kutib olgani chiqqan turkiyalik yozuvchi Faridunbey gapga aralashadi.

— Anavi pastda ko'ringan qo'ltiqdan tik ko'tarilgan g'oya va uning ustidagi qal'a devorlaridagi Fales ataladi.

— Qadim Milet shu yerlarda bo'lganmikin?

Darhaqiqat, 30—40 minutda uzoqdek ko'ringan tog'lar ortiga o'tdik. Chapda behudud O'rta yer dengizi, o'ngda tog'.

---

[336] Ilm va yedebiyat eseri sahilleri meslek birligi (ilmiy va adabiy asarlar mualliflarining ish birligi)— Turkiya Yozuvchilar uyushmasining qisqartma nomi.

Uzun-qisqa tunellar. «Saljuqxon» mehmonxonasiga kiramiz. 4 qavatli bino. Binogacha bo'lgan yo'lning har ikki tarafi limon, apelsin, mandarin. Bargi tol bargini eslatuvchi, jussasi uncha katta bo'lmagan, lekin mevasi shig'il, shodadek terilgan ixcham daraxtlar. Chapda daraxtlar orasida emakjoy ko'zga tashlanadi. Gul devor, undan narida atrofini xizmat xonalari qurshab olgan basseyn. Zilol suv jilolanib turibdi. Chapda bar. Yo'lakning tepasidagi o'zimizning ishkomday qo'shilib ketgan yosmin va lavante gullarining yoqimli hidi kishini mast qiladi...

Ikkinchi qavatdagi xonalardan biriga joylashdim. Derazasi sharqqa qaraydi. Dengiz ko'rinib turibdi. Yuz-yuz yigirma metr. Sohilda cho'milayotganlar ko'rinadi. Sabrim chidamay dengiz bo'yiga boraman. Suvning tafti yuzimga urilgandek bo'ladi. Badanimda yoqimli bir iliqlik his qilaman. Qo'limni tiqib ko'raman sinamoq bo'lib. Iliq. O'rta yer dengizini ko'rish nasib qilayotganiga shukrona keltiraman. Yosh boladek qo'limni tilimga tegizib, suvning ta'mini tatib ko'raman, sho'r.

Mehmonxonadagi sherigim Durali Yilmaz Istanbul universiteti professori. 48–50 yoshlar atrofida. Turk romanining shakllanish tarixi bilan shug'ullanar ekan. Tanish-bilishlarni surishtirdik. O'quv-o'qituvdan gaplashdik. 80 ming talabasi bor. 10 ming o'qituvchi ishlaydi. Shubhasiz, bahaybat universitet.

Anqaradan Iristoy aka kelibdi. Eski do'stim Shuayb Qoraqosh bilan ko'rishdim. Bir kecha-kunduzdan buyon halovat bo'lmaganidan boshimni qo'yish bilan uxlab qolibman.

6-noyabr 1998-yil

Ikki kun ham qizg'in o'tdi. Ochilish marosimi mashhur ishbilarmon Sabanchining oynavand Piramida binosi Kongress va ko'rgazmalar salonida bo'ldi. Ozarboyjon odatdagidek tashabbusni qo'lga olishga harakat qildi. Delegatsiya rahbari taniqli yozuvchi Anor yaxshi gaplar aytdi. «Hukumatimiz Doda Qo'rqutning 1350 yilligi haqida qaror chiqardi. Aslida bu tarix juda qadim», – dedi notiq. Va olmon olimlarining tadqiqotlariga suyanib, uning 3000 yillik tarixga ega ekanligi, binobarin, yunon dostonlaridan eskiroq ekanligini so'zladi. Turk dunyosidagi shuhrati, u bilan bog'liq tarixni har bir turk qavmidan topish mumkinligi, qabri haqidagi rivoyatlar ko'p joylarda, jumladan, Qozog'istonda ham uchrayotganligi haqida gapirdi. Mening esa

1995-yilda Anqarada «Turk dunyosi adabiyoti» darsligi yozayotganimizda qozoq qardoshlarimiz bilan «Alpomish» ustida tortishganimiz esimga tushdi. Darhaqiqat, bular bizning uzoqligimizga emas, yaqinligimizga dalil edi.

Kecha tushdan keyin sho''balar ish boshladi. «Roman»ga kirdim. Sho''baning birinchi yig'ilishi ozarboyjon professori Samir Kozimo'g'lining «Bugungi turk romanlarining tarqalish doirasi va buning omillari» ma'ruzasi bilan boshlandi. Samirni ilgari ham ko'rganman. Keyingi paytlarda Anqara universitetida ishlaydi. Muloyim, sertakalluf. Biroq Samirbeyning chiqishi menga uncha yoqmadi. Turk romanlarining sobiq ittifoqdagi tarqalishini mutlaqo mafkura bilan bog'lab qo'ydi. Olmoniyada yashovchi faqir Boyqurt «Turk adabiyotida qishloq romanini maydonga keltirgan omillar» haqida gapirdi. «Turkiyada qishloq qolmadi, lekin shaharlar qishloqqa aylandi», — dedi u.

Anqara esimga tushdi. Bir tomonda, markazda eng zamonaviy barcha qulayliklarga ega 20—30 qavatli binolar. Ikkinchi tomonda, shahar chetida olis qishloqlardan tirikchilik tufayli kelib o'rnashayotganlarning omonat tiklangan quroq uylari. Ma'ruzachi shuni nazarda tutdimikin?!

— Aslida bu mavzu bizdagina emas, olmonlarda ham, ruslarda ham bor, — davom etdi Faqirbey. — Lekin 50—70-yillarda u bizda hukmron mavqega ko'tarildi. U yog'ini surishtirsangiz, bu mavzuda turk adabiyotining har uch mashhur Kamoli qalam tebratgan.

Turk adabiyotiga doir xotiramdagi ma'lumotlarni titkilab ko'raman: Nomiq Kamol, XIX asr. Yahyo Kamol (u ko'proq shoir edi, shekilli). Uchinchisi — Yashar Kamol. Nomiq Kamolning «Intiboh»idan boshqasi esimga tushmaydi.

Muhokamada Samirbey bilan Faqir Boyqurt orasida bahs ketdi. Samir gapni yana mafkuraga burdi. Moskvada jahon adabiyoti institutida doktoranturada bo'lganiga, turk adabiyotidan rus tiliga qilingan tarjimalar bilan jiddiy va atroflicha shug'ullanganiga alohida urg'u berib, bunday ishlar mutlaqo mafkura manfaatiga bo'ysundirilganini aytdi.

Yo'l-yo'lakay F.Boyqurtning ham bir qator romanlari rus tiliga tarjima qilish uchun tanlanib, maxsus ko'rsatma asosida amalga oshirilganini va darsliklarga kiritilib, majburan o'qitil-

ganini qistirib o'tdi. Boshqacha aytganda, sotsializmni targ'ib qilishda aybladi. Yengiltaklik qildi, albatta.

— Sho'ro mafkurasiga xizmat qilganingiz uchun sizni ruschaga tarjima qilishgan, — degan iddaongizga qo'shila olmayman, — dedi g'oyat osoyishta va sovuqqonlik bilan Faqir Boyqurt, — inglizlar, fransuzlar yaqin 20 asarimni tarjima qildilar. Ular nima uchun tarjima qildilar?! Yashar Kamolnichi? Uning birgina inglizchaga tarjimalari 20 dan ortiq. Mafkurasini bilmayman. Shuni bilamanki, bu asarlar turk madaniyatiga xizmat qilayapti. Ikkinchidan, rus adabiyoti buyuk adabiyot. To'g'ri, unda bitta-yarimta asar mafkura vajidan tarjima qilingan bo'lishi mumkin. Lekin uning prinsip darajasiga ko'tarilganiga ishonmayman. Qolaversa, mening kitoblarim Olmoniyada darsliklarga kiritilib o'qitilishini tushunish mumkin, lekin ularning sizda nega shunday qilinganini tushuna olmayman...

Samirbey bahsni ertasi kuni ham muhokamalarda davom ettirdi. Qonimizga kirgan mafkurachilikdan yaqin o'rtada qutulishimiz qiyin, shekilli.

Professor Durali Yilmazning ma'ruzasi — «Turk adabiyotida romanning maydonga kelishi» menga yaqin mavzuda edi.

Yangilikning kirib kelishi hamma xalqda bir xil. Ayniqsa, ildizi bir millatlarda. Ovrupocha nasr, aslini olganda, turkiy xalqlardan ilk daf'a ozarlarda o'tgan asrning 50-yillarida paydo bo'ldi. Va buni olib kirgan Mirza Fathali Oxundzoda edi. Turkiyada bu 70-yillarga to'g'ri keladi va Nomiq Kamol hamda Ahmad Midxat nomlari bilan bog'lanadi. Tatarlarda bu ishni Muso Oqyigit 1886-yilda chop etilgan «Hisomitdin mulla» romani bilan boshlab berdi. Turkistonga u hammadan keyin kirib keldi. Bizda «milliy ro'mon» atamasi bilan matbuotda paydo bo'lgan (parchalarigina bosilgan) va hozirda qo'limizda ushbu parchalarigina mavjud asar Mirmuhsin Shermuhammad o'g'lining 1914-yilda «Turkiston viloyatining gazeti» sahifalarida bosilgan «Befarzand Ochildiboy»idir. Barcha talablarga javob beradigan «O'tkan kunlar» 20-yillarda yuzaga chiqdi.

Roman janrining usmonli adabiyotiga kirib kelishi, shubhasiz, tanzimotning mevasidir. Minglab yoshlarning rivojlangan Yevropa mamlakatlarida, xususan Fransiyada o'qishi, 1848-yilgi

voqealarni o'z ko'zlari bilan ko'rishlari ulkan samara berdi. O'qishga ketgan yoshlar o'z mamlakatlariga hur fikr bilan birga ovrupocha turmush, madaniyat va adabiyot o'rnaklarini ham olib keldilar. Shularning biri roman edi. Istambulda Bobi Oliy qoshida Tarjima uyi ochildi. Tarjimachilik yo'lga qo'yildi. Ilk tarjimalar 1860–1962-yillarda chop etilgan Fransua Feyslon (1651–1715), Bernar Fontenel (1657–1757), Volter (1694–1778) asarlari edi. 1864-yilda ular yoniga «Robinzon Kruzo» qo'shildi. Ilk tarjimon Yusuf Jamol posho edi.

Tabiiyki, qizil ko'ringan har bir narsa oltin bo'lmaganidek, Ovrupodan keltirilgan har bir matohni ham kundalik ishga yaroqli deb bo'lmasdi. Ayniqsa, turish-turmushning ayrim tomonlari, xususan erkin axloq katta bilan kichikning, ota bilan bolaning o'zaro munosabatlarini qat'iy belgilab bergan turk islom jamiyatiga zarar yetkazdi. Buni Ismoilbek Gasprali 115 yilcha muqaddam 1885-yilda e'lon qilgan «Ovrupo madaniyatiga bir nazari muvozana» («Ovrupo madaniyatiga bir betarafona nazar») risolasida aytgan. Insoniyat Ovruponing zamonaviy ilm-fani bilan yuksak islom axloqini birlashtirgandagina komillikka erishishini ta'kidlagan edi.

Romanga qaytamiz. Professor D.Yilmazning ma'lum qilishicha, turk adabiyotida romanning tug'ilishida ilk tarjimalar muhim rol o'ynagan. Birinchi turk romani «Yanicharlar» (1871)ning muallifi Ahmad Midhat (1844–1913)ning xotirlashicha, bu ilk tarjimalar hikmatnomalar deb qaralgan. Hatto, fol kitobi o'rnida foydalanilgan. Holbuki, ular tarjima jihatidan g'oyat nochor edi. Tanzimotchilar ularni chuqur anglay olgan ham emaslar. G'arb romanchiligi bu davrda o'zining haddi a'losida edi. Biz esa ibtidoda turardik. Tanzimotning asl maqsadi davlat tutumidan turish-turmushigacha Ovrupo standartiga chiqish, dunyo bilan barobar ketish edi. Adabiyot ham shu yo'lga kirdi. Birdan ovrupocha romanlar yozish boshlandi. Bu xato edi. Va bularning aksariyati muvaffaqiyatsiz chiqdi. Xalq xotirasida uzoq qolmadi. Chunki roman talabdan, ehtiyojdan kelib chiqadi. Millatning fikri, xususan badiiy tafakkuri o'z milliy shakliga tushgandagina kutilgan ta'sirchanlikka erishish mumkin bo'ladi. To'g'ri, adabiyotlar biri-birisiz yashay olmaydi. Biri-biridan nimadir oladi, nimadir beradi. Uning moddiy oldi-

berdidan farqi shuki, bergan ham, olgan ham boyiydi. Aslida aruz arablarniki edi. Bugun biz o'zbek aruzi va uning ming yillik tarixi haqida gapiramiz. G'azal-chi? Ruboiy-chi? Roman ham shunday. Biroq uning o'zlashishi uchun vaqt kerak. Keyin bunday yirik epik nasr tajribasi bizda yo'q. Kundalik voqealarni mayda tafsilotlarigacha qog'ozga tushirish yo'q. Avtobiografiyaga umuman e'tibor qilinmagan. «Sharhi hol», «Hasbi hol», «Holot», «Ahvolot»lar g'oyat tendensioz. Kishining o'z hayoti tafsilotlarini bitishi nokamtarlikka yo'yilgan. Podsholar haqidagina tafsilotli yozganlar. Hatto, ulug'larimizning xatlariga tarix qo'yilgan emas. Fuqarolik qaydlari haqida esa gap ham bo'lishi mumkin emas. Sayohat xotiralarida ham manzaralar ko'zda emas, qalbda kechadi. Bunday an'analar bilan roman u yoqda tursin, biror kishining hayoti va faoliyati haqida ocherk yozish ham qiyin. Bu hol bilan hisoblashmoq kerak. Turkiy adabiyotlardagi romanlar mana shu to'siqlarni yengib o'tib dunyo ko'rdi. Ba'zilarida bu jarayon tez, ba'zilarida sekin kechdi. O'zbek adabiyotida «Befarzand Ochildiboy» bilan «O'tkan kunlar»ning orasi 10 yil atrofida ekan, demak bu jarayon juda tez kechibdi.

D.Yilmaz romanning ovrupocha fikrlash tarziga mosligi haqida dalillar keltirar ekan, uning bu kunda umumjahoniy hodisaga aylanganini inkor etgani yo'q, albatta. Faqat Ismoilbek Gaspralining Sharq bilan G'arbni bir-biriga bog'lay olish lozimligi haqidagi fikridan kelib chiqib, Ovruponing shakllangan adabiy-estetik bir ijod turiga o'zlikni singdira olish, o'zinikiga aylantirish mahoratiga gapni burdi. Buni hozirda muvaffaqiyat bilan hal etayotgan Amerika adabiyoti misolida isbotlashga urindi. Professorning dalolatiga qaraganda, bugungi mashhuri jahon Markesning romanlari Ovrupo romanchiligi bilan qadim Mayya madaniyati an'analari hamkorligi samarasidir.

Men uchun qiziqarli ma'ruzalardan biri, shubhasiz, do'stim Shuayb Qoraqoshning «Abdulla Qodiriy va uning «O'tkan kunlar» romani» bo'ldi. Qatnashchilar yaxshi kutib oldilar. Ulug' adibimizning jahoniy e'tiboridan, Shuaybning adabiyotimizga mehru muhabbatidan ko'nglim o'sdi. Qarsak chalayotganlar Shuaybga emas, menga qarab qo'ygandek bo'ldilar.

Erman Artun degan bir adabiyotshunos xalq og'zaki ijodi an'analarining romanga ta'siri borasida fikr yuritdi. Shuningdek,

Bulg'oriston, Yugoslaviya, Makedoniya, Olmoniya, Ruminiya, Kipr kabi Ovrupo mamlakatlarida, sobiq Sovetlar ittifoqida yashayotgan turkiy xalqlar adabiyotidagi romanchilikning xilma-xil masalalari o'rtaga tushdi. Sharqiy turkistonlik, eski tanishim doktor Abdulhakim uyg'ur tarixiy romanlari haqida to'xtaldi. F.Chiloning «Mahmud Koshg'ariy» (1990), S.Aziziyning «Bug'-raxon» (1987) romanlari haqida ma'lumot berdi. Mashrabning zamondoshi mashhur Opoqxo'ja haqida yozilgan asar bilan tanishtirdi. Muzokarada qatnashdim. O'zbek romanchiligining shakllanish manbalari haqida o'zbek matbuotida yozib yurgan fikrlarimni aytdim.

Qurultoyning tantanali yopilishi «Saljuqxon» mehmonxonasidan uzoq bo'lmagan g'oyat go'zal bir salonda o'tdi. Sarv daraxtlariga ko'milgan 2 qavatlik kottejlar oralab sohilga tomon yuramiz. Bir zamonlarda otilgan vulqon cho'kindilaridan hosil bo'lgan oppoq tog' jinslaridan tabiat yasagan betimsol shakllar, manzaralar. Pastda oq marmarda jilolanib yotgan ko'm-ko'k basseyn ko'zni qamashtiradi. Ro'parada ufqsiz dengiz.

7-noyabr

Bugun yo'lga tushamiz. Ertalab 5 larda uyg'onib ketdim. Durali uxlayapti. Balkonga chiqaman. Nimqorong'i. Soat 6 larda yaltillab yotgan suvning ufqida qip-qizil sharning qirrasi ko'rinadi. Yo tavba, xuddi qonga botirib olgandek-a. Darhol tepasini bulutga o'xshagan bir narsa qoplaydi. Shafaq bulutga yoyila boshlaydi. Hamon atrof qorong'i. Qizil sharning yarmi bulut ichiga kirdi. Nihoyat, ufqdan uzildi. Rang ham o'zgardi. Endi u sarg'aya boshladi. Olti yarimlarda esa bulutdan ham uzildi. Chinakam quyosh bo'ldi. Atrofga nuri baravar tarala boshladi.

Haqiqatni quyoshga o'xshatadilar. Chunki u hamma yoqni yoritadi. Adolatni ham quyoshga o'xshatadilar. Chunki uning nuri hammaga baravardir. Ogahiy aytmoqchi, u o'z nurini «vayronu obod»ga «teng» sochadi.

Shunisi aniqki, u albatta chiqadi. U turli faslda turli joyda turli muddat ko'zdan bekinishi mumkin. Lekin chiqadi. To'qqiz asr muqaddam bizdan ayrilib ketish bilan taqdiri ayro tushgan turk va o'zbek xalqining bir-biriga qardoshlik tuyg'usi uzoq vaqtlar bulutlar ostida qoldi. Lekin qolib ketmadi. Yana yarqirab

chiqdi. Uni hokim millatlar oyoqlari ostiga olib toptamoqchi bo'ldilar. Turkiy xalqlarni bir-birlariga qayradilar. Lekin Fuzuliy aytmoqchi, «quyosh yer ustiga tushsa ham poymol bo'lmas» ekan. Nur nur ekan. Bugungi o'zaro hamkorlikdan kuch va quvvat olib, tobora mustahkamlanib borayotgan qardoshlik his-tuyg'usi bulutlar ostidan chiqib poyama-poya yuksaklikka ko'-tarilayotgan quyoshni esga tushiradi. Quyoshga esa zavol yo'q.

TARJIMALARDAN

V.G.Belinskiy. «M. LERMONTOV SHE'RLARI»

Sankt-Peterburg, 1840
G'aroyib hayotning orqasidan chop,
Har bir lahzasiga jon ato etgil,
Va har bir da'vatli sadosini top.
Diltortat, kuyunchak qo'shiqlar bitgil.

Venevitinov[337]

Barcha she'riyat haqida gapirmoqda, barchaning talab qiladigani she'riyat bo'lib qoldi. Chamasi, bu barchaning nazarida «non» yoki undan ham aniqroq «pul» so'zi singari ravshan va muayyan bir ma'noga ega. Ammo ikki kishi birbiriga «she'riyat» deganda nimani tushunishini aytib qolsa, ma'lum bo'ladiki, biri she'riyatni suv deb anglar ekan, boshqasi o't deb. Barcha she'r muxlislari deb atalguvchilar o'zlari muhabbat qo'ygan narsalari xususida shundoq gapirsalar nima bo'lardi! Bobilda tillar aralashib-quralashib ketgan manzaraning o'zi bo'lardi-qolardi! Aslida tabiiy hol bu: hamonki she'riyatni ilmiy yo'sinda tayin etish mushkul ekan, jamiyatning kundalik tilida, uning ma'no-mazmuniga, hamma barobar tushunadigan tarzda, shama qilish undan ham mushkul. Bordi-yu buning uddasidan chiqqaningizda ham sizga mayldosh, siz bilan kayfiyatdosh odamlarnigina qanoatlantira olardingiz, xolos. Darhaqiqat, agar men «she'riyat» deganda, o'zida odob va ezgulik rasm-rusumlarini ifoda etgan, vaznga solingan hamda qofiyalangan satrlarni tushunsam, u holda siz she'riyat, bu — hayotning jonli tasviriyu, yoniq in'ikosi ekanligiga meni qandoq ishontirasiz, axir. Agar men «ideallashtirish» deganda, voqelikni

[337] Muhammad Ali tarjimasi-mux.

hozirgiday emas, tamom boshqacha tasavvur qilishni, soxta tafakkur va yasama tuyg'uni tushunsam, siz voqelikni ideallashtirish undan olingan materialni ma'lum maqsadga bo'ysundirish; undagi mohiyatni ajratib olish, balki har xil jinsdagi qismlarni, jonli hamda uzviy bir butun a'zolarga bo'lish deb meni qanday ishontirasiz? Agar men «ilhom» deganda bamisoli afyun yoxud may ta'sirida bo'ladigan ruhiy sarxushlikni, noqobil shoir narsalarni allaqanday telba-teskari tasvirlashga, to'pori, yasama iboralar bilan ifodalashga, oddiy so'zlarga zo'raki ma'no yuklashga majbur etuvchi tuyg'ular jununini va ehtiroslar qaynovini anglasam — siz «ilhom» kelajakni ruhan ko'ra bilish, hayot sirlarini ohista, lekin chuqur mushohada etish holatidir, u bir bamisoli sehrli tayoqchadek tafakkurning tuyg'u kor qilmas jabhalarida ham hayotga va teran mazmunga boy yorqin obrazlar uyg'ota oladi va atrofimizdagi ko'pincha g'amgin, nosoz bo'lgan voqelikni nurli va barkamol ko'rsatadi, deb qanday tushuntira olasiz?.. Agar fan deganda, bilimlarning faqat sxemalarini emas, unda yashiringan fikrni anglash tushunilsa, she'riyat va fan teng — o'xshashdir. She'riyat va fan qalbimizga xos qandaydir qobiliyat bo'lganligi uchungina emas, balki «aql» so'zida ifodalangan ruhiy borlig'imizni butun to'laligi bilan anglatishiga ko'ra mushtarakdir. Bu jihatdan ular idrok va yana ehtimol tasavvurdan boshqa hech narsa talab qilmaydigan «aniq» deb atalmish fanlardan keskin ajralib turadi. Juda aqlli odam bo'la turib, poeziyani tushunmaslik, uni safsatabozlik, bekorchi va esi past kishilarning ko'nglini olish uchun xizmat qiladigan qofiyabozlik shaqildog'i hisoblash mumkin; lekin o'zida biror narsaning, masalan matematikaning ma'nosini anglay olish imkoniyati · mavjudligini his etmagan va bu borada qattiq mehnat evaziga ozmi-ko'pmi yutuqqa erishmaganni aqlli odam deyish mumkin emas. Aqlli, hatto juda aqlli odam bo'la turib, «Iliada»ning, «Makbet»ning yoki Pushkinning lirik she'rlarining nimasi yaxshiligini tushunmaslik mumkin; ammo ikki karra ikki to'rt bo'lishini yoki ikki parallel chiziq nihoyasiz davom ettirilganda ham hech qachon kesishmasligini bilmagan — aqlli odam bo'lolmaydi. «Aniq» haqiqatlar deyilganda, avvalambor, insoniyatni hayvonotdan ajratib turuvchi — es-hushga ega har bir odamga ayon va shubhasiz bo'lgan haqiqatlar tushu-

niladi. Shu jihatdan yuksak ma'nodagi fan — falsafa bilan she'riyat, takror aytamanki, teng huquqlidir. Unisi ham, bunisi ham, hatto ko'rinishdan «aniq» narsalardan baravar uzoqdir. Lekin turli-tuman tushunchalar, maslak va didlarning san'at asarlarini baholashdagi olatasir kurashi va ziddiyatlari orasida sinchkov nigoh hayotning barcha buyuk hodisalaridagi kabi mushtaraklik tantanasini, ya'ni san'atning mohiyati aqlga qancha muhmal, tutqich bermas bo'lsa, undagi «aniqlik» tantanasi shu qadar yuksak va fusunkor bo'lishini kashf etadi. Yunon respublikalarini yer yuzidan yuvib tashlagan zamon ummoni Gomer, Geziod, Esxil, Sofokl, Pindar, Anakreon(t) nomlarini saqlab qoldi va hozirda o'zlarini ilhom ne'matiga daxldor bilganlarning barchasi xoh bajonu dil, xoh ixtiyorsiz bo'lsin, har holda bu nomlardan hayratga tushadilar. Belveder Apollonidan muvaffaqiyat bilan ko'chirilgan nusxa hammada zavq-shavq uyg'otadi, ikki bo'lak marmardan iborat asl nusxa esa bebahodir. Shekspir dramalarida esnab o'tirib, suyuq vodevillarni pinhona afzal qo'yadigan johillar Shekspirni og'iz ko'pirtirib maqtaydilar va agar biror san'atkorni u bilan tenglashtirgudek bo'lsangiz, o'zlarini haqoratlangan hisoblaydilar. Lekin bu-vaqt hukmidagi ish. Zamonamizning quramaligiga qaramay fikrlar birligining tantanasi yana ham ajoyibroq, negaki u mulohazakorlikning kaltabinlik, bachkana tuyg'ularga qarshi kurashi ustidan ham qilgan g'alabasidir. Pushkin bizda klassik turg'unlik davrida maydonga chiqdi va shu sababli uni yosh avlod qanday xushnudlik va xayrixohlik bilan kutib olgan bo'lsa, keksa avlod, xususan, o'sha paytdagi o'larmon shoirlar, adiblar va suxandonlar shu qadarli adovat va qahr bilan qarshi oldilar. Lekin haqiqat haqiqatligini qildi. Baqirish-chaqirishlarga, qattiq bahslarga qaramay, umumiy fikr o'sha zahotiyoq yosh shoirning nomini ungacha va uning zamonasida shoirlik tojini kiygan barcha qalamkashlardan yuksakka ko'tardi.

Lekin san'atdek noaniq, notayin predmet haqidagi xilma-xil ziddiyatli qarashlar ustidan g'olib keladigan bu yakdillik ko'pchilikdan, olomondan chiqmaydi, balki ozchilikdan, sara kishilardan olomonga o'tadi. Go'zallikni hamma tushunavermaydi va hamma tushunishi shart ham emas. Uni faqat ozchilik, sara kishilargina tushunadilar. Kimki tabiatan ruhdan yaralgan bo'l-

sa, u ruhning tanaga va tana qalbi — aqlga muyassar bo'lmagan hamma ne'matiga daxldordir. Aql insonni barcha hayvonlardan yuksakka ko'taradi, lekin faqat idrokkina insonni barcha narsadan ustun qiladi. *Aql* «aniq» fanlardan nariga o'tmaydi va «foydali», «zaruriy» narsalarning tor doirasidan chetga chiquvchi biror narsani hazm qilolmaydi; *idrok* esa tajribadan yuqori, hissiyotdan yuqori nihoyasiz olamni qamrab oladi va u aql bovar qilmaydigan narsalarni rivojlantiradi, noaniq narsalarni oydinlashtiradi. San'at idrokka mansub hodisalar turiga kiradi va shu sababli she'r yozishni o'rganib bo'lmaganidek, poeziyani tushunishni ham o'rganib bo'lmaydi. Go'zallikdan yaxshi taassurot ola bilish o'ziga xos talantdir. U ilm bilan ham, tahsil bilan ham, mashq bilan ham qo'lga kiritilmaydi, balki tabiat tomonidan beriladi. Poeziyani tushunish ruhning kashfiyotidir, kashfiyot siri esa, inson tabiatida yashiringan bo'ladi. Insonlarning tabiati esa ma'lumki, benihoya xilma-xildir va ular (qaysi tomonidan nazar tashlashimizga qarab) pastdan balandga yoxud balanddan pastga cho'zilgan beadad zinalardan tarkib topgan hadsiz zinapoyani tashkil qiladi. Poeziya dastavval yurakka quyiladi, undan boshga o'tadi. Shu sababdan, kimningki yuragi nafosatni his etish tuyg'usidan mahrum ekan, uni go'dakligidan san'at asarlariga ko'mib tashlasangiz ham, umr bo'yi poeziya to'g'risida va'z aytsangiz ham, unda san'atning shakllariga nisbatan ko'nikma hosil bo'ladi, uning tashqi sifatlarini baholashni o'rganadi-yu, san'atning mohiyati uning uchun bir umr sirligicha qolaveradi, bunday sir borligi uning xayoliga ham kelmaydi. Tabiatan poeziyaga yot bo'lgan bunday kishilar go'zallikni anglashga muyassar bo'lganlarga nisbatan haddan ziyoda ko'pdir. Xo'sh, nega bunday? Shuning uchunki, san'atkor ham olomon ichida milliondan birni tashkil qiladi. Nega nisbat bunday? Bu savolga Pushkinning Motsarti Salega aytgan gaplarida ajoyib javob beradi:

Ne bo'lardi sening qadar hamma
Musiqaning shu qudratin sezsa!
Yo'q, u holda qulardi dunyomiz.
Berilib hamma inson san'atga

Kim ko'rardi tirikchilik g'amin?
Bizga o'xshab u baxtiyor, mumtoz,
Husni vohidga bog'li rohiblar —
Manfaat ishini xorlaganlar kam.

(*Maqsud Shayxzoda tarjimasi*)

Odatda, olomon foydaga qanday ixlosmand va beriluvchi bo'lsa, san'atga nisbatan shu qadar sovuqqon va loqayd bo'ladi; shoir olijanob qahr shiddatida uning ma'nosiz baqiriqlariga javoban shunday deyishga to'la haqli:

Daf bo'ling, ey muhtojlikka g'arq,
Aqli qosir, farosatsiz xalq!
Bo'lar-bo'lmas oh-voh dersizki...
Sen — chuvalchang, ko'k o'g'limas, yo'q:
Naf bo'lsa bas, nafdan ko'ngling to'q,
Nima senga Belvederskiy?!
Undan naf yo'q, xullasi kalom.
O, marmar-ku bu tangri!.. Biroq
Xurmachadir senga yaxshiroq,
Bo'lur unda pishirsa taom.

(Muhammad Ali tarjimasi)

Olomon san'at ishlariga naqadar sovuqqon va loqayd bo'lsa, san'atning olomon ustidan tantanasi shu qadar yuksak va hayratlanarlidir. San'at tabiatning tanlangan vakillari irodasiga ixtiyorsiz bosh egar ekan, aqlning *avtonomiya*sini[338], — uning «*noaniq*»ligiga qaramasdan, e'tirof etadi va bu bilan uni hokimi mutlaq qilib qo'yadi. Olomon sig'ingan sanam, — foydani jirkanch hisoblashi bilan bu mavjudot, shoir olomonda o'ziga nisbatan xurofiy bir hayrat uyg'otadi, uning qarsaklaridan xiroj yig'adi, o'zining paydo bo'lishi bilan olomonda zavq-shavq hosil etadi. Bu shunday bir hodisaki, uning oldida «aniq» donish-

[338] Avtonomiya predmetning tashqi jihatlariga, undan keladigan foydaga, u haqdagi naql (traditio) yoki chet avtoritet fikriga emas, uning mohiyatiga suyanuvchi huquqdir. Darvoqe, bu so'z hatto, ruscha «Ensiklopedik lug'at»da ham keraklicha izohlangan. Qiziqqanlar birinchi tomida ko'rishlari mumkin (V.G.Belinskiy izohi).

mandlikning butun teranligini tushungan, «foyda»ning eng ashaddiy muxlisi ham beixtiyor o'ylanib qoladi...

Shunday qilib, nafosatning barcha dushmanlarini chekkaga qo'ya turamiz, olomonning san'at ishlariga loqaydligini esdan chiqaramiz; birlari bizni tushunmaydilar, boshqa birlari biz bilan kelishmaydilar, yana birlari esa bizni masxara qiladilar, deb qo'rqib o'tirmaymiz-da, maqolamizning boshida qo'ygan savolimizga qaytamiz: poeziya nima? Poeziya shoirning butun dunyoni o'z e'tiqodining haqqoniyligiga ishontirmoq, ko'pchilik uni tushunishga noqobil bo'lsa-da, hamma bilan bir xil tilda, bir xil qalb harorati bilan gaplashmoq va so'ngida ba'zilarning tushunmasligidan (aslida tushunishlari mumkin ham, shart ham bo'lmasa-da) ranjimoqdek olijanob, lekin mahol istagi ifodasidir. Inson faqat yoshligining jo'shqin, ko'pni ko'rmagan chog'laridagina shunday istak bilan to'lib-toshadi... Barchaga va barcha uchun gapiramiz, lekin faqat ba'zilardangina aks-sado kutamiz... Nima, mudrab yotgan o'zga bir qalbda yuksak parvoz tuyg'usi uyg'otish buyuk baxt emasmi? Biz hech qachon ko'rmagan va bilmagan, bizdan yiroqda, ehtimol, dunyoning narigi chekkasida yashaydigan kimsaning yuragida hamdardlik uyg'otish, satrlarimiz tufayli umuminsoniyat manfaati yo'lida o'zining ruhan qardoshligini anglagan va bu bilan ruhning makon va zamon g'ovlari ustidan tantanasini namoyish etuvchi yurakda hamohanglik hosil qilish buyuk baxt emasmi?..

Xo'sh, poeziya nima ekan? deb so'raysiz o'zingizni qiziqtirgan savolga javob olish yoki ehtimol, bu qadar muhim va qiyin savolga javob berolmay xijolat bo'lishimizni mug'ombirona kutib. U holda ham, bu holda ham baribir javob berishga intilamiz. Lekin biz javob berishdan oldin, o'z navbatida, sizga ham savol beramiz. Ayting-chi, qanchalik zo'r san'at bilan bunyod qilinsa, jonli odamning basharasiga naqadar o'xshash bo'lsa, kishi shu qadar ko'proq jirkanadigan mumi-yuzdan inson chehrasining nima bilan farqlanishini qanday ataymiz? Ayting-chi, tirik odamning yuzi o'likning aftidan nima bilan farqlanadi? Axir, yuz shakli har ikkisida ham aynan bir xil. Undagi a'zolarning mutanosibligi ham, uyg'unligi ham o'sha-o'sha-ku? Nega bu ko'zlar bu qadar tiniq, aql va ma'noga to'la. Siz bulardan qandaydir fikrlar uqasiz, bular go'yo sizga qandaydir

dilkash va sevimli bir narsani so'zlab bermoqchidek. Ular esa bu qadar so'nik va ma'nosiz!.. Sababi ravshan: birinchisida hayot bor, ikkinchisida esa yo'q. Xo'sh, bu «hayot» degani nima o'zi? Biz inson tanasida kechadigan jarayonlarni bilamiz. Inson hayoti organizmdaligini, qon aylanishi to'xtashi bilan uning ham to'xtashini bilamiz. Lekin bu organizmning biror murvatini burash bilan o't oldiradigan yoxud to'xtatadigan mashina, shuningdek, yurgizib-to'xtatish mumkin bo'lgan soat emasligini ham bilamiz. Shu tariqa organizmning sir-asroriga qanchalik chuqur kirib borsak, hayot sirlariga shu qadar yaqinlashamiz va chamasi, aslida ular bizdan shu qadar uzoq va bizga shu qadar tutqich bermas bo'lib boradi. Lekin o'liklar orsida tiriklar bo'lganidek, tiriklar orasida ham o'liklar bo'ladi, negaki, hayvonga xos hayot inson uchun o'limday gap, irokez hayoti yevropalik uchun o'limga teng. Tirikchilik zarurati va manfaatiga qul bo'lgan, qorin to'ydirishu cho'ntak qappaytirishdan yoki bachkana shuhratdan boshqa narsani o'ylamaydigan odamning hayoti fikrlovchi, his qiluvchi kishi uchun o'limdir. Nimaiki mazmunda bo'lsa, shaklda ifodasini topadi. Shu topdagina bo'kkuncha to'yib, harsillab qolgan mana bu odamning mudroq, tund ko'zlariga, lavang turqiga, hayvoniy qiyofasiga nazar tashlang. Endi mana bunisiga razm soling. Bu ozg'in, rangpar kishining ko'zlaridan qanday o't chaqnaydi, u naqadar harakatchan, uning ovozida qanchalar ehtiros bor! Birinchisi — o'lik, ikkinchisida hayot yashnaydi; shunday emasmi? Lekin hayotning shaklu shamoyili benihoya xilma-xildir. Yo'lbars toshbaqaga nisbatan harakatida hayot barq urgan mahluqdir. Lekin uning hayoti sof organik, hayvoniydir. Uning manbai-qaynoq qon, beadad qudrat to'la muskullardir. Shunday, ba'zi odamlar yashnab tursalar ham o'z jozibalari bilan sizning qalbingizni zabt etolmaydilar va siz ularga qarata:

Undan ilohiy belgi izlamoq nedir?
Kuch ham oshib-toshmoqda, ko'pirmoqda qon!
Undan ko'ra umringni tashvishlarga ber,
To'kib yubor og'uli sharbatni al'on! —

(*Muhammad Ali tarjimasi*)

deyishga tayyorsiz. Ehtiros kishisi bilan his kishisini beadad masofa ajratib turadi; bevosita bir tuyg'uda turg'un odam bilan qullarcha instinkti, garchi olijanoblikka moyil bo'lsa-da, — erkin anglash darajasiga ko'tarilgan, fikri tuyg'usini nurlantirgan odam o'rtasidagi masofa yanada uzoqdir. Hayot hech qayerda inson irodasini harakatga soluvchi, uning betinim faoliyatini quvvatlab turuvchi ma'naviy intilishlar va ongli tarzda anglash sohasidagidek jo'shqin emas: u hayotning mumtoz guli, uning oliy kamoloti, me'roji, u har qanday hayotdan ustun bo'lgan hayotdir. Unga qiyosan boshqa har qanday hayot undan tuban va chinakam o'limdir. Lekin hayot qanday shaklu shamoyilda namoyon bo'lmasin, taraqqiyotning qaysi pillapoyasida turmasin, hamisha hayotdir. Tabiatning ongsiz hodisalaridan geniyning ma'naviy hayotini ajratib turuvchi farq benihoya kattadir. Lekin tabiatda ham, hatto, taraqqiyotning eng quyi bosqichlarida ham hayot muqaddas va buyuk sirdir. Inson ruhi surx novdalarining so'lishini, dengiz maxluqining suv ostida vazmin suzishini, saratonda ayni tush paytida esgan shabadada yaproqlarning shitirlashini so'ngsiz bir shavq bilan tinglaydi, ularga butun vujudi bilan yaqinligini anglaydi, ularning timsolida o'zini ko'radi. Prometey olovi singari uning o'ziga ham hayot baxsh etib turgan hayotning o'lmas ruhini his etadi. Jonli odam uchun tabiat hamisha tirik, u shuning uchun yer qobig'ining sirli laboratoriyasida metallning unsiz hosil bo'lishida ham, hayot asari bo'lmagan, abadiy qish hukmronlik qilgan qutbda tarqalgan muzlar ustida to'zqigan oppoq qor bo'ronida ham uning ovozini eshitadi; suvlarning ko'tarilish va tushishida nuroniy chol — ummonning alp ko'kragini to'ldirib, shiddat bilan nafas olayotganini ko'rgandek bo'ladi... Olisda qorayib ko'ringan o'rmon qalbimiz uchun sirli o'ylarga to'la; unga yaqinlasharkanmiz, bizni beixtiyor, qandaydir bolalarcha hadik, ajib bir sehrga og'ushta, lekin dilkash qo'rquv chulg'ab oladi va biz shoirning mana bu satrlarini takrorlaymiz:

Qarag'ayzor shovullar nechun?
Qanday o'ylar yashirinmish unda?
Nahot, sovuq bu saltanatda
Bir sir bordir, bir fikr bordir?

Gohi sokin kechalar aro
Kechmishlarning jonli soyasi
Chiqib kelib o'rmon qa'ridan
Odamlarga qo'rquv soladi.
Yo'qoladi tongda soyalar;
Muz ham qolmas; cho'qqida faqat
Tuman qolar, qora g'am ichra
Tengsiz qora, qora tun qolar...
Qanday sirkim, vahshiy o'rmonda
Rom aylagan bizni o'ziga,
Bexud qilib tuyg'uni tamom,
Yangi sirlar paydo etgan sir?..
Nahot, o'lim saltanatida
Ulug'ligin anglagan bir ruh,
Ya'ni boqiy hayotning ruhi
Qalbimizda yashaydi ongsiz?

(*Muhammad Ali tarjimasi*)

Yo'q, hayotning buyuk saltanati bilan o'z qondoshligini, mushtarakligini, birligini anglamaslik emas, balki anglash tuyg'usi ruhimizni tabiatning sirli hodisalarida o'z aksini ko'rishga majbur etadi!.. Chamasi, ruhimiz insonda shaxs bo'lib qaror topgan individualligi bilan umumdan ajrab chiqqan sayin o'ziga qondoshligini sezishdan mahrum tabiat bilan yaxlitligini shu qadar jonliroq va teranroq angay boshlaydi... Tabiatda bizning ruh yo'q, lekin bizda tabiat ruhi bor. Negaki, borliqning qonuni shunday: oliy mavjudot pastroqini o'zida jamlagan bo'lishi shart. Ha, bizning ruhimizda tabiat bilan umumiylik bor va bu umumiylik hayotdir. Shuning uchun ham u ruhga shu qadar tushunarli va qardosh tilda so'zlaydi. Shuning uchun ham undagi barcha narsa ruhni o'ziga chorlaydi:

Bu yerda nur, hayot, barglar nafasi,
Yuzlab sadolarning jo'r musiqasi,
Xilma-xil giyohlar o'sar, qulf urar!
Kunduzlari yonar hirs bilan chunon
Va kechalar — xushbo'y shabnamdan har on
Muattar hidlarni sochar, ufurar;

Yulduzlari yoniq ko'zlarday porlar,
Yosh gruzin qizning nigohisimon!..

(*M.Boboyev tarjimasi*)

Olamdagi narsalar beadad va xilma-xildir, lekin ularda ma'lum mushtaraklik bor va ularning barchasi umumning juz'iy ko'rinishlaridir. Mana shuning uchun ham falsafa birgina yagona umumiylik mavjuddir, deb aytadi. Hayot to'la ko'krakning nafas olishi juz'iy ko'rinishdir. Odamlar tug'iladilar — o'ladilar, keladilar-ketadilar, ammo hayot hech qachon o'lmaydi, hech qachon yo'qolmaydi. Okeanda to'lqinlar bunyod bo'ladi, to'lqinlar to'lqinlarni quvadi, to'lqinlar to'lqinlar bilan almashinadi, lekin okean hamon o'sha ilgarigiday buyuk va teran, o'zining tubsiz va poyonsiz maskanida barqaror turaveradi. Uning billur tomchilarida esa porloq quyosh yog'dusi hamon tantanavor aks etaveradi, beadad yulduzlar sochilgan tungi osmon o'sha ilgarigiday uning siynasida titrab, chayqalaveradi. Har bir inson alohida o'ziga xos ehtiroslar, tuyg'ular, orzular, fikrlar olamidir. Lekin bu ehtiros, bu tuyg'u, bu orzu, bu fikr qandaydir bitta odamgagina mansub emas, balki barcha uchun mushtarak bo'lgan inson tabiatining umumiy mulkini tashkil qiladi. Shuning uchun ham kimdaki bu umumiy jihatlar ko'p bo'lsa, u ko'p yashaydi, kimdaki bo'lmasa, u tirik murdadir. Insonning umumga mansubligi nimada ko'rinadi? Inson tabiatiga xos, uning mohiyatini va xarakterini tashkil etuvchi hammaboplikda, o'zi haqida: «Men — insonman va men uchun insonga xos biror narsa yot emas», deya olishida. Kimki umumga daxldor bo'lsa, uning uchun shaxsiy foyda va turmush ehtiyojlari ikkinchi darajali, tabiat va insoniyat esa asosiydir. Kimningki shaxsi umumiylik ifodasi bo'lsa, o'z atrofidagilarga hamdardlik, muhabbatning hayajonli zavq-shavqi, do'stlikning shodon, baxtiyor tuyg'usi bilan yonadi, hislar tug'yoniga, hayotning bo'ron va to'fonlariga, to'sqinlari bilan olishuvga chanqoq bo'ladi; u hamma narsani tushunadi, hamma narsaga aks-sado beradi; zarhal koshonalarda, boylik va hashamat ichida muhtojlar va faqirlar nidosini eshitib, yuragi titrab ketadi, lekin ularning qadalgan nigohlaridan hazar qilmaydi; o'zi qaynoq muhabbat bilan sevgan, o'zi aziz va qadrdon deb atagan muhitda bo'la turib,

abadiy hijron va judolikning nola va ko'z yoshlariga sado beradi, yetti yot begonaning g'amidan yig'laydi; g'ayratga to'la o'spirin o'z shijoatini jilovlaydi, shiddatli harakatlariga vazminlik beradi, yuzida hissiyotning mayin nuri balqqan, titroq ovozida mehrning harir ohanglari tovlangan nuroniy huzurida izzat va ibo bilan, ma'sum bosh egadi, yillar yuki qaddini bukkan qariya maysazorda ipak qanot kapalakni quvlayotgan bolakayga munis nazar tashlaydi, uning bolalik quvonchidan shodlanadi, qayg'usiga sherik bo'ladi; u o't-olov yoshlik xatolarini kechiradi, shiddatli ehtiros to'lqinlariga muruvvat qiladi; u yosh qizning yonoqlaridagi lahzalik otash va sarosimalikni, uning intizor nigohini, unsiz g'amini, navqiron ko'ksi entikishlarini, sababsiz o'kinchini, qo'rquvini, shodligini tushunadi... Hayot quyunida charx urayotgan, orzu va jasoratga to'la, o'z qudratini anglab, ko'ngli o'sgan, sirli kelajakning olis jozibasiga shaydo bo'lgancha, hech bir yoqqa qayrilmay, shahd bilan ketayotgan, uning xoinona aldoqlarini bilmagan va bilishni ham istamagan yoshlikka mehr bilan boqib, alqar ekan, uning ko'z o'ngida o'zining o'tgan hayoti, o'sha qaytarilmas yillardagi dilkash timsollar, tanish qiyofalar jonlanadi va u na nasihatgo'ylik, na ezmalik qilmay, ham ma'yuslik, ham quvonch aralash tabassum bilan takrorlaydiki:

...Yuz bermishdi shundoq hol avval,
Bir zamonlar men ham shundoq bo'lgandim!

(*Muhammad Ali tarjimasi*)

Ha, yashamoq, muncha yil yeb-ichmoq, mansab va pul deb o'lib-tirilmoq, bo'sh vaqtlarda esa mudrab, pashsha qo'rimoq va qartavozlik qilmoqdan iborat emas: bunday hayot har qanday o'limdan ham yomon, bunday odam esa har qanday hayvondan ham tubandir. Negaki, hayvon o'z instinktlariga bo'ysungan holda tabiat yashash uchun ato qilgan barcha vositalardan to'la foydalanadi va bu bilan burchini ado etgan bo'ladi. Yashamoq — bu his etmoq va fikrlamoq, iztirob chekmoq va rohat qilmoqdir. Bulardan boshqa har qanday hayot o'limdir. Bizning tuyg'u va tafakkurimiz qanchalik katta mazmunni qamrab olsa, iztirob va rohatlanish qobiliyatimiz qanchalik kuchli va teran bo'lsa,

demakki, biz shu qadar ko'p yashayapmiz. *Bunday* hayotning lahzasi mayda-chuyda ishlaru bir chaqaga qimmat niyatlarni deb ruhsiz, mudrab o'tkazilgan yuz yildan ahamiyatliroqdir. Iztirob chekish qobiliyati rohat qilish qobiliyatini shart qilib qo'yadi. Ko'z yosh to'kmaganlar quvonmaydilar. Iztirobni bilmaganlar rohatni ham bilmaydilar. Mefistofel Faustga olomon yuksak baholagan barcha ezgulik va huzur-halovatni taklif etganda, Faust unga qarata javob beradi:

Yo'q, shodlikmas mendagi tilak,
Men tilayman dovul va bo'ron.
Menga hislar otashi kerak,
Kerak menga o'rtaguvchi jon.
So'ndi menda kitobga istak,
Qo'l cho'zurman xaloyiq tomon.
Tor qafasdan qutulgan yurak
El dardiga bo'lsin oshiyon.
Ha, ularning g'am, kulfatlari,
Shodliklari, uqubatlari,
Ko'z yoshlari, kulgulari ham
Yuragimga bo'lsinlar hamdam.

(*Erkin Vohidov tarjimasi*)

Ha, hamma narsani ruhan zabt etmoq, egallamoq, hamma-hammasida ustun kelmoq va hech narsaga tobe bo'lmaslik — mana hayot shu! Lekin bunday hayot insoniyat sarvari, namoyandasi rolini o'ynamish ozgina odamlargagina xosdir. Mana ulardan biri:

Bari ruhga madad: donolar so'zi,
San'at asarlari — yog'dulari ham,
Naqlu rivoyatlar — kechmishlar izi,
Gullagan zamonlar orzulari ham.
Istasa izmiga olar-da xayol,
Kulbayu saroyga kirgay bemalol.
Joni-dili edi tabiat, olam,
Anglardi jilg'alar jildirashini,

Tuyardi maysalar sovqotganin ham,
Sezardi yaproqlar shitirlashini;
Qoshida yulduzlar kitobi ayon,
Ul bilan so'ylashar purmavjli ummon.

(*Muhammad Ali tarjimasi*)

Baratinskiyning Gyote haqidagi yigirma misrali bu she'rida inson hayotining oliy ideali va botiniy odam hayoti haqida nimaiki deyish mumkin bo'lsa, hammasi aytilgan.

Lekin insonning tabiati va shaxsidan tashqari jamiyat va insoniyat ham bor. Insonning ichki olami qanchalar boy va go'zal, hayot sharobiga limmo-lim to'la bo'lmasin, buloq singari qanchalar qaynab-toshmasin, u o'ziga tashqi dunyo, jamiyat va insoniyatning manfaatlarini chuqur singdirib olmasa, nomukammaldir. Barkamol va sog'lom qalbda Vatan taqdiri mumtoz o'rinni ishg'ol etadi. Har qanday olijanob shaxs Vatan bilan qon-qardoshligini, u bilan o'zi orasidagi muqaddas bog'lanishni teran anglaydi. Jamiyat ham har qanday individ singari tirik bir organizmdirki, uning ham o'ziga xos o'sib-ulg'ayish davri, sog'ligi, bemorligi, qayg'usi, shodligi, tanazzulga yuz tutgan onlari, tuzalish va paymonasi to'lgan daqiqalari bo'ladi. *Tirik* inson o'z ruhida, yuragida, qonida jamiyat hayotini tashiydi. Beixtiyor uning illatidan dard chekadi, uning iztiroblaridan azob tortadi, uning salomatligidan yashnab ketadi, saodatidan baxtiyor bo'ladi. Binobarin, bunday hollarda jamiyat o'zining munosib hurmatini topgan bo'ladi, xolos. Lekin bunda inson hayotining hammasi bo'lmasa-da, muayyan daqiqalari, shubhasiz, talab qilinadi. Ammo grajdanin insonni, inson grajdaninni inkor etmasligi kerak. U holda ham, bu holda ham — biryoqlamalik bo'ladi. Har qanday biryoqlamalik esa cheklanganlik bilan egizakdir. Vatanga muhabbat, xuddi yakka va umumga o'xshash, insonning insoniyatga muhabbatidan kelib chiqmog'i lozim. Vatanni sevmoq, unda insoniyat idealining qaror topishini dardli sog'inch bilan orzu etmoq va bor kuch-quvvati bilan unga yordam bermoq demakdir. Aks holda vatanparvarlik o'ziga tegishli narsalarni faqat o'ziniki bo'lganligi uchun, yaxshi ko'ruvchi barcha begona narsalarni esa faqat begona bo'lganligi uchun yomon ko'ruvchi, o'zining rasvo hamda bema'ni ekan-

ligini anglamovchi kitaizm[339] bo'lib qoladi. Ingliz Morerning «Hoji bobo»[340] romani mana shunday kvasli (knyaz Vyazemskiyning xushbaxt ta'biriga ko'ra), vatanparvarlikning ajoyib va haqqoniy timsolidir. O'ziga yaqin, qondosh va qardosh barcha narsani sevmoq inson tabiatiga xos. Lekin bu muhabbat hayvonlarda ham bor. Binobarin, insonning muhabbati yuksak bo'lmog'i lozim. Inson muhabbatining hayvonnikidan ustunligi uning ongliligida, jismi va hissini ruh yoritib turganligidadir. Bu ruh esa umumiydir. Ulug' Pyotr o'z o'g'li haqidagi: o'z yomoningdan — yotning yaxshisi afzal, degan gapi fikrimizni binoyiday tushuntirib va asoslab beradi. Juz'iyni umum uchun qoida qilmaslik kerak, albatta. Lekin juz'iyni qiyos qilish orqali umumni tushuntirish mumkin. Agar ahmoq bo'lsa, o'z tug'ishgan birodaringni ham sevmasliging mumkin, lekin Vatanni, u qanday bo'lmasin, sevmaslik mumkin emas. Ammo bu muhabbat uning mavjud ahvolidan bir umr mamnunlik bo'lib qolmasligi, balki uni mukammallashtirishga chanqoq intilishdan iborat bo'lmog'i lozim. Xullas, Vatanga muhabbat bilan insoniyatga muhabbat esh bo'lmog'i darkor.

Mana, biz hayot haqida aytmoqchi bo'lgan gaplarimizning hammasini aytdik. Garchand bularda savolimizdan uzoqlashgandek bo'lsak-da, haqiqatda uning yechimiga endi yaqinlashdik.

Poeziya hayot ifodasidir yoki yanada to'g'rirog'i, hayotning o'zidir. Bugina emas, poeziyada hayot chinakam voqelikdan ko'ra ham hayotiyroq namoyon bo'ladi.

Bu yerdan javobi poeziya haqidagi savolning javobi bo'la oluvchi yangi savol kelib chiqadi. Savol: agar hayot poeziyadan iborat ekan, binobarin, hayot va poeziya mohiyatiga ko'ra bir ekan, unda yana boshqa bir poeziyaning nima keragi bor? Va san'atning zarurati qancha-yu, u qanday mustaqil ahamiyat kasb etishi mumkin?

---

[339] Bu terminni Belinskiy slavyanofillarning falsafasini fosh etish maqsadida qo'llaydi.

[340] Jems Morierning «Mirza Hoji bobo Isfahoniyning Eron va Turkiyadagi sarguzashtlari yoki Fors Jil-Blazi» romani 1831-yili O.Senkovskiy tarjimasida bosilgan edi.

Mavjud voqelik juda go'zal yoki to'g'rirog'i, butun go'zallik mavjud voqelikdadir. Lekin bu voqelikdan zavq olmoq uchun biz avvalo, uni o'z ongimizda zabt etishimiz lozim. Bu esa faqat ikki holatda mumkin: biz uni bir butun, ayni paytda ashyoviy tarzda shunday tushunishimiz kerakki, bizning shaxsiyatimiz, munosabatlarimiz uni bizdan to'sib qo'ymasin va biz undan faqat zavq-shavqning nodir daqiqalarida, qandaydir favqulodda bo'ladigan ruhiy kashfiyotning kutilmagan onlaridagina foydalanaylik. Ko'pincha biz beadad juz'iy hodisalar orasida o'zimizni yo'qotib qo'yamiz va ulardagi yaxlitlikni ko'rmaganimiz sababli hech narsa tushunmaymiz... Hatto o'z hislarimiz ham biz ularning esdan og'diradigan darajadagi kuchli ta'siridan yoki hayajon titrog'idan ozod bo'lganimizdagina, so'ngroq xotiralarimizdagina bizga lazzat manbai bo'lishi mumkin. Ayni lahza hech qachon bizga mansub bo'lmaydi. Negaki, u girdobdek bizni o'z qa'riga tortgan bo'ladi. Eng katta quvonch ham ayni lahzada biz uchun kulfatdek og'irdir, chunki o'sha damda biz unga emas, u bizga hokimdir. Biz undan lazzat olishimiz uchun bir oz uzoqlashishimiz kerak. Bu kartina tomosha qilganda yorug'lik talabiga ko'ra undan ma'lum masofaga uzoqlashishimiz, so'ng esa bizdan chetda turgan bir narsaga qaraganday, maqsadli nazar tashlashimizni eslatadi. Mana shuning uchun ham boshimizga tushgan kulfatni birovga aytishimiz yoki o'zimiz uchun qog'ozga ko'chirishimiz bilanoq uning og'ir yukidan yengil tortamiz. Biz uni o'z shaxsimizdan ajralgan holda ko'ramiz. Shaxsimiz uni bizdan to'sib qo'ymaydi va bunday holda o'z g'amimiz ham yoqimli bo'lib qoladi. Biz ham jangchi jangu jadallarda o'z boshidan kechirgan xavf-xatarlarni gapirib berishni suygandek, u haqda eslashni va so'zlashni yoqtiramiz... O'tgan har bir narsa yangicha bir tus oladi. Qandaydir hammasi oldingidan boshqacharoqdek... Baxt ham o'sha biz kechirgan damdagidan to'kisroqdek. Baxtsizlikdan ham biz undagi birgina poetik jihatlarni ko'ramiz. Buning sababi shundaki, oradagi masofa yaqindan qaraganda ko'zga tashlanuvchi notekis, tasodifiy, dog'ga o'xshagan nuqsonlarni shibbalab yuboradi. Haqiqatda hamma narsa makon va zamon qonunlariga, tabiat taqozosiga itoat etadi: qahramonlar ham oddiy odamlar singari yeydilar, ichadilar. Sovuqni, ochlikni his qiladilar. Siz tabiatning

go'zal bir manzarasini ko'rib turibsiz. Lekin qanday qilib? Albatta, olisda va shubhasiz, muayyan ko'rish nuqtasida turib. Olislik unga tasviriy ko'rkamlik baxsh etadi, ko'rish nuqtasi yaxlitlik beradi. Bir qadam tashlang-da, ko'rish nuqtasini o'zgartiring. Manzara yo'qoldi. Ko'z oldimizda beo'xshov, tartibsiz, na boshi, na oxiri bo'lgan, yaxlitlik va muayyan qiyofadan butunlay mahrum bir narsa namoyon bo'ladi. Siz o'sha o'zingiz maftun bo'lgan manzaraga yaqinroq keling. Siz qandaydir bir xarob kulbaning, shaloq tegirmonning, har qadamda o'nqir-cho'nqirga yiqilish yoxud halqobga tushib ketish mumkin bo'lgan naq yovvoyi chakalakning ustidan chiqasiz. Olisdan esa u shu qadar tiniq, musaffo, go'zal, to'kis, quyib qo'yganday — haqiqiy *manzara* edi! Xo'sh, surat voqelikdan yaxshiroqmi? Ha, iste'dodli rassom tomonidan yaratilgan manzara tabiatdagi har qanday tasviriy ko'rinishdan yaxshiroqdir. Nega bunday? Shuning uchunki, unda hech bir tasodifiy va ortiqcha narsa yo'q. Hamma qismlar butunga bo'ysungan, hammasi bitta maqsadga yo'naltirilgan, hammasi birgalikda bitta go'zallik, yaxlitlik, individuallikni maydonga keltiradi.

Voqelik o'z-o'zicha go'zal, lekin shakliga ko'ra emas, mohiyatiga, unsurlariga, mazmuniga ko'ra go'zaldir. Bu jihatdan voqelik tuproq va ruda uyumidagi sof, lekin tozalanmagan oltindir. Fan va san'at voqelik oltinini tozalaydi, uni nafis shakllarga soladi. Binobarin, fan va san'at yangi xayoliy voqelik to'qib chiqarmaydi, balki shu paytgacha va hozirda mavjud bo'lgan va bo'ladigan voqelikdan tayyor materiallar, tayyor unsurlar, qisqasi, tayyor mazmun oladi. Unga mutanosib qismlardan tashkil topgan, har tomonlama ko'zga yaqqol tashlanadigan munosib shakl beradi. Ulug' Pyotrning Rossiyada armiya va flot tuzgani — tarixiy voqelik fakti, lekin tarix fani buni bayon qilarkan, tafsilotlarni tushirib qoldiradi va faqat asosiy, xarakterli nuqtalarinigina oladi, chunki soldat va matroslikka qanday olingani, qay tarzda o'qitilgani va hokazolarni tasvirlash uning vazifasiga kirmaydi. Shekspir dramaning cheklangan hajmida, masalan, qandaydir 2-Richardga o'xshagan, biror tarixiy shaxsning butun umri yoki qahramon hayotida asli bir necha yillarda bo'lib o'tgan eng muhim voqeani mujassamlashtiradi. U dramasiga dramatik kartina uchun tanlangan qahramon hayotining

shunday nuqtalarini, hodisaning esa shunday faktlarini jalb etadiki, ular asarning g'oyasiga bevosita aloqador bo'ladilar. Qolgan barcha narsalarni, ular o'z-o'zicha qiziq bo'lsalar-da, — asarning asosiy g'oyasiga daxldor bo'lmagani uchun keraksiz narsa sifatida tashlab yuboradi. Garchi roman imkoniyati dramaning siqiq ramkasidan qiyos qilib bo'lmaydigan darajada keng va romannavis dramaturgga qaraganda beqiyos erkinlikka ega bo'lsa-da, Valter Skott yoki Kuperning istalgan romani muttasil o'qiladigan bo'lsa, bir kundan ortiq vaqtimizni olmaydi. Holbuki, har bir kishining bir yillik hayoti memuarlar singari batafsil tasvirlansa, uncha katta bo'lmagan to'rtta kitobchadagi qahramonning butun hayoti yoki undagi eng muhim voqeaga nisbatan o'ndan ko'proq jildlarni tashkil etgan bo'lardi. Shoir romanidagi qahramonning har gal ziyofatda bo'lishini tasvirlashi shart emas. Lekin ularning bittasini, — agar bu ziyofat qahramoni hayotiga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa yoki unda muayyan xalqlarning muayyan davrdagi xarakterli xususiyatlarini ko'rsatish mumkin bo'lsa, — tasvirlashi mumkin. Agar roman qahramoni ritsar bo'lsa, uning har bir ritsardagi xuddi rus savdogarining choy ichishi singari odatiy bo'lib qolgan barcha jangu jadallarining tasviriga hojat yo'q. Lekin ritsarlik ruhi faqat shunda yorqin aks etgan bo'lsa, unga oid yangi tasvir ortiqcha hech narsa bera olmasa, yoki qahramon xarakteri o'shanda shu qadar to'la va keskin ko'zga tashlangan bo'lsaki, biz uning birgina jangi orqali minglab boshqa janglarida qanday kurashajagini bilolsak, shoir qahramoni hayotidagi ana o'sha olishuvlarning eng muhimlarini yoxud birginasini tasvirlashi mumkin. Shoir uchun mayda, tasodifiy hodisalar yo'q, balki voqelik hodisalariga jinsga tur kabi taalluqli bo'lgan, imkondagi barcha hodisalarning jinsga xos, umumiy belgilarini o'zida mujassamlashtirgani holda, individualligi va mustasno jihatlariga qaramay, — ma'lum bir g'oyani ifoda qiladigan ideallar va obrazlargina bor. Shuning uchun ham badiiy asardagi har bir shaxs bir turdagi juda ko'p shaxslarning vakilidir. Shu sababli, biz bu odam chinakam Otello, bu qiz haqiqiy Ofeliya, deymiz. Onegin, Lenskiy, Tatyana, Olga, Zaretskiy, Famusov, Skalozub, Molchalin, Repetilov, Xlestova, Skvoznik Dmuxanovskiy, Bobchinskiy, Dobchinskiy, Derjimorda kabi nomlar shunchaki alohida odamlar

ismi emas, turdosh otlardir, voqelikdagi ma'lum hodisalarning mag'zini chaqib beradigan, umumlashtiruvchi nomlardir. Shu sababli ham fan va san'atdagi voqelik voqelikning o'zidan ko'ra ham voqelikka ko'proq o'xshash va to'qimaga asoslangan badiiy asar esa, har qanday voqeiy hodisadan yuksak, Valter Skottning tarixiy romanlari esa, ma'lum mamlakatning ma'lum darvdagi axloq va odatlarini, kolorit va ruhini berishda har qanday tarixdan ishonchliroqdir. Fan voqelik faktlaridan ularning mohiyatini — g'oyasini ajratib oladi. San'at esa voqelik materialini o'zlashtirarkan, uni umum, tur, tip darajasiga ko'taradi. Va ulardan uyg'un bir butunlik yaratadi. Chamasi, o'tgan asr fransuz nafosatshunoslarining san'at tabiatga ziynat berishi kerak, degan fikri qanchalik erish tuyulmasin, unda ma'lum haqiqat bor. Faqat ular o'z-o'zlarini tushunmadilar va mulohazalaridagi ziddiyat orqasida tabiatdan nusxa ko'chirishni inkor etgan holda tabiatga, garchi ziynatlangan bo'lsa-da, taqlid qi-ishni qabul qildilar. Agar ularning taqlidi sun'iy, yasama, ruhsiz bo'lsa, mujikning so'kish va haqoratini butun irkitligi bilan ko'z-ko'z qiluvchi bu xil naturadan guasi-romantik nusxa ko'chirish ham uzoqqa ketolmadi. Masalan, qiynoqni, qatlni, mastlikda yuvundi chuqurga yiqilib tushgan odamning bebaxt o'limini juda natural tarzda tasvirlab berish mumkin. Lekin bu tasvirlarning hammasi dilni xira qiladigan darajada xunuk va mazmunsiz bo'ladi, negaki, ularda hech qanday oqilona fikr, hech qanday oqilona maqsad bo'lmaydi. Ammo mo'yqalam egasi insonning haqiqat yo'lida kaltaklanishini tabiiy ko'rsatsa, uning qiyofasida ruhiy bardoshning jismoniy iztirob ustidan g'alabasini ifodalaydigan bo'lsa, u holda manzaradagi tabiiylik kuchaygan sayin manzara go'zalroq va badiiyroq bo'ladi, chunki oqilona maqsad va oqilona fikr yaqqolroq ko'rinadi. Nimaiki voqe bo'lsa, oqilonadir va nimaiki oqilona bo'lsa, u voqedir: bu — ulug' haqiqat; biroq voqelikdagi hamma narsa ham oqilona emas. San'atkor uchun esa, faqat oqilona voqelik darkor. Lekin san'atkor uning quli emas, bunyodkori. San'atkor uning izidan bormaydi, balki unga o'z idealini singdiradi va shunga ko'ra qayta yaratadi.

Shunday qilib, poeziya, asosan, hayot, mohiyat, ta'bir joiz bo'lsa, hayotning nafis efiri, tripl-ekstrakti, kvint essensiyasidir.

Poeziya bog'da barq urib ochilgan gulni batafsil tasvir etmaydi, lekin uning tarkibidagi boshqa unsurlarni tashlab yuborib, uning faqat muattar hidini, ranglaridagi nafis tovlanishini oladi va ulardan o'zining bog'dagidan yaxshiroq, so'limroq gulini yaratadi.

Poeziya — bu, go'dakning beozor tabassumi, tiniq nigohi, jarangdor kulgisi va sho'xchan quvonchidir. Poeziya — bu dilbar yonog'idagi qirmizi ibo, dengizdek teran, osmondek zangor ko'zlaridagi sokin yolqin yoki tim qora ko'zlaridagi chaqmoqdek otash, marmar yelkalari uzra yoyilgan qo'nqiroq sochlar to'lqini, nozik siynasining hayajoni, kumush ovozidagi so'limlik, ohanrabo takallumidagi musiqa, qaddi qomatining mavzunligi va xushbichimligi, sumbatining ko'rkamligi, jozibador harakatlaridagi go'zallik va huzurbaxshlik... Poeziya — bu, o'spirinning tuganmas kuch barq urgan o'tli nigohi, uning matonati va shijoati, orzularga chanqoqligi, osmonni ham, yerni ham otashin bag'riga mahkam bosish, ado bo'lmas hayot jomini dast ko'tarib bo'shatish istagidagi betiyiq shiddati... Poeziya — bu, tiyrak, o'zini qo'lga olgan, hayot uchun to'la yetilgan, ko'pni ko'rgan ruhi vazmin, nigohi xotirjam erning jangga, jasoratga tayyor qudrati... Poeziya — bu, nuroniy keksaning nursiz ko'zlaridagi sokin yolqin, serajin yuzlarining mehrdek muloyim, xayoldek teran samoviy ifodasi, titroq, uzuq ovozidagi osoyishta, benihoya samimiy ohang, mayin va muhim so'zlari, donishmand lablaridagi mehribon va ulug'vor tabassum... Poeziya — bu, turmushning yorqin tantanasi, bizga kamdan-kam yuz ochadigan hayot halovati. Bu — zavq-shavq, hayajon, mahliyo bo'lmoq. Bu — ehtiros farog'ati, tuyg'ular to'lqini va bo'roni, muhabbat toshqini, lazzat quvonchi, g'am nash'asi, iztirob huzuri, ko'z yosh chanqoqligi. Bu — qandaydir ko'ngilni hamisha o'ziga tortadigan va hech qachon yetib bo'lmaydigan qandaydir yerlarga sudraydigan ehtirosli, zoriqqan sog'inch ishtiyoqi... Bu — butun borliqni bag'riga bosish va unga singib ketishga bo'lgan abadiy va hech qachon qoniqish bilmaydigan chanqoqlik. Bu — o'sha oliy mavjudotni xumor nigohlarga yuz ochtirib, uni hayratga soladigan, maftun qalblarga barcha olamning uyg'unligi bo'lib sado bergizadigan, butun mavjudot bilan bir tekisda urib turgan yuragimizdagi ilohiy jo'shqinlik. Bu — du-

nyoviy narsalar samoviy porlagan, samoviylik esa dunyoviylik bilan omixta bo'lgan va borliq tabiat kelinchakdek yasanib, ruh bilan murosaga kelgan va yechilgan jumboqqa aylangan ilohiy jo'shqinlik... Butun olam, barcha ranglar, bo'yoqlar va ohanglar, tabiat va hayotning barcha shakllari poeziya hodisasi bo'lishi mumkin. Lekin u hodisalar zamirida nima yashiringan, ularning mavjudlik sababi qayerda va ular bizni nimasi bilan maftun etadi — masalaning mohiyati shunda. Poeziya — bu bashar hayotining tepib turgan yuragi, uning qoni va joni, uning shu'lasi va quyoshi.

Shoir ruhning eng olijanob maxzani, ko'kning mahrami, tabiat sirdoshi, his va tuyg'ularning eol chiltori, bashar hayotining chilsozidir. Hali bu bolaligidayoq o'zining borliq — olam bilan qondosh va jondosh ekanligini boshqalardan kuchliroq anglaydi. O'smirligida esa uning tilsiz nutqini, sirli shivirini tushunarli tilga tarjima qiladi... Yaxshisi, eng ishonchli guvoh — shoirning o'zini tinglaylik. U deydi:

Yosh aqlni aylar edi lol:
Yashil o'tloq, oydin bu olam,
Butxonada uvlagan shamol,
Kampir aytgan ajib ertak ham.
Qandaydir ruh izmiga olmish,
O'yinim ham hordiq onimni;
Yo'lin doim izimdan solmish,
Ajib unlar shivirlab qolmish
Va yoniq dard chulg'ab jonimni
Boshginamni g'ovlatmish tamom;
Tug'ilardi orzular unda,
Soz vaznga oqdilar shunda
Tizilishib ne-ne xush kalom
Qofiyali, a'lo yo'sinda.
Bahs quray der men bilan bari:
Asov girdob, o'rmon gulduri,
Yo sirg'aldoq xush sayrashlari,
Yo tun — dengiz shovillashlari,
Yo sokin soy jildir-jildiri.

(*Muhammad Ali tarjimasi*)

Pushkinning bundan ham ajoyibroq, bundan ham teranroq va xuddi shu sababli umumga noma'lum bo'lib, go'zallikning chinakam muxlislariyu fidoyilarigagina ma'lum bir qator she'rlari bor. Bu she'rlarda shoirning to'la-to'kis xarakteristikasi, san'atkorning eng oliy ta'rifi o'z ifodasini topadi. Shoir aks-sadoga murojaat qiladi:

O'kirarmi o'rmonda hayvon,
Chalinarmi burg'u nogahon,
Guldirarmi momaqaldiroq,
Kuylarmi qiz adirda nogoh,
Mayli qanday un.
Sen qo'shasan javob aks-sado,
Havoda to'lqin.
Guldiraklar guldirashiga,
To'lqinlarning gurkirashiga,
Bo'ronlarga solasan quloq,
Ham cho'ponlar hay-hay tovshiga
Javob hozir.
Senga javob un yo'q... O'shandoq
Sen ham, ey shoir!

(*Mirtemir tarjimasi*)

Ha, dunyo nimaiki bilan yashasa va dunyoda nima yashasa — hammasi shoirning olamni jo qila oluvchi qalbidan aks-sado topadi. Yerdagi hech bir mavjudot Faustning mana bu so'zlarini aytishga jur'at eta olmaydi?

Ey sen ilohiy ruh, neki tilasam,
Barcha tilagimni aylading bajo,
Sen olov ichida ko'rinding menga,
Tabiat ko'rkini qilding armug'on.
Menga berding so'ngsiz shavq tuyg'usini,
Endi men emasman olam ko'rkiga
Hayrat nigohini tikkan bir mehmon
Uning zamirini ochib qarayman
Do'stning yuragiga boqqandek go'yo.

(*E.Vohidov tarjimasi*)

Ammo shoirning o'zi boshqalarga qiyosan qanday odam? Bu — zehnli, nozikmizoj, hamisha faol, salgina tegib ketilsa ham o'zidan uchqun sachratadigan, boshqalardan ortiqroq qayg'uradigan, shodonroq lazzat oladigan, ehtirosliroq sevadigan, kuchliroq nafratlanadigan, qisqasi, chuqurroq his etadigan vujud, ruhning har ikki — ham turg'un, ham harakatdagi holati oliy darajada taraqqiy qilgan naturadir. Shoir jismining tuzilishiga ko'rayoq, boshqalarga qaraganda u yoki bu hadga borib qolishga ko'proq moyil bo'ladi va u hayotda boshqalardan balandroq yuksaklikka ko'tarilib, iflosroq tubanlikka yig'ilishi bemalol mumkin. Lekin uning qulashi ham boshqalarning qulashidan farq qiladi. Bu qulash pul, hokimiyat, imtiyozning yuholigi emas, balki hayotga bo'lgan sabrsiz chanqoqlik samarasidir. Hayotga tashnalik unda shu qadar ulug'ki, u bir daqiqalik lazzatli ehtiros, bir lahzalik shirin tuyg'u uchun o'zining butun kelajagini, orzularini, qolgan umrini qurbon qilishga tayyor. Unda, Gezond ta'biricha, xayolda qo'shiq mudom, ko'ksida beg'am yurak[341].

U ijod etayotgan chog'i — shoh, koinot hukmdori, tabiat asrorining ishonchli mahrami, faqat ungagina o'z ko'ksini ochgan samo va yer, tabiat va inson ruhiyati sirlarining noziri. Lekin u asliga, odatdagi yer farzandi holiga qaytganda — *odam*. Ammo shunday odamki, u yaramas bo'lishi mumkin, lekin hech qachon tuban bo'la olmaydi. Boshqalarga qaraganda tezroq odamgarchilikdan chiqishi mumkin, lekin shu qadar tezlik bilan chinakam odamga aylanadi va makoni bo'lmish samodan keladigan nidoga hamisha tayyor turadi. Keling, uning o'z iqrorini eshitaylik:

Qutlug' qurbon bo'l deb, shoirdan hali
Talab etmas ekan Apollon,
U yovvoshlik bilan g'avg'oli
Dunyo tashvishidan chiqolmas hamon;
Muqaddas lirasi sukunatda lol;
Ruhin muzday chulg'aydi uyqu,
Dunyoda benaflar ichra ehtimol.

341 «Теория поэзии в историческом развитии у древних и новых народов». С.Шевирева, 18-с.

Hammasidan benafrog'i shu.
Lekin agar ilohiy bir so'z
Sezgir qulog'iga urilsa qittay,
Xuddi uyqusidan turgan burgutday,
Shoir qalbi titrar sabrsiz.
O'yin-kulgi tegar g'ashiga,
Odamlar mish-mishin yotsirar, sevmas,
Xalqning hukmdori qoshida
Shoir mag'rur boshini egmas;
Notinch qalbda ohanglar toshar;
Yovvoyi, shiddatli ko'z qarashlari,
Sahro to'lqinlari bag'riga shoshar,
Shovillagan o'rmonlar sari...

(*Asqad Muxtor tarjimasi*)

Poeziyadan maqsad nima? Tabiat estetik tuyg'u ato qilgan kishilar uchun bu masala juda muhim va ayni paytda juda mushkul tuyuladi. Poeziya o'zidan tashqarida bo'lgan hech bir maqsadni ko'zlamaydi. Bilimdagi haqiqatdek, harakatdagi ezgulikdek uning o'zi maqsaddir. Bizning hayotimizga yoki manfaatlarimizga daxli yo'q narsalarni bilamizmi, bilmaymizmi — baribir emasmi? Axir bizdan baland va uzoqda bo'lgan behudud osmonning kichkina bir zarrasini ham jami teleskoplarimiz bilan o'zimiz tomon siljita olmaymiz-ku? Ammo munajjim mana shu osmonga butun umrini baxsh etadi va yangi yulduzning kashf etilishi uning yillik daromadiga ikki pul qo'shmasa-da, unga baxt va huzur bag'ishlaydi. Ezgulikni biz maqtov yoki olqish olish uchun sevamizmi? Ezgulikning zarracha foyda emas, yo'q, balki tashvish va baxtsizliklar keltirishini ko'ra boshlagach, undan voz kechishimiz, yovuzlikning keng va ravon yo'liga tushishimiz kerakmi? Haqiqat va ezgulikdek go'zallik ham o'z-o'zicha bir maqsaddir va haqli ravishda o'z nomining qudrati bilan, joziba kuchining insonlar qalbiga shiddatkor ta'siri bilan koinot ustidan hukmronlik qiladi. Mana, benihoya yorug' va ulug'vor zalga go'zal bir qiz kirib kelmoqda. Ehtiros to'la yoshlar larzaga tushadi. Keksalarning manglayidagi ajinlar yozilib ketadi. Ma'nisiz, zerikarli turmushdan mog'or bosgan yuzlar sevinch tabassumidan ravshan tortadi. Uning birgina nigohi

uchun saltanatlar baxsh etilsa ham kamlik qilgudek. Qahramon o'zining shuhrat tojini, shoir esa porloq sharafini uning oyoqlari ostiga nisor etishga tayyor. Faqat u birgina qiyo boqsa bo'lgani... Siz esa uning yuzlarida qandaydir biron g'oyaning ifodasini, tuyg'uning izlarini behudaga izlaysiz va maftun nigohingiz tamom borlig'ingizni o'z og'ushiga olgan ko'rk va nazokat ummonidan boshqa hech narsani, hech narsani ko'ra olmaydi... Bu go'zallik nima uchun kerak va undan maqsad nima? Siz menga shuni tushuntirib bering. Men juda ravshan va hatto «aniq» qilib, poeziyaning nima uchun mavjudligini va uning muddaosi nima ekanligini sizga tushuntirib beraman... Mabodo go'zallikning buyuk qudratidan larzaga tushmaydigan odamlar topilib qolgudek bo'lsa, ular bilan bahslashib o'tirmaymiz! Yuragida Prometey o'ti bo'lmagan dardsiz keksalar (Pushkin ta'biri) gapirib o'tirishga arziydilarmi va ularga nima uchun diletant[342] Venera Medichinning tana go'zalligini bu qadar iffat va xayrixohlik bilan sevishini va qadimiy koshinning, barelef yoki muzayyan biror tosh parchasiga butun mol-mulkini qurbon qilishini, ishqning telba otashida ma'shuqasining birgina tabassumiga hatto hayotini barbod etishini o'shalarga tushuntirib o'tirmoq kerakmi...

Mana, go'zallikni «ilohiy Platon» qanday tushungan va olijanob hamda yuksak aql sohiblari abadul-abad qanday tushunadilar:

«Hayotda insonning go'zallikdan lazzat olishi uning ruhda kechgan ibtidoiy makonidagi yagona, haqqoniy, mukammal xolos. Mana shuning uchun ham yerdagi ajib manzara samo go'zalligining xotirasi sifatida ruhga samo sari uchishga qanot beradi va barcha go'zalliklarning ilohiy ma'xaziga qaytmog'i uchun imkon yaratadi.

Biz, xushbaxtlik bilan jo'r bo'lib, shodon va huzurbaxsh istig'roq ichida Die ortidan ergashgan, boshqalar yana boshqa bir ma'budlarga ixlos qo'ygan onlarda go'zallik nurga chulg'angan edi. Biz ajoyibotlardan eng rohatbaxshini ko'rdik va kechirdik: unga butunlay, so'ngroq bizga ilashgan baxtsizliklardan tamom xoli ekanimizda qo'shildik. Komil sodda, maho-

[342] Diletant — Belinskiyda san'at ishqivozlarini anglatadi.

batsiz, lekin quvnoq bir holda nazarga cho'mdik. O'zimiz pokiza bo'lganimiz uchun biz hozir bino qo'yib jasad ataganimizga hali dog' tushmagan va biz unga chig'anoq singari o'ralashib qolmaganimiz uchun ularni musaffo bir holda mushohada etdik.

Bu yerda birgina go'zallik eng porloq va muhabbatga sazovor deb topildi. Ma'rifatdan yiroq fahsh bandasi go'zal vujud sari intiladiyu, ammo go'zallikni his etmaydi. U go'zallikka sajda qilmaydi, yo'q, hayvon singari undan birgina hirsiy lazzatni izlaydi. Go'zallikni o'z jismiga qo'shib yubormoqchi bo'ladi... Aksincha ma'rifatli kishi go'zallik tasvirida Xudo jamoliga o'xshash holni ko'rib, dastlab larzaga tushadi, vujudini vahima qamraydi. So'ng go'zallikni Xudo sifatida mushohada etgach, uni haddan tashqari sevib qoladi. Agar uni telba deb atashlaridan qo'rqmaganda edi, o'zini sevimli narsasiga qurbon etgan bo'lardi...»[343]

Go'zallik singari poeziya ham go'zallikning ifoda etuvchisi, kohinidir, o'zidan tashqarida hech qanday maqsadni ko'zda tutmaydigan, o'z-o'zicha maqsaddir. Agar u inson ruhini ko'kka ko'tarsa, uni olijanob ishlarga, ezgu niyatlarga chorlasa, bu uning ko'zda tutgan maqsadi emas, haqiqiy faoliyati, mohiyatining xossasidir. Bu o'z-o'zidan, shoirning bir oz bo'lsin oldindan belgilab qo'ygan rejasisiz amalga oshadi. Shoir faylasuf emas, musavvirdir. Uning manzara va tasvirlaridagi hamishalik mavzu «shuhratga to'la ijod» — behudud va rangbarang hodisalarga to'la olamdir. Poeziya ko'ngilga obrazlar bilan so'zlaydi va undagi obrazlar ibtidosi tabiatning barcha juz'iy hodisalari va shakllari qurilishida tovlanib turgan go'zallik ifodasining mohiyatidir. Poeziya mavhum g'oyalarning yalang'och ifodasiga toqat qilol-maydi. Lekin eng mavhum tushunchalarni ham fikr billur qirrasidan o'tgan nurdek ravshan ko'rinib turgan jonli va go'zal obrazlarga jo qila oladi. Shoir hamma narsada shakl, rang ko'radi va barcha narsaga shakl, rang beradi. Moddiy bo'lmagan narsani moddiylashtiradi, osmoniy ashyolarga yerning sifatini singdiradi. Shu tariqa yer narsalari samoviy shula sochadi. Shoir uchun dunyodagi barcha hodisalar o'z-o'zicha mavjuddir. Shoir

---

[343] «Теория поэзии в историческом развитии у древних и новых народов». С. Шевирева, 31—32-с.

ularning bag'riga kiradi, ular bilan birga nafas oladi, muhabbati bilan yashaydi, ularni asrab-avaylaydi, o'zboshimchalik bilan ularning mohiyatini buzmaydi. Bu shoir o'zi kashf etgan dunyoni mushohada etishdan va unga o'z idealini singdirishdan aslo to'xtamaydi, munojot savqini, fojia xanjari va jangnoma karnayini olijanob g'azabning momaqaldirog'iga, hatto, satira hushtagiga almashtira olmaydi, ibodatni va'zxonlikka qoldirib, bashariy va boqiy kechmishni zamona va jamiyatni deb, birgina daqiqa bo'lsa-da, unuta bilmaydi, degani emas. Lekin undan hayotining maqsadini faqat shunda ko'rishni va uning evaziga o'z erkin ilhomini turli-tuman kundalik ehtiyojlarga bo'ysundirishini talab etish kulgilidir.

Shamoldek erkin bo'lgan shoir faqat o'zining ichki da'vatiga, uni harakatga soluvchi ma'budning sirli nidosigagina itoat etadi. Unga to'pori nodonlik bilan yopishib oladigan *ongsiz* avomning:

Ey falaklar erkasi, bil-chi:
Zakovating, ilohiy elchi,
Sarf etmog'ing lozim bizni deb;
Dillarimiz poklayu, ber zeb,
Jur'atsizmiz, ayyormiz juda,
Shukr qilmas beormiz juda;
Yurak emas bizdagi — kesak,
Biz — tuhmatchi, biz — qul, biz — tentak;
Bijg'ib yotar illatlar tog'-tog',
Yaqin kimsang ardoqlab, siylab,
Bersang mumkin ibratli saboq,
Tinglar edik bor vujud ila, —

degan baqirish-chaqirishlariga qarshi, agar ular javobga arzigudek bo'lsalar, shoir ularga javob berishi mumkin va lozim:

Bas, shoirga ekanmi havas,
Ey, siz bilan nima ishi bor?
Fahsh loyiga botmaysizmi! Bas!
Lira sasi qila olmas kor!
Siz tobutdek — ko'zga yomonsiz,

Tentaklikda xo'b beomonsiz.
Izmingizda bor, axir hanuz,
Darra, bolta, zindon, bu ne so'z?
Yetar endi, ey telba qullar!
Shaharlarda suprulur yo'llar,—
Bundan ortiq nafli ish bormi?—
O, sizningcha: ibodatin ham
Unutishib kohinlar bu dam
Supurgini sizdan olarmi?..
Tirikchilik ikir-chikiri,
Va yo g'araz, yo savash emas,
Biz tug'ildik ilhom sururi,
Shirin sasu ibodat deb, bas!

(*Muhammad Ali tarjimasi*)

Shoir tabiatga taqlid qilmaydi, balki u bilan raqobatga kirishadi. U yaratadigan narsalar va tabiat hodisalarining sarchashmasi bir: ular vujudga keladigan jarayon ham bir. Farq faqat shundaki, shoirning ijod jarayonida tabiat va uning faoliyati mahrum bo'lgan ong ham bordir. Butun tabiat o'zining barcha hodisalari bilan ilohiy ruhning, ehtimol shaklidan voqeiy, haqqoniy shaklga, faktga aylanib, so'ng o'zining eng ongli tazohiri — insonga maftun boqishi va o'zini anglashidek ilhom otashining mahsulidir. Va har bir san'at asari san'atkorning o'z vujudsiz ideallarini yuzaga chiqarish, o'z ichki dunyosidan tashqarida gavdalantirish yo'lidagi ilhom bilan qilingan xatti-harakatining samarasidir. Shunday qilib, ilhom umuman ijod manbaidir. Lekin san'at tabiatdan, barcha ongli va erkin harakatlar ongsiz va ixtiyorsiz harakatlardan qancha yuksak bo'lsa, shuncha yuqori turadi. Lekin ong ijod asnosida faol emas. Faqat qay darajadadir guvoh, chunki ijod san'atkor uchun lazzat bahsh etuvchi, mukofotdir. Har bir harakatning o'zi zaruriy va ongli, albatta. Lekin ijoddagi ong deyilganda, aqlning faoliyati idrok va reja mehnati hamda mexanik ishlar ko'zda tutilmaydi. Ijodning birgina mehnatkashi, Platon *savdoyilik* deb atagan ilhomdir. Aql esa, ijodga dushman, uni halok etuvchidir. «Kimki, — deydi Platon, — ko'ngliga muzalar solgan savdoyiliksiz faqat uddaburonlik (ex texvng) bilan yaxshi shoir bo'lishiga ishonib, poe-

ziya darvozasidan kirmoqchi bo'lsa, u hech qachon yetuk shoir bo'la olmaydi. Uning poeziyasi esa *mulohazali* poeziya *jazavakor* poeziyadan farqlanganidek, ajralib turadi»[344].

Umuman, Platonning ilhom haqidagi tushunchasi shu qadar benihoya to'g'ri va shoirona, **ilhom bilan** ifoda qilinganki, uni keltirar ekanmiz, ilhom haqida undan o'tkazib biror narsa aytish mumkin emasligini qo'shib qo'yamiz:

«...Ulug' epik shoirlar o'zlarining go'zal asarlarini uddaburonlik (texnika) bilan emas, tashabbus va ilhom bilan yaratadilar. Dilnavoz liriklar ham, — hushsiz holda raqsga tushgan koribantlarning vajohatidan lol qotgan odamlar singari, — go'zal munojotlar yaratgan onlarida o'zlarini yo'qotadilar. Uyg'unlik va qofiya ohangiga tushishlari bilan telbalarcha to'lib-toshadilar, zavq-shavq onlari daryodan sut va asal olayotgan Vakx qizlaridek shodon qiyqiradilar (ularning osuda hollarida hech qachon bunday bo'lmaydi). Lirik shoirlar qalbida haqiqatan ham ular maqtanganchalik hodisalar yuz beradi. Ular bizga asal chashmalaridan oziq olganliklarini, asalarilar singari ilhom ma'budasining bog' va vodiylari uzra qanot qoqib qo'shiqlar to'plashlarini hamda bizga kuylab berishlarini aytishadi. Ular to'g'ri gapiradilar. Shoir haqiqatan ham yengil qanotli, muqaddas mavjudotdir. U faqat zavq-shavqdan lol qolganda, es-hushini yo'qotgandagina ijod qiladi. Es-hushi joyida ekan, u ijod ham, bashorat ham qila olmaydi.

Shunday qilib, shoirlar ustalik bilan emas, ilohiy ilhom bilan ijod etishar ekan, ularning har biri Tangrining taqdiri ila muza da'vat etgan turdagina dong qozonadilar. Birov difirambda mumtoz, ikkinchisi madhiyada. Uchinchisi o'ynoqi qo'shiqlarda, to'rtinchisi eposda, beshinchisi esa yambda tengsiz. Bularning hammasi boshqa barcha turlarda zaif bo'ladilar, chunki ularga ustalik emas, ilohiy kuchlar ta'sir ko'rsatadi. Agar ular uddaburonlik bilan ijod qila olganlarida edi, xilma-xil turlarda dong qozongan bo'lardilar. Nihoyat, Xudo ularni aqlu hushdan mahrum etib, payg'ambari va rommollari qatorida ishga solishi, biz ularning mohiyatiga chuqurroq kirib, idrok

---

[344] «Теория поэзии в историческом развитии у древних и новых народов». С. Шевирева, 33-с.

etishimiz kerakligini, ular hayratomuz narsalarni o'zlaricha gapirmasliklarini, Tangrining o'zi ular tilidan gapirayotganligini ko'rsatadi[345]».

Ilhomni soddadil, go'dak qadimiyat ruhida shunday tushunish o'z teranligi bilan hayratlanarlidir. Ma'lumki, Platon «mulohazakorlik deb ruhimizning, haligidaqa his-tuyg'usiz, oddiy, odatiy holatini aytadi. «Telbalik deganda esa shunday ilohiy pafosni, ruhning shunday ilhombaxsh teranligini ko'zda tutadiki, bunday holatda inson aqli oliy dunyo sir-sinoatini mushohada etadi, irodasi esa tog'larni siljitadi. Chindan ham lazzat qiyqirig'i, quvonch jazavasi, iztirob nashidasi, hijron g'ami, visol hayajoni, sevgi jozibasi, fidoyilik jasorati, adolat va haqiqat yo'lida jafo chekishga tayyor turishlik, ilhom huzuri—bularning hammasi telbalik bo'lmay, nima? Lekin bu telbalik oqilona, insonni dunyodagi barcha hikmat egalaridan yuksakka ko'taradigan... ilohiy telbalikdir... Odob libosiga burkangan jonsiz loqaydlik, maydakash xudpisandlik va xudbinlik, arzimagan maqsad sari salmoqdor qadam tashlash va unga erishish uchun chinakam insoniy burchlardan voz kechish — bularning hammasi mulohazakorlik bo'lmay, nima?.. Keling, mulohazakorlik haqida gapirmaymiz. U — poeziya dushmani. Maqolamiz mavzui esa — poeziya...

Bizning umuman poeziya haqida aytganlarimizni Lermontov poeziyasiga bemalol tatbiq etish mumkin.

Qay yerdaki ilhom soxta bo'lmasa, o'sha yerda poeziya bor va ilhom kimning tabiatiga qondosh bo'lsa, shoir — o'sha. Lekin ilhomning ham darajalari bor va u har bir shoirda o'ziga xos xarakteri bilan ajralib turadi: birida yaltirab tovlanadi, shampan vinosidek ko'pirib vishillaydi va xuddi u singari yengil, lekin ko'pga cho'zilmovchi kayf beradi. Ikkinchisida yashil qirg'oqlari barq urgan tiniq, shaffof soydek oqadi. Uchinchisida bamisoli Niagara sharsharasidek hayqirib, ko'pik va tomchilar sachratadi, shiddatli to'lqin otib, olg'a intiladi. To'rtinchisida esa, ummondek tubsiz va hududsiz bo'lib, osmon gumbazi unda quyosh, oy va beadad yulduzlari bilan, dahshatli bulutlar zulmat va chaqmoqlari bilan aks etadi. Bu ummon sukunatda ham,

[345] Yuqoridagi kitob, 35—36-betlar.

bo‘ronda ham birday ulug‘vor va hashamatli. U o‘zining qudratli to‘lqinlarida baliqchining omonat qayig‘ini ham, ulkan flotlarni ham olib yuradi. Muazzam sirli bag‘rida katta-kichik jonli mavjudotlarning butun bir olamini — tog‘-tog‘ chig‘anoqlarni ham, marjonlar o‘rmonini ham saqlab keladi... Hayot o‘zining barcha ko‘rinishlarida bir xil. Lekin bir hodisa hayotning muayyan qisminigina, ikkinchisi esa hayotning hududsiz buyuk mazmunini qamrab oladi. Shoirlar orasidagi nisbatlar ham xuddi shunday. Ijod va ilhom e’tiborida Beranje qo‘shiqlari Shekspirning istalgan dramasi bilan mutlaqo tengdir, lekin mazkur asarlarning o‘zida hayot mazmunini qamrab olishi jihatidan ular orasida muhimlik, ahamiyatlilik va qadr-qimmatda hadsiz farqlar bor. Bu farq xilma-xil turdagi pesalar, masalan, ziyofatdagi alyor va yuksak drama orasidagina emas, bitta mavzuda, faqat boshqa-boshqa shoirlar tomonidan yozilgan ikkita alyor o‘rtasida ham bo‘lishi mumkin. Xuddi mana shu o‘rinda bir shoirning ikkinchi biridan ustunligini ko‘rish mumkin bo‘ladi: birining she’ri zavq bilan o‘qiladi, lekin kam esga olinadi va tez unutiladi. Boshqasi, qancha ko‘p o‘qilsa, shuncha ko‘p lazzat bag‘ishlaydi, hatto bir marta o‘qilgan bo‘lsa, bir umr xotirdan chiqmaydi. So‘zlarining o‘zi bilan bo‘lmasa-da, koloriti bilan, insoniy tilda ifodalab bo‘lmaydigan o‘sha «nimasidir»i bilan esda qoladi. Yazikovning «Shoir» she’rini biz maqolamizning boshida keltirgan Pushkinning «Shoir» va yana uning «Shoirga» she’rlari bilan taqqoslab ko‘ring: dastlab sizga Yazikov pesasi Pushkinning har ikki she’ridan yaxshi tuyulishi mumkin. Lekin agar sizda estetik tuyg‘u bo‘lsa, ko‘p o‘tmay, birinchi holda she’rning qanchalik jilvalanib turishiga qaramay, qay darajadadir zo‘rakilik ham borligini payqaysiz. So‘nggi ikki she’rda esa olijanob soddalikni, tabiiylikni, benihoya teranlikni his etasiz va ularning oldingidan behad ustunligini ko‘rasiz... Buning sababi birgina ikki iste’dodning o‘zaro farqida emas, har ikki shoirning naturasidagi farqda hamdir: biri narsalar tabiatiga chetdan nazar tashlaydi, uning faqat tashqi tomonini ko‘radi; ikkinchisi uning mohiyatiga kirgan, uni o‘z mulkiga aylantirgan va haqli suratda uning hukmdoriga aylangandir...

Gapni bunday uzun muqaddima bilan boshlab, poeziyaning mohiyatiga bir sidra nazar tashlab, so'ng asarlarini tahlil etishga kirishilsa, erish tuyulmaydigan shoirlar oz. Lermontov mana shu ozlar sirasiga mansub. Shoirning uncha katta bo'lmagan she'riy kitobini sinchiklab ko'zdan kechirish unda poeziyaning butun tabiiy qudrati yashirinib yotganini, kelajakda u bir nechta va katta hajmdagi kitoblarga oziq bera olishini ko'rsatadi. Tuyg'ular tiniqligi, shakldagi badiiy ziynat, poetik ko'rkamlik, obrazlarning sodda ulug'vorligi, tildagi kuch-qudrat, she'rdagi quyma ifoda, jarangdor ohang, hissiyotning toshqinligi, g'oyaning rang-barang va teranligi, mazmun behududligi Lermontov poeziyasining xarakterli jihatlarining tub mohiyatini tashkil qiladi va uning kelajakdagi ulug' kamolotidan darak beradi...

Shoir qancha yuksak bo'lsa, u o'z jamiyatiga shu qadar ko'proq mansub bo'ladi, iste'dodining kamol topishi, yo'nalishi, hatto, xarakteri ham jamiyat tarixiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'lanib boradi. Pushkin o'z she'riy faoliyatini g'oya jihatidan hali g'o'r, o'spiringa xos bo'lgan, lekin hissiyot jo'sh urgan, tabiatning turfa shamoyilini o'zida jamuljam etib, anvoyi ranglarda tovlanuvchi benihoya quvnoq, o'ynoqi «Ruslan va Lyudmila» bilan boshlagan edi... Bu dahoning ulkan hayot bazmida limmo-lim birinchi qadahni sipqorgandan keyingi sho'xligi edi... Lermontov o'z ijodini mazmunan g'amgin, shaklan og'ir, muhim tarixiy poema bilan boshladi... Pushkin o'zining ilk lirik asarlarida insoniylikdan darak beruvchi, ijtimoiy yuksak g'oyalar bashoratchisi sifatida maydonga chiqdi. Lekin bu she'rlar qancha kuch va qudratga ega bo'lsalar, yorug' umidlarga, qolibiyat tuyg'usiga ham shuncha to'la edilar. Lermontovning ilk lirik asarlarida, xususan, rus shoiri, zamonaviy shoir sifatida ko'ringan asarlarida ham yengilmas ruhiy qudrat, tuganmas ifoda kuchi barq urardi. Biroq ularda endi umid yo'q, ular g'amginligi, hayotga shu qadar chanqoq, tuyg'ularga toshqin bo'la turib, hayotga, insoniy tuyg'ularga ishonchsizligi bilan o'quvchini hayratga solardi... Ularda Pushkinning hayot bazmidagi ishratlaridan asar ham yo'q edi. Lekin har bir satrda dilni xufton qiladigan, yurakni muzlatadigan savol turardi. Ha, chamasi, Lermontov tamoman boshqa davrning shoiri, uning

poeziyasi esa jamiyatimiz tarixiy taraqqiyoti silsilasida butunlay yangi halqa edi.[346]

Lermontovning birinchi pesasi «Sovremannik»da 1837-yili Pushkinning vafotidan keyin bosilib chiqdi[347]. U «Borodino» deb nomlanadi. Shoir keksa harbiyga savol berib turgan yosh soldatni tanishtiradi:

Qani, amakijon, aytib beringiz,
O't ketib o'rtangan Moskva bejiz —
Faranglarga berilmagan-ku?
Axir bo'lgandir-ku beomon urush,
Bo'lganda ham qanday, ketguday es-hush,
Borodino kuni Rossiyaning bejiz —
chiqmas yodidan mangu?

She'rning asosiy g'oyasi o'n uch banddan tashkil topgan keksa soldatning javobi boshlanadigan ikkinchi bandda berilgan:

— Ha, bizning zamonda erlar bor edi,
Sizga o'xshamasdi, shiddatkor edi.
Sizlar botir emassiz.
Ularning qismati bo'lmishdi yomon,
Talay mardlar maydon aro berdi jon,
Bo'lmasaydi taqdir amri beomon,
Ketmas edi Moskva, esiz!

(G'afur G'ulom tarjimasi)

Bu — faoliyatsizlikdan mudragan bugungi avloddan shikoyat, shon-sharaf va buyuk ishlarga to'la buyuk o'tmishga suq bilan nigoh tashlashdir. So'ngroq biz bunday hayot sog'inchi shoirimizga olijanob g'azab va shiddatga to'la ko'plab she'rlar berganligini ko'ramiz. «Borodino» haqida gapiradigan bo'lsak, bu she'r soddaligi, tabiiyligi bilan ajralib turadi. Undagi har bir

---

[346] Juda ham ravshan va «aniq» bo'lsin uchun shuni aytib o'tamizki, biz jamiyat deganda, yangi avlodning faqat his qiladigan va fikrlaydigan qismini tushunamiz. — Belinskiy izohi.

[347] Belinskiy Lermontovning chop etilgan birinchi asari «Hoji Abrek» ekanligidan bexabar edi.

so‘zda soldatning sodda-dag‘alroq, ayni paytda olijanob, kuchli, poeziyaga to‘la ovozini eshitib turasiz. Undagi tekis va vazmin ohang shoirning asosiy fikrini yorqinroq va sezilarli ko‘rsatadi. Biroq bu she’r qanchalik go‘zal bo‘lmasin, poeziyamiz uning muallifidan nimalar kutishi kerakligini aytib bera olmas edi. 1838-yili «Literaturnie pribavleniya k russkomu invalidu»da uning «Shoh Ivan Vasilevich, navjuvon yasovul va azamat savdogar Kalashnikov haqida qissa»si bosildi. Bu asar, — garchi muallifning ismi ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, — uni tanitdi. «Nomsiz bu shoir kim? Lermontov degani kim? U bu poemasidan boshqa ham biror narsa yozganmidi?» — deb so‘rardilar. Poema hali baholanmagan bo‘lishiga qaramay, uning yuksak asar ekanligini avom xayoliga ham keltirmasdi. Unda shoir o‘z diqqatini bugungi turmushdan, uni qanoatlantirmagan rus hayotidan o‘tmish, tarixga qaratdi. Uning yurak urishini tingladi, uning ruhidagi eng yashirin, eng maxfiy go‘shalarga kirib bordi, butun vujudi bilan unga singishib, kirishib ketdi. Uning ohanglariga jo‘r bo‘ldi. Tuyg‘ularidagi kenglik va bahodirona qudratni o‘zlashtirdi va xuddi o‘sha davrning farzandi kabi uning qo‘pol, yovvoyi turmush sharoitlarini butun ikir-chikiri bilan, — go‘yo ulardan boshqasini hech qachon bilmagan kishidek, — qabul qildi. Pirovardida ulardan har qanday voqelikdan ishonchliroq, har qanday tarixdan muqarrarroq to‘qilgan rivoyat yaratdi.

Ivan Vasilevich, omon bo‘lgur shoh!
Qissamiz to‘qildi sening to‘g‘ringda,
Sevgan yasovuling borasida ham —
Mard savdogar Kalashnikov haqida.
Biz uni eskicha to‘qigan edik,
Biz uni sozga jo‘r to‘qigan edik.
Unga qo‘shib-chatib to‘ldirgan edik.
Pravoslav xalqi yupandi kuylab,
Ham boyarin Matvey Romodanovskiy
Bizga kosa tutdi — ko‘pirgan bo‘za,
Shunda oppoq yuzli uning bekasi
Olib keldi bizga kumush tovoqda
Kashta tikkan, yangi shoyi dastro‘mol.

Uch kecha, uch kunduz berib ziyofat,
Qayta-qayta to'ymay, tinglar edilar.

(*Mirtemir tarjimasi*)

Chindan ham, bu qissani qanchalik maroq bilan tinglamang, to'ymaysiz. U bamisoli sehrgar tayoqchasidek o'tmishga jon ato qiladi va biz unga qarab to'ymaymiz. Unga mahliyo bo'lgancha, bugunni esdan chiqaramiz. Go'yo bir lahza undan nigoh qochirsak, yo'qotib qo'yayotgandek ko'z uzmasdan tikilamiz. Birinchi planda qonxo'r va dahshatli shoh sifatida xotira qoldirgan, haybatli timsoli haligacha xalq rivoyatlarida, orzu-xayollarida saqlanib kelayotgan Ioann Grozniyni ko'ramiz... Tariximizdagi Kurbskiy «xunxor» deb atagan bu kishi qanday odam o'zi? U, Karamzin aytmoqchi, bizning tarixi-mizdagi 11-Lyudovikmi?.. Uning tarixiy roli haqida gapirib o'tirishning hozir o'rni ham, payti ham emas. Faqat shuni aytib o'tamizki, u o'zini buyuk jasoratlarga muvofiq etib tayyorlashga bel bog'lagan kuchli natura edi. Lekin o'sha paytlardagi yarimosiyolilarcha turmush va tashqi ahvol sharoitlari uning ozgina bo'lsin, o'sishiga imkon bermadi. Shiddat va g'ayrati, yo'lga tushmagan iqtidori o'z holicha qolib, voqelikni qayta yaratishdagi barcha imkoniyatlari barbod bo'lgan bir paytda bu kuchli adovat bilan nafratlanib qaragan voqelikdan telbalarcha qasos olishdan taskin topdi... Ioann Grozniy istibdodi chuqur ahamiyat kasb etadi va shu sababli u mustabid sifatida g'azab va nafratdan ko'ra samoviy ruhning tubanlikka tushgandagi achinish tuyg'usini uyg'otadi... Ehtimolki u bu buyuk ishlarga da'vat etilgan, lekin Rossiyaga bemahal, erta kelib qolgan va qiladigan ishini topa olmagan o'ziga xos buyuk odam edi. Ehtimol, u o'zi bevaqt kirib kelgan dahshatli voqelikni o'zgartirishni ixtiyorsiz, lekin dil-dildan istar, ammo voqelik uni tamoman mag'lub etmasa-da, qattiq shikast bergan va u buning evaziga o'zi va atrofidagilarni qahru g'azab alangasida qovurar, ulardan dahshatli qasos olardi... Mana shuning uchun ham uning yovuzligidan qurbon bo'lganlar orasida hammadan ko'ra ham o'zi ta'ziyaga loyiqdir. Mana shuning uchun ham uning rangpar yuzi, chaqnoq chuqur ko'zlari boshdan-oyoq dahshatli ulug'vorlik bilan toqat qilib bo'lmaydigan mudhish bir rangda yaltillar

edi... U Lermontov poemasida aynan shunday ko'rinadi: nigohlari chaqmoqdek, ovozi ko'kdagi momaqaldiroqdek, qahru g'azabi esa dahshat va o'lim. Lekin shularga qaramasdan, xuddi chaqmoq paytidagidek, tubanlashgan, haqoratlangan, buzilgan, lekin tabiatan kuchli va olijanob bo'lgan ruh har bir daqiqada butun ulug'vorligi bilan yarq etib ko'rinib ketar edi...

Poema shohning ziyofati tasviri bilan boshlanadi: zarrin toj kiygan dahshatli shoh bakovullar, boyarlar, knyazlar, yasovullar qurshovida o'tiribdi:

Shoh ziyofat berar bazmi shohona,
Kayfu safo qurar, behad shodumon.

U oltin kosaga o'zga yurtlardan keltirilgan sharoblardan to'latib, davra aylantirishni buyuradi:

— Va shohni maqtashib ko'tardi barcha.
Ular ichida faqat bir yasovul:

Mo'ylov ho'llamadi oltin kosadan, chunki u ko'kragidagi buyuk g'ussa bilan o'tirar edi. Shoh baland osmondagi qirg'iy bo'zkaptarga tikilgandek unga g'azabkor ko'zlarini qadadi:

Lekin bosh ko'tarmas edi yosh botir.

Shoh temir uchlik hassasini shitob bilan yerga urdi. Hassa qarag'ay polni teshib o'tdi, biroq yigit shunda ham seskanmadi:

So'ngra dahshat bilan gapirdi podshoh,
Bu gal esin yig'di sodda navqiron.
«Hey, sen, navkarimiz Kiribeevich,
Na bo'ldi, yomonroq niyating bormi?
Yo shuhratimizga hasading bormi?
Yoki halol xizmat zeriktirdimi?
Yulduzlar quvonar oy qalqqan chog'da,
Chunki ko'kda ular sayr etar nurda;
Bulutga berkingan yulduz oqibat
Yerga otilgusi chirpirak bo'lib..
Senga yarishmaydi, Kiribeevich,
Jirkanmoqlik shohning ziyofatidan; —

Sening zoting axir Skuratovdan[348]
Malyutina seni emizgan ona!..»
Yasovul ta'zim qilib, shohdan izn so'raydi:
Sharob o'chirolmas yurak o'tini,
Sharob o'chirolmas zo'r bir dardim bor.
G'azabing qo'zg'atdim—hukming ham ravo,
Jazoga buyurgil, kesilsin boshim;
Bahodir kiftiga bosh ham yuk bo'ldi,
O'zi ham zax yerga mayl sezmoqda.

Shoh uning qayg'usi sababini so'raydi. Xalq poeziyasining durdonalari bo'lgan uning savollari o'sha davr rus hayotining ruhi va shaklini mukammal ifoda etadi. Yasovulning javobi yoki to'g'rirog'i, yasovullarning javoblari ham shunaqa, chunki rus milliy poeziyasining ruhiga ko'ra u deyarli she'rga she'r bilan javob qaytaradi. Maqolaning cho'zilib ketishidan qo'rqib, bu o'rinlarni keltirmaymiz, lekin tuyg'ularga to'lib toshgan, xalq poeziyasining rangin injulari yarqirab turgan Kiribeevich nutqining ikkinchi qismini o'quvchilarimiz bilan birga o'qib chiqishdan o'zimizni tiyolmaymiz. Azamat jangchi qayg'usining sababi go'zal qizlar havas bilan boqishganda shaffof to'r ro'molini yuziga ohista tushirib oladigan kelin:

Ezgu Rossiyada, ona-Vatanda,
Izlasa, topilmas unday go'zal qiz:
Oqqushday xiromon yurishlari bor,
Kaptar ko'zlariday ko'zlari xumor.
So'zlaganda go'yo sayraydi bulbul,
Yonoqlari esa qip-qizil bir gul,
Yoki ko'k yuzida qirmizi shafaq,
Qo'ng'ir sochlarida tilla jilvasi,
Yarqirar taqilgan sochpopuklari;
Sochlari mavj urar yelkalarida,
Oppoq siynasini o'pib turadi.
Nomi ham Alyona Dmitriyevna,
Tug'ilmish savdogar xonadonida.

[348] Skuratov — I.Grozniyning eng yaxshi ko'rgan yasovuli.

Uni ko'rganimda hushdan ketaman,
Kuchli qo'llarimda mador qolmaydi.
Ziyrak ko'zlarimga hasrat cho'kadi;
Pravoslav shohi, yorug' jahonda
Yakka yurish — qayg'u, mashaqqat bo'ldi.
Ixlosim qaytipti arg'umoqlardan,
Ixlosim qaytipti kimxob to'nlardan,
Menga darkor emas oltin —xazina,
Kim bilan bu mulkni ko'raman baham?
Kimga ko'rsatardim tantiligimni?
Kimga maqtanardim kiyib kimxoblar?
Ruxsat ber, ketayin Volga bo'yiga,
Kazak hayotimga qaytayin erkin.
U yoqda uzilar bu qaysar boshim,
Musulmon nayzasi sanchilar, balki;
Va taqsim qilishar yovuz tatarlar:
Vafodor otimni, o'tkir tig'imni,
Cherkasdan g'animat — poyga egarni.
Yoshli ko'zlarimni quzg'un cho'qigay,
Ustixonlarimni yomg'irlar yuvgay,
Ko'milmagan sho'rlik murdam har yonda —
Sochilib, beqabr yotgay sahroda!..

Qanday kuchli, qudratli natura! Ehtirosi vulqon lavasidek, g'ami zil-zambil toshdek vazmin. Bu yigitlik sha'ni yo'lida jon olib, jon berishga tayyor, mardonalik va tantilikka chanqoq azamatning ajib bir sarhush holatidir! Bu yasovulning so'zlarida qanchalar poeziya bor. Undagi g'am naqadar teran. Bu g'am eng kuchli qalbni ham larzaga sola oladi, lekin uni barbod etmaydi. Inson tabiatining asosiy unsuri hisoblanmish mana shu g'am milliy poeziyamizning bosh ohangidir!

Shoh kulib tinglarkan, sevimli navkarining kulfatdan qutulishiga ko'maklashishini aytadi, yoqut ko'zlik uzuk va durlar shodasini in'om etadi. Dastlab «ziyrak» bir sovchi topib, unga ta'zim qilishini, so'ng o'zining Alyona Dmitriyevnasiga qimmatbaho sovg'ani yetkazishini tayinlaydi:

Ko'ngil qo'ysa agar, to'y qil, o'ynab-kul,
Ko'nglini bermasa, g'azablanma hech.

— Ivan Vasilevich, bor bo'lgur podsho!
Seni aldadi bu hiylagar quling.
Haqiqatni ochiq-oydin aytmadi,
Senga aytamanki, u sohibjamol —
Nikoh qilinganlar cherkovimizda,
Xristian dini ko'rsatgan tarzda
Nikoh qilib olgan savdogar yigit.

Yasovulning bu javobi o'quvchiga chaqmoqdek, o'lim hukmidek ta'sir qiladi, qo'rqa-pisa dahshatli shohning nima deb javob berishini kutadi. Lekin behuda. Shoir voqealar tarang tortilib kelayotgan sahnani shartta uzadi, fojiaga aylanib ulgurmagan manzara ustidan parda tushiradi. Poema qahramonlari ko'z oldimizda yo'q. Siz ularning birortasini ham o'z ko'zingiz bilan ko'rmaganingizga, ular hammasi qo'shiqchilarning hikoyasi ekanligiga zo'rqa ishonasiz:

Jo'ralar, kuylangiz, gusli soz bo'lsin!
Jo'ralar, ichingiz, o'rinlasin ish!
Shafqatli boyarni yupating, qani,
Go'zal bekasini yumshating, qani!

Lekin bu ajib naqorat ham, xalq og'zaki ijodiga xos topqirlik va chechanlik ham sizni xushnud eta olmaydi. Go'yo xuddi shu topda bir narsa bo'ladigandek, bir kasofat yuz beradigandek. Qissa siz uchun fojiali halokat bilan tugallanadigan g'amgin dramaga aylanadi. Tugun tayyor, voqealar rivoji esa boshlangan. Kiribeevich muhabbati shunchaki hazil-huzul, bordi-keldi narsa emasligini ko'rib turibsiz. U — kuchli naturaning, qudratli qalbning ehtirosi. Tushunganingizdek, bu odam uchun ikkita yo'l bor xolos: Yo maqsadga yetadi, yoki halok bo'ladi! U o'z jamiyatining tabiiy axloqi ixtiyoridan chiqqan, undan yuksakroq, insoniyroq boshqa birini egallab ololgan emas. Kuchli naturaga, yovvoyi ehtiroslarga ega bo'lgan odamlar uchun bu xil izdan chiqish, bu xil axloqsizlik xavfli va qo'rqinchlidir. Shunga qaramasdan, u o'z erkatoyini o'ldirish u yoqda tursin, hatto u mutlaqo gunohkor bo'lganda ham uni qittak ranjitgan kishiga zarracha rahmu shafqat qilmaydigan dahshatli shohga suyanadi.

Parda ko'tarildi — ko'z oldimizda yangi manzara. Savdogarzoda, xushsumbat Kalashnikov laqabli navjuvon Stepan Paramonovich do'konda o'tirar va:

Ipak molarini taxlab qo'yadi,
Shirin so'zlar aytib xaridor to'plar,
Jaraq-jaraq kumush oltinlar sanar.

Bu — o'sha davr rus turmushining boshqa tomoni; sahnada jamiyatning boshqa tabaqasi vakili paydo bo'ladi... U sahnada namoyon bo'lishi bilan sizni o'ziga rom qilib oladi. Negadir sizga u yumshoq, vazmin, joni hiqildog'iga kelguniga qadar muloyim va beozor bo'lib turaveradigan, lekin bir jahli chiqquday bo'lsa, haqini sira ham qoldirmaydigan kishilar toifasidan bo'lib tuyuladi. Yuragingiz tobora qash bo'ladi, qandaydir mash'um bir hol yuz berishini payqab turasiz. Ayniqsa, «xushsumbat savdogarzoda»ning boshiga yomon kunlar tushgan bir paytda:

Davlatmand to'ralar o'tar yonidan,
Uning do'koniga qayrilib kirmas...
Shom chog'i jomini chaldi cherkov ham,
Kreml ortida shafaq tumanda
Ko'kka ko'tarilar shoshqin bulutlar,
Ularni quvadi chinqiroq dovul;
Keng rasta do'konlar bo'shab qolgandi.

Kalashnikov qarag'ay eshikli do'konini berkitib, «ochib bo'lmas nemis qulfi»ni soladi, temir zanjir bilan qopag'on ko'ppagini bog'laydi. So'ng esa:

Moskva-rekadan o'tib uyiga
Yosh kelin tomonga jo'nar xayolchan.

Nega u xayolchan? Yoki kishi o'zini pinhona ta'qib qilib kelayotgan taqdirni, peshonasidagi qora kunni oldindan payqarmikin?..

Stepan Paramonovich «baland» uyiga yetib keldi. Uni na yosh xotini, na jajji go'daklari kutib oldilar. U juda hayron. Uydagi qarag'ay stolda oq dasturxon yozilmagan. Xoch oldidagi sham lipillab yonadi. U oqsoch kampir Yeremeevnani yoniga chorlaydi. Shunday bemahal kechda Alyona Dmitriyevnaning qayoqlarda «daraksiz qolib ketgani»ni so'raydi. Mehribon go'daklarini «o'ynashib charchadilarmi, ertaroq uxlab qoldilarmi», deb surishtiradi. Va shunday javob oladi:

Ibodatga ketdi Alyona kelin;
Yosh xotini bilan pop qaytib uyga,
Kechki taom uchun yoqdilar chiroq.
O'sha ketganicha cherkovdan, lekin,
Qaytib kelgani yo'q boyvuchchang, qaydam,
Sening go'daklaring, kichkinalaring,
Hali uxlashgan yo'q, o'ynashgan ham yo'q,
Yig'lashar, siqtashar, tiyib bo'lmaydi.

Bu satrlarda ajdodlarimiz maishiy turmushining yorqin manzarasi, ularning sodda, ayni paytda serqirra, juda murakkab, ochiqko'ngil oilaviy munosabatlari o'z aksini topgan.

Stepan Paramonovich qattiq o'yga cho'mdi:

Derazaga kelib, ko'chaga boqar.
Ko'chani qoplagan kecha zulmati;
Ko'chada bo'ralab yog'ib yotar qor,
Ko'milib ketmoqda oyoq izlari.
Mana, eshik ochdi birov dahlizda,
Keyin, eshitildi shoshqin odimlar,
Qayrilib qaradi – Xudoyo, saqla!
Uning ko'z oldida turar xotini,
Rangi bo'z oqargan, sochlari to'zib,
To'zib ketgan qo'ng'ir soch o'rimlari,
Ularga yopishgan qirov bilan qor;
Aqlidan ozganday, ko'zlari xira,
Nimadir pichirlar edi lablari.

U xotinidan qayoqlarda sanqib yurganini so'radi: o'ynab kelmaganmikan? To'razodalarning ziyofatida ko'ngil ochib yurma-ganmikan? Nega uning sochlari to'zg'igan, kiyimlari yirtilgan.

Nechun, axir ezgu butlar oldida –
Va'dalar berishgan edik ikkovlon,
Nechun almashgandik oltin uzuklar?..

U xotinining qo'l-oyog'iga kishan urib, qarag'ay eshikli uyga qamab qo'yajagini, toki u yorug' jahonni ko'rmasligi va uning pokiza nomini bulg'ab yurmayajagini aytib, unga tahdid qiladi.

Alyona Dmitriyevna kuz yaprog'idek titraydi. Erining oyoqlariga yiqilib, gapiga quloq solishini so'raydi: «O'lim azobidan aslo qo'rqmayajagini, yolg'iz uning g'azabidan qo'rqishi»ni aytadi. Shu tariqa o'n ikki bandda varvarlik davridagi er-xotin munosabatlarining keng tasviri berilgan! Xotin eriga shomgi ibodatdan uyga qaytayotganda orqasidan qandaydir qadam tovushlari eshitilganini, «qarasa-ketidan birov yugurayotganligi»ni, unga yetib bilaklaridan ushlab olganini, o'zining dov shoh navkari Kiribeevichligi, shonli Malyutina urug'idan ekanligini aytganini so'zlab beradi...

Avvalgidan battar qo'rqib ketdim men,
Gir aylanib ketdi sho'rlik boshginam...
U bo'lsa, erkalab, o'pa boshladi,
Meni o'pardiyu, so'zlardi nuqul:
-Javob bergil, qani, senga ne darkor,
Sevgilim, jonginam, bebaho dilbar!
Oltin xohlaysanmi, yo dur, yo gavhar?
Yoki asl toshlar, yo guldor kimxob?
Yasantiray seni malikalarday,
Ko'rganlarning senga kelsin havasi,
Hasratingda o'lmay gunohga botib,
Yorim bo'l, sev meni, quchoqla meni,
Ko'ngil uchun quchgil hech bo'lmaganda...
U meni quchoqlab, bo'salar oldi,

O‘t yonar hali ham yonoqlarimda;
Naq olov singari kuydirar edi,
Uning o‘pishlari, qurib ketkur-ey...
Ko‘rdi tirqishlardan qo‘shni juvonlar,
Kulishdi ko‘rsatib biri-biriga...

U shoh navkari qo‘lidan yulqinib chiqadi va uyga yuguradi. Biroq eri sovg‘a qilgan buxori to‘r bilan gulli ro‘mol uning qo‘lida qoladi. U hikoyasi so‘ngida o‘zining sharmisor bo‘lganidan zorlanadi, eridan nomusli va begunoh xotinini yovuz bezorilarning tahqir etishlariga yo‘l qo‘ymasligini o‘tinadi. Shundan so‘ng Stepan Paramonovich ikki ukasini oldirib kelib, shohning mal’un yasovuli unga yetkazgan alamni gapirib beradi:

Bunday haqoratga chidab bo‘lurmi,
Hech toqat qilolmas yigit yuragi! —

deydi u va ertaga Moskva-rekada, shoh huzurida, katta musht jangida yasovul bilan o‘lguncha solishajagini, agarda halok bo‘lsa, inilari haqni mahkam himoya qilishlari zarurligini tayinlaydi.

Unga ukalari qaytardi javob:
Shamol qayga yursa osmon yuzida,
O‘sha yoqqa chopar yuvosh bulutlar:
Katta jang maydoni—qonli vodiyga,
Bazmga, o‘liklar saranjomiga,—
Bo‘z burgut ovozi chaqirsa agar,
Navqiron burgutlar uchishib kelar.
Sen bizga og‘asan, ikkinchi ota,
Ko‘nglingga ne kelsa, shuni qilaver,
Yovga kaltaklatib qo‘ymasmiz, jigar!

Javobdan ko‘rinib turibdiki, Kalashnikovlar oilasi Malyutinalar singari dongdor bo‘lmasa-da, ajoyib burgut va burgutchalarni yetkazgan edi... Shoir javobda ajdodlarimizning qarindoshlik munosabatlaridagi soddalikni, to‘ng‘ich farzandning oila boshlig‘i bo‘lib qolishi, akaning ukalar uchun ota o‘rnini

bosishini yo'l-yo'lakay, lekin juda ajoyib bir tarzda tasvirlab bergan. Va bu shunchaki tasvirda emas, balki jonli manzarada, dramatik voqea eng yuqori darajasiga ko'tarilgan, eng qizg'in pallasiga kirgan bir paytda qilingan. Oilaviy yig'ilishning ushbu sahnasi bilan dramatik poemaning ikkinchi qismi tugaydi. Voqea tuguni, voqea ishtirokchilari yaqqol ko'rinib qoldi — alamli yechimni oldindan sezib yuragimiz orqaga tortib ketadi:

Oltin boshli, ulug' Moskva ustida,
Oq toshli Kreml devorlarida-
Uzoq o'rmonlardan, zangor tog'lardan
Taxta uylar, tomlar boshida o'ynab
Ham sur bulutlarni har tomon haydab,
Qizg'ish tong shu'lasi ko'rindi balqib;
Oltin sochlarini taratib soldi
Va yuvindi oppoq, sochma qorlarda;
Suluv qiz ko'zguga boqqan singari,
Beg'ubor osmonga boqar, jilmayar.
Nega, qirmizi tong, uyg'ona qolding?
Qanday shodlik uchun shoshila qolding?

Azamat bahodirlar Moskva-rekaga «bayram sayliga, ko'ngil ochishga» to'plandilar. O'z to'pi, boyarlar va yasovullari bilan podshohning o'zi ham keldi. «Yakkama-yakka jang talabgorlari» uchun yigirma besh quloch kumush zanjirdan halqa tortishga farmon berdi. Nihoyat, shoh talabgorlarni chiqarishni buyurdi:

Zo'r chiqqan kishiga shoh in'om berar,
Kimki yumruq yesa, Tangri kechirar!

Davraga viqor bilan Kiribeevich kirib keladi. O'ziga talabgor so'raydi, «tavba qilgan kishini ulug' ayyom bo'lgani uchun tirik qoldirajagini, maqsadi faqat shohning ko'nglini ochish» ekanligini aytadi. Shu on birdan yig'in ikki yoqqa ajraladi, maydonga Stepan Paramonovich chiqib keladi.

Avval ta'zim qildi dahshatli shohga,
Kremlga, ezgu cherkovlargayu,

Butun rus xalqiga berdi u salom...
Lochin ko'zlaridek ko'zlari yonar,
Qarashin uzmaydi yasovuldan hech!
Yovga u yuzma-yuz to'xtadi kelib,
Va jang qo'lqoplarin kiydi shaylanib,
Keng kiftini rostlab, o'zini chog'lab,
Qo'ng'ir soqolini siypab turardi;

Kiribeevich davraga qanday viqor bilan tushgan bo'lsa, xuddi shunday kibru havo bilan Kalashnikovning nasl-nasabini, nomu laqabini so'raydi. «Bugun kimning janozasida qatnashishini maqtanmoqlik uchun ham bilmog'i lozim»ligini aytadi.

Javob ber Stepan Paramonovich:
«Stepan Kalashnikov deydilar meni,
Tug'ildim nomusli ota pushtidan,
Kun ko'rdim men chiqmay Tangri amridan:
O'zganing xotinin badnom etmadim,
To'smadim qorong'i kechalarda yo'l,
Bekinib yurmadim kun yorug'idan...
Sen to'g'ri gapirding: yoinkî senga,
Yo menga o'qirlar so'zsiz janoza;
Erta tush paytida yo sen, yoki men —
Azamat do'stlarning bazmiga kirib,
Maqtanib so'zlashga olar bugun haq;
Bir hazil yo ko'ngil ochish uchunmas,
Yuzma-yuz keldim men senga, beimon,
Dahshatli va so'nggi og'ir jang uchun!»
Bu so'zni eshitgach Kiribeevich,
Yuzi kuz qoridek oqarib ketdi;
O'ynoqi ko'zlarga cho'kdi bir tuman,
Muz yugurdi uning zo'r yelkasiga,
Og'zi ochilgancha qotdi so'zlari...

Mana, qanchalar fisq-fujurga ko'milmasin, badnom etilmasin, zarra qadar orqaga chekinmagan teran naturadagi vijdonning dahshatli tantanasi!.. Uning tepasida hamisha axloq qonunining shafqatsiz hukmi, Tangri hukmining dahshatli sado-

si turadi, chunki uning o'zi o'zi uchun axloq qonuni, o'zi uchun qat'iy hukmdir!..

Jang boshlanadi (biz uning tafsilotini tushirib qoldiramiz), haq tomon yengadi.

Navqiron yasovul ingrab qo'ydi sal,
Sovuq qor ustiga gangib-dovdirab,
Cho'zila tushdiyu darrov berdi jon,
Sovuq qor ustiga go'yo qarag'ay, —
Go'yoki qarag'ay namtob to'qayda
Sermum tomiridan qirqilib tushdi.

Garchi aybdor bo'lsa-da, azamat jangchiga achinasiz, to'g'ri emasmi? Ismsiz bir dard bilan uning ingrab qulashi tasviridagi shoir holasiga hamohang tebranmaysizmi?.. Holbuki, olijanob savdogarning zafar qozonishini, uni tahqir etgan jinoyatchining mahv bo'lishini o'zingiz istamaganmidingiz? Ulug' xarakterlar shunday jozibador bo'ladi. Qilgan jinoyati qanchalik katta bo'lmasin, ular jazolanganlarida bizning hayratimiz va muhabbatimizga sazovor bo'lib qolaveradilar. Biz ularda taqdirning beomon qurbonlarini ko'ramiz. Ular bilan vidolashib, gunohlarini butkul ko'ngildan chiqarib, sovuq ko'kargan lablariga qardoshlarcha lab qo'yarkanmiz, ularning aybi bilan buzilgan va ularning o'limi bilan o'z o'rniga tushgan umumiy uyg'unlik tantanasini qayd etamiz...

Dahshatli shohning g'azabi o't oldi; Kalashnikov uning sodiq navkarini, eng yaxshi botirini qasddan o'ldirdimi yoki bexosdan o'ldirib qo'ydimi? Ehtimol, Kalashnikov hali ham bo'lsa yolg'on gapirib, jonini saqlab qolishi mumkin edi. Lekin xotinining badnom etilib, baxtiyor turmushining barbod bo'lishidan, oldingi halovatini qaytarib bera olmagan qonli intiqomdan larzaga tushgan bu olijanob qalb uchun yashashning hech bir qizig'i qolmagan, uning yuragidagi tuzalmas jarohatlariga birgina o'lim malham bo'la olardi...Shunday qalblar borki,ular biron-bir narsa bilan, hatto avvaldagi baxtning qoldi-quttilari bilan ham kifoyalanaveradilar. Lekin shunday qalblar ham bo'ladiki, ularning shiori — yo hamma narsa, yoki hech narsa! Ular ozgina dog' tushgan har qanday baxtiyorlikni, kemtigi

bo'lgan har qanday shuhratni rad etadilar. Azamat, xushsumbat savdogar Stepan Paramonovich Kalashnikovning qalbi ham ana shunday edi. U shohga butun haqiqatni so'zlab berdi, lekin birgina narsani — intiqomning sababini aytmadi:

Vaji, sababini senga aytmayman,
Yolg'iz Xudoyimga aytgayman faqat.

Inson qalbining va qadim udumlarini teran bilishning naqadar ajoyib namunasi! Naqadar yuksak, foje fazilat! U qatlga mamnuniyat bilan boradi va shohdan faqat «begunoh go'daklarini, tul xotinini va ikki inisini marhamatidan chetda qoldirmasligini» o'tinadi. Shoh javobida Grozniyning keskin, dahshatli bir ulug'vorlik to'la, haybatli timsoli gavdalanadi:

So'zing ma'qul bo'ldi azamat yigit,
Hey, epchil bahodir, savdogar o'g'li,
Menga javob qilding nomusli, to'g'ri.
Yosh xotiningni va go'daklaringni
Jazodan, o'limdan qilaman ozod,
Ikkala iningga bugundan boshlab
Butun keng Rossiya mamlakatimda-
To'lovsiz savdoga beraman yorliq.
O'zing esa hozir, azamat yigit,
Jazo minbariga tomon olgil yo'l,
G'alvali boshingni kundaga qo'ygil.
Buyuray, oybolta tig'i qayralsin,
Va kelsin yasanib, tusanib jallod,
Katta qo'ng'iroqni jaranglatsinlar,
Moskvada fuqaro tamom bilsinki,
Bebahra qolmading marhamatimdan...

Naqadar shafqatsiz piching, naqadar dahshatli istehzo! Hatto, tobutdagi o'lik ham bundan titrab ketgan bo'lardi! Darvoqe, shoh mahkumning xotini va bolalariga, inilariga marhamat va'da qilarkan, unda shohlar tabiatiga xos olijanoblik va ulug'vorlik yalt etib ko'ringanday bo'ladi. Ayni paytda bu taqdir taqozosi bilan o'limga hukm qilingan, bevaqt jon berayotgan

insonning sha'nini qandaydir beixtiyor e'tirof etish hamdir!.. Naqadar dahshatli fojia! Grozniy timsolida taqdirning o'zi ko'z oldimizda namoyon bo'lyapti va bu voqealarni boshqaryapti!.. Butun insoniyat tarixida Ioann Grozniydek taqdirning timsolini o'zida bu qadar yorqin aks ettirgan boshqa bir xarakterni topish mahol!

Maydonga xaloyiq to'planadi: qo'ng'iroq mungli-mungli sado beradi; qatlgohda qo'llarini bir-biriga ishqagancha jallod u yoqdan-bu yoqqa mamnun kezadi:

Azamat botirni kutmoqda jallod,
U abjir pahlavon, savdogar o'g'li
Inilari bilan xayrlashadi.

U inilariga: mendan Alyona Dimitriyevnaga salom aytinglar, u ko'p kuymasin, bolalarimga esa bu gaplardan og'iz ochmanglar, deb tayinlaydi...

Shunday qilib, Stepan Kalashnikovni
Qatl ayladilar sharmandalarcha.
Qonlarga bo'yalib baxtsizning boshi
Jazo minbarida yumalab ketdi.
Moskva-rekaning nari yonida,
Keng dalada unga qazishdi qabr,
Tulsk, Ryazansk, Vladimirsk-
Uch yo'l o'rtasiga ko'mdilar tanin,
Ustiga tortdilar uyib nam tuproq,
Go'riga sanchdilar yog'ochdan bir xoch;
G'uvillashib kezar betinch shamollar
Yozuvsiz, noma'lum qabr ustida.

Mana, parda tushdi, fojia tugadi. Undagi qahramonlarning haybatli timsoli ko'zdan g'oyib bo'ldi. O'tmish yana o'tmish bo'lib qoldi.

Qani, nima ham qoldi,
Shuncha kuchli mag'rur qahramonlardan,
Shuncha irodali zo'ravonlardan?

Nima? O'lim va foniylikning zimiston go'shasi—qabr! Lekin bu qabr ustidan hayot shabadasi esadi, u xotiralarga ko'miladi, u sassiz rivoyatlar so'zlaydi:

Shu yerdan o'tadi yaxshi odamlar;
Keksalar fotiha o'qib ketadi,
Yigitlar o'tganda qaddini rostlar,
Qizlar o'tganida uh tortar bir oz,
Gusarlar o'tganda aytishar qo'shiq.

Naqadar ajoyib tuhfalar, naqadar bebaho qurbonliklar keltirishadi bu qabrga tiriklar! U bularga arziydi! Negaki, u yerda tirik emas, o'lik yotibdi, lekin shunday o'likki, u tiriklarga tiriklik baxsh etadi! Keksani fotiha o'qitadigan, yigitning qaddini rostlatadigan, qizlarni uh torttirib, gusarni qo'shiq aytkizadigan — o'sha!.. Olijanob Kalashnikovning qayg'uli va baxtsiz qismati sizni ranjitadi, iztirob chekishga majbur qiladi. Siz, hatto gunohkor yasovulga ham achinasiz. Tushunarli, insoniy tuyg'u. Lekin sizning yuragingizni o'rtagan mana shu fojiali yechim bo'lmaganida, bu qadar mazmundor, bu qadar jonli, bu qadar teran ahamiyatga ega bo'lgan qabr ham, qalbingizga yuksaklik bag'ishlagan buyuk jasorat ham, shoirning sizni asir etgan ajib qissasi ham bo'lmas edi... Shu sababli ham qayg'ungiz shodlik bilan almashinadi. Bu shodlik boqiylikning foniylik ustidan, umumning xususiy ustidan porloq g'alabasi bo'lqay! Koinot va borliqning barhaq qonunlarini sharaflaymiz, qadim hamda ezgu rus udumiga ko'ra, o'z she'riy qissasini gusarlarga tugattirgan shoir izidan borib, musiqali xotimani takrorlaymiz:

Hey, tanti jo'ralar, tanti jo'ralar,
O'spirin kuychilar,
Gusar o'g'lonlar!
Yaxshi boshladingiz, yaxshi tugating,
Har kimga haqiqat va chin so'z ayting!
Saxiy boyarga balli!
Go'zal bekaga balli!
Va butun xristian xalqiga balli!

(*Mirtemir tarjimasi*)

Poemaning jamoatga ma'lum bo'lgan mazmunini bayon qilarkanmiz, uning boyligiga, unda o'z aksini topgan hayot qamrovining kengligiga, g'oyaning chuqurligiga ishora qilmoqchi edik. Undagi obrazlar go'zalligi, bo'yoqlar ranginligi, she'r latofati, qalbga otash soluvchi tuyg'ular ummoni, kolorit tiniqligi, ifoda qudrati, ehtirosga to'la zavq-shavqqa keladigan bo'lsak, ular talqin qilinmaydi. Ularni tushuntirish mumkin emas... Biz poemaning katta qismini ko'chirib keltirdik, marhamat, o'zlari o'qib, o'zlari baho bersinlar. Kimki unda biz ko'rgan narsani ko'rmagan bo'lsa, ularga bizda ko'zoynak yo'q, dunyodagi hech bir optik ham unga yordam berolmasa kerak... Poemaning mazmuni, voqeani hikoya qilish ma'nosida, o'z-o'zicha poeziyaga to'liqdir. Agar u tarixiy fakt bo'lganda edi, unda hayot poeziyaga, poeziya esa hayotga aylangan bo'lardi. Lekin shunga qaramasdan, biz uni bilmagan bo'lardik. Bordi-yu biz uni o'tmish zamonlarning soddadil xronikasida uchratib qolguday bo'lsak ham yoki qandaydir mo'jiza bilan unga guvoh bo'lib qolsak ham, u bizga o'lik materialdan boshqa narsaga arzimasdi. Uni, faqat shoirgina tasodifiy, yopishmay turgan narsalarini olib tashlab, dunyoviy nuqtai nazar talablariga muvofiq qilib tiklaydi, nur beradi, jon ato qiladi va bizga yaxlit bir uyg'unlik timsoli sifatida taqdim etadi. Bu jihatdan ham shoirimizdan hayratga tushmay iloj yo'q. Bu o'rinda u tajribali, dohiy me'mor. U o'z imoratining qismlarini shunday uyg'unlashtira oladiki, uning bezaklaridagi birorta naqsh ham ortiqcha emas, aksincha, zaruriy, boshqa muhim ziynatlari singari kerakli tuyuladi. Holbuki, me'morning u naqshlar o'rniga boshqa birlarini osonlik bilan joylashtira olishini bilib turasiz. Lermontov poemasini qanchalik diqqat bilan ko'zdan kechirmang, unda siz birorta ziyod yoki kam so'zni, satrni, obrazni, xususiyatni, biron-bir zaif o'rinni topa olmaysiz. Unda bari muhim, bari go'zal, bari soz! Shu jihatdan uni Kirsha Danilov to'plagan va uning nomiga nisbat berilib ketgan xalq afsonalariga hech ham qiyoslab bo'lmaydi. Ular ko'pincha obrazli, ko'p paytda majoziy, lekin umuman olganda, bema'ni, ayni bir narsaning keraksiz takrori bilan to'lib-toshgan, ko'pincha she'riy, ko'p paytda esa proza ko'rinishidagi poyma-poy so'zlar yig'indisidir. Lermontov poemasi mardona, naqadar xalqchil bo'lsa, shu qadar

badiiy yetuk ijoddir. Sodda va san'atdan yiroq asarlarning noma'lum bunyodkorlari birgina xalq ruhini berishga muvaffaq bo'ldilar. Ular undan uzilib keta olmadilar. U bularda o'zini o'zi to'sib qoldi. Lekin bizning shoir xalqchillik olamiga uning to'la hukmdori sifatida kirib keldi va uning ruhiga singib, qo'shilib ketdi va bu orqali o'zining u bilan o'xshashligini emas, qardoshligini ko'rsatdi. Hatto ijod daqiqalarida buni xuddi predmet singari ko'z o'ngida ko'rib turdi va u olamga qanday kirgan bo'lsa, undan boshqalariga ham shunday o'z xohishi bilan o'tdi. Bu bilan o'z poeziyasining unsurlarga g'oyat boyligini, o'z ruhining o'z Vatani, xalqining ruhi bilan qon-qardosh ekanligini ko'rsatdi. Vatanining o'tmishi ham bugungi kuni singari uning uchun muhim ekanligini ko'rsatdi. Shu sababli ham u bu poemada xalqchillikning uquvsiz kuychisi emas, balki chinakam san'atkor sifatida namoyon bo'ldi. Garchi, uning poemasini,- asl rus xalq tilida yozilgani sababli, boshqa biror tilga butun koloritini saqlagan holda tarjima qilish mumkin emas; u muayyan davrdagi rus turmushini bekamu ko'st, butun hayotiy tovlanishlari bilan jonlantira olgan qadimgi rusning muxtor vakili bo'la oladigan benihoya go'zal badiiy asardir. Shu jihatdan Boris Godunovdan so'ng hammadan ko'proq Ioann Grozniyning omadi keldi. Lermontov o'z poemasida uning misdan yoki marmardan tiklangan ulkan timsolini yaratdi...

Maqolamizning ichki rejasiga ko'ra, biz dastlab Lermontovning uni hali san'atkor sifatida tanitmagan, lekin botiniy sirdoshimizday ko'rsatgan va birgina o'shalar bilan ham uning ruhidagi unsurlar boyligini, uning jamiyatga munosabatini ko'rish mumkin bo'lgan she'rlari haqida gapirishimiz lozim edi. Biz shunday boshlagan edik, shunday davom ettiramiz: uning sof badiiy she'rlariga nazar tashlash bilan maqolamizni nihoyasiga yetkazamiz. Agar biz o'zimiz badiiy asar deb e'tirof etgan «Shoh Ivan Vasilevich, navjuvon yasovul va azamat savdogar Kalashnikov haqida qissa»ga to'xtab o'tgan bo'lsak, bu shuning uchunki, avvalo undagi badiiylik ozmi-ko'pmi shartlidir. Negaki, u bu «qissa»da qadim maqom bilan ish tutadi, unga taqlid qiladi va gusarlarni kuylashga majbur etadi. Ikkinchidan, bu «qissa» shoir ruhining xalq ruhi bilan qon-qardosh ekanligiga dalil bo'lib xizmat qila oladi va uning iste'dodining buyukligiga ishora

etuvchi poeziyasidagi muhim bir unsurdan darak beradi. Shu predmet tanlashining o'ziyoq bugungi voqelikdan qanoatlanmagan, bugungi turmushda xuddi o'shanday hayot ko'rmaganligi sababli o'tmishga murojaat qilgan shoir ruhining holatini ko'rsatib turibdi. Lekin bu o'tmish uningday shoirni uzoq band eta olmas edi. U ko'p o'tmay bu mazmunning butun kambag'alligi va bir xilligini sezishi va har bir tomchi qonida, urib turgan yuragining har bir zarbida, olayotgan har bir nafasida barhayot turgan zamonaviylikka qaytishi muqarrar edi. U bundan ajrala olmasdi! Bu uning tomir-tomiriga singgan, fikru o'yini band etgan, yurak qonini simirar, butun hayotini, butun faoliyatini talab etar edi! Undan ro'shnolikka olib chiqishni, jarohat va illatlariga malham topib berishni kutardi. U, faqat ugina bugungi kunning to'laqonli vakili, *aqlimizning o'zga bir hukmdori* sifatida buning uddasidan chiqa olardi! Jamiyatning dardu g'amini ifodalagan shoir asarlarida jamiyat o'z dardu g'amidan bir oz yengillaganday bo'ladi. Bunday shifobaxsh ta'sirning sababi, yuqorida aytib o'tganimizdek, kasallikni ko'rsatish orqali uning sabablarini anglashdir. Qadim donishmandi Geziodning «Muzaga gimnlar»idagi mana bu soddagina so'zlarida ulug' haqiqat bor: «Agar biror kishi qayg'uda o'rtansa, yurak jarohatlaridan qiynalsa va o'zining achchiq hasratiga ko'milib o'tirsa, kuychi, muqanniy ilk insonlar shuhratini huzur-halovatini kuylab yuboradi. O'sha zahotiyoq baxtsiz o'z g'amini unutadi va birorta tashvishni xayoliga keltirmaydi»[349]. Lekin bu poeziyaning, umuman, barcha poeziyaning qudratidir. Bizning o'z iztiroblarimizni qayta ko'rsatib beruvchi poeziyaning esa, iztiroblarimizga ta'siri yana ham ajoyibdir. Ularni o'zimizdan tashqarida, tozalangan, unda yashiringan sirli mazmunning umumiy ma'nosi bilan yoritilgan holda ko'rishimiz bilan darhol o'zimizni bir oz yengil tortgandek his qilamiz...

Asrimiz, asosan, tarixiy asrdir. Butun o'ylarimiz, barcha savollarimiz va ularga javoblarimiz, butun faoliyatimiz tarixiy zamindan va tarixiy zaminda o'sib yetilgandir. Insoniyat to'lib-toshgan ishonch-e'tiqodlar asrini allaqachon o'tgan, ehtimol, bularning oldingiga qaraganda yuqoriroq bosqichga ko'tarilgan

[349] «Теория поэзии в историческом развитии древних и новых народов». Сб. Шевирева, 19-с.

davri kelar, lekin hozirgi asr ong asridir, ruh donishmandlik qilayotgan asrdir, fikrlash, mulohaza yuritish asridir.[350] **Savol** — mana zamonamizning alfa va omegasi. Biror dilbarga ko'ngil qo'yib qolganimizni sezgudek bo'lsak, muhabbat zavq-shavqiga berilish o'rniga muhabbat nima, biz chindan ham sevamizmi va hokazo deb o'zimizdan **so'ray boshlaymiz**. Ma'lum bir narsaga beadad chanqoqlik bilan, dardli bir sog'inch, o't-otash ehtiros bilan intilamizu, qalbimizdagi eng qaynoq orzularning ijrosidagi sovuqqonlikni ko'rib, hayron qolamiz. Va zamonimizning ko'pchilik kishilari Pushkindagi Mefistofel va Faust orasida kechgan sahnani o'zlari haqida deb anglasalar bo'ladi.

Sening suluv sohibjamoling
Zavq-shavqqa g'arq bo'lgan zamoni
Orom bilmas qalbingni bedod
Chulg'ab oldi o'ylar tug'yoni.
(Sen bilan biz yetdikki isbot:
O'y surmoq - bu, zerikish xolos)
Faylasufim, bu on, bu zahot
Hech kim hech na o'ylamas oni,
Nimalarni o'ylading ro'y-rost?
Aytayinmi?
FAUST
So'yla-chi, qani!

MEFISTOFEL

Sen o'ylading: «Yuvoshim, qo'zim!
Bamisli jon tiladim seni!
G'azablarga soldim-ku o'zim!
Sodda qizning orzularini!
Erksiz sevgi, beg'araz hisga
Ma'sumona tutdi ul o'zni...
Nechun endi g'ashlikdan butkul

[350] Garchi «fikrlash» so'zi «mulohaza yuritish» ma'nosini to'la berishdan uzoq bo'lsa-da, lekin o'sha mazmunga ishora qila oladiki, Pushkin «Faust»dan sahnalar»ida shunday qo'llagan. Fransuzcha reflexion ma'nosiga ko'ra nemislar reflektion la Reflexion so'zlarida ko'zda tutadigan ma'noga yaqin — *Belinskiy izohi.*

Ko'ksim yonar, yosh kelur ko'zga?..
Erkaligim qurbonin magar
Yayraymanu ko'rib, ammo ba'd
Dilimda bor beomon nafrat:
Shundoq qay bir bemo'ljal ovsar
Razil ishga urinar bekor,
O'rmon ichra gadoni so'yib
Jasadini esa qilar xor:
Shundoq, sotqin husnga to'yib
Jonginasi qilarkan rohat
Hadiksirab qarar razolat...»

(Muhammad Ali tarjimasi)

Dahshatli!.. Lekin bu yoshligida go'yo beg'am yeb-ichgan, shod-xurram hayot kechirgan, hech narsani o'ylamasdan dunyo lazzatidan bahramand bo'lib yashagan keksa avlod o'ylaganidek, dunyoning tamom bo'lishi yoxud hatto, uning aynishi ham emas. Yo'q! Bizning zamondagi odamlar ham orzu-umidlarga, shiddatli bir sog'inch to'la ishtiyoq va intilishlarga xuddi shunday, balki bundan ham ko'proq boydir. Bu dardning shunday bir muvaqqat tanazzulidirki, undan so'ng ahvol yaxshilanishi, ilgarigidan a'loroq sog'lomlik boshlanishi lozim. Hozirda bizning shodligimizni qayg'uga aylantirayotgan o'sha o'y, o'sha mulohaza oxiri bizga hech qachon muyassar bo'lmagan saodat manbai, shu kunga qadar huzur qilolmagan zavq-shavq ma'xazi bo'lishi lozim. Lekin jamiyatning xasta paytiga to'g'ri kelgan kishilarning sho'ri! Jamiyat yillab emas, asrlab yashaydi. Inson umri esa bir lahzalikdir. Jamiyat sog'ayadi. Ammo uning xastalik holatini aks ettirgan kishilar — ruhning ajoyib maxzanlari bir umrga hayot uchun zararli unsurlar bo'lib qolishlari mumkin!..

Nima bo'lmasin, asrimiz tafakkur asridir. Shu sababli mulohaza yuritish zamonamiz poeziyasining qonuniy elementidir va deyarli zamonamizning barcha ulug' shoirlari bunga keraklicha e'tibor berdilar: Bayronning «Manfred», «Kain» va boshqa asarlari; ayniqsa Gyotening «Faust», Shillerning butun poeziyasi, asosan, *fikrlaydigan*, mulohaza yuritadigan poeziyadir. Bizning davrimizda, qadim shoirlar ijodidagidek, hayot hodisalarini

shoir shaxsiyatiga mutlaqo aloqasiz mushohada etuvchi poeziya (obyektiv poeziya)ning bo'lishi juda qiyin. Shu bilan birga, bizning davrimizda qadim shoirlar kabi mushohada qobiliyatiga ega bo'lmagan va ayni paytda hayot hodisalarini o'z shaxsiy munosabati yordamida qayta jonlantirish salohiyati yo'q bo'lgan qalam sohibi — shoir, ayniqsa san'atkor bo'la olmaydi. Lekin bizning davrimizda shoirda ichki (subyektiv) elementning yo'g'ligi aybdir. Gyotedek shoirda tarixiy va ijtimoiy elementlarning yetishmasligi, uning voqelikdan qanoat hosil qilishi aybsitiladiki, bu bejiz emas. Badiiy jihatdan Gyote poeziyasi darajasida bo'lmagan, lekin undan insoniyroq, *insonparvarroq* Shiller poeziyasi kishilik olamida Gyotenikidan ko'proq aks-sado topganining sababi ham mana shudir.

Ichki (subyektiv) elementning ustunligi o'rtamiyona shoirlarda iste'dodning cheklanganligi belgisidir. Ularda subyektivlik, agar umumdan ajralgan holda namoyon bo'lsa, hamisha cheklangan shaxsiyatni ifoda etadi. Ular, odatda, o'zlarining ruhiy dardlari haqida hamisha aytadigan gaplarini gapiradilar. Ularni o'qirkansan, Lermontovning mana bu she'ri beixtiyor yodga tushadi:

Bizga nima, yondingmi, yonmading, jo'ram,
Idroking o'kinchiyu tug'yoningki bor,
Bolaliging bema'ni umidlarin ham
Bizga bilmoqlik shartmi, bizga ne darkor?
Boq, qarshingda yer depsib o'ynab sarafroz,
O'z odatiy yo'lida borar xaloyiq;
Bayramiy chehralarda tashvish izi oz,
Ko'zlarda-chi, tomchi ham yosh yo'q noloyiq.
Asli ular barchasi g'amli, nidoli,
Azob chekmish va lekin so'ylamas vajin,
Ular qilmay jinoyat, ko'rmay judolik
Manglayiga tushmishdir bemahal ajin...
Inon: ular kularlar ko'z yosh, ta'nangdan,
Kulgilidir ularga siyqa maqoling,
Yuzin bo'yagan aktyor foje ohangda
Qog'oz qilich o'qtalib turgan misoli...

(Muhammad Ali tarjimasi)

Ulug' iste'dodda ichki, subyektiv elementning mo'l-ko'lligi insonparvarlik belgisidir. Bunday holdan cho'chimang. U sizni aldamaydi, chalg'itmaydi. Ulug' shoir o'zi haqda, «men»i haqida gapirar ekan, umuman insoniyat haqida gapiradi, negaki, uning tabiatida bugungi insoniyatga xos hamma narsa mavjud. Shu sababli ham har bir kishi uning qayg'usida o'z qayg'usini, uning qalbida o'z qalbini anglaydi va unda faqatgina *shoirni* emas, balki *insonni*, insonlik yo'lidagi birodarini ham ko'radi. Uning o'zidan beqiyos yuksakligini e'tirof eta turib, u bilan qardoshligini ham tan oladi.

Mana, bizni Lermontovning subyektiv[351] she'rlariga alohida e'tibor etishga va ular shoirning sof badiiy she'rlariga qaraganda ko'pchiligidan xursand bo'lishga nima majbur qilgan edi. Mana shu belgiga ko'ra, biz unda rus shoirini, **xalq** shoirini, bu so'zning eng oliy va olijanob ma'nosidagi, rus jamiyatining tarixiy lahzasi o'z ifodasini topgan shoirni ko'ramiz. Uning bu xildagi barcha she'rlari teran va serma'no. Unda ruhan g'oyat fusunkor bir tabiat, olijanob insoniy shaxsiyat ifodalanadi.

«Shoh Ivan Vasilevich, navjuvon yasovul va azamat savdogar Kalashnikov haqida qissa» bosilgandan so'ng bir yil o'tgach, Lermontov «O'ylar» she'ri bilan yana adabiyot sahnasiga chiqdi. Va o'z she'rining olmosdek mustahkamligi, momaqaldiroqdek yangroqligi, olijanob g'azab va teran g'amning bahaybat qudrati bilan hammani hayratga soldi. Shundan buyon Lermontov she'rlari o'z imzosi bilan ketma-ket, tanaffussiz bosilib keladi.

Shoir yangi avlod haqida gapiradi. Unga g'amgin qarashini, uning kelajagi «nursiz, sharafsiz» ekanligini, u dunyo, *tanish-bilish*, gumonlar yukini ko'tarib, bekor va nafsiz keksayajagini aytadi. Samarasiz fan aqlimizni so'rganligini ta'na qiladi. Bu o'rinda shoirga qo'shilib bo'lmaydi. Gumon — mayli, lekin, bilim va fanning, — garchi u «samarasiz» bo'lsa-da, — ortiqchaligini ko'rmaymiz. Aksincha, bilim va fanning yetishmasligi naslimizning kasallaridan biridir:

---

[351] Takrorlab aytamizki», subyektivlik» bu yerda, — ilgari tushunilganidek, kaltafahmlik ifodasi emas, ruhning ichki elementi ma'nosida ishlatilmoqda-Belinskiy izohi.

O‘qidik oz-ozdan hammamiz bir qur.
Juda yengil-yelpi va chala-chulpa.

Boy berilgan hayot o‘rniga loaqal ilm olib lazzat topsak koshki edi, hech bo‘lmasa biron-bir narsadan yutgan bo‘lardik! Lekin kuchli ijtimoiy taraqqiyot bizni mehnat va o‘qishsiz bilimdon qilib qo‘ydi va bu bog‘i surishtirilmay yeyilgan uzum, tan olish kerak, bizga qimmatga tushdi. Bilim bizga singmadi, biz bo‘kib qoldik, didimiz esa zavq olmadi, to‘mtoq bo‘lib qoldi. Bu ongli hayoti sodda, tabiiy turmushning bevosita mahsuli bo‘lmay, rivojlangan xalqlardan ko‘chirib olingan barcha jamiyatlar uchun tabiiy va zaruriy hodisadir. Bu jihatdan biz *aybsiz aybdorlarmiz*!

Otalar xatosin, kech kirgan fahmin
Meros qilib oldik beshikdan bizlar.
Turmush bizni, go‘yo begona bazmi,
Go‘yo maqsadsiz yo‘l, charchatar, ezar.

Naqadar haqqoniy manzara! Naqadar aniq va original ifoda! Ha, otalar aqli biz uchun — *kech kirgan fahm*; buyuk haqiqat!

Sevgimiz — tasodif, nafratimiz ham.
Yo‘lida hech narsa qilmaymiz qurbon.
Qonda yoshlik o‘ti qaynab turgan dam
Sirli bir sovuqlik qalbda hukmron.
Ota-bobolarning bolalarcha jo‘n,
To‘kin bazm, ishrati bizga maroqsiz,
O‘tmishga mazaxli nazar tashlab, so‘ng.
Tobutga shoshamiz baxtsiz, sharafsiz.
Tez unut bo‘lg‘uchi mungli to‘daday,
Davr uchun birorta dohiyona ish,
Biror samarali fikr qoldirmay,
Dunyodan o‘tamiz beiz, betovush.
Mulkin sotib ichgan ota qabrida
Alamli kulganday aldangan o‘g‘il,

Grajdanlik haqqi bilan, xokimiz uzra
Nafratli she'r o'qir kelgusi bo'g'in.

(Asqad Muxtor tarjimasi)

Bu satrlar qon bilan yozilgan. Ular haqoratlangan ruhning teran qa'ridan otilib chiqqan. Bu o'z ichki olami bo'lmasligini o'limdan ming chandon dahshatliroq baxtsizlik deb biluvchi insonning nola va faryodidir!.. O'z qayg'u-anduhi, suyak-suyagiga singib ketgan hafsalasizligi va qalbining bo'm-bo'shligiga yuqoridagi satrlarda javob topmaydigan va unga o'z nolasi, faryodi bilan sado bermaydigan yangi avlodning biror kishisi bormi?.. Agar «satira» deganda xushchaqchaq, gapga chechanlarning beozor masxarabozligi emas, g'azab chaqinlari, jamiyat tomonidan tahqir etilgan ruhning momaqaldiroqlari tushunilsa, u holda Lermontovning «O'ylar»i satiradir. Va satira poeziyaning qonuniy turidir. Agar Yuvenal satiralarida ham mana shunday tuyg'ular bo'roni bo'lsa, undagi so'zlar ham shu qadar olovli va qudratli bo'lsa, u holda Yuvenal chindan buyuk shoirdir!..

Xuddi shu masalaning boshqa bir tomoni «Shoir» she'rida ifodalangan. Nazokat bilan ishlangan zarpardoz xanjar shoirga bu qasos va o'lim qurolining bir zamonlar qilgan xizmatlarini esga tushiradi... endi-chi? Hayhot!

Hech kimning mehribon qo'llari yuzin
Endi tozalamas, siypamas.
Hech kim tong oldidan uning yozuvin
Ezgu so'zday dildan o'qib yupanmas.
Injiq asrimizda, shu tarzda, shoir,
Sen ham mavqeingni yo'qotmadingmi?
Ravon va qudratli so'zingdan jangda
Lovullar ediku jangchining qalbi,
Xalqqa zarur edi; bazm uchun jomday.
Ibodat vaqtida ezgu so'z kabi.
She'ring oliy ruhda kezib bosh uzra,
Qutlug' fikrlarning aks-sadolari
Xalqning shodlik, qayg'u kunlarida
Yangrardi vechaning bongi singari.

Bizni zeriktirar jo'n, mag'rur so'zing,
Yolg'on dag'dag'adan yupanamiz biz;
Soxta chiroy kabi ajinli yuzin
Ranglashga o'rgangan ko'hna dunyomiz.
Xo'rlangan payg'ambar, uyg'onarmisan!
Yo qasos chorlagan paytda ham endi
Hech vaqt olmasmisan oltin qinidan
Nafrat zangi bosgan shu shamshiringni?..

(*Asqad Muxtor tarjimasi*)

Mana, u o'sha Gegel Shillyerda pafos deb atagan chaqmoqday chaqnoq, quyundek shiddatli ehtiros va tuyg'ular to'foni!.. Yo'q, bunday she'rni faqat she'r bilan, yana xuddi shu darajadagi she'r bilangina maqtamoq mumkin... Fikrni-chi?.. Biz bu o'rinda faktning miqdoriy aniqligini izlamasligimiz kerak, ammo shoir ifodalayotgan narsani anglamog'imiz lozim. Darhaqiqat, u shoirdan uning eng muqaddas vazifalaridan birini talab qilayotganini kim tan olmaydi? Bundagi shoir xarakteristikasi olijanob Shillerning xarakteristikasi emasmikin?..

«O'zingga ishonma» she'ri oldingi ikki she'r bilan birgalikda triumviratni tashkil qiladi. Shoir unda soxta suxandonlikni ko'rsatib berar ekan, chinakam ilhomning mohiyatini tushuntiradi. Nazmni ham, nasrni ham qotirib tashlaydigan ovozasi baland shoirlar bor, lekin asarlarini o'qisang boshing aylanib, ko'zing tingandek bo'ladi. Va u asarlar, ayniqsa, yoshlikda ko'zga issiq ko'rinadiganlari xotirdan qandaydir juda tez ko'tarilib ketadi. Bu odamlarni qobiliyatdan, hatto, ilhomdan mahrum, deb bo'lmaydi, ammo:

Undan ilohiy belgi izlamoq nedir?
Kuch ham oshib-toshmoqda, ko'pirmoqda qon!
Undan ko'ra umringni tashvishlarga ber,
To'kib yubor og'uli sharbatni al'on!
Sukutlarga g'arq bo'lgan qalbingda agar
Yetib vaqti-fursati, kelib shunday chog'
Ochsang, hech kim bilmagan shaffof, jilvagar
Sodda, shirin saslarga to'liq bir buloq, —

Quloq solma saslarga, bo'lma mahliyo,
Unut barin, farqni bil ushbu asnoda:
Sovuq kalom, bir tekis she'r bilan illo
Mushkul ular mazmunin etmak ifoda.
Pinhona g'am dilingda bo'lganda paydo,
Yo shiddatli ehtiros kechganda ayon –
Darg'azab dugonangni yetaklab aslo
Chiqa ko'rma odamlar bazmiga tomon;
Pastga urma o'zingni. Or et mardona,
Goh g'azabing, goh ma'yus alaming sotma,
Dil yarang fasodlarin takabburona
Sodda avom oldida tomosha etma.

Pushkin paydo bo'lgan zamondan boshlab adabiyotimizda qandaydir ilgari mutlaqo uchramagan — hayotdan shikoyat ko'zga tashlanadi. «Ko'ngilga urish» degan yangi so'z iste'molga kirib keldi. Hatto, bu vaqtlarga kelib, bu so'z eskirib, siyqalashib ham qoldi. Oda o'rnini elegiya egalladi va poeziyaning hukmron turi bo'lib qoldi. Hatto, shoirlikdan uzoq qofiyabozlar ham shoir izidan borishib:

Sag'alkam o'n sakkiz yoshida bari
Xazon bo'ldi hayot gullari, –

deb kuylay boshladilar. Darhaqiqat, bu jamiyatimizning hayot tomon yuz burishi edi. Adabiyot birinchi marotaba jamiyat hayotini ifoda qilayotgan edi. Adabiyotdagi bu yangi yo'nalish Pushkinning fusunkor she'ri «Demon»da yaqqol ifodasini topgan.

Sirli olam qoshida ilk bor
Hayratlarga tushgan kunlarim, —
Qiz nigohi, shovqin o'rmonzor,
Tun-oqshomgi bulbul unlari,
Balandparvoz oliy tuyg'ular,
Hurlik, sharaf, ishqiy alanga,
Durri san'at, ilhom, yog'dular
O't solganda jon ila tanga —

Umid, rohat – bariga nogoh
Soya solib g'amli va nolon,
Qandaydir bir yovuz ruh goh-goh
Kelar edi qoshimga pinhon.
G'amli edi bizning muloqot,
Tabassumdan to nigoh qadar
Achchiq-achchiq so'zlari bedod
Quyar qalbga muz misli zahar.
Bo'htonlari behad, bemisol –
Kelajakni sinab ko'rardi;
Go'zallikni atardi xayol,
«Ilhom – irganch», deb nah urardi;
Ishonmasdi ishq, erkka butkul,
«Yashash – kulgi», derdi doimo,
Tabiatda hech narsaga ul
Ezgulikni ko'rmadi ravo.

Bu har qanday so'lim hayotni barbod qiladigan, har qanday baxtiyor shodonlikka og'u qo'shadigan o'y va tafakkur ruhi, shubha va gumon demonidir. Ajab bir hol: hayot paydo bo'ldi va u bilan birga uning dushmani shubha ham tug'ildiyu, u bilan baqamti qadam tashladi! Shundan buyon Pushkin «Demon»i biz bilan abadiy birga. Uning badbin, istehzoli basharasi hali u yerda, hali bu yerda uchrab qoladi. Bugina emas. U yangi bir demonni boshlab keldi (M.Lermontov she'rlari, 109-sahifa):

Hayot shavqsiz, hasratli; ruhan qiynalgan chog'da
Qo'l bermoqqa yo'q birov, kelmas do'stning sadosi.
Orzular-ey!.. Naf bormi mudom orzu qilmoqdan?..
Yillar-chi, o'tib borar, oltinga teng bahosi!
Sevmoq... kimni sevayin?.. Vaqtincha sevmoq oson,
Umrbod sevmoq qiyin, qiyinu mumkin emas.
O'z-o'zingga bir boq-chi?—Yo'q kechmishdan nom nishon,
Shodlik, azob, barchasi chaqaga ham arzimas!..
Ehtirosmi? — Vaqt kelib uning shirin dardlari
Idrok so'zin qoshida yo'g'liklarga surinur.
Hayot ham sovuq nazar bilan boqqaning sari —
Bir bekorchi, betamiz hazil bo'lib ko'rinur...

Qalbni larzaga soladigan, hamma orzular, butun insoniy tuyg'ular, barcha hayot lazzatiga alvido aytuvchi, bu dunyoga begona bo'lgan bir dardu hasratga to'la, qabriston nidosidek bo'g'iq bu ovoz dahshatlidir! Bu nidodan inson titroqqa tushadi, tomirlaridagi qon to'xtab qoladi. Ilgarigi yorug' hayot timsoli bizni o'z quchog'iga olib bo'g'ayotgan, qaqshoq jag'larini tirjaytirganicha lablarimizga bosishga urinayotgan, qoqsuyak skeletga aylanadi! Bu ko'ngilning ehtirosli zavq-shavqi, ruhning uyg'unlik holati emas, bu — hayotning motam qo'shig'idir! Kimki unda ifodalangan ruhning bu xildagi holatini o'zida kuzatmagan bo'lsa, bunday dahshatli tuyg'udan yiroq bo'lsa, u albatta bunda g'amgin mazmundagi kichik pesadan ortiq narsa ko'rmaydi va bu o'rinda u haqdir; lekin bu qabriston navosini o'z qalbida ilgari ham eshitgan va ayni o'rinda o'ziga ko'pdan tanish dahshatli tuyg'uning faqat badiiy ifodasini ko'rib turgan kishi unga o'ta yuksak baho beradi, undan juda teran ma'no topadi. Unga bir vaqtlar Evmenida mash'alalari singari inson ruhining tubsiz puchmoqlarini yoritgan poeziyaning buyuk namunalari qatoridan faxrli joy ajratadi... Naqadar sodda, naqadar tabiiy va erkin ifoda! Shunday tuyuladiki, butun pesa o'z-o'zidan, xuddi to'lib turgan ko'z yosh singari, yangi jarohatdan shiddat bilan otilib chiqqan qon singari birdan quyilgandek...

«Zamonamiz qahramoni»ni eslang. Bir tomondan hayot me'dasiga tekkan, o'zidan ham, hayotdan ham nafratlanuvchi, hayotga ham, o'ziga ham ishonmovchi, orzusi va qanoat bilmas tuyg'usi o'rtasida tubsiz bir jarlik ko'rinib turgan, ikkinchi tomondan esa, hayotning payidan tushgan, uning har bir nigohini diqqatida tutgan, zavqu shavqidan bearmon bahra olgan g'alati bir odam Pechorinni eslang. Uning Belaga, Veraga, knyajna Meriga muhabbatini eslang, so'ng bu satrlarning ma'nosini tushunib olasiz:

Sevmoq... Kimni sevayin?.. Vaqtincha sevmoq oson,
Umrbod sevmoq qiyin, qiyinu mumkin emas.

Ha, imkoni yo'q! Lekin muhabbatga bu qadar telbalarcha chanqoqlikning nima keragi bor? Biz yoshlikni abadiy muhabbatning mag'rur ideali-yu, tuyg'ularining haqqoniyligi hamda

o'zgarmasligi haqidagi mutakabbir iymon bilan qarshilaymiz. Lekin bu iymonning nima keragi bor?.. Biz bir pesani bilamiz. Uning mazmuni zamonimizning bu sirli illatini aytib bera oladi. U bundan bir necha yil oldin ma'nosiz bir narsa hisoblangan bo'lardi. Hozir esa u ko'pchilikka o'ta serma'no ko'rinadi. Mana u:

Men seni sevmagayman: sevib ulgurmay bekor?
Ko'nglim ham sovib bo'ldi — bari taqdirdan tortiq.
Men seni sevmagayman: ko'ksimda dardli dil bor,
Mehr qo'yolmagayman bunda hech kimga ortiq.
Qarg'ama! O, sehrli lahzada bo'm-bo'sh qalbim.
Bechora erkimni ham ko'zyosh ila u zamon
Go'zal oyoqlaringning poyida-ku xor qildim,
Tabiat, sen, o'zimni aldadim-da begumon.
Men seni sevmagayman, ammo sevib o'zgani,
O'zimga nafratim bor, o'zimga qilgum qahr!
Telba misol yig'layman, alamangiz so'zlanib,
Deymanki, nechun endi seni sevmayman axir?!

Nahotki, ilgari bunday bo'lgan emas? Yoki ehtimol, ilgari bunga u qadar ahamiyat berilmagandir, yurak uradimi — sevishgan, ko'ngil qoldimi — o'zlarini zo'rlashmay, yig'ishtirib qo'yishgan. Ikki tirik jonning qismatini bir umrga hal qiluvchi zanjirlarda bog'lanib, so'ngroq tuyg'ulari aldanganligini, bir-birlari uchun yaratilmaganliklarini bilib qolib, bu dahshatli zilziladan larzaga kelish o'rniga, erinchak bir odatga tushib ko'nikib qolishgandir va toshqin tuyg'ular, mag'rur ideallar olamidan loqaydgina jirkanch hayotning sokin va ulug'vor ko'chasiga kirishgandir?.. Axir har zamonning o'z fe'li bor-ku?.. Ehtimol, bizning zamon odamlari hayotdan ancha ko'proq narsa talab qilishar, xayol og'ushiga mutlaqo tizginsiz berilib ketisharu, ularning osmoniy orzularidan so'ng voqelik benihoya xira va rangsiz, sovuq va bo'm-bo'sh ko'rinib qolar?.. Ehtimol, bizning zamon odamlari hayotga haddan tashqari jiddiy qarab, tuyg'uga haddan tashqari katta ahamiyat berarlar?.. Ehtimol, hayot ular uchun bir yuksak rutba, muqaddas bir sirriyotu, shunchaki yashagandan ko'ra butkul yashamaslikni xohlarlar?..

Ehtimol, ular narsalarga benihoya to'g'ri qaraydilaru, ularning har birini o'z nomi bilan atashda haddan tashqari vijdoniylik bilan ish tutadilar, o'zlariga nisbatan o'ta dangal, uzun homuza tortganda o'zlarini jonboz degilari kelmaydi, o'zlarini ham, boshqalarni ham yasama tuyg'ular bilan aldashni, boshqatdan go'dak bo'lishni xohlamaydilar. Ehtimol, ular birovlar qismati haqida nihoyatda o'ta insof va vijdon bilan o'ylaydilar. Bir tirik jonga muhabbat va halovat va'da qilar ekanlar, uning uddasidan so'zsiz chiqishga urinadilar va buning imkoniyati yo'g'ligini bilgach, umidsizlikka tushib, g'amga beriladilar yoki ehtimol, ular jamiyat shafqatidan mahrumdirlar va uning qattiqqo'l tartiblaridan siqilganlaru, boy tabiatning, teran ruhning saxiy ne'matlaridan foyda bo'lmagach, tumov bo'lib ko'rpasiga o'ranib olgan bolaga o'xshab qolishgandir?.. Ehtimol, ehtimol nimalar bo'lmaydi!

«Hayot shavqsiz, hasratli» Lermontovning barcha pesalari orasida eski avlod tomonidan qattiq g'azab bilan kutib olingani bo'ldi. G'alati odamlar! Ularning fahmlaricha, poeziya haqiqat kohini bo'lmasligi, balki yolg'on-yashiqlar to'qib chiqarishi lozim. U haqiqat chaqmog'ini chaqmasin, shaqildoq shaqillatib bizni ovutsin! Ularning fahmlaricha, odamlar gap bilan avrab yoki ertak bilan yupatib o'tib ketaversa bo'ladigan go'daklardir! Biror nima bilgan kishi boshqalarni o'z safsatalariga ishontirmoqchi bo'lgan shoir va nasihatgo'y ustidan kulishini, chunki bu gaplarga aytayotganning o'zi ishonmasligini bilishini ularning tushungisi kelmaydi. Bor narsani haqqoniy ko'rsatib berish bizning bu ajabtovur odamlarimizga axloqsizlik bo'lib tuyuladi. Bulya va Janlis shogirdlari: haqiqat o'z-o'zicha eng oliy axloq emas, deb o'ylaydilar... Ularning bolalarcha aldanganligiga, mana eng yaxshi dalil: shoirning o'sha ruhidan, o'shanday g'amgin, inson yuragini muz qilib yuboradigan sadolar yaratgan ruhdan mana bunday toshqin orzularning, hayotdan hayotiy saodat olmoqning hayotbaxsh, tantanavor ohanglari ham maydonga keldi (71-sahifa):

Hayotimning tashvishli oni
Yuragimni chulg'aganda g'am,
Eslaymanu ajib duoni

Takrorlayman yodda o'sha dam.
Jonli so'zlar jarangosida
Qandayin soz rohatbaxsh kuch bor!
U so'zlarda sirli, osuda
Bir joziba axir barqaror!
Yelkangdan tog' tushgandek bo'lar,
Ortda qolib ketar gumonlar,-
Qalbga —ishonch, ko'zga yosh to'lar,
Qushdeksanu, yo'qdek armonlar...

(*Muhammad Ali tarjimalari*)

Shoirimiz ruhining boshqa bir tomonini uning ajoyib she'ri «A.I.Odoevskiy xotirasi» namoyish etadi; bu qandaydir teran, ammo sokin o'ylardan, kuchli, lekin pokiza va pinhoniy tuyg'ulardan yaralgan latif musiqadir... Bu she'rda munis, qadrdon, dilni yayratadigan nimadir bor...

Og'ir hayajonda to oxirgi dam
Odamlar to'pida, bo'sh sahroda ham
Unda his yolqini o'chib bitmadi:
Moviy ko'zlaridan yog'du ketmadi,
Ketmadi jo'shqin nutq, yangroq quvonchi,
Odamlarga, istiqbolga mag'rur ishonchi.
Do'stlardan olisda halok bo'ldi u...
Pok qalbing tinch bo'lsin. Sasha, qadrdon!
Begona qirlarda dafn etildi u,
Mening xotiramning tilsiz qabrida
Do'stligimiz kabi, tinch olsin uyqu.
Sen ko'plar singari bedovruq o'lding,
Lekin so'ng damgacha sabotli bo'lding:
Abadiy yumilar ekan ko'zlaring
Sirli o'y-xayollar kezdi boshingda,
So'ng bor bo'lganlardan sening qoshingda
Hech kim anglamadi aytgan so'zlaring...
Jonajon vatanga salommidi bu,
Yo sendan ajralgan do'stlarning yodi,
Navqiron yoshlikdan judolik, qayg'u,
Yo xasta yurakning so'nggi faryodi —

Kim ayta oladi! Noma'lum qoldi
Alamli, ma'nodor so'nggi so'zlaring...
Ishlaring, o'ylaring izsiz yo'qoldi,
Oqshom bulutining hovri singari:
Bir zum ko'rinaru, shamol uchirar...
Qayoqqa? Nimaga? Qaydan? — Kim so'rar...

She'r naqadar ulkan, ohangga benihoya uyg'un yaxlit manzara bilan tugaydi:

Va sevding cho'llarning sokin osmonin,
Mehr qo'yding bahaybat tog'-cho'qqilarga;
Noma'lum qabringni, uning to'rt yonin,
Sen sevgan shu hamma go'zalliklar-la
Ajib bir taxlitda bezapti taqdir.
Zangori osmonday tilsiz cho'l-taqir,
Kavkaz kumush tojday bag'riga olgan,
Dengiz uzra mudrar, qovog'in solgan,
Boshin qalqon uzra egib bahodir
To'lqinlar qissasin tinglaganday jim
Qora dengiz esa guvlar betinim...

(*Asqad Muxtor tarjimasi*)

Mana, tafakkurda ham, ifodada ham chinakam bepoyonlik, estetikada yuksak (sublime) so'zining ma'nosini anglatishi lozim bo'lgan narsa mana shudir...

Shoir beozor qizni Bibi Maryamga, «sovuq dunyoning issiq homiysi»ga topshirgan ajoyib «Ibodat» (43-sahifa) she'rini keltirib o'tirmaymiz. Bu qiz kim bo'ladi — uning sevgilisimi, yoqimtoy singlisimi — gap unda emas. Lekin uning ohangida qanchalar dilkash samimiylik, dilni erkalovchi latofat bor. Naqadar yoqimli, issiq, ayollargagina xos bir tuyg'u! Bular bari inson qalbining eng nozik torlarini chertadi. Ammo mag'rur va qudratli ruh, arslon kabi kelbatli kishida emas, bu hol undan ham kuchliroqdir... Bu odamning she'rlari naqadar boy unsurlardan tarkib topgan! Bu she'riyatda naqadar turfa ohanglar sado beradi va so'lim bir kuy bo'lib quyiladi! Mana, «1-yanvar» deb sarlavha qo'yilgan pesa. Uni o'qirkanmiz, butunlay yangi

bir dunyoga kiramiz. Holbuki, undagi o'y-xayollarni ilgari uchratganmiz. Uning yuragi ham, shaxsi ham o'sha-o'sha. Shoir qurama olomon g'ovuri ichra, atrofida lip-lip ko'ringan qalbsiz qiyofalar — odob yuzasidan tarang tortilgan niqoblar orasida kezarkan, uning muzday qo'llari iltifotsiz dadillik bilan go'zal oyimchalarning osoyishta bo'lib qolgan qo'llariga tegib ketarkan, eski orzulari, qaytmas bo'lib ketgan yillarining muqaddas ohanglari bot-bot tirilib qolishini aytadi...

Bola paytim, mana, tanish bari-da,
Baland, hashamatli bino, narida —
O'z holiga tashlab qo'yilgan bir bog'.
Hovuzni qoplabdi yupqa o't, giyoh,
Olisda tutunli ko'rinar qishloq,
Dalalar ustida qalqiydi tuman.
Xiyobon kezaman, shoxchalar aro,
Shom nuri o'ynaydi, ko'nglim besafo
Xazon barglarini bosib yuraman.

Bu xil manzaralarni faqat Pushkindangina topish mumkin! Olmon shovqini mening orzumni hurkitgan paytda, deydi-u;

O, ular shodligin buzmoq istayman,
Shartta yuzlariga otmoq istayman.
Qahrli, alamli she'rim beomon!..

Agar Lermontovning hamma she'rlari bir xilda *yaxshi* bo'lmaganida, biz uni yaxshilardan bittasi, degan bo'lardik.

«Jurnalist, kitobxon va yozuvchi» ham g'oya, ham shakl, ham badiiy qiymati bilan Pushkinning «Kitob sotuvchining shoir bilan suhbati»ni eslatadi. Pesaning jonli so'zlashuv tili har qanday kamolotdan yuksakdir. Muhokamaning keskinligi, o'tkir va nozik istehzo, fikr va mulohazalarning originalligi va hayrotomuz darajadagi to'g'riligi g'oyat ajoyibdir. Pesa nihoyasidagi shoir iqrori qaynoq tuyg'u bilan, ko'z yosh bilan yozilgan. Undagi shoir shaxsi eng yuksak darajadagi olijanob shaxsdir.

«Go'dakka» degan ixcham lirik she'ri imo-ishoralar bilan, lekin juda tushunarli qilib bitilgan, butun bir qissani o'zida ifo-

dalay olgan she'rdir. O, bu qissa naqadar ibratli va u qalbni qanchalar larzaga sola oladi!..

Unda hamma narsa: aldangan sevgining bo'g'iq faryodi. Qat-qat qon yurakning mungli nolasi, shafqatsiz qarg'qishi, so'ng, balki ayol qalbi baxsh etgan hayotning shukronasi ham bor... Men seni naqadar sevaman, ajoyib bola! Seni unga g'oyat o'x-shash, deydilar. Garchi iztiroblar uni barvaqt cho'ktirgan bo'lsa-da, uning timsoli hamisha mening yuragimda...

A, sen meni sevarmisan, oh!
Kutilmagan iltifotim g'ashga tegmasmi?
Ko'zchalaring o'pdim bisyor, ozor emasmi?
Kuydirmasmi ko'z yoshlarim suyuk yuzingni?
Hazir bo'lgil, dardlarimga burma so'zingni,
Zinhor mendan og'iz ochma... Nechun? Ehtimol.
So'ylaganing kelar uning ko'ngliga malol..

Ammo inon so'zlarimga. Oqshom chog'ida,
Seni quchib, but oldida gohi-gohida
Bolalarning duosini shivirlagancha
Barmoqlaring xoch bandiga bosarkan, qancha —
Dilga yaqin ismlarni aytardi zor-zor,
Barchasini sadoqat-la qilarding takror.
Aytmaganmi birov nomin o'shanda yana?
Duo qilgin, demaganmi?.. U g'oyibona —

Bir ismni aytgan chiqar rangi oqarib...
Eslama, qo'y!.. Nom — quruq so'z, undan-da, g'arib!
Senga mudom sir qolsin-da bu nom, iloho.
Vaqt-soat kelib bir kun nogahon, ammo
Bilib qolsang, go'dakkina, istayman shuni:
Eslaginu la'natlama, qarg'ama uni!

(*Muhammad Ali tarjimasi*)

Nega endi bu yerda tavba yo'q? — so'rab qolishadi nosihlar. Ko'zoynak taqib olinglar-da, yaxshilab ko'ringlar, janoblar. Unda pesa qahramoni boladan so'raydi: u dilbar yana kim uchundir ibodat qilishni o'rgatmadimikin, ranglari oqargancha,

hozir bola unutib qo'ygan bir nomni tilga olmadimikin?.. Agar bola bu nomni bilgudek bo'lsa, uni la'natlamasligini so'raydi. Mana, axloqning chinakam tantanasi! Poetik fikr hayotimizni tashkil etgan voqea-hodisalarning qaysidir birining natijasida ham tug'ilishi mumkin. Lekin ko'pincha, deyarli hamisha u yuz berishi mumkin bo'lgan voqelikdan boshqa narsa emas. Shu sababli poeziyada «Bu bo'lganmi?» — degan savolga o'rin yo'q, lekin u «Bu haqiqatan bo'lishi mumkinmi?» degan savolga hamisha ijobiy javob berishi kerak. Ma'lum hayotiy voqeagina shoirda muayyan poetik g'oya hosil qilishi mumkin va u satrlarga quyilar ekan, butunlay boshqa, yangi, mislsiz va qudratli bir narsaga aylanadi. Shuning uchun ham shoir iste'dodi qancha yuksak bo'lsa, biz uning asarlarida o'z hayotimizga va boshqalar hayotiga muvofiq o'rinlarni shuncha ko'proq topamiz. Bugina emas. Biz uchun mutlaqo notanish bo'lgan sharoitda ham uni xuddi oldindan ko'rgandek, sal-pal bilgandek bo'lamiz va poeziyadagi juz'iylik nima uchun umumiylik ifodasi ekanligini tushunib olamiz. Lermontovning «qo'shni»sini o'qir ekansiz, garchi siz unda tasvir etilgan vaziyatda mutlaqo bo'lmagan bo'lsangiz ham, — sizda g'alati bir taassurot tug'iladi. Go'yo siz qachonlardir qamoqda bo'lgansiz, devor orqasidagi bir umr basharasini ko'rmagan qo'shningizni sevib qolgansiz. Uning bir maromdagi qadam tovushlariga, g'amgin ashulasiga quloq tutgansiz va ichingizda unga qarata:

Zulmatdagi sukunatda kuyingni ancha
Men tinglayman, qo'shiqlaring yangraydi xasta.
Ne haqida? Bilolmayman — lekin ko'p og'ir,
Juda hazin kuylanurlar va shunda bir-bir
Ko'z yoshidek quyiladi asta va asta,
Baxtli yillar chog'idagi umid — muhabbat
Yuragimda qayta boshdan jonlanar albat.
Ehtirosu istaklarga to'ladi boshim,
Qonim jo'shib ketib, shunda ko'zimdan yoshim —
Tovushlardek birin-ketin quyular yum-yum
Ko'zda yoshim, mungli kuying tinglayman men jim.

(Ergash tarjimasi)

Bu mustaqil va kuchli qalbdan sirg'alib chiqqan ohista, muloyim hasrat, ketma-ket quyilgan ko'z yoshlardek bir-biriga qo'shilib oqqan g'amgin, musiqiy ohanglardir. Ohanglar misoli izma-iz quyilib kelgan bu ko'z yoshlarda qanchalar sirli, takrorlab bo'lmas, lekin yurakka yaqin va oydin bir narsa bor! Bu yerda poeziya musiqaga aylanadi, voqelik operadagi kabi ohanglarga, ularning sirli ma'nolariga ishora bo'lib qoladi. Bu yerda hayot hodisasidan barcha moddiy, zohiriy jihatlari chiqarib tashlangan va undan birgina sof efir, unga bekingan shaffof yog'du ajratib olingan... Pesada ifodalangan voqelik fakt bo'la olishi mumkin. Lekin pesaning o'zi bu faktga tabiiy gulning faqat nozik qirmizi va nafis hidinigina singdirib olib, unga xos boshqa qolgan hamma moddalarni tashlab yuborgan poetik gul tabiiy gulga qanchalik taalluqli bo'lsa, shunchalik taalluqlidir...

Shoir o'ylari «Sarg'aya boshlagan dala mavj urib», «Ajralishdik, lekin aksingni birday», «Ne uchun» pesalarida dilkash va uyg'un, «Tashakkur» pesasida esa, g'amgin va dardchil bir tarzda ifoda qilinadi. Bulardan so'nggi ikkitasi haqida to'xtamasdan o'ta olmaymiz. Ular qisqa, bir qarashda umumiy ma'nodan xoli bo'lib, hech qanday ma'noni tashimaydilar. Biroq, yo rabbiy! Bularning har biri qanchalar g'amgin va ado bo'lmas qissani o'zida jo etgan! Naqadar ular teran mazmunli, naqadar tafakkurga to'la!

Qayg'ulikman, chunki men seni sevaman jondan,
Va bilarman: gul ochgan yoshliging bu zamonda
Mish-mishlarning quvg'ini ayab o'ltirmas zinhor.
Har bir shirin lahza-yu, har bir xushbaxt onki bor
Olib kelgan boshingga hasrat ila ko'z yoshi!
Qayg'ulikman... chunki sen shodlikka g'arq yosh boshing.
(*Muhammad Ali tarjimasi*)

Bu g'am-alam navosi, musiqiy entikish, muhabbatning beozor iztirobi, taqdir bo'roni shafqatsiz parchalab tashlagan yurakning benihoya sevgan narsasi bilan so'nggi vidolashuvidir!.. Va

ular naqadar hayratlanadigan darajada sodda! Bu yerda jo'shqin tuyg'uning birgina o'zi so'zlaydiki, uning ifodasi uchun hech bir poetik obraz shart emas. Uning uchun hech bir hasham va ziynatning hojati yo'q. Uning o'zi o'zi uchun so'zlaydi. U o'zi haqida proza yo'li bilan ham bemalol so'zlashi mumkin...

Tashakkur aytaman senga bari-chun:
Ehtirosning sirli alam-g'urbati,
Achchiq yosh, bo'saning og'usi uchun,
Dushmanlar qasosi, do'stlar tuhmati,
Malomatning achchiq kek-haqorati,
Behuda sarf bo'lgan qalb harorati,
Nedanki aldangan bo'lsam hayotda
Bari, bari uchun deyman tashakkur...
Endi shunday qilki, bundan bu yoqqa
Uzoq vaqt aytmayin qayta tashakkur.

(Temur Fattoh tarjimasi)

Bu g'amgin «tashakkur»da — hayotdan, tuyg'ulardan aldangan qalbning bu istehzolarida qandaydir fikr yashiringan? Hammasi — ehtirosning pinhon qiynoqlari ham, qaynoq ko'z yoshlari ham, hayotning barcha aldovlari ham yaxshi. Lekin, garchi yurak ularsiz yashay olmasa-da, ular yurak uchun chiroqqa yog'dek zarur bo'lsa-da, ularning bo'lmagani yanada yaxshiroq edi... Bu tuyg'ular toliqishidir. Yurak hayajonsiz va harakatsiz yashay olmasa-da, tinchlik va osoyishtalik so'rayotir... Bu pesaga Lermontovning «Otechestvennie zapiski»da bosilib chiqqan yangi «Vasiyat» she'ri pendant[352] kelishi mumkin. Bu hayot va uning barcha xom xayollarining motam qo'shig'idir. Uning sadosi bo'g'iq ham, qattiq ham emas, balki sovuq — osoyishtadir. Unda ifoda obrazlar bilan yonib, tovlanib turmaydi, aksincha, iltifotsiz va zavqsiz... Binobarin, bu dahshatliroq qo'shiqdir. Pesaning mazmuni: yaxshilik ham, yomonlik ham — baribir; yomonni yaxshi qilish bizning qo'limizda emas, shu sababli o'z holiga qo'ying, bo'lganicha bo'lar. Bu endi istehzo ham, kesatiq ham, shikoyat ham emas, chunki jahl

[352] Muvofiq (frans.) — Red.

chiqadigan, shikoyat qiladigan narsa yo'q. «Baribir!» Ota bilan onani xafa qilging kelmaydi... Ularning yonida bir qo'shni qiz bor. U bu haqda hech narsa so'ramaydi, albatta. Lekin bo'm-bo'sh qalbga rahm qilishning nima keragi bor qo'ying, yig'lasin. Axir, buning hechqisi yo'q-ku! Dahshatli!.. Lekin poeziya voqelikning o'zidir va shu sababli u nima voqe va nima bo'lishi mumkin, degan masalada shafqatsiz va ko'ngli qattiq bo'lishi lozim... Insonga esa, mana shular orqali ruhning holati o'tishi kerak. Musiqada uyg'unlik dissonans bilan belgilansa, ruhda faroqat iztirob bilan, tuyg'ular jo'shqinligi tuyg'ular qaqroqligi bilan, muhabbat nafrat bilan, qaynoq hayot hayotning yo'qligi bilan belgilanadi. Bular hamisha bir yurakda birgalikda yashaydigan qutblardir. Qayg'urmagan, yig'lamagan quvona olmaydi, kasal bo'lmagan tuzalmaydi, tiriklay o'lmagan haqiqat uchun qo'zqala olmaydi... Shoirga yoki yaxshisi, o'zingizga rahm qiling, chunki u o'z qalbidagi jarohat orqali sizning jarohatlaringizni ko'rsatadi. Lekin shoirga nisbatan ham, o'zingizga nisbatan ham umidsiz bo'lmang. Har ikkisida ham bo'ron sokinlik bilan, qayg'u yupanch bilan almashinadi...

Umid! — Garchi yillarning zil yuki beomondir,
Tajriba qorlariyu qish gumoni tagida.
Xazon bo'lgan gullarning urug'lari nihondir,
Balki ular unarlar, barg yozarlar taqi-da.

(Muhammad Ali tarjimasi)

Bayrondan ikki tarjima — «Yahudiy navosi» va «Albomga» ham shoir qalbining ichki olamini ifoda etadi. Bu — yurak iztirobi, qalbning og'ir entikishi, bu — halok bo'lgan quvonchlar qabr toshidagi yodgorlik yozuvlaridir...

Mayli, kuying bo'lsin yovvoyi, mungli,
Sharaf chambariday shodlik menga yot.
Ko'zyosh qilmoqni istaydi ko'nglim,
Yo'qsa, dil azobdan bo'lajak barbod.
Uqubat, qayg'uga lim to'libdi u,
O'rtandi uzoq va besas tutadi.

Dahshatli on etdi — u xuddi og'u —
To'la kosa misol o'lim kutadi.

(Jumaniyoz Jabborov tarjimasi)

«Falastin butog'i» va «Bulutlar» shoirimizning sub'ektiv she'rlaridan sof badiiy she'rlarga o'tish nuqtasini tashkil etadi. Har ikkala pesada ham hali shoir shaxsi ko'rinib turadi. Lekin ayni paytda, uning «shuhratga to'la ijod»ni mushohada etmoq uchun o'z ruhining ichki olamidan chiqishi ham seziladi. Ulardan birida qalbning farog'atdagi osoyishtaligi, ibodatdagi iliqlik, muqaddaslikning harir shabadasi ufurib turadi. Bu pesa haqida, unda Falastin butog'i haqida nimaiki deyilgan bo'lsa, shuni aytish mumkin:

Maxfiy g'amxo'rlikning bo'lib guvohi,
Oltin xoch qoshiga qo'ndirilibsan.
Ey, Yerusalimning butog'i-shoxi,
Sen unga muqaddas soqchi turibsan.
Musaffo oqshomu lampadagi nur,
Xoch, sanam muqaddas ramzidir faqat,
Borliq to'lib-toshgan, sevinch va surur
Atrofu tepangda turibdi qat-qat.

(Ergash tarjimasi)

Ikkinchi pesa «Bulutlar» qandaydir sog'ayishga moyillikning, orzularning shodon tuyg'ulari bilan to'la bo'lib, mehr va jozibaga, rangin poetik obrazlarga boyligi bilan asir etadi.

Biz Lermontovning shoir shaxsi hayot hodisalarining boy manzarasi ortida ko'rinmay qoladigan qator sof badiiy asarlari tahlilini «Suv parisi» bilan boshlaymiz. Bu pesa koloritga benihoya boy va manzaralar ranginligi, poetik obrazlar mo'l-ko'lligi, badiiy jilo uni rus poeziyasining qimmatbaho injulari qatoriga qo'yadi. «Uch xurmo»da Sharqning jazirama tabiati ufurib turadi. U bizni Arabistonning qumlik sahrolariga, gullayotgan vohalariga eltadi. Shoir fikri aniq ko'rinib turadi. U o'z pesasida nasihatgo'ylikka o'tib ketmaydi, chinakam shoirlardek yo'l tutadi. Bu fikr faqat Sharq koloriti bilangina poetiklashuvi va undagi «Sharq afsonasi» sarlavhasi o'zini oqlashi mumkin edi.

Aks holda, bolalarcha fikrlash bo'lur edi. Obrazlarning nafis va qabariqligi, bo'rtma shakl, sharqona ranglarning yorqin tovlanishi unda poeziya bilan tasviriy san'atning qo'shilib ketganidan darak beradi. Bu go'yo Bryullov kartinasi: uni tomosha qilar ekansan, qo'lga olging keladi.

...Shunda birpasda
Oltin qum bo'roni boshlandi dashtda,
Qo'ng'iroq sadosi eshitildi tez,
Gilamga o'ralgan yuklar izma-iz,
Dengiz qayiqlarisimon tebranib,
Kelardi tuyalar qumlarni yorib.
Hilpillab borardi o'rkachlardagi
Safar chodirlarin naqshdor etagi,
Qo'llar ko'tarardi ularni ba'zan,
Qora ko'zlar chaqnab qolar daf'atan...
Egarning qoshiga bosib qomatin,
Arab yo'rtar edi tim qora otin,
Ba'zan ot tip-tikka bo'lib olardi,
O'q tekkan yo'lbarsday sakrab qolardi,
Yigitning kiftida hilpirab borar
Oppoq libosida chiroyli taxlar,
Shovqin-suron bilan uchib borar u.
Nayza otar, yana ilib olar u.

(T.Fattoh tarjimasi)

Bunday she'rlarni maqtamoqqa hojat yo'q. Ular o'zlari haqida o'zlari so'zlaydilar va barcha maqtovlardan yuksak turadilar.

«Terek sovg'alari» Kavkazning she'riy gimnidir. Faqat goeklarninggina boy va go'zal fantaziyasi tabiatni shunday jonlantira olar va uning tilsiz, sochilgan hodisalariga nom va timsol topib bera olar edi. Hayratomuz darajada san'atkorona yozilgan, kamalakday rangin, go'zal va bepoyon fantaziyaga limmo-lim bu she'rdan namunalar keltirish imkoniga ega emasmiz. Aks holda, she'rning hammasini ko'chirishga to'g'ri kelardi. Terek va Kaspiy Kavkazni o'zida mujassamlashtirib bera oladi. Shuning uchun ham ular nomida butun Kavkaz namoyon bo'ladi.

Terek Kaspiyga qimmatbaho sovg'a keltiradi, lekin tanbal, ishratparast dengiz jo'shqin to'lqinlarga ham, azamat kabardin jasadiga ham qayrilib qaramaydi, yumshoq sohilga bosh qo'ygancha jimjit mudraydi. Ammo Terek unga olamdagi barcha sovg'alardan eng qimmatlisini keltirar ekan:

... To'lqin yuvgan, qorday oppoq —
Kokilli bosh bir silkindi,
Suv bag'riga chiqdi shu choq.
Qalqdi yashin qudrat-la
Pahlavon chol o'tday chaqnab.
Moviy ko'zi quvonch bilan
Charaqladi hirsdan yashnab.
Quvnab, guvlab o'yin soldi
Keng qulochin katta ochib.
Mehr bilan quchib oldi
To'lqinlarni ishq-la toshib.

(Aziz Abdurazzoq tarjimasi)

Biz Lermontovni Bayron ham, Gyote ham, Pushkin ham demaymiz. Lekin "Suv parisi», «Uch xurmo» va «Terek sovg'alari» kabi she'rlarni faqatgina Bayron, Gyote va Pushkin kabi shoirlardagina uchratish mumkin, desak, o'ylaymizki, maqtovini oshirmagan bo'lamiz...

«Kavkaz allasi» ham juda go'zal bo'lib, yuqoridagilardan qolishmaydi. Uning g'oyasi — ona; lekin shoir bu umumiy g'oyaga individual mazmun bera olgan. Uning onasi — kazak ayol. Shu sababli uning allasi o'zida kazak turmushining xususiyatlarini va o'ziga xos ohanglarini ifoda etadi. Bu she'r ona sha'niga bitilgan gimndir. Ona muhabbati naqadar muqaddas, naqadar fidoyi bo'lsa, undagi bor hayajon, mehr, ehtiros, undagi poyonsiz muloyim nazokat, nihoyasiz xolis sadoqat — barchasi shoir tomonidan butun to'laligi bilan aks ettirilgan. Shoir shu qadar sodda so'zlarni, ko'ngilni erituvchi nafis ohangni, dilkash va muloyim sadolarni, ifodadagi ko'rkamlik va ayol qalbiga xos mayinlikni qayerdan oldi ekan? U Kavkazni ko'rgan, binobarin, Kavkaz manzaralarining bu qadar haqqoniy chizilishining sababi ma'lum. U Arabistonni ko'rmagan, hech-

qisi yo'q, jazirama oftob, qum sahrolari, ko'm-ko'k xurmolar, salqin buloqlar haqida tushuncha, biror narsa bera olmasa-da, bular tasvirlangan asarlarni o'qigan. Ammo u ayol hissiyotining, ona tuyg'ularining sehrli olamiga qanday bu qadar teran kira oldi ekan?

Ertak aytay senga, qo'zim,
Aytay ashula;
Sen uxlagin, ko'zlaring yum,
Alla, jon, alla.
Botir bo'lar savlating bor,
Kazak bo'larsan,
Uzatgali onang borar,
Xayrlasharsan,
O'sha kecha men ham yashrin —
Yig'larman qancha,
Yot, farishtam, tinchib shirin,
Allayu alla.
Sog'inarman, zoriqarman,
Bo'lib intizor;
Tunlar fol ochib chiqarman,
Kunduz duo-zor.
Sog'inadi yot ellarda —
Deyman, jon bola...
Yot, beg'amsan bu yillarda,
Alla, jon alla.
Senga beray, bolam, yo'lga
Muqaddas surat:
Doim uni olib qo'lga
Etgil ibodat;
Hay, shaylanib og'ir jangga
Kirganing palla —
Yod et meni, bolajonim,
Allayu alla.

(Mirtemir tarjimasi)

«Havo kemasi» aslida Zeydlisdan tarjima emas. Lermontov nemis shoiridan faqat g'oyanigina oldi va unga butunlay bosh-

qacha jilo berdi. Bu pesa, – badiiyatiga ko'ra, – unda o'zining ulug'vor tasvirini topgan qudratli siymoning buyuk timsoliga munosibdir. Gyotening shoirimiz tomonidan shu qadarli ajoyib ifodalab berilgan kichkina pesasida esa, jazirama kun so'ngidagi tunning naqadar sokin, kishini tinchlantiruvchi hissiyoti bor:

Tog' ko'zi ilindi,
Parda yoymish tun;
Tinch vodiyni endi
Shom chirmar butun;
Yo'llar suv quygandek,
Sokin barglar sha'n...
Sen ham shoshma andak,
Tinching olarsan.

(*M. Qo'shmoqov tarjimasi*)

Endi Lermontovning «Msiri» poemasini ko'rib chiqish qoldi. Asir olingan cherkas bolasi gruzin monastirida tarbiyalanadi. Ulg'aygach, u monax bo'lmoqchi yoki uni monax qilishmoqchi edi. Lekin bir kuni yuz bergan dashhatli bo'ron paytida cherkas g'oyib bo'ladi. Uni uch kun izlaydilar. To'rtinchi kun deganda monastirga yaqin bir cho'ldan madori qurib, kasal, o'lardan beri bo'lib qolgan bir holda topib oladilar va uni olib keladilar. Poemaning deyarli hammasi shu uch kun ichida uning qalbida kechgan kechinmalarning iqroridan tashkil topgan. Bolalik xotiralari bo'lib, qalbida pinhon yashab kelayotgan vatan xayoli uni ko'pdan o'ziga asir etgan edi. U yorug' dunyoni ko'rmoq istadi va bosh olib ketdi.

...Poemaning yetakchi fikri balog'atga yetib ulgurmagani yaqqol ko'rinib turibdi. U shoirga poeziyaning shu qadar qimmatbaho injularini sizning oldingizga to'kib tashlash imkoniyatini bergan ekan, buning sababi boshqa yerda. Bu o'rtamiyona librettoning sayozgina mazmuni genial kompozitorning ajoyib operasiga zamin bo'la olishidek gap. Yaqinda kimdir bir gazeta maqolasida Lermontov she'rlari haqida gap sotib, uning «Shoh Ivan Vasilevich, navjuvon yasovul va azamat savdogar Kalashnikov haqida qissa»sini balog'atga yetmagan, «Msiri»ni esa balog'atga yetgan asar, depti. Chuqur mulohaza qiluvchi

tanqidparastimiz har ikki poemaning maydonga kelish vaqtini barmoq bilan sanab chiqibdi-da, hayratomuz bir donishmandlik bilan muallif «Msiri»ni uch yoshga ulg'ayganidan keyin yozganligini kashf etibdi va bu favqulodda kashfiyot asosida erqo[353] «Msiri» balog'atga yetgan asar, degan xulosaga kelibdi. Bu tushunarli hol. Kimdaki estetik tuyg'u bo'lmasa, kimgaki poetik asar o'zi haqida o'zi so'zlab bermasa, unday kishining u haqda folbinlik qilishdan yoki vaznlar mezoniga qarab fikr yuritishdan boshqa iloji qolmaydi...

Lekin «Msiri» g'oyaviy nomukammal, mazmunan bir qadar cho'ziq bo'lishiga qaramay, undagi ifoda va tafsilotlar ijrosi kishini hayratga soladi. Hech mubolag'asiz aytish mumkinki, shoir kamalakdan rang, quyoshdan yog'du, chaqmoqdan chaqin, momaqaldiroqdan guldurak, shamoldan esa shiddat olgan. Yo'q, yo'q, butun tabiat u o'z poemasini yozayotgan damda unga bor ne'matini o'zi keltirib tutib turgan... Go'yo shoir ichki ehtiros ummonining, qaynoq hayot va yorqin poetik obrazlar olamining shu qadar iskanjasida qolganki, u bulardan qutulish uchun ko'z oldidan lip etib o'tib qolgan har qanday fikrdan foydalanishga ham tayyor turgan, natijada ular olovli tog'lardan otilgan qaynoq lavadek, yeru ko'kni quyundek bosib osmondan quyulgan seldek, birdan hamma yoqni yalab-yulqib o'tgan, zarbdor to'lqinlari bilan uzoq-uzoqlarni ham o'z qa'riga olgan shiddatli oqimdek uning qalbidan otilib chiqqan... «Shilon tutquni» singari, urg'u so'nggi bo'g'inga tushuvchi to'rt stopali yamb ohangdor jaranglaydi. So'nggi bo'g'indagi urg'u safni bir tekis urib yiqitayotgan qilich zarbidek tushadi. Mayinlik va shijoat, ohangning bir xil, jarangdor ritmi beadad kuchga ega bo'lgan qudratli vujudning qaynoq tuyg'usi bilan poema qahramonining foje ahvolini ajib bir tarzda uyg'unlashtiradi. Holbuki, u yerda naqadar anvoyi obraz va tuyg'ular, manzaralar bor! Bu yerda ruhning bo'roni ham, yurakning yoshday erishi ham, umidsizlikdagi faryod ham, sokin zorlanish ham, shiddatkor g'azab ham, tunning zulmati ham, tongning tantanavor ulug'ligi ham, kun o'rtadagi yolqin ham, kechdagi sirli joziba ham — hammasi bor!.. Asardagi juda ko'p o'rinlar tasviri o'zi-

[353] Binobarin — mux.

ning haqqoniyligi bilan hayratga soladi. Ko'ksi o'lim oldidagi otash bilan yongan, horg'in boshiga osuda o'lim sharpasi qo'ngan, xayolida narigi olamning farishta — maloyikalari charx urgan bir ahvoldagi Msirining monastir oldida dahshatdan qotishi tasviri o'shanday joylardan. Undagi tabiat manzaralari ulug' san'atkor mahoratini oshkor etib qo'yadi. Ularda Kavkaz o'zining ulug'vor, serhasham jilosini topgan. Kavkaz shoirimiz muzasining buyuk iltifotiga sazovor bo'ldi... Ajab hol! Bizning poetik iste'dodlarimizga beshik bo'lmoq, ularning she'riy vatani, ular muzasining ilhomchisi va murabbiysi bo'lmoq Kavkazga nasib etgan ekan-da! Pushkin o'zining ilk poemalaridan biri «Kavkaz asiri»ni Kavkazga bag'ishlagan edi. Uning so'nggi poemalaridan biri «g'olib» ham Kavkazga bag'ishlangan. Uning bir qancha dilbar lirik she'rlari ham Kavkaz bilan bog'langan. Griboedov Kavkazda o'zining «Aqllilik balosi»ni yaratdi. Bu o'lkaning yovvoyi, ulug'vor tabiati, qaynoq hayoti va farzandlarining shafqatsiz poeziyasi, shoirning tahqirlangan tuyg'ularini Famusov, Skalozubov, Zagoreskiy, Xlestov, Tugouxovskiy, Repetilov, Molchalin kabi inson tabiati hajvi bo'lmish loqayd, bo'lmag'ur to'dani tasvirlashga ilhomlantirdi... Mana, yangi bir ulug' iste'dod maydonga keldi va Kavkaz uning ehtiros bilan sevgan poetik vatani bo'lib qoldi. Kavkazning oppoq qorga burkangan ko'z ilg'amas cho'qqilarida u o'z Parnasini topdi. Uning shiddatli Terekida, shoshqin tog' soylarida, shifobaxsh buloqlarida o'z Ipokreniga kastal kalitini topdi... Lermontovning bu vaqtlar, — bir payt «Aqllilik balosi» bilan ro'y berganidek, — qo'lyozma holida qo'lma-qo'l bo'lib yurgan, voqeasi Kavkazda kechadigan yana bir poemasi, juda afsuski, bosilmagan: biz «Demon»ni ko'zda tutyapmiz. Undagi fikr «Msiri»ga nisbatan teran va beqiyos yetukdir. Garchi undagi ifoda bir qadar sustroq bo'lsa-da, manzaralar boyligi, jo'shqin poetik ehtiros, quyma satrlar, fikrlar yuksakligi, obrazlarning ko'rkam bir jozibadorligi uni «Msiri»dan yuksak o'ringa qo'yadi va uning sha'niga aytiladigan barcha maqtovlardan yuqori turadi. Bu chinakam san'at qoidalariga bekamu ko'st to'g'ri keluvchi yetuk badiiy kashfiyot emas, lekin u shoir iste'dodining butun qudratini ko'rsatib turadi va kelajakda buyuk badiiy kashfiyotlar va'da qiladi.

Umuman, Lermontov poeziyasi haqida gap ketar ekan, undagi bir kamchilikni aytib o'tish zarur. U ham bo'lsa, ba'zi obrazlarning ravshan bo'lmay qolishi va ifoda noaniqligiga yo'l qo'yishidir. Masalan, «Terek sovg'alari»da zardasi tez oqim Kaspiyga o'lgan kazak qizning chiroyini tasvir etar ekan, uning o'limi sabablari, yovqur kazak bilan munosabatiga noaniq bir ishora bor:

Faqat bitta yovqur kazak
Stanitsa – qishlog'ida
Qiz qo'ynida xafagazak, –
Yurmas daryo qirg'og'ida.
Qorabayir otin jangga,
Egarlagan tunda tog'da,
Yovuz chechen urgan xanja,
Boshin uzar qizg'in choqda.

(A.Abdurazzoq tarjimasi)

Bu yerda uchta ehtimol tutilgan narsani topib olish o'quvchi ixtiyoriga qoldiriladi: chechen kazak qizni o'ldirgan, kazak sevgilisining o'limi uchun o'zini intiqomga duchor etgan; yoki kazakning o'zi uni rashk qilib o'ldirgan va endi o'ziga o'lim izlamoqda; yoki u hali o'z sevgilisining halokati haqida hech narsa bilmaydi va shu sababli jangga tayyorlanar ekan, u haqda qayg'urmaydi. Bunday noaniqlik badiiylikka putur yetkazadi, chunki badiiylikning o'zi muayyan fikrni aniq, qabariq, yorqin obrazlarda yetkazmoqdir. Lermontov kitobchasida uning «Shoir» nomli ajoyib pesasi xotimasidagiga o'xshash besh-olti mujmal ifodani topish mumkin:

Xo'rlangan payg'ambar, uyg'onarmisan!
Yo qasos chorlagan paytda ham endi
Hech vaqt olmasmisan oltin qinidan,
Nafrat zangi bosgan shu shamshiringiz?..

(A.Muxtor tarjimasi)

Nafrat zangi – noaniq, majozga juda yaqinlab keladigan ifoda. Poetik asardagi har bir so'z butun asar talab etadigan

fikrning barcha ma'nolarini shu qadar qamrab olgan bo'lsinki, uni xuddi shu yerda almashtira oluvchi ikkinchi bir so'zning tilda yo'g'ligi bilinib tursin. Pushkin bu jihatdan ham benihoya o'rnak bo'lgulikdir. Uning jami asarlarida birorta ham ozgina bo'lsin mujmal, zo'raki ifodani, hatto so'zni qidirib topish qiyin... Lekin biz Lermontov kitobida ham besh yoki olti o'rindagina shunday g'alatlik bor, deymiz xolos. Qolgan hammasida badiiy takt shu qadar kuchli va latif, ifodalar pushkinona aniq va til muallif qalamiga itoat va sadoqat bilan xizmat qiladiki, hayratga tushmay iloj yo'q.

Lermontov she'rlariga umumiy nazar tashlar ekanmiz, unda hayot va poeziyani bunyod etuvchi barcha kuch va elementlarni ko'ramiz. Bu teran naturada, bu qudratli ruhda hamma narsa bor. Unga hayotning barcha sirlari ma'lum va tushunarli. U ularning hammasiga aks-sado bera oladi. U rang-barang hayot olamining mutlaq hokimi. U ularni chinakam san'atkordek qayta yaratadi. U butun qalbi bilan rus shoiri. Unda rus hayotining o'tmishi ham, kelajagi ham barhayot. U o'z qalbining ichki olami bilan teran tanishdir. Ruhning metindek mustahkam kuch va qudrati, zaif zorlanish, ibodatning osuda farog'ati, alangali, bo'ronli tug'yon, sokin g'am, muloyim o'ychanlik, viqorli iztirob faryodi, umidsizlik nolasi, tuyg'uning sehrli nafosati, dadil orzularning tiyib bo'lmas shiddati, iffatli bir pokizalik, mavjud jamiyatning illatlari, bashar hayotining manzaralari, hayotning xumor jozibasi, vijdon azobi, dilni rom etuvchi o'kinch, nolakor ehtiros, hayot bo'ronlari bilan chulg'angan yurakka bir maromda quyiluvchi ohanglardek osuda ko'z yoshlar, muhabbat zavq-shavqi, hijron iztirobi, visol quvonchi, onalik tuyg'usi, hayot ikir-chikirlariga nafrat, quvonchga telbalarcha ishtiyoq, xilqatning bor ziynatidan qonib-qonib lazzat olayotgan ruhning sururi, buyuk ishonch, bo'm-bo'sh qalb qiynog'i, o'z turmushining zerikarli va bachkana ekanligini his etgan kishining o'zidan jirkanuvchi nidosi, inkor zahri, shubhaning sovuq nafasi, jo'shqin tuyg'ularning mulohazaning vazmin qudratiga qarshi kurashi, tuban osmoniy ruh, mag'rur demon va begunoh chaqaloq, asov vakxanka va pokiza qiz — hamma-hammasi Lermontov poeziyasida: osmon ham, yer ham, jannat ham, do'zax ham... Fikrning teranligi, poetik ob-

razlarning mo'l-ko'lligi, poetik jozibaning hayratomuz, ta'sirchan kuchi, jo'shqin hayot tasviri va tipik originallik, favvora singari shoshqin otiluvchi tuganmas qudrati jihatidan uning asarlari buyuk shoirlarning asarlarini esga soladi. Uning ijodi endigina boshlandi. Lekin u naqadar ko'p ish qila oldi, go'zallikni naqadar nozik mushohada etishini namoyish qila oldi. Shunday ekan, kelajakda undan nimalar kutish mumkin? Hozircha biz uni Bayron ham, Gyote ham, Pushkin ham deya olmaymiz va vaqti kelib undan Bayron, Gyote yoki Pushkin chiqsin, demaymiz ham. Chunki bizning ishonchimiz komil: undan unisi ham, bunisi ham, uchinchisi ham chiqmaydi. Undan Lermontov chiqadi... Ko'pchilikning nazarida haddan tashqari maqtab yuborayotgandek bo'lishimiz mumkin. Lekin biz hozircha hech kim ishonmaydigan, ammo ko'p o'tmay, jamiyatning e'tirofini birinchi kim aytgani va jamiyat buning uchun kimni masxara etganligini unutib, hamma maqtashga tushadigan bir masala xususida keskin va aniq fikr bildirishdek qiyin vazifani zimmamizga olganmiz... Yangi yuz ochgan iste'dod asarlarida muhrlangan ruhning guvohligi olomonga hech narsa anglatmaydi. U o'z mulohazalarini mazkur asarlarga tayanib emas, balki boshqa narsalarga qarab, masalan, eng avvalo u haqda muhtaram zotlarning, xizmat ko'rsatgan adabiyotchilarning fikrlari qanday, so'ng qolganlar nima deydilar — shularga qarab bildiradi. U yosh shoir asarlarini o'qiganida hayajonga tushsa hamki, uni o'z ma'nosini anglab yetmaydigan, lekin hamisha tinglagan va hurmat qilib o'rganib qolgan biror nom bilan taqqoslab qolishsa, ko'zlarini ola-kula qilishadi... Olomonda haqiqatga ishonch degan narsa yo'q. U o'z tuyg'ulariga, aqliga emas, balki nufuzlarga ishonadi va yaxshi qiladi... U shoir qarshisida tiz cho'kishi uchun avval shoirning dong'i chiqqan bo'lishi, o'zi bu nomga ko'nikkan bo'lishi, o'zidagi bema'no hayratini bir lahza o'g'irlagan ko'plab arzimas nomlarni unutishi lozim. Procul profani[354].

Nima bo'lganda ham, olomon ichida ham olomondan yuksakka ko'tarilgan kishilar bor. Ular bizni tushunishadi. Ular Lermontovni allaqanday qofiyaboz-safsatabozdan, Rossiyaning

[354] Chekin, g'ofillar... (lotincha — mux.)

shuhrati haqida baqirib-chaqirgani uchungina (garchi u bunga mutlaqo muhtoj bo'lmasa-da) o'zini milliy ruh namoyandasi deb jar solib, go'yo hozirdan jon taslim etayotgan Yevropaning tarixidagi qahramonlardan nemis studentlariga o'xshash bir narsa chiqarib, vandallarcha kuluvchilardan farqlashadi... Ular Lermontov haqida bizning mulohazalarimizni ham biron jurnalning har sonida bitta, ba'zan hatto ikkita qissasi bosilib turadigan va o'sha jurnalning torgina doirasi uchungina mumtoz hisoblangan, lekin umuman, tuzukkina iste'dod egalari hisoblanmish yozuvchilar haqida aytilib turadigan «asarlariga barcha did sohiblari, hatto barcha adabiy partiyalar tan bergan zamonamizning eng yaxshi yozuvchisi» qabilidagi gaplardan farqlay olishlariga ishonchimiz komil. Biz ishonamizki, ular hanuz o'z hayotlarining gullab-yashnagan davridagi didi saviyasida turgan keksa avlodning yangilikni his qila olmaslik, tushunmaslik orqasidagi ohu fig'onini ham kerakli darajada anglay oladilar...

Va biz barcha didlar, barcha adabiy partiyalar Lermontov asarlariga chinakam (*hazilakam emas*) tan bera boshlaganligini ko'rib turibmiz. Adabiyotda uning nomi xalq nomi bo'lib qoladigan, poeziyasining uyg'un sadolari xalqning kundalik gap-so'zidan, turmush tashvishlari lahjasidan eshitilib turadigan zamon uzoq emas...

MUNDARIJA

ILMDA QO'RIQ OCHGAN OLIM 3

O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTINING AYRIM NAZARIY VA AMALIY MASALALARI

Avliyolar sarvari 8
Millatimiz timsoli 19
Navoiy va muammo janri. 22
Navoiy ijodini o'rganishning ayrim masalalari 28
So'nmas yulduz 32
Komronga maktub 40
Ulug'larni anglash siri 44
Turkiy adabiyotlarni davrlashtirish masalasi 50

JADIDCHILIK MASALANING TARIXIGA BIR NAZAR

Kirish 60
Istiloh haqida 61
Xarakter-yo'nalishi 62
O'rganilishi 64
Jadidchilikning tamal toshi («Usuli jadid» maktablari)... 73
Uyg'onmoq dunyo bilan barobar yashamoqdir (Oliy ta'lim tashvishlari) 83
Jadid matbuotchiligi 92
Turkiston davriy matbuoti tarixidan 92
Qardoshlik, hamkorlik 95
«Tarjimon» va Turkiston 96
Tatar matbuoti va Turkistonda jadidchilik 105
Turkiston matbuoti sahifalarida 113
Millat, milliyat...(Jadidlarda milliy g'oya va mafkura) 119

Jadidchilik va ijtimoiy-siyosiy harakatchilik..... 129
Tashkiliy qurilishlar yo'lida Ittihod va taraqqiy..... 145
Ittifoqi muslimin..... 148
Jadidlar va Davlat Dumasi..... 154
Mahalliy jamiyatlar, uyushmalar..... 156
Jadidlar va sotsializm..... 167
Adabiyot — millat oynasi..... 179
Jadid adabiyoti haqida ayrim qaydlar..... 183
Jadid she'riyatida davr voqealari..... 195
Vatanni nega sevadilar?..... 220
Yangi tafakkur: izlanishlar, mashaqqatlar..... 224
Mahmudxo'ja Behbudiy (1875—1919)..... 236
Fitrat..... 253
Avlod tarbiyasi — millat tarbiyasi..... 321
Mafkura haqida ba'zi mulohazalar..... 326
Millat g'ururi..... 331
Olam ichra olam bo'lmoq..... 338
Professor I.Baldauf mutolaalari..... 346

ADABIY HAMKORLIK SAHIFALARI
DO'STLIK IPLARI

1. Shahri Bulg'or hikoyati..... 353
2. Bulg'or haqiqati..... 355
3. Saroy yozmishi..... 358
4. Suyumbeka minorasi..... 360
5. Birinchi may maydoni..... 362
6. Ona allasi..... 363
7. Buxoro saboqlari..... 365
8. Shihobiddin Marjoniy..... 368
9. Ey Qozon, dardli Qozon, mungli Qozon, nurli Qozon..... 373
10. Universitet kutubxonasida..... 374
11. Istiqbolga yo'l izlab..... 380
Tohir Chig'atoyning Bambergdagi shogirdi. 390
O'zbek-turk adabiy aloqalari 397
To'pqopidan To'pqopiga..... 406
Ayo Sufiya..... 413

Turkiyada milliyat..... 416
Istanbulda «O'zbeklar takyasi»..... 421
Turkistonliklar..... 425
Qora dengiz bo'ylab..... 435
Qaysaridagi yassaviyxonlik..... 441
Hamkorlik yo'llarida..... 454
Derinko'y..... 472
Sodiq Turol..... 475
Javod Hay'at..... 482

TARJIMALARDAN

V.G.Belinskiy. Lermontov she'rlari..... 511

QAYD UCHUN

QAYD UCHUN

QAYD UCHUN

BEGALI QOSIMOV

O'ZBEK ADABIYOTI VA ADABIY ALOQALARI TARIXI

Toshkent — «Fan va texnologiya» — 2008

Muharrir:	M.Mirkomilov
Tex. muharrir:	A.Moydinov
Musahhih:	M.Hayitova
Kompyuterda sahifalovchi:	A.Shaxamedov

Bosishga ruxsat etildi 30.09.2008. Bichimi 60x80 $^{1}/_{16}$.
«Timez New Roman» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'38,0. Nashriyot hisob tabog'i 37,5.
Tiraji 1000. Buyurtma №72.

«Fan va texnologiyalar Markazining
bosmaxonasi»da chop etildi.
700003, Toshkent shahri,
Olmazor ko'chasi, 171-uy.

ISBN 978-9943-10-131-9